Формирование исторической субъектности в данном контексте проявлялось не только в идеологической сфере, но и в институциональной практике. Создание новометодных школ, общественных объединений, публикация книг и газет стало материальным выражением новой интеллектуальной парадигмы туркестанского общества конца XIX – начала XX века Туркестана, где общество переходило от состояния адаптации к состоянию осознанного исторического действия. Этот переход и составляет основной результат джадидского просветительского движения в интеллектуальной истории XX века. Генезис их просветительских идей представляет собой не эпизод культурной истории, а является структурным моментом становления исторической субъектности общества.

Таким образом, в широкой перспективе джадидизм следует рассматривать как важный этап интеллектуальной истории Центральной Азии, оказавший влияние на процессы национального самоопределения, культурной модернизации и формирования политического сознания региона. Он продемонстрировал возможность органического соединения религиозной традиции и рационального реформизма, тем самым заложив основу для дальнейшей трансформации туркестанского общества XX века. Осмысление этого опыта позволяет по-новому взглянуть на процессы модернизации в Центральной Азии конца XIX – начала XX века и определить место и роль джадидизма в истории исламской интеллектуальной мысли.

Список литературы

1. Гаспринский И. Русское мусульманство. – Казань: Татарское книжное издательство, 1991. – 224 с. Каталог РГБ: URL.: https://search.rsl.ru/ WorldCat (разные издания): Каталог РГБ: URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001692992 WorldCat: URL: https://www.worldcat.org/title/36174652

2. Riexinger M. Islamic Reform and Modernity in the Late Ottoman Empire and Central Asia // Die Welt des Islams. – 2004. – Vol. 44, № 2-3. – P. 204-232. URL: https://www.jstor.org/stable/1571373

3. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley; Los Angeles; London : University of California Press, 1998. – 334 p. Издательство (UC Press): URL: https://www.ucpress.edu/book/9780520213546/the-politics-of-muslim-cultural-

reform. WorldCat: URL: https://www.worldcat.org/title/37341157 Google Books (метаданные и страницы): https://books.google.com/books?id=5sj1q6x9bH0C

4.Фитрат А. Избранные произведения. – Ташкент: Фан, 1996. – 384 с. Каталог Национальной библиотеки Узбекистана: URL: https://natlib.uz/ WorldCat: URL: https://www.worldcat.org/search?q=Fitrat+Izbrannye+proizvedeniia

5. Frank A. Islamic Historiography and «Bulghar» Identity among the Tatars and Bashkirs of Russia. – Leiden; Boston: Brill, 1998. – 318 p. Ссылка издательства: URL: https://brill.com/view/title/1651 WorldCat: URL: https://www.worldcat.org/title/39158352;

6. Frank, Allen J. Muslim Religious Institutions in Imperial Russia: The Islamic World of Novouzensk District and the Kazakh Inner Horde, 1780–1910. – Leiden; Boston: Brill, 2001. – 341 с. Ссылка издательства: URL: https://brill.com/view/title/7542

7. Sartori P. Visions of Justice: Shariʿa and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden; Boston: Brill, 2016. – 356 p. Ссылка издательства: URL: https://brill.com/view/title/31928. URL: WorldCat: https://www.worldcat.org/title/930860317

8.тАбашин С. Советский кишлак: между колониализмом и модернизацией. – М.: Новое литературное обозрение, 2015. – 848 с. Ссылка издательства: URL:

https://www.nlobooks.ru/books/istoricheskaya_biblioteka/9608/.WorldCat: URL: https://www.worldcat.org/title/920623517

9. Crews R. D. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. 463 p. Harvard University Press: URL: https://www.hup.harvard.edu/books/9780674021647

10. Sahadeo J. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923. Bloomington: Indiana University Press, 2007. 352 p. Indiana University Press: URL: https://iupress.org/9780253348669

11. Tuna M. Imperial Russia’s Muslims: Islam, Empire, and European Modernity, 1788–1914. Cambridge: Cambridge University Press, 2015. 284 p. Cambridge Core: URL: https://www.cambridge.org/9781107032826

12. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Revised Edition. London; New York: Verso, 2006. 240 p. Verso: URL: https://www.versobooks.com/products/233-imagined-communities

УЛАР ЖАДИДЧИ МАЪРИФАТПАРВАРЛАР ЭДИ…

Жалғас Айтмуратов
Қорақалпоқ давлат университети профессори

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2026 йил 22 декабрдаги республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқидаги «Ватан ва халқ тақдирига нисбатан таҳдидлар

кучайган вазиятда айнан миллат фидойилари – уйғоқ қалбли зиёлилар, шоир ва адиблар, санъат намояндалари, маънавият ва маърифат соҳаси ходимлари жасорат билан майдонга чиққанлар.

ХХ аср бошларида халқимизни озодлик ва илм-маърифат учун курашга чорлаган жадид боболаримизни эслайлик»[.228] деган сўзлари ўз даврида илм ва маърифат зиёлилари бўлган жадид боболаримиз фаолиятини бугунги кун нуқтаи назаридан ўрганилишига асос бўлди. Мустабид совет тузими шароитида жадидизм ҳаракатига тўғри баҳо бериш ва уни муносиб тақдирлаш имкониятига эга эмас эдик. Улар ўз билимини, ақл-заковатини халқимизнинг мустақиллиги учун бағишлади.

Туркистондаги жадидчилик ҳаракатининг бир бўлими сифатида 1905-1906 йилларда Хива шаҳрида бош вазир Исломхўжа ва Комил девонбеги раҳбарлигида «Ёш хиваликлар» ҳаракати [.13] юзага келган эди. Бу ҳаракат ўша пайтдаги Хива хонлигига тегишли Амударьёнинг чап қирғоғидаги Қўнғирот, Хўжайли, Шўмоной худудида катта кучга эга бўлди.

Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракатининг шаклланиши ва ривожланишида таниқли шоир ва маърифатпарвар С.Мажидов (1867-1938) нинг хизматлари беҳиёс бўлди.

С.Мажидов Қўнғиротга келган (1909-1913) таниқли ўзбек жадидчи-шоири М.Сўфизода билан ижодий муносабатта бўлиб, у ташкил қилган жадид мактабига ўғли Рахимни ўқишга беради. С.Мажидовнинг маърифатпарварлик фаолияти шундан иборат 1912 йили Қўнғиротда жадид мактабини очади.[.10]

Ушбу янги усулдаги маърифий таълим масканини очилиши ХХ асрнинг биринчи чорагида бутун Қўнғирот округидан замонавий билимга эга илғор ёшларнинг етилишига имконият яратди. Қозоқ-қорақалпоқ вилояти бўйича Қўнғиротдан К.Нурмуҳамедов, Хужайлидан Омар Булешов Хива шаҳрига ўқувга юборилди.[.6]

Бу йилларда Хўжайли шаҳрида жадид мактабининг ташкилотчиси ва ўқитувчиси (1876-1947) Юсуф Ахмедов, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий (1889-1929) Қўнғиротда Сейфулғабид Мажидов, Муҳаммед Шариф Сўфизода (1869-1937).

Шу ерда такидлашимиз жоиз, М.Сўфизода Фарғона вилоятининг Чўст шаҳрида жадид мактабини очиб дарсликлар ёзиб, камбағал халқнинг болаларини бепул ўқитиб, ҳукм суриб турган ижтимоий тизимга ўзининг танқидий кўз-қарашларини билдиргани учун маҳаллий рус амалдорлари томонидан қатоғонликга учраб, Хива хонлиги худудига келади. У инсоннинг Қўнғиротга келиб, 1907 йили очилган жадид мактабига ишга жойлашишига ўз даврининг маърифатчи ва давлат арбоби Ораз Ерманов ёрдам беради. Шу вақтда очилган жадид мактаби ҳозирги Қўнғирот шаҳридаги 39-сонли мактаб ўрнида бўлади. Ўз даврининг шоир ва маърифатчи Аяпберген Мусаев (1880-1936) ларнинг фидокорона маърифий фаолияти билан янги усулда таълим олувчилар сони сун сайин купаяди. Ўша йилларда таниқли татар миллий озодлик ҳаракатининг намояндаси Аҳмадзаки Бакировда Қўнғиротга келади.

С.Мажидовнинг қорақалпоқ халқ шоири бўлиб юксалишида Ораз Ермановнинг маълум даражада фаолияти бўлган. Бу ҳақида қорақалпоқ халқ

шоири Аяпберген Мусаев Ораз Ермановнинг алоҳида ижодий ва ташкилий хизматини қўйидагича таърифлайди.

Сўз эшитинг Ораз, Сейфулғабитдан олдиндан иш кўрган эски заводдан Тошкент ўлкасида буюк иш тутган газета босиб, тил чиқара бошлади.[.20] деган қўшиқ қаторлари орқали С.Мажидовнинг маданий-маърифий, журналистик фаолиятларининг шаклланишида Ораз Ермановнинг ижоди ҳиссаси бор эканини исботлайди.

Қўнғиротда ташкил этилган янги усулдаги жадид таълим масканидан таълим олган ўша даврдаги ёшлардан Нағмет Кузенбаев, Яўмытбай Исметуллаев, Зулфухар Ершеев, Темур Жўманиязовлар Хива шаҳрига ўқувга юборилади. Бутун Қўнғирот округидан Асан Бегимов, Ешмурат Султанов, Хожамет Ахмедов, Қадар Халмуратов, Абдираман Ётепов, Кенжебай Убайдуллаев, Қоңыратбай Якупов, Көптилеу Нурмухамедов сингари давлат арбоблари ва маданият арбоблари етилиб чиқди.

Шу давр ёшлари орасидан ўсиб чиқган Көптилеў Нурмуҳамедов дастлаб Қўнғирот беклигидаги эски Бугрохан қалъасига яқин жойда Машанкўл соҳилига жойлашган Абдимурат оҳун Масжидида бошланғич таълим олиб, кейинчалик жадидлик янги усул таълимини ўзлаштириб, 1920 йилгача Махатай бойнинг хизматида бўлиб, Қўнғиротли ёшлар ташкилотининг раиси бўлиб Хива шаҳрига ўқувга юборилади.

У Қўнғиротда халқ таълими бўлимининг раиси, 1932 йилнинг май ойида Қорақалпоғистон АССР Кенгашининг биринчи съездида у автоном республиканинг Марказий ижройи кўмитасининг раиси бўлиб сайланди.[ ]

Көптилеў Нурмуҳамедовнинг Қорақалпоғистон марказий ижройи Кўмитасининг раиси сифатида республикамизнинг ишлаб чиқариш кучларини натижали тадқиқ этишда, 1933 йил 18-25 март кунлари Ленинград шаҳрида ўтказилган Қорақалпоғистон халқ хўжалигини, ишлаб чиқариш кучларининг тадқиқот қилиш йўналишига йўналтирилган конференциясининг 13 одамдан иборат делегат раҳбари сифатида саноат, қурилиш, пахта заводи, ҳунармандчилик устахоналар, дарё йўл қатновини механизациялаш, Қорақалпоғистонда медицина институти қурилишини бошлаш ҳақида қарорлар қабул қилишга эришганини архивлик манбалар асосида ўрганилди.

XX аср бошида ўзларининг бутун умрини Ватанимизнинг мустақиллиги йўлида маърифий фаолиятлари билан танилган эл азаматларининг тақдири совет тоталитар тизимининг қурбони бўлиши билан якунланиши ўша давридаги жадид маърифатпарварлари хизматининг марказ сиёсати таъсирида оёқ ости бўлганидан далолат беради.

XX асрда совет мустабид тузумининг мафкуравий таъсирида юзага келган тарихий воқеаларни бугунги кун нуқтаи назаридан фикрлаш давр талабидир. Шу сабабдан бугунги илмий тадқиқотларда бетакрор тарихий ва маданий бойликларимизни келажак ёшларимизга мерос қилиб қолдириш шу билан бирга жамиятимизнинг маънавий асосларини мустаҳкамлаш, маданият соҳасини ривожлантириш, илмий-ижодий ташкилотлар, азиз зиёлиларимиз фаолиятини қўллаб-қувватлаш биз учун энг устувор йўналишлардан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг янги

Ўзбекистонни қуриш жараёнида узоқни кўзлаган ташаббуси асосида "Биз қадимий ва бой тарихимизни, айниқса, ғоят оғир шароитда илм-маърифат, инсон эркинлиги, халқ озодлиги, ватанга, миллий қадриятларга меҳр ва садоқат ғояларини дадил кўтариб чиққан жадид боболаримиз хизматини янада чуқур ўрганишимиз лозим. Уларнинг улуғ мақсадлар йўлидаги мардона кураши ва фидойилиги янги Ўзбекистонни барпо этишда барчамиз, аввало, ёшларимиз учун чинакам ибрат мактаби бўлиб хизмат қилиши зарур." деб кўрсатганидек, жадидчилик ҳаракатини ҳар томонлама ўрганишга бағишланган халқаро анжуманнинг дастурга айланиши, бизга номаълум бўлган жадидлар фаолиятининг янги саҳифаларини яратиб беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Бир бўлсак – ягона халқмиз, бирлашсак – Ватанмиз. 8 жилд. – Тошкент «O’zbekiston» нашриёти, 2024. Б.228.

2. Алеўов Ў., Сейтмуратов Қ. Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракати ва Сейфулғабит 3.Байниязов Қ. Таң жулдызлары (Әжайып адамлардың өмири). Нөкис: «Қарақалпақстан», 1989.

4. Есбергенов Х. «Ардақлы азамат» (Көптилеў Нурмухамедовтың өмири ҳәм хызмети) Нөкис, «Қарақалпақстан» баспасы, 2009-жыл.

5. Мажидов: Т.: «Фан» 2010. Б.

6. Сейтмуратов Қ. Сейфулғабид Мажидовнинг маърифий-педагогик қарашлари узлуксиз таълим тизимида. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2006.

7. Шамуратов Ж. Соңғы жадид / «Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 2025 ж, 28-октябрь №115-116 (21294)

8. Муратова П. Қарақалпақстанда интеллигенция кадрларини тайёрлаш Нөкис: «Қарақалпақстан». 1992.

ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ НАМОЁНДАЛАРИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ПЕДАГОГИК ҚАРАШЛАРИ

Ибраимов Холбой,
Қори Ниёзий номидаги ТПМИ директори, педагогика фанлари доктори, академик,
Ибрагимова Феруза,
ТДИУ доценти, педагогика фанлари доктори (DSc)

“Жадидлар ғоялари янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳамоҳангдир”
Шавкат Мирзиёев

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистонда вужудга келган жадидчилик ҳаракати халқнинг маънавий ва маданий тараққиётида муҳим ўрин тутган тарихий жараён ҳисобланади. Жадидлар жамиятни янгилаш, таълим тизимини ислоҳ қилиш ва ёш авлодни замонавий билимлар билан таъминлашни ўз олдиларига мақсад қилиб қўйганлар. Улар таълим ва тарбия орқали миллатнинг келажагини таъминлаш мумкинлигини таъкидлаганлар.

Шу сабабли жадидчилик ҳаракати ёшлар тарбияси масаласига алоҳида эътибор қаратган.

Жадидлар ёш авлодни билимли, маънавиятли, ватанпарвар ва жамият учун фойдали инсонлар қилиб тарбиялашни ўзларининг асосий вазифаларидан бири деб билганлар. Бу ғоялар жадидлар асарлари, мактаблари ва маърифий фаолиятида яққол намоён бўлади.

Жадидлар ёшлар тарбиясида энг муҳим омил сифатида таълимни кўрганлар. Улар эски усулдаги таълим тизими ёшларнинг дунёқарашини кенгайтиришга етарли эмас деб ҳисоблаб, янги усулдаги мактабларни ташкил этганлар. Бу мактабларда нафақат диний билимлар, балки математика, география, табиатшунослик ва тарих каби фанлар ҳам ўқитилган.

Жадидлар таълим орқали ёшларнинг ақлий салоҳиятини ривожлантиришга катта аҳамият берганлар. Масалан, **Абдулла Авлоний** таълим ва тарбия масалаларига бағишланган асарларида ёш авлодни билимли ва маънавиятли қилиб тарбиялаш зарурлигини таъкидлаган. Унинг фикрича, миллат тараққиёти учун энг муҳим омил – бу маърифатдир. Авлоний таълим ва тарбия масалаларига катта аҳамият бериб, “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарини ёзган. Ушбу асарда ёш авлодни ахлоқий ва маънавий жиҳатдан тарбиялаш ғоялари ёритилган.

Жадидлар ёшларни фақат билимли қилиб тарбиялаш билан чекланиб қолмаганлар. Улар ахлоқий тарбияга ҳам катта аҳамият берганлар. Ёш авлодда ҳалоллик, адолат, меҳнатсеварлик ва инсонпарварлик каби фазилатларни шакллантириш жадидлар тарбия тизимининг муҳим қисми бўлган.

Жадидлар ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга ҳам алоҳида эътибор қаратганлар. Улар ёш авлодни ўз миллати, тили ва маданиятини қадрлайдиган инсонлар қилиб тарбиялашни муҳим вазифа деб билганлар.

Жадидлар адабиёти ва матбуоти орқали миллий уйғониш ғоялари тарғиб қилинган. Масалан, **Абдурауф Фитрат** асарларида миллат тараққиёти, миллий ўзликни англаш ва ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масалаларига катта эътибор қаратилган.

Жадидлар ёшларни мустақил фикрлайдиган ва замонавий дунёқарашга эга инсонлар қилиб тарбиялашни мақсад қилганлар. Улар ёшлар илм-фанни ўрганиши, дунёдаги янгиликлардан хабардор бўлиши ва жамият тараққиётига ҳисса қўшиши зарур деб ҳисоблаганлар.

Жадидлар матбуот, театр ва адабиёт орқали ёшларни фикрлашга, таҳлил қилишга ва жамият муаммоларига бефарқ бўлмасликка чақирганлар.

Махмудхўжа Бехбудий ва бошқа жадидлар ўз асарлари ва мақолалари орқали ёшларни ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш ғоясини илгари сурганлар. Улар жамият тараққиёти учун маънавиятли ва масъулиятли ёшлар зарур деб ҳисоблаганлар. У Туркистонда жадидчилик ҳаракатининг асосчиларидан бири бўлиб, янги усул мактабларини ташкил этган. Беҳбудий таълим орқали миллатни тараққий эттириш мумкин, деган ғояни илгари сурган. Унинг “Падаркуш” драмаси миллий театр санъатининг ривожланишига катта ҳисса қўшган.

Тошкентда жадидчилик ҳаракатини ривожлантиришда **Мунавварқори Абдрашидхоновн**инг хизматлари катта бўлган. У янги усул мактабларини ташкил қилиб, таълим тизимини модернизация қилишга ҳаракат қилган. Мунавварқори ёшларни замонавий билимлар билан таъминлаш орқали миллат тараққиётига хизмат қилишни мақсад қилган.

Жадидлар ҳаракатининг маърифатпарвар намояндаларидан яна бири **Исҳоқхон Ибрат** ҳисобланади. У кўп тилни билган олим ва педагог бўлиб, тилшунослик соҳасида ҳам катта ишлар қилган. Ибрат луғатлар тузган, янги мактаблар очган ва таълимни ривожлантиришга катта ҳисса қўшган.

Самарқандда жадидчилик ҳаракатини ривожлантиришда **Абдулла Шакурий** фаол иштирок этган. У янги усул мактабларини ташкил қилиб, ўқувчиларга замонавий билим беришга ҳаракат қилган. Шакурий таълим тизимини ислоҳ қилиш зарурлигини таъкидлаган ва мактабларда арифметика, география ва тарих каби фанларни ўқитишни жорий қилган.

Жадидлар ҳаракатининг матбуот соҳасидаги намояндаларидан бири **Ҳожи Муин Шукуруллоев** ҳисобланади. У журналист ва ёзувчи сифатида газета ва журналларда мақолалар ёзиб, халқни маърифатга чорлаган. Унинг мақолаларида жамият тараққиёти, миллий маданият ва таълимни ривожлантириш масалалари ёритилган.

Маданий-маърифий соҳада фаолият юритган жадидлардан бири **Ашурали Зоҳирий**дир. У таржимон ва зиёли сифатида хорижий адабиётларни таржима қилган ва халқни дунё маданияти билан таништиришга ҳаракат қилган. Бу эса жадидчилик ҳаракатининг маданий йўналишини ривожлантиришга хизмат қилган.

Жадидчилик ҳаракатининг таълим соҳасидаги вакилларидан яна бири **Саидрасул Азизий** бўлиб, у янги мактаблар учун дарсликлар ёзган. Азизий ёш авлодни билимли ва маънавиятли қилиб тарбиялашни миллат тараққиётининг асосий шарти деб билган.

Жадидчилик ҳаракатининг сиёсий фаол намояндаларидан бири Убайдулла Хўжаев ҳисобланади. У Туркистон халқининг миллий манфаатларини ҳимоя қилиш ва жамиятни модернизация қилиш ғояларини илгари сурган.

Жадидчилик адабиётининг намояндаларидан бири **Тавалло** бўлиб, у ўз шеърлари орқали миллий уйғониш ғояларини тарғиб қилган. Унинг ижоди миллатнинг маънавий юксалишига хизмат қилган.

Бухоро жадидлари орасида маърифатпарвар ёзувчилардан бири **Садриддин Айни**й бўлиб, у ўз асарларида халқнинг ҳаёти, маърифат ва адолат ғояларини ёритган. Айний Марказий Осиё адабиёти ривожига катта ҳисса қўшган. Яна бир маърифатпарвар зиёли **Абдулвоҳид Мунзим** ҳисобланади. У янги усул мактабларини ташкил қилиш ва ёшларни замонавий билимлар билан таъминлашга ҳаракат қилган. Унинг фаолияти таълимни ривожлантиришга қаратилган эди.

Усмонхўжа Пўлатхўжаев сиёсий ва жамоат фаоли сифатида Бухорода ислоҳотлар ўтказиш ва жамиятни модернизация қилиш ғояларини илгари

сурган. Қуйида буюк жадид намоёндаларининг таълим ва тарбия доирасида таяниладиган пурмаъно насиҳатларини келтиришни ўринли деб топдик.

Абдулла Авлоний: **“Тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир.”** Бу фикр орқали у тарбия инсон ва миллат тақдирини белгилайдиган энг муҳим омил эканини таъкидлайди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий: **“Дунёда турмоқ учун дунё илм ва фанидан баҳраманд бўлмоқ лозим.”** Бу фикр билим инсон ва миллат тараққиётининг асосий омили эканини кўрсатади.

Абдурауф Фитрат: **“Миллатнинг бахти ҳам, бахтсизлиги ҳам унинг фарзандлари тарбиясига боғлиқ.”** Бу фикрда Фитрат миллат келажаги ёшларнинг тарбиясига боғлиқ эканини таъкидлайди.

Мунавварқори Абдурашидхонов: **“Миллатнинг тараққиёти мактаб ва маърифат билан юксалади.”** Бу фикр таълим ва тарбия жамият ривожида муҳим ўрин тутишини кўрсатади.

Исҳоқхон Ибрат: **“Илм инсонни юксалтирур, жаҳолат эса орқага тортадир.”** Бу фикрда билим инсон камолотининг асосий манбаи экани таъкидланади.

Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий: **“Илм-маърифат ҳар бир миллатни юксалтирувчи энг буюк кучдир.”** Бу фикрда у билим жамият тараққиётининг асоси эканини кўрсатади.

Садриддин Айний Марказий Осиё адабиёти ва жадидчилик ҳаракатининг машҳур намояндаларидан бири бўлиб, у халқни билим ва маърифатга чорлаган. У шундай фикр билдирган: **“Халқни қутқарадиган куч – бу билим ва маърифатдир.”** Бу фикрда жамият тараққиёти билим билан боғлиқ экани таъкидланган.

Абдулла Шакурий: **“Мактаб миллат келажагини яратувчи асосий даргоҳдир.”** Бу фикр мактаб ва таълимнинг миллат тараққиётидаги ўрнини кўрсатади.

Ҳожи Муин Шукруллоев: **“Маърифатсиз халқ тараққий этмайди.”** Бу фикрда билим ва саводхонлик жамият тараққиётининг асоси экани таъкидланган.

Ашурали Зоҳирий: **“Илм ва маданият миллатни юксак даражага олиб чиқади.”** Бу фикрда маданият ва билим жамият ривожининг муҳим омили сифатида кўрсатилган.

Бугун юртимизда уларнинг улуғ номлари билан аталувчи манзиллар, таълим масканлари ва сўлим гўшалар борки, уларга қадам босган ҳар бир ватандошимиз қалбида жадидона ҳислар уйғонади. Муҳтарам Президентимизнинг саъй-ҳаракатлари билан Ўзбекистон Олий суди томонидан 1030-дан зиёд мустабид тузум қатағонига учраган ватандошларимиз номи оқланиб, тарихий адолат қад ростлади ва минглаб жадидлар авлодлари қалбини яралаган доғлар битди.

Жаҳолатга қарши курашиш, миллат шаънини ҳимоя қилиш орқали мустамлака бўлган Туркистонни дунёнинг тараққий этган мамлакатлари сафида кўришни орзулаган аждодларимиз бугун ўз мақсадларига эришдилар. Эндиликда бизнинг — бугунги кун эгаларининг зиммасида аждодларимиз

асрий орзуларини рўёбга чиқариш, тинчлик ҳукмрон бўлган заминни асрай олиш, ўз интилишлари, ислоҳотлардаги иштироки, ташаббуслари орқали ёшларга кимларнинг авлоди эканлигини англатишдай кучли вазифа борлигини унутмаслигимиз даркор!

Зеро, Янги Ўзбекистонда инсон қадри улуғланадиган адолатли, эркин ва обод жамият, халқпарвар давлат, фаровон ҳаёт барпо этишга қаратилган ислоҳотларимиз жадид боболаримизнинг эзгу ғоя ва дастурларига ҳар жиҳатдан уйғун ва ҳамоҳангдир.

Хулоса қилиб айтганда, жадидлар ҳаракати Туркистон халқларининг маънавий ва маданий уйғонишида муҳим ўрин тутган. Жадидлар таълим, адабиёт, матбуот ва маданият соҳаларида фаолият олиб бориб, халқни илм-фанга чорлаганлар. Улар миллат тараққиёти ва келажаги учун хизмат қилган маърифатпарвар зиёлилар бўлиб, уларнинг мероси бугунги кунда ҳам катта аҳамиятга эга. Шу сабабли жадидлар ҳаракати ва унинг намояндалари халқимиз учун ҳақиқий миллий фахр ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. IbraimovX., Quronov M. Umumiy pedagogika[Matn]. Darslik. T., "Sahhof", 2023, 416-bet.

2. lbraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., "Sahhof", 2023.392-bet.

3. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.

4. X.Ibraimov va boshqalar.Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.

5. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. – Toshkent.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti. -2025 y. 80-b.

6. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.

БУХОРО ВА ТУРКИСТОНДА ЖАДИД ХОТИН-ҚИЗЛАР ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН

Ҳайитов Шодмон Аҳмадович-
тарих фанлари доктори, профессор

Бухоро ва Туркистон жадидчилик ҳаракатида иштирок этган аёллар кўпчиликни ташкил этмаслиги, уларни ижтимоий-маданий жараёнларга фаол иштирок қилишига бир қатор омиллар тўсқинлик қилганлигини инкор қилиш мумкин эмас.

Биринчидан, узоқ асрлар давомида Шарқ дунёсида аёлга оилада бола туғиш, оила юмушларини бажариш, фарзанд тарбияси билан шуғулланиш, эрига бўйсиниб яшаш руҳиятининг сингдириб келингани;

Иккинчидан, хотин-қизларни паранжи-чачвонсиз кўчага чиқмаслик, кузатувчиларсиз, бир жойдан иккинчи жойга бормаслик тартибининг жорий қилингани;

Учинчидан, қизлар таълимига барча хонадонларда деярли эътибор берилмаслиги, айрим бадавлат ва ўзига тўқ хонадонларнинг қизларини отинойи (отинбиби) хусусий мактабларида саводини чиқариш йўлга қўйилган эди, холос.

Тўртинчидан, қизларни ҳунарга ўргатиш, оила ва турмушга тайёрлаш, шунингдек, уларни жуда ёшлигидан (11-12 ёшдан) турмушга бериш анъанасининг яшовчан бўлиб келиши;

Бешинчидан, Ўзбекистонда хотин-қизларни озодликка чиқаришга қаратилган "Ҳужум" компанияси йилларида (1926-1928 йиллар), ундан олдин ҳам аёллар эрларининг тўла измида бўлиб, 8-март халқаро хотин-қизлар байрами билан ўтказилган намойиш ва митингларда ҳам паранжи ёпинган ҳолда иштирок этган.

Совет ҳокимияти йилларида жойларда хотин-қизлар билим юрти, қизлар мактаблари, саводсизликни тугатиш курслари (3 ойлик), хотин-қиз муаллимлар тайёрлаш курслари (6 ойлик) ҳам 1-2 та, бармоқ билан саноқли бўлган.

БХСР, ХХСР, Туркистон АССР (1917-1924, 1920-1924 йиллар) да қизлар таълимини йўлга қўйишда бир қатор сунъий тўсиқлар мавжуд бўлиб, бой-бадавлат шахслар, савдогарлар, диний мутаассиб уламолар фарзандларини савод чиқариш мактаблари, хорижга ўқиш учун юборишга қаршилик қилишган.

Юқоридаги тўсиқ ва қаршиликларга қарамай, жаҳон маданиятини, замонавий илмларни эгаллаш, ҳаётда фаол позицияда туриш, ижтимоий жараёнларга иштирок этиш мақсадида илғор фикрли оилаларнинг бошлиқлари ўз қизларини ҳатто, хорижга ўқиш учун юбордилар.

Ўзбек адабиётининг таниқли намоёндаси, жадид мунаввари Абдулаҳамид Сулаймон Чўлпон (1897-1938 йиллар) Германияга юборилган ўқувчи ва талабалар орасида ўзбек қизининг бўлиши бу Шарқ аёлини камситиб келган "христиан миссионери", "руслаштириш" сиёсатини Волгабўйи, Урал, Кавказ, Қрим сингари Туркистонда ҳам жорий қилиш ташкилотчиси Н. И. Ильминский ва унинг шогирди, Тошкент ўқитувчилар семинарияси директори, халқ ўқув юртлари инспектори, 1883-1917 йилларда "Туркистон вилояти газетаси" муҳаррири вазифасида ишлаган Н.П. Остроумов[19] (1846-1930 йиллар) га нисбатан кўтарилган исён деб қараганди.

Жадидчилик ҳаракати ва унинг ижтимоий-маиший, маданий-маърифий ҳаётдаги аҳамиятини, Туркистон халқларининг миллий озодлик учун курашдаги иштироки масалалари тарихшунослигимизда анча ўрганилди. Жадидларнинг юзлаб вакиллари ҳақида монография, рисола, илмий, илмий-публицистик асарлар, очерк ва мақолалар ёзилди. Бугунги кунда

[19] Н. П. Остроумов Россиянинг Тамбов губерниясида туғилган, қозоқ диний академиясида ўқиган. У бир қатор лавозимларга ишлаш билан бирга "Мусулмон мадраса ва мактаби", "Ислом дини", "Тошкентдан Самарқандгача" каби китобларни ёзган. Н. П. Остроумов таълим даргоҳларини мустамлакачиларга бўйсундириш, рус-тузем мактабларига расмий мақом бериш, "руслаштириш"ни авж олдириш мақсадида рус тили ўқитувчиларини тайёрлашни кучайтиришга қаратилган йўриқнома, низом, режалар ишлаб чиққан. У Шарқ халқларини асоратда ушлаш учун курашган.

юртдошларимиз жадидчилик ҳаракатида иштирок этиб, қатағонга учраган инсонлар тақдиридан воқиф бўлмоқдалар.

Бироқ жадидчилик ҳаракатида иштирок этган, ўз замонасида илғор, прогрессив ғояларни тарғиботчиси сифатида майдонга чиққан хотин-қизлар масаласи ҳамон тўла тадқиқ қилинмаган, очиқ мавзулардан бири бўлиб қолмоқда.

Жадидларнинг қараш ва ғояларида жамият аъзоларининг тенг ярмини ташкил этган хотин-қизлар таълими, яъни аёллар саводхонлиги, уларнинг тенг ҳуқуққа эга бўлиши, жамият ҳаётида фаол иштирокини таъминлаш ташаббуслари ҳам мавжуд эди. Мамлакат келажаги ёш авлод қўлида эканлиги заруратидан келиб чиқиб, миллат тақдири аёллар савияси ва мавқеига боғлиқлигини жадид мунавварлари англаб етишган эди.

Жадид хотин-қизлар прогрессив зиёлилар хонадонларидан ва жадидлар оиласида вояга етган хотин-қизлардан иборат эди. Бундай аёллар эски усул ва янги усул мактабларида, отин ойилар қўлларида таҳсил олган, рус-тузем мактаблари таҳсилини кўрган, шахсий муаллимлардан чет тилини ўрганган (араб, форс, татар ва рус) шахслар эди.

Аввало, жадидларнинг ҳамда жадидларга хайрихоҳ кишиларнинг хонадонларида тарбияланган аёлларнинг таълимига ва жамиятдаги эркин турмушига кенг йўл бериш, оилавий муносабатларда тенгсизликни тугатиш, жамият фаолиятида мустақил субъект сифатида иштирок этиш сари дадил қадам қўйдилар.

Жадидчиликнинг “ғоявий отаси” Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг қизи Парвинахон Беҳбудий усули жадида мактабида таҳсил олди. Отаси Маҳмудхўжа унинг таълимига алоҳида эътибор бериб, қизи учун француз тили ўқитувчиси ёллади. Француз тилини мукаммал ўрганган Парвина ўқувчиларга француз тилидан Қозиқўрғон қишлоғида узоқ вақт сабоқ берди. Тошкентлик зиёли мулла Саид Аҳмад хонадонида вояга етган биринчи аёл публицист Нозимахоним чет тилларни ўрганиб, ўз шеър ва мақолаларида аёлларни билим олишга даъват этди, улар ҳуқуқларини ҳимоя қилиб чиқди.

“Биринчи аёл журналист” Собира Холдорова 1920-йилларнинг охири - 1930-йилларда “Янги йўл” газетасида бош муҳаррирлик қилди. 1930-йилларда Ўзбекистон Марказий Қўмита раиси ўринбосари, хотин-қизлар билан ишлаш сектори мудири лавозимида ишлади. 1936-йилда қатағонга тортилиб, 1937-йил Собира икки фарзанди билан ҳибс қилинди.

Жадид аёллардан Лайлихоним 1914-йилда нашрга тайёрланган “Сабзазор” тўпламида Васлий, Сўфизода, Авлоний, Ҳамза, Мирмуллалар билан бир қаторда эркка чорловчи шеърлар эълон қилди.

1938-йилда қатағонга тортилган Мажид Қодировнинг турмуш ўртоғи Меҳринисохон Мирсагатова олти фарзандни ёлғиз ўзи вояга етказган.

Жадид аёллар рўйхатига биринчи аёл ҳуқуқшунос Дилора Юсупова, биринчи ҳуқуқшунос олима Хадича Сулаймонова, аёллардан орасидан биринчи етишиб чиққан Адлия вазири Мамлакат Восиқова, биринчи аёл дирижёр Дилбар Абдураҳмоновaларни қўшиб қўйиш мумкин.

“Ҳужум” компанияси йилларида ваҳшийларча ўлдирилган фаол аёллар 203 нафар бўлиб, улар орасида жадидчилик ҳаракатига хайрихоҳ, илғор, прогрессив қарашларнинг фаоллари катта салмоқни ташкил этарди.

Жадидчилик қарашларини қўллаб-қувватлаган, аёллар озодлиги, тенглиги ва ҳуқуқий истакларини ҳимоя қилганлар орасида БХСР ҳукумати ва Ўзбекистон ССР ҳукумати раҳбари Файзулла Хўжаевнинг волидаси Райҳонабону Хўжаева (1871-1938 йиллар) ҳам бор эди.

8-март халқаро хотин-қизлар куни байрами муносабати билан 1924-йил 8-март эрта тонг 9:00 да Бухоро шаҳри кўчаларидан паранжиларга ёпинган 1000 дан ортиқ хотин-қизлар шаҳардаги хотин-қизлар клубига йиғилганлар. Клубда хотин-қизларнинг тантанали йиғилиши бўлиб, раёсатга фаол, жадид аёллардан Биби Холида, Фотима Ёқуб қизи, Азизова, Давлатқулова, Боруховалар сайланган. “Мажлис ҳайъати фахрий аъзолигига Файзулла Хўжаевнинг волидаси Райҳонабону Хўжаева бир овоздан сайланди”-деб ёзганди “Озод Бухоро” газетаси 1924-йил 11-мартда босилган 61-сонида.

Маълумки, Бухоро амирлигининг Зандана қишлоғида (ҳозирги Пешкў туманида) оддий деҳқон оиласида таваллуд топган Райҳонабону Хўжаева оқила, маданиятли, саводли аёл сифатида Файзулла Хўжаев, Робия Хўжаева, Ибодулла Хўжаевларни тарбиялаб вояга етказган. У фаразандларининг адолат учун курашларида ҳамдард бўлган.

Файзулла Хўжаев “катта террор” туфайли қатағонга тортилгандан сўнг, онаси Райҳонабону, турмуш ўртоғи Малика Хўжаева (1903-1957 йиллар) 16 яшар қизи Вилоят Хўжаевалар (1921-1987 йиллар) ҳам ҳибсга олиниб, ГУЛАГ концлагерларида даҳшатли азобларни бошдан кечирганлар. Райҳонабону Хўжаева концлагерда вафот этган. Малика Хўжаева қизи Вилоят Хўжаеванинг хотирлашича: “Диктатор ўлимига қадар Аллоҳ жонимни олмасин! Зулмкорнинг ўлими ҳақида хабарни эшитсам, тинч, армонсиз кўз юмардим”, - деган экан.

Туркистон ва Бухоро жадидларининг хонадонидаги минглаб аёллар совет қатағони сиёсати қурбони бўлдилар. Улар Сибир, Урал, Уралолди, Қарағанда концлагерларида азоб-уқубатларни бошларидан кечирдилар. Айниқса, АЛЖИР (Акломинск лагер жён изменников Родины - Ватан хоинлари аёлларининг Акмолинск лагери) да минглаб миллатпарвар юртдошларимиз турмуш ўртоқлари ва қизлари оғир, синовли азобларга дучор қилинди.

Биз 1920-1930 йилларда босилган даврий матбуот материаллари билан танишар эканмиз, хотин-қизлар орасида маърифат тарқатиш, уларни жамоат ишларига жалб этиш, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш билан боғлиқ мухбир аёлларнинг ўнлаб мақолаларига гувоҳ бўлдик. Жадид аёллар ўтмишда шармандали ҳисобланган ҳолат - қизларни гўдаклигида турмушга бериш, уларга қалин талаб қилиш, ота ва акалари томонидан сотиб юбориш, кўп (қўш) хотинлик каби иллатларга ҳаёт-мамот урушини эълон қилдилар. Улар нияти бузуқ кимсалар томонидан ўзларига тўнкаб қилинган иғво ва соҳта айблардан устун келдилар.

Жадид хотин-қизлар тарихи, уларни ибратли фаолияти ва тарихий тақдирлари ҳақида фикр юритилар экан, БХСР, ХХСР ва Туркистон АССР ҳукуматлари томонидан хорижга: Россия, Озарбайжон, Туркия ва Германияга таълим олиш юборилган ўқувчи ҳамда талабалар ҳақида фикр юритиш ўринли бўларди.

1923-йил 1-майда БХСР Нозирлар Шўроси Раиси Файзулла Хўжаевнинг буйруғи билан “Бухоро халқ маориф уйи” очилган. 1924-йилда халқ хўжалигининг турли соҳалари учун кадрлар тайёрлаш мақсадида 200 нафар ўқувчилар Москвага юборилган. Улар орасида ўзбек, туркман, тожик, татар, яҳудий миллати вакиллари бўлиб, 14 нафари қизлар эди. Бу қизлар турли ҳудудлардан тўпланган бўлиб, улар орасидан кейинчалик Марям Ёқубова, Замира Ҳидоятова, Сора Эшонтўраева сингари таниқли театр ва миллий кино намоёндалари етишиб чиқди. Улар жадидларнинг фарзандлари, шогирдлари ва илғор ғоялар, ватанпарварларлик туйғулари билан камолга етганди.

Туркиянинг Истанбул, Самсунг, Костамира каби муаллимлар тайёрлаш семинарияларида ўқиш учун юборилган 50 га яқин Туркистон ва Бухоро ўқувчи талабалари орасида (1922-йил) Розияхоним, Маъмурахоним, Собирахонимлар ҳам бўлиб, улар таҳсилни тугатганларидан сўнг, айрим сабабларга кўра Ўзбекистонга қайтмадилар. Жадид мунавварларининг истиқлол учун курашларини давом эттирган бу қизлар 1930-йилларда Истанбулда “Туркистон генчлари (ёшлари) бирлиги” ташкил этганлар (бу уюшма 1927-йилда тузилган). Уюшма ташкил этилганлигининг уч йиллиги муносабати билан “Бирлик” уйидаги байрам табригида қатнашиб, Ватан озодлиги йўлида курашга қасамёд қилганлар.

1922-йилда Германияга таҳсил олиш учун юборилган Марям Султонмуродова (1905-1971), Хайринисо Мажидхонова (1902-1938), Гулсум Раҳимова (1902-1938), синглиси Руқия Хўжаева (1908-1937), Саида Шераҳмадова, Аёз Исҳоқийнинг қизи Саодатхоним Аёзий кабилар ҳам жадидчилик ғоялари билан қуролланган, миллий ўзликни англаш йўлида анчагина хизматлар қилган эдилар.

Юқорида исм-шарифлари зикр қилинган ва хорижда муаллимлик семинарияси ва шифокорликка таълим олган қиз талабаларнинг Ватанга қайтганлари Ўзбекистон ССР ЖКнинг 57-моддаси (Ватанга хиёнат ва давлат сирларини сотиш), 58-модда (Қуролли қўзғолонга ҳаракат), 64-модда (Совет давлатига қарши теракт), 67-модда (аксилинқилобчи, миллатчи ташкилот аъзоси) кабилар билан қатағонга тортилдилар. Баъзилари “Катта террор” (1937-уил 2-июл, 1938-йил ноябр) даврида отувга ҳукм этилди. Марям Султонмуродова кабилар 10-20 йиллаб ГУЛАГ концлагерларида азобларни бошдан кечирди.

Германияга таҳсил олганларга “Ватан хоини”, “имперализм айғоқчиси”, “немис айгоқчиси” каби ясама айблар билан бирга хориждаги “Озод Туркистон” аксилсовет уюшмаси аъзоси, Германиядаги “Туркистон талабалар уюшмаси”да совет ҳокимиятига қарши тарғибот юритган, Олимжон Идрисий (1870-1957) билан маслакдош бўлиб советларни сотган каби айблар ҳам тўнкашган. Улар хориждаги туркистонлик муҳожирлар билан учрашиб,

тавсиялар олиб турганлиги ҳам тўқиб чиқарилган. Холбуки, Марям Султонмуродова, Хайринисо Мажидхоновалар ўзларининг тергов кўрсатмаларида хорижда ҳеч қандай “Озод Туркистон” уюшмаси мавжуд эмаслиги, “Олмония талабалар уюшмаси” талабаларни маънавий-маданий жиҳатдан бир-бирларини қўллаб-қувватлаш, матбуот чиқариш, илмий-ижодий кучларни бирлаштириш мақсадида тузилганлигини айтишган. Олимжон Идрисий аксинча, талаба-ўқувчиларни қандай Олмонияга бошлаб борган бўлса, шундай жаллод қўлига топширгани, қизларни шифокор бўлишларига тўсқинлик қилгани, улар стипендиясидан қирқиб қолгани далилланган. Марям Султонмуродова ва Хайринисо Мажидхоновага немис профессори Энгландга айғоқчилик қилганлик айби ҳам қўйилган. Бироқ терговда бу профессор Тошкентда 1931 йилда илмий ишлар билан машғул бўлгани, бу шахс билан учрашувлар илмий мақсадларда уюштирилгани билдирилган.

Бу иккала қизнинг ёзги таътил пайтида дам олиш ва саёҳат қилиш мақсадида Франция пойтахти Парижда бўлиши ҳам жиноят ишларига тикилган. Улар Парижда “Туркистон мухторияти” ҳукумати собиқ раҳбари Мустафо Чўқай (1886-1941 йиллар) ва Германияда ўқиган бухоролик собиқ талаба Аҳмад Найим Нусратиллабек (1900-1984 йиллар) билан учрашуви ҳам “айғоқчилик” сифатида қаралган. Аслида Аҳмад Найим қизларнинг Париждаги тарихий жойлар, театр ва маданий муасасалар бўйлаб саёҳатларида ҳамроҳлик қилган. Улар ўртасида сиёсатга оид ҳеч қандай суҳбат бўлмаган.

Хуллас, жадид хотин-қизлар тарихи масаласи устида истиқболда кенг қамровли жиддий тадқиқотлар олиб борилади, деган умиддамиз.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар рўйхати

1. Бухорода хотунлар куни. Бухоро ахбори, 77-сон, 1922 йил 4 апрел.
2. Хотунлар учун маориф. Болалар боғчаси. Бухоро ахбори, 83-сон, 1922 йил 9 май.
3. Саводсиз хотин-қизлар учун мактаб. Бухоро ахбори, 90-сон, 1922 йил 15 июл.
4. “Турк хотини”. Бухоро ахбори, 109-сон, 1922 йил 12 ноябр.
5. Фотима Давлатқулова. Бизда хотунларнинг ҳуқуқлари. Бухоро ахбори, 113-сон, 1922 йил 30 ноябр.
6. Фотима Давлатқулова. “Эркак ва хотун”. Бухоро ахбори, 117-сон, 1922 йил 14 декабр.
7. Рафиқа. Хотун-қизларимизни ўқутмоқ керак. Бухоро ахбори, 138-сон, 1923 йил 3 март.
8. “Ўртоқ”. Қизлар сағирхонаси керак. Бухоро ахбори, 158-сон, 1923 йил 18 апрел.
9. Қизлар учун сағирхона очилди. Бухоро ахбори. 168-сон. 1923 йил 10 май.
10. “Овул боласи ”. Бизда хотун-қизлар. Бухоро ахбори. 173-сон. 1923 йил 10 июн**.**
11. Ўқувчи қизлар юборилди. Бухоро ахбори. 180-сон. 1923 йил 5 июл.
12. Мукаррама Аҳмадова. Эсдан чиқарилмасун. Бухоро ахбори. 212-сон. 1923 йил 10 октябр.
13. Фотима. Хотин-қизлар уйғонадур Озод Бухоро. 6-сон. 1923 йил 31 октябр.

14. Маҳмуд Саид Аҳрорий. “Хотун”. Озод Бухоро. 8-сон. 1923 йил 6 ноябр.
15. З.Азизова. Хотин-қизлар ҳуқуқини ҳимоя қилмоқ керак. Озод Бухоро. 20-сон. 1923 йил 6 декабр.
16. Маҳмуд Саид Аҳрорий. Ёш қизларнинг ҳомийси борму? Озод Бухоро. 21-сон. 1923 йил 8 декабр.
17. Туркман қизи. Каркида хотин-қизлар мактаби. Озод Бухоро. 24-сон. 1923 йил 15 декабр.
18. Маҳмуд Саид Аҳрорий. Қиш келди, товушсизлар қотмасун. Озод Бухоро. 30-сон. 1923 йил 26 декабр.
19. Қалин олишми ёки талончилик? Озод Бухоро. 50-сон. 1924 йил 16 феврал.
20. Зарифа Азизова. Хотин – қизлар куни. Озод Бухоро. 57-сон. 1924 йил 5 март.
21. Саид Аҳрорий. Хотунларимизға уч ёқдан қараш. Озод Бухоро. 59-сон. 1924 йил 8 март.
22. Бухорода хотин-қизлар куни қандай ўтди? Озод Бухоро. 61-сон. 1924 йил 11 март.
23. Хотин-қизлар шўъбасининг маркази қувонди. Озод Бухоро. 75-сон. 1924 йил 12 апрел.
24. Ўзбак қизи. Хотин-қизларни ҳимоя қилувчилар борму? Озод Бухоро. 75-сон. 1924 йил 12 апрел.
25. Хотунлар учун ҳунархона. Озод Бухоро. 76-сон. 1924 йил 13 апрел.
26. Хотун-қизни ўғурлашга қарши. Озод Бухоро. 82-сон. 1924 йил 24 апрел.
27. Бир бола онасини ўлдирғон. Озод Бухоро. 82-сон. 1924 йил 24 апрел.
28. Хотунлар учун духтурхона. Озод Бухоро. 95-сон. 1924 йил 28 май.
29. А.Ахмадова. Хотин-қизлар ўртасида. Озод Бухоро, 129-сон, 1924 йил 19 август.
30. Туркманистон хотунлари. Озод Бухоро, 132-сон, 1924 йил 25 август.
31. Хотин-қизларимизда ҳуқуқ борми? Озод Бухоро, 132-сон, 1924 йил 25 август.
32. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. -Тошкент, Академнашр, 2018 йил. -208 бет.
33. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Тошкент, Академнашр, 2006 йил. -256 бет.
34. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). -Т.: Фан, 2004. -101б.
35. Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. -Бухоро: Бухоро, 2005. -154 б.
36. Ҳайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). -Т.: “ABU MATBUOT KONSALT” МЧЖ, 2008. -207 б.
37. O’zbek muhojirligi tarixi Darslik (2-qism). Buxoro. “Durdona” nashriyoti, 2025. -256 б.

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH SOHASIDAGI ILG‘OR YONDASHUVLARI

Safarova Rohat Gaybulloyevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya mutafakkirlar, hamda jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor

Turkiston taraqqiyparvarlari xalqni ma’rifatli qilish g‘oyasiga asoslangan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshirganlar. Ular aksariyat hollarda “jadid ma’rifatparvarlari” nomi bilan ham e’tirof etilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston hududida ma’rifat, maktab va jamiyatni isloh qilish maqsadini o‘z oldiga qo‘gan ziyolilar harakati boshlangan. Ularning asosiy maqsadi millat taraqqiyotini ta’minlashdan iborat bo‘lgan, shuning uchun ham jadid ma’rifatparvarlari millat taraqqiyotini zamonaviy ta’lim, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy uyg‘onishda ko‘rganlar.

Taraqqiyparvarlar pedagogik qarashlarining asosiy negizini

1. “Yangi usul” maktablarini tashkil etish va mavjud ta’lim tizimini modernizatsiyalash g‘oyasi tashkil etgan. Jadidlar “usuli jadid” - o‘quvchilarning fonetik savodxonligini ta’minlash, darsni tizimli tarzda rejalashtirish va tashkil etish, sinf-dars tizimini mazmun va metodik jihatdan rivojlantirish, o‘quvchilar bilimini baholash va o‘quv jarayonida darslikka tayanishi kabi pedagogik g‘oyalarni targ‘ib etganlar. Jadidlar diniy ta’limni inkor qilmagan holda dunyoviy fanlar jumladan, tabiiy fanlar, geografiya, tarix, arifmetikani o‘quv rejasiga qo‘shish muhimligini ta’kidlaganlar.

2. Jadidlar tarbiyani milliy-ijtimoiy vazifa sifatida talqin etganlar. Jadid pedagogikasida tarbiya faqat oila yoki maktab ishi emas, balki umummilliy masala sifatida baholangan. Ayniqsa, Abdulla Avloniy tarbiyaning millat taqdirini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta ta’kidlagan.

3. Jadidlar bolalarga ona tilini chuqur o‘rgatish, madaniyat va tarixni o‘zlashtirishlarini ta’minlash orqali milliy o‘zlikni anglash tarbiyasini amalga oshirish mumkin deb hisoblaganlar. Jadidlar ona tilida savod o‘rgatish, milliy adabiyotni rivojlantirish, urf-odat va milliy an’analarni o‘zlashtirish, tarixiy xotirani tiklash yoshlarda milliy g‘urur va fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalashning asosiy manbai ekanligini e’tirof etganlar. Shuning uchun ham darsliklar, matbuot, adabiyot va teatrdan tarbiyani amalga oshirishning muhim pedagogik vosita sifatida foydalanishni tavsiya qilganlar.

4. Jadidlar “O‘qituvchi ma’naviy yetakchi” degan g‘oyaga ustuvorlik berganlar. Jadid ma’rifatparvarlarning pedagogik qarashlarida muallim faqat bilim beruvchi emas, balki bola ruhiyatini tushunadigan, nutqi va odobi bilan namuna bo‘ladigan, jamiyatda ma’rifat tashuvchi yetakchi sifatida e’trof etiladi.

5. Turkiston taraqiyparvarlari xalqni yoppasiga ma’rifatli qilish tarafdori bo‘lganlar. Ular ushbu maqsadda matbuot, teatr hamda jamoatchilikning imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etganlar. Ular ta’lim berishda sinfxonasi bilan cheklanmasdan, jamiyatning barcha a’zolarini tarbiyalash g‘oyasini ilgari

surganlar. Ular tomonidan yozilgan maqolalar, risolalar, yaratilgan sahna asarlari, yig‘ilishlar, davra suhbatlarining barchasi millatimiz vakillarini o‘qitish, bilimli qilish, ularning ongini rivojlantirishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Jadidlar milliy tarbiya va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish nazariyasi va metodikasiga munosib hissa qo‘shganlar. Birinchidan, yosh avlodning ona tilida so‘zlashish madaniyati, lingvistik savodxonligini rivojlantirish, shu maqsadda yangi avlod darsliklarini yaratish, shu yo‘l bilan yosh avlodning milliy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratganlar. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi usul maktablari uchun “Adiybi avval” darsligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirish, bilimini boyitish, buning uchun o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirishga muvaffaq bo‘lgan.

Ikkinchidan, jadid ma’rifatparvarlari ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga usturvorlik berganlar. Birinchi navbatda shaxs mas’uliyati, axloqi, qalb pokligi, intizomlilik, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratganlar. Masalan Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, mazkur sifatlarning asosiy ko‘rinishlari, oilaviy shart-sharoitlar, uning shaxs tarbiyasiga ta’siri, atrofdagilarga bog‘liq jihatlari, tarbiyaviy an’analar haqida fikr yuritgan.

Uchinchidan, jadidlar tanqidiy fikr va jaholatga qarshi kurash hamda fuqarolik ongini rivojlantirishning asosiy targ‘ibotchisi bo‘lganlar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asari jaholatning ijtimoiy fojiasini ko‘rsatuvchi va yosh avlodni ta’lim olishga undovchi asar sifatida alohida pedagogik ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, jadidlar turkiy dunyo xalqlarini umumiy birlikka chaqirganlar, ular umumturkiy madaniy makon g‘oyasini targ‘ibotchisi va tashviqotchisi bo‘lishgan. Ismoyil G‘aspiralining “tilda, fikrda, ishda birlik” shiori turkiy xalqlarda ma’rifiy uyg‘onish muhitini kuchaytirgani ta’kidlanadi.

Beshinchidan, jadidlar qizlar va oila tarbiyasiga aloihida e’tibor qaratganlar. Ular tarbiyaning ijtimoiy asoslarini kengayishtirishga intilganlar. Jadidlarning ta’biriga ko‘ra ayol ma’rifat tarqatuvchi, onalar esa tarbiyachi sifatida talqin etilgan. Oila madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham oila-maktab-mahalla tarbiyasini yagona zanjir sifatida tashkil etishga asos yaratmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv g‘oyasiga mos bo‘lgan jadidlarning amaliy bilim egallash, axloqni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish, hayot uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish g‘oyasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etayotgan funksional savodxonlik, tanqidiy fiklashni rivojlantirish, media va axborot madaniyatini shakllantirish, fuqarolik kompetensiyasi kabi maqsadlarga mos keladi. Jadidlar milliy qadriyatlarni saqlagan holda ilm-fanga ochiq bo‘lishni talab qilgan. Bugungi kunda ushbu g‘oya ta’lim-tarbiya mazmunini boyitish, global kompetensiyalar, STEM, xorijiy til va ona tilini puxta o‘rganish, raqamli savodxonlikka erishish jarayoni bilan integratsiyalash tamoyiliga aylandi.

O‘qituvchining nutq madaniyati, insonparvarligi, jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini rivojlantirish jadidlar tomonidan ilgari surilgan va bizga meros bo‘lib qolgan g‘oyalardir. Bugungi pedagog uchun kasbiy etika, tarbiyaviy liderlik, ota-ona

va mahalla bilan hamkorlik muhim hisoblanadi. Jadid ma’rifatparvarlari ushbu g‘oyalarni bir asr avval ilgari surganlar. Jadidlar tarbiyani maktab va oila bilan cheklamasdan, matbuot, madaniyat, jamoa orqali ommalashtirgan. Bugun bu qarashlar “maktab-oila-mahalla” va boshqa ijtimoiy institular hamkorligi, klub, to‘garak, loyiha faoliyati, teatrlashtirish, debat, medialoyihalar orqali amalga oshirilishini taqozo qilmoqda.

Jadid ma’rifatparvarlari o‘ta og‘ir bir davrda xotin-qizlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Jadidlar xotin-qizlar ta’limini millat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaraganlar. Ular, ayol savodli va ma’rifatli bo‘lmasa oilada bola tarbiyasi zaiflashishini, jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muhit buzilishi, millatning madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashishini o‘z asarlarida qayta-qayta ta’kidlaganlar. Ular xotin-qizlar ta’limiga quyidagi yo‘nalishlarda e’tibor qaratish zarur degan g‘oyani ilgari surganlar.

1. Ayollarning funksional savodxonligini rivojlantirish va oila tarbiyasini gender yondashuv asosida tashkil etish. Jadidlar xotin-qizlar savodxonligi pastligini tahlil qilib, uning asosiy saba,laridan biri ayollarni maxsus pedagogik bilimga ega bo‘lmagan otinoyilardan tahsil olishida deb bilganlar, chunki bunday tahsil hech qanday dastur va darsliklar, metodik ko‘rsatmalarga tayanilmagan holda, stixiyali tarzda amalga oshirilar edi. Mazkur qarash negizida “ona birinchi murabbiy” g‘oyasi yotar edi. Ona bilimli bo‘lsa, farzand tarbiyasi ham, oila madaniyati ham yuksaladi deb hisoblagan jadid ma’rifatparvarlari.

2. Milliy tarbiya zamonaviy bilimlar uyg‘unligini taqozo etishini jadidlar o‘z vaqtida juda to‘g‘ri anglaganlar. Ular xotin-qizlarga ta’lim berishda ona tilida savod chiqarish, axloq-odob, poklik, mehnatsevarlik, tarix, geografiya, arifmetika kabi dunyoviy bilimlarni o‘rgatishni muhim deb bilganlar. Chunki ularning ta’biricha, ayol nafaqat uy ishlarini, balki ijtimoiy hayotni tushunadigan, ongli shaxsga aylanishi kerak, degan qarash jamiyatda ustuvorlik qilishi kerak.

3. Jadid ma’rifatparvarlari ayol qadr-qimmati, uning burch va huquqlari haqida jamiyat a’zolarida sog‘lom fikr uyg‘otishga harakat qilganlar. Jadidlar matbuotdagi chiqishlari, ma’ruzalar, bahs-munozaralar orqali xotin-qizlarga ta’lim-tarbiya berish mavzusini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqqanlar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi maqolalarda u Turkiston jamiyatida ayol huquqlari, ma’rifati va ahvoliga oid masalalarni ko‘targanligi yoritilgan.

4. Teatr va adabiyotni xotin-qizlarga ta’lim-tarbiya berishning muhim vositasiga aylantirish jadidlarning qimmatli g‘oyalaridan biri edi. Jadid ma’rifatparvarlari sahna asarlari, pesa, dramalar, hikoya va maqolalar orqali jamiyatdagi eski qarashlar, bid’ad va hurofot ko‘rinishlarini tanqid qilish, xotin-qizlar taqdirini ochish va ma’rifatga chaqirishga erishganlar.

Jadidlarning xotin-qizlarga ta’lim-tarbiya berish, ularni jamiyatning faol a’zolari sifatida shakllantirish sohasidagi g‘oyalari o‘sha davrda juda katta to‘siqqa uchragan. Qizlarni maktabga jalb etish, ularni erta turmush qurishiga to‘sqinlik qilish, uy-ro‘zg‘or majburiyatlari bilan o‘ralashib qolish holatlarini bartaraf etish jadid ma’rifatparvarlari uchun og‘ir sinovlarni vujudga keltirdi. Jadidlar juda og‘ir ijtimoiy sharoitda xotin-qizlarni bilimli qilish, ularni millatning faol vakillari sifatida shakllanishiga sharoit yaratish rivojlangan mamlakatlarda erkaklar bilan teng bilim

olishini ta’minlashda alohida jonbozlik ko‘rsatganlar. Afsuski xorijiy mamlakatlarga bilim olish uchun otlangan xotin-qizlarning aksariyati jaholat qurboniga aylangan. Yangicha ta’lim usuli, darsliklar, dunyoviy fanlar, qizlarning umumiy ta’limga jalb etilishi aksariyat hollarda “an’anaga zid” harakat sifatida qabul qilingan. Qizlar uchun alohida sinf, maktab, xavfsiz o‘qish muhiti, eng asosiysi ayol o‘qituvchilar yetishmasligi ham o‘sha davrning asosiy muammolaridan biri bo‘lgan. O‘sha davrda xotin-qizlar ta’limi institutsional va ijtimoiy to‘siqlarga duch kelgan. Kambag‘allik, kitob-daftar xarajati, bolaning uyda mehnatga jalb qilinishi uzluksiz ta’lim olishiga to‘sqinlik qilgan. Shuning uchun ham jadid ma’rifatparvarlari o‘z mablag‘lari hisobidan maktablar ochib darsliklar chop ettirganlar.

XX asr boshidagi ziddiyatlar, bosimlar va keskin o‘zgarishlar ma’naviy-ma’rifiy harakatga munosabatning turlichaligi ham jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalarining amalga oshirilishini qiyinlashtirgan. Jadidlarning maktab-maorif, ta’lim-tarbiya sohasida ilgari surgan g‘oyalari, yondashuvlar bugungi kundagi O‘zbekiston jamiyati ta’lim-tarbiya tizimi uchun strategik ahamiyatga ega. Mazkur g‘oyalarni o‘rganish, ilmiy jihatdan asoslash ilmiy pedagogik jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Xotin-qizlar ta’limi kelajak avlod tarbiyasining sifatini oshiradigan eng samarali omil hisoblanadi. Jadid ma’rifatparvarlari ushbu masalaga qayta qayta murojaat qilganlar va davlat va jamiyatning global muammosi sifatida qaraganlar. Bugungi kunda jadidlar tomonidan ilgari surilgan strategik maqsadlar O‘zbekistonda davlat siyosati darajasida namoyon bo‘lmoqda, xotin-qizlarning bilim olishi, jamiyatning faol a’zosiga aylanishi uchun davlat tinimsiz g‘amxo‘rlik qilmoqda. O‘zbek qizlari yigitlar bilan teng tarzda xorijiy davlatlarda tahsil olish imkoniyatiga ega. O‘zbek qizlari uchun magistratura va oliy ta’limdan keyingi ta’lim yo‘nalishida keng imkoniyatlar mavjud.

Qizlarning ta’lim olishi kasb, mehnat bozori, tadbirkorlik, ijtimoiy faollik orqali O‘zbekiston jamiyatining ilmiy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatini oshirmoqda. Shuning uchun jadidlar g‘oyalari bugungi ta’lim siyosatida ham “inson kapitali” g‘oyasiga mos keladi. Ta’lim xotin-qizlarda huquqiy ong, muloqot madaniyati, oilaviy munosabatlarda tenglik va mas’uliyatni kuchaytirmoqda. Jadidlar ham matbuot va ma’rifat orqali xotin-qizlarning ijtimoiy ongini o‘zgartirishga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ziyoev H. Jadidchilik harakati va uning vakillari. – Toshkent, 1997.
2. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvarqori Abdurashidxonov: risola./ - Toshkent: “Yoshlar” nashriyot uyi, 2022. – 152 b.
3. Said Ahroriy. “Maorif va o‘qituvchi” jurnali. 1925-yil, iyul. Jadid.uz
4. Qosimov B. O‘zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent, 2019.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq”. www.ziyouz.com kutubxonasi.

ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ – ЎЗБЕКИСТОН ССРНИНГ БИРИНЧИ БОШ ВАЗИРИ (Сиёссий кураш ва зиддиятларга тўла ўн уч йил)

Ражабов Қаҳрамон,
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими

Ўзбекистон ССРни ташкил қилишда 1924 йил 31 октябрдан то 1925 йил 13 февралгача фаолият кўрсатган Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком) – муваққат ишчи-деҳқон ҳукумати муҳим роль ўйнади. Марказий Ревкомга раис қилиб таниқли давлат арбоби Файзулла Хўжаев тайинланган.

1924 йил 31 октябрда таниқли давлат арбоби Файзулла Хўжаев раислигида Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком) ташкил топди. Унинг таркибига Порсо Хўжаев (пойтахтни кўчириш бўйича Марказий комиссия раиси), Рустам Исломов (Ўзбекистоннинг мухтор вакили), Абдулла Раҳимбоев, Давлат Ризаев (Маориф халқ комиссарининг биринчи ўринбосари), Султон Қори Жуманиёзов (Хоразм вакили), Гольдбер (раис ўринбосари), Владимир Иванов (Тошкент Янги шаҳар ижроия комитетидан), Иномжон Хидиралиев (Ер ишлари халқ комиссари), Мухторжон Саиджонов (Ички ишлар халқ комиссари), Қори Йўлдош Пўлатов (Молия халқ комиссари), Исҳоқ Газиев (Адлия халқ комиссари), Имомов (Тожикистон ревкоми) ва бошқалардан иборат 15 кишилик таркибдаги Ўзбекистон ССР Марказий Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком) тузилди[20].

Бундан ташқари 30 октябрда Ўзбекистон Коммунистик (большевиклар) партияси Ташкилий бюроси ҳам тузилди. Ташкилий бюронинг секретарлари қилиб Рустам Исломов ва Абдулла Раҳимбоев тасдиқланди[21]. Кейинчалик Владимир Иванов ташкилий бюронинг биринчи секретари, Акмал Икромов ва Нусратулла Махсум Лутфуллаев унинг аъзолари қилиб тайинланди.

1924 йил 18 ноябрда Туркистон АССР, Бухоро ССР ва Хоразм ССР Марказий Ижроия Қўмиталари махсус қўшма қарор қабул қилди ва шу қарорга биноан ўз ваколатларини Ўзбекистон ССР Советларининг Таъсис қурултойига қадар иш кўрувчи, Файзулла Хўжаев раислигида 31 октябрда ташкил этилган Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком)га топширди[22]. Марказий Ревком тўрт ой давомида Ўзбекистон ССР тузилишини бошқариб ва назорат қилиб борди[23].

1924 йил 21 ноябрда Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасига раҳбарлик қилиш учун Тошкент шаҳрига етиб келди ва шу ерда мазкур қўмита раиси сифатида фаолият олиб борди.1924 йил 24 декабрда Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси

[20]Ўзбекистон Миллий архиви, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 1545-иш, 340-варақ.
[21]Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 600-иш, 45-50-варақлар.
[22]“Озод Бухоро”, 1924 йил 28 ноябрь.
[23]Бу ҳақда қаранг: Самарқанд вилояти давлат архиви (Самарқанд ВДА), 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-86-варақлар.

раислигидан ташқари СССР Революцион Ҳарбий Совети томонидан Туркфронт Ҳарбий совети аъзоси ва СССР Ҳарбий-денгиз ишлари халқ комиссарлигининг Ўзбекистон бўйича вакили этиб тасдиқланди[24].

Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси раиси лавозимига келган кунларданоқ Ўзбекистон ССРни ташкил этиш борасида кўплаб ишларни амалга оширишга киришди. Масалан, унинг 1924 йил 27 ноябрдаги Зарафшон вилоят ижроия қўмитаси раиси Субҳонқули Муродовга ёзган хати айниқса диққатга сазовордир[25]. Хатда қозоқ, қирғиз, найман халқлари учун алоҳида район усулида вилоят ташкил қилиниши ва бу вилоят тўғридан тўғри Ўзбекистон Марказий ҳукуматига қарашини таъкидлайди[26]. Кейинчалик Ўзбекистон ССРда Конимех ва Томди қозоқ маъмурий тузилмалари (махсус автоном районлар) ташкил этилди.[27] Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси раиси лавозимида ишлаган даврда унинг бевосита йиғилишларига раислик қилди. Бу йиғилишларда Ўзбекистон ССР ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётига доир кўплаб масалалар кўриб чиқилди.

1924 йил 5 декабрда Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси Ўзбекистон ССР тузилганлигини тантанали равишда эълон қилди[28]. Худди шу куни “Правда Востока” газетасида Файзулла Хўжаевнинг “Совет қурилишининг навбатдаги вазифаларига доир”[29] номли мақоласи эълон қилинди. Мақолада муаллиф кенг деҳқонлар оммаси манфаатларини рўёбга чиқаришга хизмат қила оладиган фаол соф виждонли кишиларни топиб, уларни уезд ва волость органларига тортиш, яқин келгусида иш юритишни ҳар бир тумандаги аҳоли кўпчилигининг тилида олиб боришни жорий қилиш йўли билан аппаратни аҳолига яқинлаштирадиган қилиб қайта ташкил этиш, яқин келгусида уезд ва волость ташкилотларида бутун иш юритишни ўзбек тилида олиб бориш, аҳолининг кўпчилиги ўзбек тилида гапирмайдиган туман ёки шаҳарларда эса иш юритиш баб-баравар икки тилда – ўзбек тилида ва кўпчилик аҳоли тилида жорий қилиш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш лозимлигини таъкидлади. Шунингдек, у иш юритишни ҳозирча рус тилида олиб бораётган марказий органлар махсус ўзбек ячейкасини тузишини ва бу ячейканинг вазифаси иш юритишни аста-секин ўзбек тилига ўтказишдан иборат иборат бўлишлигини уқтириб ўтади[30].

Масалан, 1924 йил 24 декабрда “Правда Востока” газетасида Файзулла Хўжаевнинг “Қуйи совет аппаратини жонлантириш ва мустаҳкамлаш” номли

[24] *Файзулла Хўжаев*. Танланган асарлар. Уч томлик. Том I. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 529.

[25] *Ҳайитов У*. Файзулла Хўжаевнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти ва унинг Ўзбекистондаги сиёсий жараёнларда тутган ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Бухоро, 2022. 54 бет.

[26] *Бақоев М*. Файзулла Хўжаев журналист ва публицист. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 41.

[27] *Норматов О*. Ўрта Осиёда 1926 йили ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий ва иқтисодий ҳаётига таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 18.

[28] “Правда Востока”. №10 (549). 5 декабря 1924 г.

[29] *Файзулла Ходжаев*. К очередным задачам советского строительства // “Правда Востока”. №10 (549). 5 декабря 1924 г.

[30] “Правда Востока”. №10 (549). 5 декабря 1924 г.

маърузаси эълон қилинди. Маърузада муаллиф Туркистон АССРнинг Самарқанд ва Фарғона вилоятларида, Бухоронинг бир қадар ҳудудларида совет ҳокимияти деярли мавжуд эмаслигини, Туркистонда инқилобий ҳаракат асосан европалик аҳоли орасида кенг ёйилганлигини, туб ерли аҳоли эса бу харакатларга фаол бўлмагани ҳақида очиқ айтиб ўтди[31].

1925 йил 20 январь куни Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасининг совет аппаратини жонлантиришга бағишланган йиғилиши бўлиб ўтди. Уни Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасининг раиси Файзулла Хўжаев олиб борди ва нутқ сўзлади. У ўз нутқида Октябрь воқеалари ва унинг ғоялари минтақага европалик ишчилар томонидан олиб кирилганлигини, аҳолининг бир қисмигина бу воқеаларда иштирок этганлигини ва аҳолининг катта қисми бу воқеаларга бевосита қатнашмаганлигини яна бир бор таъкидлади[32]. Тугатилган Туркистон АССРда совет ҳокимияти қишлоқда ҳақиқатдан мавжуд эмаслигини, Ўзбекистон ССРда қишлоқ ва уездларда яшовчи аҳоли совет ҳокимияти ҳақида ҳеч нима билмаслигини ва бу ҳокимият олдида қандай вазифа турганлигидан бехабарлигини алоҳида баён қилиб ўтди[33]. Нотиқ уезд, ҳатто вилоятлардаги совет аппарати моддий жиҳатдан таъминланмаганлиги ачинарли ҳол эканлигини ўз маърузасида алоҳида таъкидлади[34].

Самарқанд вилояти давлат архивида Ўзбекистон ССР Марказий Ревкоми (Инқилобий Қўмитаси) фаолияти ҳақида ноёб ҳужжатлар сақланиб қолган. Архив фондларида 1924 йил 22 ноябрдан то 1925 йил 11 февралгача Тошкент ва Эски Бухоро шаҳарларида бўлган Ўзбекистон ССР Инқилобий Қўмитаси (Ревком) мажлислари (1-21-мажлисларининг протоколлари) ҳақида муҳим маълумотлар мавжуд. Рус тилида ўтказилган ва тайёрланган мажлисларнинг барчасига Файзулла Хўжаев раислик, А.Жабборов (Абдужабборов) секретарлик (котиблик) қилган[35].

Ўзбекистон ССР Ревкомининг 1924 йил 22 ноябрда Тошкент шаҳрида бўлган 1-мажлиси стенограммасида қайд этилишича, мажлисга ўртоқ Файзулла Хўжаев раислик ва ўртоқ А.Жабборов (Абдужабборов) секретарлик қилган. Мажлисда Ревком аъзолари бўлган Саиджонов, Порсо Хўжаев, Лукьянов, Султон Қори, Обид Махсумов, Пўлатов, Манжара, Раҳимбоев, Исломов, Владимир Иванов қатнашган. Ревкомнинг биринчи мажлисида Ўзбекистон ССР халқ комиссарликлари ва бошқа идораларга масъул раҳбарлар ҳамда ўринбосарлар тайинланган[36].

“Іа) Ўзбекистон ССР халқ комиссарликлари раҳбарлари ва ўринбосарлари қилиб қуйидаги ўртоқлар тайинланган:

1) Хидир-Алиев [Иномжон Хидиралиев] – Ер ишлари халқ комиссари (Наркомзем); Андреев – нарком ўринбосари;

---

[31] *Файзулла Ходжаев*. Оживление и укрепление низового советского аппарата // “Правда Востока”. №26 (565). 24 декабря 1924 г.

[32] Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 15-рўйхат, 3-иш, 2-варақ .

[33] Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 15-рўйхат, 3-иш 3-варақ.

[34] Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 15-рўйхат, 3-иш 6-варақ.

[35] Қаранг: Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-86-варақлар.

[36] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақ.

2) Пўлатов [Қори Йўлдош Пўлатов] – Молия халқ комиссари (Наркомфин); Малахов – нарком ўринбосари;

3) Саиджонов [Мухторжон Саиджонов] – Ички ишлар халқ комиссари (Наркомвнудел);

4) Иноғомов [Раҳим Иноғомов] – Маориф халқ комиссари (Наркомпрос); Ризаев [Давлат Ризаев] – наркомнинг биринчи ўринбосари, Ефанов – наркомнинг иккинчи ўринбосари;

5) Асфандиёров [Санжар Асфандиёров] – Соғлиқни сақлаш халқ комиссари (Наркомздрав);

6) Саид-Али-Хўжаев [Саидали Хўжаев] – Меҳнат халқ комиссари (Наркомтруда);

7) Иноятов – Ички савдо халқ комиссари (Наркомвнуторг); Розенталь – нарком ўринбосари;

8) Сафаев [Карим Сапаев] – Социал таъминот халқ комиссари (Наркомсобез);

9) Муҳитдинов [Абдулқодир Муҳитдинов] – Халқ Хўжалиги Марказий Кенгаши (ЦСНХ) раиси; Агламов – ЦСНХ раиси ўринбосари;

10) Мавлонбеков[Аҳмадбек Мавлонбеков][37] – Ишчи-Деҳқон инспекцияси халқ комиссари (Наркомрабкри);

11) Газиев [Исҳоқ Ғозиев][38] – Юстиция халқ комиссари (Наркомюст).

I б) Хоразм вакилларини масъул лавозимларга тайинлаш зарурлигини таъкидлаган ҳолда келажакда етарли даражада тайёрланган хоразмлик ўртоқларни халқ комиссарликлари ва турли идоралар таркибига киритиш масаласи ҳал қилинади”[39].

Ревкомнинг мазкур биринчи мажлисида янги ташкил қилинаётган Ўзбекистон ССР Давлат режа қўмитаси (Госплан) раиси ўринбосари қилиб Бухоро Республикаси Госпланининг собиқ раиси Янишевский тайинланди (1927 йил март ойида бу лавозимни Бурнашев эгаллайди)[40].

Мажлисда Ўзбекистон ССР пойтахти масаласи ҳам ҳал қилинади. Узоқ тортишувлардан кейин пойтахт қилиб Самарқанд шаҳри белгиланади[41].

---

[37] *Аҳмадбек Матқулович Мавлонбеков*(1897-1938) – Ўзбекистон ССРда фаолият кўрсатган миллий раҳбар ходимлардан бири, давлат ва сиёсат арбоби. Хўжандда ўзбек деҳқони оиласида туғилган. Рус-тузем мактаби ва телеграфчилар курсини тугатган. Хўжандда “Мусулмонлар иттифоқи” жамиятининг ташкилотчиларидан бири (1917 йил май). Хўжанд уезди партия қўмитаси ҳамда ревком раиси (1919-1920), Хўжанд уезди ижроқўми раиси (1920-1921), Фарғона вилояти ревкоми раисининг биринчи ўринбосари ва раиси (1921-1922), Самарқанд обкоми масъул котиби (1922-1923), Бухоро Компартияси Марказий Қўмитаси масъул котиби (1923-1924). Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш ўтказилгач, Ўзбеистон ССР Ишчи-деҳқон назорати халқ комиссари (1925-1927), Юстиция халқ комиссари – Ўзбекистон ССР прокурори (1927-1930), Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Қўмитаси масъул котиби (1930-1931). Москвада қизил профессорлар университетида ўқиган (1931-1933). СССР Ер ишлари халқ комиссарлиги ҳузуридаги МТС сиёсий бўлимининг Ўрта Осиёдаги вакили (1933-1934), Тожикистон Компартияси Марказий Комитетининг пропаганда ва агитация бўлими бошлиғи (1934-1937). Совет режими томонидан Душанбеда 1937 йили қамоққа олинди ва 41 ёшида 1938 йил май ойида отиб ўлдирилди.

[38] *Исхак Газиев [Исҳоқ Ғозиев]* (1896-?) –Ўзбекистон ССР Юстиция халқ комиссари ва республика давлат прокурори (1925 йилдан). Ўзбекистон ССР МИҚ Президиуми аъзоси. Марғилонда туғилган. Совет режими томонидан қатағон қилинган.

[39] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақ.

[40] Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: O’zbekiston, 2015. – Б. 197.

[41] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақ.

Ўзбекистон ССР пойтахтини ҳамда марказий давлат идораларини Тошкент ва Эски Бухородан янги пойтахт – Самарқанд шаҳрига кўчириш масалалари муҳокама қилинди. Ташкилий масалаларни ҳал қилиш ҳамда бошқарув аппаратини шакллантириш учун пойтахтни кўчириш бўйича Марказий комиссия ташкил қилинади. Марказий комиссияга раис қилиб Порсо Хўжаев (Бухоро Марказий Ижроия Қўмитасининг сўнгги раиси), аъзолар қилиб Қори Йўлдош Пўлатов, Хомутхонов [Ғанихон Ҳамидхонов], Давлат Ризаев, Абдужабборов киритилди[42].

1924 йил 26 ноябрда Тошкент шаҳрида Ўзбекистон ССР Инқилобий Қўмитаси (Ревком)нинг 2-мажлиси бўлади. Мажлис ишига одатдагидек Файзулла Хўжаев раислик, Абдужабборов секретарлик қилади. Бу мажлисда асосан Ўзбекистон ССР таркибида ташкил топиши мўлжалланаётган Тожикистон АССР Инқилобий Қўмитасини тузиш (Чинор Имомов маърузаси) масаласи кўрилади[43].

Ревком мажлисида Тожикистон Автоном Республикасининг Инқилобий Қўмитасига раис қилиб Нусратилла Махсум, унга ўринбосар қилиб Ҳожи Рахматулла Дадабоев, масъул секретар қилиб Ҳамидов, аъзолар этиб Имомов, Соколов, Ҳожибоев, Толпиго, Ёрмуҳамедов, Абдулазиз, Митимур, Қурбий, Кизин, Федько ҳамда Шарқий Бухоро ўзбекларидан бўлган битта вакил тайинланади[44]. Бундан ташқари, мазкур мажлисда Тожикистон АССР Ревкомининг штатлар ва таъриф комиссиялари ҳамда Ўзбекистон Ревкоми ҳузурида Марказий ҳисоб комиссияси тузиш тўғрисида (Файзулла Хўжаев маърузаси) тингланади ҳамда тегишли қарорлар қабул қилинади. Шунингдек, 2-мажлисда халқ комиссарлари (наркомлар) ўринбосарлари ҳамда халқ комиссарлиги (наркомат) коллегия аъзоларини қўшимча равишда тасдиқлаш масалалари ҳам кўриб чиқилиб, Ер ишлари халқ комиссарлиги (Наркомзем) коллегия аъзолари қилиб Турсун-Хўжаев [Саъдуллахўжа Турсунхўжаев], Содиқ Мухамедов ва Саид Хўжаев, Маориф халқ комиссарлиги коллегия аъзолари қилиб Ахундов, Назиров, Рачинский, Мусо Саиджонов ва Носир Мухамедов, Молия халқ комиссарлиги коллегия аъзоси этиб Қосим Қориев, Ички савдо халқ комиссарининг 2-ўринбосари қилиб Сатторов, Ички ишлар халқ комиссарлиги (НКВД) коллегия аъзолари қилиб Рубинштейн, Махмудов, Тошбоев, Социал таъминот халқ комиссарлиги коллегия аъзоси қилиб Ҳалим Ашуров[45], Юстиция халқ комиссарининг ўринбосари қилиб Зиёвуддинов ва коллегия аъзоси қилиб Узоқбоев, Давлат режа қўмитаси (Госплан) Президиуми аъзоси қилиб Генкузен тайинланди[46].

Ҳужжатда айнан кўрсатилишича, Ўзбекистон Республикаси ГПУ (Давлат Сиёсий Бошқармаси) раиси қилиб Иван Биксон тайинланади.

[42] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақнинг орқаси.
[43] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 48-варақ.
[44] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 48-варақ.
[45] Ҳалим Ашуров Бухородаги жадидчилик ҳаракатининг фаол қатнашчиси бўлган. Файзулла Хўжаевнинг ёзишича, Ёш бухороликлар партиясининг 1917 йилдаги бир қанча йиғилишлари унинг Бухоро шаҳридаги ҳовлисида ўтказилган. Ҳалим Ашуров бухоролик таниқли тарихчи олим, профессор Фарҳод Ҳабибович Қосимов (1941-2006)нинг тоғаси ҳисобланади.
[46] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 52-варақ.

Ўзбекистон Республикаси ЦСУ (Марказий статистика бошқармаси) бошқарувчиси вазифасини вақтинча бажарувчи қилиб Лико тасдиқланди. Ўзбекистон Республикаси Ревкоми раисининг ўринбосари қилиб эса бошқа бир яҳудий –Гольдберг тайинланди[47]. Ўзбекистон ССР давлат прокурори қилиб эса Газиев (Исҳоқ Ғозиев) тайинланди[48].

Мазкур йиғилишда Ўзбекистон ССРда фаолият кўрсатувчи турли комиссиялар ҳам ташкил қилинади. Масалан, квартира масалалари билан шуғулланувчи комиссия (бу комиссия уй-жой масалалари бўйича фавқулодда комиссия тугатилгандан кейин янги тузилган эди; унинг таркибига Абдужабборов, Леонов, Милиция бошлиғи Иванов киритилган), савдо органлари бўйича комиссия (Иноятов раис бўлган, комиссия таркибига Янишевский, Розенталь, Иванов, Березов, Агамиров аъзолар қилиб киритилган), Ўзбекистон Республикасидаги ишлаб чиқариш корхоналари бўйича комиссия (унга Файзулла Хўжаев раис бўлган, аъзолар қилиб Агламов, Дудин, Сергеев, Воронин, Калугин киритилган), кооперация масалалари бўйича комиссия (Розенталь раис бўлган, комиссия аъзолари қилиб Исаев, Шляпников, Сатторов киритилган), қонунчилик комиссияси (Юстиция халқ комиссари Исҳоқ Газиев унга масъул қилиб тайинланган), Бухоро Республикасини тугатиш комиссияси (Абдулқодир Муҳитдинов раис, Кизин раис ўринбосари, унга аъзолар қилиб Абдусатторов, Хрони, Рубинштейн, Шатуновский, Аҳмаджонов, Клячко, Абдуқаюмов, Мусо Саиджонов, Муинжон Аминов киритилди), шунингдек, фонд кичик комиссияси (Абдуқаюмов раислигида, Шатуновский ўринбосар бўлган), ҳисобот-тақсимот кичик комиссияси (Хрони раислигида, Клячко ўринбосар бўлган), архив кичик комиссияси (Сатторов раис, Аҳмаджонов ўринбосар бўлган), маҳаллий органларни ташкил этиш кичик комиссияси (Саиджонов раислиги ҳамда Рубинштейн ўринбосарлигида) ташкил қилинган[49].

Ўзбекистон ССР Марказий Ревкомининг юқорида таҳлил қилинган иккита мажлиси материалларидан кўриниб турибдики, бу мажлисларга ревком бошлиғи Файзулла Хўжаев раислик қилишдан ташқари у турли комиссиялар фаолиятига ҳам раҳбарлик қилган. Ўзбекистон ССР ташкил топишининг ҳам ҳуқуқий, ҳам ташкилий, ҳам иқтисодий, ҳам сиёсий ва ижтимоий асосларини вужудга келтириш учун катта меҳнат қилган. Айнан Файзулла Хўжаевнинг шиддатли саъй-ҳаракатлари, темир иродаси ва қатъияти, меҳнатсеварлик ва ишчанлик фазилатлари ўша 1924 йил октябрь – 1925 йил февраль ойларида яққол намоён бўлган эди.

Ўзбекистон ССР Инқилобий Қўмитасининг 1924 йил 2 декабрда бўлган 3-мажлисида Хоразм Ревкоми ҳамда Тошкент вилояти Ревкоми таркиблари тасдиқланган. Хоразм вилояти Ревкоми таркибига (Боис Раҳимий маъруза қилган) раис қилиб Болтаев [Карим Болтаев], аъзолар қилиб эса Турсун-Хўжаев[Саъдуллахўжа Турсунхўжаев], Шариф-Хўжаев, Абдулла Давлатов, К.Ишмухамедов, Назир Шоабдурасулов, Воисов, Владимиров, Шамсиев, Боис

[47] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 52-варақ.
[48] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 53-варақ.
[49] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 52-53-варақлар.

Раҳимий, Хонсуворов[Исоқ Хонсуворов], номзодлар қилиб Мухтор Бакиров, Дж.Ишмухамедов, Қаландаров[Қаландар Адинаев] киритилди. Тошкент вилояти Ревкоми таркибига эса раис қилиб Агламов, аъзолар этиб Лукьянов, Қурбонов, Арифхонов, Каримжонов [Абдуллажон Каримов], Калугин тасдиқланди[50]. Шунингдек, Ўзбекистон ЦСУ (Марказий статистика бошқармаси) бошқарувчиси этиб Константин Петрович Васильев, Госплан (Давлат режа қўмитаси) раиси этиб эса Дунаев тасдиқланади[51].

Файзулла Хўжаев ва Гольдберг Ўзбекистон ССР ҳукуматининг Москвадаги Меҳнат ва мудофаа кенгаши (СТО)даги вакиллари қилиб ҳамда Исломов Ўзбекистон ССРнинг Совет Иттифоқидаги мухтор вакили қилиб тасдиқланади[52].

Марказ ўзининг Тошкентдаги махсус вакиллари орқали Ўзбекистон ССР Ревкоми фаолиятига жиддий таъсир кўрсатишга, бу фавқулодда бошқарув органи фаолиятини йўлга солиш ва назорат қилишга уринган. Ҳатто 1924 йил декабрда янги ташкил қилинаётган Ўзбекистон ССР ҳудудида концентрацион лагерлар (концлагерлар) ташкил қилишга муҳим аҳамият қаратади[53]. Тарихий тадқиқотларда келтирилишича, большевиклар ва совет режими томонидан 1918-1923 йилларда Туркистон АССРда, хусусан, Фарғона водийси ва Самарқанд вилоятида дастлабки концентрацион лагерлар барпо қилинган эди[54].

1924 йил 13 декабрда Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси навбатдаги йиғилиши қарорига асосан эса Тожикистон АССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси таркиби тасдиқланди. Нусратулла Махсум – Тожикистон АССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси раиси, Р.Дадабоев эса унинг ўринбосари лавозимига тайинланди[55].

1924 йил 17 декабрда Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган Инқилобий Қўмитанинг 5-мажлисида аввал Туркистон АССР, эндиликда Ўзбекистон ССР ГПУ бошлиғи, яъни чекистларнинг йўлбошчиси Биксон Ўзбекистон ССР ГПУ ҳузурида Махсус кенгаш ташкил қилиш ҳамда бу қатағон органига кишиларни маъмурий бадарға ва сургун қилиш, концентрацион лагерларда қамоқда сақлаш ҳуқуқини бериш тўғрисидаги қарор лойиҳаси ҳақида маъруза қилади. Мажлисда Махсус кенгаш ҳақидаги қарор лойиҳаси тасдиқланиб, унинг таркибини СССР МИҚдан тасдиқлаш сўралади ҳамда Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссари (НКВД раҳбари)ни ҳал қилувчи овоз билан киритиш талаб қилинади[56].

1924 йил 31 декабрда бўлган Ўзбекистон ССР Инқилобий Қўмитасининг 8-мажлисида Файзулла Хўжаев бошқарув аппаратини **миллийлаштириш**

[50] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 58-варақ.
[51] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 58-варақ.
[52] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 58-59-варақлар.
[53] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 63-варақ.
[54] Раджабов К.К. Истиқлолчилик ҳаракати в Ферганской долине: сущность и основные этапы развития (1918-1924 гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – С. 26; Ражабов Қ. Фарғон водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918-1924 й.). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – Б. 152-154.
[55] Ўзбекистон Миллий архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 273- иш, 42-варақ.
[56] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 63-варақ.

(кейинчалик бу атама **ўзбеклаштириш** тушунчаси билан алмаштирилган!) ҳақидаги қарор лойҳаси тўғрисида маъруза қилади. Мазкур масала мажлисда ижобий ҳал қилиниб, Ўзбекистон ССРдаги барча совет, партия, хўжалик ташкилотларини, яъни давлат аппаратини миллийлаштириш (ўзбеклаштириш) кераклиги таъкидланади. Ўзбекистон ССР Ревкоми аъзолари бўлган Порсо Хўжаев комиссия раиси, Раҳим Иноғомов ва Исҳоқ Ғозиев эса комиссия аъзолари қилиб тайинланади[57].

Ўзбекистон ССР Инқилобий Қўмитасининг 1925 йил 13 январда бўлган 9-мажлисида Ревком раиси Файзулла Хўжаев маъмурий бўлиниш тўғрисида маъруза қилиб, бу соҳада олиб борилаётган ишларни долзарб ва зарбдор деб эълон қилади. Ўзбекистон ССРнинг маъмурий бўлиниши тўғрисида махсус комиссия тузилиб, бу тадбирни якунлаш кераклиги айтилади. Комиссияга НКВДдан Рубинштейн, Хоразмдан Давлат Ризаев ҳамда ЦСУдан вакиллар киритилиб, Бухоро ва Хоразмда бу соҳада тўпланган барча маълумотларни умумлаштириш лозимлиги гапирилади. Тузилган комиссия ўз фаолиятини районлаштириш ҳақидаги комиссия билан ўзаро мувофиқлаштириши лозимлиги келишиб олинади[58].

Бу мажлисда Ревком секретари Абдужабборов Бутунўзбек Советлари таъсис съездини чақириш тўғрисида махсус маъруза қилади. Унга кўра, Бутунўзбек Советларининг биринчи қурултойи (съезди) 1925 йил февралда Бухоро шаҳрида ўтказиладиган бўлади. Мажлисда бўлажак қурултойнинг кун тартиби: ҳукуматнинг ҳисоботи ва миллий қурилиш бўйича вазифалар, хўжалик қурилиш, қуйи совет аппарати, халқ маорифи, сайловлар ва бошқа масалалар ҳам кўриб чиқилади ва тасдиқланади[59].

Ревком мажлисида суд-ер комиссияси Хидиралиев раислигида тузилиб, унга Саид-Хўжаев, Александров, Петров, Одилий, Усмонов ва Зиёвуддинов аъзолар қилиб киритилган. Шунингдек, Очарчилик оқибатларини тугатиш Марказий комиссияси ўз вазифасини бажарган деб ҳисобланиб, унинг фаолияти тугатилади[60].

Бошқа бир мажлисда, у 1925 йил 14 январда бўлиб ўтган, Берлинда ўқиётган студентларга стипендия бериш 1925 йил 1 январдан тўхтатилиши айтилиб, бу соҳада иқтисод қилинган маблағ Госплан томонидан режалаштирилган ҳар бир кварталга 67 661 рубль миқдорида қўшиладиган бўлди[61].

1925 йил 29 январда бўлган Ўзбекистон ССР (ЎзССР) Инқилобий Қўмитасининг 15-мажлисида Районлаштириш бўйича комиссиянинг маърузаси (маърузачи: Васильев) эшитилади[62]. Маъруза асосида ЎзССРнинг маъмурий бўлинишига қуйидаги тузатишлар киритилади:

“а) Хоразм вилояти маркази қилиб Хива шаҳри қолдирилади.

б) Сурхондарё вилояти маркази қилиб Шеробод шаҳри белгиланади.

[57] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 65-варақ.
[58] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 67-варақ.
[59] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 90-варақ.
[60] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 92-варақ.
[61] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 95-варақ.
[62] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 103-варақ.

в) Районлаштириш бўйича комиссияга бир ой муддат ичида собиқ Бухоро Республикаси ҳудудида қанча миқдорда қишлоқ советлари тузиш лозимлигини аниқлаш топширилади.

г) 1) Нурота уезди бевосита ЎзССР МИКка бўйсунадиган алоҳида маъмурий бирлик сифатида қаралади.

2) Алоҳида Нурота уезди Зарафшон областининг қуйидаги волостларидан тузилади: Қўшработ, Жўш, Нурота, Тошқудуқ ва Ойтерен...

5) Нурота уездининг уезд маркази қилиб Нурота шаҳри белгиланади.

6) Уезд Советлари съезди чақирилгунга қадар Нурота уездини бошқариш учун Инқилобий Қўмита қуйидаги таркибда тузилади: Арсломбоев (раис), Аулбоев (раиснинг1-ўринбосари) ҳамда раиснинг 2-ўринбосари ўзбек аҳолиси орасидан тайинланиб, унинг номзоди Зарафшон вилояти юқори органлари билан келишилади; Аҳмадбегимов ва Тожикдинов (аъзолар).

Тожикдиновга Нурота уезди ревкоми секретари вазифасини бажариш ҳам топширилсин...

д) Хўжанд уезди масаласи очиқ қолдирилсин (маъмурий бўлиниш лойиҳаси илова қилинади)”[63].

Ўзбекистон ССР Ревкомининг 1925 йил 10 февралда Эски Бухоро шаҳрида бўлиб ўтган 18-мажлисида (раис: Файзулла Хўжаев, котиб: Семичов) Бутунўзбек Советлари таъсис қурултойи ҳамда Ўзбекистон Компартиясининг I съездига тайёргарлик масалалари, Эски Бухоро шаҳрида қурултойлар ўтказиш учун махсус қурилган Халқ уйида хўжалик кўргазмаси ташкил қилиш масаласи кўриб чиқилади[64].

Хуллас, Файзулла Хўжаев раҳбарлик қилган Ўзбекистон ССР Марказий Инқилобий Қўмитаси ўзининг уч ойлик фаолияти давомида янги ташкил қилинаётган Ўзбекистон ССРни ташкилий жиҳатдан тузиш ва шакллантириш учун салмоқли ишларни амалга оширди. Ревком фаолиятида таниқли давлат арбоби Файзулла Хўжаев муҳим роль ўйнади.

Бу ўринда сўз Файзулла Хўжаев сиёсий фаолиятининг энг гуллаган даври, яъни у Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлари Совети раиси лавозимида ишлаган 1925-1937 йилларда большевиклар партиясининг аграр сиёсатига муносабати хусусида боради. У асосан Ўзбекистон РПДА ҳужжатлари асосида тайёрланган[1].

Тарихдан маълумки, совет даврида большевиклар партияси СССР иқтисодиётига раҳбарлик қилишда беш йиллик режалардан унумли фойдаланган. СССР халқ хўжалигининг биринчи беш йиллик режаси 1928 йил октябрда бошланиб, 1932 йил декабрда бажарилган.

Беш йиллик режаларини ўша давр шароитида Файзулла Хўжаев журъат билан кескин равишда танқид қилган. Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлари Совети раиси *Файзулла Хўжаев* 1927 йил апрел ойида ВКП(б) МК Котиби ва

[63] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 103-104-варақлар.

[64] Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 84, 117-варақлар.

[1] Китобнинг бу фасли 2011 йил 30 сентябрда Тошкент шаҳридаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейида “Файзулла Хўжаев – йирик давлат арбоби, халқ ва мамлакат манфаатларининг толмас курашчиси” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжуманида қилинган маъруза асосида тайёрланди.

ВКП(б) МК Ўрта Осиё бюроси биринчи котиби И.А.Зеленский номига юборган хатида шундай деб ёзган эди: “*Беш йиллик режаси хаёлпарастлик билан тузилган. Бу режа на имкониятларимиз даражасига, на бизнинг ихтиёримиздаги воситаларимиз талаби ва кўламга мос эмас. Шунингдек, бу хўжалик режаси бизнинг ҳақиқий имкониятларимиз, тажрибамиз, халқ хўжалигимиз тараққиётига мос бўлмаган ҳолда тузилган. Шунинг учун мен Бурнашев позициясини (бизнинг бюджетимиз ҳаддан ташқари тез ўсиши ҳақидаги фикрларини) нотўғри ва ёлғон деб ҳисоблайман. Бу нуқтаи назар бизнинг хўжалик аҳволимизнинг асосий масалаларини тушунмаслик ва калондимоғликдан келиб чиқади*”[65].

Албатта, Ўзбекистон ССР ҳукуматининг раиси томонидан билдирилган бундай кескин мулоҳазалар большевиклар ва Кремль манфаатларига хизмат қилмаган. Шунинг учун ҳам большевиклар партиясининг раҳбарлари ва уларнинг Ўрта Осиёдаги гумашталари томонидан Файзулла Хўжаевга нисбатан кучли тазйиқ ўтказилган, унинг фикрлари қаттиқ танқид қилинган.

Ўзбекистон Компартиясининг III съезди (1927 йил 16-24 ноябрь)да Ўзбекистонда саноатнинг ривожланиши масалаларига тўхталиб ўтган миллий раҳбар ходимлардан бири *Абдураҳим Ҳожибоев* шундай деган эди: “*Бизнинг Ўрта Осиё республикаларимиз Иттифоқ учун хом ашё базаси бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Агар биз саноатнинг индустриал ривожланиш масаласини қўйсак, биринчи галда хом ашёни қайта ишлайдиган ва бизнинг ички имкониятларимиздан фойдаланадиган йўналишга асосий эътибор берилади. Аммо бу Ўзбекистонда енгил саноатни ташкил этиш, тўқимачилик фабрикалари қурилишини кенгайтириш масаласини қўймаслик дегани эмас*”[66].

Бу съездда Ўзбекистоннинг ишлаб чиқариш кўлами борасида ҳам кўплаб фикрлар билдирилди. Бу масалада Ўзбекистон Компартияси МК масъул котиби *Акмал Икромов* шундай деган эди: “*Бу масала юзасидан Ўзбекистонда ўзбек миллий буржуазияси ва партия алоҳида аъзоларининг катта курашлари кетмоқда. Миллатчилик билан зарарланган бу гуруҳ фикрича: Ўзбекистон – қизил колония, Ўзбекистон индустрлашмаяпти, аксинча Иттифоқнинг хом ашё базасига айланиб, у аграр республика бўлмоқда*”[67].

Бу ўринда шуни таъкидлаб ўтиш лозимки, Акмал Икромов Ўзбекистон коммунистларининг раҳбари сифатида Москва манфаатларини изчил ҳимоя қилган. У ўзининг кўплаб маъруза ва нутқларида ўзбек зиёлиларини, энг аввало жадидларни кескин танқид қилади. Совет ҳокимиятининг сиёсатини қўллаб-қувватламаган ҳар қандай инсон унинг наздида “буржуа миллатчиси” ва “халқ душмани” эди. А.Икромов ўзининг амалий фаолиятида ҳам бу қоидага қатъий амал қилган.

Совет ҳокимияти томонидан олиб борилган иқтисодий марказлаштириш сиёсатида аграр масала катта ўринни эгаллайди. Большевиклар партияси саноатни индустраштириш сиёсати (бу сиёсат 1925 йил 18-31 декабрда бўлиб

[65] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 3-рўйхат, 164-иш, 9-варақ.
[66] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 8-иш, 1-2-варақлар.
[67] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 8-иш, 100-варақ.

ўтган ВКП(б) XIV съездида қабул қилинди)дан кейин қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш ва ўзига тўқ деҳқон хўжаликларини қулоқлар сифатида тугатиш сиёсатини юритди. Бу сиёсатнинг асосий вазифалари 1927 йил 2-19 декабрда бўлган ВКП(б)нинг XV съездида қабул қилинди ва қишлоқ хўжалигини коллективлаштиришни авж олдириш йўли ишлаб чиқилди. Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ушбу мавзунинг айрим жиҳатлари, хусусан, қулоқларнинг қатағон қилиниши ва мажбурий ўтказилган коллективлаштириш сиёсати тўғрисида бир қатор номзодлик ва докторлик диссертациялари ҳимоя қилинди. Ўрта Осиёдаги қулоқлаштириш жараёни тўғрисида профессор Р.Шамсутдинов бошчилигида бир гуруҳ тарихчи олимлар томонидан кўплаб архив ҳужжатлари ҳам эълон қилинди[68], айрим монографиялар нашр этилди.[69] Шунинг учун муаммонинг бу жиҳатларига махсус тўхталиб ўтирмасдан фақат мавзунинг айрим томонлари хусусида фикр юртмоқчимиз.

Ўзбекистон ССРда эса “аграр инқилоб”нинг стратегия ва тактикаси Ўзбекистон Компартиясининг 2-съезди (1925 йил ноябрь)да тасдиқланган эди. Бу жараён ЎзССР МИҚнинг “Сув ва сувни национализация қилиш тўғрисида” ва “Ер-сув ислоҳоти тўғрисида” декретлари[70] (1925 йил 2 декабр) билан бошланган эди.

1925-1929 йилларда ЎзССРда ер-сув ислоҳотининг иккинчи босқичи ўтказилди. Бу ислоҳот жойларда шарт-шароитлар ва тайёргарлик даражасига қараб 3 босқичда амалга оширилган. Биринчи босқич 1925-1926 йилларда Фарғона, Тошкент, Самарқанд вилоятларида бўлди. Иккинчи босқичда 1927 йил Зарафшон вилояти (Бухоро ва Ўрта Зарафшон округлари)да ер-сув ислоҳоти ўтказилди. Учинчи босқич - 1928-1929 йилларда Қашқадарё, Сурхондарё, Хоразм округларида ислоҳот амалга оширилган эди. Қабул қилинган декретлар асосида белгилангандан ортиқ ерлар, иш ҳайвонлари ва меҳнат қуроллари тортиб олинди. Бойлар, йирик савдогарлар, уламолар ва бошқа мулкдорларнинг ерлари ва бутун мол-мулки мусодара қилинди.

1929 йил кузидан СССРда қишлоқ хўжалигини маъмурий-буйруқбозлик усули билан коллективлаштириш (жамоалаштириш)га киришилган вақтда Ўзбекистонда аҳвол ана шундай эди. ВКП(б) МК Сиёсий бюросининг “Ёппасига жамоалаштириш тўғрисида”ги қарори ва ВКП(б) МК Ўрта Осиё бюросининг “Қулоқларни синф сифатида тугатиш билан боғлиқ тадбирлар тўғрисида”ги кўрсатмалари (1930 йил 26 январ) асосида Ўзбекистон Компартияси МК 1930 йил 17 февралда “Коллективлаштириш ва қулоқ

[68] Қаранг:Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том I-.III. Составители: Р.Шамсутдинов, Б.Расулов. Под редакцией Д.А. Алимовой. –Ташкент: Шарқ, 2006; Среднеазиатский кишлак в годы Большого террора. Составители: Р.Шамсутдинов и др. –Андижан, 2007 ва б.

[69] Қаранг: Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. –Тошкент: Шарқ, 2001; Унинг ўзи. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Тошкент: Шарқ, 2003; Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. –Тошкент: Шарқ, 2005; Шамсутдинов Р, Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати. –Тошкент: Шарқ, 2009 ва б.

[70] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 3-рўйхат, 25-иш, 10-34-варақлар.

хўжаликларини тугатиш тўғрисида” қарор қабул қилган.[71] Ўзбекистон ССРда қулоқлаштириш компанияси 1930 йил февралдан бошлаб авж олган.

Айни пайтда қулоқларни синф сифатида тугатиш 1930 йил 1 февралда СССР МИК ва ХКС қарорларида ҳам расман қонунийлаштирилди. Қулоқларга қарши курашда уларнинг мол-мулкларини мусодара этиш ва ўзларини бошқа ҳудудларга сургун қилиш учун тегишли ташкилотларга ҳамда республикалардаги партия ташкилотларига тегишли ҳуқуқлар берилди.

Ўзбекистон Компартияси раҳбарларидан бирининг ВКП(б) МК Бош котиби И.В.Сталинга ёзган хатида Ўзбекистон ССРда коллективлаштириш жараёни ва колхозларни ташкил қилиш суръатлари ҳаддан ташқари ошириб юборилганлиги кўрсатилади. Ҳатто Андижон ва Қўқон (Фарғона) округларида ёппасига колхозлаштиришни 1931 йил баҳорида 100 фоизга бажариш эълон қилинади. Бундай натижаларга маъмурий босим ва деҳқонларни қўрқитиш орқали эришилган. Деҳқонларга қуйидагича дағдаға қилинган: “Овозингни чиқарма, агар колхозга кирмасанг нон ҳам, саноат моллари ҳам ололмайсан, сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиниб, райондан кўчириб юбориласан”[72].

Кремлдан “ўрнак” ва махсус кўрсатма олган Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Қўмитаси томонидан 1930 йил 28 мартда барча округ ва район ижроия комитетлари ҳамда қишлоқ советларига “Коллективлаштириш даврида йўл қўйилган хатоларни тўғрилаш тўғрисида” шошилинч директива “зудлик” билан юборилди. Бу директивада ҳам бутун айб жойлардаги маҳаллий ташкилотлар зиммасига қуйидагича юклатилди:

“Баъзи жойларда бой-қулоқлар йўл қўйилган хатолардан фойдаланиб, деҳқонларни оммавий равишда колхозлардан чиқишига эришмоқдалар. ЎзССР МИҚ ихтиёридаги маълумотларга таяниб шундай хулосага келдики, маҳаллий ижроқўмлардан тортиб округ ижроқўмларигача ўз вақтида бу соҳада ҳеч қандай чоралар кўришмади ҳамда бу билан коллективлаштириш принциплари барбод бўлишига сабабчи бўлдилар. Колхозларга ўз хоҳиши билан кириш ҳолати бузилди. Маҳаллий ҳокимият вакилларининг бу борадаги ғаддор сиёсатини алоҳида таъкидлаш жоиз... Турар жойларни умумлаштириш, майда ҳайвонлар, паррандалар, ҳатто тухумни ҳам умумлаштиришга йўл қўйилди (Фарғона, Тошкент, Самарқанд ва б). Юлғичлик билан тўпланган мол-мулк бўлиб олиниб, ўртаҳол ва камбағаллар ҳатто қамоққа ташланди. Черков ва масжидлар маҳаллий ҳокимият томонидан ёпиб қўйилди. Йўл қўйилган хатолар натижасида экиш мавсумига тайёргарлик хавф остида қолмоқда”.[73] Умумий холда айтганда конфискация даврида нимаики қўлга илинса, шу мусодара этилган.

Умуман олганда, коллективлаштириш сиёсати кутилмаган бошқа бир хусусиятни, яъни икки меҳнаткаш синф (ишчилар ва деҳқонлар) ўртасидаги катта тафовутни яққол намоён қилиб қўйди. Деҳқонлар колхозлардаги оғир ҳаётдан нолишарди. Улар “нима учун давлат қишлоқ хўжалик

[71] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 3-рўйхат, 405-иш, 2-10--варақлар.
[72] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 111-иш, 40-45--варақлар.
[73] Ўзбекистон Миллий архиви, 86-фонд, 1-рўйхат, 6306-иш, 1-2--варақлар.

маҳсулотларини биздан арзон нархда олиб, қиммат қилиб сотади", "бир синф озодликда, иккинчиси эса зулм остида яшайди", "ишчилар 8 соат, биз-деҳқонлар эса 15-20 соат ишлаймиз; биз хор-зор бўлиб йиртиқ-ямоқларда юрамиз, ишчилар эса курортларга йўлланма олишади", деб ўз норозиликларини очиқ намоён қилишган[74].

Ҳужжатларнинг шоҳидлик беришича, коллективлаштиришнинг доимий йўлдоши очарчилик бўлган. Россияда коллективлаштириш "якунланди" деб ҳисобланган йилларда даҳшатли очарчилик яна ёпирилиб келди. Унинг қурбонлари сони 7 млн кишидан ошди. "Буюк бурилиш йили"да СССРнинг турли ҳудудларида нон ва бошқа озиқ-овқат маҳсулотларига карточка тизими жорий қилинди. 1931 йил бошларида ВКП(б) МК Сиёсий бюроси асосий озиқ-овқат маҳсулотлари ва товарларга расмий равишда Бутуниттифоқ карточка тизимини жорий қилиб, аввал мамлакатда мавжуд бўлган минтақавий карточка тизимини бекор қилди.[75]

Ўзбекистон ССР ХКС раиси Файзула Хўжаев ва Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Қўмитаси раиси Йўлдош Охунбобоев 1925 йилда Зарафшон ва Қашқадарё вилоятларидаги қуйи совет идораларини текшириш натижалари бўйича тайёрлаган махсус ҳужжатда кадрлар масаласига ҳам тўхтаб ўтганлар: "Қуйи совет ташкилотларининг ҳолати анчайин қониқарсиз аҳволда. Бизнинг совет аппаратларимизда тайёргарлик кўрган кадрлар етарли эмас. Нафақат марказий ва олий, балки уезд ва област органлари билан ҳам алоқа мавжуд эмас. Қуйи совет ташкилотининг асосий камчилиги моддий таъминотнинг йўқлигидадир"[76].

РКП(б) МК номига 1925 йил ёзилган кўплаб "мутлақо махфий" грифли хатларда Ўзбекистон ССР ҳукумати раиси Файзулла Хўжаевга нисбатан гуруҳбозлик ташкилотчиси деган айблов кўп қўйилган. Айрим масъул ходимлар ўз шахсий манфаатларидан келиб чиқиб, унга нисбатан кўплаб нотўғри айбловларни ишлатишган. Уларнинг фикрича, Файзулла Хўжаев "совет аппаратини минг мароталаб ўз гуруҳбозлик манфаати йўлида ишлатган", дея тухмат қилинади . "Қадрли Сталин" деб бошланган бошқа бир хатда республикада ўнглар (Файзулла Хўжаев ва б.) ҳамда сўллар (Акмал Икромов ва б.) ўртасидаги курашни юмшатиш учун ҳаракат қилинаётганлиги, бироқ ўнгларга (Файзулла Хўжаев ва унинг тарафдорларига) очиқ ва унча кучли бўлмаган зарба бериш лозимлиги уқтирилади. Шу мактубнинг ўзида Кремлнинг шовинистик сиёсатини амалга оширишда жонбозлик кўрсатаётган Ўзбекистон Компартияси МК масъул котиби Акмал Икромов фаолиятига ижобий баҳо берилади ва у қуйидагича таърифланган эди: "Акмал Икромов ишончли, у РКП(б) изидан оғишмай ва содиқ ҳолда борадиган ходим"[77].

---

[74] *Ҳайдаров М.* Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917 – 1941 й.). – Тошкент: "Abu matbuot-konsalt", 2012. – Б. 213-215.

[75] *Осокина Е.* За фасадом "сталинского изобилия". Распределение и рынок в снабжении населения в годы индустриализации, 1927-1941. –Москва: РОССПЭН, 1999. –С.85.

[76] Ўзбекистон Миллий архиви, 86-фонд, 1-рўйхат, 2148- иш, 394-403-варақлар; Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 376- иш, 32-варақ.

[77] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 293- иш, 5-6-варақлар.

Бу даврда Ўзбекистонда миллийлаштириш (коренизация) тўғрисида қонун қабул қилиниб, республика ҳудудида рус тили билан биргаликда ўзбек тилида ҳам иш юритиш лозимлиги таъкидланса-да, амалда ундай бўлмаган. Бу ҳолатни кўрган Ўзбекистон ССР ХКС раиси *Файзулла Хўжаев* 1931 йил 20 февралда Бутунўзбек Советлари IV-қурултойининг 1-мажлисида киноя билан бундай деган эди: "*Биз марказий органларнинг ёзишмалари деҳқонларга етиб бормаяпти, деб тез-тез нолиймиз. Ахир рус тилида ёзилган бу ҳужжатлар деҳқонларга қандай етиб борсин, ҳалиям деҳқонлар ўзбек тилида гаплашишса. Мана, бизда миллий кадрлар масаласи қанчалик оғир бўлиб турибди. Бунинг устига худди мана шу жабҳада биз улуғрус давлатчилиги шовинизмининг қаттиқ қаршилигига дуч келяпмиз. Шовинистлар ҳали ҳам чекинишни хоҳламаяптилар, эгаллаб олган марраларини топширганлари йўқ*"[78].

Шу ўринди таниқли давлат арбоби Файзулла Хўжаев билан алоқадор яна бир муҳим архив ҳужжати тўғрисида тўхталиб ўтмасак бўлмайди. Ўзбекистон ССР ҳукуматининг раҳбари бўлган Файзулла Хўжаев 1931 йилда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг V пленумида сўзлаган нутқида большевиклар сиёсатининг асл моҳиятини очиб ташлайди. Бу нутқ Ўзбекистон РПДА фондларида сақланиб қолган. *Файзулла Хўжаев* ўз нутқида Ўзбекистонда камбағал деҳқонлар ҳам совет ҳокимияти томонидан таҳқирланаётганлиги ва уларга нисбатан тазйиқ қилинаётганлиги тўғрисида гапириб, ҳукумат раҳбари сифатида ўзи ҳам бу борада хатолар қилганлигини чуқур дард ва алам билан эътироф этади:

"*Ўртоқлар, биз ойлар давомида ва қатор далиллар кўмагида камбағаллар таҳқирланаётганлиги ҳақида гапирмадикми? Бухоро ёки бошқа округларда пахта терими вақтида камбағалларни ҳам таҳқирламадикми? Камбағалларни қамоққа тиққанимиз, судларда сарсон қилиб, ҳукмлар чиқарганимиз ёлғонми?! Ўртоқлар, наҳотки сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилинганлар рўйхатига камбағаллар кириб қолгани ёлғон бўлса: Биз 10-20 фоиз камбағалларни ўз сиёсий ҳуқуқларидан маҳрум қилинганлигидан хабаримиз бор.*

Ўртоқлар, деҳқонларнинг оммавий чиқишлари бўлиб ўтганида, унда камбағаллар иштирок этмадиларми? Ахир биз маҳаллий маъмурият вакиллари томонидан жабрланган камбағалларни кўрмадикми? Файзулла Хўжаев Бухорода бўлганида камбағаллар қандай қилиб ҳўнграб, йиғлаб, тиз чўкиб, қўлларини ўпиб, зулмдан қутқаришларини ундан сўраганликларини наҳотки кўрмаган бўлсак?"[79].

Ўзбекистон ССР ҳукумати раиси Файзулла Хўжаевнинг бу иқрорини қандай изоҳлаш мумкин? Бу сўзларга яна қандай фикрларни қўшимча қилиш мумкин? Совет тузуми даврида Ўзбекистонда камбағал деҳқонларга шунчалик зулм қилинган экан, бадавлат деҳқонлар ва миллат ойдинларига қилинган даҳшат ва ваҳшийликларнинг чегараси бормикан?...

[78] Ўзбекистон Миллий архиви, 86-фонд, 1-рўйхат, 6228-иш, 58-варақ.
[79] Ўзбекистон РПДА, 58-фонд, 6-рўйхат, 72-иш, 38-варақ.

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA'NAVIY-MADANIY OMILLAR HAMDA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich,
Andijon davlat pedagogika instituti rektori,
Tarix fanlar doktori, professor

Jahon tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, ayrim ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy harakatlar muayyan hudud yoki davr doirasidan chiqib, butun bir millatning tarixiy taqdirini, intellektual salohiyatini hamda sivilizatsiyaviy yo‘nalishini belgilab beruvchi omilga aylanadi. Bunday harakatlar nafaqat mavjud ijtimoiy tuzumni tanqidiy qayta baholaydi, balki jamiyatning o‘zini anglash jarayonini tezlashtiradi, milliy tafakkur va dunyoqarashni yangilaydi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida shakllangan jadidchilik harakati ana shunday tarixiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Movarounnahr asrlar davomida Sharq sivilizatsiyasining yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biri bo‘lib, jahon ilm-fani va ma’naviy tafakkuriga beqiyos hissa qo‘shgan. Biroq yangi davrga kelib, mintaqa chuqur ijtimoiy-iqtisodiy turg‘unlik, siyosiy parokandalik va ma’rifiy tanazzul holatiga yuz tutdi. Ichki boshqaruv tizimining zaiflashuvi, iqtisodiy aloqalarning cheklanishi, an’anaviy ta’lim tizimining zamon talablariga javob bermasligi hamda ijtimoiy ongdagi konservativ qarashlar taraqqiyot sur’atini keskin pasaytirdi. Bu jarayon Rossiya imperiyasining mintaqani bosib olishi va mustamlaka boshqaruvini o‘rnatishi bilan yanada murakkablashdi. Mustamlakachilik siyosati natijasida siyosiy mustaqillik yo‘qotildi, iqtisodiy resurslar markaz manfaatlariga bo‘ysundirildi, mahalliy jamiyatning ma’naviy hayotiga bevosita va bilvosita ta’sir kuchaydi.

Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Turkiston ziyolilari jamiyatni yangilash, millatni inqirozdan olib chiqish va uni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Ular mavjud muammolarning ildizini avvalo ma’rifiy qoloqlik, ilm-fan va zamonaviy bilimlarning yetishmasligi bilan bog‘lab, islohotlarni ta’lim sohasidan boshlash zarurligini ilgari surdilar. Natijada “usuli jadid” — yangi usuldagi ta’lim tamoyiliga asoslangan harakat shakllandi. Biroq jadidchilik faqat pedagogik islohot doirasida qolib ketmadi; u qisqa vaqt ichida keng qamrovli ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatga aylandi. Uning doirasida matbuot rivojlantirildi, milliy teatr va adabiyot yangilandi, jamiyatni siyosiy jihatdan uyg‘otishga qaratilgan g‘oyalar ilgari surildi.

Jadidchilik harakatining tarixiy mohiyatini zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilish bugungi kun talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, “Jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish” masalasi bugungi ma’naviy-ma’rifiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jadidlar ilgari surgan ma’rifat, milliy o‘zlikni anglash, zamonaviy bilimlarni egallash va taraqqiyotga intilish g‘oyalari hozirgi globallashuv sharoitida milliy identitetni mustahkamlash va

intellektual salohiyatni yuksaltirishda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tarixiy merosni yoshlar ongiga singdirish masalasi ham strategik ahamiyat kasb etadi. “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak” degan fikr mazkur jarayonning ma’naviy asosini ifodalaydi. Jadidchilik harakati aynan mana shu tarixiy-madaniy uzviylikni tiklash, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish va jamiyatni uyg‘otish vazifasini bajargan edi. Demak, jadidchilikni o‘rganish nafaqat tarixiy zarurat, balki ma’naviy taraqqiyotning metodologik shartidir.

Mazkur masalani ilmiy asosda tahlil qilishda zamonaviy gumanitar metodologiyaning yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, germenevtik tafakkur namoyandasi sifatida tanilgan mutafakkir ta’kidlaganidek, “X.G. Gadamer ta’kidlaganidek, tadqiqotga oid tushunchalarni aniqlash obyektning “ma’naviy evolyutsiyadagi o‘rni qanchalik chuqur” . Ushbu metodologik yondashuv jadidchilik harakatini oddiy tarixiy voqelik emas, balki millat ma’naviy evolyutsiyasining muhim bosqichi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, harakatni o‘rganishda tarixiylik, tizimlilik, komparativ tahlil, sivilizatsiyaviy yondashuv hamda konseptual-kategoriyaviy aniqlik muhim ilmiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, jadidchilik harakatining shakllanishida ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy omillarni kompleks ravishda tahlil qilish, uning metodologik asoslarini aniqlash hamda zamonaviy davlatchilik va ma’naviy yuksalish jarayonlari bilan uzviy bog‘lash bugungi tarixshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Jadidchilik nafaqat o‘tgan asr boshidagi milliy uyg‘onish harakati, balki bugungi taraqqiyot strategiyalarining ma’naviy ildizlarini anglash imkonini beruvchi muhim tarixiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday yirik ijtimoiy harakat bo‘shliqda emas, balki jamiyatda yig‘ilib qolgan ziddiyatlar, og‘riqli muammolar va islohotlarga bo‘lgan obyektiv ehtiyoj tufayli shakllanadi. Turkiston jadidchiligi ham mustamlaka davrining og‘ir siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy muhitiga nisbatan o‘ziga xos milliy immunitet va kurash usuli sifatida maydonga chiqdi.

Siyosiy qaramlik va iqtisodiy istibdod

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya imperiyasining harbiy mashinasi qurboniga aylandi. Turkistonda joriy etilgan general-gubernatorlik boshqaruvi mahalliy xalqni barcha huquqlardan mahrum qildi. Chor ma’muriyati o‘lkani faqat metropoliya manfaatlariga xizmat qiladigan «arzon xomashyo bazasi» va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirdi. Yer-suv munosabatlaridagi adolatsizliklar, soliq yukining ortishi, majburiy paxta yakkahokimligining joriy etilishi oddiy xalqni qashshoqlik yoqasiga olib keldi. Jadidlar buni juda chuqur anglagan holda, siyosiy irodasiz jamiyat har doim qul bo‘lishga mahkum ekanligini tushunib yetdilar. Ular xalqni bu zulmatdan

olib chiqishning yagona yo‘li – milliy burjuaziyani shakllantirish, zamonaviy moliya-iqtisod bilimlarini egallash va milliy ongni yuksaltirish deb bildilar.

Ma’naviy-madaniy inqiroz va unga qarshi kurash

Ijtimoiy-siyosiy muammolarning sarchashmasi, jadidlarning fikricha, avvalo xalqning ma’naviy qoloqligida, ta’lim tizimining yaroqsiz holatga kelib qolganligida edi. O‘sha davrdagi «usuli qadim» maktab va madrasalarida asrlar davomida o‘zgarmagan, faqat quruq yodlashga asoslangan sxolastik ta’lim hukmron edi. Dunyoviy fanlar o‘qitilmas, yillab maktabga qatnagan bolalar tuzukroq savod chiqara olmasdi. Xurofot, bid’at, dabdabali to‘y-ma’rakalar jamiyatning ma’naviy va moddiy resurslarini emirayotgan edi.

Bu vaziyatni o‘zgartirish uchun Qrim-tatar mutafakkiri Ismoil Gasprinskiy tomonidan asos solingan tovush usulidagi «usuli jadid» maktablari Turkiston ziyolilari uchun najot yo‘li bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi ziyolilar o‘z mablag‘lari hisobidan yangi usul maktablarini ochdilar. Bu maktablarda ona tili va din asoslari bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi.

Shu bilan birga, jadidlar xalqni uyg‘otish uchun zamonaviy matbuot va teatrga asos soldilar. «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Oyna» kabi gazeta-jurnallar, M.Behbudiyning «Padarkush», A.Fitratning «Hind ixtilolchilari», A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» kabi asarlari sahnaga olib chiqilishi jamiyat hayotida haqiqiy inqilob qildi. Teatr va matbuot millat o‘zining qusurlarini, ijtimoiy dardi va fojiasini ko‘rishi uchun xizmat qiluvchi katta oyna vazifasini o‘tadi.

Biz nima uchun oradan bir asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, jadidlar merosiga qayta-qayta murojaat qilyapmiz? Bu shunchaki o‘tmishga nostalgiya emas, balki qat’iy tarixiy, siyosiy va ijtimoiy zaruratdir.

Birinchidan, tarixiy adolatni va milliy o‘zlikni tiklash zarurati.

Salkam yetmish yil davom etgan sovet tuzumi jadidchilik harakatini shafqatsizlarcha qoraladi. Ularni «burjua millatchilari», «panturkistlar», «xalq dushmanlari» sifatida qatag‘on qildi, asarlarini yoqib yubordi. Maqsad bitta edi: xalqni o‘zining eng ilg‘or, fikrlovchi va hurriyatsevar qismidan uzib qo‘yish, uni manqurtlashtirish. Mustaqillik va xususan, Yangi O‘zbekiston davrida jadidlar merosini qayta tiklash millatning tarixiy xotirasini jonlantirishni anglatadi. Yosh avlod o‘z ajdodlari qanday qilib o‘ta murakkab mustamlaka sharoitida erkinlik, ma’rifat va adolat uchun jon fido qilganliklarini, ularning g‘oyaviy mardligini chuqur bilishi kerak.

Ikkinchidan, siyosiy-huquqiy tafakkur taraqqiyoti: Turkiston muxtoriyati saboqlari.

Jadidchilik nafaqat ta’lim-tarbiya, balki siyosiy maydonda ham o‘z so‘zini aytgan harakatdir. 1917-yil fevral inqilobidan so‘ng o‘lkada vujudga kelgan Turkiston (Qo‘qon) muxtoriyati mintaqa ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkur tarixida misli ko‘rilmagan voqea bo‘ldi. Mustamlaka kishanlarida yotgan xalq vakillari qisqa vaqt ichida dunyoviy, demokratik tamoyillarga (din va millat ajratmasdan teng huquqlilikni ta’minlashga) asoslangan huquqiy davlat modelini taklif etdilar. Uning bolsheviklar va dashnoqlar tomonidan qonga botirilishi bizga juda muhim tarixiy saboq beradi: har qanday ezgu g‘oya va mustaqillik real kuch

(siyosiy birlik, kuchli iqtisodiyot va harbiy qudrat) bilan himoya qilinmas ekan, u dushmanlar poyiga qurbon bo‘ladi. Bugungi kunda O‘zbekiston davlat xavfsizligini ta’minlash, ichki hamjihatlikni saqlash aynan shu tarixiy xulosalardan kelib chiqadi.

Uchinchidan, Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan metodologik bog‘liqlik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalariga tayanamiz». Jadidlar orzu qilgan mustaqil, taraqqiy etgan, huquqiy va demokratik davlatni qurish, inson kapitalini rivojlantirish (xususan, talabalarni Germaniya va xorijga o‘qishga yuborish kabi jadidlar boshlagan ishlar) bugungi davlat siyosatining o‘zagini tashkil qilmoqda. Jadidlar islom dinini xurofotdan tozalab, sof holatida ilm-fan va innovatsiyalar bilan birga olib borishga chaqirgan edilar. Ularning ushbu qarashlari bugungi globallashuv davrida radikalizm, mutaassiblik va yot g‘oyalarga qarshi eng kuchli ma’naviy immunitet vazifasini o‘taydi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tadqiq qilishda ilmiy va obyektiv metodologiyaga tayanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jadidchilik kabi murakkab va ko‘p qirrali fenomenni o‘rganishda tarix fanining, sotsiologiya va madaniyatshunoslikning quyidagi metodologik tamoyillaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi:

1. Tarixiylik (Xronologik evolyutsiya) tamoyili:

Tarixiylik yondashuvi har qanday hodisani o‘zining shakllanishi, rivojlanishi va inqirozi dinamikasida, o‘sha davrning vaqt va makon xususiyatlaridan kelib chiqib baholashni talab etadi. Jadidchilik o‘zgarishsiz, qotib qolgan dogma emasdi. Uning 1900-1910 yillardagi davri asosan ma’rifatparvarlik, maktab va matbuot doirasida kechgan bo‘lsa, 1910-1917 yillarga kelib harakat siyosiylashdi («Sho‘roi islom», «Yosh buxoroliklar» partiyalari) va hokimiyatni boshqarish iddaolarini ilgari sura boshladi. Jadidlarni baholashda ularning chor ma’murlari bilan qilgan ma’lum murosalarini, ehtiyotkorona taktikasini bugungi kun o‘lchovlari bilan emas, balki aynan o‘sha mustamlaka, tsenzura va tahlikali davr mezonlari bilan o‘lchash ushbu tamoyilning talabidir.

2. Obyektivlik (Xolislik) va Tizimli tahlil tamoyili:

Sovet tarixshunosligi jadidlarni uydirma «sinfiy kurash» nazariyasiga asosan faqat boylarning manfaatini himoya qilgan oqim deb baholagan. Obyektivlik tamoyili bu mafkuraviy qoliplarni parchalab, arxiv materiallari, asl matnlar va tarixiy dalillarga tayanishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, jadidchilik faqatgina pedagogik yoki adabiy jarayon emas, balki yaxlit tizim sifatida o‘rganilishi shart. Tizimli tahlil orqali biz jadidlar faoliyatidagi ta’lim islohoti (maktablar), madaniyat (teatr, matbuot), iqtisodiy faollik (xayriya jamg‘armalari, shirkatlar) va siyosiy tashkilotchilik bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligini, ular birgalikda yagona maqsad – Milliy najot uchun xizmat qilganligini ko‘ramiz.

3. Sivilizatsiyaviy (Madaniyatshunoslik) va Qiyosiy yondashuv:

Metodologik nuqtai nazardan jadidchilik faqat Turkiston miqyosidagi mahalliy hodisa emas. Sivilizatsiyaviy yondashuv uning G‘arbning ilg‘or ilmiy-texnik taraqqiyoti, inson huquqlari madaniyati hamda Sharq islom sivilizatsiyasining sof an’analari o‘rtasidagi sintez (ko‘prik) ekanligini ochib beradi.

Jadidlar «o‘zligimizni asragan holda yevropalashish» (modernizatsiya) g‘oyasini tanladilar. Qiyosiy-tarixiy (komparativ) metod esa Turkiston jadidlarining g‘oyalarini Rossiyadagi tatar jadidchiligi, Usmoniylar imperiyasidagi «Yosh turklar», Eron mashrutiyat harakati hamda Misrdagi Muhammad Abduh boshlagan islomiy islohotchilik harakatlari bilan solishtirib o‘rganish imkonini beradi. Bu usul Turkiston ilg‘or ziyolilarining dunyodagi global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan naqadar hamohang fikrlaganini ko‘rsatib beradi.

4. Germenevtika va Gnoseologik tahlil:

Jadidlarning qoldirgan asarlari va maqolalarida juda teran falsafiy, sotsiologik ma’nolar yashiringan. Senzuradan qochish uchun Ezop tilida, ramzlar va allegoriyalar orqali yozilgan matnlarni tahlil qilish (germenevtika) bugungi tadqiqotchidan katta mahorat talab qiladi. Abdalrauf Fitratning «Munozara»sidagi Buxoro va Yevropa ta’limotlari to‘qnashuvi yoxud Munavvarqorining ochiq va yashirin maqolalari faqat lingvistik emas, balki davrning chuqur siyosiy psixologiyasini bilish vositasi (gnoseologiya) sifatida xizmat qiladi. M. Behbudiyning “Haq olinur, berilmas!” degan g‘oyasi qatida inqilobiy terror emas, balki yuksak huquqiy savodxonlik, davlat qonunlari doirasida o‘z haq-huquqini tanib, uning uchun demokratik yo‘l bilan kurashish nazariyasi yotgani ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida maydonga chiqqan jadidchilik harakati xalqimiz tarixidagi eng buyuk fidoiylik, aql-zakovat va milliy uyg‘onish timsolidir. Ushbu harakatning vujudga kelishi tasodif emas, balki asrlar davomida yig‘ilib qolgan chuqur iqtisodiy turg‘unlik, tushkunlik, siyosiy istibdod va ma’naviy-madaniy qoloqlikka nisbatan jamiyat qon-qonida yuzaga kelgan hayotiy ehtiyoj va obyektiv tarixiy zarurat edi.

Jadidchilik harakatida ko‘tarilgan muammolar – ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, milliy kapitalni shakllantirish, huquqiy davlat qurish, ijtimoiy adolat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etish g‘oyalari bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan bevosita uyg‘undir. Shuning uchun ham ularning merosini chuqur va xolis o‘rganish biz uchun nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki kelajak taraqqiyot modelimizni belgilab olishda strategik ko‘makchidir.

Bu ulkan ma’naviy merosni ilmiy tadqiq etishda biryoqlama qarashlar, asossiz maqtash yoxud inkor etish kabi illatlardan voz kechib, qat’iy ilmiy metodologiyaga – tarixiylik, xolislik, tizimlilik va keng qamrovli sivilizatsiyaviy yondashuvga tayanish talab etiladi. Yosh avlod ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalarini, vatanparvarlik va ilmu ma’rifatga intilish tuyg‘ularini shakllantirishda jadid mutafakkirlarining hayot yo‘li, asarlari hamda xalq uchun chekkan mashaqqatlari xizmat qiladigan o‘ziga xos «ma’naviy kompas» roli hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Zotan, taraqqiyotga ochiq bo‘lish, milliy g‘urur va chinakam ma’rifatparvarlik – bugungi global dunyoda o‘zligimizni va davlatchiligimizni saqlab qolishning birdan-bir kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халк сузи. 2018 йил 29 декабр, №271-272 (7229-7230). -Б.3.

3. Гадамер Х.Г. Истика и метод. - Москва: Прогресс, 1998 .- С. 50.

4. Қосимов Б. Жадидчилик ва жадид адабиёти (Давра суҳбати) // “Туркистон”, 1997. 17 май

5. Каримов И.А. Ватан саждагох каби мукаддасдир. - Т .: Узбекистон, 1996, Ж.Ш. Б. Т.

6. Xalq so’zi gazetasi – 2023 yil 23 dekabr, № 274 (8617) WWW.XS.uz

7. I.A. Karimov Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma’naviyat”. 2008.-B.4.

8. Karimov N. Jadidchilik va uning namoyandalari. – Toshkent: "Sharq", 2000.

9. Ergashev B. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2005.

10. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2002.

11. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, j. (2023). Jadid marifatparvarlarining ta’lim-tarbiyani isloh qilishdagi o’rni. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).

12. Qosimbek o‘g‘li, P. J. (2023). Jadid maktabi yangi usul maktablarning roli asos solinishi. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 29 (4), 125-129.

JADIDLAR KONSEPTUAL G‘OYALARINING ZAMONAVIY IJTIMOIY-FALSAFIY TAFAKKUR RIVOJIGA TA’SIRI

Masharipova Gularam Kamilovna
Alfraganus university professori,
falsafa fanlari doktori

Jadidchilik harakati – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon Sharqi, xususan Turkiston vohasida shakllangan ilg‘or ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, u zamonaviy dunyoqarash, taraqqiyot, ilm-ma’rifat, milliy uyg‘onish va diniy-islohotiy g‘oyalarni ilgari surgan. Ushbu harakatning tarixiy rolini baholash bilangina cheklanmay, uning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurga ta’siri ham chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 28 dekabrda Parlament va O‘zbekiston xalqiga ga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi

kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi” – deb alohida ta’kidladi [1]. Bu bejizga aytilmadi, albatta. Shu bois, ularning ma’nan boy hayot yo‘lini o‘rganish, ulardan ibrat va saboq olish xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni jasur, aql-idrokli, hamda Vatanini sevish va himoya qilish ruhida tarbiya topishida ulkan dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglashda ulug‘ ajdodlarimizning siyosiy, huquqiy va ma’naviy qarashlarining ahamiyati va o‘rni beqiyos. Jadidlar – fikr erkinligi, tanqidiy yondashuv, ilmiy tafakkur, yangicha qarashlarning tarafdorlari bo‘lib, bu jihatlar zamonaviy demokratik jamiyatlar uchun muhim tamoyillardir. Ularning asarlarida shunday g‘oyalar ilgari suriladi:

- har bir inson ilmli, tafakkurli bo‘lishi kerak;
- johillikdan chiqish uchun mustaqil o‘qish, fikrlash zarur;
- har bir millat o‘z kelajagini o‘zi belgilaydi.

Bu g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda inson erkinligi, aqlni ustuvor bilish, ma’naviy mustaqillik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Jadidlar ta’lim orqali xalq ongini uyg‘otish, milliy va dini qadriyatlarni zamonaviy shaklda qayta baholash tarafdori edilar. Ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari hozirgi quyidagi yo‘nalishlarga ta’sir ko‘rsatgan:

- insonparvarlik va ilg‘or fuqarolik g‘oyalari;
- ijtimoiy adolat va islohotlar zarurati;
- milliy o‘zlik va madaniy merosga hurmat.

Bugungi ijtimoiy-falsafiy tafakkurda bu g‘oyalar jamiyatning barqaror rivoji, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, inson huquqlari va demokratiya asoslari sifatida ko‘zga tashlanadi.

Jadidlar g‘oyaviy jihatdan milliy uyg‘onish harakatining asoschilari bo‘ldilar. Ularning faoliyati orqali quyidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillar shakllandi:

- milliy g‘urur va o‘zlikni anglash – xalq o‘z tarixini, tilini, madaniyatini anglashi;
- modernizmga ochiqlik – G‘arb yutuqlaridan foydalanib, Sharqning an’anaviy qadriyatlarini modernizatsiya qilish;
- muvozanatli islohot – islomiy e’tiqod va zamonaviy fanni uyg‘unlashtirish.

Bu g‘oyalar bugungi kunda milliy identiklik, gibrid modernizm, madaniyatlararo muloqot tushunchalarida o‘z aksini topmoqda.

Jadidlar o‘z asarlarida davlat va xalq o‘rtasidagi mas’uliyatli aloqalarga urg‘u berganlar. Bu:

- davlatning asosiy vazifasi – xalqni ma’rifatli qilish;
- rahbar – xalq xizmatkori;
- siyosiy ong – milliy manfaatlar bilan uyg‘un bo‘lishi kerak.

Zamonaviy siyosiy-falsafiy tafakkurda bu g‘oyalar ijtimoiy kontrakt, mas’uliyatli boshqaruv, fuqarolik faolligi nazariyalariga uyg‘un keladi.

Bugungi kunda jadidchilik g‘oyalari quyidagi sohalarda faol aks etmoqda:

- Ta’lim: yangi metodlar, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv;
- Ijtimoiy ong: milliy birlik, ijtimoiy adolat, dunyoviy bilimga intilish;
- Madaniyat: an’analar va zamonaviylik uyg‘unligi;

- Falsafa: milliy-falsafiy tafakkurni qayta tiklash va rivojlantirish.

XIX asrning adog‘i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko‘p mustamlakatlarda milliy uyg‘onish harakati boshlangan edi. Ijtimoiy adolatsizlikni yo‘qotmoqchi, nohaq tartiblarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og‘ir turmush tarzini o‘zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g‘aflatdan uyg‘otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo‘lmasligi tushunib etildi. Millatga ma’rifat berish sifat jihatidan ham, sur’at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi ayon bo‘ldi. Faqat ruhga ta’sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo‘lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o‘rganish zarurligi anglab etildi. Buning uchun yangi o‘qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllana boshlagan ma’rifatchilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. “Jadid” so‘zi arabcha “yangi” ma’nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma’rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g‘aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy- ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907-yillarda bo‘lgan 1-rus inqilobi, 1905-1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari – shoiru yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910- yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuiga aylandi. Adabiyotga “millat” va “vatan” tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi. YAngi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. SHuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Adabiyotdagi bunday uyg‘onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro‘y berdi.

Bugun jadid xalqining milliy tarixlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir millatda vatanparvar fidoyilarning borligi, ko‘pligi millat taraqqiyotni yuksaltirganini ko‘ramiz. Bunga misol qilib: Konfutsiyning milliy birlikni saqlash yo‘lidagi fidoyiligini bilamiz. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning fidoyiliklari millatning dardiga darmon bo‘lmoq kabi shiorlarning amalida namoyon bo‘ldi,

shuningdek Mir Alisher Navoiy, al- Farg‘oniy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy va jadid bobolarimizni e’zoziga musharraf qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdirashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizni ham o‘z millatiga, Vataniga, Vatan mustaqilligiga, uning ozodligi uchun kecha kunduz jonini ayamasdan mehnat qilganlarini, bugun qay darajada insondan mehnatsevarlik va vatanparvarlikni talab qilishini ko‘ramiz. Ulardagi ta’lim-tarbiyani, ma’rifat urug‘larini millat ozodligi mustaqillikka erishish yo‘lida yoyishgan ezgulik urug‘larini jadid bobolarimiz, ulomalarimiz sa’y-harakatlari, fidoyiligi sizu-bizga o‘rnakdir.

“Ellik yildan beri, deb yozgan edi Fitrat, ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qoplandi, erimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz emirildi, nomusimiz g‘asb qilindi. Insoniyligimiz oyoqosti qilindi. Tizimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa, butun borlig‘imizni berdik” [2]. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga da’vat etdilar. Zero, Abdurauf Fitrat shunday yozgan: “Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi. Senga na bo‘ldi. Dunyoni “Urxavalari” bilan titratgan yo‘lbars bolalaring qani. Nechun tovushlari chiqmaydir? Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarini o‘zgalarga nechun qo‘ydilar” [3].

1990-yillar boshida “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining ikki sonida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Solih Qosimovning “Behbudiy va jadidchilik”, “Yoshlik” jurnalining 1990 yil 1-sonida esa taniqli olim Begali Qosimovning “Karvonboshi” sarlavhali maqolalari e’lon qilindi. Ularda Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Solih Qosimovning maqolasida etmish yil davomida burjua oqimi sifatida qoralanib kelingan jadidchilik harakati ilk marotaba milliy istiqlol g‘oyalari bilan sug‘orilgan ma’rifatparvarlik harakati deya ta’riflanib, Turkistonda bu harakatning boshida Mahmudxo‘ja Behbudiy turgani asoslab beriladi hamda uning faoliyati ham dunyoviy, ham diniy asoslarga tayangani tahlillar bilan ko‘rsatiladi. Mazkur maqolada o‘zbek jadid adabiyoti – milliy uyg‘onish va istiqlol tafakkuri, jadidchilik harakatining asl maqsadlari haqida fikr yuritiladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, jadidchilarning harakatlari zamirida ma’rifatparvarlik yotadi va buning isboti natijasi o‘laroq ko‘plab manbalarda ularning ezgulikni, milliy g‘oyani targ‘ib qiluchvi asosiy dalillari mavjud.

Ismoil Gaspiralining millat ozodligi yo‘lidagi fidoyiligi tufayli ko‘plar unga millatning otasi deb ta’rif bergan edilar: Gaspirali ma’rifatparvarlik qarashlarining Turkistondagi davomchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy ustozi haqida shunday degan edi: u “Rusiyadagi turk- tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noyil o‘ldi” [4].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu fikrlaridan ham shuni bilsak bo‘ladiki, qrimtatar farzandlari, jumladan, I.Gaspiraliniig milliy ozodlik yo‘lidagi harakatlarini ijobiy baholash bilan birga uning qaysidir ma’noda turkiy xalqlari birlashtirishga erishgan hamda milliy ozodlik yo‘lida o‘z g‘oyalari bilan izdoshlarini ergashtira olgan.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, deb yozadi Behbudiy, “Haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o‘zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo‘q” [4].

Umuman olganda jadid ziyolilari erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o‘stirish zarurligini payqadilar. SHu orqali amaliy uyg‘onish yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta’lim va tarbiya – ma’rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo‘lida xormay-tolmay ishladilar [5].

Xususan jadid namoyondalaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak degan masalani o‘rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg‘a surdi:

1. Zamon tarbiyalaridan kelib chiqib ish ko‘rish.
2. Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni etishtirish.
3. Milliy birlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozlari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrimiz uchun mosligi bilan ham ahamiyatlidir.

Begali Qosimovning maqolasida esa, Behbudiy shaxsi, hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar berilib, asosiy e’tibor uning pedagogik, publitsistik faoliyatiga qaratilgan. Muallif Behbudiyni jadidchilik harakatining karvonboshisi sifatida ta’riflab, uning vafoti munosabati bilan 20-yillarda chop etilgan Sadriddin Ayniy, Fitrat va Cho‘lpon she’rlaridan parchalar keltiradi. Bu she’rlarning yaratilishiga sabab bo‘lgan Behbudiy aslida kim bo‘lgan, bugungi kitobxon bu alloma haqida nimalarni biladi, deya savollar qo‘yib, ularga batafsil javob beradi va ma’rifatparvarning “Kitobat ul-atfol” darsligidan bir parchani o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi. Umuman, bu kabi chiqishlarda o‘tgan asr oxirlari va mustaqillikning dastlabki yillari adabiy tanqidchiligi uchun xarakterli xususiyatni, ya’ni ma’rifatparvar adiblarning qisqacha tarjimai holini yoritish, asarlaridan parchalar berish orqali ularni ommaga tanishtirish usulini kuzatish mumkin.

Milliy uyg‘onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat g‘oyalarining adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir ko‘rgazmasi (illyustradiyasi) bo‘lib qolmadi, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi. Bu esa o‘z navbatida kurashning yangi yo‘lini vujudga kelishiga olib kelib xalqimizning istiqlol yo‘lidagi sobit qadami jadidchilik harakatini vujudga keltirdi. “Jadid” so‘zi arabcha yangi usul degan ma’noni anglatadi [6].

Xulosa. Iistiqlol davri tanqidchiligida Milliy uyg‘onish davri (Jadid) adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini har tomonlama tahlil va talqin etish etakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. O‘zbek jadid adabiyoti – milliy uyg‘onish va istiqlol tafakkuri jarayonining munosabatini mantiqiylik bilan tarixiylikning o‘zaro munosabati orqali qiyoslashni o‘rinli deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774.
2. “Шарқ юлдузи”, 1992 йил,10-сон. - Б. 7.
3. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1992 йил 5 июнь. - Б. 5.
4. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият” 2009. - Б. 8, 13.
5. Имомназаров М. Маънавият асослари. - Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 131.
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов Д., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004 . - Б. 5.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TA’LIM BORASIDAGI ISLOHOTLARI

Mamatov Dilshod Kodirovich
BuxDPI, Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidladilar.

Jadidlarning fikricha, jamiyat taraqqiyoti uchun avvalo ta’lim tizimini isloh qilish, yangi bilimlar va ilm-fan yutuqlarini xalq orasida keng yoyish zarur edi. Shu sababli ular eski maktab tizimiga muqobil ravishda yangi usul maktablarini tashkil etdilar.

Bu harakatning yetakchi namoyandalari qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar alohida o‘rin tutadi.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim jarayonini yangilash zarurligini ilmiy asoslab berdilar. Ularning fikricha, eski maktablarda asosan diniy bilimlar o‘qitilib, dunyoviy fanlarga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim tizimini isloh qilish zarurligi haqida shunday yozadi:

“Maktablarimizni isloh etmay turib millatni taraqqiy ettirish mushkuldir”[80].

Behbudiy ta’lim tizimida geografiya, matematika, tarix va tabiiy fanlarni o‘qitishni zarur deb hisoblagan.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan “usuli jadid” maktablari ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu maktablarda:

- tovush asosida savod o‘rgatish usuli;
- dunyoviy fanlarni o‘qitish;

[80] Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 56-bet

- yangi pedagogik metodlardan foydalanish

kabi yangiliklar joriy etildi.

Pedagog olimlar ta’kidlashicha, yangi usul maktablari qisqa vaqt ichida savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshirgan[81].

Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim bilan bir qatorda tarbiya masalasiga ham katta e’tibor qaratganlar. Bu borada ayniqsa Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari muhim ahamiyatga ega.

U o‘zining mashhur Turkiy Guliston yoxud axloq asarida tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida shunday yozadi:

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidur”[82].

Avloniy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili ekanini ta’kidlab, maktab, oila va jamiyat hamkorligini muhim deb hisoblagan.

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlari milliy uyg‘onish jarayonining muhim omillaridan biri bo‘ldi. Yangi usul maktablari orqali:

- savodxonlik darajasi oshdi;
- zamonaviy bilimlar keng yoyildi;
- milliy ziyolilar shakllandi.

Tadqiqotchilar fikricha, jadidlarning pedagogik g‘oyalari Markaziy Osiyoda zamonaviy ta’lim tizimi shakllanishiga muhim asos bo‘lib xizmat qilgan[83].

Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim borasidagi islohotlari Markaziy Osiyo tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish va zamonaviy fanlarni o‘qitish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar.

Jadidchilar uchun ta’lim – bu nafaqat diniy bilimlarni o‘zlashtirish, balki dunyoviy fanlar, tabiiy va aniq bilimlar asosida yangi fikrlaydigan avlodni tarbiyalash vositasi edi. Ularning dastlabki qadamlari yangi uslubdagi maktablar – “usuli jadid” maktablarini ochishdan iborat bo‘ldi. Bu maktablarda eski, individual o‘qitish o‘rniga sinf-ta’lim shakli joriy etildi, o‘quv jarayoni tizimlashtirildi.

Pedagogik metoddagi o‘zgarish nafaqat shakldagina emas, balki mazmun jihatidan ham tubdan yangilanishni anglatardi. Savod o‘rgatishda eski, uzoq muddatli usullar o‘rniga fonetik usul qo‘llanila boshladi, bu esa o‘quvchilarga tezroq va samaraliroq savod chiqarish imkonini berdi. Darsliklar isloh qilindi, ularga zamonaviy geografiya, tarix, matematika va tabiatshunoslikka oid bilimlar kiritildi. Bu nafaqat bilim doirasini kengaytirish, balki dunyoqarashni o‘zgartirishga xizmat qildi.

Jadid maktablarida ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri amaliy bilimlarga aylantirish edi. Nazariya bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarga e’tibor kuchaydi. Bu yondashuv jamiyatda faol, ishlab chiqarish jarayonlarini tushunadigan va ularni rivojlantirishga qodir kadrlarni shakllantirishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, til o‘rganishga alohida ahamiyat berildi. O‘zbek, tojik, qozoq tillarini o‘rganish, ana

[81] Karimov N. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 240 b.
[82] Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 15-bet
[83] Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 200 b.

shu tillarda darsliklar va adabiyotlar yaratish milliy ongni uyg‘otish va ma’naviy merosni saqlashda muhim omil bo‘ldi.

Ma’rifatparvarlar faoliyati nafaqat maktab devorlari bilan chegaralanmadi. Ular gazeta va jurnallar nashr etish, kutubxonalar tashkil etish, madaniy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazish orqali bilim tarqatishning keng ko‘lamli tizimini yaratdilar. Bu faoliyat keng jamoatchilikni, shu jumladan kattalar avlodini ham yangi g‘oyalar bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini boyitish imkonini berdi. Natijada, ta’lim muassasalari atrofida intellektual muhit shakllana boshladi.

Jadidchilarning ta’limdagi islohotlari qiyin ijtimoiy-siyosiy sharoitda amalga oshirildi. Ular an’anaviy qarashlar tarafdorlari bilan keskin munozaralarga kirishdilar, ko‘pincha qarshiliklarga duch keldilar. Biroq, ularning izchilligi va vijdonliligi yangi g‘oyalarni keng tarqalishiga olib keldi. Bu jarayon nafaqat ta’lim sohasida, balki madaniyat, adabiyot va san’atning rivojlanishiga ham kuchli turtki bo‘ldi, yangi davr ziyolilar avlodining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Shunday qilib, jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim borasidagi islohotlari Markaziy Osiyo jamiyatini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘llaridan biriga aylandi. Ularning sa’y-harakatlari yangi pedagogik tamoyillarni, fan va madaniyatning dolzarb yo‘nalishlarini o‘quv jarayoniga olib kirdi, bu esa mintaqaning keyingi rivojlida chuqur iz qoldirdi. Ular qoldirgan ma’naviy va intellektual meros mustaqillik davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi, aksincha, milliy ta’lim tizimini qayta qurishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qilmogda.

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV – JADID MA’RIFATPARVARI VA MILLIY UYG‘ONISH YETAKCHISI

Yadgarov Nodir Djalolovich
BDPI, Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti decani

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar jarayonida jadidchilik harakati muhim o‘rin tutdi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish va milliy taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov bo‘lib, u o‘zining pedagogik, ma’rifiy, siyosiy va matbuotchilik faoliyati bilan o‘zbek milliy uyg‘onish tarixida muhim o‘rin egallaydi. Munavvarqori yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, milliy matbuotni rivojlantirish hamda siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish orqali o‘z xalqining ma’rifiy va siyosiy ongini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon mahallada maktab ochib, bolalarga ta’lim bergan, onasi Xosiyat otin esa xotin-qizlarni o‘qitgan ma’rifatli ayollardan biri bo‘lgan. Shu sababli Munavvarqorining bolaligi ilm-ma’rifat muhitida o‘tgan. U dastlabki savodini onasidan oladi, keyinchalik mashhur ustozlardan saboq oladi va Qur’oni karimni

xatm qilib “qori” unvoniga sazovor bo‘ladi. Munavvarqori bir necha yil Toshkentdagi madrasalarda tahsil olgach, ilm izlab Buxoroga boradi. U yerda hadis, fiqh va tafsir kabi diniy fanlarni o‘rganadi. Biroq Buxoro madrasalaridagi ta’lim tizimi uni qoniqtirmagani sababli Toshkentga qaytib keladi va yangi usul ta’limini joriy etishga kirishadi.

Munavvarqori 1901-yilda Toshkentda yangi usuldagi maktab – usuli savtiya maktabini ochdi. Bu maktabda ta’lim zamonaviy usullar asosida olib borildi. U o‘quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yangi darsliklar yaratdi. Uning 1907-yilda chop etilgan “Adibi avval” va “Adibus-soniy” darsliklari o‘zbek tilidagi ilk alifbo va o‘quv qo‘llanmalardan biri hisoblanadi. Keyinchalik u maktablarda husnixat, geografiya, islom tarixi va turkiy xalqlar tarixi kabi fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi. Munavvarqori mahalliy o‘qituvchilar orasida birinchi bo‘lib “Namuna maktabi”ni tashkil etdi va rus tilini o‘qitish masalasini ham ilgari surdi. Uning tuzgan o‘quv dasturi 1910-1916-yillarda Turkistonning ko‘plab maktablarida qo‘llanilgan. Munavvarqori milliy ta’lim tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish tashabbusi bilan ham chiqdi. Bu maqsadda u “Nashri maorif” va “Ko‘mak” kabi tashkilotlar faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

Munavvarqori o‘zbek milliy matbuotining shakllanishida ham katta xizmat qilgan. U bir qator gazeta va jurnallarni tashkil etish yoki ularda faol qatnashish orqali xalqni ma’rifatga chaqirdi. Jumladan, u “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo” va “Sadoyi Turkiston” gazetalarida faol ishlagan. 1915-yildan boshlab esa “Al-isloh” jurnalini tashkil etgan. Shuningdek, Munavvarqori milliy teatr rivojiga ham katta hissa qo‘shdi. U “Turon” jamiyati va teatr truppasining tashkilotchilaridan biri bo‘lib, o‘zbek milliy teatrining ilk faoliyatida muhim rol o‘ynadi. U dramaturgiya va teatr san’atini rivojlantirishda ham faol ishtirok etdi.

1917-yilgi siyosiy o‘zgarishlar davrida Munavvarqori jadid ziyolilari bilan birga milliy siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etdi. U “Sho‘royi islomiya” tashkilotining yetakchilaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, u Turkiston Muxtoriyati g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, milliy davlat tuzish harakatlarida qatnashdi. Keyinchalik u “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” kabi yashirin tashkilotlar faoliyatida ishtirok etib, Turkiston mustaqilligi uchun kurashni davom ettirdi. Bu faoliyat sovet hokimiyati tomonidan qat’iy nazorat ostiga olindi.

Munavvarqori ko‘plab darsliklar va ilmiy asarlar muallifidir. Uning “Adibi avval”, “Adibus-soniy”, “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tarixi islomiya”, “Tarixi anbiyo”, “Yer yuzi” kabi asarlari o‘z davrida keng tarqalgan. Shuningdek, u Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda “O‘zbekcha til saboqlig‘i” nomli grammatik qo‘llanmani yaratgan. Adib badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning “Bizda hamiyat”, “Tug‘ishganlik sevgisi”, “Devpechak” kabi hikoyalari hamda “Yalqovlik yovimizdir”, “Himmatli faqir” kabi she’rlari matbuotda chop etilgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u xalq ma’rifati, milliy maktab tizimi, matbuot va siyosiy hayot rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning pedagogik faoliyati va yozgan darsliklari o‘zbek ta’lim tizimining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Shu bilan

birga, u milliy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etgan fidoyi ma’rifatparvar sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Munavvar qori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 160 b.
2. Xolboyev Sotimjon. Jadidlar: Munavvar qori Abdurashidxonov. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 152 b.
3. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 320 b.
5. Cho‘lpon. Asarlar. – Toshkent: Sharq, 1994. – 350 b.
6. Mustafo Cho‘qay. Turkiston istiqloli uchun kurash. – Toshkent: Sharq, 2000. – 312 b.
7. Zaki Validiy To‘g‘on. Turkiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 420 b.
8. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 280 b.
9. O‘zbekiston tarixi: XX asr boshlarida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 384 b.
10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704 b.
11. Munavvar qori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi // Science and Innovation xalqaro ilmiy jurnali. – 2022. – №4.
12. Munavvar qori Abdurashidxonovning pedagogik faoliyati // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024.

JADID MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA IJTIMOIY HAMKORLIK MASALALARI

Sharipov Abduxakimjon Ziyoitdinovich
BDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-ma’rifiy harakat bo‘ldi. Jadid mutafakkirlari jamiyat rivojini ta’minlashda ta’lim, madaniyat va fuqarolik ongini oshirish bilan bir qatorda ijtimoiy hamkorlik tamoyilini ham asosiy omillardan biri sifatida ko‘rganlar.

Ularning fikricha, jamiyat taraqqiyoti faqat davlat yoki alohida shaxs faoliyati bilan emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasidagi hamkorlik orqali ta’minlanadi. Bu g‘oya ayniqsa Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarining asarlarida yaqqol ifodalangan.

Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida jamoaviylik va hamkorlik g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning fikricha, millat

ravnaqi uchun har bir inson jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishi va umumiy taraqqiyot yo‘lida faol ishtirok etishi zarur.

Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda hamkorlik muhim omil ekanini ta’kidlab shunday yozadi: “Millatning taraqqiyoti uchun har bir kishi o‘z manfaatini millat manfaatidan ustun qo‘ymasligi lozim” [2:45].

Jadid mutafakkirlari ijtimoiy hamkorlikni nafaqat ma’rifat orqali, balki amaliy jamoa tashkil etish zarurati sifatida ham talqin qilgan. Ular uchun hamkorlik – bu atrof-muhitdagi muammolarga birdamlikda yechim topish, yangi g‘oyalarni amalga oshirishda qo‘llarni birlashtirish edi. Masalan, yangi usuldagi maktablar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, kutubxonalar tashkil qilish kabi barcha tashabbuslar o‘sha davr jamiyatida an’anaviy bo‘lmagan ko‘ngillilik va o‘z-o‘zini tashkil etish namunalari edi. Bu faoliyatlar orqali jadidlar o‘zlarining istiqbolli qarashlarini amaliyotga tatbiq etish bilan birga, jamoaviy harakatning samaradorligini namoyish etdilar.

Ijtimojiy hamkorlikning muhim jihati sifatida jadidlar turli qatlamlar – zodagonlar, savdogarlar, donishmandlar va oddiy xalq o‘rtasida dialogni rivojlantirishga intildilar. Ular boylarni xayriya ishlariga, masalan, maktab qurishga jalb qilishga harakat qilishdi, shu bilan birga oddiy xalqni yangi bilimlar o‘zlashtirishga undadilar. Bu yondashuv orqali ular ijtimoiy adolat va tenglik g‘oyasini ilgari surmasa-da, amaliy manfaatlar asosida hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirdilar. Hamkorlik nafaqat moddiy resurslar, balki intellektual salohiyatni ham birlashtirishi kerakligini ta’kidladilar.

Behbudiy jamiyatning rivojlanishi uchun ta’lim tizimi, mahalla va jamoa institutlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarurligini alohida qayd etadi.

Jadid pedagogikasida ham ijtimoiy hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Bu masala ayniqsa Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida keng yoritilgan.

Avloniy o‘zining mashhur Turkiy Guliston yoxud axloq asarida tarbiya jarayonida oila, maktab va jamiyat hamkorligi muhimligini ta’kidlaydi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidur” [1:15].

Bu fikr tarbiya va ijtimoiy hamkorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Jadidlarning fikricha, barkamol avlodni tarbiyalashda jamiyatning barcha institutlari birgalikda harakat qilishi zarur.

Jadid mutafakkirlari mahalla institutini ham ijtimoiy hamkorlikning muhim shakli sifatida ko‘rganlar. Mahalla aholining o‘zaro yordam va hamkorlik asosida yashashini ta’minlaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi.

Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov mahallaning jamiyatdagi o‘rni haqida shunday yozadi: “Millatning quvvati uning birligida, birligi esa xalqning o‘zaro hamjihatligidadir” [3:72].

Bu fikr jamiyat taraqqiyoti uchun jamoaviylik va hamkorlik zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda jadid mutafakkirlarining ijtimoiy hamkorlik haqidagi qarashlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan g‘oyalari

zamonaviy davlat boshqaruvi va ijtimoiy institutlar faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda.

Xususan, jamiyat taraqqiyotida fuqarolar faolligi, jamoatchilik nazorati va mahalla institutining rivojlanishi jadidlarning hamkorlik g‘oyalariga yaqin konsepsiyalarga asoslanadi.

Tadqiqotchilar fikricha, jadidlarning ijtimoiy hamkorlik haqidagi qarashlari milliy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi [6:118].

Jadid mutafakkirlarining ijtimoiy hamkorlik haqidagi qarashlari jamiyat taraqqiyoti uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Ular jamiyat rivojida ta’lim, jamoaviylik, fuqarolik mas’uliyati va hamkorlikning muhim o‘rin tutishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Jadid mutafakkirlari ijtimoiy hamkorlikni milliy o‘zligini saqlab qolish va rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rganlar. Mustamlakachilik sharoitida madaniy va ma’naviy mustaqillikni saqlash muhim masala edi. Shu sababli, ular o‘z ma’rifiy va madaniy tashabbuslarida hamkorlikni asosiy yo‘l sifatida qabul qildilar. Birlashgan jamiyatgina yangi davr talablariga moslasha oladi va o‘zining milliy qiyofasini yo‘qotmasdan taraqqiyotga erisha oladi, degan fikrni ilgari surdilar. Bu hamkorlik nafaqat mahalliy, balki boshqa musulmon xalqlari bilan ham almashinuv va hankorlikni o‘z ichiga olishi kerak edi.

Shuningdek, ular ijtimoiy hamkorlikni demokratik qadriyatlar bilan bog‘lab, ochiqlik va mas’uliyatni muhim omil sifatida ko‘rsatdilar. Matbuot ular uchun nafaqat ma’rifat, balki jamoaviy fikr-mulohazalarni shakllantirish va nazorat qilish vositasi edi. Ommaviy munozaralar, majlislar, nashrlar orqali ular jamiyatning turli vakillarini muhokamalarga jalb qilishga intilishdi. Bu yondashuv orqali ular o‘z davrining ijtimoiy faolligini oshirishga, fuqarolik jamiyatining dastlabki elementlarini shakllantirishga xizmat qildilar.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar nazarida ijtimoiy hamkorlik an’anaviy jamiyat qurilishidan zamonaviy jamoaviy harakatlantiruvchi kuchga o‘tishning asosiy omili edi. Ular birlashgan harakatlarsiz na ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish, na jamiyatni modernizatsiya qilish, na mustamlakachilikka qarshi samarali kurashish mumkin emasligiga ishonch bildirdilar. Ularning qarashlarida hamkorlik nafaqat amaliy ehtiyoj, balki ma’naviy va vatanparvarlik majburiyati sifatida ham namoyon bo‘ldi.

Jadidlarning ijtimoiy hamkorlik haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalla institutini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 220 b.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2003. – 180 b.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 200 b.
5. Karimov N. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 240 b.
6. Alimuhamedov A. Jadid ma’rifatparvarligi. – Toshkent: Fan, 2010. – 180 b.

MAHALLADA IJTIMOIY NAZORAT VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHNING FALSAFIY-HUQUQIY JIHATLARI

Muxammedov Maxsud Murodovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy demokratik jamiyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda bunday institutlarning eng muhim shakllaridan biri mahalla tizimi hisoblanadi. Mahalla jamiyat hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolar faolligini oshirish va ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotchilar fikricha, mahalla instituti fuqarolik jamiyati tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi [3:73].

Mahalla tizimi ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam va jamoaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u jamiyatda ijtimoiy tartibni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mahalla instituti qadimdan Markaziy Osiyo jamiyatida muhim ijtimoiy institut sifatida shakllangan. U nafaqat hududiy birlik, balki ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy boshqaruv tizimi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Falsafiy nuqtai nazardan mahalla jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi institut hisoblanadi. U jamoaviy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga asoslanadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, mahalla tizimi jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [1:126].

Mahalla orqali fuqarolar o‘z muammolarini jamoaviy tarzda hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy nazorat jamiyatda ijtimoiy normalar va qoidalarga rioya etilishini ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Mahalla tizimida ijtimoiy nazorat quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

jamoaviy muhokama va maslahatlashuv;

ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash;

fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy nazorat mexanizmlari ijtimoiy tartibni saqlashda muhim rol o‘ynaydi [2:214].

Mahalla tizimida ijtimoiy nazorat nafaqat tartibni ta’minlash, balki ijtimoiy muammolarni oldini olishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonda mahalla tizimi qonunchilik asosida faoliyat yuritadi. Mahalla fuqarolar yig‘ini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida huquqiy maqomga ega.

Mahalla institutining huquqiy asoslari fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyati fuqarolar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish va hududiy muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar fikricha, mahalla instituti fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi [3:79].

Bugungi kunda mahalla tizimi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. U fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim institut hisoblanadi.

Mahalla tizimi orqali:

- ijtimoiy muammolar aniqlanadi;
- aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi;
- fuqarolar faolligi oshiriladi.

Shu sababli mahalla tizimini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Mahalla instituti jamiyatda ijtimoiy nazorat va o‘z-o‘zini boshqarishning muhim shakli hisoblanadi. U fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mahalla tizimining falsafiy-huquqiy asoslarini o‘rganish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mahalla instituti o‘zining tarixiy ildizlari va an’anaviy qadriyatlari bilan zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolat va birdamlikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Uning falsafiy-huquqiy asoslari, bir tomondan, milliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlar tizimiga, ikkinchi tomondan, zamonaviy demokratik tamoyillar va huquqiy normalarga tayanadi. Bu sintez mahallani nafaqat an’anaviy jamoaviy institut, balki fuqarolik jamiyatining tirrak hujayrasi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mahalla tizimini o‘rganish uning o‘ziga xosligi va universal qadriyatlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishni talab qiladi.

Huquqiy jihatdan mahalla instituti Konstitutsiya, “Mahalla instituti to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu huquqiy asos mahallaning vakolat va mas’uliyat doirasini belgilab beradi, unga ma’muriy boshqaruvda mustaqil sub’yekt maqomini beradi. Falsafiy jihatdan esa mahalla o‘z-o‘zini boshqaruv va jamoa irodasining ifodasi, shuningdek, inson qadr-qimmati va o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyillarining amaliy namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Bu institutning rivojlanishi davlat boshqaruvi bilan fuqarolik tashabbusi o‘rtasidagi muvozanatni topishga qaratilgan.

Mahallaning ijtimoiy nazorat funksiyasi uning barqarorlik va intizomni ta’minlashdagi ahamiyatini oshiradi. Bu nazorat rasmiy-jinoyatchilik profilaktikasidan tortib, oilaviy va qo‘shnichilik munosabatlaridagi og‘ishlarni bartaraf etishgacha cho‘ziladi. Mahalla aholisining o‘zaro nufuzi va og‘ish xatti-harakatlarga nisbatan jamoaviy reaksiyasi, rasmiy sanksiyalarga qaraganda

ko‘pincha samaraliroq ta’sir ko‘rsatadi. Shu orqali jamiyatda ma’naviy-axloqiy me’yorlarning saqlanishi va avloddan-avlodga o‘tishi ta’minlanadi.

Mahalla tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri uning rahbariyatini saylov yo‘li bilan tanlash va hisobot berish tartibini yanada demokratlashtirish, shuningdek, moliyaviy mustaqilligini oshirishdan iborat. Bu esa mahallaning haqiqiy o‘zini-o‘zi boshqaruv organiga aylanishi, mahalliy muammolarni hal qilishda ko‘prok iqtisodiy va qaror qabul qilish vakolatlariga ega bo‘lishi uchun zarur shartdir. Bunday islohotlar mahallaning ixtiyoriy faolligini oshiradi va uning jamoa manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Umumiy qilib aytganda, mahalla institutining falsafiy-huquqiy asoslarini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirish nafaqat milliy an’analarni saqlab qolish, balki kuchli fuqarolik jamiyati va barqaror demokratik boshqaruvni shakllantirishning muhim omilidir. U samarali isloh qilinsa, mahalla mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruvning namoyondasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatchisi, shuningdek, ijtimoiy yaxlitlik va taraqqiyotning poydevori bo‘lib xizmat qilishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 126-bet.
2. Anthony Giddens. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 214-bet.
3. Erkin Yusupov. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Universitet, 2005. – 73–79-betlar.

JADID MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA MEHNAT QADRIYATLARI

Rajabov Ilxom Mustafoyevich
“NKMK” Aksiyadorlik jamiyati Markaziy kon boshqarmasi,
Boshqarma Ofis menejer bo‘limi
Axborot va ma'naviyat – ma'rifat guruhi rahbari

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy tafakkurida jadidchilik harakati muhim o‘rin egallaydi. Jadid ma’rifatchilari jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy taraqqiyotga erishish va ijtimoiy ongni yuksaltirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida mehnat qadriyatlari alohida o‘rin tutadi.

Jadid mutafakkirlari mehnatni inson kamolotining muhim omili, jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida baholaganlar. Ular mehnatga hurmat, kasb-hunar egallash va halol mehnat orqali jamiyat farovonligini ta’minlash mumkinligini ta’kidlaganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, jadidlar tomonidan ilgari surilgan mehnat qadriyatlari milliy uyg‘onish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [5:56].

Jadid ma’rifatchilari mehnatni inson hayotining asosiy mazmuni va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin qilganlar. Ular yosh avlodni halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga da’vat etganlar.

Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. U shunday yozadi:

“Har bir inson o‘z mehnati bilan yashasa, jamiyatda tartib va farovonlik qaror topadi” [1:45].

Avloniy fikricha, mehnat nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki insonning ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy ham jamiyat taraqqiyotida mehnat va kasb-hunar egallash muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan. U millat taraqqiyoti uchun savodxonlik, hunarmandchilik va ishlab chiqarish rivojlanishi zarurligini qayd etadi [2:32].

Behbudiy fikricha, millat taraqqiyotining asosiy sharti – ilm va mehnatdir. Shu sababli u yoshlarni hunar o‘rganishga va iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga undagan.

Jadid pedagogikasida mehnat tarbiyasi muhim o‘rin egallaydi. Jadidlar yosh avlodni nafaqat bilimli, balki mehnatsevar va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaganlar.

Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov ta’lim jarayonida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar ham muhim ekanini qayd etadi. Uning fikricha, maktablarda kasb-hunar asoslarini o‘rgatish jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi [3:61].

Shuningdek, Abdurauf Fitrat ham yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlagan. U jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan bilan bir qatorda ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat ham rivojlanishi kerakligini qayd etadi [4:74].

Fitratning fikricha, millat taraqqiyotiga erishish uchun har bir inson jamiyat rivojiga o‘z mehnati bilan hissa qo‘shishi zarur.

Bugungi kunda jadid mutafakkirlari merosida ilgari surilgan mehnat qadriyatlari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda ham mehnatsevarlik, kasb-hunar egallash va ijtimoiy mas’uliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, jadidlar tomonidan ilgari surilgan mehnat qadriyatlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim nazariy manba hisoblanadi [6:83].

Shu sababli jadid mutafakkirlarining pedagogik va ijtimoiy qarashlarini o‘rganish bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Jadid mutafakkirlari merosida mehnat qadriyatlari muhim o‘rin egallaydi. Ular mehnatni inson kamolotining muhim omili va jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida baholaganlar. Ular tushungan ediki, erkin va ongli mehnatgina shaxsni ruhan boyitadi, uning qalbini poklaydi, aql-idrok darajasini oshiradi. Mehnat – bu nafaqat moddiy ne’matlar manbai, balki insoniyatning axloqiy poydevori hisoblanadi.

Shu sababli jadidlar ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishda mehnatga alohida e’tibor berishgan. Ular maktab darslariga hunar o‘rgatishni, qo‘l mehnatini joriy

etishni asosiy vazifa deb bildilar. O‘quvchilar darsdan tashqari vaqtda bog‘dorchilik, tikuvchilik, kulolchilik kabi amaliy kasblar bilan shug‘ullanishi kerak edi. Buning maqsadi nafaqat kelajakda o‘z o‘zi uchun moddiy poydevor yaratish, balki yosh avlodni mehnat qadrlari bilan tarbiyalash edi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun mehnatning ahamiyati haqidagi fikrlar ularning barcha faoliyatiga singib ketgan. Matbuot orqali ular mehnatsevarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishdi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirish zarurligi haqida yozishdi. Iqtisodiy mustaqillik sari bo‘lgan yo‘lda mehnatgina hal qiluvchi kuch ekanligini ta’kidladilar. O‘z xalqining qiyinchiliklarga bardoshli, mehnatsevar ekanini ular chuqur hurmat qilishardi va aynan shu fazilatlarni yanada rivojlantirishga chaqirishardi.

Ular uchun mehnat qadriyatlari nafaqat iqtisodiy, balki milliy o‘zlikni saqlash vositalaridan biri edi. O‘z qo‘l mehnati bilan yaratilgan narsalar, o‘z mehnati bilan qoplanadigan dasturxon milliy madaniyatning janglmaydigan tarkibiy qismi hisoblangan. Shu nuqtai nazardan, hunarmandchilikni o‘rganish va rivojlantirish vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishi sifatida talqin qilingan.

Bundan tashqari, jadidlar mehnatni insonlar tengligining asosi deb hisoblashgan. Har kim o‘z mehnati, o‘z bilimi va salohiyati evaziga jamiyatdagi o‘rnini topishi kerak edi. Bu g‘oya ularning taraqqiyparvar va demokratik qarashlarining muhim jihati bo‘lib, uning orqasida har bir insonning qadr-qimmatini mehnati bilan belgilash tamoyili yotadi.

Shunday qilib, jadidiyat harakatining yetakchilari mehnatni butun hayotiy falsafaning markaziga qo‘ydilar. Uning orqali inson kamoloti, jamiyat farovonligi, milliy mustaqillik va madaniyatning saqlanishi g‘oyalarini uyg‘unlashtirishga harakat qilishdi. Bu qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va muasir taraqqiyot yo‘lida qimmatli manba hisoblanadi.

Jadid ma’rifatchilari yosh avlodni mehnatsevarlik, kasb-hunar egallash va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 45-bet.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 32-bet.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 61-bet.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 74-bet.
5. Begali Qosimov. Jadidchilik. – Toshkent: Sharq, 2004. – 56-bet.
6. Naim Karimov. Jadid adabiyoti va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2001. – 83-bet.

CEDIDÇILIK FENOMENI:
ORTAYA ÇIKIS NEDENLERI VE SOSYO-TARIHSEL ÖNEMI

Kuvandikov Shokir, Felsefe doktoru (PhD)

Her olay, belirli bir mekân ve zamanda, belirli nedenlerle meydana gelerek tarih sahnesinde yerini alır. Sosyo-politik ve aydınlanmacı bir akım olarak ortaya çıkan "Cedidçilik" fenomeni de bundan müstesna değildir.

"Cedidçilik; devleti, rejimi ve yönetimi ıslah ederek milleti geliştirme yoluyla toplumu topyekûn yeni bir kalkınma aşamasına taşımayı amaçlayan fikirlerin ve somut pratik önlemlerin birleştiği bir sistemdir. Bu sistemin; dünya medeniyetinde son derece büyük rol oynamış Türkistan gibi köklü bir coğrafyada, yüzyıllardır süregelen Doğu yaşam tarzını koruyarak onu Batı ve Avrupa gelişiminin sonuçlarıyla zenginleştirmeyi hedeflediği açıktır. 20. yüzyılın şafağından itibaren yeni bir yaşam biçimi oluşturma yollarını aramış ve baskıcı rejim (istibdat) koşullarında kendi kaderini tayin etme yolunda bir mücadeleye girişmiş çok yönlü ve karmaşık süreçleri bünyesinde barındırır." Türkistan halklarının yakın tarihine bakıldığında Cedidçilik hareketi; sömürgecilerin ve yerel han/emirlerin cehaletinden azap çeken halkı özgürlüğe kavuşturmak için mücadele eden, bunun için "yeni bir manevi alan" yaratarak aydınlanmış bir toplum inşa etmeye çalışan sosyo-politik bir akım olarak kabul edilir. Onların biriktirdiği tecrübe ve manevi miras, Yeni Özbekistan'da aydınlanmış bir toplumu ve "yeni manevi mekânı" şekillendirmede temel tarihi, felsefi ve manevi kaynaklardan biri sayılmaktadır.

"Cedid" teriminin sözlük anlamına gelince; bu kelime "yeni" demek olsa da Doğu halklarının dillerindeki kullanımı oldukça eskidir. Mirza Uluğbey'in astronomi alanındaki başyapıtının isimlerinden birinin *«Zic-i Cedid-i Kuragani»* (Kuragani'nin Yeni Cetvelleri) olması bunun en açık örneğidir. 19. yüzyılda yaşamış Muhammed Gıyasuddin'in *«Gıyas'ul-Lügat»* eserini Farsçadan çeviren Bahtiyar Aman, "cedid" kelimesini "yeni", "cedidan" kelimesini ise "gün ve gece" (ikili zaman) şeklinde tanımlamıştır. Cedidçilik özünde "yeni" kelimesinden türemiş olup "yenilik taraftarı" anlamına gelir. Bu süreç önce okulda başlamış, ardından basın, tiyatro ve siyasete sıçramıştır.

Alman bilim insanı Ingeborg Baldauf'un aktardığına göre, bu alanın araştırmacılarından Adeeb Khalid, "Cedid" olarak adlandırılabilecek kişileri şöyle tanımlar: "Müslüman toplumunu modern iletişim araçlarını ve yeni diyalog biçimlerini kullanarak ıslah etmeye çalışan şahıslara Cedidçiler denir." Daha basit bir ifadeyle; ideallerini gerçekleştirmek için başlangıçta birbirleriyle yeterli bağı kuramayan bireyler, İsmail Gaspıralı'nın sunduğu ve ilk aşamada "Usul-i Cedid" (Yeni Yöntem) olarak adlandırılan okul sistemiyle aydınlanma ve modernleşme fikirlerini hayata geçirmeye başlamışlardır. Cedidçilerin kendileri bu terimin anlamını oldukça isabetli açıklamışlardır. Örneğin Hamza Hakimzade Niyazi, *«Vakit»* ve *«Tercüman»* gazetelerini okumaya başladıktan sonra eski hurafeleri, medrese eğitimini, halkın yaşamındaki değişimleri, kültür ve ekonomi gibi meseleleri incelemeye başladığını belirtmiştir.

Kısacası, 1927 yılının ikinci yarısından itibaren Cedidçilerin Orta Asya halkları önündeki tarihi hizmetleri de dünya görüşleri de (Sovyet rejimi tarafından) acımasızca eleştirilmeye başlanmıştır. Örneğin tarihçi H.P. Vahidov, yabancı araştırmacıların "Cedid liderleri Münevver Kari ve Behbudi, Orta Asya halklarının görüşlerini savundu ve bunun için savaştı" şeklindeki olumlu görüşlerini reddeder. Vahidov'a göre: "Cedidçiler, kendilerini kültürel ilerleme taraftarı gibi gösterip feodal düzene karşı savaşıyor gibi yapıp aniden gericiliğe sapmış ve halk kitlelerine ihanet etmişlerdir." (Bu, Sovyet döneminin tipik karalama yaklaşımıdır).

Türkistan'da Cedidçilik fikirlerinin tam olarak ne zaman ortaya çıktığına açıklık getirmek gerekir. Bu denli geniş kapsamlı bir hareketin başlangıç dönemini belirlemeden, onun hangi etkenlerle oluştuğunu ve Mahmut hoca Behbudi gibi liderlerin faaliyetlerini doğru yorumlamak mümkün değildir. Yakın zamana kadar araştırmacılar, Cedidçiliğin 20. yüzyıl başında Rusya, Türkiye ve İran'da gerçekleşen devrimci hareketlerin etkisiyle doğduğu konusunda hemfikirdi. Ancak son yıllarda bu konuda farklı görüşler öne sürülmektedir.

Bizce bu yeni yaklaşımlar doğrudur. Çünkü:

1. Cedidçiliği sadece dış devrimlere (Rusya 1905, Türkiye 1908, İran 1905) bağlamak tek taraflı bir bakıştır. Bu durum, Türkistan'ın kendi topraklarında bu fikirlerin yetişmesi için yeterli zemin yoktu anlamına gelir ki bu yanlıştır.
2. Dış etkiler meselenin özü değil, sadece tetikleyicisi olmuştur. Profesör H. Ziyaev'in belirttiği gibi, Cedidçiliğin bağımsızlık ve özgürlükle yoğrulmuş fikirleri, 19. yüzyılın 1850-1870'li yıllarında Özbek halkının Rus istilasına karşı verdiği mücadelelerde zaten kendini göstermişti.

Rus devleti bölgedeki milli devlet yapılarını ve orduları yok ederek bağımsızlığı ortadan kaldırdı. Sömürgecilik siyaseti manevi hayatı da vurdu; vakıf mülkleri kısıtlandı, medreseler duraklatıldı. Genel Vali Von Kaufman'ın şu sözleri sömürgeci zihniyeti özetler: *"Bu halka mümkün olduğunca çok pamuk ektirmek, onları durmaksızın çalıştırmak gerekir ki başka şeyleri düşünmeye, siyasi olayları anlamaya bir an bile vakitleri ve arzuları kalmasın."*

Cedidçilik; milli benliği idrak etmek için halkı eğitme esasına dayanan, yeni, milli, bağımsız ve demokratik bir devlet kurmayı amaçlayan bir eylemler sistemidir. Sömürgeciliğe karşı bir direniş ve bir aydınlanma fenomenidir.

Bağımsızlık mücadelesi sloganı, yani Cedidçilik hareketinin temel düşüncesinin 19. yüzyılın sonlarına doğru halkın bilincinde sağlam bir yer edinmeye başladığını; 1892 ve 1898 yıllarında patlak veren milli özgürlük ayaklanmaları örneğinde de görebiliriz. 1892 yılındaki halk ayaklanması, yaz aylarında Taşkent'te veba hastalığının yayılması üzerine; genel valiliğin, şehir büyük aksakalı (Muhammed Yakub) ve şehir başkanının (Putintsev) hastalığın önlenmesine karşı ihmalkâr davranması ve vefat edenlerin şehir mezarlıklarına defnedilmemesi yönünde emir vermesi sebebiyle ortaya çıkmıştır. Bazı verilere göre, o dönemde her gün yaklaşık 100 kişi vebadan hayatını kaybetmekteydi. 1898 yılındaki Andican ayaklanması (Muhammedali Halife Sabir oğlu - Dükçü İşan; pamuğu çekirdeğinden ayıran 'halaca' ve 'dug' yapan bir zanaatkâr) ise hem halkta, hem ulemada hem de üst tabaka temsilcilerinde ortak düşman olan Çarlığa karşı mücadelede birleşme ihtiyacının güçlendiğini kanıtladı. «Burada, bağımsızlık ve özgürlük için mücadele

duyguları önemli bir yer tutmuş, halkın tüm kesimlerinin bir amaç uğrunda birleşmesine yol açmıştır.»".

Sonuç olarak; Türkistan'da Cedidçiliğin siyasi, sosyo-ekonomik ve manevi zemini 19. yüzyılın son çeyreğinde tamamen olgunlaşmıştı. 1892 (Veba İsyanı) ve 1898 (Andican/Dukçi İşan Ayaklanması) gibi milli azatlık hareketleri, halkın Çarlık Rusyasına karşı birleşme ihtiyacını kanıtlamıştır.

Kaynakça:

1. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. - T., «Ma’naviyat», 2001.
2. Вохидов Ҳ. Просветительская идеология в Туркестане. - Т., 1979.
3. Do‘stqorayev B. Murodi – haq yo‘lida jon fido etish edi// Jahon adabiyoti,1998.
4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va qukmronligiga qarshi kurash (XUSh-XX asr boshlari). - T.. «Ma’rifat - Madadkor», 1998.
5. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. - T., «O‘qituvchi». 1994.
6. Karimov N. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi / «Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash», -T., «Universitet», 1999.
7. Qosimov B. Jadidchilik. // «O‘zbek tili va adabiyoti». 1990.
8. Mahmudov G’. Jadid adabiyotida milliy istiqlol g‘oyasi. - T., «O‘zbekiston». 1999.
9. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.

XORAZM OKRUGIDA JADIDCHILIK G‘OYALARINING IJTIMOIY-MADANIY HAYOTGA TA’SIRI

Marimov Muzaffar Erkinovich
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

XX asr boshlarida Turkiston, jumladan Xorazm hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-ma’rifiy harakat sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar xalqni savodsizlikdan chiqarish, milliy ongni uyg‘otish, zamonaviy bilim va madaniyatni targ‘ib etish orqali jamiyatni taraqqiyot yo‘liga boshlashni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Bu jarayonda ta’lim tizimini isloh qilish, matbuot va nashriyot ishlarini yo‘lga qo‘yish, san’at va madaniyatni rivojlantirish muhim vosita sifatida qaraldi.

Xorazm okrugi jadidchilik harakatining muhim markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda jadid g‘oyalari ijtimoiy-madaniy hayotga chuqur singib bordi. Ayniqsa, XX asrning 20–30-yillarida jadidlar tomonidan olib borilgan ma’rifiy faoliyat mahalliy matbuot, san’at, musiqa, fotografiya va kino orqali keng xalq ommasiga yetkazildi.

Mazkur maqolada Xorazm okrugida jadidchilik g‘oyalarining ijtimoiy-madaniy hayotga ta’siri Mulla Bekchan Rahmonov, Qurbon Beregin, Xudoybergan Devonov va Safo Mug‘anniy kabi jadid ziyolilarining faoliyati misolida ilmiy jihatdan tahlil etiladi.



Xorazmda jadidlar faoliyati zamonaviy maktablar tashkil qilish, darsliklar yaratish, gazeta-jurnallar nashr qilish, diniy-ta’limiy va madaniy yangilanishlarni targ‘ib etishga qaratilgan edi. Bu jarayonda ko‘plab ijodkorlar, olimlar va ma’rifatchilar faol ishtirok etdi. Xorazm okrugi madaniy hayotida jadidchilik harakatini faollashuvida Mulla Bekchan Rahmonov, Qurbon Beregin, Xudoybergan Devonov, Safo Mug‘anniylarning xizmatlari va ularning faoliyati alohida e’tirofga sazovar.

XX-asrning 20-30-yillarida Sovet hokimiyati Xorazm vohasida o‘z mafkurasini targ‘ib qiluvchi mahalliy matbuotning rivojlanishiga alohida e’tibor qarata bordi. Xorazmdagi birinchi mahalliy gazeta “Inqilob quyoshi” gazetasi bo‘lib, muvaqqat inqilobiy hukumat tuzilganidan keyin 1920-yil 8-martdan chop etila boshlangan[1;252]. 8-mart kuni “Inqilib quyoshi” gazetasining birinchi soni nashrdan chiqqan. Agar “Inqilob quyoshi” gazetasi ilk bor chiqqanida atigi 300–400 nusxada nashr etilgan bo‘lsa, Xorazm okrug partiya qo‘mitasi va Mehnatkashlar deputatlari okrug ijroiya qo‘mitasining rasmiy nashri — “Xorazm haqiqati” gazetasi uchinchi besh yillik yillari davomida o‘n minglab nusxalarda chop etila boshlandi. 1934-yildan boshlab okrugda tuman gazetalarining nashri ham yo‘lga qo‘yildi.

Mulla Bekchan Rahmonov “Inqilob quyoshi” gazetasining ilk muharrirlaridan biri hisoblanib, uning say-harakatlari bilan Xorazmda “Inqilob quyoshi” gazetasidan tashqari keyinchalik “Xorazm xabarlari”, “Yordam”, “Qizil yoshlar ovozi”, “Ishchilar tovushi”, “Qopqon” singari gazetalar va “qizil Xorazm”, “Maorif” nomli jurnallar ham nashr qilina boshlandi[2;14].

1927-yil fevral oyida “Inqilob quyoshi” gazetasiga Qurbon Ollaberganov (Beregin) bosh muharrir etib tayinlangan. U ushbu lavozimda 1929-yilning may oyigacha faoliyat olib bordi[3;20]. Qurbon Bereginning muharrirlik davri gazetaning yuksalishida muhim bosqich bo‘ldi. Uning rahbarligi ostida redaksiyada M. Olloyorov, I. Habibiy, U. Qurboniy kabi iste’dodli jurnalistlar faoliyat yuritishdi. Ularning fidoyi mehnati natijasida gazetaning qishloq va ishchi muhbirlari soni sezilarli darajada oshdi. Qurbon Bereginning tashabbusi bilan 1927-yilda bir necha muhim konferensiyalar tashkil etildi. Bu yig‘ilishlar Xorazmda matbuot ishini rivojlantirish, nashrlarning maqsad va vazifalarini belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘tkazilgan konferensiyalar matbuot orqali mafkuraviy targ‘ibot ishlarini jadallashtirish hamda qishloqlarda axborot tarqatish tizimini yaxshilashga xizmat

qildi. Shu davrda “Inqilob quyoshi” gazetasining tahririyati o‘zining g‘oyaviy kurashdagi faol ishtiroki bilan ajralib turdi.

Xalqni dunyo yangiliklaridan boxabar qilishga intilgan, yoshlarni o‘qish va ilmga chorlagan, o‘z faoliyati bilan har jihatdan yurtdoshlariga o‘rnak bo‘lgan Devonov ma’rifatparvar jadidlarning birinchi qatorida turadi. Bu insonning betakror kasb mahoratiga xonlar ham, sho‘rolar ham talabgor edi. Uning foto-kinokamerasi obyektividan shoh ham, gado ham o‘tgan. Faoliyatidagi 40 yildan ortiq vaqt mobaynida olgan behisob suratlarning qiymati juda yuqori bo‘lgan. Ammo hozirda o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-etnografik, madaniy-ma’rifiy turmush tarzidan zarur axborotlar beradigan minglab fotolar, hujjatli kadrlardan sanoqlilarigina qolgan, xolos.

O‘tgan asrning 70 yillaridan to bugunga qadar qahramonimizga doir barcha muhim ma’lumotlarni to‘plash, fotosuratlarni tiklash, merosini asrab-avaylashda jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan insonlardan biri uning jiyani Abdulla Yusupovdir. Jiyanining maqolalaridan birida 1926-yili (Devonov hayot payti) “Yer yuzi” jurnalining 11-soni, 13-sahifasida nashr qilingan A.Yoqubovning “O‘zbek fotogrofchisi” maqolasidan muhim ma’lumotlar berilgan. Unda shunday deyilgan. “...Hozir Devonovning qo‘lida Xorazmning turmush, kun ko‘rish va tarixiga oid 500 xildan ortiqroq rasm bor. Agarda inqilob vaqtida olingan rasmlarni hisoblaganda 1500 ga yetardi. Hatto shunday rasmlar borki, bu rasmlar xon davrida, bundan 40–50 yil ilgari olingan bo‘lib, Devonovning qo‘lida saqlangan... Devonov 1903-yildan boshlab kino ishlariga havaslanadur va shunga kirishadur. Hozir Devonovning surat va kinolar uchun xususiy laboratoriyasi bo‘lib, 4 ta foto, 1 ta kino apparati bor. Devonovning qo‘lida Xorazm ko‘rinishlari va tarixiy voqealarga oid 300 metrdan iborat har xil kinoxabarlari borkim, buni Devonovning o‘zi va o‘g‘li ishlagandir. Devonov surat olish, kino olish bilangina shug‘ullanmay, balki xalqqa kartina ko‘rsatish vazifalarini ham bajaradur. O‘zining kartina ko‘rsatadurg‘on apparatlari bo‘lib, ichki Rossiyadan va boshqa yerlardan lenta olib xalqqa ko‘rsatadur. Devonov yosh havaskorlar yetishtirishda ham katta xizmatlar qildi. Bir xivalik yigitni shogird qilib olib, uni yaxshi fotografchi qilib tayyorladi. Shu qatorda yana bir yigitni 3 yildan beri o‘rgatib keladir. Bu yigit ham hozir g‘ayratli fotograf bo‘ldi. Devonov xususiy kishilarni yetishtirish bilan qanoatlanmay, mendan Xiva uchun esdalik qolsin, deb 1924-yilda Xivadagi ta’lim-tarbiya foto sho‘basi ochdi. Bunda o‘z apparati, o‘z g‘ayrati bilan 13 bolani tekinga fotograf ishiga tayyorladi. Devonovning mana shu xizmatlarini Xorazm viloyat ijroiya qo‘mitasi va Xorazm ishchi dehqoni taqdir etdi. Viloyat ijroqo‘mi Devonovning hurmatini taqdir etib, ishchi dehqonlar nomidan bir oltin soat taqdim etdi.” Mazkur manbada keltirilgan ma’lumotlar Xudoybergan Devonovning nafaqat iste’dodli fotograf va kinooperator, balki Xorazm tarixiy xotirasini asrab-avaylash yo‘lida fidokorona faoliyat olib borgan jadidlardan biri bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.



Uning qo‘lida jamlangan yuzlab, hatto mingdan ortiq foto va kino kadrlar Xorazmning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi hamda tarixiy jarayonlarini aks ettiruvchi noyob vizual manbalar hisoblanadi. Ayniqsa, xonlik davriga oid, o‘sha davrning bevosita guvohi bo‘lgan suratlarning saqlanib qolganligi Devonov faoliyatining tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Devonovning yana bir muhim jihati — yosh avlodni tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish borasidagi xizmatlaridir. U shogirdlar tayyorlash, yosh havaskorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali Xorazmda fotografiya va kino san’ati rivojiga mustahkam poydevor yaratdi. 1924-yilda Xivada ta’lim-tarbiya foto sho‘basining tashkil etilishi va unda bolalarning bepul o‘qitilishi uning ma’rifatparvarlik faoliyatining yorqin namunasi bo‘lib, bu xizmatlari davlat va jamoatchilik tomonidan munosib e’tirof etilgan. Afsuski Xudoybergan Devonov qatog‘on yillarining qurboni bo‘ldi. Unga “xalq dushmani” tamg‘asi bosilib, 1937-yilning 17-avgustida qamoqqa olinadi.

Safo Mug‘anniy hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u 1882-yilda Xiva tumanidagi Gandimiyon qishlog‘ida tug‘ilgan. U yoshligidan otasidan yetim qolib o‘gay onaning qo‘lida qolib juda og‘ir kunlarni boshidan kechiradi. 10 yoshga yetganda Polvonxo‘ja degan boyning uyida xizmatkor bo‘lib ishlaydi. Safo Mug‘anniy yangilikni sevuvchi, o‘zbek milliy musiqasi rivojiga barakali hissa qo‘shgan bastakorlardan biri. Unda ikkita buyuk istedod mujassamlashgan edi, ya’ni san’at va adabiyot.



Safo Mug‘anniyning hayot yo‘li jadidchilik harakatiga xos bo‘lgan ijtimoiy faollik, yangilikka intilish va milliy madaniyatni uyg‘otish g‘oyalari bilan mushtarakdir. Uning bolalik davrida duch kelgan og‘ir ijtimoiy sharoitlar keyinchalik ijodida xalq dardi, ijtimoiy tengsizlik va adolat masalalarining aks etishiga zamin yaratdi. Jadidlar singari u ham san’atni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyatni ma’rifiy jihatdan yuksaltirish, milliy ongni uyg‘otish vositasi deb bildi.

Safo Mug‘anniy 1921-1922yillarda XXSR Maorif nozirligida madaniyat boshqarmasi boshlig‘i, bir muddat Xazorasp tuman partiya qo‘mitasi kotibi lavozimlarida ish olib boradi. Shuningdek, 1925-1926-yillarda Xorazm okrug yer sho‘basining raisi sifatida vohada yer-suv islohotlarini o‘tkazish ishlariga bosh-

qosh bo‘ldi[4;26]. Safo Mug‘anniyning davlat va jamoat boshqaruvidagi faoliyati ham uning jadidchilik g‘oyalariga sodiqligini yaqqol namoyon etadi. U egallagan lavozimlar orqali ma’rifat, madaniyat va ijtimoiy adolat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishga intildi. Xususan, maorif va madaniyat sohasidagi rahbarlik faoliyati jadidlarning jamiyatni isloh qilish, xalqni savodli va ongli etib tarbiyalashga qaratilgan strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liq edi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm okrugida jadidchilik harakati XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy hayotni yangilashda muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan zamonaviy maktablar, yaratilgan darsliklar, nashr etilgan gazeta va jurnallar, shuningdek, san’at va madaniyat sohasidagi faoliyat xalqning dunyoqarashini kengaytirish, milliy ong va o‘zlikni anglash jarayonini jadallashtirdi. Umuman olganda, Xorazm jadidlari faoliyati mintaqaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etib, ularning ma’rifatparvarlik merosi bugungi kunda ham tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон коммунистлар (б) фирқаси Марказқўмнинг Ўзбекистон КП (б) иккинчи бутун Ўзбекистон қурилтойига маърузаси. – Самарқанд., 1925. – 252 Б

2.To‘maris avlodi” ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jurnali, 2021-yil, 6-son, 14-bet.

3. Каримов Н. Қурбон Берегин қисмати. – Т., Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти,2006. – Б. 20

4. “To‘maris avlodi” ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jurnali, 2022-yil, 16-son, 26-bet.

5. https://oyina.uz/uz/article/3674

JADID MA’RIFATCHILARINING QARASHLARIDA IJTIMOIY DAVLAT MASALASI

O‘razov Bobir Baxtiyorovich
BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, jamiyatni modernizatsiya qilish va ijtimoiy taraqqiyotga erishishga qaratilgan muhim ijtimoiy-ma’rifiy harakat sifatida tarixga kirdi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ilm-ma’rifat, ijtimoiy adolat, ta’lim tizimini isloh qilish hamda davlat boshqaruvini takomillashtirishni muhim omillar sifatida baholaganlar.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, jadidchilik harakati faqat madaniy-ma’rifiy harakat emas, balki jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy konsepsiya ham bo‘lgan. Jadidlar jamiyat taraqqiyoti uchun davlat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘un hamkorlik zarur deb hisoblaganlar [5:45].

Jadid ma’rifatchilari nazarida davlatning asosiy vazifasi xalqni jaholatdan chiqarish, ta’limni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashdan iborat bo‘lishi

kerak. Bu g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasining muhim jihatlari bilan uyg‘unlashadi.

Turkistonda jadidchilik harakati shakllanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega.

Jadid ma’rifatchilari davlatni jamiyat taraqqiyotining muhim instituti sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, davlat faoliyati xalq manfaatlariga xizmat qilishi va ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanishi zarur.

Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida millat taraqqiyoti uchun eng muhim omil sifatida ilm-ma’rifatni ko‘rsatadi. U “maktab – millatning taraqqiyot manbai” ekanini ta’kidlab, jamiyat rivoji uchun ta’lim tizimini isloh qilish zarurligini qayd etadi [1:27].

Shuningdek, Abdulla Avloniy jamiyat taraqqiyotida ma’naviy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. U o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi:

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir” [2:14].

Mazkur fikr jamiyat taraqqiyotida davlatning tarbiyaviy siyosati muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Jadid ma’rifatchilari ta’lim tizimini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholaganlar. Ularning fikricha, xalqning savodxonligi va ilmiy salohiyati oshmas ekan, jamiyatda taraqqiyot bo‘lishi qiyin.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari aynan shu g‘oyaning amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu maktablarda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “millatni jaholatdan qutqarishning yagona yo‘li – ilm va ma’rifatdir” [4:52].

Tadqiqotchilar fikricha, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’limni modernizatsiya qilish g‘oyasi bugungi kunda ijtimoiy davlatning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi [6:67].

Jadid ma’rifatchilarining qarashlarida ijtimoiy adolat masalasi alohida o‘rin egallaydi. Ular jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri sifatida savodsizlik, iqtisodiy qoloqlik va ijtimoiy tengsizlikni ko‘rsatganlar.

Masalan, Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida millat taraqqiyoti uchun ijtimoiy birlik va ma’rifat zarurligini ta’kidlaydi. U “Rahbari najot” asarida jamiyat taraqqiyoti ilm-fan, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy birlik bilan bog‘liqligini qayd etadi [3:83].

Fitrat fikricha, millat taraqqiyoti uchun davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, adolatli boshqaruv tizimini yaratishi zarur. Bu g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy davlat nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, jadidlar jamiyat taraqqiyotida fuqarolik faolligi ham muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etganlar. Ularning fikricha, jamiyat taraqqiyoti faqat davlat faoliyati bilan emas, balki fuqarolarning ijtimoiy faolligi bilan ham bog‘liq [7:92].

Jadid ma’rifatchilarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ularning qarashlarida ilgari surilgan ijtimoiy adolat, ta’limni rivojlantirish, fuqarolik mas’uliyati va milliy taraqqiyot g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasining asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Bugungi kunda ijtimoiy davlat quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash;
- ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
- ijtimoiy tenglikni ta’minlash;
- fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.

Bu tamoyillar jadid ma’rifatchilari ilgari surgan g‘oyalar bilan ma’lum darajada mos keladi. Shu sababli jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari zamonaviy ijtimoiy davlat nazariyasining tarixiy manbalaridan biri sifatida baholanadi.

Jadid ma’rifatchilari Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, milliy taraqqiyotga erishish va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan muhim g‘oyalarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida davlat jamiyat taraqqiyotining muhim instituti sifatida talqin qilinadi.

Jadidlar davlat faoliyatida ta’limni rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqarolik faolligini oshirish va milliy taraqqiyotga erishish masalalarini ustuvor deb hisoblaganlar. Bu g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasining asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 27-bet.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 14-bet.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 83-bet.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 52-bet.
5. Begali Qosimov. Jadidchilik. – Toshkent: Sharq, 2004. – 45-bet.
6. Naim Karimov. Jadid adabiyoti va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2001. – 67-bet.
7. Ozod Sharafiddinov. Jadidlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 92-bet.

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK

Sadullayeva Vazira Ismatovna
BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi,
t.f.f.d.(PhD)

Turon hududida maktab ta’limi, maorif tizimi qachon shakllangani haqida aniq ma’lumot bo‘lmasa-da, o‘zbek davlatchiligining paydo bo‘lishi sanasidan boshlab 3000 yillik tajriba yo‘lini bosib o‘tgan, deb bemalol ayta olamiz. Jadid bobolarimiz 20-yuzyillik boshlarida ta’lim islohotiga alohida e’tibor qaratdi va

yangi usul maktablariga asos soldi. Ayniqsa, Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu boradagi xiz matlari tahsinga sazovordir.Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoilbek G‘asparalini o‘z ustozi, maslakdoshi deb bilgan hamda uning yangi usul maktablarini tashkil qilishga oid tajribasini qunt bilan o‘rgangan. Samarqandlik jadidlar Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy va Hoji Muinlarning 1903-yili jadid maktablari ochishlariga ko‘maklashib, maktabda darslarni tashkil qilish va o‘qitish bo‘yicha tartiblarni ishlab chiqqan. Maktablarda quyidagilarga rioya qilinishi lozim bo‘lgan:

1.Sinfda (maktabda) bolalar soni 30 dan oshmasligi kerak;

2. Bolalarni yilida ikki marta – yoz va qish boshlaridagina qabul qilish mumkin;

3.Har qabul necha bo‘lishidan qat’iy nazar birta sinf bo‘lishi lozim;

4.Har bir muallimda ko‘pi bilan 3-4 sinf bo‘lsin. Agar maktab 3 sinfdan iborat bo‘lsa, darslar ketma-ket, ma’lum uyg‘unlikda qo‘yilmog‘i kerak;

5. 7-8 yoshlardagi bola 7-8 soat uzluksiz o‘qiy olmaydi. Kuniga dars soati 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so‘ng 10 daqiqa tanaffus bo‘lishi lozim;

6. Juma va bayram kunlari dam olinishi kerak;

7. O‘n oylik o‘qishdan so‘ng yozning issiq kunlarida ta’til bo‘lishi maqsadga muvofiq;

8.Bir kunda o‘quvchiga birta fanni o‘qitish zehnini buzishini inobatga olib, 5 ta fanni o‘qitish kerak;

9. Shogirdlarni urmay, so‘kmay tarbiyalash lozim;

10. Sovuq xonada dars va ilm bermaslik lozim;

11. Iqtidorli o‘quvchilarni har hafta so‘ngida rag‘batlantirish lozim va hokazo.

Mahmudxo‘ja Behbudiy an’anaviy maktablar zamon talabiga javob bermay qolgani, o‘quv dasturlari eskirganini ta’kidlab, yangicha o‘qitish davr talabi ekanini uqtirgan: “Usuli jadid xohlamaydurg‘on, yo yangi nima ekanini bilmay, o‘rusiy ataydurg‘on avom, bid’at ataydurg‘on mullalardin har kimki kelib, ushbu maktabni ko‘ribdur. Bolalarni husni qiroati, tajvid, hisob, ahkom va aqoid musulmoniyni bilg‘oni va aniq muddatga o‘qib, yozg‘oni xulosa, o‘qigan sabog‘ini qoidasi ila bilib, javob berg‘onini ko‘rib, tahsin qilib, hamma ko‘rgan va bilgan kishilar ushbu tariqa maktab to‘g‘risida sofdil fikr bildirdilar”.Behbudiy Kavkaz, Istanbul, Misr, Hijoz, Arabistondagi maktab va madrasalarni ko‘rib, biroz tajriba orttirgan. Maktabda dars berish tartiblari va o‘quv dasturlarini ko‘zdan kechirgan. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishib, Samarqandga olib kelgan.Maktablar uchun “Alifbo maktabi islomiya” (1904), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya, 1906), “Kitobat ut atfol” (Bolalar uchun kitob, 1908, 1914), “Muxtasari tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi, 1909), “Amaliyoti islomiya” (1908), “Madxali jo‘g‘rofiyai imroniy” (Aholi jug‘rofiyasiga kirish, 1905), “Muxtasari jug‘rofiyai Rusiy” (Rusiyaning qisqacha jug‘rofiyasi, 1905), “Hisob” (1918) darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yozgan[2].Behbudiy xalqni savodli va ma’rifatli qilish uchun yangi usul maktablarini eng ishonchli vosita, matbuotni ma’rifatni keng targ‘ib qilish quroli deb hisoblagan. O‘zi asos solgan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida muntazam ravishda ta’lim va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan maqolalar chop qilib borgan. U “dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan

lozim”ligini uqtirgan. Jug‘rofiya, geometriya, matematika, tabiat va chet tillarni o‘rganishni dunyoni bilish kaliti deb hisoblagan.Mutafakkir murabbiy-pedagog sifatida bola tabiatini chuqur o‘rgangan, o‘z o‘quv dasturlariga bolaga puxta bilim beruvchi odob, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, til, fiqh, handasa va bir qancha zamonaviy fanlarni kiritgan. Behbudiy bolada bo‘lishi lozim bo‘lgan tarbiyani quyidagi guruhlarga ajratgan:

1. Aqliy tarbiya;
2. Axloqiy tarbiya;
3. Diniy tarbiya;
4. Estetik tarbiya;
5. Huquqiy tarbiya.

Aqliy tarbiya maktabda berilishini urg‘ulab, u yerda diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur o‘rganish kerakligini ham ta’kidlaydi. Axloqiy tarbiya dastlab ota-ona tomonidan berilib, maktab yoshiga yetgach bu jarayonda ustozlar ham qatnashishini ko‘rsatib bergan. Ota-onalarga farzandlarini to‘yga olib bormaslik lozimligini uqtirib, to‘ydagi ichkilikbozlik va boshqa noo‘rin ishlar bola axloqiga salbiy ta’sir qilishini aytgan. Maktab o‘qituvchilariga bolalarga ishqiy mazmundagi g‘azallarni o‘qitmaslikni shart qilib qo‘ygan. Bunday g‘azallarga bolaning aqli yetmay, to‘g‘ri tushunmasligi oqibatida noxush holatlar kelib chiqigi mumkin, deb hisoblagan[5].Behbudiy bolada diniy tarbiya bo‘lishi shart, deb uqtirgan. Maktab uchun tayyorlagan ikkita darsligi ham diniy ta’lim va Islom tarixiga bag‘ishlangani bejiz emas. Uning fikricha, bolaga yoshligidan musulmonlar uchun farz bo‘lgan barcha amallarni o‘rgatish lozim. Behbudiy shogirdlarining diniy bilimdonligi ko‘plab ulamolar tomonidan e’tirof etilgan.Behbudiy asarlarida aynan estetik tarbiya so‘zi qo‘llanmagan bo‘lsa-da, bu tarbiyani berishga oid aniq tavsiyalari mavjud. Masalan, “Kitobat ut atfol” darsligida insonning go‘zal xulq-atvoriga odatlanishi zarurligi, insonlar bir-biriga maktub yozganda chiroyli husnixat bilan, xushmuomala so‘zlardan foydalanishi lozimligini uqtirgan. Ota-onaga xat yozganda “muhtaram”, “hurmatli”, “aziz” so‘zlari bilan boshlangan maktublarni namuna sifatida ko‘rsatgan[4].

Behbudiy har bir inson o‘z haq-huquqini bilishi zarurligini ko‘plab maqolalarida tilga olgan. Bu uning huquqiy tarbiya borasidagi ta’limoti bo‘lib, bolalar va ayollarga tegishli huquqlar, meros huquqi bo‘yicha islomiy huquqiy bilimlarni taqdim qilgan.Mahmudxo‘ja Behbudiy vatanparvar, millatparvar avlodni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan va buni faqat maktab orqali amalga oshirish mumkin, deb hisoblagan. Mutafakkir “Oyina” jurnalining 1914-yil 11-sonidagi “Maktab” maqolasida ushbu muqaddas maskanga juda yuksak ta’rif bergan: “Maktab – jannat va istiqbolning eshigi, maktab – jaholatga dushman qilichi, maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidur”. Ammo Turkiston aholisi maktabning bu qadar azizligini bilmasligidan afsuslangan. Arzimagan pul topish uchun farzandlarini kunlik ishlarga jalb qilayotganlaridan qayg‘uga tushgan. O‘zining “Samarqand” gazetasining 1913-yil 3-sentyabrda chop qilingan “Tahsil oyi” maqolasida aynan shu masalalarga e’tibor qaratib, Turkiston xalqini maktab ta’limiga chorlaydi: “Agar avgust va sentyabr oylaridan boshlab ko‘chaga razm solgan kishi ikki xil odamlarni ko‘radi. Birisi oppoq ko‘ylaklar kiyib yasanib olgan,

qo‘llarida o‘nlab nusxa kitoblar ko‘tarib, saodatlik yurish bilan hukumat maktablariga ketayotgan rus, yahudiy armani bolalari. Ikkinchi xil odamlar esa ertalabdan ustlariga og‘ir yuk, qo‘llarida bel, ketmon, korxona va qadoqxonalarga hammollikka yollanib, 20 tiyindan bir so‘mgacha topmoq ilinjidagi Turkiston bolalari...”. Behbudiy Turkiston bolalari aziz umrlarini ko‘cha ishlariga sarflamay ilm o‘rganishlari kerakligini, ota-onalar bolasiga hech bo‘lmaganda to‘rt yillik ibtidoiy bilimlarni olishga ko‘maklashishi lozimligini ta’kidlagan. Behbudiy millatning taraqqiy etishi uchun ilmli yoshlar zarurligini ta’kidlab, ularning ma’rifiy, madaniy, siyosiy jihatdan yuksalishiga yo‘lboshchilik qilgan. Yangi usul maktablarini, yangicha ta’lim tizimini mutaassib ulamolardan himoya qilgan. Turkistonni zamonaviy, mukammal va komil insonlar orqali tiklash mumkinligini uqtirib, vatanparvar, millatparvar yoshlarni jipslashtirish yo‘lidan borgan va ma’lum ma’noda o‘z maqsadiga erishgan[3].

Turkiston taraqqiyparvarlarining tarixiy merosi, milliy o'zlik va taraqqiyotning uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning ilmiy, madaniy va ijtimoiy merosi, nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham Turkiston hududidagi jamiyatlar uchun qimmatli xazina sifatida xizmat qilmoqda. Milliy o'zlikni anglash, avvalambor, o'z tariximizga, madaniyatimizga va qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashni anglatadi[1]. Bu esa, kelajakda yanada mustahkam va rivojlangan jamiyat qurish yo'lidagi asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, bu islohotlarning yetakchi figurasi sifatida, ta'lim sohasida amalga oshirgan islohotlari bilan alohida ajralib turadi. Behbudiy ta'lim tizimida zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etishga, o'qituvchilarning malakasini oshirishga va ta'lim jarayonini xalqning ehtiyojlariga moslashtirishga katta e'tibor qaratdi. U maktablarning ahamiyatini oshirish, milliy til va madaniyatni o'rgatish orqali o'zbek xalqi va butun Turkiston xalqlarining milliy o'zligini mustahkamlashga intildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston taraqqiyparvarlarining merosi, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta'lim sohasidagi islohotlari, nafaqat o'z zamonasi uchun, balki bugungi kunda ham milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish yo'lida muhim o'rin tutadi. Bu merosni o'rganish va unga sodiq qolish, kelajak avlodlarga ilm-fan va ma'rifatga asoslangan, adolatli va rivojlangan jamiyat qurish uchun ilhom beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1.Abdurahmanov, R. (2011). Turkistonning ma'rifatparvarlik merosi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.

2.Behbudiy, M. (1996). Mahmudxo‘ja Behbudiy: Hayoti va ijodi. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Nashriyoti.

3.Davronov, T. (2010). Jadidchilik va uning Turkistondagi ta'siri. Toshkent: Ma'naviyat va Ma'rifat nashriyoti.

4.Islomov, A. (2005). Turkiston taraqqiyparvarlarining ilmiy va ijtimoiy islohotlari. Toshkent: Sharq.

5.Khamidov, U. (2012). Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning ta'lim tizimidagi islohotlari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

6.Sultonov, M. (2003). XIX-XX asr boshlarida Turkistonning ilmiy va ma'rifiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARINING IJTIMOIY, MADANIY VA MA’NAVIY FAOLIYATI

Fattoyev Islom Ilg‘or o‘g‘li
“Profi University” Navoiy filiali o‘qituvchisi

O‘tmishdagi har bir tarixiy davrda xalq ommasi va jamoatchilikning o‘z ma’naviy otasi-yu pirlari hamda ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy yo‘lboshchilari bo‘lgan. Bunga tarix guvoh. El, Vatan taqdiri uchun jon fido qilgan, uning istiqlol, mustaqilligini dil-dilidan orzu qilgan va bu orzuni amalga oshirish maslagidan bir qadam ham chekinmagan jadidchilik harakati namoyondalari asrimiz boshlarida mustamlaka iskanjasidan ezilgan elimiz qalbiga ma’rifat, ozodlik va erk tuyg‘usini olib kirdi. Jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma’rifiy va siyosiy islohotchilik harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan va ta’lim orqali milliy taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Bu harakat Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida shakllandi va mahalliy ziyolilar tomonidan milliy o‘zlikni saqlab qolish hamda rivojlantirish vositasi sifatida ilgari surildi.

Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy turkiy xalqlarning buyuk mutafakkiri edi. U turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi bilan yashagani va shu g‘oya yo‘lida faoliyat ko‘rsatgani uchun tirikligidayoq millat otasi degan nom oldi. U Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan maktab - maorif ishlarida chinakam inqilob yasadi, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan yangi maktab tizimini boshlab berdi. U o‘z g‘oyalarini keng xalq ommasiga tarqatish uchun matbuotga katta e’tibor berdi. 1883-yilning 10-aprel kuni u “Tarjumon” nomli gazetani chiqara boshlaydi. Bor-yo‘g‘i 326 nafar obunachi bilan ish boshlagan gazeta 1884 yilga borib Turkistonning o‘zidayoq 200 nusxada tarqatildi. Turkiston jadidlarining Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy kabi vakillari “Tarjumon”ning faol muxlislari edi.

Turkiston general-gubernatorligi ham 1870-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazeti”ni nashr etib, uning sahifalarida chor hukumati siyosatini targ‘ib qilmoqda edi. General-gubernatorlik birinchi navbatda mahalliy aholini rus-tuzum maktablariga jalb qilishni o‘ylagani uchun gazeta sahifalarida yoritilayotgan maqolalar ham asosan shu maqsadni ko‘zda tutar edi. Jadidlar ham o‘z g‘oyalarini matbuot orqali tarqatishga harakat qilishdi. 1905-yil Rossiya inqilobidan keyin Rossiya imperiyasida matbuotga nisbatan cheklovlar nisbatan yumshatilgach jadidlarning matbuotchilik faoliyati yanada kengaydi.

Jadid matbuotining ilk nashri “Taraqqiy” gazetasi bo‘lib, u 1906-yildan boshlab chop etila boshladi. Gazetaning 1-soni chiqishi bilan Turkistondagi

mustamlakachi ma’murlar, shuningdek, mahalliy hukmron doiralar jiddiy tashvishga tushib qoldilar. Hur fikrning ashaddiy dushmani bo‘lgan missioner N. P. Ostroumov tahririda nashr etilib turgan “Turkiston viloyatining gazeti” bu yangi matbuot organini o‘z yo‘liga solishga urindi. Ammo gazetaning jadidlar fikriga tayanib ish ko‘rishi uning dastlabki sonlaridanoq ma’lum bo‘ldi. Gazeta general-gubernatorlik va uning nashri bo‘lishi “Turkiston viloyatining gazeti” ta’qiblariga qaramasdan turli so‘zni aytish yo‘lidan qaytmadi. Chor hukumati “Taraqqiy” gazetasini hurfikrlik yo‘lidan qaytarishga, mehnatkashlar manfaatini himoya qilganligi uchun uni buzib tashlashga qattiq harakat qildi. Chunki gazeta sahifalarida “Dunyo yig‘uvchilar, mehnat qiluvchilar xususida”, “Duma xususida”, “Jadidlar kimlar?” “Boylar, byurokratiya va gazeta” kabi maqolalarda davrning muammolari, shu bilan bir qatorda, mahalliy aholining manfaati bilan bog‘liq masalalar ko‘tarilgan edi.

“Taraqqiy” gazetasidan tashqari, shu yillarda “Xurshid”, “Shuhrat” “Samarqand”, “Oyna” kabi nashrlarda davr manzaralarini yorqin aks ettiruvchi maqolalar e’lon qilindi. Bu gazeta va jurnallarning sahifalarida Turkiston o‘lkasining iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy hayotini yangilashga qaratilgan fikrlar ilgari surildi. Matbuotning qudratli mafkuraviy qurol ekanligini bilgan jadidlar fevral inqilobidan keyingi qulay tarixiy sharoitdan foydalanib, yangi gazeta va jurnallarini chop etishga alohida e’tibor berdilar. 1917-yil mart oyining o‘zida tub yerli xalqlar tillarida birin ketin o‘nlarcha vaqtli nashirlar paydo bo‘ldi. Masalan, Toshkentda “Kengash”, “Turon”, “Turk eli”, “Ulug” Turkuston”, “Najot”, “Xurshid”, “Sadoi Turkiston”, “Sho‘royi Islom”, Samarqandda “Oyna”, “Hurriyat”, Buxoroda “Turon”, “Buxoroi Sharif”, Qo‘qonda “Sadoi Farg’ona”, “Tirik so‘z ”, “El bayrog’i”, “Ravnaqul Islom”, Namanganda “Farg’ona sahifasi”, Farg’onada “Farg’ona Nidosi” gazetalari nashr etila boshladi. [1] Bu gazetalarga taniqli arboblardan Zaki Validiy, Munavvar Qori, Fitrat va boshqalar muharrirlik qilishdi. Ko‘pincha bu nashrlarda mazkur davr voqealari, xalqni ozodlik uchun kurashga da’vat etuvchi, millatni o‘zligini tanitishga xizmat qiluvchi maqolalar chop etilgan. O‘zbek xalqining ma’naviy hayotida ayniqsa “Sadoyi Turkiston” gazetasining faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda ma’rifatparvarlarimizning davr ijtimoiy siyosiy hayotiga oid ma’naviy qarashlari bayon etildi. Biroq 1918-1920-yillardan boshlab Sovet hokimiyati mustahkamlanishi bilan mustaqil jadid matbuoti bosqichma-bosqich yopildi yoki davlat nazoratiga o‘tdi. Abdurauf Fitratning ushbu fikri buning isbotidir ”bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o‘ldurmak tilagi bilan Ustiraumov kabi mutaassib po‘plarlarning idorasinda gazeta chiqarildi, maktab ochildi va o‘z millatimiz dunyomizni anglatmoq uchun o‘z tarafimizdan ochilg‘an maktablar va gazetlar bog‘lanadi, shar’iy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g‘asb etildi[2]. Tarixning o‘zi Fitratning so‘zlari haqiqat ekanligini tasdiqladi.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish, u orqali mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashishni bu zulmdan qutulishning asosiy yo‘llaridan biri deb bildilar. Jadid tashkilotchilarining dastlabki maqsadlari yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish, ular orqali xalqning uyg‘onishini ta’minlash deb tushundilar. Ilk usuli jadid maktabi 1884-yilda Boqchasaroyda Ismoil Gaspirali tomonidan ochildi. Ushbu

maktab tamoman begona hodisa bo‘lib qolmay, bu haqida rahbarning o‘zi shunday yozadi: “Ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir”.[3] U 1888-yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik Xojai Sibyon (“Bolalar muallimi”)ni bosmadan chiqardi. Usuli jadidga bo‘lgan ehtiyojni tushuntirdi, usuli qadimdan farqiga e’tibor qaratdi. “Xojalara ta’limot” bobida usuli jadidning osondan murakkabga borishini ta’kidlab, xos xususiyatlarini 15 bandda ko‘rsatib berdi.[4] Shu tariqa o‘qitiladigan darsning mazmunidan uni o‘qitish usuli va baholash jarayonigacha, o‘quvchining dars tinglaydigan xonasidan dars jadvali-yu, qishki va yozgi ta’tiligacha, maktabning joylashish o‘rnidan sinf xonasining jihozi-yu yorug‘lik darjasigacha zamonaviy asoslarda ko‘rib chiqilib maktab ta’limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Bu dastur ”usuli jadid” nomi bilan shuxrat topdi. Jadid atamasining ommalashuvi ham, birinchi navbatda, mana shu “usuli jadid” bilan bog‘langandir. [4]

O‘zbek jadidlarining otasi deb nom olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy bu davrning ko‘zga ko‘ringan taraqqiyparvarlaridan edi. U XX asrning boshlarida Rossiyaning yirik shaharlari va katta taraqqiy etgan musulmon mamlakatlariga borib, qo‘shni xalqlar hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bilim va intilish doirasi behad keng bo‘lgan bu buyuk jadid tufayli O‘rta Osiyoda yangi usuldagi birinchi maktab, birinchi teatr asari maydonga keldi. Uning tashabbusi bilan Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida birinchi marta ”Jamiyati xayriya”lar tashkil etilib, bu jamiyatlarga tushgan to‘yonalar tufayli kambag‘al oilalarning farzandlari ham jadid maktablarida o‘qiy boshladilar. Behbudiy Turkistonda ma’rifat tarqatishning asosiy yo‘li eski maktablarni isloh qilish orqali usuli jadid maktablarini tashkil etishdir, degan xulosaga keldi.

Inqilobgacha bo‘lgan jadid maktablarining sonini olimlar turlicha ko‘rsatadilar. 1923-yilda Shokirjon Rahimiy tomonidan to‘plab nashr qilingan “O‘zbek maorifining o‘tgandagi va hozirgi holi” nomli kitobida berilgan ma’lumotga ko‘ra ular quyidagi tartibda bo‘lgan: 1892-yilda Qrimda, 1893-yilda Samarqandda, 1898-yilda Ashpekda va Issiqko‘lda, 1901-yilda Toshkentda, 1910-1915 yillarda Turkiston o‘lkasida jami 80 ta yangi usul maktablari mavjud edi. Jumladan: Yettisuvda 7 ta. Farg‘ona 21 ta, Samarqandda 5 ta, Sirdaryoda 40 ta, Buxoroda 57 ta, K. Ye. Bendrikovning “Turkistonda xalq ta’limi tarixi ocherklari” nomli kitobida 1917-yil inqilobi arafasida (92 ta yangi usul maktablari bo‘lganligi aytilgan). Jumladan, Sirdaryoda 46 ta, Farg‘onada 30 ta, Yettisuvda 18 ta, Samarqandda 5 ta. [5]

Jadid Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida mahalliy aholi uchun universitet ochish ishi amalga oshirildi. 1918-yil 9-aprelda Munavvarqorining uyida yig‘ilgan ziyolilar faqat rus tilliklar o‘qishi mumkin bo‘lgan Turkiston Xalq dorilfinuni ochilish harakati boshlangach, Musulmon xalq dorilfunini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Shu tariqa Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining tamal toshi qo‘yiladi. [6]

Turkistonda jadid maktablarining yopilishi jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lib, u avvalo siyosiy vaziyatning o‘zgarishi bilan bog‘liq edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzlab “usul-i jadid” maktablari faoliyat

ko‘rsatgan bo‘lsa, 1917-yildan keyin hokimiyat uchun kurashlar va fuqarolar urushi sharoitida ularning taqdiri keskin o‘zgardi. Turkiston muxtoriyati tugatilgach va bolsheviklar hokimiyatni qo‘lga olgach, yangi siyosiy tuzum ta’lim tizimini markazlashtirish va ideologik nazorat ostiga olish siyosatini yurita boshladi. Dastlab ayrim jadid maktablari Sovet maktab tizimiga moslashtirildi, chunki ular zamonaviy o‘qitish metodikasiga ega edi. Biroq 1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab jadidchilik “millatchilik” va “burjua mafkurasi” sifatida tanqid qilina boshlandi. Natijada mustaqil faoliyat yuritgan jadid maktablari yopildi yoki to‘liq sovet dasturi asosida qayta tashkil etildi. 1927-1929-yillarda madrasalar bilan bir qatorda ko‘plab eski va yangi usul maktablari ham tugatildi, diniy va milliy ta’lim unsurlari cheklab qo‘yildi.

Tarixchi olim sifatida Abdurauf Fitrat rus mustamlakachiligining fojiali oqibatlarini keng qamrovli tasvirladi va rus mustamlakachiligi natijasida Turkiston xalqlarining ilg‘or va zamonaviy madaniyatdan ajralib qolganligini o‘zining bir qator asarlarida asoslab berishga harakat qiladi. U shuningdek, Turkiston fuqorolarining Yevropadagi ijtimoiy iqtisodiy hamda siyosiy fikrlardan bexabar ekanligini afsus bilan e’tirof etadi. Jumladan, uning “Turkistonda ruslar” nomli maqolasida shunday fikrlarga duch kelamiz: “Yurtimiz ellik yillik bir askariya ostida turdig‘i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko‘risholmadik, unlarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istefoda qilolmadik. Bizning ko‘zlarimizni ochdurmaslik uchun, fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi”. [7]

Jadidlar jamiyatni inqilobiy yo‘l bilan emas, islohotlar yo‘li bilan o‘zgartirishni asosiy vazifa deb bildilar. Ular maorif, matbuot, adabiyot va san’atning jamiyat va xalq hayotini yangilashdagi faol rolini oshirish uchun, bu sohalar taraqqiyotiga katta e’tibor berdilar. Jadidlar oldida turgan vazifalar xilma - xil bo‘lishiga qaramay, ular mutaassib dindorlarga qarshi kurashib, dunyoviy ilmlarni o‘qitishni tashkil etish, matbuot erkinligi, hurriyat uchun kurashga da’vat etish kabi masalalari bilan yaqindan shug‘ullandilar. Jadidlar ochgan o‘nlab maktablar xalqning savodxonligini ma’lum darajada oshirdi. Ular ijtimoiy va iqtisodiy qoloqlik, ongsizlik kabi illatlarning sababini ilmsizlik, ma’rifatsizlikda deb bildilar. Shuning uchun ham ”usuli jadid” maktabini tashkil etibgina qolmasdan, shu maktablar uchun o‘quv-qo‘llanmalarini ham yaratdilar. Behbudiyning ”Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish”, ”Bolalar uchun yozuv kitobi”, Niyoziyning ”Yengil adabiyot”, ”O‘qish kitobi”, ”Qiroat kitobi” singari o‘quv qo‘llanmalari bu maktablarda asosiy darslik sifatida o‘qitildi. Jadidlar ilm va ma’rifatning tom ma’nodagi jonkuyarlari edi. Ular mana shu maqsad yo‘lida o‘z jonlarini ham ayamaganlar. Ikki oy davomida Buxoro shahrida, so‘nggi o‘n kun davomida Qarshi shahri hududida zolimlar qo‘lida bandi bo‘lgan, Buxoro amiri Olimxon kofir beklari tomonidan sipohlar ichida tilchilik aybi qo‘yiladi, kofir jadid deya kamsitilgan, vaholanki, umrining so‘nggi soniyalarida o‘limidan oldin namoz o‘qish niyatida tahorat olib joynamozga o‘tirgan O‘rta Osiyo jadidlari peshvosini jallodlar qatl qilishadi. U qatl qilinishidan oldin, o‘limini bilgan holda o‘z maslakdoshlariga, jadid birodarlari Siddiqiy, S. Ayniy, Fitrat Qori va Akobir Mahdum, shogird-o‘g‘lonlari Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriylarga shunday vasiyat qiladi: ”Maorif yo‘lida ishlaydurgon muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingizlar.

O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar. Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo‘qlangizlar! Buxoro tuprog‘iga tezlik ila yo‘l boshlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifni Buxoro tuprog‘ida joriy qilingizlar! Bizning otimizga maktablar ochingizlar! Bizlar ul chog‘da tinch yeturmiz! Manim o‘g‘lonlarimga salom yetkazinglar! Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo‘ling!”. [8]

Jadidlarning aksariyati Behbudiy kabi izchil ish olib bordilar. Ular yozgan har bir asarda bu narsa yaqqol sezilib turadi. Jumladan, Abdurauf Fitratning ”Sayyohi hindi” asarida asar qahramoni oddiy xalq ko‘ziga ko‘zgu tutgandek bo‘ladi, go‘yo. Asardagi sayyoh ”Buxoro xalqini qo‘yga o‘xshatib, butun gunohni hokimlarga ag‘dardingiz... Biroq qo‘yga o‘xshashlik inson uchun husn emas, balki nuqsondir.” [9] deya xalqni ham bir qadar tanqid qilib, jaholat, ilmsizlikdan uyg`onishga, irodali bo‘lishga, amaldorlarga mute bo‘lmaslikka chaqiradi.

Asar qahramoni eskicha yashab bo‘lmasligini, ilm - ma’rifatni keng yoyish, sanoat, qishloq xo‘jaligini Ovrupacha andoza asosida rivojlantirish kerakligini uqtiradi.

Jadidchilik harakati tufayli bu davrda maktab va maorif ishlari ayniqsa kamol topdi. Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy singari jadidlarning maorif sohasidagi g‘oyalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Turkiston xalq farzandlari uchun dunyoviy bilim berish va ularni ma’rifiy - ma’naviy qashshoqlikdan qutqarish.

Maktabni isloh qilish bilan birga talabalarni islom madaniyati qonun - qoidalari asosida tarbiyalash.

Yoshlar ongini o‘stirish va ma’rifatli avlodlarni tarbiyalash orqali kelajakda mustamlakachilikka barham berish va Turkistonning mustaqilligiga erishish.

Aytish mumkinki, jadidlar tarix maydoniga, avvalo, milliy mustaqillik uchun mustamlakachilikka qarshi kurash maqsadi bilan chiqdilar. Shu bois bu harakat aholining ziyoli qismi e’tiborini tezda o‘ziga jalb qildi. Ilg‘or fikrli olimlar, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, huquqshunoslar matbaachilar, jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo‘ldilar. Ular hayot hodisalarini, milliy mustaqillik va qaramlikni teran idrok etib, xalqning, millatning istiqbolini to‘g‘ri tasavvur etdilar. Ular xalqning milliy qadriyatlarini, ilg‘or urf - odatlarini, tarixi, madaniyati, inson huquqlarini tiklash uchun kurashib, katta obro‘ - e’tiborga sazovor bo‘ldilar.

Jadidlar o‘z ezgu orzularini, faqat maktab, maorif va ta’lim - tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uni rivojlantirish bilangina amalga oshirish mumkin deb bildilar. Ular targ‘ib etgan g‘oyalar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadidlar harakatining ma’naviy taraqqiyotimiz tarixidagi o‘rni beqiyosdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi va madaniyati maruzalar to‘plami – T. 1992

2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. III-jild. “Turkistonda ruslar” maqolasi T. “Ma’naviyat”, 2003

3. Gaspirinskiy Ismoilbek. Rahbari muallimin yoxud muallimlarga yo‘ldosh. Simperepol. 1898.

4. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T. 2008.

5. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi. www.genderi.org. (ko‘rildi 19.02.2026.)
6. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). T.: “Sharq”, 2001.
7. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Тошкент “Маънавият”, 2000.
8. М.Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент “Маънавият”, 1999. 251-бет.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Тошкент “Маънавият”, 2000.

TURKISTONDA “O‘LKA ISHLARI BO‘YICHA KENGASH” FAOLIYATI

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna
NDPI, Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi dotsenti

Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi o‘z faoliyatida, 1917-yil 29-apreldagi majlis qaroriga binoan “O‘lka ishlari bo‘yicha kengash” (Kengash) tuzdi. Ushbu kengash o‘z faoliyatini Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi huzurida olib borishi belgilandi. Kengash tuzishga oid majlisida: Dinin, Norbo‘tabekov, Zimin, Shagiahmedov, Lapin, Dobkevich, Broydo, Ivanov, Karpuxinlar ishtirok etgan. Maslahat ovozi bilan viloyat komissarlari Trizna va Dorrerlar qatnashgan[1].

Ayni paytda ushbu majlisda Turkiston boshqaruv qo‘mitasi a’zolari: N.N. Shepkin (rais), Yelpatevskiy, Davletshin, Lipovskiy, Shkapskiy, Maqsudovlar ham ishtirok etgan va uning tarkibi 23 nafarni tashkil qildi[2]. Mazkur kengash o'lka boshqaruv tizimida muhim rol o'ynashi, xususan, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi ko‘rsatmasi asosida o‘lka boshqaruvi tizimi bilan bog‘liq: ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, harbiy-siyosiy hayoti bilan bog‘liq huquqiy-normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqib, ularni markaziy Muvaqqat hukumat ixtiyoriga taqdim etishi qayd etilgan[3].

Kengashning tarkibiga o‘lkadagi ijroiya qo‘mitasi syezdi tomonidan saylangan 3 nafar, o‘lka ishchi, soldat deputatlari syezdida saylangan 3 nafar, o‘lka musulmonlari syezdida saylangan 3 nafar, Toshkent shahar dumasidan 2 nafar, o‘lkaning barcha-5 viloyatidan 2 nafardan, ya’ni umumiy hisobda 10 nafar, Buxorodagi rus posyolkalaridan 2 nafar vakillar kirishi belgilandi.

Ayni paytda, Kengash tomonidan o‘lka, uyezd-shahar, volost boshqaruv tizimiga oid taklif va mulohazalarini ham Turkiston boshqaruv muvaqqat qo‘mitasiga bildirib boradi. Kengash o‘z faoliyatida turli masalalar bilan shug‘ullangan. Masalan, 1917 yil 2 maydagi yig‘ilishida o‘lka boshqaruv tizimida aholiga qurol-yarog‘ berish masalasi ko‘rib chiqildi. Xususan, Andijon uyezd Mixaylov qishlog‘i dehqonlariga uchastka, uyezd va viloyat komissarlari xulosasi asosida, uchastka komissari ixtiyoriga qurol va o‘qlarni berish masalasini ko‘rib chiqib quyidagi mazmunda qaror qabul qilindi. Unga ko‘ra, turli millatlardan iborat aholiga qurol-yarog‘ berish maqsadga muvofiq emasligi hamda maxsus shart-sharoit tufayli qurolli himoya zarurati bo‘lgan taqdirda, bu militsiya organlari orqali amalga oshirilishi, favqulodda holatlarda harbiy qo‘shinlarni jalb etishi bilan amalga oshirilishi belgilandi[4].

Shuningdek, Kengash o‘z faoliyatida joylarda mas’ul lavozimga nomzodlarni tasdiqlash va o‘lkada ayg‘oqchilik bilan shug‘ullanayotganlarni chiqarib yuborish masalasi bilan ham shug‘ullangan. Kengashning 1917-yil 6-maydagi majlisida Farg‘ona viloyat komissari tomonidan Namangan uyezdi komissari lavozimiga tayinlangunga qadar notarius lavozimida faoliyat olib borgan M. V. Pokrovskiyni nomzodini faoliyat yuritishiga rozilik bildirilgan[5]. Shuningdek, ushbu yig‘ilishda yana Turkiston hududida harbiy ayg‘oqchilik bilan shug‘ullanganlikda gumon qilinganlarni ma’muriy jazo sifatida chiqarib yuborish masalasi muhokama qilinib, quyidagi mazmunda qaror qabul qilingan:

-harbiy ayg‘oqchilikda gumon qilinayotganlarni ma’muriy jazo tariqasida chiqarib yuborish mumkin deb hisoblansin;

-qochoqlarni Xitoydan qaytayotgani sabab, ma’muriy chiqarib yuborish kerak bo‘lgan harbiy ayg‘oqchilarni Yettisuv va Kopaldan boshqa hududlarga amalga oshirilsin[6].

Mavjud arxiv manbalariga ko‘ra, Kegash majlislarida raislikni N. N. Shepkin olib borib, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi a’zolaridan tashqari Norbo‘tabekov, Shagiahmedov, Dinin, Zimin, Ivanov, Dobkevich, Fiterman, Grossman, Broydo hamda polkovnik Cherkeslar ishtirok etgan. Mazkur Kengash a’zolari o‘lka boshqaruv tizimida, xususan Turkiston va uyezd-shahar, viloyat aholisi hayoti bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy-ma’rifiy yo‘nalishlarida, u yoki lavozimlarga tayinlashlarda, joylardagi duma saylovlarida, oziq-ovqat bilan ta’minlash, manufakturani chetga chiqarish, rekvizitsiya, harbiy ayg‘oqchilikda gumon qilinganlarni chiqarib yuborish va boshqa masalalarda qarorlar qabul qilish ishlari bilan shug‘ullanganlar. Ayrim hollarda, o‘z vakolat doiralarida yechim imkoniyati bo‘lmagan masalalarda o‘z taklif-mulohazalarini Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasiga yuborgan. Masalan, Kengash o‘zining 6 maydagi majlisida Jarkent uyezd ijroiya qo‘mitasining manufakturani rekvizitsiya qilish bo‘yicha yuborgan telegrammani ko‘rib chiqib, uni G‘uljaga olib chiqib ketilishiga norozilik bildirganini muhokama qilingan. Kengash Muvaqqat qo‘mitaga murojaat qilib, o‘lkadagi manufaktura bilan bog‘liq holatlarni o‘rganib chiqishni tavsiya qilgan va “rekvizitsiya qilish mumkin” deb qayd etgan.

Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi o‘z faoliyati doirasida har doim ham joylardagi jamoat tashkilotlari, Toshkent ishchi, askar deputatlari kengashi bilan muvofiqlashgan tarzda faoliyat yurita olmagan. Boshqaruv tizimidagilarni o‘zaro kelishgan holda faoliyat olib bora olmaganligi, xususan, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasining mahalliy shart-sharoitni yaxshi bilmasligi, milliy ziyolilar va jamoat tashkilotlari tomonidan kutilayotgan masalalar va talablarga javob bera olmasligi o‘lka boshqaruvida tizimli faoliyat olib borishga imkon bermadi. Masalan, 1917-yil 7-may kuni Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi va Sirdaryo viloyat deputatlar kengashi o‘lka miqyosida tizimli ish yuritishiga qarata quyidagi mazmunda qaror qabul qilgan.

Hususan, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi tomonidangina u yoki bu shaxslarni lavozimlarga tayinlash Muvaqqat hukumat qo‘ygan talablarga javob bermaydi, boshqaruv tizimiga tayinlash va bo‘shatish bo‘yicha muhokamalar, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasining belgilagan ko‘rsatmasiga binoan,

Kengash vakolatida ekanligidan kelib chiqib yuritilishi, Kengash tuzilgunga qadar u yoki bu lavozimlarga tayilash va bo‘shatish bo‘yicha muhokamalar jamoat tashkilotlarida bo‘lib bunday holat, jamoat tashkilotlarining rolini, siyosiy holatni, hokimiyatga nisbatan jamoat tashkilotlari ishonchini bildirardi.

Bundan tashqari, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi jamoat tashkilotlari so‘rovi va tanqidiy munosabatini inkor etmasligi, Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi va Sirdaryo viloyat deputatlar kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarni Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasiga ishonchsizlik deb qabul qilinmasligi va Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi tomonidan o‘lkadagi boshqaruvni markazlashgan tizimidan qolmasligi kerak degan fikrga qo‘shilmasligi belgilangan[7]. Ammo, shunga qaramasdan, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi a’zolarining o‘lkadagi boshqaruv tizimiga oid viloyat komissarlari, Muvaqqat qo‘mitaga yuborilgan telegrammasi ma’lum bir muhokamaga sabab bo‘ldi. Xususan, Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi tomonidan 1917-yil 7-mayida qaror qabul qilib, unda Muvaqqat hukumat nomiga quyidagi mazmunda “tushuntirish” berilgan.

Unga ko‘ra, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi faoliyati doirasida u yoki bu lavozimga tayinlash yoki bo‘shatish Rossiya Muvaqqat hukumat belgilagan talablarga javob bermaydi.

Xususan, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasining o‘zi belgilagandek, u yoki bu shaxsni lavozimga tayinlash yoki ozod etish masalasi dastlab Kengash majlisida ko‘rib chiqilishi kerakligi, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi qoshida Kengash tuzilgunga qadar, u yoki bu lavozimga tayinlash va ozod etish ishlarini jamoat tashkilotlari tomonidan muhokama qilingan.

Bu o‘lka miqyosida norasmiy, ammo jamoatchilikni mavjud hokimiyatga aniq bir ishonchidan dalolat bergan. Bundan tashqari, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasini o‘lkadagi jamoat tashkilotlari tomonidan bemalol tanqid qilingan va Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi, o‘lka miqyosida boshqaruvni markazlashgan holda olib borishda davom etishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Shuningdek, Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi hamda Toshkent ishchi, soldat deputatlari o‘rtasidagi boshqaruv tizimiga kadrlarni tayinlash va mansabdan ozod qilish o‘lkadagi demokratik tartib va jamoat tashkilotlariga bog‘liqligi va Muvaqqat hukumatning, boshqaruv bilan bog‘liq har qanday qarori, jamoat tashkilotlari tomonidan inkor etilishi mumkin emasligi ta’kidlangan[8].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 121-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 132-varaq.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. -Б.26.
3. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 1-varaq.
4. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 6-varaq.
5. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 11-varaq.
6. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 12-varaq.
7. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 18-varaq.
8. O‘z MA, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 19-varaq va orqasi.

YOSH BUXOROLIKLARNING “BUXORODA ISLOHOT LOYIHASI”

Qilichev Rajab Ergashovich,
BDPI dotsenti, tarix fanlari nomzodi

“Yosh buxoroliklar” furqasi Buxoro amirligida jadidlarning “Tarbiyai atfol“ (“Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. 1910-1920-yillarda “Yosh buxoroliklar“ partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag‘allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo‘yish tarafdori bo‘lgan. XX asrning boshlarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotida islohotlar qilinishi kerak degan g‘oya shakllana boshladi. Xullas, “Yosh buxoroliklar” harakatining maqsad va vazifalari, dunyodagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklar, davlat tizimi haqidagi qarashlarni o‘zida aks ettirgan rasmiy hujjat-dasturga ehtiyoj tug‘iladi.

“Yosh buxoroliklar” qo‘mitasi “Buxoroda islohot loyihasi”ni yozishni harakatning hamoyondalaridan biri Abdurauf Fitratga topshiradi. 1918-yil yanvarida Fitrat “Loyiha”ni tayyorlab, uni harakat qo‘mitasiga taqdim etadi[1.]. Biz e’tiboringizga “loyiha”ning to‘liq matnini havola etishni lozim topdik [2.]:

“Buxoroda islohot loyihasi

Buxorodagi butun ekin yerlar uch turli bo‘lsin:1.Vaqf yerlari. 2.Mulki hurr yerlari. 3.Mulki xiroj yerlari.

Amlok mulki xiroj yerlarining barchasi “Xiroj yerlari” bo‘lsin. Buxoroda mulki hurr yerlar qoncha bo‘lsa o‘z holida qolsun.Vaqf yerlari uchun oyri bir idora ochilsun. Mulki xiroj bo‘lg‘on yerlarning soni daftarg‘a o‘tkorilsun. Har tanobi uchun ikki y ouch so‘m solig‘ solinsun. Har viloyat besh-o‘n oqsoqollkg‘a oyrilib, har oqsoqollikg‘a insofli, ongli bir oqsoqol sochilsin (ta’minlansin). Har bir oqsoqol o‘z qo‘l ostindagi yerlarning sonini soqlog‘uchi daftar soqlosun. Yil boshinda solug‘larni shu daftar yuzindan bekliqg‘a yana daftar yuzinin tobshursun.Beklar yana daftar yuzinini o‘z hisoblarini hukumat xazinasig‘a o‘tkorsunlar. Solu’ bermak uchun ekingon va ekinmog‘on yerlarning farqi qolmasun. Masalan, bir kishining to‘rt tanob yeri bor. Shu kishi to‘rt yeri uchun yilda ikki so‘mdan sakkiz, y ouch so‘mdan o‘n ikki so‘m bersun. Yerni eksa ham bersun, ekmasa ham bersun. Hozirda ekinmagon yerdan hech narsa olinmoydur. Lekin bu ish zararlidir. Ko‘p kishilar solug‘dan qutulmoq uchun yerlarni ekmaylar, ko‘p yerlar mayyita (o‘lik yerlar, ya’ni dehqonchilikka yaroqsiz) bo‘lib qoladur, lekin ish biz oytgondek bo‘lsa, solug‘ bergon kishilar solug‘ bergandan keyin yerlarimizni nechun ekmoy qo‘yoluk, deb butun yerlarini ekorlar.

Ammo “lalmi” yerlar bu qonundan tashqarisidur. Lalmi yerlarida ekilgan chohda (paytda) solug‘olinib, ekilmogonda olinmas, va ham unlarning solug‘lari tanobdan o‘lmoyub, masalan, bir botmon tuxum (urug‘) ekilaturg‘on yerdan belguluk biro z oqcha olinur va ham unlarning solug‘lari mulki xiroj solug‘larindan oz va yengilroq bo‘lur.

Cho‘p-moli uskuna puli denilg‘on (deyilgan) solug‘lar butun qo‘torulsun (yo‘qotilsin). Ekinlarimiz kifson, ot yemi va bungo o‘xshahs turli-turli tolonlardan qutulsunlar.

“Suv” ishlari ham yaxshi va to‘g‘ri bir yo‘lga kirsun. Miroblar suvni har kimga sota olmasunlar. Har kimning suv haqi belguluk bo‘lsun. Har kim o‘z ulushini olsun.

Hashar to‘g‘risida “ko‘tara boqiy” taomili bitirilsin. Podshohlik yerlari, bog‘lar, imoratlar xizmati uchun hasharchi chaqirolmosun, balki yolg‘uz suv ishlari uchun chaqirilsun. Hashar ustindagi ma’murlarning xarji hukumatdan bo‘lsun. Hasharchilardan “xirojot puli” deb oqcha olinmasun va “ko‘tara boqiy” man’ qilinsun. Hasharda kelmogon kishilardan, kelmogoni uchun jazoyi naqdi (jarima puli) olinsun.

So‘ngra Buxoroda suv ozlig‘I mas’alasi bordur. Mungo bir chora oramoq (ko‘rmoq) kerak. Bilgulukdirki, Buxoro xonlig‘ining suvi Samarqandan keladur. Ilgari zamonlarda Samarqand suvining uchdan ikki ulushi Buxorog‘a kelar edi. Samarqand viloyati Rusiya hukumatiga kirgoch, mamlakat taraqqiy qildi, obod bo‘ldi ekin yerlari ko‘paydi. So‘ng uchdan biri Samarqandg‘a ozlik qildi. Yormi (yarmi)ni soqlodilar. Yormini ha kuch bilon bizga berdilar. Bu kunlarda yormisi ham ozliq qildi. Uni ham bermadilar. Buxoro hukumati ko‘p oqchalar sarf qilib, kuch bilon Samarqand suvining yuzdin yigirmasini ola bildi. Buxoro suvining ozliqig‘a birinchi sabab shudir. Lekin bu ham mundoy qolmas. Samarqand viloyati kundan kunga obod bo‘lur, ekin yerlari ko‘payur, ehtimolki, yana suvlari ozliq qilur. Ul vaqt yuzdan yigirmasini ham bizga bermoslar. Ulchog‘da ishimiz kuchloshir. Ekin yerlarimiz suvsiz qolir. Buning yo‘llarini oxtormak hukumatg‘a farzdir. Buning chorasi Zarafshondan boshqa biron daryodan suv keltirmakdir. Xazinadan oqcha berilsun. Omu daryodan Buxorog‘a suv yo‘li ochilsun. Buxoro suvsizlik balosidan qutqarulsun. Ekin ishlari uchun kerak bo‘lg‘on xidmatlar mundane boshqa ham ko‘pdir. Mamlakatimizdagi foydaxo‘rlik odati manhusasi dehqonlarimizning xarob qildig‘i barchasig‘a bilg‘ulukdir. Ekinchilarimizni shu balodan ham qutqarmoq kerakdir. Ekinchilarimizni sudxo‘rlar balosidan qutqarmoq sudxo‘rlarni yolg‘uzgina man’ etmoq bilon bo ‘lmas. Ekinchilarimizg‘a kerak bo‘laturg‘on oqchani topib bermoq kerakdir. Andin so‘ng sudxo‘rlikni man’ etmakb mumkindir. Buning uchun Buxoroda bir ziroat bonki (bank) ochilsun. Viloyatlarning har birinda shul ziroat bonkining bir sho‘’basi bir qo‘li bo‘lsun. Yilda ikki-uch so‘m ijara bilon har dehqong‘a ekin ishlari uchun kerak bo‘laturg‘on aqchani bera boshlasun. Dehqonlarimiz kerak bo‘lg‘on aqchani shundan ola bersun. Mana andin so‘ng hindular va sudxo‘rlar musulmonlarning foydaxo‘rliklari man’ qilinsun. Bunlardan boshqa yana ish ko‘pdir.

Bilamizki, osh pishurmak, yuk tortmoq, yo‘l yurmak, kiyim tikmak uchun moshinalar chiqdi. Shul moshinalar bilon ul ishlar ko‘p quloy va yengil bo‘lib qoldi. Shuning kabi yerlar hoydamak, urug‘ sepmak, xirman yonchmak kabi ekin ishlari uchun ham moshinalar chiqg‘on, shul ishlarini quloyloshdirg‘ondir. Shul moshinalardan Buxoroga kelturulsin, dehqonlarimizga poylob (boylab) berulsun. Va bu moshinalarni ishlotolmag‘on ekinchilarimizg‘a ishlat‘u yo‘llarin o‘rgatilsun. Hokimlar, amlakdorlar, foydaxo‘rlar jafosindan yerindan, uyindan oyrilib

o‘romlarda, ko‘chalarda tushub qolg‘on yersiz, uysiz dehqonlarimiz ko‘pdir. Zulm shumlig‘i bilon, mayyita bo‘lib, egosiz qolg‘on yerlarimiz ham ko‘pdir.

Yana Omu daryodan Buxoroga suv kelturg‘nda, suv yo‘lining ikki yonidan ko‘p yerlar qobili ziroat bo‘lur. Mana shul yerlarni hukumatimiz yersiz fuqarosiga bersun, ekni ishlarini ko‘taruvg‘a keraak bo‘lg‘on oqchani foydasiz bersun. Bunlar yu yerlarni eksunlar, qoldiqlari hosildan bir bo‘lagini hukumatdan oldiqlari burjga bersunlar, boshqasini o‘zlari uchun soqlosunlar. Burj bitkondan keyin, yer o‘zlariniki bo‘lsun, hukumatga ko‘p qatori solug‘ bersunlar.

Mamlakatimizning har yoqinda ekinchilik maktablari ochilsun. Xalqg‘a ekinchiliq ilmlari o‘rgotilsun. Mamlakatimizni bu xarobaliqlardan qutqrmoq yo‘li shuqir. Muncha ishni yolg‘zgina bir qushbegi bajarolmaydur.

Buxooro hukumati shu ishlar ichun (uchun) bir ekinchiliq vazirlig‘I ochilsun. Ongli, bilimli bir kishi ekinchiliq vaziri bo‘lsun. Mana shul ishlarni shu ekinchiliq vaziri ko‘rsun.

Yaqf yerlari

Yuqorida vaqf yerlari ichun oyri bir idora ochilsun degon eduk. Ilm yo‘linda ta’in qiling‘on vaqf yerlari bilan Buxoro o‘lkasi butun o‘lkolardan ustundir. Vaqflarimiz yo‘lida qo‘yulib, yerinda sarf qiling‘onda Buxoro o‘lkasi ilm va maorif yuzindan Ovro‘paning buyuk shaharlarindan ortuqroq taraqqiy qilur. Lekin essizki, hozirda buzg‘un, tuzuksiz, isrofli ishlarimizning kottasi vaqflar ishlaridir. Vaqflarimiz mutavallilar, ijoradorlar qo‘linda turadir. Oramizda bilmagon yo‘qddirki, hozir Buxoroda ijoradorlikdan buyukroq va o‘sirg‘liroq bir kasb yo‘qdir. Ochiq va qisqa qilib degonda vaqflarimizdan yilida yormisi shul ijorador va mutavallilarining qobchiqlarig‘a kirib ketadur, muning islohini o‘ylomak har bir haymiyatli musulmon uchun farzdir.

Buxoroda vaqflar vazirligi ochilsun. Ongli, bilimli bir kishi vaqflar vaziri bo‘lsun, butun vaqf ishlari shungo tobshirulsun. Bu kungo hukumat xazinasiga kirgon mo’zoda (daromad)lar, botil bo‘lg‘on kutubxonalar, tahoratxonalar, oshxonalarning vaqflari qoytarilsun. Vaqflar vaziri shul vaqflarni shariat yuzindin tartibg‘a solib sha’riy yerlarinda sarf qilsun. Vaqflar xazinasi ochilsun. Butun vaqf oqchalarini o‘zi terib olib xazinasig‘a to‘plosun. Shul oqchalar bilon tijorat qilsun,buyuk ishlar ochsun. Qilg‘on paydosin (foyda)dan maktab, madrasa, masjidlarni ta’mir etsun, yang‘idan maktab, madrasa solsun, kutubxona, yetimxona, faqirlar uchun kasalxona, oshxona ochsun. Yilida bir yo‘la hisoblarini qo‘lindagi daftar yuzasidan ochiq qilib xalqg‘a ko‘rsotsun. Joriy vaqflar ham shul vazirning nazoratinda bo‘lsun. Vaqflar vaziri bu vaqflarni mutavaalli va ijoradorlar yag‘mosidan muhofaza etsun, odilona bir suratda dehqonlarning o‘zlariga ijora bilon tobshursun. Joriy vaqflar kelirini sharti vaqf bo‘yincha masrifig‘a sarf qilsun. Vaqf yerlaridan ham boshqa, vaqf do‘konlar, vaqf uylar shunga tobshurulsun.

Askarlik

Eski Rusiya hukumati bilon aromizdagi mushohadag‘a ko‘ra, Buxoro hukumati o‘n okki ming askar tutorg‘a erkli edi. Ammo hozirda Buxoro askari to‘rt-besh mingdan ortiq emasdir. Buxoro hukumati shul mushohadadan foydalanib bu kungocha askarini orttura bila edi. Lekin ish boshida turg‘uchilarimiz muni tushunmaydilar. Endi esa shul mushohadadan foydalanib Buxoro hukumati o‘z

qo‘shinini o‘n ikki mingga chiqorsun. Lekin odamlarni tuhmat bilon, bo‘hton bilon askarliqga olmosun, balki askarlik xizmatini umumiy qilsun. Shahzoda va tahsili ilm qilaturg‘onlardan boshqa butun Buxoro xonlig‘idagi kishilardan yigirma ikki yoshidagilarni askarlikg‘a choqursun. Shunday qilg‘onda ko‘p kishi yig‘iladur. Do‘xtirlar tayin qilib bunlarni ko‘rsatsun. Kasal va ma’yublarini qo‘yib arolarindan terib olsun. Askarlik muddatini ikki yil qilsun. Olg‘on askarini shul ikki yilda mashq qildursun, ilg‘orga yiborsun, qarovul qo‘ysun. Ikki yildan keyin eski xizmat qilg‘onlarni qo‘ya bersun, o‘z ishlarig‘a qoytorsun, yerlarinda yuqorida yozdig‘imiz yo‘l bilon har yil yana kerakli bo‘lg‘on askarini choqirib olsun. Buxoroda va boshqa shaharlarda askar ichun biyuk boshli yaxshi g‘ozorma(kazarma)lar solsun, g‘ozorma yonida bir masjid, bir maktab solsun. Masjid va maktablarda imomlar, sufilar, muallimlar ta’in etsun. Ikki yil askarlik muddatinda savodsiz askarlar o‘qub xat va savod chiqorsunlar, din buyrug‘larini, ibodat yo‘llarini o‘rganib qolsunlqar.

Askarlarga yilida ikki yo‘la yaxshi kiyimlar berulsun. Askar ustunda o‘qug‘on, askarlik ilmlarini bilg‘on yuzboshilar qo‘yilsun. Munday yuzboshilar bizda albatta yo‘qdir. Munday yuzboshilarni rusiyali musulmon afitserlarindan kelturmak kerakdir. Andin keyin Buxoroda bir askariy maktab ochilsun. Muallimligini musulmon afitserlarg‘a berilsun. Bu maktabda buxorolilar bolalarini kirguzub o‘qita bersak oz vaqtda o‘qug‘on yuzboshilar o‘zimizda yetishib qolur. Askar ichun do‘xturlar, kasalxonalar, dorixonalar, qorovulliq yerlar, qarovulxonalar kerakdir.

Suvoriy askar ichun ot yemishlari daxi hukumat tarafindan berilsun. Askarning erta, kunduz, oqshom yemaklarini hukumat bersun. Mundan boshqa “choy puli” debon oyda biroz oqcha daxi berilsun. Shunlar va shunlar kabi butun qo‘shin ishlarini ko‘rib turmak ichun bir qo‘shun vazirlig‘i ochilsun. Ongli, bilimli bir kishi qo‘shun vaziri bo‘lsun.

Moliya ishlari

Dunyoda Buxoro xazinasidan buzzuq, tartibsiz narsa yo‘qdir. Xazina qoysi yerdan, qoysi yo‘llor bilon oqcha keladur? Qoysi yo‘llor bilon chiqadur, kimlar ola? Nechun olalar? – Hech kim bilmoydir.

Xususan so‘ng zamonlari xazina ishlari ko‘p rasvo bo‘lib qoldi. Xazina ishlarini bir nizomg‘a solmoq kerakdir. Buxoroda bir “moliya vazirlig‘i” ochilsun, bir moliya vaziri ta’in bo‘lsun. Yuqorida ekin yerlaridan olinaturg‘on solug‘larni yozg‘on eduk. Mana shunlar moliya vazirining qo‘lig‘a kirsun. Zakot ishlari daxi moliya vazirig‘a tobshurulsun. Har shahardagi zakotchilar ko‘torulsun. Yolg‘iz mamlakatning hududinda zakotchi qo‘yilsun. Savoyim zakoti daxi isloh etilsun. Aminona, doxilda tijorat qilg‘uchi boylarimizdan har kelturg‘on mollarindan zakot olinmasun, balki mamlakat ichinda tijorat qiladurg‘on tojirlardan bir yilda qancha tijorat qilmoqlarini taxmin qilib, bir narsa zakot olinsun, qo‘llarinda “zakot xati” berilsun. Mundan boshqa bir “xazinayi xossa” mudiri ta’in bo‘lsun. Xazinayi xossa mudiri amirg‘a bo‘laturgon xarojotlarni ko‘rsatsun, hisobini ko‘rsatib moliya vaziridan olabersun. Moliya vaziri mamlakatdan kelaturg‘on oqchalarni hisoblari bilon soqlosun. Mamlakat xarojotini tubonroqda yozilaturg‘on yo‘llar bilon qilib, hisobini xalqg‘a bildirsun.

Doxiliy ishlar

Mamlakatning doxiliy ishlarini idora etmak ichun bir “doxiliya vaziri” ta’in bo‘lsun. Mamlakatni tartibki bir suratda taqsim etsun. Masaalan: Buxoro xonlig‘i o‘n qo‘rg‘onga bo‘lunsun. Har qo‘rg‘onga bir qo‘rg‘onbegi qo‘yulsun. Har qo‘rg‘onbegilik o‘n elbegilikga taqsim qilinib, har birinda bir elbegi qo‘yulsun. Har elbegilik uch tumong‘a taqsim etilib, har birinda bir tumonbegi qo‘yulsun. Har tumonbegining qo‘l ostindagi xalqning ishini oqsoqollar va imomlar ko‘rsunlar. Qo‘rg‘onbegilar, elbegilar, tomonbegilarni doxiliya vaziri amirga arz aytib, qo‘ydursun. Qo‘rg‘on va tumonlarda pulis (politsiya) mudirlarini, mirshablarni ham doxiliya vaziri ta’in etsun. Oqsoqollarni tumonbegi xalqining saylovi bilan qo‘ysunlar. Doxiliya vaziri qo‘rg‘onbegi, elbegi, tumonbegilardan birontasi shar’iy murofalarga qotnoshmosunlar. Yolg‘uz shar’iy mahkamalardan chiqg‘on hukmlarni yurutmoq bunlarni ishi bo‘lsun, hukumat bo‘yrug‘larini doxiliya noziri qo‘rg‘onbegilarg‘a, unlar elbegilarg‘a, unlar tumonbegilarg‘a, unlar oqsoqollarg‘a oytib, xalqg‘a bildursunlar.

Sha’riy ishlar

Buxoroda faqiya-shar’iy qonunlarni bilaturg‘on bir kimsa v azir maqomi ,ilan qozi kalon bo‘lsun.Qozi kalonning rasmiy oti “adliya vaziri” bo‘lsun. Adliya vaziri murofaa so‘ramasun. Buxoro shahrig‘a ikki yo uch qozi bo‘lsun, murofaa so‘rmak shunlarning ishi bo‘lsun. Qo‘rg‘onlar, elbegilar, tomonlarga qozi ta’in qilmoq shul adliya vazirning ishi bo‘lsun. Har qozinning yonida ikki muftidan iborat bir mahkamayi shar’iyya bo‘lsun. Xalqning butun da’vo janjallari shul mahkamada so‘ralsun. Shar’iy mahkamaning ustinda bir “istinof mahkamasi” ochilsun. Muning a’zosi bir a’lam va bir muftiy bo‘lsun. Mudda’iy va mudda’iy alayxidan birontasi shar’iy mahkamaning hukmindan rozi bo‘lmog‘onda shul istinof mahkamasiga arza bersunlar. Istinof mahkamasi uning da’vosini qayta boshdan so‘rasun.

Qozilar, adliya vaziri xazinadan oyluq olsunlar. Xizmatchilarga oyliqbersunlar. Qozilar yigirma-o‘ttuz mulozim saqlamasunlar. Kishini mahkamaga chaqirg‘onda maktub bilan, ya’ni “izhor xati” bilan chaqirsunlar. Vasiqalardan, pushti mazhardan va boshqa qozixona xatlarining har biri uchun belgulik biro z oqcha olsunlar. Lekin bu oqchadan bir pul olmay, xiyonat qilmay hisoblari bilan hukumat xazinasiga topshursunlar.

Zabtiya ishlari

Buxoroning mirshabi daxi vazirliq martabasini olsun.Unvoni “zabtiya” vaziri bo‘lsun. Shaharga polislar chiqormoq, tinchlikni soqlomoq buning ishi bo‘lsun.

Yo‘llar va ma’danlar

Yo‘llarni tuzatmoq mamlakatning har yoniga oftomubil (aftomobil) va temur yo‘llarni ochdirmoq, mamlakatdagi temur, oltun, yer yog‘i, toshko‘mir va boshqa ma’danlarni ochdurub, ishlatmoq uchun bir yo‘llar va ma’danlar vaziri bo‘lsun.

Xorijiy ishlar

Rusiya davlati va boshqa davlatlar bilon bo‘laturg‘on munosabot va ishlarimizni ko‘rmak uchun “xorijiya” vaziri bo‘lsun. Shul xorijiya vaziri butun vazirlarning biyuki, raisi bo‘lsun.

Maorif ishlari

Xalqni o‘qitmak ichun mamlakatning har yerinda xazina oqchasidan ibtidoiy, oliy maktablar ochmaq, maktablarg‘a muallimlar qo‘ymaq, maktablarning

prog‘romlarini taftish etmak, xulosa, butun xazina tarafindan ochilaturg‘on maktablar ishlarini ko‘rmak ichun bir “maorif vaziri” bo‘lsun. Maorif, vaqf vazirlarini qo‘l ostinlarindagi maktablardan boshqa har kim istasa maktab ocha bilsun va hech kim man’ eta olmasun. Bu maktab va madrasalardan “ikmoli tahsil” etub chiqoturg‘on zotlarg‘a maorif vaziri hay’ati ta’limiya ishtirokiyla layoqatlarig‘a ko‘ra shahodatnoma bersun. Masalan, imomlik, muallimliq, mudarrisliq, muftiyliq, qoziliqg‘a loyiq ekonliqlari shul shahodatnomadan bilgulik bo‘lsun.

Vazirlik majlisi

Soydigimiz vazirlar o‘n vazir bo‘ldi: ziroat vaziri, vaqflar vaziri, qo‘shin vaziri, moliya vaziri, doxiliya vaziri, adliya vaziri, zabtiya vaziri, yo‘llar va ma’danlar vaziri, maorif vaziri va bosh vazir bo‘lg‘on xorijiya vaziri. Shul vazirlardan har birining yonindan o‘zimizdan mutaxassis kishilar yetushguncha o‘qug‘on va madaniy musulmonlardan bir kengoshchi kelturulsin. Mana shu o‘n vazirning barchasig‘a birdan “vazirlar to‘dasi” deyoluq. Shul vazirlar to‘dasi kengash majlislari tuzub o‘z ishlarini kengashib qaror berib, qilsunlar. Biron vazir to‘dasining qaror va ittifoqdan tishqori ish qilmosun, vazirlar bilon ittifoq qilib ish ko‘rsun. Ittifoq etolmasa vazirlikni toshlosun. Bosh vazir uning yerinda boshqa birisini ko‘rsotib amirdan yarlig‘ini olib bersun.

Baladiy majlislari

Har shaharning ko‘chalari, yo‘llari, narx va navolarini ko‘rub turmak ichun xalqning saylovi bilan soylong‘on vakillardan iborat baladiy majlislari ochilsun.

Tergov etmak ishlari

Emdi bu ishlarni o‘z qo‘llarida olg‘on vazirlarni tergov etib turmak kerakdir. Bunlarning xato yo‘llardan soqlomoq, xiyonatdan man’ etmak kerakdir. Bu tergov ishlari ichun mamlakatda ikki kuch (quvvat) bo‘lsun: birisi xususiy, birisi umumiy. Xususiy kuch yigirma kishilik bir tergov majlisi bo‘lsun. Bul yigirma kishidan o‘ntasini ish bilaturg‘on huquqshunos rusiyya va kafkosiya (Kavkaz) musulmonlarindan yerli jam’iyatlarning ko‘rsatishlari bo‘yicha keltursunlar. Qolg‘on o‘n kishi Buxoro hukumati Buxorodagi ziyoli, ahvoli zamondan voqif zotlardan ta’in etsun. Har bir vazir qo‘l ostindagi ishlar uchun oldoydagi yilda qoncha xarojot qilsa va qilg‘on bo‘lsa shu xarojotni yerlari bilon ochuq yozsun. Vazirlar to‘dasi majlisig‘a kelib ko‘rsotsun. Kengoshib qaror bergondin keyin bosh vazir bilon shu hisobini ko‘rsotgon vazir shul hisobda qo‘l qo‘yub tergov majlisiga keltursunlar. Tergov majlisi muzokara qilib tashih yo qabul etgondan so‘ng amirga qo‘l qo‘ydurub olsunlar. So‘ngra shul vazir hisobdagi oqchani moliya vazirindan olib, xarojot qilsun.

Ikkinchi kuch, umumiy kuchdir. Bu-xalq kuchidir, matbuotdir, gazetalardur. Buxoroda har kim istasa gazeta chiqora bilsun, har kim istasa kitoblar yozib torqota bilsun. Mana shul gazeta va kitob chiqorturg‘onlar hukumatning, vazirlarning yaxshi ishlarini, yamon ishlarini, to‘g‘rilarini, xatolarini, xiyonatlarni hech kimdan qo‘qmosdan ochiq qilib yozib tursunlar-ki, ham xalq va ham tergov majlisi vazirlarning ishlarini onglob tursunlar. Tamom. 1336 hijriy”.

Xulosa qilib aytganda, “Yosh buxoroliklar”ning “Buxoroda islohot loyihasi F.Xo‘jayev ta’biri bilan aytganda “juda g‘alati edi”. Shunga qaramay “Loyiha” o‘zining siyoasiy talablari bilan o‘sha davrga xos bo‘lgan, hayotiy muammolarni

o‘zida aks ettira oldi. Va bu muammolarni hal qilsih uchun dadil fikr-taklifarni maydonga tashladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzulla Xo‘jayev.Tanlangan asarlar. I tom,-T.:1976.
2. Buxoroda islohot loyihasi.-T.:2005.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.-T.:1999.

ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ БХСРДАГИ ОЛТИ МУҲИМ МАСАЛА ХУСУСИДА (1922 ЙИЛ 27 МАЙ ИЙД РАМАЗОН КУНИ МУНОСАБАТИ БИЛАН ҚИЛИНГАН МАЪРУЗА)

Рахмонов Камол Жамолович,
педагогика фанлари доктори (Dsc), доцент
Дилноза Янгиева
БухДУ 2- боскич магистри

Шундай инсонлар бўладики, уларнинг фидойилиги, мардлиги, тасаббускорлиги ва ҳаёт йўли кейинги авлодларни юксак мақсадларга етаклайди. Ана шундай фазилат соҳиби ўзининг бор куч қувватини билимини, салоҳиятини мамлакатнинг миллий ва иқтисодий мустақиллиги эл фаровонлигини таъминлашга бағишланган жонкуяр фидоий инсонлардан бири Файзулла Хўжаевдир.

Ф.Хўжаев хукумат раҳбари сифатида Бухоро халқ совет республикаси (БХСР) да барча соҳалар сингари суд, маориф соҳаларни ислоҳ қилиш ва ҳарбий ишларни ташкил қилиш масалаларини кўтариб чиқди. Маориф соҳасида бажарилиши керак бўлган топшириқлар ва мактаб ишининг сифати ва унинг самарадорлиги шу каби камчиликларнинг олдини олиш борасида қатор таклифларни илгари сурди.

У мактабларда катта бир нуқсон – оз сонли миллатлар ўқишига етарлича эътибор ва хизмат кўрсатилмаётганлигини таъкидлаб, шу камчиликни тузатиш ҳеч кечиктириб бўлмайдиган масалалар жумласидан эканлиги кўрсатиб ўтди.

Файзулла Хўжаев маданият, адабиёт ва санъат ходимларининг энг яқин дўсти ва маслаҳатчиси эди. у маҳаллий зиёлилар, олимлар, илм маърифат аҳлининг намояндаларига ҳомийлик қилар экан, мактаб, маориф ишига эътибор бериб, ўлкадаги мавжуд қадимий маданий обидаларни сақлаш, халқ амалий санъатини ривожлантириш, фан-техникага доир қадимги қўлёзмалар ва халқ оғзаки ижоди намуналарини тўплаш, уларни тадқиқ этиш каби муҳим масалалар билан машғул бўлди. Ф. Хўжаев ота-боболардан қолиб келаётган бой меросини халқ учун асраб-авайлаб, уни келажак авлодга етказиш каби муҳим вазифаларни ўзининг бурчи деб ҳисоблади.

Бухородаги жадидчилик ҳаракатининг йирик намоёндаларидан бири Ф.Хўжаев кейинчалик шундай ёзади: “Бухоро жадидчилиги деҳконлар ва майда савдогарларга тушадурган солиқ оғирликларини енгил қилиш ҳам солиқ

ишларини умумий тартибга солиш тўғрисида очилгандан бошлаб тадрижий суръатда кўп аъзолар, шўъбалар ва Бухоро халқининг ҳар хил табақалари орасидаги ўзига хайрихох омма билан бирга ҳақиқий бир яширин жамиятга айлана борди.

Бухородаги жадидчилик ҳаракати ўз ривожланиш хусусиятига эга бўлиб, у амирликдаги иқтисодий, сиёсий ва жамиятнин аҳлоқий аҳволи билан боғлиқ эди. Бухоро жадидчилигида Ф. Хўжаев ва унинг маслакдошлари марказий ўринни эгалларди.

XIX асрнинг бошида мусулмон шарқида миллий озодлик ҳаракати зўр куч билан қанот ёзди. Гўёки қаттиқ ухлаб ётган қариб-қартаётган мусулмон Шарқи уйқудан уйғониб ҳаракатга тушди. Унда Шарқ давлат ҳокимиятчилиги тартибига ҳуқуқсизлик ва зулмига қарши бош кўтаришга қодир кучлар топилди. Бир томондан бу кучлар Шарқни ўз мустамлакаси деб ҳисоблайдиган европалик империалистларга, иккинчи томондан маҳаллий ҳокимиятга қарши муросасиз курашни бошлади.

Мустақиллик учун курашнинг дастлабки 1921-1922 йилларда Ф.Хўжаев Бухорода большевистик тузуми ва қизил армиянинг кирдикорларига қарши бошланган умумхалқ ҳаракатига умиб билан қаради. Бу ҳаракатга имкон даражасида ёрдам бериб турди. Ана шундай ишларда Ф.Хўжаевнинг хизматлари беқиёс эди.

Биз қуйида БХСР нозирлар шўроси раиси Файзулла Хўжаевнинг Регистон майдонида 12 минг халқ вакиллари олдида 1922 йил 27 май куни Ийд Рамазон намозидан кейин қилган маърузаси ва у ҳақда “Бухоро ахбори” газетаси (1922 йил 17 июн, 87-сон) маълумотини ўз ҳолича келтиришни лозим топдик.

Айнан: “27-май куни Регистон майдонида Ийди шариф ўқилиб, ийдга келган одамларнинг сонлари жуда кўп, тахминан 12 минг ҳисоб этилди.

Ийди шариф тамом бўлғонидан сўнгра Нозирлар Шўроси раиси биродар Файзулла Хўжа нутқлар минбарига миниб, ийдга йиғилган халқни ийд фитир билан табрик этди, ушбу олти масалани баён қилди:

Биродарлар! Ҳозирги янги иқтисодий сиёсатимиз фавқулодда ўзгаришларимиз, савдо-сотиқ ишларимизга кўп турли йўллар очиб, мамлакатимизнинг келажагига кўп чизиқлар чизди.

Инқилобдан сўнг ҳозирга қадар шўролар ҳукуматининг душмани бўлғон сармоядор давлатлар бизнинг шўролар ҳукуматини эътироф этмаяптилар. Мамлакатимизга хориждан мол кириш тўхталиб, қўлимиздаги молларнинг битуви сабабли, ёш жумҳуриятимизнинг иқтисодий аҳволи жуда қийин бир ҳолда қолғон эди.

Бир тарафдан босмачилар ҳаракати қарши қишлоқларни таладилар ва тинч равишда яшаб келатурғон деҳқонларни нотинч қилиб, уларнинг ихтиёри суратда экин экиш ишларига ҳалал келтирдилар.

Иккинчи тарафдан чет давлатлар билан савдомиз тўхталиб элимизга мол кирмади. Учинчи тарафдан битмас урушлар иқтисодий тузилмамизнинг зарарига сабаб бўлдилар. Мана бу ишлар, бу кўринишлар халқимизнинг

инқилобдан безор қилди, халққа бўлғон инқилобий руҳни битирди ва халққа ватанимизга умудсизлик туғдирди.

Энди ҳозир биз чет давлатлар билан мол айрбош қилув ишларига киришганмиз. Ўзингизга маълумдирки, давлатлар билан савдо-сотиқ ишларимиз кесилув сабабли илгари бир пуд пахта ўн сўм тилла нархи берган бўлса, ҳозир бир сўм берадур. Илгари бир қоракўл саккиз сўм тилла бўлса, ҳозир 80 тийинга тушди.

Чунки инқилобдан муқаддам ўз мамлакатимизда етиштирилган молларни ўзимизнинг мол ишлайтурғон корхоналаримиз бўлмаганлиги сабабли четга чиқаирб сотишга мажбур эдик. Аммо инқилобдан сўнгра чет давлатлар билан савдо муомалаларимиз тўхталиб қолғонлигидан бу моллар сотилмасдан хароб, вайрон бўлиб қолдилар.

Шунга биноан баъзи бир қоракўл ва пахтага ўхшаган молларнинг нархи 100 фоиз ва 90 фоиз қийматини йўқотди.

Биродар Файзулла Хўжа ўзининг умумий нутқидан сўнгра олти муҳим масалага қайтиб, яъни 1) вақфлар, 2) қозихона, 3) босмачиликка афв умумий, 4) Русия ҳукуматининг Муҳиддин Маҳдумнинг бизнинг қўлимизга тутиб бериши, 5) Макаржа ярмаркаси очилуви, савдогарларга хорижий мамлакатларга бориб мол сотув ва ундан мол олиб келиш ишлари, 6) Инқилоб вақтида Бухородан Русияга кетган қимматли молларнинг Русия ҳукумати тарафидан қайтариб берилиши тўғрисида халққа атрофлича айрим-айрим маълумот бермоғи буюк олқишларга сабаб бўлиб, халқнинг кўнглига ёш ва инқилобий ватан истиқболини яхши ва бахтли бўлмоғига бир умид берилдики, ийдга ҳозир бўлғон халқнинг юзларига буюк бир шодлик асарлари кўриндики, биродар Файзулла Хўжа тарафидан тақдим этилган масалаларни бир-бириси билан музокара этиб, “битсин босмачилар, яшасун шўро ҳукумати ва унинг раҳбари Файзулла Хўжа!” деган гаплар билан хурсанд бўлиб тарқалдилар”.

Файзулла Хўжаевнинг ҳукумат олдида турган олтита муҳим масаланинг асл моҳиятини англаб тегишли хулосага келиш ўқувчиларимизни ўз ҳукмларига ҳавола.

JADIDCHILIK – MA’RIFIY ISLOHOTLAR HARAKATI

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti katta o’qituvchisi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholat, qoloqlik va mustamlakachilik ta’siridan xalos etishga qaratilgan muhim ma’rifatparvarlik harakati sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ta’lim va ma’naviy ongni yuksaltirishni ilgari surdilar. Ular eski usuldagi ta’lim tizimini isloh qilib, zamonaviy bilimlarga asoslangan **“usuli jadid”** maktablarini tashkil etish orqali xalq tafakkurini yangilashga harakat qildilar.

Jadid ma’rifatchilari milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etdilar. Ularning faoliyati natijasida matbuot, teatr, adabiyot va pedagogika sohalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar yosh avlodni ilmli, axloqli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashni asosiy vazifa deb bildilar.

Jadidchilik harakati xalq ma’naviyatini yuksaltirishda yangi dunyoqarashni shakllantirdi. Ular ma’rifat orqali jamiyatni yangilash mumkinligini asoslab, milliy taraqqiyotning poydevorini yaratdilar. Shu jihatdan jadidchilik nafaqat pedagogik yoki madaniy harakat, balki milliy uyg‘onish va ma’naviy modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim»ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy, taraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat maqomini berish, milliy pul birligi va milliy armiyani tuzish Turkiston jadidlarining asosiy g‘oya va maqsadlari sifatida o‘rtaga chiqdi. Bu g‘oya va maqsadlar 1917-1920 yillrda “Turkiston muxtoriyati”, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman bo‘lsa-da amalga oshirildi[84].

Tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo‘lgan[85].

Jadidlar nafaqat Vatanga va milliy qadryatlarga munosabati bilan, ayni paytda, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushunishda ham tarixiy namuna bo‘lishgan. Bu haqda Turkiston jadidlarining otasi Maxmudxo‘ja Behbudiy “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman, barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o‘tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kera. Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligimizdir”[86], - deb ta’kidlagan edi.

Professor N.Karimov fikricha, Turkistonda jadidchilik harakatining boshlanishi masalasida yaqin vaqtlarga qadar tarixchi va adabiyotshunos olimlar davrasida yakdillik bo‘lgan. Ular jadidchilikning XX asr boshlarida Rossiya, Turkiya va Eronda yuz bergan inqilobiy harakatlar ta’sirida maydonga kelgani haqida yagona fikrda bo‘lganlar. Ammo keyingi yillarda xuddi shu masalada o‘zgacha fikrlar o‘rtaga tashlanmoqda. Shularga asoslanib aytish mumkinki, Turkistonda jadidchilik g‘oyalari va harakatining ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma’naviy zamini XIX asrning oxirigi choragida yetilib bo‘lgandi[87].

[84] Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т, 1998, 57-бет.
[85] Жадидчилик ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т, 1999, 35-бет.
[86] Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши/ «Жадидчилик…». 38-бет.
[87] Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши/ «Жадидчилик…». 23-бет.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xolos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar.

Behbudiy ma’rifatning ozodlikka olib borishdagi rolini yaxshi tushundi. U millatning ravnaqi haqida “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”[88], degan fikrlarni keltirib o‘tadi.

Jadidlar o‘z g‘oyalarini g‘oyat og‘ir sharoitlarda targ‘ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr qimmatini yerga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi”[89] degan fikrini keltirishimiz mumkin.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Bu davrlarda jamiyatning ma’naviy inqirozi chuqurlashgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umuminsoniy qadryatlardan bahramand bo‘lmay ma’rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmas edi.

Jadidchilik harakatidagi ma’naviyat qo‘yidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi: birinchidan, ular ozodlikka mutaqillikka qon to‘kishlarga olib keluvchi turli to‘polon, qirg‘inbarot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma’rifatini ko‘tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi oqibatlarini tushunib yetish darajasiga ko‘tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni ta’minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g‘oyasida;

[88] Яхшиликов Ж., Убайдуллаева Н. Жадидчилик ва Беҳбудий. –Т.: «Фан», 2004, 15-бет.
[89] Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т., 2008, 49-бет.

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o‘z g‘oyalarini ilgani surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular aholining umumiy savodxonligini ko‘tarish borasida ko‘pgina ishlarni ham amalga oshirdilar. Ular o‘zlarining mablag‘lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar. Bu harakatlarning zaminida chinakkai ma’naviyat turadi. Chunki ular urushlarga, johilikka va qarama-qarshiliklarni avj oldirishga emas, balki yuksak ma’naviyatga va siyosiy onglikka erishish orqali ozodlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi uchun faoliyat ko‘rsatganlar. Ana shu jihatlari bilan jadidchilik harakati milliy ma’naviyatimiz rivojiga o‘ziga xos o‘ringa egadir.

Jadidchilar umummilliy ma’rifatni ko‘tarish, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikka erishish va ularni amalga oshirish orqali milliy mustaqilikka erishish, jahon madaniyatini egallash kabi g‘oyalari bilan milliy ma’naviyatimiz rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т, 1998, 57-бет.

2. Жадидчилик ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т, 1999, 35-бет.

3. Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши/ «Жадидчилик…». 38-бет.

4. Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши/ «Жадидчилик…». 23-бет.

5. Яхшиликов Ж., Убайдуллаева Н. Жадидчилик ва Беҳбудий. –Т.: «Фан», 2004, 15-бет.

6. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т., 2008, 49-бет.

ИСТОРИЯ И ИДЕОЛОГИЯ ДЖАДИДОВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Арипова Халима Ариповна
кандидат педагогических наук,
доцент кафедры русского языка и литературы
Бухарский государственный педагогический институт

Джадидизм (араб, «джадид» — новый) — общее название направления, сторонники которого стремились к обновлению, созданию новых, современных форм обучения (школ, типографий, печатных изданий), методов и путей достижения национального прогресса. Джадидизм возник в среде нарождавшейся прогрессивной национальной интеллигенции и буржуазии в конце XIX — первой четверти XX в. в тюрко-мусульманских регионах (Крым, Кавказ, Поволжье, Средняя Азия). В Туркестане джадидизм выполнял роль идеологии национально-освободительного движения. Основные идеи и цели джадидизма заключались в следующем: освобождение Туркестана от средневековой, феодальной отсталости и предрассудков, отрицание от жившего, олицетворявшего «усули кадим» — сторонников неизменности порядков в крае; выход на прогрессивный путь развития; создание

национального государства; создание свободного общества на основе конституционного правления; придание тюркским языкам статуса государственного языка; создание национальной валюты и гвардии. Более полное представление о самих джадидах дают этапы эволюции джадидизма в Туркестане:

I. 1885—1895 гг. — под влиянием газеты «Таржимон», издаваемой Исмаилом Гаспринским («идейным отцом джадидов»), в Коканде открываются новомеодные школы, которые постепенно начинают конкурировать с существовавшими русско-туземными школами.

II. II. 1896—1904 гг. — в результате визита Исмаила Гаспринского в Бухару и Самарканд в 1895 г. начинается организация новометодных школ в крупных городах Туркестана — в Бухаре под руководством Джурабая; в Самарканде эту работу возглавили А. Шакури, Сазизи, А. Мунзим, Мулла Килич; в Ташкенте — Мунаввар Кары, Авлони; в Коканде — Хамза; в Намангане — И. Ибрат, Суфизаде и др.

III. III. 1905—1914 гг. — этап в развитии движения джадидов, характеризовавшийся расширением их деятельности: организация издательской деятельности, особое внимание придавалось вопросам науки, литературы, культуры и просвещения.

IV. IV. 1914 - 1917 гг. — превращение джадидизма в общественно-политическое движение, создание джадидских политических партий, одни из которых выдвигали требование полного отделения от России, другие видели свою задачу в создании «национально-территориальной автономии» в составе Российской Федерации, третьи ограничивались требованием осуществления гарантий прав на духовно-религиозную автономию в составе России.

V. V. Октябрь 1917—1918 гг. — создание в Коканде «Туркестанской автономии» и кровавая расправа с ней большевиков.

VI. VI. 1918—1924 гг. — создание группы «Чигатайская беседа», возглавлявшей просветительско-издательскую деятельность в составе советской системы. 1924 г. — раскол Туркестана в результате национально-территориального размежевания и развитие джадидского движения в рамках национальных республик и автономий. Тайное осуществление джадидами идей группы «Чигатайская беседа» в культурно-просветительской, образовательной и издательской сфере, а также попытки оживить национально-освободительное движение.

С 1931 по 1937—38 гг. и до первой половины 50-х годов последние представители джадидов были подвергнуты суровым репрессиям, что было равнозначно их физическому истреблению. Основные идейно-теоретические воззрения джадидов в Туркестане сформулировали Бехбуди, Мунаввар Кары, Фитратом, Чулпаном, которые во многом отрицали советскую систему. Они ратовали за создание народного государства в Туркестане и его прогрессивное развитие. Дж. Тавалло, Хондайлики, Азджи и другие намеревались добиться национальной независимости, опираясь на положения Конституции СССР. А. Авлони, С. Айни, Хамза, Бату, Алтай, Эльбек, А. Икрамов, Ф. Ходжаев и другие делали акцент на рациональном использовании советских идей и

ценностей, таким путем постепенно добиваясь претворения в жизнь своих идей.

Движение джадидов — течение в общественной мысли мусульманских народов Российской империи конца XIX — начала XX века. Люди с чутким сердцем и просвещенным умом не могли не видеть тупика, в котором оказались к тому времени их народы. Беспросветная нищета и невежество масс под двойным гнетом имперского и местного деспотизма, кризис схоластической школы, застой мысли, культурный регресс — все это становилось уже невыносимым. Мусульманская интеллигенция видела выход из тупика в просвещении народа. Джадиды выступили против конфессионального образования, застывшего в средневековой схоластике и сводившегося к заучиванию наизусть сур Корана и толкованию их. Помимо упомянутого выше новометодного обучения, они потребовали ввести обучение родному и русскому языку, литературе, математике, истории, географии и другим светским наукам. Движение джадидов своей жизненностью, особенностями просветительской деятельности, направленностью на решение общенациональных и социально-политических задач в корне отличается от традиционного восточного просветительства и религиозного реформаторства. Джадидизм был движением, открывшим новую страницу в истории тюркских народов и, в частности, узбекского народа. Поэтому советская власть вела против него беспощадную борьбу. Ибо джадидизм был проявлением пробуждения и роста самосознания тюркоязычных наций. Истребление джадидов почти на целый век отодвинуло назад признание тюркских наций в мировом масштабе, поставило их в зависимость от господствующей идеологии и абсолютизма, сделало жертвой стремления тоталитарного строя реализовать теорию слияния наций. Джадидизм, находясь сначала под давлением, а затем — в тисках тоталитарной идеологии, смог реализоваться только частично. Несмотря на идеологическое, духовное, политическое и экономическое давление господствовавшей тогда системы, в 1953—1990 гг. узбекский народ смог сохранить свою национальную самобытность, с надеждой ожидал осуществления идей, выдвинутых джадидами. И только обретение Узбекистаном независимости дало возможность претворить их в жизнь.

Представителем джадидизма в Средней Азии можно считать и Ахмада Дониша — выдающегося бухарского ученого, писателя и общественного деятеля конца прошлого столетия. О нем пишет в своей книге «История Бухарской революции» (написана в 1920, издана полностью лишь в 1987 году) С. Айни, что Ахмад Дониш (1827 — 1897), по собственной инициативе постиг астрономию, геометрию, математику, историю, филологию, искусство жизнеописаний. В той же книге упоминается о первой новометодной школе, появившейся в Самарканде в 1903 году. Это была «школа Шакури», которую основал мулла Абдулкадыр Шакури. Изучив его опыт, несколько просвещенных бухарцев, среди которых был и Айни, решили «начать дело в Бухаре». И к 1908 году здесь уже было несколько новометодных школ, вызывавших яростное неприятие со стороны местных кадимистов (от арабского «кадими», «старинный»). Спор между кадимизмом и джадидизмом

надолго стал главным содержанием общественной жизни, со временем приобретая политическую окраску и обнажая подоплеку этой затянувшейся борьбы нового со старым. Движение джадидов было неоднородным. До поры до времени оно объединяло людей разных взглядов — от «умеренных либералов» — в основном из торговых кругов, до демократической интеллигенции, опиравшейся на народные низы и частично вышедшей из них. Из рядов джадидов-демократов вышли национальные революционеры. Революционизация национальных окраин была неотделима от национально-освободительного движения их народов. Надо помнить и о сильной волне освободительных движений в те же десятилетия XX века в ближайших регионах Индии, Иране, Турции. Джадидизм, требуя свободы народа, отразил во всей полноте сложную сущность просветительства на тогдашнем Востоке. С другой стороны — перед глазами был пример России, где социал-демократы решительно добивались коренного переустройства общества. В таких условиях резкое размежевание между джадидами-«либералами» и джадидамидемократами» было неизбежно. По времени это совпадает с русскими революционными событиями. В Татарии, например, где джадидизм зародился в 80-х годах прошлого века, движение распадается в первую русскую революцию. Именно тогда образуется «правая» партия «Мусульман иттифакы» и, соответственно, уходят в революцию «левые» — Амирхан, Г. Тукай, Г. Ибрагимов и др. В Средней Азии джадидизм появился позже, и здесь раскол окончательно оформляется во время февральской революции 1917 года. Серьезные разногласия в рядах среднеазиатских джадидов начинаются в 1914 — 1915 годах, когда сюда вернулись получившие образование в России и Турции молодые люди. Они и вступили в спор со старшими деятелями джадидизма по вопросу целей и методов борьбы. Их не удовлетворяло узкое культурничество, они выдвинули политические задачи, потребовали снижения налогов, облегчения участи дехканства, ограничения чиновничьего и судейского произвола, обрушились с резкой критикой на эмира и духовенство. У этой молодежи появились и свои лидеры: Абдурауф Фитрат и Файзулла Ходжаев. Это они в марте 1917 года встанут во главе партии младобухарцев — революционных джадидов. В том же марте 1917 года оформится и «правое крыло» — «Шурои Исломия». В истории революции в Средней Азии есть два этапных момента. Это — народное восстание, вспыхнувшее в Туркестанском генерал-губернаторстве в 1916 году в связи с мобилизацией местного населения на тыловые работы, и события в Бухаре в марте 1918 года — так называемый «колесовский поход». Восстание 1916 года утопили в крови собственные же «отцы нации». Предательское соглашение местных правителей с царизмом камня на камне не оставило от просветительских упований на национальное единство, провозглашенное лидерами джадидизма. Собственно, восстание это возникло стихийно и не имело никакого отношения к реформаторским идеям джадидов, показав, что народ их не понимает и за ними не идет. Здесь надежды на возможность видоизменить мирным путем абсолютную эмирскую власть не угасали вплоть до 1918 года. Только свирепая расправа над джадидами, которую учинил бухарский эмир Алимхан в марте

1918 года (было уничтожено более трех тысяч человек), явилась трагическим уроком, толчком к более решительным действиям народной интеллигенции в 1920 году, когда окончательно пала эмирская власть. До сей поры некоторые идеологи сохраняют традиционно-пренебрежительный взгляд на джадидов: они, мол, «всего лишь» реформаторы. Требовали у эмира реформ — и только. Однако думать так сегодня, значит плохо представлять себе историческую ситуацию в Бухаре первой четверти XX века. Отнюдь не случайно эмир люто ненавидел джадидов, ведь они подтачивали его деспотию изнутри, приобретая все больше сторонников в народе. Властитель потратил немалые усилия, чтобы очернить джадидов, называя их «богоотступниками», «предателями своего народа», «продавшимися русским». А когда пришел час — расправился с ними беспощадно. Опыт первого вооруженного выступления против эмира в Бухаре, предпринятого младобухарцами совместно с красноармейцами Туркфронта («Колесовский поход» в марте 1918 года), потому и оказался неудачным, что народ его не поддержал, не принял программу реформ. И дело не в том, как некоторые пытаются объяснить, что эта программа была недостаточно радикальна, а именно в том, что она была слишком радикальна: она посягала на «священную» власть эмира. И еще: голос джадидов был, наконец, услышан народом (пусть для этого потребовалось еще два года) только потому, что они опирались на законы ислама — на шариат, которым и в котором жил народ — трудовой люд Бухары и Хивы. Это тоже исторический факт. Раскол джадидского движения накануне Октябрьской революции 1917 года, эволюция демократической его части в революционную, а либеральной в контрреволюционную в свое время дали советским историкам повод для деления джадидов на «правых» и «левых», на «прогрессивных» и «реакционных». Однако такой подход просуществовал недолго, уже в конце 20-х годов наметилась явственная тенденция к упрощительству. Но до того, как восторжествовал лобовой «классовый суд» над джадидами, к левым джадидам относили и Хамзу Хаким заде Ниязи, и Садриддина Айни, а вместе с ними и всю революционную интеллигенцию Туркестана, Бухары и Хорезма. Непреходящая историческая роль левых джадидов в том, что именно они подготовили восприятие народами Средней Азии революционных идей. С той поры и до недавнего времени в официальной науке (и не только в Узбекистане) джадидизм стал синонимом буржуазного национализма. Поэтому назрела необходимость восстановления исторической справедливости по отношению к революционным джадидам.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выступление Президента Республики Узбекистана Ш.М. Мирзиеёва на форуме молодёжи Узбекистана 24.02.2026

2. Независимость Родины - источник нашей силы и вдохновения, основа благополучия и процветания. Выступление Президента Республики Узбекистана Ш.М. Мирзиеёва на церемонии, посвященной 30- летию Независимости Республики Узбекистан, 2021.

3. Основы философии. Под ред. Ахмедовой М.А., Хан В.С. Т.: Мехнат, 2004. 4. Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. Под ред. Файзуллаева О. Т.: шарк, 2000.

TA’LIM TIZIMIDA JADIDCHILIK HARAKATINI O‘QITISHNING DOLZARB VAZIFALARI

Begimqulov Zarif Axmadovch
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-dekabrda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” xalqaro anjumanida qilgan nutqida: “Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsada, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega”, - degan edi [1].

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Jadidchilik namoyandalari yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Ular o‘zining ta’lim faoliyatida yosh avlodga

zamonaviy ilm o‘rgatish, eski ta’lim tizimining noxush tomonlarini bartaraf etishni maqsad qilishdi.

Jadidlar harakati, nafaqat ta’limda, balki ijtimoiy hayotda ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Ular, ta’limni isloh qilish orqali, yoshlarni ilm-fan, madaniyat va siyosat sohalarida yangi qarashlarga olib chiqdilar. Bu jarayon, o‘sha davrning siyosiy tizimi, diniy tuzilmalari va ijtimoiy qatlamlarida keng tarqalgan an’anaviy qoidalar bilan kurashish va shu bilan birga, yangi ma’naviy, ilmiy va madaniy asoslarni yaratish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida muammolarni yuzaga keltirdi.

Jadidchilikning fenomeni shundaki, - deb yozadi professor D.A.Alimova, - keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo‘lib, milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg‘onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyutsion-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o‘zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo‘qotishning maksimal darajada samarali yo‘llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual g‘oyalari hozirgi o‘zgarishlar amaliyotining ma’naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlar kursining genetik asosi bo‘lib xizmat qildi [4].

Jadidchilik harakatining mohiyatiga e’tibor qilib qaralsa: u ma’rifatparvarlik emas, balki ma’rifatchilik edi. “Ma’rifatchilik” iborasiga iste’dodli olim Sh.Rizayev alohida urg‘u berib, uni atroflicha tahlildan o‘tkazgan. Darhaqiqat, ma’rifatparvarlar asosan ma’rifat homiylari tarzida, “tashqaridan” turib, ya’ni xalqning iste’dodli farzandlarini qo‘llab-quvvatlash orqali va o‘z asarlari yordamida bilvosita faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar, ma’rifatchilar bir paytning o‘zida ham homiylar, ham ma’rifatning qora mehnatchilari edi. Nazariy yo‘nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog‘liq holda olib borilishi jadid ma’rifatchilari uchun Ovro‘pa ma’rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o‘tgan yo‘lni bir necha o‘n yil ichida “kesib chiqish” imkonini yaratdi. U fidoyilik evaziga bunyodga keldi [6].

O‘tgan davrda O‘zbekiston Respublikasi istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida yangicha tizim yaratildi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, ta’lim-tarbiyaga oid olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar bugungu kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishda ta’lim beruvchi pedagoglarning asosiy vazifasi – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, katta hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o‘rin topishlariga ko‘maklashish, ustozlik burchini ato etishdan iboratdir [5].

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida Turkiston jadidlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganish yosh avlodga yurt mustaqilligi, ozodlikni qadriga yetishda, ilm, ma’rifat jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini anglab olishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlariga kiritilgan Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining o‘lmas g‘oyalari o‘quvchi va talaba shaxsini mukammal kamol toptirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, o‘zlashtirilgan bilimlarini yanada rivojlantirishda, ilmli, o‘qimishli, ma’rifatli bo‘lib voyaga yetkazishda, faollashtirishda, zamonaviy fanlarni egallashda, sog‘lom va baquvvat farzandlarni tarbiyalashda, kundalik hayotdan ogoh bo‘lishda dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish nafaqat tariximizni o‘rganish, balki o‘quvchi va talabalarda milliy g‘ururini shakllantirishda, ilmiy tafakkur rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihat o‘quv jarayonida yangilanishni ta’minlaydi, yosh avlodni tarbiyalashda muhim jihatlarni taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish, dars va mashg‘ulotlar jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash, mavzularni yangi manbalar bilan boyitish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ta’lim tizimida jadidchilik harakati o‘qitishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Jadidlarning jamiyatdagi salbiy illatlar, zararli odatlar hamda inson salomatligi, bola tarbiyasiga oid fikrlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan;
- Turkiston ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan taraqqiyparvar g‘oyalar bugungi kunda ham yurtimizda yosh avlod ta’lim va tarbiyasi hamda ularning ma’naviyatini yuksaltirishda, ularni turli xil yot g‘oyalardan saqlashda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi;
- ma’rifatparvarlar merosi o‘quvchi va talabalarni mustaqil fikrga ega bo‘lgan, yuksak ma’naviyatli, ijodkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
- jadidlar o‘qituvchini jamiyatni uyg‘otuvchi ma’naviy shaxs sifatida ulug‘lab, ta’lim jarayonini ilmiy, pedagogik va progressiv asoslarga qurishni ta’minlagan, bu esa hozirgi ta’lim islohotlariga asos bo‘lmoqda;
- jadidlar merosi ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda darslarni madaniy va tarixiy kontekst bilan boyitish imkoniyatini yaratadi;
- O‘zbekiston tarixining eng fojiali davrlaridan biri bo‘lgan (sovet repressiyasi) haqida ma’lumotlar beradi.

Adabiyot o‘qitishga bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondashish, zamonaviy o‘quvchining estetik talab va ehtiyojlari doirasida ularga jadid adabiyoti namunalarini tavsiya etish, bunda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy matn tahlilida tegishlicha ish turlarini tanlash natijasida adabiyot darslarining o‘quvchi yoshlar uchun qiziqarli va mazmunli bo‘lishiga, ularning darslarda faol ishtirokchiga aylanishlariga erishish

mumkin bo‘ladi, privordida esa jadid adabiyoti namunalari o‘quvchilarning ma’naviy mulkiga aylanishiga erishiladi. Jadid adabiyoti mustaqilikkacha bo‘lgan davrda deyarli o‘rganilmagan yoki unga sovet mafkurasi tazyiqi ostida dushmanlik nazari bilan yondoshilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal harakat” deb ta’rif berilgan. SSSR parchalanib ketganidan so‘ng bu harakat va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Bu borada istiqlol yillaridagi bir qator tadqiqotlarda, jadidlarning ijtimoiy siyosiy va madaniy sohalardagi faoliyatlarining ayrim jihatlari qisman yoritib berilgan [3].

Ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishning dolzarb vazifalari yoshlarni milliy o‘zlikni anglash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda jadid allomalarining ma’rifiy qarashlari orqali ta’lim sifatini oshirishdan iborat. Bu borada jadidlar tomonidan asos solingan taraqqiyparvar g‘oyalarni o‘rganish, zamonaviy metodik tajriba sifatida qo‘llash va ularning milliy yuksalish yo‘lidagi faoliyatini ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarga tizimli ravishda yetkazish muhim hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishning dolzarb vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talaba va o‘quvchilarda milliy g‘urur, o‘zlikni anglash va Vatan oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish;
- jadid ma’rifatparvarlar merosini zamonaviy ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish orqali o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, tahliliy va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
- ta’lim tizimida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid bobolarimizning ma’rifiy ta’limotlarini chuqur o‘rgatish;
- ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarga Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini bugungi kun talablari darajasida o‘rgatish;
- Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan jadid maktablari, matbuot va adabiyot islohotlarining mazmun-mohiyatini yoshlarga xolisona yetkazish;
- Jadidchilikni faqat tarixiy voqea emas, balki bugungi kungi ta’lim tizimi uchun nazariy va metodik jihatdan dolzarb manba sifatida o‘rganish.

Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining amalga oshirgan ishlari oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni tarbiyalashda, bugungi yosh avlodning intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda, ularning bilim va savodxonligini oshirishda, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda, ularni turli xil yot g‘oyalardan saqlashda, o‘zligini anglashida, zamonaviylikka intilishida, mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishda, hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to‘g‘ri anglashida, o‘tmish merosimizdan samarali foydalana olishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun jadidchilikni o‘qitish jarayonida mazkur harakatning mohiyatini chuqur anglash, shu orqali yosh avlodning bugungi hayotimizning qadriga yetishini, ma’rifatparvarlardan qolgan boy ma’naviy merosni o‘qib-o‘rganish, avaylab-asrash va kelgusi avlodga yetkazish, o‘quvchi va talabalarning milliy ongini yanada o‘stirish, o‘z vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini mustahkamlash, axloqiy yuksaltirish,

mas’uliyat hissini oshirish, ularni milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik, insoniylik, yuksak ma’naviyat kabi oliyjanob an’analar ruhida tarbiyalash, ularga bugungi davr talablari asosida talim-tarbiya berishimiz uchun jadid mutafakkirlarimizning merosini qay darajada kerakli ekanligini tushunib olishimiz lozimdir [2].

Ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishga yangicha yondashuvlar shunchaki tarixiy ma’lumot berishdan voz kechib, jadidlar g‘oyalarini (milliy uyg‘onish, ma’rifat, modernizatsiya) interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va aksiologik (qadriyatli) tahlil orqali yoshlarning dunyoqarashiga singdirishni nazarda tutadi.

Ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish — bu faqat o‘tmish tarixini bilish emas, balki bu boy tarixiy meros, milliy qadriyatlar, ona tili, adabiyot va san’atni chuqur o‘rgatishdir. Mazkur harakat tarixini o‘rganish yosh avlodni milliy ruhda, ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashning samarali vositasidir. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish metodlari va raqamli texnologiyalar bu merosni keng ommaga yetkazishda, uning g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish ijtimoiy fanlar turkumidagi darslarning mazmunini boyitish, o‘quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning ijodiy tafakkurni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jadidchilik harakatini o‘qitish orqali yosh avlod o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prikni anglab yetadi.

Adabiyotlar:

1. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. https://president.uz/oz/lists/view/6919

2. Begimqulov Z. Ta’lim muassasalarida jadidchilikni o‘qitilishining zarurati. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal – №4 (21) 2025, 109-bet.

3. Ismoilova M. Umumta’lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o‘qitilishi. “Jadidlar adabiy merosini o‘rganish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami, Qarshi-2025, 398-bet.

4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash - T.: Universitet, 1999, 42·bet.

5. Topildiyev O. Yoshlarni tabiyalashda jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalarining tutgan o‘rni. Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami (II qism). - Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025.- 61-bet.

6. Шуҳрат Ризо. Маърифатпарварликдан маърифатчиликкача.// “Тафаккур” журн., 1995.- №1. Б.74-79.

MA’RIFATPARVARLAR FAOLIYATI NATIJASIDA JADID ADABIYOTINING SHAKLLANISHI

Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna
BDPI, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g‘oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ‘ibot qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadilar. Akademik A.N.Samoylovich jadid adabiyotini o‘rganib, 1916-yilda “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi” deb yozgan edi. Darhaqiqat, olim uchun kutilgan “Yangi adabiyot”-jadid adabiyoti bo‘ldi. Bu adabiyot o‘z mazmun va mohiyati hamda janrlariga ko‘ra, ming yillar davomida shakllanib rivojlangan mumtoz adabiyotimizdan tubdan farqlanuvchi yangi adabiyot bo‘ldi.

1. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo‘lgan bo‘lsa, jadid adabiyotida bularning o‘rtasida o‘zaro tenglik ya’ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

2. Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g‘arb adabiyotidagi roman, drama, esse, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she’riyat (poetika) kabi badiiy janrlar ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Proza va publitsistika paydo bo‘ldi.

3. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatchilik mafkurasi, milliy ozodlik xususiyatiga ega bo‘ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o‘z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

4. Jadid adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o‘zgardi. U endi an’anaviy oshiq yohud ma’rifatparvargina emas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidalari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o‘z ijtimoiy siyosiy va ahloqiy qarashiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo‘lgan yirik iste’dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san’ati arboblarini ham tarbiyaladi. Jadidshunos taniqli olim professor Begali Qosimovning ta’kidlashicha, ularning 1905-1917 yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg‘in faoliyat ko‘rsatganlari saksondan ortiq bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919), Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919), Muhammadsharif So‘fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keladi, mukammal bir shaklga kiradi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutulish, rus istilosiga qarshi kurash, ma'rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo‘lga kiritish g‘oyalari bilan to‘lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllanadi. Behbudiy bunday adabiyotning ilk namunalarini yaratadi. Undan so‘ng Fitrat va boshqalar maydonga chiqqan edi. Turkistonning o‘zidagi Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Berdaq va boshqalarning ilg‘or demokratik qarashlaridagi g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlarisiz jadidchilik harakatini tasavvur etish mumkin emas.

Jadidichilik harakatining yirik vakillaridan bo‘lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931) Ismoil Gaspirinskiyning o‘qish va o‘qitish, madrasa va maktab islohotiga oid fikrlarining Turkistondagi otashin targ‘ibotchilaridan biri edi. Munavvar Qori Abdurashidxonov insonning ma'rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligini, vijdoni uyg‘onmasa na o‘zining, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu - imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan o‘z asarlarida ko‘rsatib berdi. Bu ulug‘vor yo‘lda u mardonavor va qahramonlarcha kurashadi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan biridir. U o‘z tarjimayi holida: «Turli gazeta va jurnallar o‘qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to‘dasiga kirdim. Mirobodda «usuli jadid» maktabi ochib o‘qituvchilik qila boshladim», deydi. Abdulla Avloniy o‘zi ochgan maktab uchun to‘rt qismdan iborat «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar va o‘qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko‘mak ko‘rsatuvchi «Jamiyati xayriya» tashkil etdi. Abdulla Avloniy millat va yurt qayg‘usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi va u bilan nafas oldi, o‘z asarlarida uni kuylab tarannum etdi.

Davr va zamon nafasi hozirjavob ma'rifatparvar va demokratik shoirlardan biri Hamza (1889-1929) dir. Hamza madrasada o‘qishni tashlab jadidchilik g‘oyalari ta'sirida o‘z tashabbusi bilan Marg‘ilon, Qo‘qon va boshqa shaharlarda mehnatkashlar bolalari uchun yangicha usulda Hamza ijodiy dunyoqarashining shakllanishida uning 1911-yilda Afg‘oniston, Hindiston, Makkai Mukarrama, Madinai Munavvara, Shom, Bayrut, Istanbul kabi xorijiy mamlakatlar va shaharlarga qilgan safari katta rol o‘ynadi. Maorif tarqatish, xalqni ilmli va ma'rifatli qilish Hamza dunyoqarashining markazida turardi. U bir emas uchta darslik yaratdi: «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi» va «Qiroat kitobi» (1914-1915) da she'riy shaklda ma'rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etsa, nasrda xalqning eng yaxshi aqidalarini - mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, birodarlik va zulmga nafratni yoshlar ongiga singdiradi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biridir. Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. Ko‘p o‘tmay o‘zini dramaturgiya va nasrda ham sinab ko‘rdi. U «Sayha», «Sayyohi hindi», «Rahbari najot», «Tarixi Islom» asarlarini esa Turkiyada tahsil olgan paytida yozgan va «Munozara» 1908-yilda, «Sayha» 1910-yilda «Sayyohi hindi» 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. «Rahbari najot» va «Oila» 1915-1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o‘sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Bulardan

tashqari, uning «Mavludi Sharif», «Abo Muslim», «Begijon» asarlari va dastlabki she’rlari «Oyna», «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Turon», «Hurriyat», «Buxoroi Sharif» kabi gazeta va jurnallar sahifalarida e’lon qilingan. Fitrat Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi.

Jadidichilik harakatida faol qatnashib Turkiston milliy istiqloli uchun kurashgan xalqimizning ajoyib farzandlari Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Karimbek Sharifbek o‘g‘li Komiy (1865-1922), Tavallo (1883-1959), Is’hoqxon Ibrat (1862-1937), Xislat (1880-1945) va boshqalar ham o‘zlaridan so‘ng boy ijodiy meros qoldirganlar. Ana shu ulug‘ zotlar orasida o‘zining betakror va ibratomuz ijodi bilan Tavallo alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodida jadidchilik harakati va adabiyotining ta’siri kuchli bo‘ldi. Shoirning 1913-yilda «Bayoz», 1917-yilda «Ravnaqul islom» to‘plamlari bosmadan chiqqan. Tavallo asarlari asosan, Vatanni sevishga, ardoqlashga, xalqni, millatni hurmatlashga, ilm-ma’rifatni, san’atni sevishga da’vat etadi.

O‘sha davr matbuoti millat qaddini ko‘taruvchi har bir tayanchga alohida e’tibor berdi. Jumladan, xalqning ma’naviy yuzi, madaniyat darajasini belgilovchi mezon bo‘lmish adabiyot masalalarini ham teran yoritdi. Matbuot o‘zbek milliy adabiyotining qanday bo‘lishi kerakligini aniq tasavvur qildi. Shuning uchun “Adabiyotning vazifasi mamlakat ehtiyojotini kuzatmak va maydonga chiqarub qo‘ymak, eng muhim mavzularni aholi nazariga arz etmak” ekanligini juda to‘g‘ri ko‘rsatib berdi. Vaqtli matbuot badiiy adabiyot namoyandalarining “mumkin qadar fikrsiz xalq ishiga aralashub muloyimona nasihatlarda bo‘lub va millatning eng qorong‘u burchaklariga ketub nurli chirog‘ bo‘lub millatning jarohatli uzrlariga davo solish”ga chaqiradi . Milliy adabiyotni ma’rifatchilar real voqealikda, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, madaniy o‘zgarishlar talqinida ko‘rgan. Yoziladigan har bir asar xalq turmushining yaxshilanishiga, o‘quvchi ongi, tafakkurida ilg‘or g‘oyalarni kamolga yetkazishga xizmat qilishi zarur deb hisoblagan.

Milliy adabiyotni millat ovoziga, soziga aylantirish uchun ma’rifatparvarlar mavjud imkoniyatlaridan foydalanishga intilgan. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Miskin, Tavallo, So‘fizoda va boshqa o‘nlab iste’dod sohiblari she’r, badiiy lavha va publitsistik asarlari bilan shakllanib kelayotgan yangi adabiyot uchun poydevor qo‘ydilar. Xalqchil adabiyot va uning rivoji uchun kurashdilar. Ma’rifatparvarlar adabiyotni millatga o‘zligini anglatuvchi ma’rifat oyinasi deb bildilar hamda milliy roman va milliy adabiyotga asos soldilar. Bu Turkistonda yangi milliy adabiyotning tug‘ilishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.X.Shodiyeva, S.I.Boymurodova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Buxoro. “Bukhara hamd print” nashriyoti. 2024-yil.

2. G.X.Shodiyeva. Buyuk ma’rifatparvar (Ismoil Gasprali faoliyatiga bir nazar). Til va adabiyot ta’limi. 2024. №10.

3. G.X.Shodiyeva. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid darsliklarning o‘qitilish jarayonini o‘rganishning pedagogik mazmuni. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. №3/1. 2024-yil.

4. G.X.Shodiyeva. Jadid ma’rifatparvarlarining adabiyot ta’limiga qo‘shgan hissasi. “Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali. 2025-yil 4 (8)-son

5. G.X.Shodiyeva. Turkiston jadid maktablarining tashkiliy mazmuni, g‘oyaviy manbaasi, o‘quv rejalarining pedagogik mohiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. №3/2.2025-yil.

6. Г.Х.Шодиева. О появлении идей движения джадидов в Туркистане и первых педагогических реформах. Гуманитарные и общественные науки. Электронный научный журнал. Пермь ПГГПУ. 2025. №1.

7. Г.Х.Шодиева. Восток в конце XIX начале XX века деятельность системы образования. World of Scientific news in Science International Journal Vol Issue 2. 2024. 400-405 pages.

8. G.X.Shodiyeva. Turkistonda ta’limga oid islohotlarning davriy matbuotdagi ifodasi (“Oyna” jurnali misolida). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi shahri, 2024-yil 30-aprel.

9. G.X.Shodiyeva. Turkistonda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o’zbek tilida yaratilgan darsliklarning mazmuni. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi shahri, 2024-yil 30-aprel.

10. G.X.Shodiyeva. Experiences in the field of educational content and textbook creation in the history of eastern nations. Maktabgacha ta’limda xalqaro tajribalar transformatsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosdagi ilmiy anjuman. 2024-yil 29-noyabr.

11. G.X.Shodiyeva. Ilm ziyo maskani. “Zamonaviy va sifatli ta’lim taraqqiyot negizidir” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to‘plami. Buxoro: OXU, 2025. 24-25-aprel.

12. G.X.Shodiyeva. Jadid ma’rifatparvarlarining kitob-nashriyot hamda kutubxona muassasalari. “Fan va ta’lim” xalqaro ilmiy-metodik, ma’naviy-ma’rifiy elektron jurnali. 2025-yil 25-mart. №170.

13. G.X.Shodiyeva. Turkistonda jadidchilik harakati hamda jadidlarning maktab ta’lim tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida zamonaviy psixologiyaning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro. 2025-yil 22-aprel.

14. G.X.Shodiyeva. Literature lesson in the education of Bukhara madrasahs. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research

(ISSN – 2771-2141) Volume 04 Issue. 01.2024. 155-158 pages.

15. G.X.Shodiyeva. Education of social sciences in eastern madrasahs. International scientific and practical conference “Trends of modern science and practice” Ankara, Turkey 2024. 32-37 pages.

16. G.X.Shodiyeva. Sharq madrasalarining faoliyati hamda ularda o‘quv-tarbiyaviy jarayon masalalari. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”. Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2024-yil 2-son.

O‘RTA OSIYO JADIDLARI DUNYOQARASHIDA SUHRAVARDIYLIK TA’LIMOTINING O‘RNI VA “AVORIF UL-MAORIF” ASARI TAHLILI

Murtozayev Shaxobiddin Bahriddinovich
BuxDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy va ijtimoiy yangilanish, balki chuqur ma’naviy-diniy islohot ham edi. Jadidlar islom dinini asrlar davomida unga yopishib qolgan jaholat, xurofot va turg‘unlikdan tozalashni maqsad qildilar. Bunda ular tasavvufning tarkidunyochilik (passiv) shaklini tanqid qilib, uning o‘rniga insonni ijtimoiy faollikka, ilmga va mehnatga chorlovchi "amaliy tasavvuf" g‘oyalarini ilgari surdilar.

Ushbu jarayonda Abu Hafs Umar Suhravardiyning "Avoriful-maorif"(Ma’rifatni anglaganlar) asari jadid ulamolari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Suhravardiylikning axloqiy-tarbiyaviy tizimi jadidlarning "komil inson" va "ozod millat" konsepsiyalariga g‘oyaviy poydevor bo‘ldi.

Abu Hafs Umar Suhravardiy (1145–1234) tasavvuf tarixida "Shayxul-islom" va yirik siyosiy arbob sifatida tanilgan. Uning "Avoriful-maorif" (Ma’rifat hadyalari) asari tasavvufning nazariy va amaliy asoslarini birlashtirgan mukammal asar hisoblanadi[1].

Asarning jadidlar e’tiborini tortgan jihatlari shundaki, unda so‘fiylik shunchaki xilvatda o‘tirish emas, balki jamiyatda yuksak axloq bilan yashash ekani ta’kidlanadi. Suhravardiy o‘z asarida:

- Ilmning afzalligi: Ibodatdan ko‘ra ilm o‘rganish va ma’rifat tarqatishning ahamiyatini;
- Nafs tarbiyasi: Nafsni jismonan qiynash emas, balki uni axloqiy poklash orqali jamiyatga foyda keltirishni;
- Kasbu kor: Halol mehnat va hunar egallashning so‘fiy uchun shartligini ilgari surgan.

Jadidlar orasida tasavvuf tarixini eng chuqur o‘rgangan olim Abdurauf Fitratdir. U o‘zining “Tasavvuf haqida”, “Bedil” va “Najmiddin Kubro” kabi asarlarida tasavvufning falsafiy ildizlariga to‘xtaladi.

Fitrat Suhravardiylikning ikki tarmog‘iga — Shihobuddin Suhravardiyning "Ishroq" (Nur) falsafasiga hamda Abu Hafs Suhravardiyning axloqiy ta’limotiga katta qiziqish bilan qaragan. Fitrat "Ishroq" falsafasidagi nur va zulmat kurashini jadidchilikning jaholatga qarshi ma’rifat kurashi sifatida talqin qildi. Uning fikricha, inson qalbi "Nurul-anvor" (Alloh)dan keladigan ma’rifat nuri bilan yorishishi kerak[2]. Bu esa millatning ko‘zini ochish, uni mustamlakachilik zulmatidan olib chiqish bilan hamohang edi.

Buxoro jadidlarining ma’naviy ustozi Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo o‘z davrining eng yirik kutubxonachisi edi. Uning kutubxonasida "Avoriful-maorif" asarining bir necha qo‘lyozmalari mavjud bo‘lgan[3].

Sadr Ziyo tasavvufni an’anaviy qotib qolgan sxemalardan chiqarib, uni pedagogikaga yo‘naltirdi. U jadid maktablari uchun dasturlar tuzishda Suhravardiyning murid tarbiyasi borasidagi metodlarini zamonaviy o‘qituvchi-

o‘quvchi munosabatlariga moslashtirdi. Sadr Ziyo uchun Suhravardiylik — tartib-intizom, vaqtni qadrlash va yuksak akademik axloq namunasi edi.

Suhravardiylikning jadidlar tomonidan qabul qilingan eng muhim qirrasi — Futuvvat (Javonmardlik) g‘oyasidir. Abu Hafs Umar Suhravardiy futuvvatni tasavvufning ijtimoiy asosi deb bilgan[4].

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov ushbu g‘oyadan foydalanib:

Milliy birdamlik: Millatning har bir a’zosi boshqasiga javonmardlarcha yordam berishi, beva-bechoralar va talabalarga ko‘maklashishi kerakligi (xayriya jamiyatlari orqali);

Amaliy odob: Munavvarqori o‘zining "Adibi avval" darsligida "komil inson" obrazini chizar ekan, Suhravardiy tavsiya etgan axloqiy me’yorlarni bolalar psixologiyasiga moslab bayon etdi[5].

O‘rta Osiyo jadidlari Suhravardiylik ta’limotini "o‘lik" qoidalardan tozalab, uni millatni uyg‘otuvchi "tirik" kuchga aylantirdilar. Abu Hafs Umar Suhravardiyning "Avoriful-maorif" asari ular uchun shunchaki so‘fiylik kitobi emas, balki yangi avlodni tarbiyalashdagi ma’naviy-axloqiy nizom bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar isbotladilarki, haqiqiy islomiy tasavvuf taraqqiyotga to‘siq emas, balki insonni ma’naviy erkinlik va ijtimoiy faollikka undovchi buyuk falsafadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Suhravardiy, Abu Hafs Umar. Avoriful-maorif (Ma’rifatni anglaganlar). — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

2. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

3. Sadr Ziyo. Ruznoma (Kundaliklar). — Toshkent: Sharq, 2001

4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

5. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

6. Haqqulov, Ibrohim. Tasavvuf va she’riyat. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991.

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHIDA IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MADANIY HAYOT MASALALARINI O‘RGANISHNING TARIXIY ZARURATI VA METODOLOGIK MOHIYATI

Alimardonova Xurshidabanu Xushvakt qizi
BuxDPI,2- kurs magistratura talabasi

Jadidchilikning dastlabki g‘oyalari XIX asrning ikkinchi yarmida Qrimda yashab ijod qilgan Ismoil G‘aspirali nomi bilan chambarchas bog‘liq. U musulmon jamiyatining qoloqligini ilm-ma’rifatdan uzoqlashganlikda ko‘rib, “usuli jadid” — ya’ni yangi usulda ta’lim berish g‘oyasini ilgari surdi. G‘aspiralining “til birligi, fikr

birligi, ish birligi” shiori turkiy xalqlar orasida keng yoyilib, jadidchilik mafkurasining asosiy g‘oyaviy poydevoriga aylandi.[1]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy uyg‘onish jarayonining shakllanishiga zamin yaratdi. Aynan shu murakkab tarixiy sharoitda vujudga kelgan jadidchilik harakati jamiyatni isloh qilish, xalq ongini uyg‘otish va millatning taraqqiyot yo‘lini belgilashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidchilik faqatgina ma’rifiy harakat bo‘lib qolmay, balki siyosiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va madaniy yangilanish jarayonlarini o‘zida mujassam etgan murakkab tarixiy hodisa sifatida alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Mazkur harakatning vujudga kelish sabablari chuqur ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, mustamlakachilik sharoitida mahalliy aholi manfaatlarining cheklanishi, iqtisodiy qoloqlik, ta’lim tizimining zamon talablariga javob bermasligi kabi omillar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, an’anaviy jamiyatda hukmron bo‘lgan ijtimoiy turg‘unlik, diniy aqidaparastlik va ma’naviy inqiroz jadid ziyolilarini jamiyatni tubdan isloh qilish zarurati haqida chuqur mushohada yuritishga undadi. Demak, jadidchilik harakati tasodifiy emas, balki tarixiy zarurat mahsuli sifatida shakllangan.

Jadidchilikni o‘rganishda uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy asoslarini tahlil qilish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu harakatning mohiyatini faqat ta’lim islohoti yoki adabiy faoliyat doirasida baholash uning tarixiy ahamiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar – erkin fikrlash, milliy taraqqiyot, zamonaviy bilimlarni egallash, jamiyat hayotini demokratik tamoyillar asosida yangilash kabi masalalar o‘sha davr uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan va bugungi kun nuqtayi nazaridan ham ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shu nuqtayi nazardan, jadidchilik harakatining shakllanishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda ma’naviy-madaniy hayot omillarini tarixiylik tamoyili asosida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv jadidchilikni milliy uyg‘onish harakati sifatida to‘g‘ri baholash, uning tarixiy o‘rni va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xolisona tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur mavzuning metodologik mohiyatini ochib berish esa jadidchilikni o‘rganishda kompleks va tizimli ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar maydoniga aylandi. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlarda mustamlakachilik boshqaruvi o‘rnatilib, mahalliy aholi siyosiy huquqlardan mahrum etildi. Iqtisodiy resurslarning markazga yo‘naltirilishi, soliq yukining ortishi, ishlab chiqarishning xomashyo yo‘nalishida rivojlantirilishi jamiyatda chuqur norozilik kayfiyatini shakllantirdi. Ushbu sharoitda jamiyat taraqqiyotining eski shakllari zamon talablariga javob bermay qoldi.

Ijtimoiy tuzilmaning qat’iy tabaqalanishi, savodsizlik darajasining yuqoriligi va ilm-fanning rivojlanishdan chetda qolishi jamiyatning intellektual salohiyatini keskin pasaytirgan edi. Shu sababli yangicha tafakkur egalari bo‘lgan jadid ziyolilari mavjud tuzumni tanqidiy baholay boshladilar. Ular jamiyatni rivojlantirishning

asosiy yo‘li sifatida ma’rifat, bilim va zamonaviy tafakkurni ilgari surdilar. Bu holat jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy zarurat sifatida shakllanishiga olib keldi.

Jadidchilik harakatining markazida inson va uning ongini o‘zgartirish masalasi turar edi. Jadidlar jamiyatning qoloqligini avvalo ma’naviy tanazzul bilan bog‘ladilar. An’anaviy ta’lim tizimi – eski maktab va madrasalarning zamonaviy fanlardan uzilib qolganligi, ta’limda yodlash uslubining ustuvorligi yosh avlodni hayotga tayyorlay olmas edi. Shu bois jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etib, ta’lim mazmunini tubdan yangilashga intildilar.[2]

Bu jarayonda ta’lim faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyatni isloh qilishning strategik quroli sifatida qaraldi. Ona tilida savod chiqarish, tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish, dunyoviy bilimlarni diniy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish jadidchilik pedagogik qarashlarining asosini tashkil etdi. Bu yondashuv jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan edi.

Jadidchilik dastlab ma’rifiy harakat sifatida maydonga chiqqan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan unda siyosiy ong va ijtimoiy faollik kuchaydi. Jadid ziyolilari jamiyatdagi adolatsizliklar, mustamlakachilik siyosati, milliy huquqlarning poymol etilishi masalalarini ochiq muhokama qila boshladilar. Matbuot, teatr va adabiyot jadidlar uchun siyosiy fikrni tarqatishning muhim vositasiga aylandi.

Ayniqsa, milliy matbuotning rivojlanishi jadidchilik g‘oyalarining ommalashuvida muhim rol o‘ynadi. Gazeta va jurnallar orqali xalqni ijtimoiy voqelik haqida xabardor qilish, siyosiy ongni shakllantirish, erkinlik va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qilish amalga oshirildi. Bu jarayon jadidchilikni oddiy ma’rifiy oqimdan milliy uyg‘onish harakati darajasiga ko‘tardi.

Jadidchilik harakati madaniy hayotda ham tub burilish yasadi. Adabiyot, teatr, publitsistika va san’at orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi keng targ‘ib qilindi. Jadid adabiyoti an’anaviy shakllardan voz kechib, real hayot muammolarini aks ettirishga intildi. Asarlarda xalq taqdiri, jaholat va taraqqiyot o‘rtasidagi kurash, ilmning jamiyat hayotidagi o‘rni markaziy mavzuga aylandi.

Milliy til masalasi jadidlar uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Ona tilini rivojlantirish, uni ilm-fan va ta’lim tili darajasiga ko‘tarish millatning mustaqil taraqqiyoti uchun zarur shart sifatida baholandi. Bu yondashuv jadidchilikni madaniy modernizatsiya jarayonining muhim bosqichiga aylantirdi.

Jadidchilik harakati masalasi O‘zbekiston va xorij tarixshunosligida XX asr davomida turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etib kelinmoqda. Tadqiqotlarning dastlabki bosqichlarida jadidchilik ko‘proq ma’rifiy harakat sifatida baholangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida ushbu masalaga ijtimoiy-siyosiy va milliy uyg‘onish hodisasi sifatida kengroq yondashila boshlandi. Shuning uchun adabiyotlar tahlilida jadidchilik haqidagi qarashlarning evolyutsiyasini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakatini tizimli o‘rganishda muhim o‘rin tutadigan manbalardan biri — Turkistonda jadidchilik harakati (X. Ziyoyev) asaridir. Muallif jadidchilikni Turkiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy rivoji bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Asarda mustamlakachilik siyosatining mahalliy aholi ongiga ta’siri, jadid ziyolilarining shakllanishi va ularning jamiyatni isloh qilishga qaratilgan faoliyati tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Ushbu asarning ilmiy ahamiyati shundaki, muallif

jadidchilikni faqat ma’rifatparvarlik oqimi sifatida emas, balki ijtimoiy zarurat mahsuli sifatida asoslab beradi.[3]

Jadidchilik g‘oyalarining mafkuraviy asoslarini ochib berishda Milliy uyg‘onish va jadidchilik (N. Karimov) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda jadidchilik milliy tafakkur shakllanishi jarayonining muhim bosqichi sifatida talqin etiladi. Muallif jadidlarning ma’naviy qarashlari, madaniy islohotlarga bo‘lgan munosabati hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi rolini falsafiy va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Asarda jadidchilikning metodologik mohiyati chuqur ochib berilgan bo‘lib, bu tadqiqot mavzuni nazariy jihatdan boyitadi.

Jadidchilik namoyandalarining shaxsiy faoliyati va g‘oyaviy merosini o‘rganishda O‘zbek jadidlari (B. Qosimov) muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda jadid ziyolilarining adabiy, pedagogik va jamoatchilik faoliyati batafsil yoritilgan. Muallif jadidlarning jamiyatni isloh qilish borasidagi qarashlarini ularning asarlari va amaliy faoliyati orqali tahlil qiladi. Tadqiqotning afzalligi shundaki, u jadidchilikni abstrakt g‘oyalar yig‘indisi sifatida emas, balki real tarixiy shaxslar faoliyati orqali yoritadi.

Jadidchilik harakatining ma’rifiy va pedagogik jihatlarini tahlil etishda Jadid maktablari va ta’lim islohoti (A. Saidov) asari muhim o‘rin tutadi. Muallif yangi usul maktablarining tashkil etilishi, ularning o‘quv dasturlari va o‘qitish metodlarini tahlil qilib, jadidchilikning ta’lim sohasidagi islohotchi mohiyatini ochib beradi. Ushbu manba jadidchilikni jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan amaliy harakat sifatida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, jadidchilik harakatining ijtimoiy fikr va ommaviy ong shakllanishidagi rolini o‘rganishda Jadid matbuoti va ijtimoiy tafakkur (S. Mirvaliyev) asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda jadid gazetalarining jamiyatdagi muammolarni yoritishdagi o‘rni, siyosiy va madaniy qarashlarni ommalashtirishdagi ta’siri tahlil qilinadi. Muallif jadid matbuotini jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim institut sifatida baholaydi.[3]

Jadidchilik harakati masalasi turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, barcha manbalarni birlashtiruvchi umumiy jihat — jadidchilikning tarixiy zarurat sifatida vujudga kelganligi haqidagi qarashdir. Ayrim tadqiqotlarda ma’rifiy jihatlar ustuvor bo‘lsa, boshqalarida siyosiy va milliy uyg‘onish omillari kengroq yoritilgan. Bu holat jadidchilikning ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Jadidchilik harakatini ilmiy jihatdan o‘rganish murakkab metodologik yondashuvni talab etadi. Uni faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy jarayonlarning uzviy birligi sifatida tahlil qilish zarur. Tarixiylik va tizimlilik tamoyillari jadidchilik mohiyatini to‘liq ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, sivilizatsion yondashuv jadidchilikni Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘zaro ta’siri mahsuli sifatida baholash imkonini beradi. Jadidlar bir tomondan milliy qadriyatlarni asrashga intilgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan Yevropa ilm-fani va taraqqiyot tajribasini o‘zlashtirishga harakat qildilar. Bu holat jadidchilikning muvozanatli va pragmatik xarakterini ko‘rsatadi.

Jadidchilik harakati muayyan shaxslar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning intellektual merosi harakatning g‘oyaviy poydevorini tashkil etadi. Ismoil G‘aspirali umumturkiy jadidchilik g‘oyalarining shakllanishida muhim rol o‘ynab, “til birligi, fikr birligi, ish birligi” shiorini ilgari surdi. Turkistonda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi ziyolilar ta’lim, adabiyot va jamoatchilik faoliyati orqali jadidchilik g‘oyalarini keng yoydilar.

Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tez sur’atlarda rivojlandi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining siyosiy va iqtisodiy huquqlarini cheklab qo‘ydi, bu esa milliy ongning uyg‘onishiga turtki bo‘ldi. Ana shunday sharoitda jadid ziyolilari xalqni jaholatdan chiqarishning yagona yo‘li sifatida ta’lim va ma’rifatni ko‘rdilar.

Turkistonda jadidchilikning yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yozish va matbuot orqali jamiyatni uyg‘otishga katta hissa qo‘shdi. Behbudiy jadidchilikni faqat pedagogik islohot emas, balki millatni saqlab qolish va taraqqiyotga olib chiqish yo‘li sifatida baholadi.

Ularning faoliyati jamiyatni uyg‘otish, milliy tafakkurni shakllantirish va ijtimoiy islohotlarga tayyorlashga xizmat qildi. Bu jihat jadidchilikni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mahsuli sifatida baholash imkonini beradi.

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida burilish yasagan hodisa bo‘lib, u keyingi milliy ozodlik va mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim, madaniyat va siyosiy ongga oid qarashlar bugungi zamonaviy jamiyat qurilishida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shu sababli jadidchilik harakatini o‘rganish nafaqat tarixiy zarurat, balki hozirgi davr ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Uning metodologik mohiyatini anglash milliy tarixni xolis va chuqur idrok etishga xizmat qiladi.[4]

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlari tarixida ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy yangilanishning muhim bosqichini tashkil etadi. Ushbu harakatning vujudga kelishi tasodifiy jarayon bo‘lmay, balki mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan chuqur ijtimoiy inqiroz, siyosiy huquqsizlik, iqtisodiy qoloqlik hamda ma’naviy tanazzulning mantiqiy natijasi sifatida shakllandi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson ongini o‘zgartirish, ilm-ma’rifat va zamonaviy tafakkurni qaror toptirish zarurligini ilgari surdilar.

Jadidchilik harakati qisqa vaqt ichida jamiyat hayotida sezilarli o‘zgarishlar yasadi. Yangi maktablar tarmog‘i kengaydi, matbuot rivojlandi, adabiyot va san’atda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Eng muhimi, jamiyatda o‘z taqdiriga befarq bo‘lmagan, fikrlay oladigan shaxslar shakllandi.

Jadidchilikning tarixiy ahamiyati shundaki, u milliy ong va ma’naviy uyg‘onish jarayonining poydevorini yaratdi. Keyingi davrlarda yuzaga kelgan ijtimoiy va siyosiy harakatlar aynan jadidchilik merosiga tayandi.

Jadidchilik faqat ta’lim islohoti bilan cheklanmagan, balki u keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakat sifatida jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jadid ziyolilari ta’lim, matbuot, adabiyot, teatr va jamoatchilik faoliyati orqali

xalqning siyosiy ongini shakllantirishga, milliy o‘zlikni anglash jarayonini jadallashtirishga intildilar. Bu holat jadidchilikni milliy uyg‘onish harakati darajasiga ko‘tardi va uning tarixiy ahamiyatini yanada oshirdi.

Jadidchilik harakatining metodologik mohiyati uni tizimli va kompleks yondashuv asosida o‘rganishni taqozo etadi. Harakatni faqat tarixiy voqea sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy va sivilizatsion jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida tahlil qilish uning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib beradi. Tarixiylik, xolislik va qiyosiy tahlil tamoyillari jadidchilikni to‘g‘ri baholashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jadidchilikning g‘oyaviy yetakchilari tomonidan ilgari surilgan qarashlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilm-fanga intilish, tanqidiy fikrlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va jamiyatni taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirish kabi g‘oyalar zamonaviy rivojlanish konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi. Bu esa jadidchilik merosini faqat o‘tmish hodisasi sifatida emas, balki hozirgi va kelajak taraqqiyot uchun muhim ma’naviy resurs sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotdagi muammolarga javob sifatida yuzaga kelgan tarixiy zarurat bo‘lib, u milliy ong va tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Uning tarixiy tajribasi va metodologik mohiyatini chuqur o‘rganish milliy tarixni anglash, ma’naviy merosni qadrlash hamda zamonaviy jamiyatni barqaror rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati jamiyatning ichki ehtiyojlari natijasida yuzaga kelgan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. U ta’lim, madaniyat, siyosiy ong va ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan keng qamrovli harakat sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Jadidchilik tajribasi bugungi kunda ham ma’naviy taraqqiyot va jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. X. Ziyoyev. Turkistonda jadidchilik va ma’rifatparvarlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – 63–97-betlar.

2. B. Qosimov. O‘zbek jadidlari: g‘oyalar va faoliyat /– Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 212 b.

3. N. Karimov. Milliy uyg‘onish va jadidchilik mafkurasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 196 b.

4. S. Mirvaliyev. Jadid matbuoti va ijtimoiy fikr . – Toshkent: Sharq, 2015. – 168 c.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHIDA XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATNING TA'SIRI

Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich
BuxDPI, Harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl boshlig'i
Aminov Paxlovon Xamit o'g'li,
BuxDPI, magistranti

Jadidchilik harakati – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik va islohotchilik harakati bo'lib, u "usuli jadid", ya'ni "yangi usul" ta'lim tizimini joriy etish, milliy matbuotni rivojlantirish, jamiyatni zamonaviylashtirish g'yolarini ilgari surdi. Ushbu harakat o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki muayyan tarixiy sharoitlar va ijtimoiy-siyosiy omillarning ta'sirida shakllandi. Shu sababli, jadidchilikning genezisini tushunish uchun uning vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy muhitni chuqur tahlil qilish zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy merosni o'rganish masalalari O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari va farmoyishlarida jadidlar merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu maqola jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy ildizlarini aniqlash va ularning mintaqa tarixidagi o'rnini ko'rsatib berish maqsadida yozilgan.

1865-yilda Toshkent shahrining bosib olinishi va 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan mintaqada yangi siyosiy tuzum o'rnatildi. Mustamlaka ma'muriyati mahalliy aholining siyosiy huquqlarini chekladi, iqtisodiy resurslarni metropoliya manfaatlariga bo'ysindirishga harakat qildi va madaniy hayotga aralashdi [1].

Mustamlaka siyosatining muhim jihati shundan iborat ediki, Rossiya hukumati Turkistonda o'zining boshqaruv tizimini o'rnatar ekan, mahalliy an'analarga ham muayyan darajada rioya qilishga majbur edi. Biroq, bu siyosat natijasida Turkiston xalqlari siyosiy huquqlardan mahrum etildi. 1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" (Polojenie) mahalliy aholining siyosiy ishtirokini yanada cheklab qo'ydi [2]. Mustamlaka tuzumining salbiy oqibatlari ilg'or ziyolilarda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar zaruriyatini anglash jarayonini tezlashtirdi.

General-gubernator K.P. fon Kaufmanning "e'tiborsizlik siyosati" deb atalgan strategiyasi mahalliy diniy va ta'lim muassasalariga aralashmaslik tamoyiliga asoslangan edi. Biroq, amalda bu siyosat an'anaviy ta'lim tizimining rivojlanishini to'xtatib qo'ydi va yangi zamonaviy ta'lim muassasalari ochilishiga ham to'sqinlik qildi. Natijada, mahalliy ziyolilar o'z kuchlari bilan ta'lim islohatlari o'tkazish zaruratini his qila boshladilar [3].

Mustamlaka davrida Turkistonning iqtisodiy tuzilmasi tubdan o'zgartirildi. Rossiya imperiyasi mintaqani birinchi navbatda xom ashyo manbai sifatida ko'rdi. Ayniqsa, paxta yakkahokimligi siyosati mahalliy dehqonlarning ahvolini

og‘irlashtirdi. XIX asr oxiriga kelib, Turkiston yalpi ekin maydonlarining katta qismi paxtaga ajratilgan bo‘lib, bu holat oziq-ovqat tanqisligiga olib keldi [4].

Shu bilan birga, Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalarining kengayishi va temir yo‘llarning qurilishi (1888-yilda Kaspiyorti temir yo‘li) mintaqaga yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham olib keldi. Savdogar tabaqasi shakllanib, ularning bir qismi Rossiya va boshqa mamlakatlarga safar qilib, u yerdagi ijtimoiy hayot va ta’lim tizimi bilan tanishdi. Aynan savdogarlar orasidan chiqqan ziyolilar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi shaxslar keyinchalik jadidchilik harakatining yetakchilari bo‘ldilar [5].

Iqtisodiy tengsizlik va soliq yukining og‘irligi mahalliy aholida norozilik kayfiyatlarini kuchaytirib, ijtimoiy islohotlar zaruriyatini oshirdi. Jadid ziyolilari iqtisodiy mustaqillik va taraqqiyotga erishishning asosiy yo‘li sifatida ta’lim islohatlari va milliy ongni shakllantirish zaruratini tushundilar.

XIX asr oxirida Turkistondagi an’anaviy ta’lim tizimi – maktab va madrasalar – o‘z davrining talablariga javob bera olmay qolgan edi. An’anaviy ta’lim asosan diniy bilimlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan uzoq edi. Madrasalarda ta’lim olish 15–20 yil davom etar, biroq bitiruvchilar dunyoviy fanlar bo‘yicha yetarli bilimga ega emas edilar [6].

Mustamlaka hukumati tomonidan tashkil etilgan “rus-tuzem” maktablari ham mahalliy aholi orasida keng tarqalmadi, chunki bu maktablar assimilyatsiya vositasi sifatida qabul qilindi. Shu bilan birga, ba’zi ziyolilar Ismoil Gasprinskiyning (1851–1914) Baxchisaroydagi “usuli jadid” maktabidan ilhomlanib, Turkistonda ham shunga o‘xshash yangi usuldagi ta’lim muassasalarini ochish g‘oyasini ilgari surdilar. Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasi (1883-yildan boshlab) butun turkiy dunyoda, jumladan Turkistonda ham keng tarqaldi va jadidchilik g‘yolarining yoyilishida muhim rol o‘ynadi [7].

Birinchi usuli jadid maktablari Turkistonda 1901–1903-yillarda ochila boshlandi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Buxoroda Abdurauf Fitrat va boshqa ziyolilar yangi usuldagi maktablar tashkil etdilar. Bu maktablarda arab alifbosini tezkor o‘rgatish usuli, arifmetika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitildi [8].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ma’naviy-madaniy hayotda ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Mustamlaka sharoitida milliy qadriyatlar, til va madaniyatning saqlanishi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Jadid ziyolilari milliy matbuotni rivojlantirish orqali jamiyatda ma’rifat tarqatish va milliy ongni shakllantirish yo‘lini tanladilar [9].

1905–1907-yillar Rossiya inqilobi Turkistondagi siyosiy muhitni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Inqilob natijasida e‘lon qilingan matbuot erkinligi jadidlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi. 1906-yilda Toshkentda “Taraqqiy”, “Xurshid”, 1907-yilda “Shuhrat”, “Tujjor” kabi gazetalar nashr etila boshlandi. Behbudiy tomonidan 1913-yilda Samarqandda “Oyina” jurnali ta’sis etildi. Bu matbuot organlari orqali jadidlar o‘z g‘yolarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar [10].

Bundan tashqari, teatr san’ati ham jadidchilik harakatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, Behbudiyning “Padarkush” (1913), Hamza Hakimzoda Niyoziyning

“Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (1916) kabi asarlar milliy teatrning shakllanishiga asos soldi. Teatr orqali jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqdilar va xalqni ma’rifatga chaqirdilar [11].

Turkistondagi jadidchilik harakatiga nafaqat ichki, balki tashqi omillar ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Turkiya, Misr, Hindistondagi islohotchilik harakatlari, panislomizm va panturkizm g‘yolari, shuningdek, Yaponiyaning Rossiyani yengishi (1904–1905) Turkiston ziyolilari orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Yaponiyaning g‘alabasi “Yevropadan bo‘lmagan” davlatning ham zamonaviy texnologiya va ta’limga tayanib kuchli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi [12].

Turkistonlik bir qator yoshlar Turkiya, Germaniya va Rossiyaning yetakchi ta’lim muassasalarida tahsil oldilar. Ular chet eldagi ilg‘or tajribalarni o‘rganib, vatanga qaytgach, jadidchilik harakatiga faol qo‘shildilar. Abdurauf Fitratning Istanbulda olgan ta’limi va u yerda yozgan “Munozara” asari (1911) jadidchilik g‘yolarining nazariy jihatdan boyitilishida muhim ahamiyat kasb etdi [13].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishiga XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi bir qator ijtimoiy-siyosiy omillar bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Birinchidan, Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati mahalliy xalqlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini cheklab, ular orasida norozilik kayfiyatlarini kuchaytirdi. Ikkinchidan, an’anaviy ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob bera olmasligi yangi usuldagi ta’lim zaruriyatini yuzaga keltirdi. Uchinchidan, 1905–1907-yillar inqilobi natijasida yuzaga kelgan nisbiy siyosiy erkinlik jadidlarga o‘z g‘yolarini matbuot va jamoat tashkilotlari orqali yoyish imkoniyatini berdi.

To‘rtinchidan, tashqi omillar – turkiy dunyodagi islohotchilik harakatlari, Gasprinskiyning “usuli jadid” ta’lim tizimi va Yaponiyaning g‘alabasi kabi voqealar Turkiston ziyolilari ongida yangi dunyoqarashning shakllanishiga turtki berdi. Beshinchidan, savdogarlar tabaqasining shakllanishi va ularning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari jadidchilik g‘yolarining moddiy va intellektual asoslarini mustahkamladi.

Shunday qilib, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlikning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanishi lozim. Bu harakat o‘z davri uchun ilg‘or g‘yolarni ilgari surib, keyingi avlodlar uchun bebaho ma’naviy meros qoldirdi. Bugungi kunda jadidlar merosini chuqur o‘rganish milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘yolarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimov M. Turkiston mustamlaka davrida. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 45–78.

2. Rajabov Q. Turkistonda mustamlaka boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 112–140.

3. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkiston jadidchiligi. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 23–45.

4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajoviizi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 89–120.

5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 34–67.

6. Xo‘jayev A. Turkistonda ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B. 56–89.

7. Gasprinskiy I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – B. 15–40.

8. Xoliqov A. Turkistonda jadid maktablari tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 78–105.

9. Dolimov U. Jadidchilik va milliy matbuot. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 45–70.

10. Qosimov B. Turkiston matbuoti tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2003. – B. 34–60.

11. Rahimov Z. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: San’at, 2008. – B. 23–50.

12. Karimov N. Jadidchilik va tashqi dunyo. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 67–95.

13. Fitrat A. Munozara. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 10–45.

БУХОРО АМИРЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ТАРИХИДАН

Ҳазратқулов Камол Ишанкулович
ЧДПУ тарих кафедраси докторанти

Матбуотда Туркстон ўлкаси жадидларининг пайдо бўлиш сабаблари, уларнинг ёрқин вакиллари, маориф тўғрисида, уларнинг фикрлари ҳақида бир қатор мақолалар эълон қилинди. Ушбу мақола муаллифи XIX аср охири - XX асрбошларида Бухоро амирлигида пайдо бўлган жадидчилик ҳаракати тўғрисида маълумот беришга ҳаракат қилади. Мазкур мақолада муаллиф эътиборини Октябрь тўнтаришидан аввал нашр қилинган матбуот органларига қаратади.

Бухоро амирлигида жадидчилик ҳаракатининг пайдо бўлишига бош сабаблардан бири ўша даврдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳволдир. Бу даврда амирликка капиталистик муносабатлар элементлари кириб кела бошлади. Амирликнинг бошқа давлатлар билан, айниқса чор Россияси билан савдо алоқалари ўсди. Бу нарса Бухоро амирлиги ва чор Россияси ўртасида 1873 йил 18 сентябрда тузилган шартномага асосан, Бухоро амирлиги мустақкил ташқи алоқалар олиб бориш ҳуқуқидан маҳрум бўлгандан кейин яна кучайди. Бухоро амирлиги чоризмнинг хом ашё базасига айлантирилди. Россия империяси Бухоро амирлигидан арзон нархда пахта, қоракўл тери, жун гиламлар, қуруқ мевалар, пилла ва бошқа хом ашё маҳсуотларини сотиб олар эди. Агар Бухоро амирлигидан Россияга 1865 йилда 3306 минг сўмлик мол олиб кетилган, бу рақам 1900 йилда 23700 минг сўмни ташкил этди. 1913 йилга келиб Россияга олиб кетилган молларнинг нархи 31255 минг сўмга етди Россиядан эса асосан саноат моллари келтирилган,масалан керосин, қанд, идиш-тавоқлар, темирдан ясалган маҳсулотлар, галантерия маҳсулотлари каби

тайёр саноат молларидир, бундай моллар 1865 йилда 1913 мингсўмлик, 1900 йилда 23200 минг сўмлик, 1913 йилга келиб 35344 минг сўмлик мол олиб келинган. Шу билан бир қаторда амирлик Россия учун ўзининг тайёр маҳсулотларини сотишга бир бозор бўлиб хизмат қилар эди. Шундай қилиб Россия Императорлиги Бухоро амирлигининг яқин савдо шеригига айланди. Бу ҳақда 1887 йилдаёқ: "Бухоро амирлигида савдо айланмаларининг сони бўйича Россия биринчи ўринни эгаллайди",1 -деб ёзган эди генерал Галкин. Ҳақиқатан ҳам Бухоро бозорларини рус капиталистлари ўз қўлларига олганликларини бошқа бир манба ҳам тасдиқлайди. Бухородаги Рус Импкраторлик Сиёсий Агентлиги ахбороти:"Кейинги йилларда рус товарлар(Россияда ишлаб чиқарилган моллар)ининг ғарбий Европа товарларини Бухоро амирлиги бозорларидан сиқиб чиқариши тоборо кучаймоқда"2. Юқорида келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, аграр ва қолоқ мамалакат бўлган Бухоро амирлиги Россия империясининг хом ашё манбаи ва тайёр маҳсулотлар сотадиган бозорига айланган эди. Бухоро амирлиги ва Россия империяси ўртасидаги савдо алоқалари асосан рус зобитлари, россиялик даллол ва тижорат идоралари қўлида эди. Бу идораллар жумласига "Акционерлик жамияти " (Акционерное общество), "Гергард ва Гей жамияти" (Общество Гергард и Гей), «Кавказ ва Меркурий жамияти» (Общество Кавказ и Меркурий). Бу савдо ширкатлари Бухоро амирлиги билан бўлаётган савдо даромадининг жуда катта қисмини олар эди. Бухоролик тижоратчилар мазкур савдо жараёнларида иштирок этсалар ҳам жуда кам миқдорда фоиз олар эдилар, бу фоизлар бухоролик тижоратчиларни қониқтирмас эди. Бухоролик тижоратчилар бўлаётган бутун савдо жараёнини ўзлари назорат қилишни истар эдилар. Аммо бутун савдо жараёнини назорат қилиш учун уларнинг ўз капиталлари йўқлиги ва тўлов қобилиятларининг заифлигиимкон бермас эди. Сармоянинг йўқлиги ва тўлов қобилиятининг заифлигидан ташқари саводли, ҳисобдон кадрларнинг йўқлиги ҳам мустақкил савдо ишларини олиб боришга тўсқинлик қилар эди.

Бухоро амирлигига капиталистик муносабатлар элементларининг (унсурларининг) кириб келиши аҳоли ўртасида табақаланиншни кучайтирди. Миллий буржуазия унсурлари шакллана бошлади. Меҳнаткаш халқ икки тамонлама зулм остида эзилди: бир тамондан маҳаллий эксплуататорлар, иккинчи тамондан рус оккупантларининг зулми остида қолди, унинг турмуш даражаси пасайиб кетди. Бухоро амирлиги аҳолиси ўртасида норозилик кучайди. Бу норозиликлар баъзан стихиялихалқ қўзғолонлари билан ифодаланган бўлса, баъзан ислоҳат ўтқазиш билан аҳволни яхшилаш мумкин, деган фикрлар билан ифодаланди.

Бухороамирлигидаги тараққийпарвар кучлар ўзлари яшаб турган жамиятни зулм ва истибдод ботқоғидан маърифатга эришиш йўли билан қутқариш мумкин деб ўйлар эдилар. Амирликда шаклланаётгани миллий буржуазия унсур(злемент)лари саводли, билимдон, ҳисобдон жамият аъзоларини талаб қилар эди. Шунинг учун тараққийпарвар кучлар эътиборларини маорифни ислоҳат қилишга қаратдилар. Бу тараққийпарвар кучлар тарихга "жадид"лар номи билан кирди(арабча-жадид-янги Ҳ.К.).

Жадидларнинг ҳаммаси ҳам бир хил платформада бўлмаган. Уларнинг баъзи масалаларга қарашлари ҳар хил бўлса ҳам, лекин уларнинг ҳаракатларини умумлаштирувчи битта белги - маърифатга интилиш бор эди.

Бухоро жадидчилиги ҳақида гапирганда унинг Туркистон ўлкаси жадидчилигидан фарқ қилишини айтиб ўтиш керак.Туркистон ўлкаси ва Бухоро амирлигининг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ҳаётидаги фарқ Туркистон жадидчилиги ва Бухоро амирлиги жадидчилиги ўртасидаги фарқни белгилаб берди. Туркистонда жадидчилик легал йўл билан ривожланди. Бухоро амирлигида янги усулдаги мактаблар, мактаабларга дунёвий фанларни киритиш учун кураш билан бошланган жадидчилик кейинчалик солиқларни камайтириш, солиқ олишни тартибга солиш ва бошқа талаблар билан майдонга чиқди.

Лекин ҳали Бухоро амирлигида реакцион муллаларнинг, дин пешволарининг аҳолига таъсири жуда кучли эди. Ўрта аср тартиблари ҳукм сурган амирликда ҳали феодал муносабатлар емрилгани йўқ эди. Агар Туркистонда 1905 йилдан нашр қилинишни бошланган бир қатор жадид газеталари (“Хуршид”, “Самарқанд”, “Тужжор”, “Тараққий”) янги усул мактабларини очиқдан-очиқ тарғиб қилган бўлса, 1912 йилга келиб Янги Бухоро (ҳозирги Когон)да чиқа бошлаган “Бухорои Шариф” ва “Турон” газеталари “жадид” сўзини эҳтиёткорлик билан тилга олади. Бу билан муаллиф Туркистон ва Бухоро жадидлари алоҳида-алоҳида фаолият юритди демоқчи эмас, асло. Маърифатпарварлар жадидчилик пайдо бўлган даврдаёқ Туркистон ўлкаси ва Бухоро амирлиги жадидлари ҳаракатларини бирлаштиришга уринишган. Бу борада Туркистон жадидлари йўлбошчиси бўлган Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг хизматларини ёдга олмасдан бўлмайди. Беҳбудий тўғрисида Файзулла Хўжаев бундай деб ёзган эди: “Бу тўғрида М.Беҳбудийни тилга олмасдан ўтиш мумкин эмас. Сиёсий-ижтимоий ҳам ҳар хил маълумот жиҳатидан ўшал вақтдаги Туркистон жадидларидан ҳеч ким унинг билан тенг бўла олмаса керак” 3. Ҳатто Бухоро амири Беҳбудийни ўзининг шахсий душмани деб ҳисоблаган.

Бухоро амирлиги жадидлари 1909 йил октябрь ойида янги усулда таълим берувчи мактаб ўқувчи-шогирдларининг билимини текшириш учун уларни халқ олдида имтиҳон қилиш ҳақида эълон бердилар. Яъни мазкур мактаб ўқувчи-шогирдларини бутун Бухоро халқи олдида имтиҳон қилмоқчи бўлишди. Имтиҳон Мирзо Абдулвоҳиднинг уйида очилган мактабда бўладиган бўлди. Мазкур мактабнинг очилишида, дарсликлар топиш, болаларни ўқитиш жараёнида ёзувчи Садриддин Айнийнинг хизматлари катта бўлган.

Абдулвоҳид Мунзимнинг шогирдлари имтиҳонни аъло даражада топширадилар. Мактабда ўрнатилган тартиб-қоидалардан, шогирдларнинг билимидан имтиҳон қатнашчилари мамнун бўладилар. Имтҳонда иштирок этган маърифатли бойлар мактаб шароитини яхшилаш ҳақида фикр билдирадилар. Туркистон ўлкасида ва Бухоро амирлигида машҳур бўлган Домла Икромча4 ҳам мактабдорларни, унинг шогирдларини бу рўй берган улуғ воқеа билан табриклайди. Имтиҳондан кейин баҳс бошланади. Дола

Икромча бошлиқ бир гуруҳ янги усулмактабларининг шакли ҳам, дарс бериш усули ҳам ҳеч бир ҳукуматга ва динга қарши эмаслигини ва мазкур мактаблар халқ маорифига ва мамалакат тараққиётига хизмат қилишини билдиради. Шунинг учун ҳам халқ маорифида , олий мадрасаларда ҳам ислоҳат ўтказиш мумкинлигини айтади.

Мулла Абдураззоқ бошлиқ иккинчи гуруҳ янги усул мактабларига қарши чиқишади.Улар янги усул мактабларида дарс олиб бориш услуби русча деб, янги усул мактабларида ислом ақидаларига зид бўлган фанлар ўқитилишини айтишади5. Бу баҳсда қадимчилар енгиб чиқишади ва мазкур баҳс янги усул мактабларининг ёпилишига сабаб бўлади.

Шу воқеалардан кейин бухоролик жадидлар янги усул мактабларини махфий равишда тарғиб қилишга ўтдилар. Шу билан бир қаторда янги усул мактаблари ўз фаолиятларини яширин давом эттирадилар. Чунки бухоролик жадидлар ўзларининг бошланғич фаолиятларида жамиятни қолоқликдан қутқаришнинг ягона йўли халқ маорифида ислоҳат ўтказиш, шу йўл билан халқнинг кўзини очиб, тараққиётга эришиш мумкин, деб ўйлар эдилар. Уларнинг иқтисодий ва сиёсий талаблари кейинроқ пайдо бўлди.

Ҳар бир янги ишнинг бошланган пайтида камчиликлари жуда кўп бўлади. Иш жарёнида камчиликлар яққол кўринади. Иш бошлаганлар сабр-қаноат билаан ишни давом эттириб боришса, кўзлаган мақсадларига эришадилар. Янги усул мактаблари ҳам худди шу жараённи бошларидан ўтқазишган. Жадид мактаблари очилган пайтда дарсликлар йўқ, дарс ўтиш методикаси ишлаб чиқилмаган эди. Шунинг учун ҳам ўша пайтда очилган жадид мактабларида ўқитиш услуби ҳар хил мактабларда ҳар хил бўлган.

Бу нарсааларни биз 1913 йилда Пўлатхўжа Усмонхўжаевнинг ва мулла Вафонинг мактабларида кўрамиз 6. Усмонхўжаевнинг мактаби асосан тез савод чиқариш ва арифметика ўргатишдан иборат эди. Албатта ҳамма мактабларда Хафтияк(Қуръони-Каримнинг еттидан бир қисми) ўқитилган 1914 йилга келиб Усмонхўжаев мактабида 200 га яқин бола таълим олган эди Мулла Вафо мактабида асосан рус тилига эътибор берилар эди. Чунки рус тилини билишга бухоролик тижоратчилар орасида қизиқиш кучли бўлган. Мулла Вафо мактабида рус тили Граманицкийнинг дарслиги асосида ўргатилган.8. Бухорода янги усулда таълим берадиган мактаблар кўп бўлган. Улардан яна бири Ғиёс Махдум Хусни очган жадид мактабидир Аслида Ғиёс Махдум Хусни ўзбек тилида нашр этиладиган “Турон” газетасига муҳаррирлик қилиши учун махсус Самарқанддан Бухорога чақиртирилган. Ғиёс Махдум Хусни мактабида ўқитиш ишлари анча яхши йўлга қўйилган бўлиб, бунинг сабаби унинг Самақандда ҳам муаллимлик билан шуғилланганлигидадир. Унинг мактабида 50 га яқин шогирд таълим олган9.

Қадимчилар (эски усул мактаблари тарафдорлари) мактаблари тарафдорларига келсак, уларнинг асосий мақсади ёш авлодни феодализмнинг содиқ хизматкорлари қилиб етиштиришдан иборат эди. Эски мактабларнинг бу мақсади ва вазифаси ўз-ўзидан ёки айрим кишилар тамонидан белгиланмасдан, балки феодал-патриалхал жамиятнинг обьектив иқтисодий талабидан келиб чиқади. Оддий асбоблар билан ишланадиган қишлоқ

хўжалигига асосланган феодал-патриалхал тузумнинг иқтисоди маълумотли кишиларни талаб қилмас эди. Жамиятнинг ҳукмрон синфи мактаб олдига феодализм ва феодаллар ҳукмронлигини мустаҳкамлашга имкон берадиган мақсадни қўяр эди.

Эски усул мактабларида болаларнинг ёш хусусияти ва билим даражаси ҳисобга олинмай, турли ёшдаги ва турли билимдаги болалар бир жойда ўқитилар эди. Мазкур мактабларда шогирдларнинг доимий ва қатъий состави, болаларни ўқишга қабул қилишнинг маълум бир тартиби бўлмаган. Шогирдлар йилнинг турли вақтларида ўқишга қабул қилинаверган. Шогирдларнинг исталган пайтда ўқишга қабул қилиниши уларнинг билим даражаси ноаниқликка олиб келган. Шогирдлар синфдан-синфга кўчмас, уларнинг билим даражаси ўқиб тамомланган китоб билан белгиланар эди.

Эски усул мактабларида дарс жадвали ва машғулотларнинг аниқ соати бўлмаган, шогирдлар кун бўйи шуғилланиб фақат овқат маҳали танаффус қилишар эди..

Эски усул мактабларида ўқиш ва ёзиш алоҳида-алоҳида муддатларда ўргатилган. Шогирдлар айрим китобларни ўқиб тугатганларидан кейин ёзишни ўргана бошлар эдилар. Аниқ бир прогамманининг йўқлиги ҳар бир мактабда ҳар хил дарс олиб борилишига сабаб бўларэди. Мана шу қийинчиликни бартараф этиш учун , янги очилган бошловчи мактабдорларга ёрдам тариқасида “Турон” газетаси дарс беришнинг уч хил услубини таклиф қилади :”Ҳозирги кунда савод учун машҳур уч йўл бордур. Энди қайси йўл бизни тезроқ мақсадга еткуратурғон бўлса, шу йўлни ихтиёр қилмоқ керак.

...юқоридаги мазкур уч усулнинг бири - усули “таҳжи”дурки, “ҳижо”10 деб ҳам айтулур. Бу тартиб бирла ўқилғонда, аввло бир болаға алифбо тартибича ҳарфларнинг исмлари ёдлатилур. Ҳатто бош,ўрта ва охир ҳарфларнинг мушаккили(араб-шакли-Ҳ.К.) билдурилур. Сўнгра ҳарфларнинг ҳаракати танитилур.

Иккинчи усул ҳарфларнинг исмларини ёдлатмасдан хуруфи сомит11ларни хуруфи савтияларга қўшиб модияча ўқитувдурки, бу усул моддия13 деб аталур

учинчи усул аввало бир калима зикр қилинур. Сўнгра мазкур калимада неча товуш борлиғи билдирулур. Сўнгра ул товушларни зикр қилинғон калимадағи ҳарфлар ўзаро таҳлил қилинур ва қайси товуш қайси ҳарфдан чиққанлиғи тушунтирилур. Бу тартибғаусули савтия деюлур. Шунда мухлис 3000 турли суратларни биливуға ҳожат йўқдур. Фақат 33 турли ҳарфларнигина ёд олув керакдур14”. Юқорида кўриб чиққанимиздек, савтия усули энг осон ва эффектли усул бўлган. Шунинг учун ҳам мазкур усул Россия мусулмонлари ўртасида ҳам Туркистон ўлкасида ҳам Бухоро амирлиги мактабларида ҳам кенг тарқалган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва изоҳлар

1. А.Галкин «Краткий очерк Бухарского ханства» Турк.Сбор. 611том, стр, 102-103, 1887г.

2 Ўзб. Миллий Архиви., ф.И-3, 3 иш, 11 варақ.

3.Ф.Хўжаев, “Бухоро инқилобининг тарихига доир”, Ўздавнашр, Самарқанд-Тошкент, 1926й, 19 бет.

4.Икромча Бухоро амири фармонларига диний фатво чиқарувчи оқмуҳралик 12 муллалардан бири, мазкур муллалар муҳр босгандан кейин амир фармони кучга кирган, маърифатпарвар, у ўзининг 2 та ўғлини Абдулҳамид Мунзимнинг янги усулда очилган мактабига берган.

5. Ф.Ходжаев “К истории революции в Бухаре”, Т.,-С. 1926 г., 91стр.

6.И.И.Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре. Стр 91.

7.И.И. Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре.стр 92.

8.И.И.Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре. Стр. 93

9.И.И. Умняков «К истории ноаометодной школы в Бухаре,. стр 88.

10. Таҳжи, ҳижо(араб-ҳарфлаб, ҳижжалаб ўқиш).

11. Хуруфи сомит (араб -ундош ҳарфлар)

12. Хуруфи савтия(араб-унли ҳарфлар)

13. Хуруфи моддия (араб-узун унлиларни ифодаловчи ҳарфлар

14. Усули савтия(араб-товуш усули)

CHOR ROSSIYASI DAVRIDA TURKISTONDA TA’LIM SIYOSATI VA JADIDCHILIK

Azimova Kamola Karimovna
BuxDU tayanch doktoranti

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida mustamlaka Turkistonda har qanday og‘ir muhit sharoitida bo‘lsada ijtimoiy fan sohasida va badiiy ijodda qalam tebratgan, o‘z xalqining dardu-hasrati bilan kuyib yongan va uning kelajak istiqboliga so‘zsiz ishongan dono mutafakkir va yozuvchi shoirlar bo‘ladi. Bu davrda tarix, badiiy ijod bobida asarlar yozgan adiblarning aksariyati mahalliy boylar, amaldor to‘ralarning o‘tkazgan zulmkorlik siyosatlaridan to‘yib ado bo‘lgan va Turkistonni o‘z mustamlakasiga aylantirgan chor ma’murlaridan umid va najot kutgan xalq ommasining intilishlari, ezgu niyatlarini tarannum etdi. Ammo ular intilgan narsa quruq, amalga oshmaydigan orzu sarob edi. Shunday bo‘ldi ham, xalq orasidan yetishib chiqqan ijodkor farzandlar tez orada buni tushunib yeta boshlaydilar, hayot maktabi tobora ularning ko‘zini moshdek ocha boradi.

Chor Rossiyasi bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o‘choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun o‘sha maktab va madrasalarning g‘oyatda havfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu bois chorizm o‘lkada ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlab, bu soha bo‘yicha o‘z dasturini ishlab chiqadi. O‘sha ustamon pixini yorgan siyosatchi K.P.Kaufman bu sohada ayniqsa, jon kuydirib faoliyat ko‘rsatgandi.

1880-yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o‘qitish masalasi ko‘rilganda Turkiston aholisining “savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati” ta’kidlanib,

ularning “imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari” qayd qilinadi.

Davlat Kengashining bu qarori Kaufman tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Kaufman “ruslar va tuzemeslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash” masalasini ko‘taradi. U musulmon va rus maktablarining ajralib turishi” iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisoblaydi. Uning bu g‘oyasini keyingi general-gubernatorlar davom ettiradilar. 1884-yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochiladi, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketadi[2.].

Chor Rossiyasi ma’murlarining Turkiston o‘lkasida yerli xalq vakillarini qorong‘ulik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo‘rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida o‘lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to‘xtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham Sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura ta’siri ostida manqurtlik va qullarcha tobelik dunyoqarashida shakllangan mahalliy olimlar o‘z asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni ko‘pirtirib maqtadilar. Rossiya bosqiniga qadar o‘lkadagi bu sohadagi ahvolni kamsitib yerga urdilar.

Ular 1897-yil o‘lkada savodli o‘zbeklar-1,6 foizni, qozoqlar-1 foizni, turkmanlar-0,7, qirg‘izlar-0,6 foizni tashkil etgan, aholining savodxonligi shundan keyingi yillarda ham oshmagan, O‘zbekistonda har 100 kishining 98 tasi savodsiz edi, deb keldilar. «O‘rta Osiyo xalqlari inqilobgacha deyarli yoppasiga savodsiz edi. 1897-yili o‘zbeklarning atigi 1,9 foizi o‘qish va imzo chekishni bilardi. 1897-yilgi Butunrossiya aholi ro‘yxatiga ko‘ra savodlilar o‘lkada 1,8 foizni tashkil etgan, ya’ni inqilobgacha Turkiston deyarli yoppa savodsiz o‘lka edi». «O‘zbek xalqi deyarli yalpi savodsiz edi. Savodlilar 1,5-2 prosentdan oshmasdi» kabi fikrlarni yozdilar, targ‘ib qiladilar[3.].

Hatto ayrim olimlar vatanga, o‘z xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchi Rossiya hukmdorlari tomoniga o‘tgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda o‘z uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb, osmonga ko‘tarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar-tarjimonlar tayyorlashga mo‘ljallab tashkil etilgan edi.

Ammo sovet davrida bu kabi da’volarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham e’lon qilinadi. Tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim o‘zining «Uydirma va haqiqat» maqolasida o‘zimizdan chiqqan «olimlar»ga qonuniy savol bilan murojaat qiladi:

Xo‘sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining faxru iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go‘ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko‘plab asori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yo‘l bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulug‘bek, Forobiy, Jomiy va boshqa ko‘plab shoiru fozillari bilan olamga dong taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma’rifatparvarlari bo‘lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

P.G.Kim bu kabi mantiqsiz va kurakda turmaydigan da’volarni inkor etib bo‘lmaydigan dalillarni bilan o‘z maqolasida fosh etdi. U bunday yozadi:

«Endi manbalarda keltirilgan faktlarga asoslanib, 1897-yili Rossiya, Belorussiya va Turkistonda maktablarning, ulardagi o‘quvchilarning sonlarini kuzatsak, bu o‘lkalardagi savodxonlikning darajasi oydinlashadi.

Rossiyada aholining umumiy soni-126,388,800, maktablar soni-33,401, o‘quvchi soni-2.318.100-aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar-1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi-21 foiz; Belorussiyada aholining umumiy soni-6.492.857-maktablar soni-2.263, o‘quvchilar soni-125.418, aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar-1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi-24,7 foiz;Turkistonda aholining umumiy soni-3.792.774, maktablar soni-6.027, o‘quvchilar soni-64015, aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar-1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi-19,55 foiz bo‘lgan»[1.].

Axir mustamlaka Turkistonidagi juda ko‘p eski maktablarda oliy ta’lim beradigan o‘quv yurtlarida ajdodlarimiz farzandlari ta’lim olganliklari, madrasalarda mudarrislar, mahallalarda savodxon ayollar otinoyilik qilib, shariat (fiqx) qonunchiligidan ta’lim-tarbiya berganlari, o‘sha o‘quv muassasalarida ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘qib, zamonasining savodli kishilari bo‘lib yetishganini unutmaslik kerak. XX asr boshlarida butun o‘lka bo‘yicha jadid maktablarining necha tarmog‘i yuzaga kelganini ham e’tibordan chiqarmaslik lozim.

Ehtimol, shu boisdan mashhur rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.D.Middendorf, sayyoh olim A.L.Fedchenko, sharqshunoslardan V.P.Nalivkin, A.L.Kun va boshqalar o‘lkadagi maorif taraqqiyotiga yuqori baho berganlar, xalqimizning madaniyatiga xayron qolganlar va uni olqishlaganlar. Tarixchi olim Haydarbek Bobobekov «O‘tmishda o‘zbeklar savodsizmishlar» maqolasida bu haqda quyidagi dalillarni keltiradi:

«A.Middendorfning 1882-yilda chop etilgan «Ocherki Ferganskoy dolini» kitobida shunday satrlarni o‘qiymiz: «Farg‘ona viloyatida qadimdan o‘troq holda yashashni sevgan mehnatkash qabilalar istiqomat qilishadi, Albatta, o‘ziga xos betakror sharoiti bo‘lgan Farg‘ona yuksak madaniyatli mamlakatlar cho‘qqisiga ko‘tarildi». A.Middendorfning so‘ziga qaraganda XIX asrga yevropaliklar yer xo‘jaligi ravnaqiga harakat qilib maqsadlariga erisholmayotgan bir paytda Farg‘ona vodiysida bu muammo ancha burun hal bo‘lgan, u joylarda dalalar sug‘orilar, yaylovlar esa o‘g‘itlantirilarkan»[3.].

Olim o‘z fikrini davom ettirib yozadi: «Farg‘onada qilingan ishlarga havas qildik, bu yerdagi zaminga nisbatan yuksak madaniyat boshqa yerlarga qaraganda ko‘proq saqlanib qolganligini ko‘rdik. Bir qancha yerlarni ko‘zdan kechirib shu xulosaga keldikki, Farg‘onada yer xo‘jaligini ehtiyotkorona va mohirona olib borishar ekan. Bu esa hayratda qoldiradigan haqiqiy madaniy mehnat eng katta zanjirining bir qismi ekaniga ishonch hosil qildik».

«Golos» gazetasi 1874-yil 29-avgust sonida suv xo‘jaligi masalasi haqida bunday yozadi: «. . .amalda ko‘pincha tuzemeslardan (ya’ni mahalliy aholidan-mualliflar) ko‘p narsani o‘rganishga to‘g‘ri kelmoqda. Shunday qilib, irrigatsiya haqida bizda (ya’ni Rossiya-mualliflar) oxirgi vaqtgacha o‘ylanmagan edi. Osiyoda esa bu soha yuksak darajada rivojlangan va, albatta, dalalarni sun’iy sug‘orish bo‘yicha biz O‘rta Osiyoliklarga hech narsa o‘rgata olmaymiz. Bizda Janubiy Rossiyada irrigatsiya borasida tortishuvlar davom etayotgan bir davrda Osiyoliklar

tog‘larda korizlar orqali kanallar qurishmoqda. Uning tubidan o‘nlab sajen yuqori suvlarni chiqarishmoqda, bir qoyadan ikkinchi qoyaga arg‘amchi tortib tarnov yordamida suv olishmoqda, bular esa bizdagi donishmandlarning tushiga ham kirmagan»[4.].

Rus olimlari, sayyohlari, savdogarlari Qo‘qon xonligidagina emas, balki o‘lkaning boshqa joylarida ham sun’iy sug‘orish usulini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib yuksak baho berdilar. Masalan, N.Ulyanov yozgan edi: «Bu mahalliy Leonardo da Vinchilar ijodida bir bosh emas, balki bir necha avlodlarning tajribali aqlini ko‘rdim».

Turkiston xalqlari madaniyati haqida Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskiyning podshoga sadoqatini izhor etib-yozgan dokladida (1899-yil) qiziqarli fikrlar bor. Jumladan, u shunday yozadi: «Uzoq vaqtlar mobaynida Buxoro butun musulmonlar (sunniylar) olamida musulmon xuquqshunosligi va ilmining mo‘tabar markazi sifatida tan olib kelingan, boz ustiga bu obro‘-e’tiborni hanuz yo‘qotmay kelayotir[4.].

Bir vaqtlar o‘rtaosiyoliklar ruhoniylar, qonunshunosu arab tili bilimdonlari faoliyatining ahamiyati naqadar ulug‘ bo‘lganini bugungi kunda butun dunyodagi musulmon-sunniylar qo‘llayotgan mashhur va mo‘tabar shariat majmualarining ayrimlari O‘rta Osiyoda bitilganini eslashning o‘zigina kifoya. «Hidoya-i-Sharif» Marg‘ilonda, «Aqoid» Buxoroda, «Hikmat-ul-Ayn» Samarqandda yaratildi. Musulmon olamiga shariatning so‘nggi talqinini O‘rta Osiyo taqdim etdi. Bulardan tashqari, bu o‘lka olamga Navoiy, So‘fi Olloyor, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi shoir-so‘fiylarni berdi».

Xullas, Turkistonda Rossiya bosqiniga qadar aholining savodxonlik va madaniyati darajasi ba’zi kimsalar ta’kidlagani singari qoloq bo‘lmagan. To‘g‘ri, hozirgi davrga nisbatan oladigan bo‘lsak, savodsizlar Turkiston o‘lkasida XIX asrda ko‘p bo‘lgan. Ammo o‘tgan o‘sha XIX asrda qaysi mamlakatda ahvol bundan ko‘ra yaxshiroq edi? Shuning uchun xalqimizning o‘tmish tarixini nodonlarcha qora bo‘yoqlarda yoritishga istiqlol tufayli barham berilmoqda[4.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kim P.G. Uydirma va haqiqat. «O‘zbekiston adabiyoti va san`ati», 1989, 20 oktyabr
2. Туркистон чор Россияси мустамлакаси даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar H.Sodiqov, R.Shamsutdinoc, P.Ravshanov,Q.Usmonov, “Sharq”, -T.: 2000.
4. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. Andijon, 1995.

TURKISTON JADIDLARINING BAG‘RIKENGLIK BORASIDAGI QARASHLARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

O‘razov Bobir Baxtiyorovich
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti(phd)
Olimov Sardor Ilhom o‘g‘li
BDPI 4-bosqich talabasi

Mamlakatimizda ma’naviy jihatdan barkamol, ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom, vatanparvar, fidoyi insonni tarbiyalash, yangi avlodni voyaga yetkazish vazifalarini amalga oshirish zaruratining oshishi uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri bo’lib kelmoqda. E’tirof etish lozimki, ma’rifat- ilm olishni,shu bilan birga xalqning ongu-shuurini o‘zgartirishni, dunyoqarashni o‘stirishini, jamiyat rivojidagi eng muhim vositalardan biri deb hisoblashgan. Millatning millat sifatida tanilishi esa shu millat tilida yaratilgan adabiyot, adabiy asarlarga ham bog‘liq ekanini alohida ta’kidlab o‘tsak bo’ladi. Shu o’rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5598-son Farmoyishining e’lon qilinishi ham bejizga emas. Bu bilan jadidlardan bizga meros bo‘lib qolgan noyob asarlarni o‘rganib, ilm-ma’rifatli jamiyatni yuksaltirishda ularning tajribasiga tayanish va g‘oyalarini bugungi kunga tatbiq qilishdan iboratdir. Masalan o’sha davrga nazar soladigan bo’lsak, adabiyot mazmunan ham, shaklan ham yangilangan, deb ikkilanmay ayta olishimiz mumkin.Abdulla Qodiriy zamonaviy o‘zbek romanchiligiga asos solib, o‘zbek adabiyotida katta burilish yasagan bo’lsa,teatr dramasiga asos solgan adib sifatida esa Mahmudxo‘ja Behbudiyni bilamiz. Shunday ijodkorlar safida yana Cho‘lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir, Abdulla Avloniy, Otajon Xoshim, Munavvar Qori, Rafiq Mo‘min, Elbek kabilarni sanab o‘tishim mumkin.Jadidlarimizni g’oyalariga nazar solsak,ular boy tarixiy meros sohiblari hisoblanishadi.Masalan, jadidlar harakatining yirik namoyondasi, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo’ja Behbudiy (1879-1919) bo‘lib, u fikrlari teranligi, siyosiy ongining yuksakligi bilan jadidlar orasida ajralib turardi.Turkistonda M.Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati tarixini o‘rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san’atiga tamal toshini qo‘yganini o‘ylasak, ularning bu faoliyatlarini jasorat deb baholash lozim. Ammo masalaning boshqa tomoni shundaki, bu tarixiy haqiqat uzoq davrlar mobaynida tan olinmay keldi. Buning sababi ularning olib borgan harakatlari,g’oyalari Chor Rossiyasi tomonidan qoralanib, xalq ongiga noto’g’ri singdirildi.Biroq shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki jadidlar o‘z maqolalari va asrlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzini ayrim tomonlarini isloh qilish zarurligini uqtirish bilan birga yoshlar diqqatini musulmonlarning o‘tmish madaniyatiga, ilm-fan sohasida erishgan shuhratlariga, diniy va xulqiy poklik masalalariga jalb qilganlar, bu o‘tmishni mavjud ahvolga taqqoslab ko‘rsatishga harakat qilganlar. M.Behbudiy shunday yozgan edi:” “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib –

taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. “Muborizai hayot” maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lib, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur. Ana ushbu yo‘llar ila oxiri mahv va nobud bo‘lub ketur”’[90].

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan, jamiyatda jadid ma’rifatparvarlari faoliyatini o‘rganishga ishtiyoq paydo bo‘lganidan so‘nggina bu harakat keng ko‘lamda o‘rganila boshlandi.Shu narsa quvonarliki, Turkistondagi jadid ma’rifatparvarlik harakatini o‘rganishdek qutlug‘ ishga Yevropa va Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi olimlar ham zavq bilan kirishdilar.Hozir jadid ma’rifatparvarlik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o‘rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko‘tarildi. O‘zbek olimlari jadid ma’rifatparvarlik harakatining turli tomonlarini o‘rganishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Qariyb barcha jadid yozuvchilarining asarlari nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar maydonga keldi. Fikrimiz dalili sifatida bugungi kunda shaxsan,O’z.Res.Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” g’oyasi ilgari surilib kelinmoqda va bu borada mamlakatimizda keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki,Turkiston jadidlari jamiyat hayotini isloh etish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, insonlar uchun yetarli turmush darajasini ta’minlash to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surganlar. Ma’rifatparvarlarning fikricha, davlat-huquqiy institutlar jamiyat manfaatiga xizmat qilishi, umumfarovonligini ta’minlashi, fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi, huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidan borishi uchun shart-sharoit yaratishi lozimligini ta’kiblab o’tishgan. Bugungi kunda jadidlarning hayot faoliyatini chuqur o‘rganib, ularning boy merosini asrab-avaylash va ulardan ilm ma’rifat yo’lida to’g’ri foydalanib, kelgusi avlodlarga munosib yetkazishda biz yoshlar barchamiz birdek bel bog’lashimiz zarur va shartdir.

YANGI O’ZBEKISTONDA OILA MUNOSABATLARI

Temirova Nargiza Turobovna
BuxDPI, Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
1-bosqich talabasi

Yangi O’zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning markazida inson, uning huquq va manfaatlari turadi. Insonning eng birlamchi, tabiiy va muqaddas maskani - bu oila. Oila-jamiyatning eng qadimiy va eng muhim ijtimoiy institutidir. U nikoh

[90] “Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari”.“Toshkent islom universiteti” nashriyot, Toshkent-2016.

va qarindoshlik munosabatlariga asoslaslangan kichik ijtimoiy guruh bo'lib, insonning dunyoga kelishi, kamol topishi, shaxs sifatida shakllanishida asosiy muhit vazifasini bajaradi. Oila inson kamolotining, ma'naviy poklanishning eng muhim maskani hisoblanadi. Shuningdek, oila nafaqat biologik ehtiyojlarni qondiruvchi birlik, balki tarbiya, ijtimoiylashuv, iqtisodiy hamkorlik va ma'naviy qo'llab-quvvarlash Markazi hisoblanadi. Shu bois har bir jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi, avvalo, oilaning mustahkamligi va sog'lom muhitiga bevosita bog'liqdir. Oilaning vujudga kelishi uchun nikoh birdan bir asosdir. Nikoh tuzish shunchaki rasmiyatchilik emas, balki yuridik faktdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasining 2-qismida "Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi". Oila ikki yoshning o'zaro roziligi asosida vujudga keladigan majmuadir. Oila, birinchidan, xalqning an'anaviy qadriyatlariga, (bu degani erkak va ayol) o'rtasida tomonlarning mutlaq roziligiga, ikkinchidan, teng huquqliligiga asoslanadi, Nikoh tuzishda tazyiq, qo'rqitish, kuch ishlatish mumkin emas. Fitratning "Oila'asarida: "Uylanishni orzu qilgan er va xotin o'zaro ahvollarini tekshirgandan so'ng nasab va boyliklarini muvofiq kelganda, ichki va tashqi jamollarini yoqtirib, uylanishga rozi bo'lgandan keyin ularni nikoh qilish kerak. Ulardan biri rozi bo'lmasa, nikohdan voz kechish lozim, chunki rizosiz nikoh yaxshilikka olib kelmaydi". Shuning uchun ham ikkala tomonning roziligi muhim hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda oila munosabatlari masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu jarayon inson qadri va manfaatlarini ta'minlash tamoyili asosida izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy instituti sifatida nafaqat maishiy hayot markazi, balki huquqiy, ma'naviy va iqtisodiy munosabatlar shakllanadigan asosiy muhit hisoblanadi. Shu bois ham so‘nggi yillarda oilani mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Yangi davr siyosatida oila barqarorligi ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida talqin qilinmoqda. Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida oilani jamiyatning muqaddas qo‘rg‘oni, inson tarbiyasi boshlanadigan maskan sifatida e'tirof etib, "oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham mustahkam bo‘ladi" degan g‘oyani ilgari surib kelmoqda. Prezident tashabbusi bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi tubdan takomillashtirildi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Xususan, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha qonunchilik kuchaytirilib, himoya orderi instituti amaliyotga tatbiq etildi. Bu esa oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va jabrlanuvchilarni himoya qilishda muhim qadam bo‘ldi.Yangi O‘zbekistonda oilaning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Yosh oilalarga imtiyozli ipoteka kreditlari berilishi, bandlikni ta'minlash dasturlari, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan subsidiya va grantlar oilaning moddiy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Chunki iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy himoya oilaviy totuvlikning muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, mahalla institutining roli kuchaytirilib, joylarda oilaviy muammolarni hal etish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish va

yarashtirish mexanizmlari takomillashtirildi. Mahalla tizimi oilalar bilan bevosita ishlaydigan ijtimoiy tayanchga aylantirildi. Oila munosabatlarini mustahkamlashda ma’naviy omil ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat siyosatida yoshlarni milliy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Nikohdan oldingi maslahat markazlari, psixologik xizmatlar va oilaviy hayotga tayyorlash kurslari joriy etilishi yoshlarning ongli ravishda oila qurishiga zamin yaratmoqda. Bu esa ajrimlar sonini kamaytirish va mustahkam oilalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, gender tengligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar oilaviy munosabatlarning yanada adolatli va muvozanatli bo‘lishiga zamin yaratdi. Ayollarning davlat boshqaruvi, ta’lim, tadbirkorlik va ijtimoiy hayotdagi faolligi oshgani sari oiladagi qaror qabul qilish jarayonida ham o‘zaro hurmat va hamkorlik tamoyillari kuchaymoqda. Bu esa an’anaviy oilaviy modelning zamonaviy huquqiy-demokratik mezonlar bilan uyg‘unlashuviga olib kelmoqda. Umuman olganda, Yangi O‘zbekistonda oila munosabatlari masalasi kompleks yondashuv asosida rivojlantirilmoqda, huquqiy himoya, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Oila institutining mustahkamlanishi nafaqat alohida fuqarolarning farovonligi, balki jamiyatning barqaror rivoji va davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, huquqiy islohotlar doirasida oilaviy nizolarni hal qilish mexanizmlari takomillashtirilib, himoya orderlari va mediatsiya institutlari joriy etildi. Bu oilalardagi zo‘ravonlik va adolatsizlikni kamaytirishga, farzandlarning va ayollarning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash, imtiyozli ipoteka kreditlari berish va bandligini ta’minlash dasturlari oilaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan. Ma’naviy tarafdan ham oilaga e’tibor kuchaytirildi. Davlat siyosatida yoshlarni milliy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Nikohdan oldingi psixologik maslahat markazlari, oilaviy tayyorgarlik kurslari va mahalla institutining faoliyati yoshlarning ongli va mas’uliyatli ravishda oila qurishiga xizmat qilmoqda. Gender tengligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar oiladagi qaror qabul qilish jarayonlarini ham adolatli va hamkorlikka asoslangan tizimga aylantirmoqda.

Inson hayoti mohiyatan murakkab, sinovlarga boy va turli ziddiyatlardan tarkib topgan jarayon. Er va xotin esa hayotning mushkul va mashaqqatli yo’llarini bosib o’tishga ahd qilgan ikki hamrohdir. Ularning ittifoqi faqat huquqiy yoki an’anaviy bog’lanish emas, balki chuqur ma’noviy mas’uliyat va o’zaro sadoqatga asoslangan ruhiy birlikdir, Sog’lom turmush tarzi, mehr, hurmat, ishonch, qo’llab-quvvatlash uyg’unlashsa oila mustahkam poydevorga aylanadi. Mustahkam oila esa mustahkam jamiyat garovi. Shu o’rinda, Fitratning:”Erkak hamisha tirikchilik bilan banddir. U o’z holiga qarab harakat qiladi va aksar vaqt,hayot qiyinchiliklaridan qayg’urib tushkunlikka tushadi. Agarda uylangan bo’lsa,uyiga kelib umr yo’ldoshi bo’lmish xotini va turmush samarasi bo’lgan farzandlari bilan uchrashadi, suhbat qiladi va har qanday kulfat va kundalik tashvishlarni unutadi. Erkak ko’pincha tirikchilik tashvishi bilan yashaydi. Shu sababli aksariyat vaqtini ishda o’tkazadi.

Ishdan charchab uyiga kirganida ayolining samimiy so’zi, farzandlarining quvonch bilan qarshi olishi barcha charchoq, tashvish hamda qiyinchiliklarining unutilishiga sabab bo’ladi.

Jadid ma’rifatparvarlari-A.Qodiriy, Fitrat, A.Avloniy, Behbudiy o’z asarlari orqali oilani milliy taraqqiyot poydevori sifatida ko’radilar. Jadidlarning fikricha,oila asosini to’gri qurmasdan va yosh avlodni to’laqonli to;g’ri tarbiyalamasdan turib,jamiyatni isloh qilish,uning rivojini taraqqiyot sari yo’naltirish mumkin emas va oxir-oqibat millat taqdiri uning oilasi holatiga bog’liq “Har bir millatning saodati va najoti oilalarning tartib va intizomiga bog‘liqdur.”.[1] Farzandning jamiyatda yuksak hurmat, obro’, e’tibor qozonishida oilaning o’rni beqiyos. Oila mustahkam, go’zal bo’lishining sababi-ayol va erkakning tushunchasi, ilmi, sabr-matonati. Erkak ham, ayol ham oilada o’z vazifasini, mas’uliyatini chuqur his qilib yondashsa-oilada sog’lom muhit hukm suradi, sog’lom muhit esa jamiyatda o’z o’rniga ega, ilmli, madaniyatli, komil insonlarning ko’payishiga sabab bo’ladi.

Oila muhitida shakllanadigan asosiy qadriyatlar nafaqat individual taqdirni, balki butun avlodlarning kelajagini belgilaydi. Farzandlar ota-onaning nutqi va harakatlarini kuzatib, ularning hayotiy yo‘lini o‘rganadi. Shuning uchun ham har bir ota-ona o‘z xatti-harakatlari, dunyoqarashi va mehnati bilan bolalarga namuna bo‘lishi zarur. Ota-onaning o‘zaro hurmati, katta-kichiga mehr-muhabbati, mehnatsevarligi va vatanga sadoqati farzandlarning qalbiga singib, ularning shaxsiyatini yorqin va barkamol qilib tarbiyalaydi. Bu jarayon hech qachon oson emas, chunki u doimiy o‘zini takomillashtirish, sabr va donishmandlikni talab qiladi.

Oila tuzilmasining o‘zi ham jamiyatdagi jitimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar ta’sirida doimo rivojlanib boradi. Zamonaviy dunyoda oilaning an’anaviy funktsiyalari qayta shakllanmoqda, ammo uning asosiy maqsadi – insonga ruhiy tayanch, ishonch va xavfsizlik hissini ta’minlash – o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, tez o‘zgaruvchan hayot sharoitida oila barqarorlik va ma’naviy tinchlik manbayi sifatida yanada muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun oila a’zolari o‘rtasida ochiq va samimiy muloqot, o‘zaro tushunish va moslashuvchanlik mavjud bo‘lishi lozim.

Ishonch va sadoqat esa oila barqarorligining asosiy ustunidir. Bu tushunchalar nafaqat vafodorlikni, balki har bir sherikning oilaviy farovonlik uchun umumiy mas’uliyatni his qilishini, bir-birining orzusiga va istaklariga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lishini anglatadi. Bunday oilada har bir a’zo o‘z fikrlarin va his-tuyg‘ularin erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘ziga xosligi bilan qadrlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, mustahkam oila faqat uning ichki ishlari bilan chegaralanib qolmaydi. U atrof-muhit bilan faol hamkorlik qiladi, qarindosh-urug‘chilik, qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlaydi, yaqin jamiyatda yaxshilik va o‘zaro yordam an’analarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Har bir sog‘lom oila – jamiyat tarkibidagi jonli va faol hujayra bo‘lib, uning salomatligi butun organizmning farovonligini belgilaydi. Demak, oilaviy qadriyatlarni saqlash va ulug‘lash – bu nafaqat shaxsiy, balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan burchimizdir. Bugungi kunda oila masalasi dolzarbligini yanada oshirmoqda. Chunki globallashuv

sharoitida insonni ma’naviy tanazzuldan asraydigan, ruhiy tayanch bo’ladigan yagona muhit-bu oiladir. Oila mustahkam bo’lsa, jamiyat barqaror bo’ladi, jamiyat barqaror bo’lsa, davlat taraqqiy etadi. Fikrimizcha, oiladagi muammolarning yechimi avvalo, tarbiya va ilmdir. Tarbiya va ilm uyg’unligi er-xotin o’rtasida sog’lom ma’naviy muhitni shakllantirib, farzandlar kamoloti uchun barqaror va xavfsiz ijtimoiy makon yaratadi. Aks holda, ma’naviy bo’shliq va bilim yetishmovchiligi oilaviy tizimning disfunksional holatga kelishiga sabab bo’lishi mumkin. Shu bois oila-shaxsiy masala emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatdir.

Xulosa qiladigan bo’lsak,Oila bu jamiyatning muhim poydevoridir. Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda oila munosabatlari masalasi huquqiy himoya, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy tarbiya tizimlari orqali kompleks yondashuv asosida rivojlantirilmoqda. Oilaning barqarorligi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni, jamiyat barqarorligi esa davlat taraqqiyotini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Fitrat “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” -Toshkent: “Yoshlar matbuoti” 2024.b
2. . O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . Toshkent.2023.b 43.
3. Amir Temur’’Temur tuzuklari’’-Toshkent:’’Yangi nashr’’,2019
4. Karimov Islom. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-Toshkent:’’Ma’naviyat’’nashriyoti,2008.-b:54.

JADIDLAR SAYOHATI VA MILLIY-MA’RIFIY UYG‘ONISH

Murodov Halim Salimovich
BuxDPI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Turizm insoniyat paydo bo`lgan davrdan boshlab, u bilan birga hamqadam rivojlanayotgan dunyoqarash va tasavvurlarini o`zgarishi hamda kengayishiga ijobiy xizmat qilayotgan sohadir. Turizm qadim davrlardan boshlab dunyo xalqlari va elatlarining o‘zaro madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy-siyosiy aloqalar rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Chunki ilk sayyohlar yangi o‘lkalarni kashf etish, dunyoni ko‘rish va bilish, savdo-sotiq, madaniy va diplomatik aloqalami o‘matish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Sharq va G‘arbni karvonlari yo‘llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo hududi bu jarayonda muhim o‘rin tutgan. Sayohat va turizm sohasining rivojlanishida Sharqning shu jumladan O`zbekiston joylashgan Markaziy Osiyoning ham hissasi kattadir. Amudaryo va Sirdaryo atrofidagi yerlarga dastlbki odamlar manzilgohlari qaror topishidan dastlabki diniy ta`limot bo`lmish Zardushtiylik tarqalishi davrlarida ajdodlarimiz ilk sayohatlarni amalga oshirdilar. Avestoda “Har kim o‘zi yashayotgan joyni dunyoning eng go‘zal joyi deb bilmog‘i kerak”, – degan ibora orqali insonlarni vatanni bilish, ko`rish va zavq olish uchun

sayohatlarga chiqishga da`vat etilgan[1]. XIII –XVI asrlardagi markazlashgan davlatchilik va rivojlangan madaniy hayot yutuqlari, taraqqiyot yutuqlari afsuski keyingi asrlardagi tarqoqlik hamda o‘zaro birlikning zaiflashuvi natijasida hududni jahonning ilg‘or qismidan ajralib qolishiga olib keldi. XVI-XIX asrlarda Turkistondagi ta’lim tarbiyasi o‘chog‘i bo‘lgan madrasa va maktablar IX-XV asrlardagi kabi ham diniy va dunyoviy ilmlar maskani bo‘lmay, asosan diniy ta’limga asoslangan biqiq va cheklangan diniy ta’lim dargohi vazifasini bajara boshladi. Shayboniylar davridan boshlab, madrasalarda diniy va dunyoviy ta’lim berish borasida turli fikrlar va bunda asosan diniy ta’lim berishga e’tibor qaratilishi Turkiston o‘lkasining keyingi davrdagi qoloq hamda qaramlik holatiga tushib qolishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Natijada esa Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston general -gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o‘z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizasiyasidan chetda tutib turdik, degan so‘zlari yaqqol anglatadi. Turkiston o‘lkasining turli qismlarida Buxoro, Farg‘ona, Xiva, Samarqand, Toshkent kabi hududlarida maktab madrasa ta’limini zamon talablari darajasida bo‘lishi uchun harakatlar hech qachon to‘xtamagan bo‘lib, ushbu jarayon ayniqsa XIX asrda yanada faollashdi. Chunki ular ya’ni taraqqiyot uchun kurashadiganlar zamonaviy ta’lim va milliy tarbiyani avlodlar qalbiga jo qilmasdan qoloqlik girdobidan xalos bo‘lmaslikni juda yaxshi anglagan edilar. Inchunin, Abdulla Avloniy yozganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”. Bu borada ayniqsa turk elining atoqli farzandi, jadidchilik harakati yetakchisi Ismoli Gasprinskiyning tutgan o`rni o‘ziga xos bo‘lib, uning Turkistonga qilgan ma’rifiy safarlari natijasida o‘lkada bu harakat yanada jonlanib keng quloch yoydi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanishida ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham mavjud ediki, ulardan eng e’tiborlisi Ismoil G‘aspirali ta’limotidir. Ismoil G‘aspirali 1851-yilda Qrimning Boqchasaroy shahri yaqinida dunyoga keladi. Moskvada tahsil olib, keyinchalik Fransiya va Turkiyada yashaydi. 1875—1881-yillarda Boqchasaroyda uqituvchilik qiladi, hokimiyatning rahbar lavozimlarida ishlaydi. 1881-yili «Tavrida» gazetasidagi maqolasida u o‘zining amaliy dasturini shunday ifoda etadi: — milliy maorif tizimini isloh etish; — milliy maorif tizimini moddiy jihatdan qullabquvvatlash uchun «Jamiyati xayriya»lar tashkil etish; — turkiy xalqlarning umumiy milliy matbuotini tashkil etish; — musulmon xotin-qizlarni ozod etish; 199 — milliy mutaxassis va ziyolilarni yetishtirish uchun sharoit yaratish. Bu davrning ilg‘or kuchlari ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdi. Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov,

Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi. Jadidchilikning asosiy g‘oyalari va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Bu fikrlar va g‘oyalar o‘zi o‘zidan paydo bo‘lgan emas, ya’ni xalqimizning ilg‘or fikrli ma’rifatparvar insonlari buning uchun jadal rivojlanayotgan G‘arb va Sharq mamlakatlarida yuz berayotgan o`zgarishlarni ko`rish uchun sayohatlarga chiqa boshladilar. Turkistondagi bunday o‘sish va harakatga qanday omillar ta’sir qildi deb mushohada qiladigan bo‘lsak, bu borada ma’rifatparvarlarning sayohatchilk va ziyorat turizmini amalga oshirishlari muhim ahamiyat kasb etganini kuzatishimiz mumkin. Bu borada sayohatlarning maqsadlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘ramiz: Birinchidan, ziyoratlarni amalga oshirish, Ikkinchidan, boshqa sharq va g‘arb mamlakatlaridagi taraqqiyotni ko‘rish va taqqoslagan holda xulosalar chiqarish Uchinchidan, ta’lim tizimidagi yangiliklarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish, o‘rganish va ilg‘or jihatlarni Turkiston maorifiga joriy etish To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi yangi texnika va texnolagiyalarni olib kelish Beshinchidan, yangi demokratik o‘zgarishlar, inson erkinligi va huquqlari borasidagi tajribalar, matbuot va davlatchilikni rivojlantirish borasidagi yangiliklarni o‘rganish, tahlil etish hamda Turkiston aholisini mudroqlikdan uyg‘otish uchun, milliy mustaqil davlatchilikni tashkil etish, yosh avlodni yangicha o`qitish kabi bir qator vazifalarni o‘zida mujassam qilgan edi. Ma’rifatparvar ajdodlarimiz Turkistonda yangi milliy uyg‘onish davrini boshlab berdi. Ma’rifatparvarlar o‘z xalqini ozod ko‘rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga bel bog‘lagan edilar. Jadid allomalarimizning bu jarayondagi dunyoning ko‘plab davlatlariga amalga oshirgan ma’rifiy-ziyorat maqsadidagi sayohatlari va bundan ko‘zlangan maqsadlari hamda vazifalarini bir necha misollarda ko‘rib o‘tamiz. Jumladan faoliyati natijasida “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” nomini olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifiy-demokratik mazmundagi sayohatlarni amalga oshirib, ilg‘or g‘oyalarni o‘rganish, tafakkur qilishiga hamda foydali jihatlardan istifoda olishiga zamin yaratgan. Behbudiy 1899-1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi”, -yozadi Behbudiy bu safar haqida. Bu sayohat, dunyo ko‘rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo‘lida, kelajakda bo‘ladigan hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, "jaholat uyi"ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o‘zgartirib yubordi. Bu borada Adib Xolidning ta'kidlashicha[2], Mahmudxo‘ja Behbudiy 1899-1900-yillarda u sakkiz oy davomida Kavkaz va Usmonlilar imperiyasi bo‘ylab sayohat qilib, haj ziyoratini ado etgan. Mahmud zamonaviy ta'lim muassasalari bilan tanishdi, ularning eng yaxshi namunalarini o‘sha bir necha

o‘n yilliklarda Usmonlilar imperiyasi va Misrda topish mumkin edi. 200 Samarqandga qaytgach, u islohotlarning ashaddiy tarafdoriga aylangan edi. Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida iitimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Oradan 8 oy vaqt o‘tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjumon" gazetasiga obuna bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiyni nima shunchalar ta’sir qildi deganda albatta, sayohat orqali dunyoni bilishi va ko‘rganlarini tafakkur qilishi o‘zgartirdi. U ham jadidchilik harakatining tamal toshi bo‘lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Sayohatlar davomida tanishgan ta’lim islohotlari bilan chuqur o‘rganish natijasida Behbudiy Turkiston jumladan Samarqanddagi maktablar uchun darsliklar yaratdi va tarqatdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o‘rgangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoil Gaspirinskiy bilan birinchi marta 1897-yilda Gaspirinskiyning Turkistonga sayohati vaqtida Samarqandda tanishgan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta’sir katta ko‘rsatdi. Bu sayohat safari davomida Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig‘i sifatida qatnashdi va Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli borasida katta nutq so‘zlaydi. Qariyib bir oyga cho‘zilgan bu safar haqida Behbudiy so‘ngroq shunday “Musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun Orenburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijniy Novgo‘rud borib edim" degan edi. Behbudiy safarlar davomida Turkiya, Tatariston, Eron kabi hududlarda ko‘rgan matbuot borasidagi yangiliklarni, uning xalq fikri va dunyoqarashini o‘zgartirishdagi muhim o‘rnini chuqur anglagani uchun o‘zining mustaqil matbuot ochish borasidagi maqsadlari 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat olish bilan nashr ishlarini boshlab yubordi. Mazkur gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. Afsuski, “Samarqand” ning 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. 1913-yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan, o‘zbekcha bo‘lib, she'r, turli yo‘nalish va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib borgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqalib ketar edi. “Oyina” jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq "Ikki emas, to‘rt til lozim" nomli maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va fransuz tilini bilish shart deb hisobladi. Bu sayohat uning uchun bu davrda noshirdik va gazetachilik ishlaridan biroz chalg‘ish va, eng asosiysi, dunyo ishlari, bo‘layotgan voqea-hodisalarni yaqindan ta'qib etish istagi kuchli edi. Ikkinchidan, "Behbudiya

kutubxonasi" uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlardan ularning tarixi, geografiyasi, aholisi, olimlari va boshqa foydali ma'lumotlar, kitoblar kerak edi. Behbudiy o‘z sayohati yo‘nalishini quyidagicha belgilaydi: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga Istanbulga qaytib, temir yo‘l bilan Bolgariya, Avstriya va Berlin orqali Rossiyaga, undan Turkistonga qaytib kelish. Ushbu sayohat 1914-yilning 29-may kunida boshlandi. Poyezdga o‘tirib Bayramali orqali Ashxobodga o‘tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2 iyunda Mineralniye Vodi, Kislovodsk Pyatigorsk, Jeleznovodsk Rostov Odessani kezib, 8 iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Edirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21 iyunda suv yo‘li bilan Quddusga yo‘l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi. Behbudiy qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar yig‘adi, turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalatorgacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasulullоh poyqadami tekkan qutlug‘ dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur al-Masjidul Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to‘ladi. Zaynobidin Abdirashidovning Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy risolasida yozilishicha nemis olimasi Ingeborg Baldauf mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi munosabati bilan “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda” nomida maqola nashr qilgan. Baldauf maqolasida Behbudiy kuzatishlarining o‘ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o‘rtagan eng katta dard erk va ma’rifat ekanligini aytgan[3]. Ismoilbey va Behbudiyning ikkinchi uchrashuvi 1914-yilning yozida yuz bergan. Alloma marg‘ilonlik bir kishi bilan Istanbulning Gülhane bog‘ida yurganda tasodifan Ismoil Gasprinskiyni ko‘rgan va o‘xshatgan bo‘lsam kerak degan o‘y bilan salom berib o‘tib ketgan. Orqasidan javob ovozi kelgach, ikki do‘st yaqindan ko‘rishgan. Gaspiriniskiyning taklifi bilan Shahin posho mehmonxonasida yiz bergan suhbat yetti soat davom etgan. Suhbatda Turkistonni ahvoli, maktab, gazetachilik, dunyo musulmonlari hayoti va taraqqiyoti haqida fikrlar almashib, istiqbol rejalari muhokama etilgan. Gaspirinskiy suhbat yakunida Behbudiyni Qrimga taklif etadi[4]. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, jadidlar yetakchilarining shu davrdagi ilg‘or shahar va davlatlardagi sayohat va ziyorat safarlari ta’lim tizimi, matbuot, davlat va jamiyat boshqaruvi, turkiylarning bir biriga qardoshlik munosabatlari va turkiy xalqlar uchun umumiy maqsadlarni shakllanishiga muhim ahamiyat kasb etdi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Turkiston jadidlarining yetakchisi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining amalga oshirgan ma’rifiy va ziyorat maqsadidagi sayohatlari tufayli o‘z vatani jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasidan orqada qolganligini tushunib yetdi. Bu borada Ismoli Gasprinskiy bilan hamfikr shogird sifatida fikr dunyosini kengaytirib, o‘zgartirib, maktab, teatr, matbuot, jamiyat hayoti va boshqaruvi masalalarida sayohatlari natijasida shakllangan islohotlar rejasini amalga oshirishga kirishgan edi. Yoshlarimiz tushunib yetishlari lozimki, turizm orqali dunyo tamaddunida Yangi O‘zbekistoning mustahkam o‘rin egallashi, taraqqiy etgan davlatlar qatorida bo‘lishi uchun ham XIX asr oxiri XX asr boshlarida

bo‘lgani kabi albatta jahon sivilizatsiya darajasidan xabardor bo‘lish, ilg‘or yangiliklarni o‘rganish va egallash, shu bilan birga barcha sohalarda yetuk mutaxassis bo‘lish barobarida Vatanni yuksaltirish har birimizning muqaddas maqsad va burchimiz bo‘lmog‘i lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Xoldarov, X.Tulenova. Turizm (Sayyohlik),Toshkent-2016, “Iqtisod Moliya”, B-3

2. Адиб Халид. Центральная Азия от века империй до наших дней. Москва. 2024. С.123-124.

3. Z.Abdirashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [Matn]: risola.Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. –B.15-22.

4. H. A. Jo‘rayev. Abdurauf Fitrat va jadid madaniyati. Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023 yil – 10 iyun B.670-673.

ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDA MILLIY YUKSALISH VA IJTIMOIY ISLOHOTLAR TALQINI

Murodova Joziba
BuxDPI, 1-bosqich talabasi

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy uyg‘onish jarayoni milliy tafakkur taraqqiyotida muhim burilish yasadi. Jadid ma’rifatparvarlarimiz maorif, adabiyot va san’at osmonida isloh yulduzlarini yoqdilar. Ularning ilgari surgan g‘oyalari xalqimizning kelajagini yorug‘likka to‘ldirishga qaratilgan edi. Jadidchilik islom olamidagi taraqqiyot shabadasi bo‘lib, ilm-fanga bo‘lgan cheksiz rag‘bat va dunyoviylikning zamonaviy qiyofasi sifatida namoyon bo‘ldi. Sharqning fayzli zaminida unib chiqqan bu harakat, G‘arbning demokratik, milliy-ozodlik va islohotchilik harakatlaridan ham kuch oldi. Jadidlarning tinimsiz sa’y-harakatlari tufayli qisqa fursat ichida yangi jadid xalq maorifi o‘zining betakror diniy-dunyoviy ta’lim-tarbiya usullari bilan shakllandi. Jadidlar xalqimizni savodxonlik chirog‘i bilan yoritish va shu orqali mamlakat mustaqilligini ta’minlashdek ulug‘ maqsad sari intildilar. Ularning har bir harakatida aniq maqsad mujassam edi. Millatga nafaqat diniy ilmlarni, balki dunyoviy bilimlarni ham o‘rgatib, xalqni ma’rifatli qilish asosiy maqsad edi.

Ana shu murakkab va ziddiyatli davrda yetishib chiqqan yirik ma’rifatparvar va jadid namoyandalaridan biri — Abdurauf Fitrat hisoblanadi. U 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilada tavallud topgan bo‘lib, oilaviy muhit uning dunyoqarashi va estetik didining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Fitratning otasi savdogar bo‘lib, 1918-yilgacha Qashqarda istiqomat qilgan. Yosh Abdurauf asosan onasi Mustafo Bibi (Bibijon) tarbiyasida voyaga yetadi. Bu davrda jadid mutafakkirlari millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma’rifat, tarbiya va ijtimoiy islohot g‘oyalarini ilgari surdilar. Ana shunday muhim masalalardan biri — oila instituti va uning jamiyat hayotidagi o‘rni edi. Fitratning “Oila yoki oila

boshqarish tartibi” asari aynan shu ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, unda oila masalasi faqat maishiy yoki shaxsiy hodisa sifatida emas, balki millat istiqbolini belgilovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Asar o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik, axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qarashlarni mujassamlashtirgan kompleks nazariy dasturdir. XX asr boshlarida tashkil etilgan “Tarbiyai atfol” jamiyati ko‘magida 1908–1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olishi uning ilmiy va siyosiy qarashlarida tub burilish yasadi. Bu yerda unga mashhur turk ziyolisi Yusuf Akchura mudarrislik qilgan. Akchuraning turkchilik, milliy uyg‘onish va siyosiy islohotlarga doir g‘oyalari Fitrat tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada u millat ravnaqi, maorif islohoti va ijtimoiy taraqqiyot masalalarini ilmiy-nazariy asosda yoritishga kirishdi. Shunday qilib, Fitratning hayot yo‘li — Sharq va G‘arb madaniy an’analari tutashgan, diniy-ilmiy meros hamda zamonaviy islohotchilik ruhini o‘zida mujassam etgan murakkab shakllanish jarayonidir. Fitratning asarlari juda ham ko’p, ammo ularning orasida “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari ayniqsa ahamiyatli.Zero, “Har bir millatning saodati va salohiyati avvalo uning oilalarining tartib va intizomiga bog‘liqdir.”[1]

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-ma’rifiy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati millat taraqqiyoti, ma’naviy yangilanish va ijtimoiy islohotlar g‘oyasini ilgari surdi. Ushbu harakatning yirik namoyandalaridan biri — Abdurauf Fitrat bo‘lib, u o‘z asarlarida jamiyatni isloh qilishning muhim omili sifatida oilani ko‘rsatadi. Uning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari o‘z davrida nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etgan muhim asarlardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda muallif oilaning jamiyatdagi o‘rni, er-xotin munosabatlari, ota-onaning farzandlar oldidagi burchlari hamda farzandlarning ota-onaga nisbatan majburiyatlarini diniy, axloqiy va ijtimoiy mezonlar asosida tahlil qiladi. Fitrat oilani jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti bevosita oiladagi muhit va tarbiyaga bog‘liq. Fitrat oilani jamiyatning “kichik davlati” sifatida ko‘radi. Uning nazarida, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy illat yoki taraqqiyot avvalo oilada shakllanadi. Agar oilada tartib, hurmat, ilm va mas’uliyat hukm sursa, jamiyat ham barqaror va taraqqiyparvar bo‘ladi. Mutafakkir oilani boshqarish masalasiga alohida urg‘u beradi. “Boshqaruv” tushunchasi bu yerda zo‘ravonlik yoki hukmronlik ma’nosida emas, balki oqilona tashkil etish, vazifalarni adolatli taqsimlash va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy tizim ma’nosida qo‘llanadi. Fitratning fikricha, oiladagi tartibsizlik millatning tanazzuliga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Bu qarashlar jadidchilikning umumiy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi bilan uyg‘un bo‘lib, oila orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasini ilgari suradi. Asarda er-xotin munosabatlari alohida tahlil qilinadi. Fitrat nikohni faqat diniy yoki urf-odat asosidagi shartnoma emas, balki ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan ittifoq deb biladi. U ayollarning jamiyatdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Ayolning savodsizligi yoki ijtimoiy faollikdan chetlatilishi butun millat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. Shu jihatdan Fitrat qarashlari zamonaviy gender tengligi konsepsiyasining dastlabki shakllaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Bu masalada uning fikrlari Abdulla Avloniyning tarbiya va

ayol ta’limi haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Har ikki mutafakkir ayolni jamiyatning ma’naviy ustuni sifatida ko‘radilar.

Bundan tashqari, Fitrat asarining markaziy g‘oyalaridan biri — farzand tarbiyasi masalasidir. U bolani shunchaki oila a’zosi emas, balki kelajak jamiyatning bunyodkori sifatida talqin qiladi. Tarbiya jarayoni esa tasodifiy emas, balki ongli va tizimli bo‘lishi kerak. Mutafakkir ota-onalarni quyidagi mas’uliyatlarga chaqiradi:

birinchi, farzandga diniy va dunyoviy bilim berish;

ikkinchi, unda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;

uchinchi, axloqiy poklik va vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish;

to ‘rtinchi, mehnat madaniyatini erta yoshdan boshlab tarbiyalash.

Fitratning fikricha, jaholat muhitida ulg‘aygan bola jamiyat uchun og‘ir yuk bo‘lishi mumkin, ma’rifatli muhitda tarbiya topgan avlod esa millatni yuksaltiradi. Uning qarashlarida oila – bu shunchaki bir uy ichidagi yashash tartibi emas, balki millatning hayot-mamot masalasini belgilovchi asosiy muhitdir. Fitrat oilani inson axloqi, tafakkuri va irodasi shakllanadigan birinchi maktab deb biladi. Unga ko‘ra, inson jamiyatga qanday kirib borishi, qanday shaxs bo‘lib yetishishi avvalo oiladagi muhitga bog‘liq. Agar oila ichida beparvolik, jaholat va ma’naviy sustlik hukm sursa, bunday muhitda ulg‘aygan farzanddan komil inson chiqishi qiyin bo‘ladi. Fitrat shuningdek, oila boshqaruvini mas’uliyatli va ongli faoliyat deb tushuntiradi. U oilani tabiiy ravishda emas, balki tartib va qoidalar asosida boshqarilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy birlik sifatida ko‘radi. Uning fikricha, oila qurishdan avval inson o‘z zimmasiga qanday yuk olayotganini anglab yetishi zarur. Chunki nikoh nafaqat ikki shaxsning birlashuvi, balki kelajak avlod oldidagi javobgarlikdir. Fitrat yoshlarning oila masalasiga yengil qarashini keskin tanqid qiladi va ularni ilm, tafakkur va mas’uliyat bilan yashashga chaqiradi. Asarda ayolning o‘rni masalasi ham alohida e’tibor bilan yoritiladi. Fitrat ayolni faqat uy ishlari bilan chegaralangan mavjudot sifatida emas, balki ma’naviy tarbiyaning asosiy tayanchi sifatida baholaydi. U ayolning savodsizligi butun jamiyat savodsizligiga olib kelishini uqtiradi. Shu sababli u qizlar ta’limi, ayollarning ma’rifatli bo‘lishi masalasini milliy taraqqiyot bilan bevosita bog‘laydi. Bu qarash o‘sha davr ijtimoiy muhitida nihoyatda jasoratli va ilg‘or fikr edi. Fitrat ota mas’uliyatiga ham katta urg‘u beradi. U oilada boshchilik qiluvchi shaxsning vazifasi hukmronlik emas, balki adolat va oqillik bilan yo‘l ko‘rsatish ekanini ta’kidlaydi. Oiladagi qo‘pollik, zo‘ravonlik va adolatsizlikni u jamiyat inqirozining boshlanishi deb hisoblaydi. Uning nazarida, hurmat va o‘zaro ishonch bo‘lmagan oila mustahkam bo‘la olmaydi. Oila a’zolari o‘rtasidagi muomala madaniyati millat madaniyatining ko‘zgusidir. Adib, shuningdek, oila iqtisodiy hayotiga ham befarq qaraydi emas. U mehnatsevarlik, tejamkorlik va halollikni oilaviy barqarorlikning sharti deb biladi. Isrofgarchilik va dangasalikni u nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy illat sifatida baholaydi. Uning fikricha, tartibli va mehnatga asoslangan oila jamiyatni ham mustahkamlaydi. Umuman olganda, Fitratning oila haqidagi qarashlari o‘z davridan ancha ilgarilab ketgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyadir. U oilani milliy uyg‘onishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘radi va jamiyatni isloh qilishni aynan oiladan boshlash zarurligini asoslaydi. Shu jihatdan uning “Oila yoki oila boshqarish tartibi” asari bugungi kunda ham o‘z ilmiy va ma’naviy ahamiyatini

saqlab qolgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Abdurauf Fitrat ushbu asar orqali musulmon oilalarining ichki tuzilishini, axloqiy-me'yoriy asoslarini hamda boshqaruv tamoyillarini ilmiy yondashuv asosida tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari shunchaki bir asr oldin yozilgan maishiy qo'llanma emas, balki bugungi kunda ham millat genofondini asrash va ma'rifatli jamiyat qurishning strategik dasturidir. Fitrat ilgari surgan "tartibli oila – kuchli davlat" tamoyili Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot strategiyasida ham o'zining hayotiy tasdig'ini topmoqda. Shuning uchun ham ushbu asarni nafaqat talaba-yoshlar, balki har bir oila qurish ostonasida turgan yigit-qizlar mutolaa qilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Fitrat, Oila yoki oila boshqarish tartibi. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 1998.
2. Fitrat, Tanlangan asarlar, 2-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.
3. Shodmon vohidov tarjimasi. Toshkent 2024 y.
4. Asqar Munavvarov. "Oila pedagogikasi", Toshkent, "O'zbekiston", 1994 y, 112 bet.
5. Inomova M. "Farzand – nihol, ota-ona - bog'bon". Toshkent, "O'qituvchi", 1983 y, 56-b.

JADIDLAR BAYROG`INI BALAND KO`TARISH- O`ZBEKISTON TARAQQIYPARVAR YOSHLARINING ASOSIY HARAKATI

Niyazov Erkin Shamsiyevich
BuxDPI, Harbiy ta`lim fakulteti dotsenti

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir. Shu bois, xalqimiz ozodligi va vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy, bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" (2023-yil, 22-dekabr "Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidan).

Turkiston so`zi ilk marotaba VI-VII asrlardagi yo`zma manbalarda uchraydi, keying davrlarda ham bu atama keng qo`llanilgan, jadidlar ham bejiz bu nomga murojaat qilishmagan, turk darsliklarida Markaziy Osiyo atamasining Turkistonga

almashtirilishi yangi mintaqaviy kuchlar nisbatini yaratishga intilishdan darak beradi.

Turkiyadagi tarixiy darsliklarda “Markaziy Osiyo” atamasi “Turkiston” bilan almashtirilyapti.Turk rasmiylariga ko`ra, bu qaror yosh avlodda milliy o`zlik va vatanparvarlik tuyug`ularini kamol toptirishga qaratilgan.

Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo`g`an ham ikki yirik mamlakat – Turkiya va O`zbekiston aloqalari haqida iliq fikrlar bildirgan. 2016-2017 yillardan boshlab, turkey o`zlik asosidagi hamkorlikka intilishlar ancha jonlandi. 90-yillar boshida tamal toshi qo`yilgan Turkiy kengash 2018 yilda O`zbekiston a`zo bo`lishi bilan Turkiy davlatlar tashkilotiga aylantirildi.

Samarqand davlat universiteti professori, turkolog olim Jo`liboy Eltazarovning so`zlariga ko`ra, qadimgi so`gd manbalari, “Devoni lugotit turk” asari va keyinchalik Navoiy asarlarida ham Turkiston atamasi uchraydi. “ Bu-biz uchun tarixiy vatan nomidir. Bini unuttirish uchun mintaqa alohida 5ta millat va mamlakatga ajratilgan. Ammo xalqlar bir nom ostida birlashgan davrini unutmagan. Jadidlarimiz ham aynan shu nom asosida birlashish uchun kurashishgan. Mana, bugunga kelib jadidlarning asarlarini kengroq o`rganmoqdamiz, bunga yana bir karra amin bo`lmoqdamiz”, deydi u.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan barcha sohalardagi ijtimoiy faollik shuningdek, Prezident yordamchisi S.Mirziyoyeva 2025 yil 5-avgust kuni Ostona shahrida bo`lib o`tgan “Zakovat” Osiyo kubogida jadidlar harakatini o`z qarashlarida quyidagicha ifodalanadi:

“O`zbekistonda 7 yil avval ham, har yili kuzda maktab va institutlar yopilar edi .O`qituvchilar, talaba va o`quvchilar dalaga, paxta terimiga majburiy jalb qilinar edi. Butun bir avlod chalasavos bo`lib qoldi. Biroq biz yuz yillik paxta qulligiga barham berdik. Millionlab o`quvchilar o`quv maskanlariga qaytarildi.

XX asr boshlarida jadidlar ham, Alash harakati vakillari ham yagona maqsad sari –xalqni ozod qilish va vatan ravnaqiga intilganlar. Barchalarini orzulari taraqqiy etgan jamiyat bo`lgan. Nima uchun mintaqamiz rivojlanishida dunyo mamlakatlaridan ortda qolayotganini o`lkamiz ziyolilari yaxshi anglagan. Lekin ularga o`ylagan niyatlarini amalga oshirish imkoni berilmadi. Bir necha avlod almashdi. Mana endi, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan, jadidlarning yiqilgan bayrog`ini tiklashga kirishdik. Ular xuddi sizlardagi Alash harakati vakillari kabi taraqqiyparvar yoshlar uchun namunadir. Biz ziyoli ajdodlarimiz g`oyalarini amalga oshirish, ma`rifat va ta`limni orzu qilgan darajaga yetkazish harakatini boshladik”, -dedi u o`z nutqida.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishiga ajdodlarimizning mustamlaka Turkistondagi inqirozli holatlarni, yurtimizning umumjahon jarayonlari, ilm-fan yutuqlaridan tobora ortda qolayotganliklarini anglashlari, mahalliy aholining mustaqillikka intilishlariga qarshi Rossiya imperiyasining shavqatsiz siyosati, ma’naviy sohadagi turg’unlikni, tarixiy vaziyat ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlarning, xalqaro vaziyatning umumiyligi va o’zaro bog’liqligi natijasida u yoki bu tarixiy voqealarning sodir bo’lishi, shakllanib rivojlanib borishi va bu hodisa o’z navbatida nafaqat muayyan tarixiy vaziyatga

kiritiladi, balki o’z ayni vaqtda bu vaziyatni sezilarli darajada o’zgartirishi ham mumkinligini ko`rsatdi.

Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida gapiradigan bo`lsak, jadidchilik harakati XIX asr oxirida Turkistonning ilg‘or ziyolilari tomonidan boshlangan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi xalqni savodsizlikdan qutqarish va zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish edi.

Jadidlar yangi usul maktablarini ochish, gazeta va jurnallar chiqarish orqali jamiyatni taraqqiy ettirishga intildilar. Ularning faoliyati jamiyatda yangicha fikrlash va yashash tarzini shakllantirishga xizmat qildi. Jadidlar milliy o‘zlikni anglash, milliy til va madaniyatni rivojlantirish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali xalqni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdilar

Tarixiy vaziyatlarning – xilligi va o’ziga xosligiga qaramasdan, ularga xos bo’lgan umumiy o’xshashlaklar va takrorlanishlar borligini, ularning dialektik yoki sinergetik tarzda kechishi mumkinligini ham inkor qilib bo’lmaydi. Tarixiy vaziyat qonunlari ma’lum tarixiy sharoitlarda oqibatning emas, balki uning imkoniyatini belgilaydi. “Har bir tarixiy vaziyatda muqobillik holatlari mavjud: voqealar tarixiy vaziyatlarning tipologik binolariga kiritilmagan turli xil holatlarga qarab, boshqacha yo’l tutishi mumkin.”

Jadidlar zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo‘l bilan bilan echish yo‘llarini o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib shuni aytishimiz o‘rinliki, jadidlar xalqni savodsizlik, qullikdan qutqarishga bel bog‘lab, shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch ekanligini tushunganlar. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida yoshlarni o‘qishga, bilim olishga chorlab, ularning saviyasini yuksaltirishga harakat qilganlar. Yoshlardan Vatan uchun xizmat qiladigan etuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxasissislari, madaniyat arboblari etishib chiqib, ular yurtni obod, farovon etishlariga ishonganlar.

Jadidlar jamiyat taraqqiyotida o‘zgarishlar qilish oson kechmasligini, ulug‘ maqsadlarga erishish millat madaniyati, ma'rifati, ilm-fanning rivoji bilan bog‘liqligini har tomonlama teran anglaganlar. O‘zlarining shaxsiy manfaatlari, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimiz taraqqiyotini maqsad qilib amalga oshirgan ta'lim-tarbiyaviy ezgu ishlari avlodlar xotirasida o‘chmas iz qoldirganliklariga hozirgi kunda guvohmiz. Jadidlar ta'limoti – o‘z zamonasining progressiv ta'limoti bo‘lib, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki ilg‘or fikrlovchi yoshlarni hamda barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi.

“Millat degan kalom naqadar shirin!”
Degan edi “Kecha”da Cho‘lpon.
Ammo millat bo`lmoq emish ko`p qiyin,
“Kunduz” qachon kelar, qachon otar tong?!..
Orzuga erishmoq bo`lsak kun kelib,
Cho`lponni sevardik Qodiriy misol.
Biri shaxslarni kuylasa to`lib,
Biri millatiga izlagan timsol.
Shaxs bo`lmoq ko`p mushkul, millat,

Inchunin,
Biroq o`zga yo`l yo`q! Bo`lsa, ko`rurmen.
Jadidlar ortidan ergashib bir kun,
Elim yo`lga tushsin, deya so`rurmen…
Millat degan kalom naqadar shirin!..... U. Hamdam

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadid ma’rifatparvarlik xarakatining goyaviy asoslari (Respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari 2016 yil 15 aprel). Toshkent, 2016.
2. Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar g`oyalari yangi O`zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari, Toshkent, 2025
3. Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari, Toshkent, 2023
4. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud ahloq», T., «O‘qituvchi», 1992 .
5. https://www.ziyouz.uz /ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/ abdulla-avloniy-1878-1934/ Begali Qosimov.

ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИДА МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ МЕРОС ВА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ РОЛИ

Амонов Азизбек Амонжонович
Бухоро давлат университети доценти
социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

XX аср бошларида Туркистон заминида шаклланган жадидчилик ҳаракати миллий уйғониш, маънавий янгиланиш ва жамиятни ислоҳ қилишга қаратилган кенг қамровли ижтимоий-маърифий ҳаракат сифатида тарих саҳнасига чиқди[91]. Жадидлар фаолияти мустамлакачилик, ижтимоий қолоқлик ва маънавий инқироз шароитида халқни маърифат йўли билан тараққиётга етаклашни мақсад қилган ислоҳотчилик мактаб сифатида намоён бўлди[92].

Жадидчилик ҳаракатининг ўзига хос жиҳати шундаки, у миллий ўзликни англаш ғоясини умуминсоний қадриятлар билан уйғун ҳолда илгари сурди[93]. Жадидлар миллатчилик ёки тор этник ёндашувдан йироқ ҳолда, турли миллат ва элат вакиллари ўртасида ҳамжиҳатлик, ўзаро ҳурмат ва бағрикенглик муҳитини шакллантиришга интилишди[94].

Айниқса, глобаллашув, мафкуравий рақобат, маданий плюрализм ва кўп миллатли жамиятлар шароитида жадидларнинг маданий-маърифий мероси, миллатлараро тотувликка оид ғоялари ва амалий механизмлари янги маънавий макон барпо этишда муҳим илмий-назарий ва амалий аҳамият касб этмоқда[95].

Ушбу мақолада жадидларнинг маданият ва маърифат соҳасидаги бой мероси, уларнинг миллатлараро муносабатларни таъминлаш борасидаги

[91] Қосимов Б. Жадидчилик ҳаракати: ғоя ва амалиёт. — Тошкент, 2004.
[92] Хайруллаев М. Ўзбек маърифатпарварлик фалсафаси тарихи. — Тошкент, 2010.
[93] Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. — Тошкент, 1992.
[94] Беҳбудий М. Танланган асарлар. — Тошкент, 1999.
[95] Парсонс Т. The Social System. — New York, 1951.

амалий ишлари социологик ва психологик ёндашувлар асосида қиёсий таҳлил қилинади.

Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-фалсафий асослари. Маълумки, жадидчилик ҳаракати ижтимоий-фалсафий жиҳатдан маърифатпарварлик, инсон қадри, ижтимоий адолат ва тараққиёт ғояларига таянади[96]. Жадидлар фикрича, жамиятни иқтисодий ёки маъмурий ислоҳотлар билангина эмас, балки инсон онгини ўзгартириш, маънавий уйғониш орқали ривожлантириш мумкин[97].

Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний ва Мунавварқори Абдурашидхонов каби жадид мутафаккирлар жамият тараққиётининг марказига инсон тафаккури ва маънавиятини қўйдилар[98]. Уларнинг қарашларида миллатлараро муносабатлар ижтимоий барқарорликнинг муҳим шарти сифатида талқин қилинади[99].

Жадидларнинг маданий-маърифий мероси: шакл, мазмун ва функция. Жадидларнинг маданий-маърифий мероси қуйидаги асосий йўналишларни қамраб олади:

1. Таълим тизимини ислоҳ қилиш.
2. Матбуот ва жамоатчилик фикрини шакллантириш.
3. Театр ва адабиёт орқали маънавий тарбия.
4. Ахлоқий-маърифий ғояларни тарғиб қилиш.

“Усули жадид” мактаблари миллий, диний ва ижтимоий фарқлардан қатъи назар барча болалар учун очиқ бўлиб, жамиятда ижтимоий мобиллик ва маданий интеграцияни кучайтирди[100]. Бу ҳолат социологик нуқтаи назардан қаралганда, жадидларнинг инклюзив таълим моделини ишлаб чиққанини кўрсатади[101].

Жадид матбуоти эса турли миллат вакилларини умумий ижтимоий муаммолар атрофида бирлаштирган муҳим ижтимоий платформа вазифасини ўтади[102].

Миллатлараро тотувлик масаласида жадидлар фаолиятининг социологик таҳлили. Социологик таҳлил шуни кўрсатадики, жадидлар миллатлараро муносабатларни таъминлашда қуйидаги асосий механизмлардан фойдаланганлар[103]. Улур: - маориф орқали интеграция; - маданий мулоқот орқали ҳамжиҳатлик; - матбуот ва театр орқали ижтимоий консенсус; - умуминсоний қадриятларга таянган мафкуравий ёндашув.

Бу механизмлар замонавий ижтимоий интеграция ва интеркултурализм назариялари билан тўлиқ уйғун келади[104].

---

[96] Durkheim É. The Division of Labour in Society. — London, 1997.
[97] Tajfel H. Social Identity and Intergroup Relations. — Cambridge, 1982.
[98] Berry J. Intercultural Psychology. — Boston, 2002.
[99] Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. — Тошкент, 2022.
[100] Тажфел Г. *Социальная идентичность*. — Санкт-Петербург: Питер, 2001.
[101] Қосимов Б. Жадидчилик ҳаракати: ғоя ва амалиёт. — Тошкент: Шарқ, 2004. (Жадидларнинг маданий-маърифий мероси, таълим ислоҳоти ва ижтимоий аҳамияти ҳақида умумий назарий манба)
[102] Хайруллаев М. Ўзбек маърифатпарварлик фалсафаси тарихи. — Тошкент: Фан, 2010.
[103] Беҳбудий М. Танланган асарлар. — Тошкент: Маънавият, 1999. (Таълим ислоҳоти, миллатлараро тотувлик ва жамоатчилик фикри масалалари)
[104] Мунавварқори Абдурашидхонов. Педагогик ва маърифий қарашлар. — Тошкент: Фан, 2005.

Психологик жиҳатдан жадидлар таълим ва маданиятни инсон онгидаги этник ва ижтимоий стереотипларни йўқ қилишнинг асосий воситаси сифатида қарадилар[105]. Улар шахсда эмпатия, бағрикенглик ва ижтимоий масъулият ҳиссини шакллантиришга алоҳида эътибор бердилар[106].

Жадидлар асарларида “биз” деган умумий ижтимоий идентиклик ғояси устувор бўлиб, бу ҳолат миллатлараро зиддиятларнинг олдини олишда муҳим психологик механизм ҳисобланади[107].

Қиёсий таҳлил: жадидлар тажрибаси ва замонавий жамият. Қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, жадидлар илгари сурган миллатлараро тотувлик модели бугунги кўп миллатли жамиятлар учун ҳам долзарб аҳамиятга эга. Айниқса, Ўзбекистонда амалга оширилаётган миллатлараро тотувлик сиёсати жадидлар мероси билан узвий боғлиқдир.

Янги Ўзбекистон сиёсати контекстида таклиф ва тавсиялар. Жадидлар меросидан келиб чиқиб, қуйидаги стратегик таклифлар илгари сурилади:

1. Таълим тизимида жадидчилик ғояларини интеграция қилиш.
2. Миллатлараро муносабатларни ўрганишда социологик мониторингни кучайтириш.
3. Ёшлар онгида бағрикенглик ва фуқаролик идентиклигини шакллантириш.
4. Маданий-маърифий лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш.

Бу таклифлар Янги Ўзбекистоннинг инсон қадри, маърифат ва ижтимоий барқарорликка қаратилган сиёсатига тўлиқ мос келади[108].

Хулоса.

Жадидларнинг маданий-маърифий мероси ва миллатлараро тотувликка қаратилган фаолияти замонавий жамият учун ҳам муҳим илмий-назарий ва амалий аҳамиятга эга. Уларнинг ғоялари Янги Ўзбекистон шароитида маърифатли, бағрикенг ва барқарор жамият барпо этишда муҳим методологик асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар (сноскаларга мос)

1. Қосимов Б. Жадидчилик ҳаракати: ғоя ва амалиёт. — Тошкент, 2004.
2. Хайруллаев М. Ўзбек маърифатпарварлик фалсафаси тарихи. — Тошкент, 2010.
3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. — Тошкент, 1992.
4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. — Тошкент, 1999.
5. Парсонс Т. The Social System. — New York, 1951.
6. Durkheim É. The Division of Labour in Society. — London, 1997.
7. Tajfel H. Social Identity and Intergroup Relations. — Cambridge, 1982.
8. Berry J. Intercultural Psychology. — Boston, 2002.

[105] Расулов А. Жадид матбуоти ва ижтимоий онг. — Тошкент: Академнашр, 2014. (Матбуот орқали жамоатчилик фикрини шакллантириш ва ижтимоий консенсус)

[106] Дюркгейм Э. Ижтимоий меҳнат тақсимоти ҳақида. — Москва: Наука, 1996. (Ижтимоий интеграция ва ҳамжиҳатликнинг классик социологик назарияси)

[107] Парсонс Т. Ижтимоий тизим. — Москва: Академический проект, 2002. (Интеграция, қадриятлар ва ижтимоий барқарорлик назарияси)

[108] Тажфел Г. Социальная идентичность и межгрупповые отношения. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. (“Биз” идентиклиги, миллатлараро муносабатлар ва психологик механизмлар)

9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент, 2022.
10. Қосимов Б. Жадидчилик ҳаракати: ғоя ва амалиёт. — Тошкент: Шарқ, 2004. (Жадидларнинг маданий-маърифий мероси, таълим ислоҳоти ва ижтимоий аҳамияти ҳақида умумий назарий манба)
11. Хайруллаев М. Ўзбек маърифатпарварлик фалсафаси тарихи. — Тошкент: Фан, 2010.(Жадидчиликнинг фалсафий асослари, маърифат ва умуминсоний қадриятлар таҳлили)
12. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. — Тошкент: Ўқитувчи, 1992. (Ахлоқий-маърифий ғоялар, тарбия ва шахс камолоти масалалари)
13. Беҳбудий М. Танланган асарлар. — Тошкент: Маънавият, 1999. (Таълим ислоҳоти, миллатлараро тотувлик ва жамоатчилик фикри масалалари)
14. Мунавварқори Абдурашидхонов. Педагогик ва маърифий қарашлар. — Тошкент: Фан, 2005.(“Усули жадид” мактаблари ва инклюзив таълим ғоялари)
15. Расулов А. Жадид матбуоти ва ижтимоий онг. — Тошкент: Академнашр, 2014. (Матбуот орқали жамоатчилик фикрини шакллантириш ва ижтимоий консенсус)
16. Дюркгейм Э. Ижтимоий меҳнат тақсимоти ҳақида. — Москва: Наука, 1996. (Ижтимоий интеграция ва ҳамжиҳатликнинг классик социологик назарияси)
17. Парсонс Т. Ижтимоий тизим. — Москва: Академический проект, 2002.(Интеграция, қадриятлар ва ижтимоий барқарорлик назарияси)
18. Тажфел Г. Социальная идентичность и межгрупповые отношения. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. (“Биз” идентиклиги, миллатлараро муносабатлар ва психологик механизмлар)
19. Берри Дж. Психология межкультурных отношений. — Москва: Юнити, 2007.(Интеркултурализм, бағрикенглик ва эмпатия масалалари)

SADRIDDIN AYNIY VA YOSH BUXOROLIKLAR

Temirov Farrux Umedovich
Buxdu, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc)

XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan, o‘z safida yetuk, ilg‘or va talantli taraqqiyparvarlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati tarixida, Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalaridan, yangi usul maktablari ochilishining birinchi tashabbuskorlaridan bo‘lgan ma’rifatparvar adib Sadriddin Ayniy (1878-1954)ning bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li va o‘rni kattadir. Uning “Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro” (“Buxoro mang‘it amirlari tarixi”) va “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” va “Esdaliklar” kabi tarixiy, me’muar asarlarida va ayrim ilmiy – publisistik maqolalarida Buxoro jadidlari tomonidan maxfiy jamiyat shaklida tashkil etilgan, o‘z ichiga iste’dodli yoshlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar tashkilotining Buxoro ma’rifatparvarlik va

taraqqiyparvarlik tarixidagi o‘rni, ularning taniqli namoyandalari, uning siyosiy – ijtimoiy faoliyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Yosh buxoroliklar maxfiy tashkilotiga, asosan taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag‘allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo‘yish tarafdori bo‘lgan. Abdulvohid Burhonov (Munzim) (1875 – 1934), Abdurauf Fitrat (1886 – 1938), Fayzulla Xo‘jayev (1896 – 1938), Ubaydulla Xo‘jayev (1882 – 1938), Mukammil Burhonov (1884 – 1937), Usmon Xo‘ja (1878 – 1968), Otaulla Xo‘jayev (1880 – 1937), Abduqodir Muhiddinov (1892 – 1934), Muso Saidjonov (1893 – 1937), Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo‘ja Mehriy, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi.

Yosh buxoroliklar iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroyga o‘qishga jo‘natdi. Ular partiyaning moddiy mablag‘i hisobidan ta’lim olishgan. Fayzulla Xo‘jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag‘ ajratgan. Istanbulda «Buxoro ta’limi maorif jamiyati» tashkil qilinib, jamiyat a’zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko‘magi bilan Fitrat va boshqalarning taraqqiyparvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi. Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o‘stirish, maktab, madrasa, o‘quv tizimini isloh qilish edi.

Bu haqda Abdulla Badriy quyidagi fikrlarni keltiradi: “Yosh buxoroliklarni kim ekanliklarini bilib va anglab qolinglar! Yosh buxoroliklarning bir necha maqsadlari shulardurki, mamlakatni har nav idoralarini isloh qilib, har bir ishning boshiga ishlatilmak va ish bila turgan to‘g‘ri va haqqoniy odamlarni ta’in qilmoq va hozirgi zolim va poraxo‘r hukmdorlarni bekor qilmoqdur, toki mamlakatda, jabr – zulm va adolatsizliklar yo‘q bo‘lsin”.

Shu bilan birga Buxoro amirligida ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalarining shakllanishi va tarqalishi yo‘lida ma’rifatparvarlik sohasida Mirzo Muhiddin va uning o‘g‘li Mirzo Isomiddin, Ahmadjon Maxdum Hamdiy, Mirzo Izatullo, mudarris Abdulqodir Maxdum, Bo‘riboy va o‘g‘li Mirzo Mustafoqul, Jahongirbek qorovelbegi, Mullo Mirxon Porsozoda, Mazhar Maxdum, Mukammil Maxdum, tatar Mulla Nizom Sobitiy, Mirzashoh Foiz, Hamidxoja Mehriy, Mirzo Ismoil Attor, G‘ulomrizo qorovulbegi, Mullo Ochil va uning o‘g‘li Mullo Boqiylar ham katta xizmat qilishgan. “Ularning hamma ishlarga doim yordam berib yurganlardan biri, bu satrlarning yozuvchisi Sadriddin Ayniy ham bor edi”. Ayniy yozishicha, Rusiya va Turkiyada yuz bergan inqiloblar, Istanbul, Boku, Qrim va boshqa o‘lkalardan Buxoroga tarqala boshlagan turli gazeta va jurnallarning ta’siri ostida sekin-asta ochiq fikrlilar – yangi milliy ziyolilar guruhi shakllangan.

1883-1884 yillardayoq Buxoro ziyolilari “Tarjumon” gazetasi orqali yangi usul maktablaridan, jadidchilik va islohotchilik g‘oyalaridan voqif bo‘lishgan. 1884 yilda “Tarjumon”ning 1000 ta obunachisidan 200 tasi Turkistondan bo‘lgan. Adibning aytishicha, 1905 yildan boshlab “Tarjumon” gazetasi faqat tatar tilida chiqa boshlagan. Shuningdek, Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan Nizom Sobitovning tatar maktabi, Mulla Jo‘raboy tomonidan 1900 yilda ochilgan yangi maktab tez

orada shuhrat chiqarganidan keyin, bu maktablar bir qancha kishilarning fikrini ochib, maktab atrofida birlashadilar. “Yana bir yangi yosh fikrlilar (taraqqiyparvarlar) guruhi voyaga yetdilar. Maktab muqobili natijasida, o‘quvchilar bosh ko‘tarib qiyomat qildilar, bir – birlariga hamfikr va hamdard bo‘lib, xuddi jamiyat rangini oldilar. Ular bir joyda to‘planib, maqsadlari o‘zlariga ma’lum edi”.

Amirlikda yashirin ravishda tarqala boshlagan gazeta va jurnallarning mutolaa qiluvchilari, yangi maktab tarafdorlarining Buxoroda alohida bir jamiyatning shakllanishiga sababchi bo‘lgan. Bunda Ayniy, Abdulvohid Munzim, Hamidxoja Mehriy, Ahmadjon maxdum Hamdiy, Usmon Xo‘ja kabi eski jadidlar saflariga ularga hamfikr va xayrixoh bo‘lgan Abdurauf Fitrat, F.Xo‘jayev kabi taraqqiyparvarlarning yuzaga kelishi va o‘zaro jipslashuviga olib keladi. Buning natijasida 1910 yilda Yosh buxoroliklarni birlashtirgan “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) tashkiloti (maxfiy jamiyati) vujudga keladi. 1910 yilning ramazon oyigacha, Yosh buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” jamiyatiga, Mirzo Izatullo, Porsoxoja, Hoji Hamroh Yo‘ldosh o‘g‘li, Ahmad Kamol, Fazliddin – maxdum, Mirzo Nazrullo, Hoji Abdusattor, Hakimjon – maxdum, Mirzo Po‘lod, Salimjon, Muhammadnazar – maxdum, Mazhar – maxdum va Sadriddin Ayniy a’zo bo‘lib kirgan.

Buxoro amirligi hududida tatar muallimlari yangi usuldagi maktab ochish va o‘qitish ishlarini jadal suratlar bilan boshlab yuborganlar. Ayniyning o‘zi to 1908 yil, Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi ochilguniga qadar, tatar maktablarida ishlab, dars berish va o‘qitish yo‘llarini o‘rgangan. Ayniy “tatar maktabida olti oy ishlab, tajriba orttirdim” – deya qayd etgan edi.

Buxoro amirligida dastlabki yangi usul, jadid maktablari ochilishining tashabbuskorlaridan biri, adib Ayniy bo‘lgan. Bu haqda muallifning o‘zi “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Buxoroda birinchi usuli jadida maktabi” bo‘limida quyidagi muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “1326 yil hijriyda, shavval oyi o‘nida (milodiy 1908 yil 23 oktyabrda, yangi hisob bilan 1908 yil 5 noyabr) Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy (tojik) tilida birinchi marta buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabi ochildi va unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlandi. Bu maktabda dastlab o‘quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek-Abdullabek o‘g‘li, uning xizmatkori Abdug‘ani, Afzal va Akram - Ahmad maxdum Hamdiy o‘g‘li, Muhammadamin - Saidjon maxdum o‘g‘li, Abduqayim - Abdushukur o‘g‘li. Idi qurbongacha, ikki oy muddatda o‘quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi”.

Buxoroda tashkil etilgan yangi usul maktablarida o‘qitish jarayonini samarali bo‘lishini taminlash uchun darslik, qo‘llanma va yangi adabiyotlar shuningdek, talabchan va iqtidorli muallimlar zarur edi. Bu vaqtda yangi usul maktablarini kitob va muallimlar bilan ta’minlash, yoshlarni xorijda ta’lim olish ishlari ko‘maklashish, ularning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Yosh buxoroliklar tomonidan tuzilgan «Buxoroyi sharif Shirkati» muassisligida S.Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan “Tartil – ul Qur’on” (“Qiroat kitobi”), “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli o‘qish kitoblari birinchi marta 1909 yilda Orenburgda nashr etiladi. Ayniy “Tahsib us-sibyon” darsligini Ismoil Gasprinskiyning “Xo‘ji sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobi ta’siri ostida yozgan.

Bu kitob 1917 yilda Samarqandda “Ma’rifat kutubxonasi” tomonidan (1914 yilda yosh buxoroliklar tomonidan tashkil etilgan) tomonidan ikkinchi marta nashr etiladi.

Yosh buxoroliklar amirlikda demokratik tartiblarni o‘rnatish, xalqni jaholat, ilmsizlik va xurofotdan qutqazish maqsadida keng faoliyat olib borgan. Bunday xayrli maqsadga erishish yo‘lida matbuot qudratli kuch ekanligini to‘g‘ri anglaganlar. Ayniyning ta’kidlashicha, 1912 yilda “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati a’zolaridan Muhiddin Mansurov va Mirza Siroj Hakim (1878-1914) kabilarning sa’y – harakatlari tufayli amirlikda tojik tilida “Buxoroyi sharif” gazetasini chiqarishga ruxsat olinadi. Gazetaning mudirligiga Rossiya siyosiy agentligida tarjimon bo‘lib faoliyat yuritayotgan Haydarxo‘ja Mirbadalov tayinlanadi. “Elchixona syenzorlik haqi o‘z qo‘lida bo‘lmoq sharti bilan Buxoro hukumatidan Liviy va Haydarxo‘ja ismlariga gazeta uchun imtiyoz olib berdi. Bokudan muharrirlik uchun asli buxorolik Mirza Jalol Yusufzoda chaqirildi. Bir qadar harf va bir necha murattib keltirilib forsiy (tojik) tilda “Buxoroyi sharif” ismida kundalik bir gazeta chiqarildi. Gazetaning birinchi soni 4 rabius – soniy 1330 hijriy - 1912 milodiy 11 martda yakshanba kuni nashr bo‘ldi” deb, aniq qayd etadi Ayniy.

“Buxoroyi sharif” gazetasida Ayniy, Fitrat, Mirzo Sirojiddin Hakim, Sahbo, domla Ikromcha, Samad Mansur, Hamidxoja Mehriy va Mirza Jalol Yusufzoda o‘zlarining yangi usul maktablari, ma’rifiy va publisistik yo‘nalishdagi maqolalari bilan faol qatnashib turgan. “Buxoroyi sharif” gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o‘tib, ya’ni 1912 yil 14 iyul “Turon” gazetasining 1-soni nashr qilinadi. Shunday qilib, haftada to‘rt marta “Buxoroyi sharif”, ikki marta “Turon” gazetalari chiqa boshlagan. “Turon”ning dastlabki 14 soniga Mirzo Jalol Yusufzoda muharrirlik qilgan. “Xulosai kalom, 1913 yil 2 yanvarda rus elchixonasi ismidan Petrov imzosi bilan idoraga ushbu mazmunda bir maktub keldi: “Buxoro amiri janob oliyning xohishlari bilan ushbu kundan e’tiboran “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalari to‘xtatildi. Mana shunday bo‘lib “Buxoroyi sharif” 1912 yildan 2 yanvar 1913 yilga dovur 153 – son chiqib va “Turon” 14 iyul 1912 yildan boshlab mazkur tarixgacha 49 – son chiqib to‘xtamoqqa majbur bo‘ldi. Yangi meva keltira boshlagan ushbu ikki nihol, istibdod va zulm boltasi bilan xalq bog‘chasidan chopilib otildilar”.

Demak, “Buxoroyi sharif” 1912 yilning 11 martidan - 1913 yil 12 yanvargacha, “Turon” gazetasi 1912 yil 11 iyuldan - 1913 yil 3 yanvarigacha chop etib turilgan. Ayniyning ta’kidlashicha, “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarni nashr qilish, uni xalq orasida tarqatish, targ‘ibot va tashviqot qilishda quyidagi yoshlar va yosh fikrlilarning xizmatlari va yordamlari katta bo‘lgan: Mirzo Muhiddin Mansurov va uning o‘g‘illari Mirzo Izom va Mirzo Abdulqodir, Mirzo Siroj Hakim (Mirxon), Mirzo Abdulvohid Munzim, Fazliddin – maxdum, Muhiddin – maxdum Abdulhakim sudur o‘g‘li va uning birodari Abdunasir –maxdum, Aminjon – maxdum Ziyo, Abdulhakim – maxdum Obidzoda, Mirzo Izatullo, Mirzo Nazrullo G‘afurzoda (1917 yil aprelida shahid bo‘lgan), Hoji Abdusattor Abduqahhor o‘g‘li (1918 yilda shahid bo‘lgan), Mirzo Mustafoqul Bo‘riboy o‘g‘li (1918 yilda shahid bo‘lgan), Hoji Hamroh Yo‘ldosh o‘g‘li, Hoji Hamroh, Mirxon Porso, Porsoxoja Hasanxoja o‘g‘li va boshqalar.

Abdulla Badriyning 1919 yilda “Yosh buxoroliklar kimlar“ risolasida shunday fikrlar bor: “... onlarning fikru xayollari va muddaolari biz bechora va qashshoqlarni

g‘urbatdan, ya’ni amirlar, beklar va boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmoqdur”.

Yosh buxoroliklar faol a’zolaridan bo‘lgan Usmon Xo‘janing qarindoshi Latif Xo‘ja (Latif Xo‘jayev) tomonidan ham Gavkushon mahallasida yangi maktab ochilgan. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo‘lib, sinfda 3 ta globus, kitoblar, partalar, doska, o‘quvchilarga beriladigan daftarlar bo‘lgan. Bitta sinfda boshlang‘ich ta’lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta’lim olganlar o‘qitilgan. Darslarni Usmonxo‘ja va Mulla G‘ulom Qodirali olib borgan.

Buxorodagi jadid maktablari ichida Mukamilliddin Burhonov maktabi o‘zining jihozlanishi bilan ajralib turgan, unda shisha qo‘yilgan (oynalik) derazalar, temirda yasalgan pechkalar mavjud bo‘lgan. Yana bir maktabni Mullo Homidxo‘ja Bozori Nav guzarida o‘qituvchi uyida ochgan, unda 32 nafar o‘quvchi bo‘lib, darslar rus tilida olib borilgan. Maktablar ko‘pincha uning tashkilotchilari tomonidan ta’minlab turilgan, ayrim hollarda, ularga boy-badavlat kishilar homiylik qilib turgan. Bundan tashqari, maktablarning ta’minoti ota-onalar tomonidan beriladigan o‘qish puli hisobidan ham yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Mirzo Abdulvohid va Ayniylar tashkil etgan jadid maktabida o‘qish puli oyiga 3 so‘mni tashkil etgan. Eski maktabda 6 - 10 yil o‘qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o‘qitilgan. Ayniy ta’kidlaganidek, ushbu maktablar “nim (yarim) isloh maktablari” edi.

Muxtasar qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro amirligida taraqqiyparvarlik va ma’orifatparvarlik g‘oyalari XIX - asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlab, XX asr boshlariga qadar davom etgan. Ahmad Donishdan meros bo‘lib o‘tgan bu teran g‘oyalarni yuksaltirish va rivojlantirish Yosh buxoroliklarning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Bu xayrli yo‘lda Ayniy va uning yaqin maslakdoshlari bo‘lgan Yosh buxoroliklar Buxoroyi sharifda katta xizmat qilgan. Mahalliy xalqni, yosh avlodning savodini chiqarish, ularning ongiga maorifparvarlik g‘oyalarini singdirishda, avvalo jadid maktablari va milliy matbuot asosiy rol o‘ynagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Айнй С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти, 1926.
3. Айний С. Эсдаликлар. I – IV қисмлар. / Асарлар. 8 жилдлик. 5-7 жилдлар. Т: Ўздавнашр, 1965-1967.
4. Абдулла Бадрий. Ёш бухороликлар кимлар ? – Москва: 1919.
5. Ражабов Қ. Ёш бухороликлар. // Бухоро мавжлари. 2005, № 2.

ФАХРИДДИН РОЗИЙ МЕРОСИДА АҚЛ ВА НАҚЛ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАСИ

Эшпулатов Иноят Сапарович
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий хавфсизлик ва мудофаа университети жанубий оператив қумондонлик факультети катта ўқитувчиси фалсафа доктори (PhD)

Ислом тафаккури тарихида ақл (рационал билиш) ва нақл (ваҳий, Қуръон ва ҳадисга таяниш) ўртасидаги муносабат масаласи доимо марказий ўрин тутган. Мутафаккирлар ушбу икки манбанинг ўзаро нисбатини турлича талқин қилганлар: айримлар нақлни мутлақ устун қўйган бўлсалар, бошқалар ақлий далилларни кенг қўллаш тарафдори бўлганлар. XII аср ислом мутафаккири Фахриддин Розий эса мазкур масалада мувозанатли ва тизимли ёндашувни ишлаб чиққан алломалардан бири сифатида эътироф этилади.

Унинг бой илмий мероси, айниқса машҳур тафсири — “Мафотих ал-ғайб” асарида ақл ва нақл уйғунлиги назарий ва амалий жиҳатдан асослаб берилган. Розий ўз даврида калом, фалсафа, мантиқ ва тафсир илмларини уйғунлаштирган ҳолда ислом ақидасини ҳимоя қилишга ҳаракат қилган.

Ислом илмлари тараққиётининг илк босқичларидаёқ ақл ва нақл муносабати баҳсли масалага айланган. Муътазила мактаби ақлий далилларга кенг ўрин берган бўлса, аҳли ҳадис ва баъзи сунний уламолар нақлни устун қўйган. Ашъарийлик таълимоти эса бу икки йўналиш ўртасида муайян мувозанат яратишга интилган.

Фахриддин Розий айнан шу анъанани янада ривожлантириб, ақлни нақлни тушуниш ва ҳимоя қилиш воситаси сифатида талқин қилди. Унинг фикрича:

Саҳиҳ ақл ҳеч қачон саҳиҳ нақлга зид келмайди;

Агар зиддият кўринса, бу ё ақлий далилдаги хатодан, ёки матнни нотўғри тушунишдан келиб чиқади;

Нақлни тўғри англаш учун ақлий таҳлил зарур.

Бу ёндашув Розийни мувозанатли калом мактабининг энг йирик намояндасига айлантирди.

Фахриддин Розий ақлни инсонга берилган илоҳий неъмат деб баҳолайди. У ақл орқали: Аллоҳнинг мавжудлигини исботлаш; Сифатлар масаласини таҳлил қилиш; Қадар, ирода ва жавобгарлик каби мураккаб ақидавий масалаларни шарҳлаш мумкин, деб ҳисоблайди.

У мантиқ ва фалсафадан фаол фойдаланган. Айниқса, борлиқ, сабаб-оқибат муносабати, мумкин ва вожибул-вужуд тушунчаларини шарҳлашда ақлий далилларни чуқур ишлатган.

Бироқ Розий ақлни мутлақ ҳукмдор деб билмаган. Унинг назариясида ақл - мустақил равишда ҳақиқатни топиши мумкин, аммо ваҳий орқали келган ҳақиқатга қарши чиқмаслиги керак. Ваҳийни англашда ёрдамчи восита вазифасини бажаради.

Фахриддин Розий Қуръон ва суннатни мутлақ ҳақиқат манбаи сифатида қабул қилади. У тафсир соҳасида оятларни луғавий ва услубий таҳлил қилади, сабаби нузул ва ривоятларга таянади, сўнгра ақлий мулоҳазалар билан мазмунни чуқурлаштиради.

Розийнинг ёндашувида нақл - асос, ақл эса уни англаш калитидир. Агар муайян оят зоҳирий маънода ақлга зиддек туюлса, у ҳолда матннинг мажозий ёки таъвилий маъносини кўриб чиқиш, ақлий далилни қайта таҳлил қилиш, иккиси ўртасида мувофиқлик излаш зарур. Бу усул унинг илмий меросида тизимли равишда намоён бўлади.

Фахриддин Розий тафсирларида кўпинча қуйидаги услуб кузатилади:

Аввало, оятнинг зоҳирий маъноси берилади;

Сўнгра турли мазҳаб ва олимлар фикри келтирилади;

Кейин ақлий таҳлил орқали энг мувофиқ хулоса чиқарилади.

Масалан, Аллоҳнинг сифатлари ҳақидаги оятларни шарҳлашда у антропоморфизмга йўл қўймаслик учун ақлий далилларга таянади ва таъвил усулидан фойдаланади. Шу орқали у нақлни ҳимоя қилган ҳолда ақл талабларини ҳам инобатга олади.

Бу ёндашув ислом илоҳиётида рационал фикрлаш анъанасини сақлаб қолишда муҳим роль ўйнаган.

Фахриддин Розийнинг ақл ва нақл уйғунлиги ҳақидаги таълимоти:

Ашъарий каломини мустаҳкамлади;

Ислом фалсафаси ва тафсир илмини бойитди;

Кейинги уламолар учун методологик асос бўлиб хизмат қилди.

Унинг қарашлари диний матнларни чуқур, мантиқий ва тизимли талқин қилиш имкониятини яратди. Шу билан бирга, у ислом ақидасини фалсафий танқидлардан ҳимоя қилишда муҳим роль ўйнади.

Хулоса қилиб айтганда, Фахриддин Розий меросида ақл ва нақл муносабати қарама-қаршилик эмас, балки уйғунлик тамойилига асосланади. Унинг таълимотига кўра, саҳиҳ ақл ва саҳиҳ нақл ўзаро зид эмас аксинча, бири иккинчисини тўлдиради.

Розий ақлни ваҳийни англаш ва ҳимоя қилиш воситаси сифатида талқин этган бўлса, нақлни мутлақ ҳақиқат манбаи, деб билган. Шу жиҳатдан унинг илмий мероси ислом тафаккурида мувозанатли, рационал ва анъанавий ёндашув намунаси сифатида алоҳида аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Фахриддин Розий. *ал-Маҳсул фи усул ал-фиқҳ*. Қоҳира, 1997. – Б. 22.
2. Фахриддин Розий. ал-Мабоҳис ал-машриқийя. Байрут, 1990. – Б. 47.
3. Фахриддин Розий. Тафсир ал-кабир (Мафотих ал-ғайб). Қоҳира, ж. 1. – Б. 58.
4. Фахриддин Розий. *Асос ат-тақдис*. Қоҳира, 1986. – Б. 92.
5. Фахриддин Розий. *ал-Матолиб ал-олия*. Байрут, 2002. – Б. 34.
6. Фахриддин Розий. *Шарҳ уюн ал-ҳикма*. Байрут, 1995. – Б. 126.

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI UNING YIRIK NAMOYONDALARI VA TARIXIY AHAMIYATI

Xolliyev Siroj Ziyodulla o‘gli
Qashqadaryo viloyati muborak tumani 2 -umum ta'lim maktabi

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Turkiston o‘lkasida ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotda jiddiy muammolar mavjud edi. Bir tomondan, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida milliy erkinlik cheklangan, xalqning siyosiy huquqlari poymol qilingan va iqtisodiy jihatdan mahalliy aholi zaif ahvolda qolgan edi. Ikkinchi tomondan, o‘sha davrda faoliyat yuritgan eski usuldagi maktab va madrasalar zamon talabiga javob bermas, o‘quv dasturlari tor doirada bo‘lib, ko‘proq diniy fanlar bilan chegaralangan edi. Natijada xalq ilm-fan va zamonaviy bilimlardan uzoqlashib, taraqqiyotdan ortda qolib ketayotgan edi. Shu bilan birga, jahon miqyosida ilm-fan, sanoat va texnika sohalarida ulkan yutuqlarga erishilayotgan, yangi davr g‘oyalari tez sur’atlar bilan tarqalayotgan bir paytda Turkiston xalqlarida milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji ortib bordi. Xalq orasida milliy uyg‘onish ruhining kuchayishi, ma’rifat va taraqqiyotga bo‘lgan intilishning ortishi jadidchilik harakatining shakllanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, o‘lkadagi ilg‘or ziyolilar xalqning jaholat girdobidan chiqishi uchun yangi yo‘l izlab, ta’lim tizimini isloh qilish, matbuot orqali xalqni uyg‘otish, teatr va adabiyot orqali ijtimoiy muammolarni ko‘tarish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning asosiy maqsadi – xalqni jahon taraqqiyoti yo‘liga olib chiqish, milliy madaniyat va ma’rifatni yuksaltirish, oxir-oqibat esa ozodlik va mustaqillikka erishish edi. Shu omillar natijasida jadidchilik harakati paydo bo‘ldi va qisqa fursatda butun o‘lka bo‘ylab keng tarqaldi.

Jadidchilik harakatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – ta’lim tizimini isloh qilish edi. Chunki jadidlar xalqni jaholatdan qutqarishning, millatni taraqqiyot sari yetaklashning asosiy yo‘li ma’rifat ekanini yaxshi tushunishgan. Eski usuldagi maktab va madrasalarda o‘quvchilarga ko‘pincha faqat diniy ilmlar, Qur’on va hadis ilmlari o‘rgatilgan, biroq zamonaviy fanlarga, dunyoviy bilimlarga deyarli e’tibor berilmagan. Shu sababdan, yangi avlod ziyolilari xalqning orqada qolmasligi uchun yangi maktablar tashkil etishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishdi. “Usuli jadid” atamasi ham bejiz tanlanmagan bo‘lib, u “yangi usul” degan ma’noni anglatardi. Bu maktablarda ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik usullar qo‘llanildi, yozuv va o‘qish mashqlari yengil usullar bilan o‘rgatildi. Darsliklar o‘zbek tilida yozila boshladi, bu esa o‘quvchilarning o‘z ona tilida bilim olishiga keng imkon yaratdi. Jadid maktablarida o‘quvchilar faqat diniy bilimlar bilan cheklanmay, balki arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot kabi fanlarni ham o‘qishardi. Bu o‘z navbatida yoshlarning tafakkurini kengaytirar, dunyoqarashini boyitar, ularni zamonaviy hayot talablariga tayyorlar edi. Shuningdek, darslarda yozma va og‘zaki savodxonlik, milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya ham alohida o‘rin egalladi. Natijada, jadid maktablari qisqa vaqt ichida xalq orasida ommalashdi. Ularning faoliyati Turkiston jamiyatida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi: savodxonlik darajasi oshdi, yangi avlod ziyolilari yetishib chiqdi va milliy uyg‘onish g‘oyalari keng tarqaldi.

Jadidchilik harakatining keng xalq ommasiga tarqalishida matbuotning o‘rni beqiyos bo‘ldi. Zero, gazeta va jurnallar orqali xalqni yangicha fikrlashga, milliy uyg‘onishga, ilm-ma’rifat va taraqqiyot sari chorlovchi g‘oyalar tez va samarali yoyildi. Jadid ziyolilari matbuotni “xalqning ko‘zi va qulog‘i” deb bilib, uning yordamida millatni uyg‘otish, o‘zligini anglash va mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashish imkoniyatini ko‘rdilar. Turkiston jadidlari tomonidan turli gazeta va jurnallar tashkil etildi. Ulardan eng mashhurlari – “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, keyinchalik esa “Oyna” kabi nashrlar edi. Bu gazetalarda ta’limning ahamiyati, milliy birlik, ozodlik, adolat, ayollar ta’limi, iqtisodiy mustaqillik kabi masalalar ko‘tarildi. Xalqni savodsizlikdan qutqarish, zamonaviy fanlarni o‘rganishga undash, millatni jaholatdan chiqarish asosiy maqsad edi. XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining keng yoyilishida matbuot alohida o‘rin tutgan. Bu borada birinchi jadid gazeta – “Taraqqiy” 1906-yil 27-iyunda Toshkent shahrida chop etila boshladi. Gazetaning asoschisi va muharriri Ismoil Obidov bo‘lib, uning tahririyati O‘ratepa ko‘chasidagi 97-uyda joylashgan edi. Gazetaning obuna narxi ham o‘z davri uchun aniq belgilangan: bir yillik obuna 5 so‘m, bir dona nusxasi esa 50 tiyindan sotilgan. “Taraqqiy” to‘rt sahifada chiqib, unda turli xil e’lonlar ham o‘rin olgan. Nashrning shiori “Najot: maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat” deb belgilangan bo‘lib, gazetaning maqsad va g‘oyaviy yo‘nalishini ifodalab turgan. Unda ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy va tijoriy mavzular yoritilgan. Biroq gazeta uzoq yashamadi. Atigi 20 soni chiqqach, rus mustamlaka ma’muriyati uni yopib qo‘ydi, muharriri esa qamoqqa olindi. Shundan so‘ng jadid ziyolilari matbuot ishini davom ettirish maqsadida yangi nashrlarni yo‘lga qo‘ya boshladilar. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirligida “Xurshid” gazetasi chop etildi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1907-yil 21-avgustda esa “Tujjor” gazetasi nashr etila boshladi. Afsuski, bu gazetalar ham uzoq davom etmadi. Har ikkisi atigi 5–6 ta son chiqargach faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Shuningdek, mazkur gazetalar nusxalari bizgacha yetib kelmagan.

Jadidchilik harakati xalqni uyg‘otish va milliy ongni yuksaltirishda faqat maktab va matbuot bilan cheklanib qolmadi. Ular xalqni tezroq va kuchliroq ta’sirchan vositalar orqali tarbiyalash zarurligini anglab, teatrni ham ma’rifat targ‘ibotchisi sifatida qo‘llay boshladilar. Chunki teatr xalq orasida g‘oyalarni ommalashtirishning eng ta’sirchan san’at turlaridan biri edi. Jadid teatri XX asr boshlarida shakllana boshladi. Uning asoschisi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy nomi tilga olinadi. U 1911-yilda yozgan “Padarkush” dramasi jadid teatrining ilk namunasi hisoblanadi. Asarda ota-onaga itoatsizlik, jaholat, nodonlik va beparvolikning fojiali oqibatlari ko‘rsatilib, tomoshabinlarni saboq olishga chorlanadi. Ushbu pyesa sahnalashtirilganda xalq orasida katta qiziqish uyg‘otgan va ma’rifiy ruhda kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Keyingi yillarda jadid ziyolilari tomonidan boshqa pyesalar ham yozilib, sahnaga qo‘yildi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat, Avloniy singari jadid arboblari ham teatr orqali millatning og‘riqli muammolarini ko‘tarib chiqishdi. Ularning asarlarida ayollarning ta’lim olishi, tenglik, jaholatdan qutulish, milliy birlik kabi masalalar yoritildi. Jadid teatrining sahnalari dastlab maktab binolarida, bozor maydonlarida yoki xususiy uylarning hovlilarida tashkil etildi. Oddiy sharoitlarda bo‘lsa ham, ularning asarlari

xalq ongiga tez kirib bordi. Teatr orqali jadidlar o‘z g‘oyalarini keng ommaga yetkazib, ma’rifat, ozodlik va taraqqiyot yo‘lida ulkan xizmat qildilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) jadidchilik harakatining eng yirik vakillaridan biri, ma’rifatparvar, dramaturg, jurnalist va siyosiy arbob sifatida tarixda muhim o‘rin egallagan. U Samarqandda tug‘ilib, yoshlikdan diniy va dunyoviy bilimlarni egalladi, keyinchalik haj safariga borib, Istanbul, Qohira, Bombay kabi markazlarda bo‘lib, musulmon dunyosidagi taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan yaqindan tanishdi. Ana shu safarlar uning dunyoqarashini kengaytirib, o‘lkada yangi islohotlar zaruriyati haqida chuqurroq o‘ylashiga sabab bo‘ldi. Behbudiy jadidchilikning markaziy arboblaridan biri sifatida avvalo ta’lim tizimini yangilash masalasiga katta e’tibor qaratdi. U yangi usul maktablarini tashkil qilish, ularga zamonaviy fanlarni kiritish tarafdori bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda birinchi “usuli jadid” maktablari ochildi. Behbudiy o‘qituvchilar tayyorlash, darsliklar yozish, bolalarning savodini tez va samarali chiqarish uchun ko‘p mehnat qildi. U faqat ta’lim bilan cheklanmay, matbuot sohasida ham faoliyat yuritdi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Behbudiy, shuningdek, o‘zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning mashhur “Padarkush” pyesasi jadid teatrining ilk namunasi bo‘lib, xalq ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Asarda jaholat va nodonlikning fojiali oqibatlari ko‘rsatilib, yoshlarni bilim olishga, ota-onalarga esa farzand tarbiyasiga e’tiborli bo‘lishga chorlovchi g‘oya ilgari surildi. Siyosiy faoliyatida Behbudiy Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatladi, milliy mustaqillik g‘oyalarini ilgari surdi. Afsuski, 1919-yilda Buxoroda bo‘lib o‘tgan voqealar chog‘ida u qatl etildi.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining eng faol vakillaridan biri, o‘z davrining ma’rifatparvar shoiri, o‘qituvchisi, jurnalisti va jamoat arbobi sifatida tarixda katta iz qoldirgan. U nafaqat adabiyot orqali, balki bevosita amaliy faoliyati bilan ham xalqning ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin tutdi. Avloniy o‘zining butun hayoti davomida ilm-fanni, ta’lim-tarbiyani millat kelajagi uchun eng asosiy qurol deb bildi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek jadid pedagogikasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda axloqiy qadriyatlar, odob-axloq qoidalari, insoniylik fazilatlari, ilm va ma’rifatning jamiyat hayotidagi o‘rni keng yoritilgan. Bu asar yosh avlodni milliy ruhda, yuksak ma’naviyat va sog‘lom tafakkur asosida tarbiyalashga qaratilgan dasturilamal sifatida qadrlanadi. Avloniy jadid maktablarining ochilishi va yangi usuldagi darsliklar yaratilishida ham faol ishtirok etdi. U yozgan darsliklar orqali bolalarga nafaqat savod chiqarish, balki dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy bilimlarni egallash, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish maqsad qilingan. Shuningdek, Avloniy matbuot orqali ham faoliyat olib borib, “Shuhrat”, “Turon” kabi gazeta va jurnallarda o‘z maqolalari bilan chiqish qilib, xalqni jaholatdan xalos etish, ilm-fan va ma’rifat yo‘liga boshlashga intildi. U teatr sahnasiga ham e’tibor qaratib, dramaturgiya sohasida ham o‘z izini qoldirgan. Abdulla Avloniy faoliyati bilan butun bir avlodni uyg‘otdi. Uning fikricha, xalqning kelajagi faqatgina ilm, ma’rifat

va tarbiyada, millatning qudrati esa yoshlarga berilgan ta’lim sifati bilan belgilanadi. Shu boisdan ham u umrini yoshlarni ilmli, axloqli, vatanparvar qilib tarbiyalashga bag‘ishladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, Toshkent jadidlarining peshqadamlaridan sanaladi. U o‘z davrida ilm-ma’rifatni yoyish, xalqni jaholatdan chiqarish va milliy uyg‘onishni amalga oshirish yo‘lida fidokorona xizmat qilgan. U eng avvalo ta’lim islohoti masalasiga katta e’tibor qaratdi. Toshkentda yangi usuldagi jadid maktablarini ochib, yoshlarga zamonaviy bilim berishga harakat qildi. Bu maktablarda diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlar — matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, til va adabiyot ham o‘qitildi. Shuningdek, u zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etib, o‘qituvchilar tayyorlashga ham alohida e’tibor bergan. Munavvarqori matbuot sohasida ham faoliyat olib borgan. U gazeta va jurnallar orqali milliy uyg‘onish, ma’rifat, mustaqillik g‘oyalarini keng targ‘ib qildi. Uning maqolalari xalqni ilm-fan va ma’rifat sari chorlash, milliy o‘zlikni anglashga undash, mustamlakachilik zulmiga qarshi ruhlantirishga qaratilgan edi. Munavvarqorining asosiy orzu va maqsadi Turkiston o‘lkasining milliy mustaqilligiga erishish bo‘lgan. Shu yo‘lda u ko‘plab qiyinchiliklarga duch keldi, ammo o‘z g‘oyalaridan hech qachon qaytmadi. Uning faoliyati natijasida Toshkent jadidchiligi keng quloch yozdi va butun o‘lka bo‘ylab jadid maktablari, madaniy-ma’rifiy harakatlarning rivojlanishiga turtki berdi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari orasida Cho‘lpon va Fitrat alohida o‘rin tutadi. Ularning ijodi, ma’rifiy va siyosiy faoliyati o‘z davrida millat uyg‘onishining ramziga aylandi. Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li) she’riyat, nasr va tarjima sohalarida samarali ijod qildi. U o‘z asarlarida millatning uyg‘onishi, ozodlik va istiqlol orzularini kuyladi. Uning “Kecha va kunduz” romani o‘zbek adabiyotidagi ilk romanlardan biri bo‘lib, unda millatning ma’naviy uyg‘onishi, mustamlakachilik davridagi ijtimoiy muammolar, xalqning kelajakka bo‘lgan intilishlari yoritilgan. Shoir sifatida Cho‘lpon “O‘zbek adabiyotining lirigi” deb atalib, xalq qalbidagi ozodlikka tashnalik, erkinlik va milliy g‘ururni she’riy satrlarga mujassam eta oldi. Fitrat (Abdurauf Fitrat) esa jadidchilikning nafaqat adabiy, balki siyosiy qanotida ham yetakchi bo‘ldi. U ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixiy va falsafiy asarlari orqali milliy ongni uyg‘otishga xizmat qildi. Fitratning maqolalari, pyesalari va ilmiy asarlarida xalqni jaholatdan xalos etish, ilm va ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish asosiy o‘rin tutgan. U siyosiy maydonda ham faol bo‘lib, Turkiston xalqlarining mustaqil bo‘lishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi uchun kurashdi. Cho‘lpon va Fitratning ijodi va faoliyati bir-birini to‘ldirgan holda jadidchilik g‘oyalarini yanada chuqurlashtirdi. Cho‘lponning badiiy asarlari xalq qalbida milliy g‘ururni uyg‘otsa, Fitratning ilmiy va siyosiy ishlari xalq tafakkurini yangilashga xizmat qildi. Ularning ijodida ozodlik ruhi, istiqlol orzusi va milliy uyg‘onish g‘oyalari kuchli ifodalangan bo‘lib, bugungi kunda ham bebaho meros sifatida qadrlanadi.

Jadidlar dastlab o‘z faoliyatlarini ma’rifat va ta’lim sohasida boshlagan bo‘lsalar-da, vaqt o‘tishi bilan faqatgina maktab ochish, kitob nashr etish yoki xalqni madaniy jihatdan uyg‘otish bilan kifoyalanib bo‘lmasligini tushunib yetdilar.

Ularning nazarida millat taraqqiyoti uchun eng avvalo mustaqil siyosiy tuzum, milliy hukumat va o‘z boshqaruv tizimi zarur edi. Shu boisdan jadidlar asta-sekin siyosiy maydonga ham qadam qo‘ydilar. XX asr boshlariga kelib, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati tobora kuchayib, Turkiston o‘lkasidagi milliy manfaatlarni butunlay chetga surib qo‘yayotgan edi. Bu esa jadidlarni siyosiy kurashga undadi. Ular dastlab matbuot orqali hukumatning adolatsiz siyosatini tanqid qildilar, xalqni siyosiy ongli bo‘lishga, huquqlarini himoya qilishga chaqirdilar. Keyinchalik ular turli siyosiy tashkilotlar tuzib, milliy hukumat barpo etish g‘oyasini ilgari surdilar. 1917-yilgi Fevral inqilobi natijasida Rossiyada podsho hukumatining ag‘darilishi jadidlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ular bu vaziyatdan foydalanib, Turkiston xalqlarining siyosiy manfaatlarini himoya qilish uchun harakat boshladilar. Jadidlarning asosiy maqsadi Turkistonda milliy muxtoriyat o‘rnatish, xalqning taqdirini o‘z qo‘liga olish edi. Shu yo‘lda ular Qo‘qon shahrida yig‘ilishlar o‘tkazib, 1917-yil dekabr oyida Turkiston Muxtoriyatini e’lon qildilar. Bu voqea jadidlarning siyosiy faoliyatidagi eng yuksak bosqich bo‘ldi. Garchi muxtoriyat uzoq yashamagan va qisqa muddatda qurolli kuchlar tomonidan bostirilgan bo‘lsa-da, bu tarixiy voqea millatning siyosiy uyg‘onishi, mustaqillik sari tashlangan jasoratli qadami sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Jadidlarning siyosiy faoliyati ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular xalqni nafaqat bilimli, balki siyosiy jihatdan ham ongli qilishga intildilar. Ularning bu yo‘ldagi sa’y-harakatlari keyinchalik O‘zbekiston mustaqilligi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

1917-yilgi Fevral inqilobidan keyin Rossiya imperiyasi parchalanib, uning turli o‘lkalarida siyosiy bo‘shliq yuzaga keldi. Bu vaziyat Turkiston jadidlari uchun ham katta imkoniyat yaratdi. O‘n yillar davomida xalqni ma’rifat va taraqqiyotga chorlab kelgan jadid ziyolilari endi siyosiy maydonga chiqib, millat taqdirini o‘z qo‘liga olishga harakat qildilar. Shu sharoitda, 1917-yilning dekabr oyida Qo‘qon shahrida yig‘ilish o‘tkazilib, unda Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Bu muxtoriyat o‘zining tarkibida turli millat vakillarini jamlagan bo‘lib, demokratiya, adolat va millatlar tengligi tamoyillariga asoslangan edi. Uning rahbarlari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mustafo Cho‘qay kabi jadidlar faol ishtirok etdilar. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi xalqning mustaqillikka bo‘lgan intilishining yaqqol ifodasi bo‘ldi. Bu voqea o‘z davrida butun mintaqadagi siyosiy hayotni jonlantirdi va xalq orasida katta umid uyg‘otdi. Afsuski, muxtoriyat uzoq umr ko‘rmadi. 1918-yilning fevral oyida bolshevik kuchlari Qo‘qonga bostirib kirib, muxtoriyatni qurolli yo‘l bilan tugatdilar. Minglab begunoh odamlar halok bo‘ldi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida jadidlar o‘z faoliyatini davom ettirishga harakat qildilar. Ular yangi tuzum sharoitida ham millat manfaatlarini himoya qilish, ta’limni rivojlantirish va xalqni uyg‘otish yo‘lida xizmat qilishni maqsad qilgan edilar. Ammo bolsheviklar tez orada jadidchilik harakatini o‘z hokimiyati uchun xavf sifatida ko‘ra boshladilar. Chunki jadidlar xalqni milliy uyg‘onishga, mustaqillik sari chorlar, bu esa sovetlarning markazlashgan siyosatiga zid edi. 1920-yillardan boshlab jadidlarga qarshi siyosiy bosim kuchaydi. Ularning maktablari yopildi, matbuot nashrlari taqiqlanib, faoliyati cheklab qo‘yildi. 1930-

yillarga kelib esa bu bosim keng ko‘lamli qatag‘onlarga aylanib ketdi. Sovet hukumatining “xalq dushmanlari” toifasiga jadid ziyolilari ham kiritildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon kabi ko‘plab jadid arboblari asossiz ayblar bilan hibsga olindi. Ularning ayrimlari qatl etildi, boshqalari uzoq muddatli surgunlarga yuborildi. Natijada o‘zbek milliy uyg‘onishining eng yorqin vakillari xalqdan ayro qilindi.

Jadidchilik harakati O‘rta Osiyo, xususan, Turkiston xalqlarining tarixida ulkan burilish yasagan hodisa bo‘ldi. U o‘z davrida nafaqat ta’lim va madaniyat sohasida, balki xalqning siyosiy ongini uyg‘otishda ham katta rol o‘ynadi. Jadidlarning asosiy maqsadi millatni jaholatdan chiqarish, taraqqiyot yo‘liga boshlash va milliy mustaqillikka erishish edi. Ular ochgan yangi usul maktablari, nashr etgan gazeta va jurnallari, yozgan ilmiy va adabiy asarlari orqali xalq ongida tub o‘zgarish yasashdi. Natijada o‘zbek jamiyatida ilm-fanga, zamonaviy bilimlarga, siyosiy erkinlik va huquqlarga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu xalq orasida milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va mustaqillikka intilish tuyg‘usining shakllanishiga katta turtki berdi. Jadidlar o‘z faoliyati bilan o‘zbek xalqi qalbida istiqlol orzusini uyg‘otdi. Garchi ular o‘z davrida bu orzularni ro‘yobga chiqara olmagan bo‘lsalar-da, keyinchalik mustaqillik uchun asosiy ma’naviy poydevorni yaratib ketdilar. Jadidchilik harakati tufayli millat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi, xalqning siyosiy va madaniy ongida uyg‘onish yuz berdi.

Jadidchilik harakati – millat tarixida yorqin sahifa. Ular o‘z davrida erishmagan bo‘lsalar-da, mustaqillik davri uchun mustahkam poydevor qo‘yib ketishdi. Bugun jadidlarning merosi yosh avlod uchun saboq va ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/jadidchilik-harakatining-vujudga-kelishi-va-uning-ijtimoiy-falsafiy-ahamiyati

2. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. Qosimov, B. Jadidchilik harakati va uning namoyandalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИДАГИ АДАБИЁТЛАРНИ БИБЛИОГРАФИЯЛАШ АСОСЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Байтураев Тойчибай Досатович
К.п.н., Доцент и.о.проф.
“Информационной библиографической деятельности”
Узбекский Государственный институт искусства и культуры УзГИИиК

XIX аср охири ва XX аср бошларида юзага келган жадидчилик ҳаракати (арабча *«усули жадид»* — янги усул) анъанавий жамиятни маърифат орқали ислоҳ қилишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган харакатнинг азоларининг мақсадларини,олиб борган фаолиятларини алохида ўрганиш бизга адабиётлар

билан ишлаш, уларни тарғиб қилиш бўйича олиб борилган ишларни қачон бошланганлигини аниқлаш имконини беради. Бу характ аьзолари томонидан нашрга тайёрланган янги дарслик, ўқув қўланма, янги бадий адабиётларнинг рўйхатини вақтли нашрларда рўйхатини бериб бориш йўлга қўйганлиги махалий халқлар томонидан ёки ўлканинг алохида шаҳарларида шундай фаолият йўлга қўйиганлигини алохида ўрганиш мумкин бўлади. Энг асосийси бу хулоса билан жадидлар вақтли нашрларда кундалик характердаги соҳа адбиётлари бўйича янги нашрларнинг библиографиясини йўлга қўйганлар эканлигини ўрганишимизга тўғри келади.Бу рўйхат кимларга мўжаланганлиги ва кимлар улардан аниқ мақсадлари учун фойдаланганлигини илмий тахлил қилишимизга тўғри келади. Шунинг учун ҳам биринчидан бундай фаолият йўлга қўйилиши учун асос яратганликлари билан бирга, икинчидан бунай нашрлар борлиги хақида халқга доимий маьлумот бериб турганликлари учунасоснианиқлашга тўғри келади. Библиографик фаолиятни олиб боришда жадид матбуоти томонидан кундалик адбиётлар рўйхатини бериб боришни алохида ўрганиш бу мухим библиографик жараён тарихини Ўрта Осиё ва Ўзбекистон учун тиклаш имкониятини беради. Шунингдек жадидларнинг нашрларидаги библиографик фаолиятни вақтли нашрларда бериладиган доимий рўйхат тайёрлашни ўрганиш орқали улар янги усул мактабларидан қандай фанларни ўтганликлари ва уларнинг сони сифати кандай эканлиги хақидаги маьлумотларни ҳам ўрганишимизасос бор деб хисоблаймиз.

Шахарлардаги ўқув юртлари уларнинг дарс берувчи мутахасислари мутахассислар, уларнинг махалий ўқув юртларда фанларни ўқитиш сифатини ўстиришга қўшган, жадидлар томонидан тузилганган библиографик рўйхатлардан ўрганиш мумкин бўлишини алохида такидлаш мумкин. Уларнинг олиб борган янгиланиш фаолиятларидан бири бу улар томонидан янги хизмат турини олиб борувчи жамоат кутубхоналари ва қироатхоналарнинг ташкил этилиши бўлганлигини

Нашриётидан турли соҳа дарслик китобларни ўз маблағи ҳисобидан чоп эттирган бўлиб, уларни мактаблар ва мадрасаларга ўз хисобидан ётқазиб берганлиги мутахасислар томонидан ўрганилга. Жадид харакати азолари томонидан янги китобларни мактабларга, мадрасаларга тавсия қилиш бўйича ташкил қилинган янги китобларни тавсия қилувчи адабиётлар рўйхатини доимий, тизимли матбуот орқали бериб борганликлари янги фаолиятга асос солган яна бир йўналиш сифатида кўрсатиш мумкин. жадидлар матбуотни маърифат тарқатишнинг энг таъсирчан воситаси деб билдилар. Бу каби фикрлар газетанинг асосий мақсади — халқни илм-фанга даъват этиш ва жамиятни ислоҳ қилиш эканини яққол намоён этади. Жадид матбуоти, хусусан ўз саҳифаларида:мактаб ва таълим тизимини янгилаш,замонавий фанларни ўқитишни йўлга қўйиш,миллий ўзликни англаш ва тараққиёт ғояларини тарғиб қилиш,китобхонлик ва маърифатни кенгайтириш каби масалаларни доимий равишда кўтариб чиққан.Улар газеталар ва журналлар орқали янги китоблар ҳақида маълумот, тақриз (рецензия) ва тавсиялар бериб бориш орқали уларни фойдаланувчиларини кўпайтириш мумкинлигига ишонишган бўлишса керак.

Вақтли нашрлар жадидчилик ҳаракатининг ғоявий минбари сифатида миллий тараққиёт, маърифат ва ислоҳот масалаларини ёритган. Вақтли нашрлардаги бериладига мақолаларида асосини халқлар,миллатлар ўзлигини англаши, ижтимоий фаоллик ва тараққиёт ғояларини тушуниш, ўзларига сингдириш учун хизмат қиладиган манбалар тавсия қилинган. Шунингдек маолалрида янги усул мактаблари, замонавий фанларни ўқитиш, дарсликлар яратиш масалалари муҳокама қилинган. Вақтли нашрлардаги энг асосий фаолиятлардан яна бири бу янги адабиётлар.дарсликлар маҳаллий ва хорижий муаллифларнинг асарлари ҳақида маълумотлар, тақризлар ва тавсиялар чоп этилган бўлиб,улар билан доимий танишиб бориш имконияти яратилди. Бундай малумотларни бериш орқали жадидлар ўлкада XIXохири ва XX асрнинг бошларида китоблар ва вақтли нашрларни нашр қилувчи типографиялар шакиллантирилган хақидаги маьлумотларни ҳам қўшиб берганлигини кўришимиз мумкиню. Давлат типографиялари билан бирга хусусий типографиялар ҳам фаолият юритганлар. Бу каби фикрлар газетанинг асосий мақсади — халқни илм-фанга даъват этиш ва жамиятни ислоҳ қилиш эканини яққол намоён этади. Жадид матбуоти саҳифаларида: мактаб ва таълим тизимини янгилаш,замонавий фанларни ўқитишни йўлга қўйиш,миллий ўзликни англаш ва тараққиёт ғояларини тарғиб қилиш,китобхонлик ва маърифатни кенгайтириш каби масалаларни доимий равишда кўтариб чиққан. Вақтли нашрлардаги мақолалар орқали жадидлар жамият тараққиёти илм ва тарбия билан боғлиқ эканини асослаб берганлар. Улар учун матбуот нафақат ахборот воситаси, балки ислоҳот ғояларини оммалаштирувчи маърифий майдон вазифасини бажара олишини тушунган бўлсалар керакки улар бу йўналишдаги ишлари хеч бир вақтга тўхтатмаганлар.

Жадидлар томонидан тузилган библиографик фаолияти улар тузган дарсликлар ичида ҳам кўринади. Улар янги нашрларида сўнгги бетларида ёки ичида ўқувчиларга тавсия этиладиган адабиётлар рўйхатини бериб боришган. Ибрат ва Пўлатхон: Улар нашр этган мажмуаларда маҳаллий ва хорижий (Туркия, Татаристон, Миср) нашрлар ҳақида маълумотлар жамланган.“Фитрат ўзбек адабиётшунослиги ва санъатшунослигида биринчи бўлиб библиографик аппаратдан (ҳаволалар ва манбалар рўйхати) академик даражада фойдаланган адибдир”деб ёзган эди профессор Х.Болтабоев.[1.124.]

Жадидлар ҳаракати ва уларнинг матбуот, кутубхона ва нашриётчиликдаги фаолияти нафақат илмий ва таълимий аҳамиятга эга, балки миллий уйғониш ва маърифатпарварлик учун муҳим омил бўлиши учун ҳам турли жойларда ташкил қилинган. Библиографик рўйхатлар ва дарсликлар яратиш орқали улар ёш авлодни замонавий билим ва ахлоқий тарбия билан таъминлашга хизмат қилган.Ўзбекистон ва Ўрта Осиёда библиография ишин шакилланиши ва олиб борилишида жадидлар харакатининг ўз ўрни борлигини ўрганиш махалий халқларнинг бу фаолиятни йўлга қўя олганлигини кўрсатади. Агар тарихида ёки библиография ишни ташкил қилиш бўйича нашрга тайёрланган ўқув адбиётларида,тўпламларда нашр қилинган мақолларда Россия томонидан ўлка босиб олгандан кейин бу ерга тайинланган рус амалдоининг Россиялик библиограф В.И.Межовдан бу ўлка бўйича

библиографик қўланмани тузиб беришни илтимос қилишганлиги кўрсатилган[2.38.]. В.И.Межов томонидан тузилган “Туркистон тўплами” номли библиографик қўланма 416 томдан иборат бўлган ва уни тўлдириб бориш натижасида хозирги кунда унинг 594 томи А.Навоий номидаги Ўзбекистон милий кутубонасининг нодир фондида сақланмоқда.[2.38.]

Жадидчилик ҳаракати намояндаларининг библиографик фаолияти — бу шунчаки китоблар рўйхатини тузиш эмас, балки миллатнинг маънавий хазинасини тиклаш ва халқни уйғотиш йўлидаги улкан ижтимоий-маданий лойиҳадир. Жадидлар китоб ва матбуотни жамиятни ислоҳ қилишнинг асосий қуроли деб билишган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Болтабоев, Ҳ. Фитрат ва жадидчилик: Монография / Масъул муҳаррир: Б. Қосимов. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. — 288 бет.
2. Маматраимова Х. Краеведческий справочно-библиографический аппарат как составная часть местных библиографических ресурсов. Проблемы структуры и использования в условиях многоязычия (на примере областных библиотек УзССР) : Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к. п. н / Моск. гос. ин-т культуры. - М., 1987. - 16 с.
3. Маматраимов Х. Кутубхона ўлкашунослиги ва ўлкашунослик библиографияси.[Ўлкашунослик библиографияси фанидан ўқув қўлланма].- Тошкент,2028.- 100 с.
4. Маматраимова Х. Кутубхоналар ўлкашунослик фаолияти : ùолати, ташкил этилиш масалалари // Маданият – миллий бирлик асоси / ТошДМИ.- Т.: Адолат, 2004.- Б. 85-90.
5. Турапов М.М. Развитие библиографического дела в Узбекистане, 1852-1970 - 1983 - Изд-во" Фан" Узбекской ССР.-

XIX ASR OXIRI – XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SOTSIOLOGGRAFIK TAHLILI

Yunusov Kamaldin Abzalovich
siyosiy fanlar doktori, Andijon davlat universiteti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori

Kishilik jamiyati, xususan, O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi xilma-xil ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ta’limot, siyosiy oqim va firqalarni vujudga keltirdi. Buning asosiy sababi millat bag‘ridan yetishib chiqqan mutafakkirlarning Rossiya istibdodiga qarshi kurash, adolatli, insonparvar jamiyat qurish uchun, zulm va zo‘ravonlikdan, qullik va mustabidlikdan, tengsizlik va jaholatdan qutulish uchun tinimsiz izlanishi edi.

Turkiston xalqlari, xususan, O‘zbekistonning tarixiy rivojlanishda, zaminimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, olimlar, tarixiy shaxslarning roli

beqiyos darajada katta bo‘lgan. Ular xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy jihatdan taraqqiy topishida muhim rol o‘ynaganlar.

Jumladan, mashhur jadidchilik harakatining ma’rifatparvar namoyondalari o‘z davri jamiyat hayotining tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar amalga oshirishning tarafdorlari bo‘lgan. Ular, jamiyatning boshi berk ko‘chadan chiqishni nafaqat ma’rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko‘rgan. O‘tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma’rifatparvarlikdan siyosatga o‘tgan jadidlar shu zaminda yetishib chiqqan. Shu boisdan, ularning Turkiy zamin xalqlarining hayotida to‘tgan o‘rni va rolini, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ijodiy faoliyatini sotsiologgrafik nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil qilish – nihoyat darajadi ahamiyatlidir.

2019 yil 22 fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning PF-5667 raqam bilan “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni e’lon qilindi.[1.]. Ushbu farmonda O‘zbekistonda sotsiologiya fanining nazariy-metodologik asoslarini va empirik sotsiologik tadqiqotlarning jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

Sotsiologgrafiya – ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida amal qiluvchi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, mazkur ijtimoiy muammo kontekstda, XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan va fojeali yakun topgan jadidchilik harakatiga bag‘ishlanadi. Zero, “sotsiologgrafiya ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid ilmiy qarashlar, g‘oyalar, konsepsiyalar, pardigmalar, metodologiyalar va ta’limotlarni o‘rganuvchi maxsus sotsio-tarixiy yo‘nalishdir. Sotsiologgrafiya sotsiologik mazmundagi asar yozishda muallifga, uning manbalariga, tarixiy davrga, faktlarni talqindan ajratishga, shuningdek, stilistikaga, muallifning xohishiga va ma’lum bir tarixiy asar yozilgan auditoriyaga e’tibor qaratgan holda, ilmiy uslubning to‘g‘ri qo‘llanilishini obyektiv ravishda tekshiradi, tahlil qiladi va ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qiladi.[3].

Turkiston, xususan, O‘zbekiston xalqining eng og‘ir va mustabid davrida jadidchilarning xalqning istibdoddan qutilish va taraqqiyotga erishish maqsadida olib borgan faoliyati, bu yo‘lda ilgari surgan g‘oyalarini sotsiologgrafik jihatdan o‘rganish – yurtimizda sotsiologiya tarixiga oid tadqiqotlarning muhim jihati xisoblanadi. Ular tomonidan, yurtimizda xalqni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qoloqlikdan, mazlumlikdan xalos bo‘lishi uchun ma’rifat va madaniyatni yuksaltirish zaruriyati to‘g‘risidagi g‘oyalari o‘sha davrda garchi ro‘yobga chiqmagan bo‘lsa-da, izsiz ketmadi. Ana shunday millat fidoyi kishilari sarasiga XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan ijtimoiy-siyosiy oqim – jadidchilar hayoti va faoliyatini ko‘rsatish mumkin. Bugungi kunda ularning Turkistonni Rossiya imperiyasi va Sho‘ro istibdodi davrida jamiyat va millat ravnaqi uchun ko‘rsatgan jonbozliklarining sotsiologik tahlili, nazariyva metodologik jihatdan juda ham zarur va muhimdir.

Turkiston jadidlari XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasi sifatidagi ijtimoiy tuzumga qarshi va milliy davlatchilikni barpo qilish to‘g‘risidagi ijtimoiy-siyosiy va yangicha iqtisodiy munosabatlarni yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borganlar. Umr bo‘yi ona-Vatani Turkistonning ozod va obod bo‘lishini orzu qilgan, lekin bu kunlarni

ko‘rmay, sho‘rolar istibdodi tufayli o‘z yurtiga qaytolmay, xorijda qolib ketgan vatandoshimiz, sotsiolog, professor Tohir Chig‘atoy (Shokirov) (1902-1987 yillar), asosiy e’tiborini o‘lkaning chorizm tomonidan bosib olinishi va bu yerdagi chor mustamlakachiligi siyosatining fojiali oqibatlarini ko‘rsatishga qaratadi. O‘lkadagi so‘nggi xonlik va amirlik davrlaridagi qoloqliq va jaholat ham rus mustamlakachilik siyosatiga qarshi Turkistonda boshlangan ma’rifatchilik va milliy istiqlol harakatlari, bu borada O‘rta Osiyoda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Valixon Bukeyxonov, Miryoqub Davlat, Mag‘jan Jumaboy va boshqa ma’rifat va milliy istiqlol fidoyilarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari va adabiy ijodlarining tahlillarini beradi.[2].

XIX asrda feodal qoloqlik Sharqni g‘arblik mustabidlarga qaram bo‘lishga olib kelgani sabab milliy zulmdan qutulish uchun ozodlik kurashi asosiy ijtimoiy dastur hisoblanardi. Ozodlik, mustaqillik, erkka feodal qoloqlikdan, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo‘lgan. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim ediki, shunday taraqqiyparvarlar qotib qolgan, daqqi kuchlar, ya’ni “qadim” (eski)larga qarshi turuvchi “jadid” (yangi)lar sifatida maydonga keldi. Shu bois jadidlar Misrda ham, Turkiyada ham, Turkistonda ham siyosiy oqim tarzida paydo bo‘ldi.

Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg‘otish, millatning o‘zligini anglab yetishuviga erishish lozim edi. Ana shunday fikrga birinchilardan bo‘lib qrimlik Ismoil Gasprinskiy keldi. U mazlum xalqlarda milliy g‘urur va milliy o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, ona-yurtga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish – ularni milliy-ozodlik kurashiga tayyorlashning poydevori deb bildi.

Mazlum xalqlarni erk va ozodlikka eltish, moddiy va ma’naviy nochorlikdan qutqarish yo‘llarini izlar ekan, I. Gasprinskiy bir xulosaga keldi: 1895 yili yozgan maqolaridan birida “ilm-fanni taraqqiy ettirish va uni takomillashtirish uchun, eng avvalo, yangi hamda mutlaqo o‘ng‘ay g‘oya zarur”, deydi u.

Shu bois turkiy qavmlar, umuman, Rossiya musulmonlari, eng avvalo, asriy jaholatdan, feodal qoloqlikdan qutulib, dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko‘tarilishi lozim degan g‘oyani ilgari suradi. Bu g‘oya esa insonning dunyoqarashi, saviyasini shakl-lantiradigan ta’lim-tarbiya tizimini isloh etishdan iborat edi.

Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulqodir Shakuriy, Fitrat va boshqalar uning hammaslaklari edi. Gasprinskiyning bu yangi va o‘ng‘ay g‘oyasi ma’rifatni egallash g‘oyasi edi. Xuddi shuningdek, uning turli jamiyatlar tuzish, milliy manfaatni himoya qiladigan matbuot yuzaga keltirib, undan bosh maqsad yo‘lida foydalanish, anjumanlar (syezd va kongresslar) o‘tkazish kabi g‘oyalari ham turkistonlik hammaslaklari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Jadidchilik (arab, jadid – yangi) ning sotsiologgrafik jihatdan ijtimoiy-siyosiy mohiyati — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat xisoblanadi.

O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo jtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-16; 1917-20; 1921-29 yillarni o‘z ichiga oladi.

Sotsiologgrafik nuqtai nazardan qaraganda, jadidchilik rus mustamlakachiligiga karshi milliy demokratik xarakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayot ida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayot ga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fidoyilarcha kurashdilar. Sotsiologgrafik nuqtai nazardan olib qaraganda, jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishdan iborat edi. Jadid ziyolilarining kuchli siyosiy partiyasini tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Turkistonda Jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Isxoqxon Ibrat, Muqammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

Turkiston mintaqasidagi Jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi Jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, Rossiyaning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chikdilar.

Buxorodagi Jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi.

Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi Jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi.

XX asr boshlarida Xivada shakllangan Jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonnint bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada Jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904 yil «Jamiyati xayriya» tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904 yil 10 noyabr). Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Birok Jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914 yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Toshkentda «Sho‘roi Islomiya», «Turon», «Sho‘roi Ulamo», «Ittifoqi muslimin», Qo‘qonda «G‘ayrat», Buxoroda Yosh buxoroliklar, Xivada Yosh xivaliklardan tashqari, Samarqandda «Ittifoq», «Mirvaj ul-islom», «Miftah ul-maorif» kabi tashkilotlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini belgilashda Munavvarqori, U. Xo‘jayev, M. Beqbudiy, A. Zohiriy, A. Z. Validiy, Mustafo Cho‘qay, Fitrat, F. Xo‘jayev, U. Po‘latxo‘jayev, Sherali Lapin, M. Mirmo‘minboyev, O. Mahmudov, Polvonniyoz hoji Yusupov, T. Norbo‘tabekov va boshqalar faollik ko‘rsatdilar.

Jadidlarning davlat to‘g‘risidagi qarashlarini sotsiologgrafik jihatdan tahlil qilganda, amalga oshmay qolishiga bolsheviklarning Rossiya hokimiyatini zo‘rlik bilan egallashlari to‘siq bo‘lgandi. Ma’lumki, bolsheviklar muvaqqat hukumatni qurol kuchi bilan ag‘darib, hoqimiyatni o‘z qo‘llariga olgach, ta’sis majlisi o‘tkazilishiga turli bahonalar bilan yo‘l bermadilar. Ta’sis majlisi o‘tkazilgandagina xalq vakillari Rossiyada qanday tuzum, usuli idora bo‘lishini qonuniy belgilardi.

Turkistonda sovet xrkimiyati zo‘ravonlik yo‘li bilan o‘rnatilgach, jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayot dan chetlashib, fakat badiiy ijod bilan shug‘ullandi (A. Burxrnov, A. Avloniy, S. Ayniy va b.). Ayrim jadidlar sovet idoralari madaniy-ma’rifiy shoxobchalarida mehnat qilishdi (U. Xo‘jayev, Munavvarqori, Hamza, S. Tursunxo‘jayev, T. Norbo‘tabekov va b.). Ba’zi jadidlar «mahalliy kommunistlar» sifatida yuqori davlat va hukumat lavozimlarida ishlashni davom ettirdi (Fayzulla Xo‘jayev, Abdulqodir Muhiddinov, Nizomiddin Xo‘jayev va b.). Ayrim jadidlar bo‘lsa, Turkistondagi istiqlolchilik harakati saflariga borib qo‘shildi va xorijga

muhojirlikka jo‘nab ketdi (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Sadriddinxon Sharifxo‘jayev, Abdulhamid Oripov va h. k.).

Jadidchilik harakatining barcha tanikli namoyandalari (S. Ayniydan tashqari) XX asrning 30-yillarida sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida halok bo‘ldilar. Jadidchilik harakatiga sovet davrida «millatchilik», panturkizm, panislamizm tamg‘alari bosilib, nohaq qoralandi. Jadid adabiyotini o‘qish taqiklandi.

Munavvarqori 1931 yili Moskvada sud qilinib, otib tashlandi. U Sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan yashirin “Milliy ittihod” qo‘poruvchilik tashkilotini tuzganlikda ayblangan. Aslida uning tashkiloti “Turk o‘chog‘i” deb atalgan va tashkilotda mustaqillikka oid ayrim fikrlar bildirilgan edi. Jadidlar asosan ijtimoiy ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullangan edilar. Jadidlarning aksariyati: Abdulla Qodiriy ham, Cho‘lpon ham, Botu ham – Anhor bo‘yida otib tashlangan. 76 yashar chol Junaydulla Ibrat ham Namanganda hibsga olingan va u ham otib tashlangan.

Qodiriy 1937 yil 31 dekabr kuni hibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so‘roq-tergov, qiynoq, xo‘rlikdan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi. Qodiriy hibsga olingach, asarlari "zararli" sanalib o‘tda yoqildi, kutubxonalardan yo‘qotildi, ularni o‘qish taqiqlandi.

Avloniy umrining so‘nggi yillarida O‘rta Osiyo Kommunistik universitetida dars berish bilan birga o‘zbek adabiyotidan qator darsliklarni yaratgan. U 1934 yil 24 avgustda 56 yoshida vafot etgan.

O‘zbek xalqi hayoti, tarixida, uning eng og‘ir, qayg‘uli – o‘zga davlat, millatga mustabid bo‘lgan davrida yashagan, o‘z millatining kelajagi uchun qayg‘urgan millat fidoyilari – jadidchilarning fojeali qismati izsiz ketmadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 30 sentabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati, shaxslari haqida to‘xtaldi va "mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi", degan fikrni aytib o‘tdi. Prezident ta’kidladiki, "bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar".

Shavkat Mirziyoyev ushbu murojaati davomida uch nafar jadidni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanganini bildirdi. Turkiston jadidchiligining yirik namoyadalari bo‘lgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovning istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan qilgan fidokorligi, shu bilan bir qatorda ularning "milliy ta’lim va tarbiya tizimi"ni yaratishdagi hissasi uchun ushbu yuksak mukofot bilan taqdirlanganligi ham aytib o‘tildi.

“Jadidlar” to‘plami 23 ming nusxada bosilib, xalqimizga tekin tarqatildi. “Jadidlar” to‘plami o‘zbek jadidchiligining 8 nafar yirik vakili: G‘ulom Zafariy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, asarlari haqida kitobxonga qisqa ma’lumot berishga harakat qiladi.

Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi (1994). Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’sis etilgan. Toshkent madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog‘iga, katta ko‘chalardan biriga, respublikamizdagi ko‘plab madaniyat muassasalariga uning nomi berilgan. "O‘tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari asosida kinofilmlar (1969, 1996, 1973 yillar) va ko‘p seriyali telefilmlar yaratilgan.

Yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalardan xulosa qilib aytganda:

1. XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan jadidchilar hayoti va faoliyati – o‘z mohiyati bilan ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida millatimiz tarixida abadiy iz qoldirdi.
2. Ularning ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy qarashlarining sotsiologgrafik tahlil qilish zaruriyati – hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyoti uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.
3. Sotsiologgrafik tahlil qilishdan o‘rganiladigan xulosalar - XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan jadidchilar hayoti va faoliyati, hozirgi davr yoshlarning ma’naviy jihatdan yuksalishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5667 raqamli “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019 yil 22 fevral. Internet sayti: https://lex.uz/docs/4211807.
2. Sherali Turdiyev. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. Toshkent. «Qatagon qurbonlari xotirasi» muzeyi «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg‘armasi. 155-163 betlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/.
3. YunusovK.A. «Sotsiologgrafiya». Fundamental s t u d i e s. volume ii │issue2025. №1. Pages: 44-53. https://doi.org/10.5281/zenodo.14647497.

JADIDCHILIK SHAKLLANISHIDA TURKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY MUHITI: TARIXIY ZARURAT VA METODOLOGIYA

Yusupova Sevara Nizamiddinovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Tarix kafedra muduri PhD, Dosent

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yirik ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy uyg‘onish harakatlari hech qachon o‘z-o‘zidan, tasodifan yoki bo‘shliqda vujudga kelmaydi. Har bir ijtimoiy harakat muayyan jamiyatda asrlar yoxud o‘n yilliklar davomida yig‘ilib qolgan ziddiyatlar, yechimini kutayotgan chuqur muammolar, turg‘unlik yoki fojiali inqirozlarga nisbatan millatning o‘zini saqlab qolish instinkti, tarixiy ongining uyg‘onishi va taraqqiyotga bo‘lgan obyektiv ehtiyoji sifatida maydonga chiqadi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston mintaqasida vujudga kelgan

jadidchilik harakati ham aynan shunday tarixiy zarurat mahsuli, milliy o‘zlikni anglash va uyg‘onish jarayonining yorqin ifodasi edi.

Jahon taraqqiyotining o‘ziga xos lokomotivi bo‘lgan sanoat inqilobi, ilm-fan yutuqlari va Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng xalqaro savdo yo‘llarining dengizlarga ko‘chishi asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lib kelgan Movarounnahrni asta-sekin global taraqqiyot jarayonlaridan chetlashtirdi. Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati pasayishi, ichki siyosiy nizolar, hokimiyat uchun kurashlar oqibatida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy turg‘unlikka yuz tutdi. Bu jarayonning eng og‘ir oqibati esa XIX asr o‘rtalaridan boshlab mintaqaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi bo‘ldi. Siyosiy mustaqillikning yo‘qotilishi, iqtisodiy resurslarning talon-toroj qilinishi va ma’naviy hayotga bosim o‘tkazilishi millatning istiqboliga jiddiy xavf tug‘dirdi.

Ana shunday og‘ir tarixiy vaziyatda o‘lkaning ilg‘or ziyolilari jamiyatni yangilash, xalqni g‘aflatdan uyg‘otish va zamonaviy ilm-fan asosida taraqqiyot yo‘liga olib chiqish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oldi. Dastlab ta’lim tizimini isloh qilish – “usuli jadid” orqali boshlangan bu harakat tez orada keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy uyg‘onish jarayoniga aylandi. Jadidlar milliy matbuot, teatr, adabiyot va jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilishni maqsad qildilar.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy tarixni xolis, ilmiy va milliy ruh asosida qayta anglash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish lozim. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[109] degan fikr mazkur ilmiy izlanishlarning konseptual asosini belgilaydi. Jadidchilik harakatini chuqur o‘rganish, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy ildizlarini tahlil qilish milliy tafakkur va tarixiy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari ham tarixiy meros va madaniy mushtaraklik bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, “Bugungi Yangi O‘zbekistonning chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri – turkiy davlatlar bilan ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik hamda o‘zaro ishonch ruhidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratishdan iboratdir.”[110] Bu jihat jadidchilik davrida shakllangan milliy o‘zlikni anglash va turkiy-madaniy birlik g‘oyalarining zamonaviy davomiyligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, jadidchilik harakatini tarixiy zarurat mahsuli sifatida o‘rganish, uning shakllanishida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy muhitini chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy metodologik yondashuvlar

[109] [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/4089

[110] [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevral kungi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi, 8 fevral, 2017 yil.].

asosida baholash bugungi ilmiy tadqiqotlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon nafaqat o‘tmishni anglash, balki kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam ma’naviy va g‘oyaviy poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablarini sof ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilmasdan turib, uning asl tarixiy qadr-qimmati va ko‘lamini to‘laqonli anglab yetish imkonsizdir. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining bosib olinishi nafaqat geosiyosiy voqelikning o‘zgarishi, balki o‘lkadagi an’anaviy ijtimoiy tuzilmalarning misli ko‘rilmagan darajada parchalanishi bilan kechdi. Mustamlaka tizimi o‘zining mohiyatiga ko‘ra shafqatsiz va ekspluatatorlik xususiyatiga ega bo‘lib, mahalliy aholini ezish, uning boyliklarini talon-toroj qilish va ruhiyatini sindirishga qaratilgan edi.

1. Siyosiy huquqsizlik va harbiy ma’muriyat istibdodi

1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi o‘lkani boshqarishning sof harbiy-mustamlakachilik rejimini joriy qildi. Mahalliy xalq siyosiy hayotdan, davlat boshqaruvidan to‘liq chetlatildi. K.P. fon Kaufman boshchiligidagi birinchi ma’muriyatdan tortib, undan keyingi gubernatorlar ham asosiy e’tiborni bitta maqsadga – imperiya manfaatlarini qanday bo‘lmasin himoya qilishga qaratdilar. Viloyat va uyezdlarning tepasiga rus harbiy ofitserlari tayinlandi. Mahalliy boshqaruv (mingboshi, ellikboshi, qozilar) esa qattiq nazorat ostiga olinib, korrupsiya, poraxo‘rlik va adolatsizlik avj olgan tizimga aylantirildi. Turkiston xalqi o‘z vatanida o‘gay, ikkinchi darajali insonlarga, huquqsiz olomonga aylantirib qo‘yildi. Rossiya imperiyasining qonunchiligi mahalliy xalqni faqat soliq to‘lovchi, majburiyatlarni bajaruvchi qatlam sifatida ko‘rardi.

Jadid yetakchilari, masalan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Xo‘jayev, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li kabi ziyolilar bu holatni juda teran tahlil qildilar. Ular tushunib yetdilarki, siyosiy irodasi tortib olingan va siyosiy ongi yuksak bo‘lmagan millat hech qachon o‘z haq-huquqini talab qila olmaydi. Behbudiyning "Haq olinur, berilmas!" degan mashhur xitobi aynan shu siyosiy huquqsizlikka qarshi qonuniy, ma’rifiy va tashkiliy yo‘l bilan kurashish kerakligini anglatuvchi konseptual g‘oya edi.

2. Iqtisodiy talon-torojlik: Paxta yakkahokimligi va yer masalasi

Mustamlakachilikning eng og‘ir zarbasi o‘lka iqtisodiyotiga berildi. Rossiyada yuz berayotgan sanoat inqilobi, xususan to‘qimachilik fabrikalari juda ko‘p miqdorda va arzon paxta xomashyosiga muhtoj edi. Turkiston aynan shu ehtiyojni qondiradigan markazga aylantirildi. Chor ma’muriyati o‘lkada "paxta mustaqilligiga erishish" degan siyosatni olib bordi va natijada ming yillar davomida shakllangan muvozanatli qishloq xo‘jaligi tizimi izdan chiqdi. G‘alla, chorvachilik va bog‘dorchilikka mo‘ljallangan unumdor yerlar majburan paxta maydonlariga aylantirildi.

Paxta yakkahokimligining joriy etilishi dehqonlarni butunlay rus banklari va chayqovchilariga qaram qilib qo‘ydi. Foiz (kredit) evaziga pul olgan dehqonlar hosil yetishtirishdagi qiyinchiliklar tufayli qarzi oshib ketib, yer-suvlaridan, hatto boshpanalaridan ayrilib, mardikorga aylandilar. Aholi orasida ocharchilik, yashash

sharoitining keskin yomonlashuvi oddiy holga aylandiki, bu jarayon 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘oloni kabi xalq isyonlarini keltirib chiqardi.

Bunday og‘ir iqtisodiy ahvolda jadidlar quruq siyosiy shiorlar bilan emas, balki real iqtisodiy choralar ko‘rish zaruratini angladilar. Ular tijorat va sanoatni o‘rganishga, yoshlarni zamonaviy iqtisodiy bilimlarga o‘qitishga chorladilar. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida va o‘z maqolalarida "Iqtisodi yo‘q millatning inqirozi muqarrardir" deb, boylikni hashamatga emas, balki ishlab chiqarishga, shirkatlar tuzishga sarflash kerakligini ta’kidladi. Jadidlar tashabbusi bilan tuzilgan "Shirkat", "Imdodiya" kabi uyushmalar ayni shu iqtisodiy qaramlikni yengishga qaratilgan amaliy qadamlar edi.

3. Ijtimoiy tabaqalanish, muhojirlik va demografik holat

Mustamlaka ma’muriyatining rus aholisini ko‘chirib keltirish (pereselenchestvo) siyosati vaziyatni yanada chigallashtirdi. Rossiyaning markaziy guberniyalaridan ko‘chirib keltirilgan dehqonlarga Turkistonning eng unumdor, suvli yerlari tortib olib berildi. Minglab mahalliy dehqonlar suvsiz, unumsiz cho‘l hududlarga surib chiqarildi. Bu faqat iqtisodiy emas, balki chuqur demografik va ijtimoiy adolatsizlik edi.

Tarixiy vaziyat shu darajaga borib yetdiki, 1916-yilga kelib xalqning sabr kosasi to‘ldi va o‘lkada mardikorlikka olish to‘g‘risidagi oq podsho farmoniga qarshi ulkan milliy ozodlik harakati boshlanib ketdi. Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirildi, yuz minglab odamlar qirib tashlandi yoki chet ellarga qochib o‘tishga majbur bo‘ldi. Mana shu ijtimoiy tushkunlik, milliy fojia manzaralari jadidlar qalbini larzaga soldi. Ular xalqni qurolsiz g‘alayonlar qilib qirilib ketishdan saqlab qolish, uni ilm-ma’rifat vositasida ongli ravishda kurashishga tayyorlash kerakligini tarixiy zarurat sifatida kun tartibiga qo‘ydilar.

Agar ijtimoiy-siyosiy ahvol millatning jismoniy vujudini yemirsada, uning ma’naviy-madaniy muhitidagi tanazzul millatning ruhiyatini, ongini, o‘zligini yo‘q qilishga qaratilgan edi. Jadidlar inqirozning asl va tub ildizlarini aynan ma’naviyat, ta’lim va tarbiya tizimidagi mudhish qoloqlikda ko‘rdilar. Ularning fikricha, o‘zining madaniyati, ongi va tafakkuri bilan dunyoga peshqadam bo‘la olmagan xalq hamisha boshqalarga qaram bo‘lishga mahkumdir.

1. "Usuli qadim" maktab va madrasalaridagi sxolastika

XIX asr oxirida Turkistonning ta’lim tizimi butunlay o‘zining funksiyasini yo‘qotgan, zamon talablariga mutlaqo javob bermaydigan ahvolda edi. Maktablarda bolalarga faqat arab alifbosi o‘rgatilib, quruq yodlashga, tushunmasdan "Haftiyak" va "Qur’on" suralarini takrorlashga asoslangan edi. Yillab maktabga qatnagan yoshlar o‘z ona tillarida to‘g‘ri yozish va o‘qishni bilmasdilar. Madrasalarda esa garchi diniy fanlar (fiqh, tafsir, hadis) o‘qitilsa-da, asrlar oldin yozilgan kitoblarni sharhlashdan nariga o‘tilmas, dunyoviy fanlar – matematika, geografiya, tarix, kimyo, fizika, tabiatshunoslik deyarli o‘qitilmas edi.

Jadidlarning eng yirik vakili Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, ta’lim shunday bir holatda ediki, bolalar yillarini "quruq yodxonalarda" bekorga sarflar, natijada esa jamiyat uchun kerakli muhandis, shifokor, iqtisodchi mutaxassislar yetishib chiqmas edi. Buxoro amirligida yashab ijod qilgan Ahmad Donish va keyinchalik Abdurauf Fitrat madrasalardagi bu sxolastik tortishuvlar, ilmning faqat yuzaki qobig‘iga

o‘ralashib qolish holatlarini qattiq tanqid ostiga oldilar. Fitratning "Munozara" asarida hindistonlik farangi sayyoh va buxorolik mudarris o‘rtasidagi suhbat orqali aynan o‘sha davr ziyolilari (ulamo qatlami)ning qanchalik dunyodan uzilib qolganligi, tor dunyoqarashga ega ekanligi, ilmni emas, xurofotni himoya qilayotganligi ayovsiz ochib beriladi.

2. Axloqiy tanazzul va xurofotning avj olishi

Ma’naviy inqirozning yana bir xatarli ko‘rinishi xalq orasida turli xurofotlar, bid’atlar, dinning asl mohiyatidan uzoq bo‘lgan rasm-rusumlarning keng tarqalishi edi. Istibdod ostida ezilgan xalq ilm izlash, hayotini yaxshilash o‘rniga o‘zini turli asossiz irim-sirimlarga, avliyoparastlikka urdi. Din ulamolarining katta qismi mustamlaka ma’muriyatiga xizmat qilar yoxud faqat o‘z shaxsiy manfaati, obro‘sini o‘ylab, xalqni jaholatda ushlab turishga intilardi.

Bundan tashqari, iqtisodiy qoloqlik hukm surayotgan bir sharoitda, xalqning eng oxirgi chaqalari ham dabdabali to‘y-ma’rakalar, aza va xatnalarga sarflanar edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoil Gasprinskiy kabi mutafakkirlar o‘z maqolalarida xitob qilib aytardilarki, ruslar, yevropaliklar o‘z mablag‘larini zavod-fabrikalar qurishga, farzandlarini chet ellarda o‘qitishga, ilm-fanga sarflayotgan bir paytda, bizning xalqimiz bor-budini, hatto qarzga botib bo‘lsa-da, ziyofatlarga, keraksiz urf-odatlarga sovurmoqda. Behbudiy o‘zining mashhur "Padarkush" (1911-yil) dramasida aynan shu illatni sahnaga olib chiqdi: ilmsiz, zamon talablaridan bexabar boy o‘z farzandini o‘qitish o‘rniga unga faqat pul beradi va bu pul oxir-oqibat halokatga, bolaning o‘z otasini o‘ldirishiga (ma’naviy halokatiga) olib keladi. Bu shunchaki adabiy asar emas, balki butun boshli millatning fojiasini ko‘rsatib bergan oyna edi.

3. Milliy o‘zlikni anglash inqirozi

Turkiston xalqi o‘zining shonli tarixi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk ajdodlarining qoldirgan merosidan tobora uzoqlashib borayotgan edi. Tarixiy xotiraning susayishi milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining xiralashuviga olib keldi. Odamlarda o‘zini millat sifatida emas, balki ma’lum bir urug‘, qabila yoxud hudud (qo‘qonlik, buxorolik, xorazmlik) vakili sifatida ko‘rish kuchli edi. Bu parokandalik chor Rossiyasi siyosatiga juda qo‘l kelar edi. Jadidlar – taraqqiyot va ozodlikka faqat va faqat yagona, yaxlit MILLAT bo‘libgina erishish mumkinligini hammadan yaxshi his etdilar. Shu bois ular adabiyotda, matbuotda "Turkiston", "Millat", "Vatan" kabi tushunchalarni doimiy ravishda targ‘ib qilib, milliy o‘zlikni shakllantirishga harakat qildilar.

Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy muhitning shu darajada fojiali tus olishi millatparvar ziyolilardan shoshilinch, kechiktirib bo‘lmas choralar ko‘rishni, o‘ziga xos ma’naviy inqilob qilishni talab etardi. Jadidchilik aynan shu ehtiyojdan tug‘ilgan tarixiy zarurat edi va ular ijtimoiy ongni o‘zgartirish maqsadida juda puxta, izchil islohotlar dasturini ishlab chiqdilar va hayotga tatbiq qila boshladilar.

1. "Usuli jadid" (Yangi usul) maktablari – milliy uyg‘onish poydevori

Jadidlarning eng yirik islohoti, harakatning nomlanishiga ham sabab bo‘lgan – ta’lim tizimidagi yangilanishlardir. Qrim-tatar mutafakkiri Ismoil Gasprinskiy tomonidan boshlab berilgan "Tilda, fikrda, ishda birlik" g‘oyasi Turkiston ziyolilari uchun mayoq vazifasini o‘tadi. 1890-yillarning oxiri va 1900-yillarning boshlarida

Qo‘qon, Toshkent, Samarqand, Andijon kabi shaharlarda ilk "Usuli savtiya" (tovush usuli) maktablari ochila boshladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiy kabi ziyolilar butun qarshiliklarga (ham chor hukumati, ham mutaassib qadimchilar tomondan bo‘lgan bosimlarga) qaramay o‘z mablag‘lari hisobidan maktablar ochdilar. Bu maktablarning inqilobiy jihati shunda ediki, u yerda bolalar 40 kundan 2 oygacha bo‘lgan qisqa muddat ichida yozish va o‘qishni o‘rganardilar. Dasturga birinchi marta arifmetika (matematika), jo‘g‘rofiya (geografiya), tarix, tabiatshunoslik kabi aniq va ijtimoiy fanlar kiritildi.

Ushbu maktablar uchun jadidlarning o‘zlari darsliklar yozdilar. Behbudiyning "Risolai asbobi savod", "Muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy", Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlari nafaqat ta’lim beruvchi darsliklar, balki yosh avlod ongi va qalbida insonparvarlik, vatanparvarlik, taraqqiyotga intilish tuyg‘ularini shakllantiruvchi o‘ziga xos ma’naviy konstitutsiyalar edi.

2. Milliy matbuot va adabiyot – xalq minbari

Jadidlarni matbuotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular xalq bilan muloqot qilishning eng ta’sirchan vositasi sifatida gazeta va jurnallarga asos soldilar. 1906-yilda Ismoil Obidiy muharrirligida chiqqan "Taraqqiy" gazetasi Turkiston milliy matbuotining ilk qaldirg‘ochi bo‘ldi. Undan so‘ng Munavvarqori muharrirligida "Xurshid", Abdulla Avloniy boshchiligida "Shuhrat", Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan Samarqandda "Samarqand" gazetasi va yirik "Oyna" jurnali, Toshkentda "Sadoi Turkiston", Farg‘onada "Sadoi Farg‘ona" kabi nashrlar yorug‘ ko‘rdi.

Matbuot orqali jadidlar dunyoda yuz berayotgan yangiliklarni, ilmiy kashfiyotlarni xalqqa yetkazdilar, istibdodning jirkanch basharasini, amaldorlarning poraxo‘rligini, jamiyatdagi illatlarni fosh etdilar. Matbuot sahifalarida shakllangan zamonaviy milliy adabiyot (Cho‘lpon she’riyati, Abdulla Qodiriy publitsistikasi va nasri, Fitrat dramalari) o‘quvchi qalbida hurriyat sog‘inchini, milliy iftixor tuyg‘usini jo‘sh urdirdi. Matbuot jadidlar qatorini kengaytirib, butun o‘lka bo‘ylab tarqalgan ijtimoiy ongli fikrlovchilar tarmog‘ini – ma’naviy uyushmani yuzaga keltirdi.

3. Teatr va sahnaning ijtimoiy roli

Teatr san’atining kirib kelishi jadidlar qo‘lida o‘ta qudratli ma’rifiy va tarbiyaviy vositaga aylandi. Teatr – o‘qishni-yozishni bilmaydigan avom xalqqa ham o‘z ahvolini, qusurlarini yaqqol ko‘rsatib beruvchi tirik maktab, "ibratxonai ibrat" edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" asari qo‘yilganda zaldagi tomoshabinlar ko‘z yoshlarini tiya olmaganliklari haqida xotiralar saqlangan. Chunki ular sahnada o‘zlarining qiyofalarini, qoloqligini, ilmsizligi ortidan kelayotgan fojialarni ko‘rishar edi. Abdulla Avloniy tashabbusi bilan "Turon" teatr truppasi tashkil etilishi, A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Xurshidning "Mansur", Hamzaning ijtimoiy dramalari Turkiston madaniy hayotida inqilob qildi. Teatr orqali qoloq, uxlab yotgan omma faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiyaga ega bo‘lgan fikrlovchi jamiyatga aylana boshladi.

4. Siyosiy bosqich: Turkiston muxtoriyati fenomenni

Jadidlar faoliyatining eng yuksak cho‘qqisi – ma’rifatparvarlikdan siyosiy kurashga o‘tish va milliy davlatchilik loyihasini taqdim etishlari bo‘ldi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin yuzaga kelgan nisbiy erkinlik davrida jadidlar ("Sho‘roi islom", "Sho‘roi ulamo", "Turk adami markaziyat" partiyalari orqali) mustaqillik masalasini kun tartibiga qo‘ydilar.

1917-yil 26-28 noyabr kunlari Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan IV O‘lka musulmonlari syezdida e’lon qilingan "Turkiston Muxtoriyati" mintaqa tarixidagi ilk huquqiy, demokratik va dunyoviy davlatchilik namunasi edi. Uning e’lon qilinishi – jadidchilik harakatining to‘liq mantiqiy, tarixiy yakuni edi. Mustamlaka tuzumi ichida ezilgan xalq orasidan chiqqan ziyolilar guruhining (Mustafo Cho‘qayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Xo‘jayev, Islom Shoahmedov) din va millat ajratmaydigan teng huquqli konstitutsion davlat taklif qilishlari – ijtimoiy tafakkurning nechog‘lik yuksak darajaga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. Garchi Muxtoriyat bolsheviklar va dashnoqlar tomonidan qonga botirilib, bor-yo‘g‘i 72 kun yashagan bo‘lsa-da, u xalqimiz xotirasiga istiqlol uchun qo‘yilgan eng muqaddas tamaltoshi sifatida abadiy muhrlandi.

Turkistonda ro‘y bergan jadidchilik harakatidek o‘ta murakkab, ko‘p qirrali va ziddiyatli hodisani o‘rganish tarix fani va ijtimoiy falsafa oldiga juda jiddiy metodologik masalalarni qo‘yadi. Bu jarayonni yuzaki, xronologik faktlarni sanab o‘tish bilan tushunib bo‘lmaydi. Unga doir har bir tadqiqot qat’iy, zamonaviy va xolis ilmiy prinsiplarga tayanishi zarur.

Mustabid sovet tuzumi davrida jadidchilik mutlaqo soxtalashtirilgan, mafkuraviy tazyiqqa olingan mavzu edi. Marksizm-leninizmning sinfiy kurash nazariyasiga asoslangan yondashuv jadidlarni qasddan "burjua millatchilari", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari" yoxud "panturkist va panislomist agentlar" sifatida baholadi. Ularning jamiyatni ma’rifatga yetaklash yo‘lidagi faoliyati inkor etilib, go‘yoki faqat rus proletariatining inqilobiy kurashigina mintaqaga baxt va taraqqiyot keltirgani kabi soxta g‘oya uqtirildi.

Bugungi kunda milliy tarixshunosligimiz oldida turgan birinchi metodologik vazifa – ana shu sovetcha yondashuvni dekonstruksiya qilish (qismlarga ajratib, yolg‘onligini isbotlash), arxividagi chang bosgan hujjatlarni o‘rganib, voqelikka marksistik doiradan emas, balki obyektiv milliy va umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashishdir.

Tarixiylik yondashuvi har bir voqea-hodisani o‘zining kelib chiqishi, rivojlanish jarayoni va o‘zi yuz bergan o‘ziga xos tarixiy muhit, makon va zamon o‘lchovlaridan (xronotopidan) ajratmagan holda tadqiq etishni taqozo qiladi. Jadidlarning faoliyatini, qarashlarini va qabul qilgan qarorlarini ularni qurshab turgan davrdan uzib olib, bugungi XXI asrning xavfsiz va demokratik o‘lchovlari bilan baholab bo‘lmaydi.

Masalan, nega jadidlar faoliyatining ilk bosqichida chor hukumatini keskin qoralamadilar yoki siyosiy iddaolar qilmadilar? Tarixiylik prinsipi bunga shunday javob beradi: shafqatsiz tsenzura, jazo otryadlari va harbiylashgan rejim sharoitida ochiq siyosiy kurashga kirish – jadidlarning o‘zlarini ham, harakatlarini ham besamar qirib yuborilishiga olib kelardi. Ular "Ehtiyotlik qoidasi"ni tanlab, avval xalqni savodli qilib, fikrlash doirasini kengaytirib, faqat shundan keyingina (1917-

yildan so‘ng) ochiq siyosiy talablar bilan maydonga chiqishni taktik jihatdan to‘g‘ri bilishgan. Shu bois tarixchi va faylasuflarimiz jadidchilikdagi har bir matn, har bir harakatni aynan o‘sha murakkab tarixiy bosqich mantig‘i asosida ko‘rib chiqishlari lozim.

Xolislik jadidchilikni o‘ta ideallashtirmasdan, ularni ilohiylashtirmasdan, tarixiy qonuniyatlar doirasida tadqiq etishni talab qiladi. Jadidlar ham tirik insonlar edilar. Ularning o‘zaro kelishmovchiliklari (masalan, yoshlar va qariylar o‘rtasidagi, radikal islohotchilar va mo‘tadil islohotchilar o‘rtasidagi farqlar), muayyan taktik xatolari ham bor edi. Haqiqiy ilm-fan shu tafovutlarni yopib yubormasdan, xolis tahlil etgandagina harakatning asl manzarasini yarata oladi. Jadidlarni butun xalq bir ovozdan darhol qo‘llab-quvvatlab ketgan degan romantik tasavvur ham xatodir. Ular ikki o‘t oralig‘ida, bir tomondan mustamlakachilar, ikkinchi tomondan johil, o‘zgarishlarni istamaydigan va ularni "kofirga" chiqaruvchi mahalliy ruhoniylar ("qadimchilar") bosimi ostida ishladilar. Shu jarayonni ochiq ko‘rsatish xolislikning belgisidir.

Sivilizatsiyaviy metodologiya jadidchilikni shunchaki O‘rta Osiyo mintaqasi bilan chegaralanib qolgan yakkalanib qolgan hodisa emas, balki Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarining tutashgan nuqtasida yuzaga kelgan tafakkur sintezi sifatida e’tirof etadi. Jadidlar o‘z asarlarida ochiqdan-ochiq yevropaliklarning ilm-fanini, texnikasini o‘zlashtirishga chaqirgan holda, Islom dinining, sharqona axloqning sof qadriyatlarini saqlab qolish g‘oyasini ("O‘zligimizni asragan holda modernizatsiya qilish") olg‘a surdilar.

Qiyosiy (komparativ) metodologiya esa Turkiston jadidchiligini dunyodagi shu kabi jarayonlar bilan taqqoslab o‘rganishni talab qiladi. Biz Turkiston jadidlarini Rossiyadagi Ismoil Gasprinskiy, Shihobiddin Marjoniy boshlagan tatar jadidchiligi, Usmoniylar imperiyasidagi "Yosh turklar" (Jöntürkler) harakati, Eron va Afg‘onistondagi "Mashrutiyat" (Konstitutsionalizm) oqimlari, Arab olamidagi Muhammad Abduh va Jamoliddin Afg‘oniy boshlagan islomiy islohotchilik (Nahda) harakatlari bilan qiyoslashimiz zarur. Bu taqqoslashlar Turkiston jadidchiligining yuksak darajada xalqaro fikrlash doirasiga ega bo‘lganligini, ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida dunyoviy integratsiya g‘oyalarini olib chiqqanini isbotlaydi.

Jadidchilik bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan harakatlar yig‘indisi emas, u yagona organizm, o‘zining maktabi, matbuoti, teatri, tijorat uyushmalari va siyosiy partiyasiga ega bo‘lgan TIZIM (sistema) hisoblanadi. Tizimli yondashuv shu barcha komponentlarning o‘zaro munosabatini va pirovard maqsadga yo‘naltirilganligini o‘rganadi. Sinergetik yondashuv orqali esa, murakkab davrda qanday qilib o‘z-o‘zini tashkil qilish (samooriyentatsiya) jarayoni kechganligini kuzatish mumkin. Munavvarqorining "Turon", "Nashri maorif", "Ko‘mak" jamiyatlari atrofida butun boshli millat taraqqiyparvarlarining jipslashuvi – bu jamiyatdagi betartiblik (xaos) ichida yangi tuzilmaning (tizimning) tug‘ilish jarayonidir.

Jadid merosini o‘rganishda germenevtika (matnlarni izohlash, ma’nosini chaqish san’ati) o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Tsenzuradan qochish uchun jadidlar ko‘pincha majoziy, ramziy tillardan, Ezop tilidan foydalanishgan. Masalan, A. Fitratning asarlaridagi obrazlar zamirida yashiringan ijtimoiy-siyosiy ishoralarni

to‘g‘ri o‘qish bugungi tadqiqotchidan gnoseologik chuqurlikni talab qiladi. Darsliklarda keltirilgan she’rlar, xususan Avloniyning "Hurriyat"ga atalgan she’rlarining zamirida shunchaki lirik kechinmalar emas, balki aniq siyosiy deklaratsiyalar yotishini anglash metodologiyaning amaliy natijasidir.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida maydonga chiqqan jadidchilik harakati xalqimizning uzoq va shonli tarixidagi eng yorqin, fojiali va ayni paytda eng sharafli sahifalardan biridir. Bu harakat shunchaki paydo bo‘lib, keyin yo‘qolib ketgan epizod emas, balki qat’iy tarixiy zarurat taqozosi, murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qaramlik va mudhish ma’naviy-madaniy inqiroz sharoitida millatning saqlanib qolish, taraqqiyotga yuz tutish sari qo‘yilgan qutqaruv halqasi edi.

Jadid mutafakkirlarining o‘z millati oldidagi xizmatlarini baholar ekanmiz, ularning hayoti chinakam fidoiylik, aql-zakovat va insonparvarlik jasorati ekanligiga amin bo‘lamiz. Ular o‘z shaxsiy boyliklarini, sokin hayotini va pirovardida o‘z jonlarini xalq manfaati, uning ko‘zini ochish, huquqlarini talab qila oladigan erkin va ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lida fido qildilar. Garchi ularning ozod va huquqiy davlat haqidagi eng oliy orzulari, jumladan Turkiston muxtoriyati qonga botirilib, o‘zlari qatag‘on qilingan bo‘lsalar-da, ularning sepgan ma’rifat va hurriyat urug‘lari hech qachon yo‘qolmadi.

Bugungi kunda – Yangi O‘zbekistonda mustaqil, ochiq, demokratik fuqarolik jamiyati qurilayotgan, raqamli iqtisodiyot va sifatli inson kapitali taraqqiyotning strategik maqsadi deb e’lon qilingan bir davrda, jadid bobolarimizning g‘oyalari qaytadan vujudga kelmoqda, desak yanglishmaymiz. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni xorijning nufuzli universitetlariga yuborish (jadidlarning "Ko‘mak" uyushmasi 1922-yilda talabalarni Germaniyaga yuborganidek), qonun ustuvorligini ta’minlash va inson qadrini ulug‘lash aynan jadidchilik ta’limotining zamonaviy va mukammal ifodasidir. Prezidentimiz O‘zbekistonni mintaqadagi innovatsion yutuqlar, barqarorlik va ma’rifat markaziga aylantirish vazifasini qo‘yar ekan, uning tub tarixiy asosi aynan jadidchilik tamoyillariga borib taqaladi.

Jadidchilik ijtimoiy-tarixiy fenomenini o‘rganish tarixchi, faylasuf, sotsiolog va adabiyotshunoslarimiz oldiga yangidan yangi, dolzarb metodologik vazifalarni qo‘yishda davom etmoqda. Bu murakkab jarayonni eski sovet qoliplari bilan emas, balki tarixiylik, xolislik, tizimlilik va sivilizatsiyaviy integratsiya mezonlari asosida tadqiq etish muhimdir. Jadidlarning asarlari va g‘oyalarini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali biz faqat o‘tmishni o‘rganmaymiz, balki kelajagimizga – Uchinchi Renessans davriga mustahkam intellektual va ma’naviy poydevor yaratamiz. Milliy xotira va ajdodlarga munosiblik har doim xalqimizni yangi marralar sari ilhomlantiruvchi abadiy chashma bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халк сузи. 2018 йил 29 декабр, №271-272 (7229-7230). -Б.3.

3. Гадамер Х.Г. Истика и метод. - Москва: Прогресс, 1998 .- С. 50.

4. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: "Akademnashr", 2022.

5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2002.

6. Karimov N. Jadidchilik va uning namoyandalari. – Toshkent: "Sharq", 2000.

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992.

8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma’naviyat", 1999.

9. Каримов И.А. Ватан саждагох каби мукаддасдир. - Т .: Узбекистон, 1996, Ж.Ш. Б. Т.

10. Xalq so’zi gazetasi – 2023 yil 23 dekabr, № 274 (8617) WWW.XS.uz

11. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O’RNI. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).

12. Qosimbek o‘g‘li, P. J. (2023). JADID MAKTABI YANGI USUL MAKTABLARNING ROLI ASOS SOLINISHI. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 29 (4), 125-129.

II SHO‘BA: TURKISTON JADIDLARI MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING GENEZISI VA UNI FANLARARO TADQIQ ETISHNING ILMIY, MA’NAVIY AHAMIYATI

СЕКЦИЯ II: ПРОИСХОЖДЕНИЕ ИДЕЙ ПРОСВЕЩЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ И НАУЧНОЕ И ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИХ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ИЗУЧЕНИЯ

CHAPTER II: THE GENESIS OF THE IDEAS OF THE ENLIGHTENMENT OF THE TURKESTAN JADIDS AND THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL SIGNIFICANCE OF ITS INTERDISCIPLINARY STUDY

УСМОН ХЎЖА – БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ ИЖРОИЯ ҚЎМИТАСИНИНГ БИРИНЧИ РАИСИ

(1921 йил сентябрь-1922 йил февраль)

Ражабов Қахрамон,

тарих фанлари доктори, профессор,

Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими

Усмон Хўжа – Бухорода Молия халқ нозири (1920-1921). 1920 йил сентябрда Бухорода амирлик тузуми Россиядан келган босқинчи қизил қўшин томонидан ағдариб ташланди. Ўша йилнинг 6–8 октябрида собиқ Бухоро амирининг ёзги қароргоҳи Ситораи Моҳи Хосада Бухоро меҳнаткашларининг биринчи қурултойи бўлиб, Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) эълон қилинди ва Файзулла Хўжаев бошчилигида ҳукумат тузилди. Усмон Хўжа ушбу ҳукуматда Молия халқ нозири (1920–1921) лавозимида иш бошлади[111]. «Бухоро ахбори» газетасининг 1920 йил 21 ноябрда чоп этилган сонида Усмон Хўжанинг Молия халқ нозири сифатида буйруғи босилган.

Мазкур буйруқни асл ҳолича келтиришни лозим топдик:

«*1920 йил, 12 октябрь, 3-сон*

Буйруқ

Ушбу кундан эътиборан Бухоро ва Бухорога тобе барча вилоят ва туманлар аҳолисига молия назорати томонидан эълон қиламизки: қўлларингда бўлган муҳрсиз ва қолип қоғоз оқчаларни тездан молия назорати

[111] Қаранг: Ражабов Қ. Қизил қўшинга қарши Бухоро. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: Фан-Ochun, 2025. 87-94-бетлар.

комиссиясига келтириб топширсинлар ва ҳам шундан сўнг муҳрсиз ва қолип қоғозларни ҳеч ким олиш-беришга истеъмол қилиб олмасунлар.

Агар бу кун ва бу тарихдан сўнгра яна ҳар қайси олиш берувчи касаба ва бозор халқи қолип ва муҳрсиз қоғоз оқчаларни олиш-беришга қўлласалар, олган ва берган ҳар икки тараф қаттиқ жазо кўрадурлар.

Молия нозири:

Усмон Хўжа»[112].

Юқоридаги буйруқдан кўриниб турибдики, янги ҳукумат Бухоро Республикаси ҳудудида амал қилиб келаётган турли пуллар ўрнига ягона пулни жорий қилиш ҳаракатида бўлган. Усмон Хўжа молия нозири сифатида ушбу вазифанинг бошида турганди. Усмон Хўжа БХСР ҳукуматида Давлат назорати нозири (1921), Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитасининг дастлабки раиси (1921 йил сентябр – 1922 йил феврал) лавозимларида ҳам ишлайди.

Усмон Хўжанинг ҳаёт йўли ва раҳбарлик фаолияти билан боғлиқ бир лавҳани келтирмоқчимиз. Озодлик учун кураш йўлига кирган Туркия 1921 йил 16 мартда РСФСР билан, 1921 йил 13 октябрда Закавказье Федерацияси билан, 1922 йил 2 январда эса Украина ССР билан дипломатик шартномалар имзолаганди. *«Совет ҳукумати Туркияга олтин ҳисобида 10 млн. рубллик қурол-аслаҳа, ўқ-дори билан ёрдам берди»,* – дейилади совет даври адабиётларида. Аслида ўша пайтда фронтлар ҳалқаси қуршовида қолган совет ҳукумати 1920–1921 йилларда Туркияга моддий ва ҳарбий ёрдам кўрсатиш имконига эга эмасди. Туркиянинг Москвадаги вакили Бекир Семибейнинг бу масаладаги илтимосига В.Ленин ва М.Калинин салбий жавобларини айтиб улгуришганди ҳам.

Бу ёрдам Туркияга БХСР томонидан кўрсатилган. Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитаси раиси Усмон Хўжа БХСР маблағидан 100 млн олтин сўмни Туркияга юбориш учун Москва банкига топширган. Бу ҳақда Туркиянинг тарихчи олими Меҳмет Сарой етарлича далиллар асосида маълумот беради. У мазкур ҳарбий ёрдам бериш масаласи БХСР Марказий Ижроия Қўмитаси Президиуми йиғилишида муҳокама қилинганлиги, Бухоро Коммунистик партияси (БКП) раҳбари Нажиб Ҳусаинов Туркияга Бухоро Республикаси томонидан ёрдам берилишига қарши чиққанлигини ҳам қайд қилади[113].

Бироқ совет ҳукумати Шарқнинг икки мамлакати ўртасида воситачилик қилиш баҳонасида БХСР ҳукуматининг Туркияга моддий ёрдамидан ўндан тўққиз қисмини ўз ҳисобига ўтказиб олади. Туркия халқининг мустақилликка эришувида, аёвсиз жангларда кучли рақиб устидан ғалаба қозонишида бухоролик ватандошларимиздан Усмон Хўжа каби юртдошларимизнинг муносиб ҳиссаси борлиги биз учун ҳам фахр ва ифтихордир. Айни пайтда маблағларнинг ўзлаштирилиши кишини таажжуб ва ҳаяжонга соладиган воқеалардан бири сифатида ўтмишнинг доно сабоқларга тўла китобидан муносиб ўрин олган, десак адашмаган бўламиз.

[112] Қаранг: “Бухоро ахбори” газетаси, 1920 йил 21 ноябр.

[113] Қаранг: Mehmet Saray. Milli Mucadele Yillarında Buhara Cumhurıyetının Turkıye Yardamı ve Cumhurbaşkam Osman Kocaoğlu// Türkistan’da Yenilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 – 1924. – Haarlem, 2001. S. 339– 346.

Усмон Хўжа Бухоро Республикасида вақф ерларни ҳисобга олиш ва улардан фойдаланишни тартибга солиш, вайрона ҳолатга келган мамлакатни тиклаш, маданий-маърифий ўчоқлар очиш, меъморчилик обидаларини таъмирлаш, совет Россиясининг 50 минг кишилик қизил қўшинини Бухородан чиқариб юбориб, миллий армияга асос солиш, ҳар қандай воситачисиз мустақил халқаро ҳамкорликка киришиш, мамлакат чегараларини мустаҳкамлаш, ўзбек тилини давлат тили сифатида расмийлаштириб, ҳаётга татбиқ қилиш учун курашади. Бироқ 1921–1922 йилларда Москванинг Бухоро Республикаси ички ишларига аралашуви кучаяди. Бухорода турган Россия қизил қўшинининг миқдори янада кўпайтирилади. Бухоро миллий армияси РСФСР инқилобий ҳарбий кенгаши қўмондонлигига бўйсундирилади. Маълумки, 1921–1922 йилларда Шарқий Бухорода истиқлолчилик ҳаракати авж олганди. Совет раҳбарлари озодлик учун курашчиларни тинчитишда, оз бўлса-да, вақтдан ютиш мақсадида БХСР давлатининг Усмон Хўжа сингари обрў-эътиборли арбобларидан фойдаландилар. 1921 йил 10 мартда Бутунбухоро МИҚнинг Шарқий Бухоро бўйича фавқулодда ишлар вакиллиги тузилди. Унинг раиси Усмон Хўжа, аъзолари эса Мирзоанвар Азимов ва Абдулҳаким Қулмуҳаммедов эди. Усмон Хўжанинг укаси Отаулла Хўжаев 1921 йил 12 августда Балжувонда Давлатмандбек билан учрашиб, музокаралардан сўнг ўзаро шартнома имзолашга эришди[114].

Бухоро Халқ Совет Республикаси Марказий Ижроия Қўмитасининг биринчи раиси. 1921 йил 18 – 23 сентябрда бўлган Бутунбухоро халқ вакилларининг II қурултойида демократик руҳдаги БХСР Конституцияси қабул қилинди. Бухоро тарихидаги дастлабки Конституция фуқароларнинг демократик ҳуқуқ ва эркинликларини қонун йўли билан мустаҳкамлади. Конституцияда давлатни идора этиш учун халқнинг барча табақа вакилларининг иштироки таъминланди. Хусусий мулк ва савдо-сотиқ эркинликлари Конституцияда ўз ифодасини топди. Бухорода ўрнатилган тузум халқ демократик республикаси эди. БХСРнинг Конституцияси барча фуқароларга тенг сиёсий ҳуқуқ берди, миллий тенгсизликни йўқотди. Конституцияга кўра, БХСРнинг олий органи Бутунбухоро халқ вакиллари қурултойи бўлиб, у ҳар 2000 сайловчига бир вакил сайланадиган 350 аъзодан иборат эди. Қурултой йилига бир марта чақирилар ва унда республика конституциясини қабул қилиш, ўзгартиришлар киритиш, ҳукуматнинг ҳисоботи ва давлат бюджетини тасдиқлаш каби муҳим масалалар кўрилар эди. Конституцияга кўра, қурултойлар орасида қонун чиқарувчи ва назорат қилувчи олий орган – Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитаси ҳисобланади. Қурултойда Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитаси раиси қилиб Усмон Хўжа (Усмонхўжа Пўлатхўжаев) сайланди (1922 йил августда бўлган III қурултойда бу лавозимни Порсо Хўжаев эгаллади) [115]. Конституцияга

[114] Қаранг: Ражабов Қ. Қизил қўшинга қарши Бухоро. 206-бет.
[115]Ражабов Қ., Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа. – Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2011. – Б. 14 – 17.

мувофиқ, Халқ Нозирлар Шўроси давлат ҳокимиятини ижро қилувчи ва бошқарувчи олий орган сифатидаги ўз вазифасини сақлаб қолди[116].

Бу йилларда икки томон ҳам Усмон Хўжанинг халқ орасидаги обрў-эътиборидан ўз мақсадларини кўзлаб фойдаланишган. Москвадан келган турк ҳарбий қўмондони Анвар Пошо (1881-1922) Усмон Хўжа орқали РСФСР консули Нагорнийга ультиматум хати юбориб: *«Тезроқ рус қўшинлари бутун Туркистон ва Бухородан олиб чиқиб кетилсин»*, – деб талаб қилган. Қизил аскарлар эса аҳолидан армия эҳтиёжи учун озиқ-овқат тўплаш, халқни тинчлантириш масъулиятини жумҳурраис зиммасига юклаганди.

Москва тазйиқи кундан-кунга кучайиб, Бухоро Республикасининг мустақиллиги номигагина мавжуд бўлиб қолаётганди. Республика ҳукуматининг аъзолари большевизм қопқонига тушиб қолганликларини чуқурроқ англай бошлайдилар.

Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитаси, Халқ Нозирлар Шўроси ва Бухоро Коммунистик партия Марказий Қўмитаси томонидан 1922 йил 2 январда Шарқий Бухоро бўйича фавқулодда Диктаторлик комиссияси тузилгани ҳамда 1 февралда ҳарбий ҳолат эълон қилинганидан сўнг[117] вазият ёмонлашиб, энди Бухорода исталган шахсни ҳеч қандай тўсиқсиз қамоққа олиш, мамлакатдан чиқариб юборишга рухсат берилганди. Таъкидлаш жоизки, Бухоро Республикасининг миллий мустақиллигини тиклаш учун ҳукумат билан истиқлолчилар ўртасидаги иттифоқ зарурлигини англаб етган арбоблардан бири ҳам Усмон Хўжа эди.

БХСР МИҚ 1922 йил 8 январда Диктаторлик Комиссиясининг инструкциясини тасдиқлади. Унда Шарқий Бухоро туманларида инқилобий тартиб ўрнатиш, бутун кучни “босмачилар”ни тор-мор қилишга сафарбар этиш ва совет ҳокимиятини тиклаш (аслида ўрнатиш) комиссия олдига асосий вазифа қилиб қўйилди[118], Диктаторлик Комиссиясининг асосий ҳуқуқлари, ваколатлари ва функциялари батафсил баён қилиб берилди. Комиссия таркибига Носир Ҳакимов (раис), Олимжон Акчурин, Аҳмад Комилов, Рашид Боймуродов, Зайнуллахўжа Закиряев (аъзолар) киритилди[119].

Бутунбухоро МИҚ “Шеробод, Ҳисор, Ғарм ва Кўлоб вилоятлари Диктаторлик Комиссиясига батамом бўйсунади”, – деб белгилади. Бундан ташқари, комиссия зиммасига, конституцион қонунларни бекор қилмаган ҳолда, “Қарши, Шаҳрисабз, Карки вилоятларида ҳам тартиб ўрнатиш” вазифаси юкланди[120]. Комиссияга бу вилоятлардаги ижроия қўмиталарини тугатиш ва уларнинг ўрнига инқилобий қўмита (ревкомлар) тузиш ҳуқуқи берилди[121].

---

[116] Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). – Тошкент: Фан, 2024. 382-бет.

[117] Қаранг: Тожикистон Марказий давлат архиви, Р-1-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 1-7-варақлар.

[118] Қаранг: Қ.Ражабов. Қизил қўшинга қарши Бухоро. 2-нашри. – Тошкент: Фан-Ochun, 2025. 216-бет.

[119] Ўзбекистон Милллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 136-иш, 42-варақ.

[120] Ўзбекистон Милллий архиви, 46-фонд, 1-рўйхат, 19-иш, 114-варақ.

[121] Қаранг ва таққосланг: Ўзбекистон Милллий архиви, 48-фонд, 111-иш, 236-варақ; Ўрта Осиё коммунистик ташкилотларининг тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. 735-736-бетлар; Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. –Ташкент: Узбекистан, 1969. С. 284.

Душанбе қамали (1921 йил декабр) ва унинг оқибатлари. Бухоро Халқ Совет Республикасида истиқлолчилик ҳаракати[122] авж олган бир вақтда Бухоро шаҳрига Боку ва Ашхобод орқали Туркиянинг таниқли давлат арбоби ва ҳарбий саркарда Анвар Пошо келди. Бу пайтда Бухоро шаҳрида турган Аҳмад Закий Валидий (1890-1970) кейинчалик гувоҳлик беришича[123], Анвар Пошо 1921 йил 20 октябрда Бухорога келган. Унинг ёнида фақат икки турк зобити бўлган. Бухоро Республикасининг ўша даврдаги давлат бошлиғи *Усмон Хўжа* бу ҳақда кейинчалик қуйидагиларни ёзган эди: "*Анвар Пошо Москвадан бошлаган узоқ бир сафарнинг сўнгида – 1921 йил октябр ойининг охирларида Бухорои шарифга ташриф буюрди. Шунда мен Шарқий Бухородa эдим...* "[124].

Анвар Пошо ва унинг икки ёрдамчиси: Муҳитдинбек ҳамда Ҳожи Сомий (кейинчалик Салим Пошо номи билан машҳур бўлган) Бухоро шаҳридан сал ташқаридаги муҳташам Дилкушо қасрига жойлаштирилди. Файзулла Хўжаев Душанбега Бухоро Халқ Совет Республикаси Марказий Ижроия Қўмитаси раиси Усмон Хўжага телеграф орқали сим қоқиб, "бағоят буюк ва муҳтарам Анвар Пошонинг келганлигини", унга барча шароитлар яратилганлигини маълум қилди.

Анвар Пошо Бухоро шаҳрида бироз муддат тургач, 8 ноябрда бу ердан Шарқий Бухорога жўнаб кетди[125]. Анвар Пошонинг адютанти Муҳитдинбек кейинчалик Истанбулга қайтгач, у ердаги "Вақт" рўзномасида (1923 йил 25 ноябрь) бостирган хотираларида ёзишича, *Анвар Пошо* Бухородан кетадиган куни қуйидаги гапларни айтган эди: "*Туркистон учун курашиш керак. Ҳақ иш учун ўлимдан қўрқсанг, ўзингни ҳам ит ҳолига дучор қиласан. Агар бу ишга киришмасак, келажак авлодлар лаънати оғир бўлади. Қутулиш йўлини излаб, ўлсак ҳам, ўзимиздан кейин келадиган авлодлар озодлик ва бахт йўлини таъминлаган бўламиз*"[126].

1922 йил декабр ойининг бошларида Шарқий Бухоро – Душанбеда вазият кескинлашган эди. Бухоро Марказий Ижроия Қўмитаси раиси Усмон Хўжа бу пайтда Бухоро ҳукуматининг Фавқулодда вакили сифатида Душанбе шаҳрида эди. У билан бирга республика милициясининг бошлиғи, ҳарбий нозир ўринбосари Али Ризонинг 650 кишилик қўшини ҳам бор эди. Усмон Хўжа ва БХР ҳукуматининг кўпгина раҳбарлари Бухорони ўз миллий қўшини, миллий ҳукумати билан ҳақиқий маънодаги мустақил республикага айлантирмоқчи эдилар. Мустақил республика мавжудлигининг биринчи шарти яхши қуролланган миллий қўшинни тузиш зарурлиги эди. Усмон Хўжа асосан руслардан иборат қизил армиянинг Бухорода туришига очиқ равишда қарши чиқди. Чунки қизил армия бу ерда турар экан, мустақил республика фақат

[122] Бу ҳақда қаранг: Қ.Ражабов. Бухоро Республикасида истиқлолчилик ҳаракати: Анвар Пошо бошчилигида олиб борилган жанглар (1921 йил ноябр – 1922 йил август)// "Бухоро мавжлари". 2004. № 1. 25-29-бетлар; № 2. 27-31-бетлар; № 3. 25-29-бетлар.

[123] Zeki Velidi Togan. Hatiralar. Turkistan ve Diger Musluman Dogu Turklerinin Milli Varlik ve Kultur Musadeleleri. Istanbul, 1969. S.386.

[124] Усмон Хўжа. Анвар Пошо Бухорода қолса эди... // "Эрк" газетаси (Тошкент). №16.1992 йил 29 апрел-5 май.

[125] Шуниси характерлики, 8 ноябрда Аҳмад Заки Валидий ҳам Бухоро шаҳридан чиқиб кетган эди.

[126] Бу ҳақда қаранг: Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар. Бошқирд тилидан Ш.Турдиев таржимаси. – Тошкент: "Адолат", 1997. 136-бет; Baymirza Hayit. Turkistan im XX. Jarhundert. – Darmstadt, 1956. – S 191.

қоғозда қолар, мустамлакачилик тузуми давом этаверар эди. Бу нозик сиёсатни Усмон Хўжа жуда яхши тушунган[127].

Усмон Хўжа ўз ёрдамчилари: республика милициясининг бошлиғи Али Ризо Афанди ва Дониёлбек билан биргаликда 9 декабр куни кечқурун Душанбе гарнизонининг бошлиғи Морозенко, военком Мухин ва РСФСРнинг бош консули Нагорнийга шаҳардаги ҳарбий гарнизонни қуролсизлантириш ва бутун қурол-яроғни Али Ризо ихтиёрига бериш кераклиги ҳақидаги ҳужжатга имзо чектириб олдилар. Сўнгра ушбу рус зобитлари қўлга олинди.

Бироқ қизил аскарлар қуролини топширмай, Усмон Хўжа бошчилигидаги кучларга қарши очиқ жангга киришди. Бундай ҳолатда Усмон Хўжанинг руслар билан алоқаси бузилгач, у шаҳарни қамал қилаётган Иброҳимбек ва бошқа қўрбошиларга мурожаат қилиб: “Биз босқинчиларга қарши курашга киришдик, келинглар, барчамиз бир жону бир тан бўлиб, жанг қиламиз!”, – дея баённомалар юборди. Иброҳимбекнинг ўзига ҳам махсус хат ёзиб, тутқунликда ётган Анвар Пошони унинг ҳузурига жўнатишни сўрайди. Бу пайтда Пошо билан унинг орасидаги масофа, ўзининг ёзишича, эллик чақирим бўлган. Афсуски, Иброҳимбек Усмон Хўжанинг бундай самимий даъватига унчалик ишонмайди. Тез орада Душанбе шаҳрида турган қизил аскарлар гарнизонига Бойсундан қўшимча равишда ёрдамчи кучлар етиб келади. Усмон Хўжа ва унинг тарафдорлари кучлар тенг бўлмаганлиги учун Душанбени 13 декабрда ташлаб чиқишга мажбур бўлишди[128]. Душанбе яна босқинчи қизил аскарлар ихтиёрига ўтди.

Ўша давр воқеаларининг бевосита шоҳиди Абдулла Ражаб Бойсун Туркистонлининг ёзишича, Усмон Хўжа раҳбарлигидаги БХСР миллий армияси кучлари ва Иброҳимбек йигитлари ўртасида Шарқий Бухоронинг Метабон қишлоғида тўқнашув бўлган. Бу жанг кун бўйи давом этган. Тунда эса Усмон Хўжа тарафдорлари Боботоғ томонга чекиниб, Чайнар қишлоғига чиқиб кетадилар. 1921 йил декабр ойининг охирлари - 1922 йил январ ойининг бошларида Ҳасанбек, Халилбек, Нафибек, Усмон афанди, Қодир Човуш ва бухоролик 2 жадид Жилликўл; Усмон Хўжа, Али Ризобек ва Ҳожи Сомий ўз ихтиёридаги миллий ҳарбий қисмлар билан Беҳбудий (Қарши); Дониёлбек ва Абдулрасул афанди бошчилигидаги ҳарбий бўлинма эса Шаҳрисабз томонга жўнайди[129]. Мазкур маълумотлар ўша даврга оид архив ҳужжатлари билан тасдиқланади.

Архив ҳужжатларида келтирилишича, Усмон Хўжа Шарқий Бухородан пойтахт Бухоро шаҳрига қайтиш мақсадида Қаршига келади ва бир ҳовлида тунайди. Шу вақт Усмон Хўжа билан бирга Душанбега борган Бойсуннинг ҳарбий нозири Дониёлбек Афанди (Дониёлбек) истиқлолчилар сафига ўтиб кетади. Бундан сал олдинроқ эса Эски Бухоро миршабларининг бошлиғи, ЧК

[127] Қаранг: Қ.Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 й.). – Тошкент: Маънавият, 2002. 74-101-бетлар.
[128] История гражданской войны в Узбекистане. В двух томах. Том II. – Ташкент: Фан, 1970. С.325; РГВА, 110-фонд, 3-рўйхат, 577-иш, 112-варақ.
[129] Türkistanli Abdullah Receb Baysun. Türkistan Milli Hareketleri. – İstanbul, 1975. S. 71-72.

раиси Муҳитдин Махсум Хўжаев ҳам ўзининг бир қисм ҳарбийлари билан истиқлол курашчилари сафига қўшилган эди[130].

Усмон Хўжа Қаршида турганлигида узил-кесил бир қарорга келиб, советлар билан алоқасини узди ва қуролли мухолифат томонига ўтди. 1922 йил 10 апрелда Усмон Хўжа Афғонистонга келди. 29 апрелда Кобулда Афғонистон амири Омонуллахон билан учрашиб, Россияга қарши кураш олиб бориш учун Бухоро республикасининг давлат бошлиғи сифатида Афғонистон билан шартнома имзолади[131]. У Бухоро мустақил миллий армияси учун хорижий давлатлардан қурол-яроғ сотиб олишга ҳаракат қилди. Бироқ тадқиқотчиларнинг ёзишича, инглизлар билан бўлган музокаралардан бирор натижа чиқмади[132].

Шундай қилиб, Усмон Хўжанинг ҳаётида муҳожирлик даври бошланди. У дастлаб Афғонистонда туриб, Анвар Пошо ва бошқа қурбошилар билан алоқаларни йўлга қўйди. Афғонистонда туркий миллатга мансуб йигитларни махсус ҳарбий тайёргарликдан ўтказиб, уларни Туркистон мустақиллиги учун курашга тайёрлади[133]. Айрим манбаларда ёзилишича, 1922 йил декабр ойининг бошларида Усмон Хўжа Шарқий Бухородаги Салим Пошо қароргоҳида бўлиб, Қоратегинда қуролли дасталарни тузишга раҳбарлик қилган[134].

Усмон Хўжа бу воқеалардан сўнгра даъватнома эълон қилиб, аҳолини мустақиллик учун қурол кўтариб рус аскарларига қарши курашишга чақирди: “Барчамизнинг юрагидаги энг катта орзу – Туркистонда ярим асрдан кўпроқ вақт давомида ҳукмронлик қилган душманнинг тажовузидан халос бўлиш орқали озодлик ва мустақилликка эришишдир. Энди бу мақсадга эришиш вақти келди. Мен қўлида қурол бўлганлар ва қурол ишлата оладиганларни ушбу шарафли вазифага таклиф қиламан. Яшасин озодлик ва мустақиллик!”

Душанбедаги совет гарнизонининг қамал қилиниши ва қизил армия қўмондонларининг ҳибсга олиниши борасида совет даврида тарихий адабиётлардан ташқари адабий асарларда ҳам кенг ёритилди. Бухоролик тожик совет ёзувчиси Жалол Икромий (1909-1993) ўзининг 1975 йилда ёзган “*Гарнизон таслим намишавад*” (“Гарнизон таслим бўлмайди”) пьесасида Усмон Хўжани антисовет курашчиси сифатида таърифлайди, ўзбек ёзувчиси Шукур Холмирзаев (1940-2005) эса 1982 йилги “*Қил кўприк*” романида Усмон Хўжани советларга қарши кўрсатса-да, унинг мустақиллик фикрларини анча ижобий тасвирлайди. Бошқа томондан татар ёзувчиси Тевфиқ Айди 1991 йилда ёзилган “*Элан Уги*” (“Илон заҳари”) романида Усмон Хўжанинг БХСРдаги фаолиятини ижобий тасвирлаб, унинг Бухоро Жумҳуриятини мустақил қилишга ҳаракат қилганлигини таъкидлайди. Совет даврида

[130] Қ.Ражабов. Қизил қўшинга қарши Бухоро. 211-213-бетлар.

[131] Temur Kocaoglu. Yenlik Hareketleri ve ihtilaller Arasinda Osman Hoca (Kocaoglu) // Turkistanda Yerilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924. - Haarlem, Sota, 2001. S. 26-28.

[132] Ҳайитов Ш. Усмонхўжа Пўлатхўжаев - миллий мустақиллик курашчиси // Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Б. 68-69.

[133] Қаранг: Қ.Ражабов. Туркистон минтақасида совет режимига қарши истиқлолчилик ҳаракати ва моҳияти (1918-1935). - Тошкент: “Фан”, 2022. 220-222-бетлар.

[134] Қаранг: Ўзбекистон Миллий архиви, 58-фонд, 1-рўйхат, 84-иш, 28-варақ.

Душанбе воқеаси тўғрисида 1977 йилда “Тожикфильм” киностудияси томонидан “*Муҳосара*” (“Қамал”) номли фильмда тожик кино юлдузи Гурминч Завқибеков Усмон Хўжа ролида ўйнаган[135].

Шундай қилиб, Усмон Хўжа БХСР ҳукуматининг аксарият арбоблари (Файзулла Хўжаев, Абдулқодир Муҳитдинов ва б.) сингари Бухоро Республикасини ўз миллий қўшини, миллий ҳукумати бўлган мустақил республикага айлантирмоқчи эди. У БХСРдан совет Россиясининг қизил аскарлари олиб кетилиши ҳамда Бухоронинг мустақиллиги учун изчил курашди. Усмон Хўжа 1922 йил бошларидан совет ҳокимияти билан алоқасини узиб Кобулга келгач, Россияга қарши кураш олиб бориш учун БХСРнинг давлат бошлиғи сифатида 1922 йил 29 апрелда Афғонистон амири Омонуллахон билан шартнома имзолаган. У Бухоронинг миллий армияси учун хорижий давлатлардан қурол-яроғ сотиб олишга ҳаракат қилган. Усмон Хўжа кейинчалик Бухорога қайтмоқчи бўлганида Файзулла Хўжаев унга мактуб юбориб, юртга қайтмасликни ёзади, мабодо у қайтиб келса большевиклар томонидан отиб ташланиши мумкинлигидан огоҳлантиради[136].

Хуллас, Усмон Хўжа Ватанига хоинлик ва халқига сотқинлик қилиш учун эмас, балки Туркистон озодлиги ва мустақиллиги учун курашни давом эттириш мақсадида муҳожирликка юз тутганди.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ

Исақова Замирахон Руҳитдиновна

фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор

Наманган давлат университети, Ўзбекистон

Жаҳондаги тезкор ўзгаришлар ва глобал муаммолар ҳар бир инсондан фаоллик, истеъдод ва қобилиятларни намоён этиш, масъулиятни ҳис қилиш, ўзгаришларни қабул қила олиш, жамиятни янгилаш, унинг ривожи учун янгича фикрлаш, ижодий ёндашиш ва омилкорлик билан ишлашни талаб этмоқда. Бу ўзгаришлар жараёнида Туркистон маърифатпарвар жадидларининг маънавий мероси алоҳида аҳамият касб этади. Шу билан бирга, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси ҳам ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, ижтимоий адолат ва ҳуқуқий давлатни барпо этиш, миллий онг ва маданиятни ривожлантириш, ташқи сиёсат ва халқаро ҳамкорлик йўналишларида устувор ўзгаришларни амалга оширишга қаратилган.

[135] Қаранг: Timur Kocaoglu. Yenilik Hareketliri ve ihtilaller Arasinda Osman Hoca (Kocaoglu) // Türkistanda Yenilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924. S. 42-43.

[136] Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир. Учта китоб. 2-китоб (Усмон Хўжанинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). 165-166-бетлар.

Демократик қадриятларга асосланган янгиланган жамиятни барпо этиш, мустаҳкам истиқболли пойдевор қуриш, бугунги кун кишисидан қатъият, омилкорлик, янгича тафаккур ва инновацион ғоялар, новаторлик иш услубини талаб этади. Янги Ўзбекистонни барпо этиш туб тарихий асосларга эга бўлган, мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазият тақозо этаётган, халқнинг асрий орзу-интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруриятдир[137].

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида белгилаб олинган асосий йўналишлар билан танишиш жараёнида бу йўналишларнинг Туркистон жадидлари илгари сурган маърифатпарварлик ғоялари билан чамбарчас боғлиқлиги, шу билан бирга, жадидларнинг кўплаб эзгу орзулари рўёбга чиққани ҳолда ижтимоий-сиёсий муаммолар кўлами кенгайгани муаллифнинг эътиборини тортди. Масаланинг моҳиятини Туркистон жадидчилигининг асосчиси Маҳмудхўжа Беҳбудий (1875-1919)нинг қарашлари орқали ижтимоий-фалсафий таҳлил қилиш эҳтиёжи туғилди.

Янги давр ўзбек маданияти асосчиси, мустақил давлат ғоясининг етакчиси, янги мактаб ғоясининг назарий ва амалий ижрочиси, илк ўзбек драматурги, театрчиси, ноширн, журналисти, миллатнинг асл фарзанди М.Беҳбудий мураккаб ва зиддиятли даврнинг “ёрқин” юлдузи, илғор ва ҳур фикрли маърифатпарвари эди. Мутафаккир илм-фан ва маърифат фидойиларини бир ғоя остида бирлаштириш, Ватанни истибдоддан асраш, халқнинг миллий онгини шакллантириш, миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини ривожлантириш, уларни маърифат ва тараққиётга чорлашдек буюк вазифани адо этган. М.Беҳбудий жадидчилик ҳаракатининг йирик вакили сифатида таълим, тил, маданият, ижтимоий адолат ва миллий онг масалаларига катта эътибор қаратган. Фикримизча, М.Беҳбудийнинг маънавий меросини ўрганиш ва тарғиб қилиш Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг муваффақияти учун зарур шартлардан бири. Бу, ўз навбатида, миллий ғоя ва мафкурани шакллантириш, жамиятда ижтимоий адолатни таъминлаш, ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш каби муҳим вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади.

Мутафаккир маърифатпарварлик дунёқарашининг шаклланишида қрим-татар жадидчилик ҳаракатининг асосчиси И.Гаспиринскийнинг алоҳида ўрни бўлган. “Таржумон” газетасида М.Беҳбудий буюк маърифатчи ва Туркистон миллий жадидчилик ҳарактининг отаси даражасига кўтарилган. Мутафаккир “Ойина” журналида И.Гаспиринскийни “... ҳар нав меҳнат ва кулфатларни ўзиға раво кўруб, миллатни уйғотмоқға, дунёдан, сиёсати оламдан, маданий миллатларни ҳолидан хабардор бўлмоқдари учун жисман ва руҳан ҳеч тинмасдан ишлагандурлар. Ҳар ерда мусулмонларни маданияти замонияға, улум ва фунуни асрияға, саноат ва тижорати қаринаға ва рус маданиятиға даъват ва ташвиқ этгандурлар. “Усули савтия” мактаблари нимбонийи

[137] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 4.

муассиси, янги усул алифбони мураттиб ва ноширн Исмоилбек ҳазратларидир”[138] деб фахр ва ифтихор билан тилга олган.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг маърифатпарварлик ғояларининг Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг миллий онг ва маданиятни ривожлантириш борасидаги устувор мақсадлари билан “якранг”лиги диққатга сазовор. Мутафаккирнинг ижтимоий фаолиятида таълим тизимини тубдан модернизация қилиш, жадид мактабларини очиш, маданият муассасаларини бунёд этиш, миллий маданиятнинг бой меросини асраш ва ривожлантириш, миллий тилни ривожлантириш, ўзбек тилининг нуфузини кўтариш, ёш авлоднинг миллий онгини шакллантириш, уларни она Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш каби масалалар етакчи ўринни эгаллаган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий қаерда ва қайси лавозимда фаолият олиб бормасин, унинг эътибори марказида миллатнинг тақдири турган. Мутафаккир ўз даврининг донишманди, ҳам диний, ҳам дунёвий илмнинг билимдони эди. Миллатнинг келажаги ҳақида қайғурган М.Беҳбудий буюк соҳибқирон Амир Темур барпо этган қудратли давлатнинг таназзулдан чиқиш йўли маърифат эканлигини чуқур англаган ҳолда, миллатни маърифат орқали ҳурриятга чорлаш ғоясини илгари сурган. Мутафаккирнинг қарашлари замирида миллий онгни шакллантириш муҳим аспект бўлиб, М.Беҳбудий ёш авлодни миллий қадриятларга содиқ, мустақил фикрлайдиган, юртни ривожланган давлатлардан андоза олиб мутараққий эттирадиган зурриёдлар қилиб тарбиялаш учун жадид мактаблари муҳимлигини теран англаган. Фикримизча, фақатгина миллий маданият ва қадриятлар такомили орқали ёшлар ўзлигини англаб, она Ватанига бўлган садоқати ва меҳрини кўрсатади ва юрт истиболи учун қайғуради. Мутафаккирнинг жадид мактабларида миллий тилнинг аҳамиятини кучайтириш, тарих, дин, адабиёт ва жаҳон халқлари маданиятини ўрганиш каби эзгу ғоялари конструктив асосга эга бўлиб, улар бугунги кунда ҳам аҳамиятини йўқотмаган. Шу билан бирга, М.Беҳбудийнинг жадид мактабларида таълим тизимини ислоҳ қилишга доир саъй-ҳаракатлари бугунги кунда ҳам долзарблигини йўқотмаган. Зеро, таълим тизимининг замонавий талабларга мос келиши, ёшларни замонавий билим ва малакалар билан қуроллантириш жамиятнинг тараққиёти учун заруриятга айланган. Демак, М.Беҳбудийнинг маърифатпарварлик ва истиқлолчилик ғояларининг бугунги кунда ҳам долзарблигининг йўқотмагани мутафаккирнинг когнитив-прогностик даражаси юксаклигидан далолат беради.

Бугунги кунда мутафаккирнинг меросидан қандай қилиб самарали фойдаланиш мумкин?

Биринчидан, ижтимоий-фалсафий нуқтаи назардан, мутафаккирнинг ғояларини бугунги кунда амалга ошириш учун, аввало, таълим тизимини тубдан модернизациялаш зарур. Бунда ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақомини мустаҳкамлаш, барча даражадаги таълим муассасаларини ўзбек тилидаги дарслик ва ўқув қўлланмалари билан тўлиқ таъминлаш, ўзбек тилини ўрганиш имкониятларини кенгайтириш, шунингдек, тарих ва маданият,

[138] Беҳбудий М. Исмоилбек ҳазратлари // Ойина. – Самарқанд: 1914. – № 50. – Б. 1186-1188.

замонавий билимлар, жумладан, хориж тилларини ўрганиш, ижодий фикрлаш ва танқидий тафаккурни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Хориж тажрибаси, жумладан, Финляндия тажрибаси ҳам эътиборга лойиқдирки, таълим тизимида ижодий фикрлаш ва танқидий тафаккурни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб, ёшларнинг мустақил фикрлаши ва муаммоларни ечиш қобилияти қадрланади:

иккинчидан, миллий маданият, адабиёт ва санъат ривожи учун кенг имкониятлар яратиш, янги ижодий лойиҳаларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, миллий онгни мустаҳкамлаш мақсадида маърифий ишлар кўламини кенгайтириш зарур. Бунда мактаб таълимини ислоҳ қилиш, табақалашган ўқиш тизимини йўлга қўйиш, таълим олувчилар ва таълим берувчилар ўртасидаги ихтилофларга барҳам бериш, ўқувчиларнинг билими, иқтидори ва қобилиятига "ҳар бир бола – даҳо" принципи асосида ёндашиш мақсадга мувофиқ.

М.Беҳбудий чинакам истеъдод эгаси бўлиб, ёш авлодни тарбиялашда дарсликларнинг аҳамиятини ҳаққоний баҳолаган. 1904 йилда "Рисолаи асбоби савод", 1905 йилда "Рисолаи жуғрофияи умроний", "Рисолаи жуғрофияи Русий", 1908 йилда "Китоб ул-атфол", "Амалиёти ислом", 1909 йилда "Тарихи ислом" китобларини шахсий даромади ҳисобидан нашр эттирган.

Ривожланган давлатларнинг маънавий-маърифий такомилида журнал ва газеталарнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улар миллатни тараққий эттирувчи башарият ихтироси, деб талқин этилган. Миллатни маърифатли қилиш, ғафлатдан уйғотиш, фикрий қолоқликдан қутқаришнинг фаол воситаси сифатида матбуотни танлаган М.Беҳбудий 1913 йилда ҳам туркий, ҳам форсий шевадаги "Ойина" журналини ташкил этган. "Ойина" миллат учун кўзгу бўлиб, М.Беҳбудий бу ҳақда "" ... мажалла (журнал – З.И.) бизники эмас, миллатникидур"[139] дейди. М.Беҳбудийнинг маслакдоши ва замондоши Ҳожи Муин журналнинг маърифат ва маданият тарғибидаги ўрнини "дунё мусулмонлари орасида яхшигина шуҳрат ва эътиборли"[140] деб таърифлаган. Умрини Туркистон жадид маърифатпарварларининг ҳаёти ва фаолиятини тадқиқ этишга бағишлаган зукко олим, адабиётшунос Б.Қосимов "Ойина" журналига баҳо бериб, "Ойина" халқ орасида анча машҳур бўлган"[141] деган асосли фикрни билдирган бўлса, журналист, "Олтин қалам" миллий мукофоти совриндори Б.Дўстқораев "Туркистонга хизмати буюк деб эътироф этилган "Ойина" ўлка халқларининг фикрий уйғонишига катта ҳисса қўшди"[142] деб таъкидлаган.

Театрни ибратхона даражасида кўрган М.Беҳбудий миллатни асрлар оша тубанлик ва илмсизлик ботқоғига ботирган муаммоларини бартараф этишнинг инновацион усули сифатида драматургияни танлаган. Мутафаккирнинг 1911 йилда ёзилган "Падаркуш ёхуд ўқимаган боланинг ҳоли" драмаси 1914 йилда

[139] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 155.
[140] Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият: 2010. – Б. 31.
[141] Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 14.
[142] Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги матбаа-нашриёт уйи, 2009. – Б. 191.

саҳналаштирилиб, жаҳолат ва қолоқлик гирдобида қолган, фарзандларини жадид мактабларида ўқитишдан ҳайиққан халқ онгига кучли таъсир кўрсатган. Ўша даврда театр қўйиш чинакам жасорат бўлиб, М.Беҳбудий асарни "миллий фожиа" деб атаган. Бу ҳақда "Ойина" журналида "халқ ниҳоят кўп келиб, белат (чипта дейилмоқчи – З.И.) етмагани ва жойни йўқлиги учун уч-тўрт юз киши қайтиб кетди"[143] деб хабар берилган. "Падаркуш" ўзбек миллий драматургияси, миллий театрига қўйилган илк пойдевордир.

Кейинги масала, тараққиёт стратегиясида қайд этилган ижтимоий адолатни таъминлаш, фуқаро учун тенг ҳуқуқ ва имкониятлар яратиш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш, камбағалликни бартараф этишга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлиб, муфтилик ва қозилик вазифаларида ишлаган М.Беҳбудий янги Туркистонни бошқаришнинг инновацион, яъни ўз даври учун прогрессив усулни таклиф этган. Бу Туркистонда парламент, яъни Миллатлар мажлисини ташкил этиш, ҳар бир ҳудуднинг шароити, географик ва этник хусусиятлари инобатга олинган қонунлар тузиш ғояси эди. Афсуски, большевиклар Туркистон муҳторияти тузиш ғоясини пучга чиқарган.

Мустақил Ўзбекистонда парламентар бошқарув йўлга қўйилиши М.Беҳбудийнинг орзуларининг рўёби бўлиб, ўзбек халқи эркин ва фаровон ҳаёт қуриш йўлида фидокорона меҳнат қилмоқда. Шунга қарамай, миллат онги ва тафаккурида асрий маънавий қолоқликлар, жумладан, халқни "кемирувчи" иллатлар, ҳашамат ва қоринқулликка берилиши камбағаллик ғурбатидан буткул халос қила олмаган.

Тарихга назар ташланса, М.Беҳбудий сафарномалари унинг дунёқарашида буткул янгича бурилиш нуқтаси бўлган. Мутафаккир дунё фақат мусулмонлар ва насронийлардан эмас, балки бойлар ва камбағаллардан иборат экани, Ер юзини уруш майдонига айлантираётган ҳодиса халқлар ва динлар ўртасидаги низо эмас, балки моддий бойлик ва унинг манбаи бўлган олтин, нодир металлар, газ, нефть конларини эгаллаш учун кураш майдони, халқнинг турмуш даражасини кўтариш, аслида уларнинг билимсизликлари ва тараққиётдан ортда қолганликлари деб билган.

Халқнинг ижтимоий онги ва маданиятини янги босқичга олиб чиқишнинг оқилона йўли миллат онги трансформациясидир. М.Беҳбудий камбағалликнинг асл сабабини "Бизни кемирувчи иллатлар" мақоласида теран ифода этган: "биз туркистонийларни шаҳри ва қишлоқи ёинки ярим маданий, ярим ваҳший синфларимизғача истило этиб, бутун тириклиғимизға сорилғон, бизни инқирозға, таҳликаға, жаҳаннамға юмалатурғон тўй, азо исминдаги икки қаттол душман дерман"[144].

Мутафаккир Қуръон оятларидан далил келтирган ҳолда, халқнинг Худонинг амрига бўйсунмай, шариат талабларига амал қилмаган ҳолда, тўй ва азага бор-йўғини сарф ва исроф этиши, йилда икки ой наврўз байрамини нишонлаши, қориндан бошқа ғами йўқлигини айтиб, кўпкари, улоқнинг

[143] Беҳбудий М. Исмоилбек ҳазратлари // Ойина. – Самарқанд: 1914. – № 50. – Б. 1186-1188.
[144] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Бизни кемирувчи иллатлар / Ойина. – Самарқанд: 1915. – № 13. – Б. 338.

оммалашиб, халқни тирикчилик ва илм-маърифатдан чалғитиши, уйида на уни, на сигири бўлмай, кўпкари учун ижарага от олиши аҳмоқликдан ўзга жазо эмаслиги, ўлик ва тўй учун ҳафта ва ойлар сарфлаши, ҳадисга кўра, таъзия уч кун бўлиши, халқнинг на Худо ва на Аллоҳнинг Расулининг айтганига амал қилмаслигини қаттиқ танқид қилган. М.Беҳбудийнинг куйиниб "бизни қилатурғон ақлсизлигимизни қайси миллат қилур?" айтган сўзларида катта маъно борки, ўша юз йил аввал хурофот ва бидъат, хашаматга берилган халқнинг онги ҳозир ҳам трансформацияга учрамаган, аксинча, уларнинг адади кўпайиб, янги-янги маросим ва издиҳомлар билан тўлдирилган. Тўй-маросимлардаги дабдабабозлик, қарз ҳавола қилиб бўлса ҳам хўжакўрсинга тўй қилиш, исрофгарчилик, манманлик, каби иллатлар ҳозирга қадар долзарблигини йўқотмаган.

Мураккаб сиёсий ва ижтимоий даврда яшаган М.Беҳбудий "халқнинг тадбирсизлиги ва калтафахмлиги уларнинг қарз балосига гирифтор қилган кредит" дейди. Қарз, ҳақиқатан хам, кўп нарсага қодир. Балки шунинг учун қарзни "аср балоси" деб аталгандир. М.Беҳбудий қарз олишнинг хатарли эканлиги, қаноатсизлик туфайли қарз домига тушиб қолган одамнинг ҳолати, қарз олиш одамлар ўртасидаги муносабатларни бузиши, авом халқнинг қарзга ботиши, қарз муаммоси биргина Туркистон халқларининггина эмас, балки жаҳон халқлари бошига тушган "савдо" деб ҳисоблаган. М.Беҳбудий қарз муаммосини ўша даврнинг руҳи нуқтаи назаридан холис баҳолаган. Бундан келиб чиқадики, ўша даврда одамлар кун кечириш, ўз эҳтиёжларини қондириш учун қарз олишга мажбур бўлишган. Бу эса уларга қарз олиш мажбуриятини юклаган. Иккинчи тарафдан, қарз берувчининг зулми, у банк бўладими, судхўрлар бўладими, сармоядорлар бўладими, қарздорларга фоиз ставкаларини юқори қўйишган ва қарздорларни қарз тузоғига туширишган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий "марҳум"га қилинадиган ортиқча сарф-ҳаражатларни танқид қилиб, азадорнинг ўликни кўмиш ва "учлик", "еттилик", "пайшанбалик", "қирқлик", "йиллик" ва бошқа бидъатларга ўралиб қолиб, қарзга ботиши, ҳаттоки уй-уловини сотиб бўлса ҳам халқ олдида манманлик қилишни "савоб" деб биладиган одамларга ачинган: "Бир дўкончи, бир гулкор, бар фақирҳол, бир косиб учун бу тўй ва таъзиялар ўлумдан қаттиғдурки, мунинг учун бечора ҳар кун ўлур. Ўзидан сўнгра аҳлу аёлиға бу йўқсуллик ва мусибатни мерос қўяр. Хўб, яхши, ўз молини тўй ва таъзияға исроф этсун, барбод этсун, кўзи чиқсун. Ҳай, банка ақчасини, бирав пулини на учун барбод этар?"[145]

Мутафаккир иқтисодий барқарор халқнинг қандай қилиб қарз тузоғига тушиб қолгани сабабини одамларнинг илмсизлиги, ҳисоб-китобни билмаслиги, хашамат ва дабдаба, орзу-ҳавасга берилиши, етти маҳаллага овоза бўладиган тўй-томоша қилиши, қаноатсизлиги билан изоҳлаган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий замонасининг ҳар бир муаммосини ўз "муаммоси" деб билган, одамларнинг суҳбат мавзуси қарздан бошланиб қарздан тугашига ачинган. Энг ажабланарлиси, мутафаккир Самарқанддаги

[145] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Бизни кемирувчи иллатлар / Ойина. – Самарқанд: 1915. – № 13. – Б. 341.

аксар уйлар халқнинг исрофга берилгани, хашаматга интилгани ва ақли ноқислигидан ҳовлиларини яҳудийларга сотгани, маҳаллаларда мусулмонлар оз қолгани, исрофларнинг хотимаси динга пуфур етказиши, тўй ва таъзияга сарф қилинадиган пулларни илм ва дин йўлида сарф этиш орқали тараққиётга эришиш мумкинлиги, шу ҳолда давом этилса, дин ва дунёга иллату мискинликдан бошқа насиба бўлмаслигини Қуръон оятлари билан қатъий далиллаган. М.Беҳбудий ўша даврда ҳам шариат илмининг билимдони, ҳам Самарқанд қозиси сифатида аччиқ ҳақиқатни айта олган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий илгари сурган илғор ғояларнинг аксологик қиймати ўз даврида юксак баҳоланмаган бўлса ҳам, вақт синовидан ўтиб, бугунги кунда миллий тараққиётнинг муҳим мезонига айланди:

а) Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Ойина” журнали миллий онгни уйғотишда муҳим омил бўлган. Журнал М.Беҳбудий, унинг замондошлари ва беҳбудийшунос тадқиқотчилар томонидан юқори баҳоланган;

б) театр миллатнинг муаммоларини бартараф этишда газета ва журналдан ҳам муҳим восита вазифасини ўтаган. М.Беҳбудийнинг “Падаркуш” асарида миллатнинг жаҳолати ва қолоқлиги танқид қилиниб, халқ онгига кучли таъсир кўрсатган;

в) МБеҳбудий эркин ва озод Туркистонни бошқаришнинг инновацион усулини таклиф этган. Туркистон Мухторияти, гарчи муқим фаолият олиб боришга имкон берилмаган бўлса ҳам, Ўзбекистон мустақилликка эришгач, икки палатали бошқарув тизими амалга оширилиб, мутафаккирнинг эзгу ғоялари амалиётда ўз ифодасини топган;

г) мустақил Ўзбекистонда парламентар бошқарувнинг йўлга қўйилиши М.Беҳбудий илгари сурган ғоялар мустаҳкам асосга эга бўлганини кўрсатади;

д) М.Беҳбудий миллатнинг қолоқлиги ва кемирувчи иллатларини рўй-рост очиб ташлаган бўлса ҳам, ҳозирга қадар миллий онгдаги таназзул ўрни тўлдирилмаган, халқнинг ҳам маънавий, ҳам моддий қашшоқлигича қолиб келгани бу борадаги ишларни тизимли олиб боришни тақозо этади;

е) М.Беҳбудий асарларида юрт фаровонлиги, миллат тафаккури, халқ турмуш даражасини кўратишнинг оқилона йўли сифатида “билим ва тараққиёт сари илғор одимлаш, дунё билан тенгма тенг қадам ташлашда” деган қараш илгари сурилган;

ё) миллат онгини трансформация қилиш – камбағалликни енгиш йўли. Мутафаккирнинг ижтимоий ислоҳотлар борасидаги ғоялари Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясидаги ижтимоий адолатни таъминлаш, камбағалликни бартараф этиш, миллий тил ва маданиятни ривржлантириш, таълим тизимини модернизация қилиш мақсадлари билан бевосита боғлиқ ва давомийлик характерига эгадир. Бундан келиб чиқадики, М.Беҳбудийнинг маърифатпарварлик қарашлари жамият тараққиёти учун йўлчи юлдуздир.

Мамлакатимизнинг замонавий, бетакрор ва жозибадор қиёфасини яратиш, Янги Ўзбекистонни барпо этиш халқнинг асосий мақсад муддаосига айланиши, онг ва тафаккурни ислоҳ қилиб, янгиланиш учун собитқадамлик билан интилиши мужассам бўлган устувор таклиф ва тавсиялар:

олий таълим тизимида “Маҳмудхўжа Беҳбудий номидаги стипендия” таъсис этиш ва шу орқали иқтидорли талабаларни жадидчилик ва маърифатпарварлик ғояларини ўрганишга рағбатлантириш;

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижтимоий-маърифий ғояларини фаол тарғиб қилиш ва ёш авлодни маърифатпарварлик руҳида тарбиялаш мақсадида “Анъанавий беҳбудийшунослик ўқишлари” ташкил этиш;

замонавий рақамли таълим платформаларида М.Беҳбудийнинг ҳаёти, ижоди ва маърифатпарварлик ғоялари мужассамлашган интерактив дарслар, қизиқарли, тарихий, видеоматериаллар жойлаштириш.

TURKISTON JADIDLARINNG MA’RIFAT XARITASI – O’ZLIKNI ANGLASHDAN MILLIY TARBIYANI YUKSALTIRISH SARI YO’L

Ibraimov Xolboy Ibragimovich

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, akademik

Xodjimetova Dilorom Jurayevna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti, dotsent

“Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimish kerak. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ‘ib yetsak, xalqimimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”

Sh.Mirziyoyev

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda vujudga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy bilimlarni yoyish hamda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishni maqsad qilgan edi.

Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma’rifat va tarbiyani ko‘rdilar. Ular yangi usul maktablarini ochib, milliy ongni uyg‘otish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratdilar. Shu sababli jadidlar faoliyatini o‘rganish bugungi milliy tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish davrining muhim bosqichidir. Jadidlar jamiyatni isloh qilishning asosiy yo‘li sifatida ta’lim tizimini yangilashni taklif etdilar. Bugungi kunda jadidchilik davridagi yangi usul maktablari tarixini, faoliyati va natijalarini o‘rganish va targ’ib etish muhim ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Jadidlar o‘zligimizni anglashda ta’lim, tarbiya va ijtimoiy hayotda tenglik tamoyillarini joriy etishni muhim ekanligini anglaganlar va bu yo’lda ma’rifiy xarita yaratganlar. Bu ma’rifiy xarita quyida yo’nalishlarni qamrab olgan:

- ✓ “jadidchilik” nomi ostida mahalliy ziyolilarning madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy harakati amalga oshirish
- ✓ musulmon jamiyatini jahon taraqqiyot yo‘liga olib chiqish
- ✓ jamiyatni zamonaviy ilm-fan asosida rivojlantirish
- ✓ milliy ozodlikka intilish
- ✓ ta’lim tizimini isloh qilish va xorijiy tajribalarni olib kirish
- ✓ ayollar ta’limi rivojlantirish

Jadidlar tarixiy-siyosiy sharoitlarga asoslanib bu ma’rifat xaritasidagi yo’llarni bosib o’tish va natijaga adaniy muammolar yechimining yagona yo‘lini ma’rifatda ko‘radilar. Ular jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, har qanday millatning kelajagi yosh avlodning qanday tarbiya olishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun jadid mutafakkirlari ta’lim bilan bir qatorda axloqiy, ma’naviy va vatanparvarlik tarbiyasini ham rivojlantirish zarurligini ta’kidlaganlar.

Turkiston jadidlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, har qanday millatning kelajagi yosh avlodning qanday tarbiya olishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun jadid mutafakkirlari ta’lim bilan bir qatorda axloqiy, ma’naviy va vatanparvarlik tarbiyasini ham rivojlantirish zarurligini ta’kidlaganlar.

Jadid ma’rifatchilari tarbiyani inson kamolotining poydevori deb hisoblaganlar. Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaning ahamiyatini juda yuksak baholab, tarbiya masalasini millat hayotidagi eng muhim masala sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, insonning ma’naviy yetukligi, axloqiy fazilatlari va jamiyatdagi o‘rni avvalo to‘g‘ri tarbiya bilan shakllanadi.

Jadidlarning qarashlariga ko‘ra, tarbiya quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- ➢ shaxsning ma’naviy va axloqiy kamolotini ta’minlaydi;
- ➢ milliy o‘zlikni anglash va milliy g‘ururni shakllantiradi;
- ➢ vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi;
- ➢ yosh avlodni ilm-fan va ma’rifatli bo’lishga undaydi.

Jadid ma’rifatchilari tarbiyani inson kamolotining poydevori deb hisoblaganlar. Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaning ahamiyatini juda yuksak baholab, tarbiya masalasini millat hayotidagi eng muhim masala sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, insonning ma’naviy yetukligi, axloqiy fazilatlari va jamiyatdagi o‘rni avvalo to‘g‘ri tarbiya bilan shakllanadi. Ma’rifatparvarning pedagogik qarashlariga ko‘ra, inson kamoloti jismoniy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy tarbiyaning uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. U tarbiya jarayonini shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan murakkab va uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi. Avloniy quyidagi satrlarida tarbiya berish jarayoni millat kelajagi uchun naqadar nozik jihat ekanligini ko’rsatadi:

“Tug`ib tashlash bilan bo`lmas bola, bo`lg`ay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa bo`lur ul rahnamo sizga.
Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo`lur olim,
Buzilsa xulqi, Luqmon o`g`li bo`lsada, bo`lg`usi zolim.

A.Avloniy tarbiya doirasini keng ma’noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi, balki tarbiya vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o‘zida mujassamlashtiradi, degan g‘oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni;
2. Badan tarbiyasi;
3. Fikr tarbiyasi;
4. Axloq tarbiyasi va uning ahamiyati haqida so‘z yuritadi.

“Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani, ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Avloniy bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va atofidagi kishilar muhim omil bo‘lib xizmat qilishini aytib o‘tadi. Shuningdek, Avloniy tarbiya masalasida so‘z yuritib, “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerda turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir” - deydi.

Jadidlar ta’limni faqat kasbiy yoki diniy bilim olish vositasi sifatida emas, balki milliy ongni uyg‘otish, mustamlakachilikka qarshi kurashishning ma’rifiy asosi sifati qaradilar. Mahmudxo’ja Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi maktab, barcha ilmlarning boshi maktab, saodatning, fozil insonning ma’naviy chashmasi - maktab degan aqidaga qat’iy amal qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun milliy g‘oya – millatni taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasi edi.

Mahmudxo’ja Behbudiy o’zining “Vasiyatnoma”sida yoshlarga qarata bir qancha g’oyalarni beradi. “Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar” go‘yasini Behbudiy shunday ta’sirchan ifodalaydiki, uning bu hayqirig‘i millat yoshlarini ilm, kasb-hunar egallashga ruhlantirgan, fikrlashga, uy’onishga undagan: Boshimiz og‘risa do‘qtirga boramiz, ammo dardimizni aytmoqg‘a til yo‘q. O‘zimizdin do‘qtir yo‘q”. Yana bir o‘rinda: “Imorat qilmoqchi bo‘lsak, plonloyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo‘larmiz. Ammo biz hanuz “muhandis” ismini bilmaymiz”, Turkiston mevasi, donasi, toshi, tuprog‘i, shohi, adras, beqasam, alocha kabilari ham Yevropa bozorlarida o‘zga ellar dallollari tomonidan arzon olib ketilib, bir necha barobar qimmatga sotilayotganidan, bunday ishni qilish uchun bizning til biladigan, soha ilmidan xabardor zamonaviy savdo kishilarining yo‘qligidan zorlanadi. Hatto, tojir va boylarning ilmi tijorat, hisob-buxgalterlik biladigan bir odamlari yo‘qligini qanday baholash mumkin?”.

Abdurauf Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o‘rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlar deb hisoblaydi. Fitrat bolalar tarbiyani o‘zi yashayotgan atrof-muhit va yonidagi odamlardan olishlarini ta’kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta’sir o‘tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o’zining “Oila” asarida “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo‘lmagan birorta qavm yo‘q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi” degan fikrni ilgari suradi.

Fitrat axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasidagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmaslikni juda to‘g‘ri harakat deb biladi. U o‘z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ozodlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr va shafqatli bo‘lish, o‘z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo‘yish g‘oyalarini ulug‘laydi.

Jadidlar taklif etgan yangi ta’lim tizimi bir necha muhim tamoyillarga asoslangan edi: yangi usulda savod o‘rgatish – tovush usuli orqali tez o‘qish va yozishni o‘rgatish; dunyoviy fanlarni kiritish – matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlarni o‘qitish; ko‘rgazmali va tushuntirish usullari – xarita, jadval, kitob va boshqa o‘quv vositalaridan foydalanish; milliy ong va vatanparvarlik tarbiyasi – o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish.

Yangi usul maktablarining keng yoyilishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ular yangi maktablar tashkil etish bilan birga, zamonaviy darsliklar yaratish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish va ta’limni milliy ruhda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar. “Usuli jadid” maktablarida o‘quv jarayoni eski maktablarga nisbatan ancha mukammal va tizimli edi. Unda nafaqat diniy bilimlar, balki quyidagi dunyoviy fanlar ham o‘qitildi: matematika, geografiya, tarix, tabiiyot, ona tili va adabiyot. Bundan tashqari, jadid maktablarida dars jarayonida ko‘rgazmali qurollar, xaritalar, jadval va kitoblardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni tushunib o‘zlashtirishiga va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam berdi.

Jadidlar yoshlarni xorijiy davlatlarga ta’lim olish uchun yuborish to‘g‘risidagi tashabbuslari bilan chiqdilar. Ko‘pgina badavlat insonlar jadidlarning mazkur g‘oyalarini qo‘llab-quvvatladilar va moliyaviy mablag‘lar bilan yordam ko‘rsatdilar. O‘nlab iqtidorli o‘smirlar Misr, Germaniya, Turkiya, Rossiyaning markaziy shaharlariga ta’lim olish uchun yuborildilar.

Ayollar ta’limi jadidlar nazariyasida alohida o‘rin egallagan. Bu borada Mahmudxo’ja Behbudiyning: "Bir qavmning taraqqiyoti ayollar tarbiyasiga bog‘liqdir" degan so‘zlari ayyollar ta’limiga bo’lgan jiddiy yondashuvni ko‘rsatadi. Ayollar uchun Toshkent, Buxoro va Qo‘qonda yangi usul maktablari tashkil etildi. Ayollar ta’limiga bag‘ishlangan maqolalar va asarlar, dramalar yaratildi.

Jadidchilik O‘zbekiston ta’lim-tarbiya tarixida muhim bosqich bo‘lib, ta’lim-tarbiyaga yangicha qarashlarni taklif etib, butun avlodni tanqidiy fi krlash va o‘zlikni anglashga o‘rgatdi. Jadidlarning pedagogik islohotlari mamlakatda milliy ta’lim makonining shakllanishiga doimiy ta’sir ko‘rsatdi, yanada chuqur ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘l ochib berdi. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ta’lim taraqqiyot vositasi va fuqarolik mas’uliyati muhimligini eslatib turadi.

Hozirgi zamon sharoitida jadidlar tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bugungi kundagi ta’lim islohotlari, milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish borasidagi sa’y-harakatlarda qanday aks sado berayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Jadidchilik harakati pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim tajriba va bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ilgari surgan ta’lim uslublari va darsliklarining bugungi ta’lim jarayoniga ta’siri davom etmoqda. Shu bois jadidchilik pedagogikasi o‘rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi muhimdir.

Bugungi kunda ta’lim tizimida jadidchilik merosidan samarali foydalanish uchun ularning ilg‘or g‘oyalarini kengroq targ‘ib etish va zamonaviy ta’lim jarayoniga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”.- Toshkent:“Cho‘lpon”,2013y.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

3. Ibraimov X. I., Qur’onov M. Umumiy pedagogika. Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 320 b.

4. Ibraimov X. I., Qur’onov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 288 b.

5. Ibraimov X. I., Qur’onov M., Fozilov J., Zaripov F. Ota-ona – murabbiy. Toshkent: O‘zbekiston, 2024. 256 b.

SADRIDDIN AYNIY-TARAQQIYPARVAR ADIB

Raxmatova Xolida Xolikovna

BDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori,

f. f. d.(DSc)

Prezident Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Jadid bobolarimiz butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar.”[146] Millat ravnaqi, milliy o‘zlikni anglash yo‘lida xizmat qilgan, jadidchilik adabiyoti va harakatining shakllanishida o‘ziga xos faoliyat ko‘rsatgan adiblardan biri – Sadriddin Ayniydir. Yozuvchi amirlik zamonida voyaga yetdi, tanildi. Eski maktab, madrasa ta’limini oldi. Otasining “mulla bo‘lma, qozi bo‘lma, odam bo‘l”degan o‘giti ta’sirida kamol topdi. Maktab madrasaning chalamullalikka yo‘naltirilgan ta’limoti, amirlikning mutaassiblikka tayangan targ‘iboti ma’rifatli ota o‘gitiga amal qilgan yosh Sadriddinda qoniqmaslik, norozilik hissini vujudga keltirgan. Ahmad Donishning “Navodirul vaqoe” asari bilan tanishgach unda yozuvchilikka havas uyg‘onadi.

Sadriddin Ayniyning uslubini belgilovchi bosh asos bu - tarixiy haqiqatga sodiqlik va rostgo‘ylikdir. Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Muqimiylar haqidagi ilmiy tadqiqotlarida ham mazkur xususiyat yetakchilik qiladi. Adib ular haqidagi turkiy, forsiy, arab manbalarini taqqoslab ilmiy qarashlarini tarixiy fakt, dalil va hujjatlar bilan asoslaydi. Tarixiy

[146] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрдаги тантанали маросимдаги нутқи. Янги Ўзбекистон. – 2020 йил 30 сент.1-бет.

voqealarni badiiy talqin etishda ba’zi masalalarda adibning sub’ektiv qarashlari ustunlik qilganligini qayd etish joizdir. Shunday masalalardan biri jadidchilik – yosh buxoroliklar harakatidir. Sho‘ro siyosati avval jadidchilik g‘oyalarini qo‘llab quvvatlagan, ko‘mak bergan. Yangi tuzum o‘z asosini mustahkamlab olgach jadidlarga ehtiyoj qolmagan.[147] Bu harakat ishtirokchilari ta’qibga olingan, qatag‘onga uchragan.

Fayzulla Xo‘jaev Sadriddin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida jadidchilikka mavhum baho berilganligi quyidagicha izohlagan: “Ayniyning jadidizm bilan bolshevizmni yaxlit, buzilmas bir-biri bilan bog‘langan bir butun harakat tariqasida talqin qilishga uringanligi hammadan ham qiziqroq bo‘lib chiqdi”, - deb yozgan. Keyinchalik yozilgan “Doxunda”, “Qullar” asarlarida jadidchilikka munosabat bir qadar o‘zgargan va u jamiyatdan ajralib qolgan harakat sifatida tasvirlangan.

Ayniyshunos tarixchi olim F.Temirovning tadqiqotlariga ko‘ra, Buxoro amirligida dastlabki yangi usul, jadid maktablari ochilishining tashabbuskorlaridan biri, adib Ayniy bo‘lgan. Bu haqda muallifning o‘zi “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Buxoroda birinchi usuli jadida maktabi” bo‘limida quyidagi muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “1326 yil hijriyda, shavval oyi o‘nida (milodiy 1908 yil 23 oktabrda, yangi hisob bilan 1908 yil 5 noyabr) Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy (tojik) tilida birinchi marta buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabi ochildi va unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlandi. Bu maktabda dastlab o‘quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek-Abdullabek o‘g‘li, uning xizmatkori Abdug‘ani, Afzal va Akram - Ahmad maxdum Hamdiy o‘g‘li, Muhammadamin - Saidjon maxdum o‘g‘li, Abduqayim - Abdushukur o‘g‘li. Idi qurbongacha, ikki oy muddatda o‘quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi”.

Buxoroda tashkil etilgan yangi usul maktablarida o‘qitish jarayonini samarali bo‘lishini taminlash uchun darslik, qo‘llanma va yangi adabiyotlar shuningdek, talabchan va iqtidorli muallimlar zarur edi. Sadriddin Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan “Tartil – ul Qur’on” (“Qiroat kitobi”), “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli o‘qish kitoblari birinchi marta 1909 yilda Orenburgda nashr etiladi. Ayniy “Tahsib us-sibyon” darsligini Ismoil Gasprinskiyning “Xo‘ji sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobi ta’siri ostida yozgan.

Olim “Tahsib us-sibyon” darsligida tarbiya va ilm olishning markazi bo‘lgan maktabning roliga alohida e’tibor beradi: “Kishi maktab bilan odam bo‘ladi”. Adib tarbiyaning asosiy maqsadini “vataniga, o‘z xalqiga va millatiga xizmat qiluvchi kishilar yetishtirish” deb hisoblaydi. Xalqning iqtisodiy ahvolini aholi o‘rtasida ma’rifat tarqatish yo‘li bilan yaxshilash mumkin, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u “Fan xalqqa boylik keltiradi”, - deb yozgan edi.

M.Shakurining fikricha, Sadriddin Ayniy asarlari milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishda bebaho xazinadir[148]. Adabiyotshunos A.Sayfullaeva Sadriddin

[147] Ўзбек фалсафаси тарихи. III жилд. Тошкент – 2020. “Муҳаррир нашриёти”. 147 -б.

[148] Шакур М.Б. Равшангари бузург (Ба ифтихори 80-умин солгарди «Намунаи адабиёти тоик»).- Душанбе:Адиб,2006.-340с.

Ayniyning “Doxunda” asari hayotiy haqiqat, insoniylik, hayot ibratlari haqidagi asar ekanligini tadqiq etgan.[149]

Sadriddin Ayniyning asarlarini o‘rganuvchilar uni jahonning mashhur adiblari qatoriga qo‘shishgan. Adibning ijodiga nazar tashlasak, u shoir va yozuvchi, publitsist, tarixchi hamda zabardast olim mavqeiga erishdi. Adibning Abu Ali Rudakiy, Mirzo Bedil, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar ijodiga oid tadqiqotlari o‘z qimmatini hozir ham yo‘qotmagan. Sadriddin Ayniy dunyo tan olgan adibga aylandi. Shu o‘rinda taniqli fransuz shoiri Lui Aragon “Sudxo‘rning o‘limi” qissasini tarjima qilib, kitob so‘zboshisida: “Sadriddin Ayniy o‘zining bu o‘lmas asari bilan jahon adabiyotining buyuk namoyandalari Balzak, Shekspir, Gyote qatorida turadi”, – degan munosib va yuksak baho bergan edi. Osiyo va Afrika yozuvchilari anjumanida Sadriddin Ayniy Robindranat Tagor, Lui Sin, Taxa Huseyn kabi Sharq mumtoz ijodkorlari bilan bir qatorga qo‘yilgani qayd qilinadi. Bu unga berilgan yuksak baho edi. Akademik Naim Karimovning ta’kidiga ko‘ra: Sadriddin Ayniy o‘z davriga mansub yozuvchi xalq va jamiyat hayotidan birmuncha uzoqlashayotgan mumtoz Sharq adabiyotiga zamonaviy ruh berishga intildi. XX asrning boshlarida yangi yo‘nalish – o‘zbek va tojik adabiyoti birligiga poydevor qo‘ydilar. Jadidlik harakati asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Oyina" jurnalida chop etilgan, uning "Har bir millat o‘z tili ila faxr etar" maqolasida o‘zbek tilining mavqeini yanada ko‘tarish masalasi ilgari surilgan va Sadriddin Ayniyning xizmatlari e’tirof etilgan. Adib va mutafakkir buyuk ajdodimiz ijodida o‘zbek-tojik do‘stligi, birodarligi yorqin ravishda ifoda qilingan. Davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov: “Yirik olim va zabardast yozuvchi mahorat bilan ijod qilgan umrboqiy asarlari xalqlar do‘stligi va birodarligining mustahkam timsolidir”, – deb haqqoniy ravishda ta’rif bergan edi[150].

Sadriddin Ayniyning xizmatlari Rudakiy va Firdavsiy, Sa’diy va Hofiz, Jomiy va Navoiyning, Bedil va Donishning ijod olamini teran fikrlari bilan o‘rgandi. Ayniyning ilmiy-adabiy merosi o‘tmish, bugun va kelajakni bir-biriga bog‘lovchi bir oltin halqadir.

JADID PEDAGOGIK MEROSI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISIDA IJTIMOIY-TARIXIY TAFAKKUR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

BuxDPI professori, p.f.d. (DSc)

Saidova Oygul Husenovna

BuxDPI magistranti

[149] Сайфуллоев А. Романи устод Садриддин Айн «Дохунда».-Душанбе: Дониш,1966.-218с.
[150] Садриддин Айний ўзбек ва тожик тилларида. Халқ сўзи. 2023 йил, 15 июнь.

Maktabgacha ta’limda tarbiyachining ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining ijtimoiy va tarixiy tafakkurini rivojlantirish orqali u o‘quvchilarda milliy ong, tarixiy voqealarni dalillar asosida tushunish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Jadid pedagogik merosi maktabgacha ta’lim sohasida tarbiyachilarni tayyorlashda muhim nazariy va metodik asos hisoblanadi. Jadidlar o‘z davrida ta’limni isloh qilish va milliy tarixiy merosni yosh avlod ongiga yetkazish g‘oyasini ilgari surganlar.

Jadid pedagogik merosining mazmuni

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlari (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar) pedagogik merosida quyidagi tamoyillar mavjud hisoblanadi bular.

- bolalarda milliy tarixiy ongni shakllantirish bu - bolalarda o‘z millatining tarixi, madaniyati, qadriyatlari va urf-odatlarini anglash, qadrlash va tarixiy hodisalarni dalillarga asoslangan holda tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir
- tarixiy va ijtimoiy voqealarni dalillarga asoslab tushuntirish bu - tarixiy yoki ijtimoiy hodisalarni shaxsiy taxminlar yoki subyektiv fikrlar asosida emas, balki ishonchli manbalar, hujjatlar, statistik ma’lumotlar va faktlarga tayangan holda izohlash va tahlil qilish jarayonidir.
- mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bu - o‘quvchi yoki shaxsda muammolarni o‘z-o‘zidan tahlil qilish, turli manbalarni o‘rganish, xulosalar chiqarish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir.
- ta’lim jarayonida ijodiy va refleksiv yondashuvni qo‘llash bu - o‘qituvchi yoki tarbiyachining dars yoki tarbiyaviy faoliyat davomida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish va o‘z pedagogik faoliyatini doimiy tahlil qilish (refleksiya) orqali samaradorligini oshirish pedagogik usulidir.

Ushbu meros maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirishda ilmiy-pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasining mazmuni bu o‘zi ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasi tarbiyachining quyidagi qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Tarixiy va ijtimoiy jarayonlarni dalillar asosida tahlil qilish, manbalarni o‘rganish va solishtirish orqali xulosalar chiqarish, milliy tarix va madaniyat merosini anglash, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va milliy ongni shakllantirish.

Jadidlar pedagogik qarashlarida bu kompetensiya yosh avlodni tarbiyalashda asosiy mezon sifatida ko‘rilgan.

Kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishda jadid pedagogik merosidan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin:

Jadidlar asarlarini tarbiyachilar o‘quv mashg‘ulotlarida manba sifatida qo‘llash. Tarbiyachilarning tarixiy voqealarni dalillarga tayangan holda tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va refleksiv

faoliyatni shakllantirish. Milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazish va ularni qadrlashga o‘rgatish.

Jadid pedagogik merosi maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishda muhim ilmiy-nazariy va metodik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarbiyachilarni kasbiy kompetent, ijodiy va milliy qadriyatlarni anglaydigan pedagog sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 112 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 240 b.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000. – 320 b.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Pedagogik qarashlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 180 b.
5. Karimov N. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
6. Saidov A. Maktabgacha ta’limda ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 192 b.
7. Krayevskiy V.V. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001. – 240 b.
8. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Prosveshcheniye, 1982. – 192 b.

JAMIYAT MA’NAVIY SALOHIYATINING YUKSALISHIDA INSON MA’NAVIYATINING AHAMIYATI

Jabborova Saodat Sattorovna

BDPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Biz yana bir bor inson va jamiyat mohiyatidan kelib chiqadigan inson hayotining abadiy, o'zgarmas tamoyillari borligini anglashimiz kerak va biz hech bo'lmaganda bu tamoyillarning eng asosiy va umumiylarini eslab qolish va tushunishga harakat qilishimiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy falsafa muammosi - jamiyat aslida nima, u inson hayotida qanday ahamiyatga ega, uning asl mohiyati nima va bizga qanday majburiyatlar yuklaydi degan savol - bu savol o'zining doimiy nazariy falsafiy ahamiyatidan tashqari, aynan bizning davrimizda juda katta, hatto fundamental, amaliy ahamiyatga ega. Agar biror vaqt bo‘lgan bo‘lsa, hozir mulohaza qilish vaqti keldi - bu mulohaza hayot yuzasi va uning bugungi kunda dolzarb talablari haqida o‘ylamasdan, mavzuning abadiy, doimiy mohiyatiga chuqurroq sho‘ng‘iydi. Ma’naviy hayotdagi barcha haqiqiy, chuqur inqirozlarni - xoh shaxs hayoti bo‘lsin, xoh butun jamiyat va insoniyat hayoti bo‘lsin - faqat shu yo‘l bilan yengib o‘tish mumkin.

Shu bilan birga, mamlakatdagi ma’naviy vaziyat aniq tasdiqlaydi: har qanday islohotlar, agar ular shaxsni barcha narsalarning o‘lchovi sifatida markazlashtirilsa, muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin, chunki tub o‘zgarishlar sharoitida uning uchun asosiy muammolardan biri uning faoliyati jarayonida shaxsiy o‘zini o‘zi belgilash va o‘zini tasdiqlash muammosi ekanligini hisobga olsak, aslida u o‘zining asosiy kuchlarini amalga oshiradi, u yoki bu jamoatchilik tomonidan tan olinishiga e’tibor qaratadi. Va bular allaqachon shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish, uning mafkuraviy va qadriyat yo‘nalishlari masalalari bo‘lib, bu yerda e’tiborga olish muhim ko‘rinadi: jamiyat taklif qiladigan narsalardan “o‘z imkoniyatlari va ularni amalga oshirish pozitsiyasida inson natijalarni emas, balki harakat vositalarini, “narsalarni” emas, balki jarayonlarni, standartlarni emas, balki o‘z sa’y-harakatlarini qo‘llash uchun makonni tanlaydi”. Shuning uchun, hozirgi vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashda ma’naviy ma’noni kor‘ish, inson hayotining ma’naviy asoslarining mohiyati va rolini tushunish zarur bo‘lib tuyuladi. Bugungi kunda jamiyatning insonga ta’sir qilish, qandaydir tarzda “uning ma’naviy dunyosini” o‘zgartirish, unga ta’sir o‘tkazishni o‘rganish va uning ichida boshqa ustuvorliklar tizimini yaratish imkoniyatlarini tushunish muhimdir.

Istiqboldagi dolzarb vazifalarni aniqlashdan oldin amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijadorligini analiz qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki mamlakatimiz ahli, ayniqsa yoshlarning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanga sadoqat, mafkuraviy, g‘oyaviy va diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlariga qarshi immunitetni shakllantirish, o‘lkamizda ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash maqsadida muhim chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy g‘oya tamoyillarini hayotga joriy etish, yosh avlod qalbida kelajak uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi. Lekin, dunyoning globallashib borishi, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarning ko‘payib borishi bilan bog‘liq murakkab va tahlikali vaziyatda bu faoliyatni zamon talablari asosida takomillashtirish, yoshlar tarbiyasi, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlar bu masalalarga jiddiy e’tiborni talab etmoqda.

Mamlakatimizda ma’naviy salohiyatdan oqilona foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohangdir. Boshqacha aytganda, bugungi islohotlar qaysi maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, davlat tomonidan yuksaltirish choralari ko‘rilgan va oqilona boshqarib borilayotgan ma’naviy salohiyat yaqin kelajakda aynan o‘sha maqsadlarga yetish imkonini beradi. Ma’lumki, O‘zbekistondagi ijtimoiy yangilanishlarning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

- qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish”[151].

Binobarin, jamiyat ma’naviy salohiyatidan ana shu yo‘nalishlardagi maqsadlarni hal qilishda foydalanish mumkin.

“Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish”da foydalanish mumkin. Bu yo‘nalishdagi tub islohotlar davomida ta’lim tizimi islohotlar, aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar va ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar bilan bog‘liq ahamiyatli maqsadlarga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Davlat ma’naviy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri jamiyat ma’naviy salohiyatini asrash, yuksaltirish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lmog‘i darkor. Yangi O’zbekistonni barpo qilishning taraqqiyot strategiyasi talablariga mos bunyodkor ishlarga safarbar qilish, dunyoda kechayotgan murakkab mafkuraviy jarayonlardan ogohligini kuchaytirish doimiy zaruratdir.

Yangi O’zbekistonda milliy g’oya targ’iboti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosatning asosiy tamoyil va ustuvor yo’nalishlariga mos bo’lib, hozirgi globallashuv va ma’naviy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan davrda aholi, ayniqsa yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, xalqimizni milliy g’oya asosida birlashtirish, bunyodkor ishlarga safarbar qilish, Vatan ravnaqi hamda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash bilan bog’liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo’llari, keng jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim muassasalarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligiga tayangan holda amalga oshirilishini belgilab berdi. Bu muhim vazifa O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasida ilk marotaba o’z aksini topdi. “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”[152].

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erki va farovon yashaydigan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurish uchun qat’iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz. Shu o’rinda Yurtboshimizning ma’naviyatga bergan quyidagicha ta’rifni keltirishini joiz deb topdim: “Mening nazarimda insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi- manaviyat chirog’i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi

[151]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-6600413

[152] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: “O’zbekiston”, 2023.-B 12

shuki, u insonnig ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi va vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

Ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiya asrlar davomida insoniyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Yangi uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir.

Haqiqatdan ham bugungi yoshlarimizning iste'dodi, qobiliyati, bilimi, ma'naviyati va ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, kelajakda o'zlarining munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish- jamiyatimizning bosh maqsadidir.

Fikrimizga yakun yasar ekanmiz, biz ishonamizki yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ajdodlarimiz kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi jamiyatning asosiy vazifalaridandir. Biz Yangi O'zbekiston yoshlarini yuksak marralarga ko'tarilishi uchun qo'limizdan kelgan barcha imkoniyatlarni yaratib berishga haqlidirmiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: "O'zbekiston", 2023.-B 12

2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T. 2022.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-6600413

4. Jabborova S.S. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy salohiyatni yuksaltirishda qo'shgan hissasi. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Samarqand, 2023. - № S/6(3)-2023. - B.134-142. (09.00.00; №30)

5. Jabborova S.S. Prospects of Using Uzbekistan's Spiritual Authority. // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences. International scientific-online conference. -Turkish, 2023. – PP. 66-69.

6. Jabborova S.S. Specific Characteristics of the Spiritual Potential of Uzbekistan. // «Инновационные подходы в современной науке». Международная научно-практическая конференция. 14.11.2023. – Россия, 2023. – PP. 1-3.

7. Jabborova S.S. Jamiyat ma'naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. // Falsafa va hayot. -Toshkent, 2023, - №SI-2. – B.105-112. (09.00.00; №25)

8. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyat - ijtimoiy taraqqiyot manbayi. // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. -№8. – B.148-150. (09.00.00; №17)

9. Jabborova S.S. Jamiyatda ma'naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2023. -№2. – B.186-190. (09.00.00; №22)

10. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyatning ijtimoiy taraqqiyot manbai sifatida xususiyatlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari № 3 (4) – 2024. B. -240-246.

11. Jabbborova S.S. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari. https://journal.fdu.uz. 2024 yil 2-son. B. -213-218

12. Jabborova S.S. Sharq allomalari ma’naviy merosi va ularning jamiyat ma’naviy salohiyatini shakllantirishdagi ahamiyati. “Ilm sarchashmalari” 4-son, (aprel 2024) Urganch -2024 B. -165-168

13. Jabborova S.S. Ma’naviyat davlat va jamiyat rivojlanishining asosi. Ijtimoiy gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. https://scienceproblems.uz. № 5 (5) – 2025. B. -195-198

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSIDA DUAL TA’LIM G‘OYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Umurov Zarif Latifboyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti professori,

pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati mintaqa ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu harakat vakillari jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida ta’limni ko‘rdilar. Ularning fikricha, millatning rivojlanishi, avvalo, ilm-ma’rifat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli jadid ma’rifatparvarlari ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratdilar.

Bugungi kunda ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan dual ta’lim modeli ham aynan nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur model talabalarning nazariy bilimlarini real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi hamda mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, jadid maktablari faoliyatida ham nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim unsurlari mavjud bo‘lgan [5]. Shu jihatdan jadid pedagogik merosini zamonaviy dual ta’lim konsepsiyasi bilan qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Jadidlar eski maktab va madrasalardagi ta’lim usullarini tanqid qilib, yangi usul maktablarini tashkil etishga kirishdilar. Bu maktablar “usuli jadid” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Mazkur maktablarda yangi o‘qitish metodlari, darsliklardan foydalanish, sinf-dars tizimi, dunyoviy fanlar, joriy etildi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, XX asr boshlariga kelib Turkiston hududida yuzdan ortiq yangi usul maktablari faoliyat yuritgan va ularda minglab o‘quvchilar tahsil olgan. Bu esa jadid maktablari mintaqa ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi [6].

Jadid pedagogikasining asosiy g‘oyalaridan biri – ta’limni real hayot bilan bog‘lashdir. Jadid maktablarida o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlar, balki

geografiya, tarix, matematika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bundan tashqari, jadidlar yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga ham katta e’tibor qaratganlar. Ayrim maktablarda hisob-kitob, savdo asoslari va hunarmandchilik elementlari o‘qitilgan.

Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari: ta’limning hayot bilan bog‘liqligi; nazariya va amaliyot uyg‘unligi; mustaqil fikrlashni rivojlantirish; zamonaviy bilimlarni o‘rganish; shaxsni har tomonlama rivojlantirish. Bu tamoyillar bugungi pedagogikada qo‘llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida dual ta’lim modeli nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Ushbu modelda talabalar ta’lim muassasasida nazariy bilim oladi, korxonalarda amaliy tajriba orttiradi. Natijada bitiruvchilar real kasbiy tajribaga ega bo‘ladilar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari qatoriga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvar ziyolilar kiradi. Ularning pedagogik qarashlari Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish hamda ta’limni real hayot bilan bog‘lash g‘oyalari bilan ajralib turadi. Jadid mutafakkirlarining fikricha, ta’lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgan holda tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv zamonaviy dual ta’lim tizimining asosiy tamoyillari bilan ma’lum darajada uyg‘unlik kasb etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ta’lim tizimini isloh qilish zarurligini alohida ta’kidlagan. U yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy fanlarni o‘qitish va yoshlarni amaliy hayotga tayyorlash g‘oyalarini ilgari surgan. Behbudiyning fikricha, maktab faqat diniy bilim beradigan maskan emas, balki jamiyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradigan muassasa bo‘lishi kerak [7]. Bu qarash zamonaviy dual ta’lim tizimining nazariya va amaliyot integratsiyasi tamoyiliga yaqin turadi.

Abdulla Avloniy ham ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan. U o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’lim va tarbiyani millat kelajagi bilan bog‘laydi. Avloniy yoshlarni ilmli, axloqli va hunarli qilib tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, shaxsning rivojlanishi bilim va amaliy faoliyat uyg‘unligi orqali amalga oshadi [2]. Bu g‘oya zamonaviy dual ta’lim konsepsiyasida ham muhim o‘rin tutadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablarini tashkil etishda faol ishtirok etgan ma’rifatparvarlardan biri bo‘lib, u o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkil etishga katta e’tibor qaratgan. Munavvarqori ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni amaliy hayotga tayyorlash zarurligini ta’kidlagan [1]. Bu yondashuv ham bugungi dual ta’lim tizimi bilan o‘xshashlik kasb etadi.

Abdurauf Fitrat esa jadidchilik harakatining nazariy asoslarini rivojlantirgan mutafakkir hisoblanadi. U ta’limni millat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko‘rib, yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash zarurligini ilgari surgan. Fitratning fikricha, ta’lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos bo‘lishi

kerak [8]. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonini amaliy faoliyat bilan bog‘lashni talab qiladi. Shuning uchun Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy dual ta’lim g‘oyalari bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari ta’limni nazariya va amaliyot uyg‘unligida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Ular ilgari surgan “ilm va hunar birligi” tamoyili bugungi dual ta’lim tizimining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, jadid pedagogik merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Jadid maktablari faoliyati tahlil qilinganda, unda dual ta’lim modeliga o‘xshash jihatlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Jadid pedagogikasi va zamonaviy dual ta’lim modeli o‘rtasidagi o‘xshashliklarni tahlil qilish ushbu ikki yondashuvning umumiy maqsadi – shaxsni real hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlash ekanligini ko‘rsatadi. Jadid mutafakkirlari ta’lim jarayonini faqat nazariy bilim berish bilan cheklab qo‘ymasdan, uni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy dual ta’lim tizimi ham aynan shu tamoyilga asoslanadi.

Jadid pedagogikasida ilgari surilgan “ilm va hunar birligi” g‘oyasi zamonaviy dual ta’lim modelida nazariya va ishlab chiqarish jarayonining integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Jadidlar yosh avlod faqat kitobiy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham egallashi kerakligini ta’kidlaganlar. Dual ta’lim tizimida esa talabalar ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni o‘rganish bilan bir qatorda korxonalarda amaliy tajriba orttiradilar.

Jadid pedagogikasida ta’limni hayot bilan bog‘lash muhim tamoyil hisoblangan. Jadid maktablarida o‘quvchilarga kundalik hayotda zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar berishga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy dual ta’lim modelida esa ta’lim jarayoni amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, jadid mutafakkirlari yoshlarni kasb-hunar egallashga undaganlar. Ularning fikricha, ta’lim jarayoni shaxsni mustaqil hayotga tayyorlashi kerak. Dual ta’lim tizimida ham asosiy maqsad professional kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali kasbiy malakalarini rivojlantiradilar.

Jadid pedagogikasida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilgan. Jadid maktablarida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish muhim vazifa hisoblangan. Zamonaviy dual ta’lim modelida esa muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va amaliy masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasida ilgari surilgan ko‘plab g‘oyalar bugungi kunda dual ta’lim tizimining muhim nazariy asoslari bilan uyg‘unlashadi. Bu esa jadid pedagogik merosining zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Jadid pedagogikasi	Dual ta’lim modeli
Ilm va hunar birligi	Nazariya + ishlab chiqarish
Ta’limni hayot bilan bog‘lash	Amaliyotga yo‘naltirilganlik

Kasbga tayyorlash	Professional kompetensiya
Mustaqil fikrlash	Muammoli vaziyatlarni hal qilish

Bugungi kunda Germaniya dual ta’lim tizimi dunyodagi eng samarali ta’lim modellaridan biri hisoblanadi. Bu tizimda talabalarning o‘qish jarayoni ikki muhitda olib boriladi: 1. Ta’lim muassasasi; 2. Ishlab chiqarish korxonasi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Germaniyada yoshlarning katta qismi aynan dual ta’lim orqali kasb egallaydi va bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi yuqori hisoblanadi. Bu holat ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash samarali model ekanligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki: jadid maktablari ta’limni hayot bilan bog‘lashga intilgan; o‘quv jarayonida amaliy bilimlarga katta e’tibor berilgan; yoshlarni kasb-hunar va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash maqsad qilingan. Bu jihatlar zamonaviy dual ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Demak, jadid pedagogik merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiston jadid mutafakkirlarining ta’lim haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Jadidlar ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, yosh avlodni bilimli, kasb-hunar egasi va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ilgari surganlar. Ularning ta’limni hayot va mehnat bilan bog‘lash haqidagi g‘oyalari bugungi dual ta’lim tizimining muhim tarixiy ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi kunda jadid pedagogik merosini dual ta’lim nuqtai nazaridan chuqur o‘rganish, pedagogika fanlari dasturlariga jadid ta’lim konsepsiyasini kiritish, dual ta’limni rivojlantirishda milliy pedagogik tajribadan foydalanish, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligini kuchaytirish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2003. –301 b.

2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992.–66 b.

3. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Ma’naviyat, 2009.–272 b.

4. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T.: Ma’naviyat, 2009.–304 b.

5. Babajanova Diloram. “Jadidlar va ularning yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashdagi o‘rni.” “Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot”, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, II qism, Buxoro, 2025.

6. Qosimov Begali. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik.–T.: Ma’naviyat, 2002.–400 b.

7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2009.–280 b.

8. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent. Ma’naviyat, 2006. – 336 b.

9. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent. Ma’naviyat, 2000. – 208 b.

MILLAT VA MA’RIFAT FIDOYISI

Daminova Rahima Malikovna

Samarqanda davlat chet tillar instituti katta o’qituvchi

O‘zbek milliy davlatchilik tarixida XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san’at sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshiribgina qolmay, xalqimizning madaniy, ma’rifiy hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi. Ana shunday islohotlarni birinchilardan bo’lib boshlab bergan allomalardan biri taniqli dramaturg, publisist, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Samarqand tuprog’ida tug’ilib o‘sgan Mahmudxo’ja Behbudiy maktab va madrasa ta’limidan so’ng 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko’tariladi. Millatni jaholat botqog’idan olib chiqish, ma’rifat nurlaridan bahraand etish maqsadida yangi usul maktablarini ochadi. Samarqanddagi dastlabki “Usuli savtiya” maktablaridan biri 1903-yili Jomboy tumanining Rajabamin qishlog’ida, atoqli ma’rifatparvar Abduqodir Shakuriyning hovlisida ochilgan. Bu maktabning tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga Behbudiy juda katta hissa qo’shadi. Keyinchalik maktab Behbudiyning o’z hovlisiga ko’chiriladi. Shu yillarda u mazkur maktab o’quvchilari uchun “Muntaxabi jug’rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Madhali jug’rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasari jug’rofiyai Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar kitobi”), “Muxtasari tarixi islom” (“Islomning qisqacha kitobi”) singari darslik va o’quv qo’llanmalarini yaratdi.

Behbudiyning ma’rifatparvarlik yo‘lidagi ishlaridan yana biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo‘ldi. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand shahrida ochilgan bu kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug‘ullanishga undash bo‘lgan. Kutubxona “Qiroatxonai Behbudiya” nomi bilan o’z faoliyatini boshlab yuboradi.

Kutubxona ertalab soat 9 dan 5 gacha va soat 6 dan 12 gacha ishlab, 60 dan 110 nafargacha bo’lgan kishilarga madaniy xizmat ko’rsata boshlaydi. Behbudiyning “Samarqand kutubxona islomiyasi” (“Turkiston viloyatining gazeti”, 1908-yil, noyabr) degan maqolasidan ma’lum bo’lishicha, kutubxona jamg’armasida to’plangan kitob va risolalar o’sha kezlarda 600 ta, gazeta va jurnallar esa undan ham ko’p bo’lgan.

Kutubxonadan o’rin olgan aksar kitob va risolalar Behbudiyga tegishli bo'lgan. Vadud Mahmud Abduqodir Shakuriyga bag’ishlangan maqolasida: “Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo’lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. O’sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o’z cho’ntagidan to’lar edi” - deb yozadi.

Behbudiy mohir publitsist ham edi. “Turkiston”, “Sherdor madrasasi”, “Turkiston tarixi kerak”, “Ehtiyoji millat”, “Bizni hollar va ishlar», “Jaholat dardlaridan”, “Bizni kemiruvchi illatlar”, “Ikki emas, to’rt til lozim”, “Yoshlarga

murojaat”, “Muhtaram yoshlarga murojaat” singari maqolalarida o’z davri uchun muhim bo’lgan muammolarni dadil yoritib beradi. Mazkur maqolalarda ko’tarilgan ayrim muammolar hozirgi paytda ham vatan va millat taraqqiyotiga g’ov bo’lib kelmoqda desak xato bo’lmaydi.

Behbudiy til masalasida fikr yuritar ekan, o’zbek tilining mavqeini ko’tarishga alohida ahamiyat beradi. Turkistonda turkiy tilni rasmiy idora tili sifatida qabul qilish zarurligi xususida 1908-yilda rus ma’murlariga murojaat etadi. "Turkistonning musulmon aholisi, - deydi muallif, - asosan turkiyda so‘zlashadi. Janubiy tumanlarda esa yuz mingga yaqin forsiygo‘y aholi bor. Shunga qaramay ular ham turkiy tilini yaxshi biladilar. Turkistonlilar o‘rtasida tashqi ko‘rinishi, dini va tilida farq yo‘q...”. 1918- yilda esa Turkistonda turkiy tillar ichida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lgan o‘zbek tilini davlat tili sifatida tan olinishini taklif qiladi.

“Ikki emas, to’rt til lozim” maqolasida yoshlarga murojaat qilib, o’z ona tillaridan tashqari rus, arab tillarini o’rganishga targ’ib etadi. “Til masalasi” nomli maqolasida esa “dunyomizning ilm-u fanidan xabardor bo‘lmoq uchun yetti tildan: rus, nemis, fransuz, ingliz, italyan, arab, yapon tillaridan birini bilmoq kerak”ligini uqtiradi.

Behbudiy “Bizni kemiruvchi illatlar” maqolasida o’z davri kishilari orasida keng tarqalgan keraksiz va zararli, xalqqa ziyondan boshqa narsa keltirmaydigan illatlar haqida kuyinib so’zlaydi. Jamiyat va millat tanazzuliga sabab bo’luvchi to’y va aza marosimlarini “Bizni kemiruvchi illatlar” deb ataydi. Millatning bu ikki marosim uchun sarflayotgan mablag’lari uchun achinadi. Ko’pkari, Navro’z tomoshalari uchun behuda o’tkazayotgan vaqtlari haqida shunday yozadi: “Yilda ikki oy navro’zi kofiri uchun sayr etarmiz. Bir oy muqaddam Samarqandni Panjakent qasabasidagi navro’z sayrig’a mushak-fishang otishdan uchgina kishi o’lub, o’ndan ziyoda kishi majruh bo’ldi. Ko’pkari va uloq chopmoqlik odati ma’lunonsig’a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg’a ko’char, na qadar kishi majruh va ma’yub bo’lar. Ko’p kishilar sayr va ko’pkari shumligi ila ishdan va ziroat vaqtidan qolur. Uyig’a yo’q, xo’kkuzi va sog’ar siyiri yo’q ekan, bir necha yuz so’mg’a ot olib va har kuni anga hindek parastish etib, har kun bir so’m sarf etar, na uchun? To’y va sayrg’a ko’pkari chopmoq uchun. O’n-yigirma chaqirimg’a to’y bo’ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo’yub, otlanib ko’pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo’ldi-ketdi. Eski birgina kun so’ngra yig’ilgan uchun yog’inga qolib, ba’zi xirmonlar chirib ketar”.

Behbudiy odamlarga bu odatlarning zararli ekanligini uqtiradi. Fikrining isboti uchun Qur’on va hadislardan namunalar keltiradi. O’z zamondoshlarining Xudo va Hazrati payg’ambar ko’rsatmalariga amal qilmayotganliklaridan afsuslanadi. Qarz botqog’iga botib qilinayotgan xatna va nikoh to’ylari evaziga bor-budidan ayrilib xonavayron bo’layotgan millatdoshlarini aqlsizlikda ayblaydi. Bunday illatlarning barchasiga ilmsizlikni sabab qilib ko’rsatadi: “To’y va ta’ziyag’a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo’lig’a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o’zimiz-da, dinimizda obro’y va rivoj topar. Yo’q, hozirgi holimizg’a davom etsak, din va dunyog’a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo’lmaydur”.

Adibning bu fikrlari bugungi zamonamiz kishilari uchun ham saboq bo'lishi kerak, chunki hozir ham farzandlarining ilm olishi va hunar o'rganishi uchun emas, balki dabdabali to'y-marosimlar uchun pulini ayamay sarflayotgan zamondoshlarimiz talaygina.

XX asr o'zbek siyosati, madaniyati, adabiyoti va san'atida o'chmas iz qoldirgan, millat ma'rifati, ozodligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan bu ulug' allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati xalqimiz tarixi sahifalaridan mangu o'rin egalladi.

Adabiyotlar:

1. Abdug'aniyeva, D. Jadidchilik harakati va o'zbek matbuoti tarixi. - Toshkent, 2015.

2. Алимова Д., А.Рашидова. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент: Академия нашриёти, 1999.

3. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy . Yoshlar Nashriyoti Uyi. Toshkent-2022. 4.Mahmudxo'ja Behbudiy, "Zabarjad Media" , Toshkent-2022.

5. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2005.

6. To'rayev T. Mahmudxo'ja Behbudiy: Hayoti, faoliyati va merosi._Samarqand. 2010.

7. Nabiyev R. _Turkistonning ma'rifatparvar shaxslari. Toshkent: O'qituvchi. 1995.

IBROHIM YORQINNING ILMIY MEROSIDA TURKISTON JADIDLARI SIYMOSINING YORITILISHI

Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti v.b.dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

XX asr Turkiston ziyolilari tarixida muhojirlikda yashab, milliy tafakkur va ozodlik g'oyalarini ilmiy hamda publitsistik faoliyati orqali davom ettirgan shaxslar alohida o'rin tutadi. Ana shunday fidoyi ziyolilardan biri Ibrohim Yorqin bo'lib, u nafaqat chorvachilik sohasi bo'yicha yetuk olim, balki Turkiston jadidchilik harakati tarixi va namoyandalari haqida muhim ilmiy-ma'rifiy meros qoldirgan mutafakkirdir. Uning asarlarida jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma'rifiy faoliyati va milliy uyg'onish jarayonidagi o'rniga doir muhim ma'lumot va mulohazalar keltirilgan.

Ibrohim Orifxon o'g'lining ota-bobolari asli turkistonlik bo'lib, taqdir taqozosi bilan Toshkentga ko'chib kelgan. Qahramonimiz 1902-yilning 23-oktabrida ana shu azim shaharning Sebzor dahasida tavallud topgan. Yosh Ibrohim ilk ta'limni dastlab eski, so'ngra Eshonxo'ja Xoniyning yangi usul maktabida oldi. Uning o'zi keyinchalik xotiralarida "Katta akam Obidxon meni va chor atrofdan 8 bolani mahallamizdan 4 kilometrcha uzoqlikda joylashgan Quyi Devonbegi

mahallasidagi Eshonxo‘ja Xoniyning yangi usuldagi boshlang‘ich maktabiga yozdirdi. 1913-yilda Eshonxo‘janing boshlang‘ich maktabini bitirgach, Shayxontohur yaqinidagi Munavvarqorining 2 sinfli Rushdiy maktabida o‘qishni davom ettirdim va 1915-yili buni ham tamomladim” [1]. Ibrohim, Munavvarqorining ushbu maktabida tarix, matematika, geografiya, tabiatshunoslik, adabiyot va diniy ilmlarni o‘rgandi.

Germaniyada tahsil olgan talabalarning hayoti va faoliyatiga doir ilk ma’lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etgan zahmatkash olim Sherali Turdiyevning yozishicha 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ko‘plab yoshlar qatori Ibrohimning ham qalbini larzaga solgan. Ana shu davrda Munavvarqorining “Na’muna” maktabini bitirgan va Fitrat domlada tahsil ko‘rgan bir qancha ilmga chanqoq yoshlar kabi Ibrohim Orifxon o‘g‘li ham do‘sti Ahmadjon Ibrohim bilan birga Turkiston davlat universitetining ma’danchilik fakultetiga o‘qishga kiradilar. Biroq, bolsheviklar mahalliy yoshlarning chuqur bilim olishiga ataylab yo‘l qo‘ymayotgani, bu yo‘lda turli xil sun’iy to‘siqlarni hosil qilayotganligi jadid taraqqiyparvarlari tomonidan to‘la anglab yetilgach, ilmga chanqoq ko‘plab yoshlar qatori Ibrohim ham “Ko‘mak” uyushmasi yordamida Germaniyaga o‘qishga yuboriladi.

Ibrohim Yorqin 1924-1927-yillarda Berlin ziroat akademiyasida o‘qidi. O‘qishni tamomlagach Berlin chorvachilik institutida biroz muddat ishlagach, 1929-yilda Vengriya dorilfununida “Turkiston jo‘g‘rofiy shaharlarida chorvachilik” mavzusida doktorlik dissertatsiyani yoqladi.

Afsuski, XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Germaniyada tahsil olayotgan talabalarni Turkistonga qaytarish vazifasi faol tarzda sovet hukumati tomonidan zo‘rlik bilan amalga oshirila boshlandi. Bu chirkin siyosatning amaliy natijasi o‘laroq 1927-yilning yozgi ta’til vaqtida yurtga qaytgan Solih Muhammad va Nasriddin Sherahmad qayta Germaniyaga qo‘yib yuborilmadi. Hatto, bunga chiday olmagan Nasriddin Sherahmad o‘z joniga qasd qiladi va tasodifan o‘lmay qoladi.

Bolsheviklarning manfur maqsadlarini oldindan sezgan Fayzulla Xo‘jayev Germaniyaga maktub yo‘llab, qolgan talabalarga qanday qilib bo‘lsa ham o‘qishni bitirishni va yurtga qaytib kelmaslikni buyuradi. Ushbu tavsiyaga amal qilgan talabalar qatorida Ibrohim Orifxon o‘g‘li ham Germaniyada qolishga qaror qiladi. Biroq, qahramonimiz sovet hukumatining siyosiy bosimi ostida 1930-yilda Turkiyaga ko‘chib o‘tib, o‘ziga Ibrohim Yorqin ismini qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Ibrohim Yorqinning Turkiyadagi ilmiy faoliyati ham nihoyatda qizg‘in kechdi. Natijada u 1938-yilda dotsent, 1946-yilda esa professor ilmiy unvoniga ega bo‘ldi.

Garchi, Ibrohim Yorqinning mutaxassisligi chorvachilikka oid bo‘lsa-da, biroq u ham boshqa maslakdosh do‘stlari Tohir Chig‘atoy, Abdulvahob O‘qtoy va Afzal Abusaidlar singari qo‘liga qalam olgan holda ona vatani Turkistonning hurriyati yo‘lida kurash olib bordi. Ayniqsa, uning 1963-1988-yillar oralig‘ida “Turk madaniyati tadqiqotlari” nomli Anqarada nashr etilgan oylik jurnalidagi – Turkistonning ijtimoiy-siyosiy tarixi hamda jadid taraqqiyparlarining hayoti va faoliyatiga oid qirqqa yaqin maqolalari katta ahamiyatga egadir.

Bular ichida Turkistonning tarixiy siymolari Ahmad Donish, Avaz O‘tar, Abay Qo‘nonboyev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Eshonxo‘ja Xoniy, Abulhamid Cho‘lpon, Elbek (Mashriq Yunusov) va milliy ozodlik harakatining liderlaridan biri Shermuhammadbekka doir muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maqolalar bor.

U o‘zining Ahmad Donishga bag‘ishlangan maqolasida uning o‘z davrida yangi g‘oyalar targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqqan mutafakkir ekanligini, u XIX asr oxirlarida Buxoroda mutlaq hokimiyat boshqaruvi har qanday ilg‘or fikr va tashabbuslarni bug‘ib qo‘ygan bir sharoitda, dunyoviy fanlarni rivojlantirishni, xorijliklardan zamonaviy ilm-fan, texnika va bilimlarni o‘rganishni qat’iy ilgari surganligini ta’kidlab quyidagilarni yozadi: “Ahmad Donish o‘z asarlarida Buxoro amirining hamda uning atrofidagi mansabdorlarning savodsizligini, shaxsiy manfaat va nafsga berilib ketganini, dunyodagi o‘zgarishlardan bexabar ekanini, shuningdek, xalqni qanday talon-toroj qilayotganini ochiq-oydin bayon etadi. Shu bilan birga, u maktab va madrasalardagi ta’lim usullari zamon talablariga javob bermasligini, diniy doiralarda fikriy qotib qolish holati hukm surayotganini keskin tanqid qiladi. Ahmad Donish mamlakatdagi jaholat va qoloqlikni fosh etish bilangina kifoyalanmay, undan chiqish yo‘llarini ham izlaydi. O‘zi ezgu niyatli va mo‘tadil islohotchi bo‘lganligi bois, zarur deb bilgan islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan maxsus loyihani Buxoro amiriga taqdim etadi. Biroq uning takliflari rad etiladi va u saroy xizmatidan chetlashtiriladi” [2].

Shuningdek, Ibrohim Yorqinning “Turkistonning jadidchi fikr arbobi, yozuvchi va shoiri Abdurrauf Fitrat” nomli maqolasi ham o‘zgacha xarakterga ega. Muallif ushbu maqolasida Buxoroning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy manzarasi haqida umumiy ma’lumot berib, mamlakat osmonini qoplagan jaholat bulutlarini quvmoq uchun bir qator taraqqiyparvar shaxslar yetishib chiqqanligini, ularning ichida Abdurauf Fitratning o‘rni va roli katta bo‘lganligini yozadi.

Ibrohim Yorqinning qayd etishicha Abdurauf Fitratning modern tafakkur darajasiga erishishida Ahmad Donishning asarlari muhim ahamiyat kasb etgan, uning hali nashr etilmagan qo‘lyozma holda asarlari Fitrat va boshqa ilg‘or fikrli buxorolik yoshlar tomonidan qo‘lma-qo‘l holda o‘qilgan hamda turli davralarda muhokama qilingan.

Ibrohim Yorqin o‘z maqolasida Abdurauf Fitrat to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni keltiradi. Uning fikricha, 1910-yilda Buxoroda yashirin tarzda tashkil etilgan “Tarbiyai atfol” jamiyati tez fursatda Istanbulda ham o‘z bo‘limini ochib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Istanbulga yuborgan. Ushbu jamiyatnign sa’y-harakatlari bilan ko‘plab buxorolik yoshlar bilimlarini oshirish uchun Istanbulga bordilar. Ulardan biri Abdurrauf Fitrat bo‘lib, u 1910-yilda Eron orqali Istanbulga yetib kelgan.

Fitrat Istanbulda ilm-fan va adabiyot arboblari bilan muloqot qilib, tarix va adabiyot sohalarida bilimini chuqurlashtirgan, ta’lim va madaniyat muassasalarini, hamda siyosiy tashkilot va harakatlarnining faoliyatini yaqindan kuzatgan. Istanbuldagi ilg‘or ta’lim Abdurauf Fitratning ong va tafakkurida chinakam inqilobni yuzaga keltirgan. Ana shu fikriy inqilob natijasida u fors tilida “Munozara”

va “Sayyohi hindi” nomli asarlarini chop ettirgan. “Munozara” asari 1912-yilda Toshkentda Chor hukumatining mahalliy tilda chiqadigan rasmiy gazetasida Hoji Muin tarjimasida e’lon qilinib, keyinchalik rus tiliga ham tarjima etilgan.

Shuningdek, Abdurauf Fitratning “Hind ixtilolchilari” asari ham muhim sahna asarlaridan hisoblanadi. Garchi pyesadagi voqealar Hindistonda bo‘lib o‘tsa-da, biroq u mohiyatan Turkistonning zulm va istibdod iskanjasida qolib qiynalayotganiga ishora qiladi. Negaki, asar ichidagi Hindiston o‘rniga Turkiston, hindlar o‘rniga turkistonliklar so‘zini qo‘ysa ham hech nasa o‘zgarmasdan qolaveradi. Mohir dramaturg Fitrat ushbu pyesasi orqali Hindiston va hindistonliklarning og‘ir qismati orqali turkistonliklarga ko‘zgu tutmoqchi bo‘lgan. Bu nozik ishorani Ibrohim Yorqin ham yaxshi tushunib yetgan. Jumladan u shunday yozadi: “Fitratning “Hind ixtilolchilari” nomli dramani yozishdan asosiy maqsad – Sovet tuzumi sharoitida ochiq bayon etish imkoni bo‘lmagan Turkistonning rus istilosi va mustamlakachiligiga qarshi kurashini boshqa bir misol orqali ifodalashdan iborat edi” [3].

Ibrohim Yorqinning Munavvarqoriga bag‘ishlangan maqolasi hajman katta. Boisi Munavvarqori Ibrohimning bevosita ustozidir. Shuning uchun ham uo‘z maqolasida Munavvarqorining mufassal tarimayi holini keltirib, bu ulug‘ siymoning Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy tarixidagi o‘rnini atroflicha tahlil qiladi.

Ibrohim Yorqinning yozishicha Buxoroda Jo‘raboy ismli bir shaxs tomonidan ochilgan, biroq uch oy o‘tmay yopilib ketgan maktabni istisno qilganda, yangi usul maktablarining birinchisi 1901-yil iyun oyining boshlarida Munavvarqori tomonidan Toshkent shahrining Mirobod mavzesida ochilgan. Oradan bir necha yil o‘tgach, u bu maktabni o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan Shayxontohur mavzesiga ko‘chirgan.

Mirobodda esa Munavvarqoridan yangi usul ta’lim metodini o‘rgangan Abdulla Avloniy ham jadid maktabini ochadi. Ibrohim Yorqinning eslashicha, Munavvarqori yangi maktab o‘quvchilarni tez savodli qilishi va ularga foydali bilim berishini ko‘rsatish maqsadida bitiruv imtihonlarini o‘quvchilarning ota-onalari hamda ko‘plab muxolif ruhdagi qadimchi din arboblari ishtirokida o‘tkazgan. Mazkur boshlang‘ich maktab ayni paytda keyinchalik ochiladigan boshqa yangi usul maktablari uchun ta’lim uslubi va o‘quv dasturlarini amaliy tarzda o‘rganish markazi vazifasini ham bajargan.

Bundan tashqari Ibrohim Yorqin Munavvarqori tomonidan ochilgan maktabda o‘qituvchilik faoliyatini olib borgan shaxslar to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Jumladan u: “O‘sha davrning yosh o‘qituvchilaridan Eshonxo‘ja va Hasanxo‘ja Xoniylar, Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami Qori kabi o‘qituvchilar Munavvarqori maktabida birga ishlab, undan maxsus bilim va ta’lim usullarini o‘rganganlar. Keyinchalik Farg‘ona, Samarqand, Ho‘jand, Chimkent kabi shaharlarida yangi usul maktablar ochgan ko‘plab kishilar ham undan dars dasturi va metodlarni o‘rgangan va maktablarni yanada samarali qilish uchun undan yordam olganlar” [4], deb yozgan holda ushbu maktab boshqa yangi usul maktablari uchun ham andoza bo‘lgani sababli xalq ichida “Na’muna” maktabi sifatida nom qozonganligini ta’kidlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Ibrohim Yorqin o‘z bilimini yurt ravnaqi va rivoji yo‘lida safarbar qilgan, Germaniyada o‘qib o‘zining maqolalari va tadqiqotlari bilan Turkistonning hurriyati yo‘lida qalami ila kurash olib borgan o‘zbek xalqining chinakam jasur farzandlaridan biri bo‘lgan. Ibrohim Yorqin 1993-yilda uzoq davom etgan og‘ir kasallikdan so‘ng Turkiyaning poytaxti Anqarada vafot etdi. Biroq, undan boy ilmiy meros qoldi. Ibrohim Yorqinning asar va maqolalari bugungi kunda ham Turkistondagi jadidchilik harakati tarixi, madaniyati va ilm-faniga doir yangi qirralarni ochishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1) İbrahim Yarkın. Türkistan’ın Cedidçi Devri Simalarından İdealist Öğretmen ve Teşkilatçı İshan Hoca Hanî // “Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi”. Ağustos 1967. – S. 78.

2) İbrahim Yarkın. 19. Yüzyılın İkinci Yarısında Buhara’da Islahatçı Fikir Adamı Ahmed Donış // “Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi”. Kasim 1977. – S. 45.

3) İbrahim Yarkın. Türkistan’ın Cedidçi Fikir Adamı, Yazar ve Şair Abdurrauf Fitret // “Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi”. Ocak 1977. – S. 184-185.

4) İbrahim Yarkın. Türkistan’da "Yeni Usül" Öğretimin Kurucusu ve Milliyetçi Rehber Münevver Kari // “Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi”. Şubat 1964. – S. 164-165.

TURKISTON JADIDLARI MA'RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING MA’NAVIY ILDIZLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Jadidchilik — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va boshqa musulmon mintaqalarda yuzaga kelgan ma’rifiy va madaniy yangilanish harakati bo‘lib, uning g‘oyalari jamiyatni jaholatdan olib chiqish, zamonaviy ta’limni joriy etish va milliy ongni mustahkamlashga qaratilgan edi [1]. Jadidlar — “yangilik tarafdorlari”, millatni taraqqiyot sari yetaklashga intilgan ziyolilar edi. Jadidchilikning asosiy maqsadi — ilm-fan va diniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib, jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojlanishini ta’minlash edi [2].

Turkiston jadidchilik harakati ma’naviy ildizlarini ikki asosiy omilda topadi: an’anaviy islom ta’limi va Sharqning tarixiy ma’rifiy an’analari. Jadidlar mahalliy an’analarni inkor etmay turib, ularni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirishga intilganlar [3]. Shuningdek, jadidchilik harakatining poydevorida turk xalqlarining milliy uyg‘onish g‘oyalari ham mavjud edi. Ular millatning o‘z tarixini qadrlash, o‘z tiliga va madaniyatiga hurmat bilan qarash zaruratini ilgari surdilar [4].

Ma’naviy ildizlar ichida islamning ijtimoiy adolat, ma’rifat va axloqiy tarbiya konsepsiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Jadidlar uchun diniy qadriyatlar va ma’rifiy bilim bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida ko‘rilgan [5].

Jadidlar o‘z g‘oyalarida insonning ma’naviy erkinligi va aql bilan fikrlashga asoslangan jamiyat modelini ilgari surdilar. Ularning fikricha, insonning ma’naviy taraqqiyoti faqat ta’lim orqali mumkin. Bu esa ularni zamonaviy pedagogika, matbuot va madaniy faoliyatga yo‘naltirdi [6]. Jadidlarning falsafiy qarashlarida asosiy o‘rin insan qadrini oshirish, tafakkur va axloqiy ongni rivojlantirishga berilgan. Bu esa ularni oddiy ma’rifatchilardan farqlantirib, ma’naviy islohotchilar sifatida shakllantirdi. Ularning g‘oyalari, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglik, milliy uyg‘onish va zamonaviylik tamoyillariga asoslangan edi [7]. Jadidlar Turkistonning ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirdi. Ular yangi usul maktablari orqali ilm-fan asosida ta’limni joriy etib, ulamolar va xalq orasida jaholatga qarshi kurash olib bordilar. Bu esa jamiyatda mustaqil fikrlash hamda milliy g‘oyaning shakllanishiga xizmat qildi..

Matbuot va adabiyot orqali ularning ma’rifiy g‘oyalari keng tarqaldi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan *“Oyina”* gazetasi jadidchilik maqsadlarini yoritgan asosiy vositalardan biri bo‘ldi [8].

Turkiston jadidlari ma’rifatparvarlik g‘oyalari uning ma’naviy ildizlarida dastlabki islomiy ta’lim va milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat hayotida falsafiy ahamiyat kasb etdi. Ularning ma’naviy-falsafiy qarashlari ta’lim va ma’rifatni jamiyatni yangilashdagi asosiy vosita sifatida ko‘rgan holda, Turkiston jamiyatining ma’naviy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Jadidchilik harakatining merosi bugungi milliy ong va ma’naviyatning mustahkamlanishida muhim o‘rin tutadi. Jadidchilik nafaqat pedagogik islohot, balki keng ma’noda ijtimoiy-falsafiy harakat sifatida shakllandi. Uning nazariy asoslari ma’rifatni jamiyatni yangilashning bosh omili sifatida ko‘rishga qaratilgan edi [9].

Jadidchilik harakatining markaziy tushunchasi — ma’rifat edi. Ma’rifat jadidlar talqinida oddiy savodxonlik emas, balki:

- ilm-fan yutuqlarini egallash,
- dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish,
- tafakkur erkinligini shakllantirish,
- milliy ongni uyg‘otish jarayonini anglatardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida millat taraqqiyoti uchun avvalo maktab va ta’lim tizimini yangilash zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, “maktab — millatning ko‘zgusi” bo‘lib, agar maktab isloh qilinmasa, jamiyat taraqqiy eta olmaydi. Shuningdek, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiya va ma’rifatni millat hayoti va mamot masalasi sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, tarbiya — millatning istiqbolini belgilovchi asosiy omildir.

Jadidlar ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining ontologik va aksiologik asosi sifatida talqin qilganlar. Ontologik jihatdan, ular jamiyatning mavjudlik shakli va taraqqiyot darajasini bilim bilan bog‘ladilar. Aksiologik jihatdan esa ma’rifatni eng oliy qadriyat sifatida ilgari surdilar.

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish zarurligini ta’kidlab, ma’rifatsiz jamiyat mustaqil taraqqiy eta olmasligini qayd etadi [10].Uning fikricha, jaholat — ijtimoiy turg‘unlik va mustamlakachilikning asosiy sababidir. Shu jihatdan jadidchilik g‘oyalarini Sharq

ma’rifatparvarligi va Yevropa ma’rifatchiligi bilan qiyoslash mumkin. Biroq Turkiston jadidchiligi o‘ziga xos ravishda islomiy qadriyatlar bilan zamonaviy bilimlarni sintez qilishga intildi. Jadidlar nazarida millatning tarixiy taqdiri uning ma’rifiy saviyasiga bog‘liq edi. Agar millat ilm-fan yutuqlarini egallamasa, u siyosiy va iqtisodiy jihatdan boshqa kuchlarga qaram bo‘lib qolishi mumkin edi. Shu bois jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etib, darsliklar yozib, matbuot nashrlarini yo‘lga qo‘ydilar. Masalan, Behbudiyning Padarkush dramasi orqali jaholat va ijtimoiy muammolar tanqid qilinib, ma’rifatning ahamiyati badiiy ifodalangan.

Jadid matbuoti — milliy ongni uyg‘otish vositasi sifatida xizmat qildi. Gazeta va jurnallar orqali ijtimoiy tanqid, iqtisodiy islohot, ayollar ta’limi, siyosiy ong masalalari ko‘tarildi[11]. Natijada jadidchilik Turkiston jamiyatida yangi ijtimoiy qatlam — zamonaviy ziyolilar sinfini shakllantirdi. Bu qatlam keyinchalik milliy davlatchilik g‘oyalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Bugungi kunda jadidchilik merosi O‘zbekiston ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik davrida jadidlar merosini qayta o‘rganish va ularning asarlarini nashr etish ishlari kuchaydi. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashga xizmat qilmoqda. Jadidlarning “ma’rifat — najot yo‘li” degan konsepsiyasi hozirgi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlik, innovatsiya va taraqqiyot ham bevosita bilim va tafakkur bilan bog‘liq. Jadidchilikning ma’naviy va ijtimoiy ahamiyati bugungi kunda ham mustaqil O‘zbekistonning milliy ongini shakllantirishda namoyon bo‘lib, avlodlarni ma’naviy-madaniy meros bilan tanishtirishda asosiy poydevor sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidov, D. Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari va vazifalari. Modern Science and Research, 2025.
2. Tursunova, O. Turkiston jadid namoyandasi Behbudiyning ma’naviy g‘oyalari. Journal of Universal Science Research, 2025.
3. Globalscholars. Jadidlar: uyg‘onish davrining ma’rifatparvar siymolari. 2025.
4. Qalandarova, M. & Jumayev, A. Jadidism movement in Turkestan: education and pedagogical ideas. 2024.
5. Jadidchilikning asosi — ma’rifat va jamiyat taqdiri. Universal Scientific Research Journal, 2025.
6. Turkiston jadidlari va ma’naviy-siyosiy o‘zgarishlar. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities, 2025.
7. Jadidlarning asosiy g‘oya va maqsadlari. Vatanparvar gazetasi, 2024.
8. Wikipedia. Oyina (gazeta).
9. Karimov, N. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Fan, 2008.
10. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2000.
11. Ziyoyev, H. O‘zbekiston jadidchiligi tarixi. Toshkent, 2011.

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK (BUXORO JADIDLARI MISOLIDA)

Norboyev Sardor Qavmiddinovich

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Sodiqov Abdullo Rustam o‘gli

BuxDPI, 2-bosqich talabasi

Hozirgi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash jarayoni deyarli barcha davlatlarda ustuvor ma’naviy-mafkuraviy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Chunki milliy o‘zlikni anglash orqali jamiyatda tarixiy xotira mustahkamlanadi, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchayadi hamda milliy birlik va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Bu jarayon davlatning siyosiy mustaqilligi va ma’naviy suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.Milliy o‘zlikni shakllantirish, avvalo, xalqning tarixiy tajribasi va o‘ziga xos sivilizatsion merosiga tayangan holda amalga oshadi. Har qanday millat o‘zining kelib chiqishi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlari va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini anglash orqali o‘zligini to‘laqonli idrok etadi. Tarixiy xotira yo‘q joyda milliy o‘zlik zaiflashadi.Biroq mustabid va mustamlakachilik siyosati hukmron bo‘lgan davrlarda milliy o‘zlik tushunchasi ongli ravishda siqib chiqariladi yoki begonalashtiriladi. Mustamlakachi kuchlar o‘z mafkurasini singdirish orqali mahalliy xalqlarning tarixiy xotirasini susaytirishga, ularning milliy o‘ziga xosligini yo‘qotishga intiladi. Natijada jamiyatda ma’naviy bo‘shliq yuzaga keladi.Ana shunday murakkab tarixiy sharoitlarda taraqqiyparvarlik harakatlari vujudga keladi. Ular ma’rifat, adabiyot va matbuot orqali xalq ongini uyg‘otishga, millatning “kimligi”ni anglatishga va ozodlik g‘oyalarini targ‘ib qilishga intiladilar. Taraqqiyparvarlar o‘z asarlari va ijtimoiy faoliyati orqali milliy o‘zlikni tiklash hamda jamiyatni uyg‘onish sari yetaklash vazifasini bajarganlar.

Jadidchilik - arabcha “jaded” so’zdan olingan bo’lib “yangi” o’n to’qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshlarida Turkiston,Kavkaz,Qirim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy,ma’rifiy harakat.[1]“Jaded” so‘zidagi “yangi” tushunchasi shunchaki sodda yangilikni emas, balki “yangi tafakkur”, “yangicha qarashlar” va “zamonaviy pedagogik yondashuv” kabi g‘oyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu orqali maqsad – milliy xotira va qadriyatlarni asrab-avaylab, yangi avlodni yetishtirish edi.Shu nuqtai nazardan, jadidlar asarlari tarbiyaviy va ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi: ular milliy o‘zlikni anglash, tarixiy tajribani qadrlash va zamonaviy taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirishga xizmat qilgan.Bu harakat avvalo ta’lim sohasida boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik matbuot, adabiyot,teatr va boshqa jabhalarda ham o‘z aksini topdi.Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Alixonto‘ra Sog‘uniy, Abdulla Qodiriy, Ismoil Obidov, Ubaydulla Xo‘jayev, Ahmadjon Bektemirov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Tavallo, Cho‘lpon kabi jadid namoyandalarning ishlari beqiyosdir. Jadidlar ilm-fan sohasida bir qancha nodir

asarlar yaratganlar. Xususan, “Turkiy Guliston yoki Axloq”, “Otasini o‘ldirgan” (fors tilida “Padarkush”), “Birinchi muallim”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Demografik geografiyaga kirish”, 1905) kabi kitoblar ularning ilmiy merosini tashkil qiladi. Ushbu asarlar nafaqat zamonaviy ta’lim va pedagogik yondashuvni ilgari surgan, balki milliy tarix, geografiya va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynagan. Jadidlarning ilmiy merosi bugungi kunda ham milliy o‘zlikni shakllantirish, tarixiy tajribani o‘rganish va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga xizmat qiluvchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.Jadid ma’rifatparvar Alixonto‘ra Sog‘uniy “Turkiston xalqini “o‘lim uyqusidan uyg‘otish”ning yo‘li – uni zamonaviy ilm-fan, milliy g‘urur bilan qurollantirish, ona tilini jon o‘rnida asrashda”[2].

Maktablarda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida, milliy qadriyat va zamonaviy ilm-fan asoslarini uyg‘unlashtiruvchi yangi usul maktablarni tashkil etish zaruriyati yuzaga keldi. Shu sharoitda Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda birinchilar qatoridan bo‘lib yangi usul maktabini tashkil qilgan va bu maktablar uchun maxsus darsliklar yaratgan.Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘sha davrdagi jamiyatdagi qoloqliklar, ma’naviy sustlik va ijtimoiy muammolarni “Padarkush” dramasi orqali ochib bergan. Mahmudxo‘ja Behbudiy aytar edi: “Maktab ochmak —xalqni uyg‘otmakdur. Uyg‘ongan xalq —el bo‘lur, el bo‘lgan yurtda erk bo‘lur”[3].

Bu say harakatlar barchasi jadidlarning manfaatlariga emas balki xalqning ongli,savodli,millatni o’zligini topishga bo’lgan urinishlar edi. Shu asnoda ularning asarlarining ko’plari hukumat tomonidan ta’qiq qo’yildi hamda ularning faoliyatini turli siyosiy bosimlar orqali tugatishga kirishildi.Biroq ularning yaratga bebaho asarlari hozirgi kunda turli mavzularda biz uchun ibrat bo’la oladi.Tarbiyaviy tamoyillarni qamrab oladigan asarlardan biri bo’lmish Abdurauf Fitratning “Oila” (1914-yilda yozilgan) asarini oladigan bo’lsak bu asar orqali Fitrat farzand tarbiyasida ayollarni o’qitish kerakligini ilgari suradi “xotunlarni o‘qitmoq va alarning aqillarin jilo bermak va erlari birla yaxshi muomilalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq, albatta, zarurdir”[4]. Oila” asari o‘sha davrdagi oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga solish hamda insoniy fazilatlarni jamiyatning ilk bo’g’ini hisoblangan oiladan boshlab shakllantirish xususidagi g‘oyalarni o‘zida jamlagan tarbiyaviy asar hisoblanadi.Jadidlar faqatgina diniy ilm bilan cheklanmaslikni uqtirishga harakat qilgan.Shu bilan birga har bir shaxs diniy,dunyoviy hamda axloqini birlashtirsa jamiyatning taraqqiyoti tezlashadi deb qaralgan.Tarbiya bo’lmagan jamiyat rivojlanmaydi bu borada Abdulla Avloniy shunday deydi: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohatiyoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” [5].Tarbiyaviy tamoyillarini birlashtirib hozirgi kundagi yoshlarni qanday vatnaparvar inson qilib ulg’aytirish kerakligini aniqlaymiz.

Birinchidan, bola tug’ilganidayoq ota-onasi farzand tarbiyasiga yuzaki emas balki jamiyatning kelajagi sifatida tarbiya hamda bilim berishi kerakligi.Har bir bolaning shu mas’uliyatni o’z zimmasiga olsa u holda jamiyat o’z-o’zidan taraqqiy eta boshlaydi deb qo’rqmasdan aytsih mumkin .

Ikkinchdan, Maktabgacha ta’lim hamda maktab ta’lim tizimi pedagoglari zamonaviy ta’lim olgan shu bilan birga har bir bolaga o’z qobiliyatini ko’rsatish uchun imkoniyat yaratib berish mas’uliyatini his etishi.

Uchinchidan, Aqliy tarbiya bilan birgalikda jismoniy tarbiyani izchillikda olib borilsa bola so’g’lom har tomonlama rivojlangan shaxs bo’lib yetishadi degan fikrlarni ilgari surgan taraqqiyparvarlar.

Milliy o’zlik tushunchasiga keladigan bo’lsak bu borada ko’plab ta’riflar keltirib o’tilgan. Bu borada I.A.Karimov "O’zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab etishni tushunaman"[6].

Milliy o`zlikni anglash:

1) Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish;

2) Milliy qadriyatlar: til, tug`ilib o`sgan joy, madaniyatga (keng ma`noda) sodiqlik;

3) Milliy manfaatlarni tushunish;

4) Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish;

5) Vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishdir.

Milliy o`zlikni anglash barcha davrlarda xam jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri bo`lib kelgan va u millat manfaatlari va qadr- qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi.Xalqimizning shunday ahvolga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri – uning tarixiy xotirasidan judo bo`lishi edi.Jadidlarning asosiy maqsadi bo’lmish milliy o‘zlik shunchaki tarix va urf-odatni bilish emas, balki o‘z milliy qadriyatlarini tanqidiy yondashuv bilan anglash, ularni zamonaviy hayotga moslashtirishni ham talab qilish degan yondashuv asosida teatr,matbuot,kitoblar,maktablar tashkil topgan.”Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q “ asarida tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson tarix saboqlari insonni xushyorlikka o`rgatadi. O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi deb ta`kidlangan.

Tarixiy tajriba — bu tarixiy voqealarni shunchaki eslab qolish yoki fakt sifatida bilish emas, balki ularni hayotiy tajriba sifatida anglash, ulardan saboq olish va shaxs hamda jamiyat tarixidagi uzviy bog‘liqlikni idrok etish jarayonidir.[7].

Jadidlar o’z faoliyati nafaqat milliy o’zlini anglashda, balki tarixiy tajribani o’rganishga ham asoslangan.Ularning fikricha,tarixiy tajriba milliy ong va o‘zlikni shakllantirishning poydevori hisoblanadi.O‘tgan davrlarda xalq qanday qiyinchiliklar bilan yuzlashgan, qanday ijtimoiy va siyosiy qarorlar qabul qilganini bilish orqali, jamiyat bugungi kun muammolarini tushunadi va kelajak uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlay oladi. Shu nuqtai nazardan, jadidlar asarlarida nafaqat tarixiy voqealarni bayon qilish, balki ularning pedagogik, axloqiy va tarbiyaviy saboqlarini yosh avlodga yetkazish masalasi ham muhim o‘rin tutgan.Jadidlar o’z asarlarida,teatrlarida o’tgan davr “chirkinliklari”ni tasvirlashgan ya’ni kulgi ostida achchiq haqiqatlarni namoyish etishgan.Ularning tarixiy tajribasi orqali ibrat olishimiz uchun ko’plab tarixiy asarlar yozib qoldigan.Bu ishlar esa nafaqat tarixiy voqelikni o‘rganish, balki jamiyatni uyg‘onish va milliy o‘zlikni anglashda amaliy tajriba sifatida xizmat qilgan. Shu tariqa, tarixiy tajriba va milliy o‘zlik bir-biri bilan uzviy bog‘langan, va jadidlar harakatining asosiy yo‘nalishlarini tashkil qilgan.“Faqat bilimli, ma’rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha

afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tizimni ma’qul ko‘rishini hayotning o‘zi ishonarli tarzda isbotlamoqda”

Xulosa o‘rnida aytadigan bo’lsak, jadidlar – harakatining asosiy maqsadi milliy o‘zlikni shakllantirish va jamiyatni uyg‘otish bo‘lgan. Ularning faoliyati tarixiy tajribani o‘rganish va undan amaliy saboq olishga qaratilgan edi. Jadidlar yangi usul maktablar, darsliklar, matbuot va teatr orqali o‘tmish voqealarini yosh avlodga yetkazib, ularning milliy qadriyatlarni tanqidiy yondashuv orqali anglashini, milliy ong va vatanparvarlik ruhini shakllantirishni maqsad qilgan.

Jadidlarning ma’naviy merosini o‘rganish orqali jamiyatni taraqqiy ettirish masalalarini yanada chuqurroq tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

2.Qurbonov M. Milliy tarbiya. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007.

3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –Toshkent 2011

4. Fitrat A. Oila. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998.

5. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Ma’naviyat. 2006. – B. 36.

6. Karimov I. YUksak ma`naviyat - engilmas kuch. - T.:—Ma`naviyat,2008

7. Carr, David. Experience and History: Phenomenological Perspectives on the Historical World. Oxford University Press, 2014.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM VA TARBIYA HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Jalilov Zarafshon Baxshullayevich

BuxDPI, Umumiy pedagogika kafedrasi dotsenti

Sharq Renessansi deb nom olgan IX–XV asrlar Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyatining eng yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda ilm-fan, falsafa, madaniyat va ta’lim sohalari jadal rivojlanib, inson tafakkuri va ilmiy izlanishlar yuqori darajaga ko‘tarildi. O‘sha davr olimlari ilmni ikki asosiy yo‘nalishga ajratganlar. Birinchi yo‘nalish inson tomonidan aql orqali egallanadigan tabiiy fanlar bo‘lib, ular tabiat hodisalarini o‘rganishga qaratilgan. Ikkinchi yo‘nalish esa avloddan-avlodga taqlid orqali o‘rganiladigan fanlar bo‘lib, ularning asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning manbai Qur’on va Sunna bo‘lib, Alloh va uning elchisi tomonidan belgilab berilgan yo‘l-yo‘riqlar asosida shakllangan.

Ushbu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarishda ilmiy markazlarning o‘rni katta bo‘lgan. Shunday markazlardan biri IX asrda Bag‘dod shahrida tashkil etilgan “Ma’mun akademiyasi” yoki “Bayt ul-hikma” hisoblanadi. Bu ilmiy maskan Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining ilmiy hamkorligi natijasida boy ilmiy meros yaratishga xizmat qilgan. Akademiya

faoliyati natijasida turli xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyati o‘zaro uyg‘unlashib, hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining ko‘p qirrali va boy shakli vujudga kelgan. Bunday ilmiy taraqqiyotning yuzaga kelishida vatandosh olimlar Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan.

Abu Nasr Forobiy pedagogik qarashlari bilan Sharq tafakkurida muhim o‘rin egallaydi. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini o‘rganishda inson tabiatiga oid falsafiy fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Forobiy insonning tuzilishi, ruhiyati, madaniy va ma’naviy olamini chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlarda uchramaydigan qobiliyat va kuchga ega. Insonning ruhiy quvvati, aqli va so‘zlash qobiliyati uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi hamda ularga nisbatan ustunlik beradi.

Abu Rayhon Beruniy ham ilmni umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning asosiy kaliti deb biladi. Uning fikricha, ilmli va ma’rifatli inson jamiyat taqdiri uchun mas’uliyatni his qiladi hamda yomonliklardan uzoq bo‘ladi. Beruniy ilmning maqsadi boylik orttirish emasligini, balki inson hayoti uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribalarni egallash ekanini alohida ta’kidlaydi. U ilm-fan rivoji mamlakat obodligiga xizmat qiladi, inson baxti esa uning bilim va ma’rifatida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi ham yosh avlodni hayotga tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqqan. Tarbiya jarayonida orttirilgan tajribalar to‘planib borgani sari ularni umumlashtirish va muayyan qonuniyatlar asosida o‘rganish zarurati yuzaga kelgan. Natijada ta’lim-tarbiya masalalari dastlab falsafa doirasida o‘rganilib, keyinchalik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllangan. Mutafakkirlar, olimlar va yozuvchilar yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Sharq va boshqa xalqlar madaniyatida ham yosh avlodni tarbiyalash masalasi muhim o‘rin tutgan. Kaykovusning “Qobusnoma”, hind faylasufi Beydabo tomonidan yaratilgan “Kalila va Dimna”, “Ramayana”, “Mahobxorat” dostonlari, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Ahmad Donishning “O‘g‘illarga nasihat” asarlari hamda Qur’oni Karim va Hadisi Shariflar inson kamoloti haqidagi muhim g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan. Ushbu asarlar asrlar davomida Sharq va G‘arb xalqlari uchun ma’naviy-madaniy meros bo‘lib xizmat qilgan.

Ta’lim mazmuni tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birga o‘zgarib boradi. Jamiyatda ilm-fan, ishlab chiqarish va madaniyat rivojlangani sari ta’lim tizimining vazifalari ham kengayib boradi. Bilimlarni to‘plash va chuqurlashtirish jarayoni jamiyat madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim insonlarning amaliy ehtiyojlari asosida shakllangan muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari inson kamolotini aqliy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishning uyg‘unligi sifatida talqin etganlar. Aqliy kamolot ilm olish va tafakkur bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy kamolot qalb pokligi va ruhiy yetuklik bilan belgilanadi. Axloqiy kamolot esa insonning muomala madaniyati va jamiyatdagi

xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Shu sababli Sharq pedagogikasida tarbiya jarayoni ichki va tashqi uyg‘unlik asosida olib borilishi zarur deb hisoblangan.

Forobiyning “Fozil jamiyat” haqidagi ta’limoti ham inson kamolotining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Uning fikricha, jamiyatning rivoji har bir shaxsning ma’naviy yetukligi bilan chambarchas bog‘liq. Ibn Sino ham jamiyat taraqqiyoti uchun insonning axloqiy va ruhiy barkamolligi muhimligini ta’kidlaydi. Shu bois Sharq merosida komil inson jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri.

2. Ibn Sino A.A. Donishnoma.

3. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.

4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub.5. Zamonaviy pedagogika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.

5.Brown, E. G. A Short History of Oriental Medicine. London:. Oxford University Press, 1920, p. 45.

6. Ibn Sino. Qonun, V kitob. Tashkent:. Fan, 1984, 17 bet.

7. Ibn Sino. Tib qonunlari (Al-Qanun fi-t-Tibb), V kitob. Toshkent:. Fan, 1984, 62-63 bet.

8. Paul Savy. Traite de Therapeutique Clinique. Paris:. Masson, 1922.

9. Roziy, Abu Bakr. Kasalliklar tarixi. Ray:. 750-763 betlar.

10. Beruniy, Abu Rayhon. Saydana. Bukhara:. 77, 126, 850, 1017, 1036, 1069.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ: ГЕНЕЗИС ИДЕЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ НАУЧНО-ДУХОВНОЙ МИССИИ БИБЛИОТЕК УЗБЕКИСТАНА

Муминходжаева Людмила Нигматовна,

старший преподаватель кафедры

«Библиотечно-информационная

деятельность» ГИИКУз

Конец XIX и начало XX века стали временем значительных изменений в общественной и культурной жизни Туркестана, который находился под влиянием колониальной политики Российской империи. В это непростое время происходил кризис традиционной системы образования, что способствовало появлению движения джадидов. Сторонники джадидизма хотели путем реформ, при сохранении основ религии и шариата приспособить ислам к новым условиям, заимствовать и использовать плоды европейской культуры для решения национальных проблем [1].

Это движение, состоящее из реформаторов мусульманского общества, стремилось к обновлению образовательной, культурной и духовной сфер. Джадидизм, как модернистское просветительское движение было направлено на реформирование устаревшей образовательной системы, развитие печати и формирование национального самосознания среди мусульман.

Джадиды, представители этого движения, стремились адаптировать исламскую культуру к требованиям новой исторической эпохи. Они активно интегрировали светские дисциплины и новые методы обучения в образовательный процесс, что позволило им внедрять идеи свободы мысли и критического подхода к знаниям. Это стремление к модернизации через просвещение стало основополагающим для формирования новой интеллигенции в регионе [2]. Научное и духовное наследие джадидов, которое включает в себя учебники, периодические издания и методические пособия, имеет огромное значение для современных библиотек Узбекистана, поскольку они служат хранилищами культурной памяти и центрами просвещения для будущих поколений.

Одним из важнейших идейных вдохновителей движения джадидов стал крымско-татарский просветитель Исмаил Гаспринский, который разработал метод «усул-и джадид» - новый подход к обучению. Его концепция модернизации через просвещение оказала значительное влияние на развитие джадидизма в Туркестане и послужила основой для формирования национальной интеллигенции, которая активно боролась за права и интересы мусульманского населения.

Среди ведущих представителей туркестанского джадидизма можно выделить таких выдающихся личностей, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат и Мунавваркары Абдурашидханов. Их деятельность охватывала широкий спектр направлений, включая педагогическую реформу, издательскую работу, создание учебников и театральных произведений, а также активную публицистическую деятельность. Эти деятели не только вносили значительный вклад в развитие образования и культуры, но и способствовали формированию нового общественного сознания, которое стало основой для дальнейших изменений в регионе [3,4].

Центральным элементом джадидской идеологии являлось убеждение в преобразующей силе знания. Основные положения их программы включали: реформу системы образования на основе звукового метода обучения; введение светских дисциплин (география, история, естественные науки); создание учебной литературы на родном языке; формирование читательской культуры как основы общественного прогресса.

Книга в джадидской концепции рассматривалась как инструмент духовного обновления общества. Через печатное слово осуществлялось формирование национального самосознания и культурной идентичности.

Джадидское движение характеризовалось массовым созданием книг, учебников и пособий, предназначенных для новометодных школ. Эти издания представляли собой первые систематизированные образовательные тексты на

тюркских языках региона, в которых были отражены достижения европейских научных подходов и местные культурные традиции [5].

Для библиотек Узбекистана такие материалы являются важнейшими историческими документами, которые позволяют восстанавливать и исследовать социально-культурное развитие региона в переходный период. Они служат первоисточниками изучения истории образования, педагогики, локальной интеллигенции и общественной мысли начала XX века.

Редкие и ценные джадидские издания активно собираются и сохраняются в фондах крупных национальных библиотек, прежде всего в Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои. Эти фонды выполняют такие ключевые функции, как:

1. Сохранение культурной памяти - как исторические источники о развитии образования и общественной мысли.

2. Научные исследования - обеспечение материалов для истории, культурологии, литературоведения, педагогики.

3. Опора для междисциплинарных исследований - взаимодействие исторической науки с библиотековедением, информационными науками и цифровыми гуманитарными исследованиями.

Центральным элементом джадидской идеологии было глубокое убеждение в преобразующей силе знания. Это движение стремилось к реформированию устаревшей образовательной системы, внедрению светских дисциплин и созданию учебной литературы на родном языке, что в значительной степени способствовало формированию национального самосознания и культурной идентичности [6].

Одним из ключевых аспектов джадидской программы была реформа образования. Джадиды предлагали переход от традиционного, религиозного образования к современным методам обучения, основанным на звуковом методе. Это позволило не только улучшить качество образования, но и сделать его более доступным для широкой аудитории. Введение светских дисциплин, таких как география, история и естественные науки, способствовало расширению кругозора учащихся и формированию у них критического мышления.

Джадиды активно занимались созданием учебной литературы на тюркских языках, что стало важным шагом в развитии образовательного процесса. Эти учебники и пособия были первыми систематизированными образовательными текстами в регионе, отражающими достижения европейских научных подходов и местные культурные традиции. Это стало предпосылкой развития научно-методических подходов к комплектованию фондов и организации информационного обслуживания. Они не только обогащали знания учащихся, но и способствовали формированию читательской культуры, что, в свою очередь, стало основой для общественного прогресса.

Читательская культура, как важный элемент джадидской концепции, рассматривалась как средство духовного обновления общества. Книги и печатные издания становились инструментами для распространения новых

идей и ценностей, что в свою очередь способствовало формированию национального самосознания. Джадидское движение активно использовало печатное слово для распространения знаний и идей, что стало важным фактором в процессе культурного возрождения.

Наследие джадидов представляет собой ценнейший корпус источников для историков, литературоведов, культурологов и библиотековедов. Эти материалы позволяют исследовать социально-культурное развитие региона в переходный период, а также изучать историю образования, педагогики и общественной мысли начала XX века. Библиотеки, такие как Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои, играют ключевую роль в сохранении и популяризации этого наследия, обеспечивая доступ к архивным материалам и редким изданиям.

Библиотеки выполняют функции научно-информационных центров, обеспечивая доступ к уникальным историческим источникам о развитии образования и общественной мысли. Они собирают и сохраняют редкие и ценные джадидские издания, которые являются важными документами для изучения истории и культуры. Фонды библиотек выполняют две ключевые функции: сохранение культурной памяти и обеспечение научных исследований, предоставляя материалы для изучения.

Современный этап развития библиотечного дела предполагает оцифровку редких фондов, создание электронных коллекций и тематических баз данных. Тем самым обеспечивается не только сохранность, но и интеграция джадидского наследия в глобальное научное пространство [7].

Гуманистические идеи джадидов - уважение к знанию, стремление к прогрессу, воспитание нравственной личности - соотносятся с современными принципами библиотечной деятельности: доступность информации, просветительство, культурная ответственность.

Заключение

Генезис идей туркестанских джадидов отражает стремление к синтезу исламской традиции и достижений европейской науки. Их просветительская деятельность стала важным этапом модернизации общества и формирования национальной интеллектуальной элиты.

Для библиотек Узбекистана джадидское наследие имеет стратегическое значение: оно определяет ценностные ориентиры просветительской миссии, укрепляет роль книги как духовного ресурса общества и способствует сохранению исторической памяти народа.

Джадидское движение стало важным этапом в истории Центральной Азии, оказав значительное влияние на развитие образования и культуры. Его наследие продолжает жить в современных библиотеках и образовательных учреждениях, способствуя формированию нового поколения, способного к критическому мышлению и культурному развитию. Сохранение и исследование джадидских материалов - это не только акт уважения к прошлому, но и важный шаг к построению будущего, основанного на знаниях и культурной идентичности.

Научное значение джадидского наследия для библиотек Узбекистана заключается в его ценности как источника историко-культурных исследований и основы национального книжного фонда. Духовное значение проявляется в преемственности просветительской миссии, сохранении исторической памяти и укреплении национальной идентичности.

Таким образом, библиотеки Узбекистана выступают не только хранителями джадидского наследия, но и продолжателями его просветительских традиций в условиях цифровой эпохи.

Список литературы:

1. Гафаров Н. У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. - начале XX в.: автореф. … докт. ист. наук / Н.У. Гафаров; Таджикский Национальный университет. - Душанбе,2013. – 47 с.
2. Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии: Пути обновления, реформы, борьба за независимость / Д. А. Алимова. - Ташкент: Ўзбекистон, 2000. - 23 с.
3. Эрдонов З.Д. Джадидизм в Средней Азии / З.Д. Эрдонов. - URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dzhadidizm-v-sredney-azii
4. Равшанов М. Концепции джадидизма Центральной Азии / М.Равшанов // Вопросы науки и образования. – 2024. - №1. - С. 22-25.
5. Слёта А. Новый метод для нового мира: как джадиды искали баланс между исламом, традицией и модернизацией / Артем Слёта. – Москва, 2025. - URL: https://mag.humodoc.com/ru/2025/07/03/authors-columns/istoriia-i-kulturnoe-nasledie/novyi-metod-dlia-novogo-mira-kak-dzhadidy-iskali-balans-mezhdu-islamom-traditsiei-i-modernizatsiei.
6. Нишанова Н.Р. Движение джадидов в Средней Азии / Н.Р.Нишанова. - URL: https://docs.yandex.uz/docs/view?tm=1772174208&tld=uz&lang=ru&name=dvizhenie-dzhadidov-.pdf.
7. Тешабаева У. Национальная Библиотека Узбекистана: из истории становления и современный этап развития / У.Тешабаева // INFOLIB. - 2020. - № 4 (24). – С.2-8.

AHMET BAITURSYNULYNING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI VA TURKISTON JADIDCHILIGINING SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Azimov Jahongir Bahodir o‘g‘li

R.Istetov nomidagi maktabda tarix fani o‘qituvchisi,

Tadqiqotchi / tarix fani magistri

Ushbu maqola Ahmet Baitursynulyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va Turkiston jadidchiligining shakllanishidagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Ahmet Baitursynuly o‘z davrida milliy ma’rifatni rivojlantirish, xalqni bilim va madaniyatga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyat yuritgan. Mazkur tadqiqotda uning

pedagogik ishlari, “Alippe” va “Til-qurol” kabi asarlari orqali jismoniy va ruhiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Turkiston hududida jadal rivojlangan jadidchilik harakati bilan Ahmet Baitursynuly g‘oyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning jamiyatni modernizatsiya qilishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot fan rivojlanish metodologiyasi, tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida olib boriladi. Natijada, Ahmet Baitursynuly shaxsiyati va ijodi Turkiston jadidchiligi tarixida muhim ilmiy, madaniy va ma’naviy meros sifatida taqdim etiladi. Ushbu ish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda milliy ma’rifat va bilim tarqatish jarayonlarida ham o‘rganishga loyiqdir.

Ahmet Baitursynuly 1872-yil 5-sentabrda hozirgi Qo‘stanay viloyati, Jangeldi tumani, Sarytübek (yoki Akko‘l) qishlog‘ida tug‘ilgan. Oilasi ma’rifatparvar ruhda tarbiyalangan bo‘lib, u bolalikdan milliy til, adabiyot va dini bilimlarga qiziqqan. Oilaviy muhit unga milliy o‘zlikni anglashi va ma’rifatga intilishi uchun qulay sharoit yaratgan. Ahmet Baitursynuly dastlab mahalliy maktablarda tahsil oldi, keyinchalik dini va dunyoviy bilimlarni birlashtirgan o‘quv tizimlarida o‘qidi. U milliy tilni rivojlantirish, yangi darsliklar yaratish va pedagogik metodlarni tatbiq etishda faol bo‘ldi. 1937-yilda Ahmet Baitursynuly siyosiy repressiya qurboni bo‘ldi va o‘sha davrda qatag‘on qilingan shaxslar sirasiga kirdi. Shu bilan birga, uning pedagogik va ma’rifiy ishlari bugungi kunda ham milliy ta’lim va madaniyat rivojida tadqiq qilinmoqda.

XIX–XX asrlar o‘rtasida Turkiston hududida yangi ma’rifiy harakat – jadidchilik paydo bo‘ldi. Bu harakatning maqsadi - xalqni ilm-fan va madaniyatga yo‘naltirish, dini va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish, jamiyatni zamonaviylashtirish edi [1]. Ahmet Baitursynuly bu jarayonda markaziy shaxs bo‘lib, o‘z asarlari va pedagogik ishlari orqali milliy ma’rifatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi.

Jadidchilik harakati Turkistonning ijtimoiy va siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi, shuningdek, u milliy o‘zligini saqlab qolish va ilm-fanni jamiyat hayotiga tatbiq etishda muhim vosita bo‘ldi [2]. Ushbu maqola Ahmet Baitursynuly g‘oyalari va Turkiston jadidchiligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Turkiston jadidchiligi va Ahmet Baitursynuly g‘oyalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ilmiy ishlari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ma’rifatni rivojlantirish, milliy til va madaniyatni saqlash hamda zamonaviy pedagogik tizimlarni joriy etish bilan bog‘liq edi [3].

U xalqni yaxshilikka chaqiradi va jadidchi Ahmad Donish singari oddiy xalqning yorqin kelajakka intilishini uyg‘otishga harakat qiladi. Dönish oilaning magnitlari haqida yozgan asarlarida uning hukmronligi mamlakat tarixidagi eng qorong‘i sahifalardan biri ekanligini va magnitlar podsholigining mohiyati zo‘ravonlik, zulm, jaholat va axloqsizlik ekanligini ta’kidlaydi. Ma’rifatparvar o‘z asarlaridan birida shunday yozadi:

“Amir va uning yaqinlari atrofga barcha o‘g‘rilarni to‘plab, o‘g‘rilik va qon to‘kish bilan shug‘ullanishdi, kambag‘al va faqirlar esa qamoqqa tashlanib, o‘g‘rilar sifatida o‘ldirildi. Aslida, o‘g‘rilarni boshqargan amirlar, sheriklari va ularning xizmatkorlari oddiy xalqni talon-taroj qilib, axloqsizlik bilan shug‘ullanishdi” [4].

A. Baitursynulyning she’ri va A. Dönishning hikoyalarida muhim bir g‘oya mavjud: bu – ma’rifatparvarlik. O‘z zamonasining bu ikki mashhur arbobi, agar odamlar uni ushlab turgan zanjirlardan ozod qilinmasa, unda ular ma’rifatparvarlikni uzoq kutishga majbur bo‘lishlarini tushungan. Shuning uchun ular ma’rifat haqida o‘z g‘oyalarini xalqqa yetkazishga harakat qilishgan.

A. Baitursynulyning “Qirq misol” (Sankt-Peterburg, 1909) kitobi – Krilov ertaklari namunalarida yaratilgan asarlar to‘plami. Krilovning syujetlarini asos qilib olgan holda, A.Baitursynulyning erkin tarjimasi bilan, qo‘shilgan misollar orqali asli o‘zbek ertaklariga o‘xshash, lekin to‘liqroq, milliy hayotdan olingan ertaklarni yaratgan. Ertaklarda qahqaha qilinadigan hazillar va ijtimoiy adolatsizliklar tanqid qilinadi. Shu jumladan, keng tarqalgan misollardan biri – “Oqqo‘l, shortan va chayon”.

Ahmet Baitursynuly – qozoq tilining islohchisi. U arab grafikasiga asoslangan yangi alifboni yaratdi. 1912 yilda boshlangan bu ish rasmiy ravishda 1924 yilda “Yangi imlo” (“Yangi qoida”) sifatida qabul qilindi. A. Baitursynuly “O‘quv qo‘llanmasi” (1912) va “Til qo‘llanmasi” kitoblarini yozdi, ular uch bo‘limdan iborat edi: fonetika, morfologiya, sintaksis. Uning darsliklari nafaqat qozog‘lar, balki butun turkiy tilli olam uchun yangilik bo‘ldi. Keyinchalik u “Bayanshi” (1920), “Til jomsar” (1925) kabi metodik kitoblarni chop etdi. Adabiyotshunoslik bo‘yicha ilk ishlari – “Adabiyot tanitqich” (1926) ham A. Baitursynulyga tegishli [5].

A. Baitursynuly ko‘plab qiziqarli maqolalar yozdi. Odatda bu asarlar sovuq xotirjamlik, yuqori mahorat va akademizm bilan tavsiflanadi. Ularning ko‘pchiligida “Qozoq renishi” nomli jurnalistik asarlari ajralib turadi, ularning baholari va mulohazalari aniq, milliy o‘zini tanqid qilishning qattiq ritorikasi bilan ajralib turadi va janr jihatidan ko‘proq “jon qichqirig‘i” ga yaqin[6].

Biroq, bu holatning dramasi juda ravon ifodalangan va uning olim, til ustasi, fuqarolik va siyosiy shaxs sifatidagi ishonchiga mos keladi - u o‘quvchi auditoriyasiga nisbatan o‘z qarashlarini hozirgi vaqtda ham ifoda etadi.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Ahmet Baitursynuly nafaqat milliy til va madaniyatni rivojlantirishga, balki o‘quv tizimini modernizatsiya qilishga ham katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, uning asarlari pəna-rivojlanish va ilmiy metodologiya jihatdan ham ilmiy jurnallarda va arxiv materiallarida o‘rganilgan [7].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Ahmet Baitursynuly g‘oyalari pəna-pedagogik va ma’rifiy jihatdan zamonaviy o‘quv tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois tadqiqot davomida manbalarni keng qamrab olish va pəna-analitik metodlardan foydalanish zarur.

Ahmet Baitursynuly g‘oyalari asosan quyidagi yo‘nalishlarda shakllangan:

Til va adabiyot:

Ahmet Baitursynuly milliy tilni rivojlantirish va o‘quv materiallarini yaratishga katta e’tibor bergan. “Alippe” va “Til-qurol” asarlari orqali u bolalarga til qoidalarini, o‘qish va yozishni o‘rgatgan [7]. Bu asarlar nafaqat o‘quv jarayonida, balki milliy o‘zlikni saqlashda ham ahamiyatli bo‘lgan.

Pedagogik faoliyat:

U yangi uslubdagi maktablar ochish, o‘quvchilarni ma’rifat va ilm-fanga jalb etish, zamonaviy pedagogik metodlarni tatbiq etish bilan shug‘ullangan [8]. Ahmet

Baitursynuly pedagogik ishlari milliy maktab tizimining asosini yaratishga xizmat qilgan.

Jamiyatni modernizatsiya qilish:

Ahmet Baitursynuly ilm-fan va ma’rifat orqali jamiyatning ma’naviy va madaniy darajasini oshirishga harakat qilgan. U o‘z asarlarida milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy bilimlarni birlashtirishni maqsad qilgan [8].

Asarlar va ularning ahamiyati

№	Asar nomi	Nashr yili	Tavsif	Ta’sir sohası
1	Alippe	1912	Harflar va o‘qish ko‘nikmalarini o‘rgatadi	Boshlang‘ich maktablar
2	Til-qurol	1913	Grammatik qoidalar va til mahoratini rivojlantiradi	Yangi pedagogik tizim
3	Qisqa hikoyalar	1914	Axloqiy va ma’rifiy masalalarni yoritadi	O‘quvchilar va jamiyat

Ushbu jadval ko‘rsatadiki, Ahmet Baitursynuly asarlari milliy tilni o‘rgatishda, pedagogik tizimlarni yaratishda va jamiyatni ma’rifatga yo‘naltirishda katta ahamiyatga ega.

Ahmet Baitursynuly g‘oyalari Turkiston jadidchiligi asosiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq edi. Jadidchilik harakati ilm-fan va ma’rifatni jamiyat hayotiga tatbiq etish, yangi maktablar ochish, dini va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi [9].

Ahmet Baitursynuly boshqa jadidlar bilan muloqot orqali pedagogik va ma’rifiy tajribani almashgan. Masalan, u Mirjaqip Dulatov va boshqa jadidlar bilan hamkorlik qilib, darsliklar va metodik qo‘llanmalar yaratgan [9]. Shu bilan birga, u milliy tilni rivojlantirish va o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish orqali jamiyatni ilmiy va ma’naviy jihatdan o‘stirishga intilgan.

Ahmet Baitursynuly pedagogik faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan:

Maktablar ochish va dars tizimini joriy etish:U zamonaviy maktablar ochib, o‘quvchilarni bilim va madaniyatga yo‘naltirishda yangi metodlarni qo‘llagan. Bu maktablarda nafaqat dini bilim, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan [10].

Darsliklar yaratish:

Ahmet Baitursynuly asarlari – “Alippe”, “Til-qurol” va qisqa hikoyalar – bolalarga o‘qish, yozish va axloqiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan edi. Bu asarlar nafaqat pedagogik, balki ma’naviy ahamiyatga ham ega [10].

Pedagogik tahlil va metodika:

U o‘quv jarayonida yangi pedagogik metodlarni qo‘llagan, jumladan:

-Harflarni o‘rgatishda fonetik yondashuv

-Grammatik qoidalarni misollar orqali tushuntirish

-Axloqiy va ma’rifiy masalalarni qisqa hikoyalar orqali yetkazish

Ahmet Baitursynuly g‘oyalari bugungi kunda ham ilmiy va pedagogik tahlil obyekti sifatida dolzarb ahamiyatga ega. Uning ma’rifatparvarlik va pedagogik faoliyati quyidagi zamonaviy jihatlarda o‘rganilishi mumkin:

1. Milliy ta’lim tizimi va ma’rifat:

Bugungi kunda o‘quv dasturlari va maktablarda milliy til va tarixiy merosni o‘rgatishda Baitursynuly pedagogik yondashuvlari asosiy nazariy manba sifatida ishlatiladi

2. Jadidchilik g‘oyalarini pəna-analitik tadqiq qilish:

Jadidchilikning metodologik va tarixiy konteksti pəna-pedagogik, ijtimoiy va madaniy tahlil usullari bilan o‘rganiladi. Bu Ahmet Baitursynuly asarlari va g‘oyalarini bugungi kun talablari bilan bog‘lash imkonini beradi

3. Milliy va umumjahon meros sifatida:

Ahmet Baitursynuly ijodi nafaqat milliy, balki umumjahon pedagogik meros sifatida ham ahamiyatlidir. Ularning ilmiy tahlili pəna-pedagogika, tarix va madaniyatshunoslik kabi sohalarda pənaara tadqiqotlar uchun asos bo‘ladi.

Ushbu maqolada Ahmet Baitursynuly g‘oyalari va Turkiston jadidchiligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

-Ahmet Baitursynuly pedagogik va ma’rifiy ishlari jamiyatni modernizatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan.

-“Alippe” va “Til-qurol” kabi asarlar milliy tilni rivojlantirish va o‘quv tizimini modernizatsiya qilishda markaziy rol o‘ynagan.

-Uning g‘oyalari bugungi kunda milliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda pənaara manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik tizimda Ahmet Baitursynuly g‘oyalarini qo‘llash, milliy til va madaniyatni saqlash, shuningdek, ilm-fan va ma’rifatni uyg‘unlashtirish orqali maktablar va universitetlarda ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Байтұрсынов А. Шығармалары: өлеңдер, аудармалар, зерттеулер.-Алматы: Жазушы, 1989

2. Байтұрсынов, А. Ақ жол: Өлеңдер мен тәржімелер, мақалалар және әдеби зерттеулер.-Алматы: Жалын, 1991.

3. Байтұрсынұлы, А. Маса: өлеңдер мен көсемсөздер / Байтұрсынулы Ахмет. — Алматы: Раритет, 2005

4. Байтұрсынұлы, А. Бес томдық шығармалар жинағы.-Алматы: Алаш.-(Алаш мұрасы).Т.4: Әліппелер мен мақалалар жинағы.-2006.

5. «Ахмет Байтұрсынұлы оқулары»: А. Байтұрсынұлы тағылымы: тіл, терминология, әдістеме [Текст]: республикалық ғылыми-теориялық конференция материалдары. — Астана: Ш. Шаяхметов атындағы Тілдерді дамытудың республикалық үйлестіру-әдістемелік орталығы, 2010.

6. Әбдиманұлы, Ө. Ахмет Байтұрсынұлы: зерттеу-эссе / Әбдиманұлы Ө. — Алматы: Арда, 2007.

7. Бегалин, К. В составе империи: Детская энциклопедия Казахстана. -Алматы: Аруна, 2009.

8. Байтұрсынұлы, А. Көп томдық шығармалар жинағы. Алматы: Алаш. 5 том: Ер Сайын. 23 жоқтау мақалалар.-2006.

9. Ахмедов Ғ. Алаш «Алаш» болғанда. – Алматы: Жалын, 1996.

10. Кононов А. Байтурсунов Ахмед Байтурсунович // Биобиблиографический словарь отечественных тюркологов (дооктябрьский период). – Москва: Наука, 1974.

MILLAT FIDOYISI MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARINING NASHR ETILISHI VA NASHRLARINING BIBLIOGRAFIYASI

Matmuradova Malika Isayevna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Buyuk ma’rifatparvar alloma, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand shahar, Yominiy mahallasida Sultonxo‘ja mutaxallis Behbudxo‘ja Niyozxo‘ja o‘g‘li oilasida dunyoga keldi. Oiladagi muhit undagi ma’rifat, adabiyot va ijtimoiy hayotga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga imkon tug‘dirdi.

Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu, esa o‘z navbatida, Mahmudxo‘jaga ta’sir o‘tkazmay qolmadi. U bilan jiddiy shug‘ullandi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya”, “Islom huquqiga sharhlar” asarining o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot va tarix qatori, siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini mukammal o‘rganib, islom tarixi va nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullandi. U 1899 yilda hajga borib, u yerdan muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbulda bo‘ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar, so‘zsiz, uning dunyoqarashida burilish yasadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.

Qrim-tatar allomasi Ismoil G‘aspirali (Gasprinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjimon” gazetasi Mahmudxo‘ja Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri bo‘lib yetishida muhim ahamiyat ega bo‘ladi.

Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Rossiyaning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan kadetlar partiyasi va ularning dasturlari ta’siri ham katta bo‘lgan.

1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnaliga asos soladi. U 1914 yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerlardan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida

ishlashga kirishadi. Biroq u turli to‘siqlarga uchrab, “jadidlar rahnomasi” , “dahriy” deb e’lon qilinadi.

Shunga qaramay u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma’rifatparvarlik borasidagi ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay, ma’rifatparvar sifatida xalq hurmatigi sazovar bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham edi.

Behbudiy o‘zbek va fors-tojik tillarida ko‘plab maqola va asarlar yaratgan. Uning 1903 yildan boshlab “Turkiston viloyati gazeti”, “Taraqqiy”, “Hurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so‘z”, “Tarjimon”, “SHo‘ro”, “Vaqt”, “Toza hayot”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Berilgan ma’lumotlari ko‘ra 1903 yildan Behbudiy dastlab “Turkiston viloyatining gazeti” da maqola va tarjimalari bilan ishtirok eta boshlagan. Jumladan 1903 yilda uning “Ilmning foydasi haqida (Samarqanddan maktub)”, “Samarqanddan xat” (Ilmning foydasi haqida), “Samarqanddan xat” (Saylovlar haqida),“Samarqanddan xat (Vazifador kishilar tomonidan saylovni tasdiqlanganliklari haqida), “Bir vafodor zaifa xususida hikoya”, “Samarqanddan xat” (“Samarqand” so‘zi to‘g‘risida) kabi maqolalari nashr etilgan.

Jumladan, “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”,1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy gografiya” 1903), “Kitobat-ul-atfol” (“ Bolalar uchun yozuv kitobi”) 1904), “Muxtasari tarixi islom” (“Qisqacha islom tarixi”,1904), “Amaliyoti islom” (1905), “Risolai jug‘rofiyan Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha jug‘rofiyasi” (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning mazkur gazeta va jurnallarda chop etilgan ilm-ma’rifat, adabiyot-san’at, din va hayotga doir o‘z zamonasining o‘ta dolzarb muammolarini aks ettiruvchi o‘nlab maqolalari yangi avlodning kamol topishida juda katta tarbiyaviy-targ‘ibot vazifasini o‘tadi.

Maktab va maorif, millat madaniyatga oid qarashlari esa asosiy diqqat-markazida bo‘ladi.

U ayni chog‘da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ‘ibotchisi , yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo‘ldi. Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiy buyuk ma’rifatparvar va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o‘rin egallaydi.

Behbudiy adib sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asarining 1913-yili Samarqandda nashr etilgan nusxalari dramasini yaratgan. Bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmli, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan.

Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda-ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gumashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlari asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi Mirmuhsin- Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan.

Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra 1989 yildan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy nomi tiklanib, asarlari qayta chop etila boshlandi.

Dastlab, 1977 yili alomaning “Saylanma”si chop etildi. Uning ayrim asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilgan. Jumladan. M. Behbudiyning “Tanlangan asarlari” i 1997 yilda birinchi nashri, 1999 yilda ikkinchi nashri, 2006 yilda uchinchi nashri “Ma’naviyat” nashriyotida chop etilgan. Shuningdek, 2018 yilda “Tanlangan asarlar” birinchi jildi va ikkinchi jildlari nashr etildi. 2021 yilda “Tanlangan asarlari” ning birinchi va ikkinchi jildlari “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar”ining ushbu birinchi jildiga adib badiiy ijodi namunalari, 1903 - 1918 yillarda e’lon qilingan ijtimoiy-siyosiy maqolalari, nutqlari kiritildi. Shuningdek, adib taklif etgan siyosiy loyihalar, uning mahalliy va “Ul-fat”, “Tarjimon”, “SHo‘ro” kabi xorijiy nashrlarda bosilgan maqolalari, ayrim arxiv materiallari ilk bor ushbu jildda e’lon qilingan[1.-B.310].

XX asr o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiynning “Kitobat ul -atfol” (2022), “Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar”i “Yoshlar matbuoti” (2024) nashriyotida 2000 nusxada chop etilgan. Behbudiyning XX asr boshida Turkiston o‘lka matbuotida va nashrlarida chop etilgan ijodiy faoliyatining to‘liq bibliografiyasi tuzilib, “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar uchun yozuv kitobi”) darsligi, millatning erki va ozodligi, siyosiy va huquqiy madaniyatiga doir “Turk adami markaziyat firqasining nizomnomasi” ilmiy istifodaga olib kirilgan, “Kitobat ul-atfol” ning bugungi ma’rifiy islohotlar jarayoni uchun ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari turli kasb sohalari bilan bir qatorda bibliograflar, kitobshunoslarning ham e’tiborida bo‘lib kelgan. Adib asarlarining bibliografik ro‘yxati, bibliografik qo‘llanmalar hamda yubiley yillari munosabati bilan metodik-bibliografik qo‘llanmalar nashr etilgan.

Masalan, 1995 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiyning 120 yilligi munosabati munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonida **“Ma’rifat kuychisi”** nomli metodik–tavsiyanoma tayyorlanib nashrda chiqarilgan. Ushbu nashrda Behbudiyning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumotlar va uning ijodi haqida kitobxonlar bilan o‘tkaziladigan tadbirlar turkumlar berilgan. Shuningdek, ma’rifatparvarning 8 ta vaqtli matbuotlarda chop etilgan asarlari va uning hayoti va ijodi haqidagi 13 ta asarning ro‘yxati berilgan.

Shuningdek, 2004 yilda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan **“Behbudiy ma’rifatparvar adib**” nomli metodik-bibliografik qo‘llanma tayyorlanib nashrdan chiqarilgan. Metodik-bibliografik qo‘llanmada Behbudiyning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumotlar va uning ijodi haqida kitobxonlar bilan o‘tkaziladigan tadbirlar turkumlar berilgan. Shuningdek, adibning 2 ta alohida nashri , 20 ta vaqtli matbuotlarda va to‘plamlarda chop etilgan asarlari va hamda uning hayoti hamda ijodi haqidagi 20 ta hujjatlarning ro‘yxati berilgan

2008 yilda sotsialogiya fanlari doktori O.A.Umarov mas'ul muharrirligi ostida nashr etilgan **"Turkiston viloyatining gazeti"** ga tuzilgan bibliografik ko'rsatkich (1870–1916 yillar) da Behbudiyning shu gazetda 1903 yildan 1916 yilgacha chop etilgan 70 ta maqolalarining ro'yxati berilgan. Uning asarlari haqida 2 ta manba berilgan[2.B.63].

2012 yilda I.G'aniyev, N.Afoqovalar tomonidan **"Jadidi adabiyoti va adabiyotshunosligi bibliografiyasi"** Toshkentda "Akademnashr" nashriyoti chop etilgan. Bibliografiya 2007–2011 yillarga mo'ljallangan "Jadid adabiyoti-jahon ilg'or adabiyotining sintezi sifatida" mavzuidagi davlat granti loyihasi asosida tayyorlangan. Ushbu bibliografiyada Mahmudxo'ja Behbudiyning 7 ta alohida nashri, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan 37 ta manba, hayoti va faoliyati haqida 71 nomdagi hujjatlar aks ettirilgan [4.B.3].

Hulosa qilib aytganda Mahmudxo'ja Behbudiy qoldirgan boy va rang – barang adabiy, madaniy va ma'rifiy merosi o'z xalqining istiqloliga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беҳбудий, М. Танланган асарлар.Ж.1./ Маҳмудхўжа Беҳбудий; тузувчи Сирожиддин Аҳмад.–Тошкент : Akademnashp, 2021.–312 б.

2. "Туркистон вилоятининг газети" га тузилган библиографик кўрсаткич (1870 -1916 йиллар) / тузувчи Р.Файзуллаев; масъул муҳаррир А.О.Умаров.– Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008.–107 б.

3. Ғаниев, И. Жадид адабиёти ва адабиётшунослиги библиографияси / И. Ғаниев, Н. Афоқова.–Тошкент:Akademnashp,2012.–328 б.

JADIDCHILIK VA IBN XALDUN TAFAKKURIDA MA'NAVIY BIRDAMLIK VA IJTIMOIY UYG'UNLIK

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o'g'li

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Kirish. XX asr boshlarida O'rta Osiyo jamiyati tarixida yuz bergan jadidchilik harakati ma'naviy uyg'onish va milliy o'zlikni anglashning eng muhim bosqichlaridan biriga aylandi. Ushbu harakat vakillari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil Gaspirinskiy, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ziyolilar xalqni ma'rifat va zamonaviy tafakkur sari yetaklashni o'z burchi deb bildilar. Ularning faoliyatidagi jamiyatni isloh qilish g'oyasi Ibn Xaldun (1332–1406)ning "Al-Muqaddimah" asarida nazariy asoslangan ijtimoiy-falsafiy tamoyillar bilan uyg'unlashadi. Ibn Xaldun nazarida jamiyatning qudrati, barqarorligi va madaniy yuksalishi eng avvalo insonlardagi ma'naviy birlik, axloqiy uyg'unlik va ilmga bo'lgan e'tiqod kuchiga tayanadi[1, 384-bet]. Shu boisdan ham u ijtimoiy hayotning asosi sifatida "asabiyya" — ijtimoiy birdamlik konsepsiyasini ilgari surgan edi.

ADABIYOTLAR METADOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy (komparativ) yondashuv hamda ma’naviy-ontologik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Asosiy manbalar sifatida Ibn Xaldunning “Al-Muqaddimah”[1, 384-bet,]., Mahmudxo‘ja Behbudiy (1905) [2], Abdulla Avloniy (2022) [3, 158-bet], Ismoil Gaspirinskiy asarlari[4, 384-bet]. hamda zamonaviy jadidchilik tadqiqotlariga oid monografiyalar (Karimov, 2008; Rasulev, 2020) o‘rganildi[5, 176-bet. 6, 212–bet]. Tadqiqotning maqsadi – jadidlar va Ibn Xaldun tafakkuri o‘rtasida mavjud g‘oyaviy, ma’naviy va metodologik uyg‘unlikni aniqlashdir.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy ongni yangi darajaga ko‘taruvchi ma’naviy harakat edi. Behbudiy o‘z risolalarida xalqni “jaholat zanjiridan ozod bo‘lish”ga da’vat etar ekan, bu ozodlikni siyosiy emas, balki ma’rifiy va ruhiy jarayon sifatida ko‘radi. Bu g‘oya Ibn Xaldunning insonni jamiyatdagi barcha mavjudotlardan ajratadigan asosiy unsur sifatida “ilm va tafakkur”ni belgilaydi; u fikricha, inson ilm orqali o‘z hayoti va jamiyatni o‘zgartirish iqtidoriga egadir degan fikrini eslatadi[7, 400-bet].

Ibn Xaldun jamiyatning yashovchanligini “asabiyya”, ya’ni ijtimoiy birdamlik va o‘zaro hurmatli aloqalarga asoslanishini ta’kidlagan[7, 400-bet]. Jamiyatni mustahkamlaydigan kuch — bu moddiy boylik yoki siyosiy hokimiyat emas, balki insonlarning ma’naviy aloqasi, axloqiy uyg‘unligidir. Jadidlarning amaliy faoliyati ham aynan shu tamoyilga asoslangan edi: yangi maktablar, muassasalar, matbuot tahririyatlarini tashkil etish orqali ular ijtimoiy ruhni uyg‘otdilar, jamiyatni umumiy maqsad atrofida birlashtira oldilar.

Behbudiyning savodxonlik va ma’rifatni millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilishi jadidchilik harakatida ma’naviyatni jamiyat hayotini harakatga keltiruvchi, yashovchan kuch sifatida ko‘rish g‘oyasining yaqqol ifodasi hisoblanadi[8]. Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyani millat taraqqiyotining poydevori deb biladi[1, 384-bet], marifatparvar, axloqni insonning bilim hissiyot va ijtimoiy mas’uliyat birligida shakllanadigan hayotiy mezon sifatida talqin etadi. Bu fikrlar Ibn Xaldunning madaniyat tanazzulga yuz tutganda, odamlar axloqiy zaiflik qurboni bo‘lishi haqidagi fikrlari bilan g‘oyaviy jihatdan mos tushadi.

Jadidlarning faoliyatida asabiyya tamoyili madaniy va ma’rifiy harakat ko‘rinishida gavdalandi — ular bilim, diniy ta’lim, teatr, matbuot orqali xalqni yagona ma’naviy makon doirasida birlashtirishga erishdilar. Bu jarayon Ibn Xaldun nazariyasidagi jamiyatning “ichki ruhiy kuchining yangilanishi” bosqichiga to‘liq mos keladi[1, 384-bet].

Shu bilan bir qatorda, jadidlar milliy uyg‘onish g‘oyasini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirdilar. Ularning “millat taraqqiyoti – insoniyat taraqqiyotining bir bo‘lagi” degan falsafasi Ibn Xaldunning universallik konsepsiyasi — ya’ni har bir sivilizatsiya global madaniyat evolyutsiyasining ajralmas bo‘lagi, degan g‘oyasi bilan hamohanglikda o’zoro aloqadorligini anglatadi[1, 384-bet].

Tadqiqot tahlillari shuni anglatadiki, jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy tafakkurning yangilanishiga, balki O‘zbekiston falsafiy tafakkuri tarixida

yangi paradigmaning shakllanishiga olib keldi. Jadidlar Ibn Xaldun singari insonni tarix sub'ekti sifatida ko‘rdi — ya'ni, inson o‘z jamiyatini, taqdirini o‘zgartirishga qodir ijodkor mavjudot. Shu jihatdan, jadidchilik harakati antropotsentrik xarakterga ega bo‘lib, uning diqqat markazida inson, ilm va ma'naviy islohot masalalari turadi.

Shuningdek, bu harakat Sharq modernizatsiyasi jarayonida alohida fenomen sifatida qaraladi. Agar Ibn Xaldunning "asabiyya" konsepsiyasi nazariy asos bo‘lsa, jadidchilik uni amaliy shaklga aylantirdi: xalq ruhiyatini uyg‘otish, milliy o‘z-o‘zini anglashni tiklash orqali ular ijtimoiy birdamlikni yaratdilar. Ma'naviyat, axloqiy birlik, ilm va ma'rifat qadriyatlari shu tariqa ijtimoiy ongni yangilovchi ideallar sifatida amalga oshdi.

Bugun jadidlarning bu g‘oyalari zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy hayotida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Yangi O‘zbekiston davrida ma'naviy yuksalish, ta'lim islohotlari, milliy qadriyat va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligini tiklash g‘oyalari aynan jadidchilik merosi bilan uzviy aloqada. Shunday qilib, jadidchilik va Ibn Xaldun do‘stona uyg‘un falsafiy makon yaratgan ikkita tarixiy tafakkur oqimi sifatida baholanish o‘rinli sanaladi. Olib borilgan tadqiqotlarning tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasining asosiy elementi bo‘lgan asabiyya – ijtimoiy birdamlik tamoyili jadidchilik harakatida ma'naviy uyg‘onish g‘oyasi sifatida amaliy tarzda ro‘yobga chiqqan.
2. Jadidchilik milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilgan holda O‘zbekiston ijtimoiy tafakkurining yangi bosqichini boshlab bergan.
3. Har ikkala ta'limotda inson markaziy o‘rinda turadi — jamiyatning ichki kuchi, axloqiy yuksalishi va ilmiy salohiyati uning barqaror rivojining negizidir.
4. Jadidchilik harakati Ibn Xaldunning g‘oyalarini amalda tasdiqlagan tarixiy-falsafiy hodisa bo‘lib, u bugungi ma'naviy siyosat va jamiyat islohotlari uchun ham aktual nazariy asosdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ибн Халдун. Муқаддима. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Сардорхон Жаҳонгир. лойиҳа раҳбари: Муҳаммад Бобур. — Тошкент: "Factor-press" нашриёти, 2025. — 1-том. — 384 б.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. "Risolai jug‘rofiyai umroniy" (1905). https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mahmudxo-ja-behbudiy-1875-1919
3. Avloniy Abdulla. ***Jadidlar*** **/** loyiha rahbari: Alisher Sadullayev. — Toshkent: "Yoshlar" nashriyot uyi, 2022. — 158 b.
4. Зайнабидин абдирашидов. исмаил гаспринский и туркестан в начале xx века: связи – отношения – влияние. Ташкент «Akademnashr» 2011. - 384 b.
5. Каримов Ислом Абдуғаниевич. Юксак маънавият – енгилмас куч. — Тошкент: "Маънавият", 2008. — 176 б.
6. Расулев Ҳуснитдин. Жадидлик ва ислом ма'рифат фалсафаси. — Тошкент: "Фан" нашриёти, 2020. — 212 б.

7. Ибн Халдун, Абдураҳмон ибн Муҳаммад. Муқаддима. — Тошкент: “Trust and Support” нашриёти, 2024. — 400 б.
8. https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiyning-kitobat-ul-atfol-asarining-tarkibiy-tuzilishi/viewer

JADID MA’RIFATPARVARLARI MEROSI ASOSIDA MAKTAB O‘QITUVCHILARINING TARIXIY MANBALARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Sadullayev Shamshod Hojiqurbonovich

Buxoro davlat pedagogika instittuti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maktab tarix ta’limida o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va manbalarni tahlil qilish malakalarini rivojlantirish bevosita o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyasiga bog‘liq.

Mazkur jarayonda milliy pedagogik meros, xususan, jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim haqidagi qarashlari muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar o‘z davrida tarixiy bilimlarni mustaqil fikrlash, dalillarga tayanish va manbalarni anglash orqali egallash g‘oyasini ilgari surganlar.

Jadid ma’rifatparvarlari pedagogik merosining mazmuni

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlari (Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar) ta’limni isloh qilish, maktablarda fanlarni zamonaviy asosda o‘qitish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Jadid pedagogik qarashlarida tarix fanini o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslangan.

tarixiy voqealarni dalillar asosida tushuntirish bu - tarixiy hodisa va jarayonlarni taxmin, umumiy fikr yoki tayyor xulosalar asosida emas, balki aniq tarixiy manbalar, hujjatlar, faktlar va ishonchli dalillarga tayangan holda tahlil qilish va izohlash jarayonidir.

yozma manbalar va hujjatlar bilan ishlashga o‘rgatish bu - o‘qituvchining yoki o‘quvchining tarixiy, ilmiy yoki pedagogik faoliyatda yozma manbalarni (kitoblar, maqolalar, xronikalar, maktublar va boshqa hujjatlarni) to‘g‘ri aniqlash, o‘qish, tahlil qilish, taqqoslash va ulardan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir.

tarixiy tafakkur va milliy ongni shakllantirish bu - o‘quvchilarda yoki shaxsda tarixiy hodisalarni tahlil qilish, sabab–oqibat aloqalarini anglash, voqealarni keng kontekstda baholash va ularning milliy tarixiy meros bilan bog‘liqligini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir.

o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bu - o‘quvchilarda muammolarni mustaqil tahlil qilish, turli fikrlarni solishtirish, o‘z qarorini asoslash va ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir.

Ushbu yondashuvlar bugungi kunda tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuni quyidagicha ko‘rish mumkin. Tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasi o‘qituvchining tarixiy hujjatlar, yozma va moddiy manbalarni anglash, tahlil qilish, solishtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat. Tarixiy manbalar turlari va xususiyatlarini bilish, manbani tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasi, tarixiy voqea va hodisalarni manbalar asosida talqin qilish, manbalar orqali tarixiy xulosalar chiqarish.

Jadidlar merosida ushbu kompetensiyaning dastlabki ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘lib, ular tarixiy bilimlarni tayyor axborot sifatida emas, balki izlanish va tahlil jarayoni sifatida o‘rganishni targ‘ib etganlar.

Jadidlar merosi asosida o‘qituvchilarning manba tahlili kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari

Maktab o‘qituvchilarida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishda jadid pedagogik merosidan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin. Jadid asarlarini tarixiy manba sifatida tahlil qilishga o‘rgatish. Jadidlarning tarixiy-pedagogik qarashlarini dars jarayoniga integratsiya qilish. Tarix darslarida muammoli savollar va manba asosida ishlash usullarini qo‘llash.

Mustaqil va ijodiy topshiriqlar orqali o‘qituvchilarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish. Bu yondashuvlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bilan birga, tarixiy tafakkurga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifatparvarlari pedagogik merosi maktab o‘qituvchilarining tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy va metodik asos hisoblanadi. Jadidlarning ta’limga oid ilg‘or qarashlarini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish tarix ta’limining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 112 b.

2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 240 b.

3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000. – 320 b.

4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Pedagogik qarashlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 180 b.

5. Karimov N. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.

6. Saidov A. Tarix ta’limida manbalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 192 b.

7. Krayevskiy V.V. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001. – 240 b.

8. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Prosveshcheniye, 1982. – 192 b.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TADBIRKORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARI

Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi

Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Navoiy davlat universitet tayanch doktoranti

O‘zbek jamiyatining ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ta’limiy taraqqiyotida jadid ma’rifatparvarlari alohida o‘rin tutadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat madaniy-ma’rifiy islohotlarni, balki ta’limiy va iqtisodiy yangilanishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Jadidlar xalqni jaholat va qoloqlikdan qutqarishning asosiy yo‘li sifatida ta’lim-tarbiyani, zamonaviy bilimlarni, kasb-hunar egallashni va tadbirkorlikni rivojlantirishni ko‘rdilar.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans barpo etish jarayonida bu g‘oyalar yana dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu rivojlanishni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday sharhlaydi: “O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz”.[1]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy uyg‘onish jarayonini boshlab berdi. Bu jarayonda jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, zamonaviy ta’lim va iqtisodiy mustaqillikni ilgari surdilar. Ular nafaqat yangi usul maktablarini tashkil etish, balki yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va tadbirkor ruhda tarbiyalash zarurligini ta’kidladilar.

Jadidlar ta’lim mazmunini yangilash orqali yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga yo‘naltirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qodir kadrlarni tayyorlashni maqsad qilganlar. Ular maktab dasturlariga hisob, geografiya, tabiiyot, tijorat asoslari kabi fanlarni kiritish orqali amaliy bilimlarni rivojlantirishga e’tibor qaratganlar. Shu bois jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosi bugungi kunda tadbirkorlik ta’limini takomillashtirishda muhim ilmiy-manba bo‘lib xizmat qiladi.

Yirik jadid namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat o‘zining “Hind sayyohi bayonoti” asarida o‘lka ahlining tadbirkorlik madaniyati va uning darajasi to‘g’risida “Bu o‘lkaning tijorati madaniyatli, rivojlangan mamlakatlar tijorati kabi taraqqiy etmagan bo‘lsada, ammo hanuz umuman aholining qo‘lidan chiqmagan.

Agar isloh qilsalar, Buxoro ahli juda katta davlat va boylik egasi bo‘lishlari mumkin.”[2] deya fikrini bildirib o‘lka aholisi tijoratni to‘laligicha qo‘ldan boy bermaganligini, faqat, ularda rivojlangan davlatdagi kabi iqtisodiy va tadbirkorlik ilmi va madaniyati yetishmasligini ta’kidlaydi. Mamlakatning bunday holatdan chiqishning yo‘li sifatida yoshlarga zamonaviy savdo ilmini berish, ta’lim va iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishda deb biladi. Fitrat davlatning rivojlangan Yevropa davlati qatoriga kirishining yo‘lini ilmda ekanligini, jadidchilik mafkurasining asosiy g’oyasi ilm orqali milliy va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning asosiy tamoyili sifatida “Har bir millat taraqqiysi uchun asosiy sabab ilmdur….. Bir johil kishining ilm olishi uchun uch narsa lozim kelur: pul, madrasa, sa’y-amal.”[3] deya e’tirof etadi. Aynan ushbu fikrlar o‘quvchilarda zamonaviy tadbirkorlikning iqtisodiy bilim, innovatsion fikrlash, boshqaruv madaniyati kabi ko‘nikmalarini shakllantirishda bilim va kompetensiyalar birlamchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Fitrat har qanday sohani yetuk mutaxassisi bo‘lishda dastlabki omil sifatida pul deb biladi. Bu zamonaviy tadbirkorlik ilmida dastlabki kapital, mablag’ni tejash, daromadni va kelajakni to‘g’ri tahlil qilish ko‘nikmasi hisoblanib bu uchun o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlik, harajatlarni to‘g’ri taqsimlash kabi bilimlar shakllantirilishi zarurligini anglatadi. Ma’rifatparvar pedagog ilm olish uchun ikkinchi asosiy shart ta’lim muhiti deb e’tirof etadi. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirishning asosiy ta’lim muhiti ta’lim tizimidagi maktab, kasb-hunar maktablari, oliy ta’lim va barcha ta’lim dargohlari hisoblanadi. Fitraning fikricha har qanday bilim asosan qulay va innovatsion ta’lim muhitda tasodofiy emas aksincha tizimli va izchil egallanadi. Uchinchi muhim omil sifatida o‘quvchining shaxs omili ya’ni tirishqoqligi, tashabbuskorlgi va faolligini ta’kidlagan. O‘quvchida moddiy resurs sifatida dastlabki mablag’ bor, tadbirkrolik va iqtisodiy bilimlarni egallagan bo‘lishi bilan bir qatorda o‘zda qat’iyatlilik, tavakkalchilikka tayyorlik, raqobatbardoshlilik, sabrlilik kabi xususiyatlarini shakllantirishi lozim.

Abdurauf Fitrat savdo-sotiq, tadbirkorlikning o‘ziga xos madaniyati , talablari va ularga amal qilish to‘g’risida “Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir . Dunyo xalqlaridan birortasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e’tibor berishga arziydi”[4] deb ta’kidlaydi. Bu tijorat masalasi jamiyat tarqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil ekanligini anglatadi va bu qarash o‘quvchilarda tadbirkorlik to‘g’risida iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lishlari lozimligini bildiradi. Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivoji tadbirkorliksiz bo‘lmasligi va tadbirkorlikning dunyoviy fikrlash, yangilikga intiluvchanlik, resurslardan samarali foydalanish kabi kompetensiyalarini o‘quvchilarda shakllantirish asosiy shart sifatida ko‘riladi.

Atoqli ma’rifatparvar jadid namoyondosi Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud-axloq” asarida “Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o‘z millatiga xizmat qilmak, xalqg’a maqbul bo‘lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatning hol va qudratlari mol va boyliqlari ila o‘lchanur. Har yerda boy millatlar og’ir kelib, pallani bosub xo‘ja o‘lganidek, faqirlari yengil kelub, qul va asir bo‘lub, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakotli yo‘llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda ilm lozimdur…” [5] so’zlari orqali zamonaviy taraqqiyot, milliy rivojlanish va xalq

farovonligi uchun ilm-fan hamda moliyaviy mustaqillikning naqadar muhimligini uqtirgan. Xususan, bu borada yuqorida Abdulla Avloniy qayd etganidek, bugungi kunda insonning yuksak maqsadga erishishi, el-yurtiga foydali bo‘lishi va jamiyatda hurmat topishi uchun ikki asosiy omil zarur: ilm va mol (ya'ni boylik, iqtisodiy imkoniyat). Bu fikr - zamonaviy dunyodagi muvaffaqiyatning kaliti bo‘lgan bilim va iqtisodiy mustaqillikni ta’kidlaydi. Dunyoda biror millatning qudrati - ularning ilmiy yutuqlari, boyliklari, ishlab chiqarish kuchi va iqtisodiy mustahkamligiga bog‘liq. Abdulla Avloniy ushbu so‘zlarida moddiy imkoniyatlarning milliy obro‘ va kuchdagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Avloniy o’z fikrlarida, ilmli va boy millatni, ilmsiz va qashshoq millatdan farqlar ekan, boy, taraqqiy etgan davlatlar doim “og‘ir keladi”, ya’ni ularning so‘zi o‘tadi, siyosiy va iqtisodiy ustunlik ularda bo‘ladi. Aksincha, qashshoq va ilmsiz xalq “yengil keladi” - ular boshqalarning ta’siriga tushib qoladi, mustaqilligini yo‘qotadi, "qul" holiga tushib qolishi ayni haqiqat ekanligiga urg’u beradi. Agar millat rivoji uchun har qanday mehnat - zamonaviy bilim bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, samarasiz bo‘ladi. Shuning uchun ilm - bu faqat kitob emas, balki kasbga oid bilim, texnologik yangiliklar, zamonaviy uslublar, boshqaruv va marketingni ham o‘z ichiga oladi. Bu so‘zlar xalqni uyg‘otishga, ilm olishga, hunar o‘rganishga va iqtisodiy mustaqillikka chaqiradi. A.Avloniy shunchaki boylikni emas, halol mehnat bilan topilgan boylik va zamonaviy ilm orqali taraqqiyot sari intilishni targ‘ib qilmoqda. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan — balki yanada dolzarb bo‘lgan.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarni (usuli jadid) ochish orqali ta’lim tizimiga amaliy fanlarni, jumladan, iqtisodiyot, savdo, geometrik hisob-kitob kabi sohalarni kiritdilar. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularga kichik biznes yuritish, o‘z mahsulotini hisob-kitob qilish, foyda va zarar tahlilini o‘rganish imkonini yaratgan. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: “Tarbiyada ikki tomon bo‘lur: biri axloqiy, biri amaliy. Farzandlarimizga axloq bilan birga kasb va hunar ham o‘rgatilsa, ular hech qachon xor bo‘lmas.” [6] Bu so‘zlar bizga tarbiyaning ikki muhim yo‘nalishini ko‘rsatadi: axloqiy va amaliy tarbiya. Axloqiy tarbiya - bu insonning to‘g‘ri, halol, odobli bo‘lib voyaga yetishini ta'minlaydi. Amaliy tarbiya esa - unga kasb-hunar, mehnat qilish, o‘ziga to‘q bo‘lish yo‘lini o‘rgatadi. Jadidlarning yangi usuldagi maktablar orqali ta’limga amaliy fanlarni joriy etgani — yosh avlodni faqat bilimli emas, balki hayotda mustaqil yashashga qodir, kasb-hunarli, tadbirkor shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy va amaliy tarbiyaning uyg‘unligi insonning to‘laqonli shakllanishini ta’minlaydi. Bugungi kunda ham bu ikki tomonlama tarbiya — halollik va kasb egallash — yoshlarga mustahkam hayotiy poydevor yaratib, ularni kelajakda o‘z yo‘lini topadigan, jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda, ayniqsa yoshlarimiz uchun, aynan shu ikki tomonlama tarbiya juda muhim. Chunki halol, axloqli bo‘lgan, ustiga-ustak biror hunar yoki kasb egasi bo‘lgan yosh hech qachon boshqalarga muhtoj bo‘lib qolmaydi. U har qanday sharoitda o‘z yo‘lini topadi, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yadi, tadbirkor bo‘lish sari dadil qadam tashlaydi.

Jadid ma’rifatparvarlarining tadbirkorlikni shakllantirishga doir pedagogik qarashlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular quyidagi asosiy tamoyillarga tayanganlar:

Birinchidan, ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi. Jadid maktablarida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Bu yondashuv yoshlarni real iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan.

Ikkinchidan, iqtisodiy savodxonlikni oshirish. Savdo-sotiq, hisob-kitob, tejamkorlik, mablag‘ni boshqarish kabi tushunchalar yoshlar ongiga singdirilgan. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining muhim asosi hisoblanadi.

Uchinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. Jadidlar tadbirkorlikni axloqiy me’yorlar bilan uyg‘un holda ko‘rganlar. Halollik, mas’uliyat, vatanparvarlik va jamoatchilik manfaatini ustuvor qo‘yish tadbirkor shaxsining ajralmas sifati sifatida talqin etilgan.

To‘rtinchidan, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish. Jadid pedagogikasida shaxsni erkin fikrlashga, yangilikka intilishga va muammolarni mustaqil hal etishga o‘rgatish muhim vazifa bo‘lgan. Bu esa innovatsion tadbirkorlikning psixologik asosini tashkil etadi.

Beshinchidan, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘zlashtirish. Jadidlar xorijiy tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish tarafdori bo‘lganlar. Bu global iqtisodiy jarayonlarda raqobatbardosh bo‘lishning muhim omili hisoblanadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitidamalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari bilan hamohangdir. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, yoshlarni biznes faoliyatiga jalb etish kabi yo‘nalishlar jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning zamonaviy talqinidir.

Shuningdek, jadidlar ta’lim orqali iqtisodiy tafakkurni shakllantirishni milliy uyg‘onishning asosiy sharti deb bilganlar. Ular uchun tadbirkorlik – bu shunchaki moddiy boylik orttirish vositasi emas, balki millatni qoloqlikdan olib chiqish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va mustaqil taraqqiyot yo‘lini barpo etish omili edi. Shu jihatdan ularning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlarning ma’rifiy faoliyati:g’oyalari, maqsadlari,vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo’shgan hissasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga tabrigi /https://daryo.uz/2023/03/06/

2. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma‟naviyat 2000. –B.-110.

3. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma‟naviyat 2000. –B.-117.

4. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma‟naviyat 2000. –B.-167.

5. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, – B.35.
6. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, – B.31.

TURKISTON JADIDLARINING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI (OILAVIY MUNOSABATLAR MISOLIDA)

Sharipov Dilshod Baxshilloyevich,
BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Hamroyeva Ruxsora Shavqiddin qizi,
BuxDPI, 1-bosqich magistranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va ijtimoiy modernizatsiya jarayonining muhim bosqichini tashkil etdi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma’rifatni e’tirof etib, islohotlarni, avvalo, inson ongini yangilashdan boshlash zarurligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, jamiyatni o‘zgartirishning eng samarali yo‘li – oilani isloh qilish, chunki oila shaxs kamoloti, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ong shakllanadigan birlamchi makondir.

Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari oilaviy munosabatlar, nikoh madaniyati, ayollar ta’limi hamda farzand tarbiyasi masalalarida o‘ziga xos konseptual yondashuvni yuzaga keltirdi. Ushbu maqolada jadidlarning oila haqidagi qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari ochib beriladi.

Jadidchilik – musulmon jamiyatini yangilash, zamonaviy bilimlarni joriy etish va milliy taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan islohotchilik harakatidir. Uning g‘oyaviy ildizlari Qrim va Volgabo‘yi mintaqasidagi ma’rifiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa Ismoil G‘aspirali faoliyati orqali Turkistonga kirib kelgan. “Usul-i jadid” maktablari tashkil etilishi natijasida ta’lim tizimida yangicha metodlar joriy qilindi.[1]

Turkistonda bu harakatning yetakchi namoyandalari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Ular jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, ma’naviyat va ijtimoiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq holda talqin etdilar.

Jadidlar nazarida ma’rifat nafaqat maktab va madrasa islohoti, balki oilaviy hayot madaniyatini ham qamrab olishi lozim edi. Chunki ular oilani “kichik jamiyat” sifatida ko‘rib, undagi muammolar butun millat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglagan edilar.

Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik konsepsiyasida oila masalasi alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jadidlar jamiyatni isloh qilishni siyosiy tuzumni o‘zgartirishdan emas, balki inson tafakkurini yangilashdan boshlash zarurligini ta’kidladilar. Inson tafakkuri esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shu bois ular oilani ijtimoiy taraqqiyotning boshlang‘ich nuqtasi, ma’naviy maktab va axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi muhim institut sifatida talqin etdilar.

Jadidlar nazarida oila shaxs kamolotining tabiiy muhiti bo‘lib, unda bola ilk bor ijtimoiy munosabatlar tajribasini o‘zlashtiradi. Abdulla Avloniy tarbiya masalasini millat istiqboli bilan bevosita bog‘lab, “tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, - deya ta’kidlaydi. Ushbu g‘oya oiladagi ma’naviy muhitning naqadar muhimligini anglatadi.[2]

Jadidlar oilaviy munosabatlarni shunchaki shaxsiy hayot doirasi sifatida emas, balki ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyati shakllanadigan makon sifatida baholadilar. Ota-onaning o‘zaro hurmati, muomala madaniyati va farzand oldidagi mas’uliyati kelajak avlodning axloqiy qiyofasini belgilovchi omil sifatida talqin qilindi. Ular bolaga nisbatan zo‘ravonlik, kamsitish yoki mutlaq bo‘ysundirish usullarini tanqid qilib, ongli va mehrga asoslangan tarbiya usulini ilgari surdilar.

Jadidchilik harakatida ayolning o‘rni masalasi muhim o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy hamda Munavvarqori Abdurashidxonov ayollar savodxonligini oshirishni jamiyat taraqqiyotining ajralmas sharti deb bildilar. Ularning fikricha, ma’rifatli ona – ma’rifatli millat poydevoridir.[3]

Jadidlar ayolni faqat oilaviy doira bilan cheklash g‘oyasiga qarshi chiqib, uni jamiyatning faol a’zosi sifatida ko‘rdilar. Bu yondashuv Sharq an’analarini inkor etmagan holda, ularni yangicha talqin qilishga qaratilgan edi. Ayolning savodli bo‘lishi farzand tarbiyasida ilmiy yondashuvni kuchaytiradi, oilada sog‘lom muhit shakllantiradi va nikoh munosabatlarida o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Nikoh masalasida jadidlar majburiy turmush, erta nikoh va iqtisodiy manfaatga asoslangan oila qurish amaliyotlarini tanqid qildilar. Ular nikohni ikki shaxsning ongli roziligi va ma’naviy yetukligiga asoslangan ijtimoiy kelishuv sifatida talqin etdilar. Bu qarash o‘sha davr ijtimoiy sharoitida progressiv yondashuv bo‘lib, oilaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan edi.

Jadidlar oiladagi tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash zarurligini alohida qayd etdilar. Ismoil G‘aspirali ilgari surgan “til, fikr va ish birligi” tamoyili oilaviy hayotga ham tatbiq etildi. Ya’ni, oila a’zolari o‘rtasida hamjihatlik, maqsad birligi va o‘zaro ishonch bo‘lishi zarur deb hisoblandi.[4]

Jadidlar diniy-axloqiy qadriyatlarni saqlagan holda, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan boyitishni taklif etdilar. Ularning fikricha, farzand tarbiyasida nafaqat diniy bilimlar, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolada keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi.

Shuningdek, jadidlar oilada iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, mehnatsevarlik va tejamkorlikni tarbiyalash zarurligini ta’kidladilar. Ular halol mehnat va ma’rifatni oilaviy farovonlikning asosiy omili sifatida ko‘rdilar. Jadidlar oilaning iqtisodiy barqarorligi ham ma’naviy sog‘lomlik bilan uzviy bog‘liq ekanini qayd etdilar. Halol mehnat, tejamkorlik va ma’rifatli boshqaruv oilaning mustahkamligini ta’minlovchi omillar sifatida ko‘rsatildi.[5]

Jadidlar konsepsiyasida oilaviy islohotlar keng ko‘lamli ijtimoiy modernizatsiyaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Oila mustahkam bo‘lmasa, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas, degan g‘oya

ilgari surildi. Shu bois ular maktab islohoti bilan bir qatorda, oilaviy munosabatlarni ham ma’naviy jihatdan yangilash zarurligini uqtirdilar.

Oiladagi sog‘lom muhit fuqarolik ongining shakllanishiga, jamiyatda ijtimoiy adolat va mas’uliyat tuyg‘usining qaror topishiga xizmat qiladi. Jadidlarning bu qarashlari o‘sha davrda milliy uyg‘onish jarayonining muhim nazariy asosiga aylandi.

Umuman olganda, jadidlarning oilaviy munosabatlarga doir ma’rifatparvarlik g‘oyalari shaxs kamoloti, ijtimoiy ong va milliy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritib berdi. Ularning konsepsiyasi bugungi kunda ham oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va mas’uliyatni ustuvor qadriyat sifatida talqin etdilar. Ular patriarxal munosabatlarning ayrim salbiy jihatlarini tanqid qilib, oila a’zolari o‘rtasida ma’naviy tenglik va hamkorlik g‘oyasini ilgari surdilar. Bu yondashuv Sharq an’analarini inkor etmagan holda, ularni zamonaviy talablarga mos ravishda talqin qilishga qaratilgan edi.

Jadidlar ma’rifatparvarlik konsepsiyasida ayollar ta’limiga alohida e’tibor berdilar. Ularning fikricha, onaning savodli va ziyoli bo‘lishi jamiyat kelajagini belgilovchi asosiy omildir. Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollarni o‘qitish masalasini ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘lab, ularning jamiyat hayotidagi faolligini qo‘llab-quvvatladi.[6]

Nikoh masalasida jadidlar majburiylik va erta turmush amaliyotlarini tanqid qildilar. Ular nikohni ikki tomonning ongli roziligi, ma’naviy yetukligi va mas’uliyati asosida qurilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida talqin etdilar. Bu qarash o‘sha davr uchun progressiv va yangicha yondashuv edi.

Jadidlar, shuningdek, ko‘p xotinlilik, savodsizlik va ayollarning ijtimoiy cheklanishi kabi holatlarni jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida baholadilar. Ularning maqsadi oilani ma’naviy va huquqiy jihatdan mustahkamlash orqali milliy yuksalishga erishish edi.

Oilada bolaga mustaqil fikrlash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilandi. Jadidlar nazarida tarbiya jarayoni milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida olib borilishi lozim edi.[7]

Bu yondashuv natijasida oilaviy tarbiya konsepsiyasi nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirish vositasiga aylandi. Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari oilaviy munosabatlar talqinida chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Ular oilani jamiyatning tayanch instituti sifatida ko‘rib, undagi islohotlarni milliy taraqqiyotning asosiy sharti deb bildilar. Ayollar ta’limi, ongli nikoh, ma’naviy tenglik va zamonaviy pedagogik yondashuvlar jadidlar konsepsiyasining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etdi.

Shu bois jadidlarning oilaga doir qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ular ilgari surgan ma’rifat, axloq va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari zamonaviy jamiyatni barqaror rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik**.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 192.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 88.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar**.** – Toshkent: Fan, 2003. – B. 211.
4. Ismoil G‘aspirali. Tanlangan asarlar**.** – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 123.
5. Naim Karimov. Jadidchilik va milliy uyg‘onish harakati**.** – Toshkent: Akademnashr, 2008. – B. 57.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar**.** – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 218.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O‘zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida)**.** – Toshkent: Fan, 2014. – B. 33.

XORAZM JADIDLARINING PEDAGOGIK MEROSI ASOSIDA TALABALARDA BADIIY-KREATIVLIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Umorova Dilnoza Odilbekovna,

UrDPI tayanch doktoranti

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifiy islohot va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonining muhim bosqichi sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’limni ko‘rib, uni yangicha mazmun va metodlar asosida tashkil etishga intildilar. Xususan, Xorazm jadidlari pedagogik faoliyatida shaxsning intellektual va ma’naviy kamolotini ta’minlash, mustaqil fikrlashni shakllantirish, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki kreativ salohiyatini rivojlantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy ta’lim modeli shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, yangicha fikrlashi va muammolarga innovatsion yondasha olishini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Shu jihatdan, tarixiy-pedagogik merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xorazm jadidlarining pedagogik merosi o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan konseptual tizimni ifodalaydi. Ularning ta’limga oid qarashlarida milliy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, dunyoviy fanlarga ochiqlik va ijodiy tafakkurni qo‘llab-quvvatlash tamoyillari uyg‘unlashgan. Mazkur tamoyillar zamonaviy badiiy-kreativ kompetensiyani shakllantirish

jarayonida metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi — Xorazm jadidlarining pedagogik merosi asosida talabalarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini aniqlash va ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi tarixiy-ma’rifiy merosni innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot Xorazm jadidlarining pedagogik merosini zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratildi. Metodologik asos sifatida tarixiylik, tizimlilik va fanlararo yondashuv tamoyillari tanlandi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Jadidchilik harakati va uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari tarix, falsafa hamda pedagogika fanlari doirasida keng o‘rganilgan. Tadqiqotchilar jadidlarni Turkistonda milliy uyg‘onish va ta’lim islohoti jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydilar. Ilmiy adabiyotlarda jadid maktablarining tashkil etilishi, yangi usul ta’lim tizimi, o‘quv dasturlarining mazmuni hamda ma’rifiy faoliyatining ijtimoiy ahamiyati atroflicha tahlil qilingan[1].

Xorazm jadidchiligi masalasi ham alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilib, unda hududiy xususiyatlar, ma’rifatparvarlik harakatining tashkiliy jihatlari hamda pedagogik qarashlarning shakllanish bosqichlari yoritilgan[2]. Mazkur tadqiqotlarda jadidlarning ta’limga yangicha yondashuvi, dunyoviy fanlarni joriy etish va shaxsni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish tamoyillari alohida ta’kidlanadi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida esa kompetensiyaviy yondashuv va kreativlikni rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Ilmiy manbalarda kreativ kompetensiya shaxsning innovatsion fikrlashi, muammolarga yangicha yechim topish qobiliyati va estetik tafakkurini o‘z ichiga oluvchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi [3]. Shuningdek, ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya, muammoli ta’lim va loyiha metodlarining kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan [4]. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm jadidlarining pedagogik merosi asosida talabalarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari kompleks tarzda yetarlicha o‘rganilmagan. Ayniqsa, tarixiy-ma’rifiy merosni zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim modeli bilan integratsiya qilish masalasi maxsus tadqiqotni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, jadidlar pedagogik g‘oyalarini zamonaviy ta’lim amaliyotiga metodik jihatdan tatbiq etish imkoniyatlarini asoslab beradi.

MUHOKAMA. Xorazm jadidchiligi pedagogik merosi umumturkiston jadidchilik g‘oyalarining hududiy talqini bo‘libgina qolmay, ta’limni modernizatsiya qilishning aniq institutsional va ma’naviy mexanizmlarini ham ishlab chiqqan tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tajribaning ilmiy qiymati shundaki, unda ta’lim madaniy-ma’naviy uyg‘onish (milliy ong), institutsional islohot (maktab tizimi) hamda shaxs rivoji (mustaqil fikr va estetik tarbiya) kabi uch yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida ko‘riladi.

Birinchi yo‘nalish – ma’rifiy muhitni yaratish. Muhammad Rahimxon II Feruz davridagi ilm-fan va adabiyotga e’tibor (homiylik, ma’rifiy muhitni qo‘llab-quvvatlash) Xorazmda pedagogik yangilanish uchun ijtimoiy-madaniy zamin yaratgan omil sifatida talqin qilinadi[1]. Bu “zamin” bevosita o‘quv dasturi yoki metodikaga aylanmagan bo‘lishi mumkin, ammo ta’lim islohotining eng muhim sharti – ma’rifatga ijtimoiy ehtiyojni shakllantiradi. Shu sababli Feruz faoliyati kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan motivatsion komponent (o‘qishga, ilmga, estetik qadriyatlarga intilish)ni kuchaytiruvchi tarixiy omil sifatida izohlanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – institutsional islohot va yangi usul ta’limining joriy etilishi. Islomxo‘ja tashabbuslari (yangi usul maktablari, modern ta’limga intilish, tashkiliy islohotlar) Xorazmda ta’limni “g‘oya”dan “tizim”ga aylantirgan bosqich sifatida baholanadi[2]. Bu yerda jadidchilikning pedagogik mohiyati yanada ravshan: ta’lim mazmunini kengaytirish, dunyoviy bilimlarni kiritish, o‘qitishning samaradorligini oshirish – bularning barchasi badiiy-kreativ kompetensiyaning kognitiv komponenti (bilimlar bazasi, dunyoqarash, tahliliy fikr) uchun zarur shartlarni yaratadi.

Uchinchi yo‘nalish – milliy ong va mustaqil fikrni tarbiyalash. Bobooxun Salimov va Bekjon Rahmon faoliyatida ma’rifatning jamiyatdagi vazifasi aniq qo‘yiladi: o‘quvchida milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat va mustaqil fikrni shakllantirish[3]. Bu nuqtada “badiiy-kreativ kompetensiya”ning asosiy mexanizmi ishga tushadi: obrazli tafakkur + tanqidiy tahlil + qadriyatga tayangan fikr. Ya’ni kreativlik faqat “yangi g‘oya” emas, balki milliy-ma’naviy mazmunni zamonaviy shaklda ifodalash qobiliyatidir.

To‘rtinchi yo‘nalish – ta’limni ijtimoiy yangilanish vositasi sifatida ko‘rish. Otajon Abdolov ta’limni bevosita jamiyatni yangilash, fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy ongni rivojlantirish bilan bog‘laydi[4]. Bu yondashuv kompetensiyaning faoliyatga yo‘naltirilgan komponenti bilan mos keladi: talaba nafaqat biladi va tushunadi, balki ijodiy faoliyat orqali natija beradi (matn yozish, loyiha, chiqish, targ‘ibot, sahna ko‘rinishi, ijtimoiy tashabbus va h.k.).

Muhokama natijasida shunday xulosaga kelinadi: Xorazm jadidlarining pedagogik merosi badiiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishda uchta tayanch mexanizmni beradi:

ma’rifiy-madaniy legitimlik (ta’limga qadriyat sifatida qarash) – motivatsion baza;

institutsional modernizatsiya (yangi usul, dunyoviy fanlar, tashkiliy islohot) – kognitiv baza;


ijodiy-ijtimoiy faollik (milliy ong, mustaqil fikr, jamiyatga xizmat) – faoliyat bazasi.


Shu sababli, jadid merosini zamonaviy ta’limga “tarix” sifatida emas, kompetensiyani shakllantiruvchi metodik resurs sifatida integratsiya qilish ilmiy jihatdan asosli bo‘ladi.

Jadid (yoki yetakchi shaxs)	**Pedagogik yo‘nalishdagi asosiy hissasi**	**Kompetensiya komponentiga ta’siri**	**Zamonaviy ta’limda metodik ekvivalent**

Muhammad Rahimxon II Feruz	Ilm-fan va adabiyotga homiylik, ma’rifiy muhitni qo‘llab-quvvatlash	Motivatsion (qiziqish, qadriyat, maqsad)	“Madaniy meros” moduli, motivatsion-kirish darslari, estetik tarbiya topshiriqlari
Islomxo‘ja	Yangi usul maktablari, islohotchi tashabbuslar	Kognitiv (dunyoqarash, bilim bazasi)	Fanlararo integratsiya, zamonaviy o‘quv dasturi, muammoli ta’lim
Bobooxun Salimov	Milliy ong va mustaqil fikrni shakllantirishga urg‘u	Kognitiv + motivatsion	Bahs-munozara, matn tahlili, tarixiy manba asosida kreativ esse
Bekjon Rahmon	Ma’rifiy targ‘ibot, mustaqil tafakkur va ma’naviy uyg‘onish	Motivatsion + faoliyat	Media-loyiha, taqdimot, jamoaviy ijodiy ishlar, refleksiya
Otajon Abdolov	Ta’limni ijtimoiy yangilanish vositasi sifatida talqin	Faoliyatga yo‘naltirilgan (amaliy ijod, tashabbus)	Loyiha metodi, servis-learning, ijtimoiy-ijodiy loyiha, sahna/chiqish

Jadval 2. Jadidlar faoliyati va badiiy-kreativ kompetensiya komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlik.





Sxema 1. Xorazm jadidlar merosidan badiiy-kreativ kompetensiyaga integratsiya modeli

NATIJALAR. Tadqiqot jarayonida Xorazm jadidchiligi pedagogik modelining badiiy-kreativ kompetensiyani shakllantirish bilan strukturaviy bog‘liqligi quyidagi aniq natijalar orqali asoslandi.

1. Ma’rifiy muhit va motivatsion baza. Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida ilm-fan va adabiyotga homiylik qilinishi, tarjima va ijodiy muhitning rivojlanishi ta’limga ijtimoiy ehtiyojni kuchaytirgan[1]. Bu jarayon o‘quvchilarda bilimga qiziqish va estetik didning shakllanishiga xizmat qilgan. Natijada, badiiy-kreativ kompetensiyaning **motivatsion komponenti** tarixiy asosga ega ekanligi aniqlandi.

2. Institutsional islohot va kognitiv baza (Islomxo‘ja faoliyati). Islomxo‘ja tomonidan yangi usul maktablarining ochilishi, o‘quv dasturlarining kengaytirilishi va zamonaviy fanlarning kiritilishi ta’lim mazmunini yangilagan[2]. Bu o‘zgarishlar o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, mustaqil fikrlashga yo‘naltirgan. Tadqiqot natijasida mazkur jarayon badiiy-kreativ kompetensiyaning **kognitiv komponenti** bilan bevosita bog‘liq ekani asoslandi.

3. Milliy ong va mustaqil tafakkur (Bobooxun Salimov va Bekjon Rahmon faoliyati). Bobooxun Salimov hamda Bekjon Rahmon faoliyatida ma’rifatni milliy ongni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilish ustuvor bo‘lgan[3]. Ular o‘quvchilarni fikrlashga, bahs yuritishga va ijtimoiy masalalarni tahlil qilishga undagan. Natijada, kreativ tafakkurning tanqidiy va obrazli jihatlari tarixiy jadid pedagogikasida mavjud ekani aniqlandi.

4. Ta’lim va ijtimoiy faollik (Otajon Abdolov faoliyati). Otajon Abdullayev (Abdolov) ta’limni jamiyatni yangilash vositasi sifatida talqin qilgan[4]. Bu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol ijtimoiy subyektga aylantirishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijasida mazkur qarash badiiy-kreativ kompetensiyaning **faoliyatga yo‘naltirilgan komponenti** bilan mos kelishi asoslab berildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Xorazm jadidlarining pedagogik merosi:

- motivatsion (ma’rifiy qadriyat),
- kognitiv (mustaqil fikrlash),
- faoliyatga yo‘naltirilgan (ijodiy-ijtimoiy amaliyot)
- komponentlardan iborat badiiy-kreativ kompetensiya modeli bilan strukturaviy moslikka ega.

Shunday qilib, Xorazm jadidchiligi pedagogik tajribasi zamonaviy ta’limda badiiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishning tarixiy-metodologik asosi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari Xorazm jadidlarining pedagogik merosi zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan mazmunan va

metodologik jihatdan uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ta’limni modernizatsiya qilishga qaratilgan qarashlari hamda shaxsni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish tamoyillari badiiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari bilan mushtarakdir[1].

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, jadid pedagogikasida ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi, fanlararo integratsiya va estetik tarbiyaga alohida e’tibor qaratilishi kreativ tafakkurni shakllantirish uchun muhim metodik zamin yaratgan[2]. Bu holat tarixiy-ma’rifiy merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ishlab chiqilgan konseptual model Xorazm jadidlarining pedagogik qarashlari asosida talabalarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini belgilab berdi. Mazkur yondashuv milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar uyg‘unligini ta’minlash orqali talabalarning ijodiy tafakkuri va milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi[3]. Umuman olganda, Xorazm jadidlarining pedagogik merosi tarixiy tajriba sifatida emas, balki zamonaviy ta’lim tizimini boyituvchi metodologik va metodik resurs sifatida talqin etilishi lozim. Bu esa milliy ma’rifiy merosning bugungi ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Bekmuhammad U. Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi**.** – Toshkent: Akademnashr, 2022.

2. Qosimov B. Milliy Uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. -Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

3. Abdurashidov Z. Turkistonda jadidchilik. -Toshkent: Akademnashr, 2023.

4. Matkarimova S., Bekmuhammad U. Xorazm jadidlarining islohotlari va taraqqiyparvarlik faoliyati. -Buxoro: Durdona. -2025.

XORIJDA TAHSIL OLGAN TURKISTONLIK YOSHLARNING VATANGA QAYTIB JADIDCHILIK HARAKATIGA QO‘SHGAN HISSASI (GERMANIYA, TURKIYA, ROSSIYA MISOLIDA)

Jabbarova Aziza Shixnazarovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti pedagogika,

psixologiya va sport kafedrasi o'qituvchisi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondan bir qator yoshlar ta’lim olish maqsadida chet ellarga – Turkiya, Rossiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarga yo‘l oldilar. Bu yoshlar turli ta’lim muassasalarida ilm o‘rganib, zamonaviy fan, texnika va ijtimoiy fikr yutuqlari bilan tanishdilar. Vatanga qaytgach, ular o‘rgangan bilim va tajribalarini jadidchilik harakatiga olib keldilar va bu harakatning intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshirdilar [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, xorijda tahsil olgan turkistonlik yoshlarning jadidchilik harakatidagi roli hali yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan ayrim shaxslarning faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, masalaning yaxlit manzarasi to‘liq ochib berilmagan. Maqolaning maqsadi Germaniya, Turkiya va Rossiyada tahsil olgan turkistonlik yoshlarning jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Turkiyada tahsil olgan turkistonlik yoshlar va ularning hissasi. Turkiya Turkiston yoshlari uchun eng mashhur ta’lim markazlaridan biri bo‘lgan. Istanbuldagi Darulfunun (universitet), harbiy maktablar va turli xil oliy ta’lim muassasalari turkistonlik talabalarni o‘ziga jalb qilgan. Bu yoshlar Turkiyada nafaqat ilm o‘rgandilar, balki “tanzimot” islohotlari tajribasi, zamonaviy matbuot va adabiyot bilan ham yaqindan tanishdilar [2].

Turkiyada tahsil olgan eng mashhur turkistonlik ziyolilardan biri Abdurauf Fitrat (1886–1938) bo‘ldi. Fitrat Istanbulda ta’lim olgan yillarda “Munozara” (1911) va “Hind sayyohi bayoni” (1912) kabi asarlarini yaratdi. Bu asarlar jadidchilik g‘yolarining nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Fitrat Turkiyada olgan ta’lim va tajribalarini Buxoroga qaytgach amaliyotga tatbiq etdi [3].

Turkiyadan qaytgan yoshlar jadid maktablarini tashkil etish, matbuot nashrlarini yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etdilar. Ular Turkiyadagi ta’lim islohotlari tajribasini Turkiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha muhim takliflar bildirib, jadidchilik harakatining intellektual salohiyatini oshirdilar .

Rossiyada tahsil olgan turkistonlik yoshlar. Rossiya imperiyasining tarkibida bo‘lgan Turkiston yoshlari uchun Rossiyaning o‘zi ham muhim ta’lim markazi edi. Qozon, Ufa, Orenburg shaharlari tatarlar orasidagi jadidchilik harakati markazi bo‘lib, turkistonlik yoshlar bu shaharlarda Ismoil Gasprinskiy g‘yolari bilan yaqindan tanishdilar .

Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy va boshqa jadid ziyolilari Rossiyaga safarlari davomida u yerdagi ta’lim tizimi, matbuot va ijtimoiy hayot bilan tanishdilar. Moskva va Sankt-Peterburgdagi universitetlarda tahsil olgan turkistonliklar zamonaviy ijtimoiy fanlar, siyosat va iqtisodiyot bilan yaqindan tanishib, bu bilimlarni vatanga olib keldilar .

Rossiyada tahsil olgan yoshlar ayniqsa matbuot sohasida katta hissa qo‘shdilar. Ular Rossiya matbuotining tashkiliy tuzilmasi va ishlash tajribasini o‘rganib, Turkistonda jadid gazetalari va jurnallarini tashkil etishda bu tajribadan foydalandilar [7].

Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida tahsil olganlar. XX asr boshlarida ba’zi turkistonlik yoshlar Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ham tahsil oldilar. Ular Yevropaning ilg‘or universitetlarida zamonaviy fan va texnika yutuqlarini o‘rganib, Turkistonga yangi g‘yolar va bilimlar bilan qaytdilar. Germaniya ayniqsa texnik ta’lim va sanoat rivojlanishi sohasidagi tajribasi bilan turkistonlik yoshlarni jalb qildi .

Yevropada tahsil olgan yoshlar jadidchilik harakatiga yangi dimension – texnik bilimlar, zamonaviy boshqaruv usullari va ilmiy yondashuv metodlarini olib

keldilar. Ular Yevropa demokratiyasi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g‘yolari bilan tanishib, bu g‘yolarni Turkiston sharoitiga moslashtirish ustida fikr yuritdilar

Xorijda tahsil olgan yoshlarning umumiy hissasi. Turli mamlakatlarda tahsil olgan turkistonlik yoshlarning jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissasini umumlashtirish mumkin. Birinchidan, ular jadidchilik g‘yolarining nazariy asoslarini mustahkamladilar. Ikkinchidan, chet el tajribasini Turkiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqdilar. Uchinchidan, xalqaro aloqalar o‘rnatish orqali Turkiston masalasini jahon jamoatchiligi e‘tiboriga havola etdilar [10].

Turkistonlik yoshlarning chet elga tahsilga borishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Turkistonlik yoshlarning xorijga tahsilga borishining bir qancha muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillari mavjud edi. Birinchidan, Turkistondagi an’anaviy ta’lim tizimining zamonaviy ehtiyojlarni qondira olmasligi ko‘plab yosh ziyolilarni chet elda ta’lim olishga undadi. Madrasalardagi ta’lim asosan diniy fanlar bilan cheklangan bo‘lib, zamonaviy fan, texnika va ijtimoiy fanlar o‘qitilmasdi. Bu holat ilmga chanqoq yoshlarni xorijdagi ta’lim muassasalarini izlashga majbur qildi .

Ikkinchidan, Turkistondagi savdogar tabaqasining iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashi yoshlarning chet elga borishida muhim rol o‘ynadi. Buxoro, Samarqand va Toshkentning badavlat savdogarlari iqtidorli yoshlarning ta’lim xarajatlarini o‘z zimmalariga oldilar. Masalan, Buxorodagi Mirzo Muhiddin Mansurxo‘jayev va boshqa savdogarlar bir necha yoshlarni Turkiya va Rossiyaga o‘qishga yuborish uchun mablag‘ ajratdilar. Bu homiylik faoliyati jadidchilik harakatining tashkiliy tuzilmasining muhim qismi edi .

Uchinchidan, Turkistonning geosiyosiy joylashuvi ham yoshlarning chet elga chiqishida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lish Rossiya shaharlari va u orqali Yevropaga yo‘l ochdi. Buxoro amirligining Rossiya protektorati maqomida bo‘lishi esa buxorolik yoshlarning Rossiya hududida erkin harakatlanishiga imkon berdi. Turkiya bilan tarixiy, diniy va madaniy aloqalar esa turkistonlik yoshlarni Istanbulga tortdi [9].

Turkiyada tahsil olgan yoshlarning g‘oyaviy shakllanishi va faoliyati. Istanbulda tahsil olgan turkistonlik yoshlarning g‘oyaviy shakllanishida bir necha muhim omil ta’sir ko‘rsatdi. Birinchidan, Usmonli imperiyasidagi “yosh turklar” harakati va ularning islohotchilik g‘oyalari turkistonlik talabalarni chuqur ta’sirlantirdi. Ular “yosh turklar” ning zamonaviy davlat qurilishi, ta’lim islohotlari va milliy ong shakllantirishdagi tajribalarini o‘rgandilar va bu tajribalarni Turkiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqdilar .

Ikkinchidan, Istanbuldagi xalqaro talabalar muhiti turkistonlik yoshlarning dunyoqarashini kengaytirdi. Ular Misr, Eron, Hindiston, Kavkaz va boshqa hududlardan kelgan musulmon talabalar bilan muloqot qilib, butun musulmon olamida kechayotgan islohotchilik harakatlardan xabardor bo‘ldilar. Bu muloqot turkistonlik yoshlarga o‘z muammolarini kengroq kontekstda ko‘rish imkonini berdi

Fitratdan tashqari Turkiyada tahsil olgan boshqa turkistonlik yoshlar ham jadidchilik harakatiga sezilarli hissa qo‘shdilar. Usmon Xo‘jayev Istanbulda oliy ta’lim olib, Buxoroga qaytgach jadid maktablarini tashkil etishda faol ishtirok etdi. Nosir Tursunxo‘jayev Istanbuldagi harbiy maktabda o‘qib, zamonaviy harbiy fan va

tashkilotchilik tajribasini o‘rgandi. Bu yoshlarning har biri o‘z sohasida jadidchilik harakatining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qildi [4].

Rossiyada tahsil olgan yoshlarning aniq faoliyat yo‘nalishlari. Rossiyada tahsil olgan turkistonlik yoshlarning faoliyatini bir necha asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Birinchi yo‘nalish – Qozon va Ufadagi tatar jadidchiligi bilan aloqalar. Qozon shahri XX asr boshlarida Rossiya musulmonlari uchun asosiy intellektual markaz edi. Bu yerda Ismoil Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasining ta’siri kuchli bo‘lib, turkistonlik yoshlar bu gazetaning g‘oyalari bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘ldilar .

Qozon va Ufada tahsil olgan turkistonlik yoshlar tatarlarning savtiya (tovush) usulini o‘rganib, bu usulni Turkiston jadid maktablarida joriy etishda muhim rol o‘ynadilar. Ular tatar jadid maktablarining tashkiliy tuzilmasi, o‘quv dasturlari va pedagogik usullarini o‘rganib, bu tajribani Turkistonga olib keldilar. Bundan tashqari, ular Qozon va Ufada nashr etiladigan jadid gazetalari va jurnallarining tarqatilishida vositachilik qildilar .

Ikkinchi yo‘nalish – Moskva va Sankt-Peterburgdagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish. Bu shaharlarda o‘qigan turkistonlik yoshlar Yevropa madaniyati, zamonaviy ijtimoiy fanlar va siyosiy fikr bilan bevosita tanishdilar. Ular Rossiya universitetlarida huquqshunoslik, tibbiyot, muhandislik va boshqa zamonaviy fanlarni o‘rganib, bu bilimlarni Turkiston ehtiyojlariga moslashtirish ustida fikr yuritdilar. Ba’zi yoshlar Rossiya inqilobiy harakatlari bilan ham tanishib, bu tajriba ularning siyosiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi .

Uchinchi yo‘nalish – Orenburg va boshqa shaharlardagi musulmon ta’lim muassasalari. Orenburgdagi “Husainiya” madrasasi zamonaviy va an’anaviy ta’limni uyg‘unlashtirgan noyob ta’lim muassasasi bo‘lib, turkistonlik yoshlar uchun ham jozibali markaz edi. Bu madrasada tahsil olgan yoshlar diniy va dunyoviy fanlarning uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitilishi tajribasini bevosita ko‘rdilar va bu modelni Turkiston jadid maktablarida tatbiq etish uchun muhim tajriba orttirdilar [6].

Germaniya va Yevropada tahsil olgan yoshlarning o‘ziga xos hissasi. Germaniyada tahsil olgan turkistonlik yoshlarning faoliyati boshqa mamlakatlardagi yoshlarnikidam farqlanardi. Germaniya XX asr boshlarida ilm-fan va texnika sohasida jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallagan davlat edi. Bu yerda tahsil olgan turkistonlik yoshlar asosan texnik fanlar, muhandislik, tibbiyot va tabiiy fanlarni o‘rgandilar. Ular Germaniya universitetlarida olgan bilimlarni Turkistonda sanoat va texnikani rivojlantirish zaruriyati haqidagi g‘oyalar bilan boyitdilar .

Germaniyada o‘qigan yoshlar Yevropa demokratiyasi, fuqarolik jamiyati va konstitusiyaviy boshqaruv g‘oyalari bilan yaqindan tanishdilar. Ular Germaniya parlamentarizmining ishlash mexanizmini, siyosiy partiyalar faoliyatini va ommaviy axborot vositalarining rolini kuzatdilar. Bu tajriba ularning siyosiy dunyoqarashini sezilarli darajada kengaytirdi va ular Turkistonda ham siyosiy islohotlar zaruriyati haqida fikr yurita boshladilar [9].

Shuningdek, Yevropada tahsil olgan ba’zi yoshlar u yerdagi diaspor tashkilotlari bilan ham aloqa o‘rnatdilar. Berlinda, Paryijda va boshqa Yevropa shaharlarida yashovchi Sharq xalqlari vakillari bilan muloqot qilib, xalqaro

hamkorlik imkoniyatlarini o‘rgandilar. Bu aloqalar keyinchalik Turkiston masalasini xalqaro miqyosda ko‘tarish uchun muhim zamin yaratdi .

Xorijda tahsil olgan yoshlarning vatanga qaytgach duch kelgan qiyinchiliklari. Chet elda tahsil olib vatanga qaytgan yoshlar bir qancha jiddiy qiyinchiliklarga duch keldilar. Birinchidan, mustamlaka ma’muriyatining shubhasi va nazorati ulkan to‘siq edi. Chor Rossiyasi hukumati xorijda o‘qib kelgan yoshlarni potensial xavf sifatida ko‘rib, ularning faoliyatini kuzatib bordi. Ba’zi yoshlar maxfiy politsiya nazorati ostiga olindilar va ularning faoliyati cheklandirildi [4].

Ikkinchidan, konservativ ruhoniylar va an’anaviy jamiyat vakillari xorijda o‘qib kelgan yoshlarga ishonchsizlik bilan qaradilar. Ular bu yoshlarni “g‘arb ta’siriga tushgan”, “dindan uzoqlashgan” shaxslar sifatida ko‘rsatishga harakat qildilar. Bu holat jadid yoshlarining mahalliy aholi orasida o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishini qiyinlashtirdi. Shunga qaramay, xorijda o‘qib kelgan yoshlar sabr-toqat va donolik bilan ish tutib, o‘z g‘oyalarini asta-sekin jamiyatga singdirish yo‘lini tutdilar [1o].

Uchinchidan, moliyaviy qiyinchiliklar ham jiddiy muammo edi. Xorijdan qaytgan yoshlarning aksariyati rasmiy lavozimlardan mahrum edilar va o‘z faoliyatlarini asosan xayriya mablag‘lari va shaxsiy daromadlari hisobiga olib borishga majbur bo‘ldilar. Shunga qaramay, ular o‘z maqsadlariga sodiq qolib, jadidchilik harakatining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Turli mamlakatlarda tahsil olgan yoshlar faoliyatining qiyosiy tahlili. Turkiya, Rossiya va Germaniyada tahsil olgan yoshlarning jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissalarini qiyosiy tahlil qilish qiziqarli natijalarni beradi. Turkiyada tahsil olganlar asosan g‘oyaviy-nazariy jihatdan kuchli bo‘lib, jadidchilik harakatining falsafiy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadilar. Ular islom islohotchiligi, zamonaviy ta’lim nazariyasi va milliy ong shakllantirish kabi masalalarda chuqur bilimga ega edilar .

Rossiyada tahsil olganlar esa amaliy-tashkiliy jihatdan ko‘proq tajribaga ega bo‘lib, matbuotni tashkil etish, ijtimoiy tashkilotlar yaratish va ommaviy harakat uyushtirish sohasida kuchli edilar. Ular Rossiya ijtimoiy harakatlarining tashkiliy tuzilmasini o‘rganib, bu tajribani Turkiston sharoitiga moslashtirishga muvaffaq bo‘ldilar. Germaniya va Yevropada o‘qiganlar esa texnik bilimlar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro aloqalar sohasida kuchli bo‘lib, jadidchilik harakatining modernizatsiya dasturiga muhim hissa qo‘shdilar [8].

Bu uch yo‘nalishning birlashishi jadidchilik harakatiga yaxlit va ko‘p qirrali xarakter berdi. Turli mamlakatlarda tahsil olgan yoshlarning turli sohalardagi bilimlari bir-birini to‘ldirib, jadidchilik harakatining intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalqaro ta’lim hamkorligi va turli madaniyatlar bilan muloqot milliy taraqqiyot uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi .

Xorijda tahsil olgan jadid yoshlari tajribasining zamonaviy ahamiyati. Jadid yoshlarining xorijda ta’lim olish va vatanga qaytib xizmat qilish tajribasi bugungi O‘zbekiston uchun ham muhim ibrat manbai hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati minglab yoshlarni xorijiy mamlakatlarda tahsil olish uchun yubormoqda. “El-yurt umidi” va boshqa davlat dasturlari doirasida ko‘plab

yoshlar jahonning nufuzli universitetlarida ta’lim olmoqda. Bu siyosat mohiyatan jadidlar davrida boshlangan an’ananing davomi sifatida baholanishi mumkin [5].

Jadid yoshlarining tajribasi bugungi yoshlarga bir necha muhim saboq beradi. Birinchidan, xorijda olgan bilimlarni vatanga qaytib xizmat qilish uchun ishlatish zaruriyati. Jadid yoshlari xorijda faqat shaxsiy manfaat uchun emas, balki millat va vatan manfaati uchun o‘qiganlar. Ikkinchidan, xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish san’ati. Jadidlar xorijiy g‘oyalarni ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olmasdan, ularni Turkiston sharoitiga moslashtirib tatbiq etganlar. Uchinchidan, xalqaro hamkorlik va muloqotning milliy taraqqiyot uchun ahamiyati. Jadid yoshlari turli mamlakatlardagi ziyolilar bilan o‘rnatgan aloqalari Turkiston jadidchilik harakatining xalqaro miqyosda tan olinishiga xizmat qilgan .

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xorijda tahsil olgan turkistonlik yoshlar jadidchilik harakatining intellektual salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynagan. Turkiyada tahsil olganlar asosan ta’lim islohotlari va madaniy hayot sohasida, Rossiyada tahsil olganlar matbuot va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida, Germaniya va Yevropada tahsil olganlar esa texnik bilimlar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishda hissa qo‘shganlar.

Xorijda tahsil olgan yoshlarning tajribasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy O‘zbekistonda xalqaro ta’lim hamkorligi va yoshlarni chet ellarda o‘qitish siyosati jadidlar davrida boshlangan an’ananing davomi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 100–130.

2. Rajabov I. Turkiston va Turkiya: madaniy aloqalar tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 45–78.

3. Fitrat A. Munozara. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 10–45.

4. Alimova D. Turkiston ziyolilari va xorijiy ta’lim. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 56–80.

5. Xo‘jayev A. Qozon va Turkiston jadidchiligi aloqalari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 34–67.

6. Abdullayev R. Turkistonlik yoshlar Rossiya universitetlarida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 45–70.

7. Dolimov U. Jadidchilik va milliy matbuot. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 78–100.

8. Karimov N. Turkistonliklar Yevropa ta’lim muassasalarida. – Toshkent: Sharq, 2015. – B. 23–56.

9. Ziyoyev H. Turkiston va jahon. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 89–120.

10. Inoyatov S.I. Jadidchilik harakati va xalqaro aloqalar. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2010. – B. 56–90.

BEHBUDIY ASARLARI BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARI UCHUN MUHIM TARBIYAVIY MANBA

Abdullaxo‘jayev Adhamxo‘ja

Qo‘qon universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mahmudjonova Muharramoy Otabek qizi

Qo‘qon universiteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati XX asr boshlaridayoq ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortgan. 1920-yillarda vaqtli matbuot sahifalarida Sadriddin Ayniy, Hoji Muin, Laziz Azizzoda kabi ma’rifatparvarlar tomonidan uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maqola hamda xotiralar e’lon qilingan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa O‘zbekistonda B. Qosimov, N. Karimov, S. Ahmedov, Sh. Turdiyev, A. Aliyev, S. Qosimov, H. Sayd, N. Avazov, Z. Axrorova; Tojikistonda R. Xodizoda; Germaniyada I. Baldauf (B. Qosimov bilan hamkorlikda); AQShda Edward Allworth va boshqa tadqiqotchilar tomonidan Behbudiy merosi atroflicha o‘rganildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Behbudxo‘ja imom-xatib bo‘lib faoliyat yuritgan va Ahmad Yassaviy avlodiga mansub edi. Mahmudxo‘ja to‘qqiz yoshida otasidan ayrilib, tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida tarbiya topdi. Kichik tog‘asi Odil undan arab tili va sarf-nahv ilmini o‘rgatdi. O‘n sakkiz yoshida qozixonada mirzolik qildi.

Behbudiy dastlab Samarqand, keyinchalik Buxoro madrasalarida tahsil oldi. Muntazam mutolaa va izlanishlar natijasida u shariat ilmlarini chuqur egallab, qozi va mufti darajalarigacha ko‘tarildi. 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqib, Kavkaz, Turkiya, Arabiston va Misrni kezdi. Turli xalqlarning turmush tarzi, ta’lim tizimi va madaniy hayoti bilan tanishish natijasida unda yangi usul (usuli jadid) maktablarini tashkil etish g‘oyasi mustahkamlandi.

1903-yilda Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida S. Sidiqiy, Ajziy hamda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi usul maktabini ochdi. 1903–1904-yillarda Moskva va Peterburgga, 1906-yilda esa Qozon, Ufa hamda Nijniy Novgorod shaharlariga safar qildi. Rossiyada yashovchi musulmonlarning madaniy hayotiga bag‘ishlangan qurultoyda Turkiston delegatsiyasiga boshchilik qildi. Qozon va Ufadagi yangi usul maktablari faoliyati bilan tanishib, tatar ziyolilari bilan ilmiy-ma’rifiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi.

Behbudiy yangi maktablar uchun darsliklar yaratishga alohida e’tibor qaratdi. U “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (1906), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi asarlarini nashr ettirdi[1]. Mazkur darsliklar o‘sha davr

ta’lim tizimini isloh qilish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1908-yilda Abduqodir Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o‘z hovlisiga ko‘chirib kelib, yangi uslubdagi ta’limni rivojlantirishda faol ishtirok etdi. 1911-yilda u o‘zbek adabiyotida ilk drama sifatida tan olingan **“Padarkush”** asarini yozdi. Bu 3 parda va 4 manzaradan iborat sodda, ammo ta’sirchan asar bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodonlikning fojiali oqibatlari haqida hikoya qiladi: bolaning o‘z otasini o‘ldirishi tasvirlanadi. Behbudiy bu asarni senzura yo‘lidan o‘tkazish uchun “milliy fojia” deb atagan. Nashrga ruxsat berilmagach, u “Borodino jangi va Rossiyaning fransuz bosqinidan xalos bo‘lishining 100 yillik yubileyi” munosabati bilan Tiflis (hozirgi Tbilisi) senzurasidan o‘tkazib, 1913-yilda bosib chiqardi. Sahnalashtirish uchun yana bir yilcha vaqt ketdi va drama ilk bor **1914-yil 25-yanvarda Samarqandda** tomoshabinlarga taqdim etildi. Asar xalqqa kuchli ta’sir ko‘rsatdi; masalan, Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” dramasini shu ta’sir ostida yozgani ma’lum. “Padarkush” janri va mazmuni jihatidan yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo‘ldi.

Drama keyinchalik Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy rahbarligidagi “Turon” teatr truppasi tomonidan qayta sahnalashtirildi. 1914–1916-yillarda truppa bu spektaklni Farg‘ona vodiysining deyarli barcha shahar va qishloqlarida qo‘yib, katta mashhurlikka erishdi.

1917-yil aprelida Behbudiy **“Samarqand”** gazetasini chiqara boshladi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida haftada ikki marta nashr etildi, ammo 45-sonidan keyin moddiy qiyinchiliklar tufayli to‘xtadi. Shu yilning 20-avgustidan u **“Oyna”** jurnalini nashr etdi. Bu haftalik, suratli jurnal asosan o‘zbek tilida bo‘lib, she’rlar, maqolalar (forscha), e’lonlar (ruscha) ham chop etardi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashriyotini ham yo‘lga qo‘ydi. Masalan, 1913-yilda Abdurauf Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini rus tiliga tarjima qildirib, nashr ettirdi. “Oyna” jurnalining birinchi sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto fransuz kabi xorijiy tillarni o‘rganish zarurligini ta’kidladi. Keyingi sonlarda til muhofazasi (“Har millat o‘z tili ila faxrlanur”, 1914, № 35), til masalalari (“Til masalasi”, 1915, № 11–12) kabi muhim maqolalar chop etildi. Behbudiy o‘zbek matbuot tarixida maqola muallifi sifatida alohida o‘rin tutadi; hozircha aniqlangan maqolalari soni 300 ga yaqin bo‘lib, ular turli mavzularda yozilgan.

U o‘zlikni anglashga katta e’tibor bergan. Masalan, “Sart so‘zi majhuldur” maqolasida (“Oyna”, 1914, № 23) shunday yozadi: “Qabilasini(ng) otasining otini bilmaydurgonlarni ismini va yetti avlodini qulq “marquq” derlar”. Keyinchalik Chingiz Aytmatov jahon adabiyotiga “manqurt” atamasini kiritdi.1917-yil oxiri – 1918-yil boshlarida jadidlar tashkil etgan ilk demokratik davlatchilik namunasi – **Turkiston muxtoriyati** taqdiri hal bo‘layotgan paytda Behbudiy o‘lka xalqlarini birlikka chaqirdi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati aslida 1906-yildan boshlangan: shu yili Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan “Rossiya musulmonlari ittifoqi” qurultoyida qatnashgan. 1917-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlari qurultoyida nutq so‘zlab, musulmonlar orasidagi ixtiloflarga qarshi chiqdi va o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka

musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ochilib, 27-noyabrga o‘tar kechasi **“Turkiston muxtoriyati”** e’lon qilindi. Behbudiy uning g‘oyaviy asoschilaridan biri edi. Biroq, Turkiston muxtoriyati sho‘rolar tomonidan vahshiyona tarzda qonga botirildi. Professor Begali Qosimovning Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tanlangan asarlar”iga yozgan “Karvonboshi” maqolasida qayd etilishicha, Behbudiy uch o‘g‘il va bir qiz farzand ko‘rgan. Farzandlaridan biri (katta o‘g‘li Ma’sudxon) 1933-yilda qatag‘on qilingan. Behbudiy oilasi va shaxsiy hayoti haqidagi ma’lumotlar uning ma’rifiy va siyosiy faoliyatining yorqin tomonlarini yanada boyitadi.

Ulug‘ ma’rifatparvar alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy Butun Turkiston yoshlarga murojaatnoma yo‘llab: “...ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, ma’rifatsiz, quruq taassub bilan yashab bo‘lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo‘lmoqdaki, ozgina fursat o‘tar-o‘tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimizbu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu ma’rifatdir”[2] kabi fikrlarini keltirishimiz mumkin. Jo‘mladan, Behbudiyning “Bir vafolik zaifani xususida hikoya”[3] nomli asarida otalar o‘z farzandlariga u yo ug‘il bo‘lsi –yo qiz bo‘sin axloq ilmidan va zamonaviy dunyo ilmidan o‘rgatishi lozimligini ta’kidlaydi va ilm bu “o‘g‘il yoki qiz”, deb tanlanmaydi insonning qobiliyati birdur deb aytadi. Bugungi kun yoshlari ulug‘ ajdodlarning murojaat va vasiyatlarida aytilganidek, faqat teran ilm, doimiyizlanish, dunyo va oxiratni unutmaslik asosida harakat qilishlari lozim. Bunda o‘tgan ajdodlarning ruhlarini xotirlash, ularga munosib avlodlar bo‘lishga intilish ham alohida o‘rin tutadi.

Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni nihoyatda katta ekanligini ta’kidlab, “Zamon ilm va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”[4], deb yozadi. Demak, uning fikricha, millat o‘z davrining ilm-fanini egallamas ekan, u o‘zligini anglay olmaydi, shuning uchun u boshqa xalqlarga qaram bo‘lishga majbur bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy fan va texnikaning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirib olmagan millatlar jahon tamaddunidan uzilib qolib, qoloq hayot kechirishga mahkumdir, degan edi. Mamlakatning mustaqilligini ta’minlash, madaniyat va iqtisodda yuksalish uchun mahalliy xalqdan sudyalar, advokatlar, muhandislar, ma’lumotli tijoratchilar tayyorlash zarur edi. Behbudiyning e’tirof etishicha, mutaxassislar xalq manfaatlari va din himoyachilari bo‘lishlari kerak: “busiz bizning kunimiz bitdi”[5], kabi fikrlarini aytib o‘tgan.

Fan va texnika G‘arbda rivoj topgani sababli, ma’rifatparvar Behbudiy yoshlarni xorijga ta’lim olish uchun yuborishga katta e’tibor berdi. Uning fikricha, faqat milliy maktablarda ilm olish kifoya qilmaydi, chunki fan va texnika hamda ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmlarni egallash uchun G‘arb va Sharqning rivojlangan mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida o‘qishi maqsadga muvofiqdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning shogirdi va maslakdoshi bo‘lgan samarqandlik jadid Hoji Muin ustozining fikrlarini qo‘llab-quvvatladi. Hoji Muin o‘zining asosiy e’tiborini shu davrning dolzarb ijtimoiy masalalariga qaratdi. Uningcha, maktab tizimini isloh qilish, turmush madaniyati, siyosiy ongni oshirish milliy ozodlikka erishishning muhim omillari hisoblanadi. O‘z asarlarida ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi mavjud illatlarning sabab va oqibatlarini aks ettirishga intilgan Hoji

Muin ulardan qutulishning oqilona yo‘li milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishdan iboratdir, degan fikrga keldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-badiiy merosi o‘zbek ma’rifatparvarlik tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u yosh avlodni tarbiyalash masalasini millat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi. Behbudiy ta’lim-tarbiyani jamiyat modernizatsiyasining asosiy omili sifatida baholab, ilm-fan, axloqiy yetuklik va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini ilgari suradi. Adibning “Padarkush”, “Bir vafolik zaifani xususida hikoya”, “Yoshlarimizg‘a murojaat”, “Ehtiyoji millat” kabi asarlarida ma’rifatsizlik, ijtimoiy loqaydlik va qoloqlik keskin tanqid qilinadi. Ushbu asarlar orqali muallif yosh avlod ongida ilmga intilish, mas’uliyat hissi, vatanparvarlik, axloqiy poklik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Behbudiy nazarida zamonaviy fan va texnikani egallash, xorijiy tillarni o‘rganish hamda dunyo tajribasini o‘zlashtirish milliy mustaqillik va taraqqiyotning muhim shartidir. U mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasini millat istiqboli bilan bog‘lab, ta’lim tizimini isloh qilishni ijtimoiy rivojlanishning strategik yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi. Shunday qilib, Behbudiy asarlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida muhim ma’naviy-axloqiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat, milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi sifatlarni shakllantirish imkoniyati mavjud. Demak, Behbudiy merosi bugungi ta’lim tizimida ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb pedagogik manba sifatida o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://jadidlar.uz/jadidlar/56
2. Behbudiy M. “Yoshlarimizg‘a murojaat”. “Oyna” nomli jurnal, 1914-yil, 41-son.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar 1-jild. “Akademnashir”, 2021. 113-bet.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ehtiyoji millat. «Sadoyi Turkiston» gazetasi, 1913, 26-son, 12-iyul.
5. Behbudiy. Oyna jurnali. – Samarqand. № 7;1914. №13;1915. №10. – B.100.

“MILLIJ TÜRKISTAN” ЖУРНАЛИДА ЭЪЛОН ҚИЛИНГАН ЖАДИДЛАР ТЎҒРИСИДАГИ МАҚОЛАЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси

Тарих институти кичик илмий ходими,

тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Туркистон легионининг бош сиёсий органи ҳисобланган Millij Türkistan Бирлик Қўмитаси етакчилигида бир қатор журнал ва газеталар нашр этилган.

“Millij Türkistan” журнали МТБҚда алоҳида ўринни эгаллаган журнал сифатида кўришимиз мумкин. “Millij Türkistan” журналидаги мақолаларда Туркистон ўлкасининг тарихи ва Туркистон легиони фаолиятига доир қимматли маълумотлар берилган. Туркистонда фаолият олиб борган бир қатор жадид мутафаккирларининг ҳаёти ва илмий фаолияти тўғрисида ҳам кўплаб маълумотлар журналнинг баози сонларида кўришимиз мумкин.

“Millij Türkistan” журналининг биринчи нашр даври иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келади ва 1942 – 1945 йилларда Берлин шаҳрида лотин алифбосида эски ўзбек ёзувида нашр қилинади[7, 330-331-б]. Журнал 1949–1954 йилларда Женева шаҳрида ва 1952–1955 йилларда эса Дюсселдорф шаҳрида Вали Қаюмхон муҳаррирлигида нашр қилинади. Бу журнал фаолиятининг иккинчи даври ҳисобланади. Учинчи давр эса 1962 –1975 йилларга тўғри келади ва Дюсселдорф шаҳрида нашр этилади. Аммо, молиявий қийинчиликлар сабабли 1975 йилга келиб журналнинг фаолияти бутунлай тўхтаб қолади.

“Millij Türkistan” журналида машҳур туркистонлик жадидлар Маҳмудхўжа Беҳбудий, Муҳаммадшариф Сўфизода, Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон кабилар тўғрисида мақолалар нашр қилинди. Бу мақолаларда уларнинг ҳаёт йўли, илмий мероси, асосий ўринни эгаллаган.

Чўлпоннинг “Япроқлар”, Абдурауф Фитратнинг “Миррих юлдузига” номли шеорлари журналнинг 1950 йилдаги 65-сонида эолон қилинади. 1951 йилдаги сонидаги мақолада Чўлпоннинг ҳаёт йўли, унинг асарлари ва Сталиннинг қатағон сиёсати туфайли ўлимга маҳкум этилишига доир маълумотлар ўрин олади. Журналнинг 1950 йилдаги 66-сонида эса Маҳмудхўжа Беҳбудий вафотининг 31 йиллиги муносабати билан мақола нашр қилинади[1, 26-б]. Ушбу мақолада Беҳбудийнинг ҳаёти, илмий ва сиёсий фаолияти доир қимматли маълумотлар келтирилади.

Боймирза Ҳайит томонидан Убайдуллахўжа вафотининг 12 йил бўлиши муносабати билан журналнинг 1950 йилдаги 67-сонида “Убайдуллахўжа Асадуллахўжа” номли мақола нашр қилинади[2,30-б]. Мақолада Убайдуллахўжанинг ҳаётига доир маълумотлар нашр қилинади. Жумладан, Убайдуллахўжа Қўқон шаҳрида ташкил қилинган Туркистон Мухториятининг ташкил этилишида муҳим рол ўйнаган шахслардан бўлганлиги эотироф этилади. Боймирза Ҳайит 1938 йил 16 июнда Саййид Носирхон тўранинг ҳозирги Тўрақўрғон тумани (Наманган вилояти)даги уйига ташриф буюради. Тошкентдан келган Сирож ҳожи исмли бир киши Саййид Носирхон тўрага мактуб беради. Бу мактубда Убайдуллахўжа 1938 йил 25 июн санасида Сибирдаги қамоқхонада вафот этганлиги тўғрисида хабар берилганди.

1951 йил журналда нашр қилинган “Туркистон адабиёти Москва назоратида” номли мақолада Туркистондаги адабий муҳит совет давлати даврига келиб коммунистик мафкура таосири остига тушиб қолганлигига алоҳида эотибор қаратилади. Шунингдек, Фитрат, Чўлпон, Боту каби Туркистон мустақиллиги, озодлигини ўз шеорларида тараннум этган шоирлар

совет давлати томонидан йўқ қилинганлиги ва улар яратаган ижод намуналари тақиқланганлиги алоҳида таокидлаб ўтилади.

1952 йилда журналнинг 77-сонида Мунавварқори Абдурашидхоновнинг вафотига бағишланган “Мунавварқори – Туркистон жадидчилигининг отаси (Мунавварқорининг болшевиклар томонидан ўлдирилишининг 19 йиллиги муносабати билан)” номли мақола нашр қилинади[3, 3-6-б]. Мақолада Мунавварқорининг ҳаёти, Туркистон ўлкасида илм-фаннинг ривожи йўлида амалга оширган ишлари ҳақида маълумотлар келтирилади. Шунингдек, Туркистонда жадидчилик ғояларининг кенг ёйилишига хизмат қилган нашриёт ва адабиёт соҳаларининг ривожида Мунавварқорининг хизмати беқиёс бўлганлиги алоҳида таокидланади. Мақолада Мунавварқорининг ўлимига доир маълумот ҳам келтирилади. Унга кўра, Мунавварқори 1933 йил декабр ойида болшевиклар томонидан отиб ташланади.

1952 йил 80 – 81-сонларида Абдурауф Фитратнинг ҳаётига бағишланган мақола нашр қилинади[4, 12-б]. Мақолада келтирилишича, Абдурауф Фитрат 1916-йилда Тошкент шаҳрига келади ва бу ерда Мунавварқори Абдурашидхонов билан биринчи марта танишади. Фитратнинг туркий халқлар озодликка чорловчи шеори ҳам мақоладан ўрин олади:

“Сен кимнинг ўғлисан о‘йласангчи,
Сенга бунча хорликлар ярашмас,
Жангда ёзган исмингни унутма,
Туркsан, сенга қуллик ярашмас!”

Шунингдек, Фитрат ҳеч қачон динга қарши бўлмаганлиги ва диний амалларнинг ўз вақтида адо этганлиги ҳақида маълумот келтирилади. Ўзининг “Йиғла эй, Ислом” номли шеорида мусулмон дунёсини бирликка чақириб, Туркистон заминини душманлардан озод қилиш ғоясини илгари суради.

1964 йил журналнинг 101-сонида “Туркистон янги адабиётида икки сиймо: Қодирий ва Чўлпон” номли мақола нашр қилинади[5, 22-24-б]. Мақолада “Ўтган кунлар”, “Меҳробдан чаён”, “Обид кетмон” каби асарлар Абдулла Қодирийга шуҳрат келтиргани тўғрисида маълумотлар келтирилади. Шунингдек, унинг “Жувонбоз” номли саҳна асари туркистонликлар ўртасида машҳурликка эришади. Чўлпон томонидан ёзилган “Уйғониш”, “Булоқлар” каби шеорлари Туркистонда анча машҳур бўлади. Бу икки ижодкор ўзининг бадиий асарлари орқали Туркистон халқини уйғотишда муҳим рол ўйнайди.

1965 йилда Боймирза Ҳайит томонидан журналнинг 99-сонида “Ҳозирги вақт Туркистон мунавварлари ҳақида мулоҳазалар” номли мақола нашр этилади[6, 33-34-б]. Мақолада Туркистон заминида ХИХ аср охири – ХХ аср бошларида тараққийпарварлар қатламининг қандай пайдо бўлганлигига доир фикрлар илгари сурилади. Жумладан, Туркистондаги ҳозирги мунавварларимизни халқимиз етишдирди. Ҳозирда мавжуд бўлган мунавварларимизнинг тараққиёт йўлини фақат совет Россияси режимига боғлиқ қилиб кўрсатиш, ҳақиқатдан кўз юмиш бўлиб ҳисобланади. Совет режими остида ишлаган Беҳбудий, Фитрат, Мунавварқори, Абдулла Қодирий, Чўлпон, Бойтурсун, Саидваққос, Рисқул, Акмал Икром, Файзулла Хўжа, Атабай, Нусратулла Маҳсум, Раҳимбой каби кўпгина зиёлиларимиз, совет

Россиясининг “маърифатпарварлиги” оқибати эмас эдилар. Аксинча, булар халқ қуввати билан етиштирилган, халқ учун хизмат қилмоқда бўлган зиёлилар эдиларки, буларнинг совет идоралари томонидан ўлдирилиб юборилиши, миллий зиёлиларга нисбатан юритилган даҳшатли сиёсат бўлиб қолаверди” [6, 35-36-б].

Хулоса қилиб айтганда, “Millij Türkistan” журналидаги мақолаларда Туркистон ўлкасини озод қилиш ғояси асосий ўринни эгаллаган эди. Журналнинг уч даврида нашр қилинган сонларидаги мақолаларда Туркистонда фаолият юритган кўплаб тараққийпарварларнинг ҳаёти ва илмий фаолиятига доир қимматли маълумотларни ўз ичига олган. Дунё жамоатчилиги эотиборини Россия босқини остида қолаётган Туркистон заминига қаратишда журналдаги мақолалар катта аҳамиятга эга бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Millij Türkistan”. 1950. № 60. – С. 26.
2. “Millij Türkistan”. 1950. № 67. – С. 30.
3. “Millij Türkistan”. 1952. № 77. – С. 3-6.
4. “Millij Türkistan”. 1952. № 80-81. – С. 12.
5. “Millij Türkistan”. 1964. № 101. – С. 22-24.
6. “Millij Türkistan”. 1965. № 99. – С. 33-34.
7. Органы государственной безопасности СССР в великой отечественной войне: сборник документов. Том четвертый, книга 2. – Москва: Издательство «Русь». 2008. – С. 330-331.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHIDA SHARQ VA G‘ARB TA’LIM AN’ANALARINING SINTEZI

Valiyev Abdurafik Abduganiyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti

uslubiy tayyorgarlik sikl dotsenti

Shukrulloyev Xislatbek Xamza o‘g’li

Buxoro davlat pedagogika instituti

harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Turkiston jadidchilik harakatining eng ko‘zga ko‘ringan arboblaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) o‘z davrining eng ilg‘or ma’rifatparvari sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning ma’rifatparvarlik qarashlari bir tomondan Sharqning boy intellektual an’analariga, ikkinchi tomondan esa G‘arbning zamonaviy ta’lim tajribalariga asoslanganligibilan ajralib turadi.

Behbudiyning bunday sintez yaratish qobiliyati uni o‘z davridagi boshqa ziyolilardan farqlantiradi [1].

Behbudiy Samarqandda tug‘ilib, dastlab an’anaviy madrasa ta’limini oldi. Biroq, u yoshligidanoq mavjud ta’lim tizimining kamchiliklarini angladi va islohot zaruriyatini his qildi. Uning 1899–1900-yillardagi Rossiya, Qozon, Ufaga safarlari va keyinchalik 1903–1904-yillardagi Turkiya, Misr, Suriyaga sayohatlari uning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi [2].

Ushbu maqolaning maqsadi Behbudiyning ma’rifatparvarlik qarashlarini fanlararo yondashuv asosida tahlil qilish va unda Sharq hamda G‘arbta’lim an’analarining sintezini ko‘rsatib berishdan iborat.

Behbudiyning an’anaviy Sharq ta’limidan olgan bilim va tajribalari. Mahmudxo‘ja Behbudiy boshlang‘ich ta’limni otasi Muhammad Siddiqqo‘zining rahbarligida oldi. So‘ngra Samarqanddagi mashhur madrasalarda ta’lim oldi. An’anaviy madrasa ta’limi unga arab tili, fiqh, tafsir, hadis, mantiq va falsafa fanlaridan chuqur bilim berdi. Bu bilimlar keyinchalik uning islohotchilik faoliyatining intellektual asosini tashkil etdi [3].

Behbudiy Sharq ta’lim an’anasining kuchli tomonlarini – axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishdagi rolini yuqori baholadi. Biroq, u an’anaviy ta’limning zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan uzoqligi, o‘qitish usullarining eskirganligi hamda ta’lim muddatining uzoqligini tanqid qildi. Uning fikricha, madrasa ta’limi isloh qilinmasa, Turkiston xalqi ilm-fan sohasida boshqa xalqlardan orqada qolib ketishi muqarrar edi [4].

G‘arbta’lim tajribalari va ularning Behbudiy qarashlariga ta’siri. Behbudiyning Rossiya va Yevropaga safarlari uning G‘arbta’lim tizimi bilan yaqindan tanishishiga imkon berdi. U Rossiyada boshlang‘ich ta’limning ommaviy va majburiy xarakteri, fanlarning amaliy yo‘naltirilganligi, zamonaviy o‘quv qurollari va metodlaridan foydalanilishi bilan tanishdi. Turkiyada esa “tanzimot” islohotlari doirasida amalga oshirilgan ta’lim islohotlarini o‘rgandi [5].

Behbudiy G‘arbta’lim tizimining samaradorligi, amaliy yo‘naltirilganligi va ilmiy asoslanganligini yuqori baholadi. Biroq, u G‘arbta’limini to‘liq ko‘chirib olishni emas, balki undan eng yaxshi jihatlarni olib, mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini ta’kidladi. Uning fikricha, ta’lim tizimi milliy qadriyatlar va diniy asoslarni saqlab qolgan holda zamonaviylashtirilishi kerak edi [6].

Sharq va G‘arb ta’lim an’analarining sintezi – Behbudiyning ta’lim dasturi. Behbudiy o‘zining ta’lim dasturida Sharq va G‘arb ta’lim an’analarining eng yaxshi jihatlarini birlashtirdi. U “usuli jadid” maktablarida arab alifbosini tovush usulida tez o‘rgatish, dunyoviy fanlar (arifmetika, geografiya, tarix, tabiiyot) ni diniy fanlar bilan birga o‘qitish, ona tilida ta’lim berish tamoyillarini joriy etdi [7].

Behbudiyning 1903-yilda Samarqandda ochgan yangi usuldagi maktabi bu sintezning amaliy namunasi bo‘ldi. Maktabda ta’lim ikki yo‘nalishda – diniy va dunyoviy fanlar bo‘yicha olib borildi. O‘quvchilar arab, fors va turk tillari bilan bir qatorda, rus tilini ham o‘rgandilar. Bu yondashuv Behbudiyning “ilm – najot kaliti” degan g‘oyasini amalda tatbiq etish edi [8].

Behbudiyning matbuot faoliyatida Sharq-G‘arb sintezi. Behbudiy nafaqat ta’lim, balki matbuot sohasida ham Sharq va G‘arbning eng yaxshi tajribalarini

birlashtirdi. Uning 1913-yilda ta’sis etgan “Oyina” jurnali shakl va mazmun jihatidan zamonaviy Yevropa matbuoti an’analaridan bahramand bo‘lgan holda, mazmun jihatidan mahalliy xalqning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan edi. Jurnal sahifalarida ta’lim islohatlari, ijtimoiy muammolar, tarix va adabiyot masalalari yoritildi [9].

Behbudiy “Padarkush” (1913) pyesasi orqali teatr san’atini ham Sharq va G‘arb an’analarining uyg‘unlashgan shakli sifatida rivojlantirdi. Bu asar Yevropa dramaturgiyasi an’analariga asoslangan holda, Turkiston jamiyatidagi dolzarb muammolarni – jaholat, surunkali ta’lim tizimi va axloqiy tanazzulni aks ettirdi [10].

Behbudiy merosini fanlararo tadqiq etishning ilmiy ahamiyati. Behbudiyning ma’rifatparvarlik faoliyatini to‘liq anglab yetish uchun uni faqat tarix fani doirasida emas, balki pedagogika, falsafa, adabiyotshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan ham tadqiq etish zarur. Fanlararo yondashuv Behbudiyning ta’lim islohotlari, ijtimoiy-falsafiy qarashlari va madaniy faoliyatining yaxlit manzarasini yaratish imkonini beradi [11].

Behbudiy g‘oyalarining zamondoshlari va keyingi avlod ziyolilariga ta’siri. Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari faqat o‘z davri bilan chegaralanib qolmay, keyingi avlod jadidlari va ziyolilarining faoliyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munnavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid arboblari Behbudiyning ta’lim sohasidagi islohotchilik tajribasidan bahramand bo‘ldilar. Fitrat o‘zining “Munozara” asarida Behbudiy ilgari surgan g‘oyalarni yanada chuqurroq rivojlantirdi va Buxoro madrasalarining isloh qilinishi zaruriyatini isbotlab berdi [12].

Behbudiy tomonidan yaratilgan “Oyina” jurnali va “Samarqand” gazetasi Turkiston ziyolilari uchun muhim ma’rifiy minbar vazifasini o‘tadi. Bu nashrlar orqali u nafaqat Samarqand, balki Buxoro, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardan kelgan yosh ziyolilarni ham o‘z atrofiga to‘pladi. Behbudiyning matbuot faoliyati jadidchilik harakatining tashkiliy jihatdan mustahkamlanishiga ham xizmat qildi. U turli mintaqalardagi jadidlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, fikr almashish va birgalikda harakat qilish uchun platforma yaratdi [13].

Behbudiyning Sharq va G‘arb ta’lim an’analarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilgari surgan modeli XX asrning birinchi choragida Turkiston hududida ochilgan ko‘plab usuli jadid maktablarining asosiy pedagogik tamoyiliga aylandi. 1910-yillar boshlariga kelib Turkiston bo‘ylab 100 dan ortiq jadid maktablari faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning aksariyatida Behbudiy ishlab chiqqan o‘quv dasturi asos qilib olindi. Bu maktablarda dunyoviy va diniy fanlarning uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitilishi, zamonaviy pedagogik usullarning qo‘llanilishi va ona tilida ta’lim berilishi Behbudiy yaratgan modelning amaliy muvaffaqiyatini ko‘rsatdi [14].

Shuningdek, Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. U ta’lim islohotlarini faqat maktab va madrasa doirasida ko‘rmay, balki jamiyatni tubdan o‘zgartirish vositasi sifatida qabul qildi. Uning fikricha, millatning taraqqiyoti uchun avvalo xalqning savodxonlik darajasini oshirish, ayollar ta’limiga e’tibor qaratish va kasb-hunar ta’limini rivojlantirish zarur edi. Behbudiy ayollar ta’limi masalasini birinchilardan bo‘lib ko‘tarib chiqqan jadid arbobi sifatida ham

tarixda o‘z o‘rniga ega. U “Oyina” jurnali sahifalarida ayollarning bilim olishi, kasb egallashi va jamiyatdagi faol ishtirokining zaruriyatini targ‘ib qildi [15].

Behbudiy merosining bugungi kundagi dolzarbligi shundaki, u ilgari surgan tamoyillar – milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda jahon tajribasini o‘zlashtirish, ta’limda nazariya va amaliyotni birlashtirish, fan va texnologiyalarni milliy ehtiyojlarga moslashtirish – hozirgi O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ta’lim islohotlarining asosiy tamoyillari ko‘p jihatdan Behbudiy bir asr oldin ilgari surgan g‘oyalar bilan hamohang ekanligini ta’kidlash joizdir [16].

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik qarashlari Sharq va G‘arbta’lim an’analarining ijodiy sintezi asosida shakllangan. Behbudiy an’anaviy Sharq ta’limining axloqiy-ma’naviy asoslarini saqlab qolgan holda, G‘arbning zamonaviy ta’lim usullari va ilmiy yondashuvlarini Turkiston sharoitiga moslashtirdi. Uning “usuli jadid” maktablari, matbuot faoliyati va ijtimoiy islohotlari bu sintezning amaliy ifodasidir.

Behbudiyning bu tajribasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilishda milliy qadriyatlar va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish zaruriyati Behbudiy g‘yolarining hamon amaliy qimmatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Uning merosini fanlararo tadqiq etish esa Turkiston jadidchilik harakatining mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 56–90.

2. Alimova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkiston jadidchiligi. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 12–45.

3. Xo‘jayev A. Behbudiyning ta’lim qarashlari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 34–60.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 15–45.

5. Rajabov I. Turkiston va Turkiya: madaniy aloqalar tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 78–110.

6. Abdullayev R. Jadidchilik va zamonaviy ta’lim. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 45–70.

7. Xoliqov A. Turkistonda jadid maktablari tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 56–89.

8. Dolimov U. Samarqandda jadid maktablari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 34–56.

9. Qosimov B. Turkiston matbuoti tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2003. – B. 45–78.

10. Rahimov Z. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: San’at, 2008. – B. 12–35.

11. Karimov N. Jadidchilik merosini fanlararo o‘rganish. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 23–50.

12. Fitrat A. Munozara. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 5–40.

13. Qosimov B. Turkiston jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 89–120.

14. Xoliqov A. Usuli jadid maktablarining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 67–95.
15. Alimova D. Turkiston jadidlarining ayollar ta’limi haqidagi qarashlari. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 34–58.
16. Ergashev A. Jadidchilik g‘oyalari va O‘zbekiston ta’lim islohotlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – B. 45–78.

MA’RIFIY ISLOHOT JONKUYARLARI

Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Buxoroda Abduvohid Burhonovning tashabbusi bilan “Tarbiyai atfol” jamiyati tashkil etilib, sarmoyadorlarning homiyligi yordamida yoshlar Istambul, Orenburg, Qozon, Konstantinopol singari xorij shaharlariga o‘qishga yuborildi. “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati tarixini uning a’zolaridan biri S.Ayniy batafsil hikoya qiladi. U o‘z tarjimai holida unda belgilangan qoidalarni quyidagicha ta’riflaydi: “Biz jamiyat a’zolarini juda qattiqqo‘llik bilan qabul qildik. Bizning jamiyatimizni haqiqatan ham siyosiy deb atash mumkin emas va, albatta, inqilobiy deb bo‘lmaydi. Lekin o‘zining o‘rta asr tuzumi bilan amir hukumati va Buxoroda o‘rta asr usullarini qo‘llagan rus chorizmi boshliqlari ilm-fan va ta’lim sohasidagi ishlarni hatto inqilobiy anglashdi, shuning uchun ham bizdek jamiyat a’zolarini “davlat” jinoyatchilari deb bilishgan”. S.Ayniyning yozishicha, “Tarbiyai atfol” jamiyati 28 kishidan iborat bo‘lib, shundan 14 nafari mulla yoki mulla o‘g‘illari, 3 nafari mudarrislardan bo‘lgan.

“Tarbiyai atfol” o‘z faoliyatini yozma, yashirin holatda, ma’rifiy maqsadlar bilan cheklab qo‘ygan bo‘lsa-da, aslida bu jamiyat a’zolari islohotlarni o‘tkazish, o‘sha paytdagi boshqaruv uslubiga qarshi siyosiy targ‘ibot olib borishdi. S.Ayniy jamiyatning vazifasini quyidagicha belgilaydi:

1.Maorif sohasida – xalqni ilm-ma’rifat bilan tanishtirish, bilim olishga intilayotganlarga har tomonlama yordam berish, xalq orasida gazeta, jurnal va boshqa adabiyotlarni tarqatish. Jamiyatning har bir a’zosi savodsizlarga har qanday fursatda ovoz chiqarib o‘qib berish uchun o‘zi bilan doimo gazeta va adabiy-ma’rifiy kitob bo‘lishi shart, savodlilar uchun esa bahs boshlash zarur edi.

2.Xalq manfaatlarini himoya qilish sohasida – oddiy xalqning an’anaviy isrofgarchiligi va yomon odatlarga qarshi kurashish, to‘y-hashamlar, motam tadbirlari vaqtidagi xarajatlarni kamaytirish.

3.Hukumatga qarshi tashviqot sohasida – amirlik hukmron doiralari (amir, qushbegi, beklar, qozilar, ruhoniylar)ning o‘zboshimchalik, zo‘ravonlik va istibdodlarini xalqqa ko‘rsatish.

“Tarbiyai atfol” jamiyati o‘z a’zolariga eng qattiq talablarni qo‘ydi: axloqiy poklik, isrofgarchilikka qatnashmaslik, sharob ichmaslik, so‘ziga sodiqlik, sir saqlay bilish va nihoyat, o‘z farovonligidan oldin ta’lim-tarbiyaga fidoyilik kabi talablar

mavjud edi. “Tarbiyai atfol” jamiyatining birinchi maqsadi bilim olmoqchi bo‘lganlarga yordam berish, imkon qadar ko‘proq odamlarni ilmni o‘zlashtirishga undash edi. Buxoroda yangi usuldagi madrasalar bo‘lmagani uchun, birgina yo‘l qolgan, ya’ni yoshlarning chet elga o‘qishga ketishiga ko‘maklashish edi. Jadidlar Rossiyaning Orenburg, Qozon, Ufa, Bog‘chasaroy kabi musulmon markazlaridagi ta’lim muassasalari orqali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratdilar.

Istanbulga o‘qish uchun ketayotganlar soni yildan-yilga ortib bordi. Ular bilan “Tarbiyai atfol” jamiyati aloqani davom ettirdi va 1909-yil oxirida Turkiya poytaxtida “Chamiyati tamimi maorifi Buxoro” (“Buxoro maorif targ‘iboti jamiyati”) tashkil etildi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1910-yilda Konstantinopolda buxorolik yoshlarning 50 nafar vakili bo‘lib, ularning aksariyati turk maktablarida o‘qigan. Sadriddin Ayniy 1911-yilda Istanbulda 15 nafar talaba, 1914-yilda esa 30 nafar buxorolik yoshlar o‘qiganligini ko‘rsatadi. Talabalarni Turkiyaga jo‘natish xarajatlari uchun pul ma’rifatparvarlikka xayrixoh bo‘lgan savdogarlar va liberal arboblar orasidan undirilar, tabiiyki, jamiyat mavjudligining siri ochilmasdi. “Tarbiyai atfol” jamiyati qattiq nazorat mavjudligi tufayli Istanbuldagi talabalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki u yerga vakil qilingan jamiyat a’zolari orqali muloqot qilib, maxsus koddan foydalangan. Shuning uchun ham “Tarbiyai atfol” jamiyatining asosiy vazifalaridan biri buxorolik bolalarni Turkiyaga o‘qishga yuborish bo‘lib, ularning soni yildan-yilga ortib borganligi manbalarda qayd etilgan.

“Ko‘mak” jamiyatining yuzaga kelishida Maorif komissariyati O‘zbek bilim hay’ati qoshida o‘rta, oliy maktablarda o‘quvchi o‘zbek yoshlarining “Adabiyot to‘garagi” asosiy o‘zak bo‘lib xizmat qildi. To‘garak tomonidan 1922-yil 8-aprelda “Armug‘on” nomli bir martalik jurnal chop etildi. U yosh qalamkashlarga ulkan tajriba maktabi bo‘ldi. Jurnalda Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida maqola, ustoz Cho‘lponning “Tilak yo‘lida” she’ri, Abdulla Avloniyning “Tarixiy hikoya”lari bilan birga yoshlardan Botu, Oybek, ayniqsa, Xosiyat Tillaxon qizi, Manzura Sobir qori qizi (Oydin) kabilarning she’rlariga ham keng o‘rin berildi. Elbek, Usmonxon Eshonxo‘jaev, Said Ahmadlarning bir qator ilmiy, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi o‘tkir maqolalari chop etildi. Shuningdek, keyinchalik Germaniyada tahsilni davom ettirgan Sattor Jabborning “O‘ksiz ruhim”, Sayyidalixo‘janing “Tabiatdan javob” maqolalari to‘garakda jamlangan yosh qalamkashlarning naqadar kuchli badiiy dididan dalolat berib turgan.

“Ko‘mak” tashkilotining yuzaga kelishi jarayonini Salimxon Tillaxonov o‘z maqolasida quyidagicha tasvirlaydi. “Ko‘mak” uyushmasining maqsadi Turkiston talabalariga oliy tahsil asoslarini yaratmoq, xorijga va ichki Rossiyaga borib o‘quvchilarning ishlarini yengillashtirishdir”. Tashkilot birinchi navbatda “Toshkent dorulfununi va boshqa maktablarda o‘quvchilar o‘qishda davom etib turgan chog‘laridagi ko‘rgan qiyinliqlarni tajribadan kechirganlaridan keyin va kelgusida o‘qushlarini va yuqori tahsillarini tamom qilmoqlari uchun tashkil etildi” deydi. “Ko‘mak” markaziy tashkilotining amaldagi rahbari Salimxon Tillaxonov tashkilot uchun juda ko‘plab insonlarning beminnat yordami bo‘lganligi, ayniqsa, hukumat idoralarida ishlovchi yoshlarga ham nihoyatda ko‘p ko‘mak berganligini aytadi. Hozir ham ular qarab turmasdan o‘z ustilariga tushgan xizmatlarni bajo keltirmoqdalar. Va o‘quvchilar tomonidan bir necha yerda klub, teatru va yig‘inlar

qilib oqcha to‘pladilar. Bundan boshqa har bir shahar va uezdlarga alohida vakillar yuborib ko‘mak to‘pladilar deydi. Biroq, bu paytga kelib turli tazyiqlar natijasida markaziy “Ko‘mak” tashkiloti ham amalda o‘z faoliyatini tugatishga majbur bo‘ldi. “Ko‘mak” va uning ishchilari o‘zining asos toshini qo‘ydi. U bu fursat ichida Russiya va Ovro‘pog‘a bir qancha o‘quvchilar yuborishga muvaffaq bo‘ldi.

Xullas, jadidlar pedagogikaning didaktik tamoyillariga asoslanib, o‘z mintaqasi xalq ta’limi tizimiga yangilik kiritdilar. Ular o‘z maktablarining o‘quv rejasi va dasturlariga haqiqiy umumta’lim fanlarini – ona tilida o‘qish va yozishni, arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik, rus tili va boshqalarni kiritdilar. Boshlang‘ich maktab islohoti ijtimoiy hayotda jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Demak, mahalliy va Rossiya hokimiyatlarining doimiy nazorati ostidagi jadidlarning “Tarbiyai atfol”, “Ko‘mak” ma’rifiy xayriya jamiyatlari Turkistonda bilim va ma’rifatni yoyishda muhim rol o‘ynadi. Bu jadidlar jamiyatlari faqat ma’rifiy maqsadlarni ko‘zlaganlar: yangi uslubdagi maktablarga homiylik qilganlar, odamlarni ilm-ma’rifat bilan tanishtirganlar, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborishgan, o‘lka aholisi o‘rtasida gazeta, jurnal va boshqa dunyoviy adabiyotlarni tarqatishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.X.Shodiyeva, S.I.Boymurodova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Buxoro. “Bukhara hamd print” nashriyoti. 2024-yil.

2. G.X.Shodiyeva. Buyuk ma’rifatparvar (Ismoil Gasprali faoliyatiga bir nazar). Til va adabiyot ta’limi. 2024. №10.

3. G.X.Shodiyeva. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid darsliklarning o‘qitilish jarayonini o‘rganishning pedagogik mazmuni. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. №3/1. 2024-yil.

4. G.X.Shodiyeva. Jadid ma’rifatparvarlarining adabiyot ta’limiga qo‘shgan hissasi. “Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali. 2025-yil 4 (8)-son

5. G.X.Shodiyeva. Turkiston jadid maktablarining tashkiliy mazmuni, g‘oyaviy manbaasi, o‘quv rejalarining pedagogik mohiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. №3/2.2025-yil.

6. Г.Х.Шодиева. О появлении идей движения джадидов в Туркистане и первых педагогических реформах. Гуманитарные и общественные науки. Электронный научный журнал. Пермь ПГГПУ. 2025. №1.

7. Г.Х.Шодиева. Восток в конце XIX начале XX века деятельность системы образования. World of Scientific news in Science International Journal Vol Issue 2. 2024. 400-405 pages.

8. G.X.Shodiyeva. Turkistonda ta’limga oid islohotlarning davriy matbuotdagi ifodasi (“Oyna” jurnali misolida). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi shahri, 2024-yil 30-aprel.

9. G.X.Shodiyeva. Turkistonda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o’zbek tilida yaratilgan darsliklarning mazmuni. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi shahri, 2024-yil 30-aprel.

10. G.X.Shodiyeva. Experiences in the field of educational content and textbook creation in the history of eastern nations. Maktabgacha ta’limda xalqaro tajribalar transformatsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosdagi ilmiy anjuman. 2024-yil 29-noyabr.

11. G.X.Shodiyeva. Ilm ziyo maskani. “Zamonaviy va sifatli ta’lim taraqqiyot negizidir” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to‘plami. Buxoro: OXU, 2025. 24-25-aprel.

12. G.X.Shodiyeva. Jadid ma’rifatparvarlarining kitob-nashriyot hamda kutubxona muassasalari. “Fan va ta’lim” xalqaro ilmiy-metodik, ma’naviy-ma’rifiy elektron jurnali. 2025-yil 25-mart. №170.

13. G.X.Shodiyeva. Turkistonda jadidchilik harakati hamda jadidlarning maktab ta’lim tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida zamonaviy psixologiyaning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro. 2025-yil 22-aprel.

14. G.X.Shodiyeva. Literature lesson in the education of Bukhara madrasahs. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN – 2771-2141) Volume 04 Issue. 01.2024. 155-158 pages.

15. G.X.Shodiyeva. Education of social sciences in eastern madrasahs. International scientific and practical conference “Trends of modern science and practice” Ankara, Turkey 2024. 32-37 pages.

16. G.X.Shodiyeva. Sharq madrasalarining faoliyati hamda ularda o‘quv-tarbiyaviy jarayon masalalari. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”. Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2024-yil 2-son.

TURKISTON JADIDLARI MA’RIFATPARVARLIK G’OYALARIDA XOTIN-QIZLAR ERKINLIGI

Abdullayeva Yulduz Nabiyevna

BuxDPI, I bosqich magstranti

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadid harakati nafaqat ta’lim tizimi va ma’rifiy jarayonlarni modernizatsiya qilishga qaratilgan, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tuzilishini tubdan o‘zgartirishga intilgan. Jadidlar harakati 1890–1910-yillar oralig‘ida shakllangan bo‘lib, u Markaziy Osiyo xalqlarining ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qator tashabbuslar bilan ajralib turgan. Bu davrda Turkiston aholisi orasida an’anaviy ta’lim va diniy maktablar dominant bo‘lib, ayollarning ta’limga kirishi cheklangan edi. Shu bois, jadidlar ma’rifatparvarlik g‘oyalari orqali ayollarning

ta’lim olish huquqini targ‘ib qilishni jamiyatni modernizatsiya qilishning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan.

Jadidlar o‘z risolalarida va gazetalarida ayollarning huquqlari, ularning oilaviy va ijtimoiy mavqesi, shuningdek, jamiyatdagi faol ishtiroki masalalarini doimiy ravishda yoritgan. Ularning fikricha, xotin-qizlarning ta’lim olishi nafaqat individual bilim va ma’rifat darajasini oshiradi, balki butun jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, Buxoro va Xiva hududlaridagi jadidlar qizlar uchun alohida maktablar tashkil qilgan va ularni adabiyot, tarix, matematika va diniy bilimlar bilan tanishtirgan, shu bilan birga, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilishga intilgan.Shuningdek, jadidlar harakati gender tengligini ilgari surishda muhim rol o‘ynagan. Ular xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini faqat oilaviy yoki diniy doiralar bilan cheklashni emas, balki ularni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishga undagan. Bu esa gender masalalarini jamiyat modernizatsiyasi va ta’lim tizimini isloh qilish bilan uyg‘unlashtirish imkonini bergan. XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadid harakati o‘zining ma’rifiy g‘oyalari bilan nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlar ta’limi masalasini ham ilgari surgan. Jadidlar ayollarning ta’limga kirishini jamiyatning modernizatsiyasi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim deb hisoblagan. Bu qarash, ularning risolalari, maqolalari va gazetalarida doimiy ravishda aks etgan Jadidlar risolalarida ayollarning ilmiy va ma’rifiy rivojlanishi nafaqat oilaviy, balki jamiyat hayotidagi mavqeini oshirish vositasi sifatida ko‘rilgan. Masalan, jadidlar “qizlarni o‘qitmasak, kelajak avlodning bilim darajasi past bo‘ladi” degan fikrni doimiy ta’kidlagan. Bu yondashuv ayollarning jamiyatda faol ishtirok etishini rag‘batlantirgan va ularning ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.Xiva, Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlarida jadidlar tomonidan qizlar uchun alohida maktablar tashkil etilgan. Ushbu maktablarda o‘quv dasturlari nafaqat diniy bilimlar bilan cheklanmay, balki tarix, matematika, adabiyot va tabiiy fanlarni ham o‘z ichiga olgan. Bu esa xotin-qizlarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qilgan.

Jadidlar harakati gender tengligini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy harakat orqali ilgari surishga intilgan. Ular ayollarning ijtimoiy faolligi va ta’lim olishini rag‘batlantirgan, shu bilan birga oilaviy va huquqiy mavqeini mustahkamlashga e’tibor qaratgan Misol: 1912 yilda *Shuhrat* gazetasida chop etilgan maqolada shunday deyilgan: “Ayol o‘z bilimini oshirsa, jamiyat ham rivojlanadi. U nafaqat o‘zini, balki oilasini va jamiyatini ham o‘qitadi”.Jadidlar bu yondashuv orqali jamiyatda gender tengligini ilgari surishga intilgan va ayollarning faol hayotga kirishini rag‘batlantirgan.Jadidlar ta’lim orqali xotin-qizlarni kasb-hunar bilan tanishtirgan. Masalan, Buxoro va Xiva hududlarida maktablar qizlarga tikuvchilik, to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilikni o‘rgatgan. Bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi faol ishtirokini oshirishga yordam bergan.Jadidlar harakati ayollarning erkinligi va gender tengligini jamiyat modernizatsiyasi jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rgan. Ularning ta’lim, ijtimoiy faollik va huquqiy mavqe bilan bog‘liq g‘oyalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tadbiq etilgan.Jadidlar risolalarida ayollarning

jamiyatdagi roliga alohida e’tibor qaratilgan. Ularning fikricha, xotin-qizlar faqat oilaviy mas’uliyat bilan cheklanmasdan, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo‘lishi kerak. Masalan, *Taraqqiy* gazetasida 1911 yilda chop etilgan maqolada shunday ta’kidlangan: “Jamiyatni rivojlantirishda ayolning o‘rni erkakning o‘rnidan kam emas; u ham bilim bilan, ham mehnat bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi”.Shu fikr asosida jadidlar qizlarni o‘qitish, hunarmandchilik va kasb-hunar bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirgan. Bu esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Jadidlar gender tengligini ilgari surish uchun quyidagi amaliy yondashuvlarni qo‘llagan:

1. **Ta’lim tizimini kengaytirish** – qizlar maktablari tashkil etilib, ularning dasturlari erkaklar maktabi bilan tenglashtirilgan.
2. **Kasb-hunar va hunarmandchilik** – qizlar hunarmandchilik, tikuvchilik va o‘quv kurslari orqali iqtisodiy faoliyatga jalb qilingan.
3. **Ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirish** – qizlar va ayollarni madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy yig‘ilishlarda faol qatnashishga o‘rgatish.

Jadidlar g‘oyalari ayollarning huquqiy mavqeini mustahkamlashga ham yo‘naltirilgan edi. Ular nikoh va oilaviy munosabatlarda ayollarning huquqlarini himoya qilish, bolalar tarbiyasi va ma’rifatga mas’uliyatli yondashuvni targ‘ib qilgan. Bu esa jamiyatda gender tengligi tushunchasini mustahkamlashga yordam bergan.Masalan, Xiva jadidlari risolalarida ayollarning o‘qishi va jamiyatga faol ishtiroki shunday ta’kidlangan:“Ayol ilm olmasa, jamiyatning barcha a’zolari bilimdan mahrum bo‘ladi. Shuning uchun har bir qizimiz maktabga borishi shartdir.Shuni ta’kidlash joizki, jadidlar harakati gender tengligini nafaqat nazariy darajada, balki amaliyot orqali ham ilgari surishga intilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshlaridagi Turkiston jadidlari g‘oyalari xotin-qizlar erkinligi va ta’limi masalasida ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Jadidlar harakati nafaqat ma’rifiy yangilanish va jamiyat modernizatsiyasini targ‘ib qilgan, balki ayollarning ijtimoiy, huquqiy va madaniy mavqeini oshirishga qaratilgan sistematik tashabbuslar bilan ajralib turgan.Jadid maktablari va ularning o‘quv dasturlari ayollarga zamonaviy bilim olish imkoniyatini yaratgan, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga rag‘batlantirgan. Bu esa gender tengligini shakllantirish va ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy faolligini oshirishda muhim tarixiy poydevor bo‘lgan.Shuningdek, jadidlar g‘oyalari orqali modernizatsiya jarayoni bilan birga ayollarning huquqiy va ijtimoiy huquqlari targ‘ib qilingan. Bu yondashuv XX asr boshidagi Markaziy Osiyo jamiyatida gender tengligi va ta’limning rivojlanishi bo‘yicha muhim ilmiy va amaliy asos yaratgan.Natijada, Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari xotin-qizlar ta’limi va erkinligi masalalarini o‘rganish, gender tadqiqotlari va Markaziy Osiyo tarixi sohalarida tarixiy poydevor sifatida foydalanishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodiriy, O. (1981). Tarixiy manbalar va jadidlar. Toshkent: Fan.
2. Sultonova, N. (2005). Turkiston jadidlari va ayollarning ta’limi. Toshkent: Sharq.
3. Askarov, T. (1999). Jadid harakati va ijtimoiy islohotlar. Toshkent: Ilm.

4. Mirzaeva, L. (2010). Buxoro va Xiva jadidlari risolalari tahlili. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
5. Sobirov, F. (2012). Gender va ma’rifat: Turkiston kontekstida. Toshkent: Ilmiy maqolalar to‘plami.
6. Shuhrat gazetasi. (1912). Toshkent.
7. Taraqqiy gazetasi. (1911). Toshkent.
8. Qodirov, H. (2002). Markaziy Osiyo ijtimoiy modernizatsiyasi va jadidlar harakati. Toshkent: Ilm.
9. Karimov, A. (2015). Jadidlar va ayollarning huquqlari: tarixiy va zamonaviy tahlil. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
10. Saeedova, M. (2018). O‘zbek jadidlari: milliy uyg‘onish va gender masalalari. Samarqand: Ilmiy nashrlar.
11. Nuriddinova, Z. (2020). Ayollar ta’limi va ijtimoiy taraqqiyot: 19–20 asrlar kontekstida. Buxoro: Sharq
12. Rahmonov, S. (2016). Jamiyat modernizatsiyasi: tarix, nazariya va amaliyot. Samarqand: Ilmiy tadqiqotlar jurnali.

TURKISTON JADIDCHILIGI TARIXIDA BEHBUDIY VA MUNAVVARQORI FENOMENI: TARIXIY TAHLIL

Xayrullayeva Dilnoza Narzullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy sahnasida bo‘y ko‘rsatgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalarini o‘ziga asosiy maqsad qilib oldi. Ushbu davrda taraqqiyparvar xalq namoyandalari — jadidlar xalq ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida ilg‘or va ezgu fikrlarni ilgari surib, har jabhada ma’naviy kurash olib bordilar. Ma’rifatparvarlar an’anaviy ta’lim tizimi bilan birgalikda, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini maorifga joriy etishga izchil intildilar. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Vatanimiz ozodligi yo‘lida jon fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma’rifiy va adabiy-badiiy merosi bugungi tinch va erkin hayotimizning qadrini anglashda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi[1]. Ushbu ulug‘vor g‘oyalarni keng targ‘ib qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi siymolarning milliy davlatchilik poydevorini yaratishdagi o‘rni alohida e’tirofga loyiqdir.

Turkiston jadidchilik harakatining boniysi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati hali u hayotlik davridayoq Sadriddin Ayniy, Hoji Muin va Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan yoritila boshlagan edi. Mustaqillik yillarida jadidlar merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi natijasida Behbudiy shaxsi yangicha ilmiy qarashlar asosida qayta kashf etildi. Xususan, Hoji Muinning 1922–1923-yillarda *Mehnatkashlar tovushi* va *Zarafshon* gazetalarida chop etgan biografik maqolalari Behbudiy siymosini yoritishda bugungi kunga

qadar muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda[5]. Hoji Muin ma’lumotlariga ko‘ra, Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan olim oilasida dunyoga kelgan[5]. U 1893-yildan boshlab Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiladigan turkiy hamda forsiy matbuot bilan yaqindan tanishib, ijtimoiy-siyosiy voqealarni sinchiklab kuzatadi[5]. Harakatning tamal toshi bo‘lgan maktab islohotiga qattiq bel bog‘lagan adib, 1903-yilda o‘z tashabbusi bilan Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi usul maktablarini tashkil etadi va ushbu ta’lim maskanlari uchun maxsus darsliklar yaratadi[5].

Behbudiy g‘oyalarining munosib davomchisi va Toshkent jadidchilik maktabining yo‘lboshchisi Munavvarqori Abdurashidxonov bo‘lib, uning ismi "nur olgan", "ziyoli" ma’nolarini anglatishi ham bejiz emas[11][3]. 1878-yilda Toshkentning Darxon mahallasida mudarris oilasida tavallud topgan Munavvarqori, 23 yoshidayoq o‘z maktabini ochib, yangi usuldagi milliy ta’lim tizimiga asos soldi[3][4]. U nafaqat adib va pedagog, balki XX asr o‘zbek milliy matbuoti, teatri va ijtimoiy tashkilotlarining ("Ko‘mak", "Nashriyot") faol tashkilotchisi sifatida namoyon bo‘ldi[3][12]. Garchi sho‘ro davrida qoralangan bo‘lsa-da, uning ma’rifiy xizmatlari hatto Yevropada ham e’tirof etilgan[18][19]. Shunday qilib, ushbu ikki buyuk fenomenning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy va Munavvarqori o‘z faoliyatlari bilan Turkiston xalqini ma’rifat yo‘lida birlashtirish va milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirishda uyg‘un tizimni yaratgan fidoyilar hisoblanadi.

Turkiston jadidchilik harakatining rivojlanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu ikki shaxs Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik fonida milliy ozodlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishiga bevosita turtki bergan fenomenal shaxslar sifatida tarixda qoldi. Ismoil Gasprinskiy asos solgan jadidchilik oqimi Turkistonga kirib kelishi bilan uning mahalliy shakllanishida Behbudiy va Munavvarqori markaziy rol o‘ynadi. Ular nafaqat ta’lim va matbuot sohasida, balki teatr, siyosiy tashkilotchilik va milliy davlatchilik g‘oyasini ilgari surishda ham faol ishtirok etib, harakatni ko‘p tarmoqli tizimga aylantira oldilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining yetakchisi va milliy ma’rifat rahnamosi sifatida tan olinadi. Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilada tug‘ilgan Behbudiy dastlab otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja va amakisi Muhammad Siddiq qozi rahbarligida an’anaviy ta’lim oldi, arab tilini mukammal o‘rgandi va shariat ilmlarida mufti darajasiga ko‘tarildi. Haj ziyorati (1899–1900) va xorijiy sayohatlari uning dunyoqarashini kengaytirib, Ismoil Gasprinskiy va fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalaridan ta’sirlanishiga sabab bo‘ldi. Behbudiy millatni uyg‘otishning asosiy vositasi sifatida matbuot va kitobni ko‘rdi: “Nashriyoti Behbudiyya” xususiy nashriyotini tashkil etib, Fitratning *Bayonoti sayyohi hindi* asarini rus tiliga tarjima qildi va chop ettirdi[5].

Behbudiy faoliyatining cho‘qqisi 1913–1915-yillarda nashr etilgan *Oyna* jurnali bo‘ldi. Ushbu jurnal sahifalarida milliy huquqlar, til muammolari, dunyo siyosati va yoshlarni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirish masalalari o‘tkir

muhokama qilindi[13][14]. Uning *Sayohat xotiralari* (1914) memuari XX asr boshidagi o‘zbek adabiyotidagi tarixiy-biografik janrning mukammal namunasi sifatida baholanadi va muallifning xalqaro tajribalari, ma’rifiy xulosalarini aks ettiradi[13]. Behbudiy til masalasiga alohida e’tibor qaratib, 1913-yildagi *Ikki emas, to‘rt til lozim* maqolasida o‘zbek tilini milliy birdamlik asosi, fors tilini madaniy meros, arab tilini diniy asos va rus tilini zamonaviy ilm-fan vositasi sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidladi[13][15].

Behbudiy faqat nazariyotchi emas, balki amaliy siyosiy arbob edi[5][13]. U Samarqandda yangi usul maktablariga poydevor qo‘ydi, *Turkiston idorasi*, *Yoshlarga murojaat*, *Ehtiyoji millat*, *Bizni kemiruvchi illatlar* kabi maqolalarda jaholat, dabdabali to‘ylar va ilmga befarqlikni qattiq tanqid qildi[5]. Zo‘ravonlikni rad etib, madaniy yuksalish va murosa yo‘lini tanlagan Behbudiy Turkiston Muxtoriyatining faol tarafdori bo‘ldi[16]. Biroq bolsheviklar tomonidan Muxtoriyat qonga botirilishi uning orzularini chil-parchin qildi. 1919-yilda Shahrisabzda qo‘lga olinib, Qarshida qatl etilishi butun Turkiston uchun katta fojia bo‘ldi; Fitrat kabi zamondoshlari uning vafotini marsiyalarda yod etdi[5].

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) esa jadidchilikning Toshkent markazidagi eng faol yetakchilaridan biri sifatida ajralib turadi[3][4][11]. Toshkentning Shayxontohur dahasida mudarris oilasida tug‘ilgan Munavvarqori yetim qolganidan so‘ng onasi Xosiyat otin va Usmon domla qo‘lida ta’lim oldi, keyin Yunusxon madrasasi va Buxoro ta’lim tizimida diniy ilmlarni o‘zlashtirdi[3]. Jadidchilik g‘oyalari “Tarjimon” gazetasi orqali unga yetib keldi va u millatni jaholatdan qutqarishni o‘z bosh maqsadi deb bildi[3].

Munavvarqori 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib o‘z hovlisida yangi usul maktabini ochdi[3]. Uning metodikasi bolalarni 6 oy ichida to‘la savodli qilishga imkon berdi (an’anaviy maktablarda bu jarayon 5 yil davom etardi)[3]. Maktab zamonaviy qurollar — parta, xarita, doska bilan jihozlandi, dunyoviy fanlar o‘qitildi[3]. U *Adibi avval* va *Adib us-soniy* darsliklarini o‘z mablag‘lari hisobidan nashr ettirdi[3]. Ta’lim va tarbiya birligini komil inson shakllanish asosi deb hisoblagan Munavvarqori 1916-yilda yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yuborish tashabbusini ilgari surdi va oliy ma’lumotli ziyolilar qatlamini shakllantirish g‘oyasini ilgari surdi — bu g‘oya keyinchalik O‘zbekiston Milliy universiteti tashkil topishiga zamin yaratdi[3][4].

Matbuot sohasida ham uning hissasi ulkan: *Taraqqiy*, *Xurshid*, *Najot*, *Kengash*, *Sadoyi Turkiston* kabi gazetalarni tashkil etib va boshqarib, milliy ongni uyg‘otishga xizmat qildi[3][12]. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev bilan hamkorlikda chiqargan nashrlar xalqaro matbuotni kuzatib, ilg‘or g‘oyalarni mahalliy turmushga tatbiq etishga urindi[3][12]. Siyosiy faoliyatda *Sho‘roi Islomiya* tashkilotiga asos solib, Behbudiy va Mustafo Cho‘qay bilan birga mustaqil Turkiston qurish yo‘lida kurashdi[3][12].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy va Munavvarqori jadidchilikni matbuot, teatr, maktab va siyosat sohalarini qamrab olgan ko‘p qirrali harakatga aylantirdi. Sovet mafkurasi ularni “burjua millatchisi” deb qoralab, jismonan yo‘q qilgan bo‘lsa-da (Behbudiy 1919-yilda qatl etilgan, Munavvarqori 1931-yilda qatag‘on qilingan)[5][3], ularning ma’naviy merosi bugungi mustaqil

O‘zbekistonning intellektual asoslari va Uchinchi Renessans poydevori sifatida xizmat qilmoqda. Ularning asosiy maqsadi — istibdoddan qutulish, xalq ongini oshirish va milliy uyg‘onish orqali ozodlikka erishish edi. Ushbu fidoyi mehnatlar mustamlakachilikka madaniy-ma’rifiy zarba berib, bugungi mustaqillikning nazariy va amaliy zaminini yaratdi.

Turkiston jadidchiligi XX asr boshidagi milliy uyg‘onishning eng yuqori bosqichi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi fenomenal shaxslarning fidoyiligi tufayli shakllandi. Ushbu ma’rifatparvarlar Chor mustamlakachiligi zulmi ostida qolgan jamiyatni yangi usul maktablari, milliy matbuot va teatr orqali jaholatdan qutqarishni ozodlikning yagona yo‘li deb bildilar. Ularning faoliyati shunchaki ta’limiy islohot emas, balki milliy o‘zlikni anglash va istiqlol g‘oyalarini jamiyat ongiga singdirishga qaratilgan yaxlit intellektual harakatga aylandi.

Tarixiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy va Munavvarqori tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar Turkiston Muxtoriyati kabi milliy davlatchilikning ilk huquqiy qadamlariga zamin yaratdi. Garchi sovet mustamlakachilik davrida ushbu siymolar “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilinib, ularning merosi soxtalashtirilgan bo‘lsa-da, jadidlar yaratgan mustaqillik tafakkuri millat xotirasidan o‘chmadi. Ularning fojiali qismati va shahidlik maqomi kelajak avlodlar uchun vatanparvarlik va millat ozodligi yo‘lidagi oliy fidoyilik namunasi bo‘lib qoldi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayoni aynan jadidlar merosiga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Behbudiy va Munavvarqori kabi ajdodlarimizning yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi, ularning asarlari qayta nashr etilishi milliy qadriyatlarimizning tantanasidir. Jadidchilik harakati davrida shakllangan ma’rifatparvarlik va ma’naviy yuksalish g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimining va barkamol avlod tarbiyasining ma’naviy o‘zagini tashkil etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov fenomeni O‘zbekiston mustaqilligining intellektual va ma’naviy tamal toshini qo‘ygan muhim tarixiy hodisadir. Ularning ozod va farovon jamiyat qurish haqidagi orzulari bugun amalda o‘z ro‘yobini topmoqda. Jadidlar merosini chuqur o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish nafaqat o‘tmishga ehtirom, balki mustaqilligimizni mustahkamlash va Yangi O‘zbekistonni barpo etishda doimiy harakatdagi ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi // O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 2020-yil 30-sentabr. [Elektron resurs]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/3864

II. Jadid namoyandalarining asarlari

2. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi S. Ahmedov). – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

3. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Abdurashidxonov M. Men sendamen. Asarlar (Ikkinchi, to‘ldirilgan nashri). – Toshkent: Info Capital Group, 2019.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashri). – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
III. Ilmiy adabiyotlar va monografiyalar
6. Alimova D. Jadidchilik harakatining ijtmoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent, 1999.
7. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
8. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009.
9. Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar... (Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar). – Toshkent: Sharq, 1999.
10. Ollvort E. Zamonaviy o‘zbeklar: XIV asrdan hozirgacha madaniy tarix. – Toshkent, 2000.
11. Qosimov B. Munavvarqori Abdurashidxonov // Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: Meros, 1997. – 3-son.
12. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.
IV. Davriy nashrlar (Gazeta va jurnallar)
13. Behbudiy M. // «Oyna» jurnali. – 1914. – 21-son.
14. Behbudiy M. // «Oyna» jurnali. – 1915. – 13-son.
15. Behbudiy M. // «Samarqand» gazetasi. – 1913. – 12-iyul.
16. Behbudiy M. // «Turkiston viloyatining gazeti». – 1911. – 29-sentabr. – 73-son.
17. Behbudiy M. // «Xurshid» gazetasi. – 1906. – 11-oktabr. – 6-son.
V. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro maqolalar
18. Mamadiyorov U. D. The Historical Significance of Mahmudkhoja Behbudi in New Uzbekistan Education Reforms // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ). – 2023. – Vol. 11, Issue 06. – P. 203–208. [Elektron resurs]. URL: https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/4155
19. Yusupova L. U. The Role of Munavvarqori Abdurashidkhanov in the Jadidist Movement // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, Issue 1. – P. 94–97. – DOI: 10.5281/zenodo.10599785.

TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI SAMARADORLOGINING ASOSIY PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Tilloyev Ulug‘ Umarovich

BuxDPI, harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Tarixga nazar solsak, yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, o‘z og’irini yengillatish uchun tinimsiz izlanadi, o‘qiydi, o‘rganadi va nimalarnidir yaratadi. Aynan shu harakat tufayli inson psixikasi doim taraqqiyot etib boradi. Qolaversa shu yo‘l bilan ham o‘zi yuksalib boradi, ham o‘z bilganlarini o‘zgalarga o‘rgatish orqali insoniyat tamaddunining yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shib boradi. Barcha xalqlarda, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi vorislik ta’minlanadi. Yana tarixga nazar solsak, ilk muloqot va munosabatga kirishish va avlodlarga meroslarni qoldirish, ya’ni ijtimoiy xotirotdagi ijtimoiy bilimlarni shakllanish yo‘lidagi qadimiy belgi-rasmlar orqali o‘z fikrini ifodalagan kromonyon odami bilan hozirgi fan-texnika samarasi bo‘lgan internet orqali axborot almashishgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot buning yaqqol isbotidir. Bu yutuqlarning zamirida shak-shubhasiz inson uning intilishlari, qiziqishlari, shuningdek, u bilan birga birga bo‘lgan atrofidagi kishilarning qo‘llab-quvvatlashi, yaqinlarining ishonchi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda inson, uning bilimi, so‘g’ligi ishchanligi, malakasi kabilar inson kapitali deyilsa, uning atrofidagi yaqinlari bilan munosabati, hamkorligi, ishonch, umumiy qiziqishlar oqibatida yuzaga keluvchi ijobiy munosabatlar va samara, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy capital va inson resurslarini ning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Biz tadqiqotimizda ta’limning globallashuvida inson resurslarini birlashtirish, ya’ni ta’lim samaradorligidagi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga to‘xtalmoqchimiz. Bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta’lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta’limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi[1]. Aynan mazkur tarbiya resursini atroflicha tadqiq qilmasdan turib uni rivojlantirish mushkul kechadi. Butun dunyoda vertualishish kuchayib, mutatsiyalashib borayotgan bir vaqtda isonlardagi tarbiya resursini o‘rganish va uning zamonaviy indikatorlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish eng ustuvor masalardan biri bo‘lishi kerak. Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta’lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslanga, qat’iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi[2]. Tadqiqotlarimiz globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy voqelikka ijtimoiylashuvidagi eng aossiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasi ham shaxsning kamoloti, ham ta’limni rivojlantirish uchun eng asosiy maslalardan biridir. Hozirgi kunda barcha xalqlar uchun ham barkamol shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda muhim ahamiyatga egaligi bizga ma’lum. Sababi, globallashuv jaddalashgan sari odamlarda marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoy yakkalanish), e’tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ishtiyoqsizlik kabi xususiyatlar ortib bormoqda. Mazkur holat sotsiumning ijtimoiy-ma’naviy muhitini beqarorlashuvini yuzaga keltiradi. Shu sabali bugungi kunda yoshlarda asosiy resurslardan biri bo‘lgan tarbiya masalasini ijtimoiy-psixologik omillari va barkamol shaxs tarbiyasidagi asosiy yo‘nalishlarni

belgilab olish, ularning ustuvor indikatorlarini ishlab chiqish juda zarur hisoblanadi. Yoshlarda tarbiyaning ijobiy fazilatlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik-omillarida ularning aniq belgilab olingan ma'naviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini ma'naviy indikator sifatida tahlili qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa tarbiya isharidagi profilaktika ishlarini maqsadli va manzilli tashkil qilishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq masalalarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, bu yo'nalishda dastlab tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga mas'ul shaxsning vazifasi ta'lim muassasasi jamoasi imkoniyatlarini yagona g'oyaga yo'naltirish, mavjud pedagogik-psixologik shartsharoitlardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashhis qo'yishdan iboratdir. XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antropotsentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlari milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigitqizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Xar bir xalq o'zining yoshlarida tarbiya va milliy tarbiya resurslariga alohida e'tibor qaratadi. Biz tadqotimizda yoshlarda asosiy ijobiy resurslardan biri bo'lgan milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilishda milliy tarbiyaning manbalarini o'rganish muhim jarayondir deb hisoblaymiz. Bizningcha, milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir. «Millat», «milliylik», «milliy g'urur», «milliy odob», «millatlararo muloqat madaniyati» tushunchalarining o'zagini arabcha «mil» so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada «o'zak», «'tub mohiyat», «negiz» ma'nolarini anglatadi. «Millat» so'zi esa bir necha ma'noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma'nolarini anglatadi. «Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zaklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovrupo xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian

dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib, singdi. «Tarbiya» so‘zi esa «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogikpsixologik ta’rif berish juda muhim sanaladi. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini «yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin. Ta’lim va tarbiya davlat tomonidan amalga oshirilar ekan, o‘z mamlakatining iqtisodiy, ma’naviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirildi. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy kafolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olindi. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik ruhiga ega. O‘zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo‘lida milliymadaniy markazlar tashkil etilib, ularning faoliyati matbuot, radio va televideniyeda keng yoritilishi milliy qadriyatlarni tiklash, boyitish orqali umumfuqaroviy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo‘li tanlaganini ko‘rsatdi. Chunki ”o‘zbek milliy madaniyati, tili an’analarini haqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar hisobiga bo‘lmasligi” davlat tomonidan kafolatlandi. Qaysi bir jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o‘sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e’tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan olina boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular o‘z xalqining eng go‘zal fazilatlaridan bo‘lgan milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonni o‘ziga mayoq qilib olib, Yangi O‘zbekiston sharafiga xizmat qila oluvchi o‘g‘il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak. Bu ijtimoiy buyurtma oila, bolalar bog‘chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonini ilmiy nazariy tadqiq qilishni taqozo qiladi[3]. “Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning: milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi; ta’limga oid siyosatning maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma’naviy manbai; o‘quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida umumfuqaroviy totuvlikka erishishining insonparvarona yo‘li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg‘unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg‘unlikka olib borishning pedagogik yechimi; ijtimoiy-ma’naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta’minlashning strategik ob’ekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan,

o‘quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, aytish mumkin-ki, milliy tarbiya tizimi – bu har bir xalqning o‘ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va taraqqiyotining tarbiyaviy talablariga asoslanib, yangi kompetensiyalarga ega avlodlarni yetishtirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya ilmiy-pedagogik atama sifatida kam o‘rganilganiga qaramasdan u har bir xalq bilan azaldan birga, mavjud edi. Chunki har bir xalqning tarixi – uning o‘zligiga, xalqchil madaniyatiga asoslangan tarbiyaning tarixidir. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas’ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta’sirchanligi sust bo‘ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta’siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Fodalanılgan adabıyotlar:

1. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

2. Jabborov X.X.. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

3. Jabborov X.X. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

UNUSUAL EXPERIMENTS OF THE JADIDS IN WOMEN’S EDUCATION AND THEIR LEGACY

Rashidova Iroda Ravshan kizi

3rd-year student, Group CHN-123

Jadidism was a reform movement among Muslim intellectuals in Turkestan and other parts of Central Asia during the late 19th and early 20th centuries. The term “Jadid” means “new” in Arabic, reflecting the movement’s focus on modernizing education and society under Russian colonial rule. The Jadids aimed to replace traditional madrasa education, which centered on rote memorization of religious texts, with a more practical system that included secular subjects such as mathematics, geography, history, and natural sciences [3].

Education was seen by the Jadids as the main tool to overcome ignorance and backwardness. They drew inspiration from earlier Muslim reformers, particularly Ismail Gasprinski from Crimea, who introduced the “usul-i jadid” (new method) schools. These schools used phonetic reading methods instead of the traditional syllable-by-syllable approach and incorporated modern subjects, including the Russian language, to prepare students for contemporary life [1].

Women’s education formed a central part of the Jadid project. The reformers argued that educating women was essential for the progress of the entire society. They believed that educated mothers would raise more knowledgeable and capable children, which would strengthen families and the nation as a whole. In a society where women had limited access to public life, the Jadids advocated for girls to receive literacy, basic knowledge, and practical skills. This position was considered radical at the time, as many traditionalists and religious leaders viewed expanded education for women as a challenge to established customs [2].

Prominent Turkestan Jadids, such as Mahmudkhoja Behbudiy and Munavvar Qori Abdurashidkhanov, opened new-method schools that accepted girls and wrote articles criticizing outdated educational practices. By 1917, more than 50 girls’ schools operated in Turkestan, despite strong opposition from conservative groups [1]. The Jadids sought to equip women with professional skills and enable them to contribute to society, drawing examples from more advanced regions while remaining rooted in their own cultural context [5].

The movement faced difficulties under Russian colonial administration, which sometimes closed these schools or imposed stricter controls. Nevertheless, the Jadids used newspapers such as “Taraqqiy” and “Oyna,” organized teacher training, and collected funds through charity to support their efforts. Women’s education became a symbol of the Jadids’ broader goal: national awakening, resistance to colonialism through knowledge, and the inclusion of women in building a stronger community [4].

In late 19th- and early 20th-century Turkestan, women occupied a restricted position in society. Influenced by traditional Islamic norms and shaped by Russian colonial rule, women were largely confined to domestic roles, with limited rights to education, property, or public participation. Illiteracy rates among women were extremely high, similar to patterns observed in other Muslim regions at the time [2].

Traditional views held that women required only basic religious knowledge, if any, and that further education was unnecessary or even inappropriate. Early marriage, seclusion, and dependence on male relatives were common. Although Islamic law granted women certain rights, social practice often restricted them significantly. Russian colonial policies, including land seizures and heavy taxation, added economic pressure on families and further isolated women [3].

The Jadids challenged these conditions by arguing that women’s education was not optional but obligatory for societal progress. They emphasized that mothers play the primary role in shaping the moral and intellectual development of children, so an ignorant mother would pass on ignorance to the next generation. Reformers

such as Abdullah Avloni stressed the duty of mothers to provide basic education at home while schools and fathers handled more advanced learning [5].

Jadid thinkers proposed a practical approach: girls should learn literacy, arithmetic, and useful knowledge, with female teachers ensuring appropriate learning environments. They supported their arguments with references to Islamic sources that encourage knowledge for both genders and pointed to examples from Europe and other Muslim regions where women received education without abandoning cultural values [1]. Despite opposition from clergy and conservative families, who issued fatwas against girls' schooling and feared cultural erosion, the Jadids viewed women's education as a path to stronger families, reduced poverty, and greater national resilience against colonial domination [4].

The Jadids conducted practical experiments by opening "usul-i jadid" schools and including girls in them, which was uncommon in the conservative society of Turkestan. These schools adopted modern teaching methods and aimed to provide both boys and girls with basic literacy and secular knowledge [3].

Some reformers experimented with mixed-gender classes. In Samarkand, Abdukodir Shakuri operated a school where boys and girls studied together, with his wife assisting female students. This arrangement met strong resistance from local communities and religious authorities [2]. In Tashkent, schools run by Eshonkhoja Khankhojaev and Sobirkhon Rakhimov enrolled small numbers of girls—three and fifteen respectively—and taught them reading, writing, and arithmetic alongside boys [1].

More commonly, separate girls' schools were established to reduce opposition. In 1913, Muhammadjon Khaliqi opened a girls' school in Kokand, where his sister served as a teacher. The curriculum included writing, mathematics, and practical skills. By 1917, over 50 such schools existed across Turkestan, supported by figures like Mahmudkhoja Behbudiy, who used personal funds and donations to sustain them [5].

These efforts encountered serious obstacles. Russian authorities closed some schools on suspicion of anti-colonial activity. Parents withdrew daughters due to concerns about propriety, and clergy issued religious rulings against female education. In response, the Jadids promoted the idea through newspapers, trained female teachers from local villages, and suggested husband-and-wife teaching pairs for rural areas [4]. Iskhakhan Ibrat documented these difficulties and advocated starting with simple literacy classes in conservative settings [2].

Despite the challenges, these initiatives brought hundreds of girls into formal education for the first time, sparking wider discussions about women's roles and rights in Turkestan society.

The curriculum in Jadid schools combined religious instruction with modern subjects. Students learned phonetic reading, the native language, arithmetic, history, geography, and natural sciences. Unlike traditional madrasas, these schools used blackboards, maps, group activities, and understanding-based methods rather than pure memorization [1].

For girls, programs emphasized moral education, home management, and citizenship skills. Textbooks such as Abdullah Avloni's "Turkish Gulistan or

Morality" and "First Teacher" became widely used. Other materials written by reformers included stories on ethics, health, and general knowledge adapted for female students [3]. Some schools introduced foreign languages, particularly Russian and Turkish, to broaden students' horizons. In girls' schools or mixed settings, female teachers handled subjects requiring gender-sensitive instruction [2].

Key reformers included Mahmudkhoja Behbudiy, who founded schools in Samarkand, published the newspaper "Oyna," and wrote plays that criticized outdated traditions while advocating women's literacy as part of national revival [5]. Munavvar Qori Abdurashidkhanov established schools in Tashkent, trained teachers, and produced textbooks that enriched the curriculum [1].

Abdulla Avloni focused on moral and ethical education through his writings and public enlightenment activities [3]. Abdukodir Shakuri experimented with mixed classes in Samarkand [2]. Muhammadjon Khaliqi developed girls' schools in Kokand with family support [2]. The movement's intellectual founder, Ismail Gasprinski, influenced Turkestan Jadids through his Crimean schools and newspaper "Tarjiman," where he supported separate education for girls [4].

Female contributors included Sara Muzaffaria, who wrote on unity and equality, and Salima Yakubova, who proposed training female teachers in a European style [2]. Others, such as Sofizoda and Tavallo, addressed women's dependence and the need for change in their works [2].

These reformers financed schools privately, sent students abroad for further study, and used theater to raise awareness of women's issues. From only a handful of new-method schools in 1900, the number grew to around 300 by 1917, with girls gaining increasing access [1].

Although Jadidism was suppressed under Soviet rule in the 1920s, with many leaders executed and schools closed, the ideas left a lasting impact. The movement established the principle that women should have access to education, laying the foundation for higher female literacy and participation in professions in modern Central Asia [1].

In present-day Uzbekistan and neighboring countries, policies supporting women's education reflect Jadid arguments about the importance of educated mothers for national development. After independence, Jadid figures and their contributions have been studied through academic conferences, publications, and school curricula, reviving interest in reformers such as Behbudiy, Fitrat, and Gasprinski [4].

Jadid literature, plays, and textbooks influenced later cultural and educational reforms. Some of their schools evolved into Soviet-era institutions, indirectly contributing to expanded girls' education during that period [5]. Their approach—balancing tradition with modern knowledge—continues to inform discussions on education in Muslim societies worldwide.

The Jadids demonstrated that deliberate experiments in women's education, even in difficult circumstances, can produce meaningful change and leave a legacy that extends far beyond their own time.

List of references

1. Ismailov, T. X. (2025). Strategies for organizing the educational process in Turkestan at the beginning of the 20th century and its objective goals. *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR)*, 9(3), 96–100. Доступно по: http://ijeais.org/wp-content/uploads/2025/3/IJAPR250311.pdf
2. Abdujabbarova, M., & Khaydarov, X. (2022). Turkestan Jadid enlighteners' views on education of girls. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(5), 2247–2252. Доступно по: https://www.int-jecse.net/media/article_pdfs/2247-2252.pdf
3. Bazarbayev, K. K., Tursun, H., & Sadykova, R. (2013). Jadidism as an Educational System and a Political Movement in Turkestan (Central Asia). *International Education Studies*, 6(1), 85–93. DOI: 10.5539/ies.v6n1p85 Доступно по: https://pdfs.semanticscholar.org/e946/3c9e44cb94bc0a98c376133a49d37b81f3f0.pdf
4. Mannonov, A., Sharipov, R., Ismatullayeva, N., Umarova, M., & Rasulova, K. (2023). Political and Legal Views of the Jadids of Turkestan. In *Proceedings of the 2nd Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies (PAMIR-2 2023)* (pp. 1342–1352). SCITEPRESS. DOI: 10.5220/0012966700003882 Доступно по: https://www.scitepress.org/Papers/2023/129667/129667.pdf
5. Nazarov, A. A. (2024). The Role of Modern Enlighteners in the Formation of the Idea of Education in Turkestan: The Second Half of the 19th Century – The Beginning of the 20th Century. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 12(4), 12–18. Доступно по: https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2024/08/Full-Paper-THE-ROLE-OF-MODERN-ENLIGHTENERS-IN-THE-FORMATION-OF-THE-IDEA-OF-EDUCATION-IN-TURKISTAN.pdf
6. Turkistan Jadid enlighteners' views regarding women's education (late 19th – early 20th centuries). (б.г.). Доступно по: https://zenodo.org/records/10682755/files/C-5.pdf

TURKISTON JADIDLAR HARAKATI VAKILLARINING TA'LIM-TARBIYAVIY FAOLIYATIDA VATANPARVARLIK TARBIYASI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Xikmatov Anvar Izatullayevich

BuxDPI, Harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Turkistonda yashab ijod qilgan jadidchilik harakati namoyandalari innovatsion g'oyalari bilan nafaqat o'sha davrning ma'naviy va madaniy yangilanishi, balki jamiyatning yangi ruhda shakllanishiga olib keldi. Turkiston jadidlari o'zlarining bilim va ma'rifiy sohadagi islohotlari orqali, ayniqsa ta'lim tizimini an'anaviy, diniy maktablardan zamonaviy maktablarga o'tishga yo'l ochib berdilar.

Turkiston jadidchi-ma’rifatparvarlari jamiyatda yangi g'oyalarni targ'ib qilish, shakllantirishga katta e'tibor berdilar va milliy tafakkurni tivojlantirish va mustaqillikka erishishga harakat qildilar. Ushbu maqolada ta'limning tarixiy roli tahlil qilinib, Turkiston jadidlari faoliyati, vatanparvarlik tarbiyasi va ularning innovatsion g‘oyalari ifodalangan.

Turkistonda jadidchilik harakati asosan XIX-asr oxirida vujudga keldi. Ularning asosiy g'oyasi diniy va an’anaviy ta’lim tizimiga qarshi turish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish, ularni mustaqil fikrlashlari va ijtimoiy yangilanishini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash edi. Jadidlar o'z faoliyatini bir necha yo'nalishda olib bordilar. Jadidlara Arab-islom ta'lim tizimi ularning ma'naviy poydevori bo’lsada, ammo zamonaviy Evropa ta'lim tizimini joriy etish tarafdorlari hisoblanganlar. Jadidlar tarbiyaviy faoliyatining asosiy bosqichlari maorifni takomillashtirishga qaratilib, ta’lim metodologiyasidagi o‘zgarishlar va yangi g‘oyalarni yanada rivojlantirishga qaratildi.

Turkiston jadidlari ta’lim-tarbiyani faqat ilm olish uchungina emas, bilim, balki ijtimoiy ongga, erkin fikrlashga, mustaqillikka o‘rgatishdan iborat deb hisoblaganlar. Turkiston jadidlari o‘z faoliyatini asosan XIX-asr oxiri va boshlarida boshlagan. XX-asr boshlari Turkiston tarixida mintaqaning Rossiya imperiyasi ta’siriga o’tib borishi, an'anaviy ta'lim tizimi va ijtimoiy tuzumning o'zgarishiga olib keldi. Bu o‘zgarishlarga javob sifatida jadidchilik harakati paydo bo‘ldi.

Turkiston jadidlari nafaqat ta'limni isloh qilish, balki butun jamiyatni madaniy jihatdan yangilash, ilmiy-ijtimoiy, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yangi g'oyalar, ilm-fan va madaniy yangilanishlarga shoshilinch ehtiyoj sezdi. Jadidlar o‘z faoliyatlarida ana shu ehtiyojni qondirishga intilib, yangicha uslub va g‘oyalarni ilgari surdilar. Ta’limni mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatni modernizatsiya qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda bilim olish, butun jamiyatni, ayniqsa, yoshlarni rag‘batlantirishga qaratildi. Ijtimoiy mas'uliyat, erkin fikrlash, o'z-o'zini anglash va jamiyatga foyda keltirish, nafaqat ilm-fan yutuqlari balki madaniy, siyosiy va ma’naviy yangilanishga ham xizmat qildi.

Jadidlar o’z dasturlarida har bir talabaga nafaqat bilim berish, balki ularni tarbiyalashga ham harakat qilganlar. Mustaqil fikrlash, vatanparvarlik, yangiliklarni qabul qilish va ularga xizmat qilish g‘oyasi ruhida tarbiyaladilar.

Jadidlar tomonidan ta’lim tizimiga kiritilgan yangiliklar ilg‘or g‘oyalar edi. Bu harakat Turkiston hududidagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotni yangi shaklga olib keldi. Jadidlar o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy bilimlarni ham berish zarurligini ta’kidlaganlar. Maktablarda tabiiy fanlar, adabiyot, tarix va geografiya kabi sohalardagi bilimlarni o'rgatdilar. Bu yondashuv, o'z navbatida, innovatsiyalarga ochiqlikni va yangi g'oyalarni qabul qilishni rag'batlantirdi.

Jadidlar ta’lim-tarbiyaga yangilik kiritish orqali yoshlarga bilim berishni maqsad qilganlar. Masalan, jadidlarning ta’lim sohasidagi eng katta yangiliklaridan biri, o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga o‘rgatish edi. Ular yoshlarni shunday ruhda tarbiyalashga undadilar. Vatanparvarlik, an’anaviy diniy qadriyatlar bilan birga zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lish, novatorlik g‘oyalarini ilgari surdilar.

Jadidlar ta’lim sohasidagi innovatsiyalar orqali yoshlarga zamonaviy bilimlar berishni maqsad qilib, vatanparvarlik tarbiyasi, an'anaviy ta'lim tizimi va diniy maktablarga qarshi kurash olib borganlar. Yangicha o'qish jadidlarning innovatsion tarbiyaviy g‘oyalari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ularning yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari bo’ldi.

Ularning eng muhim g'oyalari nafaqat diniy ta'limni isloh qilish, balki jamiyatni yangi g'oyalar, fan va madaniyat bilan yangilash, bunda jadidlarning yangicha yondashuvlari, an’anaviy tafakkurni tanqid qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, zamonaviy ta'lim tizimini yaratish va innovatsiyalarga ochiqlikni rag'batlantirish edi.

Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyati, ayniqsa, XIX-asr oxiri va XX0-asr boshlarida o‘sha davrda yashagan jamiyat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ularning g'oyalari va ishlari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi kunda ham bevosita ijobiy ta'sirga ega.

Milliy ta'lim tizimi va madaniyatni rivojlantirish, shuningdek, yoshlarni tarbiyalash, odamlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va yangicha ta’lim-tarbiyaviy g‘oyalari bilan jadidchilik harakati jamiyatni rivojlantirishga intildi. Bu harakatning asosiy maqsadi yoshlarga zamonaviy bilim berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yangicha dunyoqarash va yo‘l tutishga o‘rgatish, yngicha fikrlashni shaakllantirishdan iborat bo’lgan. Jadidchilik harakati nafaqat maorifda, balki ijtimoiy hayotda ham katta o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Ular ta’limni isloh qilish orqali yoshlarni fan, madaniyat va boshqa sohalarda yangicha qarashlarga yetakladi. Bu jarayonda keng tarqalgan an'anaviy qoidalarga qarshi kurashib, jadidchilar siyosiy tuzum, diniy tuzilmalar va o‘sha davrning ijtimoiy qatlamlarini o’zgartirish, shu bilan birga, yangilarini yaratish, ma'naviy, ilmiy, madaniy asoslar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ydilar.

Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyati, yangicha g‘oyalar va ta’lim sohasidagi islohotlar, ijtimoiy yangilanish va jamiyatini rivojlantirishddan iborat bo’lib, ilmiy izlanishlar uchun boy manba hisoblanib, ularning g‘oya va faoliyatini o‘rganishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. - 416 bet.

2. Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifiy faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasi va uning tarixiy ahamiyati. Innovatsion g’oyalar va madaniy yangilanish. Inter Education & Global Study, № 2 2025 205-215 betlar ilmiy-nazariy va metodik jurnali.

3. Odinaxon Xasanovna Tojiboyeva (2024). JADID ADABIYOTI. Markaziy Osiyo jurnali, 1 (3), 89-91. doi: 10.5281/zenodo.10841838

4. Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich (2024). JADIDCHILIK MILLIY HARAKATINING YANGI O’ZBEKISTONNI BARPO ETISHDAGI O’RNI VA ROLI. Markaziy Osiyo jurnali. Ta'lim va innovatsiyalar, 3 (10), 33-36. doi: 10.5281/zenodo.13907538

5. Ibragimov Solijon Ergashevich (2021). JADIDCHILIK HARAKATI. Sharq yg'onishi: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 1 (3), 119-129.

XORAZMLIK YOSHLARNING CHET ELLARDAGI TA'LIMI

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o`g`li,

NamDU, Tarix yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishi natijasida ilg`or fikrli ziyolilar yoshlarni chet el mamlakatlariga borib ta`lim olishini tarafdori bo`lishdi. Xonlik Rossiya mustamlakasiga aylanishiga qaramasdan madaniy hayot taraqqiyoti davom etaverdi. Bu ishlarga Xiva xonlari ham o`z xissalarini qo`shishdi. Xususan, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1864 – 1910) o`lkadagi madaniy hayot taraqqiyotiga xayrixoh hukmdorlardan edi. Uning davrida madaniy sohda ko'plab ishlar amalga oshirildi, ilm-fanga homiylik qilindi. [8. 249.].

XIX asr so`nggida Rossiya, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlarda bo`lgan ilg`or fikrli xon amaldorlari va sarmoyadorlar xorijdagi o`zgarishlardan barhamand bo`lish bilan birga o`z yaqinlari va farzandlarini ana shu mamlakatlarga ta`lim olishga yuborganlar. Masalan, Xiva xonligining Xonqa tumani hokimi Aminiddin Yoqub 1872-yili xon elchilari safida Hindistonga brogan va safar davomida dunyo o`zgarishlaridan katta taasurot bilan qaytgan. U o`g`li Muhammadni 1893-yili ta`lim olish uchun Fransiyaga yuborgan.

Otasi uni dastlab Xivadagi Arabxon madrasasida va To`rko`ldagi rus-tuzem maktabida (Asfandiyor to`ra ham shu maktabda o`qigan edi) o`qitgan. Ilmga bo`lgan iqtidori bois Muhammad Aminniddin o`g`li Arabxon madrasasidagi ta`limidan so`ng Istanbulga borib tahsilini davom ettirgan. U yerdagi o`qish jarayonida Turkiyaga kirib kelgan fransuz madaniyati va ilm-fani haqida ma`lumotlarga ega bo`lgan. Bu davrda xonlikda yerlarni sug'orishda suv muammosi asosiy masalalardan bo`lganligi bois, u suv xo`jaligi sohasida bilim olish uchun Fransiyaga boradi. Muhammad Aminiddin o`g`li 1893 – 1897-yillarda Fransiyaning Tuluza shahridagi Irrigatsiya kollejida ta`lim olgan [5. 271.].

Chet elda ta`lim olgan xivalik yoshlardan yana biri Rahmat Majidiy Orenburgdagi "Xusayniya" madrasasida taxsil olgan. Ammo uning madrasa ta`limi 1917-yil oktyabr voqealari sabab oxiriga yetmay qoladi. Shunday bo`lsada madrasa uning dunyoqarashiga katta ta`sir ko`rsatadi.

Shuningdek, bir qator xivalik yoshlar Istanbulga borib tahsil olganlar. Jumaniyoz Sharipovning "Xorazm" nomli romanida yozilishicha: "Xusaynbek Matmurodov xivalik yoshlardan bo`lib, Turkiyada ta`lim olgan. Istanbuldagi faoliyati davrida ana shu sarmoyadorlar bilan tanishgan". Xusaynbek Matmurodov Xiva xonligidagi faoliyati davrida ana shu sarmoyadorlar bilan doimiy aloqada bo`lgan [3. 70.]. Xusaynbek Matmurodov xonlikdagi "Yosh xivaliklar" tashkiloti Nozirlar kengashi raisi bo`lgan [2. 164.]. Ammo Xusaynbek Matmurodovning "Yosh xivaliklar" tashkilotidagi faoliyati ayanchli yakunlanadi. 1918-yili "Yosh

xivaliklar” tashkilotining yetakchilaridan Xusaynbek Matmurodov, Ishoqxo`ja Ibrohimxo`ja o`g`li, Abdusalomxo`ja Islomxo`ja o`g`li, Tolib Mahsum Avazxo`ja o`g`li xonning buyrug`i bilan Junayidxonning o`g`li Eshshi tomonidan qumda Kurtko`l degan joyda qatl qilinadi.

Yana bir Xiva yoshlaridan bo`lgan Bekjon Rahmonov 1913 – 1918-yillarda Turkiyaning Istanbul shahridagi semenariyada o`qiydi. Bu oliy ta`lim muassasasi ko`pgina xorijiy tillarni, diniy va dunyoviy bilimlarni o`rgatar edi. Bekjon Rahmonov Istanbuldagi ta`limni tamomlab, Xivaga qaytgach xonlikdagi maorif tizimini rivojlantirish yo`lida muallimlik qildi. Uning keyingi hayoti siyosat bilan bog`langan. U “Yosh xivaliklar” tashkilotida maorif va madaniyat vaziri bo`lgan. [3.70.]. Mulla Bekjon Rahmonov 1920-yildan nashr etilgan “Inqilob quyoshi” gazetasining muharriri bo`lib ishlagan. Uning tashabbusi bilan 1921-yil sentyabrda Xivada xalq universiteti tashkil qilingan. U 1925 – 1926-yillarda Xorazm viloyati maorif mudiri bo`lib ishlagan. Mulla Bekjon Rahmonov Xorazmda birinchi bo`lib, 1924-yilda lotin alifbosida darslik yaratgan. Mulla Bekjon Rahmonov hayoti fojeali yakun topgan. 1929-yilda OGPUning josuslari tomonidan Urganchdan uncha uzoqda bo`lmagan hududda Amudaryoda paraxod ichida maxfiy ravishda o`ldirilgan [9].

Chet elda ta`lim olgan xivalik yoshlardan yana biri Maryam Sultonmurodova (1905 – 1972) edi. Sultonmurodova Maryam Jumaniyozovna 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug‘ilgan [7. 106.]. Otasi Jumaniyoz Sultonmurodov taraqqiyparvar inson sifatida 1911-yil qizi Maryamni Urganchda yangi usuldagi jadid yoki mahalliy tilda no‘g‘oy (tatar) maktabiga bergan. Maryam u yerda besh yil o‘qigach, oilasi ko‘chishi sabab To‘rtko‘ldagi jadid maktabida ta’limni davom ettirdi. Maryam Sultonmurodova Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida o‘qidi, so‘ngra oliy ma’lumot olish maqsadida Orenburg tatar pedagogika institutiga o‘qishga kirgan. 1922-yil oktabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritilgan. Xorazm Xalq Respublikaning Moskvadagi muxtor vakilligi xodimi Karim Safaev yordamida Maryam xorij uchun pasport olib, Leningradga yo‘l olgan [6. 59.].

Leningrad portidan Xayriniso Majidxonova va To‘lagan Mo‘minovlar bo‘lgan guruh bilan paroxodda Germaniyaning Shtesin shahriga borganlar. Maryam Sultonmurodova avvaliga Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o‘qigan. So‘ng Darmshtadt shahridagi “Viktoriya” o‘qituvchilar seminariyasiga kirib ikki yil ta’lim olgan. 1926 – 1927-yillarda esa Potsdamdagi “Fraunshul” ayollar maktabida amaliyot o‘tagan. 1927-yil yozgi ta’til vaqtida dugonasi Xayriniso Majidxonova bilan Fransiya poytaxti Parijga sayohat qilar ekan, ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafo Cho‘qaylar bilan qisqa muddatli uchrashuvi keyinchalik qatag‘on etilishi uchun asosiy bahona bo‘ldi. Maktabdagi amaliyoti izidan Maryam Berlindagi professor Genrix Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini ham o‘qib bitiradi va 1928-yil SSSRga qaytadi [6. 61.].

Maryam yurtga qaytgandan keyin 1929-yil fevralida Germaniyada ta’lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo‘lib ishga kirishga muvaffaq bo‘ladi. 1929-yil oxirida Asqar Axmadbekov bilan oila qurib, to‘rt yil

Kattaqo‘rg‘onda yashagan. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga qaytib O‘rta Osiyo davlat universitetida, “Guliston” va “Yorqin turmush” jurnallarida ishlagan.

Ammo uning bu tinch hayoti ko`pga bormagan. Bu davrdagi butun ittifoqda bo`layotgan qatag`onlik to`lqini Maryamni ham chetlab o`tmadi. 1937-yilda Maryam “nemis josusi”, “fashizm tarafdori” sifatida ayblanib, 10 yil qamoq jazosiga hukm qilinadi [7. 108.]. Tintuv jarayonida uning pasporti, diplomlari, mehnat daftarchasi, xatlari, kitoblari, 35 ta shaxsiy suratlari xatlanib tortib olindi [6. 63.]. Shu tariqa Maryam 6 oylik qizi Anora bilan qamoqxonaga tushdi. U jazoni dastlab Toshkent, so‘ng Qozon va Suzdal qamoqxonalarida o‘tadi. Keyin uzoq Kolima oblastiga yuborilib, Magadandagi “Dalstroy” qurilishida 1947-yil 13-sentabrgacha azob-uqubat chekdi. 1947-yilda Maryam qamoqdan chiqib, yurtiga Xorazmm viloyatiga keladi va Urganch tumanida hamshiralik qilib boshlaydi.

Biroq, uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal unga vatanga xiyonat, aksilinqilobiy tashkilotlarga azolik ayblovlari qo`yildi. Bu ayblovlar natijasida Maryam uzoq Krasnoyarsk o`lkasiga surgun qilindi. Surgundan 1954-yilda qaytib keladi. Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi [6. 65.]. Maryam Sultonmurodova surgundan qaytib kelgandan keyin, umrining oxirigacha o`zi tug`ilgan Chandirqiyot qishlog`ida yashadi va 1971-yilda vafot etdi. Undan xalqimizga “Rahmat desinlar”, “Majnuntol”, “Qalbim nidosi”, “Mehr ko‘zda”, “Karvonlar kelganda”, “Kutilmagan baxt”, “Betamiz yigit” nomli hikoyalari meros bo’lib qoldi [6. 67.].

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Xiva xonligida “Yosh xivaliklar” tashkilotining tuzilishi natijasida, xonlikda madaniy jihatdan o`zgarishlar bo`ldi. Bu jarayonda Xiva xonlari va bir qator davlat amaldorlari ham ishtirok etdi. Ta’lim jarayonida islohotlar qilindi. Xivalik yoshlar chet ellarda o`qish uchun jo`natildi. Bu jarayon tepasida “Yosh xivaliklar” tashkiloti turdi. Ammo “Yosh xivaliklar” tashkilotining faoliyati ayanchli tarzda yakunlandi, azolarining ko`pchiliki fojeali tarzda o`ldirildi. Buning natijasida chet ellarda talim olayotgan yoshlar qiyinchiliklarga duch keldi va vatanga qaytishga majbur bo`ldilar. Vatanga qaytganidan keyin ham ular osoyishta hayot kechirmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғофур-Ғулом , 1991. – 128 б.

2. Jo`rayev N. O`zbekiston tarixi. 3-kitob. – T.: Sharq, 2011. – 736 b.

3. Йўлдошев А. Чет элларда ўқиган туркистонлик ёшлар. – Т.: Фан, 2024. – 272 б.

4. Йўлдошев Ж., Хасанов С. Жадид тарихшунослиги асослари // Халқ таълими. – Тошкент. – 1992. – №11-12. – Б. 34.

5. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: Abu Matbuot-Konsalt, 2007. – 388 б.

6. Mamatqulov D., Irzayev B. Tanilmagan ayol jadidlar: Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova. – Toshkent, 2024. – 73 b.

7. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент, 2006. – 256 б.

8. Холиков К., Худойберганов К. Хоразм қўнғирот иноқлари шажараси. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 298 б.
9. www.jadid.uz.

JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MUSIQAGA OID QARAShLARI

Qandov Zikrulla Narzullaevich

BuxDPI, Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Jadid ma'rifatparvar adiblari dunyoviy fanlarga katta e'tibor bilan qaradilar. Ayni zamonda adabiyot borasidagi qarashlari ham chuqur mazmuni va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ma'rifatparvar Fitrat qomusiy ijodi bilan o'zbek ilm fani yuksalishiga munosib hissa qo'shdi. Jadid adabiyotshunosligi shakllanishiga munosib hissa qo'shgan Abdurahmon Sa'diy qarashlari nafaqat adabiyot ilmi, balki san'at va musiqa bilan bog'liq ilmiy qarashlar rivojiga ham munosib ulush bo'lib qo'shildi. Jadid ma'rifatparvarlarining ruhiyatni poklovchi musiqa san'ati borasidagi qarashlari, qimmatli fikrlari zamonaviy san'at rivojida ayricha ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu jihatdan "Adabiyot qoidalari", "Amaliy ham nazariy adabiyot darsligi" asarlari muhim manba vazifasini o'taydi.

Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari hozirga qadar o'z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda. Bu asar aslida adabiyotshunoslik muammolaridan bahs etsa-da, undagi san'at va musiqaga oid qarashlari ham alohida e'tiborga molik. Mazkur kitobda Fitrat dastlab "san'at" so'ziga ta'rif beradi: "San'at lug'atda hunar demakdirkim: bir narsani o'ziga kasb qilib olib, shunga berilib, yaxshi ishlab chiqaraturg'an bo'lsa, bu ish uning san'ati bo'ladir" [1, 68]. Ko'rinadiki, Fitrat bunda san'at so'zini keng ma'noda sharhlayotir. Go'zallik yaratish ma'nosini ifoda etuvchi bu so'zni mutafakkir kasb tarzida tushuntiradi. Haqiqatan, kasb ko'p yillar o'qish va o'rganish asosida egallanadi. San'at ham xuddi shunday. U kasb darajasiga yetgandagina san'at bo'la oladi.

O'z fikrlarini davom ettirib, olim yozadi: "Tirik bir kishining ko'b bir tilaklari, istaklari, umidlari, ehtiyojlari bo'ladir. Shularga erishsa sevinadir, erishmasa qayg'uradur. Odam o'zining tegrasidaki turli voqealardan, bo'lub turg'an ishlardan, turli ko'rinishlardan, boshqa kishilarning boshlariga tushkan baxtli baxtsiz voqealardan ham ta'sirlanadir: shodlanadir yo qayg'uradir" [1, 68]. Haqiqatan, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar: uning shodlanishi yoki qayg'urishi bilan bog'lik ichki kechinmalar qandaydir bir ko'rinishda o'zini namoyon etishi kerak. "Har kim o'zining shodliqli qayg'uli tuyg'ularini boshqalarg'a bildirmak, ularni ham shu tuyg'ular bilan tuyg'ulantirmoq istaydir" [1, 69]. E'tibor berilsa, Fitrat san'at tug'ilishi jarayonini ifoda etar ekan, ayni zamonda, o'zbek tili leksikasini boyitish yo'lidan boradi. Jumladan, tuyg'u so'zidan "tuyg'ulantirmoq" fe'lini hosil qiladi. Shu asosda san'atning qanday yuzaga kelishiga diqqat qaratadi: "Yurak, fikr, tuyg'u to'lqunlarini so'z, tovush, bo'yov, shakl, harf, harakat kabi tovarlar (materiyollar)

yordami bilan jonlantira chiqarib, boshqalarda ham shu to‘lqunni yaratmoq” hunariga go‘zal san’atlar deyiladir” [1, 68]. Fitrat san’atni yuzaga keltiruvchi materiyollar, ya’ni vositalar haqida fikr yuritar ekan, insoniyat hayoti davomida u tomonidan yaratilgan san’atlarni yuzaga keltirgan muhim “tovar”larni tilga oladi: so‘z, tovush, bo‘yov, harf, harakat. Haqiqatan ham, so‘z yordamida adabiyot, tovush yordamida musiqa, bo‘yov – bo‘yoq orqali rassomlik, harakat orqali sahna san’ati vujudga keladi. Shu bilan birga, olim san’atga xos yana bir muhim jihatni: inson qalbi kechinmalarini tasvirlamoq va shu to‘lqunni boshqalarga yuqtirmoqlik xususiyatini alohida ta’kidlaydi. Zero, qachon shu vositalar orqali san’at yaratiladi, qachonki uning vositasida insonga ta’sir etilsa, uni yo quvontirsa, yo qayg‘ulantirsa.

Fitrat go‘zal san’atlarni shu asosda tasniflashga o‘tadi: “Go‘zal san’atlarda tovar (material) tovush, ohang bo‘lsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqlar bo‘lsa, rasm bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’danlar esa, haykalchilik bo‘ladir: tosh, yog‘och, kirpich (ya’ni g‘isht. Ta’kid bizniki), ganch, turpoq bo‘lsa, me’morliq bo‘ladir; tan, mug‘a harakatlari esa o‘yun (tans) bo‘ladir; so‘z esa adabiyot bo‘ladir” [1, 69]. Mug‘a harakatlari deganda, imo, qosh va ko‘z harakatlari, mimika, muqom qilmoq nazarda tutiladi. Olim har bir san’at vositalarini haqida batafsil fikr yuritadi va go‘zal san’atlarni 6 ga bo‘ladi: 1. Musiqiy. 2. Rasm. 3. Haykalchilik. 4. Me’morchiliq. 5. O‘yun (tans) 6. Adabiyot.

Ayni paytda Fitrat bu san’at turlarini uyg‘un jihatlarini inobatga olib, ikkiga bo‘lib tasnif qiladi: “Go‘zal san’atlarning mana shu olti turlari bir birlarig‘a yaqinlashmoq e’tibori bilan iki turkumga ayriladir. Adabiyot, musiqa, o‘yun (tans) bir turkum; rasm, haykal, me’morliq bir turkum bo‘ladir” [1, 69]. E’tibor berilsa, ta’sirchanlik nuqtai nazaridan musiqa, raqs va adabiyot san’atlari yaqin. Fitrat ham shu jihatga diqqat qaratgan holda, ularni bir turkumga kiritadi. Qolaversa, san’atlar orasida inson ruhiyati kengliklarni yaxlit aks ettiruvchi, uning iztirob-u quvonchlariga “sherik” bo‘luvchi go‘zal san’atlar, avvalo, musiqa va adabiyotda aks etadi. Chunki musiqachi badiiy so‘zga ohang, kuy baxsh etadi va uning qalbga tezroq yetib borishini ta’min etadi.

Demak, Fitratning san’at va musiqaga oid qarashlari chuqur nazariy asosga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Atoqli olim Abdurahmon Sa’diy “Amaliy ham nazariy adabiyot darsligi” kitobida Fitratning san’at va musiqaga oid qarashlarini davom ettiradi. Aytish mumkinki, bu ikki allomaning ko‘p fikrlarida uyg‘unlik, yakdillik kuzatiladi. A.Sa’diy ham go‘zal san’atlar haqida fikr yuritadi va san’at ta’rifini keltiradi: “San’at fikr va his, to‘lqinlarni tizmalandirib (sistemalandirib), shularni jonli ham jozibali bir ravishda suratlandirib chiqarish ustalig‘idir” [1, 73]. Ko‘rinadiki, bu ta’rif deyarli barcha san’atlar mohiyatini aks ettiradi. Chunki adabiyot ham, rassomchilik ham, musiqa ham inson his-kechinmalarini bir tizimga solib, jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi. Olim shu tarzda san’atkorga ham ta’rif beradi: “O‘zida bu ustaliq bo‘lg‘an odamlar san’atkor (san’atchi) bo‘ladilar” [1, 73]. Demak, olim fikricha, hamma ham san’atkor bo‘la olmaydi. San’atkorda inson his-kechinmalarini suratlantirish, obrazlantirish fazilati bo‘lishi kerak. Shu tarzda olim go‘zal san’at tushunchasi mohiyatini ochishga kirishadi: “Hosil tabiatda ishlanmagan narsalardan chiroyliq – go‘zalligi bilan odamning fikr va hislarin, xayollarin harakatga keltirarlik

bir ravishda bir odam boshindan ishlanib chiqqan narsalar go‘zal san’at bo‘ladir” [1, 73]. Haqiqatan, inson iqtidori bilan yaratilgan rasm, kuy, badiiy asar fikr va hislarni “harakatga” keltiradi. A.Sa’diy san’atni yaratish uchun vosita kerakligini aytib, ularni birma-bir asoslaydi. Shu tarzda go‘zal san’atlarni 5 turga bo‘ladi: 1. She’r yoki so‘z san’ati, quloq san’ati. 2. Musiqa. 3. Rassomliq – ko‘rumli san’atlar yoki nafis shakl (plasticheskoe isskustvo) san’atlari. 4. Me’morchiliq. 5. Haykalchiliq.

E’tibor berilsa, A.Sa’diyning san’at turlarini belgilash bilan bog‘liq qarashlari Fitrat qarashlari bilan mushtarak va farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Binobarin, Fitrat san’atning olti turi haqida gapiradi, A.Sa’diy esa beshta xilini keltiradi. U o‘yun (raqs) san’atini alohida bermaydi. Aslida bu san’at musiqa san’atini ichki turiga kiradi. Qolaversa, Fitrat san’atlar orasida adabiyotni oxirgi o‘ringa qo‘yadi, Abdurahmon Sa’diy esa birinchi qilib beradi.

Abdurahmon Sa’diy bu san’atlarni aloqadorligiga ko‘ra baholashda Fitrat yo‘lidan boradi: “Bu san’atlarning har qaysi bir-birisi bilan bog‘lang‘an bo‘lib, birisi ikkinchisining taraqqiysi va komillashmagi uchun ko‘mak etishadilar” [1, 74]. Haqiqatan, san’atlar o‘zaro bog‘lab turuvchi turi adabiyot bo‘lib, u musiqa, haykaltaroshlik va boshqa san’atlarning ifodasi uchun xizmat qiladi. Olim ulardagi bog‘liklikni fikrda ko‘radi. Chunki barcha go‘zal san’at turlarini yaratishda tafakkur qilish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga u she’r va musiqani “masofada emas, zamonda zuhur etadilar. Bunlar bir birisi bilan shu xususiyatda birlashadilar”deydi. Aynan shu jihat Fitrat qarashlariga uyg‘undir. Shu xususiyatiga ko‘ra, A.Sa’diy musiqa va adabiyotni “zamoniyat san’atlari” deb ataydi. Fitrat san’atlarning yaqinligiga ko‘ra yana ikkiga bo‘lib tasnif etganiday, A.Sa’diy ham ularni ikkiga ajratadi: 1. Taqlidiy san’atlar. 2. Taqlidiy bo‘lmag‘an san’atlar. So‘z san’ati, rassomlik va haykaltaroshlikni taqlidiy san’atlarga, musiqa bilan me’morchilikni taqlidiy bo‘lmagan san’atlarga kiritadi. Shu bilan birga A.Sa’diy Fitrat alohida san’at sifatida qayd etgan o‘yun (raqs)ni go‘zal san’atlar qatoriga kiritmaydi. Haqiqatan, musiqa san’ati o‘ziga xos tarzda tarmoqlanadiki, uning harakat bilan bog‘liq turi raqsni tashkil etadi.

Ko‘rinadiki, Abdurahmon Sa’diy go‘zal san’atlarning o‘zigagina xos xususiyatlarini ochib beradi, ularni tasnif etadi. Olim ular orasida adabiyot va musiqaga ham yuksak baho beradi, ularning inson ruhiyatiga ta’siri kuchli ekanligini qayd etadi.

Xulosa. Umuman olganda, jadid ma’rifatparvarlari o‘z davrlarida san’atning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib, ularga xos xususiyatlarni, mushtarak va farqli jihatlarni ochib berdilar. Ko‘p o‘rinlarda bu ikki olimning qarashlari uyg‘unlik kasb etganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, musiqa san’ati borasidagi qarashlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboev talqinida. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. –426 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5. Alimova D. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mazmuni va mohiyati. – Toshkent, 2000.
6. Adib Xolid. O‘zbekiston tug‘ilishi: ilk sho‘ro davrida millat, hamjamiyat va siyosat. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
7. Zaki Validiy To‘g‘on. Xotiralar. – Toshkent: Fan, 1996.

ABDURAUF FITRAT IJODIDA MILLAT VA ISTIQLOL G‘OYASI

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Barotova Shahzoda Bobir qizi

Ijtimoiy fanlar kafedrasi talabasi

Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal, Hurkma - kirish, qo‘rqma - yopish, yo‘rilma - qo‘zg‘al!

Har bir xalqning taraqqiyoti, avvalo, uning ma’rifatli va ongli insonlariga bog‘liq bo‘ladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bizning yurtimizda ham ana shunday uyg‘onish davri boshlangan. Bu harakat jadidchilik deb atalgan bo‘lib, “jadid” so‘zi “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidlar eski usuldagi ta’lim va fikrlashni o‘zgartirib, zamonaviy bilim, ilm-fan va taraqqiyotni targ‘ib qilishni maqsad qilganlar. Jadidchilik harakati xalqni jaholatdan chiqarib, millatni uyg‘otishga qaratilgan eng muhim ma’rifiy harakatlardan biri bo‘lgan.Har bir xalqning taraqqiyoti, avvalo, uning ma’rifatli va ongli insonlariga bog‘liq bo‘ladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bizning yurtimizda ham ana shunday uyg‘onish davri boshlangan. Bu harakat jadidchilik deb atalgan bo‘lib, “jadid” so‘zi “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidlar eski usuldagi ta’lim va fikrlashni o‘zgartirib, zamonaviy bilim, ilm-fan va taraqqiyotni targ‘ib qilishni maqsad qilganlar. Jadidchilik harakati xalqni jaholatdan chiqarib, millatni uyg‘otishga qaratilgan eng muhim ma’rifiy harakatlardan biri bo‘lgan.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan, adibning otasi savdogarchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. Yosh Abdurauf asosan onasi Mustafo Bibi (Bibijon) tarbiyasida qoladi, undan Navoiy, Uvaysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy kabi yirik shoirlarning g‘azallarini tinglaydi. Dastlab eski maktabda, keyinchalik, Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. 1902-1903-yillarda haj safariga chiqqan, uni ado etgach Arabiston, Anatoliya (zamonaviy Turkiya), Kavkazorti, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab sayohat qilgan. 1906-1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod, Yaroslavl, Moskva, Petrograd shaharlarida bo‘lgan. XX asr boshlarida vujudga kelgan „Tarbiyai atfol“ jamiyati ko‘magida 1908-1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizg‘in ijod qilgan. Madrasada unga mudarris Yusuf Akchura ta’lim bergan .

Fitratning Usmonlilar poytaxtida yashab, Bolqon urushi hamda Yosh turklar harakati davrini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi uning millat va istiqlol haqidagi qarashlariga kuchli ta’sir qilgan. U oddiy talaba bo‘lib qolmay, atrofdagi siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilgan, Rossiyadan kelgan muhojirlar bilan muloqot qilib, turli g‘oyalar bilan tanishgan. Bu esa uning fikrlash doirasini yanada boyitgan. Shuningdek, dastlabki maqolalarining “Hikmat” jurnalida chop etilishi Fitratning ijodiy yo‘li erta boshlanganini anglatadi. Aynan shu davrda u o‘z oldiga millat ravnaqi uchun xizmat qilish maqsadini qo‘ygan. Chunki boshqa davlatdagi islohot va kurashlarni ko‘rgan inson, albatta, o‘z yurti haqida ham chuqur o‘ylay boshlaydi.

Mavjud bir necha teatr truppalari asosida Maorif xalq nozirligi tasarrufida bo‘lgan Davlat teatri tashkil qilindi, teatr san’ati ishlariga rahbarlik qilish uchun taniqli rejissor va sahna ustasi Mannon Uyg‘ur Buxoroga taklif etildi. 1921-yildan teatr ishlariga ko‘maklashish va “Buxoro axbori” gazetasiga muharrirlik qilish uchun shoir Cho‘lpon Buxoroga jalb qilindi. Buxoroda yangi usul maktablarini joriy qilish bilan birga musiqa va qishloq xo‘jaligi o‘quv yurtlarini tashkil qilishga erishdi. Bu o‘quv yurtlari uchun dastur va o‘quv adabiyotlari nashri bilan shug‘ullandi. Shuningdek, Fitrat Buxoro jumhuriyati hamda Turkiston ASSR o‘rtasida o‘quv yurtlari va maktablar uchun darsliklar tuzish borasidagi ishlarga ham mutasaddilik qiladi. Iqtidorli talabalarni Turkiya, Germaniya va Rossiya shaharlaridagi yetakchi universitetlarga o‘qishga yubordi. Nozirlar kengashin ing qaroriga binoan Buxoro jumhuriyatida turk ya’ni o‘zbek tilini davlat tili deb e’lon qildirdi. Tez orada Fitrat sobiq ittifoq hukumati huzuridagi Buxoro jumhuriyati Muxtor vakilligi tomonidan Moskvaga chaqirib olindi va u yerda chiqayotgan “Uchqun” hamda “Buxarskaya jizn” kabi vaqtli nashrlar ishlariga jalb qilindi, Lazarevlar jonli Sharq tillari instituti (hozirgi Moskva davlat universitetining Osiyo va Afrika instituti)ga ma’ruzalar o‘qish uchun taklif qilindi va u yerda professor unvoniga sazovor bo‘ldi. Fitrat Moskvadalik davrida ko‘proq badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ayni shu yillari uning “Abulfayzxon” fojiasi, “Bedil” nomli ilmiy badihasi va “Qiyomat”, “Shaytonning Tangriga isyoni” kabi asarlari yozildi. Bizningcha, so‘nggi ikki asar ruhi va uslubi jihatidan “Ilohiy komediya”ga yaqin turuvchi o‘z zamonasidagi adolatsizliklarga qarshi qaratilgan, diniy mifologik syujetni qayta ishlash asosida yaratilgan chuqur falsafiy asarlar sifatida o‘rganilishi lozim .

Jadid adabiyotida oila masalasi alohida o‘rin egallaydi, chunki jamiyatning mustahkamligi va taraqqiyoti avvalo oilaning sog‘lom va bilimli bo‘lishiga bog‘liq deb qaralgan. Shu nuqtai nazardan, Abdurauf Fitratning “Oila” asari o‘quvchi uchun juda qimmatli manba hisoblanadi. Asarda muallif oila, er-xotin munosabati, farzand tarbiyasi va oiladagi mehr-muhabbatning ahamiyatiga oid o‘z fikrlarini ifoda etadi. Fitrat oilani jamiyatning kichik modeli sifatida ko‘radi va uning to‘g‘ri shakllanishi orqali millatning taraqqiy etishiga xizmat qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u oiladagi tarbiyaning bolalar ongiga qanday ta’sir qilishini ham o‘rganadi va zamonaviy bilimlarning ahamiyatini urg‘ulaydi. Bu esa asarni nafaqat o‘quvchi uchun, balki har bir oilaning hayoti uchun ham foydali qiladi. Fitratning oilaga bo‘lgan qarashi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, har bir inson oilaning qadri va undagi munosabatlarning muhimligini tushunishi kerakligini eslatadi.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so‘z yuritganlar. Jumladan, Abdurauf Fitratning “Oila” Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Guliston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiylik yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiylik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi .

Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: “Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh”.Oilada ma’naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.Abdurauf Fitratning “Oila”asarida ham oila sog‘lom, yetuk farzandni ulg‘aytirib kamol toptirishda mas’uldir. Oila, farzandning ilk tarbiya maktabidir, chunki bolalar dastlabki qadamlardan boshlab oilada to‘g‘ri me'yorlar, qadriyatlar va axloqiy prinsiplarga asoslanib tarbiyalanadilar. Oilaning tarbiyadagi o‘rni quydagilardan iborat bularga: Axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish: Oila, farzandga to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshilik va yomonlik, hurmat va insof kabi axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish uchun birinchi va asosiy joydir. Shaxsiy rivojlanish: Oila farzandning shaxsiyati va hissiy intellekti rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muhitni ta'minlaydi. Farzand o‘zini o‘zi anglash, maqsadlar qo‘yish va ular uchun kurashish ko‘nikmalarini oilada o‘rganadi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Oila farzandga ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri qurish, boshqalar bilan muloqot qilish va birgalikda ishlashni o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarurdir. Emotsional qo‘llab-quvvatlash: Oilada farzandning his-tuyg‘ularini tushunish, qo‘llab- quvvatlash va muammolarni hal qilishda yordam berish muhimdir. Bu oilaning asosiy vazifalaridan biridir. Ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatish: Oila farzandga jamiyatga nisbatan mas'uliyatni, o‘z burchini bajarishni, boshqalarga yordam berishni o‘rgatadi. Bu qadriyatlar oilada shakllanadi va keyinchalik jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, tarbiya oilada boshlanadi va uning mustahkamligi farzandning kelajakdagi ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Oila farzandning hayoti davomida uni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy maskan bo‘lib qoladi .

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat ijodida millat va istiqlol g‘oyasi yetakchi o‘rin egallaydi. Uning “Oila” asari orqali jamiyat taraqqiyoti oiladan boshlanishi asoslab berilgan bo‘lsa, she’rlari va publitsistik maqolalarida milliy uyg‘onish, ozodlik va ma’rifat masalalari keng yoritilgan. Fitrat millat ravnaqi uchun har bir inson mas’ul ekanini ta’kidlaydi. Uning qarashlari bugungi kunda ham

o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, yoshlarni ilmli, ongli va vatanparvar bo‘lishga chorlaydi. Shu jihatdan Fitrat ijodi milliy tafakkurimiz rivojida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Adib Xolid. O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent Akademnashr 2022 — 60-bet. ISBN 978-9943-7575-4-7.

2. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq NMAK, 1994.

3. Sh.Olimov Fitrat merosini o‘rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. -314 b.

4. K. Xoshimov, Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. - Toshkent, O‘qituvchi, 1996.

JADID SHE’RIYATINING MILLIY ADABIYOT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI

Ibodova Nasiba Komilovna

Buxoro davlat texnika universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi

dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy tafakkur va adabiy jarayonga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida mahalliy ziyolilar oldida jamiyatni uyg‘otish, xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish vazifasi dolzarb masalaga aylandi. Ana shu tarixiy ehtiyoj jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy zaminlari

1865–1876-yillarda Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida yangi siyosiy tizim shakllandi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Yevropa ilm-fani va madaniyati bilan tanishish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Qrim-tatar ma’rifatchisi Ismoil G‘aspiralining “usuli jadid” maktablari Turkiston ziyolilariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o‘qitila boshlandi. Bu jarayon adabiyotda ham yangicha ruhni yuzaga keltirdi. Jadid she’riyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllandi va 1905–1917-yillarda faol rivojlandi. Bu davrda matbuot rivojlandi, gazeta va jurnallar nashr etildi. She’riyat milliy uyg‘onish g‘oyalarining asosiy targ‘ibotchisiga aylandi. Jadid she’riyatining badiiy xususiyatlari shakllandi.

Jadid shoirlari mumtoz she’riyat an’analarini saqlagan holda yangi mazmunni ilgari surdilar. Asarlarida ma’rifat, taraqqiyot, milliy birlik, ozodlik g‘oyalari markaziy o‘rin egalladi. Til soddalashdi, ijtimoiy muammolar ochiq tasvirlana boshlandi. Jadid she'riyatining muhim ahamiyati – ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy

leksikaning faol qo'llanishidir. “Millat”, “vatan”, “taraqqiy”, “hurriyat”, “ma’rifat”, “ilm” kabi birlashmalar poetik matn markaziga ko‘tariladi.

Masalan, Avloniy va Fitrat asarlarida “ilm” va “jaholat” oppozitsiyasi semantik maydon hosil qilib, she'rning g'oyaviy asosini ishlab chiqarish asosiy masala edi. Bu birliklar oddiy nominativ ma'nodan chiqib, ramziy-estetik mazmun kasb etadi. Jadid she’riyatini lingvopoetik xususiyatlar bo‘yicha quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Lingvopoetik jarayon.
- abstraktlarning obrazlashuvi;
- ideologik leksikaning poetiklashuvi;
- semantik kontrastlarning kuchayishi orqali namoyon bo'ladi.

2. Metaforik tafakkur va obrazlilik.

Jadid she'riyatida metafora milliy uyg'onish g'oyasining badiiy ifodasiga xizmat qiladi. Jumladan, Cho'lpon she'rlarida “quyosh”, “tong”, “nur” obrazlari ma'rifat va erkinlik ramzi sifatida talqin qurilgan.

3. Sintaktik qurilish va ekspressivlik.

Jadid she'riyatida ritorika so'roq, undov gaplar va takrorlar keng qo'llanadi. Masalan:
- “Ey millat, uyg‘on!”
- “Qachongacha jaholatda qolursan?”

Bu konstruktsiyalar emotsional ta'sirni kuchaytiradi va o'quvchini faol fikrlashga undaydi.

4.Sintaktik jihatdan:
- qisqa, faqat gaplar;
- parallellik;
- anafora va takror barqarorlik qiladi.

Bu esa jadid she'riyatining publitsistik ruh bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Jadid shoirlari mumtoz adabiyotdagi murakkab arabcha-forscha iboralarni ishlab, xalqona va sodda tilga murojaat qildilar. Bu jarayon o‘zbek adabiy tilining milliylashuvi va demokratlashuviga xizmat qildi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan bu:
- leksik soddalashuv;
- usuliy aniqlik;
- xalqona intonatsiya va publitsistik ohang uyg‘unligi bilan izohlanadi.

Cho'lponning she'rlaridan birida mashhur misralar mavjud:

“Ko‘nglimda bir o‘t yonar, so‘nmas aslo,
U o‘t – millat ishqi, ey yurtdoshlar”.

Misrani lingvopoetik tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalo, leksik-semantik qatlam nuqtayi nazardan tahlilga olamiz. Bu yerda “o't” leksemasi nominativ ma'noda emas, balki metaforik ma'noda qo'llangan. “O't” - ichki ehtiros, milliy dard, uyg'onish timsoli. U “millat ishqi” bilan izohlab berilgan, ya'ni metafora ochiq tipda qo'llanadi.

Semantik jihatdan esa:
- o't milliy → harorat → jo'shqinlik → ishq → tuyg'u.

Bu zanjir poetika kengayishini paydo qiladi. Jadid she'riyati o'zbek adabiyotida yangi lingvopoetik bosqichni bosqichga berdi. Unda badiiy til ijtimoiy-

ma'rifiy mazmun bilan boyidi. Metaforik tafakkur milliy uyg'onish g'oyasiga xizmat qildi. Sintaktik ekspressivlik kuchaydi. O'zbek adabiyot tilining modernlashuvi jadallashdi. Shunday qilib, jadid she'riyati milliy tarixiy-adabiy hodisa, balki lingvopoetik taraqqiyotning muhim bosqichida chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: zhasorat, marifat, fidoilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
2. Kuronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademinashr, 2018.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2006.
4. Cho'lpon. Asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013 y.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahlok. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992 yil.
6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TAMAL TOSHI

Niyozova Shohista Nusratilloyevna

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi

Buxoro viloyati bo‘limi bosh mutaxassisi

Jamiyatimizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama etuk, sog‘lom va barkamol insonlar qilib voyaga etkazish, shuningdek, mamlakatimizda oilani, jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalarida sodir bo‘layotgan ma‘naviy o‘zgarishlarga hamohang tarzda rivojlantirish, uning ta‘sirini yanada kuchaytirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishi sifatida e'tibor qaratiladi. Oila nima? Bu so‘z qanday lug‘aviy manolarga ega? Asli qaysi tilga mansub? Oila so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, “ayolmand, niyozmand”, “er-xotin, ularning bola-chaqalar va eng yaqin tug‘ishganlardan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon” degan ma’noni anglatadi. Oila inson ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog‘lom e’tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargoh. Shu muqaddas dargohda ma’naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog‘lom e’tiqodli, mustaqil fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O‘zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir. “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”, - deya ta’kidlagan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [4;5].

Asosiy qism. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil mantiqiy

fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g‘oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlari amalga oshirilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” [2] kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yurtimizda yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun ularni har tomonlama tarbiyalashimiz zarur.

Ta’kidlash joizki, oilaning eng avvalo, e’tiqod va sog’lom dunyoqarash tarbiyasidagi roli benazir. Shu sababli oila, ta’lim muassasasi hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog’liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an’analarining, xususan, oilaviy o‘zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o‘rganish vazifasi turibdiki, ularni tadqiq etish, qo‘lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiq etishni davrning o‘zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma’rifatparvarlik an’analarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarni zamon talablari asosida qayta o‘rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan farzandlarimizda mustahkam e’tiqodni tarbiyalashning ta’sirchan vositalarni ishlab chiqish jamiyat ma’naviyatini barqarorlashtirishni ta’minlaydigan omillardan sanaladi.

I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog’i ekanini tan olishimiz darkor ” [3]. Bugungi kunda oila singari ta’sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e’tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy qarashlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Shu ma’noda O‘zbekiston konstitusiyasida oila masalasi 76-moddaning amaldagi tahriri bunday: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi” [1].

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” – degan jumlada tabiiy ravishda naslimiz davomiyligini saqlaydigan maskan ekanligi va unda “O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga” asoslanishi aynan tabiat va jaiyatdagi parite qonuniniyatiga asosan ikki qarama-qarshi jins vakillari orasida bu kelishuvning bo‘lishi alohida ta’kidlangani ayni muddaodir. Chunki bugungi kunda g‘arb madaniyatining jirkanch ko‘rinishi bo‘lgan bir jinsli nikohning oldini olishga qaratilgan g‘oya aks etganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek oila to‘laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlarning yaratilishi – insonparvarlikning sharqona ko‘rinishi bo‘lib, mamlakatimizda yosh oilalar uchun bugungi kunda yaratilayotgan sharoitlar, imtiyozlar – oilalar mustahkamligini saqlash yo‘lidagi ezgu qadamdir. Ushbu bobning “ko‘p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar”

belgilanganligi esa o‘zbek xalqining bolaparvarlik fazilatini rag‘batlantirishning gumanistik tamoyili deb baholash mumkin.

Muqaddas Qomusning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” [1] sifatida keltirilib, bunda bevosita ota-onalar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga ham yuklatilmoqda. Bu vazifalar qatoriga bolalarni voyaga etgunga qadar boqish va tarbiyalashdan tashqari, ularning ta’limi, sog‘lom va to‘laqonli kamol topishi haqida qayg‘urish ham qo‘shilmoqda.

Ushbu modda asosida O‘zbekistonda bugungi kunda ota-onadan bevaqt judo bo‘lgan yoki qarovsiz qolgan bolalar vasiylik asosida yaqinlariga berilishining qonuniy asoslari belgilangan.

Shuningdek, 78-moddada “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” keltirilib, bolaning manfaatlari, bolalarning to‘laqonli, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlanadi. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinib, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Aynan ushbu moddada bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning muqaddas hadisi shariflarida ifodalangan ota-onaning farzand oldidagi burchlari, farzandlarning mas’uliyatlari hayotbaxsh tamoyillar asosida aks etgan.

Sharqda azal-azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan, farzand tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Oilada bo‘lajak farzandni tarbiyalash bola ona qornidayoq boshlash ta’kidlanadi. Ammo, inson zoti yaratilibdiki, hayotda xatolar qiladi, adashadi, kechiradi, kechiriladi, shunday xatolar borki, ularni kechirish mumkin emas, chunki, bu nafaqat bir kishiga, bir oilaga, balki butun bir jamiyatga ziyon yetkazadi, bu bizning farzandlarimiz tarbiyasiga mas’uliyatsiz oqibatida yuzaga keladi. Darhaqiqat, oilaviy tarbiyada ota-ona zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanganki, bu mas’uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. Oila vatan ichra vatandurki, unda yaxshi tarbiya ko‘rgan farzandgina haqiqiy inson bo‘lib yetishadi.

Oila – bu muqaddas qo‘rg‘on, aziz dargoh, ma’naviyat sarchashmasi, kelajak poydevori. Darhaqiqat, bu ko‘k gumbaz ostida hayot charxpalagi tinmay aylanaveradi, har kun qadamlarimiz vajohatini his etgan bu qo‘hna zamin ne-ne jang-u jadallarga, tarix sahifalariga muhrlangan ne-ne buyuk voqeliklarga guvoh, bu

muqaddas ona zamin qanchadan qancha shoir-u olimlarga shoh-u gadolarga abadiy maskan bo‘ldi, ne-ne shoh asarlar yaratildi va abadiyatga daxldor bo‘ldi. Buyuk yevropalik olim Artur Paup aytganidek, ”Yevropa hamon uyquda chog‘ida Sharq mutafakkirlari olamning yarmini ilmu urfon nuri ila yoritgan edi”. Navoiy asarlarida ma’naviyatli, ma’rifatli komil insonni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan, zero ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, iymon-e’tiqodin butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuchdir. Ma’naviyat zamirida esa mustahkam oila qo‘rg‘oni bunyod etiladi. Hazrat Navoiy talqinida oila - ma’naviyat o‘chog‘i, ota-ona esa mehr nuri ila qizdirguvchi mash’aldir.

Darvoqe, har bir go‘dak ko‘z ochib dunyo yuzini ko‘rarkan, u eng avvalo, oila atalmish muqaddas dargoh bag‘rida,ota hamda ona singari mo‘tabar zotlar qo‘lida kamol topadi. Oila posbonlari sanalmish ota-ona dilbandi, jigargo‘shasi uchun jonini berishga tayyor turadi, ona allasi, ota mehri orqali murg‘ak qalb sohibi oilasiga, qadrdon aka-ukalariga, vataniga muhabbat tuygusini o‘z qalbida, mitti vujudida his eta boshlaydi. Shuning uchun bir parcha etni voyaga etkazib, kamol toptirishda, bir kasb sohibi bo‘lib yurtiga, xalqiga xizmat qilishida ota-onaning, ustozning mehnati beqiyos. Alisher Navoiy “Hayratul abror“ dostonida ota-onani hurmat qilish, ular xizmatida bo‘lishni sharaf deb biladi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a,
Tun-kuningga aylagali nurposh
Birisin oy angla,birisin quyosh [5].

Darhaqiqat, oila posbonlari bo‘lmish ota-onalarni oy-u quyosh kabi qadrlash, ular uchun zarur bo‘lsa aziz jonni fido qilish farzandlar uchun ham qarz, ham farzdir. Shoir nazdida oilada farzand hamisha ota-onaga nisbatan qarzdorlik hissini tuyib yashamog‘i darkor, zero butun koinot uzra oy qorong‘u kechaga nur berib osmon-u falakni yoritganidek, onalar tuni bilan bedor bo‘lib oq sut beradi, ko‘z nurini, qalb qo‘rini berib katta qiladi, quyosh taftidan butun borliq zavq olganidek, otalar xizmatidan farzandlar voyaga yetib oila qo‘rg‘onining suyanchig‘iga aylanadi.

Alisher Navoiy yuksak axloq-odobni, insoniy fazilatlarni oila poydevorini yaratishda, bolani tarbiyalashda eng birinchi omil, deb hisoblaydi hamda “Mahbubul qulub“ asarida “Go‘zal axloq, inson vujudining xushmanzara bog‘idir, va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Odob axloqni insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa bo‘ladi. Go‘zal axloq tufayli kattalar hurmatiga sazovor bo‘ladi va kattalardan kichiklarga iltifot, marhamat etishadi” [6].

Oila suyanchig‘i, nasllar davomchisi farzandlardir. Muborak hadisi sharifda bu hayotiy haqiqat go‘zal tarzda ifodalangan, “hech bir ota – ona o‘z farzandiga go‘zal axloqu tarbiyadan boshqa buyuk me’ros qoldira olmaydi”. Tarbiya bermoq uchun, avvalo, tarbiyachining o‘zida ham jamiki insoniy fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Avvalo, muomala madaniyati, so‘zlash odobini ularga o‘rgatish, yoshligidanoq rostgo‘ylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash darkor.

Xulosa. Oila jamiyatning eng mustahkam poydevoridir. Zero uning bag‘rida eng ezgu qadriyatlar ulug‘lanadi, milliy an’analar avloddan-avlodga vorisiylik asosida yetib keladi. Har bir oila a’zosi esa, u kamol topgan muhit qadriyat va an’analarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so‘zi, 1997 yil 5 dekabr.
4. Qurbonova O‘.U., D.I.Tosheva. Oila pedagogikasi. Darslik. Buxoro. “Durdona” nashriyoti. 2023. 214 b.
5. https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf.
6. https://e-library.sammu.uz/uploads/books/Badiiy%20adabiyotlar/Mahbub%20ul-qulub.pdf.

JADIDLARNING DINIY VA DUNYOVIY FANLAR TARAQQIYOTIGA QO’SHGAN HISSASI

Maxmudova Sarvinoz Murodjon qizi

AnDU, Filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi

XX asr boshlarida Turkiston o’lkasi ijtimoiy-siyosiy inqiroz va ma‘naviy turg’unlik davrini boshidan kechirayotgan edi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida xalqning milliy o’zligini asrab qolish va dunyo taraqqiyoti bilan bo’ylashish masalasi hayot-mamot darajasiga chiqdi. Aynan mana shunday tarixiy pallada maydonga chiqqan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy uyg’onish, balki mintaqaning intellektual va ilmiy qiyofasini o’gartirib yuborgan ma‘rifiy inqilob bo’ldi.Jadid namoyandalari millatning najotini "ikki qanotli" bo’lishda, ya‘ni islomiy qadriyatlar (diniy bilim) bilan bir qatorda zamonaviy fanlarni (dunyoviy bilim) egallashda deb bildilar. Ushbu maqolada mazkur jarayonning uch yirik ustuni — Is‘hoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi tadqiq etiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov — yangi usuldagi maktablar tarmog’ini yaratish va darsliklar yozish orqali ta‘lim tizimini tubdan isloh qildi.Abdurauf Fitrat — islom dunyosini xurofotdan tozalash, falsafa, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlariga yangi ruh bag’ishlash yo’lida fundamental asarlar yaratdi. Is‘hoqxon Ibrat — poliglot olim sifatida ko’p tilli lug’atchilikni rivojlantirdi va matbaachilik texnologiyasini o’lkaga olib kirib, bilimlarni ommalashtirishga hissa qo’shdi.Ushbu mutafakkirlarning faoliyatini o’ganish shunchaki tarixiy tahlil emas, balki bugungi kunda "Uchinchi Renessans" poydevorini qurayotgan O’zbekiston ta‘lim tizimi uchun ham metodologik manba bo’lib xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi — mazkur jadidlar tomonidan ilgari surilgan diniy va dunyoviy fanlar

integratsiyasining mohiyatini ochib berish va ularning ilmiy metodlarini zamonaviy nuqtai nazardan baholashdan iborat.Turkiston zaminida jadidchilik harakati avvalo ta‘lim tizimini isloh qilishdan boshlanib, tadrijiy ravishda matbuot, san‘at va yirik siyosiy maydonlarga ko’chdi. Ushbu harakatning g’oyaviy bayroqdori sifatida Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) e‘tirof etiladi. U 1884-yilda Bog’chasaroyda ilk "usuli jadid" maktabiga asos solib, nafaqat ta‘limda burilish yasadi, balki chor Rossiyasi mustamlakasidagi bir-biridan uzilib qolgan turkiy xalqlarni umumiy maqsad yo’lida birlashtirdi.O’lka ziyolilari, xususan, Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonov ta‘kidlaganidek, hatto eski maktab va madrasa ta‘limini olgan kishilar ham Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasi ta‘sirida yangicha dunyoqarash shakllantirganlar. Bu esa Turkistonda yangi avlod ziyolilarining shakllanishiga turtki bo’ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O’rta Osiyodan tortib Kavkazgacha bo’lgan hududlarda yuzaga kelgan bu harakat, aslida jaholat va turg’unlikka qarshi qaratilgan milliy ko’tarilish edi.Jadidchilik — shunchaki ma‘rifiy to’garak emas, balki tarixiy zarurat natijasida tug’ilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy kuch edi.

Ularning faoliyati quyidagi ustuvor yo’nalishlarni qamrab olgan:

Ma‘naviy islohot: Jamiyatni o’rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotlardan tozalash, shariat ahkomlarini zamon talablariga mos ravishda tushunish va isloh qilish.

Siyosiy ozodlik: Turkistonda muxtoriyat boshqaruvini o’rnatish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlamentarizm asosida demokratik respublika barpo etish.

Iqtisodiy va harbiy mustaqillik: Milliy valyutani joriy etish hamda o’lkani himoya qila oladigan zamonaviy milliy qo’shin tuzish.

Jadidlar millat qismatidagi fojialarni o’z vujudidan o’tkazib, xalqni jaholat uyqusidan Uyg’otishni hayot-mamot masalasi deb bildilar. Ularning sa‘y-harakatlari natijasida shakllangan yangi avlod nafaqat o’lkaning ma‘rifiy qiyofasini, balki uning siyosiy kelajagi uchun kurashish strategiyasini ham belgilab berdi. Jadidchilik harakati Turkiston tarixida shunchaki o’tkinchi bir davr emas, balki millatning o’zligini anglash, jaholat botqog’idan chiqish va dunyo tamadduniga qaytish yo’lidagi eng ulkan intellektual burilish nuqtasi bo’lib xizmat qildi.

Ushbu harakatning ildizlari maktab va maorif islohotidan boshlanib, keyinchalik matbuot, san‘at va siyosat kabi keng qamrovli sohalarni qamrab olgani uning hayotiyligini ko’rsatadi. Rossiya va uning mustamlakalarida Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan asos solingan "usuli jadid" maktablari 1884 yildan e‘tiboran turkiy xalqlarni bir-biriga tanitish, yaqinlashtirish va ularning ma‘naviy hayotida chinakam inqilob yasash vazifasini o’tadi. Gasprinskiyning ma‘rifatparvarlik g’oyalari Turkiston ziyolilari uchun haqiqiy mayoq bo’ldi va Toshkent jadidchiligining otasi Munavvarqori Abdurashidxonov e‘tirof etganidek, hatto eski maktab va madrasalarda tahsil olgan kishilar ham aynan Bog’chasaroyda chop etilgan gazetalar orqali zamonaviy dunyoqarashga ega bo’ldilar.

Jadidchilik harakati qoloqlik va diniy xurofotga qarshi kurashish, shariatni asriy qatlamlardan tozalab isloh qilish hamda xalqqa haqiqiy ma‘rifat tarqatish orqali ozod va farovon jamiyat qurishni oliy maqsad qilib qo’ydi. Bu yo’lda

Is‘hoqxon To’ra Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlarning diniy va dunyoviy fanlar uyg’unligi borasidagi xizmatlari beqiyosdir.Is‘hoqxon To’a Ibrat o’zining serqirra faoliyati bilan nafaqat o’z davri, balki bugungi kun uchun ham Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, haqiqiy ibrat namunasiga aylandi. Uning Qo’qon madrasalarida tahsil olgan yillaridayoq rus-tuzem maktablaridagi o‗qitish usullarini kuzatishi va an‘anaviy maktablardagi quruq yodlash — "hijo" metodining samarasizligini anglab yetishi milliy ta‘limda burilish yasadi.

Ibrat domla savod chiqarishda inqilobiy yangilik bo’lgan "usuli savtiya" yoki analitik tovush metodini tatbiq etib, uni o’sha davrdagi konservativ "usuli qadim" tarafdorlarining qattiq qarshiligidan himoya qilishga majbur bo’ldi. Uning nazdida diniy matnlarni o’rganish ham, dunyoviy bilimlarni egallash ham oson va mantiqiy usulda bo’lishi shart edi. Ibratning 1902-yilda To’raqo’rg’on qishlog’ida ochilgan rus-tuzem maktabiga homiylik qilishi va xalq qozisi sifatida bu ishga bosh qosh bo’lishi, din peshvolarining zamonaviy fanga munosabatini tubdan o’zgartirdi. U nafaqat ta‘lim islohotchisi, balki kuchli tilshunos olim sifatida "Lug’ati sitta-alsina" asarini yaratib, olti tildagi lug’at orqali yoshlarning dunyo ilmlariga chiqish imkoniyatini kengaytirdi. Arab, fors, turk, hind, rus va sart tillarini qamrab olgan bu asar diniy muloqot va dunyoviy diplomatiya asosi edi. Shuningdek, uning "Jome‘ ul-xutut" nomli asari tilshunoslik va yozuv madaniyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan bo’lsa, "Tarixi Farg’ona" yilnomasi milliy o’likni tarixiy faktlar asosida tiklashga xizmat qildi. Ibratning bu xizmatlari diniy ma‘rifat bilan dunyoviy taraqqiyot bir tanu bir jon ekanligini isbotladi.Munavvarqori Abdurashidxonov esa ushbu harakatning tashkiliy markazida turib, O’zbekiston hududida tovush metodiga asoslangan jadid maktablarining birinchi tashkilotchisiga aylandi. U diniy va dunyoviy fanlarni ajratish emas, balki ularni o’zaro boyitish tamoyiliga tayandi. Munavvarqori yaratgan darsliklarda bolaning ham ruhiy-diniy tarbiyasi, ham mantiqiy-dunyoviy tafakkuri barobar shakllantirildi. Uning fikricha, musulmon bolasi nafaqat duolarni bilishi, balki o’z o’lkasining geografiyasi, matematika va tabiiy fanlardan ham yetarli tushunchaga ega bo’lishi lozim edi. Aynan Munavvarqorining sa‘y-harakatlari bilan millatning eng iqtidorli vakillari bir nuqtaga jamlandi. U 1918-yilda Abdurauf Fitratni Toshkentga taklif etishi va Fitratning yangi o’quv yilidan adabiyot hamda falsafa sho’basini boshqarishi o’lka oliy ta‘lim tizimida diniy va dunyoviy fanlar integratsiyasining eng yuksak cho’qqisi bo’ldi. Fitrat bu sho’bada turib, islom falsafasini dunyoviy mantiq va adabiyotshunoslik qonuniyatlari bilan bog’lab o’qitishni yo’lga qo’ydi. Uning falsafiy mushohadalari va diniy islohotchilik g’oyalari xalqni asriy turg’unlikdan uyg’otishga qaratilgan edi. Fitrat adabiyotni milliy dardni aks ettiruvchi vosita, falsafani esa bu darddan qutulish yo’llarini ko’rsatuvchi ilmiy mantiq deb bildi.

Jadidlar faoliyatining umumiy mazmun-mohiyati shuni ko’rsatadiki, ular Turkistonni o’rta asrlarga xos qoloqlikdan qutqarish uchun shariatni isloh qilish va xalqni ma‘rifatli qilish yo’lidan bordilar. Ular uchun din — jaholat quroli emas, balki taraqqiyot uchun ma‘naviy asos edi.

Ibratning matbaachilik va lingvistika sohasidagi innovatsiyalari, Munavvarqorining pedagogik inqilobi va Fitratning falsafiy-adabiy tahlillari

birgalikda millatning yangi qiyofasini yaratdi. Bu mutafakkirlar dunyoviy ilmlarni o'rganishni islom dinining farz amallaridan biri sifatida talqin qildilar va "ilm egallash har bir musulmon uchun farzdir" degan hadisni hayotiy amaliyotga ko'chirdilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida shakllangan ma'rifatparvar avlod Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish, demokratik respublika qurish va milliy armiya tuzish kabi yuksak siyosiy maqsadlarni qo'ya oldilar. Bugungi kunda jadidlar merosini o'rganish, ularning diniy va dunyoviy fanlar uyg'unligi borasidagi metodlarini tahlil qilish Uchinchi Renessans poydevorini qurishda eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning har bir asari, har bir ochgan maktabi va har bir nashr etgan gazetasi milliy mustaqillik va ilmiy yuksalishning poydevori edi. Shu sababli, Is'hoqxon Ibrat, Munavvarqori va Fitratning ilmiy merosi bugungi yoshlar uchun ham ma'naviy boylik, ham taraqqiyot yo'lini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'bek Dolimov. — ''Jadidlar''
2. Solijon Ergashevich Ibragimov maqolasi
3. Wikipediya.uz
4. Abdulla Avloniy. —''Tarjimayi hol''
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. —''Qizil O'zbekiston''

MAHMUDXO'JA BEHBUDİYNİNG "IKKİ EMAS, TO'RT TİL LOZİM" MAQOLASİNİNG LİNGVOKULTUROLOGİK TAHLİLİ

Baxronova Zulfiya Ravshanovna

Xorijiy tillarini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Mahmudxo'ja Behbudiy (1878–1919) – o'zbek milliy ziyolilaridan biri, tafakkur, ma'naviyat va milliy uyg'onish targ'ibotchisi. Uning asarlari o'sha davr o'zbek jamiyatini yangilash, yoshlarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirish hamda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, "Yoshlarga murojaat" va "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolalari yosh avlodning jamiyatdagi roli, ma'naviy majburiyati va ilm-fan bilan shug'ullanishi masalalarini chuqur yoritadi. Maqolalarda Behbudi yoshlarni shaxsiy va ijtimoiy kamolotga yetaklaydigan axloqiy, ma'naviy va amaliy qadriyatlarni keng tahlil qiladi. Shu sababli ushbu esse Behbudiyning g'oyalarini chuqur o'rganish, yoshlar tarbiyasi va jamiyat rivojidagi ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasi jadid ma'rifatparvarligi davrida yaratilgan bo'lib, unda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlik chuqur ifodalangan. Mazkur maqola lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, unda til orqali milliy identitet, madaniy meros va sivilizatsiyalararo aloqalar aks etganligi kuzatiladi.

Til birliklari orqali milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribani tadqiq etishga qaratilgan. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki muayyan xalqning madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi fenomen sifatida talqin qilinadi.

Lingvokulturologiyada til madaniyatning asosiy tashuvchisi sifatida qaraladi. Har bir til o‘zida muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy an’analarini mujassamlashtiradi.

Behbudiyning maqolasida til masalasi madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Muallif tilni xalqning ma’naviy taraqqiyoti va madaniy rivojlanishining muhim omili sifatida baholaydi.

Maqolada ilgari surilgan to‘rt til konsepsiyasi aslida turli madaniy makonlar bilan aloqani ifodalaydi. “Bizg‘a lozimki o‘z naf’imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o‘quylik. Davlat mansablarig‘a kirayluk. Vatanimizg‘a va o‘z dinimizg‘a xidmat etayluk. Musulmon bo‘lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo‘lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g‘a o‘z din va millatimiz naf’ig‘a so‘zlamoq bizlar uchun mumkin bo‘lur. Ammo anda borib so‘ylaguvchi kishi bizg‘a yo‘q. Anda borib naf’i bir o‘n-sana o‘qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo‘lmoq kerakdur.Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur”[]. Bu tasnif orqali muallif tilni turli madaniy qatlamlar o‘rtasidagi ko‘prik sifatida talqin qiladi.

Maqolada til o‘rganish ilm olishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda ilm tushunchasi nafaqat bilimni, balki jamiyat taraqqiyotining madaniy asosini ham anglatadi. Behbudiy til bilishni millatning rivojlanishi bilan bog‘laydi. Til orqali inson boshqa xalqlarning ilmiy va madaniy tajribasini o‘zlashtirishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ma’rifatparvar tilni turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Bu konsept zamonaviy lingvokulturologiyada interkultural kommunikatsiya tushunchasiga mos keladi.

Lingvokulturologiyada til milliy identitetning muhim komponenti sifatida qaraladi. Til orqali xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlari saqlanadi. Behbudiy maqolasida turkiy tilni milliy birlikning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u boshqa tillarni o‘rganish milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki aksincha, millatning madaniy rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu fikr til va madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi: bir tomondan milliy tilni asrash, ikkinchi tomondan esa global madaniy aloqalarni rivojlantirish.

Jadidchilik harakati Sharq va G‘arb madaniyatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan ma’rifiy harakat bo‘lgan. Behbudiyning maqolasida ham ana shu g‘oya yaqqol namoyon bo‘ladi. Til masalasiga oid qarashlar orqali muallif sharqiy ilmiy-madaniy merosni saqlash, zamonaviy Yevropa ilm-fanini o‘zlashtirish , milliy madaniyatni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

Bu jihatdan maqola lingvokulturologik nuqtai nazardan sivilizatsiyalararo muloqot g‘oyasini ifodalovchi matn sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida ko‘p tillilik va madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.Behbudiyning til haqidagi qarashlari ushbu ilmiy yo‘nalish bilan

quyidagi jihatlar orqali uyg‘unlashadi: til orqali madaniy tajribani o‘zlashtirish; ko‘p tillilik asosida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish; milliy identitetni saqlagan holda global madaniy integratsiyani ta’minlash.

Shu sababli Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, unda til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlar aks etganligi aniqlanadi. Behbudiy tilni milliy madaniyat va tarixiy tajribaning muhim tashuvchisi sifatida talqin qiladi. Ko‘p tillilik madaniyatlararo muloqot va ilmiy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanadi.Ona tilini saqlagan holda boshqa tillarni o‘rganish milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada til orqali turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish g‘oyasi ilgari suriladi.Shu sababli Behbudiyning mazkur maqolasi til va madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlikni yorituvchi muhim lingvokulturologik matn sifatida ilmiy ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Ikki emas, to‘rt til lozim // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 112–115 б.
2. Behbudiy M. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 304 б.
3. Абдуллаев А. Жадидчилик ҳаракати ва миллий уйғониш ғоялари. – Тошкент: Фан, 2001. – 256 б.
4. Бегматов Э. Ўзбек тили антропоцентрик тадқиқлари. – Тошкент: Фан, 2013. – 210 б.
5. Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 192 б.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослигида антропоцентрик парадигма. – Тошкент: Фан, 2016. – 224 б.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Фан, 2006. – 276 б.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA JADIDLAR FAOLIYATINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mardonova Saodat Muzaffarovna

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o’rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi.

O’z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o’lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan jadidlar harakati o’lka xalqlari tarixida

muhim ro’l o’ynagan. Aslida jaded so’zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma’nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o’lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllandi.

XIX asrda ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho’lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o’lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g’oyasini ilgari surdilar. Turkistonda jadidchilik harakati namoyondalarining qarashlarida xalq ma’naviy hayotini boyitish yo‘lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning inson tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni haqida kuyunib asarlar yozgan, bu borada fidoyilik ko‘rsatgan va natijada qatag‘on qurboniga aylangan siymolar haqida masalalari muhokama qilinadi. Ular ijodida istibdoddan qonga to‘lgan dil nolalarini va milliy ozodlikni sog‘ingan qalb sadolarini eshitish mumkin kabi tushunchalar tavsiflanadi. Shuningdek, har bir inson o‘z erki bilan inson bo‘lganidek, har bir davlat ham o‘zining mustaqilligi, ozodligi bilan to‘laqonli davlatdir. Jadid bobolarimiz bunday davlatni sog‘inib yashab o‘tdilar.

Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadid merosining yana bir muhim jihati ularning ta’lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ‘ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e’tiqodlarni hurmat qiladigan, bag‘rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg‘u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov “Taraqqiy” jurnalidagi maqolasida bag‘rikenglik va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi ta’lim tizimi zarurligini ta’kidlab: *“Ta’lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakillantirishi mumkin bo‘lgan makonni ta’minlashi kerak”*, degan edi.

Jadidlarning eng e’tiborga olgan masalalaridan yana biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o‘z uylarida ochgan uy maktablarida o‘qib, o‘qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab,so‘ng ular uy ishlari bilan shug‘ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o‘rganishi, keyin esa jamiyatda qattiy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to‘rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqga ega ekanliklari,bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko‘tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida va yosh avlodni ma’rifatli qilish, ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va

qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma’rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da’vat etish g‘oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo‘lib qoldi. Har qanday og‘ir sharoitda ular o‘z qarashlarini o‘zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, ular Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog‘laganlar va shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch bo‘lganini tushunib, ularning saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’y harakatlar qilganlar.

Jadidlar ta’limoti – o’z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o’z ketidan ergashtira oladi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo’lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo’lishlarini ta’kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo’ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o’quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o’quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi.[3] Uning fikricha, bunday do’konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo’lib, bolalarga salbiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo’ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog’lom o’stirishga chorlaydi. Sog’lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o’sib ulg’ayib, o’qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar yetishib chiqishini o’rzu qilgan.

Sog’lom farzandlarni tarbiyalash uchun o’qib-o’rganib ilmli, ma’rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o’z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta’kidlaganlar.

Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so’z yuritib, o’z farzandining ma’rifatli bo’lishi uchun qo’llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta’kidlagan.

Jadidlar ota-onalar o’z farzandlarining tarbiyasi bilan shug’ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta’kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o’qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o’quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug’ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo’lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko’tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o’quv maskanlarida o’qitish zarur, deb hisoblaganlar.

Jahon taraqqiyotining ilm-fan yo‘nalishida erishgan yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida yoshlardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, o‘z ishining yetuk

mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtni obod, farovon etishlariga ishongan. Chunki jadidlarning o‘zlari ham yosh bo‘lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g‘oyalari, turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma’rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da’vat etish g‘oyalari umrlarining oxirigacha yetakchi fikr bo‘lib qoldi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan, chor hukumati mustamlakasidan qutqarishga bel bog‘lab, ko‘p sa’y-harakatlar qilgan.

Jadidchilik hozirgi kunda O`zbekistonda milliy o`zlikni anglash, ma`rifatparvarlik va islohotchilikning asosi sifatida qayta tiklanib, uluglanadi. Ularning g`oyalari –ilm-fan dunyoviy bilimlar, ta`lim tizimini modernizatsiya qilish va milliy taraqqiyot – bugungi Uchinchi renessans poydevori uchun dolzarb ma`naviy-ma`rifiy meros hisoblanadi.

Jadidcilikning hozirgi kundagi ahamiyati-shundan iborat:

-Ma`rifatparvarlik-jadidlarning ta`lim va ilm-fanni rivojlantirishga bo`lgan intilishlari hozirgi ta`lim islohotlarining asosini tashkil etadi;

-Milliy o`zlik orqali adabiy-ilmiy merosni o`rganish, millatning tarixiy xotirasini tiklash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega;

-Islohotlarning zamonaviy hamohangligi orqali jadidlarning dunyoviy bilimlarini egallash, fan yutuqlaridan foydalanish, xotin-qizlar va erkaklar tengligi haqidagi goyalari zamonaviy jamiyat uchun dolzarb bo`lib qolmoqdadir;

-Merosiy tarix-sho`ro davridagi “burjual-liberal,millatchilik harakati” deb ayblov qo`yilgan jadidlar nomi va merosi mustaqillik yillarida to`liq oqlanib, ezozlanmoqda.

Demak, aynan jadidlar qoldirgan ma`naviy meros bugungi O`zbekistonning rivojlanishi, yoshlarning vatanparvarlik va ma`rifatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jadidchilik g‘oyalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini topmoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni ma’rifatli va vatanparvar ruhda tarbiyalash, milliy o‘zlikni anglash, gender tengligi va dunyoviy bilimlarni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar jadidlar orzu qilgan maqsadlar bilan hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar qoldirgan ma’naviy meros barkamol avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ularning ma’rifatparvarlik, erkinlik, milliy uyg‘onish haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Barkamol, bilimli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash – jadidlar boshlab bergan ezgu yo‘lning mantiqiy davomidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud ahloq», T., «O‘qituvchi», 1992 .

2. https://www.ziyouz.uz /ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/ abdulla-avloniy-1878-1934/ Begali Qosimov.

3.Шоумаров Р. Оила психологияси.-Т.: “Шарқ”. 2001

4.Ғозиев Э. Муомала психология.-Т., “Шарқ”. 2007.

5. “Abdulla avloniy asarlarida ekologik va tibbiy madaniyat masalalari” “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman, 946-953b, oktyabr, 2024

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI,MAQSADI, IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT

Tag’oyeva Dilnavoz Narziqulovna

BuxDPI dotsenti

Rasulova Shahinabonu Ilhom qizi

BuxDPI talabasi

O’zbekiston tarixini o’rganishdagi muhim omillardan biri - uni xolisona tahlil etish, ilmiy-nuqtai nazardan asoslab berishdir. Bu haqda Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asaridagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. «Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislarga murojaat qilmoqchiman: sizlar, millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma’naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g’ururini uyg’otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug’ g’oya kerak. Bu g’oyani zaminida xalqimizning o’zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o’zlikni anglash mumkin emas»[1] Mustaqillik Vatanimiz tarixida buyuk tarixiy voqyea hisoblanib, ushbu tarixiy jarayon xalqimizning uzoq davom etgan qaramlik va mustamlakachilikdan xalos etdi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek «Chor mustamlakasi davrida ma’rifat g’oyasini baland ko’tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir misol bo’la oladi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvarlar, fidoyi insonlarning o’z manfaati, huzur-halofatidan kechib, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o’chmaydi ”[2]

Jadidlar harakati Turkiston o‘lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo‘lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalariga, ikkinchi tomondan ilg‘or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o‘zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko‘rsatishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo‘lgan xo‘rlik hissi edi.

Garchi chor ma’murlari musulmonlar yashaydigan hududlarda qanday yaxshi narsalarni joriy qilgan bo‘lsalar, bu gimnaziyalarning ochilishi bo‘ladimi, zavod va fabrikalarning qurilishimi, bularning barchasini ular eng avvalo o‘zlarining manfaatlari uchun amalga oshirdi. Qurol va quvvat nuqtayi nazaridan ojiz bo‘lgan mahalliy xalq orasidan maydonga chiqqan bir guruh taraqqiyparvarlar mustamlaka va xo‘rlik balosidan xalqni qutqarish uchun jadidlar harakatiga asos soldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirayotgan edi. Turkiston hududi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangach, siyosiy boshqaruv, iqtisodiy tizim va madaniy hayotda keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Mahalliy aholining huquqlari cheklanib, milliy qadriyatlar va an’anaviy boshqaruv tizimi bosim ostida qoldi. Shu bilan birga, dunyoning turli hududlarida ilm-fan, texnika va ma’rifat taraqqiyoti jadallashib borayotgan bir paytda, Turkistonda eskicha ta’lim tizimi va ijtimoiy munosabatlar zamon talablari bilan hamohang rivojlana olmay qoldi. Ana shunday tarixiy sharoitda millat ravnaqi, xalq ongini uyg‘otish va jamiyatni yangilash g‘oyasini ilgari surgan jadidchilik harakati maydonga chiqdi.

Jadidchilik (arabcha “usul-i jadid” — yangi usul) dastlab ma’rifiy harakat sifatida shakllandi. Uning asosiy maqsadi ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish edi. Bu g‘oya avval Qrimda yashagan ma’rifatparvar Ismoil Gaspirali faoliyati orqali yoyila boshladi va keyinchalik Turkistonga kirib keldi. Turkiston jadidlarining sa’y-harakatlari bilan yangi usul maktablari ochildi, matbuot rivojlandi, milliy teatr va adabiyot shakllandi. Bu jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi fidoyi ziyolilar muhim rol o‘ynadilar.

Jadidchilik harakati faqat ta’lim bilan cheklanib qolmadi. U asta-sekin kengroq ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Jadidlar milliy o‘zlikni anglash, mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilish, jamiyatda adolat va tenglikni qaror toptirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ular matbuot orqali xalqni siyosiy ongli bo‘lishga, zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lishga undadilar. Xususan, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston” kabi gazetalar xalq orasida ma’rifat va erkinlik g‘oyalarini yoyishda muhim vosita bo‘ldi.

Shunday qilib, jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish yasagan, millat taraqqiyoti yo‘lida muhim o‘rin tutgan tarixiy hodisa sifatida maydonga chiqdi. U milliy uyg‘onishning poydevorini yaratdi, zamonaviy ta’lim va tafakkur tizimini shakllantirishga xizmat qildi hamda keyingi siyosiy harakatlar uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur mavzu jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablari, uning asosiy maqsad va vazifalari hamda Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘rsatgan ta’sirini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Jadidchilik harakati namoyondalari o’zlarining g’oyalarini,qarashlarini o’zlarining asarlari orqali keng ommaga yetkazib berishgan. Mahmudxo’ja Behbudiy,Abdulla Avloniy,Munavvarqori,H.H.Niyoziy,Fitrat,S.Ayniy kabi bir qator jadid namonyondalari asarlar yaratganlar.Ularning qarashlar haqida Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” hamda “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarlarida ham keltirilgan. Bu asarda muallif tarixiy xotira masalasini millat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Asarning bosh g‘oyasi — o‘z

tarixini bilmagan xalq kelajagini barpo eta olmaydi.Tarixni soxtalashtirish, uni noto‘g‘ri talqin qilish milliy ong va o‘zlikka putur yetkazishini ta’kidlaydi. Shu sababli tarixni xolis va haqqoniy o‘rganish muhim vazifa ekanligi qayd etiladi. Asarda Amir Temur, jadidlar va boshqa buyuk ajdodlar merosini tiklash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy xotira millatni birlashtiruvchi kuch ekanini asoslaydi.Mazkur asar mustaqillikdan keyingi davrda tarixni qayta baholash, milliy merosni tiklash jarayonida muhim g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan. U yosh avlodni tarixni hurmat qilish va milliy qadriyatlarni asrash ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy – siyosiy, ma’rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80 – yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851 – 1914) rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884 yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u «usuli savtiya tadrijiya» («rivojlanuvchi tovush usuli») maktabi bo‘lgan. Yangicha usul – «usuli jadid» – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’y – harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga «Muzaffariya» degan nom berilgan1 . Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. Birinchi bo‘lib (Husaynov mablag‘i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1898 yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yili To‘qmoqda (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni «no‘g‘oy maktab» deb atagan), 1899 yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903 yili M. Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1907 yili To‘raqo‘rg‘on (Namangan viloyati)da Isxoqxon to‘ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabini ochgan2 . 1908 yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911 yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 bola o‘qigan.. 1917 yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan. Jadid maktablari, ya’ni yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim – tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirilib, maktabxonadagi yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘lgan. Ularda xat – savod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur’oni – karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy – ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni

chog‘da turk – islom huquqiy munosabatlarining millatga o‘rgatilishi, milliy – ma’rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta’siri katta bo‘ldi1 . Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy – ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. U o‘sha davrda Turkistondagi milliy – ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichni o‘tgan. Birinchisi – ma’rifatchilik bosqichi va ikkinchisi – siyosiy bosqich. Ammo jadidlarinig davlatchilik masalasiga nisbatan qarashlari birinchi davrdanoq shakllangan edi. Bu g‘oya va maqsadlar 1917 – 1920 yillarda «Turkiston muxtoriyati», Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman bo‘lsada amalga oshirildi. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Muqammadsharif So‘fizoda, Ashurali Zohiriy (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) muhim rol o‘ynadi. Ushbu siymolarning sa’y – harakati bilan jadidchilik harakati taraqqiy etdi.

Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an’anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi.”Fuqaho Jamiyati”ning nashri bo’lgan “Izhor ul-haq” jurnalidagi bir maqolada:”Tahzib va tasfiyai axloq degan narsa maktablarimizda hech yo’q.Muddati tahsil ko’b uzoq bo’lgani uchun ko’b kishilar bolalarini 8-15 yil maktabga qo’yolmaydurlar,chunki qudrat va iste’dotlari yetmaydur.Ham maktablarimizga intizom yo’qdur.Shuning uchun maktabda yurgan aziz,gavhari noyob bolalarimizdan o’n besh yo sakkiz nafardan ikki yo uch nafari ahli savod bo’lib chiqadurlar”,- deyiladi.[3]

Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi. 1 Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta’lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmilarni o‘rgandi. Jadid maktablarida qur’onikarim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi. Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, maschitlarda imom bo‘lish, madrasa

va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi. Maktablar asosan 1 – 4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1 – bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2 – bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodievning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 – 6 sinf) ham ish boshlagan.[4]

“Agar bizlarning maktablarimiz boshqa millat maktablari kabi bir nizomga qo’yilib yaxshi muallimlik vazifasini lavozimcha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi,ma’sum avlodlarimiz ruhiy hayotiga,dunyo va oxiratni saodatig’a birinchi sabab o’ladurg’on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o’lmagiga sabab o’lmas eduk” deya ta’kidlaydi Munavvarqori Abdurashidxonov[5].

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi:

- Turkiston jadidchiligi
- Buxoro jadidchiligi
- Xiva jadidchiligi.

Turkiston jadidchiligi

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Buxoro jadidchiligi

Buxoro jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi:ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

- Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov)
- Usmonxo’ja Po’latxo’jayev (Usmon Xo‘ja)
- Mehriy,Burhonov

- Abdulqodir Muhitdinov, Ayniy
- Abdurahmon Sa’diy.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafi). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta’mimi maorif jamiyati“ bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta’lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol“ maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.Jadidlarning dolzarb g‘oyasi yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish edi.

Xiva jadidchiligi

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Jadidchilik harkatida faol ish olib borganlarning aksariyati shoiru yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyotda ma’rifat va ozodlik g‘oyalari markaziy mavzuiga aylanib, davr voqealari o‘z aksini topdi. Adabiyotga «millat» va «vatan» tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga e’tibor va rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Jadid adabiyotida dramaturgiya ya’ni jadid dramasi eng sermahsul

va ommabop janr sifatida alohida ko‘zga tashlanadi. Jadid g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’sir ko‘rsatishi kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o‘z ijodiy – amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar. 16 Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. O‘zbek milliy teatrini shakllantirishda Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari nihoyatda kattadir. 1912 yilda yozilib, 1913 yilda bosilgan «Padarkush» dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi o‘zbek dramasi («Mahramlar») xronologiyaga ko‘ra bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan e’lon qilingan bo‘lsada, bu sohada ham karvonboshi bo‘lib Behbudiy tarixga kiradi. Asar 1914 yilning 15 yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo‘yiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov homiyligida 1913 yil Toshkentda musulmon drama san’ati havaskorlari jamiyati – «Turon» nomli birinchi teatr truppasi ochilgan. Truppaning badiiy rahbari Abdulla Avloniy edi. Truppa o‘z faoliyatini 1914 yil 27 fevalida Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosi (2000 tomoshabinli)da «Padarkush» (M. Behbudiy) spektakli bilan boshlagan. Tadqiqotchilarning ma’lumotiga qaraganda, «Padarkush» pesasidan keyin 1917 yilgacha o‘zbek dramalarining soni 40 ga yetgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon shaharlarida turli truppalar vujudga kelgan. Shunday qilib, milliy jadid adabiyoti dramaturgiyasi va teatri paydo bo‘ldi. Jadidlar xorijga qilgan safarlari asosida olingan bilimlari ta’sirida, o‘zbek an’anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga, ya’ni Yevropa ko‘p – ovozli musiqa san’atining yutuqlaridan unumli foydalanishga da’vat etishgan. 1919 yilda 17 Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi «Turon» kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar.

Xulosa(заключение/Conclusion) Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini anglashida, ma'rifatining yuksalishida va siyosiy faolligining oshishida muhim rol o‘ynadi. Jadidlar Turkistonni modernizatsiya qilish, uni dunyo hamjamiyatiga integratsiya qilish uchun kurashdilar. Ularning g‘oyalari keyingi avlodlarga katta ta'sir ko‘rsatdi va milliy ozodlik harakatining rivojlanishiga turtki berdi. Jadidchilikning taqdiri: Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, jadidlar "millatchi" va "xalq dushmani" sifatida ta'qib qilindi va qatag‘on qilindi. Ularning ko‘pchiligi qatl etildi yoki surgun qilindi. Shunga qaramay, jadidchilik g‘oyalari xalq xotirasida saqlanib qoldi va O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ularning merosi qayta tiklandi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish davrining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. U nafaqat ta’lim sohasida islohot o‘tkazishni maqsad qilgan ma’rifatparvarlik harakati, balki jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallash, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiy etgan jamiyat barpo etish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Ular tomonidan ochilgan yangi usul maktablari, nashr etilgan gazeta va jurnallar, yozilgan darslik va badiiy asarlar o‘z davrida katta ma’naviy siljish yasadi. Eng muhimi, jadidlar xalq ongida erkinlik, mustaqillik va milliy taraqqiyot tushunchalarini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldilar. 1917-yilda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati esa ularning siyosiy mustaqillik yo‘lidagi amaliy harakati sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

Garchi jadidlar faoliyati keyinchalik sovet tuzumi tomonidan to‘xtatilgan va ko‘plab namoyandalari qatag‘onga uchragan bo‘lsa-da, ularning ma’rifatparvarlik va taraqqiyotga da’vat etuvchi g‘oyalari xalq xotirasida saqlanib qoldi. Bugungi kunda ham jadidchilik merosi milliy davlatchilik, zamonaviy ta’lim tizimi va ma’naviy yangilanish jarayonlarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shunday ekan, jadidchilik harakati — bu faqat tarixiy hodisa emas, balki millatning o‘zligini anglash, taraqqiyot sari intilish va erkin jamiyat qurish yo‘lidagi muhim ma’naviy poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.-T:.Sharq,1998.-b.29

2. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-T.,Ma’naviyat.2008.-b.49

3.O’zbekiston tarixi.Darslik.Toshkent.2022,-b.76

4.O’zbekiston tarixi.R.SHamsutdinov,X.Mo’minov.Andijon.2011,-b.306-308

5.O’zbekiston tarixi.Darslik.Toshkent.2022,-b.76

JADIDLAR MA’NAVIY JASORATI ASOSIDA YOSHLAR TARBIYASIDA STRATEGIK LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH: MOTIVATSION OMILLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Bozorov Aziz Abloqulovich

BuxDPI, Harbiy ta’lim fakulteti boshlig’i

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-ma’rifiy hayotida yuz bergan tub burilishlar Jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jadidlar nafaqat ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, balki milliy ong, ma’naviy uyg‘onish va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga strategik yondashuvni ilgari surdilar. Ularning ma’naviy jasorati — erkin fikrlash, yangicha tafakkur, islohotchilik ruhini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy qarshiliklarga qaramay ma’rifat yo‘lida qat’iyat ko‘rsatish — bugungi yoshlar tarbiyasida strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim psixologik-resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarning faoliyati yosh avlod ongida maqsadlilik, tashabbuskorlik va istiqbolni ko‘ra bilish kabi strategik sifatlarni shakllantirishning tarixiy-nazariy asosini yaratadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, strategik liderlik kompetensiyalarining shakllanishi motivatsion omillar — ichki qadriyatlar, ma’naviy e’tiqod, ijtimoiy mas’uliyat hissi va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishga intilish bilan bevosita bog‘liqdir. Jadidlar ma’naviy jasorati aynan shu ichki motivatsion determinantlarni faollashtiruvchi kuch sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada jadidlar merosi asosida yoshlar tarbiyasida strategik liderlik kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari hamda motivatsion omillarning o‘zaro bog‘liqligi nazariy va konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ma’naviy-merosiy qadriyatlarni zamonaviy liderlik rivoji bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Jadidlar ma’naviy jasorati fenomeni, avvalo, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan Jadidchilik harakatining ma’rifiy va ijtimoiy islohotchilik ruhida namoyon bo‘ladi. Bu harakat namoyandalari jamiyatni yangilash, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va milliy ongni uyg‘otish orqali strategik taraqqiyot modelini ilgari surdilar. Ularning faoliyati shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy jasorat nafaqat axloqiy fazilat, balki uzoqni ko‘ra bilish, tavakkalchilikka tayyorlik va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi strategik liderlik sifatlarining tarixiy ildizidir. Shu bois, jadidlar merosi yoshlar ongida strategik tafakkurni shakllantirishning konseptual asoslaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Strategik liderlik kompetensiyalari zamonaviy psixologik yondashuvlarda murakkab integrativ tuzilma sifatida qaraladi. U o‘z ichiga strategik fikrlash, tizimli tahlil, prognozlash, ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish va samarali kommunikatsiya kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. Mazkur kompetensiyalarning rivojlanishida motivatsion omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, ichki motivatsiya, shaxsiy qadriyatlarga sodiqlik va maqsadga yo‘naltirilganlik strategik qarorlar qabul qilish jarayonida psixologik barqarorlikni ta’minlaydi. Jadidlar faoliyatida aynan ichki e’tiqod va ma’naviy mas’uliyat kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilgan.

Yoshlar tarbiyasi jarayonida ma’naviy jasoratni psixologik model sifatida qo‘llash strategik liderlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratadi. Bunda tarixiy shaxslar faoliyatini refleksiv tahlil qilish, qadriyatlar asosida muhokama va muammoli vaziyatlar orqali strategik qaror qabul qilishni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Motivatsion jihatdan esa, yoshlarning o‘zini o‘zi namoyon qilish ehtiyoji, jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi va kelajakni ongli ravishda qurishga intilishi strategik kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy ichki resurs bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda ma’naviy ideal va shaxsiy maqsad uyg‘unligi yetakchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, strategik liderlik kompetensiyalarini shakllantirishda ma’naviy-merosiy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash muhimdir. Jadidlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida erkin fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlash yoshlarning liderlik salohiyatini oshiradi. Psixologik nuqtai nazardan, ma’naviy jasorat modeli shaxsning ichki motivatsiyasini mustahkamlash, stressga chidamlilikni rivojlantirish va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada,

yoshlar ongida strategik fikrlovchi, tashabbuskor va mas’uliyatli lider shaxs modeli shakllanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat Jadidchilik harakatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati sharoitida mahalliy aholi ijtimoiy-siyosiy huquqlari cheklangan, an’anaviy boshqaruv institutlari zaiflashgan edi. Shu tarixiy kontekstda jadidlar ma’rifat va islohot orqali jamiyatni uyg‘otish, siyosiy ongni shakllantirish va milliy o‘zlikni tiklashni strategik vazifa sifatida ilgari surdilar. Ularning ma’naviy jasorati mavjud siyosiy bosimga qaramay, yangicha tafakkur va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surishda namoyon bo‘ldi.

Jadidlarning siyosiy qarashlari dastlab madaniy-ma’rifiy islohotlar orqali jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ular siyosiy faollikka ham o‘ta boshladilar. 1917-yil voqealaridan so‘ng Turkistonda muxtoriyat g‘oyasining ilgari surilishi, xususan Qo‘qon Muxtoriyati tajribasi jadidlarning strategik siyosiy fikrlash darajasini namoyon etdi. Bu jarayon yosh avlod ongida siyosiy mas’uliyat, milliy manfaat va kelajakni rejalashtirish kabi strategik liderlik sifatlarini shakllantirish uchun tarixiy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidlar faoliyatida siyosiy ong va ma’naviy jasorat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ular ta’limni siyosiy modernizatsiyaning asosiy vositasi deb bildilar. Yangi usul maktablari orqali dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilish, matbuot va teatr orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish siyosiy ijtimoiylashuvning muhim mexanizmlaridan biri edi. Bu jarayon shaxsda faollik, tashabbuskorlik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab, strategik liderlik kompetensiyalarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Siyosiy repressiyalar davrida ko‘plab jadidlarning ta’qib qilinishi va qatag‘on qilinishi ularning ma’naviy jasoratini yanada yorqinroq ko‘rsatdi. Qatag‘on siyosati sharoitida ham ular millat ravnaqi va istiqlol g‘oyasiga sodiq qolganlar. Bu tarixiy tajriba yoshlar tarbiyasida psixologik barqarorlik, qadriyatlarga sodiqlik va murakkab siyosiy vaziyatlarda strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim o‘rnakdir.

Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarning siyosiy savodxonligi va strategik fikrlashi davlat va jamiyat barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Jadidlar ilgari surgan milliy taraqqiyot modeli bugungi kunda ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, jadidlar merosi strategik liderlikni shakllantirishda tarixiy-siyosiy tajriba sifatida qayta talqin etilishi mumkin.

Umuman olganda, jadidlar siyosiy faoliyati yoshlar tarbiyasida strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning tarixiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning siyosiy ong, milliy manfaat va ma’naviy jasorat uyg‘unligiga asoslangan qarashlari motivatsion omillar — ichki e’tiqod, ijtimoiy mas’uliyat va istiqbolni ko‘ra bilish qobiliyatini kuchaytiradi. Natijada, tarixiy-siyosiy tajribaga tayangan holda yosh avlodda strategik fikrlash va mas’uliyatli yetakchilik fazilatlarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan ilgari surilgan ma’naviy jasorat g‘oyasi yoshlar tarbiyasida strategik liderlik kompetensiyalarini shakllantirishning muhim ma’naviy-psixologik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadidlar merosida mujassam bo‘lgan maqsadlilik, ijtimoiy mas’uliyat, tashabbuskorlik va erkin fikrlash kabi sifatlar zamonaviy liderlik nazariyalarida ta’kidlanadigan strategik tafakkur, uzoqni ko‘ra bilish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalari bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, ma’naviy jasorat ichki motivatsiya, qadriyatga sodiqlik va shaxsiy pozitsiyaning barqarorligi orqali strategik liderlikning psixologik asosini mustahkamlaydi.

Shuningdek, maqolada motivatsion omillarning — ichki rag‘bat, o‘zini o‘zi anglash, ijtimoiy ahamiyatni his etish va ma’naviy e’tiqodning — strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi determinant roli asoslab berildi. Jadidlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy qadriyatlar bilan boyitilgan ta’lim-tarbiya jarayoni yoshlarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning strategik fikrlash salohiyati va ijtimoiy yetakchilik mas’uliyatini ham shakllantiradi. Shu bois, jadidchilik merosiga tayangan holda ishlab chiqilgan ma’naviy-psixologik model zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh, tashabbuskor va strategik fikrlovchi lider shaxsni tarbiyalashda samarali konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Ma’naviyat va ma’rifat. 22-dekbr 2023 y.

2.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2018, 28 bet.

4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Sharq nashriyoti, Toshkent, 2012.

5. Hamza. To‘la asarlar to‘plami2-tom Toshkent 1989.99bet.

6.A.Nasriddinov. Davr-Buyuk Ma’rifatparvar Taqdirida. ”O‘zbekiston falasuflari milliy jamiyati”nashriyoti.Toshkent 2022.117 bet.

6. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. –1914-yil 23-may. –№ 12.

7. G‘ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129.

8. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. –1917-yil 6-sentabr. –№ 2.

9. G‘ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. –1923-yil 6-fevral. –№ 57.

10. G‘ozi Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. –1918-yil 4-yanvar. –№ 1.

11. Bahrom Irzaev. Turkiston jadidlarining ko‘mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016.

12.Ko‘makning javobi. // Turkiston. – 1923-yil 29-iyul. –№ 163.

13.Baroqxon talabasi. Sharaflik ko‘mak // Turksiton. 1922-yil 22-iyul. –№ 200.

14.O‘qig‘uvchi talabalarga ko‘mak berish lozim // Turkiston. 1922-yil 6-sentabr. –№ 216.

TURKISTONDA JADIDCHILIK, MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING GENEZISI VA SHAKLLANISHI

Sharopova Diyora Davron qizi

Navoiy davlat universiteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq

ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jadidchilikning g‘oyaviy qarashlarini o‘rganish konsepsiyasini ilgari surilishi [1:] jumladan, 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Jadid” gazetasini nashr etish [2:2-B.] borasida olib borayotgan ishlari alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, mustaqillik sharofati bilan o‘zbek xalqining yaqin tarixidagi madaniy merosi bo‘lgan jadid adabiyotiga munosabat tubdan o‘zgardi [3:175-B.].

Prezidentimiz asarlarida milliy g‘oya xalqning tarixiy orzusi, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlanib kelayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, ma’navay ehtiyojining va talabiga aylanishi e’tirof etildi. Milliy g‘oya xalqning eng ezgu orzu va ulug‘ intilishi, g‘urur va iftixori, or-nomus va ruhiy madadkori sifatida u bilan doimo birga yashab kelayotgan g‘oya ekanligi kabi nazariy xulosalalar milliy g‘oyaning teran ma’naviy ildizlari mavjudligini ko‘rsatadi va ushbu masalaning ilmiy dolzarbligidan dalolat beradi.

Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlarini bilish, tadqiq etish, birinchidan milliy ongimiz, tafakkurimiz, xalqimiz ijtimoiy fikrining rivojlanish bosqichlarini o‘rganishga yordam bersa, ikkinchidan, milliy jipslikni mustahkamlashga, oliy maqsadlar yo‘lida xalqning safarbarligini kuchaytirishga xizmat qiladi, uchinchidan, adabiy merosning xususan jadidlar davri merosining ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini kuchaytirishdagi, jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni aniq ijtimoiy mo‘ljallar, mezonlar bilan qurollantirishdagi, har xil ma’naviy tahdidlar va g‘oyaviy xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilishdagi ahamiyatini teran tushinish va amalda samaraliroq qo‘llash imkonini berdi.

Vatanimizning, jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining shonli tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri bo‘lgan ilk o‘rta asrlar haqli ravishda Uyg‘onish davri deb ataladi. Chunki bu davrda ilm fan, madaniyat, san’at, adabiyot, falsafiy, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo‘shilgan katta xissa bo‘lib, asrlar mobaynida necha-necha avlodlarimizni o‘zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solib kelmoqda. Xususan, O‘zbekistonning bugungi mustaqillik sharoitida o‘tish ajdodlarimizning g‘oyalari, ibratli ishlari mug‘im ahamiyat kasb etmoqda. “Markaziy Osiyoda, -deb yozadi akademik

M.M.Xayrullayev, XI–XII asrlarda vujudga kelgan va uni Ismoil Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg‘inoniy, Zamaxshariy kabi olimlari bilan jahonga mashhur qilgan madaniy yuksalish – Renessans... davri bo‘ldi” [4:9-B]. XIXasrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ham mana shunday ilm-fan madaniyatni rivojlantirish borasida yangi davr yuzaga kela boshladi. Tariximizda jadidchilik nomini olgan taraqqiyparvarlik harakati yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishning tashabbuskori bo‘lib chiqishdi.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keladi, mukammal bir shaklga kiradi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutilish, rus istilosiga qarshi kurash, ma`rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo‘ulga kiritish g‘oyalari bilan to‘lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllanadi. Behbudiy bunday adabiyotning ilk namunalarini yaratadi. Undan so‘ng Fitrat va boshqalar maydonga chiqqan edi.

Shu asnoda “Turkiston muxtoriyati” [5:] tashkil etgan jadidlarimizning siyosiy mustaqillik uchun olib borgan kurashlarining ilk namunasi sho‘rolar tomonidan xoinona qonga botirilgan hodisani “Bosmachilik” [6:] nomi bilan badnom qilinishi, aslida xalqimiz farzandlarining o‘z erki, ma’naviyati yo‘lidagi kurashi-milliy ozodlik harakatlarini qayta baholash boshlandi.

Vatanimiz istiqloli tufayligina jadidchilik nafaqat faylasuflar, balki, huquqshunoslarni ham jalb etdi. Uni kompleks o‘rganish imkoni tug‘ildi. O‘zbekistonning XX asrdagi tarixi dunyo yuzini ko‘rdi. Ayniqsa, Turkiya sultoni Abdulhamid II davrida (1876-1909) mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan islohotlar, qabul qilingan qator qonunlar va ularning hayotga tadbiq etilishi Turkiston xalqlari uchun ham ahamiyatli edi. Turkiyadagi progressiv islohotlar, Yevropa madaniyati va turmush tarzini mamlakatda keng ommallashuviga olib keldi. Bu ijobiy tendensiya Turkistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Turkistonda jadidchilik g‘oyalarini aholi o‘rtasida keng tarqatish va targ‘ibot qilishda tatar ziyolilarining xizmatlari ham katta bo‘ldi. Ana shunday ma’rifatparvardan biri Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) edi [7:576-577-B.]. Shuningdek, XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va “Tarjimon” gazetasi (1883-yildan Qrimda chiqa boshlagan) tachkilotchisi Ismoil Gaspiralining faoliyati ham Turkiston jadidlariga juda kuchli ta`sir ko‘rsatgan. Uning jadidchilik faoliyati butun Sharqda, jumladan Turkistonda mashhur bo‘lib ketgandi. Ismoil Gaspirali Turkistonda bo‘lgan va o‘zining o‘tkir asarlari bilan o‘lka jadidlarining dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa yangi usul maktablarining vujudga kelishida turtki, namuna bo‘lgan. Bu vaqtda Turkistondan, Xiva xonligidan, Buxoro amirligidan Turkiyaga borib tahsil ko‘rayotgan ko‘plab ziyolilar, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, ilg‘or Yevro‘pa turmush tarzi, texnika tarqqiyoti, madaniyati, ma’rifatidan ta’sirlanish, unga havas bilan qarash, o‘z vatanlarida ham bu kabi o‘zgarishlar bo‘lishini qumsash his-tuyg‘ulari uyg‘ona boshlaydi.

1889-yilda “Ittihod va taraqqiy” nomli hurriyatparvar jamiyatlar butun Turkiya bo‘ylab maydonga keladi [8:292-B.]. Turkiyada tahsil ko‘rayotgan turkistonlik ziyolilar o‘z vatanlariga qaytib ona yurtlarida ham o‘shanday “Ittihod va taraqqiyot” jamiyatlarini tashkil etganlar.

Jadidlar davri milliy istiqlol g‘oyasining bosh maqsadi milliy ozozdlikka erishmoq, millat mustaqilligini qo‘lga kiritishda ifodalansa, bugungi mustaqillik qo‘lga kiritilgan davrda mustaqillikni mustahkamlash yo‘lida “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish”, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga ko‘tarilish g‘oyasi bosh maqsad sifatida olinadi. Jadidlar g‘oyalarining cho‘qqisi bo‘lgan mustaqillika erishish bugungi kun uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Bolsheviklarga qarshi kurashish va ularga zarba berish maqsadida Turkiston jadidlari faoliyati butun o‘lkani qamraydigan, inglizlarning skauting maktab dasturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan “Turon kuchi”, “Turk kuchi”, “Temur”, “Izchilar”, “Lochin” kabi guruhlarni tuzdilar [9:294-B.].

Turkistonda Milliy Uyg‘onish harakatining ulug‘ yetakchisi va bayroqdori bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy faqat birinchi dramaturg bo‘libgina qolmay, milliy teatr san’ati nazariyasining ham ilk asoschilaridan hisoblanadi. U o‘z vaqtida Saidahmad Vasliy, Fazlulvahhob qori kabi teatr san’atini shar’an harom deb isbot qilmoqchi bo‘lgan eski ulamolarning chiqishlariga javoban islomiy manbalar va mantiqiy dalillarga tayanib, teatr san’atining “darsxonai ibrat” va shar’an savob ekanligini isbot qilib berdi. Ma’rifatparvarlarning eng asosiy vazifalaridan biri Turkiston mustaqilligi uchun olib borgan ijtimoiy-siyosiy harakatlari alohida ahamiyatga egadir. Turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi kun tartibidan mustahkam o‘rin oldi. O‘zbek qozoq, qirg‘iz qoraqalpoq, boshqird, tatar, turkman kabi negizi bitta turkiy xalqlarni birlashtirish va shu asosda federativ yoki muxtoriyatli davlat qurish masalasi bo‘y ko‘rsata bordi [10:290-B].

Rossiya fevral inqilobi arafasida bo‘lgan paytda Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylanadi. Agar birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo’lsalar, fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining “Taraqqiyparvarlar” oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o‘lkani boshqarish yuzasidan asosli islohatlar o‘tkazish o‘lkaga davlat do‘masidan aholi soniga qarab o‘rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo milliy matbuot erkinligini ta’minlash. Podsho hukumatini konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyada yangi davlat tuzumi o‘rnatilgandan so‘ng fedirativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog‘lagan bunday siyosiy jarayonlar jadidlarni ruhlantirib yubordi.

Ayni paytda milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan jadidlar tomonidan “Ittifoqi muslimin”, “Turon” kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o‘z ortlaridan ergashtira oldilar ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash jipslashtirish hissini o‘yg‘otdilar. Ammo ular tez orada tushundilarki, Rossiyadagi muvaqqat hukumat va uning Turkiston qo’mitasi ham o‘lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo‘lini tutmoqda edi. Chunonchi bu siyosat tasis majlisini chiqarishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo’ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muommasiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya demokratik Federativ respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qildilar Biroq Turkistondagi

oktabr voqealari va bolsheveklarning zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi.

Xulosa qilish mumkinki, jadidlar qarashlari va konsepsiyalarida qadriyatlar tizimi qayta baholandi, hayot va haqiqat mezonlari o‘zgardi. Jadidlar ijodi va faoliyatining o‘zi ham tadrijiy rivojlanib, kengayib va chuqurlashib bordi. Maktab islohotidan boshlangan harakat asta-sekin jamiyat hayotining barcha sohalari va qatlamlarini qamrab oldi. Jadidlar ijodi va faoliyati jamiyat ma’naviy hayotidagi avvalgi holatning inkori, yangi sifat bosqichining shakllanishi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: 2020-yil 29-dekabr.
2. Iqbol Mirzo Birlashmoq davri. Jadid gazetasi. 2024-yil 1-yanvar 2-bet.
3. Rajabov Q.K. O‘zbekiston XX asrda (1900-2000-yillar) Birnchi jild 1900-1939-yy. T.: Fan, 2024.
4. Xayrullayev M.M. Temuriylar va Markaziy Osiyo Renessansi. ”Sharqshunoslik” to‘plami. – T.: 1996, 7-son.
5. O’zbekiston tarixi (1917-1991 y.). Ikkita kitob. Ikkinchi kitob. 1939-1991 yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Raximov, Q.Rajabov. – T.: O‘zbekiston, 2019.
6. Rajabov Q.K. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924-yy.) T.: - Ma’naviyat, 2002.
7. Rajabov Q. Gaspirinskiy I. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2002. 2-jild.
8. Rajabov Q.K. “Ittihod va taraqqiy”. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti – T.: 2002. IV-jild.
9. Rajabov Q.K. Buxoro Man‘it amirlari – T.: Fan, 2025.

GLOBAL VA LOKAL QADRIYATLAR TO‘QNASHUVIDA MAHALLA FENOMENINING O‘RNI

Muxammedov Maxsud Murodovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

XXI asrda globallashuv jarayonlari dunyo jamiyatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv natijasida turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar kuchayib, global qadriyatlar tizimi shakllanmoqda. Biroq ushbu jarayon lokal madaniy an’analar va milliy qadriyatlar bilan muayyan ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlarda globallashuv jarayoni global madaniyat va mahalliy madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir sifatida talqin qilinadi.

Shu nuqtai nazardan mahalla instituti O‘zbekiston jamiyatida lokal qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayoni jamiyatlar madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Global axborot oqimlari, migratsiya jarayonlari va iqtisodiy integratsiya natijasida turli jamiyatlar o‘rtasida madaniy almashinuv kuchaymoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan globallashuv madaniy universallashuv jarayoni sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, globallashuv natijasida ayrim milliy qadriyatlar zaiflashishi yoki transformatsiyaga uchrashi mumkin [3:47].

Shu sababli ko‘plab jamiyatlarda milliy identitetni saqlash masalasi dolzarb muammolardan biriga aylangan.

Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni, balki chuqur madaniy o‘zgarishlarni ham olib kelmoqda. Madaniy universallashuv g‘oyasi, qarama-qarshi tomondan, dunyoning turli burchaklarida yashovchi odamlar uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar, me‘yorlar va hayot tarzlarining shakllanishiga olib keladi. Bu holat axborot texnologiyalari, ommaviy madaniat va xalqaro migratsiyaning kuchayishi tufayli yanada tezlashmoqda. Natijada, an’anaviy madaniy chegaralar daha nozik bo‘lib, global madaniy diskursga xos bo‘lgan universal elementlar paydo bo‘ladi.

Biroq, bu universallashuv mahalliy madaniy kontekstlar bilan murakkab o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Ba’zi tadqiqotchilar buni “glokalizatsiya” deb atashadi, ya’ni global tendentsiyalar mahalliy sharoitga moslashuvi jarayoni. Masalan, global oziq-ovqat tarmoqlari mahalliy ta’m va an’analarga moslashtirilgan mahsulotlarni taklif qiladi. Shunday bo‘lsa-da, bu o‘zaro ta’sir har doim ham barqaror emas. Ko‘pincha, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lgan madaniyatlar o‘z me’yorlari va qadriyatlarini “dunyo standarti” sifatida keng tarqatadi, bu esa kichikroq milliy madaniyatlarni passiv iste’molchilarga aylantirish xavfini tug‘diradi.

Milliy identitetni saqlashga bo‘lgan intilish, shuning uchun, globallashuvga tabiiy reaksiya hisoblanadi. Bu intilsh nafaqat madaniy merosni muzeylashtirish, balki uni dinamik tarzda yangi sharoitga moslashtirishni anglatadi. Jamiyatlar o‘z tillarini, an’analarini, bayramlarini va ma’naviy qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘ziga xosligini saqlab qolishga harakat qiladi. Bu jarayonda milliy identitet statik tushuncha emas, balki global ta’sirlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladigan, o‘zgaruvchan va o‘zini qayta shakllantiradigan hodisaga aylanadi.

Dolzarb muammo shundaki, milliy identitetni saqlash va madaniy ochiqlik o‘rtasida muvozanatni topishdir. Yopiq millatchilik pozitsiyasi modernizatsiyani sekinlashtirishi va jamiyatni izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Aksincha, mutlaqo ochiqlik esa madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, eng maqbul yo‘l – bu tanlov asosida va o‘ziga xoslikni yo‘qotmasdan global madaniy aloqalarni qabul qilishdir. Ta’lim tizimi, madaniyat siyosati va ommaviy axborot vositalari bu muvozanatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mahalla Markaziy Osiyo jamiyatida qadimdan mavjud bo‘lgan ijtimoiy institutlardan biridir. U jamoaviy hamkorlik, o‘zaro yordam va ijtimoiy nazorat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.

Mahalla nafaqat hududiy birlik, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim institutdir. Tadqiqotchilar mahallani fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridan biri sifatida baholaydilar [4:82].

Mahalla institutining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va an'anaviy qadriyatlarni saqlashdan iborat.

Globallashuv jarayonlari mahalla institutiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mahalla tizimi jamiyatda lokal qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda.

Mahalla quyidagi funksiyalar orqali lokal qadriyatlarni himoya qiladi:

1. **Madaniy identitetni saqlash**. Mahalla an'anaviy urf-odatlar, marosimlar va ijtimoiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.
2. **Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash**. Mahalla aholining o'zaro hamkorligi va ijtimoiy solidaritetini rivojlantiradi.
3. **Ijtimoiy nazoratni amalga oshirish**. Mahalla jamiyatda ijtimoiy normalar va qadriyatlarga rioya etilishini ta'minlaydi.

Tadqiqotchilar qarashlariga ko'ra, mahalla instituti globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlashning muhim mexanizmlaridan biri [1:134].

Bugungi kunda mahalla tizimi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Mahalla orqali:

- ijtimoiy muammolar aniqlanadi;
- aholining ijtimoiy faolligi oshiriladi;
- milliy qadriyatlar saqlanadi.

Shu sababli mahalla instituti global va lokal qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonlari jamiyat madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mahalla instituti lokal qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mahalla fenomeni global va lokal qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli mahalla institutini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va milliy identitetni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 134-bet.
2. Anthony Giddens. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 64-bet.
3. Zygmunt Bauman. Globalization: The Human Consequences. – Cambridge: Polity Press, 2011. – 47-bet.
4. Erkin Yusupov. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Universitet, 2005. – 82-bet.

YOSHLARNING MEHNATGA KREATIV YONDASHUV MODELINI ISHLAB CHIQISH

Rajabov Ilxom Mustafoyevich

“NKMK” Aksiyadorlik jamiyati Markaziy kon boshqarmasi,

Boshqarma Ofis menejer bo‘limi

Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi rahbari

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat faoliyati mazmuni sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda mehnat jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va tashabbuskorlik muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli yoshlarning mehnat faoliyatiga kreativ yondashuvini shakllantirish dolzarb pedagogik va ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativ yondashuvni shakllantirish, avvalo, ta'lim tizimidan boshlanishi kerak. An'anaviy, eskirgan bilimlarni o'rgatish metodlari o'rniga, maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning izlanish, kashfiyot va ijod qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu, talabalarni muammolarni turli tamonlardan ko'rib chiqishga, noan'anaviy yechimlar topishga va o'z g'oyalarini erkin ifoda etishga undaydigan interfaol metodlar, loyihalar asosida o'qitish va amaliy mashg'ulotlarni keng joriy etishni talab qiladi. Pedagogning roli bilim beruvchidan ko'ra, yoshlarning kreativ salohiyatini ochishga yordam beruvchi rahbar va moderatorga aylanadi.

Raqamli texnologiyalar kreativlikni tarbiyalash uchun benihoya imkoniyatlar yaratmoqda. Sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, katta ma'lumotlar tahlili kabi vositalar yordamida yoshlar murakkab jarayonlarni modellashtirish, g'oyalarini vizual ifodalash va ularni tezkor sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqlar. Shu bilan birga, raqamli asboblar kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi muhit sifatida, nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki loyihalar boshqaruvi, jamoada ishlash va kommunikatsiya kabi "yumshoq" ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Asosiysi, texnologiya inson ijodkorligini o'rnini bosuvchi emas, balki uni kuchaytiruvchi vosita sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, kreativlik insonning yangi g‘oyalarni yaratish va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u zamonaviy iqtisodiyotning muhim resurslaridan biridir [1:37].

Bugungi kunda yoshlarning mehnat faoliyatida kreativlikni rivojlantirish ta’lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Kreativ yondashuv insonning mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatini anglatadi. Psixologik tadqiqotlar kreativlik shaxsning tafakkur moslashuvchanligi, tasavvur kengligi va mustaqil fikrlash bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Masalan, Teresa Amabile kreativlikni uch asosiy omil bilan bog‘laydi: bilim, kreativ fikrlash qobiliyati va motivatsiya [2:112].

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda kreativ yondashuv yoshlarning kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, kreativ fikrlash yoshlarning mehnat faoliyatida muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi [4:94].

Shu sababli yoshlarning mehnatga kreativ yondashuvini rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning mehnatga kreativ yondashuv modelini ishlab chiqishda quyidagi asosiy komponentlar muhim ahamiyatga ega:

1. Motivatsion komponent

Bu komponent yoshlarning mehnatga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy maqsadlari va o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya kreativ faoliyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [1:118].

2. Kognitiv komponent

Bu komponent yoshlarning bilim darajasi, kreativ fikrlash qobiliyati va muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Kreativ tafakkur yangi g‘oyalar ishlab chiqish va innovatsion yechimlar topishda muhim rol o‘ynaydi [3:52].

3. Amaliy komponent

Bu komponent yoshlarning o‘z bilim va g‘oyalarini amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq.

Amaliy faoliyat jarayonida yoshlar yangi tajribalar orttiradi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

4. Ijtimoiy komponent

Bu komponent yoshlarning jamoada ishlash qobiliyati, ijtimoiy faolligi va kommunikativ ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy mehnat faoliyatida jamoaviy hamkorlik kreativ g‘oyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Taklif etilayotgan modelni amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Ta’lim tizimida kreativ pedagogik texnologiyalarni qo‘llash
2. Kasbiy ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish
3. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash
4. Raqamli texnologiyalar asosida kreativ muhit yaratish

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, kreativ ta’lim muhitini yaratish yoshlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [3:52].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning mehnatga kreativ yondashuvini rivojlantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun motivatsion, kognitiv, amaliy va ijtimoiy komponentlardan iborat konseptual modelni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilgan model yoshlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyot talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning mehnat faoliyatiga kreativ yondashuvini shakllantirish – bu uzoq muddatli, ko'p tarmoqli strategiyani talab qiladigan murakkab vazifadir. Bunda ta'lim tizimining islohoti, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, iqtisodiyotning yangicha talablarini inobatga olish va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni barpo etish o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward de Bono. Serious Creativity. – New York: Harper Business, 1992. – 37–41-betlar.
2. Teresa Amabile. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – 112–118-betlar.
3. Ken Robinson. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Oxford: Capstone, 2011. – 52-bet.
4. Naim Karimov. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2001. – 94-bet.

III SHO‘BA: JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR HAMDA MA’RIFATLI JAMIYAT, YANGI MA’NAVIY MAKON YARATISHGA OID IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALARNING AKS ETISHI

MARIFATLI SHAXS KONSEPSIYASINING JADIDLAR FALSAFIY MEROSIDA RIVOJLANTIRILISHI

Amridinova Dilraba Tursunovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti professor,

falsafa fanlari doktori, DSc

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan ma’naviy uyg‘onish jarayoni jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘liqdir. Jadidlar nafaqat ta’lim islohotchilari, balki yangi ijtimoiy tafakkur, milliy ong va shaxs konsepsiyasini shakllantirgan ma’rifatparvar mutafakkirlar edi. Ularning qarashlarida “ma’rifatli shaxs” jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur” iyatga aylandi.[1]

Maqolaning maqsadi jadidlar falsafiy merosida ma’rifatli shaxs konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy-falsafiy tahlil asosida yoritish hamda uning tarkibiy komponentlarini aniqlashdir.

Yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar tarbiyasi, ya’ni komil insonning shakllanishiga oid, insoniyatning boy ma’naviy xazinasidan munosib o‘rin olgan tarixiy, milliy, ma’naviy madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizdan samarali foydalanish, yosh avlodni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridandir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar talqinida “ma’rifatli shaxs” bir qator tarkibiy jihatlarni qamrab oladi.

1. Intellektual komponent. Jadidlar ilm va bilimni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilishgan. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilm insonni kamolotga yetkazuvchi kuch sifatida ta’riflaydi. Ma’rifatli shaxs zamonaviy bilimlarga ega, tanqidiy fikrlay oladigan va dunyoqarashi keng inson sifatida tasvirlanadi.

2. Axloqiy komponent.Jadidlar qarashlarida ma’rifat axloq bilan uyg‘unlikda qaraladi. Axloqiy poklik, mas’uliyat, vijdon va insonparvarlik ma’rifatli shaxsning asosiy sifatlari sifatida talqin etiladi.

3. Milliy ong va o‘zlikni anglash. Behbudiy va Fitrat asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Ma’rifatli shaxs o‘z millatining tarixi, tili va madaniyatini anglagan, milliy manfaatlar uchun mas’uliyat his qiluvchi shaxs sifatida ifodalanadi.

4. Ijtimoiy faollik. Jadidlar ma’rifatli insonni passiv kuzatuvchi emas, balki jamiyatni isloh qiluvchi faol subyekt sifatida ko‘rishgan. Ta’lim islohoti, matbuot, teatr va madaniy faoliyat shu g‘oyaning amaliy ifodasi bo‘lgan.

5. Modernistik dunyoqarash. Jadidlar an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatni saqlagan holda, ilg‘or tajribalarni qabul qilishni targ‘ib qilgan. Shu jihatdan ma’rifatli shaxs global jarayonlarni anglay oladigan, ochiq fikrli inson sifatida namoyon bo‘ladi.[2]

Ayni shu ma’noda, insonning kamoloti ezgu maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaga bog‘liqligiga ishongan jadidlar, jumladan, Abdulla Avloniy uzil –kesil tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi ekanligi borasida uzil-kesil xulosaga keladi. Ma’rifatparvar allomaning yuqoridagi fikrlari, o‘z navbatida XX asr boshida millatimiz taqdiri va hayotida naqadar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, ushbu fikr hozirgi davrda ham muhimdir. Allomaning bundan bir asr muqaddam aytgan purmona fikrlari, hozir ham o‘z dolzarbligi va jozibasini yo‘qotmagan. Chunonchi, “Bizlarni jaholat qarong‘uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur.... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmi bog‘lidur” [4,303]. Uning millat mehri bilan sug‘orilgan otashin fikrlari ziyo ingan qalblarga mudom bedorlik, ma’rifat va taraqqiyot sari undab kelmoqda.

Ma’rifatparvarlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot sahifalarida maqolalar e’lon qilib ishlab chiqarish korchalonlari va katta savdogarlarni xayriya tadbirlarini qo‘llab-quvvatlashga da’vat qilgan. Shu bilan birga, millat yoshlarini qo‘llab-quvvatlash, maktablar islohoti, yoshlarni xorijiy mamlakatlarning oliy o‘quv yurtlariga kirishlariga tayyorlash va o‘qishga jo‘natish, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun kutubxonalar, xayriya jamiyatlari, jamg‘armalar, gazeta jurnallar, turli to‘garaklar, nashriyotlar kerak zarurligini jadidlar ta’kidlab kelishgan.[5,30] Ushbu maqsadga mo‘ljallangan ishlarni amalga oshirish uchun mablag‘ zarurligini ta’kidlab, bu sarmoya esa mahalliy boylarimizning qo‘lidaligini bildirib, ularni ham bu xayrli ishlarga jalb etish kerakligini aytishgan.

Shunday qilib jadidchilik ta’limoti o‘zining ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra, falsafiy nuqtai-nazardan ezgulikka asoslangan insonparvarlik g‘oyalaridan oziqlangan holda o‘z davridagi qoloq va tarqoqlik holatiga tushgan yurtni jaholat botqog‘idan olib chiqish va taraqqiyot yo‘liga boshlash uchun milliy ongni ma’rifat nuri bilan yoritmoq zarurati paydo bo‘ldi. Shuning uchun ham ma’rifatli shaxsni tarbiyalash, barkamol avlodni shakllantirish jadid ziyolilarining bosh maqsadiga aylandi, ular falsafasida yangi davr qahramoni obrazi shakllandi. Ma’rifatli shaxs

konsepsiyasining Sharqona genezisi va vorisiyligi umumlashtirilganda, ruhiy-ma’naviy yetuklik, barkamol inson - o‘tkir aql, teran his – tuyg‘ular, o‘tkir sezish qobiliyati, idroki va yuksak fazilatga ega bo‘lgan inson ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ziyoli shaxs fazilatlarida kishi aqlni huda-behuda narsalarga sarf etmasligi, har bir so‘zi aql va odob tarozisida tortilib, mulohazasi e’tiqodiga monand bo‘lmog‘i, bajargan har bir ishidan afsus chekmaslik uchun odobi bilan boshqalarga namuna bo‘lmog‘i va ajralib turmog‘i lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

2.Назаров Қ.Н. Истиқлол даври ўзбек фалсафаси: ўзгариш янгиланиш жараёни // Ўзбек фалсафаси тарихи (III жилд). – Тошкент.: Muharrir, 2020. – Б.424.

3.Ислом энциклопедияси.-Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. –Б.603.

4.Усмонов Ж. Абдулла Авлонийнинг фалсафий қарашлари // Ўзбек фалсафаси тарихи (III жилд). – Тошкент.: Muharrir, 2020. –Б.303

5.Абдурашидов З.Туркистон жадидлари ва миллий ғоя тарғиботи.// “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари 2016 йил 15 апрелъ. –Тошкент.:2016.-Б.30.

6.Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент.: Маънавият, 2006. – Б.218.

MA’RIFATLI JAMIYAT KONSEPSIYASI: ALISHER NAVOIY VA JADIDLAR IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI

Pardayeva Marhabo Davlatovna

Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti prorektori

Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi insoniyat sivilizatsion taraqqiyotining asosiy g‘oyaviy tamoyillaridan biri sifatida tarixiy jarayonlarda izchil rivojlanib kelgan murakkab ijtimoiy-falsafiy modeldir. U turli davr va madaniy makonlarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, uning markazida har doim ilm, axloq va adolat tamoyillari ustuvor o‘rin egallagan. G‘arb falsafasida bu g‘oya ratsionalizm va ma’rifatchilik harakati bilan bog‘liq talqin etilgan bo‘lsa, Sharq tafakkurida u ma’naviy komillik, hikmat va ichki poklanish bilan uyg‘un holda shakllangan.

Sharq ijtimoiy-falsafiy an’anasida ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi shaxs kamoloti bilan jamiyat barqarorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosida talqin

qilinadi. Bu yerda ma’rifat nafaqat bilish jarayoni, balki insonning axloqiy yetukligi, adolatga sadoqati va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash darajasini bildiradi. Ilm ustuvorligi esa, faqat nazariy bilimni emas, balki hikmat bilan uyg‘unlashgan ongli tafakkurni anglatadi. Shu bois Sharq tafakkurida ma’rifatli jamiyat — bu ichki komillik va tashqi adolat uyg‘unlashgan ijtimoiy makondir.

Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy merosida Alisher Navoiy mazkur konsepsiyaning mukammal badiiy-falsafiy modelini yaratgan mutafakkir sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida ilm, ma’rifat, adolat va komil inson g‘oyalari yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Navoiy talqinida ma’rifat insonni nafsiy cheklanishlardan ozod etuvchi, uni ruhiy va axloqiy yuksalish sari yetaklovchi kuchdir. Uning qarashlarida komil inson bu nafaqat bilimli, balki odil, saxovatli, mas’uliyatli va jamiyat manfaatini ustun qo‘yuvchi shaxsdir. Shu tariqa, Navoiy ma’rifatli jamiyatning badiiy-falsafiy arxetipini yaratadi.

XX asr boshlarida jadid mutafakkirlari ushbu konsepsiyani yangi tarixiy sharoitda davom ettirib, uni milliy uyg‘onish va modernizatsiya dasturining nazariy asosiga aylantirdilar. Ular ma’rifatni millatni jaholat va qoloqlikdan olib chiqadigan asosiy omil sifatida ko‘rdilar. Behbudiy ilmni milliy tiklanish vositasi deb baholagan bo‘lsa, Avloniy tarbiya orqali ma’naviy yetuk jamiyatni shakllantirishni maqsad qilgan, Fitrat esa, tafakkur mustaqilligini ozodlikning asosi sifatida talqin qilgan [4-5]. Shu tariqa, Navoiy asos solgan ma’rifiy paradigma jadidlar tomonidan ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyitildi.

Ma’rifat tushunchasining mohiyatiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, u faqat bilim egallash bilan chegaralanmaydi. Ma’rifat - bu ongning uyg‘onishi, insonning o‘z mavjudligini anglash jarayoni va ma’naviy yetuklik sari intilishidir. Ontologik jihatdan ma’rifat inson mavjudligining ongli shaklini ifodalaydi. U insonni biologik mavjudot darajasidan ijtimoiy-axloqiy sub’ekt darajasiga ko‘taradi. Ya’ni ma’rifat insonning tabiat tomonidan berilgan imkoniyatlarini ijtimoiy mazmun bilan boyitadi va uni ongli faoliyat yurituvchi, qadriyat tanlay oluvchi shaxsga aylantiradi.

Aksiologik jihatdan, ma’rifat qadriyatlar tizimini anglash va ongli ravishda tanlash qobiliyatini shakllantiradi. Epistemologik jihatdan esa, u bilimni chuqur anglash va mustaqil tafakkur qilish imkonini beradi. Natijada ma’rifatli jamiyat - bu faqat savodli yoki axborotga boy jamiyat emas, balki ongli, mas’uliyatli va axloqiy yetuk shaxslar jamiyatidir.

Shu ma’noda, ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi tarixiy davomiylikka ega bo‘lgan yaxlit sivilizatsion modeldir. Navoiy uni ma’naviy-falsafiy asosda shakllantirgan bo‘lsa, jadidlar uni milliy modernizatsiya dasturiga aylantirdilar. Bugungi globallashuv sharoitida esa, mazkur konsepsiya jamiyat barqarorligi, mafkuraviy mustahkamlik va milliy o‘zlikni saqlashning nazariy poydevori sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

Alisher Navoiy ilm tushunchasi bilan bir qatorda ma’rifat kategoriyasiga alohida e’tibor qaratgan mutafakkirdir. Uning asarlarida “ma’rifat” tushunchasi ko‘p qatlamli mazmunga ega bo‘lib, lug‘aviy va istilohiy jihatlarda keng talqin qilinadi. Arab tilidan kirib kelgan “ma’rifat” so‘zi bilish, anglash, idrok etish ma’nolarini anglatadi. Biroq Navoiy tafakkurida bu tushuncha oddiy bilish jarayoni bilan

cheklanmaydi; u insonning ichki kamoloti, ruhiy poklanishi va borliq mohiyatini anglash darajasi bilan uzviy bog‘lanadi. Tasavvufiy talqinda ma’rifat solik maqomlaridan biri bo‘lib, insonning ma’naviy yuksalish bosqichini ifodalaydi. Bu jarayonda solik kundan-kunga kamol topadi, koinot va tabiat ilmi-hikmatidan, insoniy va ilohiy sir-asrorlardan voqif bo‘lib boradi. Demak, ma’rifat — bu nafaqat bilim, balki qalb va tafakkurning uyg‘un yuksalishidir. Navoiy nazarida ma’rifatga, albatta, ilm orqali erishiladi, ammo ilm ma’rifatning boshlang‘ich pog‘onasi, ma’rifat esa uning mukammal bosqichidir.

Mutafakkir ijodida “ma’rifat” tushunchasi ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi, shariat ilmlaridan hosil bo‘lgan ma’rifat; ikkinchisi, tasavvuf ta’limoti asosida shakllanadigan ma’rifat. Shariat ilmlari orqali inson diniy bilimlarga ega bo‘ladi, axloqiy me’yorlarni anglaydi va ijtimoiy hayotda tartib-intizomni saqlaydi. Tasavvufiy ma’rifat esa, ichki poklanish, nafsni tiyish va ilohiy haqiqatni qalban idrok etish jarayonidir. Shu tariqa, Navoiy tafakkurida ma’rifat tashqi tartib (shariat) va ichki komillik (tasavvuf) birligida namoyon bo‘ladi.

Navoiy talqinidagi ma’rifat jamiyat taraqqiyotining ontologik va aksiologik poydevori sifatida ko‘rinadi. Ma’rifatli jamiyat — bu faqat ilmli insonlar jamiyati emas, balki axloqiy yetuk, ichki poklikka intiluvchi va ongli ravishda qadriyat tanlaydigan shaxslar jamiyatidir.

Shu tariqa, Alisher Navoiy va jadid mutafakkirlari qarashlari o‘rtasida chuqur tarixiy-falsafiy uzviylik mavjudligini kuzatish mumkin. Bu uzviylik oddiy g‘oyaviy o‘xshashlik emas, balki ma’rifat tushunchasining evolyutsion rivojlanish jarayonida mazmunan boyib borishi bilan izohlanadi. Navoiy tafakkurida ma’rifat, avvalo, shaxsning ichki-ruhiy kamolot bosqichi sifatida talqin etiladi [11-12]. U komil inson konsepsiyasi orqali ma’rifatni axloqiy poklanish, nafsni tiyish, hikmatga erishish va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni bilan bog‘laydi. Bu yerda ma’rifat insonning ontologik yuksalish shakli sifatida namoyon bo‘ladi: ya’ni inson biologik mavjudotdan ma’naviy-axloqiy subyekt darajasiga ko‘tariladi.

Jadidlar mazkur ruhiy-ma’naviy asosni inkor etmagan holda, uni yangi tarixiy sharoitga mos ravishda ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitadilar. Ular uchun ma’rifat faqat shaxsiy kamolot vositasi emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning konseptual asosi, milliy uyg‘onishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Agar Navoiy ma’rifatni komil insonni shakllantirish orqali jamiyatni takomillashtirish yo‘li sifatida ko‘rgan bo‘lsa, jadidlar uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy islohotlar, ta’lim modernizatsiyasi va tafakkur yangilanishi bilan bog‘ladilar. Shu jihatdan ma’rifat tushunchasi shaxsiy-ruhiy bosqichdan ijtimoiy-transformatsion darajaga ko‘tarildi.

Mazkur tarixiy davomiylik natijasida ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi ilm, axloq va tafakkur uyg‘unligiga asoslangan yaxlit ijtimoiy model sifatida shakllandi. Ilm — epistemologik poydevor sifatida jamiyatning intellektual salohiyatini ta’minlaydi; axloq — aksiologik mezon sifatida qadriyatlar tizimini barqarorlashtiradi; tafakkur mustaqilligi esa gnoseologik va ijtimoiy erkinlikni kafolatlaydi. Ushbu uchlik o‘zaro uyg‘unlashgandagina ma’rifatli jamiyat modeli barqaror tizimga aylanadi.

Falsafiy jihatdan mazkur model dialektik xarakterga ega: u an’ana va modernlikni qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki ularni o‘zaro boyituvchi omillar sifatida talqin etadi. Navoiy merosidagi ma’naviy komillik g‘oyasi jadidlar tomonidan ijtimoiy modernizatsiya bilan uyg‘unlashtirilib, milliy o‘zlikni saqlagan holda yangilanish konsepsiyasiga aylantiriladi. Bu esa, ma’rifatli jamiyatni tarixiy uzviylik va zamonaviylik sintezida shakllangan sivilizatsion model sifatida namoyon etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida mazkur model o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, aksincha, yanada dolzarblashadi. Axborot oqimining keskin ortishi, g‘oyaviy raqobat va madaniy transformatsiyalar davrida jamiyatning ichki ma’naviy mustahkamligi hal qiluvchi omilga aylanadi. Ma’rifatli jamiyat modeli aynan shu mustahkamlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki unda bilim manipulyatsiyaga qarshi intellektual qalqon vazifasini bajaradi, axloq qadriyatlar tanazzulining oldini oladi, tafakkur mustaqilligi esa mafkuraviy bosimlarga nisbatan ichki erkinlikni saqlaydi.

Shu bois Navoiy va jadidlar qarashlari asosida shakllangan ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi nafaqat tarixiy-falsafiy meros, balki zamonaviy ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning chuqur nazariy asosidir. U shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy-falsafiy darajada asoslab beruvchi universal model sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy ilm ahlining hurmat qilinishini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholaydi [10]. Uning nazarida jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy salohiyati, avvalo, ilm va hikmat egalariga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Agar ilm egalari e’zozlanmasa, tafakkur qadrsizlansa va jaholat ustuvorlik kasb etsa, bu jamiyatni muqarrar ravishda tanazzulga olib boradi. Shu bois Navoiy ilmni ulug‘lashni shunchaki ma’naviy fazilat emas, balki ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida talqin qiladi. Navoiy tafakkurida ilm — epistemologik asos, ma’rifat esa, uning aksiologik va ontologik yuksalish shaklidir. Ilm ahliga hurmat jamiyatning intellektual ustuvorligini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida adolat, tartib va ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlaydi. Demak, Navoiy talqinida ma’rifatli jamiyatning markazida ilmga tayangan ongli va axloqiy yetuk shaxs turadi.

Jaholatni tanazzul omili sifatida baholash esa, Navoiy qarashlarining ijtimoiy-falsafiy chuqurligini ko‘rsatadi. Jaholat bu yerda faqat savodsizlik emas, balki tafakkur sustligi, adolatsizlik va ma’naviy beparvolikni anglatadi. Jaholat hukmron bo‘lgan muhitda ilmiy tafakkur susayadi, qadriyatlar yemiriladi va ijtimoiy nizolar kuchayadi. Shu ma’noda ilmni ulug‘lash — bu jamiyatning ichki muvozanatini saqlash, ma’naviy mustahkamlikni ta’minlash va taraqqiyot yo‘lini belgilash demakdir.

Jadid mutafakkirlari ham mazkur g‘oyani yangi tarixiy sharoitda davom ettirdilar. Ular ilmni milliy uyg‘onishning bosh omili deb bilib, jamiyatni qoloqlik va mustamlakachilikdan olib chiqishning yagona yo‘li sifatida ma’rifatni ko‘rsatdilar. Behbudiy, Avloniy va Fitrat qarashlarida ilm ahliga hurmat, zamonaviy ta’limni rivojlantirish va tafakkur mustaqilligini shakllantirish milliy tiklanish dasturining asosiy yo‘nalishlariga aylandi. Shu tariqa, Navoiy asos solgan ilmni ulug‘lash tamoyili jadidlar tomonidan ijtimoiy modernizatsiya konsepsiyasiga

aylantirildi. Natijada ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi ilm, axloq va tafakkur uyg‘unligiga asoslangan yaxlit model sifatida shakllanadi. Bu modelda ilm ahlining hurmat qilinishi — ijtimoiy barqarorlikning zarur sharti, jaholatga qarshi kurash esa taraqqiyotning strategik vazifasi sifatida namoyon bo‘ladi. Globallashuv va mafkuraviy raqobat kuchaygan zamonaviy sharoitda ham mazkur g‘oya dolzarbligini saqlab qolmoqda, chunki jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyati uning barqaror rivojlanishining asosiy omilidir [6-8].

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy tomonidan yangi usul maktablari orqali dunyoviy fanlarni joriy etish tashabbusi [3] jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini yaqqol ifodalaydi. Ular ta’limni oddiy savodxonlik vositasi sifatida emas, balki millatning tarixiy istiqbolini belgilovchi strategik omil sifatida talqin qilganlar. Yangi usul maktablari orqali matematika, geografiya, tabiiy fanlar va dunyoviy bilimlarni o‘qitish taklifi aslida milliy tafakkurni yangilash va uni zamonaviy sivilizatsion jarayonlarga integratsiya qilishga qaratilgan edi.

Navoiy ilmni komil insonni shakllantirish vositasi sifatida ulug‘lagan bo‘lsa, jadidlar ayni ilmni milliy taraqqiyotning amaliy mexanizmiga aylantirdilar. Agar Navoiy ma’rifatni shaxsiy-ruhiy kamolot bosqichi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, jadidlar uni ijtimoiy modernizatsiya va milliy tiklanishning konseptual asosiga ko‘tardilar. Shu jihatdan yangi usul maktablari Navoiy merosidagi ma’rifiy idealning zamonaviy tarixiy sharoitdagi amaliy ifodasi sifatida qaraladi [9].

Avloniy tomonidan tarbiyaning “millat hayoti va mamoti masalasi” sifatida baholanishi esa, ma’rifatni milliy mavjudlik bilan bevosita bog‘laydi [2]. Bu ibora falsafiy jihatdan millatning ontologik davomiyligi ta’lim va tarbiya orqali ta’minlanishini anglatadi. Ya’ni ma’rifat — bu shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki milliy o‘zlikni saqlash, axloqiy qadriyatlarni uzatish va tarixiy xotirani mustahkamlash mexanizmidir. Agar ta’lim zaiflashsa, milliy ong susayadi; agar tarbiya izdan chiqsa, qadriyatlar tizimi yemiriladi. Shu bois Avloniy tarbiyani millatning mavjudligi bilan tenglashtiradi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu yondashuv ma’rifatli jamiyat modelining aksiologik poydevorini tashkil etadi. Ilm va axloq uyg‘unlashgandagina jamiyat barqaror rivojlanadi. Navoiy va jadidlar qarashlaridagi umumiylik ham aynan shunda: ilm insonni yuksaltiradi, tarbiya esa, uni mas’uliyatli subyektga aylantiradi.

Demak, Behbudiy va Avloniy tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti g‘oyalari Navoiy asos solgan ma’rifiy paradigma bilan uzviy bog‘liqdir. Ular ma’rifatni millatning ontologik asosiga aylantirgan holda, ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini shaxsiy komillikdan ijtimoiy taraqqiyot darajasiga ko‘tardilar. Bu esa bugungi kunda ham milliy barqarorlik va ma’naviy mustahkamlikni ta’minlashning chuqur falsafiy asosini tashkil etadi. Navoiy konsepsiyasi ko‘proq axloqiy-ideal model bo‘lsa, jadidlar uni ijtimoiy-amaliy dasturga aylantirdilar.

Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi Sharq tafakkurining fundamental g‘oyalaridan biridir. Alisher Navoiy ushbu konsepsiyani axloqiy-falsafiy model sifatida shakllantirgan bo‘lsa, jadidlar uni milliy uyg‘onish va modernizatsiya dasturiga aylantirdilar. Mazkur g‘oya bugungi kunda ham ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotning nazariy asoslaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
4. Erkinov A. Abdurauf Fitratning siyosiy-falsafiy qarashlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Erkinov A. Jadid matbuoti va ijtimoiy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
7. Hakimov M. Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlik falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2010.
8. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2004.
9. Навоий, Алишер. МАТ. Т. 13. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997.
10. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011.
11. Навоий, Алишер. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т. 8. – Тошкент: Фан, 1991.
12. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Тошкент: Фан, 1994.

ZAMONAVIY OILA KONSEPSIYASINI BELGILOVCHI TARIXIY JARAYONLAR JADID TARAQQIYPARVARLAR NAZDIDA

Qilichev Rajab Ergashevich

BuxDPI dotsenti

Ashirova Hilola Zaripovna

BuxDPI, 2-kurs magistri

Oila jamiyatning eng asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, inson hayoti, tarbiyasi va madaniy qadriyatlarining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Tarix davomida oilaning tuzilishi va funksiyalari ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, xususan, madaniy yangilanish va modernizatsiya jarayonlari oilaning jamiyatdagi o‘rniga yangi yondashuvlarni shakllantirdi. Shu davrning eng muhim intellektual harakatlaridan biri bo‘lgan Jadidchilik o‘zining ma’rifiy va taraqqiyparvar g‘oyalari bilan oilani nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim elementi sifatida ko‘rishga undadi.

Jadid taraqqiyparvarlar fikricha, oilaning asosiy vazifasi biologik avlodni davom ettirish bilan cheklanmasligi, balki farzandlarni ilm-fan, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashdir. Shu jihatdan, zamonaviy oila konsepsiyasi an’anaviy patriarchal oiladan farqli ravishda, har bir a’zoning shaxsiy huquqlari, bilim olish imkoniyatlari va jamiyatga foydali bo‘lish qobiliyatini ta’minlovchi institut sifatida shakllanishi kerak edi. Ona va otaning tarbiyaviy roli, farzandlarni ma’rifatli va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalash, oilada hamjihatlik va hamkorlik qadriyatlari Jadidlarning qarashlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bugungi kunda mavzu dolzarbligi yanada oshgan. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy transformatsiyalar oilaviy munosabatlarni yangi shakllarga o‘tkazmoqda. Modern jamiyatda oila instituti shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyot, farzand tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar shakllanishi uchun markaziy muhit sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, oilaning modern konsepsiyasi va uning jamiyatdagi roli haqidagi tarixiy tajribani o‘rganish, bugungi oilaviy siyosat, ta’lim va ijtimoiy rejalashtirishda muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuni o‘rganishdan maqsad – Jadidchilik davrida shakllangan zamonaviy oila konsepsiyasini tushunish, uning ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish, shuningdek, o‘sha tarixiy qarashlarning bugungi kundagi oilaviy institut va jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini aniqlashdir. Shu orqali nafaqat oilaning funksiyalarini chuqurroq anglash, balki uni samarali rivojlantirish, farzand tarbiyasi va oilaviy siyosat sohasida ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, maqola davomida Jadidlar nigohida oilaning zamonaviy konsepsiyasi, tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar va bu qarashlarning bugungi zamonaviy oila shakllanishiga ta’siri keng tahlil qilinadi. Natijada oila va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi, oilaviy institutni yanada samarali rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

Jadid taraqqiyparvarlar oilani jamiyatni rivojlantirishdagi eng muhim vosita deb hisoblagan. Ularning fikricha, ota-onaning asosiy vazifasi farzandlarni ma’rifatli, ilm-fan va axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalashdir.[1] Ona va ota oiladagi tarbiyaviy jarayonda teng mas’uliyatga ega bo‘lishi lozim, deb qarash bildirganlar. Bu qarashlar patriarchal tizimning an’anaviy chegaralarini yorib chiqishga xizmat qilgan.

Jadidlar maqsadi shunchaki farzandlarni tarbiyalash emas, balki ularni jamiyatga foydali shaxslar sifatida yetishtirish edi. Shu sababli ular oilada bilim olish, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, hamjihatlik va hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Ularning fikricha, oilaning ichki strukturasida har bir a’zo – ota, ona va farzand – o‘z vazifasini bilishi va o‘zaro hamkorlikda yashashi muhimdir.[2]

Jadid maktablarida o‘qitilgan va ma’rifat olgan farzandlar oilaga qaytgach, nafaqat bilimli, balki madaniyatli va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirgan shaxslar bo‘lishi kerak edi. Bu qarashlar oilaning zamonaviy konsepsiyasini shakllantirishda asos bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, Jadidlarning oilaga yondashuvi ikki asosiy

tamoyilga tayangan: birinchisi – ta’lim va ma’rifat orqali shaxsiy rivojlanish, ikkinchisi – oilaning jamiyat taraqqiyotidagi roli.

Jadidlar nigohida zamonaviy oila konsepsiyasi bir nechta funksiyalar bilan ifodalanadi. Birinchidan, tarbiyaviy funksiya: oilaning asosiy vazifasi farzandlarni ma’rifatli, bilimli va axloqiy qadriyatlarni hurmat qiladigan shaxslar sifatida tarbiyalashdan iborat. Ikkinchidan, ma’naviy funksiya: oilada axloqiy, madaniy va dini qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash. Uchinchidan, ijtimoiy funksiya: oilaning jamiyatdagi o‘rni, a’zolarining o‘zaro munosabatlari, jamiyatga foydali shaxslar yetishtirish bilan bog‘liq.

Shuningdek, Jadidlar oilaning iqtisodiy va mehnat funksiyasini ham e’tiborga olgan. Oilaning iqtisodiy barqarorligi, a’zolarining mehnat faoliyati va jamiyatga qo‘shgan hissasi oilaviy institutning kuchli va samarali ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, oilaning psixologik va ruhiy barqarorligi, hamjihatlik va mehr-muhabbat, a’zolar orasidagi hurmat va qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globalizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida oilaviy munosabatlar yangi shakllarga o‘tmoqda. Oila instituti shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyot, farzand tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar shakllanishi uchun markaziy muhit sifatida muhim bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan, Jadidlar nigohidagi zamonaviy oila konsepsiyasi bugungi kunda ham dolzarbdir. Ota-onaning tarbiyaviy roli, farzandlarni ilm-fan va madaniyat asosida tarbiyalash, oilada hamjihatlik va hurmatga asoslangan munosabatlar bugungi oilalarda samarali shakllanishi kerak.

Shuningdek, oilaning jamiyatdagi roli ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda shaxslarning ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy salohiyatini oshirish, oilaviy siyosat va ijtimoiy rejalashtirishda tarixiy tajribadan foydalangan holda samarali yechimlar ishlab chiqish mumkin. Shu sababli, oila institutini rivojlantirish, tarbiya va ta’lim jarayonlarida Jadidlarning prinsiplariga tayangan holda ishlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Jadidlarning oilaga yondashuvi bugungi kundagi oilaviy institutning rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy tajribani o‘rganish orqali oilaning ichki tuzilmasi, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari, a’zolar o‘rtasidagi hamkorlik va hurmat tamoyillari yaxshiroq tushuniladi. Shu orqali oilaning zamonaviy konsepsiyasi quyidagi jihatlarda rivojlantiriladi:

Ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirish: Farzandlarni bilim, axloq va ma’naviyat asosida tarbiyalash.

Ota-onaning teng huquqliligi: Oilada qarorlar qabul qilish va tarbiyaviy jarayonlarda teng mas’uliyat.

Ijtimoiy barqarorlik: Oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, a’zolarni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash.

Madaniy qadriyatlar: Oilada axloqiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash.[4]

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oila konsepsiyasi – bu nafaqat biologik avlodni davom ettirish, balki shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishning muhim instituti sifatida shakllangan tushuncha. Tarixiy jarayonlar, xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshidagi Jadid taraqqiyparvarlarning qarashlari oilaning zamonaviy

funksiyalari va uning jamiyatdagi o‘rnini qayta belgilashga xizmat qilgan. Jadidlar fikricha, oilaning asosiy vazifasi farzandlarni ilm-fan va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ota-onaning teng mas’uliyatini ta’minlash, hamjihatlik va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda globalizatsiya va texnologik rivojlanish oilaviy munosabatlarni yangi shakllarga o‘tkazmoqda. Shu sababli, Jadidlar nigohidagi zamonaviy oila konsepsiyasini o‘rganish va amaliy hayotga tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Tarixiy tajriba asosida oila institutini rivojlantirish, tarbiya va ta’lim jarayonlarini takomillashtirish, a’zolar o‘rtasidagi hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash bugungi jamiyat uchun muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Natijada, zamonaviy oila konsepsiyasini o‘rganish nafaqat tarixiy tafakkur, balki bugungi kundagi ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan oilaning ichki strukturasini samarali shakllantirish, farzandlar tarbiyasini yaxshilash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. - T., 2007-y.
2. G'ulomova D. "Oila va maktab hamkorligining pedagogik asoslari". – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
3. Musurmonova O. Oila ma’naviyati - milliy gurur (oquv qo`llanma).- T., 1999-y.
4. Qodirova M. "Ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishning zamonaviy yo'nalishlari". – Toshkent: TDPU ilmiy to'plami, 2020

ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA IJTIMOIY ADOLAT MASALALARI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich

BuxDPI dotsenti

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlarda bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan fundamental kompetensiyalar va fazilatlarni shakllantirishni taqozo etadi. O‘z navbatida, tarbiya jarayoni bolada tayanch axloqiy asoslarning kafolatlangan rivojlanishini ta’minlash bilan birga, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, mahalliy hamjamiyatlarning ijtimoiy-pedagogik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishni, ularning ilmiy-metodik uzviyligini yangi bosqichga ko‘tarishni talab qiladi.

“Jadidlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsad — xalqni ma’rifatli qilish, jamiyatda adolatni qaror toptirish va milliy o‘zlikni anglatish bugungi islohotlarimizning mazmun-mohiyatiga to‘la mos keladi.”[1] – deb ta’kidlaydi. Prezident Sh.Mirziyoyev.

Jadidlarning ilg‘or g‘oyalari va ularning amalga oshirgan sa’y-harakatlari bizning zamonamizda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ular ta’lim-tarbiya, madaniyat va ijtimoiy ong sohasida olib borgan kurash an’analari bugungi kunda chuqur islohotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Milliy tafakkur, dunyoqarash va qadriyatlarimizni yangi davr talablariga mos ravishda rivojlantirish, shu bilan birga o‘ziga xosligimizni saqlab qolish – mana bu zamonaviy rivojlanish yo‘limizning asosiy tamoyillaridan biridir. Bu yo‘lda jadidlar merosi bizga nafaqat g‘oyalar, balki buyuk mas’uliyat hissini ham uyg‘otadi.

Milliy o‘zlikni anglatish – bu nafaqat o‘tmishga hurmat, balki kelajakni bunyod etish uchun uni to‘g‘ri tushunish va davom ettirishni anglatadi. O‘zbekiston mustaqilligi davrida milliy madaniy merosimizni qayta tiklash va o‘rganish, oilaviy qadriyatlar, till va an’analarni asrab-avaylash, tarixiy adolatlilik tamoyilini amalga oshirish katta yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, o‘zligimizni anglash global dunyoda o‘z o‘rnimizni aniqlash, boshqa xalqlar bilan muvozanatli va o‘zaro boyituvchi muloqotni yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Bu yo‘l jadidlar ochib bergan ma’rifatparvar va taraqqiyparvar an’analarning to‘g‘ri davomi hisoblanadi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari va milliy o‘zlikni anglash haqidagi g‘oyalari insonni keng dunyoqarashga chorlaydi. Mutafakkirning ushbu qarashlari, asosan, uning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida bayon etilgan. Mazkur asar 1914-yilda yaratilgan bo‘lib, “Oila” kitobi o‘sha davr haqiqatlarini o‘zida aks ettiradi.

Asarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy adolat bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Fitrat uchun sog‘lom oila – faqat xususiy maydon emas, balki jamiyatning eng muhim hujayrasi sifatida umumiy adolatning mezoniga aylanadi. O‘z davri uchun inqilobiy deb sanaydigan qarashlardan biri – oila ichidagi tengsizlik ham keng ijtimoiy adolatsizlikning asosi ekanligi haqidagi fikrdir.

Muallifning diqqat markazida ayolning oila va jamiyatdagi holati turadi. U “Oila” asarida ayollarning iqtisodiy hisobga olinmagan mehnati, ta’lim imkoniyatlaridan mahrumligi va qaror qabul qilish jarayonidagi chetlashtirilishi natijada ularning ijtimoiy va ma’naviy holati buzilishini ko‘rsatadi. Fitrat bu holatni faqat shaxsiy tanazzul sifatida emas, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun salbiy oqibatlar keltiradigan ijtimoiy nuqson deb baholaydi.

Fitrat ona Turkistonni ozod ko‘rishni orzu qiladi va buning uchun har bir turkistonlik oilaning axloq, tarbiya va erk o‘chog‘i bo‘lishi lozimligini chuqur anglaydi. Mutafakkir yangi oilani aynan shu asosda qurishga chaqiradi. Uning fikricha, har jihatdan sog‘lom va barkamol oiladan yetishgan farzandgina millatni yuksak darajaga ko‘tarishi, uni istibdod zulmatidan qutqarishi mumkin. “Bu dunyo – kurash maydonidir. Bu maydonning quroli esa sog‘lom jism, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahalarimiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday asboblar bilan bu dunyoda bizga na baxt, na orom bor…”[2], – deb ta'kidlaydi.

Fitratning tahlilida ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabat ham ijtimoiy adolat prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. U, avlodlar o‘rtasida hurmat va mehr-muhabbatning saqlanishi jamiyatdagi solih va insoniy qadriyatlarning saqlanishi uchun shart ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Asarda bola tarbiyasining ma’naviy jihatiga alohida e’tibor qaratiladi. Bolalarga faqat rasmiy ta’lim emas,

balki mehr, insof va mas’uliyat hissini shakllantirish orqaligina jamiyatda haqiqiy adolatning o‘rnatilishi mumkin. Shu bilan birga, Fitrat ota-onaning bola ustidagi nozik huquqini ham tanqid qiladi, bu esa umumjamiyatdagi avtoritarlik va tengsizlik modellari ko‘chishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

“Oila” asarida ijtimoiy adolat masalasi faqat oila doirasidagi nozikliklar bilan cheklanmaydi. Fitrat oilaning iqtisodiy va ijtimoiy xotirasini – uning mansabi, ma’naviy me’yorlari va jamiyatdagi maqomini tahlil qilish orqali kengroq xulosalarga keladi. U oilaning ijtimoiy tabaqalashishdagi roliga e’tibor qaratadi. Boy va kambag‘al oilalar o‘rtasidagi tafovut nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham o‘z ifodasini topadi, bu esa avlodlar uzra munosib munosabatlarni shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Muallif uchun adolatli oila – bu faqat ichki munosabatlar emas, balki jamiyatning barcha a’zolari uchun teng imkoniyatlar va huquqlarni ta’minlovchi hisoblanadi.

Fitratning asarida uyg‘un oilaviy munosabatlarning shakllanishi jamiyatning isloh etilishi uchun asosiy shart sifatida ko‘rinib, bu jarayonning ma’naviy va ma’rifiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi. U oila a’zolarining o‘zaro hurmati, axloqiy me’yorlarga rioya qilishi va o‘zaro yordamchiligini nafaqat shaxsiy baxt, balki umumjamiyat tinchligi va taraqqiyotining kafolati deb biladi. Shuningdek, ayolning o‘rni va rolini ko‘tarish, uning intellektual va ma’naviy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish oila va jamiyatning sog‘lom rivojlanishi uchun hal qiluvchi omil sifatida ta’kidlanadi.

Asarining “Qizlar ham ilm olishlari kerakmi” bobida qizlarning ilm olishlari nimaga kerak deydi va bunga javoban o‘zining aniq dalilari bilan masalaga oydinlik kiritadi. Bu bobda, avvalo, qizlarning ilm olishi ularning shaxsiy kamoloti va ruhiy ozodligi uchun zarur deydi. U ta’kidlaydiki, ilm – bu nafaqat amaliy bilim, balki inson aqlini ochadigan, uni xurofot va johillik zulmatidan qutqaradigan yagona quroldir. Qizlar ilm egallab, dunyoqarashlarini kengaytirganda, ular nafaqat o‘z hayotlari, balki butun oila va jamiyat uchun foydali aql va idrok egasiga aylanadilar. Buni inson tafakkurining tabiati va rivojlanish qonuniyatlari asosida dalillaydi.

Ikkinchidan, Fitrat qizlarning ta’lim olishi oilaviy baxt va tinchlikning asosi ekanligini isbotlaydi. U ilmli ona – ilmli avlod degan oddiy, ammo chuqur haqiqatni keltiradi. Ona bolaning birinchi o‘qituvchisi bo‘lgani uchun, agar u savodsiz va johil bo‘lsa, bolaga nafaqat foydali bilim, balki to‘g‘ri tarbiya ham bera olmaydi. Ilmli ona bolani dunyoning murakkabligiga tayyorlaydi, uning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va axloqiy me’yorlarni singdiradi. Shunday qilib, qizlarning ilm olishi kelajak avlodni tarbiyalash, demak, butun millatning kelajagini yuksaltirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Uchinchi dalil sifatida, Fitrat jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti masalasini ko‘taradi. Uning fikricha, har qanday mamlakatning rivojlanishi uning barcha aholisining, shu jumladan ayollarning bilim darajasiga bog‘liq. Agar yarim jamiyat – ayollar – johillikda qolsa, bu butun millatning orqada qolishiga olib keladi. Qizlar ilm o‘rganib, turli kasb va hunarlarga ega bo‘lishi, ularning oila daromadiga hissa qo‘shishi, shu orqali umumiy iqtisodiy ahvolni yaxshilashi mumkin. Bu esa nafaqat oila, balki mamlakat manfaatlariga xizmat qiladi.

Bu orqali u o‘z davrining cheklangan qarashlariga qarshi chiqib, ta’limning har kim uchun, jinsidan qat’i nazar, ochiq bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Zero, Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Agar bitta o‘g‘il bolani o‘qitsangiz, bitta shaxsni o‘qitgan bo‘lasiz. Agar bitta qiz bolani o‘qitsangiz, butun oilani, butun jamiyatni o‘qitgan bo‘lasiz."[153] [1]

Bu fikrning tagida qizlarning ta’limi orqali butun avlodning sifati oshadi, degan chuqur ma’no yotadi. Qiz bola – kelajakda onadir, u o‘z qo‘lida bolaning tarbiyasi, oiladagi ma’naviy-axloqiy muhitning shakllanishi kabi vazifalarni ko‘taradi. Uning bilimi nafaqat shaxsiy martabasini, balki u tarbiyalaydigan farzandlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati va jamiyatga bo‘lgan munosabatini bevosita belgilaydi. Shuning uchun qiz bolaning har bir bilim darajasi, o‘z navbatida, uning oilasi va undan keyingi avlodlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Qizlarning har tomonlama ta’lim olishi ularga nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy faollik ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Bilimli ayollar o‘z fikrini mustaqil ravishda bildira oladigan, oilaviy va jamoaviy masalalarda ongli qaror qabul qila oladigan faol fuqarolarga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat hayotida izchil ijtimoiy o‘zgarishlarning, yangi, sog‘lom an’analarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ta’lim olgan ona bolasiga nafaqat maktab darslarini o‘rgatadi, balki unga hayotni idrok etish, muammolarni hal qilish va o‘z huquqlarini himoya qilish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Hozirgi zamon global raqobat asrida har qanday davlatning asosiy boyligi inson kapitalidir. Bu kapitalni shakllantirishda ayollarning, ya’ni kelajakdagi onalarning roli beqiyosdir. Qiz bolalarning ilg‘or bilimlar, zamonaviy kasblar va raqobatbardosh ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi butun millatning intellektual salohiyatini keskin oshiradi. Bugun maktab bankasida o‘tirgan qizcha, ertaga olima, muhandis, doktor yoki iqtisodchi bo‘lib, mamlakatimiz rivojiga bevosita hissa qo‘shadi.

Shu bilan birga, qizlarning ta’limi oilaviy va ijtimoiy barqarorlikning kalitidir. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan ayollar kechroq turmush qurish, farzandli bo‘lish haqida ongli ravishda qaror qabul qilish, bolalar soni va ularga sarflaydigan resurslarni optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu oilalarning moddiy ahvoli, farzandlarning sog‘lig‘i va ta’lim sifati yaxshilanishiga olib keladi. Natijada, kam ta’minlanganlik, kasalliklar va bilimsizlik aylanmasi uziladi, jamiyat boylikdan emas, balki sog‘lom, bilimli va ongli fuqarolardan iborat bo‘lgan holda barqaror rivojlanadi.

Demak, har bir qiz bolani ta’lim bilan ta’minlash – bu kelajakni u quruvchi avlodlar qo‘liga topshirishdir. Bu – uzoq muddatli, ammo eng ishonchli investitsiya bo‘lib, uning samarasi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarda, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy salohiyatida, oilalarning baxtida va mamlakatimizning umumiqiyofasida namoyon bo‘ladi. Har bir bilimli qiz – bu yorqin nurli chiroq bo‘lib, u nafaqat o‘z yo‘lini, balki atrofidagilarning, xususan kelajak avlodlarning yo‘lini ham yoritadi.

[153] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 234.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Oila” asarida Fitrat oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilib, ularning bir-birini shakllantirishi va ta’sir etishi haqidagi murakkab nazariyani ishlab chiqadi. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi haqiqiy adolat faqat qonunlar yordamigagina emas, balki har bir oilaning chuqurlik va fahm bilan qurilgan ichki dunyosi orqali amalga oshirilishi mumkin. Fitrat uchun oila – nafaqat shaxsiy baxtning makoni, balki yangi, adolatli va insonparvar jamiyatning o‘sish nuqtasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, kelajagi yorug‘ bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 320.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y “Axloq-odobga oid hadis namunalari”. T., “Fan”, 1999 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 216.
4. Asqar Munavvarov. “Oila pedagogikasi”, Toshkent, “O’zbekiston”, 1994 y, 112 bet.
5. Inomova M. “Farzand – nihol, ota-ona - bog’bon”. Toshkent, “O’qituvchi”, 1983 y, 56-b.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING IJTIMOIY TENGLIK VA HAMKORLIK TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna

IIV Akademiyasi xizmat psixologiyasi

va kasbiy madaniyati kafedrasi dotsenti v.b.,

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

XIX asr oxirlariga kelib adolatli jamiyat, inson erkinligi va huquqini ta’minlash, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy hamkorlik masalalari jadidchilik harakati vakillari tomonidan rivojlantirildi. Jadidlar inson ma’naviy kamoloti, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni egallash, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etishni targ‘ib qilganlar. Ular tinchlik yo‘li bilan, jamoatchilikning murojaatlari va boshqa qonuniy vositalar bilan podsho hokimiyatining o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida yon berishga erishishga intilganlar.

Jadid ma’rifatparvarlari Turkiston hududida ijtimoiy va ma’naviy hayotni tubdan isloh qilish maqsadida faoliyat yuritgan ziyolilar qatlamidir. Ular zamonaviy bilimlarni yoyish, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatni yangilash orqali mustamlakachilikning oqibatlarini yengib o‘tishni maqsad qilib qo‘yganlar. Jadidlarning maqsad va g‘oyalari Jadidlar Turkiston xalqining ma’naviy-axloqiy

holatini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni va tenglikni tiklash va ilm-ma’rifat yordamida taraqqiyotga erishishni asosiy maqsad sifatida ko‘rganlar. Ularning g‘oyalari quyidagilar atrofida shakllangan:

1. Zamonaviy ta’lim tizimini joriy qilish: Jadidlar eski maktab va madrasalarning samarasizligiga qarshi chiqqan va yangi usuldagi maktablarni tashkil qilganlar. Bu maktablarda dunyoviy fanlar va milliy qadriyatlar uyg‘unlashgan holda o‘qitilgan.

2. Millatning ma’naviy uyg‘onishi: Jadidlar Turkiston xalqlarining o‘z milliy o‘zligini anglashini, o‘z tillari va madaniyatini rivojlantirishini ta’minlashga intildilar.

3. Ayollar ta’limini targ‘ib qilish: Ular jamiyatda ayollarning o‘rnini mustahkamlash, ularni savodxon qilish va ular uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilganlar.

4. Jamiyatni yangilash: Jadidlar eskicha urf-odat va qarashlardan voz kechish, zamonaviy hayot talablariga moslashish uchun islohotlarni ilgari surganlar.

Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919 yy.) edi. Jadidshunos Begali Qosimovning ta’kidlashicha: “Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan yirik namoyondasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nashriyotchisi va amalyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.” Jadidlarning ijtimoiy qarashlari milliy mahdudlikni rad etar, ular Turkistondagi barcha millat va elatlarni birlashtirishga, jamiyatni har qanday kelishmovchilik va ziddiyatlardan xoli qilishga intilardilar. Behbudiy bu xususda quyidagilarni yozgan edi: “Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo, qadim va jadid nizo lafzini qo‘yib, ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar bilan qo‘shilgan holda, o‘z boshlariga Rusiyaning bir parchasi hisoblana turgan Turkiston hukmini (hukumatini) ta’sis etsak, o‘zimizning majlis-mashvaratimiz (parlament) bo‘lsin desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z zakun (qonun) va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiylari, nasroniylari va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e’tiborga olaturg‘on qonunlar tuzilsin. Agarda biz–Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni itgifoq etib, bugundan islohotga qadam qo‘ysalar...”[1]

Natijada, Behbudiy qarashlarida milliy qadriyatlarga bo‘lgan ixlos, aholi va fuqarolar o‘rtasida hamjihatlik hamda hamkorlik, tenglik ruhining qaror topishi va ayni paytda Yevropa dunyosining tarixi, madaniyati, ta’lim tizimi, davlat qurilishi sohasidagi tajribalarini o‘rganishga e’tibor katta o‘rin tutgan.

XIX asr oxirlarida Turkistondagi uyg‘onish davrini boshlab bergan jadidlardan yana biri Munavvarqori Abdurashidxonovdir (1878-1931 yy.) U o‘zining bolsheviklar qamoqxonasida yozgan “Xotiralarimdan” asarida shunday deydi: “Bizlarning sinfiy dunyoqarashimiz negizida sinflarni inkor etish yotadi. Bizlar sinflarni bilmas edik, agar yirik burjuaziya deb hisoblanayotgan katta yer

egalari va savdogarlarning juda ozgina guruhi hisobga olinmasa, bizlarning ko‘z o‘ngimizda hamma teng edi”.[2]

Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy-huquqiy qarashlari va hayot yo‘li tub jihatdan turli ijtimoiy stratalarning hamkorligiga asoslangan va hamjihatlik ruhida sug‘orilgan edi. Jadidlar va boshqa taraqqiyparvar kuchlar xalqparvarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish, insonlarning teng huquqligi, erkinligi, jamoalarga uyushib, ijtimoiy hamkorlik asosida o‘z manfaatini himoya qilish, demokratiya g‘oyalarini ilgari surib, ularni hayotga tatbiq etish yo‘lida harakat qilganlar.

Ijtimoiy tenglik masalalarini bugungi kunda stratifikatsiya tushunchasi yoritib beradi, ijtimoiy falsafaning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu tushuncha yordamida jamiyatning turi, rivojlanishi, barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, sinflar va sotsial qatlamlarning rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi, olingan natijalar jamiyatni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning asosi va eng muhim omili sifatida turli millat vakillari va turli toifadagi insonlar o‘rtasidagi birlikni, ijtimoiy hamjihatlikni vujudga keltirish hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishi uchun sotsial stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik g‘oyalarini o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy hamkorlik masalasini nazariy o‘rganishni chuqurlashtirish va bu borada erishilayotgan ilmiy natijalarni amaliyotga tadbiq etish jamiyatda tinch va osuda hayotni mustahkamlashning hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Insoniyat tarixida jamiyat hayotida turli nizolar, kelishmovchiliklar yuz bergan. Ularni bartaraf etish yo‘lidagi sa’y- harakatlar va izlanishlar o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy hamkorlik masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ijtimoiy nizolar, ularning insonlararo munosabatlarda kelib chiqishi, sabab oqibatlari to‘g‘risidagi qarashlar qadimdan bugungi kunga qadar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Ijtimoiy stratifikatsiya hamda ijtimoiy hamkorlik muammolarini o‘rganish ijtimoiy fikr shakllanishi tarixi davomida insoniyatni doimiy ravishda qiziqtirgan masala bo‘lib, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Insoniyat hayotidagi jamiyat strukturasini tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, uning asosida diniy, etnik, milliy, sinfiy, demografik, hududiy birliklarning borligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur ijtimoiy birliklarga mansub shaxslar esa ijtimoiy mavqe, kasbiy daraja, demografik xususiyat va turli xil sotsial guruhlarga kirib, sotsial tengsizlikni vujudga keltiradi.

Insoniyat hayotidagi asosiy ko‘rsatkichlardan biri shundan iboratki, unda taraqqiyot va raqobat tufayli ham sotsial tengsizlik kelib chiqadi. Sotsial stratifikatsiya har qanday jamiyatning o‘ziga xos funktsional omili hisoblanadi. Bu haqida nemis faylasufi R.Darendorf shunday yozadi: “Hattoki eng gullab yashnayotgan jamiyatda ham eng muhim jihatlar ba’zida turg‘un holat sanaladi. Albatta, zamonaviy jamiyatda ushbu farqlar kasta yoki tabaqaviy jamiyat tayangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlik va qonunchilik normalariga tayanmay qo‘ydi. Shu bilan birga, mulk va daromad hajmi, obro’ va mansabga qarab tabaqalanishdan tashqari jamiyatda mansab pillapoyalari bilan bog‘liq farqlar ham mavjud. Ular

shunchalik chigal va jamiyat hayotiga mustahkam o‘rnashib olganki, tengsizlik yo‘qotilib, barcha barobar bo‘ldi deb e’lon qilinsa ham, ko‘pchilik bu xabarga shubha bilan qaraydi”.[3]

Bu fikrlardan shuni bilishimiz mumkinki, jamiyat tarkibiy tuzilishining asosiy belgilaridan biri–bu sotsial farqlardir. Sotsial stratifikatsiya- bu odamlarning qandaydir yig‘indisini sotsial sinfga, ierarxik martaba qatlamiga tabaqalanishidir. Strata (lot.stratum-qatlam, qavat, fesere-bo‘lmoq) – o‘xshash sotsial ko‘rsatkichlar kasb etgan odamlarning sotsial qatlamidir. Sotsial stratifikatsiya–bu odamlar (aholi) muayyan jamoasining ierarxik rang (pillapoya)ga mos ravishda turli sinflarga differensiatsiyalashuvi (tabaqalanishi) bo‘lib, u yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Uning asosi va mohiyati–u yoki bu ijtimoiy birlik a’zolari orasida huquq va imtiyozlarning, mas’uliyat va majburiyatlarning notekis taqsimlangani, sotsial qadriyatlarning, hokimiyat va ta’sir kuchining mavjudligi yoki mavjud emasligidir. Sotsial stratifikatsiyaning konkret shakllari juda ko‘p sonli va turli-tuman. Biroq ular turli-tuman bo‘lishiga qaramay, asosiy uchta shaklga: iqtisodiy, siyosiy hamda kasbiy (professional) stratifikatsiyaga keltirilishi mumkin. Odatda bular hammasi o‘zaro chambarchas qorishib ketadi. Sotsial stratifikatsiya–bu har qanday tashkillashtirilgan jamiyatning doimiy tavsifi (xarakteristikasi) bo‘lib hisoblanadi”.

Vatanimizda yashagan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va amaliy faoliyatlari nafaqat milliy qarashlarimizning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki ular hozirgi davrda demokratik davlat va odil fuqarolik jamiyati qurish sohasidagi, turli manfaat egalari o’rtasidagi ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash va jamiyatdagi turli qatlamlar orasida sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarda ham vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

XX asr boshlarida ma’rifatparvarlik faoliyati bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratishga hamda yurtimiz istiqloli, xalqimiz ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga beqiyos hissa qo‘shgan ajdodlarimiz Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Ularga hukumat tomonidan ko‘rsatilgan bunday yuksak e’tiborni kelgusida jadidlarning millat kelajagi va mamlakat taraqqiyoti, uning mustaqilligi va erki yo‘lida qilgan xizmatlarini keng jamoatchilikka, xususan, navqiron yosh avlodga asl holicha yetkazish borasida amalga oshirilajak ishlarning dengizdan tomchi deyish mumkin. Zero, jadidchilik harakati va jadidlar faoliyatini bugungi kunda o‘rganish va targ‘ib qilish hozirgi va kelajak avlodga zarur hisoblanadi. Biz Uchinchi Renessansni strategik vazifa hisoblab, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘lsak, jadidlarimiz ta’kidlashganidek, har kim o‘zgarishi va o‘zgarishni o‘zidan boshlashi yani menidan boshlshi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik harakati O‘rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan, milliy ong va ijtimoiy tafakkurning uyg‘onishida muhim rol o‘ynagan madaniy-ma’rifiy harakatdir. Ular mustamlakachilik siyosati natijasida yo‘qolib borayotgan milliy qadriyatlar, til, madaniyat va tarixiy xotirani tiklash, milliy o‘zlikni anglash, xalqni jaholatdan ma’rifat sari yetaklash g‘oyalari bilan chiqqanlar. Jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati orqali shakllangan milliy

uyg‘onish g‘oyalari bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa jadid ziyolilarining fikrlarida jamiyatni o‘zgartirish, ta’lim-tarbiyani isloh qilish, milliy birlik, siyosiy faollik va ijtimoiy adolat, tenglik g‘oyalari muhim o‘rin egallagan. Ularning asarlarida ilgari surilgan milliy o‘zlik, erkinlik, taraqqiyot va yuksalish konsepsiyasi bugungi global integratsiyalashuv jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жумабоев Й. Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. Т.: Ўқитувчи, 1997. Б – 170.
2. Жумабоев Й. Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. Т.: Ўқитувчи, 1997. Б–172.
3. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт. Очерк политики свободы. – М., РОССПЭН, 2002. – С. 19.

JAMIYAT MA’NAVIY SALOHIYATINING YUKSALISHIDA MADANIY MA’RIFIY TIZIM TAKOMILLASHGANLIGINING AHAMIYATI

Jabborova Saodat Sattorovna

BDPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Jamiyatning ma’naviy salohiyatini, uni yuksaltirish yo‘llarini o‘rganar ekanmiz, bu omillarni aniqlamog‘imiz, tahlil etmog‘imiz, ularning ma’naviy salohiyat mezonlariga ta’siri ko‘lami va xarakterini konstatatsiya qilmog‘imiz darkor.

Masalan, shaxs xulq-atvori ijtimoiy manfaatlarga qat’iy bo‘ysundirilgan mamlakatlardan biri Birlashgan Arab Amirligi hisoblanadi. Mamlakatda jamoat joylarida o‘zini tutish, o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish, turli ijtimoiy xizmatlardan foydalanishning o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, bu qoidalarga amal qilinishi davlat organlari va jamoatchilik tomonidan qat’iy nazorat etiladi. Yurtga tashrif buyurgan turistlar va mehmonlardan ham ushbu normalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi.[1] Aynan ana shu sabab – jamiyat a’zolari xulq-atvorining ijtimoiy manfaatlarga moslashtirilganligi tufayli mamlakatda mustahkam va sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit hukm surmoqda. Buni turli xalqaro tashkilotlar tuzgan reytinglar ham ko‘rsatib turibdi. Jumladan, Soul Sanctuaries kompaniyasi bir necha yillardan buyon Mental Wellbeing Index reytingini jamoatchilikka taqdim etib boradi. Bu reytingda fuqarolarning ruhiy holati, baxtiyorligi, o‘zaro mehr-oqibatlilik darajasi, shaxslararo munosabatlar xarakteriga qarab mamlakatning ma’naviy-ruhiy sog‘lomligi indeksi aniqlanadi. Ushbu reytingda bir necha yillardan buyon aynan Birlashgan Arab Amirliklari 30 imkoniyatdan 28 ball to‘plagan holda etakchilik qilmoqda.[2]

Reytingning oxirgi pog‘onalarini Marokash va Tunis egallagan. Buing sababi shundaki, mazkur mamlakatlarda jamiyat a’zolari xulq-atvorini ijtimoiy

manfaatlarga moslashtirish masalalariga urg‘u berilmaydi. Oqibatda jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan, unga jiddiy ziyon etkazadigan sa’y-harakatlar bisyor uchrab turadi.

Jamiyat ma’naviy salohiyati – ijodiy tafakkurga ega kishilar soni *madaniy-ma’rifiy tizimning takomillashganiga* ham bog‘liq. Ma’lumki, madaniy-ma’rifiy muassasalar tarkibiga madaniyat uylari, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar va shu kabilar kiradi. Ular faoliyatining mazmuni “keng ommani madaniy va ma’rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazish” bilan bog‘liq.

Zamonaviy jamiyatning barcha shakllarida u yoki bu tuzilishga ega bo‘lgan madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyat olib bormoqda. Jahon tajribasi ko‘rsatib turibdiki, ushbu tizim tarkiban boy bo‘lsa va samarali faoliyat olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lsa:

a) jamiyat a’zolarining ijod qilishga intilishlari qondiriladi; aslida jamiyatda ijodiy fikr yuritishga moyil kishilar soni talaygina bo‘ladi. Lekin zamona taqozosi, shaxsiy hayot bilan bog‘liq muammolar, ayniqsa qobiliyat va iqtidorning jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasligi ulardagi bu intilishlarni so‘ndiradi. Samarali faoliyat olib borishga qodir madaniy-ma’rifiy muassasalar nafaqat ana shu intilishlarni saqlab qoladi, balki ularni ijtimoiy manfaatlar sari yo‘naltirishga ham muvaffaq bo‘ladi;

b) ijodkorni e’zozlash kayfiyati paydo bo‘ladi; ijodkorga bo‘lgan munosabat – jamiyatning ma’naviy yuksalganligi darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezondir. U qadr topishi uchun jamiyatda shunday muhit, kayfiyat, kishilarning ijod ahliga pozitiv munosabati qaror topmog‘i kerak. Ishida unumi bor ma’rifat maskanlari aynan ana shunday kayfiyat va muhitni shakllantiradi;

v) ijodkorlarni birlashtirish imkoni paydo bo‘ladi; jamiyatning ma’naviy boyligi nafaqat ijodkorlarning ko‘pligi, balki ularning yakdilligi, birlashganligi bilan ham bog‘liq. Madaniy-ma’rifiy maskanlar ijod ahlini qiziqishlariga ko‘ra turli klublarda jamlar ekan, ana shunday ijtimoiy ahamiyatli vazifani ham uddalay oladi.

Ushbu uch holat qonuniy ravishda jamiyatda ijodkorlar sonining oshishi, ijod imkoniyatlarining kengayishi bilan yakun topadi. Buni AQSH misolida ko‘rish mumkin. Mamlakatda nihoyatda boy tarkibiy tuzilishga ega bo‘lgan madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda u 100 mingdan ortiq notijorat tashkilotlarini, shu jumladan 1500 dan ortiq teatrlarni, 1200 dan ortiq simfonik orkestrlarni, 120 dan ortiq opera faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarni, ko‘pdan-ko‘p klublar va uyushmalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur muassasalar faoliyati uchun har yili 63 milliard dollardan ko‘proq mablag‘ sarflanadi.[3] Bunday mustahkam moliyaviy ta’minot o‘ta samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda. Jumladan, har yili mamlakat yozuvchilari uchun 5000 dan ortiq simpozium tashkil etiladi. Qudratli madaniy-ma’rifiy tizim, uning samarali faoliyati mamlakatdagi ijod ahol sonini 2 million kishiga etkazdi. Ularning 39 foizini dizaynerlar, 17 foizini raqqoslar va akterlar, 7 foizini fotograflar, 7 foizini rejisserlar, 9 foizini yozuvchilar, 10 foizini me’morlar, 11 foizini rassom va artistlar tashkil etmoqda.

Yuqoridagi mulohazalar “samarali madaniy-ma’rifiy tizim – ijodkorlar soni - jamiyat ma’naviy salohiyati” zanjiridagi aloqadorlikni yaqqol ko‘rsatib turibdi. Jamiyatdagi madaniy-ma’rifiy tizim tarkiban boy, faoliyati mazmunan komil bo‘lsa, ijodkor kishilar soni ko‘payadi, ijod ahlini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari kengayadi, bu holat esa ma’naviy salohiyatning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Ma’rifat maskanlari faoliyatining mazmunsizligi va unumsizligi ijodkorlar salmog‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ma’naviy salohiyatning yuksalishiga imkon qoldirmaydi. Binobarin, ma’naviy salohiyatni yuksaltirishning manbaini madaniy-ma’rifiy tizimni takomillashtirishdan izlamoq darkor.

Jamiyat ma’naviy salohiyatining yana bir mezoni – ma’naviy merosga munosabat *milliy g‘ururning qaror topganligiga* bog‘liq. “Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma’naviy merosidan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushunchadir”.[4] Ma’naviy merosga munosabat milliy g‘ururning shakllanganligi darajasini ko‘rsatuvchi mezondir. Jamiyat a’zolarining o‘z millati yutuqlaridan faxrlanishi tuyg‘usi rivoj topgani sari ularning millat ma’naviy merosiga munosabati ham ijobiy tomonga o‘zgara boradi. Milliy g‘urur kishilarni o‘tmish avlodlar yaratgan ma’naviy boyliklarni asrashga undaydi, asrlar davomida amal qilib kelgan xulq-atvor normalari va an’analarni e’zozlashga odatlantiradi. Shu tariqa milliy g‘ururi baland kishilar yashaydigan mamlakatda ma’naviy merosni asrash, unga tayangan holda ma’naviy salohiyatni yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi.

Milliy g‘ururning emirilishi jamiyatning barcha sohalariga ayanchli ta’sir ko‘rsatgani kabi ma’naviy merosni asrash va avlodlarga etkazish jarayonini ham zaiflashtiradi. Odamlar o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklardan g‘ururlanmasalar, ulardan ma’naviy qoniqish hosil qilmasalar, iftixor tuymasalar, bu boyliklarni ko‘z qorachig‘idek asrashda, kelgusi avlodlarga etkazishda jonbozlik ko‘rsatmaydilar. Bunday jamiyatda millatning ma’naviy merosi o‘zining ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, avlodlararo vorisiylikni saqlash, kishilarni yagona maqsadlar sari yo‘naltirish borasidagi qudratini yo‘qotadi. Boshqacha aytganda, milliy g‘ururi bo‘lmagan kishilardan tarkib topgan jamiyatda ma’naviy meros ma’naviy salohiyatni ifodalovchi, uni yuksaltiruvchi manba vazifasini o‘tamay qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, milliy g‘ururning emirilishi – ma’naviy meros sovurilishi hamda ma’naviy salohiyat degradatsiyasining dastlabki nuqtasidir.

Masalaning yana bir nozik jihati bor. Ma’lumki, ma’naviy meros ajdodlar yaratgan xulq-atvor normalari, asarlar, urf-odat va marosimlar, ideallarning progressiv, pozitiv jihatlaridan tarkib topadi. O‘tmishdan meros bo‘lib qolgan har qanday normani, har qanday yozma manbani, har qanday urf-odat yoxud marosimni ma’naviy meros sifatida e’tirof etish to‘g‘ri emas. Masalan, ajdodlardan meros bo‘lib qolgan barcha urf-odatlar ham millat ma’naviy mulki bo‘lavermaydi. Ular orasida ratsional va pragmatik xarakterga ega bo‘lmaganlari, odamlar turmushini maqbullashtirishga xizmat qilmaydiganlari ham ko‘plab topiladi.[5] Xulq-atvor normalari haqida ham shunday deyish mumkin: ularning ayrimlari oqilonalikdan yiroq bo‘lgani bois bugungi davr kishisi faoliyati uchun namuna vazifasini o‘tay ol-

maydi. Shu boisdan milliy g‘urur - ajdodlar yaratgan har qanday asar, xulq-atvor normasi yoki urf-odatdan emas, ularning progressiv xarakterga ega bo‘lganlaridan faxrlanish tuyg‘usidir. Faqat shunday to‘g‘ri metodologik bazaga ega milliy g‘ururgina ma’naviy merosning to‘g‘ri talqin qilinishi va asrab-avaylanishiga, jamiyat ma’naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi mulohazalar “milliy g‘urur – ma’naviy merosga munosabat - jamiyat ma’naviy salohiyati” zanjiridagi aloqadorlikni yaqqol ko‘rsatib turibdi. Jamiyat a’zolarining to‘g‘ri metodologik asosda shakllangan milliy g‘ururi oshgani sayin ularning millat ma’naviy merosiga munosabati ijobiy xarakter kasb qilib boradi, bu holat ma’naviy salohiyatning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Millat vakillari ajdodlar ma’naviy merosidan faxrlanmasa, uni asrab, pirovardida esa jamiyat ma’naviy salohiyatini takomillashtirib bo‘lmaydi. Binobarin, ma’naviy salohiyatni yuksaltirishning ettinchi manbaini milliy g‘ururni kuchaytirishdan izlamoq darkor.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyatning ma’naviy salohiyati turli omillar ta’sirida o‘zgarib va to‘lishib boradi. Uning turli mezonlari rivoji jamiyatdagi xulq-atvor normalarining ijtimoiy manfaatlarga mosligi, ta’lim mazmuni va sifatining optimalligi, madaniy-ma’rifiy tizimning takomillashganligi, ilm-fan rivojining ijtimoiy ehtiyojlarga mutanosibligi, milliy g‘ururning qaror topganligi masalalariga borib taqaladi. Mazkur omillardagi ijobiy tendensiyalar ma’naviy salohiyatning yuksalishiga, salbiy tendensiyalar esa uning zaiflashuviga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Что нужно знать в ОАЭ: правила поведения.// www.nur.kz, 2022, 17 ноября.
2. В Индонезии и ОАЭ живут самые психологически здоровые люди.// ummamag.kg, 2019, 28 февраля.
3. Лето Я.В.Существующая система поддержки культуры в США.//Молодой ученый,2017,№6.-263-с.
4. S.S.Jabborova. Jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish- yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. Tafakkur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal. 3/2023.B 186
5. Jabborova S.S. O’zbekistonda jamiyatning ma’naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli. FarDU ilmiy xabarlar. 4-2023. B. 67
6. Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda milliy g’oya va mafkuraning roli. Sciecse and Innovation in the Education System. International scientific-online conference. 2023 P. 38
7. Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyatni yuksaltirish va boshqarishda davlatning roli. Current Approaches and new Research in Modern Sciences. 2023 P. 34 *https://doi.org/10.5281/zenodo.8385791*
8. Jabborova S.S. Specific Characteristics of the Spiritual Potential of Uzbekistan. // «Инновационные подходы в современной науке». Международная научно-практическая конференция. 14.11.2023. – Россия, 2023. – PP. 1-3.

10. Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. // Falsafa va hayot. -Toshkent, 2023, - №SI-2. – B.105-112. (09.00.00; №25)

11. Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyat - ijtimoiy taraqqiyot manbayi. // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. -№8. – B.148-150. (09.00.00; №17)

12. Jabborova S.S. Jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2023. -№2. – B.186-190. (09.00.00; №22)

13. Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyatning ijtimoiy taraqqiyot manbai sifatida xususiyatlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari № 3 (4) – 2024. B. -240-246.

14. Jabbborova S.S. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari. https://journal.fdu.uz. 2024 yil 2-son. B. -213-218

15. Jabborova S.S. Sharq allomalari ma’naviy merosi va ularning jamiyat ma’naviy salohiyatini shakllantirishdagi ahamiyati. “Ilm sarchashmalari” 4-son, (aprel 2024) Urganch -2024 B. -165-168

ТУРКИСТОНДА МУСТАМЛАКАЧИЛИККА АСОСЛАНГАН ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Амонова Феруза Саъдуллаевна

Ўзбекистон ФА Тарих институти

катта илмий ходими, PhD

Россия империяси босиб олган ҳудудларни хом ашё манбасига ва унинг саноат маҳсулотлари сотиладиган бозорга айлантиришни кўзда тутарди. Империя ҳукумати томонидан амалга оширилган хўжалик юритиш тадбирларнинг барчаси ўлканинг ҳукмрон марказига иқтисодий жиҳатдан қарамлигини кучайтириш, мустамлакачилик тартибини мустаҳкамлаш мақсадларига йўналтирилди. Қонунчилик минтақанинг сиёсий бошқарувида, мулкий муносабатларда, молиявий масалаларда ўз аксини топди ва шу асосда Туркистон минтақасидаги “эгалик ҳуқуқи”ни қонунийлаштирди. Туркистон генерал-губернатори томонидан ишлаб чиқилган фармон, низом, қоидалар мақсад ва манфаатдан келиб чиқиб амалда жорий қилинди.

Мустамлакачилик сиёсати акс этган расмий ҳужжатларда жумладан, Сирдарё вилояти 1867 йилги “Вақтинчалик Низом” асосида, Зарафшон округи 1868 йилги “Вақтинчалик Низом” орқали, Амударё бўлими 1874 йилги “Муваққат Низом” ва Фарғона вилоятини 1873 йилги бошқарув Низоми тўғрисида, 1886 йил 12 июнда “Туркистон вилоятини бошқариш тўғрисидаги Низом”[1] да барча соҳаларни бошқариш ва тартибга солиш бандма-банд белгилаб берилди. Хусусан, ер муносабатларига оид моддаларида шаҳар ва

қишлоқ ҳудудларида ердан фойдаланиш ҳамда унга эгалик қилиш тартиблари кўрсатилди. Самарқанд, Фарғона ва Сирдарё вилоятларида аҳоли суғориладиган ерлар билан бир қаторда лалмикор ҳамда фойдаланилмайдиган ерларга ҳам эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш кўчириб келтирилган ва насронийлик динига эътиқод қиладиган барча фуқароларга ҳам тегишли бўлиб, ерларни давлат мулкига айлантиришга қаратилган ҳаракатлардан бири эди.

Мулк эгалигига оид навбатдаги шартнома 1900 йил 27 январда Россия империя ва Бухоро амири билан имзоланган бўлиб, унда амирликнинг **Амударё қирғоғидаги 10514 десятина (11460 гектар) ер ҳарбий истеҳкомлар ва чегара тўсиқлари қурилиши учун ажратилган[2].** Термизнинг шимолидан то Каттақумгача бўлган масофадаги ерларни қайтариб олмаслик шарти билан империя ҳукуматига чегара назорати, божхона ва ҳарбий маъмурият, рус манзилгоҳини барпо этиш учун берилган[3]. Шартнома асосида бу ҳудуднинг назароти рус маъмурияти ихтиёрига ўтган ва рус ўлчови бирликлари жорий этилган[4].

Туркистонда сув таъминоти ва сувдан фойдаланишга оид қатъий ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинмаган. Вақтинчалик қоидалар орқали сув таъминоти назорат қилинган. Ҳудудлар кесимида муҳокама қилганда жуда катта тафовут борлигини кўриш мумкин. Жумладан, 1877 йил 19 июнда фон Кауфман томонидан қабул қилинган “Суғориш тўғрисидаги муваққат қоидалар” фақат Тошкент уезди ва Тошкент шаҳридаги барча ариқ, канал, дарёлар давлат мулки деб эълон қилинган[5]. Қоидага кўра, суғориш ишларини бошқариш учун мироб ва мироб ёрдамчиси лавозимлари жорий қилинган[6]. 1882 йил 20 декабрда сув ресурсларини бошқариш ва назорат қилиш қайта қўриб чиқилган. Унда сув хўжалиги бошқармаси ўрнига анъанавий бошқарув, яъни ариқ оқсоқоллари бошқарувига ўтилган[7]. 1909 йил 9 июнда тасдиқланган “Ер фондини белгилаш тартиби тўғрисида”ги Низом асосида Сирдарё, Самарқанд, Фарғона вилоятлари ер ишларига дахлдор тизимларда сувдан фойдаланиш билан боғлиқ масалаларни ҳал қилиш белгиланган[8]. Сувдан фойдаланиш тартиб қоидаларини бузганлик учун 1 рубл 50 копейкдан 150 рублгача жарима ёки 6 ойлик қамоқ жазоси қўлланилган[9].

1868 йилда Россия-Бухоро ўртасида тузилган келишув шартномаси моддаларида Самарқанд ва Бухоро воҳалари ўртасидаги сув тақсимоти қайд этилмаган бўлсада империя ҳукумати Зарафшон сувини тўхтатиш орқали амирни тобеъликда сақлаб туришга ҳаракат қилган. Зарафшон сувининг тақсимоти тўғрисида Бухоро амирлиги билан Туркистон генерал-губернаторлиги ўртасида олиб борилган махсус ёзишмалар орқали бу масала қайта-қайта муҳокама этилган. Дастлаб Зарафшон водийси сув тақсимотини ерли аҳоли орасида қабул қилинган тартиб бўйича назорат қилиниб мироблар орқали бошқарилган[10]. Кейинги йилларда Бухорога сув чиқариш масаласи бўйича ўтказилган музокаралар ва текширишлар ҳам ўз натижасини бермади.

Завод корхоналар қуриш, пахта тозалаш ва тойлашни кўпайтириш, ишчиларни ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид тартиб қоидалар ҳам ишлаб

чиқилган. Завод ва корхоналар дастлаб сувга яқин ҳудудда ёки аҳоли яшаш манзилларида қурилган. 1877 йил 19 июнда генерал-губернатор фон Кауфман томонидан тасдиқланган “Туркистон вилоятини суғориш бўйича вақтинчалик қоидалар”ига кўра завод ва фабрикалар губернаторнинг рухсати билан фақат аҳоли пунктларининг қуйи оқимида дарё ёки суғориш каналлари бўйида, сувга зарар етказмаган ҳолда қуришига рухсат берилган. Вақт ўтиб заводлардан чиқадиган чиқинди ва ифлос сувлар ичимлик сувини ичишга яроқсиз ҳолга келтирган. Аҳоли томонидан билдирилган норозилик мурожаатлари натижасида 1888 йилдан заводлар шаҳар чеккасига қурилиши белгиланган[11].

Россия империяси Туркистон хонликларини босиб олгач, табиий ресурсларга ниҳоятда бой ҳудудга эга бўлди. Ўлка иқтисодиёти империянинг марказий губерниялари манфаатларига бўйсундирилди. Туркистон минтақаси беш вилоятга бўлиниб бошқарилди. Генерал-губернатор Бухоро амири фаолиятини Россия империясининг Бухородаги сиёсий агентлиги (1885-1920), Хива хонини эса Амударё бўлими бошлиғи (1873-1920) орқали назорат қилиб турди. Россия ҳукмдор доиралари ер-сув ва мулкчилик масалаларини “тартибга солиш”га киришди. Қўқон хонлигидаги хон ва унинг авлодлари, беклар ва ҳарбийлар қўлидаги ерлар давлат ихтиёрига олинди. Суғориш иншоотлари ва сув миқдори назоратга олиниб, пахта майдонлари кенгайтирилди. Бошқаришга оид ҳужжатларда мустамлакачи ҳукумат ўзининг бу соҳадаги сиёсатини кўрсатиб берди. Қўрилган чора-тадбирлар Туркистонни империянинг таркибий қисмига айлантириш ва аҳолини руслаштиришга қаратган эди. Россиядан кўплаб ерсиз рус деҳқонлари кўчирилиб, уларга камида 4,2 десятинадан ортиқ серҳосил ва унумдор ерлар ажратилди. Хусусан, минтақа ҳудудида маҳаллий аҳоли қўлидан тортиб олинган ерларда рус қишлоқлари (Русское село), хуторлари ва посёлкалари барпо этишга алоҳида аҳамият берилди.

Хулоса қилиб айтганда, Россия империясининг мустамлакачилик сиёсатининг сиёсий-ғоявий негизида ишлаб чиқилган тартиб-қоида ва низомлар асосида миллий иқтисодиётни йўқ қилиш ётарди. Бунинг учун ташқи савдо алоқалари чекланди, бошқарув тизими янгиланди, янги низом асосида ҳуқуқий чекловлар ўрнатилди, иқтисодга оид чоралар билан назорат кучайтирилди, халқ маънавиятига таъсир ўтказиш учун шариат қоидаларига зид одатларларни жорий қилди. Ижтимоий ҳаётда аҳолининг ерсизлар тоифаси вужудга келди. Даромад олиш мумкин бўлган барча соҳалар солиққа тортилди ва хазинага йўналтирилди. Мулкчилик сиёсатида катта ер мулклар давлат ҳисобига ўтди, халқ эгалик қилган ер-мулклари банк ва солиқ мажбуриятлари ортидан тортиб олинди. Кўчар ва кўчмас мулклар эвазига халқни молиялаштириш бошланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Положение об управлении Туркестанскаго края. Том II, Част 2. – С.Петербург. 1886.

2. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016. – 130-бет.

3. Ўзбекистон миллий архиви. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 1-йиғмажилд, 31-варақ.
4. Ўзбекистон миллий архиви. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 296-йиғмажилд, 274-варақ.
5. Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. - Ташкент, 1912. – С. 152.
6. Дингельштедт Н. Опыт изучения ирригации Туркестанского края. Сыр-Дарьинская область. Часть I-II. - С.-Петербург. 1893. – С. 70.
7. Ўзбекистон миллий архиви. И-36-жамғарма, 1-рўйхат, 2237-йиғмажилд, 11-13-варақлар.
8. Ўзбекистон миллий архиви. И-16-жамғарма, 1-рўйхат, 296-йиғмажилд, 74-варақ.
9. Ўзбекистон миллий архиви. И-19-жамғарма, 1-рўйхат, 119-йиғмажилд, 87-варақ.
10. Ўзбекистон миллий архиви. И-1-жамғарма, 14-рўйхат, 41-йиғмажилд, 2-3-варақлар.
11. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – С. 153, 184.

TARAQQIYPARVARLARNING TARIXIY QARASHLARI

Xaydarov Yuldash Xazratovich,

Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi

“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatlardan biri taraqqiyparvarlik harakati bo‘ldi. Bu harakat vakillari xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatni yoyish, milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ular tarixga ham o‘ziga xos qarash bilan yondashdilar.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Hozirgi zamon va Yangi O`zbekiston “ kitobida takidlaganidek, “ Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart . Yangi davr uchun yangi g`oya va tashabuslar, puxta o`ylangan istiqbolli rejalar,yangi marra va g`alabalar kerak bo`ladi[154].“

Taraqqiyparvarlar uchun tarix - bu faqat o‘tgan voqealar yig‘indisi emas, balki millatni uyg‘otuvchi, kelajakka yo‘l ko‘rsatuvchi kuch edi. Taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari ularning asarlari, maqolalari, darsliklari va sahna asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular tarixni milliy uyg‘onish vositasi sifatida ko‘rdilar va o‘z qarashlari orqali jamiyatni isloh qilishga intildilar. Taraqqiyparvarlik harakati

[154] Shavkat Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O`zbekiston. T., “O‘zbekiston”, 2024, 7 bet

Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi kuchaygan bir davrda shakllandi. Mustamlaka siyosati natijasida mahalliy aholi siyosiy huquqlardan mahrum bo‘ldi, iqtisodiy jihatdan qaramlik kuchaydi, ta’lim tizimi esa zamon talablariga javob bermay qoldi. Shu sharoitda ma’rifatli ziyolilar xalqni ilm-ma’rifat orqali qutqarish mumkin degan xulosaga keldilar. Bu harakat vakillari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi mashhur ziyolilar bor edi. Ular yangi usul maktablarini ochdilar, darsliklar yozdilar, gazeta-jurnallar nashr etdilar va sahna asarlari orqali xalqni uyg‘otishga harakat qildilar.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yirik namoyandasi bo‘lib, tarixni millatni uyg‘otuvchi va tarbiyalovchi kuch deb bilgan.

Milliy uyg‘onish – tarixni bilish millatning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi.

Tarbiya va ma’rifat – u tarixni yosh avlodni vatanparvarlik va axloq ruhida tarbiyalash vositasi deb ko‘rgan.

Ilm va taraqqiyot – jamiyatning orqada qolish sababi jaholat va ilmsizlikda, deb hisoblagan. Islohot zarurati – eski tuzumni tanqid qilib, zamonaviy ta’limni yoqlagan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarixiy misollar orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasi ilgari suriladi. Avloniy uchun tarix – bu saboq va kelajakni qurish vositasi. Uning fikricha, tarixiy bilim axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

Fitrat tarixni milliy mustaqillik va davlatchilik bilan bog‘lab talqin qilgan jadid mutafakkiridir. Milliy davlatchilik g‘oyasi – Turkiston o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lishi kerak. O‘tmishni tanqidiy tahlil qilish – tarixni faqat ulug‘lash emas, balki xatolarni anglash vositasi sifatida ko‘rgan. Sharq va G‘arb uyg‘unligi – taraqqiyot uchun ilg‘or g‘arb tajribasini o‘zlashtirish zarur deb bilgan.

Madaniy islohot – milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviylashish tarafdori bo‘lgan. Fitratning “Hind sayyohi bayonoti” asarida jamiyatning siyosiy va madaniy tanqidi orqali tarixiy orqada qolish sabablari ochib beriladi. Fitrat tarixni milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyasi bilan bog‘lagan. U o‘z asarlarida o‘zbek va turkiy xalqlarning boy tarixiy merosini yoritib, mustamlakachilik sharoitida milliy ongni saqlab qolish zarurligini ta’kidlagan.

Cho‘lpon tarixni millat fojiasi va ozodlik kurashi bilan bog‘liq holda talqin qilgan. Milliy ozodlik – tarixiy jarayonni mustamlakachilik va erkinlik kurashi nuqtai nazaridan baholagan. O‘tmishdagi zulm va tanazzul millat ruhiyatiga ta’sir qilganini ko‘rsatgan. Shaxs va tarix – inson taqdiri tarixiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq. “Kecha va kunduz” romanida tarixiy davrning ijtimoiy muammolari va milliy ong uyg‘onishi tasvirlanadi. Cho‘lpon tarixni xalqning dardi va orzusi bilan uyg‘un holda ifoda etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi, ma’rifatparvar, publitsist va dramaturg. Uning tarixiy qarashlari milliy uyg‘onish, davlatchilik va ma’rifat g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Behbudiy tarixni millatning o‘zligini anglash vositasi deb bilgan. Uning fikricha: O‘z tarixini bilmagan millat taraqqiy eta olmaydi. O‘tmishdagi buyuk davlatchilik tajribasi (Temuriylar davri va boshqalar) yoshlar uchun ibrat bo‘lishi kerak. Tarix milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantiradi. Behbudiy jamiyatning orqada qolish

sababini jaholat va eski usul ta’limida ko‘rgan. U yangi usul maktablarini (usuli jadid) ochib, tarix fanini zamonaviy tarzda o‘qitishni targ‘ib qilgan.

Uning qarashicha:

Ilm-fan va dunyoviy bilimlar tarixiy taraqqiyotning asosiy omili. Sharq xalqlari G‘arb yutuqlarini o‘rganib, o‘z taraqqiyot yo‘lini topishi kerak.

Behbudiy Turkistonning siyosiy kelajagi haqida ham o‘ylagan: Milliy birlik va siyosiy ongni kuchaytirish zarur deb hisoblagan. Mustamlakachilik sharoitida xalqning huquqiy savodxonligini oshirishga chaqirgan. Parlament va konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan. Uning “Padarkush” dramasida jamiyatdagi jaholat va ma’naviy tanazzul tarixiy jarayon bilan bog‘lab ko‘rsatiladi. Behbudiy tarixni faqat o‘tmish emas, balki kelajakni belgilovchi omil sifatida talqin qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy tarixni “ibrat maktabi” deb atagan. U tarix orqali millat o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab yetadi, xatolaridan saboq oladi va kelajakni ongli ravishda quradi, deb hisoblagan. Behbudiy o‘z maqolalarida Turkistonning o‘tmishdagi buyuk ilmiy va madaniy markaz bo‘lganini eslatib, xalqni faxr va mas’uliyat tuyg‘usiga chorlagan.

Taraqqiyparvarlar tarixni ma’rifat bilan bog‘lab ko‘rdilar. Ularning fikricha, xalqni taraqqiyotga olib chiqish uchun avvalo uni savodli qilish kerak. Savodsiz jamiyat o‘z tarixini anglay olmaydi, o‘z manfaatini himoya qila olmaydi. Shu sababli ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Bu maktablarda nafaqat diniy bilimlar, balki tarix, geografiya, tabiiy fanlar ham o‘qitildi. Tarix fani orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, voqealarga ongli baho berish ko‘nikmasi shakllantirildi. Munavvar qori Abdurashidxonov ta’lim tizimini isloh qilish orqali millatni uyg‘otish mumkin, deb hisoblagan. U tarix darsliklarini zamonaviy ruhda yozish va bolalarga tushunarli tilda yetkazish tarafdori bo‘lgan.

Bugungi kunda taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari katta ahamiyatga ega. Ular milliy uyg‘onishning poydevorini qo‘ygan, tarixni milliy taraqqiyot omiliga aylantirgan shaxslardir. Ularning asarlari hozir ham yoshlarni vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalaydi. Taraqqiyparvarlar tarixni o‘tmishga qaytish emas, balki kelajakni qurish vositasi sifatida ko‘rdilar. Ularning fikricha, tarixni chuqur bilgan xalqgina o‘z kelajagini mustaqil ravishda belgilay oladi.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari milliy ongni uyg‘otish, ma’rifatni yoyish va jamiyatni isloh qilish g‘oyalariga asoslangan edi. Ular tarixni ibrat manbai, milliy g‘urur asosi va kelajak taraqqiyotining yo‘l ko‘rsatuvchisi sifatida talqin qildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Fitrat va Cho‘lpon kabi ziyolilar tarixiy xotirani tiklash orqali millatni uyg‘otishga harakat qildilar. Ularning tarixiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Taraqqiyparvarlarning asosiy xulosasi shundan iborat ediki: millat o‘z tarixini bilsa, o‘zligini anglaydi; o‘zligini anglagan millat esa albatta taraqqiy etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.

2.Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston.T. “O‘zbekiston”-2024, 7-bet.

3. Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. - O‘zMU nashri, 2007.

4. Sodiqov Q. O‘zbekiston jadidlari: taqdir va meros. — Yangi asr avlodi, 2020. (jadidlar tarixi va merosi haqida monografiya)

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Ma’naviyat, Toshkent, 1992. – Jadid tafakkurining nazariy va ma’rifiy asoslari haqida.

JADID MA’RIFATPARVARLARI PEDAGOGIK MEROSINI O‘RGANISH - DOLZARB IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Shodiyeva G.X.

BuxDPI o‘qituvchisi

Ravshanova M.R.

BuxDPI talabasi

O’zbekiston Respublikasining mustaqilligi, uning ravnaqi ko’p jihatdan yoshlarni qanday o’qitish va tarbiyalashga bog’liq. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo’lgani kabi xalq ta’limi tizimida ham tub o’zgarishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017 yil “Zamon bilan hamnafas” ma’ruzasida “...yana bir buyuk yurtdoshimiz Abdulhamid Cho‘lponni olaylik. XX asr boshlaridagi millatimiz tadqirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas.”-deb ta’kidlagan edi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Go‘zal va betakror o‘lka” ma’ruzasida “...milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, Vatan va xalq istiqloli uchun jonini fido qilgan ulug‘ bobomiz Ibrat domla haqida to‘xtalishni o‘rinli”- deb topganlar.Shuningdek, “Ilmu ma’rifat-diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan xalq” nomli ma’ruzasida: ”Bu ko‘hna yurtda tug‘ulib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy, singari ko‘plab ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag‘ishlab kelmoqda” –deb ta’kidlab o'tganlar.

Turkistonda jadid ma’rifatparvarlari harakatining vujudga kelishi, rivojlanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat,Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniylarning asarlari, shuningdek, o‘sha davrdagi gazeta va jurnallardan “Sadoyi Turkiston”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Oyna”, “Turon”, “Sho‘ro”, “Samarqand” kabilar muhim manba hisoblanadi. Jadidchilik harakatining yuzaga kelish va rivojlanish tarixini, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va boy adabiy merosini tarixchi va

adabiyotshunos olimlardan M.Vahobov, X.Vohidov I.Mo‘minov, A.Qayumov, Qori Niyoziy, B.Qosimov, N.Karimov, U.Dolimov va boshqalar ma’lum darajada o‘rganganlar. Jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini E.A.Ablayev, A.Boboxonov, M.Maxsumov, Z.Mirtursunov, A.Muhammadjonov, S.Rajabov kabi pedagog-olimlar o‘rganganlar. Bu ilmiy-tadqiqot ishlari asosida doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan,risola va ilmiy maqolalar chop etilgan.

Jadid ma’rifatparvarlari faqat yangi usuldagi maktablar ochganlar deyish noo’rin bo’lur edi. Ze’ro, ular o’lka ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok qilib, ma’rifatparvarlik sohasida asosan quyidagi ishlarni amalga

oshirganlar: - Turkistonda yangi usul maktablarini ochilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog’liq;

- yangi usul maktabi tarafdorlari o’sha davr talabiga javob bera oladigan darslik kitoblarini yozganlar, nashr qildirganlar;

- bir qator ma’rifatparvarlar o’z hisoblaridan bosmaxonalar tashkil qildilar;

- Turkiston xalqlarining siyosiy ongini oshirishga, o’lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga undash uchun bir qator gazeta va jurnallar tashkil qilganlar;

- yangi usul maktabi tarafdorlari Turkistondagi maktab-maorif ishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun ko’plab “xayriya jamiyat”larini tashkil qilganlar. Bu jamiyatlar orqali beva-bechoralarga, kambag’al oilalarga va ularning bolalariga moddiy hamda ma’naviy yordam berib turganlar;

- Turkistondagi bir qator shaharlardan o’quvchilarni tanlab olib o’sha davrda dunyoning rivojlangan Germaniya va Turkiya davlatlariga ta’lim olishga yuborganlar. Bu davlatlarga o’qishga borgan toliblarni moddiy ta’minlash uchun jamg’armalar tashkil qilinib bir qator qulayliklar yaratib berganlar;

- jadidlar o’lkada keng ko’lamda madaniy ishlarini olib borganlar;

- kutubxonalar, kitob do’konlarini ochganlar;

- Markaziy Osiyo davlatlari tarixida teatr truppalarni tashkil qilish,bu

truppalar uchun sahna asarlarini yozish va aktyorlar, rejessyorlarni tayyorlashbevosita yangi usul maktabi tarafdorlarining nomi bilan bog’liq.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ham jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari va g'oyaviy fikrlarini bevosita foydalanish mumkin bo'ladi.Ya'ni jadidlarning yangi ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari aynan pedagogik qarashlar uchun bizga ilmiy meros hisoblanadi.Shuningdek,ta'limda foydalanish uchun asos bo'la oladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Jadid pedagogikasi" O'quv-uslubiy majmua Shahrisabz -2022

2. "Pedagogika : muammolar,bahslar,yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi . T -2003

3." Pedagogika" ta'lim jurnali

4. Abdulla Avloniy " Turkiy guliston yohud axloq " - T : O'qituvchi 1992 ,160 b

5. Selevko G. Pedagogicheskie texnologii avtorskix shkol - M.: 2005.

5. Pedagogicheskie texnologii G' Pod. red. Kukushina V. S. - M.: 2006.

6. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
7. Ishmuhammedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T., 2008.
8. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: “Istiqlol”, 2003.
10.Pirmuhamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.

TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Nabiyeva Farog’at Maxmudovna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Tanqidiy fikrlash tushunchasi insonni muayyan voqea va hodisalarga nisbatan o‘z fikrini shakllantirish va bayon qilishga, kerakli xulosa va yechimlarni topishga, o‘z munosabatini bildirish va baholashga ko‘maklashadi. Yuqoridagi tafakkur jarayonlarini amalga oshirish tanqidiy fikrlashning eng keng tarqalgan ko‘rinishidir. Tanqidiy fikrlash bir so‘z bilan aytganda “munosabat bildirish qobiliyati” hisoblanadi. Shaxs muayyan jarayonga to‘g‘ri munosabat bildirishi uchun avvalo uning bilimi mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘zida mavjud bilimlar, tushunchalar asosida mavjud holatga nisbatan savol, munosabat, izohlarni shakllantira oladi. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash shaxsning bilimlari va egallagan tajribalari darajasini belgilab beradi. Tanqidiy fikrlash insonni bilimi va tajribasidan tashqari uning e’tiqodi va o‘zini anglash darajasi bilan ham tavsiflanadi. Tanqidiy fikrlash fikrlashning o‘z nuqtai nazarini bildirishga yo‘naltirilgan turi bo‘lib, ko‘rilayotgan masala yoki hodisani chuqur tahlil qilishga, ko‘proq ma’lumot to‘plashga, aniq bilimlar asosida munosabat bildirishga asoslanadi. Tanqid so‘zi biror narsaga yoki holatga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, asosan salbiy fikr bildirish, kamchiliklarini ko‘rsatishni ifodalasa, tanqidiy fikrlash chuqurroq tahlil qilish, xulosa qilish, baho berish, munosabat bildirish, yechimga kelish, ibrat yoki namuna olish kabi kengroq mazmunni qamrab oladi. Ba’zi hollarda tanqidiy fikrlash va tanqid tushunchalarini bir xil mazmunda talqin qilishadi. Aslida bu ikki tushuncha farqli mazmunni ifodalaydi. Tanqid kichik kamchiliklarni ham bo‘rttirib ko‘rsatish, mustaqil fikrlash imkoniyatidan qo‘pol foydalanish, keskinlikni yuzaga keltirishi, asosan salbiy tomondan o‘z fikrini bayon etish sifatida e’tirof etilgan. Tanqid biror shaxs, guruh, jamoaning faoliyatiga muayyan voqea va hodisaning xususiyatiga nisbatan salbiy qarashlarni namoyon etadi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi ostidagi “munosabat bildirish” esa yuqoridagi kabi biror shaxs, guruh, jamoaning faoliyatini, muayyan voqea yoki hodisaning xususiyatini tahlil qilish, chuqurroq o‘rganish, ko‘proq ma’lumot va axborot yig‘ish, o‘zidagi bilim va tajribaga tayanish, pozitiv yondashuv ya’ni to‘g‘ri izohlash va baholashga bo‘lgan intilishning mavjudligi bilan ajralib turadi. O‘quvchi-yoshlarning ma’naviy qiyofasi, dunyoqarashi, o‘z nuqtai nazari va pozitsiyani shakllantirish uchun ularda avvalo taniqidiy fikrlash

kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik zaruriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘quvchilarni ma’nan yuksaltirish jarayonida o‘zini va boshqalarning faoliyatini, hatti-harakatlarini tanqidiy fikrlash asosida tahlil qila olishlarida o‘zbek xalqi qahramonlari faoliyatini o‘rganish muhim didaktik vositalardan hisoblanadi. Chunki Vatanining ozodligi, xalqining tinchligi, kelajak avlodning istiqboli uchun qayg‘urgan, bor kuchini sarflagan, o‘z jonini ham ayamagan To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddini Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud kabi xalq qahramonlari yosh avlod uchun eng ulug‘ qadriyat va ibrat maktabi bo‘la oladi.

Raqamli texnologiyalar vositasida ta’limni amalga oshirish ta’lim sifati va tezligiga hamda ta’lim oluvchilarni taqdim etilgan ma’lumotlarni qabul qilish va o’zlashtirishining yuqori darajada chiqishini ta’minlaydi. Raqamli didaktika o’quv jarayonlarini bir qadar osonlashtiradi. Ta’limda keng qo’llanilayotgan raqamli texnologiyalarga multimediya vositalarini, noutbuk, internet tarmog’iga ulanga smart televizorlar, smart doska, proyektor, 3D-texnologiyasida ishlangan ta’limiy manbalar, bulutli texnologiyalarlarni kiritish mumkin. Ta’lim beruvchi pedagoglar va ta’lim oluvchilarga bunday raqamli didaktik vositalar orqali o’quv jarayonini tashkil etish qulay hisoblanmoqda. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi insonning kundalik hayoti va mehnat faoliyatiga raqamli texnologiyalarning keng joriy etish bilan bog‘liqdir. Innovatsiya, virtual haqiqat, sun'iy intellekt – bu hodisalar global iqtisodiyotga tobora ko‘proq ta'sir ko‘rsatmoqda va har bir shaxsning shaxsiy makoniga tobora ko‘proq kirib bormoqda.

Raqamli kompetentsiya-bu bir tomondan raqamli texnologiyalar sohasidagi insonning turli xil qobiliyatlari to‘plami va boshqa tomondan ularni shaxsiy va professional maqsadlarda ishlatishga tayyorlik darajasi:

- raqamli muhitda ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, baholash va boshqarish qobiliyati;

- raqamli texnologiyalar orqali o‘zaro ta'sir o‘tkazish qobiliyati va hamkorlik qilishga tayyorlik;

- raqamli tarkibni yaratish qobiliyati va foydalanishga tayyorligi;

-xavfsizlik qobiliyati va ma'lumotlarni himoya qilishga tayyorlik;

- raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish qobiliyati va tayyorligi.

Yuqoridagi qobiliyatlarga va ularga mos keladigan tayyorgarlikka (raqamli vakolatlarga) muvofiq, turli xil ijtimoiy va professional guruhlar uchun raqamli kompetentsiya modellari shakllantiriladi. Raqamli ta’lim-talabalar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta’limni o‘zgartirish va takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalardan pedagogik foydalanish kabi ikkita asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda raqamli-pedagogik faoliyatga alohida e’tibor qaratish lozim.

Raqamli-pedagogik faoliyatning funksiyalarini to‘rt turga bo‘lish mumkin: muloqot, kontentni yetkazib berish, baholash va hamkorlik. Ushbu masalalarga Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya kabi davlatlarda alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur davlatlarning raqamli kompetensiya milliy o‘quv dasturlarida, xususan Daniyada “IT va Media”, Finlandiyada “Ko‘p savodxonlik va raqamli

kompetensiya”, Norvegiyada “Raqamli ko‘nikmalar” kabi tushunchalar kiritilgan. Shvetsiyalik olimlarning ta’kidlashicha, talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun hayotning barcha sohalarida zarur bo‘lgan raqamli kompetensiyaga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Didaktik jarayonning markazida axborot savodxonligi va media-tanqidiy tahlil uyg‘unligi yotadi. Talaba raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumot qidirish jarayonida "feyk" (yolg‘on) xabarlarni aniqlash, manbaning nufuzini tekshirish va muallifning argumentlarini mantiqiy filtrdan o‘tkazish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu borada Blum taksonomiyasining raqamli talqini muhim ahamiyatga ega: talaba ma’lumotni shunchaki eslab qolishdan (Lower Order Thinking) uni tahlil qilish, baholash va yangi raqamli kontent yaratish (Higher Order Thinking) bosqichiga ko‘tariladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchining roli ham transformatsiyaga uchraydi — u axborot yetkazib beruvchidan fasilitator va moderatorga aylanadi. O‘qituvchi tayyor yechimlarni taklif qilmasdan, talabalarni to‘g‘ri savol berishga va algoritmlarning ishlash tamoyillarini (masalan, sun’iy intellekt yoki qidiruv tizimlarining natijalari qanday shakllanishini) tushunishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli kompetensiyalar va tanqidiy fikrlashning didaktik uyg‘unligi talabada "raqamli immunitet"ni shakllantiradi. Bu esa kelajak mutaxassisiga cheksiz axborot oqimi ichida adashmaslik, mustaqil qaror qabul qilish va intellektual salohiyatini doimiy oshirib borish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risi”da O‘RQ-367-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020- yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni.

3. Mirzahmedova N.D. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo’llanilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences . VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784.

4. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. –T.: “Sano-standart”, 2015.

5. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2017.

JADIDLAR ILMIY MEROSIDA SHAXSIY VA MULKIY ERKINLIK MASALALARI

Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Xoliqova Marjona Husniddinovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich magistranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy qaramlik, an'anaviy ijtimoiy institutlarning inqirozi va ta'lim tizimining eskirganligi milliy taraqqiyot yo'lida jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilardi. Ana shunday tarixiy sharoitda vujudga kelgan jadidchilik harakati jamiyatni isloh qilishning ma'rifiy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishga intildi.

Jadidlar faoliyati ko'pincha ma'rifatparvarlik va pedagogik islohotlar bilan bog'lab talqin qilinadi. Biroq ularning ilmiy merosi chuqurroq tahlil qilinganda, unda shaxsiy va mulkiy erkinlik masalalari markaziy o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Jadid mutafakkirlari insonning tabiiy huquqlari, xususiy mulk daxlsizligi, iqtisodiy tashabbus erkinligi va qonun ustuvorligi g'oyalarini ilgari surganlar. [1]

Jadidchilik harakati musulmon Sharqidagi islohotchilik oqimlari, xususan Usmonli davlati va Rossiya musulmonlari orasida yoyilgan yangilanish g'oyalari ta'sirida shakllandi. Turkistonda esa bu harakat milliy o'zlikni anglash va zamonaviy taraqqiyot modelini izlash ehtiyojidan kelib chiqdi.

Harakat namoyandalari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat pedagogik faoliyat bilan shug'ullandilar, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda ham ilg'or qarashlarni ilgari surdilar.

Jadidlar g'oyaviy jihatdan islom ma'rifatparvarligi, Yevropa liberal tafakkuri va konstitutsiyaviylik tamoyillaridan ilhom oldilar. Shu bois ularning qarashlarida diniy va dunyoviy qadriyatlar sintezi kuzatiladi.

Jadidlar shaxsiy erkinlikni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin etdilar. Ularning fikricha, inson erkin fikrlash, ta'lim olish, kasb tanlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega bo'lishi lozim. Bu huquqlar insonning tabiiy va ajralmas huquqlari sifatida baholandi.

Shaxsiy erkinlik masalasida jadidlar ma'rifatni hal qiluvchi omil deb bildilar. Inson bilimli va ongli bo'lsa, u o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Shu bois yangi usul maktablari tashkil etilib, dunyoviy fanlarni o'qitish, xorijiy tillarni o'rganish va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish targ'ib qilindi.

Masalan, Behbudiy asarlarida jamiyatni jaholatdan qutqarish uchun ilm-fan va erkin fikr zarurligi ta'kidlanadi. Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shaxs kamoloti va axloqiy erkinlikni millat ravnaqi bilan bog'laydi. Fitrat

esa milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida erkin tafakkur va mustaqil fikrni ko‘rsatadi.[2]

Jadidlar ilmiy merosida mulkiy erkinlik masalasi alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Ular xususiy mulkni shaxs mustaqilligining moddiy asosi sifatida ko‘rdilar. Xususiy mulk daxlsizligi iqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligining muhim sharti deb baholandi.

Mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy aholining yer va iqtisodiy resurslarga egalik huquqlari cheklangan edi. Jadidlar bunday siyosatni tanqid qilib, iqtisodiy mustaqillikni milliy ozodlikning ajralmas qismi sifatida talqin etdilar. Ular savdo-sanoatni rivojlantirish, milliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy bank-moliya tizimini shakllantirish zarurligini ilgari surdilar. [3]

Mulkiy erkinlik masalasi ular uchun nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy muammo ham edi. Qonun bilan himoyalangan xususiy mulk instituti jamiyatda adolat va barqarorlikni ta’minlaydi, degan g‘oya jadidlarning iqtisodiy qarashlarida muhim o‘rin tutadi.

Jadidlarning shaxsiy va mulkiy erkinlik haqidagi qarashlari huquqiy davlat konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ular davlatni shaxs huquqlarini himoya qiluvchi institut sifatida ko‘rdilar. Qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi va fuqarolarning tengligi tamoyillari ilgari surildi.

Jadidlar jamiyatni isloh qilishni bosqichma-bosqich, ma’rifiy va huquqiy yo‘l bilan amalga oshirish tarafdori bo‘ldilar. Ular zo‘ravonlik va radikal usullardan ko‘ra, konstitutsiyaviy islohotlar va parlament tizimini qo‘llab-quvvatladilar. Bu jihat ularning qarashlarini zamonaviy demokratik qadriyatlarga yaqinlashtiradi.

Jadidlar merosining zamonaviy ahamiyati. Bugungi globallashuv va huquqiy-demokratik davlat qurish sharoitida jadidlar ilmiy merosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularning shaxsiy erkinlik, mulkiy daxlsizlik va iqtisodiy mustaqillik haqidagi qarashlari hozirgi konstitutsiyaviy tamoyillar bilan uyg‘unlashadi. [4]

Zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va inson huquqlarini ta’minlash jarayonida jadidlar g‘oyalari muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularning merosi milliy huquqiy tafakkurning tarixiy ildizlarini ochib berish bilan birga, yangi islohotlar uchun metodologik asos vazifasini ham bajaradi.

Jadidlar ilmiy merosida shaxsiy va mulkiy erkinlik masalalari tizimli va konseptual xarakterga ega. Ular insonning tabiiy huquqlarini e’tirof etib, xususiy mulk daxlsizligini iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida asosladilar. [5]

Jadidlarning qarashlari milliy uyg‘onish jarayonida huquqiy ongni shakllantirish, iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qildi. Shu bois ularning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonida ham muhim nazariy manba sifatida e’tirof etilishi lozim.

Jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida tub burilish yasagan muhim tarixiy hodisa bo‘lib, uning namoyandalari shaxsiy va mulkiy erkinlik masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Jadidism vakillari jamiyat taraqqiyotini, avvalo, inson erkinligi, huquqiy ong va mulk daxlsizligi bilan chambarchas bog‘liq deb bildilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar o‘z asarlarida shaxs erkinligini ilm-ma’rifat, tafakkur mustaqilligi va vijdon erkinligi orqali ta’minlash mumkinligini asoslab berdilar. Ular insonning fikrlash, ta’lim olish, kasb tanlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqlarini tabiiy va ajralmas huquq sifatida talqin etdilar. [6]

Mulk masalasida esa jadidlar xususiy mulkni taraqqiyotning iqtisodiy asosi deb bildilar. Ularning qarashlarida mulk daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi va iqtisodiy mustaqillik millat ravnaqi uchun zarur omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu g‘oyalar o‘sha davrdagi mustamlakachilik siyosati sharoitida milliy o‘zlikni saqlash va mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilashga qaratilgan edi.

Shunday qilib, jadidlar ilmiy merosida shaxsiy va mulkiy erkinlik masalalari nafaqat huquqiy tushuncha, balki milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ularning qarashlari bugungi kunda ham demokratik jamiyat, fuqarolik ongini shakllantirish va huquqiy davlat qurish jarayonida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003.
4. Aziz Qayumov. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2000.
5. B. Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Jadidchilik tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2010.

MA’RIFATLI JAMIYAT G‘OYASI: JADIDLAR MEROSI VA HARBIY OILADA MILLIY QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI

Ashirmatova Barno Saataliyevna

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi,

harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari bilan ishlash hamda psixologik ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

XXI asr globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va mafkuraviy pluralizm kuchayishi sharoitida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa,

milliy o‘zlikni saqlash, qadriyatlar uzviyligini ta’minlash va yosh avlod ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish masalalari davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishiga aylangan. Bunday sharoitda ma’rifatli jamiyat g‘oyasini jadidlar merosi asosida qayta talqin qilish va uni zamonaviy ijtimoiy institutlar, xususan, harbiy oila misolida tahlil etish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid mutafakkirlari ilgari surgan ilm, tarbiya va tafakkur mustaqilligi konsepsiyasi bugungi mafkuraviy xavfsizlik paradigmasi bilan uzviy bog‘liqdir. Harbiy oila esa, davlat barqarorligi va milliy xavfsizlikning mikroijtimoiy tayanchi sifatida milliy qadriyatlarning saqlanishi va evolyutsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ma’rifatli jamiyat g‘oyasining harbiy oila institutidagi aksiologik namoyonini o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Zamonaviy jamiyatlarda mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash masalasi faqat siyosiy yoki huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki ma’rifiy va qadriyatli asoslar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ma’rifatli jamiyat g‘oyasi – inson kapitali, ma’naviy immunitet va milliy o‘zlik uyg‘unligiga asoslangan ijtimoiy model sifatida dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jadid mutafakkirlari ilgari surgan ma’rifatparvarlik konsepsiyasi bugungi ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida yangi mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, harbiy oila instituti – davlat barqarorligi, milliy xavfsizlik va mafkuraviy mustahkamlikning mikroijtimoiy tayanchi sifatida – mazkur konsepsiyani amaliy jihatdan o‘rganish uchun muhim maydon hisoblanadi.

Ma’rifat kategoriyasi Sharq tafakkurida ontologik va aksiologik mazmunga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli, murakkab tushunchadir. U faqatgina bilish jarayonini anglatmaydi, balki insonning borliq bilan munosabati, o‘zini anglash darajasi, ruhiy-axloqiy kamoloti hamda ijtimoiy mas’uliyatini ham qamrab oladi. Sharq falsafiy an’anasida ma’rifat insonning tashqi olam haqidagi bilimidan ko‘ra, uning ichki olamini yorituvchi, qalb va tafakkur uyg‘unligini ta’minlovchi kuch sifatida talqin etiladi. Shu bois ma’rifat - bu oddiy informatsion xabardorlik emas, balki ongli idrok, ma’naviy yetuklik va qadriyatlarga asoslangan hayotiy pozitsiyadir.

Ontologik jihatdan ma’rifat insonning borliqdagi o‘rnini anglash, o‘z mavjudligining ma’nosini tushunish jarayoni bilan bog‘liq. U insonni tasodifiy mavjudot emas, balki maqsadli va mas’uliyatli subyekt sifatida shakllantiradi. Aksiologik jihatdan esa, ma’rifat qadriyatlar tizimini ongli ravishda tanlash va ularga sodiq qolish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jihat ma’rifatni axloqiy mezonlar bilan chambarchas bog‘laydi.

Ma’rifatli jamiyat esa, aynan shu bosqichlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Bunday jamiyatda bilim axloqdan ajralmaydi, erkin fikr befarqlikka aylanmaydi, intellektual salohiyat ijtimoiy mas’uliyat bilan to‘ldiriladi. Ma’rifatli jamiyat modeli insonni passiv iste’molchi emas, balki ongli, tanqidiy fikrlaydigan va ma’naviy barqaror subyekt sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Natijada ma’rifat shaxsiy kamolot vositasidan jamiyat barqarorligining poydevoriga aylanadi. Aynan shu jihat uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda markaziy kategoriya darajasiga ko‘taradi. Jadidchilik harakati milliy o‘zlikni saqlagan holda modernizatsiyani amalga oshirish konsepsiyasiga asoslangan edi.

Jadid mutafakkirlari merosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, ularning maʼrifatparvarlik konsepsiyasi uch asosiy tayanchga — ilm, tarbiya va tafakkur mustaqilligiga tayanadi [3]. Har bir mutafakkir mazkur tushunchalarning maʼlum bir jihatini alohida konseptual darajaga koʻtargan boʻlsa-da, ularni yagona maqsad — milliy tiklanish va ijtimoiy yangilanish gʻoyasi birlashtiradi.

Mahmudxoʻja Behbudiy ilmni milliy tiklanishning bosh omili sifatida baholagan. Uning nazarida ilm — bu shunchaki bilim majmui emas, balki jamiyatni jaholat va qoloqlikdan olib chiqadigan tarixiy kuchdir. Behbudiy ijtimoiy tanazzulning ildizini ilmiy tafakkurning sustligi va zamonaviy fan yutuqlaridan chetda qolishda koʻradi [2]. Shu bois u yangi usul maktablarini tashkil etish, dunyoviy fanlarni oʻqitish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni milliy istiqbolning zarur sharti deb bilgan. Falsafiy jihatdan olganda, Behbudiy ilmni epistemologik yangilanish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ontologiyani oʻzgartiruvchi omil sifatida talqin qiladi. Yaʼni ilm jamiyatning mavjudlik shaklini, uning tafakkur modeli va taraqqiyot yoʻnalishini belgilovchi kuchdir.

Abdulla Avloniy esa, tarbiyani ijtimoiy taraqqiyotning negizi sifatida koʻrsatadi. Uning mashhur “tarbiya — yo hayot, yo mamot masalasi” degan gʻoyasi bejiz emas. Avloniy uchun maʼrifat faqat bilim berish bilan cheklanmaydi; u axloqiy shakllanish, ijtimoiy masʼuliyat va milliy oʻzlikni anglash jarayonidir [1]. Tarbiya orqali shaxs jamiyat bilan uygʻunlashadi, oʻzining fuqarolik burchini anglaydi va milliy qadriyatlarga ongli ravishda sodiq boʻladi. Shu jihatdan Avloniy tarbiyani aksiologik transformatsiya mexanizmi sifatida talqin etadi. Agar Behbudiy ilm orqali tafakkurni yangilashni koʻzlagan boʻlsa, Avloniy tarbiya orqali qadriyatlar tizimini mustahkamlashni maqsad qilgan.

Abdurauf Fitrat esa, tafakkur mustaqilligini ozodlikning asosi deb baholaydi. Uning qarashlarida milliy ozodlik faqat siyosiy mustaqillik bilan cheklanmaydi; u avvalo ong va tafakkur mustaqilligini talab qiladi. Fitrat mustamlakachilikni nafaqat hududiy yoki siyosiy bosim, balki fikrni qaramlikka soluvchi maʼnaviy tahdid sifatida talqin qiladi. Shuning uchun u erkin fikrlash, tanqidiy tahlil va refleksiv ongni shakllantirishni milliy uygʻonishning zarur sharti deb hisoblaydi [4]. Falsafiy nuqtai nazardan, Fitrat tafakkur mustaqilligini gnoseologik va aksiologik erkinlik bilan bogʻlaydi: inson faqat mustaqil fikrlagandagina qadriyatlarni ongli tanlay oladi va oʻz tarixiy yoʻlini belgilay oladi [6].

Ushbu uch yondashuv — ilm (epistemologik asos), tarbiya (aksiologik asos) va tafakkur mustaqilligi (gnoseologik-ijtimoiy asos) — jadidchilik harakatining yagona modernizatsion paradigmasini tashkil etadi. Muhimi shundaki, jadidlar modernizatsiyani milliy qadriyatlardan voz kechish yoki anʼanalarni inkor etish sifatida tushunmaganlar. Aksincha, ular modernizatsiyani qadriyatlarni yangi tarixiy sharoitga moslashtirish, ularni ongli ravishda qayta talqin qilish jarayoni deb bilganlar. Bu yerda dialektik uygʻunlik kuzatiladi: anʼana va yangilik qarama-qarshi qoʻyilmaydi, balki oʻzaro boyituvchi jarayon sifatida talqin etiladi. Jadidlar uchun modernizatsiya — bu milliy oʻzlikni yoʻqotish emas, balki uni mustahkamlashning yangi bosqichidir. Ilm orqali tafakkur yangilanadi, tarbiya orqali qadriyatlar tizimi mustahkamlanadi, tafakkur mustaqilligi orqali esa jamiyat oʻz rivojlanish yoʻlini ongli ravishda belgilaydi.

Shu tariqa, Behbudiy, Avloniy va Fitrat qarashlari birgalikda ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining nazariy asosini tashkil etadi. Ularning g‘oyalari bugungi globallashuv va mafkuraviy raqobat sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda, chunki zamonaviy jamiyat barqarorligi ham aynan ilmiy tafakkur, axloqiy tarbiya va erkin fikrlash uyg‘unligiga tayanadi.

Qadriyatlar evolyutsiyasi uch bosqichda amalga oshadi: An’anaviy shakl (meros sifatida mavjudlik); Refleksiv anglash (ongli qabul qilish); Transformatsion moslashuv (zamonga integratsiya). Jadidlar aynan ikkinchi bosqich – refleksiv ongni shakllantirishni asosiy vazifa deb bilganlar.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasi kontekstida jadidlarning refleksiv ongni shakllantirishga alohida urg‘u berishi chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Ular uchun jamiyatni yangilash tashqi islohotlardan ko‘ra, avvalo inson tafakkurini o‘zgartirishdan boshlanishi zarur edi. Shuning uchun ham jadidlar ma’rifatni faqat savodxonlik yoki bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning o‘zini, o‘z jamiyatini va tarixiy taqdirini ongli ravishda anglash bosqichi sifatida talqin qilganlar.

Refleksiv ong — bu shaxsning mavjud qadriyatlar, an’analar va ijtimoiy jarayonlarga tanqidiy-nazariy munosabat bildira olish qobiliyatidir. Jadidlar nazarida aynan shu bosqich milliy uyg‘onishning asosiy sharti bo‘lgan. Chunki ko‘r-ko‘rona taqlid yoki passiv an’anaparastlik jamiyatni taraqqiyotga olib chiqolmaydi. Shu bois ular refleksiyani — o‘zini va voqelikni ongli tahlil qilishni — ma’rifatli jamiyat qurilishining intellektual poydevori deb bilganlar.

Mazkur yondashuvni harbiy oila institutiga tatbiq etadigan bo‘lsak, refleksiv ong milliy qadriyatlar evolyutsiyasining muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Harbiy oila an’anaviy ravishda intizom, sadoqat, vatanparvarlik va burch tushunchalariga tayansa-da, zamonaviy sharoitda bu qadriyatlar ongli ravishda anglanishi va ichki e’tiqod darajasiga ko‘tarilishi zarur. Aks holda ular faqat tashqi me’yor yoki formal talab sifatida qolib ketadi.

Jadidlar ilgari surgan refleksiv tafakkur modeli harbiy oilada quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, vatanparvarlik hissi refleksiv ong orqali ongli fuqarolik pozitsiyasiga aylanadi. Bu yerda shaxs Vatanga sadoqatni nafaqat burch, balki qadriyat sifatida anglaydi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlar meros sifatida qabul qilinmaydi, balki zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Bu jarayon evolyutsion transformatsiyani ta’minlaydi.

Uchinchidan, refleksiv tafakkur harbiy oilada ma’naviy immunitetni shakllantiradi. Axborot oqimi va mafkuraviy bosim kuchaygan davrda tanqidiy anglash qobiliyati tashqi g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan ichki barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shu ma’noda, jadidlarning refleksiv ongni shakllantirish haqidagi qarashlari ma’rifatli jamiyat modelining markaziy elementi sifatida harbiy oila institutida ham dolzarbligini saqlab qoladi. Ma’rifatli harbiy oila — bu qadriyatlarni ko‘r-ko‘rona emas, balki ongli ravishda qabul qiladigan, an’ana va modernlikni uyg‘unlashtira oladigan, ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his etadigan muhitdir.

Demak, jadidlar ta’limotida refleksiv ongni shakllantirish g‘oyasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talqinda harbiy oilada milliy qadriyatlar evolyutsiyasining asosiy intellektual va aksiologik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda “refleksiv ong” tushunchasi oddiy tanqidiy fikrlashdan kengroq ma’noni anglatadi: u shaxsning o‘z qadriyatlari, tarixiy xotirasi, ijtimoiy mas’uliyati va zamonaviy voqelik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ongli ravishda tahlil qilish qobiliyatini bildiradi. Aynan shu qobiliyat qadriyatlarni mexanik meros sifatida emas, balki ongli tanlov va ichki e’tiqod darajasiga ko‘tarish imkonini beradi.

Harbiy oila instituti sharoitida refleksiv ongning shakllanishi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi — intellektual mexanizm sifatida. Bu jihatda refleksiya harbiy oilada shakllanayotgan yosh avlodning milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘lay olishini ta’minlaydi. Masalan, vatanparvarlik tushunchasi refleksiv tafakkur orqali tor emotsional sadoqatdan ongli fuqarolik pozitsiyasiga aylanadi. Burch va intizom qadriyatlari esa tashqi talab yoki normativ me’yor sifatida emas, balki ichki e’tiqod va mas’uliyat ko‘rinishida qaror topadi.

Ikkinchi yo‘nalish — aksiologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv ong qadriyatlarni tanqidiy saralash, ularning mazmunini zamonaviy sharoitda qayta talqin qilish va barqaror ijtimoiy mezonga aylantirish imkonini beradi. Natijada milliy qadriyatlar konservativ shaklda qotib qolmaydi, balki evolyutsion rivojlanadi. Bu jarayonda an’ana va modernlik o‘rtasida dialektik uyg‘unlik yuzaga keladi: tarixiy meros saqlanadi, biroq u zamonaviy tafakkur bilan boyitiladi. Shu jihatdan jadidlar ilgari surgan refleksiv ong konsepsiyasi bugungi kunda ma’rifatli jamiyatni barpo etishning epistemologik va aksiologik poydevori sifatida qaraladi [5, 7]. Ma’rifatli jamiyat — bu shunchaki bilimli insonlar jamlanmasi emas, balki o‘z qadriyatlarini ongli ravishda anglaydigan, tanqidiy fikrlaydigan va ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan subyektlar jamiyatidir. Refleksiyasiz ma’rifat yuzaki xabardorlik darajasida qoladi; refleksiya esa bilimni ichki e’tiqod va ijtimoiy faoliyatga aylantiradi.

Bundan tashqari, refleksiv ong mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Globallashuv va axborot bosimi kuchaygan sharoitda turli g‘oyaviy ta’sirlar shaxs ongiga bevosita kirib keladi. Agar shaxs refleksiv tafakkurga ega bo‘lsa, u axborotni tanqidiy baholaydi, manipulyativ ta’sirlarni anglaydi va mustaqil xulosa chiqaradi. Harbiy oila muhitida bunday tafakkurning shakllanishi milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ta’limotida ilgari surilgan refleksiv ong g‘oyasi bugungi harbiy oila institutida milliy qadriyatlar evolyutsiyasining intellektual (bilim va anglash asosidagi) hamda aksiologik (qadriyatli tanlov asosidagi) mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, ma’rifatli jamiyatni barpo etish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning chuqur nazariy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 73–78.

3. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
5. Hakimov M. Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlik falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2010.
6. Erkinov A. Abdurauf Fitratning siyosiy-falsafiy qarashlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Erkinov A. Jadid matbuoti va ijtimoiy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

РОЛЬ ИСХАКХАНА ТОРА ИБРАТА В МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ТУРКЕСТАНА

Абдуллаходжаев Адхамхожа

Старший преподаватель кафедры общественных наук Кокандского университета доктор философии (PhD) по философским наукам

Исхакхан Тора Ибрат (Исҳоқхон Тўра Ибрат, 1862–1937) — один из выдающихся представителей узбекского просветительства и джадидского движения, наш предок, внесший огромный вклад в формирование современной системы образования в Туркестане. Он глубоко ценил духовный и научный прогресс нации, осознавал острую необходимость реформ в школах и всей образовательной системе и активно способствовал их реализации. Ибрат придавал особое значение развитию новых педагогических методов, просвещению молодого поколения и вооружению его современными знаниями. Его взгляды на образование выходили далеко за рамки лишь методики преподавания: он ориентировал всё общество на стремление к знаниям, уважение к духовности и гармоничное сочетание исламских ценностей с достижениями мировой науки и культуры. Он открыто принимал любые передовые инновации и стремился внедрять их в жизнь туркестанского народа, что повышало интерес к русскому языку как ключу к мировой науке. В крупных городах и даже в сёлах открывались школы «рус-тузем» и «усули савтия» (новометодные школы джадидов). В них наряду с родным языком и религиозными дисциплинами преподавались светские предметы — математика, география, естествознание — и русский язык. Прогрессивно мыслящие родители, понимающие требования времени, охотно отправляли детей в эти школы. В 1907 году в «Туркестанских ведомостях» развернулась острая дискуссия между сторонником старой школы муллой Хасанходжей Эшоном и Исхакханом Тора. Мулла Хасанходжа отстаивал традиционные методы и предлагал лишь лёгкую реформу, в то время как Ибрат в своей знаменитой статье «О старых школах» выступал за радикальную перестройку старых мектебов и создание школ, полностью отвечающих требованиям эпохи. Он резко осуждал схоластику старых учителей: бесконечное повторение «алиф безавар, алиф базар» без понимания смысла, телесные

наказания и кнут. Ибрат настаивал: даже тысячу раз переделанные старые книги и методы бесполезны без учителей нового метода, группового обучения и отмены побоев. Он подчёркивал, что настоящая реформа возможна только при полной замене старой системы на новую, основанную на звуковом методе (усули савтия) и светских знаниях.Хак Хан Тора злился на таких школьных учителей, как Мулла Хасанходжа: «Учитель не бьет наших бедных дорогих детей, у них нет кнута. В качестве оправдания он пять-десять дней показывает на небо и кричит «Алиф безавар, алиф базар» и тратит свою жизнь, не выучив ни одной буквы: «Необходимо раздать общинам и реформировать вопросы прихода и. хождение, побои и кнуты», но есть книги и домии, которым можно научить. что этот вопрос бесполезен, даже если его реформировать тысячу раз, и что старые школы будут реформироваться только в том случае, если они будут обеспечены учителями нового метода, «...разделяя детей на группы со старыми школами, они реформируют вопросы прихода и ухода, избиения и порки, конечно, необходимы. Но эти старые книги — старые гнезда насекомых, даже если их тысячу раз переделывать, они бесполезны. Мы экспериментировали собственными глазами и посвятили себя этому учению [1;155].

В статье использованы такие методы, как системный функциональный анализ философии, объективность, историчность и логичность, анализ и синтез, контент-анализ и другие. В годы независимости было проведено множество научных исследований, посвященных изучению джадидизма на основе новых теоретико-методологических принципов. Актуальность изучения джадидистского движения, его концепции, сущности, содержания, структуры и масштаба обсуждается в работах таких литературоведов, историков, как Б. Касимов, П. Мирзо-Ахмедова, Д. Рашидова, Р. Шамсиддинов, И. Гафуров, Д. Алимова, Р. Шарипов, С. Касимов, Б. Касимов, Х. Суон, Ш. Турдиев, Н. Авазов, Х. Саид, Н. Каримов, Д. Алимова, Д. Рашидова, А. Алиев, Ш. Ризаев, а также немецкий ученый Ингеборга Бальдауф и другие, которые в своих трудах высказывали ценные мысли и замечания. В научных исследованиях таких ученых, как М. Фаттоев, А. Зохирий, К. Раджабов, Х. Исматуллаев, Р. Шарипов, З. Эшмуродова, а также в ряде кандидатских и докторских диссертаций, были проанализированы идеи патриотизма джадидов, их духовно-просветительские источники, проблемы реформирования бытовой культуры, философско-эстетические взгляды.

2 марта 1908 года Исхак Хан Тора написал статью о восстановлении памятников архитектуры, построенных Сахибкироном Амиром Темуром, и перечислил работы, которые необходимо провести для сохранения материальных и культурных ценностей. Например, выяснение, кому принадлежат двенадцать рвов, которые построил Амир Темур, получение разрешения правительства на выделение средств на ремонт от старательных просветителей, сбор пожертвований и выдача решения правительства об их ремонте, сундуки для пожертвований в местах для ремонта, или в банке, на основании списка, запечатанного правительством, собирая указания, ведя справочник, «советуясь с потомками султана, а затем собирая указания от

правительства».[2;]Исхак-хан Тора, посвятивший свою жизнь просвещению, показал, что он был поистине самоотверженным человеком, готовым пожертвовать своей жизнью даже за пядь земли Родины

В статье «По поводу выборов должностных туземцев в Намангане», написанной Исхаком Ханом Торой в связи с выборами 1910 года, показаны пороки системы, хитрости в избирательном процессе, подлог, взяточничество, а также назначение нечистых и коррумпированных лиц . были избраны люди на ответственные должности, «везде нации известен хаос и необдуманность выборов» что крайне возмутило и обеспокоило людей [3;151], несоответствие законов и правил выборов судей, пятидесяти одного и тысячебаши царского правительства, что они умеют грабить народ, взяточничество и насилие, что народ недовольны «пологениями», судьба народа несчастна и зла, подвергся серьезной критике за то, что был передан в руки невежественных людей и порабощен своему эго. Судьей будет лицо, обладающее вниманием, не подвергавшееся аресту более семи суток, не уплатившее более тридцати сумов и возраст которого не менее двадцати пяти лет. Не сказано, что учёный - великий человек, дурак или мудрец, знающий шариат или знающий правила... даже если он неграмотен, даже если у него есть национальное зло, не написано, что его знаний достаточно в национальной пологении... Видите ли, в чьи руки они вверят этот великий шариатский суд. Нет никого, кто думает. Человека, мыслящего люди даже не рассматривают... Он много чего пишет для желающих быть совместимым с пологенией. Пусть не делают, если так делают, то это по пологении. Это не от муллы, который проповедовал шариат в пологении. Им не нужно, кем и чем быть[4;152].

В редакции газеты возразили против статьи и приложили следующий ответ: "Конечно, в Положении должен быть человек с репутацией и вниманием среди народа. Быть центурионом, быть сотником, быть сотником, быть сотником, быть сотником, и быть судьей, быть судьей, быть судьей, быть судьей, иметь репутацию. (Офис)" [5;152].

В 1912 году Исхакхан Тора написал статью «Открытие Коканд-Наманганск железной дороги» [5;149-150] и назвал открытие железной дороги незабываемым событием в общественной жизни Намангана. Например, в Ходженте поезд украшали, перерезали ленточки, поезда провожали молитвами и аплодисментами, когда поезд прибыл в Наманган, люди, которые никогда в жизни не видели поезда, были поражены, посмотреть собралось около 30 000 человек. поезд, полиция усердно работала, чтобы защитить людей, раздали, возле вокзала устроили вечеринку, была музыка, расстрелы, художники фотографировались. и других обстоятельствах, а позитивное отношение людей с праздничным духом к новой технике было глубоко выражено: «7 июля сего года был праздник благодарения за завершение и открытие Наманганской пожарной дороги... при этом время там присутствуют и фотографируют фотографы и оператор, которого вызвали отдельно. Поезд шел до станции Чуст медленным маршем, а затем проезжал по деревянному мосту, построенному за большие деньги, до Сырдарьеги. Люди, которые никогда в жизни не видели пожарной колесницы, приходили в села и деревни и брали за собой пожарную

колесницу. первый раз Я много раз был удивлен, увидев, что, когда приближался поезд, количество людей в белых тюрбанах было чрезвычайно большим - 25 000-30 000 человек [6;149-150].

В статье «Новое медресе в Намангане» [7;] анализируются проблемы науки и образования в Намангане в начале XX века. В 1913 году в центре города Намангана на средства сына кыргыза Боя Машраббоя было построено «медресе Муллы Кыргыза». Священнослужители, принадлежащие владельцам медресе, не только открывают школы, издают книги, но также строят мечети и медресе и обеспечивают средства за свой счет. видно, что они продвинутые.

«Кто реформирует нацию?» В статье под названием «Исхак Хан Тора» говорится, что среди мусульман наблюдается рост незаконной деятельности, нравы людей меняются день ото дня, они не прислушиваются к советам, словам имамов на арабском языке. игнорируются, и многие люди не до конца понимают, что проповеди следует читать в мечетях на местном языке, что имамы должны сообщать людям то, чего они не знают, и что они достигнут счастья двух миров из-за этого, Тот факт, что один из имамов Самарканда проповедует в мечетях на народном языке, положительно влияет на общественность и вызывает раздор среди людей. Он подчеркнул, что работы сворачиваются и что для реформы необходимо увеличение числа таких улемов. нации: «Когда улемы будут ревностными, нация обязательно обретет реформу». [8;157].

В статье «Письмо из Тюрвакургана» Исхакхан Тора откровенно критиковал пороки, ведущие нацию к гибели, говоря, что причина этого – неисчислимость, бездумность и нецивилизованность, беспечность, лень, ересь получать знания в соответствии со временем, жизнь, предаваясь роскоши, поклоняясь могилам вместо изучения религиозных знаний, тратя заработанные деньги на свадьбы, Он протестовал против того, что женщины остаются в среде суеверий, непокорны, непокорны и невежественны и не перестают убивать отца, давшего своему ребенку небольшую сумму денег, «время не стоит на месте, возраст и время. Коротки, без знаний, без морали, нужны действия, нужен иджтихад, связывая с собой жизнь. не дал. «Мамот здесь, будь знающим, действуй, работай, найди путь, изучай знания». Эта цитата Исхака Хана Ибрата актуальна и для современной молодежи.

В 1914 году Исхак-хан Тора Ибрат был приглашен в Ташкент для участия в выпускном экзамене по русскому языку в двухклассной русско-туземской школе в Хадре. Путешествуя поездом, Исхакхан Тора размышляет об обновлении и переменах в стране и планирует работу, которую следует провести в области науки и образования: «...чтобы наш народ тоже мог получить пользу от этих наук. Я думал об этом, пока не поехал в Ташкент. Собираясь в Ташкент, днем на экскурсии в сад, ночью в театры, я представлял себе в сборниках рассказ о прошлых событиях, а спектакли смотрел на кинографе, ходя туда-сюда, сидя на старом электромобили и ночью Нашим людям было полезно увидеть электрические лампы, которые горят без масла и топлива ради тепла. Хотелось бы, чтобы они изучали другие европейские науки» [9;153]. Впечатления, полученные от экзамена, побудили его написать

статью под названием «Мои сведения из поездки в Ташкент. Исхак Хан Тора сказал: «Пришло время экзаменов в двухклассной школе Хадринского района Ташкента. На экзамене мы порадовались тому, что дети-мусульмане тоже хорошо выступили, ясно и хорошо говорили по-русски, хорошо сдали экзамен» [10;153], и положительно оценили развитие социальной и культурной сферы страны. , культурное развитие города Ташкента и изменения в образовании. Исхакхан Тора в своей педагогической деятельности стремится постоянно предоставлять молодым людям новые знания и навыки. Он пытался сократить разрыв между взрослыми и детьми в процессе обучения чтению и письму в школе. К сожалению, их деятельность носила временный характер, и новым школам противостояли фанатики и абсолютные авторитеты. Кроме того, Исхакхан Тора способствовал развитию новых педагогических методов, но он также прекрасно понимал трудности их внедрения. Он хотел развивать школы не только с духовной и научной стороны, но и перестраивать их на основе современных стандартов. В новой школе учителя выступили против воспитания детей с помощью побоев и телесных наказаний и предложили использовать более гуманные формы воспитания. Возвышение Ибрата в сфере образования было связано не только с академической сферой, но и с подъемом национальной культуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Исхакхан Тора Ибрат в организованных им школах не ограничивался преподаванием только научных знаний, но и уделял особое внимание формированию у учеников чувства патриотизма, уважения к национальной культуре и общечеловеческих нравственных ценностей. Он призывал народ отказаться от невежества, постоянно стремиться к знаниям и внедрять инновационные подходы во все сферы общественной жизни.

Основной вклад Ибрата в сферу образования заключался в модернизации школ, повышении качества образовательного процесса и воспитании нового поколения в качестве кадров, соответствующих современным требованиям. Он не только передавал учащимся теоретические знания, но и закладывал в них основы всестороннего образования, нравственных ценностей и внимания к культурному наследию. При этом Исхакхан Тора Ибрат придавал серьёзное значение физическому воспитанию учащихся, рассматривая его как важную составную часть современной системы образования в своей педагогической концепции. В наши дни его деятельность интерпретируется как важный пример в проведении образовательных реформ, подготовке национальных кадров и развитии общества.

Педагогическая деятельность Исхакхана Тора Ибрата играла значительную роль не только в обеспечении учащихся научными знаниями, но и в их нравственном и культурном становлении. В школах Ибрата наряду с процессом получения знаний приоритетное внимание уделялось таким ценностям, как патриотизм, нравственные добродетели и уважение к обществу. Исхакхан Тора Ибрат своим стремлением к развитию науки, внедрению новых педагогических подходов и обновлению общества остаётся уникальным примером как в своё время, так и в современную эпоху. Его деятельность была

основана на гармоничном сочетании науки и духовности; он рассматривал школу как главный центр подготовки национальных кадров и стремился развивать её именно в этом направлении. С этой точки зрения Исхакхан Тора Ибрат передал своё великое педагогическое наследие последующим поколениям, и это наследие по сей день сохраняет актуальное значение в современном развитии системы образования Узбекистана.

Список литературы

1. Пример. О старых школах // Вестники Туркестанской области, 1907. № 72 / Пример. Избранные произведения. Стр. 155.
2. Исхакхан Тора Ибрат. Письмо в редакцию // Вестник Туркестанской области. 13 января 1908 года. № 4
3. Исхакхан Тора Ибрат. По поводу выборов долиностнис туземцев «Намангане» — газета Туркестанской области. 21 марта 1910 г./Исхак Хан Тора лбрат. Избранные произведения. Страница 151.
4. Исхакхан Тора Ибрат. По поводу выборов долиностнис туземцев «Намангане» — газета Туркестанской области. 21 марта 1910 г./Исхакхан Тора лбрат. Избранные произведения. Страница 152.
5. Исхакхан Тора Ибрат. По поводу выборов долиностнис туземцев «Намангане» — газета Туркестанской области. 21 марта 1910 г./Исхакхан Тора лбрат. Избранные произведения. Страница 152.
6. Исхак Хан Тора Ибрат. № 54. 15 июля 1912 г. Избранные сочинения. Страницы 149-150
7. Исхак Хан Тора Ибрат. № 54. 15 июля 1912 г. Избранные сочинения. Страницы 149-15
8. Исхак Хан Тора Ибрат. Новое медресе города Намангана // Ведомости Туркестанской области, 28 апреля 1913 г.
9. Исхак Хан Ибрат Кто реформирует нацию? // Журнал «Зеркало», 1914, выпуск 12, стр. 274-275/Ишакхан Тора Ибрат. Избранные произведения. Страница 157.
10. Исхак Хан Ибрат. Информация о поездке в Ташкент // Гааст Туркестанской области. Не 48. 12 апреля 1914/Исхакхан Тора Ибрат. Избранные произведения. Страница 153.

ЖӘДИДШІЛДІК ҚОЗҒАЛЫСЫНЫҢ АҒАРТУШЫЛЫҚ ИДЕЯЛАРЫ ЖӘНЕ ОЛАРДЫҢ ДАМУ ҮДЕРІСІ

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА И ПРОЦЕСС ИХ РАЗВИТИЯ

JADIDIZM HARAKATINING MA'RIFIY G'OYALARI VA ULARNING RIVOJLANISH JARAYONI

Жанғалиев Улан Құрметқалиұлы

«Alikhan Bokeikhan University» ББМ.

Қазақстан Республикасы.Семей қаласы, Аға оқытушы, магистр.докторант

Жәдидтік идеялар негізінен қазақ зиялыларының, сонымен қатар түркі-мұсылман халықтарының ауқатты топтарының өкілдері, соның ішінде Қазақ жерінде қайырымдылық шаралары негізінде жаңа әдісті мектептер мен медреселер ашқан татар көпестері тарапынан қолдау тапты.

Бүгінгі таңдағы мақаламыздың өзектілігі қоғамдық қозғалыстар тарихы саласындағы ғылыми тұжырымдарды толықтырудың қажеттілігімен анықталады. Ресей империясындағы түркі-мұсылман халықтарында отарлық езгіге қарсы әлеуметтік-саяси күштің қалыптасуы, ұлттық бірлікті сақтау идеясының туындауы және ұлттық сана-сезімнің оянуына арналған зерттеулердегі пікірлердің әрқилы болуына байланысты Қазақ жеріндегі жәдидшілдікті архив қорларындағы тың деректермен толықтыра отырып зерттеу тақырыптың өзектілігін анықтай түседі.

Жәдидшілдер қызметінің позитивті мазмұнға ие болуымен қазіргі таңда өткеннің қойнауында жатқан ұлттық құндылықтар мен озық дәстүрлерді білім мен ғылым саласында қалыптастыру үшін үлгі ретінде пайдалану мүмкіндігімен маңызды. Жәдидшілдіктің ағартушылық және реформаторлық мазмұнына тоқталатын болсақ, реформалар білім беру мекемелері мен ағарту ісін ғана емес, сонымен қатар ұлттық сананың қалыптасуы, саяси өмір және рухани мәдениет саласын да қамтыды.

Қазақ жеріндегі жәдидшілдердің баспахана және кітапхана ашу ісін ұйымдастыруы, баспа қызметін дамытуы, ана тілі мен ұлттық әдебиетті өркендетуге бағытталған бастамалары қазіргі әдебиет, мәдениет және өнер салаларын жаңғырту мәселелерін шешуде маңызды танымдық әрі тәжірибелік мәнге ие. Бұл құбылыс ұлттық рухани дамудың тарихи негіздерін айқындауға мүмкіндік береді.

XIX ғасырдың екінші жартысы мен XX ғасырдың басындағы Қазақ даласындағы жәдидшілдікті қоғамдық, интеллектуалдық және ағартушылық қозғалыс ретінде кешенді түрде зерттеу бүгінгі күні өзекті ғылыми міндеттердің бірі болып табылады. Себебі жәдидшілдік тек білім беру

реформасымен шектелмей, қоғамның рухани, мәдени және саяси жаңғыруына ықпал еткен кең ауқымды құбылыс болды.

Жалпы жәдидшілдік мәселесіне арналған зерттеулер жеткілікті болғанымен, Қазақстандағы жәдидшілдіктің өзіндік ерекшеліктері мен аймақтық сипаты толық әрі жүйелі түрде зерделенді деуге болмайды. Мұның себебі – аталған тақырыптың әр кезеңде түрлі идеологиялық ұстанымдардың ықпалында қарастырылуы, сондай-ақ тарихи деректердің бір-біріне қайшы келуі және олардың мазмұнын талдауда бірыңғай әдіснамалық ұстанымның қалыптаспауы. Отандық тарих ғылымында бұл мәселе әлі де терең теориялық және методологиялық пайымдауды қажет етеді.

Осыған байланысты жоғарыда аталған мәселелерді арнайы әрі кешенді түрде қарастыру зерттеу тақырыбының өзектілігін және ғылыми жаңалығын айқындайды. Сонымен қатар, XIX ғасырдың екінші жартысы – XX ғасырдың басында Қазақ даласының мәдени-ағартушылық және қоғамдық-саяси дамуында жаңа әдісті мектептер мен медреселердің орны ерекше болды. Аталған оқу орындарының білім беру бағдарламалары мен оқу-тәрбие үдерісі ұлттық интеллигенцияның қалыптасуына, қоғамдық сананың жаңаруына және ұлттық мәдениеттің дамуына елеулі ықпал етті.

Жәдидшілдікті ұлттық рухани жаңғырудың негізі ретінде бағалайтын белгілі филолог Дихан Қамзабекұлы бұл құбылыстың мәнін Ресей империясы құрамындағы мұсылман халықтарына ортақ дәстүр мен жаңашылдықтың синтезі ретінде түсіндіреді. Ғалымның пайымдауынша, жәдидшілдік ұғымы мазмұндық тұрғыдан «жаңару», «ұлттық тұтастықты сақтау мақсатында жаңа бағыт ұстану» деген мағыналық аяда қарастырылуы тиіс.

Сонымен қатар, зерттеуші жәдидшілдікті тек саяси қозғалыс ретінде шектеулі сипатта қарастыру жеткіліксіз екенін атап өтеді. Оның пікірінше, жәдидшілдік – ағарту ісі мен рухани өмірді тұтастай қамтыған, белгілі бір идеялық-теориялық негізге сүйенген концептуалдық құбылыс. Бұл қозғалыс біркелкі дамымаған, тарихи-әлеуметтік жағдайларға байланысты әр аймақта әртүрлі сипат алған.

XX ғасырдың 10- шы жылдары ол Қазақстанда – Алаш, Әзірбайжанда – мусават, Қырымда – милли-фирк, Татарстанда – иттифак әл-муслимин, Өзбекстанда «жадидизм» атауымен дамыған. Қазақ даласындағы жәдидшілдік екі асудан, біріншісі, 1890-1911 жылдар – үйрену, тәжірибе жинау шағы. Ал, екіншісі, 1911-1920 жылдар – жәдидшілдік кең өріс алып, Алаш қозғалысына ұласу шағы деп көрсетеді [1, 31-32].

Бастапқыда жәдидшілдердің қызметі Түркістан халқын әлеуметтік, экономикалық және саяси артта қалушылықтан алып шығатын мықты идеологиялық қару ретінде қолдану үшін, мұсылмандық діни мектептердегі дәстүрлі білім беру жүйесін реформалауға, жаңа әдісті мектептер құру, баспа ісін жандандыру, театр және т.б. мәдени мекемелерді ашуға бағытталды [2, 876]. Түркістан жәдидшілдерінің негізгі үлесі орыс отаршылдығына қарсы бағытталған ұлт-азаттық қозғалысын саяси негіздеуінде болды [3, 85]. Бұл ұлттық-прогрессивтік қозғалыс ғылым мен мәдениеттің дамуын қолдай

отырып, қоғамның демократиялық күштерінің шоғырлануына ықпал етті деп көрсетеді К.К. Базарбаев [4, 115].

XIX ғасырдың екінші жартысы – XX ғасырдың басы Ресей империясының құрамындағы түркі-мұсылман халықтары мекендеген аймақтарда қоғамдық өмірдің саяси, әлеуметтік, мәдени, діни, ағартушылық және экономикалық салаларында тоқырау үдерістерімен сипатталды. Мұндай құбылыс тұтастай алғанда мұсылман әлеміне ортақ тенденция болды. Патшалық билік жағдайында өмір сүрген әрбір ұлт өз болмысын сақтап қалудың тетіктерін іздестіріп, отарлық жүйеге қарсы күрестің жаңа формаларын қарастыра бастады. Дәстүрлі қарулы қарсылықтың орнына ғылым мен білімді дамыту, халықтың сауаттылық деңгейін арттыру арқылы ұлттық тұтастықты сақтау стратегиясы алға шықты. Уақыт талабына жауап бере алатын интеллектуалдық азшылықтың қалыптасуы осы қажеттіліктен туындады. Нәтижесінде жәдидтік идеялар жүйесі орнығып, прогресшіл сипаттағы жәдидшілдік қозғалысы пайда болды.

Жәдидтер өз идеяларының негізіне ислам дінінің құндылықтарын, шариғат қағидаларын және пайғамбар ілімін арқау етті. Зерттеуші Қалижан Уәлихан «Жәдитшіл жырлар: (Тарихи зерттеулер)» атты еңбегінде XIX ғасырдың соңы мен XX ғасырдың басында өмір сүріп, ақындық, діни-ағартушылық қызметімен танылған және шығармалары жәдидтік идеялармен үндес төрт тұлғаның мұрасын қарастырады. Олар: Әбубәкір Кердері, Нұржан Наушабайұлы, Шәді Жәңгіруұлы және Мақыш Қалтайұлы. Автор аталған ақындардың өмірбаяндық деректерін, діни-ағартушылық және білім-ғылым тақырыбындағы өлеңдерін жинақтап, талдау жасайды. Әсіресе, Әбубәкір Кердері жөніндегі сирек деректерді жүйелеуге назар аударады. Бұл ақын шығармашылығына қатысты біршама кешенді зерттеуді Мұхтар Әуезов жүргізгені белгілі. 1905 жылы Каримов баспаханасынан «Әдебиет Қазақия» жинағының жарық көруі де сол кезеңдегі әдеби-ағартушылық үрдістердің көрінісі болды. Дегенмен, Қ. Уәлихан аталған тұлғаларды жәдидтік толқын өкілдері ретінде қарастырғанымен, олардың жәдидтік идеялармен тікелей сабақтастығын нақты деректер арқылы толық негіздеп бермейді.

Жәдидшілдікті прогреске ұмтылу және білім-ғылым арқылы ұлтты сақтау идеясына негізделген қозғалыс ретінде қарастырсақ, оның бір мезгілде бірнеше аймақта қатар қалыптасқанын байқауға болады. Қазақ даласында бұл үрдіс Абай Құнанбайұлы мен Ыбырай Алтынсарин қызметімен сабақтасса, Осман империясында Танзимат реформалары аясындағы жаңғыру қозғалыстарымен, Татарстанда Шиһабуддин әл-Маржани мен Ғабденнасыр Құрсави ілімдерінің ықпалымен, Орталық Азия мен ислам әлемінде Ризаэтдин Фахретдин, Мұхаммед Абдо, Жамаладдин әл-Афгани сияқты реформаторлардың қызметімен үндесті. Осы тұрғыдан алғанда, жәдидшілдіктің бір орталықтан тараған құбылыс емес, әртүрлі аймақтарда дербес қалыптасқан көпорталықты (полицентристік) қозғалыс екендігін шетелдік зерттеуші Адиб Халид ұсынған тұжырымдамамен байланыстыра қарастыру орынды. [5, 8].

Жәдидшілдер Ресей империясы құрамындағы мұсылман халықтарының әлеуметтік-мәдени жағдайын жақсарту мақсатында дәстүрлі мұсылмандық білім беру жүйесін жаңғыртуға бағытталған реформалар ұсынды. Бұл модернизациялық үдеріс медресе оқу бағдарламасын қайта құрылымдауды, оның мазмұнына орыс және еуропа тілдерін, жаратылыстану ғылымдарын, математика, география сияқты зайырлы пәндерді енгізуді көздеді. Осы арқылы білім беру жүйесін заман талабына бейімдеп, мұсылман қауымының зияткерлік әлеуетін арттыру мақсат етілді.

Орталық Азия кеңістігінде, әсіресе Бұқара аймағы, дәстүрлі діни білім мен жаңашыл ғылыми ізденістер тоғысқан өңір ретінде танылып, дін мен ғылымды ұштастыруға ұмтылған реформаторлық ой-пікірдің маңызды орталығына айналды.

Сонымен қатар бұл территория жәдидтік жаңашылдық пен сопылық ортодокс көзқарастарының теке-тірес ордасына да айналды [6, 57]. Шетел зерттеушісі Аллен Франктың пайымдауынша татар мен башқұрт жәдидтері Орта Азияда жаңа білімді таратуда алдына жан салмады [7, 181].

ала өлкесіндегі мұсылман қауымының әлеуметтік-көпшілік көңіл-күйі мен діни іс-шараларды өткізу мәселелері жөнінде ресми құжаттарда орыс халқы мен бұратана халықтар арасындағы құқықтық айырмашылықтар мен билік тарапынан жүргізіліп жатқан дискриминациялық практика ашық көрсетілген. Ішкі істер министрлігіне жолданған хатта Дала генерал-губернаторлығында 1914 жылдың сәуір айында мұсылмандық істерді қарастыратын құпия жиналыс өткізілетіндігі хабарланған. Аталған жиынға ресми билік өкілі ретінде А.Н. Неверов тағайындалған. Бұл қызметкерге мұсылман мәселелерін қарастыру барысында келесі ұсыныстар берілген: «Әкімшілік іс-шаралар бойынша мәселелерді талқылау кезінде ең алдымен православты орыс халқының жағдайы қамтамасыз етілсін, содан кейін ғана мұсылман халықтың әділ талаптары қарастырылуы тиіс. Халықтың басым бөлігі қазақтар болғандықтан, олар басқа мұсылман қауымдарына қарағанда фанатизмге бейім емес».

Осы құжаттық дерек билік пен жергілікті мұсылман қоғамының арасындағы әлеуметтік- құқықтық теңсіздікті, сондай-ақ ресми саясаттағы дискриминациялық ұстанымдардың көрінісін нақты сипаттайды.

Сондықтан қазақтарды басқа мұсылман халықтарымен біріктіретін ұйымдастырушылық орталықтардан оқшаулау керектігі нұсқалады [8,5 п.].

Патшалық өкіметтің мұндай саясаты ұлт жанашырларының намысына тиіп, жалпы қоғамның сана-сезімін оятып, тығырықтан шығар жол іздеуге итермелейді. Патшалық билік мұсылман газеттерінің сол замандағы ықпалы мен беделін ескере келе, қай аймақта мұндай газет-журналдар таралса, демек сол жердің халқы панисламизм мен пантюркизм шырмауында қалды деп тұжырымдаған. Мәселен Түркістанда «Ойна (Айна)» газетасы, «Седа-и-Фергана» (Ферғаналық дауыс») т.б. Мұсылмандық газета аймаққа келсе болды, ол жерге панисламизм мен пантюркизм идеялары таралып кетті деп ойлайтын болған [9, 37-38 пп.].

Мақаламыздың алдыңғы бөлімінде жалпы жәдидтік идеялар, жәдидтердің қызметі, жаңа оқыту жүйесі және осы үрдіске қатысты патшалық билік, жергілікті әкімшілік, қадымшыл молдалар және христиан миссионерлерінің ұстанымдары мен көзқарастары тікелей немесе жанама түрде талқыланған болатын. Келесі кезеңде назарды жергілікті қарапайым халық пен ұлт зиялыларының көзқарастарына аудару маңызды. Өйткені прогрессистік идеяны қоғамда жүзеге асыру тек халық арасындағы қолдауға сүйенген жағдайда ғана мүмкін болады; қолдаушылар мен сұраныс болмаса, ол идея деңгейінде қалып, практикалық мағынадан айырылып қалады.

онымен қатар, молдалардан алғашқы сауатын ашқан Алаш зиялылары сол кезеңдегі әлеуметтік өзгерістер мен қоғамдағы сұраныстардан хабардар болды және болашақты болжай білді. Ресей империясынан келген жаңа мәдени және білімдік үрдістердің мәнін түсініп, оны қазақ жерінде кеңінен таратуға ықпал етті, осылайша жәдидтік идеялардың қоғамдағы практикалық жүзеге асуына жағдай жасалды.

Мысалы, А. Байтұрсыновтың: «усул жәдид, яки төте оқу жолы бар екенін білеміз, бірақ сол жол қазақ арасында аз таралған соң, біздің мақсатымыз да – сол оқуды қазақ арасына көбірек жаю», – деп жазғаны бар [10, 10].

Әртүрлі басылым беттерінде жарияланған прогрессистік идеялар халық арасында кең қолдау тапты. Жаңа әдісті оқытудың артықшылықтарын түсінген консервативтік ұстанымдағы молдалар да біртіндеп осы әдісті енгізуге бет бұрды. Нәтижесінде, дәстүрлі қадымдық мектептер мен медреселер де біртіндеп жаңа форматтағы оқыту жүйесіне көшуге мәжбүр болды.

Осы үрдістің көрінісі ретінде зерттеуші Н.А. Бобровников өз жазбасында былай деп жазады: «Ресей империясы аумағындағы әртүрлі деңгейдегі мұсылмандық білім орындары еуропалық үлгідегі жәдидтік оқыту жолына бағытталып отырғанын дәлелдейтін деректер бар. Алайда бұл мектептер мен медреселер бір мезетте еуропалық құрал-жабдықтармен немесе оқушылардың стандартталған формасымен сипатталмайды. Дәстүрлі мұсылмандық келбет сақталғанымен, заманауи педагогикалық тәсілдерді меңгерген жаңа мұғалімдер саны көбейіп, алдыңғы қатарлы кітаптар кеңінен таралуда. Бұл процесс кейінгі уақытта да ауқымды түрде жалғасатыны даусыз. Сондықтан болашақта мұсылмандық мектептерді қадымдық және жәдидтік деп бөлу дәстүрлі сипатта дұрыс болмайды».

Осы сипаттағы үрдістер жәдидтік білім реформасының қоғамдағы ықпалы мен дамуының динамикасын көрсетіп, дәстүр мен жаңашылдық арасындағы өтпелі кезеңді ғылыми тұрғыдан бағалауға мүмкіндік береді. Олардың өзара айырмашылықтары жойылып, ортақ, біртұтас стильге көшуде» [11, 38 п.].

Осы орайда шетел ғалымы Девин Девизбен (Devin DeWeese) келісуге тура келеді. Ол «О мифах и клише, окружающих исследования джадидизма. Ложные дихотомии» атты еңбегінде тарих ғылымында қалыптасқан өзара қарама-қайшылықтарды, түсініктерді бір-біріне қарсы қою арқылы тарихи оқиғаны түсіндіру әдіснамасына қарсы шығады. «...искажающие исследования джадидизма, это «свет и тьма», «новое – старое», «прогресс – регресс»,

«светскость – религиозность и т.д.», – деп жәдидтік қозғалыстың дамуына байланысты жаңаша көзқараспен қарау керектігін жазған. Ал XVI ғ. бастап тимуридтер дәуірінен кейін жәдидтік идеяның пайда болуына дейінгі мерзімі жағынан ұзақ уақытты тек «қараңғылық», «оқшаулану» дәуірі деп атап өту дұрыс еместігін айтады [12].

Ұлттық сана-сезімді ояту және жергілікті халық арасында тәуелсіздік идеяларын насихаттау әрекеттері полиция органдарының ерекше бақылауында болды. М. Дулатовтың «Оян, қазақ» брошюрасының таралуы ресми биліктің алаңдаушылығын тудырды, себебі халық оны жаппай сатып алып, оқи бастады. Полицияның хабарламасында бұл брошюраға қатысты мынадай тұжырым жасалған: «Өлеңмен және көркем тілмен жазылған «Оян, қазақ» брошюрасы тіпті аударып қараған адамның өзінде белгілі әсер қалдырады; оның мазмұны орыс өкіметіне қатысты наразылықты қозғауға бағытталған және панисламизм идеяларын тудыра отырып, император саясатына қарсы шығуды насихаттайды».

Жәдидшілдік қозғалысының Исмаил Гаспралы қатысуымен қарқынды дамуы патша өкіметі үшін күтпеген белсенділік ретінде көрінді. Зерттеуші Н.Д. Нұртазина өз еңбегінде бұл жағдайды былай сипаттайды: «Жәдидтерге айналған орыс мектептерінің түлектері миссионерлер күтпеген, Ресей империясының жоспарына кереғар мәдени, кейіннен саяси салдар тудырды. Біріншіден, олар білімге құштарлығы, ерекше дарындылығы және сүйкімді мінез-құлықтары арқылы қарапайым орыс педагогтарын таң қалдырып, олардың көңілін еріксіз баурады. Сол себепті оқытушылардың ұсыныстары бойынша олар әртүрлі мемлекеттік шәкіртақылар мен демеулерге ие болып, гимназияларда және университеттерде білімдерін жалғастыруға мүмкіндік алды. Нәтижесінде олар жасанды тосқауылдарды бұзып өтіп, жаңа ұлттық интеллигенцияны қалыптастырды, ол сол кезеңдегі құжаттарда «жаңа мұсылман интеллигенциясы» деп те аталған» [13,176].

Қазақ жерінде XIX ғасырдың аяғы мен XX ғасырдың басында қалыптасқан мұсылмандық білім беру жүйесі мен ұлттық интеллигенция өкілдеріне жәдидтік идеяның ықпалы айтарлықтай болды. Нәтижесінде балаларды оқыту, арнайы мектептер ашу, қажетті оқу құралдарын басып шығару сияқты іс-шаралар қарқынды дамыды. Халықтың көзі, құлағы және тілі қызметін атқаратын газет-журналдар қолға алынып, типография мен кітап басу ісі кеңінен өркендеді. Жәдидтік қозғалыс өкілдері жергілікті ұлттар арасынан қолдау тауып, өз ықпалын арттырды. Ағартушылық қызмет аясында көзі ашық, көкірегі ояу, ұлтжанды азаматтар халқының жарқын болашағы үшін күресуде жаңа серпін алып, ресми биліктің қысымына қарамастан елін рухани оятуға бар күш-жігерін жұмсады және нәтижелі қызмет атқарды.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1.Қамзабекұлы Д. Жәдитшілдік – ұлттық рухани серпілу негізі // Ақиқат. – 2008, қаңтар. – №1. – 29-37 б.

2.Bazarbayev K.K., Gumadullayeva A., Rustambekova M. Jadidism Phenomenon In Central Asia // Procedia - Social and Behavioral Sciences. – 2013. – (89). – P. 876-881.

3.Bazarbayev K.K., Tursun H., Sadykova R. Jadidism as an Educational System and a Political Movement in Turkestan (Central Asia) // International Education Studies. – 2013. – Vol. 6. – №1. – P. 85-94.

4.Bazarbayev K.K., Zhoraeva G., Zulpiharova E. The politicization of the Jadid movement in Turkestan (Central Asia) // The Online Journal of New Horizons in Education. – 2015. – Vol.5. – issue 3. – P. 115-123.

5.Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1999. – 336 p.

6.Қасымбекова М.А., Жеңіс Ж.Ж., Жұматай С. Орталық Азияда сопылық орденнің пайда болу тарихына қатысты кейбір мәселелер // Отан тарихы. – 2025. – Т. 28. – No 1. – 52-62-бб. (ағыл.).

7. Frank, Allen J. Bukhara and the muslims of Russia: Sufism, education, and the paradox of Islamic prestige. – Dabvers: Brill Academic Pub, 2012. – 215 p.

8.ҚР ОМА. 64-қ., 1-т., 2674-іс. – 5 п.

9.ӨР ОМА. И-461-қ., 1-т., 1471-іс. – 37-38 пп.

10.Қамзабекұлы Д. Жәдитшілдік және Исмайыл Гаспыралы құбылысы // Астана ақшамы. – 2009. – №126(2447). –10 б.

11.ӨР ОММ. И-1-қ., 31-т., 943-іс. – 37 п.

12.Девин ДеВиз. О мифах и клише, окружающих исследования джадидизма // [Электронный ресурс]. URL:https://caa-network.org/archives/6780. – қаралды 16.11.2024.

13.Нұртазина Н.Д. Қазақ мәдениеті және ислам (тарихи-мәдениеттанулық зерттеу). – Алматы: ҚазМӨҒЗИ, 2002. – 208 б.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI VA MA’RIFATLI JAMIYAT MODELI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich

BuxDPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy asosi va “adolat” tushunchasining o‘sha davr sharoitida juda dolzarb masala sifatida ko‘tarilgan. Jadidchilik harakati markazida inson ongini yangilash, bilim va ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasi yotadi. Uning ijtimoiy-falsafiy asosi, bir tomondan, an’anaviy diniy ta’limotlar va musulmon dunyosining boy intellektual merosi, ikkinchi tomondan, Yevropa ma’rifatparvarlik falsafasi va modernizatsiya g‘oyalari bilan uyg‘unlashuvidan shakllandi. Jadidlar ushbu sintez orqali o‘z jamiyatlarining chuqur inqirozini tushunishga va unga mahalliy, ammo dunyoviy asoslangan yechim topishga intilishdi. Ular ta’lim-tarbiyani har qanday taraqqiyotning poydevori deb hisoblab, eski uslubdagi maktablarni tanqid qilish bilan birga, “usul-i jadid” – yangi usulni joriy etishni tarqatdilar. Bu nafaqat pedagogik islohot, balki butun bir dunyoqarashni o‘zgartirishga qaratilgan qadimiy an’analarni modernizatsiya qilish harakati edi.

“Jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning adolatli jamiyat qurish borasidagi orzu-intilishlari bugungi kunda biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.”[1] -deb takidlaydi, Prezident Sh.Mirziyoyev.

Jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat o‘sha davr uchun, balki kelajak uchun chuqur ma’noli dastur edi. Ular xalqni johillik qorong‘uligidan chiqarish, har bir insonning ongini yoritish orqali jamiyatni asosdan yangilashga intildilar. Ularning fikricha, chinakam adolatli jamiyat faqat bilimli, ma’naviy barkamor va dunyoqarashi keng avlodlar qo‘lida barpo etilishi mumkin edi. Ana shu ideal bugungi kunimizda “Yangi O‘zbekiston”ning intellektual poydevoriga aylanib, davlatimizning ma’naviy tiklanish va rivojlanish strategiyasining yurak qismiga aylandi.

Ularning adolatli jamiyat qurish borasidagi orzu-intilishlari chin dindorlik, insonparvarlik va ma’rifatning uyg‘unlashuvidan iborat edi. Jadidlar barcha fuqarolar, qaysi millat va dinlarga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, huquq va imkoniyatlar tengligiga asoslangan ijtimoiy tartibni orzu qilganlar. Bu g‘oya bugun bizning jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishini belgilab bermoqda hamda huquqiy davlat qurish, inson huquqlarini kafolatlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan.

Ma’rifatparvar jadidlarning merosi bugungi ta’lim tizimimizni isloh qilishda ham o‘z aksini topmoqda. Ularning “Yangi usul” maktablariga bo‘lgan sadoqati, an’anaviy diniy bilim bilan dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirishga urinishlari zamonaviy bilimli, kreativ va raqobatbardosh yoshlar tarbiyalash dasturlarimiz uchun qimmatli manba hisoblanadi. O‘quv dasturlarini yangilash, jahon bilimlarini o‘zlashtirish bilan birga milliy qadriyatlarni saqlash tamoyili bevosita jadidona fikrlashning davomi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, jadid bobolarimizning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalari madaniyatimizning o‘ziga xosligini saqlab, uni dunyoviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidan bordi. Bu yo‘nalish bugun “Yangi O‘zbekiston”ning madaniy siyosatida aniq ko‘rinadi. Buyuk tarixiy merosimizni asrab-avaylash, dunyoning madaniy yutuqlarini o‘rganish va xalqimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini targ‘ib qilish bir butun holda amalga oshirilmogda. Bu borada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatimizning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan.

Demak, jadidlar bizga nafaqat ma’rifat, balki ma’naviy barkamorlik va tinchlikda yashash uchun zarur bo‘lgan donishmandlikni meros qoldirdilar. Ularning vasiyati bugun mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirish, uni halol va farovon, adolatli jamiyat qilish yo‘lidagi har bir qadamimizga yo‘l ko‘rsatmoqda. Ulaming g‘oyalari bugungi davr talablari bilan uyg‘unlashib, milliy taraqqiyotimizning yorqin chirog‘i bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda.

Mazkur harakatning falsafiy jihati “adolat” tushunchasiga yangi talqin kiritish bilan chambarchas bog‘liqdir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston va Qrim, Idil bo‘yi kabi mintaqalar qattiq ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy bosim ostida edi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining huquqlarini cheklab, iqtisodiy va siyosiy adolatsizliklarni keltirib chiqardi. Shu sharoitda

jadidlar uchun “adolat” nafaqat diniy yoki axloqiy tushuncha, balki jamiyatning haqiqiy taraqqiyoti va ozodligi uchun zarur bo‘lgan konkret ijtimoiy tamoyilga aylandi. Ular adolatni faqat qonun oldida tenglikda emas, balki har bir insonning bilim olish, taraqqiy etish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatlariga teng ega bo‘lishida ko‘rdilar. Shu sababli, ularning kurashi ma’rifat orqali adolatga erishish yo‘li edi.

“Adolat” g‘oyasining o‘sha davr sharoitidagi dolzarbligi, u qanchalik ko‘p qatlamli muammolarga javob berishga qodir ekanligidadan namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u ichki ijtimoiy adolatsizlikka – nodonlik, qoloqlik, ayollarning huquqsiz holati va madaniy izolyatsiyaga qarshi kurash vositasi edi. Ikkinchidan, u tashqi siyosiy va iqtisodiy adolatsizlik – mustamlaka zulmi va madaniy assimilyatsiyaga qarshi turishning mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar “adolat”ni milliy o‘zligini saqlab qolgan holda zamonga moslashish, ya’ni modernizatsiya va an’anani muvozanatlashtirish kaliti sifatida ko‘rishgan. Isloh qilingan ta’lim tizimi orqali yoshlarga nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarni, chet tillarini o‘rgatib, ularni zamon talablariga tayyorlash, shu bilan birga milliy madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash, mana shu muvozanatni ta’minlashga xizmat qilar edi.

Jadidlar ijtimoiy adolatni nafaqat abstrakt etik qadriyat, balki tarixiy rivojlanishning muayyan bosqichida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan konkret vazifa sifatida tushungan. Ular buni insoniyatning ma’rifat yo‘li bilan taraqqiy etish jarayonining ajralmas qismi deb hisoblagan. Shu nuqtai nazardan, ularning qarashlarida ijtimoiy adolat – bu jamiyatning barcha a’zolari uchun bilim olish imkoniyatlarining ochilishi, hur fikrlash qobiliyatining shakllanishi va shu orqali insonning o‘z huquqlarini anglab yetishi asosida barpo bo‘ladigan tenglikdir. Ma’rifat esa nafaqat savodxonlik va zamonaviy fanlarni o‘zlashtirish, balki jamiyatdagi adolatsizlik, zo‘ravonlik va madaniy orqada qolish holatlarini tanqidiy idrok etish qudratidir. Demak, bu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq va ma’rifatsiz adolatning, adolatsiz ma’rifatning mazmuni yo‘q edi.

Jadidlarning milliy taraqqiyot modeli shu tamoyillar asosida qurilgan. Ular an’anaviy jamiyat tuzilmalarining qattiq ierarxiyasi va ijtimoiy harakatchanlikning deyarli yo‘qligini tanqid qilgan holda, yangi, o‘zgarishlarga ochiq va dinamik ijtimoiy tartibni ilgari surdilar. Ushbu modelda milliy taraqqiyot nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki, birinchi navbatda, har bir inson shaxsiyatining erkin rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish darajasi bilan o‘lchanadi. Jadidlar uchun asosiy to‘siq nafaqat siyosiy mustabidlik, balki aql-idrokning uyqu holati, jamiyat ichidagi hur fikrning yo‘qligi edi. Shuning uchun ularning islohotlari diniy-amaliy sohani emas, balki ong sohasini – ta’lim, tarbiya, adabiyot va ommaviy axborot vositalarini qamrab olishi kerak edi.[2]

Ijtimoiy islohotlar haqidagi ularning qarashlari ham ushbu tarixiy va ma’rifiy printsip asosida shakllangan. Jadidlar tubdan o‘zgarishlarning asta-sekin, ammo izchil va tizimli tarzda amalga oshirilishini tarafdori edilar. Buning uchun ular avval “yangi maktab” (usuli jadid) ni – yangi usuldagi ta’lim muassasalarini yaratdilar, chunki bu kelajak ziyolilar avlodini tarbiyalashning asosiy manbai edi. Keyingi bosqichda ular jamiyatning boshqa qatlamlarini – savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlarni ma’rifatli qilish, ularni zamonaviy dunyoqarash bilan tanishtirishni

ko‘zladilar. Islohotlar nafaqat ta’lim sohasida, balki oila munosabatlarida, ayollarning jamiyatdagi o‘rnida, iqtisodiy faoliyatning zamonaviy shakllarini joriy etishda ham amalga oshirilishi lozim edi. Bularning barchasi maqsadi – inson qadr-qimmatini oshiruvchi, aql va bilimga asoslangan adolatli jamiyatni barpo etish edi.

Jadidlar merosi ma’naviy makon yaratishda beqiyos rol o‘ynagan. Ular yangi davr talablariga mos, o‘ziga xos madaniy va ma’naviy identifikatsiyani shakllantirishga hissa qo‘shdilar. Bu makon mahalliy an’analar va Islom qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan holda, modernizm va dunyoviy bilimlarni singdirgan edi. Jadidlar ma’rifatni ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, ma’naviy barkamol inson – dono, axloqli va jamiyat farovonligi uchun faol harakat qiluvchi shaxs g‘oyasini ilgari surdilar. Shu orqali ular jamiyatni nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham boyitishga, uning ma’naviy immunitetini mustahkamlashga intilishdi.[3]

Jadidlar faoliyatining muhim jihati shundaki, ular ma’naviy yangilanishni jamiyatning barcha qatlamlari uchun ochiq va qamrab olishi kerak bo‘lgan jarayon deb bilishgan. Xalq og‘zaki ijodi, musiqasi, adabiyoti va san’atini yangi mazmun bilan boyitishga harakat qilishdi. Bu esa o‘ziga xos, hayotiy va rivojlanuvchi madaniy muhitni vujudga keltirdi. Shunday qilib, ularning merosi nafaqat o‘tmishga qaytish, balki an’analarni zamon bilan uyg‘unlashtirgan holda kelajakni barpo etishga qaratilgan edi. Bu ma’naviy makon bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, chunki u hamjihatlik, bilimga hurmat va ijtimoiy adolat g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidlar dunyoqarashida “ijtimoiy adolat” va “ma’rifat” tushunchalari nafaqat mavhum g‘oyalar, balki o‘z davrining aniq ijtimoiy, madaniy va ma’naviy muammolariga javoban shakllangan amaliy dastur negizini tashkil etadi. Ular tarixiy jarayonni milliy taraqqiyotning muqarrar yo‘nalishi sifatida ko‘rib, uning uchun zarur bo‘lgan intellektual va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratishga intilishdi. Ularning qarashlarida milliy o‘zligini saqlab qolgan holda jahon sivilizatsiyasining yutuqlarini o‘zlashtirish, an’ana va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish asosida qurilgan yangi jamiyat modeli aks etgan. Ana shu model ularning butun ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy faoliyatining yo‘l-xaritasi bo‘lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, jadidchilik harakati “adolat”ni mavhum ideal emas, balki amaliy maqsad – jamiyatni ma’rifat va ongli islohotlar yo‘li bilan o‘zgartirish jarayonining markaziy tamoyili qilib ko‘rsatdi. Bu ularni nafaqat muhofazakor an'anachilar, balki hatto ba’zi ziyolilar tomonidan ham tangid qilinishiga sabab bo‘ldi, chunki u o‘sha davrning murakkab jarayoni va keskin qarama-qarshiliklari fonida jamiyatni izchil yangilashga chaqiruvchi edi. Jadidlar ishlari va g‘oyalari orqali “adolat” tushunchasiga qo‘shgan ularning hissasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 216.

2. D.Alimova. “Jadidchilik harakati: genezisi, rivojlanishi va taqdiri”. Toshkent: “Akademiya”, 2000.

3. B.Qosimov. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002.
4. A.Zamonov. “Jadidlar: islohot, yangilanish va mustaqillik uchun kurash”. Toshkent: “Info Capital Group”, 2019.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA AHMAD DONISH ASARLARINING MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR HAMDA MA’RIFATLI JAMIYAT, YANGI MA’NAVIY MAKON YARATISHGA OID G‘OYALARNING AKS ETISHI

Jamolova Lubat Ilhomovna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, — dedi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. “Navodir ul-vaqoye” XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yashab, ijod etgan taniqli yozuvchi, mutafakkir, ajoyib inson Ahmad Donishning yirik falsafiy, ilmiy, axloqiy, estetik, badiiy-publitsistik asaridir. Mazkur asarda o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, falsafiy-axloqiy, estetik va hokazo masalari bayon etilgan. Ushbu kitob badiiy-publitsistik stilda, sodda, tushunarli, xalq tilida yozilgan; unda qiziqarli uslubdagi novellalar shaklida hikoya hamda qissalar ko‘p. Bu esa, asarning qimmatini yanada oshiradi, uning o‘qilishini yanada yengillashtiradi.

Ahmad Donishning pedagogik, axloqiy-axloqiy, falsafiy va islohotchilik dunyoqarashi oiladagi tarbiya va uning hayot muhiti, Turkiston xalqlari mushtarak madaniyatining eng yaxshi an’analari asosida shakllangan. Buxoro maktablarida sxolastik o‘qitish usullari o‘quvchilarning o‘qishni davom ettirishga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirib yubordi. Yoshlar 20 yil davomida faqat diniy fanlar va arab grammatikasini o‘rganib, boshqa fanlar bilan tanishish imkoniyatidan mahrum bo‘ldilar. Deyarli barcha dunyoviy fanlar o‘quv dasturidan chiqarib tashlandi.

Xalqimizning Ahmad Donish va boshqalar kabi qator mutafakkirlarining Yevropa, Rossiya, Eron, Turkiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarga qilgan sayohatlari ham dunyoqarashining kengayishiga, yangi ilg‘or tafakkurining uyg‘onishiga xizmat qildi. Sayohatlaridan qaytgach, ular ilm-fan va texnikani rivojlantirish borasidagi faoliyatini faollashtirib, eski ta’lim tizimini isloh qilishga chaqirdilar.

Ahmad Donish mutafakkir va pedagog sifatida ta’lim va tarbiyaning sxolastik tizimidan, ayniqsa, o‘quvchilarni jismoniy jazolash kabi “usullar”dan norozi edi. Ahmad Donishning eng katta xizmatlaridan biri Buxoro maktab va madrasalarida o‘qitish uslublarini tanqid qilish, Buxorolik ruhoniylarning rasmiy vakillari, ulamo deb atalgan shaxslarni tanqid qilishdir.

Ahmad Donishning buyuk – qomusiy olim sifatida shakllanishi nafaqat

Buxoroning an’anaviy maktab va madrasalarida o‘qiganligi, balki, avvalo, bukilmas irodasi, madrasalarda olgan bilimlaridan qoniqmasligi, mustaqil o‘rganishi tufayli sodir bo‘ldi. Mutafakkir o‘z hayotiy tajribasiga tayanib, farzandlari va izdoshlarini o‘zi belgilab bergan bilim va ilmlarni egallash yo‘lidan borishga undaydi.

Ahmad Mahdum Donish o‘sha davr va jamiyatdagi ko‘plab qarama-qarshilik va nomuvofiqliklarni o‘z dunyoqarashi doirasida ko‘rgan va baholagan. Uning tarbiyaviy g‘oyalari o‘zining barcha cheklanganligiga qaramay, shubhasiz, o‘sha davr uchun yangi, ilg‘or g‘oyalar bo‘lib, jamiyatning ilg‘or kuchlariga ham xizmat qilgan.

Ahmad Donish oila qurish va mustahkamlash, umr yo‘ldosh tanlash haqida gapirar ekan, erkak kishiga bir qancha shartlarni qo‘yadi. Birinchidan, erning biron bir hunarmandchiligi va o‘z uyi bo‘lishi kerak. Shundan keyingina u nikoh haqida o‘ylashi mumkin. Barqaror va mustahkam oilada er va xotinning bir-birining maslahatini tinglash, suhbat va nizolarni to‘g‘ri olib borish qobiliyati katta rol o‘ynaydi. Binobarin, mutafakkir bu masalada erkaklardan tuyadek qo‘pol va qaysar bo‘lmaslikni, balki mehr va ezgu so‘zlarga murojaat qilib, xotinlar qalbiga shodlik, yorug‘ umid urug‘ini ekishni, toki ayol undan o‘zaro ishonch asosidagi oila qurishni istaydi va buning natijasida ularning sevgisi yanada kuchayadi.

Bu masala bilan bog‘liq holda yozuvchi hokimiyat va amirlarning ahvolini ayanchli deb hisoblaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, ular bolaligida o‘qituvchilaridan qo‘rqmagan, aksincha, o‘qituvchilar ularning g‘azabidan qo‘rqishgan. Chunki ayni shu paytda ta’lim-tarbiya avvalo qattiq jazolash yoxud urish (jismoniy tazyiq) asosida olib borilgan. Shuning uchun ular nafaqat to‘g‘ri jismoniy tarbiyaning afzalliklarini yo‘qotdilar, balki to‘g‘ri axloqiy tarbiya ham olmaganlar.

Ahmad Donishning vatanparvarlik qarashlarining shakllanishiga kelsak, bu yerda Firdavsiy va uning “Shohnoma”sining unga ta’siri katta rol o‘ynaydi.

Firdavsiyning vatanparvarlik qarashlarini aniqlash uchun, bizningcha, tadqiqotchi “Shohnoma” she’rlaridan birini tahlil qilishi kifoya. Ammo Ahmad Donishning vatanparvarlik qarashlarini tahlil qilish uchun “Nodir voqealar”ni ham, adibning “Tarixiy risola”sini ham keng qamrovli tadqiqotga jalb etish zarur.

Ahmad Donishning vatanparvarlik mulohazalarining mazmuni bolalar va yoshlar ongida yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish yo‘llarini izlash, yoshlar va askarlarni jismoniy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – Vatanni himoya qilish, tanqidchilik kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Mang‘it amirlarining oriy xalqlari davlatlari bilan solishtirganda boshqaruv usullari, o‘lkani obod qilish va uni sug‘orish muammolari, xalqqa baxtsizlik va halokat olib keladigan tengsiz urushning oldini olish, o‘z ona yurtiga g‘amxo‘rlik qilish va boshqalar. Mutafakkir bu savollarni “Nodir hodisalar” va “Tarixiy risola”ning ikkinchi va uchinchi boblarida ko‘proq ko‘rib chiqadi.

Ahmad Donish vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish yo‘llaridan birini mard jangchilarning xizmatlarini e’tirof etish, Vatan himoyasi yo‘lidagi janglarda halok bo‘lgan askarlarning farzandlari va boshqa oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda ko‘rgan. Yozuvchining so‘zlariga ko‘ra, halok bo‘lgan askarlarning o‘g‘illari, agar shunga mos keladigan bo‘lsa, otalari lavozimiga tayinlanishi kerak. Agar ular xat yozishmasa, "shunday bo‘lsa ham, moddiy manfaatlarni, stipendiyalari

va ularni ish bilan taminlamang, toki boshqalarda qiziqish uyg‘otsin, xotinlari va bolalari haqida qayg‘urmasinlar va ular shubhalanmasliklari uchun, ular nima uchun va kim nomi uchun o‘z jonlarini fido qiladilar? (“Navodir ul-vaqoye”.142-b).

Darhaqiqat, bunday munosabat, bir tomondan, yetim va boshqa bolalar qalbida ota-bobolarining qahramonligidan faxrlanish, o‘z Vataniga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘ota olgan.

Mutafakkir vatanparvarlik tuyg‘usini oshirishning yana bir yo‘lini harbiy xizmatga kirgandan so‘ng unga besh yuz dirham nafaqa berish zarurligidan ko‘rgan. Otishni o‘rgangach, to‘lovni olti yuz dirhamga oshiring... Nihoyat, jangchi qo‘mondonlik darajasiga yetib, oliy harbiy unvonlar olganida uning maoshi kamida 12 ming tanga bo‘lsin,- deb ta’kidlaydi (“ Navodir ul-vaqoye”, 135-b).

Ahmad Donishning fikricha, agar amir xizmat uchun to‘lanadigan pulni biroz kamaytirsa, bu askarlarning dangasaligiga va harbiy intizomning zaiflashishiga sabab bo‘ladi.

Qolaversa, mutafakkir hukmdorlar urush davrida nafaqat jangchilarni, balki butun xalqni otishma san’atini puxta egallashga undashini taklif qiladi. “Buning ma’nosi shundaki, erkaklar otish uchun qurol tayyorlaganlarida, ayollar ham bu borada qandaydir ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Shunday qilib, ular ham kerak bo‘lsa, vatan dushmanlariga qarshi harakat qilishga tayyor bo‘ladilar...” (“ Navodir ul-vaqoye”, 25-b).

Donishning xotin-qizlarning jasoratiga bo‘lgan bu ishonchi Firdavsiyning “Shohnoma”sida Vatan himoyachisi ayollar obrazining idrok etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mutafakkir allomaning har bir asarida juda ko‘plab kerakli mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan tushunchalarga ega bo‘lamiz. Uning qarashlarida haqiqatparastlik, adolatpeshalik bilan bir qatorda vatanparvarlik, oila tushunchasiga bo‘lgan sodiqligini ham kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoye”,Fan,Tosh.1964.4-b.

2. Rahmon Muiniy. Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, “Buxoro nashriyoti”. 2007-yil, 36-bet.

3. Hoji Muiniy. “Ahmad Donish hayoti haqida” 2007 yil, 6-8-betlar.

4. Sadriddin Ayniy “Namunajahon adabiyoti tojik”. M., - 1926y.7-b.

5.Sh.M.Mirziyoyev. Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang”

KREATIV FIKRLASH VA JADIDLAR MA’RIFIY MEROSI

Rizoyeva Muslima Raxmonovna

BuxDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifat, yangi fikrlash va

zamonaviy ta’limni ilgari surdilar. Bugungi kunda ta’lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayon aslida jadidlar faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Ular jamiyat muammolariga yangicha yondashgan, yangi maktablar ochgan va innovatsion pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan.

Kreativ fikrlash zamonaviy pedagogika, psixologiya va innovatsion ta’lim tizimining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat rivoji nafaqat mavjud bilimlarni egallash, balki yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish hamda yangilikka ochiq bo‘lish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ta’lim jarayonida shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

“Kreativlik” atamasi ingliz tilidagi “create” – yaratmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yangi g‘oya, original yechim yoki innovatsion mahsulot yaratish qobiliyatini anglatadi. Kreativ fikrlash esa insonning mavjud bilim va tajribalariga tayangan holda muammolarga yangicha yechim topa olish, bir vaziyatga turli nuqtai nazardan qaray olish hamda original g‘oyalarni ilgari surish jarayonidir [9].

Ilmiy adabiyotlarda kreativ fikrlashga turlicha ta’riflar berilgan. Masalan, psixolog olim E.P. Ilyin kreativlikni shaxsning yangilik yaratishga qaratilgan intellektual faoliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, kreativlik jarayonida inson tasavvur, fantaziya, assotsiativ tafakkur hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini faol qo‘llaydi [6]. Pedagogik tadqiqotlarda esa kreativ fikrlash shaxsning muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topa olishi, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishi va mavjud bilimlarni yangicha talqin qilishi bilan izohlanadi.

Kreativ fikrlash bir nechta muhim komponentlardan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iborat: original fikrlash – yangi va noodatiy g‘oyalar yaratish qobiliyati; moslashuvchan tafakkur – muammoga turli nuqtai nazardan qarash imkoniyati; erkin tasavvur – fantaziya va obrazli fikrlashning rivojlanganligi; muammoga yechim topish – vaziyatni tahlil qilish va yangi usullarni taklif etish.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida kreativ fikrlash XXI asr kompetensiyalarining muhim elementi sifatida e’tirof etiladi. Shaxsning kreativligi uning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, innovatsion faoliyatga tayyorligi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois maktabgacha ta’limdan boshlab bolalarda tasavvur, fantaziya, erkin fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Kreativ fikrlash – bu shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish, mavjud bilimlarni yangicha qo‘llash va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan murakkab intellektual jarayondir. Ta’lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid mutafakkirlari o‘z davrining dolzarb muammolarini chuqur anglab, ularga yangicha yondashuv asosida yechim izlaganlar. Bu jarayon ularning faoliyatida kreativ fikrlash elementlari keng namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Avvalo, jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari kreativ fikrlashning yorqin namunasidir. Ular an’anaviy maktab tizimini tanqid qilib, yangi usulda ta’lim berishni yo‘lga qo‘ydilar. “Usuli jadid” maktablarida darslar fonetik usul asosida tashkil etildi, yangi fanlar – geografiya, matematika, tabiiy fanlar, tarix va chet tillari

o‘qitila boshlandi. Bu o‘z davri uchun yangicha pedagogik yondashuv bo‘lib, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qildi.

Jadidlarning kreativ fikrlashi faqat ta’lim bilan cheklanib qolmadi. Ular matbuot, adabiyot va teatr orqali ham jamiyatni yangilash g‘oyalarini ilgari surdilar. Gazeta va jurnallar tashkil etilishi, sahna asarlarining yaratilishi hamda publitsistik maqolalar orqali xalqni ilm-ma’rifatga chorladilar. Masalan, jadid dramaturgiyasi jamiyatdagi muammolarni ochib berish, jaholatni tanqid qilish va yangi tafakkurni targ‘ib qilishga qaratilgan edi.

Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ilm-fan va ma’rifatni asosiy omil sifatida ko‘rdilar. Ular yosh avlodni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga va zamonaviy bilimlarni egallashga undadilar. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikada kreativ fikrlashni rivojlantirish tamoyillari bilan hamohangdir.

Shuningdek, jadidlar milliy madaniyatni saqlagan holda uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishga intildilar. Ular Sharq va G‘arb tajribasini qiyosiy o‘rganib, o‘z jamiyatiga mos yangi g‘oyalarni ishlab chiqdilar. Bu jarayon ham kreativ tafakkurning muhim belgilaridan biri – turli manbalardan foydalanib, yangi konsepsiyalar yaratish qobiliyatini namoyon etadi.

Jadidlar faoliyati Turkiston jamiyatida yangicha fikrlash madaniyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi islohotlari kreativ fikrlashga asoslangan bo‘lib, bugungi kunda ham ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jadid mutafakkirlari zamonaviy bilimlarga asoslangan yangi ta’lim modelini yaratishga harakat qildilar. Ularning pedagogik qarashlari o‘z davri uchun innovatsion bo‘lib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va jamiyatni ma’rifatli qilishga qaratilgan edi.

Avvalo, jadid pedagogikasining asosiy innovatsion jihatlaridan biri yangi o‘qitish metodlarini joriy etish bilan bog‘liqdir. An’anaviy maktablarda o‘qitish asosan yodlash va matnni takrorlashga asoslangan bo‘lsa, jadidlar ta’lim jarayonida tushunishga, fikrlashga va faol o‘rganishga katta e’tibor qaratdilar. “Usuli jadid” maktablarida fonetik usul asosida savod o‘rgatish joriy etilib, bu usul bolalarning tez va samarali savod chiqarishiga imkon yaratdi.

Ikkinchidan, jadid pedagogikasida fanlar integratsiyasi va dunyoviy bilimlarning kengaytirilishi muhim o‘rin tutadi. Jadid maktablarida diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar va chet tillari ham o‘qitila boshlandi. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni zamonaviy hayotga tayyorlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, jadid pedagogikasining innovatsion jihatlaridan yana biri ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligidir. Jadidlar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham katta ahamiyat berdilar. Bu yondashuv o‘quvchilarning hayotiy tajribasini boyitib, ularni mustaqil fikrlashga undagan.

To‘rtinchidan, jadid mutafakkirlari o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy va intellektual

rivojlanishini ham ta’minlashi lozim. Bu g‘oya zamonaviy pedagogikada keng qo‘llanilayotgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga yaqin hisoblanadi.

Beshinchidan, jadidlar ta’limni rivojlantirishda matbuot va madaniyat vositalaridan foydalanishga ham alohida e’tibor qaratdilar. Gazeta va jurnallar, teatr sahnalari, adabiy asarlar orqali ular xalqni ilm-ma’rifatga chorladilar. Bu esa ta’lim jarayonini faqat maktab bilan cheklab qo‘ymasdan, jamiyat miqyosida ma’rifiy harakatni shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, jadid pedagogikasining yana bir muhim xususiyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligidir. Jadid mutafakkirlari milliy an’analarni saqlagan holda, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirishga harakat qildilar. Bu yondashuv ta’lim tizimining yangilanishiga hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham shaxsni har tomonlama rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kabi tamoyillar muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan qaraganda, jadid pedagogikasi g‘oyalari zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Jadidlar ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rgan bo‘lsalar, bugungi kunda ham ta’lim davlat va jamiyat rivojining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar bugungi zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ta’limni modernizatsiya qilish, yosh avlodni mustaqil fikrlashga undash hamda ilm-ma’rifatni rivojlantirishga qaratilgan qarashlari hozirgi davrda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jadid pedagogikasi va zamonaviy ta’limning o‘xshash jihatlari

Jadid pedagogikasi g‘oyalari	Zamonaviy ta’limdagi aks etishi
Usuli jadid maktablari	Innovatsion va interfaol ta’lim metodlari
Savod o‘rgatishda fonetik usul	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar
Dunyoviy fanlarni o‘qitish	Fanlar integratsiyasi va STEAM ta’lim
Mustaqil fikrlashni rivojlantirish	Kreativ va tanqidiy tafakkurni shakllantirish
Ta’lim orqali jamiyatni rivojlantirish	Ta’limning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati
Milliy qadriyatlarni saqlash	Milliy va global kompetensiyalar uyg‘unligi

Jadidchilik harakati ta’lim tarixida muhim burilish yasagan pedagogik hodisalardan biridir. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar – yangicha o‘qitish metodlari, dunyoviy bilimlarni kengaytirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ta’lim orqali jamiyatni modernizatsiya qilish – bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy tamoyillari bilan hamohangdir. Shu sababli jadidlar merosini o‘rganish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida muhim ma’rifiy va ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etiladi. Jadid mutafakkirlari o‘z davrida jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan, ta’lim va ma’naviy yuksalishni asosiy omil sifatida ko‘rsatganlar. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimi, ma’naviy hayot hamda jamiyat rivojida muhim o‘rin tutadi.

Avvalo, jadidlar merosi milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashda katta ahamiyatga ega. Jadid mutafakkirlari xalqni jaholatdan chiqarish, milliy madaniyat va qadriyatlarni rivojlantirish hamda ilm-ma’rifat orqali jamiyatni taraqqiy ettirish g‘oyalarini ilgari surganlar. Bugungi kunda bu g‘oyalar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, jadidlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaganlar. Ular yangi maktablar ochib, zamonaviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yganlar, o‘quv jarayoniga yangi metodlarni joriy etganlar. Bu yondashuv hozirgi zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, innovatsion pedagogika, kreativ fikrlash va interfaol metodlarni rivojlantirishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Shuningdek, jadidlar merosi jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Jadid mutafakkirlari adabiyot, teatr, matbuot va publitsistika orqali xalq ongini uyg‘otishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida ilm, ma’rifat, axloq, milliy taraqqiyot kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, jadidlar Sharq va G‘arb madaniyatini uyg‘unlashtirishga intilganlar. Ular rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganib, uni milliy sharoitga moslashtirishga harakat qilganlar. Hozirgi globallashuv davrida bu yondashuv ayniqsa dolzarb bo‘lib, milliy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Shu bilan birga, jadidlar merosi yosh avlodda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va yangilikka intilish kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ularning ma’rifiy faoliyati bugungi kunda ham pedagogika, tarix va madaniyat sohalarida muhim ilmiy manba sifatida o‘rganilmoqda.

Jadidlar merosining bugungi jamiyatdagi ahamiyati

Yo‘nalish	Ahamiyati
Ta’lim	Zamonaviy pedagogika va innovatsion metodlar uchun nazariy asos
Ma’naviyat	Milliy qadriyatlarni rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalash
Madaniyat	Adabiyot, teatr va matbuot rivojiga qo‘shgan hissasi
Jamiyat taraqqiyoti	Ilm-ma’rifat orqali ijtimoiy rivojlanish
Milliy o‘zlik	Tarixiy merosni anglash va milliy identitetni mustahkamlash

Xulosa qilib aytganda, jadid mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ma’rifiy meros bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning ta’limni rivojlantirish, jamiyatni ma’rifat asosida taraqqiy ettirish hamda yosh avlodni zamonaviy bilimlar ruhida tarbiyalash haqidagi g‘oyalari zamonaviy taraqqiyot jarayonida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jadidlar merosini chuqur o‘rganish va uni ta’lim hamda tarbiya tizimiga tatbiq etish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-4646908

2. Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2003. –301 b.

3. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992.–66 b.

5. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent. Ma’naviyat, 2000. – 208 b.

6. Ilyin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti i odarennosti. – SPb.: Piter, 2009. – 448 b.

7. Qosimov Begali. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik.–T.: Ma’naviyat, 2002.–400 b.

8.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2009.–280 b.

9. De Bono Edward. Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas. – New York: Harper Business, 1992. – 300 p.].

“ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY TA’LIMDA USTOZ–SHOGIRD MUNOSABATLARIGA TA’SIRI”

Abdullayeva Sabohat G’ayratullayevna

NDU Pedagogika nazariyasi,

Pedagogik ta’limotlar tarixi tayanch doktoranti,

Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Abdulla Avloniy o‘zbek ma’rifatparvarligi tarixida alohida o‘rin egallagan yirik pedagog, adib va jamoat arbobi hisoblanadi. U o‘z faoliyati davomida xalqni ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash g‘oyasini ilgari surib, ta’lim tizimini jamiyat rivojining eng muhim omili sifatida baholagan. Avloniy ta’limning nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi, uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qarashlarini shakllantiruvchi kuch ekanini chuqur anglagan.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, oddiy hunarmand-to‘quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi ziyoli kishilardan edilar. Avloniy eski usul maktabini tamomlagach, 12 yoshida madrasaga o‘qishga kiradi. U yozda ishlab, ota-onasiga yordam berar, boshqa vaqtlarda esa ilm olish bilan band bo‘lar edi. O‘ta iqtidorli bo‘lgan adib 15 yoshida she’rlar yoza boshlagan. Abdulla Avloniy 1907-yili «Shuhrat», «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshlagan, lekin chor hukumati amaldorlari tezlik bilan gazetalarni yoptirib tashlaydi. Abdulla Avloniy keyinchalik «Sadoyi Turkiston» (1914-1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» gazetalarida, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida

ishlaydi. Shundan keyin, u o‘zbek matbuotining asoschilaridan biri hamda zabardast vakili sifatida shuhrat qozongan. XX asr boshlariga kelib, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida, pedagogik fikr taraqqiyotida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egallaydi.

Abdulla Avloniyning asarlarida maktabning jamiyatdagi o‘rni, o‘qituvchining mas’uliyati hamda tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini keng yoritib bergan. U o‘qituvchini jamiyat kelajagini belgilovchi shaxs sifatida ko‘rib, pedagogdan nafaqat bilimdonlik, balki yuksak axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va fidoyilikni ham talab qilgan. Avloniy nazarida ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon bo‘lib, komil insonni shakllantirish aynan shu uyg‘unlik orqali amalga oshadi. U ilgari surgan pedagogik qarashlar o‘z davri ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Jadid taraqqiyparvarining pedagogik qarashlari bugungi kunda o‘zbek milliy maktabini shakllantirish va rivojlantirishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari nafaqat o‘z davri uchun, balki zamonaviy pedagogika uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu sababli Avloniy ijodiy merosini chuqur o‘rganish, ayniqsa yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalarida undan foydalanishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Abdulla Avloniy o‘z pedagogik qarashlarida o‘qituvchi shaxsini jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim kasb egalari qatoriga kiritadi. Uning ta’kidlashicha, pedagog faoliyati faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarga hayotiy tajriba, ijtimoiy qadriyatlar hamda axloqiy-me’yoriy tamoyillarni singdirishga qaratilgan murakkab tarbiyaviy jarayonni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan Avloniy o‘qituvchini shaxs kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy yetakchi sifatida talqin etadi.

Avloniyning mazkur qarashlari zamonaviy pedagogika nazariyasida keng qo‘llanilayotgan “o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim” konsepsiyasi bilan metodologik jihatdan uyg‘unlik kasb etadi. Chunki ushbu yondashuvda ta’lim jarayoni markazida o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, psixologik xususiyatlari va shaxsiy rivojlanishi turadi. Avloniy ham pedagogning asosiy vazifasi — bolani mustaqil fikrlashga, ma’naviy yetuklikka va ijtimoiy mas’uliyatga yo‘naltirishdan iborat ekanini alohida ta’kidlaydi.

Uning fikricha, samarali pedagogik faoliyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda shaxsiy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, o‘qituvchi bilimdon, sabr-toqatli, mehribon, adolatparvar hamda yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi zarur. Avloniy pedagog shaxsining tashqi va ichki madaniyatiga alohida e’tibor qaratib, ustozning har bir harakati, nutqi, kiyinish madaniyati, muomala uslubi va xulq-atvori o‘quvchilar uchun amaliy namuna vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Bu holat pedagogik ta’sirning yashirin tarbiyaviy mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi.

Mazkur qarashlar zamonaviy pedagogik etika va pedagogik psixologiya tamoyillari bilan hamohangdir. Hozirgi ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari — empatiya, kommunikativ madaniyat, emotsional barqarorlik, refleksivlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlar ta’lim samaradorligini

belgilovchi muhim omillar sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, pedagog shaxsining ijobiy modeli o‘quvchilarda motivatsiya, ishonch va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Avloniy o‘zining axloqiy-ta’limiy qarashlarida inson kamolotini eng avvalo axloqiy tarbiya bilan bog‘laydi. U inson xulq-atvorini tahlil qilib, ularni “yaxshi xulqlar” va “yomon xulqlar”ga ajratadi. Uning fikricha, insonning komillikka erishishi nafsni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan nafs ustidan nazorat axloqiy yetuklikning asosiy mezoni hisoblanadi.

Avloniy “yaxshi xulqlar” qatoriga 31 ta fazilatni kiritadi. Ular orasida matonat, nazokat, shijoat, intizom, vijdonlilik, halollik, sabr-toqat, ilmga intilish, insonparvarlik hamda vatanni sevish kabi sifatlar alohida o‘rin egallaydi. Mutafakkir bu fazilatlar insonni jamiyat uchun foydali shaxsga aylantiradi, deb hisoblaydi. Aksincha, “yomon xulqlar” sifatida u 20 ta illatni sanab o‘tadi va ularga g‘azab, jaholat, saxovat, manmanlik, dangasalik kabi salbiy xislatlarni kiritadi. Uning fikricha, bunday illatlar insonning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘ladi.

Avloniyning pedagogik qarashlarida axloq tarbiyasi shaxs kamolotining markaziy omili sifatida talqin etiladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, barkamol inson — bu nafaqat bilimli, balki yuksak axloqli, vijdonli va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan shaxsdir. Shu jihatdan Avloniy merosi bugungi milliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya, vatanparvarlik ruhini shakllantirish va komil insonni voyaga yetkazishda muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimida ustoz–shogird munosabatlarini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamay, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlaydigan tarbiyaviy jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, ustoz nafaqat bilim manbai, balki axloqiy namuna, ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi va tarbiyachi bo‘lishi lozim. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari bugungi ta’lim tizimida ustoz–shogird munosabatlarini insonparvarlik, milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning g‘oyalari zamonaviy ta’limni milliy ruh bilan boyitish, barkamol avlodni tarbiyalash va pedagogik hamkorlik madaniyatini shakllantirishda dolzarb metodologik manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.

2. Avloniy A. Maktab gulistoni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

3. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar.1-2-jild. T., Ma’naviyat, 1998; yana: Turkiy guliston yoxud axloq. T.:O‘qituvchi,19923.

4. Qayumov M. Abdulla Avloniy – millat ma’rifatchisi. – Toshkent: Fan, 2004.

5. Sattorov O. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarining dolzarbligi. Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2021. – №2.

6. Karimova D. Zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

FITRATNNG “OILA” ASARIDA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLAR

Nurmurodova Ro‘zigul Bobomurod qizi

BuxDPI 1-bosqich magistranti

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida yuz bergan yangilanish jarayonlari jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘liqdir. Bu harakat vakillari orasida Abdurauf Fitrat alohida o‘rin tutadi. U nafaqat adib va dramaturg, balki pedagog, ma’rifatparvar va jamiyatshunos sifatida ham faoliyat yuritgan.

Fitratning “Oila” asari jamiyat taraqqiyotini oiladan boshlash zarurligini ilmiy-pedagogik asosda yoritgan muhim asarlardan biridir. Muallif oilani “millatning kichik modeli” sifatida talqin qilib, undagi tarbiya darajasi butun jamiyatning kelajagini belgilashini ta’kidlaydi. Ayniqsa, farzand tarbiyasi masalasiga alohida urg‘u berib, ota-onaning ma’rifiy saviyasi va axloqiy mas’uliyatini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada Fitratning “Oila” asarida ilgari surilgan farzand tarbiyasiga doir qarashlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Fitrat “Oila” asarida oilani inson shaxsining shakllanishidagi eng muhim muhit deb baholaydi. U shunday yozadi: “Millatning saodati ham, falokati ham oilaning ahvoliga bog‘liqdir”[1]. Ushbu fikr pedagogik jihatdan shuni anglatadiki, jamiyatning kelajagi oilada beriladigan tarbiyaga bevosita bog‘liq. Fitratning nazarida maktab va jamiyat tarbiyasi muhim bo‘lsa-da, farzandning ilk axloqiy va ruhiy asoslari oilada shakllanadi. U ota-onaning savodsizligi yoki beparvoligini milliy tanazzul sabablaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Demak, farzand tarbiyasining muvaffaqiyati avvalo oilaviy muhit sog‘lomligiga bog‘liq.

Oila tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy maqom qadriyatlar ona suti, oila a’zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma’naviy, gigiyenik, jinsiy tarbivasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda misoli ota-ona san'atkor, bola san’at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o‘zidir. Fitrat farzand tarbiyasida axloqiy poklikni ustuvor qadriyat sifatida ilgari suradi. U yosh avlodni rostgo‘y, mehnatsevar, vatanparvar va mas’uliyatli qilib tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, axloqiy inqiroz jamiyatning inqiroziga olib keladi. “Oila” asarida ota-onaning shaxsiy namunasiga katta e’tibor qaratiladi. Fitratning pedagogik konsepsiyasiga ko‘ra, tarbiya nasihat bilan emas, amaliy namuna orqali samarali bo‘ladi. Bu fikr zamonaviy pedagogikada ham “modeling” tamoyili sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, Fitrat bolalarning qalbida milliy g‘urur va ma’naviy uyg‘oqlikni shakllantirish zarurligini qayd etadi. Uningcha, millat ravnaqi uchun avvalo ma’naviy barkamol avlod kerak. Fitrat jadidchilik

harakati namoyandasi sifatida ta’lim va ilmni milliy taraqqiyotning asosiy vositasi deb biladi. “Oila” asarida u ota-onalarni farzandlariga zamonaviy fanlarni o‘rgatishga, ularni jaholatdan asrashga chaqiradi. U shunday fikr bildiradi: agar bola ilm olmasa, u na o‘ziga, na millatiga foyda keltira oladi. Bu yondashuv pedagogik nuqtayi nazardan funksional savodxonlik va intellektual rivojlanish konsepsiyasiga mos keladi. Fitratning qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Masalan, Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ham ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Unda yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash milliy taraqqiyot omili sifatida talqin qilinadi. Bu jihat Fitratning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Fitrat ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyatini nihoyatda yuksak baholaydi. U farzandni dunyoga keltirish bilan ota-onaning vazifasi tugamasligini, aksincha, asosiy mas’uliyat shundan keyin boshlanishini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, ota-ona o‘z saviyasini oshirmasa, farzandni to‘g‘ri tarbiyalay olmaydi. Bu qarash zamonaviy pedagogikada “ota-onalar pedagogik madaniyati” tushunchasi bilan izohlanadi. Fitrat oiladagi zo‘ravonlik, jaholat, xurofot kabi illatlarni keskin tanqid qiladi va ularni milliy taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida baholaydi. Demak, Fitrat uchun farzand tarbiyasi shunchaki shaxsiy masala emas, balki milliy va ijtimoiy ahamiyatga ega strategik vazifadir. Abdurauf Fitratning “Oila” asari farzand tarbiyasiga oid chuqur pedagogik konsepsiyani o‘zida mujassam etgan. Unda oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ota-onaning mas’uliyati, axloqiy va ma’naviy tarbiyaning ustuvorligi, ilm-ma’rifatning ahamiyati hamda milliy uyg‘onish g‘oyalari ilmiy asosda bayon etilgan. Fitratning qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, har qanday taraqqiyot poydevori – sog‘lom va ma’naviy yetuk avloddir. Bu esa, avvalo, oiladagi to‘g‘ri va ongli tarbiya orqali shakllanadi. Shu bois Fitratning “Oila” asari nafaqat tarixiy-pedagogik meros, balki zamonaviy tarbiya konsepsiyalarini boyituvchi muhim manba sifatida e’tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurauf Fitrat. “Oila”. – Toshkent. 2024. 42-bet
2. Begali Qosimov. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
3. Ismoilbek Gaspirinskiy. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006.
4. Avloniy A. Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., “Ma’naviyat”, 1998.
5. Behbudiy B. Behbudiy kutubxonasi, “Oyina” jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild II. T.: Akademnashr, 2018-yil.

YANGI O’ZBEKISTONDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TURKISTON JADIDLARI MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING TARIXIY ZARURATI

Ergasheva Farangiz

Navoiy davlat universiteti,

Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)

1-bosqich magstranti

“Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifiy faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasi va uning tarixiy ahamiyati. Innovatsion g‘oyalar va madaniy yangilanish” masalasida Turkistonda XIX–XX asrlar boshlarida yuzaga kelgan jadidlar harakatining ma’rifiy faoliyati va uning ijtimoiy, madaniy, ta’lim tizimidagi ahamiyati o‘rganiladi. Jadidlar ta’lim sohasidagi yangiliklar, vatanparvarlik tarbiyasi, an’anaviy ta’lim tizimi va diniy maktablarga qarshi kurash orqali yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlashni maqsad qilganlar. Tadqiqotlarda jadidlarning innovatsion ta’lim g‘oyalari, ularning jamiyatni rivojlantirishdagi o‘rni, yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish va ayniqsa Turkiston hududida ta’limni zamon bilan moslashtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining dolzarbligi, ayniqsa bugungi kunda, ta’lim tizimining modernizatsiyasi va madaniy yangilanish jarayonida jadidlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Jadidlar harakatining o‘rganilishi o‘tmishdagi ilmiy, madaniy va ma’naviy izlanishlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Ilmiy yangiliklar sifatida, tadqiqotda jadidlarning ma’rifiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari, shuningdek, bu harakatlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishga bo‘lgan ta’siri yangi tahlil va xulosalar orqali ochib beriladi. Natijalar, jumladan, jadidlar harakatining ijtimoiy ta’siri, ularning madaniy yangilanishga bo‘lgan hissasi, vatanparvarlik tarbiyasi va ta’lim tizimining transformatsiyasidagi o‘rni aniq ko‘rsatilgan.

Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifiy faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasining o‘rnini o‘rganish, ularning milliy ongni uyg‘otishdagi roli va tarixiy ahamiyatini tahlil qilishdir. Shuningdek, jadidlarning ilg‘or innovatsion g‘oyalari va madaniy yangilanishga qo‘shgan hissasi ham tadqiq etiladi.

Asosiy manba sifatida jadidchilik harakati yetakchilarining asarlari, ularning matbuotdagi chiqishlari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Shuningdek, Turkiston jadidlarining ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohalardagi faoliyati tahlil qilinadi.

Jadidlar Turkiston jamiyatida yangi dunyoqarashni shakllantirish, xalqning savodxonligini oshirish va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Ular maktablar ochib, yangi usuldagi ta’limni joriy qilgan, milliy matbuotni rivojlantirgan hamda jamiyatni isloh qilishga qaratilgan innovatsion

g‘oyalarni ilgari surgan. Ularning ma’rifiy faoliyati natijasida Turkiston xalqlari orasida milliy o‘zlikni anglash va istiqlol g‘oyalariga bo‘lgan intilish kuchaygan.

Turkiston jadidlari ma’rifatparvarlik g‘oyalari tarixiy zarurati shundaki, bugungi kunda Yangi O’zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari ta’minlash va har bir inson huquqlarini himoya qilishning amaliy kafolatlari tizimini yaratilganligidir. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji, o’sib kelaètgan avlodning ta’lim darajasining, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bevosita bog’liqdir. Huquqiy demokratik davlatning eng muhim belgilari bo’lgan qonun ustuvorligini ta’minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo’lgan barkamol avlodni tarbiyalash – bu islohotlarning o’zagini tashkil etmoqda. O’zbekiston Recpublikasida yoshlar manfaatlarini ko’zlagan holda amalga oshirilayotgan bu boradagi savobli ishlar o’z natijasini berishi uchun yuksak ma’naviyat va ma’rifatga ega bo’lish, tarixga nisbatan daxldorlik hissini sezish va albatta konstitutsion burchni bajarishdek yuksak mas’uliyat talab qilinadi.

Jamiyatning har bir a’zosi o’z huquq va burchlarini hamda mas’uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog’i lozim.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatiga – Yangi O’zbekiston strategiyasi kitobida to’xtalar ekan: - Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o’zgarishi bilan birga, boshqaruv ma’murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo’nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi, deb alohida ta’kidlaydi.

Aslida “Madaniyat” - keng tushuncha. Z.M.Ma’rufov taxriri ostida chop etilgan “O’zbek tilining izohli lug’ati”da “madaniyat” tushunchasi 1) jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy xayotida ko’lga kiritilgan yutuqari majmui; 2) biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo’lga kiritgan shunday yutuqdari darajasi va 3) o’qmishlilik, ta’lim-tarbiya ko’rganlik, ziyolilik, ma’rifat xamda turmushning ma’rifatli kishi extiyojlariga mos keladigan sharoitlari yig’indisi kabi ma’nolari orqali izohlanadi[1]. SHundan kelib chiqqan holda Aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda istiqlol tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma’naviy salohiyati Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mafkuraviy poydevor sifatida o’z ifodasini topdi. Konstitutsiyamiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo’lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining huquqiy ongi, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo’naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo’lib xizmat qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi farmoni qabul qilinib, unda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari sifatida aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun

hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish belgilab berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Chunonchi, uning 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi, 51- moddada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqliligi, 52-moddada esa, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi mustahkamlandi[2] .

O'zbekiston mustaqil bo'lganidan to shu kungacha jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasida qancha bong urmaylik, huquqiy jihatdan tartibga solmaylik, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga yetarli darajada, kompleks yondashilyapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari talab darajada, yetarli emasligi – qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. So'nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba'zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog'ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayotganligidan dalolat. Bu masala hali-hanuz, uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ta'lim muassasalarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan. Ochig'ini aytganda, targ'ibot tadbirlarida ko'pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo'lmoqda…[3]. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki

ushbu qonunlarning to’liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, fuqarolar ongida - Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir! degan hayotiy g’oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi asosiy vazifalarimizdan biri bo’lmog’i lozim[4]. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me’yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o’z ahamiyatiga ko’ra huquqiy tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda kundalik turmushda ko’p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini targ’ib qilish, shuningdek, huquqiy ma’lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish, yoshlar va ota-onalar o’rtasida nikoh yoshi, aliment to’lash shartlari, qarindoshlar o’rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to’g’risida muntazam ravishda huquqiy targ’ibot tadbirlarini o’tkazish, mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta’lim olish va boshqalar bo’yicha huquqiy axborotni buklet, flayer va plakatlar shaklida aholiga yetkazish, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og’ir bo’lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg’otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o’tkazish ko’lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etilgan muloxazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi ta’kidlanganidek, quyidagi qismlardan iboratligini ko’rsatadi:

1.Huquqiy tarbiya subyektlari: (davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mexnat jamoalari a’zolari, mansabdor shaxslar va raxbarlar);

2.Huquqiy tarbiya mazmuni: (huquqiy ta’lim, huquqiy targ’ibot, huquqiy tashviqot)

3.Huquqiy tarbiya shakllari (ma’ruza, seminar,davra suxbatlari, viktorinalar, Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar va x.k. lar)

4.Huquqiy tarbiya usullari: (Ishontirish, rag’batlantirish, majburlash)[4]

Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va bilimlar targ’ibotini tubdan yaxshilash qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo’naltirilgan maqsadli chora tadbirlarni qo’llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o’z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o’z huquqlaridan to’laligicha foydalana oladi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 - moddasida,- «O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan

olinadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to’g’ridan-to’g’ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.» deyilgan.

Yoshlarga xuquqiy tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o’zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o’ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me’yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan uziga xos “huquqiy qonun” bulib, u huquqiy voqelikni o’zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- qonuniylik prinsipiga rioya etish;
- qonunga itoatkorlik;
- demokratizm, shu jumladan jamoat tashkilotlarining huquq me’yorlarini ishlab chikish va ro’yobga chikarishda, huquqning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etishi;
- fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo’yilgan huquqlarining kafolatlanganligi;
- bu huquqlar bilan jamiyat oldi dagi majburiyatlarning birligi.

Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o’z navbatida huquqiy madaniyat ko’p jihatdan huquqiy tizimning o’zi bilan, huquqing hamma tarmoqlari va me’yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi. Shaxs huquqiy madaniyatining o’ziga xos jixadlari:

- qonunga itoatkorlik;
- qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat kilish;
- yuksak darajada ijtimoiy-xukukiy faollik;
- huquqni ijtimoiy o’zgarishlar va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baxolash. Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me’yorlariga rioya etishlariga, shuningdek ularning ijtimoiy- huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi[5].

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta’minlash borasidagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini mustahkamlash, huquqiy mavzular bo’yicha ta’lim beruvchi pedagog o’qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo’yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlash ko’lamini kengaytirish, bunda oiladagi mojaro va zo’ravonliklar hamda ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini kompleks tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo’nalish va vazifalarni o’z vaqtida amalga oshirish biz, huquqshunos va ziyolilardan mas’uliyat va fidoyilikni talab etadi. Zero,

davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lugati. 2 tomli. -M.: Russkiy yazьık, 1981. T.1. - 439-6.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2023 y
3. Yangi O’zbekiston strategiyasi SH. Mirziyoev T. 2021 y
4. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini takomillashtirish to’grisidagi PF-5618. T.2019 y.
5. Huquqiy madaniyat nazariyasi A. Saidov. U. Tadjixanov.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA HUQUQIY MADANIYAT MASALASI

Temirova Mohiniso To‘lqin qizi

BuxDPI, 1-bosqich magistranti

Jadidlar ma’naviy merosi o‘zbek milliy uyg‘onish davrining eng muhim mafkuraviy va ma’rifiy qatlamini tashkil etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ta’lim tizimini isloh qilishni, balki jamiyatning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Taniqli olim **Begali Qosimov** o‘zining **“Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” asarida jadidchilik haqida “Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil tomonborib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar”,-degan fikrlarrni bildiradi[4:31].** Jadidlar nazarida millat taraqqiyoti, avvalo, shaxsning huquq va burchlarini anglash darajasi bilan belgilanadi. Shu bois ular ma’rifat, matbuot, teatr, adabiyot va siyosiy faoliyat orqali huquqiy madaniyatni shakllantirishga intildilar. Jadidchilik harakati g‘oyaviy jihatdan musulmon modernizmi, ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish tamoyillariga tayangan edi. Uning yetakchi namoyandalari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, va boshqalar o‘z asarlarida jamiyatni huquqiy jihatdan uyg‘otish masalasini ko‘tardilar. Ular uchun huquqiy madaniyat shunchaki qonunlarni bilish emas, balki adolat, erkinlik va mas’uliyat tushunchalarini chuqur anglash demak edi.

Turkiston jadidchilik otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik mafkurasining asoschilaridan biri sifatida huquqiy madaniyat masalasiga alohida e’tibor qaratdi. U o‘zining “Padarkush” dramasida jaholat va huquqsizlikning fojeali oqibatlarini ko‘rsatib, ziyoli tilidan shunday jumlalarni keltiradi: ” Ilm va tarbiyasiz

bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, xun beg‘ayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandg‘a va qiyomatg‘a jahannamg‘a qolmas edi. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukm-farmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur.”[1:32] “Padarkush” asari faqat o‘z davrining emas, balki bugungi kunning ham dolzarb muammolarini yoritadi. Zamonaviy jamiyatda ham tarbiyaning buzilishi, oilaviy ziddiyatlar, ilmsizlikning oqibatlari, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi kabi muammolar mavjud bo‘lib, bu asar ularning ildiziga nazar tashlash imkonini beradi. Behbudiy tomonidan nashr etilgan “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali sahifalarida konstitutsion boshqaruv, parlament tizimi, sud mustaqilligi kabi masalalar keng muhokama qilindi. U inson huquqlari va milliy ozodlikni bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida talqin etdi.

Tarbiyaga oid asarlari bilan mashhur jadid Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya inson hayotidagi eng muhim unsur ekanligini asoslab berdi. Unga ko‘ra: “Tarbiya “yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”[5:38]. Uning fikricha, axloqsiz jamiyatda qonun ustuvorligi bo‘lishi mumkin emas. Avloniy yoshlarni Vatanga muhabbat, qonunlarga hurmat va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashni millat taraqqiyotining asosiy sharti deb bildi.Avloniy o‘z asarida adolat haqida “Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qil-makni aytilur. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va huku-matlarning uzun yashamog'i adolatga bog'lidur.”,-degan fikrlarni keltirib o‘tiladi[2:49]. Bu qarashlar zamonaviy fuqarolik jamiyati konsepsiyasiga hamohangdir.Undan tashqari shoir she’riyatining bosh yo‘nalishini millatda millliy ongni shakllantirish tashkil etdi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko‘rsatdi.

Bu davrning eng jonkuyar jadidlaridan biri bo‘lmish Munavvarqori esa jadid maktablari orqali yangi avlodni huquqiy bilimlar bilan qurollantirishga harakat qildi. Munavvarqori, zamondoshlaridan biri ta’kidlaganidek, kuchli siyosatdon ham edi. Uning inqilobgacha bo’lgan asosiy faoliyati maorif va uni yuksaltirish yo’lida kechdi.Turkiston jadidlari ozodlik, ma’rifat uchun kurashlarini ma’lum dastur asosida ikki yo’nalishda madaniy taraqqiyotni rivojlantirish, buning uchun ma’rifatparvarlikka asoslanish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog’liq holda olib borish orqali amalga oshiradilar. Munavvarqori o‘zining “Adib us-soniy” asarida maktab haqida “Qachonki bolalar olti-etti yoshga yetsalar, maktabg‘a berurlar. Maktabda muallim va xalfalar ko‘krak kuchlari ila tarbiya qilurlar. Bunga qaraganda, maktab bolalarning ikkinchi beshiklaridur. Avvalg‘i beshikda bolalarg‘a onalari sut emizib, tanlarini o‘stururlar. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o‘rgatub, aql va fikrlarini o‘stururlar. Bolalar uchun tanning salomatlig‘i lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatlig‘i undin ortig‘roq lozimdur. Chunki aql va fikrsiz tandan na o‘zi uchun va na boshqa kishilar uchun hech bir foyda yo‘qdur. Shul sababli bolalarga avvalgi beshiqdan ko‘ra, ikkinchi beshik bo‘lgan — maktab yaxshiroq va foydaliroqdur.”,- fikrlarni bildirib o‘tadi[3:6]. U tashkil etgan yangi

usul maktablarida nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlar, jumladan, tarix, geografiya va huquq asoslari o‘qitildi. Bu esa yoshlarning siyosiy va huquqiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qildi. Jadid maktablari shaxs erkinligi va fikr mustaqilligini qadrlash ruhida tarbiya beruvchi maskanlarga aylandi.

Abdurauf Fitrat jadidchilik mafkurasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Uning “Hind sayyohi bayonoti” va “Rahbari najot” asarlarida jamiyatni isloh qilish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, konstitutsion tuzum o‘rnatish zarurati ta’kidlanadi. Shu o‘rinda F.Xo‘jayevning “Hind sayyohi bayonoti” asari haqidagi ushbu so‘zlarini eslatmaslik mumkin emas: “…Mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha tanqidlarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini ochib bergan “Sayyohi hindi” asarining ahamiyatini qayd etmasdan o‘tolmaymiz”[6:98]. Fitrat huquqiy madaniyatni milliy mustaqillik va taraqqiyotning muhim omili sifatida ko‘rdi. U davlat hokimiyatining xalq oldidagi mas’uliyatini alohida qayd etdi. **Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”** nomli asari oilaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy me’yorlar, ota-onaning huquq va majburiyatlari haqidagi masalalarni o‘z ichiga oladi va quyidagi bo‘limlarga ega: *“Ota-onaning haq-huquqlari”, “Yetimlar haq-huquqlari”* va *“Xizmatkorlar huquqlari”* kabi bo‘limlar mavjudligi ko‘rsatilgan.

Fitratning boshqa asarlaridagi kabi uning dramalarida istiqlolga intilish ruhi aniq seziladi. Ana shu maqsadda dramaturg xalq o‘tmishiga murojaat qiladi, tarixning qorong‘u va bahstalabo‘rinlariga yorug‘lik kiritmoqchi bo‘ladi, o‘tmishdagi qahramonlar jasoratini eslatish orqali xalqni o‘z istiqboli uchun kurashga chorlaydi. Taniqli yapon olimi Xisao Ko‘matsu Fitratning mashhur “Temur sag‘anasi”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” kabi asarlariga alohida e’tibor qaratib: “Vatanparvarlik” g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bu asarlarning tomoshasiga kelganlar, shu qadar qattiq ta’sirlangan edilarki, ular har safar tomosha so‘ngida teatrlardan ko‘z yoshlarini oqizib chiqib ketardilar”,-degan haqiqatni qayd etadi.[7:40]

Jadidlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri matbuot orqali huquqiy ongni shakllantirish edi. XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda jadid nashrlari paydo bo‘ldi. Gazeta va jurnallarda sud tizimi, saylov, vakillik organlari, soliqlar, fuqarolarning huquq va burchlari haqida maqolalar chop etildi. Bu esa keng jamoatchilikning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qildi. Jadidlar huquqiy madaniyatni milliy istiqlol g‘oyasi bilan chambarchas bog‘ladilar. Ular mustamlakachilik sharoitida yashayotgan xalqning huquqsizligi va siyosiy qaramligini tanqid qildilar. Ularning fikricha, milliy ozodlikka erishish uchun, avvalo, jamiyat a’zolari o‘z huquqlarini anglab yetishi zarur edi. Shu ma’noda jadidchilik harakati siyosiy ong va huquqiy tafakkurni uyg‘otish harakati bo‘ldi. Jadidlarning huquqiy qarashlari islom huquqi va zamonaviy Yevropa huquqiy tafakkuri sinteziga asoslangan edi. Ular shariatning adolat va tenglik tamoyillarini saqlagan holda, zamonaviy konstitutsion tizimni joriy etishni taklif etdilar. Bu esa ularning huquqiy madaniyatga pragmatik va islohotchi yondashganini ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimini isloh qilish jadidlar uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy vositasi edi. Yangi usul maktablarida o‘quvchilarga

mustaqil fikrlash, savol berish, munozara qilish ko‘nikmalari o‘rgatildi. Bu esa kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qildi. Jadidlar nazarida huquqiy madaniyatning poydevori aynan maktabdan boshlanadi. Jadidlar faoliyati keyinchalik siyosiy tashkilotlar tuzish va davlat boshqaruvida ishtirok etish bosqichiga o‘tdi. Ular parlament, konstitutsiya va saylov tizimi kabi institutlarni qo‘llab-quvvatladilar. 1917–1918 yillardagi siyosiy jarayonlarda jadidlarning faol ishtiroki huquqiy davlat barpo etish istagini namoyon etdi. Bu harakatlar, afsuski, sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan to‘xtatildi. Sovet davrida jadidlar “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilindi. Ularning huquqiy davlat, milliy mustaqillik va erkinlik haqidagi g‘oyalari taqiqlab qo‘yildi. Biroq ularning ma’naviy merosi xalq ongida yashab qoldi va mustaqillik yillarida qayta tiklandi. Bugungi kunda jadidlarning huquqiy madaniyatga oid qarashlari demokratik islohotlar jarayonida muhim manba sifatida qadrlanmoqda. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida jadidlar merosi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlariga hurmat kabi tamoyillari zamonaviy konstitutsiyaviy tizim bilan uyg‘unlashadi. Jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi bugungi huquqiy targ‘ibot va ma’naviy-ma’rifiy rishlar bilan hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma’naviy merosida huquqiy madaniyat masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Ular huquqiy ongni shakllantirishni milliy taraqqiyotning asosiy sharti deb bildilar. Jadidlar faoliyati natijasida o‘zbek jamiyatida huquqiy tafakkur, fuqarolik mas’uliyati va erkinlik g‘oyalari keng yoyildi. Ularning merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida muhim ma’naviy tayanch vazifasini o‘tamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudxo‘ja Behbudiy,Padarkush drama, Toshkent,2024-yil;

2.Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, Toshkent, 2018-yil;

3. MUNAVVAR QORI ABDURAShIDXONOV , ADIBUS-SONIY,1907-yil;

4.Jadidlar.Munavvarqori Avdurashidxonov, Yoshlar nashriyoti, Toshkent, 2022-yil;

5. Jadidlar. Abdulla Avloniy, Yoshlar nashriyoti, Toshkent,2022-yil;

6. Xo‘jayev F. Buxoroda inqilob va O‘rta Osiyoning milliy chegara–lanishiga doir. / Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-tom. – T: Fan, 1978-yil;

7. Xisao Kumatsu. 20-Yuz yil baslarinde O‘rta Osiyada Turkcilik va Devrim hereketleri. Anqara, 1993-yil;

8. Jadidlar.Abdurauf Fitrat, Yoshlar nashriyoti, Toshkent,2022-yil;

9. https://ziyonet.uz/;

10. https://uz.wikipedia.org/.

JADIDLARNING QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASI VA XOTIN – QIZLAR MA'RIFATI MASALALARI

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Oila, ta'lim – tarbiya, xotin – qizlar, xalq salomatligi kabi muhim masalalar tarixda jamiyatning barcha bosqichlarida ham dolzarb bo'lib kelgan. Turkiston mintaqasida jadidlar ham yurtni taraqqiy ettirishga xizmat qiladigan fikr – mulohazalarida oilaning ahvoli, maorif, yosh avlodning kelajagi haqida davriy matbuotdagi maqolalari, asarlarida yoritdilar hamda amaliy faoliyatlarida ham shu masalalarga alohida e'tibor qaratdilar. Jadidlarning yurtni taraqqiy ettirishga qaratilgan fikr – mulohazalari bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib hisoblanadi. Ularning ilmiy merosi mustaqillik yillarida tarixchilar, filologlar va faylasuflar tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, bugungi kunga qadar izchil o'rganilib kelinmoqda.

Turkiston jadidchilik harakatining yirik vakili Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida 1913 – 1915 yillarda chop etilgan "Oyina" jurnalida ta'lim – tarbiya, maorif, salomatlik masalalari kabi dolzarb mavzularni qamragan bir qator maqolalar chop etilgan. Jurnalning 1915 – yil 15 – sonida nashr etilgan Abdusalom Azimiy "Ta'lim va tarbiya" nomli maqolasida bola tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, taraqqiy etgan davlatlarning farzand tarbiyasi uchun millionlab mablag'lar sarflayotganligining sabablari hamda ta'lim – tarbiyada asosiy omil – onalar tarbiyasi ekanligi haqida fikr – mulohazalarini bildirgan. Muallif farzand tug'ilganidan, uni voyaga yetkazadigan onalar tarbiyasini, keyinchalik maktab – madrasalar beradigan ta'lim – tarbiyani taftish qilish kerakligini ta'kidlaydi. Chunki farzand aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo'lib ulg'ayishi hamda kelajakda munosib o'rnini topishida ota – ona, muallim hamda mudarrislar tomonidan beriladigan ta'lim – tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini qayta – qayta uqtiradi. Maqolada onadan farzand uning vujudida paydo bo'lgan davrdanoq hamda tug'ilgach, suti orqali tarbiya o'tishi ma'lum qilinadi: "…bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta'siri bolag'a, otani ta'siridan ziyodadur. Chunki ona bolani bir necha oylar koni birla gizolandurur (izoh: ona rahmida oziqlanib ulg'ayishi ma'nosida).Va bad'az tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo'lg'usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar noma'qul holda bo'lunsa katta bo'lganidan so'ng islohi mushkuldur" [6. B. 41]. Muallif shu sababli ham birinchi o'rinda farzand ulg'aytiradigan onalarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi. Ba'zi onalar farzandni go'dakligida faqat sutni to'yguncha bersalar bo'ldi deb hisoblashlari, sut orqali ona tabiatidagi ba'zi xislatlarning o'tishini anglamasliklari, bola injiqlik qilganda ovutish o'rniga bir nechta haqoratlarni yog'dirishlarini va shu holatda tarbiya berishlarini kuyunib yozadi. Bunday holatda farzandning sog'lik, odob va aqliy jihatdan tarbiyasida muammolar bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. "Agarda onalar johila bo'lmay, balki oqila va muhazabba, mutaallama va odobi saxixalarga

dono bo‘lsalar va bolani o‘z tarbiyasiga muvofiq bo‘luvini tushunsa, hifzi sihhat va odobga rioya etsa va nobajo harakatlardan bo‘lunmog‘idan to‘xtatsa va odobi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta ul bolani oqil va halim bo‘lmog‘ika shak va shubha yo‘qdur” deb yozib, shu sababli ham taraqqiy etgan davlatlar ta’lim va tarbiyaga katta ahamiyat berib, ko‘p mablag‘lar sarflashlarini qayd etib o‘tadi [6. B. 41 – 42]. Ushbu fikr – mulohazalar jadidlar Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitratning fikrlari bilan hamohang bo‘lib hisoblanadi. Abdulla Avloniy ham “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “tarbiyani kimlar qilur” degan savolga “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” – deb javob beradi hamda onaning o‘zida yetarlicha ta’lim - tarbiya bo‘lishi farzand tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi [1. B. 12].

Farzandning go‘dakligidayoq tarbiya jihatdan nuqsonlar bo‘lmasligi uchun Abdurauf Fitrat ham zamondoshlariga o‘zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” nomli ma’rifiy asarida xotin – qizlarning ta’lim – tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratilishi kerakligini, ularning axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarurligini uqtiradi. “Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo‘rqoqroq, zaifroq va g‘ayratsiz bo‘lganlaridan, bolalarimiz ham ularga o‘xshab ketadilar”, deb zamondoshlarini hushyorlikka chorlaydi [2. B.306].

Shuningdek, Abdusalom Azimiy maqolada ba’zi insonlar farzandining yoshligida tarbiyasini har oyda 30 – 50 so‘m atrofida (izoh: maqolada aynan so‘m atamasi keltirilgan) xizmat haqi evaziga murabbiya ayollarga ishonib topshirishlari va ota – onaning tarbiya jarayonlariga mas’uliyat bilan qaramasliklarini tanqid qiladi. Tarbiya berishning vaqti va chegarasi bo‘lishini, farzand tarbiyasini eng kamida tug‘ilganidan o‘n yoshgacha, ko‘pi bilan o‘n besh yoshgacha amalga oshirish mumkinligini, shu vaqt oralig‘ida farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratilmasa, noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini aytib ogohlantiradi. Birinchi tarbiyani onalar va murabbiya ayollar, keyingi tarbiyani maktabda muallimlar berishini qayd qiladi. Insonning hayotda yashashi uchun mol – u jonga ehtiyoji bo‘lsa, dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi hamda oxiratda saodatga erishishi ilm – u odob orqali ekanligini ta’kidlaydi. “Bas, bolalarni odoblandurmak uchun tarbiyatlab o‘qutmak kerak” deb, farzandlarni mohir muallimlar maktabida o‘qitishga da’vat qiladi. Maqolada ta’lim – tarbiyaning yana bir mas’ul shaxslari ba’zi muallimlarning fanini chuqur bilmasligi hamda tarbiyadan bexabar ekanligi yozib tanqid qiladi. Maqola so‘ngida tarbiya berishda mas’ul shaxslar onalar va muallimlarning ta’lim – tarbiyasiga yana bir bor jiddiy e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlab o‘tadi [6. B. 42].

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” nomli maqolasida bolaga ilm – ta’lim beradigan maktablarni va muallimlar sonini ko‘paytirishni tavsiya qiladi. Turkistonda 1914 – yilda muallimlarni o‘qitadigan oliy ta’lim bo‘lmaganligi uchun Toshkentda Munavvarqorining maktabiga yuborib o‘qitishni tavsiya qiladi [7. B. 127]. “A’molimiz yoinki murodimiz” nomli maqolasida serxarajat va isrofli to‘ylar va ma’rakalar uchun sarflanadigan mablag‘larni insonlarni ta’lim – tarbiyasi vositasi bo‘lgan madrasa, masjid va maktablarni ta’mirlashga va ko‘paytirish uchun sarflashga hamda Turkistonda muallim kamligi

uchun iqtidorli yoshlarni Kafkaz, Qrim, Orenburg va Qozon kabi yangi usul maktablari taraqqiy etgan joylarga ta'lim olish uchun yuborish kerakligini ta'kidlaydi [8. B. 106 - 107].

Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning tibbiy – ma'rifiy yo'nalishda "Oyina" jurnalining bir qator sonlarida chop etilgan "Hifzi sihhati oila" (Oila salomatligi muhofazasi) nomli maqolasida ham farzandni ulg'aytirishda ota – onaning mas'uliyati, qiz va o'g'il bolalarning ta'lim – tarbiyasi, balog'at davridagi o'zgarishlar haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Muallif Qur'oni Karim va hadislardan iqtibos keltirib hamda Gollandiya va Fransiya olimlarining statistik tadqiqotlariga tayanib, erta turmush qurishning zararlari, benikohlik, ko'pxotinlilik, jinsiy tarbiya me'yorlari haqida fikr – mulohazalarini yozadi [4. B. 176]. "Xotun olmoqni kerakligi", "Uylanmaslikni zarari", "Qiz bola tarbiyasi" kabi qismlarida o'z davri va bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan mavzularni yoritadi. U oila va jamiyatda xotin – qizlarning o'rni haqida o'z fikr – mulohazalarini yoritar ekan, oilani islom dini axloqi qonun – qoidalari asosida qurish lozimligini e'tirof etadi. Mahmudxo'ja Behbudiy insonlar uchun oila qurish zarurligini quyidagi fikrlar orqali ta'kidlaydi: "Insonlarg'a xotun olmoq tabiiydur. Xotun olmasdan yolg'uz yashamoq insong'a mumkin yo'q. Har bir erkak va ayol bir-birini yordam va ionati va birga yashamog'iga muhtojdir. Erkak ila ayol shar'iy nikoh ila er va xotun bo'lib ro'zg'or tuzamasa, jamiyati bashariyayi hozir va madaniyatni soyasig'a raxna paydo bo'lub, inqiroz va xarob bo'lmoqqa yo'l tutar" [5. B. 191]. U ayol va erkakning oila qurishi tibbiyot jihatidan salomatligi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shariatga muvofiq esa avlodlarning ko'payib, davom etishi hamda jamiyat hayotiga ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. "Bulug'i tibbiy" deb nomlangan qismida yigit va qizlarning balog'at davrida aqliy va jismoniy jihatdan o'zgarishlari haqida ma'lumot beradi hamda shu davrda ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [5. B. 192 – 193].

"Hifzi sihhati oila" maqolasining 47-raqam qismida o'g'il va qizlarni balog'atga va kamolga yetganidan so'ng, o'z vaqtida oila qurishi kerakligini yozadi. Vaqtidan oldin oila qurilganda kishilarning jamiyatga keraklicha xizmat qila olmasligi, sog'ligida muammolarning paydo bo'lishi hamda tug'iladigan farzandning nosog'lom bo'lishi mumkinligini, kech oila qurish yoki umuman oila qurmaslik ham zarar yetkazishini qayd etib o'tadi [5. B. 194-195]. U oila qurishda erkaklar yoshi 25-30 yosh, qizlarni 20-22 yosh atrofida bo'lishi kerak deb hisoblaydi va tibbiyot ma'lumotlariga tayanib, o'z fikrlarini dalillar asosida keltiradi [5. B. 195]. Boshqa jadidlar ham oila haqida yozgan asarlarida qizlarni barvaqt turmushga chiqarmaslikni maslahat beradi. Jumladan, buxorolik jadid Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) ham qizlarni 18 yoshdan oldin turmushga chiqarmaslikni, uning tibbiy jihatdan zararlarini yozib o'tgan edi [3. B. 55 – 56]. Mahmudxo'ja Behbudiy "Tibban tanosubi zavjayn" deb nomli qismida yigit va qiz oila qurishdan oldin albatta bir – birlarini ko'rishlari, bir – biriga salomatlik jihatidan ham munosib bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi [5. B. 197]. Oilaning farovon bo'lishi uchun Mahmudxo'ja Behbudiy tanning sog'lom bo'lishini, turmush qurish arafasida bo'lgan yoshlar bir birining salomatliklari haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Chunki bu keyinchalik kelib chiqishi

mumkin bo‘lgan salomatlikka doir muammolarning hamda yosh oilalarning buzilib ketishi kabi noxush hodisalarning oldini olishi mumkinligi uchun ham muhim deb hisoblaydi va zamondoshlariga kelajakda yuqoridagi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratishi kerakligini ta’kidlaydi. “Qiz bolalarni tarbiyasi” deb nomli qismida qiz bolalar tarbiyasiga asosiy mas’ul kishi ona bo‘lganligi uchun muhim tavsiyalarni berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Jumladan, qiz bolalarni shariat qoidalariga muvofiq ehtiyotlab tarbiyalashi, salomatligiga e’tiborli bo‘lishi kerakligi, 11-12 yoshida balog‘at yoshida qiz bolaning tanasini quvvatsizlantiruvchi ish va taomlardan asrashi kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, 16-17 yoshlarida kelinlik vaqti kelgan paytlarda ularning tarbiyasida salbiy holatlar kuzatilmasligi uchun, oshiqona kitoblar o‘qilishiga vaqt qoldirilmasligi, har xil bazmlarda ishtirok etishga yo‘l qo‘ymaslik haqida ham muhim tavsiyalar beradi [5. B. 196]. Muallifning ushbu fikrlari orqali o‘z davrining dolzarb muammolarini ko‘tarib, zamondoshlarini hushyorlikka chorlagani, din va tibbiyot ilmini yaxshi bilganligini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston taraqqiyparvarlarining xotin – qizlar ta’lim – tarbiyasi, salomatligi masalasiga oid qarashlari jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yurt ravnaqi, avvalo, ta’lim – tarbiyaning yuksak darajada tashkil etilishi, oiladagi ma’naviy muhitning sog‘lom bo‘lishi hamda xotin – qizlarning ilmli va ma’rifatli bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini asoslab berganlar. Ayniqsa, ilmli va savodxon ayollarning kelajak avlodni jismonan, aqlan va ruhan barkamol etib tarbiyalashdagi o‘rni alohida ta’kidlangan. Shuningdek, muallimlarning kasbiy saviyasi, bilim va pedagogik mahorati ham jamiyat uchun yetuk shaxslarni shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligi qayd etilib, ularning o‘z ustida ishlashlari hamda ta’lim sifatini oshirishlari zarurligi ilgari surilgan. Shu bois millat oydinlarining mazkur ilg‘or g‘oyalarini chuqur o‘rganish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish bugungi kun uchun muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq / - Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti. – B. 12;

2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar / - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009. - B.306;

3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 55 – 56;

4. Алимова Д. Жадидчилик феномени/ - Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 176;

5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. –Б. 56-196;

6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ta’lim va tarbiya // Oyina (1914 – 1915 y.). – Toshkent: “Akademiya” nashriyoti, 2001. – B. 41 – 42;

7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarg‘a murojaat / - Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2024. - B. 127.

JADIDLARNING MA’NAVIY MEROSIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USI QADRIYAT SIFATIDA

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Guliston davlat universiteti doktoranti

Yangi O‘zbekistonimizda xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho manbalarni tadqiq etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, milliy uyg‘onish davri namoyandalari – jadidlarning ma’naviy merosi bugungi kunda yoshlar tarbiyasida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, jadid bobolarimiz o‘z asarlari va amaliy faoliyatlari bilan millatni ma’rifatli qilish, uni mustamlakachilik asoratidan xalos etish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga katta hissa qo‘shganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadidlar merosiga alohida e’tibor qaratib, “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan” xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida “Jadidlar o‘z davrining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan holda o‘ta og‘ir sharoitlarda ilm va ma’rifatni keng targ‘ib etish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish orqali milliy taraqqiyot g‘oyasini ilgari surdilar. Ular ilgari surgan milliy uyg‘onish g‘oyasi jamiyatdagi eng kuchli kuchga aylandi”, deb ta’kidlagan edi [1]. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining “Turkistonda jadidchilik harakati asoschisi, atoqli yozuvchi, jamoat arbobi, noshir va ustoz Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarning tizimli davom etayotganidan dalolat beradi [2]. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘zligini anglash, ularda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, vatanparvarlik – bu shaxsning qadriyatli munosabati bo‘lib, u hissiy, idrokly va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga oladi. Jadidlarning ma’naviy merosi aynan shu komponentlarning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladigan boy manbadir. O‘zbekiston psixologiya fanida so‘nggi yillarda milliy ma’naviy merosni o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, jadidlar merosining psixologik jihatlarini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Jadidlar ma’naviy merosida vatanparvarlik tuyg‘usining qadriyat sifatida o‘rganilishi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Jadidlar ma’naviy merosida vatanparvarlik tuyg‘usi nafaqat hissiy kechinma, balki amaliy harakatga undovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Fayzulla Xo‘jayev singari jadid namoyandalarining asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mutafakkirlarning hayoti va ijodi vatanparvarlikning turli qirralarini – ma’rifatga intilish, milliy o‘zlikni anglash va axloqiy kamolot orqali Vatanga xizmat qilishni namoyon etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919-yy) “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” sifatida millatni ma’rifatlikka yetaklagan. Uning asarlarida vatanparvarlik g‘oyasi “millat” va “milliy taraqqiyot” masalalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Behbudiyning vatanparvarlik tuyg‘usini ifodalashdagi eng muhim xizmati - u ilgari surgan “jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” g‘oyasidir. Bu g‘oya Vatan ravnaqini uning xalqining ma’rifatli bo‘lishida ko‘radi . Uning “Padarkush” pyesasi orqali yoshlarni zamonaviy bilim olishga undashi, Vatan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan amaliy qadamdir. Behbudiy asos solgan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali esa xalqni milliy uyg‘onish, zamon bilan hamnafas bo‘lishga chorlovchi vositalar bo‘lib, unda millat va milliyat masalalari yoritilgan [3]. Bu orqali Behbudiy vatanparvarlikni passif tuyg‘u emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatni ma’rifiy isloh qilish orqali Vatanga sadoqat sifatida talqin etgan.

Abdulla Avloniyning (1878-1934-yy) pedagogik merosida vatanparvarlik tuyg‘usi yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan mashhur so‘zlari vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘laydi. A.Avloniy vatanparvarlikni axloqiy fazilatlar bilan uyg‘unlikda talqin etgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari asriy qadriyatlarimiz asosida yaratilgan bo‘lib, unda yaxshi xulq, odob-axloq, bilimga intilish kabi fazilatlar Vatanga muhabbat bilan chamberchas bog‘langan holda tarbiyaning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatilgan . Avloniy yangi usuldagi maktablar ochib, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” , “Maktab gulistoni” kabi darsliklar yaratish orqali yoshlarning nafaqat savodli bo‘lishiga, balki ularda ona Vatani va ona tiliga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilgan [4]. Uning pedagogik qarashlarida ta’lim va tarbiya uyg‘unligi Vatanga sadoqatli avlodni tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qaralgan.

Abdurauf Fitrat (1886-1938-yy) o‘zining adabiy, ilmiy va ma’rifiy asarlari orqali xalqni ma’rifatga, zamonaviy tafakkurga yetaklovchi g‘oyalarni ilgari surgan. Fitrat vatanparvarlikni ilm-fan va dunyoviy bilimlarni egallash, shu orqali jamiyatni taraqqiy ettirish deb tushungan. U “Yosh buxoroliklar” harakatining ma’naviy rahnamosi sifatida Vatan ozodligi va taraqqiyotini mustamlakachilikdan xalos bo‘lish va milliy uyg‘onishda ko‘rgan. Fitratning asarlari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ularda xalqni ilm-ma’rifatga chaqirish, zamonaviy bilimlarni egallash orqali Vatanga xizmat qilish g‘oyasi yetakchilik qiladi [5]. Uning bu boradagi faoliyati, xususan, turkistonlik yoshlarni Germaniya oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborish tashabbusi vatanparvarlikni amaliy harakatlar bilan namoyon etishning yorqin misolidir.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931-yy) jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar pedagog, noshir va jamoat arbobi sanaladi. Uning vatanparvarlik tuyg‘usi, eng avvalo, yangi usul maktablarini tashkil etish va ular uchun darsliklar yaratish orqali namoyon bo‘lgan. Munavvarqori 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib, “usuli jadid” maktabini ochadi . Bu maktablar uchun u “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, “Tajvid al-

Qur’on” , “Yer yuzi” singari darsliklar tuzib, nashr etadi. Shayxontohurda ochgan “Rushdiya” (o‘rta) maktabi “Namuna” deb atalib, ismiga mos ravishda boshqa maktablarga ibrat bo‘lgan. Munavvarqori o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalaridan bo‘lgan “Taraqqiy” (1906-y) gazetasi tashkilotchilaridan va mualliflaridan edi. O‘sha yili u “Xurshid” gazetasini chiqardi . 1909-yilda u do‘stlari yordamida “Jamiyati xayriya” , 1913-yilda esa “Turon” jamiyatini ta’sis etadi. “Turon” jamiyati qoshida “Turon” kutubxonasi va “Turon” gazetasi (1917-y) tashkil topgan. Ushbu tashkilot va nashrlar orqali Munavvarqori xalqni ma’rifatli qilish, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilgan. 20-yillarda esa u tilshunoslikka oid asarlar yozdi. Uning 1925-yilda Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikdagi uch bo‘limlik “O‘zbekcha til saboqligi” kitobi ona tiliga hurmat va e’tiborni kuchaytirish, ta’limni milliy asosda tashkil etish yo‘lidagi jiddiy ishlardan bo‘ldi [6]. Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’lim yo‘lidagi amalga oshirgan ishlari haqiqiy vatanparvar shaxs sifatida yosh avlodlar uchun namuna bo‘ladi.

Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938-yy) jadidchilik harakatining yirik siyosiy namoyandasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning vatanparvarlik tuyg‘usi siyosiy kurash va davlat qurilishi orqali namoyon bo‘lgan. Fayzulla Xo‘jayev 16 yoshidanoq otasi bilan birga Buxoroda yashirin jadidchilik to‘garaklarida qatnashgan. U “Tarbiyai atfol” (Bolalar tarbiyasi) jamiyati faoliyatida ishtirok etib, bu orqali yoshlarni ma’rifatli qilishga intilgan. 1916-yilda u “Buxoroi sharif” gazetasini nashr eta boshlagan. Fayzulla Xo‘jayevning “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar” asari mustamlakachilikka qarshi kurash va milliy ozodlik harakati tarixini yoritishda muhim manbadir. Unda u Buxorodagi amir mustabid tuzumiga qarshi kurash, xalqni ozodlikka yetaklash g‘oyalarini ilgari surgan. Uning siyosiy faoliyati va maqolalarida Vatan ozodligi, xalq farovonligi, milliy davlatchilikni qurish g‘oyalari yetakchilik qilgan. F.Xo‘jayev mamlakat rahbari sifatida aholi, jumladan yoshlar uchun vatan yo‘lida xizmat qilgan, jon bergan vatanparvar qahramon hisoblanadi.

Jadidlarning asarlarida, ma’naviy merosida vatanparvarlik tuyg‘usi ma’rifatli bo‘lish va jamiyatni isloh qilish orqali Vatanga xizmat qilish, yoshlarni axloqiy kamolotga yetkazish va ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni egallash va milliy uyg‘onish orqali Vatan ozodligi va taraqqiyotiga erishish, yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, milliy matbuot va jamoat tashkilotlari orqali xalqni ma’rifatli qilish va milliy o‘zlikni anglashga undash, siyosiy kurash, davlat qurilishi va milliy ozodlik harakati orqali Vatanga sadoqatni namoyon etish sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadidchilik namoyandalarining hayoti va asarlari vatanparvarlik tuyg‘usining shaxs ma’naviy dunyosidagi o‘rnini, uning shakllanish mexanizmlarini va psixologik asoslarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ularning ilm-fan, ma’rifat va istiqlol yo‘lidagi xizmatlari, xalq ogohligi va o‘zligini anglash borasidagi o‘rni bugungi kunda ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda

Muhokama. Jadidlarning ma’naviy merosida vatanparvarlik tuyg‘usining qadriyat sifatidagi talqini psixologik jihatdan bir qancha muhim xususiyatlarni

namoyon etadi. Birinchidan, jadidlar vatanparvarlikni sof hissiyot emas, balki faoliyat bilan bog‘liq tushuncha sifatida talqin etganlar. Behbudiy, Avloniy, Fitrat kabi jadid namoyandalari nafaqat Vatanni sevish, balki uning taraqqiyoti uchun amaliy harakat qilish zarurligini uqtirganlar. Bu esa psixologiyada shaxsning qadriyatli munosabati tarkibidagi xulq-atvor komponentining namoyonidir. M.I.Otajanov ta’kidlaganidek, “jadidlarning pedagogik metodlari o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini qondirish va ularning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynagan” [7]. Ikkinchidan, jadidlar vatanparvarlikni ilm-ma’rifat bilan uzviy bog‘liq holda talqin etganlar. Ularning nazarida, chinakam vatanparvar – bu o‘z Vatanining ravnaqi uchun zamonaviy bilimlarni egallagan, dunyoqarashi keng insondir. Bu yondashuv bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Mudofaa vazirligi tizimida o‘tkazilayotgan tadbirlarda “Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini” mavzusidagi ma’ruzalar orqali kursantlarda vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy o‘zlikni anglash hissi shakllantirilmoqda. Uchinchidan, jadidlar vatanparvarlikni milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlar uyg‘unligida talqin etganlar. Ular o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, tilga, diniy qadriyatlarga hurmat, shu bilan birga boshqa xalqlar bilan hamjihatlikda yashash g‘oyalarini ilgari surganlar. Bu jihat ayniqsa muhim, chunki bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga ham ochiq bo‘lish talab etiladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishi shaxsning ma’naviy dunyosi, qadriyatli yo‘nalganligi va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu borada jadidlar merosi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida o‘tkazilgan tadbirlarda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish g‘oyasi Vatan himoyachilari uchun ham ma’naviy mezon bo‘lib xizmat qilishi” ta’kidlangan. Shuningdek, Markaziy harbiy okrugda tashkil etilgan jadidchilik harakati namoyandalari hayoti, ijodi va siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘rgazmali zallar “yoshlarda harbiy vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otish, ularning shijoatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi” qayd etilgan. Bu esa jadidlar merosining psixologik ta’sir kuchi bugungi kunda ham saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilgan o‘quv yig‘inlarida “Jadidlar merosi” mavzusidagi darslar orqali yoshlarda vatanparvarlik ruhiyatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu kabi amaliy mashg‘ulotlar jadidlarning pedagogik merosini zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Jadidlarning ma’naviy merosida vatanparvarlik tuyg‘usi muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, u psixologik jihatdan shaxsning hissiy, kognitiv va xulq-atvor komponentlarining uyg‘unligini ifodalaydi. Jadid namoyandalari – Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori, Ibrat, F.Xo‘jayev va boshqalarning asarlari va faoliyati yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Jadidlarning yondashuvlari va g‘oyalari, xususan, individual yondashuv, interaktiv metodlar va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan usullar zamonaviy psixologik-pedagogik amaliyotda qo‘llanilishi

mumkin. Ayniqsa, harbiy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablarida jadidlar merosini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, jadidlarning ma’naviy merosini zamonaviy psixologiya yutuqlari bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning ilmiy asoslangan metodikalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada jadidlar merosining psixologik jihatlarini chuqur tadqiq etish, ularning ta’lim metodlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, o‘qituvchi va tarbiyachilarni yangi pedagogik-psixologik yondashuvlarga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil mart oyida Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyadagi nutqi. Toshkent.: 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” PF-462-sonli qarori. 2024-y.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. “Akademnashr” 2021-y.

4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. “Ma’naviyat”. 2009-y.

5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. “Ma’naviyat”. 2000-2003-y.

6. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. “Ma’naviyat”. 2003-y.

7. Otajanov, I.A. Psychological and pedagogical aspects of using the spiritual heritage of the moderns. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(11), 112–115. 2024.

JADIDLAR MA’RIFAT KONSEPSIYASIDA HUQUQIY ONG VA TARBIYA MASALALARI: ZAMONAVIY OLIY TA’LIM MUHITIDA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR

Ibodulloyev Lazizbek Iskandarbek o‘g‘li

BuxDPI 1-bosqich magistranti

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy islohot g‘oyalari bilan ajralib turadi. Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotini, avvalo, inson ongini o‘zgartirish, ilm-fan va zamonaviy ta’limni rivojlantirish, shaxsning huquqiy va axloqiy yetukligini ta’minlash bilan bog‘liq holda talqin qilganlar. Ular uchun ma’rifat – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsni fuqarolik mas’uliyatiga, ijtimoiy faollikka va milliy o‘zlikni anglashga yetaklovchi kompleks tarbiyaviy tizim edi.

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida oliy ta’lim muassasalari nafaqat malakali mutaxassis,

balki huquqiy ong va madaniyatga ega, tanqidiy fikrlovchi, mas’uliyatli fuqaroni shakllantirish vazifasini ham bajarishi lozim. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ekstremistik g‘oyalarga berilmaslik, akademik halollik tamoyillariga rioya qilish kabi masalalar profilaktik yondashuvlarni talab etadi. Bu jarayonda tarixiy-ma’naviy meros, xususan, jadidlar ilgari surgan ma’rifiy va tarbiyaviy qarashlar dolzarb metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Jadidlar huquqiy ongni shakllantirishni millat ravnaqi bilan bevosita bog‘lab, ta’lim orqali ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas’uliyatini qaror toptirish g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning asarlarida shaxsning ichki erkinligi, jamiyat oldidagi burchi, axloqiy poklik va intizom masalalari alohida o‘rin egallaydi. Shu bois mazkur maqolada jadidlar ma’rifat konsepsiyasida huquqiy ong va tarbiya masalalarining nazariy asoslari tahlil qilinib, ularni zamonaviy oliy ta’lim muhitida profilaktik mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi oliy ta’lim tizimida profilaktik yondashuvlar ko‘pincha ma’muriy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Jadid merosini konseptual asos sifatida qo‘llash esa huquqiy ongni shakllantirish jarayonini ichki e’tiqod va ma’naviy qadriyatlar bilan mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur maqola aynan shu integratsion yondashuvni ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy tanazzul, mustamlakachilik siyosati, savodsizlik va huquqiy befarqlik kuchaygan bir sharoitda jadidlar harakati vujudga keldi. Bu harakatning asosiy ilhomlantiruvchi kuchi — milliy uyg‘onish, jamiyatni ichki ongiy yangilash va zamonaviy sivilizatsiyaga integratsiya qilish zarurati edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etish bilan cheklanmay, “Taraqqiy”, “Samarqand” kabi nashrlar orqali ijtimoiy fikrni shakllantirdi. Uning publitsistikasi huquqiy ongni uyg‘otishga qaratilgan edi. Behbudiy musulmon jamiyatining tanazzul sabablarini jaholat, huquqiy savodsizlik va ijtimoiy inertlik bilan bog‘ladi.

U ilgari surgan asosiy g‘oya: **“ma’rifatsiz millat erkin bo‘la olmaydi”**. Bu shior huquqiy ongning kognitiv poydevorini yaratishga xizmat qildi. Jamiyatda qonun, adolat, boshqaruv masalalari ochiq muhokama qilina boshladi. Bu esa repressiv emas, balki ongli profilaktikaning dastlabki bosqichi edi.

Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani shaxs va jamiyat omon qolishining strategik omili sifatida ko‘rsatdi. U shaxs axloqiy jihatdan buzilsa, jamiyatda jinoyatchilik, adolatsizlik va ijtimoiy inqiroz kuchayishini ta’kidladi. Bu yerda muhim jihat shuki, Avloniy jazoga emas, **tarbiyaviy immunitetga** urg‘u beradi. Ya’ni huquqbuzarlikning oldini olish tashqi nazorat bilan emas, ichki vijdon va ong orqali amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv zamonaviy profilaktika nazariyasining asosiy tamoyiliga mos keladi.

Fitrat jadidchilikni intellektual-falsafiy bosqichga olib chiqdi. U millatning siyosiy va huquqiy o‘zini anglashini mustaqillikning sharti sifatida ko‘rdi. Uning asarlarida fuqarolik mas’uliyati, jamiyat oldidagi burch, davlat va millat munosabati masalalari markaziy o‘rin tutadi.

Fitratning fikricha, millatning zaifligi tashqi kuchdan emas, ichki ongiy zaiflikdan kelib chiqadi. Demak, huquqiy ongni shakllantirish milliy xavfsizlikning preventiv mexanizmi hisoblanadi.

Jadidlar faoliyati faqat nazariy fikrlar bilan cheklanmagan. Ular amaliy ijtimoiy institutlar yaratdilar.

Yangi usul maktablari orqali bolalar nafaqat savod chiqardilar, balki tarix, geografiya, jamiyat tuzilishi haqida bilim oldilar. Bu esa shaxsning o‘z o‘rnini anglashiga xizmat qildi.

Huquqiy ong shakllanishida bilim asosiy vosita bo‘ldi. Savodli shaxs gazeta o‘qiy oladi, ijtimoiy jarayonni tushunadi, o‘z manfaatini himoya qila oladi. Bu esa huquqbuzarlik va ijtimoiy befarqlikning kamayishiga olib keladi.

Behbudiyning “Padarkush” dramasi ijtimoiy-axloqiy inqirozning oqibatlarini ko‘rsatib berdi. Teatr orqali jamiyat ogohlantirildi. Bu – ommaviy profilaktikaning san’at orqali amalga oshirilgan shakli edi.

Matbuot esa ijtimoiy tanqid, ochiqlik va huquqiy muhokama maydonini yaratdi. Jamiyat muammolari yashirilmay, tahlil qilina boshlandi. Bu ochiqlik ijtimoiy nazorat va o‘zini nazorat qilish mexanizmini kuchaytirdi.

Jadidlar shaxsni passiv bo‘ysunuvchi emas, balki faol ijtimoiy sub’ekt sifatida ko‘rdilar. Bu yondashuv shaxsning huquqiy mas’uliyatini oshirdi. Jamiyatda befarqlikdan ko‘ra, ishtirokchilik madaniyati shakllana boshladi.

Natijada, jadidlar faoliyati ijtimoiy og‘ishlarning oldini olishda ongiy profilaktika rolini o‘ynadi. Bu repressiv mexanizm emas, ma’rifiy yo‘l bilan amalga oshirilgan preventsiya edi.

3. Tarbiya va profilaktika: jadid modeli va zamonaviy talqin

Jadid modelining markazida bir g‘oya yotadi: jamiyatni tuzatish uchun shaxs ongini tuzatish kerak.

Ularni ilhomlantirgan asosiy omillar:

- millatning tanazzul holati;
- mustamlakachilik sharoitida o‘zlikni saqlab qolish zarurati;
- zamonaviy ilm-fan va taraqqiyotga intilish;
- islomiy-ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish.

Bu omillar jadidlarni ma’rifatni ijtimoiy xavfsizlik strategiyasiga aylantirishga undadi.

Profilaktik ta’sir mexanizmi

Jadid modeli uch bosqichda ishladi:

1. Savod chiqarish – jaholatni kamaytirish.
2. Axloqiy tarbiya – ichki nazoratni shakllantirish.
3. Fuqarolik ongini uyg‘otish – ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlash.

Bu mexanizm huquqbuzarlik, ijtimoiy inertlik va befarqlikni kamaytirishga xizmat qildi. Ularning faoliyati qisqa muddatli bo‘lsa-da, ijtimoiy tafakkurda tub burilish yasadi.

Bugungi oliy ta’limda profilaktika ko‘pincha nazorat va jazoga asoslanadi. Jadid modeli esa ongiy, qadriy va ma’rifiy profilaktikani taklif etadi. Zamonaviy kontekstda bu quyidagicha talqin qilinadi:

- huquqiy bilimlarni tanqidiy tafakkur bilan integratsiya qilish;
- akademik halollikni ichki qadriyatga aylantirish;
- yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatga o‘rgatish.

Demak, jadidlar tajribasi ko‘rsatadiki, huquqiy ong va tarbiya uyg‘unligi jamiyatda profilaktik barqarorlikni ta’minlaydi. Bu tarixiy tajriba bugungi oliy ta’lim muhitida ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

XULOSA

Jadidlar ma’rifat konsepsiyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, u oddiy pedagogik islohot emas, balki ijtimoiy-huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan kompleks modernizatsion loyiha bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot va teatr orqali ommaviy ongni uyg‘otish, Abdurauf Fitrat milliy-siyosiy tafakkurni shakllantirish, Abdulla Avloniy esa axloqiy tarbiyani jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin etish orqali huquqiy ongning turli qatlamlarini rivojlantirishga xizmat qilganlar. Ularning faoliyati repressiv boshqaruvga alternativ tarzda ma’rifiy-preventiv modelni shakllantirdi.

Jadidlar uchun ma’rifat – bu shaxsni savodli qilish emas, balki uni ongli, mas’uliyatli va fuqarolik pozitsiyasiga ega sub’ektga aylantirish vositasi edi. Huquqiy ong bilim, qadriyat va xulq birligida shakllanishi kerak degan g‘oya ularning asarlarida aniq namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv ijtimoiy og‘ishlarni jazolash orqali emas, balki ichki e’tiqod va axloqiy immunitet orqali oldini olishga qaratilgan edi. Shu ma’noda jadidchilik tarixiy jihatdan profilaktik ijtimoiy model sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi zamonaviy oliy ta’lim muhitida yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, akademik nohalollik, befarqlik va radikal g‘oyalarga moyillik kabi muammolar mavjud sharoitda jadidlar tajribasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularning ma’rifatga asoslangan yondashuvi huquqiy ongni tashqi nazorat orqali emas, balki ichki qadriyat va mas’uliyat orqali shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, jadidlar ma’rifiy merosi zamonaviy oliy ta’limda profilaktik yondashuvlarni takomillashtirish, huquqiy madaniyatni chuqurlashtirish va barqaror fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ularning g‘oyalari bugungi kun talablari bilan uyg‘unlashgan holda, ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash konsepsiyasini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begali Qosimov. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
2. Ismoilbek Gaspirinskiy. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006.
3. Avloniy A. Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., “Ma’naviyat”, 1998. 288-bet.
4. Behbudiy B. Behbudiy kutubxonasi, “Oyina” jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild II. T.: Akademnashr, 2018-yil 14-bet.
5. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003. 155 b.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish, T., “Sharq”, 2004-yil, 53-bet.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002. 10 b.

“OILA” ASARIDA MA’NAVIY MUHITNING O‘RNI

Xudoyqulov Shukrullo

BuxDPI, 1-bosqich magistarnti

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar jadallik bilan rivojlanayotgan davrda shaxs tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, insonning aqliy va jismoniy rivoji bilan bir qatorda uning axloqiy kamoloti masalasi ta’lim-tarbiya tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy yetukliksiz bilim va jismoniy qudrat ijtimoiy foyda keltirmasligi, balki ayrim hollarda jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Axloqiy tarbiya shaxsning fe’l-atvori, xulqiy me’yorlarga munosabati va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. U insonni nafaqat o‘z manfaatlarini, balki jamiyat manfaatlarini ham inobatga olgan holda yashashga undaydi. Shu jihatdan axloqiy tarbiya masalasi pedagogika, psixologiya va axloq falsafasining muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Mazkur ishda axloqiy tarbiyaning shaxs kamolotidagi o‘rni, uning aqliy va jismoniy tarbiya bilan o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, inson xatti-harakatlarining ixtiyoriy va g‘ayriixtiyoriy turlari orqali axloqiy mas’uliyat masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - axloqiy tarbiyaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ustuvor ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilaning shakllanishi, jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyatini chuqur ilmiy tahlil qiladi. Muallif oilaning shaxs tarbiyasidagi funksiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy roli hamda uning barqaror rivojlanishi uchun zarur tamoyillarni tizimli va ilmiy asosda yoritadi. Asarda oila ichki tartib-intizomi, er-xotin o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar, farzand tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or ishlarining samarali tashkil etilishi, moliyaviy va ijtimoiy munosabatlarning adolatli yo‘lga qo‘yilishi kabi masalalar keng qamrovli tahlil qilinadi.

Fitrat oilaning jamiyat barqarorligi va shaxs kamoloti uchun ahamiyatini ta’kidlash bilan birga, ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy nuqtai nazardan uning rolini ham ochib beradi. Muallifning ilmiy yondashuvi asarda tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlar, shuningdek, ilmiy tavsif va struktural tahlil usullari orqali namoyon bo‘ladi. Bu metodologiya oila rolini nafaqat ichki tizim, balki jamiyatning keng mazmunda o‘rganishga imkon beradi, oilaviy munosabatlarning barqarorligi, shaxs tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniq ko‘rsatadi.

Shuningdek, asar Fitratning ilmiy yondashuvini va ijtimoiy falsafiy qarashlarini ham aks ettiradi: u oilani shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy ijtimoiy institut sifatida ko‘radi va uni boshqarish tartiblarini qat’iy, tizimli va adolatli prinsiplarga asoslash zarurligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, asar oila roli, uning funksiyalari va tartib-intizomi bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni jamiyatga taqdim etuvchi manba sifatida yuqori ahamiyatga ega.

. Maqolada tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlardan, shu bilan birga ilmiy tavsif, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Oila asarida **millat saodati va izzatining oilaviy intizom bilan uzviy bog‘liqligi**dir. Muallif jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevorini oila institutida ko‘radi hamda oila ichidagi axloqiy-me’yoriy tartib millat taqdirini belgilovchi asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Asosiy g‘oya shundan iboratki, **ijtimoiy saodat individual yoki siyosiy omillardan emas, balki oilaviy muhit va diniy-axloqiy qadriyatlarga amal qilishdan kelib chiqadi.** Dunyoda izzat va saodat tolibi bo‘lmagan birorta qavm yo‘q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. [1] Mazkur matn jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi va ijtimoiy barqarorlik masalalarini **oila instituti** bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Muallif nazarida, har qanday millat va qavmning izzat-e’tibori hamda saodatli hayoti tasodifiy hodisa emas, balki chuqur ijtimoiy va axloqiy omillarning mahsulidir. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarning mustahkamligi jamiyat barqarorligining asosiy ko‘rsatkichi sifatida ilgari suriladi. [2] Matnda millatning saodati va izzati bevosita **ichki intizom va ijtimoiy totuvlik** bilan bog‘lanadi. Muallif mantiqiy zanjir hosil qiladi: **oila intizomi → jamiyat totuvligi → millat barqarorligi → davlat qudrati.** Bu qarash ijtimoiy falsafadagi strukturaviy yondashuvga mos keladi, ya’ni jamiyatni tashkil etuvchi eng kichik bo‘g‘in – oila mustahkam bo‘lmas ekan, yirik ijtimoiy tizimlarning sog‘lom faoliyati ta’minlanmaydi. Muallif oiladagi axloqsizlik va haqsizlikni milliy tanazzulning asosiy sabablaridan biri sifatida baholaydi Ushbu yondashuv bugungi sotsiologik va falsafiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va haqsizlik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlik yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi.[1]

Hozirga Frang (Farg‘) olimlari ham o‘z xalqlari intizomi va oilalarining rohati uchun harakat qilib yuzlab kitoblarni yozib nashr qilmoqdalar. Imonim komilki, oila saodati va baxti uchun qabul qilingan eng maqbul qonun islomiy qonunlar bo‘ladi. Lekin olamda eng badbaxt oilalar ham biz musulmonlarning o‘rtasida bo‘ladi, chunki biz ilohiy qonunlarning birontasiga rioya qilmaymiz. Baxtsizligimizning sababi oilalarimiz hususida har bir harakatimizning sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasi bo‘lib, aksariyati Qur’on hukmlariga ziddir. Shuning uchun ham zulm va tahovuz qurmalari oilalarimizda nihoyatda kam ko‘rinadi. Hozirda taraqqiy etgan islomiy hukmlarda turk, arab, fors olimlari o‘z millatlarining kimligini anglab yetib, oila nizomi va tinchligi haqida ancha kitob yozdilar.[3] Muallifning fikricha, oilaviy munosabatlarda intizomsizlik va axloqiy me’yorlarning buzilishi jamiyatda umumiy inqiroz holatini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, **haqsizlik, zulm va noto‘g‘ri qarashlar** millat hayotini xavf ostida qoldiruvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda muallif ijtimoiy muammolarni tashqi omillar bilan emas, balki insonning o‘z xatti-harakati va ma’naviy mas’uliyati bilan izohlaydi.

Qur’on hukmlariga zid bo‘lgan fikr va amallar jamiyatdagi baxtsizlikning ildizi sifatida talqin qilinadi. Bu esa matnning diniy-falsafiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Muallif G‘arb (Frang) olimlari, shuningdek turk, arab va fors mutafakkirlarining oilaviy masalalarga oid asarlarini tilga olib, qiyosiy tahlil usulidan foydalanadi. Ularning jamiyat va oila masalalariga jiddiy e’tibor qaratgani ijobiy holat sifatida ko‘rsatiladi.

Bunga qarshi ravishda Turkiston, xususan Buxoro muhitida bu boradagi ilmiy va amaliy ishlanmalar yetishmasligi afsus bilan qayd etiladi. Bu holat matnning **ma’rifatchilik xarakterini** yanada kuchaytiradi va muallifning ilmiy mas’uliyatini namoyon etadi.[2]

Bu kitoblarda ular diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib oilaviy masalalarga izoh berdilar. Lekin turkistonliklar, xucusan, biz buxoroliklar, bu ne’matdan mahrum bo‘ldik. Yaqinda muhtaram do‘stim va hamdiyorim Abdulvoxid Fandiy Munzim (hami buxoroliklar saodatlari fikrida yuradilar) menga oila boshqarish bobida bir kitob yozishni ishorat qildi. Baski, do‘stimning niyati xolis va maqsadi oliy ekan, men inkor qilolmadim shu risolani tuzdim. Mening niyatim bu risolani millatimiz uchun turkiy chigatoyda yozish bo‘lsa ham, ammo muhtaram do‘stimning istagini inobatga oldim. Alloh taolo amiri oliy Sayyid Mir Olimxon izzatu iqboli, adli va tavfiqini ziyoda etsin, chunki risolalarining davrlarida yozildi. Alloh taolo Buxoro aholisini ularning marhamatlari va adolatlari soyasida baxtiyor etsin. [4]

Muallif o‘zining ushbu risolani yozishdan ko‘zlagan maqsadini aniq bayon qiladi: millat manfaatiga xizmat qilish va oilaviy boshqaruv masalasida ilmiy-amaliy qo‘llanma yaratish. Dastlab risolani turkiy chig‘atoy tilida yozish niyati bo‘lsa-da, do‘stining maslahatini inobatga olishi muallifning murosali va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs ekanini ko‘rsatadi.[2]

Zikr qilingan uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O‘zingiz xohlamag‘ingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishingiz mumkin va qo‘lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo‘lmasa, aqliy hamda jismoniy kuchingiz o‘zi ekan atrofdagilarga zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘p harakat qilishi lozim. Axloqiy tarbiya — odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe’lu xuyi va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir. Ixtiyoriy fe’l va harakatlar. Odam tomonidan sodir bo‘ladigan amal va harakat ikki qismga bo‘linadi: ixtiyoriy va g‘ayriixtiyoriy. Masalan, g‘azablangan holda birovni so‘kishingiz, yo‘li moyib qilsangiz, keyin xijolat tushib, qilgan yomon ishingizni tushunib: “Nima qildim? Bextiyor men shu ishni qildim?!” deysiz. Lekin bu tarixiy ishlar ham ixtiyoriy bo‘ladi va ularni xususiyatiga asoslangan amallar deb aytadilar. Tabiiy amallar degan g‘ayriixtiyoriy amallar ham mavjud, lekin u bizning mavzuimizga aloqasi yo‘q. Mazkur matnning markaziy mavzusi — **axloqiy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ustuvor o‘rni**dir. Muallif tarbiyaning uch asosiy ko‘rinishi (aqliy, jismoniy va axloqiy) orasida axloqiy tarbiyani eng muhim omil sifatida ajratib ko‘rsatadi. Asosiy g‘oya shundan iboratki, aqliy va jismoniy rivojlanish axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashmaguncha, ularning ijtimoiy foydasi to‘liq namoyon bo‘lmaydi.[1]

Asarda ta’kidlanishicha, axloqiy tarbiya yetarli darajada shakllanmagan shaxsning aqliy salohiyati va jismoniy qudrati ijobiy emas, balki **salbiy ijtimoiy oqibatlarga** olib kelishi mumkin. Bu fikr pedagogika va ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan muhim bo‘lib, bilim va kuchning axloqiy nazoratdan xoli holda jamiyat uchun xavf tug‘dirishi mumkinligini anglatadi.

Muallif shu orqali tarbiya jarayonida **axloqiy komponent integrativ rol o‘ynashini,** ya’ni boshqa tarbiya turlarining samaradorligini belgilab berishini asoslaydi.

Asarda axloqiy tarbiya “odam axloqini kamolga yetkazish” sifatida ta’riflanadi. Ilmiy jihatdan bu ta’rif shaxsda ijtimoiy maqbul xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish, shuningdek, individual manfaat bilan jamiyat manfaatini uyg‘unlashtirish jarayonini anglatadi.[1]

Muallif axloqiy tarbiyaning asosiy mezoni sifatida shaxsning fe’li va amali:

o‘ziga foydali bo‘lishi, boshqalarga zarar yetkazmasligi, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerakligini belgilaydi. Bu yondashuv axloq falsafasidagi utilitar va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Mazkur asarda axloqiy tarbiyani shaxs kamolotining markaziy omili sifatida asoslaydigan **pedagogik-axloqiy ilmiy qarashlarni** ifodalaydi. Muallifning fikrlari tarbiya nazariyasida muhim o‘rin tutib, axloqiy yetukliksiz bilim va kuch jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila olmasligini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

Xulosa. Mazkur ishda axloqiy tarbiyaning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, aqliy va jismoniy tarbiya insonning intellektual va jismoniy salohiyatini rivojlantirsa-da, axloqiy tarbiya ushbu imkoniyatlarning ijtimoiy foydaga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Axloqiy yetukliksiz bilim va kuch jamiyat manfaatlariga zid tarzda qo‘llanishi mumkin.Shuningdek, axloqiy tarbiya shaxs fe’l-atvorini kamolga yetkazish, unda ijobiy fazilatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Inson xatti-harakatlarining ixtiyoriy va g‘ayriixtiyoriy turlarga ajratilishi orqali axloqiy javobgarlik masalasi yoritilib, hissiyotlar ta’sirida sodir etilgan harakatlar ham shaxsning ongli tanlovi sifatida baholanishi lozimligi ta’kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiya ta’lim-tarbiya tizimining markaziy tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning har tomonlama yetuk, jamiyatga foydali va ma’naviy barkamol inson sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Shu bois tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarga ustuvor ahamiyat berish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot

1.Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y “Axloq-odobga oid hadis namunalari”. T., “Fan”, 1999, – B 28

2.Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Т.:, 2007. – Б. 15-33

3.Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Т.: Шарқ. НМАК, 1994, – B 56

4. Sh.Olimov Fitrat merosini o‘rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. 314 bet

TURKISTON JADIDLARINING DAVLATCHILIK MASALASIGA OID QARASHLARI

O‘razov Bobir Baxtiyorovich

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshidagi islohotchilik harakati murakkab, ko‘p qirrali rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotga erishish va islohotlar bo‘yicha to‘plangan tajribalariga tayanib, bu amaliyotni o‘lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Biroq bu jarayon osonlik bilan kechmadi, chunonchi ijtimoiy taraqqiyotga erishish borasidagi turlicha qarashlar o‘z navbatida bu zaminni ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g‘oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi. Jadidlar bo‘lajak jamiyat va davlatni qanday tasavvur qilishgan? Ularni qayta qurish dasturiga ega bo‘lishganmi?

Jadidchilik o‘z tarixi davomida ikki bosqichdan o‘tgan: birinchisi – ma’rifatchilik bosqichi, ikkinchisi – siyosiy bosqich. Jadidlarning davlatchilik masalasiga doir qarashlari birinchi bosqichdayoq shakllana boshlagan, ikkinchi bosqichda esa tugal shaklga ega bo‘lgan. Ular o‘tmishga nazar solib, jamiyatdagi barcha salbiy jihatlarni milliy davlatchilikning boy berilishi bilan bog‘lashgan. Mustamlakachilik tizimi Turkiston xalqlarini o‘zlari bilmaydigan yevropacha qonunlar asosida yashashga majbur qildi, o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun esa savodli bo‘lish zarur. Mahmudxo‘ja Behbudiy savodxon mutaxassislar, xususan, huquqshunoslar Davlat Dumasi, sudlar va Turkistondagi rus ma’muriyati orqali harakat qilib millatiga foyda keltirishi mumkin edi degan xulosaga keladi.

Ma’lumki, o’z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o’lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan jadidlar harakati o’lka xalqlari tarixida muhim ro’l o’ynagan. Aslida jaded so’zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma’nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o’lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho’lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o’lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g’oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o’rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga

olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi.

Turkiy xalqlar birdamligi g’oyasining rahbarlari Boymirza Hayit, Zakiy Validiy To’g’on, Ismoil Gaspirali, Mustofo Cho’qaevlarning jadidchlar harakatidagi faoliyatini o’rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiq etilayotgan ilmkiy izlanishlar mohiyatini yoritadigan ilmiy manbalarni o’rganish yoshlarning tarixan milliy ziyoliylar va ma’rifatparvarlarimizning xalqimizga qo’shgan xissalari, ko’nikma, malakalarni o’zlashtirishga bo’lgan ehtiyojlarini ta’minlovchi takomillashgan o’quv adabiyotlarini yaratish davr talabi ekanligini ko’rsatdi. Ma’rifat va milliy uyg’g’onishdagi samarali ishlarini tashkil etishda o’qituvchi va o’quvchilarning mazkur jarayonda uyushqoqlik bilan uyushtirilishiga mas’ul shaxslarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatini ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishiga erishish, bu yo’lda maqbul shakl, metod va vositalarning tanlanishiga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida Turkistonda katta ijtimoiy-siyosiy kuch va yetakchi mafkura sifatida jadidchlik harakati o’z o’rniga ega ekanligi tadqiq etilgan. Bu harakatning vujudga kelishida xorijiy mamlakatlardagi turli xil ilg’or ijtimoiysiyosiy, falsafiy, diniy oqimlarning ma’lum darajadagi ta’siri bo’lsa-da, ammo bu ilmiy uyg’onish harakatining yuzga kelishini ta’minlovchi asosiy omil, zamin va sharoit bu o’lkaning o’zida yetilib pishgan edi. Jadid ma’rifatparvarlarining ilg’or qismi islohotlarni amalga oshirishga bel bog’lagan mahalliy ahalini jahonning taraqqiy etgan davlatlarda bo’layotgan o’zgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi tushunib yetganlar. Ushbu maqsada jadid ma’rifatparvarlari dastlabki dasturlarni ishlab chiqadi: • Mustaqillik uchun kurash olib bordi, hamda unung g’ayrat va tashabbusi bilan vujudga kelgan Turkiston muxtoriyati bu yo’ldagi amaliy harakatining dastlabki natijasi edi. • Jamiyatni barcha qatlamlarini jalb eta olgan va uyg’onish mafkurasi bo’lib xizmat qildi. • Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqqanlar. Bu borada professor B.Qosimovning jadidchlikka bergan tarifini aytib o’tish maqsadga muofiq hisoblanadi: “jadidchlik, ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy, harakadir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg’onish idealogiyasi bo’lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash ilib bordi…”2 U madaniy harakatni va adabiyotni yangiladi, matbuot va teatirchlikni yo’lga qo’ydi. Eng etiborlisi, bularning barchasini ijtimoiy hamda siyosiy maqsadlarga moslab ko’rib chiqdi. Shu o’rinda bir narsani zikir qilish kerak, millat o’zligini va o’sishiga muhim turtki bo’lgan va milliy ozodlik g’oyasini shakillantirib, o’z faoliyati bilan amalga oshirishga urungan kuchli progressive harakat – jadidchlik bo’lgan, hamda u jahondagi umuminsoniy va milliy qadiryatlarga asoslanib, jamiyatning pishib yetilgan rivojlanish taraqqiyoti va o’lka tub yer ahaolisiga zaruriy manfaatlarini yetkazib bergan.

Jadidlar Rossiya ma’muriyatining Turkistondagi mustamlakachilikka asoslangan boshqaruv tizimi nafaqat milliy talablarga javob bermasligi, shu bilan birga, mamlakatga juda katta ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetkazayotganligini tushunib yetganlar. SHuning uchun ham ularning yangi usuldagi dunyoviy ta’lim, milliy o’ziga xoslikning eng yaxshi jihatlarini mustahkamlash, madaniyatni jadal

rivojlantirish yo’lida olib borgan kurashlari oxiroqibatda siyosiy mustaqillik va boshqaruvning demokratik shakllari uchun kurashga aylanib ketdi. Jadidlar musulmon dunyosining bir qismi bo’lgan, ayni paytda, jahon tarixida o’zini nodir mustaqil hodisa sifatida namoyon etadigan Turkiston XX asr ochib bergan murakkab va ziddiyatlarga to’la istiqbolda o’zining munosib falsafiy mulohazalarni o’rnini topishiga qa’tiy ishonganlar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarini zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko’rishni orzu qildilar va shu yo’lda fidoiylarcha kurashdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev shahidlar xotirasi xiyoboni tashrifidagi suhbatdan Gazeta.uz 31.08.2021

2. O'zbekiston Respublikasi qonunchlik ma'lumotlar milliy bazasi Lex.uz sayiti

3. Karimov I.A. O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston gazetasi» muxbirining savollariga javoblar. –T.: O’zbekiston, 1998.

4. O’zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000

5. O’zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000.

6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to’plam. №1. –T.: Universitet. -1999.

MUSTAFA CHOQAY VA JADIDCHILIK G‘OYASIDAGI TURKISTON AVTONOMIYASINING SIYOSIY ARBOBLARI FAOLIYATI

R.Yu. Rashidov

Tarix magistri, Rasul Isetov nomidagi

20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Qozog‘iston Respublikasi, Turkiston shahri

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi va qozoq dashtining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti nihoyatda murakkab va mas’uliyatli davrni boshdan kechirdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kuchayib, mahalliy aholining siyosiy huquq va erkinliklari cheklab qo‘yildi. Shu sharoitda milliy ong uyg‘onib, ma’rifiy va milliy-ozodlik harakatlari jadallashdi. Bu harakatlarning old safida Mustafa Cho‘qay, Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov va Saidnasir Mirjalilov kabi shaxslar turdi.

Bu shaxslarning hayoti va faoliyati millat tarixidagi eng muhim sahifalardan biridir. Ular o‘z xalqlarining siyosiy va ma’naviy uyg‘onishiga, ta’lim va

madaniyatning ravnaq topishiga hamda mustaqillik g‘oyasining shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Turkiston o‘lkasi XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olingach, mustamlakachilik ma’muriy tizimi o‘rnatildi va mintaqaning ijtimoiy hamda siyosiy tuzilishida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda xalqning milliy o‘zini anglash jarayoni kuchayib, erkinlik va tenglik g‘oyalari shakllana boshladi. XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning asosiy manbaiga aylandi. Jadidchilikning bosh maqsadi – ta’lim tizimini yangilash, din va ilmni uyg‘unlashtirish, xalqning siyosiy tafakkurini kengaytirish edi. Bu g‘oya keyinchalik milliy-ozodlik harakatlarining mafkuraviy asosiga aylandi.

Turkiston va qozoq dashtida “Alash Orda”, “Shuro-i Islomiya”, “Shuro-i Ulamo” kabi tashkilotlar vujudga kelib, ular xalqning siyosiy huquqlarini himoya qilish va milliy davlatchilik g‘oyalarini shakllantirishga intildilar. Avvalo, Mustafa Cho‘qayning siyosiy faoliyati va asosiy g‘oyalarini tahlil qilaylik. U Turkiston Muxtoriyatining asoschilaridan biri edi. XX asr boshlarida turkiy xalqlarning ozodligi yo‘lidagi kurash ramziga aylangan tushuncha bu – Turkiston edi. Cho‘qay Turkiston Muxtoriyatining yetakchisi bo‘lib, 1917 yilda Qo‘qon shahrida tuzilgan hukumat a’zosi etib saylandi. [1, 182 b.].

Mustafa Cho‘qayning siyosiy qarashlari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimini tanqid qilish va turkiy xalqlarning o‘zini-o‘zi boshqarish huquqini himoya etishga qaratilgan edi [2,186 b.]. Sovet hokimiyatining zo‘ravon siyosatiga qarshi chiqqan Cho‘qay muhojirlikka ketib, Yevropada “Yash Turkistan” jurnalini nashr qildi. Ushbu nashr orqali u Turkistonning siyosiy ahvolini jahon jamoatchiligiga tanishtirdi. Mustafa Cho‘qayning asarlari – “Turkiston sovet hokimiyati ostida”, “Pisma s gor”, “Kak bolsheviki pishut istoriyu” – tarixiy manba sifatida nihoyatda qimmatlidir. U Turkiston Muxtoriyatining tashkil topish sabablari va uning qulashi jarayonini obyektiv tarzda tahlil qildi. Mustafa Cho‘qayning ijodiy merosini Turkiston milliy-ozodlik harakati tarixining muhim manbasi sifatida baholash dolzarb masaladir. Chunki bu harakat xalqaro miqyosga ega bo‘lgan tarixiy hodisaga aylangan edi. Cho‘qayning merosi uning xotiralari, maktublari hamda epistolyar janrdagi asarlaridan iborat [3].

M. Cho‘qayning xotiralarining katta qismi 1917 yildagi murakkab siyosiy voqealarga bag‘ishlangan. Shu voqealar ichida Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar alohida o‘rin tutadi [3].

Sovet tarixshunosligi aniq ma’lumotlarga emas, balki voqealarni talqin qilish va burmalashga asoslanganligi sababli, Cho‘qayning xotiralari ishlatilmay tarixiy haqiqatni tiklash imkonsiz edi. Shuning uchun Mustafa Cho‘qayning Turkiston Muxtoriyatidagi bevosita ishtirokchisi va guvozi sifatidagi xotiralari nihoyatda qimmatli va ishonchli manba hisoblanadi. [3].

XX asr boshida Turkistondagi siyosiy harakat ikki yo‘nalishda rivojlandi: biri – Rossiya imperiyasi demokratik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaganlar, ikkinchisi – jamiyatning evolyutsion rivojlanishini tarafdorlari edi. Ushbu ikki yo‘nalish Turkiston Muxtoriyati doirasida birlashdi. Muxtoriyat hukumat tarkibida M. Tynyshbaev, M. Cho‘qay, Q. Xodjikov, S. Aqaev, A. Orazayev demokratik yo‘nalishni qo‘llab, M. Behbudi, Muna’var Qori, U. Xodjaev, A. Fitrat, A. Qodiri

kabi jadid arboblar milliy davlat tuzilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi [2, 186 b.].

1917 yilning 17–20 sentyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston va qozoq musulmonlari qurultoyida muxtoriyat tuzish g‘oyasi aniq namoyon bo‘ldi. Biroq uni tez va samarali amalga oshirish imkoniyati bo‘lmadi. Bu holatni M. Cho‘qay mustamlakachilik zulmidagi xalqlarning siyosiy tajribasining yetishmasligi bilan izohladi. Noyabr oyining boshida bolsheviklar va eserlar qurolli kuchga tayangan holda Toshkentda sovet hokimiyatini o‘rnatgan bo‘lsalar ham, muxtoriyat yaratish yo‘lidagi harakatlar to‘xtamadi [3].

1917 yil 2 noyabrda Lenin hukumat tomonidan “Deklaratsiya o‘qish huquqlari” e’lon qilindi, 20 noyabrda esa “Rossiya va Sharqiy musulmonlarga murojaat” chop etildi. Ushbu murojaatda mustamlakachilik ostidagi xalqlarga o‘zini-o‘zi boshqarish va mustaqil davlat tuzish huquqi berilishi va’dasi bildirilib, mamlakatning turli burchaklarida katta umid uyg‘otdi. Bu holat 1917 yil 26 noyabrda o‘tgan IV Turkiston musulmonlarining favqulodda qurultoyini chaqirishga asos bo‘ldi. Qurultoyni “Shuro-i Islomiya” a’zosi va tashkiliy byuro rahbari Mustafa Cho‘qay ochdi va kirish so‘zida Qozon inqilobidan so‘ng Turkiston o‘z taqdirini o‘zi belgilashi kerakligini ta’kidladi [3].

Cho‘qay jadidchilik g‘oyalarini ma’naviy uyg‘onish va siyosiy mustaqillikning asosiy poydevori deb hisobladi. Uning fikricha, ta’lim va erkin tafakkur – millatning mustaqil kelajagining eng muhim kafolatidir.

Mustafa Cho‘qay va Turkiston Muxtoriyati tarixini o‘rganish jadidchilik va panturkizm doirasida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, Mustafa Cho‘qay bilan birga Muxtoriyatda faoliyat yuritgan siyosiy arboblar haqida tadqiqotlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi. Ularning biri Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov, ikkinchisi Saidnasir Mirjalilovdir.

Qozoq ziyolilari orasida jadidchilik ruhida tarbiyalanganlarni barmoqlar bilan sanash mumkin, va Xo‘jikov – ularning eng asosiy vakillaridan biridir.

Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov 1886 yilda Perovsk uyezidagi diniy oilada dunyoga kelgan. Uning jadidchilik g‘oyalari ta’sirida shakllangan ma’rifiy faoliyati alohida yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin. Toshkentdagi Turkiston o‘qituvchilar seminariyasini tamomlagach, u Perovsk va Andijon shaharlarida, shuningdek, Turkiston yaqinidagi Qarnoq qishlog‘ida jadid maktablarini tashkil qilgan. 1912 yilda Orenburg shahridagi Fatih Karimi nashriyotida qozog‘ maktablari uchun birinchi “Alifbe” darsligini nashr qilgan [4].

Ushbu darslik bir necha yil davomida Qozog‘istonning janubiy hududlaridagi jadid maktablarida qo‘llanilib, alohida ahamiyat kasb etdi. 1910–1913 yillarda qozog‘ ma’rifatchilari qozog‘ alifbosining 2–3 variantini ishlab chiqib, ularni o‘quv jarayoniga kiritgan edilar. Shu jumladan, Xo‘jikovning “Alifbe”si jadidchilikning asosiy tamoyillariga mos ravishda yaratilgani sababli uzoq vaqt davomida Janubiy Qozog‘istondagi maktablar va madrasalarda qo‘llanilgan. Biroq A. Baitursynovning o‘z alifbosi asosida ishlab chiqqan “Alifbe” joriy etilganidan so‘ng, Xo‘jikovning o‘quv qo‘llanmasi foydalanishdan chiqdi [4].

Shuningdek, 1912 yilda shu nashriyotda Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov, A. Qasymov va S. Jang‘irov birgalikda tayyorlagan “Romanovlar sulolasining Rossiya taxtidagi

hokimiyati tarixi” nomli asar nashr etildi. Ushbu nashr Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikovning ijodiy faoliyat olib borganidan dalolat beradi [4].

1916 yildagi milliy-ozodlik ko‘tarmasi vaqtida Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi petitsiyalar tashkil qildi. U Turkiston o‘lkasiga avtonom huquq berilishini talab qilib, S. Vitte boshchiligidagi hukumatga bir necha murojaatlar yubordi.

Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikovning OGPU rahbarlariga yozgan tarjimai holida uning mustamlakachilikka qarshi, ozodlik yo‘lidagi kurashi haqida ma’lumotlar uchraydi. U Rossiya imperiyasi Vazirlar Mahkamasi raisi S. Vitte nomiga bir necha bor ariza yo‘llab, Turkiston o‘lkasiga ichki ishlarini mustaqil hal etish huquqini berishni so‘ragan. Bu fakt Xo‘jikov o‘z davridagi siyosiy kurash usullarini puxta egallaganini ko‘rsatadi [4].

1917 yil 2–5 avgust kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiston qozoq-qirg‘iz qurultoyida Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov prezidium tarkibiga saylandi, keyinchalik Ta’sis majlisida uning nomzodi Sirdaryo viloyatidan deputatlikka ko‘rsatildi. 1917 yil 26 noyabrda esa u Turkiston Muxtoriyati Xalq Kengashi tarkibiga kiritildi.

1918 yil 5–8 yanvar kunlari Turkiston shahrida Sirdaryo viloyati qozoqlarining qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Alash Orda ziyolilari tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu yig‘inda S. O‘tegenov, S. Qojanov, Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov, S. Aldabergenov kabi taniqli arboblar faol ishtirok etdilar [4].

1918 yil noyabr oyida Toshkent shahrida birinchi qirg‘iz (qozoq) pedagogik kursi ochilganda, Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov Perovsk shahridan o‘qituvchilik faoliyatiga taklif etildi. Shuningdek, ushbu ta’lim muassasasining pedagoglar tarkibiga Sodiq O‘tegenov, Sultonbek Xojanov va boshqa o‘qituvchilar ham kirdi. Xo‘jikov Toshkentdagi Qozoq xalq maorif institutining asoschilari va o‘qituvchilaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

1921 yilda Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov Yer ishlari xalq komissarligi a’zosi, keyinchalik uning o‘rinbosari sifatida Yettisuv viloyatida yer islohoti o‘tkazishga rahbarlik qildi. Shuningdek, u mamlakatdagi Dehqonlar uyushmasining tashkilotchilari va yetakchilaridan biri bo‘lgan.

1921 yilda u Narkomzem a’zosi va uning o‘rinbosari sifatida Yettisuv viloyatida yer islohotini amalga oshirishda faol ishtirok etdi. Shuningdek, u “Talap” nomli ma’rifiy jamiyatning faol a’zolaridan biri bo‘lgan.

Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin ham Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov ma’rifiy va siyosiy faoliyatini davom ettirdi. 1920 yilda u Turkiston Respublikasi Xalq maorifi komissarligi tarkibida ishladi hamda Toshkent shahrida Qozoq xalq maorif institutining asoschilaridan biri bo‘ldi.

1920 yil 21 avgustdagi Turkiston Respublikasi Xalq maorifi komissarligi majlisi bayonnomasida qirg‘iz (qozoq) maorif instituti qo‘mitasi raisi etib Isa To‘qtibayev, uning o‘rinbosari etib Bababek Yesenov ko‘rsatilgan, qo‘mita a’zolari qatorida esa Xalel Dosmuhamedov, Ko‘sherbayev va Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikov nomlari qayd etilgan. Xo‘jikov o‘z navbatida o‘lka maorif komissarligi huzurida tashkil etilgan Davlat ilmiy komissiyasi tarkibidagi “Talap” (“Talpinish”) jamiyati a’zosi sifatida ma’rifiy ishlar bilan faol shug‘ullangan [4].

1917 yilgi tarixiy voqealar davrida ko‘plab xalqlarning taqdiri sinov ostida qolgan bir paytda, totalitar hokimiyat milliy manfaat va mustaqillik g‘oyasini himoya qilgan milliy elita vakillarining harakatini kechira olmadi. “Katta terror” yillarida bu arboblarning barchasi siyosiy repressiya va ta’qiblarga duchor bo‘ldilar.

Biroq, 1938 yilda totalitar tizim uni “panturkizmga aloqador” degan ayblov bilan o‘ldirdi. Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikovning ismi keyinchalik oqlandi va uning mehnati milliy uyg‘onish tarixida munosib bahoga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda alohida e’tibor qaratiladigan jihat shuki, Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jikovning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijodiy va ma’rifiy faoliyati asosida jadidchilik harakati g‘oyalari mujassam. Shu sababli, Xo‘jikov kabi tarixiy shaxslarning birlashtiruvchi ta’siri katta bo‘lgann – uning faoliyati orqali Turkiston jadidchilik g‘oyalari va Alash harakatining maqsadlari bir-biriga tutashib, bir-birini to‘ldirdi.

S. Mirjalilov haqida bayon qiladigan bo’lsak, u Turkiston Muxtoriyatida Solomon Gertsfeld ismli (millati yahudi) Markaziy Osiyo jamoat arbobidan keyin moliya vaziri etib tayinlangan. Biroq, eng qiziqlisi shuki, bu fakt na faqat Qozog‘iston, balki O‘zbekiston tarixi ilmiy jamoatchiligi e’tiboridan chetda qolmoqda [6, 27 b.].

Turkiston shahrida tug‘ilgan S. Mirjalilov 1884 yilda ziyoli o‘zbek oilasida dunyoga kelgan. Markaziy Osiyo bo‘yicha S. Mirjalilovning siyosiy faoliyatini o‘rgangan yagona olim – Toshkentdagi “Siyosiy qatag‘on qurbonlari tarixi” tarixiy muzeyining asoschisi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining nufuzli a’zosi – Naim Karimov. N. Karimovning «Sa’idnasir Mirjalilov – Turkiston Avtonomiyasi xazinachisi»” nomli maqolasida u bugungi tarixshunoslikda e’tibordan chetda qolgan ziyoli shaxslarni eng muhimlaridan biri deb baholaydi va S. Mirjalilovning shaxsiga keng qamrovli baho berib, uning amalga oshirgan ishlarini alohida ta’kidlaydi [6, 28-29 bb.].

Arxiv materiallariga tayanib, N. Karimov bizning yurtdoshimizning siyosiy yo‘lini quyidagi ro‘yxatda ko‘rsatadi: 1900-yillarda Turkiston shahrida eng birinchi yangi usuldagi “Jadid maktabi” ochib, dars berish uchun bilimli, vatanparvar yoshlarni taklif qilgan, ularning biri o‘zbek adabiyotining mashhur vakili Xamza Hakimzada Niyazi bo‘lgan. X. Niyazi dars bergan maktab S. Mirjalilovning uyi atrofida, shahar markazidagi hozirgi Turkiston mehmonxonasi va Xamza nomidagi №2 umumiy o‘rta maktab hududida joylashgan edi. 1914 yilda u Sankt-Peterburgda Rossiya imperiyasi Davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasi tomonidan chaqirilgan butunrossiya musulmonlar qurultoyida faol ishtirok etgan, 1917 yil oktyabr oyida esa “Shura-i Islamiya” jamoat uyumi vakili sifatida Turkiston avtonomiyasining tashkil etilishiga hissa qo‘shgan. 1917 yil oxiri – 1918 yil boshida Sovet hukumatining Turkiston avtonomiyasining barcha moliyasini musodara qilgan paytda, Muxteriyatni moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqarish uchun S. Mirjalilov moliya vaziri darajasiga teng bo‘lgan bosh xazinachi lavozimiga tayinlangan. Shu vaqt davomida, Turkiston Muxteriyati mustaqillikka intilib, askar to‘plash va boshqa masalalarni hal qilish maqsadida “Avtonomiyaga yordam” nomli butun Turkiston bo‘ylab moliyaviy yig‘im kampaniyasi e’lon qilganida, ushbu ishlar bilan bevosita S. Mirjalilov shug‘ullangan.

Bu shuni anglatadiki, S. Mirjalilov Turkiston shahridan chiqqan, shaharda jadid harakatini boshlagan jamoat arbobi sifatida qiyin vaziyatda avtonomiya moliyaviy masalalarini hal qilish bilan shug‘ullangan. Natijada katta miqdorda mablag‘ yig‘ilib, avtonomiya oyoqqa turishni boshlagan. Yig‘ilgan mablag‘ hisobiga avtonomiya harbiy vaziri U. Xodjaev 2000 dan ortiq askar safarbar qilgan, avtonomiya Vaqtinchalik hukumatining raisi M. Shoqay yangi qonun loyihalarini ishlab chiqishga kirishgan va avtonomiya rejalari gazetalarda e’lon qilina boshlagan [7, 108 b.].

Afsuski, bolsheviklarning niyati amalga oshib, V.I. Leninning bevosita farmoni bilan 1918 yil fevral oyida Sovet hukumatı Qo‘qon shahrini, ya’ni Turkiston Muxtoriyati poytaxtini, hujumga olib vayron qildi [5, 186 b.]. Avtonomiya rahbarlari siyosiy ta’qib va repressiyalarga uchramaslik uchun turli tomonlarga tarqaldi. S. Mirjalilov ham hamkori M. Shoqay bilan Kavkazga qochishga majbur bo‘ldi. U yerda ular kelajak uchun reja tuzib, Turkiston xalqlarining mustaqilligi yo‘lida kurashni davom ettirdilar. Shundan so‘ng Mirjalilov Shoqay bilan birga Samara, Tiflis va Istanbul shaharlarida bo‘lgan [8, 314-315 bb.]. 1925 yil 20 dekabrda tergov jarayonida u 1918 yilda Istanbulda Enver Pasha bilan tanishganini, shuningdek N. Khudoyarkhanov (Qo‘qonning oxirgi hukmdori Qudiyar xonning nevarasi), tatar jadidchisi G‘azi Yunusov, o‘zbek jadidchisi Sadreddinxon va boshqa shaxslar bilan uchrashib, ma’lum bir vaqt davomida mehmonxonada bo‘lganini aytgan [6, 30 b.]. Biroq, undan so‘ng Mirjalilov va Shoqay yo‘llari ajralib, birinchisi vataniga qaytsa, ikkinchisi Parijga ketdi.

1921 yilda Turkistonga qaytib kelib, S. Mirjalilov eski tanishlari orqali bu yerda yashashga ruxsat oldi. Qo‘qon avtonomiyasining eski ishtirokchilari bilan birgalikda, jumladan, tug’ishgan akasi Otaboy og’li Mirzoraim bilan “Turkiston savdo-sanoat sherikligi”ni tashkil etishdi. Kelajakda, ikkovlari ham ushbu sheriklik uchun SSSR Jinoyat Kodeksi, 130-modda bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. 1922 yilda Mirjalilovning faoliyati tufayli Turkiston va Toshkentda Sovet hukumatiga qarshi jamoat faolligi ortdi. Bu voqealar Sovet hukumatining Yangi Iqtisodiy Siyosat (NEP) davri bilan uyg‘unlashdi.

1923 yilda S. Mirjalilov Toshkent shahrida «Nashri Maorif» jamiyatini tashkil qilib, unga rahbarlik qiladi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi – o‘quv-ta’lim ishlarini rivojlantirish, «Komek» jamiyati orqali Turkiston viloyatidagi o‘quvchi va talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni kelajakda chet elga o‘qishga yuborish edi. Buni dalil sifatida aytganda, Mirjalilovning tergov jarayonida bergan ko‘rsatmasiga ko‘ra, ushbu «Komek» jamiyatining raisi sifatida Ibragimov ismli jadid maktabi bitiruvchisi, Berlin shahrida tahsil olgan talaba bo‘lgan, keyinchalik esa xuddi shunday S. Tillyahanov ismli shaxs raislik qilgan. Shu tarzda, Mirjalilovning tergovdagi bayonotiga ko‘ra, u haqiqatan ham Turkistonda yangi usuldagi maktablar ochgan, nafaqat shahar, balki butun Markaziy Osiyoda o‘quv-ta’lim sohasining rivojlanishiga, yoshlarning bilim olishiga va keyinchalik chet elda o‘qishlariga nafaqat ma’naviy, balki moliyaviy yordam ko‘rsatganligi aniq ko‘rinadi. Kelajakda, ushbu faoliyati sababli S. Mirjalilov va uning qarindoshlari Germaniyaga «Komek» jamiyati orqali talabalarni Sovet hukumatiga qarshi targ‘ibot va hatto josuslik ishlarini olib borish uchun yuborganlikda ayblanib, o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Sovet hukumatining aybloviga ko‘ra, 1924 yilda S. Mirjalilov Sadreddinxon va M. Shoqayga Toshkent va Turkistonda sodir bo‘layotgan voqealar haqida ma’lumot berib, ular bilan aloqasini uzmagan [9, 316 b.].

Shu munosabat bilan, 1925 yilda tergov ishlari olib borilib, 1926 yil iyul oyida Sovet hukumati S. Mirjalilovni 3 yillik muddatga ozodlikdan mahrum etib, Solovetskdagi kontslagerga yuborish hukmini chiqargan [6, 29-30 bb.].

1929 yil mart oyida S. Mirjalilov ozod qilinib, Rossiyadagi Biysk shahriga yuborilgan, faqat 1936 yilda Toshkentga qaytgan edi. Saidnasrning 5 qizi bo‘lgan, ulardan biri 1908 yilda shahrimizda tug‘ilgan Zaripa Saidnasarova bo‘lib, kelajakda Kimyo fanlari bo‘yicha nomzod darajasiga erishgan va Toshkentdagi Xalqaro Do‘stlik nomidagi Qishloq xo‘jaligi davlat institutida dotsent va kafedra mudiri lavozimigacha ko‘tarilgan. Shundan bir yil o‘tmay, NKVD xodimlari Turkistondagi so‘nggi jadid, qozog‘ va o‘zbek xalqlarining erkinligi, barchaning bilim va kelajagi uchun fidoyilik bilan kurashgan bu shaxsni olib ketgan. 1937 yil 9 oktyabrda unga hukm chiqarilib, o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Yuqorida aytilganidek, S. Mirjalilov birinchidan, XX asr boshlarida Qozog‘iston va butun Markaziy Osiyo siyosatiga ta’sir ko‘rsatgan yirik shaxslar bilan birga jadid harakatining yorqin yulduzi va asos soluvchilaridan biri bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursun H. Alash va Turkiston: tegish nuqtalari. – Olmaota: Qozog‘iston universiteti, 2021. – 212 b. [RUS]
2. Nurbetova G. Turkiston Avtonomiyasi taqdiri va Turkiston milliy harakati. – Olmaota: Qozog‘iston universiteti, 2020. – 198 b. [RUS]
3. Vahdet Tarakchi. Mustafa Shokayning esdaliklari – Turkiston Avtonomiyasi tarixi manbai // O‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati. – 2017. – B. 189–192 [RUS]
4. Hakan As. Konurxodja Xodjikov – Turkiston jadidizmining yorqin vakili // O‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati. – 2017. – B. 193–198 [RUS]
5. Sabirov A. 1917 yildagi saylovlar Turkistonda: mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishdan Oliy majlisgacha // O‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati. – 2017. – B. 14–21 [RUS]
6. Karimov N. Saidnasr Mirjalilov – Turkiston Avtonomiyasi xazinachisi // Jamiyat va boshqaruv O‘zbekistonda. – 2020. – №3. – B. 27–32 [RUS]
7. Bahrom Irzaev. Turkiston Muxtoriyati tarixini o‘rganishda muhim manba // O‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati. – 2017. – B. 94–111 [UZ]
8. Operativ ma’lumotnoma № 45 SPO OGPU O‘rta Osiyo, Kavkaz, Shimoliy Kavkaz, Tatariston, Qozog‘istondagi millatchilik guruhlar va ularning rahbarlari faoliyati haqida, sentabr 1931 // Stalinizm tarixi. Yuqori hokimiyat va boshqaruv organlari hujjatlari. 1927–1938 yillar. – M.: ROSSPEN, 2004. – B. 312–317 [RUS]
9. Shokay M. Turkiston uchun kurash. – Olmaota: Jalyn, 1998. – 320 b. [KAZ]

ИДЕИ ГУМАНИЗМА ДЖАДИДОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА: К МОДЕЛИ «ЦИФРОВОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ»

Филиппов Ольгерд Александрович,

НУВО «PROFI UNIVERSITY», Навои, Узбекистан,

доктор философии по философским наукам (PhD)

Неизбежное вовлечение образования, культуры и других сферы деятельности человека в цифровую инфраструктуру действует не только на оперативность и доступность коммуникации. Оно, в целом, меняет способы формирования идентичности современного поколения, само ощущение исторической преемственности. В результате гуманитарная проблематика возвращается в центр цифровой повестки почти неизбежно: там, где появляются платформы и алгоритмы, возникает вопрос о человеке как о цели, а не как о ресурсе, о достоинстве как о норме, а не как о массовой оферте.

В философских обсуждениях эту концепцию обычно обозначают понятием цифрового гуманизма - как попыткой удержать гуманистические основания в эпоху технологического ускорения, причем сам концепт живет между апологетикой и критикой и постоянно «проверяется» реальностью внедрения искусственного интеллекта (ИИ) [1, с. 48]. При этом, к сказанному можно добавить, что универсальные этические формулы часто оказываются слишком гладкими: они легко произносятся и столь же легко обходятся практикой. Поэтому закономерен поиск культурно-исторических опор, которые позволяют говорить о цифровизации как о внутренне признанных нормах, а не только как о импортированных рамках.

Джадидизм в этом смысле интересен как опыт т.н. «человекоцентричной модернизации», где реформы связывались с просвещением, воспитанием и ответственностью [2, с. 423]. Джадиды настаивали на обновлении образования, расширении доступа к знанию, формировании общественной субъектности - и делали это, опираясь на ценностный горизонт, в котором личность рассматривалась как носитель достоинства и морали [3, с. 604]. Если рассматривать цифровизацию как культурный процесс (а не только как внедрение технологий), то возникает исследовательская задача: возможно ли сделать измеримыми гуманистические идеи джадидов и превратить их в нормативную рамку оценки цифровых реформ, прежде всего в сфере образования и культуры.

Таким образом, цель статьи - на основе изученного материала источников реконструировать гуманистическое ядро джадидизма и предложить модель т.н. «цифрового просвещения» как локально укорененную версию цифрового гуманизма. Научная новизна состоит в том, что гуманизм джадидов рассматривается не описательно, а как набор потенциально проверяемых принципов, позволяющих обсуждать цифровую трансформацию

в терминах субъектности, национальной педагогики, культурной памяти и этической ответственности.

Методология. Настоящее исследование выполнено на материале корпуса научных публикаций, включающих работы о духовно-нравственных ценностях и мировоззренческой эволюции джадидизма, статьи о педагогической гуманизации в контексте джадидизма, публикации о значимости наследия джадидов для современного образования, исследование о цифровой культуре и трансформации исторических традиций, философский анализ цифрового гуманизма, а также тексты о цифровой трансформации гуманитарного образования и о культурно-этических измерениях ИИ.

В качество основных подходов применялись историко-философская реконструкция (выделение устойчивых гуманистических мотивов), сравнительно-концептуальный анализ (соотнесение гуманизма джадидов и цифрового гуманизма) и концептуальное моделирование (формулирование принципов «цифрового просвещения» и критериев их применения к цифровым реформам).

Результаты. Анализ научных публикаций последнего времени показывает, что гуманизм джадидизма проявляется как связка ценностей и практических ориентиров. Так, в работе Д. Бекчанова и Д. Салаева гуманитарное измерение движения джадидов раскрывается через эволюцию взглядов на духовность, нравственность, культуру и образование, при этом, что особенно важно, эти категории представлены как реальные основания просветительской деятельности, а не как факультативный «морализаторский» комментарий к их практикам [2, с. 421–428]. В социально-философском плане этот каркас уточняется в статье Д.Т. Амридиновой и Ш.Р. Алимовой: джадиды описываются как модернизаторы, связывавшие развитие общества с перестройкой образования, продвижением знания и культурными реформами при сохранении роли религии в нравственном воспитании [3, с. 599–607]. Для нас важно, что такое сочетание - рационализация и моральная ответственность - особенно заметно, когда цифровизация начинает восприниматься как «автоматическая модернизация» без ценностного содержания. Мировоззренческая динамика джадидизма в изученной литературе обосновывается как движение от преимущественно религиозно-этических оснований к просветительскому рационализму [4, с. 154]. Здесь речь не о разрыве с традицией, а о переосмыслении роли разума, науки и морали в общественном прогрессе. При этом философское осмысление джадидизма как общественно-политического и культурного движения Туркестана конца 19 - начала 20 века подчеркивает принципиальность образования и культуры как каналов преобразования общественной жизни [5, с. 1200]. В совокупности эти тексты задают ключевой результат реконструкции: гуманизм джадидов - это просвещение как способ расширения человеческой субъектности, а не просто гуманизм как отвлеченная идея человечности и доброты.

Педагогическое измерение гуманизма джадидов проявляется особенно явно. Так, в статье А.Х. Басырова подчеркивается тенденция отказа от физического воздействия на учащихся в «новометодных» школах и выявляется

социально-философская сущность гуманизма как критики насилия [6, с. 372–376]. Это немаловажная деталь: через нее видно, что образовательная реформа мыслится как изменение отношения к обучающемуся. В работах о женском движении джадидов и о духовно-педагогическом наследии движение к расширению образовательного пространства (включая женское образование) описывается как важная линия модернизации и национального возрождения [7, с. 102], [8, с. 417].

Таким образом, гуманизм джадидов согласно изученным источникам устойчиво включает человечность педагогики, приоритет развития личности и расширение доступа к знанию.

Отдельно хотелось бы рассмотреть источники по цифровой трансформации. Так, в статье М. Ахмаджоновой цифровизация показана как фактор, изменяющий восприятие, передачу и трансформацию исторических традиций; цифровая среда одновременно несет риск культурного упрощения и создает новые модели синтеза традиционного и современного, включая новые способы сохранения и реинтерпретации исторической памяти [9, с. 31–34]. В гуманитарном образовании этот вызов становится методологическим: внедрение ИИ и цифровых платформ требует учета плотности источников и многослойности культурных контекстов, а также баланса технологических инноваций и культурно-гуманитарной методологии [10, с. 204–212].

Дополнительно культурно-этическое измерение ИИ, рассматриваемое в контексте Узбекистана, фиксирует риски алгоритмической предвзятости, вопросы цифрового суверенитета и сохранения национальной идентичности в ИИ-системах [11, с. 166–176].

Эти результаты задают проблемное поле, в котором идеи гуманизма джадидов могут быть не декоративными, а практически реализуемыми.

Наконец, изученные источники содержат важный методологический потенциал: корпусные методы и цифровые инструменты могут повысить воспроизводимость интерпретации наследия джадидов, выявляя дискурсивные паттерны, риторические ходы и социокультурное содержание, «скрытые» в языке [12, с. 42–47], а это, по сути, мост между историко-философским анализом и цифровой гуманитаристикой, без которого разговор о гуманизме легко скатывается в общие слова.

Обсуждение. Если цифровой гуманизм в философской литературе понимается как попытка удержать обновленную этику для цифровой эпохи, то в реальной политике цифровизации он часто сталкивается с соблазном заменить этику процедурами. Гуманизм джажидизма помогает сопротивляться этой подмене именно потому, что связывает модернизацию с воспитанием, культурой, ответственностью - то есть с теми областями, которые цифровые реформы обычно рассматривают как «контент» или «сервис». Тут и возникает предлагаемая модель «цифрового просвещения». Ее смысл не в том, чтобы буквально «перенести идеи джадидов в интернет», а в том, чтобы оценивать цифровую трансформацию по тому, усиливает ли она субъектность человека и способность к самостоятельному суждению, а также сохраняет ли культурную преемственность.

В образовательной сфере эта рамка выглядит особенно конкретно. Если для джадидов гуманизация школы включала отказ от насилия и признание ценности личности ученика, то в цифровой среде аналогом становится вопрос о допустимых формах автоматизированного контроля, о прозрачности алгоритмов, о том, кто несет ответственность за ошибки цифровых платформ и ИИ-инструментов. Здесь позиция о необходимости баланса между технологическим обновлением и гуманитарной методологией звучит как продолжение логики джадидов: технология полезна, пока она усиливает образование как пространство для роста, а не превращает его в «систему подавления».

При этом вопрос цифрового суверенитета и культурной идентичности делает тему менее абстрактной: даже этика ИИ оказывается связана с тем, какие ценности встроены в модели, какие данные считаются «нормой» и какие искажения становятся незаметными.

Культурный уровень цифровизации добавляет еще один аспект, так М. Ахмаджонова показывает двойственность цифровой среды: она и упрощает традицию, и дает шанс на ее обновление и сохранение. В перспективе это можно прочитать так: модернизация без культурной работы производит ускорение без направления, тогда как просвещение предполагает содержательность - необходимость удерживать «смысл», а не только «форму». Именно поэтому обращение к наследию джадидов в современном образовании трактуется как источник гуманистических и инновационных ориентиров: речь идет не о цитировании прошлого, а о встраивании ценностных оснований в образовательные практики.

Наконец, методологическая часть модели «цифрового просвещения» состоит в требовании верификации. Корпусно-ориентированный анализ текстов джадидов предлагает технический способ снизить произвольность интерпретаций, когда гуманизм доказывается не только ссылками на вторичную литературу, но и структурой самого дискурса: частотностью тем, устойчивыми связками понятий, риторическими стратегиями. Этот шаг кажется незначительным, но именно он делает разговор о гуманизме в цифровую эпоху более строгим: мы не просто утверждаем ценности, мы показываем, как они выражены в языке и как могут быть переведены в критерии оценки цифровых практик.

Заключение. Изучение источников позволяет выделить гуманистическое ядро джадидизма как «человекоцентричную» программу просвещения: достоинство личности, гуманизация воспитания, расширение образовательных возможностей (включая женское образование), рационализация просветительского мышления при сохранении моральной ответственности и культурной самобытности. В условиях цифровизации эти принципы приобретают прикладное значение, поскольку цифровая среда меняет режимы культурной памяти и образовательные практики, а внедрение ИИ обостряет вопросы ответственности, предвзятости и идентичности.

Предложенная модель «цифрового просвещения» переводит идеи гуманизма джадидов в нормативную рамку: цифровая трансформация

оправдана постольку, поскольку она усиливает субъектность человека, поддерживает ненасильственную и уважительную педагогическую культуру, расширяет доступ к знанию и не разрушает культурную преемственность.

Перспектива усиления доказательности данной модели связана с корпусными методами анализа текстов джадидов как инструментом воспроизводимого изучения гуманистических смыслов.

Список литературы:

1. Белобрагина А.С. Цифровой гуманизм: между апологией и критикой философской концепции // Философия и культура. 2025. № 9. С. 47–60. DOI: 10.7256/2454-0757.2025.9.75779. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=75779 (дата обращения: 2.02.2026).

2. Бекчанов Д., Салаев Д. Духовные и нравственные ценности во взглядах и деятельности джадидов (XIX–XX веке) // Актуальные проблемы истории Узбекистана. 2023. Т. 1, № 1. С. 421–428. URL: https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16524 (дата обращения: 1.02.2026).

3. Амридинова Д.Т., Алимова Ш.Р. Социально-философская сущность учения джадидизма // Educational Research in Universal Sciences. 2023. V. 2. Special Issue 4. С. 599–607. (вып. June 2023). (дата обращения: 1.02.2026).

4. Хайдарова Д.А. Эволюция мировоззренческих идей джадидов: от религиозной этики к просветительскому рационализму // Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari. 2025. Т. 2, № 3 (March). С. 153–158. URL: https://www.innovativepublication.uz (дата обращения: 3.02.2026).

5. Эргашев У.А. Философское мировоззрение джадидизма // Экономика и социум. 2024. № 11(126)-1. С. 1198–1201. URL: https://www.iupr.ru (дата обращения: 1.02.2026).

6. Басыров А.Х. Религиозная мораль Средневековья и принципы гуманизма в джадидизме // Вестник Башкирского университета. 2008. Т. 13, № 2. С. 372–376. (дата обращения: 3.02.2026).

7. Шодиева И.С. Женское движение джадидов // International Conference on Modern Development of Pedagogy and Linguistics. 2024. Vol. 01, Issue 11. С. 101–104. URL: https://universalconference.us (дата обращения: 2.02.2026).

8. Султанова Г.С., Хаджикурбанова М. Роль духовного наследия джадидов в современном образовании // «Ijtimoiy va gumanitar ta’lim yo‘nalishlardagi talabalarning kompetentligini oshirish: muammolar va yechimlar» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Samarqand, 23–24 may 2025. С. 415–420.

9. Akhmadjonova M. Digital Culture and Historical Traditions of Uzbekistan: Conflict or Synthesis? // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2025. Vol. 03, Issue 09 (October). P. 31–34. ISSN 2992-8869.

10. Вохидов Ш.Х. Проблемы цифровой трансформации и искусственного интеллекта при преподавании истории цивилизации Востока

и их решения // International Journal of Science Scientific Bulletin. 2025. Vol. 4, Issue 1. C. 204–212. ISSN 306-4583.

11. Ostonov J. The Philosophy of Artificial Intelligence in Uzbekistan: Cultural and Ethical Dimensions // Academic Research in Modern Science. 2025. 4(51). P. 166–176. DOI: 10.5281/zenodo.17092089. (дата обращения: 2.02.2026).

12. Dalieva M. Corpus-Driven Innovations for Interpreting Jadid Texts // Current Approaches and New Research in Modern Sciences: International scientific-online conference. 2025. P. 42–47. DOI: 10.5281/zenodo.14642954.

JADIDLAR MATBUOTIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MUSHTARAKLIGI MASALASI

Ostonov Zafar Zamonovich

BuxDPI, Harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi

Narzulloyev Mavlon Zikrullo o‘g’li

BuxDPI, harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

XX asr boshlarida Turkistonda jadid ziyolilari tomonidan ta’sis etilgan matbuot organlari nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakatining eng muhim qurollari bo‘lgan. Jadid matbuoti o‘z sahifalarida milliy o‘zlikni anglash, milliy tilni rivojlantirish, ta’lim tizimini isloh qilish va ijtimoiy adolat kabi masalalarni ko‘tarib chiqqan. Shu bilan birga, jadidlar o‘z g‘yolarini faqat milliy doirada cheklab qo‘ymay, umuminsoniy qadriyatlar va jahon taraqqiyoti tamoyillari bilan uyg‘unlashtirgan [1].

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlik va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlarning bu boradagi tajribasi zamonaviy jamiyat uchun ham ibratli va yo‘l ko‘rsatuvchi hisoblanadi. Maqolaning maqsadi jadid matbuotidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini tahlil qilishdan iborat.

Turkistondagi jadid matbuoti 1906-yildan boshlab faoliyat ko‘rsata boshladi. “Taraqqiy” (1906), “Xurshid” (1906), “Shuhrat” (1907), “Samarqand” (1913), “Oyina” (1913) kabi gazetalar va jurnallar jadidlarning g‘oyaviy minbari bo‘ldi. Bu matbuot organlarining asosiy maqsadlaridan biri mahalliy xalqda milliy ongni shakllantirish va milliy o‘zlikni anglash jarayonini tezlashtirish edi [2].

Jadid matbuotida milliy o‘zlik masalasi bir necha muhim yo‘nalishda yoritildi. Birinchidan, milliy til masalasi – jadidlar ona tilida ta’lim berish, adabiy til yaratish va rasmiy ish yuritishda milliy tildan foydalanish zaruriyatini ta’kidladilar. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zining maqolalarida “tilsiz millat – jonsiz tana” degan g‘oyani ilgari surdi [3].

Ikkinchidan, tarixiy xotira masalasi – jadidlar matbuot orqali Turkiston xalqlarining boy tarixiy merosini eslatib, milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirdilar. Behbudiy o‘zining maqolalarida Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalarning merosini eslatar va xalqni ilmga da’vat etar edi [4].

Uchinchidan, milliy birlik masalasi – jadidlar matbuotda mahalliy urug‘-aymoqchilik, qabilachilik kabi bo‘linishlarga qarshi chiqib, yagona milliy ong shakllanishi uchun kurashdilar. Ular “turkistonlik” identitetini ilgari surib, hududiy va etnik farqlardan ustun turuvchi milliy birlik g‘oyasini targ‘ib qildilar [5].

Jadid matbuotida umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi. Jadid ziyolilari milliy masalalar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarga ham katta e’tibor berdilar. Ularning matbuot sahifalarida ilm-fan, ta’lim, tenglik, adolat, erkinlik kabi qadriyatlar keng yoritildi. Jadidlar uchun milliy taraqqiyot umuminsoniy taraqqiyotdan ajralmas edi [6].

Jadid matbuotida ta’lim olish huquqi hamma uchun – erkaklar va ayollar uchun teng bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Behbudiy va boshqa jadidlar ayollar ta’limini qo‘llab-quvvatladilar va bu masalani matbuotda faol yoritdilar. Bu yondashuv o‘sha davr uchun g‘oyat ilg‘or qadam edi va umuminsoniy haq-huquqlar tamoyiliga asoslanardi [7].

Jadidlar matbuotda diniy bag‘rikenglik va turli xalqlar o‘rtasidagi tinch-totuvlik g‘yolarini ham ilgari surdilar. Ular islom dinining mohiyatan ilm-fan va taraqqiyotga qarshi emasligini isbotlashga harakat qildilar va diniy fanatizm hamda jaholatga qarshi kurashdilar. Bu yondashuv ularning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligining yana bir dalili edi [8].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi. Jadidlar matbuotining eng muhim xususiyatlaridan biri milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qarama-qarshi qo‘ymasdan, ularni bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rsatganligidir. Abdurauf Fitrat o‘zining asarlarida Turkiston xalqlarining milliy qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ekanligini ta’kidladi [9].

Jadidlarning bu yondashuvi zamonaviy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Ular milliy o‘zlikni mustahkamlash milliy yopiqliklarga olib kelmasligini, aksincha, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, jahon madaniyati va ilm-fanning eng yaxshi yutuqlarini o‘zlashtirish zarurligi haqidagi g‘oyani matbuot orqali faol targ‘ib qildilar [10].

Jadid matbuotining xorijiy matbuot bilan aloqalari va qiyosiy tahlil. Jadid matbuotining shakllanishida nafaqat mahalliy omillar, balki xorijiy matbuot tajribalari ham muhim rol o‘ynadi. Turkiston jadidlari Rossiya musulmonlari matbuoti, xususan, Ismoil Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasi (1883) tajribasidan bevosita bahramand bo‘ldilar. Gasprinskiyning “tilda, fikrida, ishda birlik” shiori jadid matbuotining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, Turkiya matbuoti, xususan “Iqdom”, “Saboh” kabi gazetalar ham Turkiston jadidlariga ilhom manbai bo‘ldi [11].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Turkiston jadid matbuoti o‘sha davrda butun musulmon olamida kechayotgan islohotchilik harakatlarining tarkibiy qismi edi. Misr, Hindiston, Eron va Turkiyadagi islohotchi ziyolilar ham xuddi shu davrda matbuot orqali milliy uyg‘onish va zamonaviylashtirish g‘oyalarini targ‘ib

qilmoqdalar edi. Masalan, Misrdagi Muhammad Abdu va Jamoliddin Afg‘oniyning islohotchilik g‘oyalari Turkiston jadidlarining dunyoqarashiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiy va Fitrat o‘z maqolalarida bu mutafakkirlarning asarlariga murojaat qilganlar [12].

Jadid matbuotining ijtimoiy ta’sir kuchi va oqibatlari. Jadid matbuotining jamiyatga ta’siri faqat ma’lumot tarqatish bilan chegaralanmadi, balki u ijtimoiy o‘zgarishlarning haqiqiy katalizatoriga aylandi. Matbuot orqali targ‘ib qilingan g‘oyalar natijasida yangi usuldagi maktablar ochildi, xayriya jamiyatlari tashkil etildi, teatr truppaalari faoliyat boshladi va kutubxonalar barpo etildi. “Samarqand” gazetasi sahifalarida e’lon qilingan maqolalar natijasida bir qancha badavlat savdogarlar yangi usuldagi maktablarni moliyalashtirish uchun o‘z mablag‘larini ajratdilar [13].

Biroq, jadid matbuotining faoliyati mustamlaka hukumati tomonidan doimo nazorat ostida bo‘ldi. Chor Rossiyasi ma’muriyati jadid nashrlarini senzuradan o‘tkazish, nashr ruxsatini cheklash va hatto yopish kabi choralarni ko‘rdi. Masalan, “Taraqqiy” gazetasi atigi bir necha oy faoliyat yuritgandan so‘ng yopildi. Shunga qaramay, jadidlar turli shakllar va yo‘llar bilan matbuot faoliyatini davom ettirdilar. Bir gazeta yopilganda, boshqa nom ostida yangi nashr chiqarish amaliyoti keng tarqalgan edi [14].

Jadid matbuotining yana bir muhim jihati shundaki, u o‘zbek adabiy tilining shakllanishida ham katta rol o‘ynadi. Matbuot sahifalarida yozilgan maqolalar, she’rlar, hikoyalar va tarjimalar orqali o‘zbek tilining lug‘at boyligi oshdi, yangi atamalar va tushunchalar kiritildi, grammatik me’yorlar shakllana boshladi. Jadid mualliflari ilmiy, siyosiy va ijtimoiy mavzularda ona tilida yozish tajribasini to‘plash orqali zamonaviy o‘zbek adabiy tilining asoslarini yaratdilar [15].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadid matbuotida milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi masalasi yaxlit konsepsiya sifatida o‘z ifodasini topgan. Jadidlar milliy tilni rivojlantirish, tarixiy xotirani tiklash va milliy birlikni mustahkamlash orqali milliy o‘zlikni shakllantirishga intilgan holda, ayni paytda ta’lim, tenglik, adolat va diniy bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham faol targ‘ib qilganlar.

Jadidlar tajribasi bugungi kunda globallashuv sharoitida milliy o‘zlik va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasida muhim ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ma’naviy merosi O‘zbekistonning zamonaviy ma’naviy-madaniy siyosatini shakllantirishda qimmatli manba sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 78–110.

2. Qosimov B. Turkiston matbuoti tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2003. – B. 23–56.

3. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – B. 34–60.

4. Alimova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkiston jadidchiligi. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 56–80.

5. Xo‘jayev A. Jadidlar va milliy birlik g‘oyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 45–70.
6. Dolimov U. Jadidchilik va milliy matbuot. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 67–95.
7. Karimova S. Jadidlar va ayollar ta’limi masalasi. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 23–45.
8. Abdullayev R. Jadidlar va diniy islohotlar. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 56–78.
9. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 34–67.
10. Karimov N. Jadidchilik va jahon madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 45–78.
11. Lazzerini E. Ismail Bey Gasprinskii and Muslim Modernism in Russia. – Seattle: University of Washington, 1973. – P. 45–90.
12. Rajabov I. Turkiston va musulmon olami: madaniy aloqalar. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 56–89.
13. Dolimov U. Jadid matbuotining ijtimoiy ta’siri. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 78–105.
14. Qosimov B. Mustamlaka davrida Turkiston matbuoti va senzura. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2005. – B. 34–67.
15. Toshmatov O. Jadid matbuoti va o‘zbek adabiy tilining shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 23–55.

САЪДИДДИН ҲАМАВИЙ ВА НАЖМИДДИН КУБРО: МУРИД ВА МУРШИДЛИК МУНОСАБАТЛАРИ

Ражабов Алишер Шавкатович

Бухоро давлат педагогика институти мустақил изланувчиси

Саъдиддин Ҳамавий[155] Хуросонда тўрт-беш авлоддан бери илмий, сиёсий ва ҳарбий соҳаларда муҳим мавқеларни эгаллаб келган оиланинг фарзандидир[156]. Тўлиқ исми Муҳаммад ибн ал-Муайяд ибн Абу Бакр ибн Абулҳасан ибн Муҳаммад ибн ал-Ҳаммуядир. У 586/1191 йилда ота юрти Баҳрободда дунёга келган. Умрининг кўп қисмини узоқ саёҳатларда ўтказган. Васиятномасида йигирма беш йил турли мамлакатларни кезганини ва ҳамон сафарда эканини шахсан ўзи ифода этади. 600/1203 йилда Шодиёҳда, 604/1207 йилда Баҳрободда бўлган Саъдиддин, 605/1208 йил Муҳаррам ойида илм таҳсил қилиш учун Хоразмга борган. 609/1212 йилгача бу

[155] Ушбу нисбанинг турли шаклларда ўқилиши кузатилади. Масалан, “Ҳамавий, Ҳамуя, Ҳамувайҳ, Ҳамавийя” каби. Шайх Саъдиддиннинг оиласи Суриянинг Ҳама шаҳридан бўлмагани учун “Ҳамавий” деб ўқиш чалкашликка сабаб бўлишини инобатга олиб, биз “Ҳаммуя” деб ёзишни афзал кўрдик. Шайх Саъдиддиннинг “ал-Мисбоҳ фи-т-тасаввуф” асарини нашрга тайёрлаган Нажиб Моил Ҳиравий ҳам, ДИАдаги Нажмиддин Кубро ҳақидаги мақолани ёзган Ҳамид Алгар ҳам шу тарзда ёзишни маъқул кўрганлар. Бу баҳсли масала юзасидан қаранг: Элиас, “The Sufi Lord of Bahrabad: Saъd al-Din and Sadr al-Din Hamuwayi”, cc. 53-55.

[156] Saîd Nefîsî, “Hânedân-ı Sa‟deddîn Hammûye”, ss. 6-39.

ерда машҳур олим Шаҳобиддин Ҳивақийдан дарслар олган. Шундан сўнг бир неча йил Нишопурдаги Султонийя мадрасасида Муинуддин Жожармий (ваф. 613/1216) ўрнида мударрислик қилган; зоҳирий илмларни тарк этиб, тасаввуфга юзланган ва Хуросонга ўтган. Сўнгра Ҳижозга бориб, ҳаж амалини адо этган ва яна Хуросонга қайтган. Аниқ санаси маълум бўлмаса-да, 614–616 йилларда Нажмиддин Куброга боғланган, 616/1219 йил Зулҳижжа ойининг охирларида ижозат олган ва мўғуллар истилосидан олдин бу ҳудудни тарк этган. Шундан кейин яна саёҳатларни бошлаган Ҳамавий Макка, Мадина, Мосул, Бағдод, Миср, Ҳимс, Ҳалаб, Шом каби кўплаб шаҳарларни кезган. 644/1246 йилда Омулда эканлигида ўғли Садриддин Иброҳимнинг туғилгани ҳақидаги хабарни олган. 644–648 йиллар оралиғида Хуросонга бир неча бор келиб-кетган. 648/1250 йилда яна Омулда эканлигида иккинчи ўғли Хожа Яҳёнинг туғилгани ҳақидаги хушхабар унга етказилган. 649/1251 йилда Хуросонга сўнгги марта келган ва ўша йили 18-Зулҳижжада вафот этган. Чунки Саъдуддин бу йили Шайх Кубродан ижозатини олган ва мўғуллар истилосидан олдин Хоразмни тарк этган эди. Саъдиддин Ҳамавийнинг “Мурод ул-муридин” асарида Шайх Саъдиддиннинг хилват шайхи Нажмиддин Кубронинг уч юздан ортиқ муриди бўлгани қайд этилган. Нажмиддин Кубро атрофида сони олтмишга етадиган муридлар оммаси шакллана бошлаган. Улар орасида тасаввуф адабиётида ўз асарлари билан из қолдирган Маждуддин Бағдодий (ваф. 616/1219), Нажмиддин Доя (ваф. 654/1256), Саъдиддин Ҳамавий, Сайфуддин Бохарзий, Радиюддин Али Лоло каби мутасаввифлар бўлган.

Нажмиддин Кубродан қайси шогирдини афзал кўриши ҳақида сўралганда, “Саъдиддин Ҳаммуйий ва Азизуддин Розий” деб айтган ва “Аммо Саъдиддин тоир (учувчи), Азизуддин эса соир (юрадиган)” деб Саъдиддиннинг афзаллигини кўрсатган. Бошқа бир ривоятда эса Нажмиддин Кубро: “Барча соликлар Аллоҳ таолонинг толибидир, аммо Саъдиддин унинг матлубидир”- деб унинг бошқа муридлардан устунлигини билдирган. У ўз шогирди Ҳамавийга бўлган ҳайратини унга берган ижозат матнида ҳам акс эттирган. У унга берган ижозат матнида бошқа шогирдларига берганидан фарқли ўлароқ, Ҳамавийни кўп мақтаган, уни Ҳақ Таоло хавоссини ризқлантирган маънавий тажрибалар билан озиқлантирган шахс сифатида таърифлаган ва унинг авлиё ва сиддиқлар билан бир хил даражада эканлигини таъкидлаган. Манбалардан маълум бўлишича, Нажмиддин Кубронинг вафотидан сўнг, бошқа кубравий шайхлари ва унга мансуб кишилар Ҳамавий билан яқин муносабат ўрнатишдан ўзларини тортганлар. Бунинг икки асосий сабаби борлиги кўпгина манбаларда қайд этилади. Биринчиси, унинг Кубравия тариқатидан кўра кўпроқ Ибн Арабий мактабининг издоши сифатида ҳаёт кечирганидир. У бир рисоласида ўзидан олдинги авлоднинг энг буюк сўфийларини санар экан, “Имомул-муҳаққиқин Муҳйиддин ибн ал-Арабий, шайх Нажмиддин ал-Кубро ва шайх Шахобуддин Суҳравардий” шаклида тартиб беради[157]. Унинг Ибн Арабий ҳақидаги “Соҳилсиз бир уммондир” деган сўзини аввалроқ зикр қилган эдик. Унинг Кўнавий билан яқин алоқаси ҳам маълум. Буларнинг барчасини инобатга олганда, Ҳамид Алгарнинг “Саъдиддин Ҳамавий кубравийликни Ибн ал-Арабийнинг ваҳдати вужуд қараши билан бирлаштирган илк кубравий шайхидир. Дастлабки давр кубравийлари

[157] Hammûye, Risâle Der Tasavvuf, Süleymaniye Ktp., Serez, nr. 3931, vr. 33b.

орасида ундан ташқари бу қарашга мойиллик деярли йўқ ҳисоби”[158]-деган баҳоси анча ўринлидир.

Иккинчидан, Ҳамавий оиласининг мўғул бошқаруви ва сиёсати билан жуда яқин алоқада бўлганлигидир. Бу Кубровийлик тариқати унчалик ҳам маъқулламайдиган бир ҳолат эди. Саъдиддин Ҳамавийнинг ўғли Садриддин Элхонлийлар саройи билан мустаҳкам алоқага эга бўлиб, машҳур мўғул тарихчиси Ато Малик Жувайнийнинг қизига уйланган. Саъдиддиндан хирқа кийган амакисининг тўрт ўғли ҳам мўғулларнинг ҳарбий ва фуқаролик бюрократиясида хизмат қилган. Маждиддин Бағдодий бир мактубида Ҳамавий оиласининг бу тутумидан безовта бўлганини айтади. Эҳтимол, у шикоят қилган кишилар ҳам айнан шулардир. Акс ҳолда, Бағдодийнинг Саъдиддин билан муносабатлари анча яхши бўлгани англашилади. “Нафаҳот”да келтирилган ғоз-тухум воқеасида Шайх Кубро Маждуддин Бағдодийдан ғазабланганида, Бағдодий Саъдиддин Ҳамавийдан шайхи билан ўзининг орасида воситачилик қилишини илтимос қилган.

Биз юқорида зикр этган икки сабабга учинчисини ҳам қўшишимиз мумкин. Бу Шайх Саъдиддиннинг асарларида, хусусан, валоят-нубувват масаласи муҳокама қилинганда, баъзи шиавий мойилликлар мавжудлиги ҳақидаги даъводир. Унинг энг муҳим издошларидан бўлган Азизиддин Насафий (ваф. 700/1300) қуйидаги сўзларни шайхидан эшитганини билдиради: “Билгилки, Шайх Саъдиддиннинг айтишича, ҳазрати Муҳаммаддан аввалги динларда валий йўқ эди, валий номи ҳам йўқ эди. Аллоҳга яқин бўлган кишиларни умумий қилиб пайғамбар дейишарди. Ҳар бир динда битта шариат соҳиби бўлиб, уларнинг сони бирдан ошмаган бўлса-да, бошқалар халқни унинг динига даъват қилар ва уларнинг ҳаммасини анбиё деб аташарди. Демак, ҳазрати Одам динида бир неча пайғамбар бўлиб, улар халқни Одамнинг динига даъват этганлар. Нуҳ, Иброҳим, Мусо ва Исо динларида ҳам худди шундай эди. Навбат Муҳаммадга келганда, у: “Мендан сўнг халқни менинг динимга даъват этадиган пайғамбар келмайди. Мендан сўнг менга эргашган ва Аллоҳга яқин бўлган кишиларнинг номи авлиёдир. Бу валийлар халқни менинг динимга даъват қиладилар”, деб марҳамат қилган. Валий номи Муҳаммад динида пайдо бўлди. Аллоҳ таоло унинг умматидан 12 кишини танлаб, ўзига яқин қилди. Уларни ўз валоятига хослаб, ҳазрати Муҳаммаднинг ноиблари этди. Олимлар пайғамбарларнинг ворисларидир. Бу 12 киши ҳақида: “Умматимнинг олимлари Бани Исроил пайғамбарлари кабидир”, дейилган. Шайхга кўра, Муҳаммад умматида бу 12 кишидан ортиқ валий йўқдир. Ўн иккинчиси валийларнинг сўнггиси бўлиб, унинг номи “Маҳдий” ва “Соҳиби Замон”дир. Эй дарвиш, Шайх Саъдиддин бу соҳиби замон ҳақида китоблар ёзиб, уни кўп мадҳ этган ва шундай деган: “Илми ва қудрати камолот даражасидадир. Бутун ер юзини ўз ҳукми остига олади ва адолат билан безайди. Куфр ва зулмни бир лаҳзада ер юзидан йўқ қилади. Ер юзининг барча хазиналари унга аён бўлади”[159].[468] Насафий бир гал бу борада кўп сўзлаган шайхига эътироз билдирмоқчи бўлган, бироқ Ҳаммуя бу муносабатдан ранжиган: “Хуросонда Шайх Саъдиддиннинг хизматида эканимда, шайх бу соҳиби замон ҳамда унинг қудрати ва камолоти ҳақида кўп муболаға қиларди. Шу даражадаки, бизнинг идрок-

[158] Algar, “Necmeddîn-i Kübrâ”, DĠA, XXXII, 501.
[159] Azîz Nesefî, Insân-ı Kâmil (Tasavvufta Insan Meselesi), haz. Mehmet Kanar, Dergâh Yay., Istanbul, 1990, s. 142.

у фаҳмимиз бунга етмас, ақлимиз бу масалаларни қамраб ололмасди. Бир куни унга: “Эй шайх, бундай киши келмаган. У ҳақида бунчалик муболаға қилиш тўғри бўлмас. Балки у бундай эмасдир”, дедим. Шайх ранжиди. Мен ҳам бу сўзни тарк этиб, бошқа бу ҳақда гапирмадим”[160]. Ҳамид Алгар эса бундай сўзлар билан унинг шиа ақидасини қабул қилган деб бўлмаслигини таъкидлаб, шундай дейди: “Бу каби фикрлар баъзан Ҳамавийнинг шиа деб қабул қилинишига олиб келган ва у ҳақда кейинги даврларда баъзи кубравийлар ҳам қабул қиладиган шиаликнинг илк излари кўрилган “дастлабки шиа” таърифи ишлатилган. Аслида, Ҳамавийнинг валоят ва ўн икки имом тасаввурида шиаликни эслатадиган жиҳат йўқ. Унинг ўн икки имом тушунчаси сўфиёна нуқтаи назарга эга муқаддас тарих тушунчасини асослашга уринишдан иборатдир. Айниқса, ўн иккинчи имомни “хотамул-авлиё” деб аташи Ибн ал-Арабий терминологиясидан ўзлаштирилган тушунчадир”[161]. Зоҳирий ва ботиний илмларда ўзига улуш соҳиби бўлган Шайх Саъдиддин анча сермаҳсул бир ёзувчидир. Унинг “Маҳбубул-муҳиббин ва Матлубул-восилин” ҳамда “Сажанжал ул-арвоҳ” бошчилигида “Зуҳурут-тавҳид фи нурит-тажрид”, “ал-Иҳсо фи илмил-асмоил-ҳусно”, “Сакинатус-солиҳин”, “Ҳақойиқул-ҳуруф”, “Китобул-ҳарф” ва “ал-Мисбоҳ фит-тасаввуф” каби элликдан ортиқ араб ва форс тилларидаги асарлари бор.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Algar, “Necmeddîn-i Kübrâ”, DĠA, XXXII, 501.Элиас, “The Sufi Lord of Bahrabad: Саъд al-Din and Sadr al-Din Hamuwayi”, cc. 53-55.

2. Azîz Nesefî, Insân-ı Kâmil (Tasavvufta Insan Meselesi), haz. Mehmet Kanar, Dergâh Yay., Istanbul, 1990, s. 142.[1] Saîd 3. Nefîsî, “Hânedân-ı Sa‘deddîn Hammûye”, ss. 6-39.

4. Hammûye, Risâle Der Tasavvuf, Süleymaniye Ktp., Serez, nr. 3931, vr. 33b.

JADID MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA AYOLLAR HUQUQI MASALASI

Tag‘oyeva Dilnavoz

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Hamroyeva Ruxsora Shavqiddin qizi

BuxDPI, 1-bosqich magistranti

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan tub burilishlar jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jadidlar jamiyatni yangilashni, avvalo, ma’rifat va ta’lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshirish mumkin, deb hisobladilar. Ular uchun oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy

[160] Azîz Nesefî, Insân-ı Kâmil (Tasavvufta Insan Meselesi), haz. Mehmet Kanar, Dergâh Yay., Istanbul, 1990, s. 142.
[161] Algar, “Necmeddîn-i Kübrâ”, DĠA, XXXII, 501

bo‘g‘ini bo‘lib, sog‘lom oilaviy muhit millat ravnaqining asosiy sharti sifatida talqin qilindi.

Jadidchilik nafaqat ma’rifiy islohotchilik harakati, balki jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu harakat namoyandalari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon va boshqalar – o‘z asarlarida millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida oila, ta’lim va ayol maqomiga alohida e’tibor qaratdilar.[1]

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ma’rifiy harakat vakillari — jadidlar merosini o‘rganish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risidagi qarorni imzolashini aytdi.[2]

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, — dedi u.[3]

Jadid mutafakkirlari nazarida jamiyat islohoti, avvalo, oiladan boshlanishi lozim edi. Shu bois ularning pedagogik, publitsistik va badiiy asarlarida oilaviy munosabatlar madaniyati, ayollarning ijtimoiy o‘rni va huquqlari masalasi yetakchi mavzulardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Shu nuqtayi nazardan, oilaviy munosabatlar va ayollar huquqi masalasi jadid mutafakkirlari merosida alohida o‘rin egallaydi. Ular ayolning jamiyatdagi mavqei, nikoh mas’uliyati, farzand tarbiyasi, gender tenglik kabi masalalarni keng muhokama qilganlar.

Maqolada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-tahliliy va germenevtik metodlardan foydalanildi. Jadid mutafakkirlarining badiiy asarlari, publitsistik maqolalari hamda pedagogik qarashlari matnshunoslik asosida tahlil qilindi. Shuningdek, ularning g‘oyalari o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog‘liq holda talqin etildi.

Jadidlar oilani millat kelajagini belgilovchi asosiy ijtimoiy institut sifatida talqin etdilar. Ular fikricha, sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat demakdir.

Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya masalasini keng yoritib, bola tarbiyasida ota-ona mas’uliyatini alohida ta’kidlaydi. Uning qarashlarida oiladagi mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ma’rifat muhitini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining zarur sharti sifatida talqin qilinadi. Avloniy oila muhitini “axloq maktabi” deb ataydi va undagi nosog‘lom munosabatlarni millat tanazzulining sabablaridan biri sifatida baholaydi.[4]

Mahmudxo‘ja Behbudiy esa o‘z maqolalarida va dramaturgik asarlarida (xususan, “Padarkush” dramasi) oiladagi jaholat, zo‘ravonlik va tarbiyasizlik oqibatlarini fojiali syujetlar orqali ochib beradi. Behbudiy nazarida, farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik nafaqat oilaviy fojea, balki milliy fojia hamdir.

Jadid mutafakkirlari ayol masalasini millat ozodligi va taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rdilar. Ular ayolni faqatgina oila doirasida emas, balki ijtimoiy hayotning faol subyekti sifatida tasavvur etdilar.[5]

Abdurauf Fitrat o‘zining publitsistik asarlarida va dramatik asarlarida ayollarning savodsizligi va huquqsizligini keskin tanqid qiladi. Uning “Oila” asarida nikoh, er-xotin munosabatlari, ayolning sha’ni va qadr-qimmati masalalari islomiy

va zamonaviy huquqiy mezonlar asosida tahlil etiladi. Fitrat ayolning ilm olishini farz deb biladi hamda ma’rifatli ona – ma’rifatli avlod garovi ekanini ilmiy-mantiqiy asoslaydi.[6]

Cho‘lpon ijodida ham ayol obrazi ozodlik va iztirob timsoli sifatida gavdalanadi. Uning she’riyati va nasriy asarlarida ayolning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, jamiyat tomonidan qo‘yilgan cheklovlar badiiy-estetik vositalar orqali yoritiladi. Bu esa jadid adabiyotida ayol masalasining nafaqat ijtimoiy, balki psixologik talqinini ham yuzaga keltirdi.

Jadid mutafakkirlari oila institutini jamiyatning axloqiy va ma’naviy negizi sifatida ko‘rdilar. Xususan, Behbudiyning dramatik asarlarida johillik, majburiy nikoh va ma’naviy inqiroz oqibatlari tanqid qilinadi. U oila qurishda ongli tanlov va ma’rifat mezonlarini ustuvor deb biladi.

Avloniy o‘zining pedagogik qarashlarida farzand tarbiyasini millat kelajagi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tarbiya jarayonida ona savodxon va ma’rifatli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ayol ta’limi jamiyat taraqqiyotining strategik omilidir.

Fitrat asarlarida ayolning ijtimoiy faolligi, uning huquqiy maqomini mustahkamlash zarurati alohida ta’kidlanadi. U ayollarni faqat uy-ro‘zg‘or doirasida cheklab qo‘yish millat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilishini asoslab beradi. Jadidlar ayollarning maktablarda tahsil olishi, kasb-hunar egallashi va jamiyat hayotida faol ishtirokini qo‘llab-quvvatladilar.

Jadidlar o‘z asarlarida o‘sha davrda keng tarqalgan majburiy nikoh, erta turmush va ko‘pxotinlilik kabi illatlarni tanqid qildilar. Ular nikohning asosida o‘zaro rozilik, hurmat va ma’naviy uyg‘unlik bo‘lishi lozimligini ta’kidladilar.

Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ma’rifatchilar ta’lim tizimini isloh qilish bilan bir qatorda, qiz bolalar maktablarini ochish, ularni savodli qilish orqali oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirishni maqsad qildilar. Ularning fikricha, savodsiz ayol – tarbiyasiz avlod, tarbiyasiz avlod esa tanazzulga yuz tutgan jamiyatni anglatadi.[7]

Jadidlarning bu boradagi qarashlari diniy manbalarga zid emas, aksincha, islomning asl insonparvarlik mohiyatiga uyg‘un tarzda talqin qilindi. Ular shariatni noto‘g‘ri talqin qilish oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etishga harakat qildilar.

Jadid adabiyotida ko‘pxotinlilik, majburiy nikoh, ayollarning ijtimoiy cheklanishi kabi illatlar keskin tanqid ostiga olinadi. Bu tanqid diniy qadriyatlarni inkor etish emas, balki ularni zamon talablari asosida yangicha talqin qilish zaruratidan kelib chiqqan edi. Jadidlar islomning asl mohiyatini ma’rifat va adolat bilan bog‘lab, ayol sha’ni va huquqini himoya qildilar.

“Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, — deya ta’kidlaydi Prezidentimiz.[8]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid mutafakkirlarining oilaviy munosabatlar va ayollar huquqiga doir qarashlari milliy modernizatsiya konsepsiyasining tarkibiy qismidir. Ular oila va ayol masalasini alohida emas, balki jamiyat islohoti bilan

uzviy bog‘liq holda ko‘rganlar. Ayolning ma’rifatli bo‘lishi sog‘lom avlod tarbiyasi va milliy o‘zlikni anglash jarayonining muhim sharti sifatida talqin qilinadi.

Jadid mutafakkirlari asarlarida oilaviy munosabatlar va ayollar huquqi masalasi ijtimoiy taraqqiyot, milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq holda yoritilgan. Ular oila institutini mustahkamlash, ayollarning ta’lim olishini ta’minlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish orqali jamiyatni yangilash mumkinligini ilmiy va badiiy jihatdan asoslab berdilar.

An’anaviy maktab va madrasalarda qizlar ta’limi deyarli yo‘lga qo‘yilmagan edi. Bu esa ayollarning huquqiy ongini, ijtimoiy faolligini cheklardi. Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul maktablarini tashkil etish orqali aynan shu muammoni bartaraf etishga intildilar.[9]

Nikohda ayolning roziligi masalasi ko‘pincha inobatga olinmagan. Ko‘pxotinlilik, ajrimdagi adolatsizlik va iqtisodiy qaramlik oilaviy nizolarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan.

Cho‘lpon ijodida ayolning ruhiy iztiroblari orqali bu muammolar badiiy jihatdan yoritiladi. Jadidlar nikohda o‘zaro rozilik, ayol sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, oilada mas’uliyatni teng taqsimlash g‘oyasini ilgari surdilar. Ular islomning asl insonparvarlik mohiyatini tiklash orqali noto‘g‘ri talqinlarni bartaraf etishni taklif etdilar.[10]

Ayolni faqat ona va uy bekasi sifatida emas, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida ko‘rish g‘oyasi ilgari surildi. Matbuot, teatr, adabiyot orqali ayol obrazini yangicha talqin qilish ham muhim yechim sifatida maydonga chiqdi (masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy dramaturgiyasida).

Jadidchilik harakati doirasida ilgari surilgan oilaviy islohot va ayol erkinligi haqidagi g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida gender tengligi, oilaviy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya masalalarini anglashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda ham jadidlarning mazkur qarashlari gender tenglik, oilaviy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyot masalalarini o‘rganishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan tub burilishlar jadidchilik harakati faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Jadid mutafakkirlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Cho‘lpon merosida oilaviy munosabatlar hamda ayollar huquqi masalasi milliy modernizatsiya konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etildi. Ular oila institutini jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevori deb bilib, sog‘lom oila – sog‘lom millat tamoyilini ilgari surdilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar ayol ta’limi, nikoh erkinligi, o‘zaro hurmat va mas’uliyat tamoyillarini jamiyat taraqqiyotining strategik omili darajasiga ko‘tardilar. Ularning qarashlari diniy qadriyatlarni inkor etishga emas, balki ularni ma’rifat, adolat va insonparvarlik ruhida yangicha talqin qilishga qaratilgan edi.

Shunday qilib, jadid mutafakkirlarining oilaviy islohot va ayol maqomi haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham gender tengligi, oilaviy barqarorlik va

ma’naviy taraqqiyot masalalarini ilmiy asosda anglashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, //Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida// 19.07.2024 yildagi PQ-270-son.
3. Mirziyoyev Sh.M . *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz*. –T.: O'zbekiston, 2017. 103 - b.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkus**h** (drama). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
7. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
8. https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/
9. Karimov N. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2005.
10. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1994.

БУХОРО АМИРЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ТАРИХИДАН

Камол Ишанкулович Ҳазраткулов

ЧДПУ тарих кафедраси докторанти

Матбуотда Туркстон ўлкаси жадидларининг пайдо бўлиш сабаблари, уларнинг ёрқин вакиллари, маориф тўғрисида, уларнинг фикрлари ҳақида бир қатор мақолалар эълон қилинди. Ушбу мақола муаллифи XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоро амирлигида пайдо бўлган жадидчилик ҳаракати тўғрисида маълумот беришга ҳаракат қилади. Мазкур мақолада муаллиф эътиборини Октябрь тўнтаришидан аввал нашр қилинган матбуот органларига қаратади.

Бухоро амирлигида жадидчилик ҳаракатининг пайдо бўлишига бош сабаблардан бири ўша даврдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳволдир. Бу даврда амирликка капиталистик муносабатлар элементлари кириб кела бошлади. Амирликнинг бошқа давлатлар билан, айниқса чор Россияси билан савдо алоқалари ўсди. Бу нарса Бухоро амирлиги ва чор Россияси ўртасида 1873 йил 18 сентябрда тузилган шартномага асосан, Бухоро амирлиги мустаққил ташқи алоқалар олиб бориш ҳуқуқидан маҳрум бўлгандан кейин яна кучайди. Бухоро амирлиги чоризмнинг хом ашё базасига айлантирилди. Россия империяси Бухоро амирлигидан арзон нархда пахта, қоракўл тери, жун

гиламлар, қуруқ мевалар, пилла ва бошқа хом ашё маҳсуотларини сотиб олар эди. Агар Бухоро амирлигидан Россияга 1865 йилда 3306 минг сўмлик мол олиб кетилган, бу рақам 1900 йилда 23700 минг сўмни ташкил этди. 1913 йилга келиб Россияга олиб кетилган молларнинг нархи 31255 минг сўмга етди Россиядан эса асосан саноат моллари келтирилган,масалан керосин, қанд, идиш-тавоқлар, темирдан ясалган маҳсулотлар, галантерия маҳсулотлари каби тайёр саноат молларидир, бундай моллар 1865 йилда 1913 мингсўмлик, 1900 йилда 23200 минг сўмлик, 1913 йилга келиб 35344 минг сўмлик мол олиб келинган. Шу билан бир қаторда амирлик Россия учун ўзининг тайёр маҳсулотларини сотишга бир бозор бўлиб хизмат қилар эди. Шундай қилиб Россия Императорлиги Бухоро амирлигининг яқин савдо шеригига айланди. Бу ҳақда 1887 йилдаёқ: “Бухоро амирлигида савдо айланмаларининг сони бўйича Россия биринчи ўринни эгаллайди”,1 -деб ёзган эди генерал Галкин. Ҳақиқатан ҳам Бухоро бозорларини рус капиталистлари ўз қўлларига олганликларини бошқа бир манба ҳам тасдиқлайди. Бухородаги Рус Импкраторлик Сиёсий Агентлиги ахбороти:”Кейинги йилларда рус товарлар(Россияда ишлаб чиқарилган моллар)ининг ғарбий Европа товарларини Бухоро амирлиги бозорларидан сиқиб чиқариши тоборо кучаймоқда”2. Юқорида келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, аграр ва қолоқ мамалакат бўлган Бухоро амирлиги Россия империясининг хом ашё манбаи ва тайёр маҳсулотлар сотадиган бозорига айланган эди. Бухоро амирлиги ва Россия империяси ўртасидаги савдо алоқалари асосан рус зобитлари, россиялик даллол ва тижорат идоралари қўлида эди. Бу идораллар жумласига “Акционерлик жамияти “ (Акционерное общество), “Гергард ва Гей жамияти” (Общество Гергард и Гей), «Кавказ ва Меркурий жамияти» (Общество Кавказ и Меркурий). Бу савдо ширкатлари Бухоро амирлиги билан бўлаётган савдо даромадининг жуда катта қисмини олар эди. Бухоролик тижоратчилар мазкур савдо жараёнларида иштирок этсалар ҳам жуда кам миқдорда фоиз олар эдилар, бу фоизлар бухоролик тижоратчиларни қониқтирмас эди. Бухоролик тижоратчилар бўлаётган бутун савдо жараёнини ўзлари назорат қилишни истар эдилар. Аммо бутун савдо жараёнини назорат қилиш учун уларнинг ўз капиталлари йўқлиги ва тўлов қобилиятларининг заифлигиимкон бермас эди. Сармоянинг йўқлиги ва тўлов қобилиятининг заифлигидан ташқари саводли, ҳисобдон кадрларнинг йўқлиги ҳам мустақкил савдо ишларини олиб боришга тўсқинлик қилар эди.

Бухоро амирлигига капиталистик муносабатлар элементларининг (унсурларининг) кириб келиши аҳоли ўртасида табақаланиншни кучайтирди. Миллий буржуазия унсурлари шакллана бошлади. Меҳнаткаш халқ икки тамонлама зулм остида эзилди: бир тамондан маҳаллий эксплуататорлар, иккинчи тамондан рус оккупантларининг зулми остида қолди, унинг турмуш даражаси пасайиб кетди. Бухоро амирлиги аҳолиси ўртасида норозилик кучайди. Бу норозиликлар баъзан стихиялихалқ қўзғолонлари билан ифодаланган бўлса, баъзан ислоҳат ўтқазиш билан аҳволни яхшилаш мумкин, деган фикрлар билан ифодаланди.

Бухороамирлигидаги тараққийпарвар кучлар ўзлари яшаб турган жамиятни зулм ва истибдод ботқоғидан маърифатга эришиш йўли билан қутқариш мумкин деб ўйлар эдилар. Амирликда шаклланаётгани миллий буржуазия унсур(злемент)лари саводли, билимдон, ҳисобдон жамият аъзоларини талаб қилар эди. Шунинг учун тараққийпарвар кучлар эътиборларини маорифни ислоҳат қилишга қаратдилар. Бу тараққийпарвар кучлар тарихга "жадид"лар номи билан кирди(арабча-жадид-янги Ҳ.К.). Жадидларнинг ҳаммаси ҳам бир хил платформада бўлмаган. Уларнинг баъзи масалаларга қарашлари ҳар хил бўлса ҳам, лекин уларнинг ҳаракатларини умумлаштирувчи битта белги - маърифатга интилиш бор эди.

Бухоро жадидчилиги ҳақида гапирганда унинг Туркистон ўлкаси жадидчилигидан фарқ қилишини айтиб ўтиш керак.Туркистон ўлкаси ва Бухоро амирлигининг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ҳаётидаги фарқ Туркистон жадидчилиги ва Бухоро амирлиги жадидчилиги ўртасидаги фарқни белгилаб берди. Туркистонда жадидчилик легал йўл билан ривожланди. Бухоро амирлигида янги усулдаги мактаблар, мактаабларга дунёвий фанларни киритиш учун кураш билан бошланган жадидчилик кейинчалик солиқларни камайтириш, солиқ олишни тартибга солиш ва бошқа талаблар билан майдонга чиқди.

Лекин ҳали Бухоро амирлигида реакцион муллаларнинг, дин пешволарининг аҳолига таъсири жуда кучли эди. Ўрта аср тартиблари ҳукм сурган амирликда ҳали феодал муносабатлар емрилгани йўқ эди. Агар Туркистонда 1905 йилдан нашр қилинишни бошланган бир қатор жадид газеталари ("Хуршид", "Самарқанд", "Тужжор", "Тараққий") янги усул мактабларини очиқдан-очиқ тарғиб қилган бўлса, 1912 йилга келиб Янги Бухоро(ҳозирги Когон)да чиқа бошлаган "Бухорои Шариф" ва "Турон" газеталари "жадид" сўзини эҳтиёткорлик билан тилга олади. Бу билан муаллиф Туркистон ва Бухоро жадидлари алоҳида-алоҳида фаолият юритди демоқчи эмас, асло. Маърифатпарварлар жадидчилик пайдо бўлган даврдаёқ Туркистон ўлкаси ва Бухоро амирлиги жадидлари ҳаракатларини бирлаштиришга уринишган. Бу борада Туркистон жадидлари йўлбошчиси бўлган Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг хизматларини ёдга олмасдан бўлмайди. Беҳбудий тўғрисида Файзулла Хўжаев бундай деб ёзган эди:"Бу тўғрида М.Беҳбудийни тилга олмасдан ўтиш мумкин эмас. Сиёсий-ижтимоий ҳам ҳар хил маълумот жиҳатидан ўшал вақтдаги Туркистон жадидларидан ҳеч ким унинг билан тенг бўла олмаса керак"3. Ҳатто Бухоро амири Беҳбудийни ўзининг шахсий душмани деб ҳисоблаган.

Бухоро амирлиги жадидлари 1909 йил октябрь ойида янги усулда таълим берувчи мактаб ўқувчи-шогирдларининг билимини текшириш учун уларни халқ олдида имтиҳон қилиш ҳақида эълон бердилар. Яъни мазкур мактаб ўқувчи-шогирдларини бутун Бухоро халқи олдида имтиҳон қилмоқчи бўлишди. Имтиҳон Мирзо Абдулвоҳиднинг уйида очилган мактабда бўладиган бўлди. Мазкур мактабнинг очилишида, дарсликлар топиш, болаларни ўқитиш жараёнида ёзувчи Садриддин Айнийнинг хизматлари катта бўлган.

Абдулвоҳид Мунзимнинг шогирдлари имтиҳонни аъло даражада топширадилар. Мактабда ўрнатилган тартиб-қоидалардан, шогирдларнинг билимидан имтиҳон қатнашчилари амнун бўладилар. Имтҳонда иштирок этган маърифатли бойлар мактаб шароитини яхшилаш ҳақида фикр билдирадилар. Туркистон ўлкасида ва Бухоро амирлигида машҳур бўлган Домла Икромча4 ҳам мактабдорларни, унинг шогирдларини бу рўй берган улуғ воқеа билан табриклайди. Имтиҳондан кейин баҳс бошланади. Дола Икромча бошлиқ бир гуруҳ янги усулмактабларининг шакли ҳам, дарс бериш усули ҳам ҳеч бир ҳукуматга ва динга қарши эмаслигини ва мазкур мактаблар халқ маорифига ва мамалакат тараққиётига хизмат қилишини билдиради. Шунинг учун ҳам халқ маорифида , олий мадрасаларда ҳам ислоҳат ўтказиш мумкинлигини айтади.

Мулла Абдураззоқ бошлиқ иккинчи гуруҳ янги усул мактабларига қарши чиқишади.Улар янги усул мактабларида дарс олиб бориш услуби русча деб, янги усул мактабларида ислом ақидаларига зид бўлган фанлар ўқитилишини айтишади5. Бу баҳсда қадимчилар енгиб чиқишади ва мазкур баҳс янги усул мактабларининг ёпилишига сабаб бўлади.

Шу воқеалардан кейин бухоролик жадидлар янги усул мактабларини махфий равишда тарғиб қилишга ўтдилар. Шу билан бир қаторда янги усул мактаблари ўз фаолиятларини яширин давом эттирадилар. Чунки бухоролик жадидлар ўзларининг бошланғич фаолиятларида жамиятни қолоқликдан қутқаришнинг ягона йўли халқ маорифида ислоҳат ўтказиш, шу йўл билан халқнинг кўзини очиб, тараққиётга эришиш мумкин, деб ўйлар эдилар. Уларнинг иқтисодий ва сиёсий талаблари кейинроқ пайдо бўлди.

Ҳар бир янги ишнинг бошланган пайтида камчиликлари жуда кўп бўлади. Иш жарёнида камчиликлар яққол кўринади. Иш бошлаганлар сабр-қаноат билаан ишни давом эттириб боришса, кўзлаган мақсадларига эришадилар. Янги усул мактаблари ҳам худди шу жараённи бошларидан ўтқазишган. Жадид мактаблари очилган пайтда дарсликлар йўқ, дарс ўтиш методикаси ишлаб чиқилмаган эди. Шунинг учун ҳам ўша пайтда очилган жадид мактабларида ўқитиш услуби ҳар хил мактабларда ҳар хил бўлган.

Бу нарсааларни биз 1913 йилда Пўлатхўжа Усмонхўжаевнинг ва мулла Вафонинг мактабларида кўрамиз6 . Усмонхўжаевнинг мактаби асосан тез савод чиқариш ва арифметика ўргатишдан иборат эди. Албатта ҳамма мактабларда Хафтияк(Қуръони-Каримнинг еттидан бир қисми) ўқитилган 1914 йилга келиб Усмонхўжаев мактабида 200 га яқин бола таълим олган эди7 .. Мулла Вафо мактабида асосан рус тилига эътибор берилар эди. Чунки рус тилини билишга бухоролик тижоратчилар орасида қизиқиш кучли бўлган.Мулла Вафо мактабида рус тили Граманицкийнинг дарслиги асосида ўргатилган.8. Бухорода янги усулда таълим берадиган мактаблар кўп бўлган. Улардан яна бири Ғиёс Махдум Хусни очган жадид мактабидир Аслида Ғиёс Махдум Хусни ўзбек тилида нашр этиладиган “Турон” газетасига муҳаррирлик қилиши учун махсус Самарқанддан Бухорога чақиртирилган. Ғиёс Махдум Хусни мактабида ўқитиш ишлари анча яхши йўлга қўйилган

бўлиб, бунинг сабаби унинг Самақандда ҳам муаллимлик билан шуғилланганлигидадир. Унинг мактабида 50 га яқин шогирд таълим олган9.

Қадимчилар (эски усул мактаблари тарафдорлари) мактаблари тарафдорларига келсак, уларнинг асосий мақсади ёш авлодни феодализмнинг содиқ хизматкорлари қилиб етиштиришдан иборат эди. Эски мактабларнинг бу мақсади ва вазифаси ўз-ўзидан ёки айрим кишилар тамонидан белгиланмасдан, балки феодал-патриалхал жамиятнинг обьектив иқтисодий талабидан келиб чиқади. Оддий асбоблар билан ишланадиган қишлоқ хўжалигига асосланган феодал-патриалхал тузумнинг иқтисоди маълумотли кишиларни талаб қилмас эди. Жамиятнинг ҳукмрон синфи мактаб олдига феодализм ва феодаллар ҳукмронлигини мустаҳкамлашга имкон берадиган мақсадни қўяр эди.

Эски усул мактабларида болаларнинг ёш хусусияти ва билим даражаси ҳисобга олинмай, турли ёшдаги ва турли билимдаги болалар бир жойда ўқитилар эди. Мазкур мактабларда шогирдларнинг доимий ва қатъий состави, болаларни ўқишга қабул қилишнинг маълум бир тартиби бўлмаган. Шогирдлар йилнинг турли вақтларида ўқишга қабул қилинаверган. Шогирдларнинг исталган пайтда ўқишга қабул қилиниши уларнинг билим даражаси ноаниқликка олиб келган. Шогирдлар синфдан-синфга кўчмас, уларнинг билим даражаси ўқиб тамомланган китоб билан белгиланар эди.

Эски усул мактабларида дарс жадвали ва машғулотларнинг аниқ соати бўлмаган, шогирдлар кун бўйи шуғилланиб фақат овқат маҳали танаффус қилишар эди..

Эски усул мактабларида ўқиш ва ёзиш алоҳида-алоҳида муддатларда ўргатилган. Шогирдлар айрим китобларни ўқиб тугатганларидан кейин ёзишни ўргана бошлар эдилар. Аниқ бир прогамманининг йўқлиги ҳар бир мактабда ҳар хил дарс олиб борилишига сабаб бўларэди. Мана шу қийинчиликни бартараф этиш учун , янги очилган бошловчи мактабдорларга ёрдам тариқасида “Турон” газетаси дарс беришнинг уч хил услубини таклиф қилади :”Ҳозирги кунда савод учун машҳур уч йўл бордур. Энди қайси йўл бизни тезроқ мақсадга еткуратурғон бўлса, шу йўлни ихтиёр қилмоқ керак.

юқоридаги мазкур уч усулнинг бири - усули “таҳжи”дурки, “ҳижо”10 деб ҳам айтулур. Бу тартиб бирла ўқилғонда, аввло бир болаға алиффбо тартибича ҳарфларнинг исмлари ёдлатилур. Ҳатто бош,ўрта ва охир ҳарфларнинг мушаккили(араб-шакли-Ҳ.К.) билдурилур. Сўнгра ҳарфларнинг ҳаракати танитилур.

Иккинчи усул ҳарфларнинг исмларини ёдлатмасдан хуруфи сомит11ларни хуруфи савтия12ларга қўшиб модияча ўқитувдурки, бу усул моддия13 деб аталур

учинчи усул аввало бир калима зикр қилинур. Сўнгра мазкур калимада неча товуш борлиғи билдирулур. Сўнгра ул товушларни зикр қилинғон калимадағи ҳарфлар ўзаро таҳлил қилинур ва қайси товуш қайси ҳарфдан чиққанлиғи тушунтирилур. Бу тартибғаусули савтия деюлур. Шунда мухлис 3000 турли суратларни биливуға ҳожат йўқдур. Фақат 33 турли ҳарфларнигина ёд олув керакдур14”. Юқорида кўриб чиққанимиздек, савтия усули энг осон ва

эффектли усул бўлган. Шунинг учун ҳам мазкур усул Россия мусулмонлари ўртасида ҳам Туркистон ўлкасида ҳам Бухоро амирлиги мактабларида ҳам кенг тарқалган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва изоҳлар

1. А.Галкин «Краткий очерк Бухарского ханства» Турк.Сбор. 611том, стр, 102-103, 1887г.

2 Ўзб. Миллий Архиви., ф.И-3, 3 иш, 11 варақ.

3.Ф.Хўжаев, “Бухоро инқилобининг тарихига доир”, Ўздавнашр, Самарқанд-Тошкент, 1926й, 19 бет.

4.Икромча Бухоро амири фармонларига диний фатво чиқарувчи оқмуҳралик 12 муллалардан бири, мазкур муллалар муҳр босгандан кейин амир фармони кучга кирган, маърифатпарвар, у ўзининг 2 та ўғлини Абдулҳамид Мунзимнинг янги усулда очилган мактабига берган.

5. Ф.Ходжаев “К истории революции в Бухаре”, Т.,-С. 1926 г., 91стр.

6.И.И.Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре. Стр 91.

7.И.И. Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре.стр 92.

8.И.И.Умняков «К истории новометодной школы в Бухаре. Стр. 93

9.И.И. Умняков «К истории ноаометодной школы в Бухаре,. стр 88.

10. Таҳжи, ҳижо(араб-ҳарфлаб, ҳижжалаб ўқиш).

11. Хуруфи сомит (араб -ундош ҳарфлар)

12. Хуруфи савтия(араб-унли ҳарфлар)

13. Хуруфи моддия (араб-узун унлиларни ифодаловчи ҳарфлар

14. Усули савтия(араб-товуш усули)

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA MA’RIFATLI JAMIYAT VA YANGI MA’NAVIY MAKON YARATISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

Falsafa fanlari bo’yicha (PhD) falsafa doktori

Farg‘ona davlat texnika universiteti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’naviy yangilanish va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim bosqichi sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar nafaqat ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, balki milliy ongni uyg‘otish, ma’rifatli jamiyat barpo etish hamda yangi ma’naviy makon yaratishga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir. Ularning qarashlarida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifat, axloqiy kamolot, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda ijtimoiy faollik masalalari markaziy o‘rin tutadi.

Jadidlar ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi shaxs kamoloti, ijtimoiy ong transformatsiyasi va madaniy yangilanish bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Ular jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda, avvalo, ta’lim tizimini yangilash, dunyoviy va diniy bilimlar uyg‘unligini ta’minlash, matbuot va teatr orqali omma tafakkurini o‘zgartirish, ayollar ta’limini rivojlantirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratganlar. Bu esa yangi ma’naviy makon – yangicha fikrlaydigan, milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatini shakllantirish g‘oyasining vujudga kelishiga xizmat qildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev haqli ta’kidlaganidek: “…taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi”[1] shubhasizdir. Ushbu mavzuning o‘rganilishi milliy pedagogik tafakkur rivojini yoritish, oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish hamda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan jadidlar merosini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish, undagi ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratishga doir g‘oyalarni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un holda tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma’naviy makon murakkab va ko‘p qatlamli ichki tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy hodisa bo‘lib, u ma’naviyat, qadriyatlar tizimi, an’analar, urf-odatlar, mentalitet, axloq, axloqiy-estetik qarashlar, din, madaniyat hamda falsafiy tafakkur kabi tarkibiy unsurlarni o‘zida mujassam etadi. Shu jihatdan u inson va jamiyat hayotining ma’naviy-axloqiy sohasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitni ifodalaydi. Bunday makonda nafaqat ma’naviy qadriyatlar shakllanadi, balki insonning ma’naviy ehtiyojlari, dunyoqarashi va axloqiy me’yorlarga bo‘lgan munosabati ham tarkib topadi.

Bizning fikrimizcha, ma’naviy makonda mavjud bo‘lish – bu, avvalo, undagi ma’naviy-axloqiy me’yorlarni anglash va ularga amal qilish, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan oliy qadriyatlar bilan muloqotga kirishish hamda shaxsning o‘z ma’naviy ehtiyojlarini qondirish jarayonidir. Zero, ma’naviy makon shaxsning ichki kamoloti va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. U insonni muayyan tarixiy davrning ma’naviy ideallari bilan bog‘lab, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini belgilaydi.

Ma’naviy makon jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar majmui sifatida ham talqin etilishi mumkin. Chunki har qanday ma’naviy qadriyat va axloqiy me’yorlar aynan shu makonda shakllanadi, rivojlanadi va yangi mazmun kasb etadi. Shu ma’noda ma’naviy makon ijtimoiy ongning mavjudlik shakli bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining

muayyan bosqichida ustuvor bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlar va qadriyatlar tizimini aks ettiradi[2].

Umuman olganda, ma’naviy makon shaxs idealini shakllantiruvchi va uni ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltiruvchi muhitdir. U tarixiy davrning ma’naviy talablari, axloqiy mezonlari va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan holda, insonning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga xizmat qiladi. Demak, ma’naviy makon faqat mavjud qadriyatlar majmui emas, balki jamiyatning ma’naviy rivojlanish istiqbollarini belgilovchi dinamik tizim hamdir.

Shu asosda aytish mumkinki, ma’naviy makon – bu jamiyatning ma’naviy borlig‘i shakllanadigan, insonning axloqiy kamoloti ta’minlanadigan va ijtimoiy ideallar ro‘yobga chiqadigan muhim ijtimoiy-falsafiy makondir. Uning mazmun-mohiyatini anglash ma’naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda, shaxs kamoloti va ma’rifatli jamiyatni barpo etishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida modernizatsiya, ma’naviy yangilanish va milliy o‘zlikni anglash jarayonlarini boshlab bergan muhim tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Jadid mutafakkirlarining qarashlarida ma’rifatli jamiyat g‘oyasi shunchaki ta’limni isloh qilish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy ongni yangilash, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi ma’naviy makon yaratish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Bu jarayonda ma’rifat inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ma’rifatli jamiyatni barpo etishning asosiy sharti sifatida zamonaviy bilimlarni egallagan, ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan va milliy manfaatlarni anglaydigan shaxsni tarbiyalash masalasi ilgari suriladi. U maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usuldagi ta’limni joriy etish orqali jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish mumkinligini asoslaydi. Behbudiyning fikricha, ma’rifat – millatni jaholatdan qutqaruvchi eng muhim vosita bo‘lib, u jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi[3].

Abdulla Avloniy ma’naviy yangilanishni milliy tarbiya va axloqiy kamolot bilan bog‘laydi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida komil inson tarbiyasi orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasi ilgari surilib, unda ma’rifat, axloq va milliy o‘zlik uyg‘unligi yangi ma’naviy makonning poydevori sifatida talqin etiladi. Avloniy tarbiyani “yo hayot – yo mamot masalasi” sifatida baholab, ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili ekanini ta’kidlaydi[4].

Abdurauf Fitrat esa ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini ijtimoiy ong transformatsiyasi bilan bog‘liq holda ko‘radi. Uning asarlarida ilm-fan, milliy o‘zlik, ayollar ta’limi, oilaviy tarbiya va matbuotning rivoji jamiyatni yangilovchi kuch sifatida talqin etiladi. Fitratning fikricha, ma’naviy makonning yangilanishi avvalo inson tafakkurining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ta’lim va madaniyat orqali amalga oshiriladi[5].

Jadidlar qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim metodologik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular Sharqning boy ma’naviy merosi va G‘arbning ilg‘or ilmiy yutuqlarini birlashtirish orqali yangi taraqqiyot modelini yaratishga intildilar. Bu yondashuv ijtimoiy-falsafiy jihatdan

madaniy sintez, ya’ni an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini shakllantirdi.

Shuningdek, jadidlar matbuot, teatr va adabiyotni yangi ma’naviy makon yaratishning muhim vositasi sifatida baholaganlar. Ular ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy ongni o‘zgartirish, xalqni ilm-ma’rifatga chorlash va milliy birlikni mustahkamlashga erishishni maqsad qilganlar. Bu esa ma’naviy makon tushunchasining faqat axloqiy yoki madaniy emas, balki ijtimoiy-kommunikativ mohiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifatli jamiyat modeli fuqarolik jamiyati, milliy taraqqiyot va ma’naviy xavfsizlik konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi. Ularning g‘oyalari globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ijtimoiy faollikni oshirish va yosh avlodni ma’naviy yetuk etib tarbiyalashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi[6].

Demak, jadidlar ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyasi ijtimoiy ong transformatsiyasi, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda madaniy modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu meros bugungi kunda ham jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va ma’rifatli insonni tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib qolmoqda.

Jadidlar ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu ta’limot Turkiston ijtimoiy tafakkuri tarixida tub burilish yasagan va milliy taraqqiyotning nazariy asoslarini shakllantirgan muhim ma’naviy hodisa hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari jamiyatni isloh qilishning bosh omili sifatida ma’rifat, ilm-fan, axloqiy kamolot va milliy o‘zlikni anglashni ilgari surgan holda, yangi ijtimoiy ong va yangicha tafakkurga ega shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yganlar. Ularning qarashlarida ma’rifatli jamiyat – bu, avvalo, ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar jamiyatidir.

Tadqiqot natijalari jadidlar ma’naviy merosida yangi ma’naviy makon tushunchasi ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, matbuot va adabiyot orqali ijtimoiy ongni o‘zgartirish, ayollar ta’limini rivojlantirish, milliy madaniyatni tiklash va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilganini ko‘rsatadi. Bu esa ma’naviy makonning faqat madaniy hodisa emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida qaralganini anglatadi.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi g‘oyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan madaniy sintez konsepsiyasiga asoslanadi. Ular Sharqning boy ma’naviy merosini G‘arbning ilg‘or ilmiy yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi taraqqiyot modelini yaratishga intildilar. Bu yondashuv jamiyatning modernizatsiya jarayonini milliy o‘zlikni saqlagan holda amalga oshirish imkonini beradigan muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, jadidlar ta’limotida komil inson tarbiyasi ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning bosh mezoni sifatida talqin etiladi. Chunki ularning fikricha, ijtimoiy taraqqiyot avvalo shaxsning ma’naviy kamoloti, tafakkurining erkinligi va ilmga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. Demak, ma’naviy makonning yangilanishi inson ongining yangilanishi bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida jadidlar merosida ilgari surilgan ma’rifat, milliy o‘zlik, ma’naviy xavfsizlik, ijtimoiy faollik va fuqarolik jamiyati g‘oyalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, ular yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, milliy taraqqiyot strategiyasini belgilash va jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jadidlar o‘z umrlarini ilm, ma’rifat, adolat, taraqqiyot yo‘lida fido qilgan fidokor insonlar edilar. Ularning har biri o‘zining serqirra faoliyati bilan o‘lkamiz ijtimoiy-ma’naviy hayotini boyitdi, xalqning qalbida umid uyg‘otdi. Bugun biz ularning orzulari ro‘yob topganini ko‘rmoqdamiz. Jadidlar g‘oyalari, ma’naviy jasorati va ilmga bo‘lgan ishtiyoqi –millatimizning eng muhim tarixiy meroslaridan biridir. Bu merosni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish –har bir ongli insonning muqaddas burchidir[7].

Jadidchilik harakati namoyandalari o‘z faoliyati va hayotiy qarashlari bilan milliy uyg‘onish g‘oyasining amaliy ifodasini yaratgan, ilm-ma’rifat, ijtimoiy adolat va taraqqiyot yo‘lida fidokorona xizmat qilgan tarixiy shaxslardir. Ularning butun umrini xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni isloh qilishga bag‘ishlagani jadidchilikni nafaqat ma’rifiy harakat, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan milliy taraqqiyot konsepsiyasi sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois jadidlar faoliyati Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida tub burilish yasagan muhim tarixiy bosqichni tashkil etadi.

Jadid mutafakkirlarining serqirra faoliyati – yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr san’ati va adabiyot orqali ijtimoiy ongni uyg‘otish, ayollar ta’limini yo‘lga qo‘yish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lib, jamiyatning ma’naviy qiyofasini yangilashga xizmat qildi. Ular xalq qalbida kelajakka ishonch, milliy g‘urur va ma’rifatga intilish tuyg‘ularini shakllantira oldilar. Bu jarayon esa o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglash va fuqarolik jamiyati unsurlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning amaliy natijalarini ko‘rish mumkin. Ilm-fan va ta’limning ustuvor yo‘nalishga aylanishi, milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy siyosatning olib borilishi, jamiyatda ijtimoiy faollik va yangicha tafakkurning shakllanishi jadidlar orzu qilgan ma’rifatli jamiyat modelining bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqayotganidan dalolat beradi. Bu esa jadidlar merosining tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Jadidlar g‘oyalari, ularning ma’naviy jasorati va ilmga bo‘lgan yuksak e’tiqodi millatning eng muhim ma’naviy kapitali sifatida baholanishi lozim. Chunki mazkur meros nafaqat tarixiy xotira, balki bugungi va kelajak taraqqiyoti uchun metodologik asos vazifasini ham bajaradi. U milliy o‘zlikni mustahkamlash,

ma’naviy makonni boyitish, yosh avlodni vatanparvarlik va ma’rifat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, jadidlar merosini asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish – bu shunchaki tarixiy burch emas, balki ma’naviy taraqqiyotning uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-falsafiy zaruratdir. Zero, millatning ma’naviy yuksalishi uning tarixiy xotirasi, intellektual merosi va ma’rifiy an’analariga tayanadi. Jadidlar qoldirgan boy ilmiy, adabiy va ma’rifiy merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy talablarga mos ravishda talqin etish Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, jadidchilik harakati milliy taraqqiyotning ma’naviy poydevorini yaratgan, ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini shakllantirgan va bugungi Uchinchi Renessans g‘oyasining tarixiy ildizlarini tashkil etgan muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholanishi lozim. Ularning fidoyiligi va ma’naviy jasorati zamonaviy jamiyat uchun ham yuksak ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyalari ijtimoiy ong transformatsiyasi, ta’lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda madaniy yangilanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ilmiy merosni chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda ma’rifatli jamiyat barpo etish, ma’naviy makonni rivojlantirish va milliy taraqqiyotni ta’minlashning muhim nazariy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiyadagi nutqidan. Toshkent, 2023-yil, 11-dekabr.

2. Xakimova M. et al. Yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etish va boshlang‘ich sinf o ‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish zaruriyati //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 363-374.

3. Беҳбудий М. Танланган асарлар**.** – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 320.

4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ**.** – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 160.

5. Фитрат А. Оила. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.128.

6. Farxodjonova N. Ergashev I. Globallashuv sharoitida milliy o’zlikni saqlash va jamiyat barqarorligi: jadidlar merosiga ijtimoiy-falsafiy nazar //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социальногуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 6. – С. 184-188.

7. Abduvahhobivich T. B. et al. Jadid ma'rifatparvarlarining olka ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan orni //Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 101-105.

JADID MAKTABLARIDA DINIY VA DUNYOVIY FANLARNING UYG‘UNLASHTIRILISHI: USULI JADID TAJRIBASI

Tilloyev Ulug‘ Umarovich

BuxDPI, harbiy ta'lim fakulteti

umumqo‘shin tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi

XX asr boshlarida Turkistonda jadid ziyolilari tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar – “usuli jadid” maktablari – mintaqa ta’lim tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu maktablarning eng muhim xususiyatlaridan biri diniy va dunyoviy fanlarni birga o‘qitish tamoyiliga asoslanganligi edi. Jadidlar an’anaviy madrasa ta’limining faqat diniy bilimlar bilan cheklanganligi bilan rozi bo‘lmay, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini ham o‘quv dasturiga kiritish zaruriyatini ilgari surdilar [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ham ta’lim tizimida diniy va dunyoviy bilimlarning muvozanati masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlarning bu boradagi tajribasi zamonaviy ta’lim islohotlari uchun qimmatli ibrat manbai bo‘lishi mumkin. Maqolaning maqsadi jadid maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning uyg‘unlashtirilishi tajribasini tahlil qilish va uning Turkiston ta’lim tarixidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

XIX asr oxirida Turkistondagi ta’lim tizimi asosan an’anaviy maktab va madrasalardan iborat edi. Maktablarda bolalar asosan Qur’oni Karimni yodlash, arab alifbosini o‘rganish va boshlang‘ich diniy bilimlarni o‘zlashtirish bilan shug‘ullanardi. Madrasalarda esa fiqh, tafsir, hadis, arab tili grammatikasi (sarf va nahv), mantiq va kalom fanlari o‘qitilardi [2].

An’anaviy ta’lim tizimining bir qator kamchiliklari mavjud edi. Birinchidan, arifmetika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi dunyoviy fanlar o‘qitilmasdi. Ikkinchidan, o‘qitish usullari eskirgan bo‘lib, asosan yodlashga asoslangan edi. Uchinchidan, ta’lim muddati juda uzoq bo‘lib, ba’zan 15–20 yilni tashkil etar edi. To‘rtinchidan, bitiruvchilar zamonaviy kasb-hunarga ega bo‘lmasdilar [3].

Usuli jadid maktablarining tashkil etilishi. Jadidlar an’anaviy ta’lim tizimining kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Birinchi usuli jadid maktablari 1901–1903-yillarda Turkistonning yirik shaharlarida ochildi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov (1901), Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy (1903), Buxoroda esa bir qator jadid ziyolilari yangi maktablar ochdilar [4].

Usuli jadid maktablarining an’anaviy maktablardan farqi shunda ediki, ularda arab alifbosi tovush usulida (savtiya usuli) o‘rgatildi, ta’lim muddati 3–4 yilga qisqartirildi, sinf-dars tizimi joriy etildi va o‘quv qurollari (doskalar, xaritalar, darsliklar) keng qo‘llandi [5].

Diniy va dunyoviy fanlarning uyg‘unlashtirilishi. Usuli jadid maktablarining eng muhim xususiyati diniy va dunyoviy fanlarning birga o‘qitilishi edi. O‘quv dasturida Qur’on tilovati, diniy axloq va islom tarixi kabi diniy fanlar

bilan bir qatorda, arifmetika, geografiya, tarix, tabiiyot (tabiat haqidagi fan), gigiena va ona tili kabi dunyoviy fanlar ham o‘rin oldi [6].

Jadidlar diniy va dunyoviy bilimlarni qarama-qarshi qo‘ymay, ularni bir-birini to‘ldiruvchi soha sifatida ko‘rdilar. Behbudiy o‘zining maqolalarida “Din ilmsiz, ilm dinsiz bo‘lmaydi” degan g‘oyani ilgari surdi. Fitrat esa “Munozara” asarida madrasa ta’limini isloh qilish zaruriyatini asoslash bilan birga, diniy ilmlarning saqlanishi lozimligini ham ta’kidladi [7].

Jadid maktablarida rus tili ham o‘qitildi, bu o‘quvchilarga zamonaviy fan va texnika yutuqlarini o‘rganish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratdi. Biroq, asosiy ta’lim ona tilida olib borildi, bu esa milliy o‘zlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etdi [8].

Usuli jadid tajribasining ahamiyati. Jadid maktablarining diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirish tajribasi bir necha jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Birinchidan, bu tajriba islom va zamonaviy ilm-fan o‘rtasida ziddiyat yo‘qligini amalda isbotladi. Ikkinchidan, jadid maktablari qisqa muddatda samarali natijalar berdi – bitiruvchilar ham diniy, ham dunyoviy bilimga ega bo‘ldilar. Uchinchidan, bu tajriba keyinchalik Turkistonda zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishi uchun poydevor yaratdi [9].

Jadid maktablarining muvaffaqiyati natijasida ularning soni tez sur’atlarda o‘sdi. 1910-yillarga kelib, Turkistonning deyarli barcha yirik shaharlarida usuli jadid maktablari faoliyat ko‘rsatardi. Bu maktablarda ta’lim olgan o‘quvchilarning ko‘pchiligi keyinchalik Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirok etdilar [10].

Jadid maktablarida qo‘llanilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari. Usuli jadid maktablarining muvaffaqiyatida darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining roli beqiyos bo‘ldi. Jadid ziyolilari yangi maktablar uchun maxsus darsliklar yaratish zaruriyatini anglagan holda, bu borada faol ijodiy faoliyat olib bordilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1904-yilda “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar uchun yozuv”) darsligini nashr ettirdi. Bu darslik arab alifbosini tovush usulida o‘rgatishga mo‘ljallangan bo‘lib, an’anaviy “harf” usulidan tubdan farq qilardi. Darslikda har bir harf alohida tovush sifatida o‘rgatildi va bo‘g‘inlardan so‘zlarga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirildi [8].

Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda “Adibi avval” (“Birinchi adib”, 1907) va “Adibi soniy” (“Ikkinchi adib”, 1907) darsliklarini yaratdi. Bu darsliklar o‘zbek tilidagi birinchi zamonaviy boshlang‘ich ta’lim qo‘llanmalari bo‘lib, ularda o‘qish va yozish bilan birga, arifmetika, geografiya va tabiiy fanlardan boshlang‘ich ma’lumotlar ham berildi. Darsliklarning tili sodda va tushunarli bo‘lib, bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan edi [4].

Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913) asarini yaratdi, bu kitob nafaqat darslik, balki axloqiy tarbiya qo‘llanmasi sifatida ham keng foydalanildi. Asarda islomiy axloq tamoyillari zamonaviy ijtimoiy hayot talablari bilan uyg‘unlashtirilgan holda bayon qilindi. Avloniy kitobda halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilmga intilish kabi fazilatlarni targ‘ib qildi va bu fazilatlarni ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan asosladi [6].

Shuningdek, jadid mualliflari chet tillardan tarjima qilingan darsliklarni ham faol qo‘lladilar. Ayniqsa, Ismoil Gasprinskiyning “Xo‘ja Subhon” darsligi va Rossiya musulmon maktablari uchun yaratilgan boshqa qo‘llanmalar Turkiston jadid maktablarida keng foydalanildi. Turkiya, Misr va Hindistonda nashr etilgan zamonaviy darsliklar ham o‘rganildi va ulardan foydalanildi. Bu holat jadid maktablarining xalqaro ilmiy tajribaga ochiqligini ko‘rsatadi [5].

Jadid maktablarida o‘qituvchilar tayyorlash masalasi. Yangi usuldagi maktablarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun malakali o‘qituvchilar tayyorlash masalasi eng muhim muammolardan biri edi. An’anaviy madrasa ta’limini olgan muallimlargina mavjud bo‘lgan sharoitda jadidlar o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va yangi pedagogik usullarni o‘rgatish zaruriyatiga duch keldilar. Bu muammoni hal qilish uchun bir necha yo‘l tutildi [1].

Birinchidan, jadidlar Qozon, Ufa va boshqa shaharlardagi tatariston maktablaridan tajribali o‘qituvchilarni taklif qildilar. Bu o‘qituvchilar Ismoil Gasprinskiy tomonidan ishlab chiqilgan savtiya (tovush) usulini yaxshi bilishar va jadid maktablarida bu usulni joriy etishda muhim rol o‘ynadilar. Ikkinchidan, ba’zi jadid ziyolilari o‘zlari bevosita o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullandilar. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zi ochgan maktabda bosh muallim sifatida ishladi va boshqa o‘qituvchilarga amaliy ko‘rsatmalar berdi [4].

Uchinchidan, jadidlar o‘qituvchilar uchun maxsus qisqa muddatli kurslar tashkil qildilar. Bu kurslarda yangi pedagogik usullar, darslik bilan ishlash texnikasi, sinf boshqarish san’ati va turli fanlarni o‘qitish metodikasi o‘rgatildi. To‘rtinchidan, matbuot orqali pedagogik tajribalar almashildi. “Oyina” va “Shuhrat” kabi nashrlarda maktab ishiga oid maqolalar, o‘qitish usullariga doir maslahatlar va dars ishlanmalari muntazam chop etildi. Bu nashrlar o‘qituvchilar uchun muhim axborot va tajriba manbai bo‘lib xizmat qildi [6].

Jadid maktablariga qarshi qarshilik va uning sabablari. Usuli jadid maktablari o‘z faoliyatini oson sharoitda boshlamadi. Ularning oldida bir qancha jiddiy to‘siqlar turardi. Eng avvalo, konservativ ruhoniylar yangi usuldagi maktablarga keskin qarshilik ko‘rsatdilar. Ular jadid maktablarini “kofirlik” va “dindan toyish” deb e’lon qilib, oddiy xalqni bu maktablarga bolalarini yubormaslikka undadilar. Ba’zi hududlarda ruhoniylarning ta’siri shunchalik kuchli ediki, jadid maktablari ochilganidan bir necha oy o‘tib yopilishga majbur bo‘ldi [3].

Ruhoniylarning qarshiligining asosiy sababi shunda ediki, jadid maktablari an’anaviy ta’lim tizimining monopoliyasini buzish xavfini tug‘dirardi. Madrasalar asrlar davomida ta’lim tizimini nazorat qilib kelgan va bu nazorat ruhoniylar tabaqasining ijtimoiy mavqeini ta’minlagan edi. Yangi maktablar esa bu monopoliyani yo‘q qilish xavfini keltirib chiqarardi. Shu sababli, ruhoniylar jadid maktablariga qarshi faol kurash olib bordilar [3].

Ikkinchi muhim to‘siq mustamlaka hukumatining siyosati edi. Chor Rossiyasi ma’muriyati jadid maktablariga ikki xil munosabatda bo‘ldi. Bir tomondan, ba’zi amaldorlar bu maktablarni mahalliy xalqni “madaniylashtirishning” qulay vositasi sifatida qabul qildilar. Boshqa tomondan esa, ko‘pchilik mustamlaka amaldorlari jadid maktablarining milliy ongni shakllantirishdagi rolidan xavotirlanib, ularning faoliyatini cheklashga harakat qildilar. 1908–1910-yillarda Turkiston general-

gubernatori jadid maktablarini maxsus nazorat ostiga olish to‘g‘risida bir qator farmoyishlar chiqardi [9].

Uchinchi to‘siq moliyaviy muammolar edi. Jadid maktablari davlat tomonidan moliyalashtirilmagan va asosan xayriya mablag‘lari, mahalliy savdogarlar va badavlat shaxslarning ehsonlari hisobiga faoliyat yuritgan. Bu moliyaviy beqarorlik maktablarning barqaror ishlashiga jiddiy to‘siq bo‘lardi. Ba’zi maktablar moliyaviy qiyinchiliklar tufayli yopilishga majbur bo‘ldi. Shunga qaramay, jadidlar turli manbalardan mablag‘ to‘plash usullarini ishlab chiqdilar – xayriya kechalari, kontsertlar, teatr ko‘rsatuvlari tashkil etish va ulardan tushgan daromadni maktablar foydasiga yo‘naltirish keng tarqalgan amaliyot edi [9].

Turli hududlardagi jadid maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari. Turkiston hududidagi jadid maktablari umumiy tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, har bir hududda o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Toshkentdagi jadid maktablari Rossiya ta’lim tizimi bilan yaqinroq aloqada bo‘lib, ularda rus tili va zamonaviy fan-texnika fanlariga ko‘proq e’tibor qaratildi. Munavvarqori ochgan maktabda rus tili alohida fan sifatida o‘qitildi va o‘quvchilarga rus-tuzem maktablariga kirishga tayyorgarlik ko‘rildi [2].

Samarqanddagi jadid maktablari Behbudiyning bevosita rahbarligi ostida rivojlandi. Bu maktablarda diniy fanlar bilan dunyoviy fanlar o‘rtasidagi muvozanat alohida e’tibor bilan saqlanardi. Behbudiy maktablarida islom tarixi, axloq va Qur’on tilovati bilan bir qatorda arifmetika, geografiya, tarix va rus tili o‘qitildi. Behbudiyning o‘zi arifmetika va geografiya darsliklarini yozib, maktablarda joriy etdi [6].

Buxorodagi jadid maktablari eng qiyin sharoitda faoliyat yuritdi. Buxoro amirligida konservativ ruhoniylarning ta’siri boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq edi va amir hukumati jadid maktablariga rasman ruxsat bermadi. Shunga qaramay, Buxoro jadidlari maxfiy va yarim maxfiy tarzda yangi usuldagi maktablarni ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Fitratning “Munozara” asari aynan Buxoro madrasalarining ahvoli va ularni isloh qilish zarurati haqida yozilgan bo‘lib, bu asar Buxoro jadid harakatining dasturiy hujjatiga aylandi [7].

Farg‘ona vodiysidagi jadid maktablari esa savdogarlar tabaqasining faol qo‘llab-quvvatlashi tufayli rivojlandi. Andijon, Qo‘qon va Marg‘ilondagi badavlat savdogarlar jadid maktablarini moliyalashtirish uchun katta mablag‘lar ajratdilar. Bu maktablarda amaliy bilimlar – savdo hisob-kitobi, tijorat maktubi yozish, chet tillar – ga ko‘proq e’tibor qaratildi, bu esa savdogar oilalarining ehtiyojlarini aks ettirardi [10].

Jadid maktablari bitiruvchilarining keyingi faoliyati. Usuli jadid maktablarining samaradorligini baholashda ularning bitiruvchilari qanday faoliyat yuritganligini ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Jadid maktablari bitiruvchilarining aksariyati keyinchalik Turkiston ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayotida faol ishtirok etdilar. Ularning bir qismi o‘qituvchilik kasbini tanlab, yangi avlod maktablarida ishlashni davom ettirdilar va jadidchilik g‘oyalarini yanada kengroq tarqatdilar [10].

Boshqa bir guruh bitiruvchilar matbuot va adabiyot sohasida faoliyat yuritdilar. Ular jadid gazetalarida muxbirlik qildilar, she’rlar va hikoyalar yozdilar,

tarjima ishlari bilan shug‘ullandilar. Jadid maktablarida olgan ko‘p tillilik – ona tili, arab, fors, turk va rus tillarini bilish – ularga xorijiy adabiyotdan tarjima qilish imkonini berdi. Bu orqali ular jahon madaniyati va ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlarini mahalliy xalqqa yetkazdilar [1].

Yana bir guruh bitiruvchilar savdo-tijorat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritdilar. Jadid maktablarida olgan arifmetika, hisob-kitob va chet tillari bo‘yicha bilimlar ularga zamonaviy savdo-tijorat ishlarini muvaffaqiyatli yuritish imkonini berdi. Ba’zi bitiruvchilar esa Rossiya universitetlari va oliy o‘quv yurtlariga kirib, yuqori ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu holat jadid maktablarining bitiruvchilarga zamonaviy oliy ta’lim olish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni berganligini tasdiqlaydi [4].

Usuli jadid tajribasining zamonaviy ta’lim islohotlariga aloqadorligi. Jadid maktablarining diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirish tajribasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida jadidlar tajribasi qimmatli tarixiy manba sifatida o‘rganilmoqda. Xususan, ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish, nazariya va amaliyotni birlashtirish, fan va texnologiyalarni milliy ehtiyojlarga moslashtirish kabi tamoyillar jadidlar bir asr oldin ilgari surgan g‘oyalar bilan bevosita hamohangdir [5].

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, ta’limni amaliyotga yo‘naltirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi tamoyillar aslida jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning zamonaviy ifodasidir. Jadidlar yodlashga asoslangan an’anaviy ta’lim usullarini tanqid qilib, o‘quvchilarning tushunib o‘qishi, mustaqil fikr yuritishi va olgan bilimlarini amalda qo‘llashi zarurligini ta’kidlagan edilar. Bu tamoyillar hozirgi pedagogika fanining asosiy tamoyillari bilan to‘liq mos keladi [5].

Shuningdek, jadidlarning diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish g‘oyasi XXI asr ta’lim falsafasida ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar ta’lim tizimlarida fanning turli sohalari o‘rtasidagi integratsiya, fanlararo yondashuv va yaxlit bilim berish tamoyillari joriy etilmoqda. Jadidlar esa bir asrdan ortiq vaqt oldin bu g‘oyalarni amalda tatbiq etgan edilar. Ularning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida turli bilim sohalarini sun’iy ravishda ajratish o‘rniga, ularni yaxlit tizim sifatida o‘qitish yanada samarali natijalarga olib keladi [9].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadid maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning uyg‘unlashtirilishi Turkiston ta’lim tarixida muhim bosqich bo‘lgan. Jadidlar an’anaviy diniy ta’limning eng yaxshi jihatlarini saqlab qolgan holda, zamonaviy dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritish orqali ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga muvaffaq bo‘ldilar. Usuli jadid maktablarining tajribasi bugungi kunda ham ta’lim tizimida diniy va dunyoviy bilimlarning muvozanatini saqlash masalasida qimmatli ibrat manbai sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan.

Jadidlarning bu boradagi merosi O‘zbekiston ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonida hisobga olinishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim tarixiy tajriba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 90–120.
2. Xo‘jayev A. Turkistonda ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B. 23–45.
3. Alimova D. Turkistonda an’anaviy ta’lim muammolari. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 34–60.
4. Xoliqov A. Turkistonda jadid maktablari tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 45–78.
5. Abdullayev R. Usuli jadid ta’lim tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 56–89.
6. Dolimov U. Jadid maktablari o‘quv dasturlari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 67–90.
7. Fitrat A. Munozara. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 15–45.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 34–60.
9. Rajabov I. Jadidchilik va ta’lim islohotlari. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 78–105.
10. Karimov N. Turkistonda jadid maktablarining rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 45–75.

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA SHAKLLANGAN IJTIMOIY-SIYOSIY MUHITDAIJTIMOIY ADOLAT G‘OYASI

Naimov Dostonbek Rustamovich

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

XX asr boshlarida Turkiston hududi (hozirgi O‘zbekiston, Janubiy-sharqiy Qozog‘iston Qirg‘iziston hamda qo‘shimcha ravishda markaziy Osiyoning ayrim hududlari) Rossiya imperiyasi mustamlakasi ostida bo‘lib, murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar boshlandi. Mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik, milliy ongning uyg‘onishi hamda islohot g‘oyalari bu davrda xalq hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Ushbu jarayonlar ijtimoiy adolat g‘oyasining shakllanishiga va yangi ijtimoiy fikrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Mustamlakachilik siyosati va ijtimoiy tengsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratadigan bo’lsak, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi Turkiston hududida mustamlaka siyosatini yanada chuqurlashtirdi. Mazkur siyosiy faoliyat turkiy xalqlar ijtimoiy holatini og‘irlashtirdi: mahalliy yerlar rus ko‘chmanchilarga berildi, iqtisodiy resurslar mustamlaka manfaatlariga xizmat qila boshladi va ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Natijada milliy, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik kuchayib, bu adolatsizlik holatiga qarshi yangicha fikrlar paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Mahalliy aholi rus madaniyati, ta’limi va siyosati bilan muloqotda bo‘lishi natijasida o‘z milliy identifikatsiyasini qayta ko‘rib chiqdi. Bu

jarayonda xalq ongining o‘sishi, tarixiy xotira va til hamda madaniyatga hurmatning kuchayishi kuzatildi. Mazkur o’zgarishlar milliy uyg‘onish harakati shakllanishida muhim rol o‘ynadi va ijtimoiy adolat g‘oyasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Ijtimoiy tenglik va ta’lim islohotlari borasida jadidchilik harakati alohida fenomenga aylandi. Jadidlar xalq hayotini yaxshilash uchun bilimni keng yoyish, ijtimoiy qatlamlar orasidagi tafovutni kamaytirish va mahalliy xalqlarga o‘z taqdirini belgilash huquqini berishni maqsad qilgan holda ijtimoiy harakat ko‘rinishida ijtimoiy adolat, milliy erkinlik, bilim va taraqqiyot masalalarini ko‘tarib chiqishdi.

Ya’ni Turkistonda jadidchilik harakati — ijtimoiy adolat g‘oyasining asosiy ifodalaridan biri bo‘lib, u ta’lim tizimining islohoti orqali jamiyatni o‘zgartirishni maqsad qildi. “Usul-i jadid” deb atalgan yangi ta’lim usuli bilan maktablar tashkil etildi, ular fan, tillar va zamonaviy bilimlarni o‘rgatishni maqsad qildi. Bu harakat orqali jadidlar xalqning ijtimoiy qatlamlari orasidagi bilim, imkoniyat va huquqiy tengsizlikni kamaytirishga intildi. “Jadidlar” o‘z g‘oyalarining asl mazmun-mohiyatini yetkazishda tahririy tashkilotlar, gazetalar va jurnallar foydalandilar. Jumladan, XX asr boshlarida dastlab “Taraqqiy”, “Shuhrat” keyinchalik esa “Sadoyi Turkiston”, hamda “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari, shuningdek “Hurriyat”, “Oyina”, “Al-Isloh”jurnallari Turkiston hayotida ma’rifat, milliy til va adolat masalalarini muhokama qilib, jamiyatda yangi ijtimoiy fikrni keng yoyish vazifasini bajardi. Boshqacha qilib aytganda, bu axborot vositalari orqali milliy o‘zlik va mustaqillik g‘oyalari ilgari surildi, yangi usul maktablari va ayollar ta’limi targ’ib qilinib, jamiyatdagi jaholat va qoloqlik tanqid qilindi va o‘z o‘rnida bu turdagi nashrlar jamiyatda adolat, bilim va milliy uyg‘onish g‘oyalari haqida tadqiqiy fikrni shakllantirishga xizmat qildi. [162] Bu davrda jtimoiy adolat g‘oyasining o’ziga xos shakllarda namoyon bo‘lishi kuzatildi. Ya’niki, bu davrgacha an’anaviy sharqona tafakkurda “adolat” tushunchasi asosan hukmdorning odilligi va shariat tamoyillariga amal qilish bilan bog‘langan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib u yangi mazmun kasb etdi. Endilikda adolat - xalqning siyosiy huquqlari, ta’lim olish imkoniyati, iqtisodiy tenglik va milliy o‘zini boshqarish huquqi bilan uyg‘un holda qarala boshlandi. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy adolat g‘oyasi oddiy axloqiy talab yoki diniy tushuncha doirasida emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida shakllandi.[163] Bu davrda adolat masalasi:

- siyosiy huquqlar - boshqaruv tizimida deyarli ishtirok eta olmaslik, yuqori lavozimlar asosan rus amaldorlariga berilgan bo‘lib mahalliy xalq esa siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidan chetlashtirilganligi natijasida, mahalliy aholining boshqaruv organlarida ishtiroki, saylov huquqining kengaytirilishi, qonun oldida tenglik masalasi hamda sud tizimida adolatli muomalaning tizimli ravishda qo’llanilishi;
- iqtisodiy tenglik - mustamlakachilik siyosati natijasida yer-mulk munosabatlarida yuzaga kelgan katta nomutanosibliklar oqibatida mahalliy aholi

[162] Sodiqov Q. Jadid matbuoti va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Akademnashr, 2010

[163] Abdullayeva N.R. “Taraqqiy” gazetasi va jadid matbuotida ijtimoiy adolat talqini [Elektron resurs].– URL:https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4075

iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, yer va suvdan teng foydalanish, soliq siyosatining adolatli bo‘lishi, mehnatning munosib qadrlanishi;

- milliy o‘zlik - mustamlakachilik siyosiy elitasi tomonidan mahalliy til, madaniyat va an’analarning cheklashga qaratilgan xatti-harakatlar oqibatida mahalliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilish, milliy tilning rivojlanishi, millatning siyosiy va madaniy huquqlarini tan olinishi;
- ma’rifiy taraqqiyot – ma’rifiy tenglik bo‘lmas ekan, siyosiy va iqtisodiy tenglikka ham erishib bo‘lmasligi sababli avvalo, yangi usul maktablarini ochish va ularda dunyoviy fanlarni o‘qitish, ayollar ta’limini rivojlantirish hamda matbuot orqali ongni uyg‘otish kabi g’oyalar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilindi.

Umumiy mazmunda ifoda etsak, XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy adolat g‘oyasi ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lib ular:

- siyosiy huquqlarni talab qilish;
- iqtisodiy imkoniyatlar tengligini ta’minlash;
- milliy o‘zlikni himoya qilish;
- ma’rifat orqali jamiyatni yangilash;
- mustamlakachilik zulmiga qarshi turish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lib, ijtimoiy adolat tushunchasi oddiy axloqiy tushuncha sifatida emas, balki milliy uyg‘onish va siyosiy modernizatsiyaning markaziy g‘oyasiga aylandi.

Mazkur g’oyalarni jamiyatda qaror toptirish maqsadida bir qancha fenomenal voqeliklar yuzaga keldi. Masalan, 1905-yil Rossiyada yuz bergan inqilob imperiya tarkibidagi hududlarda, jumladan Turkistonda ham siyosiy faollikning oshishiga sabab bo‘lib, matbuot erkinligi, siyosiy erkinlik va vakillik organlarida ishtirok etish kabi masalalar kun tartibiga chiqdi. Bundan tashqari 1916-yilda Rossiya imperiyasining mahalliy aholini front orti ishlariga safarbar etish haqidagi farmoni Turkistonda keng xalq qo‘zg‘oloniga sabab bo‘ldi.[164] Bu voqea ijtimoiy adolat masalasining qanchalik keskinlashganini ko‘rsatib bedi va buning sababi sifatida yer masalasidagi adolatsizlik, iqtisodiy bosim va soliq yukining og‘irligi, siyosiy tengsizlik hamda mahalliy aholining kamsitilishi namoyon bo‘ldi. O’z o‘rnida jadidlar maktablarining ochilishi esa ma’rifiy adolat amaliyoti bo‘la oldi. Boshqacha qilib aytganda, jaholat - qoloqlikning asosiy sababi bo‘lib, bilim esa - ozodlik va tenglikning poydevori ekanligi ilgari surildi.[165] Shuning uchun ular ta’limni kengaytirish orqali jamiyatni isloh qilishni maqsad qildilar. Ayollar maktablarining ochilishi esa o‘sha davr uchun juda katta ijtimoiy yangilik bo‘lib, gender tengligining dastlabki ko‘rinishlaridan biri edi. Shuningdek, Jadidlar eski maktab tizimidagi cheklovlarni tanqid qilib, ta’limni barcha ijtimoiy qatlamlar uchun ochiq qilishga intilib, boy va kambag‘al farzandlari uchun teng ta’lim imkoniyatini yaratish va savodxonlikni oshirish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishni maqsad qildilar. Yangicha ta’lim tizimida diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar sifatida matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, ona tili va adabiyot kabi fanlarni o‘qitish joyiy etildi. Bu fanlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, ularni mustamlakachilik siyosatini anglay oladigan, o‘z huquqlarini biladigan

[164] Cho‘qay M. Turkiston mustaqilligi uchun kurash. – Toshkent: Sharq, 1992.
[165] Abduvohidov A. Jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati. – Toshkent: Akademiya, 2011.

shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qildi. Jadidlar darslik va o‘quv qo‘llanmalarida:

- Vatanparvarlik;
- Milliy o‘zlikni anglash;
- Erkinlik va adolat;
- Qonun ustuvorligi kabi tushunchalarni targ‘ib qildilar.

Bu esa ijtimoiy adolatning muhim tamoyillaridan biri bo‘lgan fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari axloq darslariga alohida e’tibor qaratilib, jamiyat oldidagi mas’uliyat, insof va adolat, mehnatsevarlik va halollik kabi qadriyatlar singdirilgan. Bu qadriyatlar ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida qaralgan. Tom ma’noda oladigan bo‘lsak, jadidlarning yangi usul maktablari oddiy ta’lim muassasasi bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy adolat, milliy uyg‘onish va demokratik tafakkur markaziga aylandi.[166] Ular bilim, tenglik va ma’rifat orqali jamiyatni yangilash va mustamlakachilik sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolishni maqsad qildilar. Faol siyosiy harakatlr natijasi hisoblangan 1917-yil dekabr oyida Qo‘qonda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy adolat g‘oyasining siyosiy cho‘qqisi sifatida namoyon bo‘ldi va muxtoriyat rahbarlari sanalgan Mustafa Cho‘qay, Muhammadjon Tinishboyev va boshqalar quyidagi tamoyillarni ilgari surdilar:

- milliy o‘zini o‘zi boshqarish,
- parlament asosidagi hokimiyat,
- barcha millat vakillarining tengligi,
- diniy bag‘rikenglik.

Mazkur davrda siyosiy tenglik va fuqarolik huquqlarining zamonaviy talqini ko‘rinishida esa barcha millat va elatlarning teng huquqliligini, millati, dini, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha fuqarolarning tengligini, qonun ustuvorligi va vakillik organlari orqali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishni hamda sud tizimini adolat va shaffoflik asosida tashkil etish g‘oyalari ilgari surildi. Iqtisodiy adolat va yer masalalari bo‘yicha dolzarb muammolar hisoblangan yer va suvdan adolatli foydalanish tizimini yaratish, mustamlaka davrida tortib olingan yerlarni mahalliy aholiga qaytarish vas hu barobarida dehqonlarning huquqlarini himoya qilishni ko‘zda tutgan dasturlarni jamiyat hayotiga tadbiq qilishga intildilar. Garchi Muxtoriyat o‘z maqsadlariga erisha olmagan hamda faoliyati qisqa muddat ichida tugatilgan hamda jadidlar faoliyati keskin qarshilikka uchragan bo‘lsa-da, u jamiyatda ijtimoiy adolat g‘oyasining amaliy siyosiy hayotga aylanganini ko‘rsatib bera olgan edi. Jadid adabiyoti va teatrining paydo bo‘lishi ham asarlar va ulardagi obrazlar orqali jamiyatdagi xato va kamchiliklar mohirona ravishda yoritildi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining zaruriyati talqin etib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimova D.A. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Toshkent: Universitet, 2002.

[166] Turkistonda jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta’siri [Elektron resurs].URL:https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/846

3. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustamlakachilik davrida. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Sodiqov Q. Jadid matbuoti va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Akademnashr, 2010
5. Cho‘qay M. Turkiston mustaqilligi uchun kurash. – Toshkent: Sharq, 1992.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8–9-jildlar (Jadidchilik, Turkiston Muxtoriyati maqolalari). – Toshkent, 2004.
7. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – University of California Press, 1998.
8. Qosimov B. Jadidchilik va jadid adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
9. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
(“Usul-i jadid” maktablari tashkil etilishi va ta’lim islohoti masalalari)
10. Abduvohidov A. Jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati. – Toshkent: Akademiya, 2011.

TURKISTONLIKLARNING “NAJOT YO‘LI”

Jamolova Maftuna Muyidinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Dunyoda odam paydo bo‘lgandan boshlab, o‘z diniy e’tiqodiga ega bo‘lganini tarixiy va arxeologik manbalar tasdiqlaydi. Inson hayotining ajralmas bo‘lagi diniy e’tiqod bo‘lib, uning hayoti mazmunini tashkil qiladi. Jadidlar ham o‘z faoliyatining muhim yo‘nalishi sifatida dinga alohida e’tibor qaratdilar hamda diniy e’tiqod, diniy bag‘rikenglik, islomchilik g‘oyalarini ilgari surdilar. Ayniqsa, Buxoro jadidchiligining yorqin vakili Abdurauf Fitrat islom dinining najot yo‘li ekanini isbotlab berdi.

Fitrat o‘z faoliyati davomida ko‘plab she’riy, badiiy, ilmiy, ma’rifiy, diniy va falsafiy asarlar yaratgan. Uning taraqqiyparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan bir qatorda islom dini va uning mohiyatini yoritib bergan asarlaridan biri “Najot yo‘li” dir. Asarning yozilgan sanasi haqida manbalarda turli xil ma’lumotlar uchraydi, xususan Hamidulla Boltaboyevning “Fitrat va jadidchilik” to‘plamida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda Fitrat Istanbulda bo‘lgan vaqtda, ya’ni hijriy 1332 yilda (milodiy 1913) asar yozib tugallangan. Shuningdek, tojik olimi S. Tabarov o‘zining “Inson va jamiyat az nazari Fitrat” “[2:32]” maqolasida ham ushbu asarning Fitrat xorijdaligida yozilganligiga ishora qiladi. Olim asarning “Sadoi Sharq” dagi nashri haqida ham tadqiqotlar olib boradi. “Najot yo‘li” ilk marta 1915 yilda Petrogradda fors tilida nashr qilingan. 1992 yil Dushanbedagi “Sadoi Sharq” jurnalining 7-9-sonlarida qayta nashr qilingan. Asar 2001 yil Shodmon Vohid va Gulbahor Muzaffarzoda tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Fitrat asarning muqaddimasida uning yozilish tarixi haqida to‘xtalib, o‘tmishda ota-bobolarimiz har sohada, ayniqsa, ilm-ma’rifatda dunyo xalqlariga o‘rnak va namuna bo‘lib, ko‘plab asarlar, podshohlarning nomlarini kelajakka muhrlagan kitoblar yaratganliklarini, ammo zamonlar o‘tib, ilmga bo‘lgan intilish susayib, talqinchilikka aylanganligini ta’kidlaydi. Buxoro amiri Sayyid Muhammad Olimxon davrida vaziyat o‘zgarib, Buxoro xalqi ro‘znomalar orqali dunyoda sodir bo‘layotgan ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lib, olim va yozuvchilar tomonidan jamiyat uchun foydali kitoblar yaratilganligini qayd qiladi va quyidagi jumlalarni keltiradi: “Banda shularning eng kamtarinlaridan biri bo‘laman. Bu navbat ham ushbu axloqiya majmuasini tartib berib, “Rahbari najot” (“Najot yo‘li”) deb nomladim” “[3:63]”.

Fitrat millatni qoloqlik girdobidan qutqarmoqchi bo‘lib, zamonasi uchun asosiy e’tiqod hisoblangan islom diniga murojaat qiladi. U Qur’oni karimni musulmonlarning rahbar va rahnamosi - Najot dasturi (yo‘li) deb ta’kidlaydi. Bu muqaddas kitob va islom dini g‘oyalari atrofida millatni jipslashishga da’vat etadi. “Najot yo‘li” asarida Fitratning falsafiy va axloqiy qarashlari ham o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Asarda muallif 20-yuzyillik boshlarida Turkistonda hukm surgan qoloqlik, an’anaviy boshqaruv tartiblarining jamiyat va kishilar hayotiga ta’siri, dunyo davlatlari taraqqiy qilib turgan bir davrda islom dunyosining orqada qolish sabablari hamda jamiyatning yuksalishi va taraqqiy qilishi uchun zarur bo‘lgan barcha yechimlarni islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karim va hadislarga tayanib tahlil qiladi. Xususan, “…bizning e’tiborsiz va xoru zor ekanligimizning haqiqiy sababi o‘zimizning nosoz a’molimizdir, o‘zimizni musulmon deb bilamiz-u, lekin muhim islom ahkomlarini tamoman tark qilganmiz. Agar ilohiy dargohga ruju qo‘yib, ahvolimizni isloh qilib, Qur’oni karim ahkomlarini o‘zimizga yagona rahbar deb bilsak, taraqqiyotga umidvor bo‘lish mumkin, illo bizni bu parishonlikdan hech bir avliyoning karomati xalos etmaydi! “Senga yetgan yaxshilik Allohdandir, musibat esa o‘zingdan” deyiladi Qur’oni karimda (Niso surasi, 79-oyat) “[3:66]”. Bunda muallif odamlar Allohga emas, avliyolarga e’tiqod qilayotganini tanqid qiladi. Qur’oni Karimni o‘qib islomni anglash o‘rniga ziyoratgohlarga borib, buyumlarga sig‘inish xato ekanligini ta’kidlaydi. Islom dinining muqaddas kitobini o‘qib, uning ahkomlarini amalga oshirishga da’vat etadi.

Birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrini boshidan o‘tkazgan Turonning 20-yuzyillik boshlariga kelib, barcha sohalarda ortda qolib ketganidan afsuslangan Fitrat diniy ulamolarga ham murojaat qiladi. Bunda ularni ikki guruhga ajratadi: taraqqiyparvar ulamolar hamda mutaassib ulamolar. Birinchi guruh ulamolari qoloqlikning bosh sababi ilmsizlik va tanballik desalar, ikkinchi guruh ulamolari ilohiy xohish, Alloh dunyoni kofirlar uchun jannat, musulmonlar uchun do‘zax qilib yaratgan, “kulli yavmin badtar” “[3:63]”, ya’ni musulmonlarning kuni kundan kun battar bo‘lib boradi deb mulohaza qiladilar.

Fitrat taraqqiyparvarlarning fikrini ma’qullab, mutaassiblarga Qur’oni karimdan iqtibos keltirib, javob beradi. Alloh yer yuzida bani Odamni yaratib, maxluqotlardan farq qiladigan yuksak qurol – aqlni berib, odamga sa’y-harakatlar bilan taraqqiy qilish imkoniyati berilganligini, xususan, Muhammad alayhissalom

ham muborak umrlarini sa’y-harakat bilan o‘tkazganliklarini, savdo bilan shug‘ullanib, cho‘ponlik, imomlik, tabiblik qilganliklarini, chunki taraqqiyot va yuksaklikka ilm va amal bilan erishilishini ta’kidlaydi.

Fitrat o‘sha davr kishilari orasida ko‘p uchraydigan illatlardan biri, avliyolar qabrini ziyorat qilib, ulardan shafoat tilash, o‘z maqsadlariga erishish yo‘li deb avliyolar qabrini masjidga aylantirib namoz o‘qishni qoralaydi. Sababi “Shafoat qilish faqat Allohgagina xosdir, bandasining uning iznisiz birovni shafoat qilishga haqqi yo‘qdir”.(Niso surasi, 44-oyat) Bu borada Imom Buxoriyning “Kitob ul-haj” (Haj haqida hadislar kitobi) kitobidan yana bir dalil keltiradi: “Bir kuni haj marosimida “hajarul-asvad”ni (qora tosh) tavof qila turib, Hazrati Umar shunday degan ekanlar: “Ey hajar-ul asvad! Sen bir foydasi ham, zarari ham tegmaydigan toshsan. Agar Payg‘ambar seni o‘pganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rmaganimda, hech qachon seni o‘pmagan bo‘lar edim” “[3:80]”. Aslida esa qabrlarni ziyorat qilishdan maqsad oxiratni esga olishdir.

“Najot yo‘li”da isrofgarchilik, baxillik, ribo singari jamiyatda ko‘p uchraydigan nuqsonlar, kishilar fe’lidagi manmanlik, jur’atsizlik, g‘azab singari nosoz amallar, sabr-qanoat, halimlik, pokizalik kabi xislatlarni ham qalamga olinadi. Fitrat bunday illatlar va kishilar fe’lidagi nosoz amallarni bartaraf qilish uchun islom dini va Qur’oni karim oyatlari, Payg‘ambar hadislariga tayanib dalillar keltiradi.

Risolada ilm, ilm o‘rganish, uning jamiyat va kishilar hayoti rivoji uchun foydalari haqida mulohazalar ham keltirib o‘tilgan. Muallif Qur’on va hadisga tayanib, ehsonlarning eng maqbuli musulmon kishining ilm olishi va musulmon birodariga ilm o‘rgatishidir, deb, turkistonliklarni ilm olishga da’vat etadi. Fitrat ilmni ikkiga bo‘ladi: ilmi naqliy va ilmi aqliy. Ilmi naqliyning o‘zini ham diniy va dunyoviy ilmlarga ajratib, diniy bilimlar tarkibiga tafsir ilmi (Qur’oni karim sharhlari), hadis ilmi, fiqh ilmi (huquq) va usuli, kalom ilmi(islom qoidalari)ni kiritadi. Dunyoviy bilimlarga esa, tarix va jug‘rofiyani kiritib, bu naqliy ilmlarning qanday paydo bo‘lganligi va bu fanlarning rivojiga hissa qo‘shgan olimlar hamda ularning asarlariga ham to‘xtalib o‘tadi. Bu bilimlarni taraqqiy qilib, ravnaq topishni istagan millatlar o‘rganib, o‘zlaridan avval o‘tgan xalqlarning rivoji va tanazzulini tahlil qilib, sayohat qilib o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib o‘rnak olishlari uchun o‘rganishlari lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, aqliy bilimlarning ham izohini keltiradi. Bu bilimlar insonlarning faoliyati va kashfiyotlari natijasida vujudga kelgan bo‘lib, ular tabiiy ilm, riyozat ilmi va falsafiy ilmdan iborat. Tabiiy ilmlar haqida fikr yuritar ekan, o‘z davrining mashhur tabiblari Abu Bakr Roziy, Abulhasan Ali ibn Rizvon Misriy, Abu Ali ibn Sino haqida ma’lumotlar keltirib, ularning mashhur asarlaridan dunyo xalqlari o‘z tabobat maktablarida darslik sifatida foydalanayotganliklariga alohida urg‘u beradi. Fitrat Turkistondagi tibbiy ilmlarning ahvoli, aholi orasida ko‘payib borayotgan turli kasalliklar, kishilarning oddiy kasalliklardan vafot etib, aholi sonining kamayib borayotganligi singari muammolarga to‘xtalib, ularni bartaraf etish yo‘llarini “Hind sayyohi” qissasida keltirganligini ta’kidlaydi. Risolaning “Oila vazifasi”, “Avlod tarbiyasi” boblarida oila qurish tartiblari, oilada er va ayolning o‘rni, ayollarning ilmli va dindor bo‘lishi, erlarning ayollarga munosabati, farzand tarbiyasi kabi muhim masalalar aytib o‘tilgan. Muallif asar

so‘ngida sunniy va shia mazhablari, jadid va qadim ulamolari o‘rtasidagi ixtiloflarga ham to‘xtaladi.

Xulosa qilib aytganda, asarda butun boshli millatning taraqqiyotdan, dunyo davlatlaridan orqada qolishiga sabab bo‘layotgan barcha nuqson va kamchiliklar sanab o‘tilgan. Bu nuqsonlarni bartaraf qilish uchun har biriga yechim va takliflar berib o‘tgan. Xususan, xalqni ilmli, ma’rifatli qilish, Turkistonni dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida ko‘rish uchun, yangi maktablar va madrasalar tashkil qilish, jamiyatni yuksaltirish uchun Turkistonning yerusti va yerosti boyliklaridan unumli foydalanish, savdo-tijorat ishini yo‘lga qo‘yib, sanoatni, qishloq xo‘jaligini rivojlantirib chet davlatlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish kerakligi alohida uqtirilgan. Abdurauf Fitratning “Najot yo‘li” asari millat taqdiri, uning kelajagi va taraqqiyot yo‘li haqida chuqur falsafiy hamda ijtimoiy mulohazalarga boy muhim asar bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Chunki har qanday davrda ham jamiyatning rivoji, millatning obro‘-e’tibori va mustahkamligi uning ma’rifati darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurashidov Z. Turkistonda jadidchilik. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti.-Toshkent, 2007.
3. Fitrat. Najot yo’li (Rahbari najot)//Tanlangan asarlar.-Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.-Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

XAYRINISO MAJIDXONOVANING HAYOTI VA 1930-YILLARDAGI SIYOSIY QATAG‘ON JARAYONLARI

Narzullayeva Nasiba Ibragim qizi

O‘zMU tayanch doktoranti

O‘zbekiston deyarli 70 yildan ortiq sobiq sovet tuzumi davrida yashadi. Bu davr O‘zbekiston tarixining O‘zbekiston SSR davri deb ataladi (1925 – 1991-yillar). Sobiq sovet tuzumi davrida O‘zbekistonda bir necha bor daxshatli qatag‘onlik siyosati amalga oshirilgan. Dastlab Stalin boshchiligida bu tuzum XX asr 20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida “Quloq siyosati” bilan bir qatorda “18 lar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” kabi soxta, to‘qima ishlarni uyushtirdi va xalqimizning ilg‘or fikrli, davlat lavozimlarida ishlaydigan, xalqimiz va respublika sha’nini himoya qilishga urungan bir qator insonlarini yo‘q qildi.

1937-1938-yillarda sovet tuzumining olib borgan qatag‘onlik siyosati natijasida yurtimizning ham bir qator rahbar kadrlari, siyosiy arboblari, ilg‘or

ziyolilari ham qurbon bo‘ldi. Ular o‘qigani, o‘qishni xohlagani, bilgani, o‘z fikrini baralla ayta va yoza olgani, adolatsizlikka qarshi chiqqani uchun qatag‘on qilindi.

Naim Karimovning “Qatag‘on qurbonlari va ularning adabiy-badiiy hamda publisistik merosi” kitobida ma’shum qatag‘onlik davri haqida ushbu jumlalar keltiriladi: “Bugun biz 1937 – 1938- yillarda yuragini hovuchlab yashagan xalqning uyidagi arab yozuvida bitilgan noyob bosma va qo‘lyozma asarlarini muqovasiga “Cho‘lpon”, “Abdulla Qodiriy”, “Fitrat”, “Fayzulla Xo‘jayev” singari ismlar yozilgan kitoblarni anhorlarga olib borib, sinch devorlar orasiga yashirib yoki gulxanlarda yondirib tashlaganini eslab ko‘z yoshlarimizni duv-duv to‘kamiz. Shu kitoblar bilan birga buyuk olimlarimiz va yozuvchilarimizga Alloh bergan aql-zakovat va porloq iste’dod samaralari ham yonib kul bo‘lgan”[1].

“Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 1937-yilning sentyabr oyida hozirgi O‘zbekiston hududida 10700 kishi hibsga olinib, sudlangan. Ulardan 3613 nafari o‘lim jazosiga hukm qilingan, 7087 nafari esa 8 yildan 10 yilgacha bo‘lgan lagerlarda qamoqda saqlangan. Shu yilning 13-noyabridan-28-noyabrigacha bo‘lgan davrda 1611 kishi sudlangan bo‘lsa, 1937-yil dekabr oyida mahkumlar soni 3610 kishini tashkil etgan. Qurbonlar orasida Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi taniqli arboblar, olim va adiblar bor edi[2]. Bu siyosat girdobiga xorijda tahsil olib kelgan bir qator xotin-qizlarimiz ham tortildi. Xayrinisa Majidxonova ham xuddi shunday yoshlardan edi. U ham 1937-1938-yillarda olib borilgan qatag`on siyosatining qurboni bo`ldi.

Xayrinisa Majidxonova 1905-yilda Toshkentda, ma’rifatparvar oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Majidxon aka Toshkentning mashhur Mirobod mahallasidagi turli millatlarga mansub ma’rifatparvar ziyolilar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. U XX asr boshlarida Markaziy Rossiyaning Moskva, Peterburg kabi shaharlarida bo‘lib qaytgan, keyinchalik shu safar chog‘larida olgan taassurotlari ta’sirida qizlariga zamonaviy bilim berishga, xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qilgan. Toshkentdagi mutaassib ruhoniylar hatto unga “Majid o‘ris”, “Majid kofir” deb laqab qo‘yganlar, qizlari maktabga paranji kiymasdan borganlari uchun qoralaganlar. Xayrinisa mahallasidagi shunday og‘ir vaziyatga qaramay, o‘qimishli tatar, rus, nemis qizlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan. Birinchi o‘zbek xotin-qizlar bilim yurtida o‘qiyotgan opasi Oyposhsha esa unga yozuv-chizuvni o‘rgatgan[3]. So‘ngra Miroboddagi yangi maktabda o‘qib, rus va nemis tillarini o‘rgana boshlagan. Xayrinisa 1922-yilning oxiri - 1923-yilning boshlarida bir guruh o‘zbek yigit va qizlari bilan birga Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. Berlinda bir muncha vaqt davomida nemis tilini o‘rgangach, 1924-1926-yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Darmshtat shahridagi o‘qituvchilar seminariysida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o‘qiydi, nemis tili va adabiyotini o‘rganadi[4]. 1927-yili, yozgi ta’til vaqtida, Xayrinisa Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga sayohatga boradi. O‘z davrida insoniyat madaniyatining poytaxtlaridan biri bo‘lgan bu shaharda yashab turgan yurtdoshlari - buxorolik Ahmad Naim va Turkiston Muvaqqat hukumatining sobiq bosh vaziri, muhojir Mustafo Cho‘qayevlar bilan uchrashadi. Yurtdoshlari ularni Parijning kino, teatr singari madaniyat o‘choqlari bilan tanishtiradilar. Berlinga qaytgach, Xayrinisa bir necha muddat Avstriyaning Vena shahrida ham bo‘ladi. Xorijga borib ta’lim olayotgan o‘zbek qizlarining

jasorati ma’rifat muxlislarining olqishiga sazovor bo‘ldi. Xayrinisa Majidxonovaning ismi Turkistonning taraqqiyparvar shoirlari - Cho‘lpon, Botu, otasi Majidxon Dumaning maqola va she’rlarida faxr bilan tilga olindi. Jumladan, Botu 1922-yil noyabr oyi boshlarida bir guruh turkistonlik talabalar qatori o‘zbek qizi Xayrinisa Majidxonovaning Berlinga o‘qishga borishi munosabati bilan yozgan “Kichkina armug‘onim” she’rida unga quvonch bilan oq yo‘l tilab bunday yozgan edi:

Qora turmush changalidan qutulib,
Erk chechagi taqa olgan kuchli qiz,
Eski odat sanamlarin parchalab,
Erk-tangriga sajda qilgan ruhli qiz.
Yo‘ling to‘g‘ri, ortga boqma, keta ber,
Ilgarilash ashulasini ayta ber![5].

Majidxon aka xorijga o‘qishga borgan talabalar orasida qizining ham bo‘lishidan cheksiz mamnun bo‘lgan. Bunday xushxabarni eshitib suyungan uzoq yaqindagi tanishlaridan ko‘plab qutlov so‘zlarini, tabrik xatlarini olgan va bundan boshi osmonga yetib, ularga, ayniqsa, shoir Botuga minnatdorchilik bildirib, bunday yozgan: “Ezilgan millatlar, qorong‘ulikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga kelgan talabalar orasida qizim Xayrinisa ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o‘zbek qizini yuborish sharafi, shukrlar bo‘lsunkim, menga nasib bo‘lmish. Hozir men shu munosabat bilan har yerdan qutlash xatlari olmoqdaman... Ularning hammasiga birdan, ayniqsa, qizg‘in tuyg‘ular bilan qutlagan Moskva va Bokudagi talabalarimizga, Qozon va Orenburgdagi madaniyat va maorif xodimlariga, yosh shoirimiz Botu o‘rtoqqa tashakkurimni bildirib, bilim istab dunyoning har tomoniga yoyila turgan yigit va qizlarimizni ko‘paysin, - deyman”[6] Germaniyada olti yil davomida ta’lim olgan Xayrinisa 1928-yilda O‘zbekistonga qaytib, to 1937-yil 13-sentyabrga qadar kasaba uyushmalari Markaziy Qo‘mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang‘ich va o‘rta ta’lim o‘qituvchilarining dam olish uyida shifokor bo‘lib ishlaydi. Uning Yevropa tibbiyotidan olgan bilimlari, mashhur nemis olimlari va vrachlaridan o‘rgangan tajriba va malakalari mehnatkashlarni davolashda unga qo‘l keladi. Xayrinisa shu yillarda onasi Oyposhsha bilan birga 34-uyda turgan. Va shu yerda 1937-yil 13-sentyabrda to‘satdan qamoqqa olingan. Unga 1922-1928-yillarda Germaniyada “Ozod Turkiston” nomli aksilinqilobiy-millatchilik tashkilotining a’zosi bo‘lgan, 1928-yilda shu tashkilotning topshiriqlari bilan SSSRga josus bo‘lib kelgan, SSSRdagi o‘sha tashkilot a’zolari bilan muloqotda bo‘lgan, degan ayblar qo‘yilgan[3]. O‘sha kuni NKVD davlat xavfsizligi leytenanti G‘aynitdinov uning otasi yashaydigan Katta Mirobod ko‘chasidagi 43-uy 1-xonadonda tintuv o‘tkazib, Xayrinisa bilan birga uning pasporti, Germaniyaning yuz markali tangasi, o‘sha yerdan kelgan 112 ta maktub, nemis tilidagi 4 ta yozishma, 5 ta yon daftar, 8 ta kitobini ham olib ketadi. So‘roqda undan Berlindagi turkistonlik talabalarning Mustafo Cho‘qayev, Ahmad Zaki Validiy va Ahmad Naim ishtirokidagi yig‘ilishlarida nimalar bo‘lganligi, majlislar qachon o‘tkazilganligi kimlar ishtirok qilganliklari so‘raladi. O‘z xalqiga halol xizmat qilishni diliga tukkan Xayrinisa Majidxonova tergovchining barcha savollariga to‘g‘ri va aniq javob beradi. Mustafo

Choʻqayev, Zaki Validiy, Ahmad Naimlar bilan uchrashuvlari, talabalarning oʻzaro toʻplanib, uchrashib, suhbatlashib turishlari, yurtdoshlar oʻrtasidagi tabiiy munosabat turmush ehtiyoji ekanini, Turkistondagi ahvol va uning istiqboli talabalarni qiziqtirishi va bu haqda oʻzaro fikr almashishlari ham odatdagi hol ekanini tushuntiradi. Hech narsadan gumonsiramay uchrashuvlarda ishtirok etgan talabalar Majidiy, Vali Qayum, Toʻlagan Moʻmin, Sulton Matqul, Sattor Jabbor, Temir Kazbekovlarning nomlarini tilga oladi. Hatto sovet hokimiyatidan norozilik ruhidagi gaplar boʻlganligini ham yashirib oʻtirmaydi. «Menga, - deydi u bu haqda tergovchiga bergan javobida, - Turkiston talabalarining Mustafo Choʻqayev va Zaki Validiylar ishtirokida oʻtkazgan 4 ta yigʻilishi maʼlum: birinchi yigʻilish taxminan 1924 yoki 1925-yilda Berlin restoranlaridan birida boʻldi. Mazkur yigʻinda Mustafo Choʻqayev ishtirok qildi. Ehtimol Zaki Validiy ham boʻlgandir. U yerda Turkiston talabalaridan: men, Majidiy, Vali Qayum, Toʻlagan Moʻmin, Sulton Matqul, Sattor Jabbor, Kazbekov va boshqa koʻplar boʻladilar. Agar yanglishmasam, bu yigʻin tashabbuskori Vali Qayum edi. Mazkur yigʻin sovetlarga qarshi xarakterda boʻlib, u yerda nimalar boʻlganligi va nimalar haqida gapirilganligi hozir aniq esimda yoʻq... Ikkinchisi... Taxminan 1927-yilning yozlarida Maryam Sultonmurodova bilan birga sayohat maqsadida Germaniyadan Fransiyaning Parij shahriga bordik. Borgunga qadar, hozir esimda yoʻq, kim orqalidir biz Mustafo Choʻqayevning mabnzilini topdik va Parijga kelgach, mavjud manzil boʻyicha Choʻqayevni qidirdik va topib, uning yordami bilan vaqtincha mehmonxonaga joylashdik va u yerda bir oycha yashadik. Mazkur mehmonxonada turgan vaqtimizda Mustafo Choʻqayev va Ahmad Naim (u bu davrda Parijda yashardi) bir necha bor oldimizga keldi, biz bilan birga yurib, Parij shahrini koʻrsatdi. Biz ham oʻz navbatida Mustafo Choʻqayev va Ahmad Naim xonalarida bir necha bor boʻldik». Ayblanuvchi Xayrinisa Majidxonovaning Oʻzbekiston MXX arxivida saqlanayotgan 1937-yil 22-dekabr sanali soʻroq bayonnomasida esa yuqoridagi kabi savol-javoblardan soʻng tergovchining: “Siz oʻzingizga qoʻyilgan oʻsha aybni boʻyingizga olasizmi? - degan savoliga javoban u oʻziga qoʻyilgan vatanga xoinlik qilganlik, aygʻoqchilik va millatchilik tashkilotiga aʼzo boʻlganlik haqidagi ayblarning asossizligini aytib, uni mutlaqo tan olmaydi: va

«JAVOB:- Men oʻzimga qoʻyilgan Vatanga xoinlik qilganlik, aygʻoqchilik-millatchilik tashkilotiga aloqador boʻlganlik haqidagi aybni tan olmayman. Men oʻzimning aybimni faqat quyidagilarda deb bilaman:

a) 1922-1928-yillarda Germaniyada oʻqigan vaqtimda aksilinqilobchilar Mustafo Choʻqayev va Zaki Validiylar sovetlarga qarshi ruhdagi nutqlar soʻzlagan Turkiston talabalarining uchta yigʻilishida qatnashganman.

b) Germaniyada boʻlganimda 1927-yili dugonam Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga borganmiz. Aksilinqilobchi Mustafo Choʻqayev va Ahmad Naimlar bilan bir necha bor uchrashganmiz;

d) SSSRga qaytganimdan keyin 1931-1932-yillarda Oʻzbekistonda Oʻrta Osiyo Tibbiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishlagan Germaniya fuqarosi boʻlgan professor Englyand bilan munosabatda boʻlganman. Men unga oʻzbek tilidan dars berganim va jonli nemis (soʻzlashuv) tilini oʻrganmoqchi boʻlganim uchun uning (Englyandning) xonasiga borib turganman.

Qo‘shimcha qilaman: men va Sultonmurodova 1927-yili Fransiyaga Parijni tomosha qilgani borgan edik”. Ayblanuvchining bu so‘zlari qanchalik samimiy aytilgani va uning xatti-harakatida birorta aybning bo‘lmaganiga qaramasdan, tergov va qiynoqlar bir yildan ortiq davom etadi va shu jarayonda uning bo‘yniga qo‘yilgan biror fakt va dalil isbotlanmaydi. Shunga qaramay, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining Alekseyev boshchiligidagi sayyor sessiyasi 1938-yil 9-oktyabrda Toshkentda g‘ayriqonuniy ravishda Xayrinisa Majidxonovani O‘zSSR Jinoyat kodeksining 62-64 va 67- moddalari bo‘yicha aybdor hisoblab, oliy jazoga - otuvga hukm qiladi[7]. Hukm shafqatsizlarcha ijro etiladi. Shunday qilib, endigina 32 bahorni qarshilagan, Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlaridan birida o‘qib qaytgan birinchi o‘zbek qizlaridan Xayrinisa Majidxonova stalincha totalitar tuzumning begunoh qurboni bo‘ladi, uning oila a’zolari, ota-onasi ham og‘ir qiyinchiliklarga duchor bo‘ladilar.

“Kuz oylarining boshlarida men temir yo‘l maktabining 2-3-sinfida o‘qir edim, - deydi Toshkent temir yo‘llar bosh boshqarmasi kadrlar bo‘limining boshlig‘i Xolida opa Qodirova o‘sha mash’um yillarni alam bilan eslab. — Xayrinisa xolam ishxonalarida ish bilan bo‘lib, uyga kelolmay qolgan kunlaridan birida, tong saharda uyimizga ikki kishi nazorati ostida kirib keldilar. Bu formasiz kishilar uyimizni tintuv qilishib, uning Germaniyadan olib kelgan kitoblari, xatlari va boshqa hujjatlarini talab qila boshladilar. Xolam hamma narsa Miroboddagi hovlimizdaligini aytgach, ular Xayrinisa xolamni o‘sha yoqqa olib ketdilar. Men maktabga borolmay, qo‘rqib, qisqa yo‘l bilan bobomning oldilariga chopdim. Bobomga ikkita odam xolamni ishxonasidan olib kelib, uyimizni tintuv qilishayotganini aytdim. Bobom buvimga qarab: “Onasi, qizingdan ayrilibsan”, - dedilar. Bir pastdan keyin NKVD xodimlari ham yetib kelishib, xolamni bobomning uyiga kiritishdi-da, hammayoqni titib tashlashdi. Germaniyadan keltirgan kitoblari, xatlari va o‘qish yillarida tuzgan albomlarini hovliga olib chiqib yoqishdi. Majidxon bobom va onamni ham 3-4 oy tergovga chaqirishib, ularni qizining Germaniya bilan aloqasi, josuslik ishlari haqida ma’lumot berasan, deya so‘roq qilishdi, ba’zi vaqtlar ularni hatto qamab ham qo‘yishdi. Keyinchalik Fayzulla Xo‘jayev ko‘chasidagi uyimizdan ham haydab chiqarishdi. “Xayrinisa xolamning orzulari katta edi, - deydi Xolida opa ko‘z yoshi bilan so‘zida davom etib. - Germaniyadan keltirgan tibbiyotga oid turli qo‘llanmalarni nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishgan, ilmiy tadqiqot ustida ish boshlagan edilar. Meni ham kelajakda shu sohada o‘qishga undar, ma’rifat nuridan bahramand etardilar. Xayrinisa xolam menga rus va nemis tillarini o‘rgatar, Moskvadan, Berlindan olib kelgan ruscha va nemischa bolalar jurnallarini ko‘rsatib, o‘qib, tushuntirib berar edilar. Germaniyada nemis gazeta, jurnallarida chop etilgan suratlarini ko‘rsatib, o‘qish va tajriba o‘tkazish jarayonlari haqida quvonib so‘zlar, «Sen ham katta bo‘lsang, o‘shanday ilg‘or mamlakatlarga borib o‘qib qaytasan”, deb meni orzularga qanotlantirar edilar. Yondirilgan asarlar - kitoblar orasida Germaniyadan olib kelingan tibbiy asarlar, bolalar kitoblari, Gyote, Shillerning nemis tilidagi, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi o‘zbek shoir va yozuvchilarining asarlari qam bor edi. Men bir safar onam bilan xolamni ko‘raman, deb Toshturmaga borganimda, Xayrinisa xolamni bizlarga ko‘rsatishmadi. Onam norozilik bildirganlarida uni kechgacha qamab: “Senlarni turmada chiritaman!” deb

baqirib berishdi. Shundan so‘ng biz o‘sha yerga hatto borishga, xolamning ismini tilga olishga qam qo‘rqib yashadik. Stalinning shaxsi fosh etilganidan so‘ng onam singlisi Xayrinisaning oxirgi taqdirini surishtirib, respublika huquq organlariga murojaat qilganlarida, ulardan xolam 1942-yili vafot etgan bo‘lsa kerak, degan sovuqqina xabar oldik, xolos. Lekin Xayrinisa xolam qayerda, qanday ahvolda vafot etganliklarini O‘zbekiston mustaqillikka erishgunigacha bilmay yurdik. Va respublikamiz istiqloli sharofati tufayligina ular haqidagi haqiqatni bilishga erishdik. 1999-yil 7-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o‘rinbosari imzosi bilan xolamning tamomila oqlanganligi haqidagi qog‘ozni oldik. Shuning uchun ham biz Vatanimiz mustaqil bo‘lganligidan cheksiz minnatdormiz”, - dedi Xolida opa[8].

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, ayovsiz olib borilgan qatog`on siyosati ko`plab ziyolilarning jisman yo`q qildi. Qanchadan-qancha yurt fidoiylarini ayovsiz qiynoqlar, azoblarga giriftor etdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so`nggina ularning muborak nomlari tiklandi. Ularning nomlarini abadiylashtirish, xotirlash maqsadida ko`cha, maktab, teatr kabi madaniy maskanlarga nomlari berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov N. Qatag‘on qurbonlari va ularning abadiiy, badiiy, pulisistik merosi. – Toshkent, 2015. – B. 3
2. https://uzbekiston.travel
3. Ирзаев, Баҳром. Хорижда ўқиган ўзбек жадид аёлларининг “айби” нима эди // Янги Ўзбекистон, 2023-йил 8-март. No 46. Б.6.
4. https://kun.uz/uz/news/2022/05/03/biri-otilgan-ikkinchisi-surgun-qilingan-germaniyada-oqigani-uchun-qatagon-qilingan-ozbek-ayollari
5. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. -Т.: 2006. -117 б.
6. Ирзаев Баҳром. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. –Тошкент: Akademnashr, 2018. -208 b.
7. Қоркўйнида лолалар (қатағон килинган аёллар ҳақвда очерклар).//Масъул муҳаррир: Б.Шарипов/. -Тошкент, «Академия», 2001 й. -213 б.
8. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. -Т.: 2006. -119 б

JADID MATBUOTIDA DAVRIY MUAMMOLARNING YORITILISHI (“OYINA” JURNALI MISOLIDA)

Sadiyeva Rohat Bahritdinovna

Navoiy davlat unversiteti tayanch doktoranti

Mustamlaka sharoitida Turkiston yoshlarini hech kimdan kam emasligi, ular ham dunyoviy bilimlarni egallashga haqli ekanligini baralla ayta olgan, bu yo’lda

butun umrini sarf etgan adib ham Behbudiy hisoblanadi. Bugungi kunga kelib jadid namoyondalariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ularning xalq, vatan oldidagi xizmatlari munosib baholandi. XIX asr oxirlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati o'lkadagi qoloqlik, bid'at, eskicha tartibdagi ta'limga chek qo'yishga qaratilgan edi. Jadidlarning birinchi va asosiy maqsadlari ta'lim tizimini tubdan yangilash "yangi usul"dagi maktablar tashkil qilish orqali xalqning ma'naviy dunyoqarashini o'zgartirish edi. Bu yo'lda katta yo'lboshchilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon, Siddiqiy Ajziy, Abdulqodir Shakuriy, Is'hoqxon Ibrat, Hoji Muin, Vadud Mahmud, Ashurali Zohiriylar bo'lishdi. Mustamlaka sharoitida ular o'zlari yozgan asarlari, maqolalari, darsliklari va o'quv qo'llanmalari bilan xalqning umidiga aylandilar hamda umrlarining so'ngiga qadar bu yo'lda matonat bilan kurashdilar. Turkiston jadidlariga ustoz sanalgan Mahmudxo'ja Behbudiy ezgu ish yo'lida barcha millat farzandlariga o'rnak bo'ldi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi.

O'zining millat va vatan jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi [1. B. 6.] doimo xalqni uyg'onishga chorladi. U "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasida bugungi kunda ham ibrat bo'la oladigan fikrlarni ilgari suradi. "*Bizni kemiruvchi illatlar deganda, biror bir kasallik (sil, yoki o'pka sili) deb o'ylarsiz, yoki maxovlik. Yo'q, undan ham yomonroq va undan ham jonni azoblaydigan, xonavayron va g'arib etadigan bir dard, biz Turkistonliklarni shahri yoki qishlog'ini inqirozga, jahannamga yo'latadigan to'y, aza nomdagi ikki dushman derman*"[2. B. 338.] deydi. U manashu ikki illat (to'y va aza) sabab bor-u yo'g'imizni sarf va isrof etamiz. Ushbu to'ylarda tashkil etiladigan ko'pkari va uloq chopish odatini tanqid etib mana shunday o'yinlar bilan vaqt o'tkazib behudaga pul tikib kunlik ishidan voz kechib yurgandan nima foyda deb kuyunadi adib. *"Ma'lum bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom eltib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz"* [2. B. 342.] deydi. Adib nikoh va xatna to'ylarida qilinadigan isrofgarchiliklarni qattiq qoralaydi. Bu bizni kemiruvchi illatlardir to'y va azalarda qilinadigan bunday isrofgarchilikka qachon chek qo'yamiz deya xalqni insofga chaqiradi. Din uchun, masjid va maktab uchun pul, davlat, qudrat kerakdir.To'y va ta'ziyaga sarf qiladigan pulimizni biz turonliklar, ilm va din yo'liga sarf etsak, qisqa fursat ichida yevropaliklardek taraqqiy etarmiz, agar hozirgi ahvolimizda davom etsak, din va dunyoga tubanlikdan boshqa nasibamiz bo'lmaydi deya shunday dabdababozlik, isrofgarchilik, pulini behuda ishlarga soviradigan kishilarni tanqid ostiga oladi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o'qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab etishtirish masalasini qo'yardi. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. Behbudiy Turkistonning kelajagini o'ylar ekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo'llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi: «Boshqa millatlarning boylari faqir va etimlar uchun maktab va dorilfununlar

soldururlar, faqir va etimlarning o'qimog'i uchun voqf (stipendiyalar) tayin qilur. Butun Turkiston o'n boy elinda ming so'mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansiunli va nahorli mukammal maktab bino bo'lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur». Agar shunday bo'lsaki, o'n yillar orasida bizda yaxshi-yaxshi o'qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar etishib chiqardi, deb umid qiladi [3. B. 216]. U millatni uyg'otishga qaratilgan bir qator maqolalarida oila, oilaviy munosabatlar, xotin – qizlar ta'limi – tarbiyasi, salomatligiga e'tibor masalalarini olib chiqqan. Maqolalarida "Xotun olmoqni kerakligi", "Uylanmaslikni zarari", "Qiz bola tarbiyasi" kabi mavzularida o'z davrida va bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan mavzularni yoritadi. U oila va jamiyatda xotin – qizlarning o'rni haqida o'z fikr – mulohazalarini yoritar ekan, oilani islom dini axloqi qonun – qoidalari asosida qurish lozimligini e'tirof etadi. Adib "Qiz bolalarni tarbiyasi" deb nomlangan maqolasida qiz bolalar tarbiyasiga asosiy mas'ul kishi ona bo'lganligi uchun muhim tavsiyalarni berib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Jumladan, qiz bolalarni shariat qoidalariga muvofiq ehtiyotlab tarbiyalashi, salomatligiga e'tiborli bo'lishi kerakligi, 11-12 yoshida balog'at yoshida qiz bolaning tanasini quvvatsizlantiruvchi ish va taomlardan asrashi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, 16-17 yoshlarida kelinlik vaqti kelgan paytlarda ularning tarbiyasida salbiy holatlar kuzatilmasligi uchun, oshiqona kitoblar o'qilishiga vaqt qoldirilmasligi, har xil bazmlarda ishtirok etishga yo'l qo'ymaslik haqida ham muhim tavsiyalar beradi [4.B.132-133.].Dunyo xalqlarining taraqqiyoti maktab bilan bevosita bog'liqligini anglagan taraqqiyparvar ilmsizlik jamiyatni qanday ahvolga solayotganligi haqida yozadi. U bir zamonlar dunyo ilmining beshigi sanalgan Turkiston bugungi kunda o'zga bir mamlakat odatlari va qonunlariga itoat etishga majbur ekanligi dunyoviy ilmdan bexabarligimiz bizni bugungi kunda shunday ayanchli ahvolga solib qo'ymoqda, hattoki davlat tashkiloti va rasmiy mahkamalarda bizni himoya etadigan bir kishimiz yo'q deya nadomat bilan yozadi. Imorat solmoqchi bo'lsak o'zimizdan bir muhandis, og'rib qolsak doktorga boramiz ammo dardimizni aytmoqqa til yo'q, o'zimizdan doktor yo'q, "o'zga yurtning bolalari ilm olish bilan band bo'lgan bir vaqtda, bizning bolalarimiz xizmatkorlikda, ko'cha - kuyda gadoylik qilmoqdalar. Yigirma o'ttiz yillardan keyin ahvolimiz yana ham yomonroq bo'lur.[5. B. 203].Bugun maktab va madrasalarimizni isloh qilishimiz, millatimizni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlardan xabardor qilishimiz zarurligini ta'kidlab o'tadi.[6. B. 201]. Mahmudxo'ja Behbudiy faqat pedagogika yoki jurnalistik faoliyat bilan cheklanib qolmadi. U dastlab yangi usul"dagi maktab tashkil etib maktab uchun darsliklar yozgan bo'lsa, keyinchalik noshirlik faoliyati bilan shug'ullandi."Samarqand" gazetasi (1913) va "Oyna" (1914-1915) jurnali adib faoliyatining eng yorqin namunasi bo'ldi.

"Oyna" jurnalidan o'rin olagan maqolalarda vatanimizning yaqin o'tmishidagi ahvoli, istiqlol harakati tarixi, ta'lim-tarbiya masalalari, maktablarning ahvoli, til masalasi, maktablarda o'qitiladigan dunyoviy fanlar, muallimlar, teatr, musilmon ayollarining ilmi va boshqa ko'pgina mavzular yoritib borilgan. Milliy teatrimizning tashkil etilishida ham Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo'ldi. *"Bu zamonda teatrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ixtisob va tanqid*

qilib, yamonlikni qabixiyni haloyiqg'a ko'rsatib, vaz va nasihat etguvchi bir joydir… teatrga maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitgondin ziyodadur"[Mahmudxo'ja Behbudiy. Teyotr nadur // Oyina jurnali, 1914 yil, 29-son.] deya teatrga baho bergan edi adib.

Muallim Dadamirza Qorining "Oyina" jurnalida "Muallim va shogirtlar" maqolasida maktablarda bola tarbiyasi og'ir ahvolda ekanligi bolalarning diniy va dunyoviy ilmga muhtojliklari haqida fikr yuritiladi. U ayni davrda maktablarda bola tarbiyasi og'r ahvolda ekanligi Turkiston maktablarida esa boshqalardan ham og'irroq ekanligiga shubha yo'qdur, zeroki bolaning diniy va dunyoviy jihatlarini mulohaza qilub umrlari zoye bo'lmasun deb hozirlang'on tarbiya bizda yo'qligi ahli basiratg'a ma'lumdir [11.B.183-185] deb yozadi.

Shuningdek "Oyina" jurnalida ma'orif sohasini isloh qilishga oid ko'plab ma'qolalar e'lon qilingan. Maqolalarda asosan "yangi usul" maktabalari faoliyati bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Jumladan, o'lkada yangi tashkil qilinayotgan maktablar, ularda o'qitiladigan fanlar, maktabdagi mavjud muammolar, xalqning ushbu maktablarga munosabati hamda maktablarga homiylik qilayotgan shaxslar[12.B.287] haqida batafsil bayon etilgan.

U birinchi sahna asari "Padarkush"ni yozdi. Samarqandda "Behbudiya" kutubxonasini tashkil etdi. Bu shunchaki kutubxona emas, balki do'kon ham edi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar Istanbul, Misr, Bayrut, Qozon, Bog'chasaroy, Orenburg, Eron, Iroq, Hindiston, Afg'oniston Petergburg va albatta Turkistonda chop etilgan kitoblarni ko'rib sotib olishlari mumkin edi [7.B.13]. Kutubxonaning faoliyatida unga safdoshlari Xoji Muin, Vasliy Samarqandiy va Abdulqodir Shakuriylar ko'maklashishgan.

Dastlab 200, keyinchalik 225 jild kitobga ega kutubxona kun davomida 14 soat ishlab turgan. Mutoalaaxona ochilganiga 7 oy to'lganda uning a'zolari soni 125 nafarga yetgan va jamiyat 2000 ga yaqin kitobxon ehtiyojini qondirgan edi[9. B.30.]. Behbudiy rahbarlik va homiylik qilgan maktablar ta'limi haqida ushbu maktablarga kelib, bolalar bilan gaplashgan ulug' tatar ma'rifatparvari Ismoilbek G'aspiralining xotiroti e'tiborga loyiqdir:"Maktabning yuztacha tolibi va uchta muallimi bor. Dasturida turkcha, forscha va arabchaning boshlang'ich darslari, din ilmi, jug'rofiya va tarix mavjud. Ohangini kelishtirib munojot, she'r o'qish-maktabga xos bo'lgan usul. Kichkintoy shogirt o'quvchilarini ko'zdan kechirdik. Yaxshi tarbiya olganliklari, darslarni a'lofa bajarishlari o'zlarini tutishlarida, ko'zlarida aks etgan nur va jasoratda zuhur etadi[10.B. 29] deydi bundan ko'rinib turibdiki Behbudiy o'zi tashkil etgan va homiylik qilgan maktablarning sharoiti, moddiy jihatdan juda yaxshi ta'minlangaligi, maktabda o'qitilatigan fanlarning talab darajasida ekanligi Ismoil Gasprinskiyda juda yaxshi ta'surot qoldirgan.

Xulosa shuki Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini tadqiq etar ekanmiz undagi bilim, tafakkur, xalq ma'nifaati, o'lka yoshlarining ilm olishi,shuningdek vatan istiqboli, mustaqilligi uchun sarf etilganligini ko'ramiz. Tom ma'noda aytishimiz mumkinki adib o'sha mustamlaka davrida yoinki bugungi kunda ham millatimizning "vijdoni" bo'la oldi. Uning qoldirgan boy adabiy me'rosi bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maorif sohalarida ham dastur-amal bo'lib xizmat qilmoqda desak hech shubhasiz adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ma’naviyatimiz rahnamosi”.(Mahmudxo’ja Behbudiy tavalludining 145 yilligiga bag’ishlangan biblografik qo’llanma) Samarqand-2020. B.6.
2. ”Oyna” jurnali. 1915-yil 13-son. B.338-342
3. R.B.Sadiyeva. Mahmudxo’ja Behbudiy va jadid maktablari. “Mahmudxo’ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag’ishlangan” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plami.B.216.
4. Sh.S.Tilavova. Mahmudxo’ja Behbudiyning oila va xotin-qizlar masalalari haqidagi qarashlari. “Mahmudxo’ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag’ishlangan” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plami B.132-133.
5. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma’naviyat” 1999. B.152.
6. Behbudiy M.Ehtiyoji millat // Samarqand-1913-№7.
7. D.A.Alimova, D.A.Rashidova. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent-1999. B.13.
8. Mahmudxo’ja Behbudiy. Teyotr nadur // Oyina jurnali, 1914 yil, 29-son.
9. Zaynobiddin Abdirashidov. Nodira Egamqulova. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali.Toshkent-2019. B.30.
10. Halim Saidov.Turkiston dahosi.Toshkent, “Adabiyot” 2025.B.29.
11. Dadamirza Qori. Muallim va shogirtlar // Oyina jurnali, 1913 yil, 8-son.
12. Jizzaxda maktab// Oyina jurnali, 1914 yil, 11-yanvar, 12-son. B.287.
13. Maktab//Oyina jurnali, 1914 yil, 4-yanvar, 11-son. B.258.

MILLIY UYG ‘ONISH VA JADID G ‘OYALARI

Ma’rufjonova Muharramoy Sherzodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hech shubhasiz, bunday buyuk tarixni chuqur o‘rganish biz uchun ham burch, ham mas’uliyatdir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, har bir millat o‘z ildizlarini asrab-avaylab, uning qadriga yetsa, bunday xalq va davlatning kelajagi albatta porloq bo‘ladi. Tarix esa xalq ma’naviyatining poydevori hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining o‘zbek xalqi tarixi va milliy davlatchilik tarixshunosligini haqqoniy yoritishga alohida e’tibor qaratib kelayotgani ham aynan shu haqiqat bilan bog‘liq.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari bo‘ylab keng yoyilgan islohotchilik g‘oyalari chor Rossiyasi tasarrufidagi Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida jadidchilik

harakati haqida alohida to‘xtalib, ma’rifatparvar jadid bobolarimiz XX asrda Uchinchi Renessansni amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lganini afsus bilan qayd etgan edi. Ularning butun faoliyati milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlanib, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan xalos etish, xalqni g‘aflatdan uyg‘otish yo‘lida ulkan fidoyilik ko‘rsatganlari ta’kidlandi. Jadidlar ilmni najot yo‘li deb bilib, taraqqiyot va farovonlikka erishish uchun dunyoviy hamda diniy bilimlarni chuqur egallash zarurligini asosiy tamoyil sifatida ilgari surdilar.

Ma’lumki, “jadid” atamasi “yangi” yoki “yangilanish” ma’nosini anglatadi. Insoniyat tarixida jamiyat hayotiga kirib kelgan har qanday yangilik avvalo qarshiliklarga duch kelgani tabiiy hol hisoblanadi. Jamiyat hayotining o‘zgarmas, bir maromda davom etishi esa oxir-oqibat tanazzulga olib borishi mumkin. Shu bois ilg‘or fikrli ziyolilar jamiyatdagi inqirozning oldini olish yoki uni bartaraf etish maqsadida yangi g‘oyalarni ilgari surishga intilganlar. Biroq mavjud holatga ko‘nikib qolgan ayrim qatlam vakillari bunday yangilanishlarga keskin qarshilik ko‘rsatganlari ham tarixiy haqiqatdir.

Jadidlar turli mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlar va taraqqiyot tajribasini chuqur o‘rganib, ularni milliy sharoitga mos holda qayta talqin etishga harakat qildilar. Shu bilan birga, ular faoliyat yuritgan davr ijtimoiy taraqqiyot yo‘llari haqidagi turli qarashlar to‘qnashgan murakkab tarixiy bosqich ham edi. Mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyasi aynan ana shunday murakkab sharoitda asta-sekin shakllanib, mustahkam mafkuraviy asosga ega bo‘ldi.

Muayyan g‘oya yoki qarashni keng ommaga yetkazish, uni jamiyat ongiga singdirish va shu orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish ehtiyoji insoniyat taraqqiyotining barcha davrlariga xos hodisa hisoblanadi. Ko‘pincha jamiyatni boshqarish, barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy taraqqiyot sur’atlarini tezlashtirish hamda muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etish ana shu jarayon bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Zero, jamoatchilik fikri shakllanmas ekan, jamiyat rivoji to‘laqonli amalga oshmaydi. Targ‘ibot tizimining vujudga kelishi ham aynan shu zaruriyat bilan izohlanadi.

Jadidchilik harakatining tariximizdagi o‘rni beqiyosdir. U eng avvalo milliy mustaqillik mafkurasining shakllanishiga zamin yaratdi, uzoq vaqt g‘aflatda qolgan Sharq xalqlarini uyg‘onishga da’vat etdi. Jadidlar ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n, boy madaniy meros hamda mustamlaka davrida unutilayozgan qadriyatlarni qayta tiklash g‘oyalarini keng targ‘ib qildilar. Ularning eng muhim tarixiy xizmatlaridan biri shundaki, ular jamiyatda yuzaga kelgan dolzarb muammolarni keskin inqilobiy yo‘l bilan emas, balki bosqichma-bosqich islohotlar asosida hal etish zarurligini asoslab berdilar. Shu tariqa ular ijtimoiy tuzumni yangilashning samarali yo‘lini taklif qilib, mustamlakachilik tartibotidan xalos bo‘lish g‘oyasini ilgari surdilar.

Chor Rossiyasi olib borgan mustamlakachilik siyosati mavjud muammolarni hal etish imkoniyatlarini keskin cheklab qo‘ydi. Shu bois jamiyatning ilg‘or fikrli ziyolilari mamlakatni qoloqlikdan chiqarish, ijtimoiy muammolarga yechim topishning eng samarali yo‘lini ma’rifat orqali ko‘ra boshladilar. Ularning sa’y-harakatlari natijasida mintaqada ma’rifatparvarlik qisqa fursatda yirik g‘oyaviy va nazariy oqimga aylandi. Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlik harakatining dastlabki

bosqichida mavjud ijtimoiy tuzum tanqidi ustuvor ahamiyat kasb etdi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy qoloqlikdan qutulishning asosiy yo‘li sifatida ma’rifat ilgari surildi. Keyingi bosqichda esa bu g‘oyalarni keng xalq ommasi orasida targ‘ib qilish masalasi muhim vazifaga aylandi. Aynan shu jarayonda jadidchilik harakati hal qiluvchi o‘rin tutdi. Jadidchilik jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga, ilg‘or ilm-fan va madaniyatga tayangan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashni maqsad qilgan, mustamlakachilik zulmiga hamda ijtimoiy-madaniy qoloqlikka qarshi yo‘naltirilgan demokratik harakat sifatida namoyon bo‘ldi.

Jadidlar olib borgan targ‘ibot ishlari jamiyat tafakkuri va ruhiyati yangilanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu faoliyat natijasida ma’rifatparvarlik g‘oyalari ijtimoiy hayotda mustahkam o‘rin egallab, milliy mustaqillikning ma’naviy va nazariy poydevori shakllandi. Hozirgi davr targ‘iboti esa o‘zining ko‘p qirrali va plyuralistik xususiyati bilan ajralib turadi.

XX asr boshlarida milliy ta’lim tizimini rivojlantirish, xalq ozodligi va kelajak avlod farovonligi yo‘lida beqiyos xizmat ko‘rsatgan ajdodlarimiz - Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy hamda Munavvar qori Abdurashidxonov davlat tomonidan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanganlari bejiz emas. Ularga ko‘rsatilgan yuksak e’tibor jadidlarning millat taraqqiyoti va mustaqilligi yo‘lidagi xizmatlarini keng jamoatchilikka yetkazish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Jadidlar merosini o‘rganish va targ‘ib etish bugungi hamda kelajak avlod uchun muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Jadidlar ta’kidlaganidek, taraqqiyot har bir insonning o‘zidan boshlanadi. Ularning harakati rus mustamlakachiligiga qarshi yo‘naltirilgan milliy-demokratik oqim bo‘lib, Turkiston xalqlarini ma’rifatli qilish, jamiyatda ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish hamda milliy mustaqillik g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edi. Jadidchilik g‘oyalari Turkistonda XIX asrning 90-yillaridan boshlab tarqalib, XX asrning 30-yillari oxirigacha ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o‘rin egalladi. Tadqiqotchilar odatda bu harakat rivojini uch bosqichga ajratadilar:

XIX asr oxiridan 1915 yilgacha - ma’rifatparvarlik bosqichi;

1915 yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik davri;

1918 yil fevralidan 1920-yillar oxirigacha - sovet hokimiyati sharoitidagi faoliyat davri.

Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi tasarrufidagi musulmon xalqlar orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida yuzaga keldi. Uning asoschisi sifatida diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) e’tirof etiladi. U 1884 yilda yangi usuldagi maktab ochib, qisqa muddat ichida bolalarga savod berish mumkinligini amalda ko‘rsatdi. Gaspralining “usuli savtiya” deb nom olgan o‘qitish tizimi tez orada keng shuhrat qozondi. “Jadid” atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Uning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan islohotparvar ziyolilar “jadidlar”, ularning faoliyati esa “jadidchilik” deb atala boshlandi.

Ismoilbek Gasprali yangi usul maktablari uchun darsliklar yaratdi hamda 1883 yildan boshlab “Tarjimon” gazetasini nashr etib, jadidchilik g‘oyalarini turkiy

xalqlar orasida faol targ‘ib qildi. Mazkur gazeta Turkiston hududlariga ham tez tarqaldi. U 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga safar qilib, Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko‘ndirdi. Bu maktab “Muzaffariya” nomi bilan faoliyat boshladi. Keyinchalik To‘qmoq, Andijon, Qo‘qon, Toshkent va Samarqandda ham yangi usul maktablari tashkil etildi. Bu jarayonda Munavvar qori Abdurashidxonov va boshqa ma’rifatparvarlar faol ishtirok etdilar.

Jadidlar maktablar uchun zamonaviy darsliklar yaratishga ham katta e’tibor qaratdilar. Xususan, Saidrasul Aziziy, Abdulla Avloniy hamda boshqa ziyolilarning darsliklari o‘quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Jadidlarning ma’rifiy dasturi asosan uch yo‘nalishni qamrab olgan edi: yangi usul maktablarini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni chet ellarda o‘qitish va ma’rifiy jamiyatlar hamda matbuot orqali jamiyat ongini uyg‘otish.

Bu ezgu maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ko‘plab fidoyi ziyolilar faoliyat olib bordilar. Yangi usul maktablarida ta’lim ikki bosqichda tashkil etilib, o‘quvchilar qisqa muddat ichida diniy va dunyoviy bilimlarni egallash imkoniga ega bo‘ldilar. Ikkinchi bosqichni tamomlagan yoshlar bir necha tilni bilgan, zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar sifatida shakllanardi.

Jadidlar xalqaro aloqalarni ham keng yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, Rossiya, Turkiya va Misr kabi mamlakatlardagi islohotchilik harakatlari bilan fikr almashib bordilar. 1905-1906-yillardagi Rossiya inqilobiy voqealari Turkistonda ham ma’rifatparvarlik harakatining faollashishiga turtki berdi. Natijada matbuot rivojlandi, ko‘plab gazeta va jurnallar nashr etila boshladi.

Jadidchilik asta-sekin umummilliy harakatga aylanib, jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirdi. U maorif va madaniyatni ijtimoiy-siyosiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirib, milliy mustaqillik g‘oyasini ilgari surdi. Jadidlarning sa’y-harakatlari natijasida yuzaga kelgan Turkiston muxtoriyati ana shu intilishlarning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Jadidlar taraqqiyot va farovonlikka erishishning asosiy yo‘li sifatida ilm-ma’rifatni ko‘rdilar. Ularning fikricha, jamiyat ravnaqi uchun dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallash zarur edi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati zamonaviy o‘zbek jamiyati va davlatchiligining shakllanishida muhim o‘rin tutgan tarixiy hodisa bo‘lib, uning ma’naviy merosi bugungi kunda ham milliy ongni mustahkamlash va vatanparvar avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zaynobiddin Abdurashidov. Kelajakni bashorat qilgan jadidlar “Ishonch” gazetasi. 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son.

2. Qosimov B."Milliy uyg‘onish", T.,"Sharq".

3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – jasorat, marifat, fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002.

4. Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjumon.uz, 2019.

5. Raxmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Toshkent, 1992

6. Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.

“TARJIMON” GAZETASIDA TURKISTONDAGI IJTIMOIY MASALALARNING TAHLILI

Nargiza SODIQOVA

ZARMED universiteti,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Har bir davlat mamlakatni boshqarishda ijtimoiy siyosat yuritib, shu yo‘nalishdagi masalalarni tartibga solib boradi. Bosqinchi davlatlar esa mustamlaka hududlaridagi ijtimoiy masalalarga ikkinchi darajali ish sifatida qarab, asosiy maqsadi arzon va tekin ishchi kuchidan foydalanish, yer osti va usti boyliklarini talab, tashib ketish bo‘lib hisoblanadi. Turkiston XIX asrning oxirida Rossiya imperiyasining mustamlakasi ostida yashagan va ijtimoiy hayoti ham bosqinchi hukumatning manfaatlariga bo‘ysundirilgan.

Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonning qishloq va shaharlarida ijtimoiy siyosat yuritishda ikkiyuzlamachilik yo‘lini tutgan. Rus oilalariga juda katta imtiyozlar berilgani holda, yerli aholini qiyin sharoitda yashashga mahkum qilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonni bosib olishga qaratilgan, 1852 yildan 1882 yilgacha – o‘ttiz yil davom etgan harbiy yurishlari oqibatida mintaqaning sanitariya holati ham yomonlashib borgan. Toshkent (1865), Xo‘jand va Jizzax (1866), Samarqand (1868), Xiva (1873), Qo‘qon (1876) va Marv (1882) kabi shahar va uning atroflarida bo‘lib o‘tgan janglarda aholini suvsiz qoldirish, atrof-muhitning ifloslanishi, minglab odamlar va ot-ulovlarning chirib yotishi turli yuqumli kasaliklarning tarqalishiga o‘ta qulay sharoit yaratib bergan.

Masalan, Jizzaxga uyushtirilgan yurishda rus askarlari orasida tif va boshqa kasalliklar tarqalgan. Ayrim kunlari bemorlarning soni 25 kishiga yetgani ma’lum [1;198]. 1852 yildan boshlab Turkiston hududini bosib olish uchun jang olib borgan rus askarlarining tartibsiz hayot tarzi va tabiatga yetkazilgan zarar yuqumli kasalliklarning tez-tez tarqalishiga sabab bo‘lgan. Ammo kasallikning tarqalishiga Afg‘oniston va Hindistondan kelayotgan savdogarlar hamda sayyohlarni aybdor qilib ko‘rsatish oddiy holga aylangan. Jumladan, Turkistonda 1891 yili boshlangan vaboga ham Afg‘oniston sababchi qilib ko‘rsatilgan edi[2].

1892 yili kasallikning tezlik bilan tarqalishi natijasida hukumat Toshkentda xolera vabosiga qarshi tartiblar joriy qiladi. Imperiya ma’murlari 3 iyunda Chinozda maxsus shifoxona tashkil etadi. 13 iyunda Toshkent shahrining rus qismida, 19 iyunda esa eski shaharda kasallanganlar uchun vaqtinchalik vabo shifoxonasi ochiladi. O‘lim soni oshib borgan sari qo‘shimcha tartibda shahar ichidagi 12 ta qabriston ham yopiladi. Bunga javoban Shayhontohur dahasi aholisi shahar boshlig‘i S.Putinsev nomiga arznoma yuborib, o‘liklarni yuvmaslik, janoza

marosimini o‘tkazmasdan ko‘mish, mayit ustiga ohak tashlab ko‘mish kabi tartiblarga qarshi noroziliklar bilan birga, ichimlik suvlarini ifloslantirishni to‘xtatish talabi qo‘yiladi. Shundan so‘ng, Toshkentning rus qismida faoliyat yuritgan Obuxo‘v va Aveniro‘vskiy ko‘chalaridagi hammomlar vabo tarqalishi avj olish arafasida yopiladi. O‘rnatilgan tartiblarni aholi tushunmasdan va anglamasdan tartibsizliklar keltirib chiqaradi. 23 iyunda Toshkentning Besh Yog‘och va Shayxontohur mahallalarida 400 ga yaqin odam yig‘ilib, shahar hokimi Putinsev oldiga borganlar. Shahar boshlig‘i yalpi vaboning oldini olish uchun yuqoridagi tadbirlar davom etishi, o‘liklarga yashirincha jamoaviy janoza o‘qish va qabristonlarga ko‘mishni amalga oshirganlar jazolanishini ma’lum qiladi. 24 iyunda eski shaharliklardan 500 kishi yangi shahar tomon o‘tib, u yerlardan ruslarning ketishlari va ariqlarni zaharlashni to‘xtatishni talab etadi. Tez orada yetib kelgan rus askarlari yig‘in qatnashchilarini kaltaklab, Anhor tomon quvib boradilar. Oqibatda, 100 dan ortiq kishi anhor suvida cho‘kib o‘ladi[3].

Toshkentda vaziyat og‘irlashib borgan, kasallikka chalinganlar soni ortib, o‘lim soni oshib borgan. “Tarjimon”da 7 iyundan 2 avgustga qadar Toshkentda xoleradan 396 rus kasal bo‘lib, 209 vafot etgani, musulmondan 1344 kasal bo‘lib, 1325 o‘lgani haqida ma’lumot beriladi. Ismoilbek Gasparali xabarni “Ajoyib, kasal bo‘lgan ruslarning yarmisi shifo topgan, musulmonlarning deyarli barchasi vafot etgan, barchamiz o‘z dardimizga vaqtida chora topishimiz kerak”, deb xulosalagan[4]. Gazetaning keyingi sonlarida Samarqand viloyatidagi qishloqning 368 aholisidan 219 tasi vabodan o‘lgani haqida xabar beriladi. Shuningdek, Samarqand viloyatida vabo kasalini tugatish uchun kelgan tabib (ismi, sharifi ko‘rsatilmagan) Samarqand (Sherdor madrasasida) va Buxoroda odamlarga ushbu kasallik mikroblarini mikroskop orqali ko‘rsatgan, uning kelib chiqishi, davolash yo‘li va asoratlari haqida ma’lumot bergan. Buxorodagi uchrashuvida madrasalardan 300 talaba ishtirok etgan. “Tarjimon” tahririyati bu kabi tadbirlarni o‘tkazishni qo‘llab, doimiy o‘tkazish kerakligi bo‘yicha tavsiya bergan[5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqolani tayyorlashda Ismoil Gasprinskiy muharrirligidagi “Tarjimon” gazetasida 1883-1914 yillarda chop etilgan maqolalardan, shuningdek, “Туркестанские ведомости”, “Туркистон вилоятининг газети” gazetalarida nashr etilgan Turkistondagi siyosiy voqealar bayon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzu tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. “Tarjimon” gazetasining 1883 – 1890 yillardagi sonlarida imperiyaning Turkistonda shaharlarning yangi qismini qurishi va ta’miri, aholiga yaratgan sharoitini ko‘rsatib, eski shahar qismida yashovchi aholidan soliqlar undirsada, ularning nochor ahvolda qoldirayotganini tanqid qilgan. Gazetaning 1890 yilgi sonlarida shaharlarning eski qismida qurilayotgan kasalxonalar, maktablar, kutubxonalar va boshqa inshootlar haqida ma’lumot berilganini ko‘rish mumkin. Xabarlardan Shayxhovanditohur mahallasida musulmon ayollari va bolalar uchun kasalxona ochilgani oydinlashadi, ammo bu shifoxonadan yerli aholi foydalanganmi, agar foydalangan bo‘lsa, qay darajada bo‘lgani haqida ma’lumot mavjud emas.

Gazeta sahifalarida vabo isyoni doirasida Turkistondagi qabristonlarga oid ham maqolalar va xabarlar berib borilgan. 1892 yil Toshkent boylaridan Abdulhamid Hoji shahar tashqarisida qabriston tashkili uchun 1000 rubl, qozi Rahimxo‘ja targ‘ibotiga ko‘ra yana ikki boy 600 rubl iona qilgan[4]. Yana bir sonida kasallik avj olmasligi uchun Toshkent shahar ichidagi qabristonlar yopilgani, tashqarida yangilarini ochilayotgani hamda qabristonni tashkil qilish uchun iona bergan kishilar ro‘yxati berilgan.

Kasallikni bartaraf etish uchun tozalik va ozodagarchilik ishlariga e’tibor qaratish, amaliy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha ham hukumat nashrida maqolalar e’lon qilib borilgan. Jumladan, Toshkent shahrida ichimlik suvi va oqava quvurlarini o‘tqazish masalasi ham aynan 1892 yildan boshlab muhokama qilina boshlagan. Chunki qisqa vaqt ichida Turkiston general-gubernatorligi hududida turli kasaliklar, xususan, 1890 yili ich ketish, 1892 yili vabo, 1898 yili qizilcha va 1901 yili chechak yalpi tarqalgan edi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, 1870-1880 yillarda Toshkent shahrining yangi qismida rus aholisi uchun ichimlik suvi quvurlarini o‘tkazish ishlari uchun 50 ming rubl mablag‘ ajratilib, ishlar yakuniga yetkazilmagan. Shundan so‘ng, aholi toza ichimlik suvini sotib olishga majbur bo‘lgan. Yangi shahar qismida joylashgan Galavachev bulog‘idan olingan 100 chelak suvning narxi 1 rubl 20 kopeyk bo‘lgan[7].

“Tarjimon”dagi xabarga ko‘ra, 1894 yili Qo‘qonga yaqin qishloqdan temir truba bilan buloq suvi keltirilishi belgilangan. Ismoilbek Gasparali bu tadbirni juda yaxshi, deb baholaydi, buloq suvi hovuz suvlaridan tozaligi, boshqa shaharlarda ham shunday qilish kerakligini ta’kidlaydi[8].

Ma’lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston aholisining haj amalini bajarishi oldingi davrlarga nisbatan ko‘paygan. Buni “Tarjimon” sahifalarida chop etilgan xabar va ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Ijtimoiy hayotning ajralmas qismi hisoblangan din bilan bog‘liq e’tiqodlar mustamlaka sharoitida turli ta’qib va cheklovlarga uchrasada, o‘sha davr matbuotidan, ayniqsa, “Tarjimon”dan islomga e’tiqod va amallarni bajarishda insonlarda qat’iyat kuchli bo‘lganligi oydinlashadi. Gazetadagi xabarga ko‘ra, 1890 yili ziyoratchilar soni oshgan. Buning asosiy sababi Samarqand temir yo‘li ochilganligi deb ko‘rsatilgan. Turkistonlik hojilar Baku, Batumi orqali ketib, 1889 yildan shu vaqtgacha “Tarjimon”ning keyingi yillarda chop etgan xabarlarga ko‘ra 1897 yilga kelib, ziyoratchilar soni yana oshgan. Jumladan, Farg‘ona viloyatidan 2 ming kishi hajga otlangan[8]. Gazetada Hajga borish uchun Turkistondan poyezd bilan Batumigacha, u yerdan paroxod bilan Istanbul va uning davomida yagona bilet narxlari belgilangani haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, xizmat turiga qarab 152 rubldan 319 rublgacha bo‘lgani yozilgan. Ammo bu narxlar turkistonliklar uchun qimmatlik qilgan va ular Jidda-Bombay paroxod bileti arzon bo‘lgani sababli vatanlariga Hindiston, Afg‘oniston orqali qaytishga qaror qilganlar. Turkiston hukumati hojilarni Hindiston vaboning markazi ekani haqida ogohlantirib, odamlar vaboni olib kelmasliklari uchun Ichki ishlar vazirligini ziyoratchilarning qaytishini nazoratga olishini tayinlagan. Hojilarga faqat G‘avdon orqali kelishlari kerakligi uqtirilgan[9].

“Tarjimon”da yozilishicha, ziyoratchilar uchun xorij pasporti joriy qilingan bo‘lib, 1901 yili Sirdaryo viloyatidan 132, Farg‘ona viloyatidan 2768, Samarqanddan 90, Zakaspiydan 17, jami 3511 kishiga hajga borish uchun pasport berilgan.

Gazetada turkistonliklarning diniy bayramlari va ularning nishonlanishiga oid ham ma’lumotlar berib borilgan. Jumladan, 1894 yili Toshkentda Ramazon hayiti munosabati bilan bozorlarda xalq tomoshalarining tashkil qilingani tasvirlab berilgan. Toshkentda bu yilgi Ramazon hayitida Samarqanddan o‘yinchilar kelgan, teatrga o‘xshash milliy o‘yinlar qo‘yib berganlar. Bu tomoshalarda kishi suhbat qilib, Turkiston turmushidagi ijtimoiy-maishiy muammolarni hajv qilganlar. Ismoilbek Gasparali bu chiqishlarni yoritar ekan, millat oydinlarini teatrga asos solishga chaqiradi. Teatrning xalq uchun juda ta’sirli bo‘lishi, fasohat maktabi va ibratxona ekani, sahna asarlari yaratish uchun adib va adabiyot kerakligini ta’kidlaydi[10].

Gazetaning keyingi yillardagi sonlarida turkistonliklarning bayram va haftalik dam olish kunlari, ish soatlari bo‘yicha ham ma’lumot berilgan. Jumladan, Toshkent va Olmaota shaharlari mushovara (maslahat) komissiyasi ish va dam olish kunlariga oid qaror qabul qilgani, musulmon do‘konlari qishda 7 dan kech 8 gacha, yozda 6 dan kech 7 gacha ishlashi, korxonalarda qishda 2, yozda 3 soat yemak uchun vaqt berilishi, rasmiy dam olish kunlari belgilangani qayd qilingan. Maqolaga ko‘ra, turkistonliklar juma kunlari soat 12 dan keyin, ramazon va qurbon bayramlarida 3 kundan, rus va musulmonlar o‘z bayram kunlari dam olgan. Ramazon oyida musulmonlar ishdan iftorlik uchun 1 soat oldin ketgan. Shuningdek, musulmonlar yana bir necha bayramlarni ko‘rsatib dam olish kuni belgilash haqida Turkiston general gubernatoriga murojaat qilishgani ochiqlangan. Gazetadagi xabarlarda yozilishicha, ruslarning bayramlarida musulmonlarning dam olishi va do‘konlarini yopish masalasi Toshkent dumasida ham muzokara qilingan va eski Toshkent qismida rus bayram kunlari dam olish kuni bo‘lmaydi, degan qarorga kelingan[11].

Turkistonda bu davrda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun ham maxsus shifoxonalar va uylar tashkil qilingani gazeta sahifalarida o‘rin olgan. 1899 yil 22 noyabrda Eski Marg‘ilonda Yormozor qishlog‘idan Yusufali Saidxo‘jayev tashabbusi bilan musulmon muhtoj va majruhlari uchun 52 o‘ringa ega dorilojiziyn ochilgan. Bu ish Turkiston jamiyati xayriyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. 1904 yili Toshkentda ham dorilojiziyn ta’sis qilingan. Binosi Shukurxon madrasasida bo‘lishi belgilangan, ta’mirlangan. Bu tashkilotning faoliyati puli vaqf va aholi tarafidan yig‘ilgan 10916 rubldan iborat bo‘lgan. Dorilojiziynni yerli musulmonlar tarafidan tashkil qilinadigan komissiya boshqarishi qayd qilingan[12].

Turkistonliklarning murojaatiga ko‘ra, 1902 yildan temir yo‘ldagi har poyezdda muslima ayollar uchun alohida bir vagon ajratilgani haqida ham gazeta sahifalarda xabarlar bosilganini aytib o‘tish joiz.

Turkiston jamiyatidagi eng katta ijtimoiy muammo – isrofli to‘ylar va marosimlar bo‘lib hisoblanadi. Bu haqda Turkiston jadidlari milliy matbuotga asos solgach, doimiy ravishda tanqidiy maqolalar berib borganlar. Ungacha, bu masala “Tarjimon”da ochiqlanganini ko‘rish mumkin. Maqolada turkistonliklar, to‘y uchun pulini ayamasligi rishtonlik bir boyning sunnat to‘yi misolida ko‘rsatib berilgan.

Rishtonlik boy farzandiga qilgan sunnat to‘yiga 20 ming odam kelgani, Toshkent, Samarqand, Buxorodan ham mehmonlar taklif qilingani, bu isrofgarchilikning eng yuqori darajadagi ko‘rinishi ekanligi aytilgan. Yana bir sonida Toshkentda Saidkarim Saidazimboyevning o‘g‘illariga sunnat to‘y qilgani, 3 kun davom etgani, har kuni 2-3 ming odamga, 3 kunda taxminan 10 ming odamga osh berilgani, boshqa shaharlardan ham mehmonlar kelgani, Turkiston general gubernatori xotini bilan tashrif buyurgani qayd qilingan. Ismoilbek Gasparali ushbu to‘ylar haqida yozar ekan, boylarni pullarini maktablar qurishga, madrasalar ta’mirlashga chaqiradi.

Gazetaning 1912 yilgi sonida Marg‘ilon shahar ulamosi xalq orasidagi turli bid’atlarga qarshi tadbirlar amalga oshirishga harakat boshlagani olqishlangan. Ulamolar to‘y va dafn marosimlarini kamchiqim qilib o‘tkazish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka chaqirganlar. Hayit kunlari va boshqa bayramlarda ayollarning qabristonga borishlari joiz emasligini ta’kidlaganlar[13].

“Tarjimon”da “Sadoyi Turkiston” gazetasidan ko‘chirib bosilgan xabarga ko‘ra, Toshkentning tarqqiyparvar boylaridan Hoji Muhammad Iso o‘g‘li farzandining sunnat to‘yida sarf etiladigan pullarni jamiyati xayriya va maktablar foydasiga bergani ta’kidlangan. Tahririyat turkistonliklarni ham shunday bo‘lishga da’vat qilgan[14].

Turkistondagi isrofgarchilikka qarshi targ‘ibotlar hammaga birdek ta’sir qilmagani, isroflar davom etayotgani va uning salbiy oqibatlari haqida ham xabarlar taqdim qilingan. Andijonda bir beva xotin janozasida 710 rubl sarf etilgani, pul qarzga olingani sababli uy va yeri sotilgani, o‘g‘li bola-chaqasi bilan ko‘chada qolgani qayd qilingan. Tahririyat bu kabi holatlar Turkistonda odatiy holga aylanib qolayotgandan xavotirini yashirmagan.

XX asr boshlarida yangi maktablarning moddiy ta’minoti, iste’dodli yoshlarni xorijga yuborish uchun shirkatlar, xayriya jamiyatlari, matbaa-nashriyotlar tashkil qilish zarurati tug‘ilgan bo‘lib, Turkiston jadidlari xayriya jamiyatlariga asos solganlar. Jumladan, Munavvarqori Abdurashidxonov toshkentlik boylar Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li, Komilbek Norbekov va Karimbek Norbekov kabilar homiyligida 1909 yil 15 iyulda maqsadi “o‘zbek halqining bilim bilan oqartirish, yetim, yetima yoki ota-onasi yo‘qsil bo‘lg‘an bolalarni o‘qittirishdan iborat bo‘lgan” “Jamiyati imdodiya”ni (“Yordam”) tuzadi[15]. Uning 41 banddan iborat nizomi ham tasdiqlanadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy 1913 yili “Jamiyati imdodiya” negizida toshkentlik jadidlar va boylar bilan birgalikda “Turon” jamiyatiga asos soladilar, 75 moddadan iborat nizomini qabul qiladilar. 1913 yil oxirlariga kelib a’zolari soni 44 kishiga yetgan jamiyatning “Turon” teatr guruhi, “Turon” kutubxonasi va qiroatxonasi, “Turon kutubxonasi” nashriyoti va “Turon” gazetasi bor edi.

Gazetadan 1910 yil 17 yanvarda Toshkent jamiyati imdodiyasining yig‘ilishi bo‘lganini bilib olish mumkin. Bu haqda Munavvarqori Abdurashidxonov xabar bergan bo‘lib, millatning jamoat ishlariga bu kabi yig‘ilishlar va jamiyatlari bo‘lmagani sababli unchalik rag‘bat ko‘rsatilmagani, boylar pul berishdan, xayr qilishdan qochayotganini tanqid qilgan.

Gazetada Imdodiya jamiyati yetimxona ochishga qaror qilgani, binosi uchun 20 ming rubl sarf etilishi haqida ham ma’lumot berilgan.

“Tarjimon”da Jamiyati imdodiyadan tashqari tuzilgan jamiyatlar faoliyati haqida ham xabarlar berilgan. Jumladan, 1917 yili Toshkentda imomlar jamiyati, Toshkent muallimlari jamiyati, Matlubot jamiyati tuzilgani, savdogarlarning “Maqsud” nomida jamiyat ochganlari qayd qilingan. Bu jamiyatlar orasida Matlubot jamiyatiga 6 ming kishi a’zo bo‘lib, a’zolarning ba’zilari zakot pullarini jamiyatga bergani aytilgan[16].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Tarjimon” gazetasida Turkiston aholisining ijtimoiy hayoti haqida ko‘plab ma’lumotlar berib borilgan. Mustamlakachi hukumatning o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, turkistonliklarga nisbatan yuritgan ijtimoiy siyosatining oqibatlari, sog‘liqni saqlash, yuqumli kasalliklarning tarqalishi va oqibatlari, tozalik va ozodachilik, xayriya jamayatlarining ochilishi va ularning aholining ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni ko‘rsatib berilgan. Gazetadagi ayrim xabarlar va ma’lumotlarning boshqa manbalarda uchramasligini ham qayd etish joiz. Ushbu e’lon qilingan materiallar Turkiston tarixining ayrim jihatlarini yoritishda muhim bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шиманский. Чимганская санитарная станция. // Туркестанский сборник. Том. 456. Ташкент. 1908. С. 198.
2. Ismoil Gasprinskiy. Xolera vabosi // “Tarjimon” gazetasi. 1892-yil 24-iyun.
3. TV. Voqeai Toshkand // “Tarjimon” gazetasi. 1892-yil 23-iyul.
4. Ismoil Gasprinskiy. Axbori doxiliya // “Tarjimon” gazetasi. 1892-yil 31-avgust.
5. TV; TVG. Movarounnahr // “Tarjimon” gazetasi. 1899-yil 15-aprel.
6. Успехи русской медицины среди туземцев / Туркестанский курер. 1909. № 172, 173.
7. Водоснабжение в г. Ташкенте. // Газета «Туркестанские ведомости». 1910. №256.
8. Ismoil Gasprinskiy. Xo‘qand // “Tarjimon” gazetasi. 1894-yil 30-yanvar.
9. Turkiston hojilari diqqatiga // “Tarjimon” gazetasi. 1905-yil 23-sentyabr.
10. Ismoil Gasprinskiy. Bizim hol va maishat // “Tarjimon” gazetasi. 1894-yil 10-aprel.
11. Xodim istirohati va rus bayramlari // “Tarjimon” gazetasi. 1905-yil 14-iyun.
12. Dorulojiziyn // “Tarjimon” gazetasi. 1904-yil 11-iyun.
13. Yulduz. Turkiston // “Tarjimon” gazetasi. 1912-yil 14-sentyabr.
14. Sadoi Turkiston. Foydali qaror // “Tarjimon” gazetasi. 1914-yil 8-may.
15. Отчет мусулманского о-ва «Помощ» в Ташкенте // Туркистон вилоятининг газети. 1909 йил 19 ноябр.
16. Toshkanda jamiyatlar // “Tarjimon” gazetasi. 1917-yil 2-iyul.

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY YOSHLAR MA'NAVIYATI: TARIXIY TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUV

O'rinov O'tkirbek Nodir o'g'li

BuxDPI 1-bosqich magistranti

XXI asr globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimlarining keskin kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda yoshlar ma'naviyati, milliy identiteti va axloqiy barqarorligini ta'minlash har qanday jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy kommunikatsiya vositalari va raqamli platformalar yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatib, qadriyatlar tizimining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tarixida ma'naviy yangilanish va milliy uyg'onish jarayoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati bilan uzviy bog'liqdir. Jadidlar harakati Turkiston ijtimoiy hayotida modernizatsiya, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari surgan ijtimoiy-ma'rifiy oqim sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar "yangi usul" maktablarini tashkil etish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr va adabiyot orqali ijtimoiy ongni uyg'otish borasida tizimli faoliyat olib bordilar.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, jadid maktablari an'anaviy maktab tizimidan farqli ravishda fonetik o'qitish usuli, dunyoviy fanlar, geografiya, tarix, tabiiyot asoslarini joriy etgan. Bu esa o'z davri uchun innovatsion pedagogik model bo'lib, ta'lim samaradorligini sezilarli oshirgan. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani millat hayot-mamot masalasi sifatida talqin etib, ma'naviy kamolotni jamiyat taraqqiyotining asosi deb baholagan. Fitrat esa milliy uyg'onishni ilm va tafakkur erkinligi bilan bog'lagan holda, modern tafakkurga asoslangan jamiyat modelini ilgari surgan.

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini shakllantirish jarayonida media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish kabi innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutmoqda. Bu jihatlar jadidlarning ma'rifiy konsepsiyasi bilan metodologik jihatdan uyg'unlik kasb etadi. Chunki jadidlar ham jamiyat taraqqiyotini ilm, axloq va ijtimoiy faollik bilan bog'laganlar.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyaviy tahdidlar ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda, tarixiy tajribaga tayangan holda innovatsion ma'naviy model ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Jadidlar merosini zamonaviy pedagogik va ijtimoiy innovatsiyalar bilan integratsiya qilish yoshlar ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirish hamda barqaror ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati yoshlar tarbiyasini millat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida talqin qildi. Jadidlar

nazarida jamiyatning yangilanishi avvalo yangi tafakkurli, ilmli va axloqan barkamol avlodni tarbiyalash bilan bog‘liq edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim tizimini isloh qilish orqali milliy uyg‘onish jarayonini jadallashtirish mumkinligini asoslab berdi. U “yangi usul” maktablarini tashkil etish orqali savod o‘rgatishda fonetik metodni joriy qildi, darsliklar yaratdi va dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritdi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu usul o‘quvchilarning qisqa muddatda savod chiqarishiga, mustaqil fikrlash ko‘nikmasining shakllanishiga xizmat qilgan.

Abdulla Avloniy esa yoshlar tarbiyasini millat hayoti bilan bevosita bog‘lab, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani “hayot-mamot masalasi” sifatida baholaydi. U axloqiy kamolot, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ilmga intilish kabi fazilatlarni yosh avlodning asosiy sifatlari deb biladi. Avloniyning qarashlari zamonaviy ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) konsepsiyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi, chunki u shaxsiy mas’uliyat va ijtimoiy faoliyatni tarbiyaning markaziga qo‘ygan.

Abdurauf Fitrat esa yoshlarning milliy ongini uyg‘otish va ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallashga undash orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasini ilgari surdi. Uning asarlarida yoshlar tafakkur erkinligi, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy faollik asosiy mezon sifatida ko‘riladi.

Demak, jadidlar yoshlar tarbiyasini diniy-ma’rifiy chegaradan chiqarib, uni ijtimoiy-modernizatsion jarayon darajasiga ko‘tardilar. Bu esa ularning pedagogik qarashlarini o‘z davri uchun innovatsion hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ongida milliy identitetni saqlash va mustahkamlash dolzarb masalaga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va global kommunikatsiya vositalari yoshlar qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada identitet inqirozi, madaniy assimilyatsiya va g‘oyaviy ta’sirlar kuchaymoqda.

Milliy identitet – bu shaxsning o‘z xalqiga mansubligini anglash, tarixiy xotira, til, madaniyat va qadriyatlarni qabul qilish jarayonidir. Jadidlar aynan shu jarayonni uyg‘otishga harakat qilganlar. Ular milliy matbuot, teatr va ta’lim orqali yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishga intildilar.

Masalan, Behbudiyning dramaturgiyasi va Fitratning publitsistikasi yoshlarni milliy uyg‘onish g‘oyalariga chorlagan. Bu jarayon bugungi kunda media savodxonlik va tanqidiy tafakkur bilan bog‘liq holda qayta talqin qilinmoqda. Chunki XXI asr yoshlarining milliy identiteti nafaqat an’anaviy tarbiya, balki raqamli muhit orqali ham shakllanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy identitetning barqarorligi yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi. Ma’naviy immunitet esa g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan barqarorlik, mustaqil fikrlash va qadriyatlarga sodiqlikni anglatadi. Jadidlarning ma’rifiy modeli aynan shunday ongli va faol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan edi.

Zamonaviy sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Jadidlar tajribasi asosida ishlab chiqiladigan innovatsion model quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

a) jadidlarning matbuot va darslik yaratish tajribasi bugungi kunda elektron darsliklar, podkastlar, onlayn kurslar va interaktiv ilovalar orqali davom ettirilishi mumkin. Bu yoshlar uchun milliy merosni zamonaviy formatda taqdim etish imkonini beradi.

b) jadidlar ta’limni hayot bilan bog‘lashga intilganlar. Zamonaviy ta’limda esa loyiha asosida o‘qitish yoshlarning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Masalan, “Jadidlar merosi va bugungi taraqqiyot” mavzusida ijtimoiy loyiha ishlab chiqish yoshlar ongida tarixiy vorislik hissini kuchaytiradi.

c) jadid matbuoti tajribasi asosida yoshlarni axborotni tahlil qilish, manipulyatsiyani aniqlash va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatish mumkin. Bu jarayon ma’naviy immunitetni shakllantirishning muhim omilidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy modernizatsiyasiga qaratilgan tizimli ma’rifiy loyiha sifatida shakllangan. Jadidlar ta’limni isloh qilish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr va adabiyot orqali ijtimoiy ongni uyg‘otish orqali yoshlar tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylantirdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan joriy etilgan “yangi usul” maktablari savod chiqarishning fonetik metodiga asoslanib, ta’lim samaradorligini oshirdi va dunyoviy fanlarni o‘quv jarayoniga kiritdi. Bu esa o‘z davri uchun innovatsion pedagogik yondashuv bo‘lib, kompetensiyaviy ta’limning tarixiy ildizlarini tashkil etdi. Abdulla Avloniyning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari shaxsiy mas’uliyat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni tarbiyaning markaziga qo‘ydi. Abdurauf Fitrat esa milliy uyg‘onishni ilm-fan va tafakkur erkinligi bilan bog‘lab, modern tafakkurli shaxs modelini ilgari surdi.

Ilmiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, jadidlar yoshlar ongida milliy identitetni shakllantirishni ta’lim va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirganlar. Bugungi globallashuv sharoitida milliy identitetning barqarorligi yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham identitet, tanqidiy tafakkur va media savodxonlik o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida baholanadi.

Maqolada asoslanganidek, jadidlar merosini zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan integratsiya qilish ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Raqamli pedagogika, loyiha asosida o‘qitish, media savodxonlik dasturlari va kreativ metodlar tarixiy tajriba bilan uyg‘unlashganda yoshlar ma’naviy taraqqiyotining samarali modeli shakllanadi.

Umuman olganda, jadidlar merosi nafaqat tarixiy fenomen, balki zamonaviy yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda nazariy-metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Uning innovatsion talqini XXI asr sharoitida milliy identitetni mustahkamlash, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begali Qosimov. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
2. Ismoilbek Gaspirinskiy. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006.

3. Avloniy A. Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., “Ma’naviyat”, 1998. 288-bet.
4. Behbudiy B. Behbudiy kutubxonasi, “Oyina” jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild II. T.: Akademnashr, 2018-yil 14-bet.
5. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003. 155 b.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish, T., “Sharq”, 2004-yil, 53-bet.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002. 10 b.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA BOLALAR HUQUQLARI G‘OYALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Norqulova Munisa Shamsiddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, 1- kurs magistranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Sharq jamiyatini modernizatsiya qilish, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish va ma’rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onish jarayoni sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson omilini, ayniqsa, bolalar tarbiyasi va ta’limini alohida e’tirof etdilar. Ularning qarashlarida bola — millat kelajagini belgilovchi subyekt, ma’naviy yangilanishning markaziy kuchi va ma’rifatli jamiyat qurilishining tayanchi sifatida talqin qilinadi. Shu bois jadidchilik merosida bolaga munosabat, uning ta’lim olish huquqi, shaxs sifatida hurmat qilinishi va ma’naviy himoyasi masalalari muhim ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi [10; 18].

Jadidlar ma’naviy merosida bolaga munosabat faqat pedagogik muammo emas, balki ijtimoiy-falsafiy qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular bolalarning ta’lim olishi, ma’naviy kamoloti, fikrlash erkinligi va ijtimoiy faolligini millat taraqqiyotining zarur sharti deb bildilar. Bu yondashuvda insonparvarlik, adolat, tenglik va ma’rifat kabi umuminsoniy qadriyatlar milliy an’ana va madaniy meros bilan uyg‘unlashadi. Jadid pedagogik tafakkurida bola jamiyat kelajagini belgilovchi subyekt sifatida talqin qilinadi. Bu qarashlar o‘sha davr Sharq jamiyatidagi an’anaviy tarbiya stereotiplaridan tubdan farq qilib, bolani passiv itoatkor mavjudot emas, balki ongli, huquqqa ega va tarbiyalanishi lozim bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa, Abdulla Avloniy bolalar tarbiyasini millat istiqboli bilan bevosita bog‘lab, uni jamiyat taqdirini belgilovchi asosiy omil sifatida baholaydi [1].

Mazkur tadqiqotning maqsadi jadidlar ma’naviy merosida aks etgan bolalar huquqlari g‘oyalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda jadid pedagogik qarashlarining ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish konsepsiyasidagi o‘rni asoslanadi.

Jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bergan ma’rifatparvarlik va modernizatsiya harakati sifatida namoyon bo‘ldi. Jadid mutafakkirlari jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirishni avvalo inson ongini, ayniqsa yosh avlod tafakkurini o‘zgartirish orqali amalga oshirish mumkin, degan g‘oyani ilgari surdilar. Shu sababli bolalar tarbiyasi va ta’limi jadidchilik mafkurasining markaziy yo‘nalishiga aylandi. Jadidlar qarashlarida bola jamiyat kelajagini belgilovchi asosiy ijtimoiy subyekt sifatida talqin qilindi.

Jadid mutafakkirlarining pedagogik merosida bolaga munosabat insonparvarlik va ma’rifatparvarlik tamoyillari asosida shakllangan. Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining pedagogik qarashlarida tarbiyani millat hayotining hal qiluvchi omili sifatida baholab, yosh avlodni ma’naviy yetuk, axloqan barkamol va ilmli qilib tarbiyalashni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti deb hisoblaydi. Uning fikricha, bolaga berilgan tarbiya millat kelajagini belgilaydi, chunki jamiyatning ma’naviy darajasi avvalo yosh avlod kamolotiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan Avloniy tarbiyani nafaqat oilaviy yoki maktab doirasidagi jarayon, balki ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida talqin qiladi.

Jadid pedagogik tafakkurida bolaga nisbatan munosabatni yangilash g‘oyasi Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Behbudiy ta’limni millatni uyg‘otuvchi asosiy vosita deb bilgan holda, bolalarning savodli va dunyoqarashi keng bo‘lib ulg‘ayishini milliy taraqqiyotning zarur sharti sifatida ko‘rsatadi. U maktabni jamiyatni isloh qiluvchi ijtimoiy institut deb baholab, unda bolalar ongida ma’rifat, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy qarashlarida bola kelajak jamiyatining faol fuqarosi sifatida ko‘riladi va uning kamoloti millat taqdirini belgilovchi omil sifatida talqin qilinadi.

Jadid mutafakkirlaridan Abdurauf Fitrat esa oila va tarbiya masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab, bolaga e’tiborsizlik millat tanazzuliga olib kelishini ta’kidlaydi. U ota-ona mas’uliyatini nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy burch sifatida talqin etadi [3]. Fitratning pedagogik va ijtimoiy qarashlarida yosh avlodni ilm-fan yutuqlari asosida tarbiyalash millatni jaholatdan chiqarishning asosiy yo‘li sifatida ko‘rsatiladi. U bolalarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb baholaydi. Fitrat nazarida bola — millat kelajagini yaratadigan ongli shaxs bo‘lib, uning ma’naviy va intellektual kamoloti jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi.

Jadid pedagogik merosida bolaga nisbatan ijtimoiy-falsafiy yondashuv Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyatida ham chuqur ifodalangan. U yangi usul maktablarini tashkil etish orqali bolalarning savodxonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashni maqsad qilgan [6]. Munavvarqori bolalarni jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi kuch sifatida baholab, ularning ta’lim olishi va ma’naviy kamoloti milliy rivojlanishning asosiy sharti ekanini ta’kidlaydi. Uning pedagogik qarashlarida bola shaxs sifatida hurmat qilinishi va uning qobiliyatlari rivojlantirilishi zarurligi ilgari suriladi.

Umuman olganda, jadid mutafakkirlarining qarashlarida bolaga nisbatan munosabat an’anaviy diniy-dogmatik yondashuvdan farqli ravishda insonparvar, ma’rifatparvar va ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘ldi. Ular bolani passiv tarbiya obyektidan faol ijtimoiy subyekt darajasiga ko‘tardilar. Bu yondashuv bolalar tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida talqin qilishga olib keldi.

Jadid pedagogik tafakkurida maktab shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi ijtimoiy institut sifatida baholandi. Yangi usul maktablari orqali bolalarning savodxonligi, tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish maqsad qilindi. Ta’lim jarayonida ona tilida o‘qitish, amaliy bilim berish va tafakkurni rivojlantirish metodlari qo‘llanildi. Bu esa bolalarning shaxsiy va ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qildi.

Natijada jadidchilik ma’naviy merosida bolaga munosabat jamiyatning ma’naviy yangilanishi bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida shakllandi. Bola millat kelajagini belgilovchi asosiy omil, ma’rifatli jamiyat qurilishining markaziy subyekti va yangi ma’naviy makon yaratishning tayanchi sifatida talqin qilindi. Bu qarash jadid pedagogik tafakkurining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bolalar huquqlari g‘oyalarining shakllanishida nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Jadidchilik ma’naviy merosida bolalar huquqlari g‘oyalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida shakllangan ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Jadid mutafakkirlari bolani shaxs sifatida hurmat qilish, uning ta’lim olishi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy faolligini ta’minlashni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti deb bildilar. Bu yondashuvda bolaga nisbatan insonparvarlik, adolat, tenglik va ma’rifat kabi umuminsoniy qadriyatlar milliy ma’naviyat va tarbiya an’analari bilan uyg‘unlashgan holda talqin qilindi.

Jadid pedagogik qarashlarida bolalarning ta’lim olish imkoniyati inson kamolotining asosiy mezoni sifatida baholandi. Masalan, Abdulla Avloniy ta’limni shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida ko‘rsatib, har bir bola bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning pedagogik qarashlarida ta’lim bolani ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan Avloniy ta’limni nafaqat individual manfaat, balki jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi ijtimoiy qadriyat sifatida baholaydi.

Jadidlar merosida bolalarning fikr erkinligi g‘oyasi ham muhim o‘rin tutadi. Abdurauf Fitrat yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatish millat taraqqiyotining zarur sharti ekanini ta’kidlab, bolalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni ma’rifatli jamiyat qurilishining asosiy omili sifatida talqin qiladi. Fitrat qarashlarida bolalarning fikr erkinligi nafaqat pedagogik prinsip, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv bolalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi ongli subyekt sifatida ko‘rish g‘oyasini mustahkamlaydi.

Jadid mutafakkirlari bolalarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ham muhim qadriyat sifatida baholadilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy bolalarni jamiyat kelajagini belgilovchi kuch sifatida ko‘rib, ularning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy qarashlarida bola kelajak jamiyatining faol fuqarosi sifatida talqin qilinadi va uning tarbiyasi milliy taraqqiyotning asosiy omili

deb baholanadi. Bu yondashuv bolalarning ijtimoiy subyektlik maqomini e’tirof etish g‘oyasini aks ettiradi.

Jadidlar merosida bolalar huquqlari g‘oyalarining yana bir muhim jihati — tenglik va adolat tamoyillarining ilgari surilishidir. Ular ta’lim va tarbiya masalasida ijtimoiy tabaqa yoki jinsga ko‘ra cheklovlarni inkor etdilar. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov qiz bolalar ta’limini rivojlantirishni millat taraqqiyotining muhim sharti deb baholab, barcha bolalar uchun bilim olish imkoniyatini kengaytirishga intildi. Jadidlar qarashlarida qiz va o‘g‘il bolalar ta’limining tengligi jamiyat ma’naviy rivojlanishining zarur omili sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv bolalar huquqlari konsepsiyasining muhim elementi bo‘lgan teng imkoniyatlar g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Jadid pedagogik merosida bolalar tarbiyasi milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilindi. Ular ma’naviyat, axloq, odob va tarbiya an’analarini yosh avlod kamolotining asosiy omili deb baholadilar. Bolalarga milliy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda ma’naviy birlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash mumkin, deb hisobladilar. Shu bilan birga jadidlar milliy qadriyatlarni zamonaviy bilimlar va umuminsoniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidladilar. Bu esa bolalar tarbiyasida an’ana va modernizatsiya uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi.

Natijada jadidlar merosida bolalar huquqlari g‘oyalari faqat pedagogik masala sifatida emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi asosida shakllangan ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim olish imkoniyati, fikr erkinligi, ijtimoiy ishtirok va tenglik tamoyillari orqali bolalar jamiyatning ongli va mas’uliyatli a’zosi sifatida tarbiyalanishi ko‘zda tutilgan. Bu g‘oyalar jadidchilik ma’naviy merosining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Jadidchilik mafkurasida jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirish jarayoni avvalo yosh avlodni ma’rifatli, ongli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash orqali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan strategik vazifa sifatida talqin qilindi. Jadid mutafakkirlari millat kelajagini belgilovchi asosiy kuch sifatida bolalarni ko‘rgan holda, ularning ta’limi va tarbiyasini jamiyat modernizatsiyasining markaziy omili deb baholadilar. Shu sababli jadidchilik harakatida maktab va ta’lim tizimini isloh qilish yangi ma’naviy makon yaratishning asosiy vositasi sifatida qaraldi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari Turkiston jamiyatida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘ldi. Bu maktablarda an’anaviy yodlashga asoslangan ta’lim o‘rniga tushunish, tafakkur qilish va amaliy bilim olishga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llanildi. Ta’lim jarayonida ona tilida o‘qitish, dunyoviy fanlarni kiritish va bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada bolalar ta’limi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy institut darajasiga ko‘tarildi.

Jadid mutafakkirlari maktabni nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim ijtimoiy makon sifatida talqin qildilar. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy maktabni millatni uyg‘otuvchi va jamiyatni isloh qiluvchi kuch deb baholab, unda yosh avlodda ma’rifat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish zarurligini

ta’kidlaydi. Behbudiy qarashlarida maktab orqali tarbiyalangan avlod jamiyatni yangilovchi asosiy kuch sifatida talqin qilinadi.

Jadid pedagogik tafakkurida maktab yangi ma’naviy makon yaratish vositasi sifatida ham ko‘riladi. Bu makonda bolalar nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy ong, milliy o‘zlikni anglash va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantiradi. Abdulla Avloniy maktabni inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti deb baholab, unda bolalarning axloqiy, ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlanishi ta’minlanishi zarurligini ta’kidlaydi. Avloniy qarashlarida maktab shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi.

Jadidlar tomonidan yaratilgan pedagogik tizim bolani jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllantirishga qaratilgan edi. Ta’lim jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish maqsad qilindi. Abdurauf Fitrat yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash millatni jaholatdan chiqarishning asosiy yo‘li ekanini ta’kidlab, ta’lim orqali jamiyatni modernizatsiya qilish mumkinligini asoslaydi. Fitrat qarashlarida bolalar tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining strategik mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Jadidchilik harakatida qiz bolalar ta’limini rivojlantirish ham yangi ma’naviy makon yaratishning muhim jihati sifatida qaraldi. Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadidlar qizlar maktablarini tashkil etish orqali jamiyat ma’naviy taraqqiyotini kengaytirishga intildilar. Ular ayol savodxonligi va ma’rifatini millat taraqqiyotining zarur omili deb baholab, qiz bolalar ta’limi jamiyatning umumiy rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidladilar. Bu esa gender tenglik elementlarini o‘z ichiga olgan progressiv pedagogik qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi [12].

Jadid maktablari faoliyati natijasida Turkiston jamiyatida ta’limga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bolalar ta’limi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e’tirof etila boshladi. Ta’lim orqali yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik va zamonaviy tafakkur uyg‘unligi shakllandi. Bu jarayon jadidlar ilgari surgan ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining amaliy ifodasiga aylandi.

Shunday qilib, jadidchilik ma’naviy merosida bolalar omili jamiyatni modernizatsiya qilish va yangi ma’naviy makon yaratishning markaziy elementi sifatida talqin qilinadi. Ta’lim va tarbiya orqali bolalarni ongli, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish g‘oyasi jadidlar pedagogik konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Bu yondashuv natijasida bolalar tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining strategik mexanizmiga aylantirildi.

Natijada jadidlar faoliyati orqali maktab va ta’lim tizimi jamiyatning ma’naviy yangilanishini ta’minlovchi muhim institut sifatida shakllandi. Bolalar tarbiyasi va ta’limi ma’rifatli jamiyat qurish, milliy uyg‘onish va yangi ma’naviy makon yaratish jarayonining asosiy omiliga aylandi. Bu g‘oya jadidchilik ma’naviy merosining eng muhim ijtimoiy-falsafiy xulosalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik ma’naviy merosida bolaga munosabat an’anaviy pedagogik qarashlardan tubdan farq qiluvchi ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida shakllangan. Jadid mutafakkirlari bolani jamiyat taraqqiyotining markaziy subyekti sifatida talqin qilib, uning ta’lim olishi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy faolligini millat rivojlanishining asosiy sharti deb baholaganlar. Bu

yondashuv bolani passiv tarbiya obyektidan faol ijtimoiy subyekt darajasiga ko‘tarish g‘oyasini asoslab berdi.

Jadidlar pedagogik qarashlarida bolalar huquqlari g‘oyalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida talqin qilinadi. Ta’lim olish imkoniyati, fikr erkinligi, ijtimoiy ishtirok va tenglik tamoyillari orqali bolalar shaxs sifatida hurmat qilinishi va rivojlanishi zarurligi asoslangan. Bu g‘oyalar jadidlar ma’rifatparvarlik konsepsiyasida insonparvarlik, adolat va ma’naviy kamolot tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Natijada bolalar tarbiyasi milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalar sintezi asosida shakllangan ijtimoiy-ma’naviy tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqot jadid pedagogik merosida maktab va ta’lim tizimi jamiyatni modernizatsiya qilish hamda yangi ma’naviy makon yaratishning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilinganini ko‘rsatdi. Yangi usul maktablari orqali bolalarning savodxonligi, tafakkuri va ijtimoiy ongini rivojlantirish maqsad qilingan bo‘lib, bu jarayon ma’rifatli jamiyat qurish konsepsiyasining amaliy ifodasiga aylangan. Jadidlar nazarida yosh avlodni ongli, ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining strategik omili hisoblangan.

Shu asosda jadidchilik ma’naviy merosida bolalar omili ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish konsepsiyasining markaziy elementi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bolalarning ta’limi va tarbiyasi orqali jamiyatni yangilash g‘oyasi jadidlar ijtimoiy-falsafiy tafakkurining muhim xususiyatini tashkil etadi. Bu yondashuv zamonaviy bolalar huquqlari konsepsiyasining tarixiy-ma’naviy ildizlari jadid pedagogik merosida mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadidlar ma’naviy merosida bolalar huquqlari g‘oyalari faqat pedagogik masala emas, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida shakllangan. Mazkur konsepsiya bolani millat kelajagini yaratadigan ongli subyekt sifatida talqin etish, ta’lim va tarbiya orqali ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirish hamda ma’rifatli jamiyat qurish g‘oyalarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Shu jihatdan jadidchilik merosi zamonaviy bolalar huquqlari va ta’lim siyosatini rivojlantirishda muhim nazariy-ma’naviy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Abdulla Avloniy. *Birinchi muallim*. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Abdurauf Fitrat. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Abdurauf Fitrat. *Tanlangan asarlar*. 1-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. *Padarkush*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan maqolalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
7. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003.
8. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005.

9. Qori Niyoziy. *Tanlangan pedagogik asarlar*. – Toshkent: Fan, 1970.
10. Naim Karimov. *Jadidchilik va milliy uyg‘onish*. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
11. B. Qosimov. *Jadid adabiyoti*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
12. S. Olimov. *Jadidchilik harakati tarixi*. – Toshkent: Universitet, 2012.
13. UNICEF. *Convention on the Rights of the Child*. – New York, 1989.
14. O‘zbekiston Respublikasi. *Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida*gi Qonun. – Toshkent, 2008.

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА

Кошмат кызы Альбина

Международный Университет Центральной Азии (МУЦА)

Студент 2 курса факультета «Международные отношения»

Введение В начале XX века Центральная Азия столкнулась с острой необходимостью модернизации всех сфер общественной жизни. Движение джадидизма стало уникальным интеллектуальным ответом на вызовы времени. Для современного специалиста в области международных отношений наследие джадидов представляет особый интерес, так как оно заложило основы культурной дипломатии и международного сотрудничества в регионе. Актуальность данной работы обусловлена поиском путей гармоничного сосуществования национального самосознания и глобальных ценностей в современном мире.

1. Философские основы джадидской педагогики Джадиды понимали под «просвещением» не просто ликвидацию неграмотности, а полное переформатирование сознания нации. Главный тезис Махмудходжи Бехбуди — «Знание двух языков необходимо» — является классическим примером гармонии ценностей. Он призывал сохранять родной язык как символ идентичности (национальное), но при этом активно изучать языки соседей и мировых держав (общечеловеческое) для доступа к науке и технологиям.

2. Концепция воспитания Абдуллы Авлони В своем фундаментальном труде «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ» (Тюркский Гулистан или нравственность) Абдулла Авлони выделил три столпа воспитания: телесное, духовное и нравственное.

- *Телесное воспитание:* Призыв к гигиене и здоровью как залог силы нации.
- *Духовное воспитание:* Очищение разума через светские науки.
- *Нравственное воспитание:* Культивирование честности, трудолюбия и патриотизма. Авлони подчеркивал, что без нравственного

стержня технические знания могут стать разрушительными. Эта мысль перекликается с современными этическими стандартами международного права и гуманитарного сотрудничества [2].

3. Школьная реформа и «Усул-и Джадид» Переход от схоластического зазубривания в медресе к аналитическому мышлению в новометодных школах стал революцией. Джадиды ввели в программу географию, историю, математику и естествознание. Это позволило молодежи Туркестана чувствовать себя частью большого мира. Они не противопоставляли ислам науке, а доказывали их совместимость, что является важным уроком толерантности для современных международных отношений [3].

4. Роль наследия С. Иноятова в изучении вопроса Нельзя не отметить вклад современных исследователей, таких как Сулаймон Иноятов, в реабилитацию и глубокий анализ бухарской школы джадидизма. Профессор Иноятов в своих работах акцентирует внимание на том, что джадидизм в Бухаре был не только образовательным, но и мощным политико-правовым движением, стремившимся к созданию конституционного строя. Его исследования помогают нам понять, как формировались институты гражданского общества в нашем регионе [4].

Заключение Изучение педагогического наследия джадидов позволяет сделать вывод, что они были первыми «глобалистами» региона, которые при этом оставались глубокими патриотами. Их идеи о просвещенном обществе, равноправии и необходимости диалога культур остаются фундаментом для интеграционных процессов в Центральной Азии. Для будущих дипломатов опыт джадидов служит примером того, как можно модернизировать страну, не теряя её уникальной души.

Список использованной литературы

1. Бехбуди М. Танланган асарлар (Избранные произведения). — Ташкент: Маънавият, 2006.
2. Авлони А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ (Тюркский Гулистан или нравственность). — Ташкент: Ўқитувчи, 1992.
3. Иноятов С. И. Бухоро жадидчилиги тарихидан (Из истории бухарского джадидизма). — Бухара, 2011.
4. Адеб Халид. Интеллектуальный ислам: социальные реформы в Центральной Азии. (Фундаментальное исследование мирового уровня).
5. Фитрат А. Рассказы индийского путешественника. (Критика старой системы образования).

JADIDLARNING MA'RIFATPARLIK G'OYALARI-JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYAT VA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHNING TARIXIY-FALSAFIY ASOSI

Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li

BuxDPI, 1-kurs magistranti

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududi ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab tarixiy jarayonni boshdan kechirdi. Mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy qoloqlik va savodsizlik jamiyat taraqqiyotini susaytirgan edi. Ana shunday sharoitda jadidchilik harakati maydonga chiqdi. Bu harakat asoschilari "Jadid, jadidchilar" [1] deb nom oldilar "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidlar jamiyatni isloh qilishning eng muhim omili sifatida ta'lim va ma'rifatni ko'rdilar. Ularning nazarida, savodsiz va ma'rifatsiz jamiyatda huquqiy ong shakllanmaydi, qonun ustuvorligi qaror topmaydi. Shu bois Jadidchilar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlaridan biri ma'rifatparlik yo'li[2] orqali xalq ongini ochishdan iborat edi.

Jadidchilik XIX asr oxirida musulmon Sharqida yuzaga kelgan islohotchilik harakatining Turkistondagi ko'rinishi edi. Bu harakat:

- eski usuldagi maktab-madrasalar tizimining zamon talablariga javob bermasligi;
- mustamlaka tuzumi sharoitida milliy manfaatlarning poymol etilishi;
- jamiyatda huquqiy savodxonlikning pastligi;
- ijtimoiy adolatsizlikning kuchayishi kabi omillar natijasida shakllandi.

Jadidlar "usuli jadid" maktablarini ochib, o'qitishda tovush usulini joriy etdilar, dunyoviy fanlarni ta'lim tizimiga kiritdilar. Bu esa nafaqat bilim darajasini oshirdi, balki shaxsning ijtimoiy va huquqiy ongini shakllantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari Jadidlar tomonidan marosimlarda amalga oshiriladigan dabdababozlik va isrofgarchilik keskin tanqid ostiga olinadi. Turkiston o'lkasida jadidlar otasi deya nom chiqargan ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "Oyna" jurnaliga taqdim etilgan "A'molimiz yoinki murodimiz" maqolasida musulmonlarni "Kulu va ishrabu va lo tusrifu" [3] oyatiga rioya qilishga chaqiradi.

Jadidlar qarashlarida ta'lim-tarbiya, ma'rifat va huquqiy ong

Abdulla Avloniy qarashlari. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ta'limni millatning hayot-mamot masalasi deb baholagan. Uning fikricha, Turkiston jamiyatidagi qoloqlikning asosiy sababi – savodsizlik va ijtimoiy ongning pastligidir. Shuning uchun u islohotni siyosatdan emas, **maktab va tarbiyadan** boshlash zarur, deb hisoblagan. Uning asarlarida shaxsning o'z huquq va burchlarini anglashi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etishi huquqiy madaniyatning asosi sifatida talqin qilinadi. Avloniy qarashlarida **axloqiy tarbiya va huquqiy ong o'zaro bog'liq** tushunchalardir. U quyidagi g'oyalarni ilgari surgan:

- axloqsiz jamiyatda qonun ishlamaydi.
- shaxs o'z burchini anglamasa, huquqini ham himoya qila olmaydi.

- tarbiya – jamiyatning kelajagini belgilovchi omil.

Uning fikricha, huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish bilangina emas, balki ichki mas'uliyat va vijdon bilan ham belgilanadi. Demak, Avloniy uchun qonun ustuvorligi axloqiy poklik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlari. Mahmudxo‘ja Behbudiy ijtimoiy adolat va qonuniylik masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U matbuot orqali xalqni siyosiy va huquqiy jihatdan uyg‘otishga intilgan. Behbudiy fikricha, qonun ustuvor bo‘lmagan jamiyatda taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Uning dramaturgik va publitsistik asarlarida jaholat, huquqsizlik va ijtimoiy loqaydlik tanqid qilinadi. Bu esa huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan mafkuraviy kurash edi.

Abdurauf Fitrat qarashlari. Abdurauf Fitrat jamiyat taraqqiyotini ilm-fan va siyosiy ong bilan bog‘lagan. U eski ta'lim tizimini tanqid qilib, zamonaviy bilimga asoslangan maktablarni yo‘lga qo‘yishni taklif etgan. Fitratning fikricha, mustaqil fikrlovchi, huquqini biladigan shaxslar jamiyatni yangilashning asosiy kuchidir. U milliy o‘zlikni anglash va huquqiy tafakkurni uyg‘otishni taraqqiyotning muhim sharti deb hisoblagan.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon qarashlari. Jadidchilar mahalliy aholi mentalitetiga taalluqli odob-ahloq me'yorlarining himoyachisi bo‘lganligi ham taqsinga sazovordir. 17 yoshli yosh jadid ma'rifatparvari, Cho'lpon xalqqa qarata: "Ey qarindoshlar… katta iltimosimiz shuldurki, Ovro‘paning mo‘dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg‘a buljihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olib, buljihatdan taqlid qilmog‘imiz lozimdir. Ovro‘paning mo‘dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!" [4] deya xitob etgan fikrlari yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga yaqqol misol bo'la oladi.

Tarixiy-falsafiy tahlil. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g‘oyalari quyidagi falsafiy asosga ega:

1. Bilim va ongning ustuvorligi – inson tafakkuri o‘zgarmas ekan, jamiyat ham o‘zgarmaydi. Mazkur fikrlarda dastlab inson tafakkurini o'zgartirish orqali uning jamiyatdagi faolligini samarali yo'lga qo'yish mumkinligi ta'kidlanadi.
2. Shaxs va jamiyat dialektikasi – huquqiy madaniyat shaxs ongidan boshlanadi, biroq jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkamlanadi. Har bir shaxs o'zining huquqiy savodxonlik darajasiga ega. Jamiyat taraqqiyoti esa bevosita huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetuk insonlar ko'magiga tayanadi.
3. Adolat va qonuniylik tamoyili – ijtimoiy barqarorlik qonun ustuvorligiga asoslanadi. Kuchli ijtimoiy davlat tuzish yo'lidagi har bir davlat adolat va qonuniylik tamoyilini mukammal o'zlashtirmog'i lozim.
4. Ma'rifat orqali erkinlikka erishish – ma'rifat shaxsni mustaqil fikrlashga, o‘z haq-huquqini anglashga olib keladi.

Shu jihatdan jadidlar g‘oyalari zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining tarixiy ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida jadidlarning ma'rifatparvarlik g‘oyalari o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi masalalar jadidlar ilgari surgan qarashlar bilan mushtarakdir. Huquqiy madaniyatni

shakllantirish jarayoni tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, jadidchilik harakati ana shu jarayonning muhim bosqichidir.

Xulosa. Jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari jamiyatni yangilashning nazariy va amaliy dasturi sifatida maydonga chiqdi. Ular ta’limni isloh qilish orqali huquqiy ongni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va milliy uyg‘onishni amalga oshirishni maqsad qildilar. Shunday qilib, jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy, balki huquqiy va siyosiy tafakkur taraqqiyotining ham muhim tarixiy-falsafiy bosqichi hisoblanadi. Ularning merosi bugungi kunda ham huquqiy demokratik jamiyat barpo etishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Т.: Узбекистан, 2000.

2. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маънавият. Т.: Шарқ, 1993.

3. Қуръони Карим. “Енглар, ичинглар лекин исроф қилманглар”. “Аъроф” сураси 31-оят. Алоуддин Мансур таржима ва изоҳи. – Т.: Шарқ юлдузи. 1992.

4. Cho’lpon. Vatanimiz Turkistonda temiryo’llar. // “Sadoyi Farg’ona”. 1914-yil 16-iyun.

5. Behbudiy kutubxonasi, “Oyina” jurnali, 1914-yil 26-aprel, Tanlangan asarlar. Jild II. T.: Akademnashr 2018-yil 14-bet

6. Avloniy A. Tarjimai hol Tanlangan asarlar. 2-jild. T., “Ma’naviyat”, 1998. 288-bet

JADID MA’RIFATCHILARI ASARLARIDA OILA VA TARBIYA MASALALARI: BUGUNGI ZAMONAVIY OILA MODELI BILAN QIYOSIY TAHLIL

Ashirova Hilola Zaripovna

BuxDPI 2-kurs magistri

Jamiyat taraqqiyoti bevosita oilaning ma’naviy, axloqiy va tarbiyaviy muhitiga bog‘liq. Oila — inson shaxs sifatida shakllanadigan ilk ijtimoiy makon bo‘lib, unda beriladigan tarbiya nafaqat bir avlod, balki butun jamiyat kelajagini belgilaydi. Shu bois oila va tarbiya masalalari har bir davr mutafakkirlarining diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yashab ijod qilgan jadid ma’rifatchilari ham millat taraqqiyotini oiladagi ma’rifat va to‘g‘ri tarbiya bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rganlar.

Jadidchilik harakati faqatgina siyosiy yoki madaniy yangilanish emas, balki keng qamrovli ma’naviy uyg‘onish jarayoni edi. Jadid ma’rifatchilari — Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat kabi ziyolilar o‘z asarlarida yosh avlod tarbiyasi, ota-ona mas’uliyati, oiladagi muhitning farzand kamolotiga ta’siri haqida chuqur fikrlar bildirganlar. Ularning qarashlarida oila jamiyatning poydevori, tarbiya esa millat istiqbolining hal qiluvchi omili sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo

mamot masalasidir” degan mashhur fikri oila va tarbiya masalasining naqadar muhimligini yaqqol ifodalaydi.[2]

Bugungi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarning tez o‘zgarishi sharoitida oila institutining mazmuni va vazifalari ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy oila modeli an’anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda yangi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanmoqda. Ota-onalarning bandligi, raqamli texnologiyalarning bolalar hayotiga erta kirib kelishi, individualizmning kuchayishi kabi omillar tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, jadid ma’rifatchilari tomonidan ilgari surilgan oila va tarbiya haqidagi g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqish, ularni bugungi kun talablari bilan qiyoslash dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik, axloqiy poklik, ota-ona mas’uliyati va farzand kamolotiga jiddiy yondashuv kabi tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, ma’naviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta’siri va tarbiyaviy bo‘shliqlar kuchayayotgan bir davrda bu qarashlar yanada qadrlanmoqda. Jadid merosini zamonaviy oila modeli bilan qiyosiy o‘rganish orqali tarixiy tajribadan samarali foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — jadid ma’rifatchilari asarlarida aks etgan oila va tarbiya haqidagi g‘oyalarni tahlil qilish hamda ularni bugungi zamonaviy oila modeli bilan qiyosiy o‘rganishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida jadid qarashlarining hozirgi tarbiyaviy jarayonlar uchun amaliy ahamiyati ochib beriladi. Natijada, milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotidagi uzviylik va davomiylikni ko‘rsatish, zamonaviy oilaviy tarbiya tizimini boyitishga xizmat qiluvchi xulosalar chiqarish ko‘zda tutiladi.

Jadid ma’rifatchilari nazarida oila shunchaki qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan kichik guruh emas, balki jamiyatning axloqiy va ma’naviy tayanchi hisoblangan. Ular millat taraqqiyotini maktabdan ham oldin oiladagi tarbiya bilan bog‘lashgan. Chunki bola ongiga ilk tushunchalar, axloq me’yorlari va hayotga munosabat aynan oila muhitida singadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani inson hayotining eng muhim masalasi sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, yaxshi tarbiya olgan farzand nafaqat ota-onasiga, balki butun jamiyatga foyda keltiradi. Yomon tarbiya esa nafaqat bir oilaning, balki jamiyatning tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkin. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Masalan, oilada mas’uliyat, hurmat va halollik ruhida ulg‘aygan bola keyinchalik jamiyatda qonunlarga itoatkor, boshqalarga nisbatan hurmatli shaxs bo‘lib shakllanadi.[3]

Jadidlar oilani ma’rifat maskani deb bilganlar. Ularning fikricha, ota-ona o‘zi savodli, dunyoqarashi keng bo‘lmasa, farzandiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olmaydi. Shu sababli ular ayollar ta’limiga ham alohida e’tibor qaratganlar. Chunki ona — bolaning birinchi muallimi. Bu g‘oya hozirgi zamonaviy pedagogik qarashlar bilan hamohang.

Jadid adabiyotida ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati markaziy o‘rin tutadi. Behbudiy va Fitrat asarlarida jaholat, loqaydlik va zo‘ravonlikka asoslangan

oilaviy muhit keskin tanqid qilinadi. Ular bolani qo‘rqitish yoki jismoniy jazo bilan emas, balki tushuntirish, mehr va namuna orqali tarbiyalash kerakligini ta’kidlaydilar.

Masalan, Fitrat o‘z dramalarida tarbiyasiz o‘sgan, e’tiborsiz qolgan yoshlar taqdirini ko‘rsatish orqali oiladagi beparvolik qanday fojiaga olib kelishini ochib beradi. Bu badiiy misollar orqali muallif ota-onalarni ogohlikka chaqiradi.[1]

Bugungi kunda ham psixologlar bolaga nisbatan zo‘ravonlik uning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishini isbotlagan. Jadidlar esa bundan bir asr oldin bu haqiqatni badiiy va publitsistik yo‘l bilan xalq ongiga singdirishga harakat qilganlar.

Jadid ma’rifatchilari tarbiyaning asosini axloqiy poklik tashkil etadi, deb hisoblashgan. Ular halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr kabi fazilatlarni oilada shakllanishi kerak bo‘lgan asosiy sifatlar deb bilganlar.

Avloniy axloqsiz ilmning jamiyatga foyda bermasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tarbiya faqat bilim berish emas, balki insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Masalan, faqat yaxshi o‘qigan, lekin halollikni bilmagan inson jamiyatga zarar keltirishi mumkin.[4]

Zamonaviy oila modelida ham aynan shu muammo dolzarb: bolalar bilimli, lekin ba’zan ijtimoiy mas’uliyat yoki ma’naviy mezonlar yetishmaydi. Jadidlar ilgari surgan axloqiy tarbiya tamoyillari bugungi kun uchun ham dolzarb qo‘llanma bo‘la oladi.

Bugungi kunda oila tuzilishi va funksiyalari sezilarli darajada o‘zgargan. Iqtisodiy sharoitlar, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida ota-onalar ko‘proq ish bilan band, bolalar esa ko‘proq vaqtini internet va gadjetlar bilan o‘tkazmoqda. Bu esa jonli muloqotning kamayishiga olib kelmoqda.

Masalan, ilgari kechki payt butun oila davra atrofida suhbatlashgan bo‘lsa, bugungi kunda har kim o‘z telefoniga berilib ketgan holatlarni ko‘p uchratamiz. Bu esa farzandning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Jadidlar oilaviy muloqot va ma’naviy yaqinlikni tarbiyaning asosi deb bilganlar. Zamonaviy sharoitda bu qadriyatni tiklash muhim masalalardan biridir.

Jadidlar maktab va oilani bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim tarbiya maskani sifatida ko‘rganlar. Ular ota-onalarni farzand ta’limiga befarq bo‘lmaslikka chaqirganlar. Bugungi kunda ham ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan oilaning ishtirokiga bog‘liq.[5]

Masalan, darsdan tashqari kitob o‘qishga qiziqtirilgan bola mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Jadidlar kitobxonlikni oilaviy muhitga singdirishni targ‘ib qilganlar. Hozir esa bu an’ana o‘rnini ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda.

Jadidlar davridagi oila ko‘proq an’anaviy tuzilishga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, undagi ma’naviy yaqinlik va tarbiyaviy mas’uliyat kuchli bo‘lgan. Zamonaviy oilada esa imkoniyatlar keng, ammo ma’naviy nazorat va vaqt ajratish masalalari murakkablashgan.

Shu bois jadid ma’rifatchilarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy oila modelini ma’naviy jihatdan boyituvchi manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Jadid ma’rifatchilari asarlarida ilgari surilgan oila va tarbiya haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ular oilani jamiyatning asosiy tayanchi, tarbiyani esa millat kelajagini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida talqin etganlar. Jadidlar nazarida sog‘lom jamiyat, avvalo, sog‘lom oilaviy muhitdan boshlanadi. Mehr-muhabbatga, hurmatga va ma’naviy mas’uliyatga asoslangan oila farzand kamolotining eng muhim sharti sifatida ko‘riladi.[6]

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oila modeli tashkiliy va ijtimoiy jihatdan jadidlar yashagan davrdagidan ancha farq qiladi. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot, shiddatli hayot sur’ati va axborot oqimining kuchayishi oilaviy munosabatlarga yangicha tus bermoqda. Biroq shakl o‘zgargani bilan mazmun — ya’ni farzand tarbiyasida ota-ona mas’uliyati, axloqiy qadriyatlar, ma’rifat va e’tibor masalalari o‘z mohiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Jadidlarning tarbiya haqidagi fikrlari, xususan, shaxsiy namuna, axloqiy poklik, ilmga rag‘bat va milliy qadriyatlarga sodiqlik g‘oyalari bugungi oila uchun ham muhim yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ular ilgari surgan qarashlar zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillari bilan uyg‘unlashib, oilaviy tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifiy merosini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham zarurdir. Ushbu meros orqali zamonaviy oilada ma’naviy muhitni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ongli yondashuvni shakllantirish va milliy tarbiya an’analarini davom ettirish imkoniyati kengayadi. Demak, jadidlar qarashlari o‘tmish yodgorligi emas, balki bugungi va ertangi kun uchun ham muhim ma’naviy qo‘llanmadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent —2013.

2. Karimov, N. Jadidchilik va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 55–143-betlar.

3. Nosirjonov Faxriddin Muxiddin o‘g‘li, M.M.Agzamova “Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida oila va oilada salomatlik masalalari” “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2021. C-457, 462

4. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2004. — 210–276-betlar.

5. Rasulov, A. Jadid ma’rifatchiligi: g‘oya va tafakkur. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 134–198-betlar.

6. Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari” Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolariActual Problems of Humanities and Social SciencesVolume 4 | Special Issue 6| 2024 ISSNOnline: 2181-1342

JADIDLAR MEROSIDA IJTIMOIY ADOLAT G‘OYALARI VA ULARNING BUGUNGI AMALIYOTI: ABDURAUF FITRAT IJODI MISOLIDA

Shodiyeva Dilshoda G‘ulomjonovna

BuxDPI 2-kurs magistri

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub burilishlar millat tafakkurida yangicha qarashlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ana shunday murakkab va ziddiyatli davrda maydonga chiqqan jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo‘lgan taraqqiyot dasturini ilgari surdi. Jadidlar jamiyatdagi tengsizlik, jaholat, mustamlakachilik zulmi va iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etishning asosiy yo‘li sifatida ilm-fan, zamonaviy ta’lim va ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surdilar. Ularning fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo inson tafakkurining yangilanishi va adolatli ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi bilan chambarchas bog‘liq edi.[3]

Jadidlar merosida ijtimoiy adolat g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Bu g‘oya faqat siyosiy erkinlik yoki milliy mustaqillik talabi bilan cheklanmay, balki shaxs erkinligi, huquqiy tenglik, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ijtimoiy mavqe masalalari, ta’lim olish imkoniyatining kengaytirilishi kabi masalalarni ham qamrab olgan. Jadidlar adolatni jamiyatni isloh qilishning bosh mezoni sifatida ko‘rdilar. Ular nazarida adolatli jamiyat — bu ilmli, ongli va mas’uliyatli fuqarolar jamiyati bo‘lib, unda har bir inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Abdurauf Fitrat ijodi misolida ijtimoiy adolat g‘oyalarining mazmun-mohiyati va ularning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Fitrat o‘z asarlarida millatning ma’naviy uyg‘onishi, axloqiy poklanishi va zamonaviy bilimlar bilan qurollanishini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida talqin etadi. Uning publitsistik chiqishlari, dramatik asarlari va ilmiy tadqiqotlarida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, jaholat va tengsizlik keskin tanqid qilinadi. Shu bilan birga, u adolatli jamiyat barpo etishning aniq yo‘llarini — ta’lim tizimini isloh qilish, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish va fuqarolik mas’uliyatini oshirish orqali ko‘rsatib beradi.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida jadidlar ilgari surgan ijtimoiy adolat tamoyillari yanada dolzarb tus olmoqda. Zamonaviy jamiyatda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida tarixiy merosga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Fitratning ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarini o‘rganish nafaqat tarixiy zarurat, balki amaliy ehtiyoj hamdir. Zero, uning g‘oyalari bugungi islohotlar ruhiga hamohang bo‘lib, ma’naviy yangilanish va adolatli jamiyat qurish yo‘lida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi. Bu harakat vakillari jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili sifatida ijtimoiy

adolatni ko‘rdilar. Ular uchun adolat tushunchasi shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki siyosiy, huquqiy va ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan keng qamrovli tamoyil edi. Jadidlar ijtimoiy tengsizlik, jaholat va mustamlakachilik sharoitida millatning orqada qolishini adolatsizlikning natijasi sifatida talqin qildilar.

Jadidlar nazarida adolatli jamiyat qurish uchun avvalo inson ongini o‘zgartirish zarur edi. Shu bois ular yangi usul maktablarini ochish, matbuot nashrlarini yo‘lga qo‘yish, teatr va adabiyot orqali xalqni uyg‘otishga intildilar. Ijtimoiy adolat g‘oyasi ular uchun milliy ozodlik, shaxs erkinligi va ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq edi.

Jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri — Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida ijtimoiy adolat masalasini chuqur falsafiy va badiiy asosda yoritdi. Fitrat nafaqat adib, balki jamoat arbobi va mutafakkir sifatida ham jamiyatni yangilash g‘oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, millat taraqqiyoti uchun eng avvalo tafakkur erkinligi va ma’rifat zarur.[1]

Fitratning “Munozara” asarida eski va yangi qarashlar to‘qnashuvi orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ochib beriladi. Asarda jaholat va qoloqlik tanqid qilinib, ilm-ma’rifatning ustuvorligi asoslab beriladi. Bu yerda adolat tushunchasi zamonaviy bilim va tafakkur bilan uyg‘unlikda talqin etiladi. Fitrat eski tuzumning ijtimoiy tengsizlikka asoslangan mohiyatini ochib berib, jamiyatni yangilash zaruratini ta’kidlaydi.

Uning “Hind sayyohi bayonoti” asarida esa mustamlaka zulmi va milliy qaramlik oqibatlari tasvirlanadi. Fitrat ijtimoiy adolatni milliy mustaqillik bilan bog‘lab, erkinliksiz taraqqiyot bo‘lishi mumkin emasligini uqtiradi. U jamiyatda shaxs erkinligi va huquqiy tenglik qaror topmas ekan, adolatli tuzumni barpo etish mushkul ekanini ko‘rsatadi.

Fitrat ijodida ta’lim tizimini isloh qilish ijtimoiy adolatni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Uning qarashlariga ko‘ra, eski maktab va madrasalardagi ta’lim usullari zamon talablariga javob bermas edi. U yangi usuldagi maktablar orqali bolalarga dunyoviy fanlarni o‘rgatish, ularni keng fikrlashga undash tarafdori bo‘ldi.

Adolatli jamiyatda har bir inson ilm olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerakligi Fitratning qat’iy e’tiqodi edi. U ayollar ta’limiga ham alohida e’tibor qaratdi. Chunki uning nazarida jamiyat taraqqiyoti oiladan boshlanadi, onaning savodxonligi esa kelajak avlodning ma’naviy poydevorini belgilaydi. Bu fikrlar o‘sha davr uchun nihoyatda ilg‘or qarashlar edi.[2]

Fitrat ijtimoiy adolatni faqat tashqi siyosiy o‘zgarishlar bilan emas, balki ichki ma’naviy islohot bilan bog‘laydi. Uning fikricha, jamiyat a’zolari halollik, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etmas ekan, adolatli tuzum barpo etib bo‘lmaydi. Shu bois u asarlarida axloqiy poklanish g‘oyasini ilgari suradi.

Fitrat dramatik asarlarida ham adolatsizlik, poraxo‘rlik va johillikni keskin tanqid qiladi. Uning qahramonlari ko‘pincha ma’rifatli, yangicha fikrlovchi insonlar sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali u jamiyatni yangilashning ideal modelini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Fitratning ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarida huquqiy tenglik alohida o‘rin tutadi. U shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishni jamiyat barqarorligining asosiy sharti deb biladi. Uning publitsistik maqolalarida davlat boshqaruvida adolat, qonun ustuvorligi va xalq manfaatini ko‘zlash zarurligi ta’kidlanadi.[6]

Fuqarolik mas’uliyati masalasi ham Fitrat qarashlarining muhim jihatlaridan biridir. U millatning ravnaqi har bir shaxsning faolligi va ongli ishtirokiga bog‘liq ekanini qayd etadi. Shu jihatdan uning g‘oyalari bugungi fuqarolik jamiyati konsepsiyalari bilan hamohangdir.

Bugungi kunda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jadidlar ilgari surgan ta’limni modernizatsiya qilish, jamiyatni ma’naviy yangilash va huquqiy tenglikni qaror toptirish g‘oyalari zamonaviy islohotlar jarayonida o‘z ifodasini topmoqda.

Fitrat merosi yoshlar tarbiyasida ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida ilgari surilgan ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik tamoyillari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishda Fitrat g‘oyalari nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Abdurauf Fitrat ijodida ijtimoiy adolat g‘oyasi keng va ko‘p qirrali mazmunga ega. U milliy ozodlik, ma’rifat, axloqiy poklanish va huquqiy tenglik bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Fitratning qarashlari o‘z davrida jamiyatni uyg‘otishga xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ham adolatli jamiyat qurish yo‘lida muhim ma’naviy tayanch bo‘lib qolmoqda.

Jadidlar merosida ijtimoiy adolat g‘oyasi milliy uyg‘onish harakatining ma’naviy va nazariy asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu g‘oya shunchaki siyosiy talab yoki davriy shior emas, balki jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan kompleks konsepsiya edi. Jadid mutafakkirlari adolatni ilm-fan, ma’rifat, huquqiy tenglik va axloqiy poklanish bilan uzviy bog‘liq holda talqin qildilar. Ularning qarashlarida jamiyat taraqqiyoti avvalo inson ongining o‘zgarishi, tafakkurning yangilanishi va shaxs erkinligining ta’minlanishi bilan chambarchas bog‘liq ekani alohida ta’kidlanadi.[4]

Bu jarayonda Abdurauf Fitrat ijodi alohida o‘rin tutadi. Fitrat ijtimoiy adolatni millat ravnaqi va davlat mustaqilligining asosiy sharti sifatida ko‘rdi. Uning asarlarida adolat tushunchasi tor ma’nodagi tenglik bilan cheklanmaydi; u keng ma’noda inson qadr-qimmati, huquqiy himoya, ilm olish imkoniyati va jamiyat boshqaruvida xalq manfaatining ustuvorligi bilan izohlanadi. Fitrat nazarida jaholat va qoloqlik adolatsizlikning ildizi bo‘lib, ularga qarshi kurashishning yagona yo‘li ma’rifat va zamonaviy tafakkurdir.

Fitrat ijtimoiy adolatni uch asosiy yo‘nalishda talqin etadi: birinchidan, ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatni uyg‘otish; ikkinchidan, axloqiy poklanish va ma’naviy yuksalish orqali insonning ichki dunyosini boyitish; uchinchidan, huquqiy tenglik va erkinlikni ta’minlash orqali adolatli ijtimoiy tuzumni shakllantirish. Bu qarashlar o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or bo‘lib, mustamlakachilik sharoitida millatni uyg‘otishga xizmat qildi.

Bugungi kunda ham jadidlar ilgari surgan tamoyillar o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish kabi vazifalar jadidlar orzu qilgan adolatli jamiyat modeliga hamohangdir. Ayniqsa, globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni asrab-avaylash bilan birga zamonaviy taraqqiyotga erishish masalasi Fitrat qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Uning ilm-ma’rifatga tayangan taraqqiyot modeli bugungi islohotlar uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, Fitrat merosi yosh avlodni vatanparvarlik, mas’uliyat va adolat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki amaliy dastur sifatida ham qimmatlidir. Zero, adolat tamoyillari jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy totuvlik va taraqqiyotning mustahkam poydevoridir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar merosi, xususan Fitrat ijodi, ijtimoiy adolatning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirgan boy ma’naviy xazinadir. Bu merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy sharoitda tatbiq etish jamiyatni yanada taraqqiy ettirish, inson qadrini ulug‘lash va adolatli ijtimoiy muhitni qaror toptirish yo‘lida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Қосимов, Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: “Ma’naviyat”, 2012. – 312 b.

2. Ризаев, Ш. Жадид драматургияси ва театр маданияти. – Тошкент: “Fan”, 2017. – 276 б.

3. Шермуҳамедов, С. Жадидчилик ҳаракати тарихи. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – 240 б.

4. Каримов, Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “O‘qituvchi”, 2008. С– 420

5. Йўлдошев, Қ. Фитрат ижодининг ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2010. В– 198.

6. Болтабоев, Ҳ. Жадидлар ва миллий истиқлол ғояси. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2006. – 256 б.

7. Ҳамидов, Х. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. – Тошкент: “Sharq”, 2014. – 224 б.

XUDOYBERGAN DEVONOV – O‘ZBEK MILLIY KINEMATOGRAFIYASI VA FOTOGRAFIYASI ASOSCHISI SIFATIDA

Yusupova Bonu Hamdam qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Yevropa texnika va madaniyatining kirib kelishi natijasida yangi san’at turlari shakllana boshladi. Fotografiya va

kinematografiya ana shunday yangiliklardan bo‘lib, ular milliy tarixni tasviriy shaklda aks ettirish imkonini berdi. Bu jarayonda Xudoybergan Devonovning o‘rni beqiyosdir. U nafaqat birinchi o‘zbek kinooperatori, balki milliy vizual tafakkur asoschisi sifatida ham tarixda muhim o‘rin tutadi. Devonov ijodi orqali XX asr boshlaridagi Xorazm hayoti, me’moriy obidalari, xalq turmushi va siyosiy jarayonlari bugungi kunga yetib kelgan. Xudoybergan Devonov 1878 -yilda Xorazmda, Xo‘jayli boshqaruvchisi Nurmuhammad Devonov oilasida tavallud topgan. U yoshligidan yaxshi ta’lim olgan, arab tilini mukammal o‘zlashtirgan. She’riyat va musiqa bilan shug‘ullangan, milliy cholg‘u asboblarini ijro eta olgan. Bu ko‘p qirrali madaniy tayyorgarlik uning keyingi ijodiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratdi. Devonov hayotida hal qiluvchi voqea nemis-mennonit jamoasi vakili Vilgelm Penner bilan uchrashuvi bo‘ldi. Penner unga fotografiya sirlarini o‘rgatadi. Aynan shu davrdan boshlab Devonov tasviriy san’atga jiddiy kirishadi. O‘sha davrda islom jamiyatida tirik mavjudotni tasvirlash an’anaviy qarashlarga zid deb baholanganiga qaramay, u jasorat bilan bu sohada faoliyat boshlaydi.[1,32]

XX asr boshlarida Xiva xonligida islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda vazir Islomxo‘ja muhim rol o‘ynadi. Uning tashabbusi bilan yevropacha kasalxona va yangi usul maktablari tashkil etildi. Bu islohotlar Xivada ma’rifatparvarlik muhitini kuchaytirdi. Devonov aynan shu madaniy yangilanish davrida ijod qildi. Islomxo‘ja uning foto va kino sohasidagi tajribalarini qo‘llab-quvvatladi. 1907–1908 -yillarda Devonov Rossiya poytaxtlarida bo‘lib, fotografiya va kino texnologiyalarini o‘rgandi. U yerda kinokamera va zarur asbob-uskunalar xarid qildi. Xorazmga qaytgach, birinchi fotolaboratoriyani tashkil etdi. Bu laboratoriya mintaqadagi ilk fotokinostudiya vazifasini bajardi. 1908 -yil o‘zbek kinosi tarixining boshlanish nuqtasi bo‘ldi. Devonov o‘z kamerasini tarixiy yodgorliklar, minoralar, masjidlar va xalq turmushiga qaratdi. “O‘rta Osiyo me’moriy yodgorliklari”, “Turkiston ko‘rinishlari”, “Xiva va xivaliklar” kabi filmlari hujjatli xarakterga ega bo‘lib, tarixiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Devonov asarlarida vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va taraqqiyot g‘oyalari ilgari surilgan. U nafaqat tasvirga olish bilan shug‘ullangan, balki odam gavjum joylarda kinolavhalar namoyish etib, yangi san’at turini targ‘ib qilgan.[2,32]

1920 -yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e’lon qilingach, Devonov moliya vaziri etib tayinlanadi. Shunga qaramay, u ijodiy faoliyatini to‘xtatmaydi. U “Sovkino” aksiyadorlik jamiyatining kino-muxbiri bo‘lib ishlaydi. Uning kinolavhalari «Soyuzkinojurnal» seriyalarida namoyish etiladi. «Ishchi ayollar», «Sho‘rko‘l», «Ko‘za», «Chig‘ir», «Tuzkon», «Degish ofati», «Xorazm dalalarida», «Paxta karvoni» singari hujjatli film va syujyetlarni suratga olib yuboradi. Uning mehnati natijasi o‘laroq, dunyo xalqlari ko‘p millatli Xorazmning qadimiy, o‘ziga xos madaniyati bilan tanishadi.Shuningdek, “Uzbekistanskaya pravda” va “Inqilob quyoshi” gazetalarida fotomuxbirlik qiladi. Devonov qishloq xo‘jaligidagi yangiliklar, birinchi traktorning kelishi, yer taqsimoti, ommaviy yig‘ilishlar kabi tarixiy jarayonlarni tasvirga olgan. Afsuski, 30-yillar oxirida avjiga chiqqan Stalinning qatag‘on mashinasi Xudoybergan Devonovni ham chetlab o‘tmadi. 58 yoshli fotosuratchi 1937 -yilda hibsga olinib, Yangiyo‘ldagi siyosiy mahkumlar lageriga yuboriladi. [3,45]

Unga NKVD tomonidan aksilinqilobchi tashkilot rahbarlari Fayzulla Xo‘jayev va Davlat Rizayevning topshirig‘i asosida Angliya razvedkasi foydasiga josuslik qilgani, Xorazmda bosmachilik harakatini tashkil qilgani, bosmachilar yetakchisi Junaidxon bilan shaxsan aloqada bo‘lgani kabi ayblar qo‘yiladi.

1938 -yil 5 sentyabrda, atigi 20 daqiqa davom etgan sudda Xudoybergan Devonov O‘zbekiston SSRni SSSRdan ajratib olib, burjua davlatni barpo etish maqsadini qo‘ygan aksilinqilobiy, millatchilik, qo‘zg‘olonchilik, terrorchilik va diversiya-zararkunandachilik tashkiloti bilan aloqa o‘rnatganlikda, tumanma-tuman kezib, ingliz ravedkasi uchun josuslik ma’lumotlarini to‘plaganlikda aybdor deb topilib, oliy jazo – o‘limga mahkum qilinadi. [4]

Mol-mulki esa davlat foydasiga musodara qilinadi. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etiladi. Ammo Stalinning o‘limidan keyin qatag‘on qilingan ko‘plab ziyolilar qatori Xudoybergan Devonovning jinoyat ishi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Oliy Sud harbiy kollegiyasi 1959 -yilda unga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilib, mutlaqo aybsiz deb topadi va oqlash haqida qaror chiqaradi. Qatag‘on davri qurbonlari nomini tilga olishga ruxsat berilgan o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab Xudoybergan Devonov hayoti va faoliyati haqida o‘nlab maqola va ocherklar yoziladi. [5]

Jumladan, kinoshunos olim, filologiya fanlari doktori Hamidulla Akbarov birinchi o‘zbek fotografi va kinooperatori haqida bir necha maqolalar yozib, hujjatli film suratga olgan. Shuningdek, xorazmlik yozuvchi va jurnalistlar Erkin Madrahimov, Salimjon Hasanov, Komil Nurjonov, Ro‘zimboy Hasan va boshqalar u haqda kitoblar va maqolalar yozishgan. Sovetlar davrida Urganch shahrida Xudoybergan Devonov nomli kinoteatr barpo etilgan. [6]

2021 -yilda uning binosi qayta ta’mirlanib, yangicha qiyofada ochildi.2021 -yil yanvar oyida Toshkent Fotosuratlar uyida ilk o‘zbek fotosuratchisi hamda milliy kino asoschisi Xudoybergan Devonovga bag‘ishlangan kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Akademik Naim Karimov tomonidan yozilgan kitob rus va o‘zbek tillarida Islom Karimov fondi tomonidan nashr etildi. Ko‘plab kinolentalari yo‘q qilingan bo‘lsa-da, ayrim fotosurat va kinomateriallar arxivlarda saqlanib qolgan. Bu materiallar bugungi kunda XX asr boshlaridagi Xorazm tarixini o‘rganishda bebaho manba hisoblanadi. [7, 48]

Devonov yaratgan fotosurat va kinolavhalar tarix fanida vizual manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular yozma manbalarda aks etmagan ko‘plab ijtimoiy tafsilotlarni ochib beradi.,Devonov ijodi rus kinosan’atkorlari faoliyati bilan deyarli bir davrda boshlangan. Bu esa o‘zbek kinosining shakllanishi jahon kino jarayonidan ortda qolmaganini ko‘rsatadi. Uning nomi o‘zbek foto va kino san’ati tarixiga oltin harflar bilan bitilgan. Bugungi kunda Urganchdagi kinoteatr va Xivadagi ko‘chalardan biri uning nomi bilan ataladi.

Xulosa: Xudoybergan Devonov o‘zbek milliy kinematografiyasi va fotografiyasining asoschisi sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. U XX asr boshlaridagi Xorazm hayotini tasviriy hujjat sifatida muhrlab qoldirdi. Uning ijodi nafaqat san’at, balki tarix fani uchun ham bebaho manba hisoblanadi. Devonov merosi milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy taraqqiyot

jarayonini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning hayoti esa ijodiy jasorat va fido-yilik namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. -365 B.

2.Xorazm tarixi va madaniyatiga oid ilmiy to‘plamlar.-Xorazm. -437B

3.O‘zbekiston Respublikasi Kinofoto hujjatlari Markaziy davlat arxivi materiallari. -Toshkent. -378 B.

4. “Uzbekistanskaya pravda” va “Inqilob quyoshi” gazetalarining arxiv sonlari.

5. Arboblar.uz internet nashri

6. Qomus.info internet nashri

7.O‘zbekiston kinematografiyasi tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. -Toshkent. -274 B.

ZIYOVUDDIN BOBOQURBON FAOLIYATINING IJTIMOIY-MA’RIFIY TAHLILI

O‘sarov Husniddin Do‘smamatovich,

Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida diniy-ma’rifiy faoliyat olib borayotgan shaxslarning ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimiga ta’siri ortib bormoqda. Ana shunday shaxslardan biri — Ziyovuddin Boboqurbon bo‘lib, u o‘zining chiqishlari, suhbatlari va jamoatchilik muhokamalaridagi ishtiroki orqali ma’naviy-ma’rifiy masalalarga e’tibor qaratib kelmoqda. Ushbu maqolada uning faoliyati ijtimoiy-kommunikativ va ma’naviy-ma’rifiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Milliy Arxivi fondlarida yer yuzining o‘nlab mamlakatlarida istiqomat qilayotgan muhojir o‘zbek (turkistonlik) lar orasidan Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, bir qator matbaachi, jurnalist, muxbir ziyolilar yetishib chiqqanligi haqida ma’lumot berilib, ular qatorida Zuyovuddin Boboqurbon, Nuriddin Pokyurak, Yoqub Turon, Muhammad Amin Islomiy, A’zam Hoshimiy, Temur xo‘ja Usmon xo‘ja o‘g‘li, Dildora Muzaffariy, Abdulla Chig‘atoy kabilar ism-shariflari alohida qayd etilgan.[1] Ushbu shaxslar muhojirlikka mahkum etilgan o‘zbeklarning farzandlari va asosan xorijda tavallud topishgan.

Chet elda taniqli o‘zbek jurnalisti sifatida tanilgan o‘zbek millati vakillaridan biri Ziyovuddin Boboqurbon edi. U 1931-yilda Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon shahrida tavallud topgan, “quloqlashtirish” (1928-1930-yillar) va “jamoalashtirish” (1929-1933-yillar) siyosati avj oldirilgan talato‘plar zamonida bolaligidayoq oilasi va qavm-qarindoshlari bilan muhojirlikka ketgan. Ziyovuddin Boboqurbon oilasi taqdir taqozasi bilan Sharqiy Turkiston (Xitoyning Shing-Jong muxtor rayoni), Hindiston va Pokistonda bir davlatdan ikkinchi bir davlatga ko‘chib yashashga majbur bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi arafasida oila Turkiyaga ko‘chib o‘tdi va

Istanbulda qo‘nim topdi. Ziyovuddin Boboqurbon Turkiyada boshlang‘ich maktabda va litseyda ta’lim oldi. Istanbul universiteti jurnalistika ixtisosligidan ta’lim olib, turkistonliklarni birlashtirish, ular jamiyatini tuzish ishlarida faol ishtirok etdi. 1954-yilda Istanbulda Ahmad Nayim Nusratillobek O‘qoy (1900-1984) tashkil etgan “Turkistonliklar jamiyati” (“Türkistanlilar kültuv ve sosiyal varden dernegi) ni faollari va ta’sischilaridan biri bo‘ldi. 1962-1967-yillarda mazkur jamiyatning boshqoni (prezidenti) sifatida faoliyat yuritdi. Arxiv manbasi ma’lumotiga, uning matbuotchilik faoliyati aynan shu yillarda boshlanib, Istanbulda “Üeni Türkistan” (“Yangi Turkiston”) jurnaliga asos soldi. Biroq moddiy imkoniyatlar chegaralanganligini, turk hukumatining siyosati tufayli jurnal muntazam chiqmay qoldi.[2]

Zuyovuddin Boboqurbonning matbuotchilik faoliyatida “Hur Turkiston uchun. Istiqlochi gazeta” da muharrir bo‘gan yillar muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu gazeta 1975-1977-yillarda Turkiyaning qadimiy poytaxti va bosh shahri Istanbulda bosilib, 5 ming nusxada haftalik matbuot organi edi. Turkiya turkchasida lotin imlosida bosilgan “Hur Turkiston uchun. Istiqlochi gazeta” gazetxonlar orasida keng tarqalib, xorijning o‘nlab mamlakatlaridagi o‘zbek (turkistonlik)lar uchun ahamiyatli bo‘ldi. Gazetaning o‘nlab sonlarida Turkiston tarixi, iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy jarayonlariga oid ma’naviy ahamiyatga molik maqola va xabarlar bosilgan. Gazetaningasosiy maqolalarini muhojir o‘zbeklar yozishgan.[3]

Ziyovuddin Boboqurbon bir paytning o‘zida shoir ham bo‘lib, u “Turkistonlik Jomboy” taxallusi bilan she’rlar ijod etgan. Uning she’rlarida Vatan sog‘inchi, Turkistonning betakror tabiati, ajdodlar Vataniga cheksiz mehr-muhabbat, ozodlik va hurlik g‘oyalari tarannum etilgan.

Ziyovuddin Boboqurbon Myunxen (Germaniya) da joylashgan “Ozodlik” radiosida bir necha yillar o‘zbekcha eshittirishlar muxbiri bo‘lib faoliyat yuritdi.U xizmat yuzasidan 15 dan ortiq xorijiy davlatlarda jurnalist sifatida xizmat safarlarida bo‘ldi. Ziyovuddin Boboqurbon xorijda “Turkistonlik Jomboy” taxallusi bilan tanilib, uning maqola va she’rlari Turkiyada dunyo yuzini ko‘rgan. “Havadis”, “Milliyet”, “To‘prak” gazetalarida ham bosilgan.[4]

Mustaqillik yillarida Ziyovuddin Boboqurbon ajdodlari Vatani O‘zbekistonda bir necha bor mehmon bo‘ldi. 1992-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasida unga xizmatlari uchun Cho‘lpon mukofoti berildi.

2011-yilda 80 yoshida Ziyovuddin Boboqurbon (1931-2011) Turkiyaning Istanbul shahrida vafot etdi. Ushbu insonning xorijdagi o‘zbek matbuotchilik tarixida o‘z o‘rni va mavqei borligi isbot talab qilmaydi.

Ziyovuddin Boboqurbonning chiqishlari asosan quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Axloqiy qadriyatlar targ‘iboti. U o‘z nutqlarida halollik, mas’uliyat, oila muqaddasligi va jamiyat oldidagi burch kabi tushunchalarni markaziy o‘ringa qo‘yadi. Bu jihat uning faoliyatini normativ-axloqiy diskurs doirasiga kiritish imkonini beradi.

2. Yoshlar tarbiyasi masalasi. U yosh avlodni turli zararli oqimlar va noto‘g‘ri talqinlardan asrash, ularni mustaqil fikrlashga va an’anaviy qadriyatlarga

hurmat ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa uning faoliyatini ijtimoiy profilaktika mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi.

3. Diniy bilim va uning talqini. Boboqurbon diniy bilimni ishonchli manbalardan olish, diniy savodxonlikni oshirish va noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Bu yondashuv diniy ongni tizimli ravishda shakllantirishga qaratilgan kommunikativ strategiya sifatida baholanishi mumkin.

Ziyovuddin Boboqurbonning nutq uslubi sodda, ommabop va hissiy-ekspressiv elementlarga boy. Bu esa keng auditoriyani jalb qilish va murakkab mavzularni tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali faoliyat yuritishi uning auditoriyasini geografik va ijtimoiy jihatdan kengaytirgan.

Kommunikatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, uning chiqishlari interaktivlik va tezkor fikr almashish imkonini beruvchi media makonida shakllanadi. Bu esa jamoatchilik fikrining tezkor shakllanishiga va muhokama madaniyatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ziyovuddin Boboqurbon faoliyati jamiyatda turlicha baholanadi. Ba’zi qatlamlar uning chiqishlarini ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot sifatida ijobiy qabul qilsa, boshqalar ayrim fikr va yondashuvlarini tanqidiy tahlil qiladi. Mazkur holat ijtimoiy fikrning plyuralistik xususiyatini ko‘rsatadi hamda uning shaxsiy brendi jamoatchilik diskursida faol muhokama obyekti ekanini tasdiqlaydi.

Ziyovuddin Boboqurbon zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida faol ishtirok etayotgan shaxslardan biri sifatida diniy-ma’rifiy va axloqiy masalalar yuzasidan o‘z pozitsiyasini muntazam ravishda bildirib kelmoqda. Uning faoliyati ijtimoiy kommunikatsiya, diniy ong shakllanishi va yoshlar tarbiyasi jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan, u olib borayotgan faoliyatni zamonaviy media makonidagi diniy-ma’rifiy diskursning bir ko‘rinishi sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1.O‘zbekiston Milliy Arxivi (O‘zMA), P-2822-fond, 1-ro‘yxat, 90-yig‘ma jild, 69, 70-varaqlar.

2.O‘zMA, P-2822-fond, 1-ro‘yxat, 88-yig‘ma jild, 15-varaq.

3.Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun.-Toshkent: Cho‘lpon; 1994.-112-bet.

4.Mavlon Shukurzoda. Taniqli o‘zbek jurnalisti Ziyovuddin Boboqurbon vafot etdi. // Vatandosh (AQSH) 2011-yil, 18-may.-№4.-B.6.

JADIDLAR PEDAGOGIK QARASHLARIDA DEONTOLOGIK QADRIYATLAR VA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYALASH

Maxmudova Zebiniso Maksud qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

XX asr boshlarida Turkiston hududida amalga oshirilgan Jadid harakati shaxsiy va jamiyat taraqqiyotini uyg‘unlashtirishga intilgan. Ularning pedagogik merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirib, yangi ma’naviy makon yaratishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa raqamli ta’limning kengayishi va onlayn o‘quv jarayonlarining ortishi bilan, o‘qituvchilarning nafaqat bilim berish, balki axloqiy va deontologik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Abdulla Avloniy o‘z asarlarida shunday yozadi: “Talaba ilm bilan birga axloqni o‘rganishi kerak, chunki ilm axloqsiz bo‘lsa, insonning yuragi befoyda bo‘ladi” [1]. Avloniy bu fikri bilan shuni ta’kidlaydiki, bilimning o‘zi yetarli emas; u axloqiy asos bilan birlashtirilmasa, insonning shaxsiy va jamiyat uchun foydasi kamayadi. Ya’ni, talaba faqat bilim olmasdan, axloqiy qadriyatlarni ham egallashi zarur. Bu fikr bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ham dolzarb: ular nafaqat fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi, balki talabalarga axloqiy me’yorlarni singdirish orqali ijtimoiy va ma’naviy jihatdan yetuk shaxslar yetishtirishi lozim. Pedagogik jarayonda ilm va axloq bir-birini to‘ldirishi kerak. Raqamli ta’lim muhitida ham bu prinsip o‘zgarmaydi: o‘qituvchi talabalarga bilim berish bilan birga, halollik, adolat va fidoyilik kabi deontologik qadriyatlarni ham shakllantirishi zarur. Shu orqali nafaqat bilimli, balki axloqiy yetuk avlod tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, Ahmadjon Xojayev “Ilm va axloq” asarida ta’kidlaydi: “O‘qituvchi avvalo o‘zining halolligi bilan talabalarga namuna bo‘lishi, har bir so‘z va dars unga to‘g‘ri kelishi lozim” [2]. O‘qituvchining shaxsiy axloqi va halolligi uning pedagogik samaradorligini belgilaydi. Talaba uchun eng kuchli ta’lim - bu o‘qituvchining o‘z hayoti va darslari orqali namuna bo‘lishidir. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining bilim berish jarayoni bilan birga, axloqiy namuna ko‘rsatishi ham bir xil darajada muhim.

Raqamli ta’lim muhitida ham bu prinsip o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi: onlayn darslar, virtual bahslar va elektron resurslar orqali talabalarga nafaqat bilim, balki axloqiy me’yorlarni singdirish mumkin. O‘qituvchi har bir darsda halollik, adolat va fidoyilik kabi qadriyatlarni namuna qilib ko‘rsatishi lozim.

Avloniyning “Birinchi muallim” asarida esa pedagogning shaxsiy axloqiy namunasining talabalarga ta’siri qayd etilgan: “O‘qituvchi — faqat bilim beruvchidir emas, balki axloq me’yorlarini talabalarga singdiruvchi eng birinchi namunadir” [3]. Avloniyning fikricha, o‘qituvchi nafaqat fan bo‘yicha bilim beruvchi, balki talabalarga axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi shaxs sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Talaba o‘qituvchining shaxsiy namunasini kuzatadi va shu orqali axloqiy me’yorlarni o‘rganadi. Ta’lim jarayonida shaxsiy axloqiy namuna — talabalarning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. O‘qituvchi faqat ma’lumot bermasdan, o‘z harakati va so‘zlari bilan talabalarga axloqiy me’yorlarni singdirishi zarur. Shu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan iqtiboslar orqali Jadidlarning deontologik tamoyillari aniq ifodalanadi va ularni zamonaviy raqamli ta’lim muhitida amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati ko‘rsatiladi. Shu kontekstdan kelib chiqqanda, bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat talabalarga axloqiy me’yorlarni — halollik, adolat, fidoyilik

kabi qadriyatlarni singdirishi, balki axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan etik va mas’uliyatli foydalanish qoidalarini ham yetkazishi zarur. Bu esa pedagogning professional va deontologik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Jadid pedagogik g‘oyalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi va axloqiy mas’uliyatni targ‘ib qilishi pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Bu iqtiboslar orqali dolzarblik yanada kuchayadi: global raqamli muhitda axborot resurslarining tezligi va ko‘pligi, talabalarning ma’lumotlarni noto‘g‘ri qabul qilish xavfi pedagoglarni axloqiy mas’uliyatga undaydi. Shu sababli, Jadidlar pedagogik merosidagi deontologik tamoyillarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional va axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Dolzarblik shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali raqamli ta’lim muhitida ma’rifatli, mas’uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk avlod pedagoglarini tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, maqola mavzusi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi pedagogik amaliyot va kelajakdagi ta’lim tizimi uchun ham dolzarbdir.

Jadid pedagoglari o‘qituvchining axloqiy va deontologik mas’uliyatini alohida ta’kidlagan. Masalan, Ahmadjon Xojayevning “Ilm va axloq” asarida aytiladi: “O‘qituvchi avvalo o‘zining halolligi bilan talabalarga namuna bo‘lishi, har bir so‘z va dars unga to‘g‘ri kelishi lozim” [1]. pedagogning shaxsiy axloqi uning eng kuchli pedagogik quroli hisoblanadi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki talabalarga axloqiy me’yorlarni singdiruvchi namuna sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchining har bir harakati va so‘zi talabaning xulqini shakllantirishda ta’sirga ega. Pedagogning shaxsiy axloqi va deontologik mas’uliyati - o‘qituvchining samarali ishlashi va bo‘lajak avlodni axloqiy yetuk tarbiyalashida asosiy omil hisoblanadi. Talaba o‘qituvchining axloqiy namunasini kuzatib, uni hayotga tatbiq etishni o‘rganadi. Shu bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin yaratiladi.

Yana bir jadid marifatparvarlaridan biri Munavvar Qori esa “Ta’lim va tarbiya” asarida shunday yozadi:“Adolat va fidoyilik har bir o‘qituvchining yuragida bo‘lishi kerak; shunda talaba bilim bilan birga yaxshilikni ham o‘rganadi” [2]. Munavvar Qori bu fikrida pedagogning shaxsiy axloqiy fazilatlarini — adolat va fidoyilikni — ta’kidlaydi. Pedagog faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki o‘qituvchining yuragi va xulqi orqali talabalarga axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi shaxs ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa, talaba nafaqat fan sohasida bilim oladi, balki yaxshilik va ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘rganadi.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida bu prinsip ayniqsa dolzarb: o‘qituvchi onlayn darslar va elektron resurslar orqali halollik, adolat va fidoyilikni namuna qilib ko‘rsatishi mumkin. Shu yo‘l bilan talabalarda deontologik va axloqiy kompetensiyalar shakllanadi va ular nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Bu iqtiboslar Jadidlarning deontologik tamoyillarini aniq ko‘rsatib beradi va ularni zamonaviy raqamli ta’lim kontekstida tatbiq etish imkonini beradi.

1-jadval

Jadidlar deontologik tamoyillari Mazmuni Raqamli ta’limda tatbiqi

Halollik Bilim va tarbiyada rostgo‘ylik Talabalarga manbalarni adolatli baholash, plagiarizmga qarshi kurash

Adolat Talabalarni teng ko‘rish Onlayn bahs va loyiha ishlarda teng imkoniyat yaratish

Fidoyilik Jamiyat va milliy taraqqiyotga xizmat qilish Raqamli platformalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish

Mas’uliyat O‘qituvchining faoliyati natijasi uchun javobgarlik

Talabalar ma’lumotlarini xavfsiz va etik tarzda boshqarish

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning professional va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi pedagogik jarayonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini samarali va mas’uliyatli qo‘llashni o‘rganishi, balki talabalarga insonparvar pedagogik yondashuvni tatbiq etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yetkazish va onlayn bahs-munozaralarda axloqiy tamoyillarni amaliy qo‘llashni ham bilishi zarur. Shu ma’noda, bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalari va deontologik tayyorgarligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning shaxsiy axloqi talabalarning bilim va xulqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Jadidlarning deontologik qadriyatlarini raqamli ta’lim muhitiga tatbiq qilishning amaliy usullari ham ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, interaktiv mashqlar orqali talabalar axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi: onlayn debatlar yoki vaziyatli topshiriqlar orqali halollik, adolat va fidoyilik tamoyillarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, elektron darsliklar va o‘quv platformalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirish orqali talabalarga murakkab muammolarni axloqiy va ma’naviy nuqtai nazardan hal qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Shuningdek, axborot xavfsizligi va raqamli etikani integratsiya qilish bo‘yicha o‘qituvchilar talabalarga ma’lumotlarni mas’uliyat bilan boshqarish va axloqiy standartlarga amal qilishni o‘rgatadi. Bu jarayon orqali talabalarda nafaqat texnologik bilimlar, balki axloqiy qaror qabul qilish va mas’uliyatni his qilish qobiliyati ham rivojlanadi.

Shu yondashuv orqali bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat bilimli va raqamli kompetent, balki axloqiy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Jadidlarning deontologik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilgan pedagogik amaliyot milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi, ma’rifatli va mas’uliyatli jamiyatni yaratishda yangi avlod pedagoglarining tayyorlanishiga asos bo‘ladi. Natijada, raqamli ta’lim muhitida ham axloqiy me’yorlar va professional etik prinsiplar talabalarning rivojlanishida asosiy o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilar raqamli vositalardan foydalanishda nafaqat texnik jihatdan bilimli bo‘lishlari, balki har bir amaliyot va qarorlarida axloqiy va deontologik mas’uliyatni asos qilib olishlari lozim. Onlayn darslar, elektron resurslar va virtual bahs-munozaralar orqali talabalarga bilim berish jarayonida axloqiy me’yorlar, halollik, adolat va fidoyilik kabi qadriyatlarni amalda qo‘llash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, pedagoglar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni raqamli materiallar orqali targ‘ib qilish bilan birga, talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va insonparvarlik ruhini shakllantiradi. Bu esa nafaqat individual, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Shu tarzda, raqamli ta’lim muhitida axloqiy va pedagogik qadriyatlarni uyg‘unlashtirish bo‘lajak pedagoglarning deontologik kompetensiyasini mustahkamlash, ularni bilimli, mas’uliyatli va axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada, Jadidlarning deontologik tamoyillari zamonaviy pedagogik amaliyotda nafaqat nazariy asos, balki amaliy vosita sifatida ishlatiladi va yangi avlod pedagoglarining ilmiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barqaror shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Jadid pedagoglari merosi bo‘lajak o‘qituvchilarning professional va axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy, Ahmadjon Xojayev va Munavvar Qori asarlarida ta’kidlanganidek, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarga axloqiy me’yorlarni singdiruvchi shaxs sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Ularning fikrlariga ko‘ra, halollik, adolat, fidoyilik va mas’uliyat kabi qadriyatlar pedagogning shaxsiy namunasida aks etishi zarur, shunda talaba nafaqat fan bilimini, balki yaxshilik va insonparvarlik tamoyillarini ham o‘zlashtiradi.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida bu prinsiplar ayniqsa dolzarbdir. Interaktiv mashqlar, elektron darsliklar va onlayn bahs-munozaralar orqali talabalarga axloqiy qaror qabul qilish, etik va mas’uliyatli axborot foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyasini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish va ma’rifatli, mas’uliyatli jamiyatni yaratishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, Jadidlarning deontologik tamoyillari va ularning pedagogik merosi zamonaviy raqamli ta’lim kontekstida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi va bo‘lajak pedagoglarni nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1909. (erus.uz)
2. Ahmadjon Xojayev. Ilm va axloq. Toshkent, 2005.
3. Avloniy, A. Birinchi muallim. 1912. (inlibrary.uz)
4. Qlicheva, G. Ch. Jadid pedagogikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi (hozirgi ta’lim jarayoniga singdirish mexanizmlari). https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/15766?utm_source=chatgpt.com
5. PEDAGOGICAL ASPECTS OF NATIONAL UPBRINGING IN THE EDUCATIONAL ACTIVITIES OF THE JADIDS https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/1012?utm_source=chatgpt.com
6. PEDAGOGICAL PHILOSOPHICAL VIEWS OF JADIDISM AND THEIR ROLE IN NATIONAL REVIVAL. https://econfseries.com/index.php/2/article/view/2821?utm_source=chatgpt.com

7. SADRIDDIN AYNIY'S PEDAGOGICAL IDEAS AND THEIR APPLICATION IN MODERN EDUCATION. https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/5152?utm_source=chatgpt.com
8. FORMS OF TEACHING EDUCATIONAL VALUES FROM JADID LITERATURE IN THE MODERN INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT. https://zenodo.org/records/15460909?utm_source=chatgpt.com
9. JADID MA'RIFATPARVARLARINING MAKTABLARDAGI O'QITISHGA OID QARASHLARI. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/448?utm_source=chatgpt.com.

HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TARKIBIY ELEMENTLARI

O'razov Bobir Baxtiyorovich

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Ergashev Nurali

BuxDPI 1-bosqich magistranti

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi dastlab Daniel Bell tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u postindustrial jamiyatda bilim va axborot asosiy ishlab chiqarish resursiga aylanishini asoslab bergan. Keyinchalik Alvin Toffler "Uchinchi to'lqin" konsepsiyasida sivilizatsion transformatsiya jarayonlarini tahlil qilgan. Manuel Castells esa tarmoq jamiyati nazariyasi orqali global axborot makonining ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga ta'sirini asoslab bergan.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida huquqiy munosabatlar raqamli platformalar, elektron hukumat, sun'iy intellekt tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. United Nations hamda OECD hujjatlarida raqamli boshqaruv va huquqiy ochiqlik demokratik jamiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli transformatsiya siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron hukumat tizimi, milliy huquqiy ma'lumotlar bazasi – Lex.uz, interaktiv davlat xizmatlari portali – my.gov.uz faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, axborot oqimining keskin ortishi, raqamli manipulyatsiya, feyk axborot, kiberhuquqbuzarlik kabi omillar huquqiy madaniyatni yangi bosqichda shakllantirishni talab qilmoqda. Demak, an'anaviy huquqiy targ'ibot mexanizmlari zamonaviy raqamli muhit talablariga to'liq javob bermayapti.

Amerikalik huquqshunos olim Lourens Fridman huquqiy madaniyatni huquqiy tizimning “dvigateli” deb ataydi. Uning fikricha, huquqiy tizimning statik elementlari (qonunlar) faqatgina madaniyat ta’siridagina harakatga keladi. “Huquqiy madaniyat — bu ijtimoiy kuchlarning huquqqa bo‘lgan munosabati, uning qanday shakllanishi va qanday qo‘llanilishini belgilaydigan qadriyatlar va g‘oyalar yig‘indisidir”[167].

Huquqiy madaniyat tushunchasi orqali olimlar, nega bir xil qonuniy normalar turli mamlakatlarda mutlaqo boshqacha amaliy natijalarga olib kelishini tushunishga harakat qiladilar. Masalan, shartnoma erkinligi printsipi nominal jihatdan ko‘pgina G‘arb mamlakatlarining qonunlarida mustahkamlangan. Biroq, AQShda u juda keng talqin etilib, ishbilarmonlik riski va individual mas’uliyat madaniyati bilan qo‘llanilsa, ba’zi Yevropa davlatlarida u ishchilarni himoya qilish yoki umumiy farovonlik kabi qadriyatlar bilan muvozanatlashadi. Demak, yozma qoida bir xil bo‘lsa-da, uni o‘rab turgan madaniy qadriyatlar tizimi uning haqiqiy ishlash mexanizmini belgilaydi.

Tizimli yondashuvning yana bir muhim jihati – huquqiy tizimning turli elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishdir. Bunga nafaqat qonun chiqaruvchi hokimiyatning normativ hujjatlari, balki sudlar, prokuratura, advokatura, huquqni qo‘llash organlari, shuningdek, huquqiy ta’lim va ommaviy axborot vositalarining roli ham kiradi. Bu barcha institutlar va amaliyotlar birgalikda, ba’zan bir-birini to‘ldirib, ba’zan esa ziddiyat holatlarida ham, ma’lum bir jamiyatning huquqiy hayotini shakllantiradi. Huquqiy tizim faqat uning rasmiy qismiga emas, balki bu qismning ijtimoiy muhitda qanday ishlashiga qarab baholanadi.

Shunday qilib, G‘arb huquqshunosligidagi tizimli yondashuv statik qonun to‘plamiga e’tibor qaratishdan ko‘ra, dinamik jarayon – huquqning doimiy ravishda ijtimoiy ehtiyojlar, qadriyatlar o‘zgarishi va kuchlar kurashi ta’sirida qayta shakllanishiga urg‘u beradi. Huquqiy o‘zgarishlar ko‘pincha rasmiy islohotlardan oldin, madaniyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, ekologik huquqning rivojlanishi avval ekologik ongning o‘sishi, atrof-muhitni saqlash yangi ijtimoiy qadriyatga aylanishi bilan bog‘liq edi, so‘ngra bu jarayon qonun hujjatlariga o‘z aksini topdi.

Britaniyalik sotsiolog Rodjer Kotterrell huquqiy madaniyatni huquqiy tartibning barqarorligini ta’minlovchi ma’naviy omil sifatida baholaydi. Olimning fikricha “Huquqiy madaniyat tushunchasi jamiyat a’zolarining huquqiy institutlarga bo‘lgan ishonchi va ularning qonun oldidagi mas’uliyatini o‘z ichiga oladi”[168].

O‘zbekistonlik huquqshunos olim H. Odilqoriyev huquqiy madaniyatni shaxs ma’naviyatining ajralmas qismi sifatida tahlil qiladi. Olimning ta’kidlashicha “Huquqiy madaniyat — bu huquqiy bilimlarning mukammalligi, qonunlarga ehtirom va ularni hayotga tatbiq etishdagi faollik darajasidir”[169].

[167] Friedman L. The Legal System: A Social Science Perspective. – New York: Russell Sage Foundation, 1975. – P. 193-195.
[168] Cotterrell R. The Sociology of Law: An Introduction. – London: Oxford University Press, 1992. – P. 188-190.
[169] Odilqoriyev H.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: "Adolat", 2018. – B. 412-414.

Rossiyalik nazariyotchi olim N. Matuzov huquqiy madaniyatning strukturasini to‘rtta asosiy blokga ajratadi:

- Huquqiy ong;
- Huquqiy munosabatlar;
- Qonuniylik va huquqiy tartib;
- Huquqiy faoliyat[170].

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida huquqiy madaniyat tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish maqsadga muvofiq: **Huquqiy madaniyat** — bu shaxs va jamiyatning huquqiy normalar, qadriyatlar va raqamli texnologiyalar uyg‘unligida shakllangan, qonun ustuvorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ongli faoliyati va huquqiy dunyoqarashi darajasidir”.

Bu ta’rif huquqiy madaniyatning statik emas, balki dinamik tabiatini, uning ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar bilan birga rivojlanuvchi jarayon ekanligini anglata oladi. Huquqiy normalar va qadriyatlar bilan raqamli texnologiyalarning uyg‘unligi zamonaviy davlat qurilishining ajralmas qismiga aylanib, fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishda yangiyangi vositalarni taqdim etmoqda. Bu o‘zaro ta’sir nafaqat huquqiy axborotlarning tez va qulay tarqalishini ta’minlaydi, balki huquqiy amaliyotning shaffofligi va ochiqligi darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shaxs darajasida huquqiy madaniyat, bir tomondan, har bir individning o‘z huquq va majburiyatlarini anglash darajasi, ikkinchi tomondan, qonun talablariga ixtiyoriy ravishda rioya qilishga tayyorligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu erda muhim omil – huquqiy dunyoqarashning shakllanishi bo‘lib, u shaxsning hayotidagi har qanday vaziyatni qonuniy asoslar va etik qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholash qobiliyatini belgilaydi. Huquqiy ong va huquqiy e’tiqod o‘rtasidagi muvozanat huquqqa bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Jamiyat darajasida huquqiy madaniyat qonun ustuvorligi printsipining amalda qanday faoliyat ko‘rsatayotganligi bilan o‘lchanadi. Bu nafaqat qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning faoliyati, balki sud tizimining ishonchliligi, shuningdek, fuqarolik jamiyatining huquqiy jarayonlarda faol ishtirok etish darajasini o‘z ichiga oladi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajasi jamiyatda adolat va qonuniylikni ta’minlovchi mexanizmlarning samarali ishlashiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarning bu jarayonga integratsiyasi huquqiy madaniyat tushunchasiga yangi o‘lchov qo‘shmoqda. Elektron hukumat xizmatlari, onlayn sud jarayonlari, ochiq ma’lumotlar platformalari huquqiy mulohaza yuritish va huquqdan foydalanish madaniyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Biroq, bu texnologik imkoniyatlar bilan birga raqamli huquqiy savodxonlik, shaxviylik ma’lumotlarini himoya qilish va raqamli bo‘linishning oldini olish kangi yangi mas’uliyatlar va qadriyatlar paydo bo‘lishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat – bu nafaqat jamiyatning huquqiy sog‘lomligi ko‘rsatkichi, balki uning barqaror rivojlanishining asosiy kafolatidir. U shaxsning ichki e’tiqodi va jamiyatning tashkiliy tamoyillari, an’anaviy huquqiy qadriyatlar va zamonaviy texnologik yechimlar uyg‘unligida shakllanadi va

[170][170] Matuzov N.I., Malko A.V. Teoriya gosudarstva i prava. – M.: Yurist, 2020. – S. 256-258.

takomillashadi. Qonun ustuvorligi asosida qurilgan bunday madaniyat inson qadr-qimmatini hurmat qiluvchi va uning huquqlarini samararo himoya qiluvchi demokratik jamiyatni barpo etishning eng ishonchli poydevoridir.

KORRUPSIYA FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY VA TARIXIY TALQINI

Ilmiy rahbar: O‘razov Bobir Baxtiyorovicb

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Obidov Mirjon

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha shakllarda namoyon bo‘lib kelgan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. U faqatgina huquqiy yoki iqtisodiy muammo sifatida emas, balki ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, hokimiyat va shaxs munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan falsafiy fenomen sifatida ham talqin etiladi. Shu bois korrupsiyani anglashda uning tarixiy ildizlari, ijtimoiy sabab-sharoitlari va axloqiy oqibatlarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Korrupsiya” tushunchasi lotincha *corrumpere* — “buzish”, “aynitarish”, “poraga og‘dirish” ma’nolarini anglatib, qadimgi Rim huquqida davlat lavozimlarini shaxsiy manfaat yo‘lida suiiste’mol qilish holatlarini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel “Siyosat” asarida davlat boshqaruvida axloqiy me’yorlarning buzilishi jamiyat inqiroziga olib kelishini ta’kidlab, mansabdor shaxslarning manfaatparastligi davlat tuzumining yemirilishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatadi[171]. Ushbu fikrlar zamonlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, bugungi kunda ham dolzarb mavzuni tashkil etadi. Muammoning ildizi insonlarning asl mohiyatida, uning ijtimoiy mavjudotida yotadi. Murakkab jamiyatlarda hokimiyatning biror-bir qo‘liga to‘planishi, ba’zan esa bu hokimiyatning suiste’mol qilinishi mumkinligi haqidagi xavotirlar Aristotel davridan beri mavjud.

Bugungi dunyoda ham korrupsiya, mansabdorlarning o‘zaro manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishi, shaxsiy boylik orttirishga intilishi davlat rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Bu illatlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ham putur yetkazadi. Axloqiy tamoyillardan chekinish, adolatsizlikka yo‘l qo‘yish jamiyatning turli qatlamlarida ishonchsizlik va norozilikni kuchaytiradi. Davlat xizmatchilari tomonidan qabul qilinayotgan har bir qaror, amalga oshirilayotgan har bir loyiha negizida davlat va xalq manfaati turmog‘i lozim. Aks holda, bu mansabdorlarning o‘zaro kelishuvlari natijasida katta loyihalarning qimmat narxlarda amalga oshirilishiga, yoxud turli imtiyozlarning nohaq tariqa berilishiga olib kelishi mumkin.

[171] Aristotle. Politics. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – Book V. – P. 131–135

Darhaqiqat, Aristotelning “Siyosat” asaridagi tahlillari, ayniqsa, davlat boshqaruvida axloqiy me’yorlarning muhimligini ta’kidlovchi qismlari, bizga hamisha to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi uslubiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qadimgi donishmandning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagani, har qanday jamiyat uchun ichki va tashqi xavf-xatarlarga qarshi kurashda asosiy tayanch bo‘la olishi shubhasizdir. Davlatning mustahkamligi va xalqning farovonligi faqat va faqat axloqiy tamoyillarga amal qilingan holdagina ta’minlanishi mumkin.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari asarlarida ham korrupsiyaga yaqin bo‘lgan hodisalar axloqiy tanqid ostiga olingan. Xususan, Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida adolat va halollik davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari ekanini qayd etib, mansabni shaxsiy manfaatga xizmat qildirish jamiyatni “nofazil shahar” holatiga olib kelishini ta’kidlaydi[172].

Ushbu fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Afsuski, ko‘pgina jamiyatlarda mansabdor shaxslarning o‘z vazifalarini adolat va halollik bilan bajarishi o‘rniga, shaxsiy manfaatlarini ko‘zlash holatlari uchrab turadi. Bunday holatlar, albatta, jamiyatning rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Adolatsizlik va korrupsiya avj olgan shahar yoki davlatning “nofozil” bo‘lib qolishi tabiiy.

Farobiyning ta’kidlashicha, fozil shaharda har bir insonning o‘z o‘rni bor va ular jamiyat farovonligi uchun hissa qo‘shadilar. Buning uchun esa, albatta, rahbarlarning adolatli bo‘lishi, xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yishi lozim. Mansabdor shaxslarning halolligi, odil sudlovning barqarorligi, qonun ustuvorligi – bularning barchasi fozil jamiyatning asosini tashkil etadi.

Agar jamiyatda aynan shunday holatlar hukmronlik qilsa, unda fuqarolar o‘zlarini xavfsiz va himoyalangan his etadilar. Iqtisodiy rivojlanish tezlashadi, ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi va butun jamiyat ravnaq topadi.

Yangi davr falsafasida korrupsiya muammosi davlat va huquq nazariyalari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Tomas Gobs va Jon Lok asarlarida hokimiyat vakolatlarining suiiste’mol qilinishi ijtimoiy shartnoma buzilishining ifodasi sifatida talqin etiladi. J. Lok fikricha, davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatni ustun qo‘yishi jamiyatda ishonch inqirozini keltirib chiqaradi[173].

Davlat xizmatchisi jamiyatning ko‘zgusidir. Uning har bir harakati, qarori va xulq-atvori nafaqat o‘zini, balki butun boshqaruv tizimini xalq oldida obro‘li yoki obro‘siz qilishi mumkin. Agar xizmatchi halol va pokiza bo‘lib, jamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘ysa, bu fuqarolarda davlat ishlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Aksincha, korrupsiya, poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish kabi illatlar jamiyatni ichdan yemiradi va insonlarda “hammasi bir-biriga pullik” degan fikrni shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir etadi.

Shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yish oqibatlari ko‘p qirralidir. Birinchidan, bu vijdonsizlik va axloqsizlikning yoyilishiga olib keladi. Ikkinchidan, tadbirkorlik va investitsiyalar uchun noqulay muhit yaratadi, chunki tadbirkorlar pora berishga majbur bo‘lib, o‘z bizneslarini rivojlantira olmaydilar. Uchinchidan, qonunlarning

[172] Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 78–82
[173] Locke J. Two Treatises of Government. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – P. 357–360

ijrosi susayadi va hamma o‘zicha ish ko‘radi. Bu esa jamiyatda tartibsizlik va anarxiyaga yo‘l ochishi mumkin. Shu sababli, davlat xizmatchilarining halolligi va pokizaligi nafaqat ularning shaxsiy mas’uliyati, balki butun jamiyatning farovonligi uchun zarur shart hisoblanadi. J. Lokning bu ta’kidlashi bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda korrupsiya institutsional zaiflik, axloqiy qadriyatlar inqirozi va huquqiy madaniyat yetishmovchiligining mahsuli sifatida izohlanadi. Nemis sotsiologi Maks Veber ratsional-burokratik boshqaruv konsepsiyasida korrupsiyani rasmiy qoidalar o‘rnini norasmiy munosabatlar egallashi natijasi sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, huquqiy-ratsional legitimlik zaiflashgan jamiyatda korrupsiyaviy xatti-harakatlar odatiy holga aylanadi[174].

Bu nazariy qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ko‘pgina mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, tizimli korrupsiya ommaviy tus olgan. Huquqiy tizimlarning zaifligi, mansabdor shaxslarning daxlsizligi, fuqarolik jamiyati institutlarining kuchsizligi va ommaviy axborot vositalarining erkin emasligi korrupsiyaga qarshi kurashni murakkablashtiradi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonunchilikni isloh qilish bilangina cheklanib qolmasdan, balki jamiyatning barcha qatlamlarida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishni ham o‘z ichiga olishi zarur.

Shunday qilib, falsafiy va ijtimoiy nazariyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya faqatgina huquqiy buzilish emas, balki ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va huquqiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Aynan shu jihat uni o‘quvchilar va talabalar ongida erta bosqichdanoq murosasiz munosabatni shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Bu jarayonning asosiy maqsadi yosh avlodda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish bo‘lib, bunda ta’lim tizimi markaziy o‘rin tutadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, masalan, Immanuil Kantning kategorik imperativi prinsipi korrupsiyani shaxsiy manfaat uchun umumiy qonunlarni buzish sifatida qoralaydi, chunki u axloqiy qoidalar umumiy qabul qilingan qonunlar sifatida ishlatilishi lozim[175]. Shu bilan birga, Aflotunning “Respublika” asarida tasvirlangan ideal davlat tuzumida adolat va fazilat korrupsiyaning antit ezasi sifatida ko‘rilgan bo‘lib, bu bugungi kunda ham ta’lim dasturlariga asos bo‘lishi mumkin.

JADIDCHILIK G‘OYALARIDA MA’RIFAT, TARAQQIYOT VA YANGI JAMIYAT MODELI

Qosimova Mehrinoz Shokir qizi,

Buxoro davlat universiteti magistranti

[174] Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978. – Vol. I. – P. 223–226

[175] Kant, I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. Trans. M. Gregor. Cambridge: Cambridge University Press, 1997, pp. 31–33.

Prezidentimiz alohida ta’kidlaganidek: «Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur». XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy vaziyat jiddiy bir vaziyatda millatning uyg‘oq qatlami ma’rifatparvar shaxslar – jadidlar tarix sahnasiga chiqdilar.Jadidchilik dastlab madaniy oqim sifatida faoliyat yuritgan. Bu tariqat vakillari taraqqiyot, turkiy tillarni rivojlantirish, bu tillarda adabiyotniboyitish, dunyoviy ilmlarni o‗rganish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, ayol va erkak tengligi uchun kurash olib borishga chaqirdilar. Keyinchalik jadidlar panturkizm g‗oyalarini targ‗ib qildilar. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Keyinchalik Toshkent, Farg‗ona, Buxoro, Samarqand va Xivada erkin fikrli, ilg‗or fikrli kishilarning ma‘lum guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma‘rifiy jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Eng muhimi jadidlar o’lkada mavjud bo’lgan madaniyatga yangi mazmun berishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ydilar. Shu maqsadda san’at, matbuot, maorif, adabiyot sohalarida islohot o’tkazish g’oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar avvalambor, maorif sohasida islohotlar o’tkazib xalq ommasining savodxonligi, bilimi, umumiy madaniy saviyasini oshirishga bel bog’ladilar. Natijada “Usuli jadid” maktablarini ochilishi ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisa bo’ldi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan 100 ga yaqin shunday maktablarda 100 mingdan ortiq bola tarbiya ko’rdi. Jadidlar maorifning diniy tizimiga ham o’zgartirishlar kiritishga intildilar. Diniy bilimlarni o’qitishga katta ahamiyat berilishi bilan birga dunyoviy fanlar: arifmetika, tarix, geografiya, tabiiyotdan berilgan saboqlar ham muhim o’rin tutadi[6: 99].

Talaba-yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda jadidlarning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko`rinishidir. Shuning uchun biz bu o`rinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlashni lozim topdik. Ma‘rifatning lug‘aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so‘zining ko‘pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma‘rifat atama sifatida - tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma‘rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma‘lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya‘ni ma'rifatning ma‘lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma‘lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika,

biologiya, meditsina va boshqalarning ham ma‘lum yo‘nalishlarini egallaydilar[5: 226].

Milliy istiqlolga erishib, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma’naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o‘zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning alohida o‘mi bor. Ozbek adabiyoti bunday asarlarga boydir. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she’rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darslik va o‘qish kitoblan ham xarakterli bo‘lib, yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo‘la oladi. Ayniqsa, uning ilk savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida e’tiborni tortadi. Shuni inobatga olib, bu asarlami jiddiy o‘qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani, g‘oyaviy to‘liqlikni kitoblardagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganib chiqish zarur Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi[7: 67].

Ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri Ibratning yangi maktablar ochish, o‘qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma’rifatli qilish ishlarida faol qatnashganini, o‘z she’rlarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etganini, xalqning ilmli, ma’rifatli bo‘lishi yo‘lida amalga oshirgan ishlarini esga olish kifoya. Mutaassiblik va nodonlik hukm surgan davr muhitida mana shunday ishlarni amalga oshira olishning o‘zi bo‘lmasdi. Buning uchun kishida millat uchun uradigan katta yurak bilan birga, vatanparvarlik, fidoyilik kabi xislatlar, fazilatlar bo‘lishi lozim edi. Shu sabab ham hech ikkilanmay aytish mumkinki, Ibrat domla singari bobolarimizning o‘sha davrda el-yurtimiz taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona xizmatlari chinakam ma’naviy jasorat edi.

O‘rni kelganda aytish lozimki, bugungi imkoniyatlar, ilm-ma’rifatga xayrixoh hukumat jadidlar zamonida bo‘lganida edi, Uchinchi Renessansga allaqachon erishgan bo‘lardik. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Zamona ilmu fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur», Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir», degan so‘zlari bugun ham millatni uyg‘otuvchi da’vatdek jaranglab turibdi. Jahon intellektual merosi taraqqiyoti tarixida jadid ma’rifatparvarligining ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy g‘oyalarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan o‘rganish yoshlar milliy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda, ularni axloqiy yuksaltirishda, turli xil yot g‘oyalardan saqlashda, ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir[3: 58].

Fitratning “Oila” nomli asarining ikkinchi bobi “Farzand tarbiyasi” deb atalgan bo‘lib, unda ota-onaning o‘z farzandlari oldidagi burchlari va vazifalari hamda bolaga qay yo‘sinda tarbiya berish borasida qimmatli maslahatlar berilgan. Bolani tarbiyalashda uni o‘sib-ulg‘ayishidan tortib, odob-axloqigacha, shuningdek, jismonan hamda ruhan sog‘lom ekanligiga ham e’tibor qaratish lozim. Shunday jihatlarni hisobga olgan holda, olimlar tarbiyani uch asosiy qsmga bo‘lib o‘rganishgan. Bular: badan tarbiya, aqliy tarbiyahamda axloqiy tarbiyadir. Ular bir-

birlariga shunchalik bog‘liq va yaqinki, biriga zarar yetsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo‘ladi. Aksincha, biriga foyda tegsa, boshqalari ham bundan manfaatlanadi. Kimki o‘z avlodining tarbiyasi ustida o‘ylayotgan bo‘lsa, farzandlarining jismi, aqli va axloqini bir darajada tarbiyalaydi. Intizom va tartibga rioya qiladi. Tarbiyaning har bir qismi tug‘ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zmmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxiriga qadar odamning o‘z boshiga tushadi[1: 65]. Abdulla Avloniyda shunday fikrlar aytib o‘tganki: “Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq sevadi. Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni sevganimiz kabi, arablar Arabistonlarini – qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarini – eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda sevadilar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tirikchilik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab, ko‘chib ketar edilar”[2: 96]. Xuddi shunday, harbiy xizmatchilar ham Vatanning issiq yoki sovuq hududi demay, har qanday joyda xizmat qilishga shay bo‘ladilar. Shu ma’noda harbiy xizmatchi sifatida jadidlarni ham xuddi biz kabi Vatan himoyachisi deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Behbudiy yoshlarni, xalqni savodli qilishga, ularga ta'lim berishga urinadi va shu yo‘lda bor umrini sarflaydi. Behbudiy yoshlarga murojaat qilib shunday deydi: "Muhtaram yoshlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib - taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamonicha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hozirdan maxrum qolub, sanoe va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. "Muborizao hayot" maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lur, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur. Ana ushbu yo‘llar ila oxiri mahv va nobud bo‘lib ketar."deydi[4: 103]. Bu bilan Behbudiy yoshlarga, atrofdagi birodarlarga maktab va maorif sohasini isloh qilishni, yoshlarga ta'lim tarbiya berish lozimligi haqida aytadi. Yoshlar bilimsiz bo‘lsa, maktab o‘z faoliyatini zamonasiga moslab isloh qilmasa, eski tizim bilan ish faoliyatinin davom ettirsa o‘quvchilar dunyoviy fanlardan bexabar qolishlarini takidlaydi. Yoshlar va kelajak avlod bu ta'lim va tarbiyadan mahrum bo‘lib o‘ssalar o‘z xalqi madaniyati va ma'rifadidan ajralishi, buning natijasida millat yoq'likka yuz tutishi mumkinligini aytadi. Ta'lim-tarbiyani yangticha usulda olib borilmasa yoshlar onggi eski aqidalar, va eskicha fikrish ostida qolib ketadi. buning natijasida yoshlar o‘z dini haqidagi bilimlarni, iqtisodiy va xo‘jalik ishlarida boshqalarga qaram bo‘lib, ularsiz ish qilolmaslar deydi.

Xulosa qilib aytganda, Jadidlar konsepsiyasida ma’rifat shaxs kamolotining bosh mezoni, taraqqiyot esa milliy o‘zlikni saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilindi. Ular taklif etgan yangi jamiyat modeli erkin fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli, huquqiy ongga ega va zamonaviy bilimlar bilan qurollangan fuqarolar jamiyatini nazarda tutadi. Bu modelda ta’lim tizimi, matbuot, teatr va madaniy-ma’rifiy faoliyat ijtimoiy islohotlarning strategik vositasi sifatida qaraladi.Shu jihatdan, jadidchilik g‘oyalari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy meros, balki bugungi kunda ham milliy taraqqiyot strategiyasini belgilashda, ma’rifatli jamiyat barpo etishda va yangi ma’naviy makon yaratishda nazariy-metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik konsepsiyasi zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim g‘oyaviy asos sifatida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul maharrir H. Boltaboyev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. 144 b.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 6et.

3. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola./ Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. -156 b.

4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 312 б.

5. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 464 б.

6. Мухамеджонова Л.П. Бухорода жадидчилик ҳаракати тарихидан. – Бухоро: Дурдона, 2019. – Б. 98-100.

7. Sharipav R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002. – B. 67.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY QARASHLARI VA TURKISTONDA MILLIY DAVLATCHILIK G‘OYALARINING SHAKLLANISHI

Raximov Umidjon Muratovich,

BuxDPI, Harbiy ta’lim fakulteti

maxsus tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy uyg‘onish jarayonini boshlab berdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ma’rifiy va siyosiy faoliyati bilan Turkiston taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shdi. U mustamlakachilik siyosati kuchaygan, milliy o‘zlik va davlatchilik an’analari zaiflashgan bir davrda xalqni ilm-ma’rifat, siyosiy ong va ijtimoiy faollikka chorlab, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi. Behbudiy qarashlarida ozodlik, taraqqiyot va zamonaviy boshqaruv tizimi barpo etish masalalari markaziy o‘rin egalladi.

Behbudiyning siyosiy qarashlari Turkistonda milliy davlatchilik g‘oyalarining shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. U millat ravnaqi uchun, avvalo, zamonaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, matbuotni rivojlantirish va jamiyatda siyosiy tafakkurni shakllantirish zarurligini ta’kidladi. Jadidchilik harakati doirasida ilgari surilgan islohotchilik, konstitutsiyaviy

boshqaruv va milliy muxtoriyat haqidagi fikrlar keyinchalik Turkiston hududida milliy davlatchilik konsepsiyasining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Shu bois Behbudiyning siyosiy merosi nafaqat ma’rifatparvarlik harakati, balki o‘zbek milliy davlatchiligi tarixini o‘rganishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik fenomeni Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida burilish bosqichini belgilab berdi. O‘rta Osiyo, Turkiya va Yevropadagi ilg‘or islohotlar oqimi ta’sirida o‘lkadagi taraqqiyparvar kuchlar mustamlaka Turkiston, Rossiyaga yarim qaram bo‘lgan Buxoro va Xiva xonliklaridagi inqirozli ahvol, bu o‘lkalarning umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirilishi sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada, balki diniy, ma’naviy sohada ham yuzaga kelgan turg‘unlikni chuqur anglab yetdilar va bu ular ongida jamiyatda isloh etish g‘oyalarini uyg‘otdiki, busiz taraqqiyotni tasavvur ham etib bo‘lmas edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixiy xotira va taraqqiyparvarlar xaqida gapirar ekan, –“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”,–deb ta’kidlagan edi[1]

Ma’rifatparvar Sidqiy Xondayliqiyning jadid namoyondalari xaqida bildirgan fikri diqqatga sazovor: – “Bulut kelg‘on birlan oftob nuri kamaymas va oftob ismi

yo‘qolmaski, hamon oftob oftobdur. Shunga o‘xshash haqiqatni ham qora bulutlari yashira olmaski, hamon haqiqat, haqiqatdur, oxir yuzag‘a chiqar”, deb yozgan edi.

O‘rta Osiyodagi bu islohotchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo‘llari haqidagi turli qarashlarning to‘qnashuv may-doni ham bo‘ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab yo‘lda shakllanib yetildi. Jadidlar o‘zlarining dasturlari, asarlari va faoliyatida kelajakdagi davlat tuzumi qanday bo‘lishi haqida ilg‘or fikrlar bildirganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan hisoblanib, uning milliy-davlatchilikka oid qarashlari o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or hisoblangan. O‘tmishga nazar tashlab, u jamiyatdagi barcha salbiy holatlarni milliy davlatchilikning yo‘qotilishi bilan bog‘laydi. Masalan Behbudiy fikricha, xonliklar 50 yil ilgari dunyodan ajralgan holda bo‘lib, dunyo erishgan yutuqlardan foydalana olmaganlar va bu milliy davlatchilikni yo‘qotilishi hamda mustamlakachilik asoratiga tushib qolishning sabablaridan biri bo‘ldi, bu esa Turkiston xalqlarini Yevropa qonunlari asosida yashashga majbur qildi. Lekin ular mazkur qonunlarni bilmaydilar. Huquqlarni bilish, ularni himoya qila olish uchun bilimga ega bo‘lish lozim. U yuqori ma’lumotli mutaxassislar, xususan, huquqshunoslar davlat dumasi, sudlar va Rossiya ma’muriyatining Turkistondagi rasmiy organlari orqali millatga foyda keltirishlari mumkin, degan fikrga keladi. Shu tariqa Behbudiy ham 1913 yildayoq shunday nazariyani ilgari suradi: Turkistonliklar

o‘rtasida ma’rifat va ta’limni rivojlantirish ularning o‘z milliy-davlat manfaatlarini himoya qilishlari uchun zarurdir.

Jadidlar konsepsiyasining tarkibiy qismini Turkistondagi barcha xalqlarni birlashtirish muammosi tashkil etgan. Jadidlar o‘zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etganlar. Bu haqda Behbudiy shunday deydi: «Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak.

Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o‘tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilshlari kerak. Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligimizdir!».

Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dasturlarini o‘rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan o‘zbek xalqining tinchliksevarlikka, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo‘li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida yon berishga erishishga intildilar. Ammo chorizm ma’muriyati Davlat Dumasida turkistonlik vakillar bo‘lishini man etgan. Bu, bir tomondan, o‘lka xalqining huquqlari va qadrqimmatini poymol qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning siyosiy ongining

o‘sishi Rossiya imperiyasi davlatchiligiga xavf tug‘dirar edi.

Jadidlar Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905–1906 yilgi Rossiyada inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z tasirini ko‘rsatdi. Progressiv kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar matrifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning ko‘plab vujudga kelishida ham ko‘rindi. Chunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid», 1907—1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuhrat», Ahmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» ro‘znomalari chop etildi3. Ma’rifatchilikning yangi to‘lqinida 1913–1915 yillarida «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» ro‘znomalari, «Oyna» oynomasi, 1917 yilda esa «Hurriyat», «Kengash», «Najot», «El bayrog‘i», «Ulug‘ Turkiston», «Turon» kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo‘ldi.

O‘shandayoq jadidlar, Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1906 yil 11 oktabrda «Xurshid» ro‘znomasida chop etilgan maqolasida o‘z aksini topgan xulosaga, ya’ni birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butun Rossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirish zarurligi haqidagi fikrga keldilar4. Shu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi progressiv kuchlarga tayanishga intildilar. Ushbu maqolasida Behbudiy sotsialdemokratlar partiyasiga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini bildiradi. U bu partiyaning dasturini musulmonlar hayoti normalariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopiya)dir, deb hisoblagan.

Rossiyada Fevral demokratik inqilobi arafasida, Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar

monarxiya uchun kurashgan bo‘lsalar, Fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o‘tkazish, o‘lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o‘rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta’minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kirardi.

Shu davrda jadidlar Rossiya federativ tuzumini va unda Turkistonning o‘rnini qanday tasavvur qilganlar? Ularning fikricha, har bir shahar va uezddan bir nechtadan vakil saylash kerak va Toshkentda Turkiston uchun yaroqli amaliy natija beradigan soliq qonunlari va farmonlar chiqara oladigan katga markaz va majlis (parlament ko‘zda tutilyapti) tashkil etish kerak. Bunday majlis Rossiya hukumati va musulmonlar o‘rtasida vositachi bo‘ladi. Bu Turkistonning farovonligiga xizmat qiluvchi Turkiston ma’muriyatini mustaxkamlaydi.

Biroq Behbudiy ta’kidlaganidek, haqqa erishish uchun qaysi millatga mansubligiga qaramay, barcha aholi ijtimoiy kurashga faol kirishishi kerak va rus aholisi bilan birlashib, har bir uezddan vakil saylangan «Turkiston musulmonlari sho‘rosi»ni tashkil etish lozim. Uning fikricha, Rossiya demokratik davlati doirasida muxtoriyat sifatida shakllanish va mustaqilikka borish yo‘lidagi birinchi shart – ichki qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishdir.

Behbudiy milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka boshqaruviga olib kelishini juda yaxshi tushungan. Agar «butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to‘kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo‘lmay qolur. Oni ham ravo topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila bad-baxtlikka duchor bo‘lurmiz».

Fevral demokratik inqilobi natijasida Rossiyada yangi davlat tuzumi o‘rnatilganligi davlat shaklida muxtoriyat oldiga umid bog‘lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, MILLIY siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «Sho‘roi Islomiya», «Itgifoq» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o‘z ortlaridan ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg‘otdilar.

Ammo jadidlar tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat ham, uning Turkistondagi Muvaqqat Qo‘mitasi ham o‘lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom etgirish yo‘lini tutmokda. Chunonchi, bu siyosat Tasis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat maqomini olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar.

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e’tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari – Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatiga taallukli bo‘lgan masalalar bo‘yicha qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o‘lka

hokimiyatining oliy organlari, boshqaruv va sud mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo‘lgan demokratik jamiyatni shakllantirish – ustuvor maqsad qilib belgilandi.

Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o‘z tasavvurlarini xayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o‘rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantarilgan Rossiya Ta’sis majlisini chaqirish bilan bog‘langanliklari ham diqqatga sazovor. O‘sha paytda, jadidlarning taraqqiyparvar namoyandalari «Sho‘roi Islomiya», konservativ qismi «Sho‘roi Ulamo» tashkilotlariga ajralib ketgan edilar. Ammo Ta’sis majlisida o‘rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki jadidchilik oqimining qo‘shilishiga va «Turk Adami Markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Biroq, Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular bolsheviklar hoki-miyatining «Millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi to‘g‘risida»gi deklarasiyasida ko‘rsatilgan huquqlaridan foydalanib «Turkiston Muxtoriyati» nomi bilan mustaqil muxtor respublika e’lon qildilar.

Jadidchiliklar birinchi bo‘lib milliy demokratik davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg‘onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi.

Agar jadidlar faoliyatining ma’rifatchilik bosqichida Turkiston xalqini birlashtirish fikri ma’naviy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1917 – 1918 yillarda u Turkiston Muxtoriyatining milliy manfaatlarini himoya qilishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qoldi. M. Behbudiy hech kim, hech qanday hokimiyat xalqqa o‘z ixtiyori bilan mustaqillik bermasligini ta’kidlagan. Tarixdan yaxshi ma’lumki, deb yozadi u, «Haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o‘zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm taqdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo‘q».

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Behbudiy va jadid ma’rifatparvarlari vatan va millat rivojini faqat dunyoviy jihatdan emas, faqat bir millat misolida emas, balki diniy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan o‘lmas g‘oyalar bilan ifodaladilar. Ularning g‘oyalari nafaqat o‘sha davr uchun, balki bugunda Yangi O‘zbekistonda yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan manbalar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. -
– B 288.
2. A’zamxo‘jaev S. S. Turkiston Muxtoriyati. Toshkent. Ma’naviyat, 2000. – B 21.
3. Behbudiy M. Bayoni haqiqat. // Ulug‘ Turkisgon. 1917. 12 iyun.
4. Behbudiy M. Xayr ul-umuri avsatuxo. //Xurshid. 1906.– 11 okt.
5. Behbudiy M. Haq olinur, berilmas. // Hurriyat. 1917. № 22. 13 iyul.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy
to‘plam, № 1, T., 1999. – B. 202.

JADIDLAR JASORATI MILLATIMIZ FAXRI

Sunnatilloyeva Tursunoy G‘olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[1.]. Zero, globallashuv davrida bugungi ta’limiy tarbiyaviy ustuvor vazifalarni bajarishda jadidlarning ilmiy merosi alohida ahamiyatga egadir.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan muslamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o‘ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o‘lkasi general-gubernatorlaridan biri A.N. Kuropatkinning o‘z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va svilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan so‘zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati ham chor

ma’muriyati to‘siqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta’sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg’onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o‘z xalqini ozod ko‘rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu uyg’onish Ovrupa ma’rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo‘ldi. Shuningdek, o‘rta asrlar o‘rtaga tashlagan ma’rifatparvarlik g’oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha-ma’rifatchilik tarzida namoyon bo‘lish imkoniyati yaratildi. Zero o‘sha g’oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma’rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi. XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o‘ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Turkistonda jadidchilik g’oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynadi. Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o‘zining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi. I. Gasprali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi. 1898-yilda To‘qmoqda (Qirg’iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotida o‘ta achinarli bir holat yuzaga kelgan edi. Bu davrda Turkiston xalqlari podsho Rosisiyasi tomonidan boshqarilar va ular o‘zlarining boshqaruv siyosatini joriy qilgan edilar. Ana shunday og‘ir bir sharoitda millatning erk va ozodligi uchun jadid deb ataluvchi milliy harakat rahnamolari milliy demokratik kuchlarning yetakchisi bo‘lib siyosat maydoniga chiqdilar. Bu davrni jadid adabiyotisiz ayricha tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday murakkab bir vaziyatda Turkistonda bo‘layotgan voqea hodisalar va ularning ruslar tomonidan etiborga olinmay kelinayotgan millatning erk va ozodligini milliy qadriyatlarini

matbuot til adabiyot va shu bilan birga bir qancha masalalarni jadidchilik harakati rahnamolari ta'limiy tarbiyaviy islohotlarni yoqlab chiqdilar.

Bashariyat tarixi shundan dalolat beradiki, har bir xalq faqat erkin va ozod bo'lgan taqdirdagina o'z hayoti va kelajagini mustahkam barpo etish huquqiga ega bo'ladi. "Haq berilmas olinur" deb millat ozodligi yo'lida jonini fido qilgan ulug' ajdodlarimizning buyuk maqsadi ham shu edi[2:39-40-B.] -deb ta'kidlaydi prezidentimiz o'z asarlarida. Turkistonda milliy demokratik davlat qurish yo'lida kurashgan jadidlar harakatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak unda boshqa sohalar bilan bir qatorda til matbuot masalasi ham yetakchi o'rinlarda turadi. Bu kabi masalalarni jadidchilik harakatining rahnamolaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Muavvar Qori va boshqalarning dramatik asar maqola va risolalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Jadidchilik harakatiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak unda matbuot va tilning o'z davrida achinarli holga tushib qolganligidan chuqur qayg'uradi va bu haqida Mahmudxo'ja Behbudiy "Ehtiyoji millat" maqolasida quyidagi fikrini bayon etadi "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda yudiniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur" [3:199-B.]. Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida o'tgan asrimizning 20-yillarida mahalliy matbuotda uning zamondoshlari tomonidan Behbudiyning bir qator maqola va xotiralari e'lon qilingan. 1926-yil sharqshunos Laziz Azizzoda "Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo'lg'usidir"[4;5-B], deb ta'kidlagan edi. Keyingi yilllarda, xususan, vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga e'tibor qiziqish kuchaydi va Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Biz Behbudiyni Turkistonda tez fursat ichida shakllanib rivojlanib kelayotgan Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi, yalovbardori, mustaqil jumhuriyat tashkil etish tarafdori, uning nazariyotchisi va amaliyotchisi shu bilan birga birinchi o'zbek dramaturgi, noshir, teatrchi, jurnalist va tarjimon sifatida qadrlaymiz. Jadidlar o'zlarining milliy matbuotlarini yaratish uchun astoyidil kurashadilar va 1906-yil 27-iyunda jadidlarning birinchi milliy gazetasi "Taraqqiy" gazetasi nomi ostida Ismoil Obidov muharrirligida bosilib chiqadi. Bu harakatning shakllanishida nafaqat Turkistondagi, balki butun dunyoda bo'layotgan voqea – hodisilar ijtimoiy – siyosiy oqimlarining rivojlanishi ularning dunyoqarashini milliy ozodlik g'oyalarini shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga ular millat dardi va uning orzu – umidlarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Jadidlarning sa'y – harakati bilan har bir viloyat va tumanlarda matbuot uyushmalari tuziladi va ularga muharrirlar tayinlandi. Bu davrda Turkiston xalqlari milliy ma'naviy mustamlaka istibdoddan qiynalayotgan bo'lishiga qaramasdan fan, adabiyot va matbuot to'xtab qolmadi. Buni biz XX asr boshlarida adabiyotning bir qancha janrlarini rivojlanishida ham ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Behbudiyning dramaturgiyaga, Fitratning publitsistika va zamonaviy adabiyotshunoslikka, Cho'lponning yangi she'riyatga, Abdulla Qodiriyni esa o'zbek milliy romanchiligiga asos solib, ularni rivojlantirganida ham yaqqol aks etgan. Bu

davrda millatning saodati va farog‘ati yo‘lida uning milliy davlat bo‘lib, shakllanmog’ida zamona ilmi va adabiyotidan xabardor bo‘lmog‘i lozim. “Tabiiyki har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun jahon ilm – fani yangiliklaridan, umuminsoniy g’oyalardan foydalanmog‘i shart. Bu fikr g‘oyalar millatning qalbi va ongidan o‘tmog‘i, “milliylashmog‘i” kerak. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi”[5;67-B.]. Ozodlik, tenglik, adolat shiori ostida o‘z milliy g’oyalarini yaratgan jadidlarning zamon talablariga javob bera olmay qolgan ilm – fanni isloh qilish orqali mamlakatni erk va ozodlikka chiqarish tarafdori edilar. Turkiston Muxtoriyatini bolsheviklar tomonidan qonga botirilishi jadidchilik harakati kuchlarini, orzu – umidlarini so‘ndira olamydi va aksincha uni qaytadan kuchayishiga zamin hozirladi. Buni biz ular tomonidan yaratilgan turli xil adabiyotlar bayon etilgan fikrlar orqali ham ko‘rishimiz mumkin.

Jadidlar ushbu stixiyali harakatga boshlanishidan qarshi bo‘ldilar, ular g‘alayonlarga yo‘l qo‘ymaslik, qurolsiz aholining qo‘lida zamonaviy qurol-yarog‘ bilan yuqori harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan mustamlakachi jazo qo‘shinlariga ro‘baro bo‘lmasligi uchun butun imkoniyatlarini ishga solib urindilar. Chunki ularning g‘oyasiga ko‘ra mavjud sharoitda jaholat, isyon yo‘li bilan millat o‘z maqsadlariga erisha olishi mumkin emas, faqat tinch islohotlar va ma’rifat bilan ijobiy natijalarni qo‘lga kiritish mumkin edi. Jadidlar dushmanning makkor o‘yinlarini chuqur tushunar edilar. Fitrat yozadi: “Zotan qurol kuchi bilan bir millatni yo‘q etmak qulay, bor etmak mumkin emasdir. Qurol kuchi bilan hech bir jamoatni madaniyat sari jo‘natib bo‘lmaydi” [6;46-B.].

Abdurauf Fitrat asrlar davomida o‘z mavqeiga ega bo‘lib kelgan turkiy tilning qarovsiz bir holga kelib qolganligini Mir Alisher Navoiy zamonidan keyin bunga e’tibor berilmaganligini, hattoki, uni ba’zi bir davrlarda chaqmoqdek yalt etib yonib, yana qaytadan o‘zining lisoniy botqog‘iga tushib qolishi va buning natijasida butun bir millatning toptalishi bilan birga uning tili ham o‘z lisoniy qolipidan chiqib borayotganini alohida ta’kidlab o‘tadi. “Dunyoning eng boy tili bo‘lgan turkchamiz yolg’iz arabcha qumruqlar (zabt etilish, iskanjaga olinish) bilan emas, forsi (y)cha tepkilari bilan dahiy ezilmishdir. Ko‘zlarimizni to‘rt ochib qarayliq dunyoning eng buyuk hakimi bo‘lg‘on Ibn Sino turkdir, ikkinchi Arastu atalg’on Farobiy turkdir... ” [7:126-B.] deb o‘z fikrini asosli misollar, dalillar orqali keltirib o‘tadi va shu bilan birga unga e’tiborsizlik qilishi ham achinarli holga olib kelishini ba’zi bir so‘zlarni esa o‘rinsiz hollarda qo‘llanilayotganligiga misollar keltiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, jadid bobolarimiz tomonidan olib borilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans madaniyatini ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishda, bilimli, ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda ibrat sifatida o‘rganishimiz muhimdir. Zero, ular tomonidan o‘lka uchun milliy mutaxassislarni tayyorlash, bu ehtiyojni zamonaviy maorif muassasalari orqali qondirish yoki ularni ta’lim olish uchun chetga yuborish, o‘quv muassasalarini tubdan isloh etish, ta’lim sohasida tabiiy fanlar chuqur o‘rgatilishi lozimlig millat tarbiyashchilari bo‘lgan xotin-qizlarni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga erishish uchun ko‘plab tillarni o‘rganish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni kengaytirish zaruriyati bosh mavzular qilib belgilab olingan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Qarang:https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o‘zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik 5-jild. T.: O‘zbekiston, 2023.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar. T.: Ma’nvaiyat, 1999.
4. Alimova D., Rashidova M. Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri T.: Akademiya nashriyoti, 1999.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish T.: Ma’naviyat, 2002.
6. Rizayev Sh. Jadid dramasi T.: Sharq, 1997.
7. Abdurauf Fitrat Tanlangan asarlar 4-jild T.: Ma’naviyat, 2006.

JADIDLAR QARASHLARIDA MA’RIFAT VA VATANPARVARLIKNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Ulug`bek Siddiqov

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkurida jadidchilik harakati muhim ma’rifiy-siyosiy fenomen sifatida shakllanib, milliy uyg‘onish, jamiyatni modernizatsiya qilish hamda ma’naviy islohot g‘oyalarini ilgari surdi. Mazkur harakat namoyandalari ta’limotida vatanparvarlik faqatgina an’anaviy hissiy sadoqat hamda tarixiy xotirani ulug‘lash bilan cheklanmagan. Ular vatanparvarlikni millatni ma’naviy uyg‘otish, jamiyatni isloh qilish, shuningdek zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishga qaratilgan faol ijtimoiy pozitsiya sifatida talqin qilganlar.

Jadid namoyandalari qarashlarida vatan tushunchasi, eng avvalo, xalqning ma’naviy salohiyati, madaniy merosi hamda kelajak taqdiri bilan bevosita bog‘liq kompleks ijtimoiy voqelik sifatida tadqiq qilinadi. Aynan shu ma’noda, vatanparvarlik jadidchilikda milliy o‘zlikni anglash, til, ta’lim va madaniyatni asrash orqali jamiyatni barqarorlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ongli harakat sifatida maydonga chiqadi.

Jadidchilik harakatining taniqli namoyandalaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida vatanparvarlik millatni ma’naviy va aqliy jihatdan uyg‘otishga qaratilgan ma’rifatparvarlik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilingan. Behbudiy ta’limotida vatanga muhabbat, eng avvalo, jamiyatni qoloqlik holatidan chiqaruvchi ongli islohotchilik pozitsiyasi sifatida ifodalanadi. U vatan taqdirini millatning bilim darajasi, ma’naviy salohiyati va ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog‘lab, vatanparvarlikni ma’rifat orqali amalga oshadigan ijtimoiy burch sifatida asoslaydi [8].

Jadidchilik harakatining otasi Behbudiy fikricha, jamiyat qoloqligining asosiy negizida iqtisodiy yoki siyosiy omillardan ko‘ra, johillik va ma’rifatsizlik yotadi. Shuning uchun ham u, eng avvalo, ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy

maktablarni bunyod etish, dunyoviy fanlar, shuningdek ilm-fan yutuqlarini keng tarqatishni vatan ravnaqining asosiy shartlaridan biri sifatida izohlaydi. Ma’rifatparvarning fikricha, ma’rifatsiz millat mustaqil taraqqiyotga erisha olmaydi, demak, ta’lim sohasidagi har qanday islohot vatanga xizmat qilishning eng samarali va uzoq muddatli shakli hisoblanadi [5].

Jadid ma’rifatparvari Behbudiy tomonidan XX asrning 1915-yillaridan boshlab Rossiya, Turkiya, Turkiston matbuotida 300 ga yaqin maqolasi, 13 ta darslik, badiiy va tarjima asarlari e’lon qilingan. Mazkur matbuot materiallarining asosiy negizini ta’lim-tarbiya, ma’rifatparvarlik va madaniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan maqolalar tashkil etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston o‘lkasining mustaqil va ozod bo‘lishi yo‘lida tinmay kurash olib bordi va bu yo‘lda o‘z jonini fido qildi. Ma’rifatparvarning “Haq olinur, berilmaydur” degan so‘zlari jadidlarning asosiy shioriga aylangan edi.

Tadqiqot asosida ta’kidlash joizki, Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy qarashlarida vatanparvarlik g‘oyasi ma’rifat, ta’lim va jamiyatni isloh qilish bilan chambarchas bog‘langan. Ma’rifatparvar vatanga xizmat qilishni millat ongini uyg‘otish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatni taraqqiyot yo‘liga boshlash sifatida talqin qiladi. Taraqqiyotga erishish uchun jamiyatni yangilash va ilm-fanni rivojlantirish zarurligini teran anglab yetgan Behbudiy qatl oldidan qoldirgan vasiyatnomasida shunday ta’kidlaydi: “Sizlarga vasiyat qilaman! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatinglar”.

Mazkur yondashuv Mahmudxo‘ja Behbudiyni vatanparvarlikni faol fuqarolik pozitsiyasi darajasiga ko‘targan jadid mutafakkiri sifatida baholashga asos bo‘la oladi. Uning milliy til masalasiga katta e’tibor qaratishi ham vatanparvarlik pozitsiyasining yaqqol namunasi hisoblanadi. “Oyna” jurnali orqali u til, tarix, adabiyot va millatning huquqlari xususida muntazam maqolalar e’lon qildi, bu o‘z navbatida, xalqning milliy o‘zligini mustahkamlashga xizmat qildi. Behbudiy tilni millatning ruhiy tayanchi, ma’naviy birligi va tarixiy xotirasining asosi deb talqin qildi. Mazkur ma’noda, tilni asrash va rivojlantirish – Vatanni himoya qilishning ma’naviy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadid ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida vatanparvarlik g‘oyasi axloqiy tarbiya masalasi bilan uzviylikda talqin qilinadi. Avloniy ta’limotida vatanga muhabbat tug‘ma yoki tabiiy instinkt sifatida emas, balki maqsadli, tizimli va uzluksiz tarbiya jarayonida shakllanadigan ma’naviy sifat deb izohlanadi. Shu ma’noda, Avloniy vatanparvarlikni shaxs ma’naviy kamolotining asosiy ko‘rsatkichi sifatida baholaydi:

“Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi. Agar bir hayvon o‘z

vatanidan – uyuridan ayirilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas, maishati talx bo‘lib, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar” [2].

Ma’rifatparvar fikricha, inson qalbida “millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch” qanchalik chuqur joy egallasa, “mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi”. Bunda u tor shaxsiy manfaatdan umummilliy manfaatga o‘tish jarayonini izohlaydi. Falsafa nuqtayi nazaridan, bu individual “men”dan ijtimoiy “biz”ga ko‘tarilish jarayonidir. Milliy g‘oya shaxsni umummaqsad atrofida birlashtirib, uning hayotiga ma’no va yo‘nalish baxsh etadi. Shu natijada insonda kurashchanlik, tashabbuskorlik hamda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Abdulla Avloniy Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishni “muqaddas tuyg‘u” deya ta’riflaydi. Mazkur ta’rif vatanparvarlikni axloqiy kategoriya darajasiga olib chiqadi. Vatanga muhabbat nafaqat hissiy holat, balki burch va mas’uliyat hamdir.

Abdulla Avloniy “millatning saodati tarbiyadadir” degan g‘oyani ilgari surgan holda, jamiyat rivojining asosiy poydevori yosh avlodning axloqiy-ruhiy tarbiyasi ekanligini ilmiy-ma’rifiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu g‘oya nemis klassik falsafasi namoyandasi Gegelning “milliy ruh” konsepsiyasi bilan ma’lum ma’noda uyg‘undir. Millat ruhi faqatgina ma’naviy yetuk shaxslar orqaligina namoyon bo‘ladi.

Avloniy fikricha, axloqan yetuk, mas’uliyatli va ongli avlodni shakllantirmasdan turib, Vatan ravnaqi va milliy istiqbol haqida so‘z yuritish mumkin emas. Demak, Avloniy qarashlarida vatanparvarlik, eng avvalo, axloq falsafasi (etika), jamiyat falsafasi va milliy g‘oyalar evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, Avloniy ta’limotida vatanparvarlik yosh avlodda nafaqat hissiy sadoqatni, balki mas’uliyat, fidoyilik, jamiyat oldidagi burchni anglash qobiliyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga qamrab oladi. U vatanni sevishni so‘z yoki shior bilan emas, balki halol mehnat, jamiyat manfaatiga xizmat qilish va faol ijtimoiy pozitsiya orqali namoyon etishni tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Bunday yondashuv Abdulla Avloniyda vatanparvarlikni axloqiy-amaliy kategoriya darajasiga ko‘taradi.

Avloniy vatanparvarlik tarbiyasini ma’rifat hamda milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘lab, til, madaniyat va milliy qadriyatlarni asrashni yosh avlod tarbiyasining muhim asosiy sharti sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv jadidchilik harakatining umumiy maqsadlari bilan uyg‘un holda, vatanparvarlikni millatni saqlab qolish hamda uni taraqqiyot yo‘liga olib chiqishning ma’naviy asosi sifatida namoyon qiladi.

Ta’kidlash joizki, jadidchilik harakati falsafiy jihatdan ma’rifatparvarlik va modernizatsiya g‘oyalariga tayangan. Uning asosiy maqsadi millatni ilm-fan va madaniyat orqali taraqqiyot yo‘liga olib chiqish edi. Abdulla Avloniy yondashuvida vatanparvarlik passiv an’anaparastlik hisoblanmaydi. U milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, ularni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari suradi. Bu falsafiy jihatdan an’ana va modern o‘rtasidagi dialektik birlikni anglatadi.

Jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitrat ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlarida vatanparvarlik masalasi jadidchilik harakatining eng radikal va ongli shakllaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Fitrat ijodida vatanga muhabbat nafaqat hissiy sadoqat va madaniy iftixor, balki milliy mustaqillik, davlatchilik va ozodlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan faol siyosiy pozitsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jihatdan ma’rifatparvar vatanparvarlikni millat taqdirini hal qiluvchi strategik falsafiy kategoriya darajasiga olib chiqadi.

Abdurauf Fitratning “vatan” hamda “millat” haqidagi qarashlari o‘sha davr matbuot sahifalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalariga bag‘ishlangan publitsistik maqolalari, milliy turmushni ifoda etishga qaratilgan milliy she’rlari, shuningdek Turkiyada bo‘lgan tahsil paytlarida yozilgan nasriy asarlari — “Munozara” va “Hind sayyohi”da o‘z aksini topgan.

Ta’kidlash joizki, Fitrat ijtimoiy-falsafiy qarashlarida vatanparvarlikning asosiy negizida millatni siyosiy ong subyektiga aylantirish g‘oyasi turadi. Uningcha, mustamlakachilik sharoitida xalqning passiv holati hamda siyosiy befarqligi milliy tanazzulning asosiy sababidir. Shu sababli, Fitrat uchun vatanga xizmat qilish, eng avvalo, millatni o‘z taqdiri uchun javobgar bo‘lgan tarixiy kuch sifatida shakllantirish, ya’ni uni siyosiy ong va milliy iroda sohibi darajasiga ko‘tarish demakdir [6].

Turkistonda jadidchilik harakatini tadqiq etgan ba’zi olimlarning fikricha, jadidlarning 1917-yilgacha bo‘lgan jarayonda umumdasturi mavjud bo‘lmagan. Olimlarning e’tirof etishicha, Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari turkistonliklarning dunyoqarashini biroz o‘zgartira olgan, shuningdek 1917-yilgacha jadidlarning norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan [1].

Ma’rifatparvar ijodida vatanparvarlikning oliy ifodasi bu milliy mustaqillik g‘oyasi hisoblanadi. U davlatchilikni yo‘qotgan millat ham ma’naviy, ham madaniy jihatdan barqaror rivojlana olmasligini ta’kidlaydi hamda erkin davlatga ega bo‘lish xalqning tabiiy huquqi deb e’tirof etadi.

Fitrat qarashlarida vatanparvarlik mustamlakachilikka qarshi ma’naviy-siyosiy kurash shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Uningcha, mustamlaka tizimi faqat iqtisodiy yoki ma’muriy zulm emas, balki millatning tafakkuri va ma’naviyatini izdan chiqaruvchi tuzumdir. Shu sababli, Abdurauf Fitrat ijodida vatanparvarlik ma’rifat, milliy g‘urur va siyosiy faollik orqali mustamlakachilik tafakkurini yengishga qaratilgan uzluksiz kurash jarayoni sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot asosida ta’kidlash joizki, jadidlar ta’limotida vatanparvarlik hissiy tuyg‘udan jamoaviy ong darajasiga ko‘tarilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyda ma’rifat va matbuot orqali millatni uyg‘otish, Abdulla Avloniy tafakkurida axloqiy tarbiya va yosh avlod kamoloti, Abdurauf Fitratda esa milliy mustaqillik va siyosiy ongni shakllantirish orqali Vatanga xizmat qilish g‘oyasi ilgari surilgan. Ushbu yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, jadidchilikning umumiy falsafiy maqsadini — millatni ongli, mas’uliyatli va faol subyektga aylantirishni ta’minlaydi.

Fikrimizcha, jadid ma’rifatparvarlari vatanparvarlikni tarixiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatish qobiliyati sifatida baholaydilar. Buning mohiyati shundaki, ular millatni tarix obyekti emas, balki tarix yaratuvchi subyekt sifatida ko‘rish g‘oyasini ilgari suradilar hamda vatanparvarlikni siyosiy, ma’naviy va madaniy faollik bilan

bevosita bog‘laydilar. Bu esa, o‘z navbatida, jadidchilikni klassik ma’rifatparvarlikdan farqli ravishda zamonaviy falsafiy harakat darajasiga ko‘tardi.

Jadid ma’rifatparvarlari qarashlaridagi vatanparvarlik g‘oyasi milliy uyg‘onishning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy poydevoridir. Mazkur g‘oya shaxs kamolotidan boshlanib, ijtimoiy faollik, milliy mustaqillik va davlatchilik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz falsafiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Jadid ma’rifatparvarlari merosi bugungi kunda ham fuqarolik tafakkurini rivojlantirish, ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish hamda milliy mafkurani ilmiy tadqiq qilishda asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abdullaev R., Alimova D., Bagirova I. The History of Public and Cultural Reformation in the Caucasus and Central Asia (19th-early 20th century) – Samarkand: IICAS, 2013. – 312 p.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — T.: O‘qituvchi, 1992. — 28-b.
3. Behbudiy – jadid ma’rifatparvarlarining otasi. https://uza.uz/uz/posts/behbudiy-zhadid-marifatparvarlarining-otasi_674974
4. Behbudiy M. Haq olinur, berilmas. Tanlangan asarlar. 1-jild. — T.: Ma’naviyat, 2021. — 483-b.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Sharq, 1999. — B. 73–78.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001. — B. 45–51.
7. Mahmudxo‘ja hazratlarining qanday shahid bo‘lg‘onligi va uning tomonidan yozilg‘on vasiyatnoma. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashri). — T.: Ma’naviyat, 1999. — 254-b.
8. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Fan, 2004. — B. 41–46.
9. Qosimov B. Jadidchilik va ma’naviy tarbiya muammolari. — Toshkent: Fan, 2006. — B. 88–93.

HOJI MUIN MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O‘RGANISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Temirov Rahmatulla Ismatulla o’g’li,

Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti, Pedagogik ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Mustaqillik yillarida jadid bobolarimiz merosiga qaytish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki milliy pedagogika poydevorini mustahkamlash demakdir. Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li (1883–1938) Samarqand jadidchilik harakatining eng faol va ko‘p qirrali namoyandalaridan biri sifatida, jamiyatning ma’naviy inqirozdan chiqish yo‘lini faqatgina ta’lim va axloq islohotida ko‘rgan.Hoji Muin ijodini

o‘rganish bugungi kunda quyidagi sabablarga ko‘ra dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi:

Yoshlarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish;

Globallashuv sharoitida "ommaviy madaniyat"ga qarshi ma’naviy immunitet yaratish;

Ta’lim jarayonida axloqiy va huquqiy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.

Hoji Muin 1883-yilda Samarqandning "Ruhobod" mahallasida tug‘ilgan. Uning dunyoqarashi shakllanishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir.

U nafaqat ijodkor, balki mohir pedagog sifatida "Guldasta", "O‘qituvchi" kabi darsliklar muallifi, "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon" gazetalari tahririyatida faoliyat yuritgan fidoyi shaxs edi. 2010-yilda "Ma’naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Tanlangan asarlar" to‘plami adibning boy merosini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Bu to‘plamda uning she’rlari, pesalari, feletonlari va publitsistik maqolalari jamlangan bo‘lib, ularning har biri tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hoji Muin *"Eski maktab, yangi maktab"* asarida o‘sha davrdagi ta’lim tizimidagi inqirozni ochiq ko‘rsatib beradi. U "eski maktab"dagi quruq yodlash va jismoniy jazo usullarini keskin tanqid qiladi. Adibning fikricha, bola maktabda faqat harf tanimasligi, balki dunyoviy ilmlarni (geografiya, hisob, tarix) ham o‘rganishi shart. Bu bugungi kunning "kompetensiyaviy yondashuv" tamoyiliga hamohangdir.

"Mazluma xotin" dramasi: Oilaviy axloq va ayollar huquqi haqida bo’lib, Hoji Muin jamiyatning asosi bo‘lgan oila masalasiga alohida to‘xtaladi. Ayollarning ilmsiz qolishi millatning fojeasi ekanligini ta’kidlaydi."Xotinlarimiz bilimli bo‘lmas ekan, bizning kelajak avlodimiz tarbiyasiz va jaholatda qolaveradi" — degan g‘oya asar mag‘zini tashkil etadi. Bu qarash bugungi kunda "Oila – jamiyat poydevori" degan tamoyilni mustahkamlashda muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Maqolalaridagi axloqiy o‘gitlar: Hoji Muinning "Vaqt qadri", "Yaxshi odob — inson ziynati" kabi mavzulardagi maqolalarida quyidagi mezonlar ilgari suriladi:

Vaqtdan unumli foydalanish: Jadidlar vaqtni "eng qimmatli sarmoya" deb bilishgan.

Mehnatsevarlik: Dangasalik va tilanchilikni millatni orqaga tortuvchi illat deb hisoblagan.

To‘g‘ri so‘zlik: Ma’naviy poklikni iymonning bir qismi sifatida talqin qilgan.

Adib o‘z asarlarida shunday fikr bildiradi: “Millatni saodatga eltadigan eng katta kuch – bu ilm va tarbiyadir.” Bu fikr jadid ma’rifatparvarlarining umumiy g‘oyalarini ifodalaydi. Hoji Muin yosh avlodni ilmli, vatanparvar, axloqan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

Uning asarlarida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi:

1. Ilm-ma’rifatning ustuvorligi;
2. Axloqiy tarbiyaning muhimligi;
3. Milliy o‘zlikni anglash;
4. Jamiyat taraqqiyotida ta’limning roli.

Adibning fikricha, haqiqiy ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni ma’naviy va axloqiy jihatdan kamol toptirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya bugungi kunda

ham pedagogika fanida dolzarb hisoblanadi. Hoji Muinning maqolalari bot-bot gazeta va jurnallarning sahifalarida ko‘rinar edi. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetasi”da o‘z maqolalari bilan muntazam qatnashib turdi. Hoji Muin 1913-yili Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi hamda “Oyna” jurnali chiqa boshlagach, ularda matbuot va teatrning ahamiyati, axloq-odob masalalari, xalqning ma’naviyatini shakllantirish, ta’lim-tarbiya haqida qator maqolalarini e’lon qildi.

Hoji Muin “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1918-yil 9-iyuldagi sonida “Oila davriy tarbiyasi” nomli maqolasida shunday bayon qiladi: “ …Olamda taraqqiy etgan hech bir millat yo‘qdirki, uning afrodi tarbiya ko‘rmyinchs chin baxt-saodat bilan umr kechirmakda bo‘lsin” . [7] Hoji Muin ham oila tarbiyasi , farzandlarni o‘qimishli qilish masalasiga alohida e’tibor bergan. Muin asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto, go‘daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o‘rni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Shu bilan birga sog‘lom, ma’rifatli oila va u voyaga etkazadigan har tomonlama yetuk avlodning shu millat va mamlakat iqtisodiy-siyosiy rivojining, shu yurt shonu- shuhrati, qudratining poydevori, abadul-abad mavjudligining muhim shartlaridan ekanligi ta’kidlangan.

Pedagogik jarayonda hoji muin merosidan foydalanish usullari

Hoji Muin asarlarini ta’lim tizimiga tatbiq etishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1)Ssenariy asosida o‘qitish: "Eski maktab, yangi maktab" asarini sahnalashtirish orqali O‘quvchilarda ta’limning qadriga yetish tuyg‘usi shakllanadi;

2) Qiyosiy tahlil: Adib yashagan davr va hozirgi imkoniyatlarni solishtirish orqali Milliy istiqlol g‘oyasining mazmunini anglab yetish;

3)Muammoli munozara"Vaqt qadri" mavzusida davra suhbatlari tashkil etish natijasida o’quvchida,o‘z-o‘zini boshqarish va intizom shakllanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Hoji Muinning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, adibning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimida quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

- yoshlarni ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- milliy madaniyat va tarixga hurmat tuyg‘usini shakllantirish;
- mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash;
- ta’lim jarayonida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilish.

Dolzarblik: Nega ayniqsa hozir? Hoji Muin ma’naviy qarashlarini o‘rganishning dolzarbligi shundaki, u o‘z asarlarida "ma’rifatli dindorlik" va "zamonaviy dunyoviylik" o‘rtasidagi oltin muvozanatni topishga uringan. U yoshlarni chet tillarini o‘rganishga, texnikani egallashga chorlagan, lekin milliy ruhdan ajralmaslikni uqtirgan."Bizga nafaqat o‘qiydigan bola, balki millat dardi bilan yonadigan, vijdonli shaxs kerak," — degan edi u o‘z maqolalaridan birida.

Ushbu iqtibos bugungi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan "Uchinchi Renessans" poydevorini qurish g‘oyasi bilan to‘la mos keladi.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li merosini o‘rganish — bu shunchaki adabiy tahlil emas, balki jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini ta’minlovchi pedagogik ehtiyojdir. Uning "Tanlangan asarlar"i har bir pedagog uchun yoshlar qalbini zabt etishda kuchli qurol bo‘lib xizmat qilishi lozim. Adib orzu qilgan komil insonni tarbiyalash bugungi ta’lim muassasalarining bosh maqsadidir. Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li jadid ma’rifatparvarlari orasida muhim o‘rin tutgan adiblardan biridir. Uning ma’naviy-axloqiy qarashlari, ta’lim va tarbiya haqidagi fikrlari bugungi pedagogika fani uchun ham katta ahamiyatga ega. Adibning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoji Muin. Tanlangan asarlar (to‘ldirilgan 2-nashr). – Toshkent: "Ma’naviyat", 2010.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2002.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2017.
5. Ahmadov S. Hoji Muin. Hayoti va ijodi. – Samarqand, 2005.
6. Z.Saidov. Jadid matbuoti tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2001.
7. Mehnatkashlar tovushi gazetasi. 1918-yil 9-iyul soni

MILLIY QADRIYATLAR VA INSTITUTLAR ISLOHOTI UYG‘UNLIGI: JADIDLAR MEROSI KONTEKSTIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonov Jamshid Umid o‘g‘li

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Korrupsiya zamonaviy davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotining eng murakkab va ko‘p qatlamli muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. U faqat iqtisodiy resurslarning noqonuniy o‘zlashtirilishi yoki mansab vakolatlarining suiiste’mol qilinishi bilan cheklanmaydi; balki ijtimoiy ishonchning yemirilishi, adolat tamoyilining zaiflashuvi hamda davlat institutlari legitimligining pasayishi bilan bevosita bog‘liq tizimli hodisadir. Shu bois korrupsiyani faqat jinoyat-huquqiy vositalar orqali jilovlashga urinish ko‘pincha cheklangan natija beradi. Mazkur muammo chuqurroq – jamiyatning qadriyatlar tizimi va institutsional tuzilmasi kesishgan nuqtada shakllanadi.

Zamonaviy institutsional yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya yuqori diskretsiya, past shaffoflik va sust hisobdorlik mavjud bo‘lgan sharoitda kengayadi. Biroq bu omillar o‘z-o‘zicha yetarli emas; ularning ijtimoiy qabul qilinishi yoki rad

etilishi jamiyatdagi axloqiy me’yorlar bilan belgilanadi. Agar pora “muqarrar vosita”, “ish bitirish usuli” yoki “tizimning ajralmas qismi” sifatida ijtimoiy ongda normalashsa, eng mukammal qonun ham samarasiz bo‘lib qoladi. Demak, korrupsiyaga qarshi kurash ikki asosiy qatlamni – rasmiy institutlar va norasmiy qadriyatlar tizimini – bir vaqtning o‘zida isloh etishni talab qiladi. Aynan shu uyg‘unlik barqaror natijaning sharti hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar tarixan jamiyat hayotini tartibga soluvchi axloqiy-me’yoriy asos vazifasini bajargan. Halollik, omonatga sodiqlik, adolat, mas’uliyat va vijdon kabi tushunchalar ijtimoiy nazoratning norasmiy mexanizmlarini shakllantirib kelgan. Ushbu qadriyatlar zaiflashgan sharoitda esa rasmiy institutlar ortiqcha yuklama ostida qoladi va ularning samaradorligi pasayadi. Shu jihatdan qaraganda, korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni faqat texnik yoki ma’muriy chora-tadbirlar majmui emas, balki qadriyatlar tizimini qayta jonlantirish va ularni institutsional dizayn bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir.

Mazkur masalani tarixiy-intellektual manbalar asosida tahlil qilish muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati vakillari – xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat – jamiyat taraqqiyotini ma’rifat, adolat va mas’uliyat tamoyillari asosida ko‘rganlar. Ularning qarashlarida davlat va jamiyat munosabatlari axloqiy poklik, jamoatchilik nazorati hamda ma’rifiy islohot bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. Garchi ular zamonaviy anti-korrupsiya terminologiyasidan foydalanmagan bo‘lsalar-da, ilgari surgan g‘oyalari korrupsiyaga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirishning konseptual asosini tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot milliy qadriyatlar va institutlar islohoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni jadidlar merosi kontekstida tahlil qilish hamda korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishning integrativ modelini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi qadriyat–institut–xulq-atvor o‘zaro bog‘liqligini tizimli yondashuv asosida izohlash va milliy ma’naviy merosni zamonaviy boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zaruriyatini asoslab berishda namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashni jazolash paradigmasidan profilaktika va barqaror ijtimoiy transformatsiya paradigmasiga o‘tkazish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Milliy qadriyatlar va institutlar islohoti o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini chuqur va barqaror asosda takomillashtirishda konseptual ahamiyat kasb etadi. Korrupsiya hodisasi ko‘pincha huquqbuzarlik yoki ma’muriy jinoyat sifatida talqin qilinadi, biroq uning ildizi yanada murakkab ijtimoiy tuzilmalarda, xususan, qadriyatlar tizimi va institutsional muhit o‘rtasidagi nomuvofiqlikda yotadi. Agar jamiyatdagi axloqiy-me’yoriy qadriyatlar davlat institutlari faoliyati bilan uyg‘unlashmasa, rasmiy islohotlar yuzaki xarakter kasb etadi va real natijaga erishish qiyinlashadi.

Institutsional nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, korrupsiya ko‘pincha yuqori diskretsiya (mansabdor shaxs ixtiyorining kengligi), past shaffoflik va zaif hisobdorlik mavjud bo‘lgan sharoitda yuzaga keladi. Biroq bu omillarni faqat protsessual yoki texnik choralar orqali bartaraf etish yetarli emas. Chunki har qanday

norma ijtimoiy ongda qabul qilinmasa, u samarali ishlamaydi. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyati rasmiy institutlarning kuchliligi bilan bir qatorda norasmiy institutlar – ya’ni ijtimoiy axloqiy me’yorlar – mustahkamligiga ham bog‘liqdir.

Shu jihatdan, jadidlar merosi muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlar jamiyat taraqqiyotini ma’rifat, adolat va fuqarolik mas’uliyati tamoyillari asosida ko‘rganlar. Ularning qarashlarida davlat boshqaruvi axloqiy poklik va jamoatchilik nazorati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Masalan, ma’rifatni kengaytirish orqali savodsizlik va jaholatni kamaytirish, o‘z navbatida, noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlikni kuchaytiradi. Bu esa korrupsiyaga qarshi ijtimoiy immunitet shakllanishining muhim omilidir.

Jadidlar ilgari surgan “ma’rifatli jamiyat” g‘oyasi zamonaviy anti-korrupsiya siyosati uchun konseptual model vazifasini bajarishi mumkin. Ma’rifatli fuqaro davlat resurslarini “omonat” sifatida qabul qiladi va ularni talon-toroj qilishni nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham qoralaydi. “Omonat” tushunchasi milliy qadriyatlar tizimida chuqur ildiz otgan bo‘lib, uni zamonaviy davlat xizmati etikasi bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. Agar mansab vakolati omonat sifatida anglashilsa, manfaatlar to‘qnashuvi, noqonuniy boyish yoki pora olish nafaqat jinoyat, balki axloqiy xiyonat sifatida ham baholanadi. Bu esa jazolashdan ko‘ra kuchliroq ijtimoiy tormoz mexanizmini yaratadi.

Bundan tashqari, jadidlarning matbuot va jamoatchilik faolligiga urg‘u berishi bugungi shaffoflik tamoyili bilan hamohangdir. Ochiq ma’lumotlar, jamoatchilik eshituvlari va fuqarolik nazorati kabi zamonaviy mexanizmlar aslida tarixiy ma’rifiy an’analar bilan uyg‘unlashadi. Shaffoflik faqat texnik jarayon emas; u ijtimoiy madaniyatdir. Agar jamiyatda ochiqlik qadriyat sifatida qaror topsa, yashirin kelishuvlar va noqonuniy bitimlar ijtimoiy jihatdan rad etiladi. Demak, shaffoflikni mustahkamlash uchun nafaqat elektron platformalar, balki axloqiy muhit ham zarur.

Korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishda integrativ yondashuv muhimdir. Bir tomondan, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish, deklaratsiya tizimini joriy etish, ichki audit va komplaens mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Ikkinchi tomondan esa, ta’lim tizimi orqali halollik madaniyatini shakllantirish, davlat xizmatchilari uchun etik treninglar tashkil etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish zarur. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi “qadriyat–institut–xulq-atvor” zanjirini shakllantiradi. Qadriyatlar institutlarni ma’naviy jihatdan to‘ldiradi, institutlar esa qadriyatlarni real xulqqa aylantiradi.

Tizimli tahlil shuni ko‘rsatadiki, agar korrupsiyaga qarshi siyosat faqat jazolovchi mexanizmlarga tayanadigan bo‘lsa, u qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay olmaydi. Aksincha, qadriyatga asoslangan institutsional dizayn – ya’ni shaffoflik, hisobdorlik va halollik tamoyillarini birgalikda mustahkamlash – korrupsiya risklarini strukturaviy ravishda kamaytiradi. Bu yondashuv davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi hamda boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, jadidlar merosi zamonaviy korrupsiyaga qarshi siyosatni boyituvchi tarixiy-intellektual resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarni institutsional islohotlar bilan uyg‘unlashtirish orqali korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish mumkin. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashni faqat repressiv choralardan iborat jarayon emas, balki ma’naviy va institutsional transformatsiya sifatida talqin etish zaruratini ko‘rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot milliy qadriyatlar va institutlar islohoti o‘rtasidagi uyg‘unlik korrupsiyani oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishning hal qiluvchi omili ekanini asoslab berdi. Korrupsiya faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki qadriyatlar tizimi va institutsional muhit o‘rtasidagi nomuvofiqlik mahsuli sifatida yuzaga chiqadi. Shu bois unga qarshi kurash ham kompleks va integrativ yondashuvni talab qiladi. Faqat jazolash, nazorat yoki ma’muriy cheklovlar bilan cheklanib qolgan siyosat uzoq muddatli barqaror natija bera olmaydi. Barqaror natija esa qadriyat va institut o‘zaro mustahkam bog‘langandagina yuzaga keladi.

Shunday qilib, milliy ma’naviy merosni zamonaviy institutsional islohotlar bilan uyg‘unlashtirish korrupsiyaga qarshi siyosatning strategik yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashni repressiv choralar majmuasidan barqaror ijtimoiy taraqqiyot mexanizmiga aylantirish imkonini beradi. Kelgusida mazkur modelni alohida sohalar kesimida empirik tahlil qilish va amaliy dasturlar bilan boyitish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A. Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 1998. – 288 b.

2. Behbudiy M. Behbudiy kutubxonasi. “Oyina” jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild II. – T.: Akademnashr, 2018. – 14 b.

3. Gaspirinskiy I. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006.

4. Nazarov. O‘zbek falsafasi. – T., 2003. – 155 b.

5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – T.: Ma’naviyat, 2002. – 10 b.

6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Sharq, 2004. – 53 b.

7. Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.

IV SHO‘BA: JADIDLARNING DINIY VA DUNYOVIY FANLAR TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

СЕКЦИЯ IV: ВКЛАД ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ И СВЕТСКИХ НАУК

CHAPTER IV: THE CONTRIBUTION OF JADIDS TO THE DEVELOPMENT OF RELIGIOUS AND SECULAR SCIENCES

РОЛЬ ДЖАДИДОВ В РАСПРОСТРАНЕНИИ ЕВРОПЕЙСКИХ НАУЧНЫХ ЗНАНИЙ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Усубалиева Мээрим Максатбековна

Должность: Преподаватель, магистрант Высшей школы бизнеса и PhD НИУ «Кыргызский экономический университет им. М. Рыскулбекова», направление «Юриспруденция»

(ГТК МУЦА) Кыргызстан город Токмок

Джадидизм, как общественное и просветительское движение мусульман Центральной Азии, возник на рубеже XIX–XX веков и стал важным фактором модернизации образования и культурного развития региона [1]. Основой джадидизма была идея реформирования традиционной мусульманской образовательной системы, которая в те времена уже не соответствовала требованиям нового времени [2]. Движение получило название от арабского термина «усул» — метод, и акцентировалось на новом методе преподавания «усул-и джадид», основанном на фонетическом принципе изучения азбуки и грамотности [3]. Этот метод представлял собой радикальную альтернативу устаревшему «кадим», где обучение сводилось к механическому заучиванию Корана и религиозных текстов без глубокого понимания [3, с. 45]. Таким образом, джадидизм сочетал образовательную, культурную и в определенной мере политическую миссию, ориентированную на формирование новой, более подготовленной к современности интеллигенции.

Одним из ключевых деятелей движения был Исмаил Гаспринский, основатель первой новометодной школы «усул-и джадид» и редактор газеты «Таржимон» («Переводчик») [5]. Его опыт обучения в Сорбонне сыграл решающую роль в формировании взглядов на необходимость реформирования мусульманской системы образования [6]. Вернувшись на родину в 1884 году, Гаспринский открыл школу с новым аналитико-звуковым методом

преподавания азбуки, где за короткий срок обучал детей чтению и письму [5, с. 112]. Успех первого набора учеников показал эффективность нового метода, после чего «усул-и джадид» был внедрен в других школах [6]. Этот пример иллюстрирует, как европейский образовательный опыт и современные методы обучения могли быть адаптированы к культурным и религиозным традициям региона, способствуя формированию нового типа образовательного учреждения [4].

Деятельность джадидов не ограничивалась лишь школами. Они создавали просветительские общества, театральные труппы, издавали газеты и журналы, что позволяло распространять современные научные знания и идеи широкой аудитории [5, 7]. Газета «Таржимон», издаваемая Гаспринским с 1881 по 1914 годы, освещала актуальные проблемы образования, вопросы развития науки и культуры, а также методические принципы новометодного обучения [5]. Через этот инструмент просветители пропагандировали европейские достижения, стимулировали интерес молодежи к новым дисциплинам и способствовали формированию интеллектуальной элиты [7]. Особое значение имело то, что среди подписчиков газеты были жители центральноазиатских городов, включая Маргелан, Ташкент, Бухару и Самарканд, что обеспечивало широкое распространение идей джадидизма [6].

Программа джадидов была многоступенчатой. В первую очередь они стремились реформировать мусульманское образование и подготовить квалифицированных специалистов в области науки, техники, культуры и экономики [8]. Второй задачей было использование этих специалистов для развития региональной экономики, промышленности и сельского хозяйства, что позволило бы Центральной Азии интегрироваться в процессы индустриальной модернизации [8, с. 58]. Третьей целью было повышение уровня жизни населения, формирование национального капитала и подготовка кадров для будущих национальных государств [4]. Таким образом, джадидизм выступал не только образовательным, но и социально-экономическим и политическим движением, направленным на комплексное развитие общества [1].

Джадиды активно пропагандировали идеи западной науки и культуры, подчеркивая необходимость овладения достижениями европейской цивилизации [7]. Они сами учились за границей и призывали молодежь Центральной Азии к образовательной мобильности [5]. Полученные знания позволяли им сопоставлять уровень развития различных стран, адаптируя передовой опыт для условий Туркестана [6]. Таким образом, движение джадидов можно рассматривать как мост между традиционной исламской культурой и современными научными и образовательными достижениями Европы, что способствовало формированию новой культурной и интеллектуальной идентичности региона [4, 8].

Исторически джадидизм проходил через несколько этапов. По мнению исследователей А.Бениксена и А.А. Рорлиха, в татарском обществе движение выделялось религиозным, культурным и политическим реформизмом [2]. На первом этапе (1880–1905 годы) внимание концентрировалось на реформе

конфессионального образования и внедрении нового метода обучения вместо устаревшей схоластики [3]. Второй этап (1905–1917 годы) характеризовался превращением джадидизма в движение просветительского типа, ориентированное на европейские стандарты образования и культуры [2, с. 88]. В Центральной Азии распространение идей джадидизма было связано с открытием новометодных школ в Самарканде, Бухаре и Ташкенте, где применялись принципы «усул-и джадид», адаптированные к местным традициям [5].

Список литературы:

1. Бениксен А. История джадидизма в татарском обществе: религиозный, культурный и политический аспекты. — Москва: Наука, 1989. — 256 с.
2. Рорлих А.А. Джадидизм: движение за модернизацию мусульманской культуры. — Санкт-Петербург: Европейский университет, 2001. — 312 с.
3. Камалов Б. История образовательных реформ в Туркестане. — Ташкент: Фан, 1998. — 208 с.
4. Соловьев В.А. Мусульманское образование в Российской империи: новые подходы и методики. — Казань: Казанский университет, 2005. — 184 с.
5. Гаспринский И. «Таржимон» и реформирование образования. — Бахчисарай, 1881–1914.
6. Абдуллаев М. Новометодные школы в Средней Азии: история и практика. — Ташкент: Университет, 2010. — 145 с.
7. Мирзаев С. Джадидизм и модернизация мусульманской культуры в Центральной Азии. — Самарканд: Фан, 2008. — 212 с.
8. Хасанов Р. Образование и социальная модернизация в Туркестане. — Бишкек: КЭУ, 2012. — 198 с.

MAHMUD XO`JA BEHBUDIY ASAR VA MAQOLALARIDA MILLIY IJTIMOIY QOLOQLIK SABABLARI VA ULARNI ISLOH QILISHNING MANAVIY-MARIFIY YO`LLARI

Teshayev Nutfullo Nasrullayevich

Buxoro Davlat Universiteti

ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi proffessori,

falsafa fanlari doktori.(DSc)

Xalqning dunyo qarashi milliy ongining yuksaltirishda matbuotning o`rni nixoyatda muhim ekanini bilgan Behbudiy 1913 yildan matbuot ishlari bilan shug`ullana boshlaydi u Samarqand gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr etishda bosh

– qosh bo'ladi. Shu kezlarda «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. 1914 yilning 29 mayida Behbudiy ikkinchi bor Xorijiy mamlakatlar bo`ylab sayoxat qiladi, sayoxat xotiralari g`oyat muxim bo`lib, «Oyna» jurnalining 1914-1915 yil sonlarida chop etiladi. «Oyna» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qiladi. Unda millat va uning haq huquqlari, tarixiga, til – adabiyot masalalariga, dunyo avholiga doir qiziqarli maqolalar, baxslar berib borildi. Mahmudxo`ja Behbudiy – arab, fors va rus tillarini mukammal bilganligi, Sharq falsafasi va Yevropa adabiyotidan chuqur bilim va ma'lumotga ega bo`lganligi, siyosiy – ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jixatidan Turkistonning o`sha vaqtlaridagi ma'rifatparvarlaridan unga teng kela oladigan olim bo`lmasa kerak.

Behbudiy madaniy – ma'rifiy qoloqlik, savodsizlik, xurofot, bid'iyat ta'sirida bo`lish millatning ko`zini yumib, qulog`ini kar etib, oyoq – qo`lini bog`lab quyuvchi kishan, ofatdir, deydi. Bunday axvolda bo`lgan xalq va millatning baxti doimo qaro bo`ladi, jaxon tarixiy taraqqiyotining eng oxirgi saflarida qolib ketaveradi, deb ta'kidlaydi. Millat fidoiysi bo`lgan Behbudiy Turkiston xalqlarini ma'naviy - ma'rifiy qoloqlikka maxkum etish Chorrusiya ma'murlari rejalashtirgan siyosiy yo`lning oqibati ekanini chuqur anglab yetgan edi.

«Oyna» jurnalining 1915 yil 13–sonida e'lon qilingan «Bizni kemirguvchi illatlar» deb nomlangan maqolasida Behbudiy katta – katta sarf xarajatlar qilib, bor–yo`g`ini sarflab ko`pkari berib to`y qilish, haftalab, xatto oylab a'za tutish, ta'ziyalar o`tkazishni xonavayron va g`arib etuvchi bir dard, Turkiston xalqining inqirozga, taxlikaga va jaxannamga tortuvchi qattol dushman[1], deb ko`rsatgan edi. Behbudiy istirob bilan shunday deydi «Ag`staxfurullo, subxanalloh. Bizni qilaturg`on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikox, xatna bu ikki balo shundog` qattiq bir illatki, o`lmaguncha qutulib bo`lmaydur. Shaxarlarda o`rta xol, ya'ni o`tirarga xona va bog`i bor bir kishi nikox uchun ikki ming so`m sarf etar va ugul xatnasi uchun xech bo`lmaganda 200 so`mdan 1000 so`mgacha sarf etar. Boy va zo`raki boylar esa besh ming, o`n minglab sarf etar. Oxiri nima bo`lur? Nima bo`lur deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanini o`z ixtiyori bilan zo`raki boyni o`zi o`lgandan so`ngra bir yaxudiy yo bir armani ajnabiyga sotib, to`y va ta'ziya qarzini berar. O`zi sotmaganda sudga sotilur.

Mana yuqoridagi sarlavxada «Bizni kemirguvchi illatlar» degan odatlarimiz, shu to`y va ta'ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdur» .

Behbudiy to`y va ta'ziyalarni kichik qilib, xolimizga qarab utkazishimiz lozimligini, asosiy e'tiborni ilm asoslarini o`rganishga qaratish zarurligini ta'kidlagan edi. Ma'rifatparvar adib bu xaqda o`zining fikr murozalarini quyidagicha ifodalagan edi: «Bizga lozimki, to`y va ta'ziyalarni kichik qilib va xolimizcha xarakatda bo`lib, kelar zamonimizni o`ylayluk. Vaollox, xoru zoru, munkariz bo`lmoq (tugab bitish) ertaga oftobni chiqishidek muqarrardur. To`y va ta'ziyaga sarf qiladurg`on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo`liga sarf etsak, anqarib (kiska fursatda), Ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o`zimizda, dinimizda obro`y va rivoj topar. Yoq, xozirgi xolimizga davom etsak, din va dunyoga zillat (tubanlik) va miskinatdan boshqa nasibamiz bo`lmaydir[1]

Mahmudxo`ja Behbudiyning zo`r achinish bilan qayd etishicha, ilm – ma'rifatdan bebahra bo`lib, g`aflat uyqusida qolgan xalq har qanday adolatsizlik, jabr – zulumga ko`nikib ketaveradi. O`z ozodligi, mustakilligi uchun faol kurashga qodir bo`lmaydi, milliy qadr – qimmati yerga urilishiga loqaydlik bilan qarab turaveradi. Asorat, faqirlik va xorliklar – bularning xammasi ilmsizlik va betarbiyasizlikning mevasi va natijasidir. Dunyoda xar bir xalk va millat ilm tufayli taraqqiy qiladi degan falsafiy- ma'rifiy g`oya Bexbudiy ta'limotida yetakchi o`rin tutadi. U bu xaqda «Oyna» jurnali 1917 yil 21 sonida bosilib chiqqan «Yoshlarga murojaat» nomli maqolasida shunday deydi: «Xozirgi zamon ishlariga xox tijorat va xukumat va san`atxonalariga bo`lsin, kirib vazifa olmoqga va ish qilmoqga ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va xar kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muxtaramlar xam o`z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xoxlasangizki, sizdan ko`ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa «Bin va millatga xizmat ilm va oqcha ila bo`lur.». Shu ilmi zamoniyni taxsil qilmoq uchun xarakat qilmog`ingiz lozimdur. Xamvatanlarimiz mulkini sotib to`y qilganidek sizda, xatto, lozim bo`lganda mulkingizni sotsangizda o`g`lingizni zamoncha o`qimog`iga sa'y qilsangiz. To`yga isrof qiladurg`on okchalarni uqumoq yo`liga sarf qilsangiz![1]

Mutafakkir o`z asarlari va publitsistik maqolalarida xalqni milliy istiqlol uchun kurashga chorladi. Millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi xaqida o`ylar ekan, xalqni jaxolat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog`idan qutqarib olishning birdan –bir yo`li ilm- ma'rifatli bo`lishdir, degan xulosaga keladi. Bu xususida Samarqand gazetasida 1913 yil 12 iyul sonida bosilib chiqqan «Extiyoji millat» maqolasida…dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ila ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebaxra millat boshqa millatlarga poymol bo`lur»[2]. Millat xozirda xukum surib turgan bid'at xurofotdan xalos bo`lsa, bolalarni Ovrupa dorilfununlariga yuborsa ulardan advokat va xunarmand, savdogar va muxandislar chiqsa, naqadar oliy va go`zal ish bo`lur edi, deb ko`nglidan o`tkazar edi va orzu qilar edi.

Buyuk jadidchi ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy armon va nadomad ila o`sha «Extiyoji millat» maqolasida… «boshqa millatlarni boylari fakr va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladirlar, fakr va yetimlarni o`qimog`i uchun vaqf «stipendiya» lar ta'yin qilur. Boshqa millat miliunerlari maktabi ila stipendiyalar, idora qilaturg`on gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulojizni (ayollar universiteti), barpo qilgan jam'iyati xayriyasi –la faxr qiladur.

Bizlarniki juft oti-la, arobasi –la, tuyi ila va … la faxr etar. Xatto, o`z o`g`illarini o`qitmaydurgon boylar bordur. Bu ketishni oxiri yamondur, o`qimoq, o`qitmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun» , deya xitob qiladi.

Behbudiy «Padarkush» asarida chor mustamlakachilik siyosati tufayli maxalliy axoli maxalliy axoli va ayniqsa, yoshlar o`rtasida ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik, qimorbozlik, o`g`rilik, poraxo`rlik, tovlamachilik, bezorilik, bekorchilik, dangasalik kabi zararli odatlar tarqala boshlaganini, natijada odamlar o`rtasida mexr – oqibat suna boshlab aka bilan uka, ota bilan bola bir – biriga yov – dushman bo`la boshlaganini, padarkushlar kupayib borayotganligini qaxr g`azab va nafrat bilan tasvirlaydi. Bexbudiy qaramlikdan qutilish, millatni falokatdan saqlab qolishning

eng muxim omillaridan biri g`aflat uyqusidan uyg`otishdadir, deb tushunadi. Bu xaqda «Padarkush» da Ziyoli nomidan shunday deydi: «Xozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va xunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan- kun qo`ldan ketgandek, axloq va obro`yi xam qo`ldan chiqar, xatto dini xam zaif bo`lur. Buning uchun biz musulmonlarni o`qitmoqga sa'y qilmog`imiz lozimdur, vaxolanki, dini sharifimiz xar nav naflik ilm o`qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu xukum – xukmi shariatdir. Biz musulmonlarga alalxusus bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur : biri olimi diniy, digari olimi zamoniy»[4] . Mufti xazratlari xalqni diniy va axloqiy jixatdan tarbiyalashda islomiy ilmlarning axamiyati xususida o`zining fikr- muloxozalarini bayon etgandan so`ng dunyoviy ilmlarning muxim va zarurligini xam aloxida uqtiradi. «Olimi zamoniy bo`lmoq uchun – deydi Bexbudiy, - bolalarni, avvalo musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyati diniya va o`z millatimiz tilini bilaturg`ondan so`ngra xukumatimizning nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya'ni gimnaziya va shaxar maktablarini uqub tamom qilgonlaridan song, Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib, doktorlik, zakonchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi xikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o`qitmoq lozimdir… Xattoki shu tariqa ukurgan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istambul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormok kerakdur. Xazrat Paygambarimiz ilm Xitoyga xam bo`lsa, talab qilingiz, demadilarmi? ». [3]

Mahmudxo'ja Behbudiy zulum va zo'ravonlikni, sinfiy kurashni, millatni qoq ikkiga ajratib, orasiga nifoq dushmanlik solishni raq etdi va bu uchun umrini oxirgacha kurashdi. Mahmudxo'ja Bexbudiy istiqlol uchun jonini fido qildi, istiqlol esa uning avlodlariga ya'niy bizlarga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqillik yo'lida fido bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy shu millat va Vatan umri qadar boqiydur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T."ma'naviyat" 1999 y.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy "Ehtiyoj millat"// "Samarqand" jurnali 1913 yil, 12iyul.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy "Bizga islohot kerak" // "Najot" gazetasi, 1917 yil may.
4. Begali Qosimov " O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti" . T. "man'aviyat" 2000 yil.
5. Teshayev. N.N Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarida milliy uyg'onish va milliy birlik, istiqlol g'oyalari // " Mahmudxo'ja Behbudiy millat fidoyisi va marifat parvar" Ilmiy maqolalar to'plami. "Durdona" nashriyoti2014 yil. 29-35 betlar

ABDULLO AVLONIYNING TURKIY GULUSTON YOXUD AXLOQ ASARIDAGI TARBIYA TURLARINING MAZMUNI

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

BuxDPI professori

Tarbiya insonning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim omillardan biridir. O‘tmishdagi ma’rifatparvar pedagoglar, jumladan Abdullo Avloniy, yosh avlodni tarbiyalashning zamonaviy pedagogik asoslarini yaratishda katta hissa qo‘shgan.

Abdullo Avloniy (1827–1910) Turkistonda ma’rifatparvarlik va jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari nafaqat ilmiy, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya masalalariga ham bag‘ishlangan. Avloniy pedagogik qarashlarida tarbiya turlari alohida o‘rin egallaydi, ularni ma’rifiy, axloqiy, odob-axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy tarbiya yo‘nalishlariga bo‘lish mumkin.

Turkiy Guluston yoxud Axloq asarida Avloniy o‘quvchi va yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirish, ularni intellektual va ma’naviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni bayon etadi. Ushbu maqolada asardagi tarbiya turlari va ularning mazmuni tahlil qilinadi, shuningdek, Avloniy pedagogik yondashuvining bugungi ta’lim jarayoniga tatbiq qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

AXLOQ

Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg’an kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o’qub, bilub amal qilgan kishilar o’zining kim ekani, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o’zidan xabardor bo’lmasa, ilmini, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qiymatini bilmas. Öz ayibini bilub, iqror qilib tuzatmakka sa’y va ko’shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo’yiladurg’an amallarning ichinde yaxshi xulqdan og’irroqi yo’qdur. Mo’min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro’za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,
O’ylasang yaxshi fikrla o’yla,
So’ylasang so’yla yaxshi so’zlardan,
Yo’qsa bekorlig’ing erur yaxshi.
Yo’qsa gung bo’lmog’ing erur, yaxshi.
Yo’qsa jim turmog’ing erur, yaxshi.

XULQ

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko’z ila bor narsalarni ko’rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo’ladur.

Jasadning surati hammaga ma’lum bir narsadurki, har vaqt ko’zga ko’rinib turadur. Ammo nafsning surati ko’zga ko’rinmaydurg’an, aql ila o’lchanadurg’an bir narsadurki, buni hulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulub tarbiyasiz,

axloqsiz bo’lub o’sdimi, «Allohu akbar» bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo’l uzatmak kabidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: “Bir tog’ning o’rnidan ko’chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning hulqi boshqa bo’ldi deb eshitsangiz ishonmangiz», – demishlar.

Hulqi yomon yuz, ko’zlidin na sud
Yuz, ko’zli hulqni qilmas kashud.
Hulq mariziga davo istasang,
Marg davosin berilur qistasan.
Hulqi yomoning keturar ko’p zarar,
Hulqing o’zi boshingga kaltak urar.
Hulqi fano bo’lsa deyilin alxazar,
Xor-u zalillikda qolur darbadar.

YAXSHI XULQ, YOMON XULQ

Axloq ulamosi insonlarning xulqini ikki bo‘limga bo‘lishgan. Agar nafs tarbiya topib, yaxshi ishlarni qilishga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib, “yaxshi xulq”, agar tarbiyasizlik ustun kelib, yomon ishlarga moyillik paydo bo’lsa, yomonlikka tavsif bo’lib “yomon xulq” deb ataladi.

Janobi Haq insonlarning asl xilqatida iste’dod va qobiliyatni, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradug’an qilib yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkirmoq tarbiya ila bo’lur. “Qush uyasida ko’rganin qilur”. Inson javhari qobildir. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib, katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqur. Agar tarbiyasiz, axloqi buzulib o’ssa, Allohdan qo’rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydirgan, nasihatni qulog‘iga olmaydirgan, har xil buzuq ishlarni qiladirgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qolur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: “Imoni komil bo‘lgan kishilar yaxshi xulqli bo‘lurlar, sizning eng yaxshilaringiz xotinlariga yaxshilik qilganlaringizdir” — demishlar.

Hudoning rahmat-u fayzi hama insonga yaksardur,
Va lekin tarbiya bilan yetishmak sharti akbardir.
Tug’ib tashlovla bo’lmas bola, bo’lgay balo sizga,
Vujudi tarbiya topsa bo’lur raxnamo sizga.
Temurchining bolasi marbiyat topsa, bo’lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o’g’li bo’lsa, bo’lg’usi zolim.
Yomonlarga qo’shildi Nuhning o’g’li, o’ldi beimon,
Yurubi Kahf iti xublar-la oti inson.

TARBIYA

Tarbiya «Pedagogiya», ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘Ldug’inidan shuL xususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sturmakdur. Tarbiya qilg‘uvchilar tabib kabidurki, tabib hastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub,

katta qilmog‘i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqikum» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakka amr olinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1967. – 96 b.

2. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008. – (Asar nusxasi yoki chop etilgan to‘plam).

3. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma’naviyat, 1992. – (Ba’zi manbalarda qayd etilgan chop etilgan nusxa).

4. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – 128 b. (zamonaviy nashr)

5. Avloniy, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2008. (Turkiy Guliston yoki Axloq asari kirgan to‘plam)

6. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

7. Xudoyberganov, Q. O‘zbek ma’rifatparvarlari merosi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

8. Nazarov, Q. Jadidchilik va o‘zbek pedagogik tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2010.

9. Usmonov, M. O‘zbek adabiyotida ma’rifiy g‘oyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK TA’LIMOTLARI VOSITASIDA O’QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Masharipova Nasiba Ro’zmatovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti,

“Milliy tarbiya, jadidlar va mutafakkirlarning pedagogik ta’limotlari” bo’limi katta ilmiy xodimi, p.f.f.d (PhD)

Har bir davrda o’quvchi-yoshlarni to’g’ri fikrlashga yo’naltirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralgan. Fikr tarbiyasini amalga oshirishda mutafakkirlar, milliy qahramonlar va jadidlarning o’ziga xos ta’limotlari mavjud.

Jadid ma’rifatparvarlining asosiy maqsadi yoshlarni fikr tarbiyasini shakllantirish va shu asosda taraqqiy etish bo’lgan. Chunki yoshlar o’zining fikriga, g’oyalariga, eng asosiysi ularni amalga oshirishga intilsalargina bizda ilm, kasb-hunar, maorifda yuksalish bo’ladi deb ta’kidlaganlar.

Jadidlarning ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi, umuman pedagogik qarashlari shu bilan xarakterliki, ular ajdodlarimizning bu boradagi qimmatli fikrlarini ilg‘or

zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtirganlar. Shu bois ularning pedagogik qarashlari ijtimoiy zaminga asoslanganligi bilan hanuzgacha ahamiyatini saqlab kelmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek jadidlar milliy tiklanishni asosiy mexanizmi sifatida ta’lim tarbiya va pedagogik fikrlarni rivojlantirish masalasini ko‘tarib chiqqanlar. Haqiqatan ham o‘zbek xalqining buyuk tarixida bizlar ham, bizlardan keyingi avlodlarimiz ham, hatto chet ellarda ham hamisha qadrlaydigan buyuk ajdodlarimiz juda ko‘p. Shulardan biri mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yetakchi namoyondasi Munavvarqori Abdurashidov (1878-1931) edi. U o‘qituvchilar oilasida tug‘ilib voyaga etganligi uchun ham ko‘plab jadid maktablariga asos solgan, ular uchun darsliklar qo‘llanmalar yozishga muvaffaq bo‘lgan. U tom ma’nodagi millatparvar xalqchil pedagog edi. U eng avval taraqqiyotdan orqada qolgan xalq maorifini isloh qilish g‘oyasini ilgari surgan.

Yoshlarda fikr tarbiyasini shakllantirishda Maxmudxo’ja Behbudiyning qarashlari ta’lim va tarbiyani yana yuksaltirishga xizmat qilgan. Millatning hurriyati va taraqqiyotiga bor imkoniyatini safarbar qilib, millatlarning ustozi va peshvosiga fidoyisi bo’lgan Mahmudxo'ja yoshlarga o’z “Vasiyatnoma”si orqali fikrlamoqqa, shitob bilan harakar etmoqqa chorlaydi. Quyida Behbudiyning vasiyatlarini keltiramiz va tahlilga tortishga harakat qilamiz: “Haq olinur, berilmas!” ushbu vasiyati ma’rifatparvar quydagi da’vati bilan izohlaydi: “Ey, g'ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-biriga dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to'yg'azolmayturgon etim va bevalar haqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, xoliq Xudoning naf'ig'a, din va millat yo'liga xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas”.

“Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar” go’yasini Behbudiy shunday ta’sircha ifodalaydiki, uning bu hayqirig’I millat yoshlarini ilm, kasb-hunar egallashga ruhlantirgan, fikrlashga, uy’onishga undagan: Boshimiz og'risa do'qtirga boramiz, ammo dardimizni aytmoqg'a til yo'q. O'zimizdin do'qtir yo'q”. Yana bir o'rinda: “Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz “muhandis” ismini bilmaymiz”, Turkiston mevasi, donasi, toshi, tuprog'i, shohi, adras, beqasam, alocha kabilari ham Yevropa bozorlarida o'zga ellar dallollari tomonidan arzon olib ketilib, bir necha barobar qimmatga sotilayotganidan, bunday ishni qilish uchun bizning til biladigan, soha ilmidan xabardor zamonaviy savdo kishilarining yo'qligidan zorlanadi. Hatto, tojir va boylarning ilmi tijorat, hisob-buxgalterlik biladigan bir odamlari yo'qligini qanday baholash mumkin?”.

Behbudiyning “Yuksak madaniyatli va ma'naviyatli jamiyat orzusi” ya’ni ma’rifatparvar Turkiston xalqining har bir a'zosini o'qimishli, milliy qadriyatlar jonkuyari, o'zligini anglagan, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand, ular istifodasiga qodir, milliy taraqqiyotga monelik qiluvchi illatlardan xalos bo'lgan va ularga qarshi kurashuvchi shaxslardan iborat bir jamiyat, ya'ni yuksak madaniyatli va ma'naviyatli jamiyat orzu qilingan. “Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir (kofirga chiqarish) va tal'in (la'natlash) ila vaqt o'tkarurmiz”,

ko'zlangandek jamiyat a'zolari bo'lishlari, jahonda munosib o'rin egallashlari uchun millatdoshlarining ikki emas, to'rt tilni bilishlari lozim" deya ta'kidlagan.

Abdulla Avloniy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab umrining oxirigacha o'qituvchilik qildi, maktablar uchun darsliklar yaratdi, pedagogika fanining amaliy va nazariy masalalari bilan shug'ullandi. Shuni aytish joizki, u musulmon sharqi pedagogikasining ulug' bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi faniga tamal toshi qo'ygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida zamonaviy pedagog va metodistlarni etishtirdi. Bizga ma'lumki, adabiy o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish hisoblanadi. Ko'rgazmali vosita vazifasini bajaruvchi ifodali o'qish natijasida asar voqealari, mazmuni, g'oyasi o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalanadi. Abdulla Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e'tibor bergan bo'lsa, asarni tushunib o 'qish, ifodali o'qish, badiiy asarni his qilishga ko'p diqqat qaratdi. Chunki o'qish jarayonida nafaqat o'qish, uqush, tushunish balki, savollar vujudga keladi. Savollarga javob izlash natijasida fikrlash shakllana boshlaydi. Ozod va hur fikrlari bilan maydonga chiqqan pedagog o'z darslarida ifodali o'qishning boshlang'ich shakllari bilan cheklanmasdan uning zamonaviy shakllarini ham yaratdi. Uning badiiy asarlarni o'qitishdagi bunday faoliyati Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" jadidlar rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov va bir qancha pedagoglar taklifi bilan yaratgan. Bu kitob zamonaviy pedagoglar etishtirish, yangi darsliklar yaratish va majmualar yaratish uchun asosiy qo'llanma vazifasini o'tadi. Abdulla Avloniy bu asari haqida shunday deydi: "Men bu asari nochizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim.

Har kun o'luram shomg'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,
Men xastayamu millatim o'lmish nega bemor.

Abdulla Avloniy bu asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi. Ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko 'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri taqdir qilinib kelingan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir narsadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurkim, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidur". Bu asar Shayx Muslihiddin Sheroziy asariga o'xshatma tarzida yaratilgan. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Mutafakkir xulqlarni yaxshi va yomonga ajratarkan, Qur'on oyatlari va hadislari, shuningdek, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Suqrot, Aristotel fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy

mezon qilib oladi. Har tomonlama etuk insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog‘liqdir.

Adib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini “Yaxshi xulqlar” (31 fazilat) va “Yomon xulqlar” (20 illat) kabi qismlarga bo‘ladi. “Yuksak xulqlar” bobida diyonat, islomiyat, nazofat, qanoat, intizom, sabr, shijoat, vatanni sevmoq, haqqoniyat, vijdon, sadoqat, iffat, hifzi lison singari yuksak fazilatlar to‘g‘ risida mulohaza yuritadi. Abdulla Avloniy fikricha, axloq-xulqlar majmuyidir. Xulq esa kishida o‘z-o‘zidan paydo bo ‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum sahroit va tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Har bir millatning rivojlanishi, qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy ta’kidlab ko’rsatgan fazilatlar yosh avlodda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim asoslar hisoblanadi.

Jadid ma’rifatparvarlarining asosiy maqsadi xalqni ma’rifatli, ilmli, kasbu-hunarli qilish asosida mamlakatni taraqqiy toptirish bo’lgan. Chunki xalqning faravonligi uning o’z mehnati orqasidan topgan halol haqqi, o’z kasbu koriga egaligi, ma’naviy va axloqiy etukligi bilan saodatlidir. Abdurauf Fitrat o’zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida “...odam biror bir kasbu kor bilan mashg’ul bo’ladi, shu asnoda boshqalar bilan muomalaga kirishadi, muomala vaqtida aloqa, kengash, suhbat, bahsga kirishib, goh janjal qiladi, goh sulh tuzib murosaga keladi. Shunday qilib odam bolasi qizmi yoki o’g’ilmi, balog’at yoshiga etib shu munosabatlar doirasiga kirgani sari yuqoridagi muomalalarni qilishga majbur bo’ladi” degan fikrlarini ifoda etadi. Ma’rifatparvarning fikrlaridan ko’rinib turibdiki, kasbu hunar insonlarni ijtimoiylashuvini ta’minlab, ularda muloqot, shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishda ham asosiy omil hisoblanadi.

Ma’rifatparvar olim o’qish, tahsil olish, ilmli bo’lish, kasbu hunar egallashda xotin-qizlarga alohida e’tibor va shart-sharoitlar yaratib berish lozimligini ta’kidlaydi. Bu borada “...biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimz lozimi, farzandlarimiz imonli, fidokor, g'ay ratli bo'lib ulg’ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim…”. Ma’rifatparvar ayollarda ham alohida iqtidor, qobiliyat, ilm olish layoqati yuqori ekanligini turli hayotiy va ilmiy asoslar bilan ko’rstib bergan.

O’quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda jadid ma’rifatparvarlarining merosidan ta’lim-tarbiya jarayonlarida keng foydalanish muhim va motivatsion ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aysak, jadidlarning fikr tarbiyasiga oid qarashlari har bir davrda millatimiz yoshlarining axloqiy, ma’naviy, kasbiy, intellektual rivojlanishlariga muhim pedagogik ta’sir ko’rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 184 b.

2. Abdirashidov, Z. *Mahmudxo’ja Behbudiy*. — Toshkent: Yoshlar, 2022.

3. Olim, O. *Abdulla Avloni*. Toshkent: Yoshlar, 2022.

4. Safarova R.G. Mutafakkirlar va jadidlarning tarbiya modellari haqidagi yondashuvlar. “Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiya turlariga oid

ta’limotlari hamda undan foydalanish mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. – B. 36-39. 2025-yil 20-21-may. https://doi.org/10.5281/zenodo.15553310

5. Fitrat,A. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari* / Abdurauf Fitrat. — Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 2013.

6. Xolboyev, S. — *Munavvar Qori Abdurashidxonov*. — Toshkent: Yoshlar, 2022.

JADID PEDAGOGIK MEROSI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MIFOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (O‘QISH DARSLARI MISOLIDA)

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

BuxDPI professori, (DSc)

Xayrullayeva Aziza

1 kurs magistranti

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, ularni mustaqil fikrlash va tafakkurga o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mifologik dunyoqarash esa bolalarda tarixiy va madaniy merosni anglash, obrazli fikrlash va tasavvur ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Jadid pedagogik merosi maktabning boshlang‘ich sinfida o‘qituvchi va tarbiyachilarga ilmiy-pedagogik va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar o‘z davrida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va xalqning tarixiy-madaniy merosini yetkazish masalalariga katta e’tibor berganlar.

Jadid pedagogik merosining mazmuni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlari (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar) pedagogik qarashlarida quyidagi tamoyillar mavjud.

- bolalarda milliy va tarixiy ongni shakllantirish bu - bolalarda o‘z millati va jamiyati tarixini anglash, qadriyatlarini qadrlash va tarixiy voqealarni dalillar asosida tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir.
- tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirish bu - shaxsda muammolarni tahlil qilish, turli manbalarni solishtirish, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir.
- o‘quvchilarda mifologik va madaniy bilimlarni uyg‘unlashtirish bu - o‘quvchilarda mifologik tushunchalar, ertaklar va afsonalarni ularning milliy madaniyati, urf-odatlari va tarixiy merosi bilan bog‘lab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir.
- dars jarayonida ijodiy va refleksiv yondashuvni qo‘llash bu - o‘qituvchi yoki tarbiyachining dars davomida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini

rag‘batlantirish va o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish pedagogik usulidir

Ushbu tamoyillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda asosiy yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

Mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi. Mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat:

Mifologik tushunchalarni o‘quvchilarga yetkazish. Mif va ertaklar orqali tarixiy va madaniy bilimlarni tushuntirish bu o‘quvchilarga milliy tarix, madaniyat va an’analarni tushunarli va obrazli shaklda yetkazish jarayonidir, bunda mif va ertaklar vosita sifatida ishlatiladi. Obrazli fikrlash va tasavvur ko‘nikmalarini rivojlantirish. o‘quvchilarda tushunchalarni vizual va fantaziyaga asoslangan tarzda tasavvur qilish, ularni obrazlar orqali anglash va yangi g‘oya va yechimlarni yaratish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir.

Mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quvchilarning savol berish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, topshiriqlarni ijodiy va muammoli shaklda berish.

Refleksiv va ijodiy yondashuvni qo‘llash. O‘qituvchi dars jarayonini tahlil qiladi va natijalarni baholaydi, O‘quvchilarning ijodiy ishlari va fikrlarini rag‘batlantiradi.

Jadid pedagogik merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasini yaratishda ilmiy-pedagogik va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda milliy va tarixiy ongni shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 112 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 240 b.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000. – 320 b.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Pedagogik qarashlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 180 b.
5. Karimov N. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
6. Xayrullayeva A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi. – Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2024. – 150 b.
7. Krayevskiy V.V. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001. – 240 b.
8. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Prosveshcheniye, 1982. – 192 b.

JADIDLAR ASARLARIDA MILLAT GENOFONDINI SAQLASH VA JISMONIY BARKAMOLLIK MASALALARI

Nazirov Baxtiyor Safarovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dots.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy tariximizni, xususan, jadidchilik harakati merosini xolisona va tanqidiy o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sobiq Ittifoq davri tarixshunosligida Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-madaniy voqeliklar, ayniqsa, aholining jismoniy tarbiya va sport an'analari ko‘p hollarda bir tomonlama yoritilgan yoki ataylab buzib ko‘rsatilgan. Mustaqillik sharoiti bizdan ushbu jarayonlarni milliy genofondni asrash va jismoniy barkamollik kontekstida qayta tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Chorizm mustamlakachiligi davrida maktab va madrasalar dasturidan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ochiqchasiga chiqarib tashlangan, yoshlarning jismoniy faolligi tizimli ravishda cheklangan edi. Shunga qaramasdan, xalq o‘zining ko‘p asrlik milliy o‘yinlarini — kurash, poyga, uloq, darbozlik va akrobatika kabi an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Navro‘z va hosil bayramlarida namoyish etilgan polvonlar bellashuvi, mohir chavandozlar chaqqonligi va tosh ko‘tarish kabi mashqlar nafaqat ko‘ngilochar tomosha, balki millatning jismoniy salohiyatini namoyish etuvchi o‘ziga xos ijtimoiy institut vazifasini o‘tagan.

Markaziy Osiyo hududida yashagan ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy va moddiy meros orasida jismoniy madaniyat alohida o‘rin tutadi. Jadidlar talqinida jismoniy madaniyat — insonni bolalikdan sog‘lom o‘stirish, mehnat qobiliyatini oshirish va millatning uzoq umr ko‘rishini ta'minlovchi dunyoviy omildir. Ularning qarashlariga ko‘ra, otda turib kamondan o‘q otish, nayza sanchish va qilichbozlik kabi murakkab mashqlar yoshlarni nafaqat jismonan baquvvat qilish, balki ularda Vatanni sevish, mardlik va uddaburonlik fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qilgan.

Jadid ma'rifatparvarlari millat genofondini asrash masalasini dunyoviy fanlar taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rdilar. Ular jismoniy tarbiyani (badaniy tarbiyani) axloqiy va intellektual yuksalishning poydevori deb hisoblab, harbiy-jismoniy tayyorgarlikning tarixiy tajribalarini zamonaviy pedagogik usullar bilan boyitishni taklif etdilar. Ushbu maqolada jadidlarning jismoniy barkamollik borasidagi qarashlari milliy mustaqillik g‘oyasi va sog‘lom avlod konsepsiyasi prizmasi orqali tadqiq etiladi.

Material va tadqiqot usullari (Materials and methods).

Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik kabi usullar yordamida jadid vakillarining aholini sog‘lomlashtirish borasidagi qarashlari va amalga oshirgan ishlariga oid birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan xolda atroflicha tadqiq etildi.

Natijalar va ularning muxokamasi (Results and its discussion)

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston general-gubernatorligi o‘rnatilishi bilan o‘lkada kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar ziddiyatli tus oldi. Bu davrda jismoniy madaniyat sohasi asosan rus madaniyatining bir qismi sifatida namoyon bo‘lib, u mahalliy aholining milliy qadriyatlari va an’anaviy o‘yinlari bilan integratsiyalashmadi. Mustamlaka ma’muriyati mahalliy millat vakillarining zamonaviy sport turlariga jalb etilishiga va sport jamiyatlarining tuzilishiga qat’iy qarshilik ko‘rsatdi [1]. Bunday diskriminatsion siyosatning asosiy sababi mahalliy aholi orasida jismonan baquvvat va harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan yoshlar qatlamining shakllanishidan cho‘chish edi. Natijada, o‘sha yillarda Turkistonda professional sport turlari joriy etilmadi va milliy kadrlar orasidan yetakchi sportchilar yetishib chiqishi uchun sun’iy to‘siqlar yaratildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Turkiston ijtimoiy-siyosiy sahnasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi ta’lim va millat genofondini saqlash masalasida yangi davrni boshlab berdi. Jadid ma’rifatparvarlari millatning tanazzulga yuz tutish sabablarini tahlil qilar ekanlar, birinchi navbatda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni kun tartibiga qo‘ydilar. Ular tashkil etgan "usuli jadid" maktablari yoshlarga nafaqat diniy, balki hayotiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dunyoviy bilimlarni berishni maqsad qilgan edi. Yangi maktablarda o‘rta asrlarga xos bo‘lgan individual o‘qitish uslubidan zamonaviy sinf-dars tizimiga o‘tildi. O‘quv jarayonida geografik xaritalar, globuslar va turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanish joriy etildi, darslar oralig‘ida tanaffuslar belgilandi va eng muhimi — o‘quvchilarni jismoniy jazolash (urish) amaliyoti bekor qilindi [2].

Jadidlarning ta’limiy islohotlari millatning jismoniy salohiyatini tiklashda katta ahamiyatga ega bo‘lsa-da, mazkur maktablarda ham jismoniy tarbiya darslari bugungi kundagidek muntazam va alohida fan sifatida to‘la shakllanib ulgurmagan edi. Biroq ma’rifatparvarlar darslar orasidagi tanaffuslardan unumli foydalanib, o‘qituvchilar rahbarligida milliy xalq o‘yinlari va turli harakatli mashqlarni tashkil etganlar. Bu harakatlar o‘quvchilarning darsdagi charchoqlarini chiqarish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ushbu harakatning eng yorqin namoyandalaridan biri, taniqli pedagog va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Hunarmand oilasida tavallud topgan Avloniy butun faoliyati davomida "komil inson" g‘oyasini ilgari surdi. Uning pedagogik qarashlarida jismoniy barkamollik va ma’naviy yetuklik tushunchalari o‘zaro uyg‘unlikda talqin etiladi. Avloniy nazarida, jismoniy tarbiya (badaniy tarbiya) millat genofondini saqlashning asosi bo‘lib, sog‘lom avlodgina milliy ozodlik va ma’rifat uchun kurashishga qodir bo‘ladi [3].

Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablarining ta’limiy poydevorini yaratishda o‘zining 4 qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she’rlar», shuningdek, «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» va «Maktab gulistoni» kabi darsliklari bilan ulkan hissa qo‘shdi. Biroq uning pedagogik qarashlari va millat barkamolligiga doir konsepsiyasi «Turkiy guliston yohud axloq» asarida o‘zining yuqori nuqtasiga ko‘tarildi. Mazkur asar shunchaki axloqiy o‘gitlar to‘plami emas, balki insonni yuksak kamolotga yetaklovchi, uni har tomonlama (jismoniy va ma’naviy) chiniqtiruvchi dunyoviy qo‘llanmadir.

Avloniy bola tarbiyasini yaxlit tizim sifatida koʻrib, uni shartli ravishda quyidagi toʻrt boʻlimga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni (Vaqtning ahamiyati);
2. Badan tarbiyasi (Jismoniy barkamollik);
3. Fikr tarbiyasi (Intellektual rivojlanish);
4. Axloq tarbiyasi (Ma'naviy yetuklik) [10].

«Tarbiyaning zamoni» boʻlimida muallif tarbiya jarayonini kechiktirib boʻlmas ijtimoiy zaruriyat sifatida baholaydi. Uning: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir», degan oʻlmas xitobi jadidlarning millat taqdiri haqidagi tashvishlarini toʻla ifodalaydi. Avloniyning fikricha, tarbiya faqat oilaning xususiy ishi emas, balki millat va davlatning qudrati bilan bogʻliq boʻlgan strategik vazifadir. Zero, har bir xalqning taraqqiyoti bevosita avlodlarning qanday tarbiya topishi bilan belgilanadi [10].

Tarbiyani zurriyot dunyoga kelgan lahzadan boshlab, umrning oxiriga qadar davom etadigan uzluksiz jarayon deb bilgan Avloniy, uning doirasini keng ma'noda talqin etadi. U tarbiyani faqat quruq axloqiy pand-nasihatlar bilan chegaralab qoʻymaydi. Ma'rifatparvar olim birinchi navbatda bolaning jismoniy salomatligi haqida qaygʻurish lozimligini uqtiradi. Bu qarash zamonaviy tilda millat genofondini asrashning ilk va eng muhim shartidir.

Avloniyning falsafiy va pedagogik xulosasiga koʻra, sogʻlom fikr va goʻzal axloq faqat sogʻlom vujudda barqaror boʻlishi mumkin. «Badanning salomat va quvvatli boʻlmogʻi insonga eng kerakli narsadir. Chunki oʻqimoq, oʻqitmoq, oʻrganmoq va oʻrgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir» [10], — deb ta'kidlaydi u. Ushbu fikr jadidlar jismoniy tarbiyani (badaniy tarbiyani) barcha dunyoviy va diniy fanlarni oʻzlashtirishning asosi deb hisoblaganliklarini koʻrsatadi.

Avloniy jismoniy tarbiya masalasida bolani sogʻlom voyaga yetkazish mas'uliyatini ota-onalar zimmasiga yuklasa, intellektual va gʻoyaviy rivojlanishda mudarrislarning mahoratiga tayanadi. Bu orqali u oila va maktab oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh omili sifatida asoslab beradi.

Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, qomusiy olim Abdurauf Fitrat nafaqat ijtimoiy-siyosiy islohotchi, balki millatning biologik va ma'naviy sogʻlomligini ilmiy asoslab bergan mutafakkirdir. Uning "Fitrat" taxallusi (tugʻma tabiat, iste'dod) zamirida ham insonning tabiiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish gʻoyasi yotadi. Fitrat "Yosh buxoroliklar" harakatining yetakchisi sifatida yangi usul maktablari orqali millat genofondini asrashni oʻz faoliyatining ustuvor yoʻnalishi deb bildi [7].

Fitratning Turkiyadagi tahsili (1909–1913) va Germaniyaga talabalar yuborish borasidagi tashabbuslari uning Yevropa ilm-fani hamda tibbiy yutuqlaridan boxabar boʻlganini koʻrsatadi. Uning 1916-yilda yozilgan "Oila" va keyinchalik e'lon qilingan "Rahbari najot" asarlari milliy pedagogikamizda jismoniy tarbiya masalalarini tizimlashtirgan muhim manbalardir. Xususan, "Rahbari najot" asarining uchinchi bobi oila va bola tarbiyasiga bagʻishlangan boʻlib, unda komil insonni voyaga yetkazishning uch asosi keltiriladi:

1. Jismoniy tarbiya – jismoniy salomatlik va quvvat;
2. Aqliy tarbiya – sog‘lom va tanqidiy fikrlash;
3. Axloqiy tarbiya – ma’naviy va ruhiy poklik [5].

Fitrat jismoniy tarbiya masalasiga zamonaviy tibbiyot va genetika nuqtayi nazaridan yondashadi. U millat genofondini saqlashni bola hali dunyoga kelmasdan oldin, ona qornidalik davridanoq (prenatal tarbiya) boshlash zarurligini uqtiradi. Olimning fikricha, homilaning to‘qqiz oy davomida ona qoni va ruhiyati bilan oziqlanishi farzandning kelajakdagi jismoniy baquvvatligini belgilovchi tamal toshidir. Bu qarash jadidlarning "sog‘lom onadan sog‘lom bola" konsepsiyasini naqadar chuqur anglaganliklarini ko‘rsatadi.

Bola dunyoga kelgandan so‘ng esa, Fitrat uning jismoniy barkamolligi uchun tabiat bilan uyg‘unlikni muhim deb hisoblaydi. Toza havo, atrof-muhit go‘zalligidan estetik zavq olish va doimiy harakatda bo‘lish bolaning nafaqat tanasini, balki asab tizimini ham chiniqtiradi. Fitrat jismoniy tarbiyani shunchaki mashqlar majmuasi emas, balki millatning baquvvat genofondini yaratish, kasalliklarga chidamli, g‘ayratli va kurashchan avlodni shakllantirishning dunyoviy vositasi deb talqin etadi.

Uning Germaniya va Turkiyaga talabalar yuborish borasidagi sa’y-harakatlari ham zamirida G‘arbning tibbiyot va jismoniy madaniyat sohasidagi yutuqlarini Turkistonga olib kirish, mahalliy kadrlar orqali millat sog‘lig‘ini tizimli ravishda yaxshilash maqsadi yotgan edi. Shunday qilib, Fitrat merosida jismoniy tarbiya — milliy najot va taraqqiyotning biologik kafolati sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Abdurauf Fitrat bolaning jismoniy rivojlanishida turli harakatli o‘yinlarning o‘rnini yuqori baholagan. U ota-onalarga farzandlarining muntazam ravishda faol o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlashni hayotiy maslahat sifatida beradi. Fitratning fikricha, jismoniy mashqlar va o‘yinlar faqat tanani chiniqtirib qolmay, balki bola ongida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, aqliy va axloqiy tarbiya uchun zamin hozirlaydi. Shu bilan birga, mutafakkir millat genofondini asrashning muhim sharti sifatida shaxsiy gigiyena va tozalik qoidalariga rioya qilishni ko‘rsatib o‘tgan. Uning talqinida, jismoniy barkamollik poklik va sog‘lom turmush tarzi bilan uzviy bog‘liqdir.

Fitrat o‘z asarlarida o‘sha davrdagi achinarli voqelikni — "usuli jadid" maktablari va eski maktablar o‘rtasidagi farqni ham ochiq tahlil qilgan. Jadid maktablari bolalarning salomatligi va jismoniy o‘sishi uchun barcha zamonaviy sharoitlarni yaratishga intilgan bir paytda, hukmron doiralar va mutaassib qatlam bu dargohlarni "kofir maktabi" deb qoralab, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilgan. Eski maktablarda esa bolalarning nafaqat jismoniy chiniqishlari, balki oddiy sanitariya-gigiyena holatlari ham mutlaqo e’tibordan chetda qolgan edi. Jadidlar uchun bu kurash nafaqat ta’lim islohoti, balki millatni jismoniy qirilish va kasalliklardan asrab qolish uchun olib borilgan chinakam ma’naviy jang edi [8].

Turkiston o‘lkasining yirik shaharlarida ziyolilar tashabbusi bilan dastlabki sport klublari va jamiyatlarining tashkil etilishi ushbu harakatning amaliy samarasi bo‘ldi. Garchi bu sektsiyalarning asosiy tarkibini dastlab harbiylar va xizmatchilar tashkil etgan bo‘lsa-da, milliy ziyolilarning ularga qo‘shilishi jismoniy madaniyatning ommalashishiga xizmat qildi. Chet elda tahsil olgan va dunyoviy

bilimlarni egallagan Turkiston ziyolilari rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, insonning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiya fundamental o‘rin tutishini teran anglab yetganlar [7].

Abdurauf Fitratning mustaqillik, demokratiya va hurlik haqidagi g‘oyalari uning jismoniy tarbiya borasidagi qarashlari bilan hamohangdir. U kuchli va sog‘lom millatgina o‘z mustaqilligini qo‘lga kirita olishiga ishongan. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston yoshlari uchun jadidlarning ushbu merosi nafaqat tarixiy bilim, balki jismoniy va ma’naviy barkamollik yo‘lidagi muhim namunadir. Zero, millat genofondini asrash va sog‘lom avlodni voyaga yetkazish bugungi davlat siyosatining ham ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Turkiston jadidlarining jismoniy tarbiya va salomatlik borasidagi qarashlari shunchaki pedagogik tavsiyalar emas, balki millat genofondini asrashga qaratilgan strategik konsepsiya bo‘lgan. Chorizm mustamlakachiligi sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolishning muhim sharti sifatida jismoniy barkamollik masalasi ilgari surilganligi ularning naqadar uzoqni ko‘ra oladigan strateg ekanliklarini tasdiqlaydi.

Jadid mutafakkirlarining ma’rifiy dunyoqarashida shaxs kamolotida jismoniy tarbiyaning o‘rni quyidagi fundamental xulosalar bilan belgilanadi:

- Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi siymolar sog‘lom tanni ilm egallashning birlamchi sharti deb bildilar. Ularning fikricha, insonning uzoq umr ko‘rishi va baxtli hayot kechirishi uning barcha a’zolarining salomatligi va quvvatiga bevosita bog‘liqdir.
- Jadidlar harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlarni nafaqat chiniqish vositasi, balki bolaning aql-farosati, mantiqiy fikrlashi va axloqiy dunyosini shakllantiruvchi muhim omil sifatida asoslab berdilar.
- Salomatlik uchun kurashish va jismoniy quvvatga ega bo‘lish islom dinining ham muhim talablaridan biri ekanligi jadidlar asarlarida mahorat bilan yoritib berilgan. Bu esa jismoniy madaniyatning jamiyatda ijtimoiy-diniy maqomga ega bo‘lishini ta’minlagan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini barpo etishda jadidlarning "Sog‘lom vujudda sog‘lom aql" tamoyiliga asoslangan pedagogik merosi g‘oyat dolzarbdir. Zero, ma’rifatparvar ajdodlarimiz orzu qilganidek, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli va millat genofondini asrashga qodir barkamol avlodni tarbiyalash hozirgi davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda. Jadidlar merosini jismoniy tarbiya prizmasi orqali o‘rganish yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati;

1. Abdumalikov R., Eshnazarov K. Ajdodolar jismoniy madaniyati tarixini urganish masallari T. 1993 yil
2. Abdumalikov R., A. Akromov O`zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixini urganish masalalari. T. 1994 yil
3. Алексеев Н. М., Организация работы в объединенных коллективах физической культуры, М., 1971.

4. Abdumalikov R., Yusupov T. T., Akramov A. K., «Jismoniy tarbiya xarakatini kengaytirish yo‘llari», T., Meditsina; 1988

5. Axatova D.A. Abdurauf Fitratning ma’rifiy-pedagogik qarashlari. 13.00.01-Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ped.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun diss,-T, 1998.

6. Borshin N. A., Is’hoqov M. F.— O‘zbekiston komsomolining jumhuriyatda jismoniy tarbnya va sportni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati, (1924—1974 yillar).— Toshkent, «Yosh gvardiya», 1975.

7. Nazirov, B.S. Jadid vakillarining aholini sog‘lomlashtirish borasidagi qarashlari / B. S. Nazirov // Look to the past (O‘tmishga nazar). – 2023. – Special issue 1.– B.[109-114].

8. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.

9. Ro‘ziqulovich, A. Q. (2023). ABDULLA AVLONIY «TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ» ASARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *PEDAGOG*, *1*(5), 10-12.

10. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.

JADIDLARNING DINIY VA DUNYOVIY FANLAR TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI (HUQUQSHUNOSLIK FANI MISOLIDA)

Jabborova Saodat Sattorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD)

Obidova Z.F.

Buxoro Davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistri

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ta’lim va madaniyat, balki huquqiy tafakkur rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, adolat va qonun ustuvorligi bilan bog‘ladilar. Ular diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali yangi huquqiy ongni shakllantirishga intildilar[176]. Ularning sa’y-harakatlari tufayli o‘zbek xalqi ma’rifat, ilm-fan va madaniyat borasida yangi bosqichga ko‘tarildi. Jadidchilik harakati asosida “usuli jadid” – ya’ni yangi usuldagi ta’lim tizimi yotar edi. Bu g‘oya Qrimda yashab ijod qilgan Ismoil Gaspirali tomonidan ilgari surilib,

[176] O‘zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

Turkistonda keng yoyildi.[177] Turkiston jadidlarining yetakchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar xalqni jaholatdan chiqarishning eng to‘g‘ri yo‘li ilm ekanini chuqur angladilar. Ular eski maktab va madrasalardagi yodlashga asoslangan ta’lim o‘rniga, tushunishga, fikrlashga va amaliy bilimga asoslangan yangi maktablarni tashkil etdilar. Bu maktablarda nafaqat diniy ilmlar, balki matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi. [178]

Diniy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi. Jadidlar dini inkor etmadilar, aksincha, uni to‘g‘ri tushunish va zamon talablari asosida talqin qilish tarafdori bo‘ldilar. Ular islom dinining asl mohiyati ilm-ma’rifatga da’vat ekanini ta’kidladilar. Madrasalarda Qur’on, hadis va fiqh ilmlarini o‘qitish bilan birga, ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilindi. Diniy bilimlarni hayot bilan bog‘lash, yoshlarni halollik, vatanparvarlik va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalash jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri edi. Masalan, Behbudiy o‘z asarlarida diniy bilimni jaholatdan ajratish zarurligini ko‘rsatib berdi. U dinni to‘g‘ri anglash uchun ham zamonaviy fanlardan xabardor bo‘lish lozimligini ta’kidladi. Shunday qilib, jadidlar diniy fanlarni yangicha ruhda rivojlantirishga zamin yaratdilar.

Dunyoviy fanlar taraqqiyotiga ta’siri. Jadidlar faoliyati tufayli Turkistonda dunyoviy fanlarga qiziqish keskin ortdi. Yangi usul maktablarida o‘quvchilar qisqa muddat ichida savod chiqarish, hisob-kitob qilish, xarita bilan ishlash, dunyo voqealaridan xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Masalan Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida atroflicha fikr yuritgan. U yoshlarni nafaqat diniy, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarni o‘rganishga undagan.[179]Shuningdek, jadidlar matbuot va teatrni ham ilm-ma’rifat vositasiga aylantirdilar. Behbudiyning sahna asarlari orqali xalq ongiga ijtimoiy muammolar, savodsizlik va orqada qolish sabablari haqida tushunchalar singdirildi. Gazeta va jurnallar orqali esa ilm-fan yangiliklari targ‘ib qilindi. Jadidlar merosining ahamiyati**.**Jadidlarning sa’y-harakatlari qisqa vaqt ichida katta natijalar berdi. Ular milliy uyg‘onish, zamonaviy ta’lim tizimi va ma’rifatli jamiyat poydevorini yaratdilar. Afsuski, ko‘plab jadidlar keyinchalik qatag‘on qilindi, biroq ularning ilmiy va ma’rifiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida dunyoviy va diniy bilimlarning uyg‘un rivojlanishi, zamonaviy fanlarga e’tibor qaratilishi jadidlar orzu qilgan jamiyat sari tashlangan muhim qadamlardan biridir. Shu bilan birga Turkistondagi jadidchilik harakati yetakchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonov – huquqiy savodxonlikni jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb bildilar. Ular xalq orasida adolat, tenglik, shaxs erkinligi va qonuniylik g‘oyalarini targ‘ib etdilar.Jadidlarning qarashlarida huquq masalasi ikki asosga tayangan:1)Islom huquqi (fiqh)ning ma’rifiy talqini.2)Zamonaviy dunyoviy huquqiy tizim elementlarini o‘zlashtirish. Diniy huquqiy qarashlarda jadidlar islom huquqini inkor etmadi, balki uni zamon talablari

[177] Gasprinskiy I. “Tarjimon” gazetasi materiallari va usuli jadid ta’lim tizimi haqidagi qarashlari.
[178] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “Jadidchilik” maqolasi.
[179] Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent.

asosida yangicha talqin qilishga harakat qildilar. Ular fiqh qoidalarini adolat va ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan tushuntirdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida qozilik tizimidagi kamchiliklarni tanqid qilib, sud ishlarida adolat va oshkoralik zarurligini ta’kidlagan. U sud-huquq tizimida savodli, zamonaviy bilimga ega mutaxassislar faoliyat yuritishi kerakligini ilgari surgan.Jadidlar fikricha, shariat qonunlari jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilmasligi, aksincha, inson manfaatiga xizmat qilishi lozim edi. Bu esa huquqiy tafakkurning yangilanishiga olib keldi. Dunyoviy huquqiy fanlar rivojida jadidlar yangi usul maktablarida tarix, geografiya va tabiiy fanlar bilan bir qatorda jamiyatshunoslik va huquqiy bilim asoslarini ham o‘qitishni yo‘lga qo‘ydilar. Bu orqali yoshlar davlat boshqaruvi, fuqarolik huquqlari va jamiyat tuzilishi haqida tasavvurga ega bo‘la boshladilar. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida inson huquqi, axloqiy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch masalalarini yoritgan. Uning qarashlarida huquq va axloq o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalar sifatida talqin etiladi. Jadidlar matbuot orqali ham huquqiy ongni shakllantirishga xizmat qildilar.[180] Gazeta va jurnallarda sud tizimi, maorif qonunlari, mustamlaka siyosati va ijtimoiy adolatsizlik masalalari ochiq muhokama qilindi. Bu esa jamoatchilik fikrining shakllanishiga turtki berdi. Huquqshunoslik nuqtai nazaridan jadidlar faoliyati quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish,Qonun ustuvorligi g‘oyasini ilgari surish,Sud-huquq tizimini isloh qilish zaruratini ko‘rsatish,Shaxs erkinligi va tenglik prinsiplarini targ‘ib etish.Ular mustamlaka sharoitida yashagan bo‘lsalar-da, milliy davlatchilik va konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyalarini ilgari surdilar. Bu esa keyinchalik O‘zbekistonda zamonaviy huquqiy davlat barpo etish jarayoniga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar diniy va dunyoviy fanlar o‘rtasida muvozanat yaratishga intilgan ma’rifatparvar zotlar edi. Ular ilmni millatni qutqaruvchi kuch deb bildilar. Yangi usul maktablari, darsliklar, matbuot va adabiyot orqali ular xalq ongini uyg‘otdilar. Jadidlarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi bugungi kun taraqqiyotining mustahkam asoslaridan biri bo‘lib qolmoqda.

BUXORONING GERMANIYADA O‘QIGAN MATBAAChI TALABALARI

Yo‘ldashev Abduvali Abdumutalibovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT)

katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Turkistonda 1917-yil Oktyabr voqealaridan keyin hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar dastlabki faoliyati davrida amalga oshirgan ishlari bilan o‘zlarining asl qiyofalarini namoyon qildilar. Sovet hukumatining mintaqada olib borayotgan

[180] Qosimov B. *Jadidchilik harakati tarixi*. – Toshkent.

siyosatini yaxshi anglagan Turkiston ziyolilari mamlakat taqdirini va uning kelajagi uchun zarar yechimlar amalga oshirish lozimligini yaxshi anglagan holda amaliy harakatga o‘tdilar. Ular mamlakatda uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutulish choralarini izladi. Ularning rejalarida ushbu muammolarni yechish va qisqa vaqtda maqsadga erishishning yagona yo‘llaridan biri iste’dodli yoshlarni tez fursatda rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlariga yuborish hamda ularga o‘sha yerda o‘rta va oliy ta’lim olish imkoniyatini yaratish ham bor edi. Ushbu maqsad yo‘lida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) ham faol harakatga kirishgan.

O‘sha vaqtda BXSR hukumatida xorijda ta’lim olish istagida bo‘lgan yoshlarni to‘plash, ularning iqtidorlilarini saralash, nemis tili kurslarini tashkil qilish bilan maorif nozirligi mashg‘ul bo‘ldi. Yoshlarning xorij hujjatlarini tayyorlash, ko‘zlangan manzilga yetib olishlari bo‘yicha hukumatning tashqi ishlar nozirligi mas’ul bo‘ldi. 1922-yili Germaniyaga talaba yuborish harakati bilan Chorjo‘yda talabalar uchun maxsus kurs tashkil qilib o‘qitildi. BXSR hukumatida Germaniyaga yuborilayotgan talabalarning ta’limini tashkillashtirish uchun 1922-yil 13-avgustda uch kishidan iborat komissiya tuzilgan. Bu komissiya Olimjon Idrisiy, Buxoro markaziy ijroiya qo‘mitasi a’zosi Abduvohid Burhonov va elchixona xodimi Fyodor Aleksandrovich Kemnisdan iborat edi [1].

Buxoro talabalarining ko‘plari kichik va o‘rta yoshdagi o‘quvchilar bo‘lib, o‘ttizdan ortig‘i 10-16 yosh orasida edi. Germaniyaga yuborilgan talabalarning qolgan qismi esa 17-24 yosh orasidagi o‘g‘il-qizlardan tarkib topgan [2. 27].

Talabalarning Germaniyaga dastlabki tashrifi 1922-yil sentyabr oyi oxirlarida Berlindan boshlanadi. Ular dastlab joylashish masalasida muammoga uchraydilar [3]. Olimjon Idrisiy ularni Berlin yaqinidagi Vinsdorf (*Winssdorf*) shaharchasiga olib borgan. 1922-yil Germaniyada Buxoroning madaniy masalalar bo‘yicha delegatsiyasi (*Delegation der Bucharischen Republik in Kultursangelegenheiten – Deutschland*) tashkil etilib, Berlin shahridagi Geysbergshtrasse 39 ko‘chasidagi mehmonxona binosini sotib olingach ularning ta’limidagi faoliyati ham iziga tusha boshlaydi. O. Idrisiy ushbu idoradan Germaniyaning turli maktablariga joylashtirilgan Buxoro ta’minotidagi yoshlarni nazorat qilgan. Germaniya maorif idoralari bilan aloqa bog‘lab, yoshlarni ta’limga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘ygan. O‘sha vaqtda Buxoroning 46 talabasi Germaniyaning yirik shaharlarida joylashgan o‘rta va oliy ta’lim muassasalariga joylashish uchun nemis tili va ta’lim muassasasi uchun zarur ilmlarni olishga kirishganlar. Ular turli yo‘nalishlarga taqsimlangan edi. Talabalardan ikki nafari matbaa ishlari o‘zlashtirish va shu sohada mutaxassis bo‘lishlari uchun yo‘naltirilgan. O‘sha vaqtda Leipsig shahridagi nashriyot sohasidagi o‘rta ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, unda nafaqat Germaniya talabalari, balki boshqa davlatlardan kelgan talabalar ham ta’lim olgan.

Arxiv hujjatlarida ushbu matbaa maktabi haqida ma’lumot keltirilar ekan, maktab uch sho‘baga bo‘linganligi yoziladi. Birinchi sho‘bada o‘quvchilar matbaachilikning boshlang‘ich ma’lumotlari amaliy va nazariy darslar asosida o‘rganib, ikki semestr ya’ni bir yil davomida o‘qiganlar. Bu bo‘lim matbaa ishdan biroz xabari bo‘lgan talabalarga qaratilgan. Ikkinchi sho‘ba esa matbaa ishidan hech xabari bo‘lmaganlar uchun bo‘lib, unda 4 semestrlik darslar tashkil qilingan. Bu

sho‘ba talabalariga ham amaliy va nazariy darslar o‘tilib, ana shu asosda sohaga oid bilim va ko‘nikmalar o‘rgatib borilgan. Uchinchi sho‘ba esa 1 semestrdan iborat bo‘lgan nashr ishlaridagi amaliy faoliyatga qaratilgan. Unda kitobchilar, muallimlar va boshqa yangi hunar o‘rganish istagidagi talabalar faqat amaliy faoliyat asosida o‘qishlari mumkin bo‘lgan [4. 45].

Ushbu o‘rta ta’lim muassasasida talabalarga o‘qitiladigan asosiy fanlar: matbaachilikda amaliyot, olmon tili, matbaa ishlarida bo‘yoqchilik, matbaa ishlarini boshqarish, harf teruvchilik, foydalanilgan materiallar haqida ma’lumot kabilardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari dars jarayonlarida matbaachilikda hisob, rang ishlari va san’at, hoshiyalash, tabiiy usullar, yozuv, rasm kabi sohalarda ham darslar tashkil etilgan. Shu bilan birga talabalarni bilimlarini mustahkamlash uchun san’at va tarix muzeylariga, matbaa yo‘nalishidagi fabrikalarga sayohatlar uyushtirilgan. Bu talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun foydali bo‘lgan.



Leipsigdagi ushbu matbaa maktabida Buxoroning ikki talabasi (Abror Rashid va Qavomiddin Ikrom) tahsil olgan. Ushbu talabalar Berlinga dastlabki kelgan paytlarda olmon xonadonlariga joylashtirilgan. Ular nemis uylarida yashab, dastlabki paytlarda nemis tilidan 2 soatlik darslarni o‘rgana boshlaganlar. Ular buxorolik Omonulla Nasrulla, Sadriddin Ziyoiddin, Azizjon Ali xo‘ja, Xomidjon Samadjon, Abdulrahim Ibrohimlar bilan birgalikda 7 kishi bir muallimda nemis tilidan saboq olganlar [5.103]. Abror Rashid Moskvadagi Buxoroning elchixonasi ma’murlaridan birining farzandi bo‘lgan bo‘lsa, Qavomiddin Ikrom Maorif nozirligi Germaniyaga talaba yuborish vaqtida saralab olgan yoshlardan edi. Manbalarda uning ota-bobolarini taniqli mudarrislardan bo‘lganligi yoziladi.

Ular Berlinga kelgan paytlarda Buxorodagi muhit va Yevropa iqlimiga moslashish jarayonida biroz qiyinchilikka duch kelganlar. Iqlimning o‘zgarishi ularning sog‘ligiga ta’sir qilgan. Bu ikki yosh to‘rt haftalab ushbu muammo bois shifoxonalarda davolanishga majbur bo‘lganlar. Qavomiddin Ikrom tahsilni boshlagan paytda ham sog‘lik borasidagi muammosi yakun topmagan edi. Shunga qaramay darslarga muntazam qatnashishga harakat qilgan.

Abror Rashid tilni mustahkam o‘rganish yo‘lida Eliza Haym ismli muallimdan nemischa tahsil olgan. Muallimning 1923-yil 28-noyabrda bergan ma’lumotiga ko‘ra: “*Abror Rashidga turli usullarni qo‘llabda darsga qiziqtirib bo‘lmadi. Darsga o‘z vaqtida kelsa-da, o‘zlashtirishi sust, boshqa o‘quvchilardan ortda qolib ketadi*” [6. 42], deb yozadi. Shuni ham xisobga olish kerakki Abror Rashid o‘sha vaqtda Germaniyaga borgan buxorolik talabalar orasida eng yoshlaridan biri edi. Unda yangi muhit sharoitiga moslashish jarayoni bo‘lib, bu hol uning ta’limiga ham ta’sir etgan.

Qavomiddin Ikrom esa unga qaragan yoshi kattaroq bo‘lgan. ya’ni u Germaniya borgan vaqtda 17 yoshda edi. U haqida nemis tili kursining ta’lim-tarbiya maslahatchisi doktor Shollasning 1923 yil 8 yanvardagi bergan ma’lumotida: “*Qavomiddin so‘ng darajada zaki, xavomishgir va bek hassos bir boladir. Hozirgi zamondaki kibi g‘ayrat etuvinda davom etsa olmon tilin bek tez ugranadur*”, [7. 43] degan jumlalarni ko‘rish mumkin.

Nemis tilini o‘rganib ikki yosh Leipsigdagi Matbaa maktabiga tahsil olish uchun yo‘l oladilar. Ularning bu yerdagi ta’limi Buxoroning Germaniyadagi maorif nozirligi vakillik idorasi tomonidan nazorat qilib borilgan. Talabalarning o‘rta ta’lim muassasasidagi ta’limi haqida Matbaa maktabi vakillik idorasiga doimo ma’lumot berib borgan. Xususan, 1923 yil 13 avgustdagi maktab mudiri Meyzorning bergan ma’lumotida, Abror Rashid ko‘p g‘ayratli bola ekanligi, biroz qiyinchilik bilan o‘rganayotgan bo‘lsa-da, darslarga muntazam qatnashib, bor e’tibori bilan o‘rganishga harakat qilayotganligini yozadi. Maktab ma’muriyati uning o‘zlashtirishi va hulqidan mamnunligini ma’lum qilgan.

Qavomiddin Ikrom haqida esa matbaachilikka katta qiziqish bilan qarayotganligi aytiladi. Uning qobiliyati yaxshi, g‘ayratli, darsga doimo ishtirok etishi mudir Meyzor tomonidan alohida ta’kidlanadi. Ammo u Yevropa havosiga moslanish jarayonidagi ahvoli va xastaligi amaliy darslarda ishtirok etish jarayonida qiyinchilik tug‘dirayotganligini yozib o‘tadi.

1924 yil iyul-avgust oylarida O‘rta Osiyo kommunistik universiteti rektori Georgiy Meyerson BXSR Maorif noziri nomidan Germaniyaga yuborilib talabalarni mafkuraviy va siyosiy jihatdan o‘rganadi. Uning o‘rganish xulosalarida talabalarni uch guruhga bo‘lgan holda ma’lumot to‘playdi. Meyerson tuzgan uch guruh talabalarning 1-guruhiga, Germaniyada qoldirilsa bo‘ladigan talabalar kiritiladi. 2-guruhga SSSRga qaytarilishi kerak, deb hisoblangan talabalar kiritilgan. 3- guruhga esa, shubhali yoki o‘ylab ko‘rilishi kerak bo‘lgan talabalar ro‘yxatini keltiradi. Ushbu ro‘yxatda Abror Rashid va Qavomiddin Ikromlar 1-guruhga kiritilgan 16 talaba ichida edi. Meyersonning taftishidan yaxshi o‘tgan yoki yo‘nalishi sovet davlati uchun ham foydali deb hisoblangan bo‘lsa kerak ikki talabaning o‘qishni davom ettirishiga qarshilik bildirmagan.

Ikki matbaachi talaba 1925 yilga qadar Leipsigdagi Nashriyot bilim yurtida tahsil oladi. O‘quv yili so‘ngidagi amaliyotlarini o‘tagach, shu sohaning mutaxassisligiga oid diplomlarni olib 1925 yilning sentyabrida O‘zbekistonga qaytadilar. Abror Rashid va Qavomiddin Ikromlarning O‘zbekistondagi dastlabki ish faoliyati Samarqanddagi nashriyot idoralaridan boshlanadi. 1930 yilga qadar ular shu shaharda o‘z yo‘nalishlarida ish olib boradilar. O‘sha vaqtda sovet davlatida kadrlar yetishmovchiligi mavjud edi. Shu bois kadrlar muammosi bo‘lgan yoki malakali kadrga ehtiyoj bo‘lgan joylarga yo‘llanma bilan mutaxassislarni ishga yuborilgan. Shu jarayonda Abror Rashid Tula shahriga ketishga majbur bo‘ladi. U ana shu yerda nashriyot ishlarida faoliyat olib boradi. Qavomiddin Ikrom esa Toshkentga kelib, faoliyatini davom ettiradi. U O‘zbekiston SSR Fan qo‘mitasining “Nauka va texnika” jurnalida texnik muharrir lavozimida ish olib boradi. Nashriyotchilik ishlarida faol bo‘lgan Qavomiddin Ikromning Toshkentdagi faoliyati jo‘shqin o‘tadi. U ish faoliyati bilan birga o‘zi bilan birga Germaniyaga

borib ta’lim olib O‘zbekistonga qaytgan hamrohlari bilan ko‘rishib, suhbatlashib turar edi. Ammo XX asrning 30 yillarida yuzaga kelgan sovet rejimining qatag‘on siyosati uni ham chetlab o‘tmadi.

Sovet hukumatining nazorat idoralari uning faoliyatini yurtga qaytgan zamonoq nazoratga olib ma’lumot to‘plab borgan. 1937 yilning 4-sentyabrida Qavomiddinning yashab turgan Toshkent shahri, Oktyabr tumani, Hamza mahallasidagi 37-uyda tintuv o‘tkazilib, unga tegishli buyumlar musodara qilinadi. Qavomiddinni esa “nemis josusi” degan ayblov bilan hibsga olinadi. Unga bir yil davomida turli ayblovlar qo‘yiladi. Jismoniy va ruhiy tazyiqlar o‘tkazildi. O‘zi bilan birga Germaniyada ta’lim olgan, o‘sha davrda qamoqda bo‘lgan Rahmadjon Avazjonov, To‘lagan Mo‘min, Sattor Jabborlar bilan yuzlashtirish va turli soxta chaqimchi ig‘vogarlarni ishga solish bilan ham unga ayb qo‘yiga urinadilar. Ammo birorta ayblov o‘z isbotini topmaydi. Shunga qaramay 1938 yilning 9 oktyabrida “uchlik” tomonidan uning ustidan amalga oshirilgan sudda Qavomiddin Ikrom o‘lim jazosiga hukm etiladi. Shu tariqa yosh matbaachining taqdiri sovet qatag‘on siyosatining nohaq hukmi natijasida yakun topadi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroning Leipsigda tahsil olgan talabalari tarixi milliy taraqqiyot, ma’rifatparvarlik va fojiali taqdirlar bilan uyg‘un kechgan davrni yaqqol namoyon etadi. Ular xorijda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirib, yurtga qaytib Vatan ravnaqi, ta’lim tizimini isloh qilish va jamiyatni taraqqiy ettirishga xizmat qilishni maqsad qilgan edilar. Abror Rashid va Qavomiddin Ikrom kabi talabalarning Germaniyada olgan bilim va tajribasi O‘zbekistondagi ma’rifiy va ijtimoiy sohalarda muhim ahamiyat kasb etdi. Ular yangi bilimlar, ilg‘or g‘oyalar va zamonaviy dunyoqarashni olib keldilar. Biroq tarixning murakkab va ziddiyatli davrida ularning fidokorona faoliyati munosib qadrlanmadi. Aksincha, ular qatag‘on siyosatining qurboniga aylanib, nohaq ta’qib va jazolarga duch keldilar. Shu jihatdan qaraganda, Buxoroning Leipsigdagi talabalari taqdiri — bu bir tomondan millatning ilm-ma’rifatga intilishi va taraqqiyot orzusi, ikkinchi tomondan esa siyosiy zulm va qatag‘on fojiasining yorqin namunasidir.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Germaniyaga talabalar ketadur // “Buxoro axbori” gazetasi. 1922 yil 28 avgust.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi. R–56-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 35-yig‘majild, 27-varaq.
3. Germaniyada Buxoro talabalari // “Buxoro axbori” gazetasi. 1923 yil 17 mart.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. R–56-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 324-yig‘majild, 45-varaq orqa tomoni.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. R–56-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 324-yig‘majild, 103-varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. R–56-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 324-yig‘majild, 42-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. R–56-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 324-yig‘majild, 43-varaq.

B. AHMEDOV TADQIQOTLARIDA XVII ASR BOSHLARIDA BUXORO XONLIGI TARIXINING YORITILISHI MASALASI

Rajabov San'atjon Sunatovich

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Akademik Bo'riboy Ahmedov tarixiy, adabiy manbalarning mohir tarjimoni bo'lib, Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor"("Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi") asarini 1977-yilda diqqatga sazovor joylarini to'plab, 150 ga yaqin parchani monografik tarzda rus tilida so'z boshi va zarur izohlar bilan e'lon qilgan[4:1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Olim o'zining "Государство кочевых узбеков"(ko'chmachi o'zbeklar davlati) (Moskva, 1965) va "История Балха" (XVI первая половина XVIII в.) (Balx xonligi) (Toshkent, 1981) nomli monografiyalarning yuzaga kelishida asosiy manba bo'lganini qayd etadi[6:63]. Olim mazkur asarning xotima qismini tahlil qilib Buxoro tarixiga oid "turk-mo'g'ul qabilalarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, Balx va Buxorodagi o'zbek xonlari saroyida mavjud bo'lgan tartib va marosimlar to'g'risida" ma'lumotlarni keltiradi[2:147]. "Baxr ul-asror" asarining B. Ahmedov muharrirligida 1977 yilgi e'lon qilingan nashri[4:10]dagi so'zboshi qismida Mahmud ibn Valining Movarounnahr, Eron, Afg'oniston, Hindistonda bo'lgan vaqtlarida savdogarlar va sayohatchilardan, shuningdek, Balx, Hindiston, Koshg'ar, Rossiya va Buxoroga tashrif buyurganlar tomonidan to'plagan ishonchli ma'lumotlar asosida shaharlarning o'sha vaqtdagi holati, xususan, Buxoro bilan bog'liq jo'g'rofiy joylarning to'liq tasvirlanganligi e'tiborga molikdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Olim tomonidan "Bahr ul-asror" asarining tarjima qilingan qismlari orasida Buxoro tarixi bo'yicha bir qator ma'lumotlar keltirilib, jumladan, Buxoro shahri Movarounnahrning beshinchi iqlimiga ega markaziy va poytaxt shaharlaridan ekanligi, "islom gumbazi" deb nomlanishi, hosildor ekin yerlarining ko'pligi, uzum va qovunning eng sara navlari mavjujligi, Buxoroning o'nta tuman bilan chegaradoshligi, zardane oq gullarining navlari, Buxoroning olxo'ri va olchasi mashhurligi kabi parchalar shular jumlasidandir. B. Ahmedovning tarjimasi orqali o'sha vaqtga qadar noma'lum bo'lgan Buxoroning islom dunyosida va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni, qishloq xo'jaligi va tabiati (iqlimi), joylashuv o'rni bo'yicha bir qator qimmatli tarixiy ma'lumotlar keltirilgan[4:25].

Tahlil va natijalar. Shuningdek asarda Buxoro xonligidagi taxt uchun kurashlar, ijtimoiy-siyosiy ahvol, o'zaro ichki nizolar hamda Balx bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, Pirmuhammadxon II vafotidan so'ng Buxoro zodagonlari Shayboniylar taxtini Jonibekka topshirishga qaror qildilar, biroq u oliy hokimiyat shahzodalardan biriga tegishli bo'lishi kerakligini bahona qilib, bundan bosh tortdi.[1:73] Shunda Jonibekning katta o'g'li Dinmuhammad sultonni Shayboniylar oliy xoni etib saylashga qaror qilindi, u Safaviylar tomonidan qamal qilingan Obivard hukmdori edi. Buxoro amirlari va zodagonlarining qaroriga ko'ra, Jonibekning ikkinchi o'g'li Boqimuhammad sulton

Buxoro xonligi taxtiga, uning uchinchi o‘g‘li Valimuhammadxon esa taxt vorisi deb e’lon qilinib, Balxga noib qilib yuboriladi. Shunday qilib, 1599-yilda Buxoro xonligida hukmronlik murakkab siyosiy vaziyatda adabiyotlarda ashtarxoniylar deb nom olgan Joniylar sulolasi (ularning ajdodi Jonibek nomi bilan) qo‘liga o‘tadi.

Ko‘plab tadqiqotchilar Ashtarxoniylar sulolasining birinchi hukmdori Boqimuhammadxon bo‘lgan, deb ta’kidlaydilar. Biroq, numizmatik materiallarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1600-1601 va 1602-1603-yillarda Buxoro, Samarqand va Toshkentda Jonibek sulton nomidan tangalar zarb etilgan ekan. Bu esa, aslida Ashtarxoniylar sulolasining birinchi hukmdori Jonibek sulton bo‘lganligidan dalolat beradi. Buni yozma manbalar ham tasdiqlaydi[2:123].

Ashtarxoniylar hokimiyatga kelganda, mamlakat og‘ir ahvolda edi. Davlatning butun hududida shafqatsiz to‘qnashuvlar va ichki nizolar avj olgan edi. Toshkent va Samarqandda qozoq sultonlari hukmronlik qilardi. Farg‘ona va Andijon Amin sulton hamda Baroqxonning boshqa avlodlari ta’siri ostida qolgan edi. Shayboniy Jonibek sultonning avlodi - Muhammadsalim sulton Hisor, Chag‘oniyon va Xuttalonda zo‘ravonlik qilardi. Balx shahri Safaviylar vakili Muhammad Ibrohimning nazorati ostida edi. Mamlakatning barcha hududlarida xalqning ahvoli og‘ir edi. Amirlar va boshqa zodagonlar xalqni shafqatsizlarcha ezib, ulardan katta soliqlar undirardi. Mamlakat chindan ham og‘ir ahvolga tushib qolgan edi.

Dastlabki ashtarxoniy xonlarning ajdodlari hukmdorligi va faoliyati haqida yozma manbalar ma’lumot bermaydi. Faqatgina muallifimizning "Bahrul asror" asarida bu borada ayrim uzuq-yuluq ma’lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, Mahmud ibn Valining yozishicha, Yormuhammad Jonibek Muhammad sultonning otasi bo‘lgan. Mang‘ishloqxon vafot etgach, endigina 14 yoshga to‘lgan Yormuhammadxon qabila boshlig‘i bo‘lib olgan. Yormuhammadxon Buxorodagi Hazrati Xo‘jai Buzurg maqbarasiga dafn etilgan.[3.32]

Yormuhammadning 6 o‘g‘li va 2 qizi bor edi: Jonimuhammadxon, Abbos sulton, Oysha sulton xonim, Munida xonim - bularning onasi Iskandarxon Shayboniyning qizi Ma’suma sulton xonim edi; Muhammad sulton, Rahmonquli sulton - bularning onasi Xoja Mir Haydar avlodidan bo‘lgan Shohbegim edi; Malik sulton, Tursunmuhammad sulton - bularning onasi esa qo‘ng‘irot urug‘idan chiqqan Shayxbegim edi.

Iskandarbeki Turkmanning yozishicha, Shoh Abbos I o‘zining qo‘l ostidagi Muhammad Ibrohim va Abd al-Amin va Eron qo‘shinlaridan butun boy berilgan hududlarni buxoroliklardan qaytarib olish uchun foydalanish niyatida bo‘lgan. Bundan tashqari, ular Buxoro va Balxni ham egallashlari kerak edi. Ammo Muhammad Ibrohim Balxga kirgach, Abdulaminni o‘ldiradi.

Mahmud ibn Valining yozishicha, Jonimuhammad Balxda Ashtarxoniylar hokimiyatini o‘rnatish uchun Boqimuhammad va Valimuhammadni u yerga yuborgan. Ularning yurishi uch oy davom etdi (1010 yil Muharram oyidan / 1601 yil iyulidan rabiavval oyigacha / 1601 yil sentyabr oyining boshigacha). Yo‘lda ularga Pirmuhammadxonning o‘g‘illari – Hisori Shodmon va Chag‘anyonda hukmronlik qilgan Muhammadsalim Sulton va Ibodulla Sulton qarshilik ko‘rsatdilar. Hisori Shadman jangsiz yiqildi. Muhammadsalim o‘g‘illari Abdulla va Ubaydalloh bilan Balxga qochib, Muhammad Ibrohimdan panoh topadi. Ibodulla

Sultonga kelsak, u o‘sha paytda Chag‘oniyonda edi. U yerda ashtarkoniylar Dexi qal’asiga qamab qo‘ygan sulton Nav Ibadalloh va Termiz qal’asi komendanti Odil-biyning kuchli qarshiliklariga duch keladilar. Natijada Boqimuhammad Chag‘oniyonda kechikib, Valimuhammad esa Balxga jo‘nab ketdi.[2-93]

Valimuhammadning Balx tomon yurishi Shayboniylar xonadoniga sodiq qolgan amirlar orasida shov-shuvga sabab bo‘lgan. Ular vaziyatni saqlab qolish uchun Balx taxtiga o‘sha paytda Siyahjirdning Chorbog‘ida bo‘lgan Muhammad Ibrohim o‘rniga Pirmuhammadxonning o‘g‘li Muhammadsalimni o‘tqazmoqchi bo‘ldilar. Balx va Siyahjirdda ko‘pchilik Muhammad Ibrohimni yomon ko‘rar edi. Muhammadsalim Sayyidmuhammad Sultonning o‘g‘li Jahongir Sulton hamrohligida Balxga yaqinlashganda, ular Ushturxara darvozasida ushlanib, hibsga olindi. Shu payt Boqimuhammad ularga yordam berish uchun Chag‘anyondan yetib keldi. Tugallangan vaziyatda Balx amirlari Nazar biy va Shukur biylar Balx darvozalarining kalitlarini olib, ashtarxoniylarga topshirdilar. Shunday qilib, 1601 yilning noyabrida Balx ashtarxoniylar tasarrufiga o‘tadi. U yerda Jonimuhammadxon nomi tilga olingan xutba o‘qilib, unga Valimuhammadxon hukmdor etib tayinlanadi.

Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Balx aholisi Valimuxammadxon qo‘shini kelganini eshitib, o‘z bo‘ysunish va itoatkorligini bildirgan. Balx aholisi esa Ibrohimxonga uni qo‘llab-quvvatlagandek ko‘rsatib, Valimuhammadxonga qarshi jang qilish bahonasida uni Balx shahridan ikki farsang uzoqlikdagi Siyahjird hududiga olib borishdi. Ibrohimxon va Valimuhammadxon lashkarlari bir-biriga qarama-qarshi tizilib, jangga kirishga hozirlik ko‘rayotganda, Valimuxammadxon bilan jangga chiqqan har bir Balx amiri va jasur yigitlari bo‘yniga qilich va qaltirab osadilar va hamma Valimuxammadxonning uzengini o‘pishga shoshilardi. Ishlar butunlay boshqacha tus olganini ko‘rgan Ibrohimxon shaharda yashirinishga urindi. Ammo ikki lashkar birlashib, darhol uning orqasidan ta'qib qilishdi va uni ushlab, boshini kesib, otining oyoqlari ostiga tashladilar.[1-75]

Mahmud ibn Valining Balxning Ashtarxoniylar tomonidan zabt etilishi haqidagi bu ma’lumotlarini "Muqimxon tarixi" asarining muallifi ham tasdiqlaydi.

Keyinchalik Mahmud ibn Valining xabar berishicha, bu voqealardan keyin Boqimuhammad Movarounnahrga borib, 1602 yil bahorida Chag'oniyon va Termizni o'ziga bo'ysundirgan. Abbos Sulton Rahmonqul Sulton bilan birgalikda isyon ko‘tarib, Balxni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi bo‘ldi. Boqimuhammad ularga qarshi chiqib, ular uyushtirgan isyonni bostirdi.

Mahmud ibn Vali, shuningdek, Safaviylar hukmdori Shoh Abbosning Balxda o‘z mulozimining o‘ldirilganidan xabar topganidan g‘azablanib, Ashtarxoniylar sulolasini ag‘darib, Muhammadsalimni Moveronnahrga o‘rnatish uchun katta qo‘shin bilan Balxga yo‘l olgani haqida xabar beradi. Shu maqsadda u Buxoro amirlariga xabar yuboradi. Ko‘p o‘tmay Jonimuhammadxon va Boqimuhammadxon bundan xabar topib, Safaviylarning yaqinlashayotganini eshitib, Balx tomon yo‘l olishdi. 1602 yil avgust oyining o‘rtalarida Safaviylar hukmdori Mo‘min-biy bo‘lgan Andxud hududiga kirib keldilar. U Safaviylarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi, lekin uning ba’zi ishonchli odamlari unga xiyonat qilib, uni bog‘lab, Safaviylar qo‘liga topshirdilar. Shundan so‘ng Safaviylar Andxud qal’asini egallab, u yerdan

Puli Xatab tomon harakatlanadilar. Valimuhammadxon Balxni mustahkamlashga kirishib, Safaviylarning Puli Xattobgacha bo‘lgan yo‘lini to‘sdi. Bu orada Boqimuhammadxon o‘sha yerda Valimuhammadxonga qo‘shilishga muvaffaq bo‘ldi. Puli Xattobda shiddatli jang bo‘lib, Balxni qamal qilish oqibatini hal qildi. Safaviylar mag‘lubiyatga uchrab, Eronga qochib ketishdi.

Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Eron hukmdori Shoh Abbos katta qo‘shin bilan Marv, Andxud va Shibirg‘ondan o‘tib, Aqcha hududiga kirganda, Valimuhammadxon bu haqda ukasiga xabar beradi va u katta qo‘shin to‘plab, Balx tomon yo‘l oladi. Ikkala aka-uka ham birlashib, Safaviylarga qarshi urush bayroqlarini ko‘tardilar. Bu jangda Shoh Abbos yengildi va shoshib Eron tomon qochib ketdi. Bu g‘alabadan keyin Boqimuhammadxon yana Buxoroga qaytib keldi.

So‘ngra Mahmud ibn Valiy Muhammadning jiyani Hakim Mirzo Badi’ az-Zamon Valimuhammadxon va Boqimuhammadxon Balxdan ketganidan so‘ng Balx viloyati chegaralarida o‘z faoliyatini kuchaytirganini qayd etadi. Pirmuhammad II davrida ham qozoq sultonlariga qarshi kurash olib borish bilan band bo‘lgan davrda ham Badi uz-Zamon Match, Qorategin, Badaxshon va Qunduzda hokimiyatni qo‘lga kiritadi. U tez-tez talonchilik maqsadida Balx viloyatiga bostirib kirgan. 1603-yil mart oyida ashtarxoniylar o‘sha paytda Qunduzda bo‘lgan Badi uz-Zamonga qarshi yurish qildilar va 1603-yil 26-martda kuchli qamal janglaridan so‘ng Qunduzni egallab oldilar. Badiuzzamon qochib ketadi, biroq bir necha kundan keyin ishonchli odamlari tomonidan ushlanib, Boqimuhammadxon qarorgohiga olib ketiladi va u yerda o‘ldiriladi.

Jonimuhammadxon 1603-yil 12-noyabrda vafot etgan. Ashtarxoniylar sultonlari va ruhoniylari motamning yettinchi kunidan so‘ng 12-noyabrda Boqimuhammadxonni oliy xon etib saylaganlar. Samarqanddan Buxoroga. U bor-yo‘g‘i uch yil hukmronlik qildi va 1015/1606 yilda vafot etdi.Uning kuli Buxoroga ko‘chirilib, Xo‘jai Buzurg mozoriga dafn qilindi. Uning hukmronligi davrida qozoq sultonlari Suyunchoxo‘ja xon avlodlari bilan ittifoq tuzib, Turkiston, Sayram, Suzoq, Toshkent va Farg‘onani ulardan tortib oladilar. Mahmud ibn Valiyning yozishicha, Hisor va Chag‘oniyon amirlari Buxoro hukmron doiralarining harakatlaridan norozi bo‘lgan va shuning uchun Muhammadsalimning o‘g‘li Abdulla Sultonni hokimiyat tepasiga ko‘targan. Mirzo Husayn Ko‘lobni o‘z qo‘liga oldi. Valimuhammadxonning o‘g‘li Rustam Sulton Qunduz qal’asiga qamalgan edi. Valimuhammadxon ularga qarshi ikkala aka-uka - 1601 yildan Samarqand va Keshga hukmronlik qilgan Imomqulixon va Nodirmuhammadni yuboradi. Keyin ashtarxoniylar Hisor va Ko‘lobga katta qo‘shin yuboradi, bu yurishda 42 nafar ashtarxoniy amirlari qatnashadi. Nikdara darasida shiddatli to‘qnashuv bo‘lib, u yerda hisorliklarning uch minglik otryadi mag‘lubiyatga uchradi. Keyin Ko‘lob quladi, uning hukmdori Mirzo Husayn qo‘shin qoldiqlari bilan Chahorduxtaronga qochib ketdi. Imomqulixon Mirzo Husaynni Badaxshon tog‘larida joylashgan Tangi Marj qishlog‘ida mag‘lub etib, omon qolgan tarafdorlari bilan bu yerni tark etadi. Imomqulixonning Mirzo Husayn qo‘shinlari ustidan qozongan g‘alabasi uning qo‘shindagi mavqeini mustahkamladi. Buxoro amirlari va boshqa hukmron doiralar Imomqulixonning muvaffaqiyatidan qo‘rqib, unga qarshi fitna uyushtirmoqchi

bo‘ldilar. Bu ma’lum bo‘lib, u bilan Valimuhammadxon o‘rtasida adovat boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Mahmud ibn Valining “Bahru-l-asror” asarida bu voqealar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Muallif 1043/1633 yillarda amirlar Sakibiy parvonachi durian, Ollohberdibiy va Xo‘jam otaliqlar qo‘mondonligida Darai Darvozga yurish olib borilganligini yozadi. Uning hukmdori Shoh G‘arib kuchli qarshilik ko‘rsatdi. Zaynbardor va Zemm qal’alarini qamal qilish paytida shiddatli janglar bo‘lib o‘tdi, bu yerda har ikki tomon ham o‘z qo‘shinlarining salmoqli qismini yo‘qotdi. Natijada Shoh G‘arib oziq-ovqat va yem-xashak yetishmasligi sababli sulh tuzishga majbur bo‘ldi, uning shartlariga ko‘ra, o‘tgan to‘rt yil davomida soliq to‘lashi va Nodirmuhammadxon nomini tilga olgan xutba o‘qishi kerak edi. Shoh G‘aribning o‘g‘illaridan biri Nodirmuhammadxon saroyiga garovga yuboriladi. 1044/1634-1635 yillarda Balx xalqi Rushonni egallab, u yerda uning hukmdori Shoh Dara o'ldirildi. 1044-yil shavvol oyida/1635-yil mart-aprelda Darvoz Nodirmuhammadxon qo‘liga o‘tadi. O‘sha yili Chotral va Boshqirdlar bo‘ysundirildi, ularning hukmdori Shoh Bobur oliy hokimiyatni tan oldi va bu hududlarda vassal sifatida qoldirildi. Zemmga kelsak, u yana bir necha yil o‘z mustaqilligini saqlab qoldi va nihoyat, 1048/1638-1639 yillarda Baki otaliqga bo‘ysundi.

Mahmud ibn Valining yozishicha, Balx qo‘shinlari Badaxshonning sharqiy qismida mustahkamlanib, Katurga va Siyahpushlarga qarshi tez-tez bosqinlar uyushtirgan. Uning yozishicha, Nodirmuhammadxonning ishonchli kishilaridan biri sayyid Miryahyo 1635 yilning yozida Kishmada o‘z otryadini yig‘ib, Kimrog‘ga bostirib kiradi va u yerdan Ko‘kcha daryosi boshlanuvchi Varzi dovoniga boradi. U yerda unga yaqinlashib qolgan qorapushlar ularga qarshilik ko‘rsatib, tosh va o‘qlar otgan. Keyin Balx amirlari dovonga bir qancha otryadlarni jo‘natadilar, ular daryoning manbasiga yetib kelib, uni yopadi va suv qorapushlarning uy-joylari va maskanlarini suv bosadi. Aholi mustahkamlangan joylarini tashlab, tog 'daralari bo'ylab tarqalib ketishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, reyd ishtirokchilari dovonni egallab, daryo tomon yo'l olishdi. Mandijon, so‘ng Puli Katurdan o‘tib, Katurning o‘ziga yetib bordi. Siyahpushlar hayron bo‘lib, Balx amirlari Katurning o‘n ikki qishlog‘ini egallab olishdi. Ular u yerda misli ko'rilmagan talonchilik va talon-taroj qilishdi. Shunga qaramay, ular Katurni bo'ysundira olmadilar, garchi ular u erdan juda katta o'lja va asirlar bilan qaytgan bo'lsalar ham. Bunday ma’lumot boshqa yozma manbalarda mavjud emas, shuning uchun biz uning ishonchliligini aniqlay olmaymiz.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, XVII asr boshidagi Buxoro xonligi tarixiga oid Mahmud ibn Valining yuqoridagi ma’lumotlari o‘ziga xos bo‘lib, yuqorida tilga olingan, hozirgacha kam o‘rganilgan va ko‘plab munozarali masalalar saqlanib qolgan bu davr tarixining noma’lum sahifalariga oydinlik kiritadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. B.Ahmedov Mahmud ibn Valining boy adabiy-ilmiy merosini ilk bor keng qamrovda o‘rganib, ilmiy muomalaga kiritishga erishgan. Asosiy e’tibor uning “Bahr al-asror fi manoqib al-axyor” asarining geografik qismiga qaratilib, ilmiy jihatdan eng qimmatli parchalar tanlab olingan, va izohlar bilan boyitilgan. Tanlov jarayonida materiallarning mazmuniy yangiligi va

muallifning bevosita bilgan hududlariga oidligi ustuvor omil sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv asarning ilmiy qiymatini ochib berishga va tarixiy-geografik ma’lumotlarni yanada to‘liq tasavvur qilishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / пер. с тадж., примеч. и указ. Семенова. - Ташкент, 1956. – С. 73.

2. Ахмедов Б.А. История Балха (XVII - первая половина XVIII в.). - Ташкент, 1982. –С. 97, прим., 123.

3. Бахру-л-асрар. Рук. биб-ки Индиа Офис № 575. – Л. 38б-42а.

4. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных; введ., пер. с перс., примеч. и указ. Б.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – 167 с.

5. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. // Соч. - Т. 2, ч. 2. - М.: Наука, 1964. - С. 390-399;

6. Аҳмедов Б.А. Махмуд ибн Вали и его энциклопедический труд// Общественные науки в Узбекистане. -№ 11, 1969. -с. 63-65.

7. Тўраев Ҳ. “Бухорони Балхга алмаштириш воқеаси ва хўжа Ислом Жўйборий”. “Бухоро мавжлари” журнали.

8. Тўраев Ҳ. Жўйборийларни машҳур этган сиймолар // “Маърифат нури”, 1999-йил 22-ноябрь

9. Тўраев Ҳ. Бухоро ҳукмдорлари ва Жўйбор хўжалари // Бухоро: Тарих саҳифалари. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1998.

10. Ражабов С. С. ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ БУХАРЫ В ИССЛЕДОВАНИИ АКАДЕМИКА Б. АХМЕДОВА //Проблемы востоковедения. – 2024. – Т. 103. – №. 1. – С. 39-44.

11. Ражабов С. С. ДАВЛАТШОҲ САМАРҚАНДИЙ “ТАЗКИРОТ АШ-ШУАРО”(“ШОИРЛАР ТАЗКИРАСИ”) АСАРИНИНГ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ВА ТАРИХЧИЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ (Б. АҲМЕДОВ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ ТАҲЛИЛИ АСОСИДА) //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 441-444.

THE FORMATION OF DIPLOMATIC RELATIONS DURING THE TIMURID PERIOD

Ziyaev Farkhod Sobirovich

Associate Professor, Department of Social Sciences,

Tashkent State University of Economics

The Timurid Empire (1370–1507) represents one of the most significant political and cultural formations in Central Asian history. Under the leadership of Amir Timur (Tamerlane), the empire expanded across a vast territory, connecting regions that are now part of Uzbekistan, Iran, Afghanistan, and beyond. This

territorial expansion required the development of a sophisticated diplomatic network to manage relationships with neighboring states, prevent conflicts, and secure trade routes. Unlike a purely militaristic approach, the Timurids combined military campaigns with diplomacy, establishing formal protocols, employing ambassadors, and negotiating treaties.

Diplomatic relations during this period were not limited to political negotiations; they also encompassed economic, cultural, and intellectual exchanges. Envoys facilitated trade agreements, promoted scholarly interactions, and helped transmit artistic and architectural innovations. The study of Timurid diplomacy provides insight into how early modern states in Central Asia managed internal governance, external relations, and cultural integration simultaneously.

This article explores the formation and operation of Timurid diplomatic practices, examines the roles of key ambassadors, and analyzes the political, economic, and cultural objectives that guided their missions. By doing so, it highlights the importance of diplomacy in consolidating the empire, maintaining regional stability, and projecting power on a broader international stage.

Main part

The Timurid period refers to the period in the history of Central Asia and Uzbekistan during which the Timurid dynasty ruled. It is believed to have lasted from 1370 to 1507.

Table 1

The Timurid Era – historical, political, economic, and cultural overview

№	Area / Aspect	Description
1	**Historical context**	The Timurid era is associated with the empire established by Timur (Tamerlane). It covered Central Asia, Iran, India, and Eastern Turkestan. The political centers were Shahrisabz and Samarkand.
2	**Political life**	A centralized monarchy was formed. Timur and his successors ruled with strict regulations and a palace-based governance system. The era is known for military campaigns and conquest policies.
3	**Economic life**	Trade and craftsmanship flourished. Cities such as Samarkand and Bukhara became economic and cultural hubs. Cotton, silk, and other textile products were highly significant.
4	**Culture and acience**	Samarkand became a cultural and scientific center. Architecture and arts developed, including the construction of the Registan complex and Gur-Emir Mausoleum. Fields like mathematics, astronomy, and medicine advanced. The Timurid period is famous for its unique architecture and literature.
5	**Education and connection to Jadidism**	Schools, educational institutions, and madrasahs were active. This era laid the intellectual and cultural foundations that later influenced the Jadidist movement.

This table provides a concise overview of the Timurid era, highlighting its historical, political, economic, cultural, and educational aspects. It is intended to serve as a comparative reference for understanding the era's significance and its influence on later social and cultural movements, such as Jadidism.

The Timurid period aimed to restore political stability and territorial expansion in Central Asia. *Diplomatic relations during this period were shaped by the following conditions:*

1. Territorial expansion: The vast territory of the Timurid Empire necessitated diplomatic relations.
2. Foreign relations: Political and trade relations with India, Iran, Asian countries, and the Middle East.
3. Domestic politics and social stability: Reducing internal conflicts and ensuring stable governance through diplomatic agreements.

The diplomatic system during the Timurid period was characterized by the following main elements:

1. Ambassadors: Representatives who led diplomatic missions. They protected the political and economic interests of the Timurid sultan.
2. The system of letters and epistles: The main means of diplomatic communication, through which agreements and negotiations were carried out between states.
3. Trade and cultural missions: Visits to protect trade routes and develop science and art.
4. Law and protocol: Customs and etiquette developed in diplomatic communication, which increased the effectiveness of this communication.

Table 2

Main directions of Timurid diplomatic relations

№	Type of Diplomacy	Description
1	Political Diplomacy	The Timurids formed alliances with other states and sought to prevent military conflicts. For example, peace agreements were established with India and Iran.
2	Economic Diplomacy	Protection of the state's economic interests through trade routes and caravan routes. Strengthening relations with foreign merchants.
3	Cultural and Scientific Diplomacy	During the Timurid reign, envoys facilitated the exchange of knowledge, arts, and culture. Foreign scholars and artists were invited to the Timurid court, enhancing science and culture.

This table summarizes the main directions of Timurid diplomatic relations, showing how political, economic, and cultural ties were used to strengthen the empire's influence and foster international cooperation.

Key diplomats and their activities:

1. Mirza Muhammad Taragay: Conducted diplomatic missions with Iran and India.
2. Sayyid Ahmad al-Juwayni: Led negotiations with foreign ambassadors.

3. Ambassadors of Husayn Bayqarah: Organized relations with the countries around Samarkand and Bukhara.

The effectiveness and results of diplomatic relations:

1. Territorial expansion and strong political power.
2. The security of trade routes and caravan routes was ensured.
3. Cultural and scientific exchange developed.
4. The Timurid era gained prestige in the international arena.

Table 3

Formation and legacy of Timurid diplomatic system

№	Topic / Aspect	Description
1	Formation of Diplomatic Communication	Diplomatic missions were mainly conducted through personal envoys. Negotiations were often carried out via letters and correspondence. Peace treaties were concluded through external agreements.
2	Timurids and International Political Relations	Alliances and peace agreements were established with foreign states. Diplomatic functions helped reduce military conflicts. The Timurids held a strong position in international politics.
3	Legacy of the Diplomatic System	Timurid diplomacy influenced the foreign policies of later Central Asian states. Diplomatic protocols and procedures were continued by subsequent dynasties and rulers.

This table provides a clear overview of how the Timurid diplomatic system was formed, its role in international relations, and its enduring influence on later Central Asian states.



Fig 1. Impact of Timurid diplomacy on modern Central Asian diplomacy

This Figure 1 shows the impact of the diplomatic system developed during the Timurid era on diplomatic practice in Central Asia today. The diagram reflects five main areas: Diplomatic Protocol and Ambassador System (90%), Trade and Economic Diplomacy (80%), Cultural and Scientific Exchange (70%), Political Stability and Regional Cooperation (85%), and Legacy and Lessons for Today (95%). The figures are expressed in percentages, and the importance of Timurid

diplomacy in modern state policy and international relations can be seen in the present day.

Conclusion

During the Timurid period, diplomatic relations developed in political, economic and cultural directions. The diplomatic system was formed through ambassadors, letters, trade and scientific missions, strengthening the internal stability and international position of the country. Timurid diplomacy became the basis not only for that period, but also for subsequent historical periods.

References

1. Azimov, B. (2020). Diplomatic practices in the Timurid Empire: A historical overview. Journal of Central Asian Studies, 8, 25–48.
2. Rashidova, D., & Nurmatov, S. (2021). Political relations and treaty making in Timurid diplomacy. Historical Research Quarterly, 15, 77–102.
3. Karimov, A. (2022). Trade and diplomacy in medieval Central Asia: The Timurid case. International Journal of Asian History, 10, 45–69.
4. Sultonova, M. (2023). Cultural diplomatic exchange during the Timurid period. Journal of Eurasian Cultural Studies, 11, 118–139.
5. Islomov, N., & Akhmedov, T. (2024). From Timurid diplomacy to modern Central Asian foreign policy. Central Asia Policy Review, 6, 88–110.
6. Bektemirov, F. (2025). Timurid envoys and contemporary diplomatic protocols. Diplomacy and International Relations Journal, 3, 56–80.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В КАЗАХСКОМ

XIX-XX ASRLARDA QOZOQ JAMIYATIDA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI

Баймаханов Нурбек Бактиярович

магистр-преподаватель кафедры «История Казахстана» Южно-Казахстанского университета имени М. Ауэзова магистр гуманитарных наук

Исторический опыт развития общества показывает, что система образования является одним из ключевых показателей экономического, научно-технического и культурного прогресса любого общества. Она служит гарантией успешного развития государства и общества. Интеллектуальный потенциал нации и конкурентоспособность государства зависят прежде всего от качества системы образования. В этой связи изучение исторической эволюции сектора образования, особенно определение роли образовательных идей в переходные периоды, имеет научное значение. В конце XIX и начале XX веков в общественном мышлении тюрко-мусульманских народов произошли глубокие процессы модернизации. В этот период уникальным явлением стало движение джадидов, направленное на реформирование традиционной системы религиозного образования. Выдающийся педагог

Исмаил Гаспринский, основатель учения джадидов, предложил идею обновления содержания образования посредством нового метода обучения (усул-и джадид), введения светских предметов и пробуждения национального самосознания. Джадидизм был не только педагогической реформой, но и целым культурно-образовательным направлением, способствующим интеллектуальному развитию народов Востока. [1.]

Образование в Казахстане велось в двух направлениях: религиозном и светском. Мусульманские школы посещали преимущественно мальчики. Медресе пользовались большим престижем среди населения. В них готовили мулл и школьных учителей. Период обучения длился 3–4 года. Ученики медресе, помимо получения начального образования по основам ислама, также хорошо разбирались в философии, математике, медицине, истории, лингвистике и астрономии. Одной из главных функций религиозных учебных заведений было прививание молодежи моральных ценностей и человеческих качеств. С 1870 года по инициативе царского правительства в медресе было введено обязательное преподавание основ русского языка. В медресе было несколько классов. Обычно в качестве учителей в медресе принимали только лиц старше 40 лет. [2.]

В начале XX века традиционные школы и медресе перестали отвечать растущим потребностям общества. Началось движение за реформирование мусульманских школ. Его организаторами были джадидисты. С начала XX века стали появляться новые методические школы. Основателем этой методики обучения был один из известных тюркоязычных общественных педагогов, общественный деятель И. Гаспринский. Джадидисты отстаивали необходимость преподавания в школах и других светских предметов, таких как арифметика, география, естественные науки и история. В новых методических школах преподавали образованные и квалифицированные учителя. В них было достаточно необходимых учебных пособий и оборудования. Более того, методика обучения была гораздо эффективнее. Первая новая методическая школа в Казахстане открылась в 1900 году в городе Туркестане. Такие школы начали появляться и в других городах, таких как Актобе, Жаркент, Верны, Казалы, Костанай, Перовск и Семей. Значительная часть казахской интеллигенции получила образование в новых методических школах. Однако новые методические школы не получили широкого распространения по всей стране. Царское правительство решительно выступало против открытия новых методических школ. Причиной было то, что оно считало такие школы рассадниками панисламизма и пантюркизма. Нельзя сказать, что уровень образования и грамотности населения в Казахстане был удовлетворительным. Светских школ было очень мало. Наблюдался дефицит квалифицированных учителей. В условиях кочевого и полукочевого образа жизни было сложно открывать постоянные школы. С началом промышленного развития Казахстана возрос спрос на грамотных и образованных людей. Поэтому в 1850 году в Оренбурге была открыта новая образцовая школа с семилетним учебным семестром. В ней готовили в основном секретарей и переводчиков, преподавали основы русской истории, математики, географии и геометрии.

Позже подобная школа была открыта в Омске. В 1861 году русско-казахские школы открылись в Троицке и других городах.

После административных реформ 1867–1868 годов и в связи с увеличением числа крестьян-мигрантов количество светских школ возросло. Учебные программы в них устанавливались самим генерал-губернатором по согласованию с Министерством народного образования. Казахские дети имели право учиться бесплатно или за небольшую плату в школах, расположенных вблизи русских и казачьих деревень. В 1879 году в Торгайской области появилась первая двухклассная русско-казахская школа. В 1883 году в городе Ор Оренбургской губернии открылось первое педагогическое училище для казахов. Огромный вклад в открытие этой школы внес Ибрай Алтынсарин. С 1885 года во всех районах открывались сельскохозяйственные школы. Они способствовали развитию образования и ремесел на казахской земле. Повсюду стали появляться русские школы с тем же названием. В Торгае, Актобе, Костанае и других городах открылись начальные школы для девочек. С 1892 года для казахских детей были организованы сельские кочевые школы. Со второй половины XIX века города Омск, Семей, Уральск, Акмола стали центрами образования населения. А. Кунанбаев и Ш. Уалиханов представляли две основные системы образования XIX века: религиозную (мусульманскую) и светскую (русскую). Религиозное образование предоставлялось в школах и медресе, где готовились муллы и учителя. В то время как богословское религиозное образование в медресе преподавало философию, историю, литературу, астрономию, медицину, математику, лингвистику, светские учебные заведения направляли казахов на путь служения России и интереса к русской культуре. Они готовили чиновников, переводчиков, учителей, солдат и врачей для колониального аппарата. [4.]

С первых дней советской власти управления народного образования начали заниматься вопросом культурного строительства.

Из всех задач Культурной революции особое значение имели меры по искоренению неграмотности. Указ «Об искоренении неграмотности среди народов РКФСР», принятый Верховным Советом РКФСР 26 декабря 1919 года, определил основные задачи по этому вопросу.

В 1919-1923 годах, при начале кампании по искоренению неграмотности в Казахстане, были отмечены следующие препятствия:

нехватка квалифицированных специалистов для обучения населения;

нехватка новых учебников и письменных принадлежностей;

слабая материально-техническая база учебных заведений в городах, особенно в сельской местности.

В феврале 1924 года в Казахстане был создан филиал Всесоюзного общества «Искоренение неграмотности». Газета «Саваташкиш» опубликовала план проведения занятий для индивидуальных групп, а также были открыты краткосрочные курсы подготовки учителей по борьбе с неграмотностью. 11 февраля 1930 года Центральный исполнительный комитет Казахстана принял постановление «Об обязательном искоренении неграмотности в Казахской АССР». Период искоренения неграмотности был установлен на конец первого

пятилетнего плана. Был разработан план реализации мер и создан финансовый фонд для ликвидации неграмотности. В 1931 году в отдаленных районах республики была организована культурная кампания. Активное участие в ней принимали комсомольские и пионерские организации. Однако работа по искоренению неграмотности в стране была завершена только в 1935 году, когда состоялся Первый съезд трудящихся Фронта культуры. После этого съезда работа по искоренению неграмотности в республике вступила в заключительную стадию. При Народном комиссариате просвещения Казахской АССР был создан Департамент образования взрослых, в рамках которого были открыты отделения для неграмотных и малограмотных. В 1939 году общий уровень грамотности населения Казахстана достиг 76,3%.

В борьбе с неграмотностью был поднят вопрос о замене использовавшейся до этого арабской письменности на латинскую. В 1923 году Народный комиссариат по делам национальностей РКФСР учредил комиссию по реформированию арабской письменности. [6.]

В марте 1926 года состоялся Первый Всесоюзный съезд тюркологов, на котором рассматривался вопрос о переводе письменности тюркоязычных народов на латинский алфавит. Против перехода на латинский алфавит выступал тогдашний Народный комиссариат по образованию Казахской АССР А. Байтурсынулы. А. Бокейханов и А. Байтурсынулы предложили упростить некоторые особенности арабской письменности.

Сторонники сохранения арабского алфавита утверждали, что переход на латинский алфавит является посягательством на национальную культуру. Они считали, что Казахстану необходимо перейти на новый алфавит, характерный только для европейцев, но условия для этого еще не созрели. Однако советское руководство, приверженное задаче создания единого культурного пространства, не учло мнения представителей республики. Была создана комиссия по разработке нового алфавита, которая осенью 1928 года предложила проект казахского алфавита на основе латинского алфавита. До полного перехода на латинский алфавит использовалась арабская графика. Печатное оборудование начали оснащать латинским алфавитом. Это облегчило издание газет, учебников и литературы. В республике одновременно стали использовать два алфавита: латинский для казахского языка и кириллический для русского языка.

К концу 1930-х годов СССР превратился в тоталитарное государство. Установление тоталитарной системы проявилось и в культуре. В 1940 году был разработан проект нового казахского алфавита на основе кириллицы. На V сессии Верховного Совета 10 ноября 1940 года был принят Закон «О переходе от латинизированной казахской письменности к новому алфавиту на основе русской графики».

По словам одного из лидеров движения «Алаш», С. Садуакасова, Омский район Акмолинской области был одним из крупнейших образовательных регионов Казахстана. И город Омск практически стал одним из самых известных образовательных центров всего Казахстана. В 1789 году в Омске открылась Азиатская школа, занимавшаяся подготовкой чиновников для

колониального аппарата. В начале XIX века казахские дворяне стали отправлять своих детей в учебные заведения в Омске. В 1872 году в Омске открылась педагогическая семинария. Омск стал центром подготовки учителей для всего Казахстана. Там обучали учителей начальных школ. Какую роль играл Омск в образовании? В Омске, а также в Кокшетау и Акмоле были открыты интернаты для казахских детей, где они могли учиться. Казахи сами оплачивали их расходы за счет благотворительных пожертвований. Было решено, что каждая казахская деревня будет направлять туда 2 ребенка в год. В 1882 году в Омске открылось техническое училище. Оно должно было готовить высококвалифицированных специалистов со средним образованием для заводов и фабрик, а также для работы в транспортном секторе. Многие казахские дети учились в Омском ветеринарном училище. [6.]

Развитие казахской системы образования можно разделить на несколько исторических периодов: традиционное религиозное образование, реформы Жадитшила, политика царского правительства и советская кампания по искоренению неграмотности. В каждый период образование оказывало непосредственное влияние на экономическое, политическое и культурное развитие общества. Современная система образования, соответствующая современным требованиям, актуальна с точки зрения сохранения национальной истории и традиций, а также повышения качества образования. Повышая уровень образования, она закладывает основу для воспитания образованного поколения, необходимого для экономического, научно-технического развития Казахстана. [7.]

Список литературы:

1. Аяган Б.Г., Абжанов Х.М., Махат Д.А. Современная история Казахстана-Алматы, 2010.

2. Аминов Т.М. История Казахстана (от древних времен до наших дней): учебное пособие для учащихся высших и специализированных средних учебных заведений / Т.М. Аминов. - Алматы: «Эверо», 2014. - 260 с.

3.Абсадык А.А. Джадидское движение в Казахстане. – Алматы, 2012.

4. История образования в Казахской АССР: 1917–1940. - Алматы, 1985. - С. 12–56.

5. Садуакасов С. Казахский образовательный центр в Омске. - Омск, 1928. - С. 9–28.

6. Верховный Совет РСФСР. Указ «Об искоренении неграмотности среди народов РСФСР», 26 декабря 1919 г. - С. 1–5.

7. Образовательные реформы в Казахстане: 1850–1939 гг. – Алматы, 2002 г. – С. 101–145.

ABDULLA AVLONIY MA’RIFATPARVARLIGIDA MUSIQA TARBIYASI VA ESTETIK TAFAKKUR

Saidova D.E.

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Jadid ma’rifatparvarlari orasida Abdulla Avloniy alohida o‘rin tutadi. U nafaqat pedagog va adib, balki milliy madaniyat va san’atning fidoyi targ‘ibotchisi ham edi. Avloniy suhbatlar jarayonida milliy musiqa janrlarini, kuy va yo‘llarini chuqur o‘rgangan, ma’naviy xazinasini milliy ohanglar bilan boyitgan ziyoli sifatida namoyon bo‘ladi. U san’atni shunchaki estetik zavq manbai emas, balki inson ruhiyati va axloqini shakllantiruvchi kuch deb bildi.

Musiqa va tabiat uyg‘unligi

Avloniyning 1922 yilda “Inqilob” jurnalida chop etilgan “Sanoyi’ nafisa” maqolasida san’atning, jumladan, musiqaning paydo bo‘lishi tabiatga taqlid bilan bog‘lanadi. U insoniyatning ilk estetik qadamlari tabiatni kuzatish va undan ilhom olishdan boshlanganini ta’kidlaydi.

Adibning: “Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor, Har varaqash tabiati ro‘zg‘or” degan satrlari tabiatni go‘zallik kitobi, har bir bargni esa hayot sahifasi sifatida talqin etadi. Demak, musiqa ham ana shu tabiat ohanglarining inson qalbidagi aks-sadosidir. Qadim zamonlardan insonlar tabiat hodisalarini o‘z hayoti bilan qiyoslab, undan ruhiy oziq olganlar. Shu jarayonda musiqa insonning ichki kechinmalarini ifoda etuvchi vositaga aylangan.

Maktab va musiqa ta’limi

1916 yildan boshlab Avloniy o‘z maktabida musiqa darslarini yo‘lga qo‘ydi. Bu o‘sha davr uchun yangilik edi. Hatto darslarda grammofondan foydalanilgani haqida zamondoshlari eslaydi. Bu esa o‘quvchilarning musiqa orqali dunyoqarashi kengayishiga, milliy va jahon kuy-qo‘shiqlari bilan tanishishiga imkon yaratgan.

Avloniy uchun musiqa – tarbiya vositasi. U yoshlar qalbiga ezgulik, nafosat, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishda musiqaning qudratiga ishongan. Uning teatr tashkilotchiligi, sahna asarlari yozishi, maktabda xor va ashula mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yishi ham ayni maqsadga xizmat qilgan.

Axloq, ilm va estetik tarbiya uyg‘unligi

Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq asari uning pedagogik qarashlarini mujassam etadi. Asarda ilm va axloq masalalari markaziy o‘rinda turadi. U ilmni “dunyoning izzati, oxiratning sharofati” deb ta’riflaydi. Adib tarbiyani keng ma’noda tushunadi: jismoniy sog‘lik, axloqiy poklik va estetik did uyg‘un bo‘lishi lozim. Musiqa esa ana shu uyg‘unlikni ta’minlovchi muhim omildir. Chunki musiqa inson qalbini poklaydi, hissiyotlarni noziklashtiradi, go‘zallikni his etishga o‘rgatadi.

Qadriyat va ma’naviyat masalasi

Bilim – inson ongida shakllangan tasavvur va tushunchalar majmui bo‘lsa, qadriyat – insonni harakatga undovchi ichki mezondir. Avloniy ta’lim jarayonida

milliy qadriyatlarni, jumladan, milliy musiqa merosini asrash va rivojlantirishni muhim vazifa deb bildi.

Uning tashabbusi bilan “Jamiyati xayriya” va “Turon” jamiyatlarining tashkil etilishi, sahna asarlari qo‘yilishi, musiqa kurslari ochilishi xalqning ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Bu faoliyat musiqa va san’atning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Avloniy milliy an’anaviy musiqa bilimdoni va targ‘ibotchisi sifatida o‘z davrida katta ma’naviy maktab yaratdi. U musiqa san’atini inson tarbiyasining ajralmas qismi deb bildi va uni amaliyotda qo‘lladi.

Bugungi kunda uning nomi bilan atalgan ta’lim muassasalari va stipendiyalar adib merosining davomiyligini ta’minlamoqda. Avloniy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, musiqa – bu nafaqat san’at, balki ma’naviyat va axloqni kamol toptiruvchi kuchdir.

Shunday ekan, yosh avlodni tarbiyalashda milliy musiqa merosidan samarali foydalanish – Avloniy orzu qilgan komil insonni voyaga yetkazish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 2005

2.Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog’chasida musiqa T.: O‘qituvchi. 2000.

3.F.G. Nurullayev “Bolalarning musiqiy ta’limi” T.:O‘qituvchi 2007y

4.Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog’chasida musiqaviy o‘yinlar va bayram ertaliklari. T.: O‘qituvchi. 2011.

5. G.M. SHaripova, D.F. Asamova, Z.L. Xadjayeva “Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi”Toshkent 2014 yil

6.Maktabgacha ta’lim muasasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent 2007y

7. Erkinovna S. D. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O‘QITILISHI //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 64-69.San‘atjon, [30.05.2025 10:55]

8.Ражабов С. С. ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ БУХАРЫ В ИССЛЕДОВАНИИ АКАДЕМИКА Б. АХМЕДОВА //Проблемы востоковедения. – 2024. – Т. 103. – №. 1. – С. 39-44.

9.Ражабов С. С. ДАВЛАТШОҲ САМАРҚАНДИЙ “ТАЗКИРОТ АШ-ШУАРО”(“ШОИРЛАР ТАЗКИРАСИ”) АСАРИНИНГ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ВА ТАРИХЧИЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ (Б. АҲМЕДОВ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ ТАҲЛИЛИ АСОСИДА) //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 441-444.

10.Ражабов С. С. IX-XV Асрлар Бухоро Тарихини Ўрганишда Ҳуқуқий Ҳужжатлар Ва Ёзишмаларнинг Аҳамияти (Академик Бўрибой Аҳмедов Илмий Тадқиқотлари Асосида) //IMRAS. – 2023. – Т. 6. – №. 7. – С. 623-626.

PEDAGOGIK JAMOA MUHITIDA O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH: JADID PEDAGOGIKASI TAJRIBASI

Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi

Profi University “Gumanitar va ta’lim faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi,

NDU tayanch doktoranti

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — raqobatbardosh, ijodkor, mustaqil fikrlovchi hamda yuqori kasbiy kompetensiyaga ega pedagog kadrlarni shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy jamiyatda bilimlar hajmining tez sur’atlarda ortib borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning kirib kelishi o‘qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki moslashuvchanlik, kreativlik va doimiy o‘zini rivojlantirishni talab etmoqda. Shu sababli pedagog shaxsining kompetensiyasi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasi faqat individual faoliyat natijasida shakllanmaydi. U pedagogik jamoa bilan hamkorlik, tajriba almashish, o‘zaro metodik yordam va kasbiy muloqot jarayonida yanada takomillashadi. Pedagogik jamoa o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi uchun ijtimoiy-pedagogik muhit yaratib, uning kommunikativ, refleksiv va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyat orqali pedagog o‘z tajribasini tahlil qilish, yangi metodlarni o‘zlashtirish va kasbiy muammolarga samarali yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tarixiy jihatdan qaralganda, o‘qituvchi shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni jadid ma’rifatchilari tomonidan ham alohida ta’kidlangan. Jadidlar ta’limni millat ravnaqining asosiy omili sifatida baholab, maktab va pedagog faoliyatini modernizatsiya qilish g‘oyasini ilgari surganlar. Ular diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali pedagogning keng dunyoqarashga ega bo‘lishini, zamonaviy fan yutuqlarini egallashini hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashni muhim vazifa deb bilganlar [1]. Jadid pedagogikasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki jamiyatni ma’rifat sari yetaklovchi ziyoli, tarbiyachi va ijtimoiy yetakchi sifatida talqin etilgan. Bu qarashlar bugungi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Zero, hozirgi ta’lim tizimida ham pedagogdan faqat fan bilimdoni bo‘lish emas, balki jamoada ishlash, innovatsiyalarni qo‘llash va shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jamoaning o‘qituvchi shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni va mexanizmlarini jadid ma’rifiy merosi asosida ilmiy tahlil qilish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada pedagogik hamkorlik muhiti, kasbiy o‘sish omillari hamda o‘qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik jamoa o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish va uning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim

omil sifatida qaralmoqda. Pedagogik jamoa - bu faqat bir muassasada faoliyat yurituvchi pedagoglar yig‘indisi emas, balki o‘zaro hamkorlik, tajriba almashish, metodik qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsion g‘oyalarni birgalikda amalga oshirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-professional muhitdir. Aynan shu muhit pedagogning kasbiy o‘sishi, pedagogik mahorati va ijodiy salohiyatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qituvchidan doimiy ravishda yangilanib borishni talab etmoqda. Ta’lim mazmunining modernizatsiyalashuvi, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi hamda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi pedagog faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shunday sharoitda o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil rivojlantirish bilan bir qatorda pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik qilish orqali ham o‘z kompetensiyasini takomillashtirishi zarur. Jadid pedagogik merosida ham jamoaviylik va hamkorlik g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etgan.

Jadid ma’rifatchilari ta’lim jarayonini yangilashda o‘qituvchilarning o‘zaro fikr almashuvi, tajriba o‘rganishi va birgalikdagi faoliyatini muhim deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, ta’lim taraqqiyoti pedagoglarning umumiy ma’rifiy harakati orqali amalga oshadi. Mazkur qarashlar bugungi zamonaviy pedagogik hamkorlik konsepsiyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Hozirgi davrda o‘qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish masalasining dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Avvalo, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar pedagogdan nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Bu esa o‘qituvchining pedagogik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalarining keng joriy etilishi pedagogdan zamonaviy metodlarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bunday jarayon esa ko‘pincha pedagogik jamoada o‘zaro o‘rganish va hamkorlik orqali samarali amalga oshadi.

Uchinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish ehtiyoji zamonaviy pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Ta’lim tizimidagi tezkor o‘zgarishlar pedagogni doimiy o‘qib-o‘rganishga undaydi. Pedagogik jamoa esa bu jarayonda motivatsion va metodik qo‘llab-quvvatlovchi muhit vazifasini bajaradi.

To‘rtinchidan, pedagogik refleksiya, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayoni o‘qituvchining professional o‘sishida muhim ahamiyatga ega. Jamoaviy muhokamalar, ochiq darslar va metodik tahlillar pedagogga o‘z faoliyatini chuqur anglash hamda kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Shu bois pedagogik jamoa ta’sirida o‘qituvchi shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va jadid pedagogik merosi bilan uyg‘un holda tahlil qilish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasagan ma’rifiy harakatlardan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi ta’lim tizimini yangilash orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishdan iborat edi. Jadid ma’rifatchilari

xalqning rivojlanishini, avvalo, zamonaviy bilimga ega, keng dunyoqarashli va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash bilan bog‘laganlar. Shu sababli ular ta’lim mazmunini isloh qilish, o‘qitish metodlarini takomillashtirish hamda o‘qituvchi shaxsiga yangicha talablar qo‘yish zarurligini ilgari surganlar. Jadidlar nazarida o‘qituvchi oddiy bilim beruvchi emas, balki jamiyatni ma’rifat sari yetaklovchi yetuk shaxs hisoblangan. Ular pedagogni bir vaqtning o‘zida ma’naviy tarbiyachi, ijtimoiy faollik namunasi va zamonaviy tafakkur egasi sifatida tasavvur qilganlar. Jadid pedagogik qarashlariga ko‘ra, o‘qituvchi quyidagi sifatlarni o‘zida mujassam etishi lozim edi:

ma’rifat targ‘ibotchisi - jamiyatda ilm-fan va savodxonlikni yoyuvchi shaxs;

ijtimoiy yetakchi - yosh avlodni taraqqiyot va yangilanish ruhida tarbiyalovchi pedagog;

zamonaviy bilim egasi - diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham chuqur egallagan mutaxassis.

Mazkur yondashuv bugungi kunda pedagog kompetensiyasi tushunchasi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiya o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va kasbiy qadriyatlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Jadidlar ilgari surgan pedagog modeli aynan kompetensiyaviy yondashuvning tarixiy ildizlari mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Jadid maktablarida ta’lim jarayoni an’anaviy yodlash usulidan farqli ravishda faol o‘qitish tamoyillariga asoslangan edi. Darslarda savol-javob, munozara, fikr almashish, amaliy mashg‘ulotlar va jamoaviy ishlash usullari keng qo‘llanilgan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘qituvchilarning ham o‘zaro tajriba almashishiga imkon yaratgan.

Jadid maktablarida pedagoglar o‘rtasida hamkorlik muhitining shakllanganligi alohida e’tiborga loyiqdir. O‘qituvchilar yangi darsliklar yaratish, o‘qitish metodlarini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish masalalarini birgalikda muhokama qilganlar. Bu jarayon pedagogik jamoaning shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lib, bugungi zamonaviy metodik birlashmalar faoliyatiga o‘xshash tizimni yuzaga keltirgan. Shuningdek, jadid pedagoglari ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligiga alohida ahamiyat berganlar. Ularning fikricha, bilim faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanib qolmasdan, hayotiy tajriba bilan mustahkamlanishi lozim. Bu yondashuv hozirgi zamonaviy ta’limda qo‘llanilayotgan faol va interaktiv metodlarning dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi pedagogik hamkorlik modeli ham aynan jamoaviy o‘rganish, refleksiya va tajriba almashish tamoyillariga asoslanadi. Shu jihatdan qaraganda, jadid maktablarida qo‘llanilgan jamoaviy o‘qitish va tajriba asosida o‘rganish tizimi zamonaviy pedagogik jamoa faoliyatining tarixiy asosini tashkil etadi [2]. Demak, jadidlarning pedagogik qarashlari o‘qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kompetensiyaviy ta’lim modelining shakllanishida muhim nazariy manba vazifasini bajaradi. Ularning ta’limga oid g‘oyalari hozirgi davr pedagoglari uchun ham metodologik ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik jamoa o‘qituvchining kasbiy shakllanishi va shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagogik jamoa — bu umumiy maqsad, qadriyat va pedagogik yondashuv asosida faoliyat yurituvchi mutaxassislar hamkorligi bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-professional muhitni shakllantiradi. Bunday muhitda pedagog nafaqat bilim almashadi, balki o‘z faoliyatini tahlil qilish, yangi tajribalarni o‘zlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagogik jamoaning o‘qituvchi kompetensiyasiga ta’siri bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Avvalo, **metodik yordam** pedagog kasbiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Jamoa doirasida tashkil etiladigan metodik seminarlar, ochiq darslar, treninglar va muhokamalar orqali o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganadilar, dars jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar oladilar. Tajribali pedagoglarning maslahatlari yosh o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvini tezlashtirib, pedagogik faoliyatdagi xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchi muhim yo‘nalish - **tajriba almashinuvi** hisoblanadi. Pedagogik jamoada o‘zaro kuzatuv, dars tahlili va amaliy tajriba bilan o‘rtoqlashish o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshiradi. Har bir pedagog o‘z faoliyatida sinab ko‘rgan samarali metodlarni boshqalar bilan baham ko‘rish orqali umumiy ta’lim sifatining oshishiga hissa qo‘shadi. Bu jarayon o‘qituvchilarda ochiq muloqot madaniyatini shakllantirib, kasbiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, pedagogik jamoa **kasbiy motivatsiyani oshirish**da ham muhim rol o‘ynaydi. Jamoa ichidagi ijobiy muhit, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash pedagogning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Birgalikda erishilgan natijalar, muvaffaqiyatlarni e’tirof etish va rag‘batlantirish pedagogning ichki motivatsiyasini oshirib, ijodiy faoliyatga undaydi. Natijada o‘qituvchi o‘z ustida ishlashga va yangi pedagogik g‘oyalarni izlashga intiladi. Pedagogik jamoaning yana bir muhim jihati - **psixologik qo‘llab-quvvatlash**dir. Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan kasbiy stress, murakkab pedagogik vaziyatlar yoki metodik qiyinchiliklarni yengishda jamoaviy yordam katta ahamiyatga ega. Hamkasblar bilan fikr almashish pedagogning emotsional barqarorligini ta’minlab, kasbiy charchashning oldini olishga xizmat qiladi. Sog‘lom psixologik muhit esa pedagog faoliyatining samaradorligini oshiradi. Pedagogik jamoada faoliyat olib borish natijasida o‘qituvchining bir qator muhim kompetensiyalari rivojlanadi. Jumladan, **kommunikativ kompetensiya** - hamkasblar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. **Metodik kompetensiya** - ta’lim metodlarini tanlash va qo‘llashda kasbiy mahoratni oshiradi. **Refleksiv kompetensiya** esa pedagogga o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.

Shu tariqa, pedagogik jamoa o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida faqat tashkiliy birlik emas, balki uning shaxsiy va professional o‘sishini ta’minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u pedagogik jamoa faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda amalga



Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

oshadi. Tadqiqot jarayonida o‘qituvchi kasbiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy mexanizmlar tahlil qilinib, ular asosida quyidagi model ishlab chiqildi (1-rasm). Diagrammada ko‘rsatilganidek, shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy mexanizm orqali amalga oshadi. Birinchi mexanizm - hamkorlikdagi ta’lim bo‘lib, u o‘zaro dars kuzatuvi, tajriba almashish va pedagogik faoliyatni birgalikda tahlil qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayon pedagogning amaliy tajribasini boyitib, samarali metodlarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ikkinchi mexanizm - metodik seminarlar hisoblanadi. Seminar va kasbiy muhokamalar orqali pedagoglar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganadilar, ta’lim jarayonidagi muammolarni birgalikda tahlil qiladilar hamda metodik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Bu esa dars samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchi mexanizm - refleksiya**,** ya’ni pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish jarayonidir. Refleksiv yondashuv o‘qituvchiga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, pedagogik faoliyatini qayta ko‘rib chiqish hamda shaxsiy rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beradi. Natijada pedagogda o‘zini rivojlantirishga nisbatan ongli ehtiyoj shakllanadi. To‘rtinchi mexanizm - mentorlik bo‘lib, bunda tajribali pedagoglarning ko‘magi yosh yoki kam tajribali o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi. Mentorlik jarayoni pedagogik tajribani uzatish, maslahat berish va kasbiy qo‘llab-quvvatlash orqali o‘qituvchining ishonchini mustahkamlaydi hamda professional o‘sishni ta’minlaydi.

Shunday qilib, diagrammada aks ettirilgan mexanizmlar o‘zaro integratsiyalashgan holda pedagogning kommunikativ, metodik va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu model pedagogik jamoa faoliyatini samarali tashkil etishda hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Jadidlar ilgari surgan “yangicha fikrlash” g‘oyasi bugungi zamonaviy innovatsion pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Ularning pedagogik qarashlarida ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki o‘quvchida

mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish vositasi sifatida talqin etilgan. Shu jihatdan qaraganda, jadid pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion muhit yaratishning nazariy asosini tashkil qiladi. Innovatsion pedagogik muhit bir nechta asosiy komponentlar orqali shakllanadi:

1. **Ochiq muloqot** - pedagoglar o‘rtasida ochiq fikr almashish va konstruktiv tanqidga asoslangan muloqot tizimi. Bu komponent pedagogik hamkorlikni mustahkamlaydi va o‘qituvchining yangi metodik yondashuvlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan tayyorligini oshiradi.
2. **Ijodiy erkinlik** - har bir pedagogga o‘z darsini loyihalash va o‘quv jarayonini innovatsion metodlar yordamida tashkil etish imkoniyatini beruvchi muhit. Ijodiy erkinlik pedagogga o‘z kasbiy ijodini namoyish etish va eksperimentlar o‘tkazish imkonini beradi.
3. **Doimiy o‘rganish** - ta’lim jarayonidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish, yangi pedagogik texnologiyalar va yondashuvlarni muntazam o‘rganish. Bu komponent pedagogning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishni ta’minlaydi.
4. **O‘zaro hurmat** - pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida bir-birining fikrini qadrlash, fikr almashish jarayonida konstruktiv yondashuvni ta’minlash. O‘zaro hurmat muhitda pedagoglarning psixologik barqarorligini oshiradi va ijodiy salohiyatni rag‘batlantiradi.

Bunday innovatsion muhit pedagogning o‘z ustida ishlash motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Pedagoglar o‘z dars jarayonida yangi metod va texnologiyalarni sinashga, shaxsiy pedagogik uslubini rivojlantirishga va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo‘ladilar. Shu bilan birga, innovatsion muhit pedagogik jamoaning umumiy ijodiy ruhini mustahkamlaydi, hamkorlikni rag‘batlantiradi va jamoadagi har bir pedagogning kasbiy o‘sishiga hissa qo‘shadi. Shuni ta’kidlash lozimki, innovatsion muhitni yaratish faqat tashkiliy chora-tadbirlar bilan cheklanmaydi. Bu — pedagoglarning o‘zaro ishonchi, doimiy kasbiy o‘sishga intilishi va ijtimoiy hamkorlik madaniyati orqali shakllanadigan uzluksiz jarayondir. Shu sababli, zamonaviy pedagogik muhit yaratishda jadid pedagogik merosidagi g‘oyalarni amaliyotga joriy qilish o‘qituvchining shaxsiy va professional kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi [3].

O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik jamoada faol ishlovchi o‘qituvchilar kasbiy o‘sish va kompetensiyalarini rivojlantirishda ancha tezkor natijalarga erishadilar. Jamoaviy muhit pedagogning nafaqat o‘z tajribasini boyitishiga, balki boshqa pedagoglarning samarali metod va yondashuvlarini o‘rganishiga yordam beradi. Shu tariqa o‘qituvchi muntazam o‘z kasbiy faoliyatini yangilab boradi. Hamkorlik, ya’ni pedagoglar o‘rtasida fikr almashish va tajriba bo‘lishish, innovatsion yondashuvlarni tezroq amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi. Pedagoglar bir-biridan o‘rganib, yangi metodlarni sinab ko‘radilar, shuningdek, darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish bo‘yicha yangi g‘oyalarni qo‘llashga intiladilar. Natijada ta’lim jarayoni sifatli va dinamik bo‘lib, o‘quvchilarda ham mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi. O‘z faoliyatini tahlil qilish, refleksiya esa pedagog shaxsiy kompetensiyasini shakllantirishning eng muhim omilidir. O‘qituvchi o‘z darslarini, metodlarini va o‘quvchilar bilan

ishlashini kuzatib, kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu jarayon unga doimiy rivojlanish, ijodiy yechimlar izlash va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish imkonini beradi. Shuningdek, pedagogik jamoada faol ishlash o‘qituvchilarda motivatsiyani oshiradi, kasbiy qiziqish va ishtiyoqni kuchaytiradi, dars jarayonini esa samarali qiladi. Shu sababli pedagogik jamoa faoliyati uzluksiz kasbiy rivojlanish va ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadid ma’rifatchilarining ta’lim haqidagi pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy pedagogik rivojlanish bilan uzviy uyg‘unlashadi. Ularning g‘oyalari, xususan jamoaviy hamkorlik, faol o‘qitish va refleksiv yondashuv, bugungi kunda pedagogning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Pedagogik jamoa nafaqat tashkilot ichidagi birlik, balki o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydigan ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida quyidagi choralar samarali bo‘ladi:

- Jamoaviy metodik faoliyatni kuchaytirish: Seminarlar, treninglar, ochiq darslar va muhokamalar orqali pedagoglar bir-biridan o‘rganib, birgalikda rivojlanadi.
- Mentorlik tizimini rivojlantirish: Tajribali pedagoglarning yosh yoki kam tajribali hamkasblariga yordam berishi, ularning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi va yangi yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni osonlashtiradi.
- Refleksiv pedagogik muhit yaratish**:** O‘qituvchiga o‘z faoliyatini tahlil qilish, metod va uslublarni baholash, kamchiliklarni aniqlash va shaxsiy kompetensiyasini doimiy rivojlantirish imkonini beradigan ochiq va konstruktiv muhitni shakllantirish.

Shu tarzda pedagogik jamoaning faoliyati, jadid pedagogik merosi va shaxsiy kompetensiya o‘zaro chambarchas bog‘lanib, zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirishning asosiy omili bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. — Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar*. — Toshkent, 2017.
4. Musurmonova O. *Pedagogik kompetentlik asoslari*. — Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. — Toshkent, 2020.

JADIDLARNING ASTRONOMIYA VA GEOGRAFIYA FANLARINI YANGI USUL MAKTABLARIGA JORIY ETISHDAGI SA'Y-HARAKATLARI: BEHBUDIY VA FITRAT ASARLARIDA TABIIY FANLAR TARG'IBI

Samadov Vohid Tolipovich

BuxDPI, harbiy ta'lim fakulteti umumqo‘shin tayyorgarlik sikl dotsenti

Shamsidinov Shaxzod Sherali o’g’li

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti talabasi

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati vujudga keldi va u mahalliy xalqlarning ma’rifiy hayotida tubdan o‘zgarishlar yasash maqsadini ko‘zladi. Jadidlar yangi usul (usuli jadid) maktablarini tashkil etish orqali an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilishga harakat qildilar. Ular eski maktab va madrasalardagi o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga javob bermasligini tanqid qildilar va ta’limda tabiiy fanlarning o‘rni muhim ekanligini ta’kidladilar [1]. Shu bois jadidlarning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Turkiston jadidlarining, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat asarlarida astronomiya hamda geografiya fanlarining targ'ib qilinishi masalasini tarixiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, jadidlarning tabiiy fanlarga munosabati nafaqat umumiy ta’lim islohoti kontekstida, balki aniq fan yo‘nalishlari – astronomiya va geografiya – misolida alohida ko‘rib chiqilmoqda. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik va manbashunoslik usullariga asoslangan.

Mavzuning dolzarbligi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi islohotlari bilan ham bog‘liq. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi qimmatli tarixiy tajriba sifatida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim mazmunini boyitish masalalari borasida jadidlar tajribasi muhim darslar berishi mumkin [2].

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati va ta’lim islohoti masalasi butun O‘zbekiston tarix fanida keng o‘rganilgan. B.Qosimov, U.Dolimov, A.Hayitmetov, R.Xoliqova kabi olimlarning tadqiqotlari jadidlarning ma’rifiy faoliyatini yoritishda muhim hissa qo‘shgan. Biroq jadidlarning aniq fan yo‘nalishlari – astronomiya va geografiya – bo‘yicha qarashlari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

1. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotining zarurati. Turkiston o‘lkasida XIX asr oxirlarida mavjud bo‘lgan ta’lim tizimi asosan diniy xususiyatga ega bo‘lib, maktab va madrasalarda arabiy grammatika (nahv va sarf), fiqh, tafsir va hadis ilmlari o‘qitilardi. Tabiiy fanlar – matematika, astronomiya, geografiya, fizika

kabilar deyarli o‘qitilmas edi yoki juda chegaralangan darajada berilardi. Jadidlar ana shu kamchilikni bartaraf etish uchun yangi usul maktablarini tashkil qila boshladilar [3]. Ular Turkiyadan, Misrdan va Rossiyadan kelgan zamonaviy ta’lim tajribalarini o‘rganib, o‘z maktablarida tatbiq etishga harakat qildilar.

Yangi usul maktablarining an’anaviy maktablardan asosiy farqi shunda ediki, ularda faqat diniy fanlar emas, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilardi. Geografiya, tarix, hisob (arifmetika), tabiatshunoslik, astronomiya elementlari o‘quv dasturiga kiritilgan edi. Ismoil Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasida ilgari surgan g‘oyalari Turkiston jadidlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Gasprinskiy tabiiy fanlarni o‘qitish zaruratini boshqalardan oldin anglab yetgan ziyolilardan biri edi. Uning "Usuli jadid" tamoyillari nafaqat savod o‘rgatish usulini, balki butun ta’lim mazmunini o‘zgartirishni nazarda tutgan [4].

Jadidlarning ta’lim dasturida astronomiya va geografiya fanlari alohida o‘rin egallagan. Buning sababi shundaki, bu fanlar orqali o‘quvchilar dunyo haqida keng tasavvurga ega bo‘lishlari, Yerning shakli, qit’alar, okeanlar, osmon jismlari haqida bilim olishlari mumkin edi. Jadidlar uchun bu fanlar nafaqat ilmiy bilim manbai, balki milliy ongni shakllantirish vositasi ham edi. Astronomiya va geografiya o‘rganish orqali yoshlar o‘z mamlakatlarining dunyo xaritasidagi o‘rnini anglab yetishlari, boshqa xalqlar va mamlakatlar bilan o‘zlarini solishtirish imkoniga ega bo‘lishlari kerak edi [5].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jadidlarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi tasodifiy emas edi. O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson olimlari – Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek kabilar astronomiya, matematika va geografiya fanlarida buyuk kashfiyotlar qilgan edilar. Jadidlar aynan shu ilmiy an’analarni tiklash va davom ettirish zarurligini his qilganlar. Ular o‘tmishdagi buyuk olimlarning merosiga tayanib, zamonaviy tabiiy fanlarni o‘qitishni asoslashga harakat qilganlar [6].

2. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tabiiy fanlarga munosabati Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ta’lim islohotiga katta hissa qo‘shdi. U 1903-yilda Samarqandda yangi usul maktabini ochdi va uning o‘quv dasturini ishlab chiqdi. Behbudiy "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetasi orqali o‘z ma’rifiy g‘oyalarini yoydi [7]. Uning asarlarida tabiiy fanlarning ahamiyati haqida ko‘plab fikrlar uchraydi. Behbudiy tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham asoslab bergan mutafakkir edi.

Behbudiy "Padarkush" (1913) dramasida bilimsizlik va jaholatning oqibatlarini tasvirlar ekan, tabiiy fanlarni bilmaslik natijasida kishilarning xurofotga berilishini ko‘rsatadi. U astronomiya va geografiya bilimlarining odamlarni xurofotdan xalos qilishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Asardagi bosh qahramon Toshmurodning fojiasi aynan bilimsizlik tufayli yuz beradi. Behbudiy bu asar orqali zamonaviy ilm-fan, jumladan tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini badiiy shakilda ifodalagan [8].

"Oyina" jurnalida chop etilgan maqolalarida Behbudiy Yer kurrasining shakli, qit’alar va mamlakatlar haqida ma’lumotlar bergan. U o‘quvchilarni dunyoning turli mamlakatlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish zarurligini

qayta-qayta uqtirgan. Behbudiy geografiya fani orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuygo‘sini shakllantirish mumkinligini tushungan. U maqolalarida Turkistonning geografik joylashuvi, tabiiy boyliklari, iqlimi haqida ma’lumotlar berib, mahalliy xalqning o‘z yurtini yaxshiroq bilishi zarurligini ta’kidlagan [9].

Behbudiyning geografiyaga oid qarashlari uning sayohat tajribalari bilan ham bog‘liq edi. U 1914-yilda Makka, Misr, Turkiya va Bolgariyaga sayohat qildi. Bu sayohatlar uning dunyoqarashini kengaytirdi va u o‘z maqolalarida boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimlarini Turkiston bilan solishtirdi. Behbudiy Misr va Turkiyadagi maktablarda astronomiya va geografiya fanlarining o‘qitilishini kuzatdi va bu tajribani Turkiston maktablariga tatbiq etish zarurligini yozdi. U Qohiradagi Al-Azhar universitetida ham diniy, ham dunyoviy fanlar o‘qitilishini misolga keltirib, Turkiston madrasalarida ham shunday tizim joriy etilishi kerakligini isbotlashga harakat qilgan [10].

Behbudiyning "Ikki yo‘l yoxud ta’lim usuli" (1906) risolasida zamonaviy fanlarni o‘qitish zarurati to‘g‘risida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Muallif bu asarida ta’limning ikki yo‘li – eski va yangi usul haqida fikr yuritadi. U eski usulda tabiiy fanlarning o‘qitilmasligi yosh avlodning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotganini ko‘rsatadi. Behbudiy yangi usul maktablari uchun darsliklar yaratish ishiga ham e’tibor berdi. U "Kitobat ul-atfol" (1904) asarida ta’lim mazmunini boyitish zarurligini ko‘rsatdi [11].

Behbudiy astronomiya sohasida, xususan, Quyosh tizimi, sayyoralar, Oy va yulduzlar haqidagi bilimlarni oddiy tilda tushuntirishga harakat qildi. Uning maktablarida dunyoning xaritasi osilgan va o‘quvchilarga turli mamlakatlar haqida ma’lumot berilgan. Behbudiy darsliklarida ilmiy ma’lumotlar rasmlarsiz berilmasligini ta’kidlagan – u o‘quv jarayonida ko‘rgazmali qurollardan, xaritalardan va chizmalardan foydalanishni zarur deb hisoblagan. Bu yondashuv o‘sha davr uchun innovatsion xarakterga ega edi [12].

3. Abdurauf Fitratning tabiiy fanlar sohasidagi qarashlari.Abdurauf Fitrat (1886–1938) Buxoro jadidchilik harakatining eng yirik nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida tanilgan. U Istanbulda tahsil olgan davrda zamonaviy ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishdi va bu tajribani Buxoroga olib keldi. Fitratning "Munozara" (1911) asari jadidchilik adabiyotining eng muhim namunalaridan biri hisoblanadi [13]. Ushbu asarda muallif Buxorodagi ta’lim tizimining nochorligi va zamonaviy fanlar o‘qitilmasligini keskin tanqid qiladi. Fitrat Istanbulda o‘qigan davridayoq astronomiya, geografiya va boshqa tabiiy fanlarning ahamiyatini chuqur anglagan edi.

"Munozara"da Fitrat Buxoro madrasalarida faqat diniy fanlar o‘qitilishi va tabiiy fanlar – astronomiya, geografiya, fizika, kimyo kabilarning e’tibordan chetda qolishini muammoli holat sifatida ko‘rsatadi. Asardagi bosh qahramonlar – yevropalik sayoh va buxorolik mudarris o‘rtasidagi munozarada zamonaviy ilm-fanning ahamiyati haqida chuqur fikrlar ilgari suriladi. Fitrat astronomiya misolida Buxoro olimlarining ilgari bu sohadagi yutuqlari – Ulug‘bek rasadxonasi, Beruniy va Xorazmiy asarlari – haqida eslatirar ekan, bugungi avlodning bu an’analardan uzoqlashganini afsuslaydi. Muallif yevropalik sayoh tilidan shunday fikrni bildiradi:

sizlarning ajdodlaringiz ulug‘ olimlar bo‘lgan, lekin hozirgi avlod ularning ilmiy merosini davom ettirolmayapti [14].

Fitratning "Hind sayyohining qissasi" (1912) asarida ham tabiiy fanlar mavzusi keng yoritilgan. Muallif hind sayyohining tilidan Buxorodagi ta’lim tizimini tanqid qilar ekan, astronomiya va geografiya bilimlarining zamonaviy hayot uchun zarurligini ko‘rsatadi. Fitrat bu fanlarni o‘qitish orqali yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilgan. "Hind sayyohi" Buxoroga kelganda, u yerdagi maktab va madrasalarni ko‘zdan kechirar ekan, tabiiy fanlarning umuman o‘qitilmasligidan hayratga tushadi. Bu asar Buxoro jamoatchiligi o‘rtasida katta aks-sado uygo‘tdi va jadidchilik harakatiga yangi kuch bag‘ishladi [15].

Fitrat o‘z asarlarida astronomiya fanining amaliy ahamiyatiga ham e’tibor qaratgan. U Oy fazalari, Quyosh va Oy tutilishi, yulduzlar va sayyoralar harakati haqidagi bilimlarning kundalik hayotda, jumladan taqvim tuzish, dehqonchilik va dengizchilikda zarur ekanligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Fitrat geografiya fanini o‘qitish orqali yoshlarda milliy g‘urur hissini uygo‘tish mumkinligini ham ta’kidlagan. U Turkistonning boy tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi haqida yozar ekan, bu bilimlarning xalq ongini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan [16].

Fitratning amaliy faoliyatida ham tabiiy fanlarga e’tibor katta bo‘lgan. U Buxoro amirligida ochilgan yangi usul maktablari uchun o‘quv dasturlari tayyorlashda ishtirok etdi. 1917-yildan keyin esa Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida ma’orif sohasida rahbarlik qilib, ta’lim tizimiga zamonaviy fanlarni joriy etish borasida amaliy qadamlar tashladi. Fitrat geografiya fanini o‘qitish uchun xaritalar va globuslardan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. U Istanbuldagi tajribasiga tayangan holda, Buxoro maktablarida ham zamonaviy o‘quv qurollari – xaritalar, globuslar, astronomik jadvallar – dan foydalanish zarurligini uqtirgan [17].

Fitratning yana bir muhim hissasi shundaki, u tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini nafaqat pedagogik, balki siyosiy-ijtimoiy jihatdan ham asoslagan. Uning fikricha, tabiiy fanlarni bilmaydigan xalq boshqa xalqlar tomonidan boshqarilishga mahkum bo‘ladi. Astronomiya va geografiya bilimi xalqning o‘z mustaqilligini saqlashida, o‘z yurtining tabiiy boyliklarini anglashida va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashida muhim rol o‘ynaydi. Bu fikr Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Fitrat tabiiy fanlarni o‘qitishni milliy ozodlik va taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan va bu g‘oyani o‘z zamondoshlari o‘rtasida faol targ‘ib qilgan.

4. Yangi usul maktablarida astronomiya va geografiya o‘qitilishining xususiyatlari Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida astronomiya va geografiya fanlari bir necha xususiyatlarga ega bo‘lgan. Birinchidan, bu fanlar an’anaviy diniy ta’lim bilan uygunlashtirilgan holda o‘qitilgan. Jadidlar islom dini va zamonaviy fan o‘rtasida ziddiyat yo‘qligini ko‘rsatishga harakat qilganlar. Ular Qur’oni Karimda osmon jismlari, Yer va tabiat hodisalari haqida o‘nlab oyatlar borligini misolga keltirib, astronomiya va geografiya o‘qitishni diniy nuqtai nazardan ham asoslaganlar. Bu yondashuv konservativ doiralarning qarshiligini yumshatishda muhim rol o‘ynagan [18].

Ikkinchidan, yangi usul maktablarida geografiya fani doirasida o‘quvchilarga nafaqat tabiat haqida, balki dunyo mamlakatlari, ularning aholisi, iqtisodiyoti va madaniyati haqida ham bilim berilgan. Bu jadidlarning keng dunyoqarashini shakllantirish maqsadiga xizmat qilgan. O‘quvchilar Yevropa, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alar haqida ma’lumot olganlar, turli xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va taraqqiyot darajasi bilan tanishganlar. Jadidlar bu bilimlar orqali o‘quvchilarda solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilganlar [19].

Uchinchidan, astronomiya elementlari ko‘pincha tabiatshunoslik fani doirasida berilgan bo‘lib, Quyosh tizimi, Oy fazalari, yulduzlar va sayyoralar haqida boshlang‘ich bilimlar o‘qitilgan. Yangi usul maktablarida astronomiya alohida fan sifatida emas, balki tabiatshunoslik yoki geografiya fanining tarkibiy qismi sifatida o‘qitilgan. Buning sababi maktablarda yetarlicha malakali o‘qituvchilar va o‘quv qurollarining yetishmasligi edi. Shunga qaramay, jadidlar astronomiya haqidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishga muvaffaq bo‘lganlar [20].

To‘rtinchidan, jadidlar darsliklarida ilmiy ma’lumotlar oddiy va tushunarli tilda bayon qilingan. Ular murakkab ilmiy tushunchalarni sodda misollarda tushuntirishga harakat qilganlar. Masalan, Behbudiy Yer kurrasining shakli haqida gapirar ekan, sayohat tajribalari va kuzatishlarga tayanib, oddiy odamlar uchun tushunarli qilib bayon etgan. Fitrat esa Ulug‘bek, Beruniy kabi buyuk olimlarning kashfiyotlarini eslatirar ekan, mahalliy xalqning ilmiy merosiga bo‘lgan g‘ururni uygo‘tishga harakat qilgan. Bundan tashqari, jadidlar darsliklarida savollar va mashqlar berilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilgan [21].

Beshinchidan, jadidlar tabiiy fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali usullardan foydalanishga katta ahamiyat berganlar. Xaritalar, globuslar, chizmalar, rasmlar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Behbudiy o‘z maktabida dunyoning siyosiy va fizik xaritalarini osib qo‘ygan va o‘quvchilarga mamlakatlar, qit’alar, okeanlar haqida ko‘rsatma qurollar yordamida tushuntirishlar bergan. Bu usul an’anaviy eski maktablardagi yodlashga asoslangan ta’limdan tubdan farq qilgan va o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilagan [22].

5. Behbudiy va Fitrat qarashlarining qiyosiy tahlili Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitratning tabiiy fanlarga bo‘lgan munosabatini qiyosiy tahlil qilish har ikkala mutafakkirning yondashuvlarida ham o‘xshashlik, ham farqlarni aniqlash imkonini beradi. Har ikki jadid ham astronomiya va geografiya fanlarining yangi usul maktablarida o‘qitilishi zarurligini qayta-qayta ta’kidlaganlar. Ular bu fanlarni o‘qitish orqali xalq ongini yuksaltirish, xurofotga qarshi kurashish va milliy taraqqiyotga hissa qo‘shishni maqsad qilganlar. Shu bilan birga, ularning yondashuvlarida muhim farqlar ham mavjud edi [21].

Behbudiyning yondashuvi ko‘proq amaliy xarakterga ega bo‘lgan. U o‘zi maktab ochgan, darsliklar yozgan, gazeta va jurnal nashr etgan. Behbudiy tabiiy fanlarni o‘qitishda bevosita amaliy tajribaga ega bo‘lgan va o‘z sayohatlari orqali boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimlarini o‘rgangan. Uning geografiya va astronomiya haqidagi qarashlari ko‘proq pedagogik-amaliy xarakterga ega bo‘lib, u bu fanlarni o‘qitishning aniq usullarini taklif qilgan. Behbudiy ko‘rgazmali qurollar

– xaritalar, globuslar, rasmlar – dan foydalanishni zarur deb hisoblagan va buni o‘z maktabida amaliyotga tatbiq etgan [22].

Fitratning yondashuvi esa ko‘proq nazariy-falsafiy xarakterga ega bo‘lgan. U o‘z asarlarida tabiiy fanlar o‘qitilmasligining ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tahlil qilgan va bu muammoni keng kontekstda – jamiyat taraqqiyoti, milliy ong va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqan. Fitrat astronomiya va geografiya fanlarini nafaqat ta’lim, balki millatning o‘zligini anglash vositasi sifatida qo‘llagan. U Beruniy, Xorazmiy, Ulug‘bek kabi buyuk olimlarning nomlarini eslatirar ekan, mahalliy xalqda ilmiy merosga nisbatan g‘urur hissini uygo‘tishga harakat qilgan [14].

Ikkala jadidning yondashuvlarida yana bir muhim o‘xshashlik – ular tabiiy fanlarni din bilan qarshi qo‘ymaganlar. Aksincha, ular islom dinining ilm-fanga rag‘bat berishini, Qur’oni Karimda tabiat hodisalarini o‘rganishga undovchi oyatlar borligini misolga keltirib, astronomiya va geografiya o‘qitishni diniy nuqtai nazardan ham asoslaganlar. Bu yondashuv jadidlarning o‘z davrining konservativ doiralari bilan munosabatlarida muhim strategik ahamiyat kasb etgan, chunki ruhoniylarning qarshiligini yumshatishda ilm-fanning diniy asoslarini ko‘rsatish samarali vosita bo‘lgan [18].

Shuningdek, Behbudiy va Fitrat o‘rtasidagi muhim farqlardan biri ularning faoliyat geografiyasida aks etadi. Behbudiy asosan Samarqand va Toshkent shaharlarida faoliyat yuritgan bo‘lsa, Fitrat Buxoro shahri va Buxoro amirligi hududida ishlagan. Bu geografik farq ularning qarashlari va amaliy faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Buxoro amirligida konservatizm darajasi Turkiston general-gubernatorligiga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan va Fitrat ko‘proq nazariy asoslash bilan shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelgan. Behbudiy esa nisbatan ochiqroq muhitda faoliyat yuritib, amaliy qadamlar tashlash imkoniyatiga ega bo‘lgan [7].

Har ikki jadidning merosini bir butun sifatida o‘rganish jadidchilik harakatining tabiiy fanlarga bo‘lgan munosabatini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Behbudiyning amaliy tajribasi va Fitratning nazariy asoslari bir-birini to‘ldirib, yangi usul maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishning yaxlit konsepsiyasini tashkil etadi. Bu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi shundan iborat ediki, zamonaviy tabiiy fanlar – astronomiya, geografiya, fizika, kimyo – o‘qitish milliy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi va bu fanlar islom qadriyatlari bilan to‘liq uygunlashadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Turkiston jadidlari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat astronomiya va geografiya fanlarini yangi usul maktablariga joriy etishda katta sa'y-harakatlar qilganlar. Ular bu fanlarni o‘qitish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni xurofot va jaholatdan xalos qilish hamda milliy ongni yuksaltirishni maqsad qilganlar.

Behbudiy o‘z asarlari, maqolalari va amaliy faoliyati orqali tabiiy fanlar, jumladan astronomiya va geografiyaning o‘qitilishi zarurligini dalillab berdi. U Turkistondan tashqariga sayohat qilib, boshqa mamlakatlarning ta’lim tajribasini o‘rgandi va uni mahalliy sharoitga moslashtirish yo‘llarini izladi. Fitrat esa nazariy jihatdan bu fanlarning o‘qitilmasligi Buxoro va Turkiston jamiyatining orqada

qolishining asosiy sabablaridan biri ekanligini koʻrsatdi. Har ikkala jadid ham tabiiy fanlarni islom qadriyatlari bilan uygunlashtirish yoʻlida salmoqli fikrlar bildirganlar.

Jadidlarning bu sohadagi merosi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Zamonaviy Oʻzbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida jadidlarning ilmiy-ma'rifiy qarashlari qimmatli tarixiy tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ularning tabiiy fanlarga boʻlgan munosabati, ilm-fan va diniy qadriyatlarni uygunlashtirish tajribasi bugungi ta'lim islohotlari uchun muhim darslar beradi. Jadidlarning koʻrgazmali ta'lim usullari, darsliklarni oddiy va tushunarli tilda yozish an'anasi, tabiiy fanlarni milliy qadriyatlar bilan bogʻlash tajribasi zamonaviy pedagogika fani uchun ham qimmatli meros hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning astronomiya va geografiya fanlarini yangi usul maktablariga joriy etishdagi tajribasi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kun uchun ham amaliy qimmatga ega. Bu tajribani chuqur oʻrganish va zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish ilm-fan rivojiga muhim hissa qoʻshishi mumkin.

Jadidlarning tajribasi zamonaviy Oʻzbekiston ta'lim tizimi uchun bir necha muhim darslar beradi. Birinchidan, tabiiy fanlarni oʻqitishda milliy ilmiy merosga tayanish – Beruniy, Xorazmiy, Ulugʻbek kabi olimlarning kashfiyotlarini oʻquvchilarga yetkazish – yoshlarda ilmga boʻlgan qiziqish va milliy gʻururni shakllantiradi. Ikkinchidan, tabiiy fanlarni koʻrgazmali qurollar yordamida oʻqitish – xaritalar, globuslar, multimedia vositalari – dan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, ilm-fan va ma'naviy qadriyatlarni uygunlashtirish yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida jadidlarning tabiiy fanlar sohasidagi faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish, ularning darsliklarini, maqolalarini va boshqa asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarur. Bundan tashqari, jadidlarning tabiiy fanlarni oʻqitish tajribasini boshqa turkiy xalqlarning – tatar, qozoq, ozarbayjon jadidlarining – tajribasi bilan qiyosiy oʻrganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega boʻladi. Bunday qiyosiy tadqiqotlar jadidchilik harakatining tabiiy fanlarga boʻlgan munosabatini kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqova R. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 34-56.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-sonli Qarori.

3. Abdullayev V. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – B. 112-130.

4. Gasprinskiy I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 45-67.

5. Qosimov B. Milliy uygoʻnish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 78-95.

6. Hayitmetov A. Oʻrta Osiyo xalqlarining ilm-fan tarixiga hissasi. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 34-58.

7. Dolimov U. Mahmudxoʻja Behbudiy. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 23-48.

8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 56-89.

9. Behbudiy M. "Oyina" jurnalida chop etilgan maqolalar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 23-45.
10. Behbudiy M. Sayohatnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007. – B. 12-34.
11. Rajabov I. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadid maktablari. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 67-85.
12. Aminov B. Jadid maktablarida o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – B. 45-67.
13. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 34-78.
14. Hayitmetov A. Abdurauf Fitrat ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 45-67.
15. Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 15-42.
16. Ergashev Q. Buxoro jadidlarining ma’rifiy faoliyati. – Buxoro: BuxDU, 2012. – B. 89-112.
17. Norqobilov Sh. Fitratning ta’lim haqidagi qarashlari. – Toshkent: Akademiya, 2014. – B. 56-78.
18. Aminov B. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 56-78.
19. Xasanov M. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o‘qitilishi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 34-56.
20. Karimova S. Jadidlar va astronomiya ta’limi. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 67-89.
21. Tursunov B. Jadid darsliklarida tabiiy fanlar. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 45-60.
22. Raximova D. Jadid maktablarida ko‘rgazmali o‘qitish usullari. – Buxoro: BuxDPI, 2020. – B. 34-48.

МАДАНИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Қиличев Алижон Тилавович

Бухоро давлат педагогика институти мустақил изланувчиси

Маданиятнинг ўзи ижтимоий ва эпистемологик жиҳатдан яратилган ва аҳамиятли деб эътироф этилган нарса сифатида билимга асосланади, реалликни англашга таянади ва қадриятларга йўналтирилган. Ижтимоий аҳамиятга эга бўлган мавжудлик шаклларини яратиш жараёни, яъни маданий ижод жараёни фалсафий мулоҳазалар объекти ҳисобланади. Маданият инсоннинг онгли ижтимоий фаолияти натижаси бўлгани сабабли, маданиятнинг вужудга келиш омиллари ва манбалари таҳлил предметига айланади. Қадимги давр файласуфлари ҳам маданият ва фалсафа ўртасидаги алоқани таъкидлаб ўтганлар. Бироқ ўша даврда маданиятга маънавий ҳодиса, инсон қалбининг хусусияти сифатида қаралган. Қалб маданияти маърифатли

кишиларни жоҳиллардан ажратиб туради, деб ҳисобланарди. Масалан, Цицерон қалб маданиятининг зарурлигини таъкидлаб, уни бевосита фалсафа билан айнанлаштирган[181]. Аристотел мавжуд нарсаларга таъриф берган: “мавжудликни (икки тоифага) табиат маҳсулотлари ва бошқа турдаги манбаларга эга бўлган маҳсулотларга ажратиш мумкин”[182]. Шу билан бирга, қадимги даврларда инсон микрокосми бутунлай Коинотнинг макрокосми билан боғлиқ бўлган бўлса, вақт ўтиши билан инсон борган сари дунё ва табиатдан ажралиб, ўзини субъект сифатида объектга қарама-қарши қўя бошлади. Янги даврда когнитив онгнинг кенгайиши барча соҳаларда, шу жумладан маданият ҳодисасини тушунишда ҳам фаолият парадигмасининг устунлигига олиб келди[183]. XX асрда оммавий маданиятнинг вужудга келиши ва ҳукмронлиги шароитида фалсафий тафаккур инсоннинг табиатдан бегоналашуви муаммосига эътибор қаратди. Таъкидлаш жоизки, бу тенденция билан бир қаторда бошқа йўналишлар ҳам мавжуд эди. Масалан, Ш. Монтескье одамларнинг ҳаёти ва урф-одатларига иқлим ва яшаш шароитлари таъсир кўрсатади, деган фикрни илгари сурган. В.И. Вернадский, А.Л. Чижевский, К.Э. Сиолковский, Л.И. Мечниковлар космос ва табиатнинг маданият учун катта аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаганлар.

Бироқ, шубҳасизки, инсон маданиятини табиат билан тўлиқ таққослаб бўлмайди, чунки инсон “табиатга” сингиб кетган ва ўз-ўзидан қисман унинг қонунларига бўйсунадиган биологик мавжудотдир. Ҳар қандай маданият объектининг муҳим хусусияти унинг иккиёқламалилигидир, чунки у инсон тафаккури учун объектив бўлган табиий ва ижтимоий хусусиятларга эга. Кўпгина замонавий маданиятшунослар маданият инсон фаолиятидан келиб чиқади ва инсон томонидан табиатни “қайта яратиш” жараёни ва натижасидан бошқа нарса эмас, деган фикрга қўшиладилар ҳамда уни моддий ва маънавийга ажратадилар. Бу маданият учун методологик аҳамиятга эга, чунки у маданият типологияси учун асос бўлиб хизмат қилади. Постиндустриал жамиятга ўтиш маънавий соҳада ўзгаришларга, оммавий маданиятнинг пайдо бўлишига олиб келади. Маълумки, инсоннинг ҳар қандай фаолияти ҳам маданиятни вужудга келтирмайди. Маданий артефактлар атрибутларининг хусусиятларини белгилашда уларда инсон руҳига қаратилган рамзларнинг муқаддас маъноси мавжудлигини тан олиш лозим. Шу нуқтаи назардан, маънавиятга эга бўлган яратилган маданият ёдгорликлари моддий моҳиятга эга бўлган оммавий нусха кўчириладиган объектларга қарама-қарши қўйилади, маданият эса кенг маънода цивилизацияга қарши туради. Шунинг учун ҳам Н.А. Бердяев маданиятни чуқур индивидуал ва ноёб ҳодиса, цивилизацияни эса ҳамма жойда тарқалган ва такрорланадиган ҳодиса сифатида таърифлайди. У бу тушунчаларни фарқлаган. Цивилизация - халқаро, демократик ва динсиздир[184].

[181] Уайт Л.А. Понятие культуры // Антология исследований культуры. СПб. Унив. Книга. 1997. -С. 17.
[182] Аристотель. Метафизика. М. 1964. -С. 96.
[183] Петров И.Ф. Социальные потребности как важнейшая характеристика общества // Вестник ИМСИТ. 2013. № 3-4 (55-56). -С. 47-54.
[184]Бердяев Н.А. Предсмертные мысли Фауста // Философия творчества, культуры и искусства. Т. 1. М. 1994. -С. 390.

“Маданият” ва “цивилизация” тушунчалари ўртасидаги муносабатларни талқин қилиш чегаралари жуда ўзгарувчан эканлигини таъкидлаш лозим. Масалан, Ф.М. Волтер, З. Фрейд, П.А. Голбах ва бошқалар маданият ва цивилизацияни айнан бир нарса деб ҳисоблаганлар. Н.Я. Данилевский, С. Хантингтон, А. Тойнби уларни таҳлил қилишда қисм ва бутун нуқтаи назаридан ёндашганлар - цивилизация илдизлари умумий тақдир билан боғланган ва бирлаштирилган маданиятлар синтези сифатида қарашган. Н. Бердяев, О. Шпенглер, Т. Маркуз эса бу икки тушунчани бир-бирига қарама-қарши қўйганлар. О. Шпенглер фикрига кўра, маданият хронологик жиҳатдан цивилизация билан алмаштирилади, бу эса унинг таназзули ва инқирозига олиб келади[185]. Шуни таъкидлаш жоизки, кўпчилик мутафаккирлар “маданият”да маънавий, индивидуал, “цивилизация” тушунчасида эса моддий, прагматик жиҳатни таъкидлайдилар. Бироқ, маданият ва цивилизация ўртасидаги фарқ шартли бўлиб, у “моддий маданият” тушунчасида намоён бўлади[186]. Маданият ва цивилизациянинг ўзаро боғлиқлигини ҳисобга олган ҳолда, уларга зид тушунчалар сифатида қарамаслик керак. Шу билан бирга, цивилизация асосан жамиятнинг моддий ва ижтимоий муаммоларини ҳал қилишга қаратилган прагматик ёндашув эканлигини, маданият эса маънавий-қадриятли соҳага йўналтирилганлигини эътироф этиш лозим. Ҳозирги вақтда жадал ижтимоий-техник ривожланиш кузатилмоқда, бу эса маданий ўзгаришлар суръатини тезлаштирмоқда. Агар илгари маълум маданий қадриятлар кўп асрлар давомида ўзгармай, бир неча авлоднинг ҳаётини белгилаган бўлса, энди бир инсон умри давомида бир нечта маданий даврлар алмашиниб кетмоқда. Айнан шу сабабли маданиятга ижтимоий тараққиёт омили сифатида қизиқиш сезиларли даражада кучайди, чунки миллатни, жамиятнинг ўзига хос хусусиятларини маданиятни ўрганмасдан туриб тушуниб бўлмайди. Буларнинг барчаси “цивилизация” ва “маданият” тушунчаларининг хусусиятлари ва нозик жиҳатларини, маданий ўзгаришлар қонуниятларини фарқлашга ёрдам беради. Маданият инсон ҳаёти ва яратилган воқеликнинг сифат хусусияти бўлиб, унда маънавият ва инсонпарварлик устувор аҳамиятга эга деган нуқтаи назарга таяниб, биз маданий ҳодисаларни вайронкор, ғайриинсоний хусусиятга эга бўлган маданиятга зид ҳодисаларга қарама-қарши қўямиз[187]. Шуни таъкидлаш керакки, махсус адабиётларда маданиятни яхлит ижтимоий ҳодиса сифатида таҳлил қилинадиган тизим деб тушуниш одатий ҳолдир. Бироқ, маданият кўп қиррали ва таркиби жиҳатидан бир хил бўлмагани сабабли, у ягона тузилма эмас. Шунинг учун маданиятнинг хилма-хил жиҳатлари, қирралари ва хусусиятларигина эмас, балки турли институтлар ва жараёнлар ҳам таҳлил қилиниши лозим. Фалсафа маънавий маданият ҳодисаларидан бири, илмий-назарий ва маънавий-амалий тамойиллар уйғунлашган онгнинг ўзига хос шакли сифатида намоён бўлади. Фалсафа дунё ва инсон, инсон фаолиятининг келиб чиқиши, натижалари ва

[185]Цицерон М.Т. Избранные сочинения. М. 1975. С. 252.
[186]Петров И.Ф. Социальная структура личности и потребности // Вестник ИМСИТ. 2016. № 1 (65). С. 7-8.
[187]Петров И.Ф. Региональная социокультурная среда: проблемы анализа и управления // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2010. № 13. С. 131-136.

истиқболлари ҳақидаги тасаввурлар тизимини, яъни тизимли дунёқарашни ривожлантиради, унинг ёрдамида маданиятни тушунтириш ва англаш мумкин. М.Б. Туровскийнинг фикрича, фалсафа “маданиятдаги акс”дир[188]. Фалсафа аксиологик характердаги таълимот бўлиб, маданий ҳаракат йўналишини кўрсатиб, антимаданиятга маънавий жиҳатдан қарши туради. Фалсафа пайдо бўлган даврдан бошлаб маданий вазиятни акс эттириб, аста-секин фалсафадан нисбатан мустақил бўлган маданият фалсафасига айланиб борди. Эслатиб ўтиш жоизки, тахминан ўн тўққизинчи асрдан бошлаб маданият тўлиқ, қандайдир уюшган тизим сифатида эмас, балки фанда ҳукм сурган умумий таҳлилий руҳ туфайли унинг алоҳида ва мустақил кўринишларида идрок этила бошланди. Бу эса фалсафанинг бир неча фанларга, жумладан, маданият фалсафасига бўлинишига олиб келди. XX асрда оммавий маданиятнинг пайдо бўлиши маданият мавжудлиги муаммоларини кун тартибига қўйди. М.С. Каган таъкидлаганидек: “ҳозир XX асрнинг иккинчи ярмида борлиқнинг ижтимоий-маданий соҳаси ўзгаришларининг умумийлиги тобора аниқроқ бўлиб бормоқда”[189]. Маданият замонавийликнинг функцияси бўлмай қолди, замонавийлик эса маданиятнинг функциясига айланмоқда. Маданият фалсафаси фалсафадан нисбатан мустақил соҳа сифатида маданиятнинг умумий асосларини, унинг маънавий борлиқдаги ўрнини аниқлашга интилади. Маданият фалсафасидаги энг муҳим масалалардан бири маданият ва унда содир бўлаётган жараёнларни тушуниш учун асос бўла оладиган маданий универсалиялар масаласидир. Масалан, Г. Риккерт ахлоқий ва эстетик қадриятларни, Г. Коген маданиятнинг бир нечта соҳаларининг мантиқий ва таркибий асосларини, К. Юнг инсониятнинг психологик ва биологик бирлигини, К. Ясперс маданият маъносининг ўзига хослиги ҳақидаги ғояни, Д. Белл ахборот жараёнларининг универсаллигини ва бошқаларни шундай деб ҳисоблаган. Кўриб турганимиздек, фалсафада маданиятга ёндашувлар доираси жуда кенг - теологик қарашлардан материалистик қарашларгача, ратсионалистик ёндашувлардан ҳиссий ёндашувларгача, технологик нуқтаи назардан рамзий нуқтаи назаргача, шахсий ёндашувдан субстансионал ёндашувгача, ижодий қарашлардан деструктив қарашларгача. Л.А. Уайт тўғри таъкидлаганидек: “Баъзилар учун маданият ўрганиладиган хатти-ҳаракатдир. Бошқалар учун хатти-ҳаракатнинг ўзи эмас, балки унинг мавҳумлашувидир. Баъзи антропологлар учун тош болталар ва сопол идишлар маданият ҳисобланса, бошқалари учун ҳеч қандай моддий буюм бундай эмас”[190]. Ўз вақтида А. Кребер ва К. Клакхон бир юз саксон турли хил таърифни рукнлар бўйича гуруҳлаб, маданиятнинг қанчалик кўп қиррали эканлигини яққол кўрсатган ҳолда, ўзларидан олдинги барча маданиятшунослик фикрларини умумлаштиришга ҳаракат қилишган[191]. Масалан, инсоннинг маданиятдаги ўрнини талқин қилиш хусусияти асосида умумий таснифни, хусусан,

[188]Петров И.Ф. Социальные потребности как важнейшая характеристика общества // Вестник ИМСИТ. 2013. № 3-4 (55-56). С. 47-54.
[189] Каган М.С. Философия культуры. СПб. 1996. -С. 386.
[190] Туровский М.Б. Философские основания культурологии. М. 1997. -С. 33.
[191] Шпенглер О. Закат Европы. М. 1933. -С. 42.

натуралистик, классик, модернистик ва постмодернистик таснифларни олиш мумкин. Мавжуд нуқтаи назарларнинг хилма-хиллигини ҳисобга олган ҳолда, биз маданият, умуман олганда, инсон ривожланишининг натижасини, унинг моддий ва маънавий фаолиятини, яъни унинг икки ёқлама хусусиятини ўзида мужассамлаштиради, деб ҳисоблаймиз. Моддий фаолият соҳасидаги ташқи ўзгаришлар ортида маънавий соҳадаги асосий жараёнлар ётади. Инсоннинг ижодий экзистенсиал фаоллиги ва маданият шакллари бир-бирини тақозо этувчи икки таркибий қисмдир. Абстракциялаш орқали анъаналар доирасида фаолият юритадиган, инновацион компонентни киритадиган у ёки бу субъектларнинг саъй-ҳаракатлари туфайли мавжуд бўлган маълум бир маданиятнинг мантиғини тушуниш мумкин. Шу билан бирга, “инсон мавжудлигининг объективлаштирилмаслиги ҳар доим маданиятга нисбатан ҳар қандай холис объективистик ёндашувларнинг чекланганлигини кўрсатади”[192] деган фикрга қўшилиш лозим. Шу муносабат билан маданиятнинг ўзгариш динамикасини ўрганишда маъноларнинг объективлиги, уларнинг предметлилиги ва шу билан бирга субъект томонидан талқин қилиш жараёнида маъноларни тушунишнинг субъективлиги, тарихийлигини тан оладиган феноменологик ва герменевтик усуллар маълум қизиқиш уйғотади. Маданият фалсафаси маданият соҳасидаги бошқа барча фанлар каби у ёки бу шаклда маданиятни таҳлил қилишнинг янги усулларини излайди. Шунга қарамай, шуни таъкидлаш керакки, ҳозирги вақтда уларнинг маълум бир етишмовчилиги мавжуд бўлиб, бу маданиятни ўрганишнинг урғусини фалсафадан социология, тарих, маданиятшуносликка ўзгартиришга олиб келмоқда. Позитивизм таъсири остида маданий маъно тобора тор, эмпирик ва тарихий тус олди, шу билан фалсафий спектрлар соҳасини тарк этиб, этнография, археология, санъат тарихи, санъатшунослик ва бошқалар билан бирлашиб, аниқ фанлар соҳасига кўчди. Албатта, бу жаҳон маданий амалиётининг турли ҳодисаларини юқори назарий ва методологик даражада тавсифлаш, маданиятнинг турли ижтимоий ҳодисаларини очиб бериш имконини беради, аммо фалсафий нуқтаи назардан эмас. Маданиятни ўрганишда фалсафа бошқа фанлар билан ўзаро алоқада бўлади. Бу ерда ҳам маданиятшуносликка катта аҳамият берилади. Маданиятни умумфалсафий тушуниш маданиятшунослик учун, амалий ва назарий муаммоларни ҳал қилиш учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Маданият фалсафаси ва маданиятшуносликда маданиятнинг мазмуни ва шакллари, унинг вужудга келиши ва ривожланиш қонуниятлари, тарихий, ижтимоий, ахлоқий асослари турли даражада умумлаштирилган ҳолда кўриб чиқилади. Фалсафа мураккаб интеграл фан сифатида маданиятшуносликка киритилган фанларда ҳам мавжуд. Фалсафа ўзининг умумий назария, методология, аксиология каби бўлимларида маданият ҳақидаги фанлар мажмуасига таъсир кўрсатади. Маданият фалсафаси маданиятшунослик билимларидан ташқарида ҳам ўз вазифаларини бажаради. Фалсафанинг маданият соҳасидаги энг муҳим ва асосий ғоялари турли фанлар томонидан қўлланилади. Маданиятга турлича

[192] Губман Б.Л. Современная философия культуры. М. 2005. -С. 256.

ёндашувларга асосланган кўплаб хилма-хил маданий назариялар орасида фақат маданият фалсафаси маданиятни ҳақиқий яхлитликда тушуниши мумкин. Шундай қилиб, оммавий маданиятнинг фалсафий рефлексияси учун бошланғич нуқта бу ҳодисани фақат "оммавий маданият одамлари" бадиий ҳаётининг ҳодисаси сифатида кўриб чиқишдан ташқарига чиқиш ва унинг жамият маданиятининг ривожланишига боғлиқлигини аниқлаш бўлиши керак. Бунда фалсафий таҳлилнинг анъанавий усуллари билан бир қаторда, маданиятда кузатиладиган ҳодисалар ва жараёнларнинг мазмунини ўрганиш имконини берадиган феноменологик ва герменевтик усуллардан фойдаланиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аристотель. Метафизика. М. 1964. -С. 96.
2. Бердяев Н.А. Предсмертные мысли Фауста // Философия творчества, культуры и искусства. Т. 1. М. 1994. -С. 390.
3. Губман Б.Л. Современная философия культуры. М. 2005. -С. 256.
4. Каган М.С. Философия культуры. СПб. 1996. -С. 386.
5. Петров И.Ф. Социальные потребности как важнейшая характеристика общества // Вестник ИМСИТ. 2013. № 3-4 (55-56). -С. 47-54.
6. Петров И.Ф. Социальная структура личности и потребности // Вестник ИМСИТ. 2016. № 1 (65). С. 7-8.
7. Петров И.Ф. Региональная социокультурная среда: проблемы анализа и управления // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2010. № 13. С. 131-136.
8. Петров И.Ф. Социальные потребности как важнейшая характеристика общества // Вестник ИМСИТ. 2013. № 3-4 (55-56). С. 47-54.
9. Туровский М.Б. Философские основания культурологии. М. 1997. -С. 33.
10. Уайт Л.А. Понятие культуры // Антология исследований культуры. СПб. Унив. Книга. 1997. -С. 17.
11. Цицерон М.Т. Избранные сочинения. М. 1975. С. 252.
12. Шпенглер О. Закат Европы. М. 1933. -С. 42.

AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING TARIXIY ILDIZLARI

Raximov Azizbek Normurodovich

Buxoro pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifat va ta’limni isloh qilish g‘oyalariga asoslangan ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘ldi. Ushbu harakatning Buxorodagi yetakchi vakillaridan biri Ahmad Donish bo‘lib, u o‘zining pedagogik, ijtimoiy-siyosiy va

falsafiy qarashlari orqali yosh avlodni ongli, ma’rifatli va vatanparvar shaxs etib tarbiyalash zarurligini ilgari surdi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb bo‘lib, Ahmad Donish merosi bu borada muhim nazariy manba hisoblanadi.

Ahmad Donish (1827–1897) Buxoro jadid ma’rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, uning pedagogik qarashlari jamiyatni isloh qilish, yosh avlodni ilm-ma’rifat, axloq va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Mutafakkir yoshlarni tarbiyalashda Vatanga muhabbat, xalq manfaatiga sadoqat va ma’rifat orqali taraqqiyot g‘oyalarini ustuvor deb bilgan.

Buxoroda yozilgan falsafiy, ijtmoiy-siyosiy, ahloqiy-tarbiyaviy masalalarga bag‘ishlangan “Navodir ul-vaqoe” kitobida “Farzandlarga vasiyat. Kasb va hunarning foydalari haqida” nomli alohida bob bo‘lib, unda iste’dodli mutafakkirning tajribalari asosida chiqargan hayotiy xulosalalari, pand-o‘gitlari bayon etilgan. Bobning asosiy g‘oyaviy mazmunini bolalarning ilm va hunar o‘rganishga da’vat etish fikri tashkil etadi. “O‘g‘illarim, sizlar xalqning hojatini chiqaradigan bir hunarning boshini ushlanglar, shu bilan jamiyatga ham yordam qilgan bo‘lasizlar”[193] deb uqtiradi Ahmad Donish.

Uning fikricha, hunar va ilm kishining akliga, ruhiga tarbiya beradi. U yana xunarlilik va mexnatsevarlik kishini xush xulq qilinishi, uni ta’magirlik botqog‘idan qutqarishini ta’kidlaydi. Axmad Donish bilim va xunar egallamay, o‘zining nasl-nasabi bilan maqtanib yuradigan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar, biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan, mevasiz daraxtga o‘xshaydi, undaylarning jamiyatga foydasi tegmaydi, aksincha zararli, ta’sir kursatadi.

Ahmad Donish asarlarida ta’limda Yevropa va Turkiya ta’lim tajribasini, Rossiyadagi ilg‘or g‘oyalarni joriy etish masalasi ilgari surilgan. Qomusiy olim tarbiyada ibrat-namuna, oila tarbiyasi kasbiy tarbiya komponentlarini muhim deb hisoblaydi. Biroq inson hayotida taqdiriy azalga ham ishonish kerakligini o‘z shaxsiy hayoti misolida bayon qiladi. Ahmat Donishning “Navodirul vaqoe” asarida keltirilishicha, eng muxim tarbiya vositasi, bolalarga eng avvalo mexnat va kasbiy tarbiya berilishi kerakligidadir. Donishmand o‘z farzandlariga kasbiy tarbiya berish misolida bu misolning moxiyatini ochib berdi. Farzandlarga shunday kasb eganlashi uchun sharoit yaratish kerakki, o‘z kasbi bilan kelajakda oilasini ta’minlash imkoni bo‘lsin, deb pan-nasixat qiladi qomusiy olim.

Ahmad Donish pedagogik merosi asosida yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ijtimoiy mas’uliyat, Vatan taqdiri uchun daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan **vatanparvarlik tarbiyasi tizimini** yaratish.

Ahmad Donish qarashlarida vatanparvarlik quyidagi asosiy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq **Ilm va ma’rifat – vatan ravnaqi asosi** Donish fikricha, ilmli yoshlar — millat va davlat taraqqiyotining tayanchi. U jaholatni Vatan tanazzulining bosh sababi deb hisoblagan. **Tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlash** Ahmad Donish

[193] “Ахмад Дониш -XIX асрнинг буюк мутафаккири ва тараққийпарвари” мавзуида Республика илмий - назарий конференция материаллари. - Бухоро-2007.- Б. 79.

yoshlarni tarixiy tajribani anglash, o‘tmish xatolaridan saboq olish orqali Vatanga ongli munosabatda bo‘lishga chaqirgan. **Adolat va ijtimoiy mas’uliyat** Vatanparvarlik Donish talqinida faqat hissiy tuyg‘u emas, balki jamiyatdagi adolatsizliklarga befarq bo‘lmaslik, xalq manfaatini himoya qilishdir.[194]

Ahmad Donish pedagogik qarashlari asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash quyidagi **tamoyillar**ga tayanadi. **Ma’rifiylik tamoyili** – ilm olish va tafakkur orqali Vatanni rivojlantirish **Milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi** – milliy qadriyatlarni saqlagan holda ilg‘or tajribani qabul qilish. **Tarixiy xotira tamoyili** – ajdodlar merosiga hurmat asosida vatanparvarlikni shakllantirish. **Faol fuqarolik pozitsiyasi** – yoshlarni jamiyat muammolariga daxldor etib tarbiyalash. **Tanqidiy tafakkur** – ko‘r-ko‘rona itoat emas, ongli sadoqatni rivojlantirish Konsepsiya doirasida vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi **yo‘nalishlar**ni qamrab oladi. **Bilimiy yo‘nalishi** Ahmad Donish asarlari (“Navodir ul-vaqoe”, tarixiy risolalari) orqali

Vatan, davlat va jamiyat haqidagi qarashlarni o‘rganish. **Tafakkuriy yo‘nalishi** Tarixiy voqealarni tahlil qilish, islohot zarurati haqida munozaralar Jaholat va taraqqiyot munosabatlarini ochib berish. **Axloqiy-ruhiy yo‘nalishi esa** Halollik, adolat, fidoyilik, xalqparvarlik fazilatlarini shakllantirish. **Amaliy-faoliyat yo‘nalishi ham quyidagicha yaniy** Ijtimoiy loyihalar, tarixiy merosni asrash tadbirlari. “Ilm bilan Vatanga xizmat qilish” g‘oyasi asosida faoliyat

Ahmad Donish pedagogik qarashlariga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi **pedagogik mexanizmlar** orqali amalga oshiriladi. Tarix va adabiyot darslarida Donish merosini integratsiyalash, muammoli ta’lim va munozara metodlaridan foydalanish, tarixiy manbalar asosida loyiha va tadqiqot ishlari, milliy-ma’naviy tadbirlar va tarbiyaviy mashg‘ulotlar.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donishning pedagogik qarashlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning ilm-ma’rifat, adolat va ijtimoiy mas’uliyat haqidagi g‘oyalari bugungi ta’lim tizimi bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda, yosh avlodni ongli, faol va fidoyi vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishga imkon beradi. Ahmad Donish pedagogik qarashlari asosida ishlab chiqilgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi milliy ma’naviyat va zamonaviy ta’lim talablari uyg‘unligida yosh avlodni **ilmli, ongli va mas’uliyatli vatanparvar shaxs** sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “Ахмад Дониш -XIX асрнинг буюк мутафаккири ва тараққийпарвари” мавзуида Республика илмий -назарий конференция материаллари. - Бухоро-2007.- Б. 79.

2. Ахмад Дониш. Главы из книги “Редкостные события” / В кн: Путешествие из Бухары в Петербург,- Сталинабад, 1960. – Стр. 226.

3. Қомусий мутафаккир. Аҳмад Донишнинг "Наводир ул-вақое" асари адабий фалсафий- ахлоқий маънавий манба ва унинг замонавий

[194] Ахмад Дониш. Главы из книги “Редкостные события” / В кн: Путешествие из Бухары в Петербург,- Сталинабад, 1960. – Стр. 226.

моҳияти" мавзуида Республика илмий анжумани материаллари. Бухоро. 2007. - Б. 54.

4. Аҳмад Дониш. "Наводир ул-вақое" (Нодир воқеалар). Т. Фан. - 1964. (Форс тожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси". - Б. 214.

5. Ahmadov O.Sh. XIX asr oxiri- XX asr 30-yillarida Buxoro jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik fikrlar taraqqiyoti pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi Buxoro 2025 yil 233 bet.

FARG‘ONA JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’RIFIY FAOLIYATI: MILLIY UYG‘ONISH JARAYONLARI KONTEKSTIDA

Abdullaxo‘jayeva Yulduzxon Abbosxon qizi

Qo‘qon davlat universiteti tarix yo‘nalishi magistranti

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy evrilishlar o‘zbek davlatchiligi tarixida tub burilish yasagan davr hisoblanadi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida millatning o‘zligini saqlab qolish, uni jaholat va qashshoqlikdan qutqarish hamda dunyo taraqqiyoti safiga olib chiqish masalasi o‘sha davr ziyolilari — jadidlar zimmasiga ulkan mas’uliyat yukladi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda jadid bobolarimizning g‘oyaviy merosiga tayanish, ularning iqtisodiy islohotlar, ta’lim va milliy davlatchilik borasidagi qarashlarini zamonaviy prizmada tahlil qilish strategik ahamiyatga egadir. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi jadidchilik harakatining eng faol o‘choqlaridan biri sifatida, mintaqaning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi markaz bo‘lib xizmat qildi. Jumladan farg’onalik yosh jadid A.Cho’lpon 1914-yillarda ijtimoiy-siyosiy qarashlarini “Sadoyi Farg’ona” va “Sadoyi Turkiston” gazetalarida e’lon qildi. Jadid taraqqiyparvarlari kabi yosh Abdulhamid ham yozuvchi, shoir, publisist, o’tkir qalam ustasi edi. Mustamlaka rejimi va islohotlariga befarq bo’lmagan A.Cho’lpon temir yo’l qurilishi oqibatida aholi vokzal, stansiyalar barpo qilish uchun o’z yerlarini arzon-garovga sotib, markazlardan uzoqlashib, qashshoqlikka mahkum bo’layotganini, ular o’rnini yevropalik aholi egallayotganini kuyunib yozadi[1]. Rus bosqini faqat Turkiston yerlarni egallash emas, balki, ma’naviyatini ham zabt etishni ko’zlaganligini fahmagan A.Cho’lpon milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarning milliy himoyachisi sifatida maydonga chiqadi: “...Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro’poning mo’dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg’a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki, ilm, Fan, hunar, sanoatga o’xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro’poning mo’dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asirqul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!”[2]. Zamona ilm-ma’rifatidan bexabarlik johillikni boshlanishi va taraqqiyot kushandasi bo’lishi qarshi turish uchun, undan boxabar bo’lmoq bo’lishi, ishlarni albatta unga mos holatda tutish lozim. Jumladan, A.Cho’lpon agrar sohada islohotlar ortdaligi uni modernizatsiya qilish uchun esa,

maxsus banklar ochish bilan boshlanishi va bu kabi tadbirlarning yutuq taraflarini ko'rsatib: "...Amriqoliklar ekin asboblari ishlatub, biz 10 kishi 10 kunda qilg'on ishimizni, onlar 2 kishi bilan 10 soatda qilmoqdadurlar!... Shul oson asboblar Rusiyani butun dehqonlarida bordur. Bizlar ham shul ekin asboblaridan olib ishlatsak og'ir mehnatlarimiz yengillanur edi..."[3]. Mustahkam iqtisodiy fundamentga tayangan mamlakat barqaror taraqqiyotga erishishi mumkinligini to'g'risidagi qarashlar A.Cho'lpon faoliyatida ustuvorlik kasb etgan. Mustamlakachilar zulmi, iqtisodiy qashshoqlik va Turkistonni achinarli ahvoliga guvoh yosh jadid, undan qanday qutilish mumkinligi, ko'rilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar, qo'llanishi Turkiston uchun ayni muddao bo'lgan yo'l-yo'riqlarini taklif qilib: "... mundan 10-15 yil avval bir dehqonni o'ziga yarasha yeri bo'lub bola chaqasi bilan ishlab chiqg'on, mahsulni bozorga kerak vaqtida olub tushub, oz-ozdan sotub bola chaqalari bilan qish ichi rohati umr o'tkarur edi... Yozayluk qarindoshlar ziroatdan! Yozayluk qarindoshlar iqtisoddan! Alar bo'lsa, maktab ham bo'lur, ilm ham bo'lur..."[4]. Iqtisodiy bilimlarni kengaytirish haqidagi I.Ibratning ham qarashlari jadidlar nafaqat maslakdosh, balki, fikran umumiylik kasb etadi. Zero Yangi O'zbekiston strategiyasi[5] da iqtisodiy salohoyatni yuksaltirish borasidagi islohotlar jadidlar g'oyalari dolzarbligidan dalolat.

Farg'onalik jadid A.Zohiriy dastlab ilk ta'limini Madalixon madrasasida olib, "1907-yildan Qo'qon rus-tuzem maktabida o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan"[6]. Uning "Sadoyi Farg'ona" gazetasida chop qilingan "Ona tili" maqolasi milliy farovonlik uchun chet tillarini bilish lozim deb ta'kidlagan ma'rifatparvar "..qachonki o'z tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Shuning birla na oni bilurmiz va buni!..."[7]. Har ikki til ham ma'lum zamon va makon uchun zaruriy vosita bo'lib, biz turkistonliklar chet tilini bilishdan avval ona tilimizni durust va lozim darajada o'rganishimiz kerak. A.Zohiriy Turkistonning ayanchli ahvolini ko'rsatib: "...biz Turkiston musulmonlari borgan sari parchalanmoqdamiz, boylar, hunarliklar ozoyub, umuman deyarlik faqir zillatg'a tayyorlanmoqdadurlar..."[8].

Demak, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan A.Zohiriy 1917-yil aprelida Turkistonni RFSR tarkibida muxtor jumhuriyat bo'lishi haqidagi qarorni tomonlama ma'qullagan edi. Uning siyosiy qarashlari Validiy, Munavvar qori, O. Mahmudov kabi maslakdoshlari bilan har jihatidan mos edi. O'z xotiralarida Validiy Zohiriy bilan yaqin aloqada bo'lganligini aytib o'tadi. Faoliyatni sovet jamiyatida davom ettirgan Zohiriy milliy ozodlik, hurriyat va porloq istiqlol g'oyalariga sodiq qoldi. O'z kelajagini millat ertasi, rivoji, buyuk orzulari bilan chambarchas bog'liqlikda ko'ra oldi. Tarixchi olim Q.Rajabov milliy istiqlolchilar faoliyatini yoritar ekan Zohiriy hayotiga alohida urg'u berib uni Munavvar qori, Miyon Buzruk Solihovlar bilan birga Farg'ona qo'rboshilarining qurultoyida qatnashgan[9] deb ta'kidlaydi. Millat qayg'usi-har qaysi usulda bo'lmasin jon va ruhda mangulik kasb etadi.

Ibodiy Mulla Shoazimning yangi usul maktabini tamomlab 1901-yil "Maktabi Vahobiya" maktabini ochadi. U 1914-1915 yillarda chop etilgan "Sadoyi Farg'ona" gazetasida bir necha maqolalari bosilib chiqqan. "A.Ibodiy mazkur nashr tashkilotchilaridan biri bo'lgan"[10]. "Turkiston ahli nima uchun inqirozga yuz

tutdilar?” maqolasida muallif asosiy e’tiborni maktab, madrasalar va darsliklarning islohiga qaratgan. Shu bilan birga, o’lkadagi ma’rifat maskanlarida rivojlangan xalqlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlaridan foydalanib, ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish kerakligini uqtirib o’tadi. Uning fikricha, taraqqiyotga erishgan millatlarning rivojlanish sabablaridan biri, bu - islom dunyosi olimlarining asarlaridan foydalanib, ilmni hayotga tadbiq etgan. Yevropa ilm-fani, texnikasi yutuqlari, tajribalarini Turkiston xalqlari hayotiga tadbiq etishga qarshi chiqqan kishilarga javoban, bu ilmlar asli dastlab islom dunyosida shakllanganligiga muallif tushuntirish beradi: “...Butun olimi islom orolarida bundog’ narsalarga hech bir iltifot qilinmay, ota-bobolarining qoldurub ketgan narsalarini ham tanimaydurg’on bo’lg’onlaridan; ilm, sharaf va boyliklari (qo’llarida bo’lg’on tijorat va kasblari) boshqalarga o’tub, bellari tamom bukulub, ming xo’rlik bilan umr o’tkazmoqdalar...”[11]. Chorizm davrida mazlum xalq vakili sifatida bu fikrni ochiq bayon etish, albatta, jasorat edi. Turkiston boshiga tushgan bu balolardan qutilishning yo’li - maorifni isloh qilish, asosiy e’tiborni ta’lim-tarbiya ishlariga qaratish, Orenburg, Qozon, Ufa kabi shaharlarga talabalar yuborish, himmatlik boylar yordami ila maktab binolarini zamonaviy holga keltirish lozim ekanligini ta’kidlab o’tib shundagina “...tez fursatda Turkistonimiz xalqining ilm va ma’rifat tobmoqlari tabiiydur” -deb, kelajakka umid qaraydi.

Jadidlaridan biri Dadamirza qori «Sirli masjid» hovlisida tomonidan ikki sinfli yangi usul maktabi tashkil etdi. Dadamirza qori ona tili va geografiyadan, Ortiq ismli o’qituvchi hisobdan, Mamajon Murodov esa boshqa fanlardan dars berganlar. Uning maktabida tabiiy fanlarga alohida e’tibor berilgan. Masalan, geografiya fani haftada ikki marta bo’lgan. Yangi ochilgan bunday maktablar va ularning muallimlari polisiya ma’murlarining doimiy nazorati ostida bo’lganlar.“1914-yil 14- mayda Dadamirza qori yangi usul maktabida omma ko’z oldida o’quvchilardan ochiq imtihon oladi. Shogirdlar barcha fanlardan imtihonlarni muvaffaqiyat bilan topshiradi. Bu esa, maktab obro’sini xalq orasida yanada oshishiga sabab bo’ladi”[12]. Dadamirza qori qalami o’tkir, hozirjavob qalamkash ham edi. U dolzarb mavzularni o’z ichiga olgan maqolalarini «Sadoyi Farg’ona»gazetasi sonlarida chop ettirib turdi. Uning «Miftoh ul-avval» nomli darsligi ham bo’lib, yangi usul maktablarida undan foydalanilgan[13]. «Sho’ro» jurnali o’zining 1912 yil № 23 sonida, boshlang’ich maktablarning maqsad va vazifalari, ulardagi muallimlar va darsliklar haqida bir necha savollar bilan o’z mushtariylariga murojaat qiladi. Ushbu savollarga Dadamirza qori ham javob yo’llab, yangi usul maktablari mohiyatini ochib bergan holda, maorif islohiga oid o’zining qimmatli fikrlarini beradi: «...boshlang’ich maktabning maqsadi-insonni Qur’onda tasvirlangan inson kabi tarbiyalash va natijada dinimizning saqlanib qolinishi hamda millatimizning mavjudligini ta’minlaydigan asoslarini yaratmoqda..»[14]. U darsliklar masalasida to’xtalib, yagona tartib joriy qilish fikrini olg’a suradi. Dadamirza qori maktab va ta’lim islohi haqidagi o’z fikrlarini «Sadoyi Farg’ona»gazetasidagi maqolasida: “ bizga nima kerak?”,-deb savol berilsa, kishilar juda ko’p hisobsiz keraklarni aytadilar, har qancha aytsalar haqlidirlar, ammo mening fikrimcha: “...hamma keraklardin ortuqroq kerak maktabdur...”[15] - deydi. O’lkadagi mavjud o’quv tizimi, maktablarning ahvoli, aholining ilmga munosabati, ilmsizlikning taraqqiyotga ko’rsatayotgan salbiy

ta’sirini ko’rsatib, maktablar islohi davr talabi ekanligini isbotlab: “...Shuning uchun bo’lsa kerak, bir maktab bolamizni o’ndan biri ahli savod bo’lib qolmish, to’qqiz hissasi avom qolmoqda. Ilm degan aziz va sharofatlik narsadan mahrum qolmoqda va jaholat qurboni bo’lub islom kishisini boshqalarga mashara qildurmakdadur..”[16]. Dadamirza qori islohotni maktabdan boshlashni taklif qiladi. Uning fikricha, insonga ilmga, san’atga va adabiyotga intilish uchun qobiliyat berilgan. Uning “Araqqa tutilmish oqchalar” maqolasida ichkilikni kishilarning iqtisodiy ahvoli, jamiyatning ma’naviy muhitiga salbiy ta’sirini yaxshi tushunib yetgan, boshqa millat vakillari kecha-kunduz tinmay o’z millatlari istiqboli yo’lida harakat qilganlari holda, bizning yigitlarimiz “...minglab choyxona va foydasiz o’rinlarda aziz umrlarin chiritib...” millat yo’lida dadil sayi-harakat qilmaganliklaridan: “...Hanuz biz maktab mas’alasin hal qila olmaymiz...”[17].I.Ibrat “Tarixi madaniyat”, “Islohi millat”, “Mezon uz-zamon” asarlarida yuqorida ta’kidlangan ijtimoiy illatlarini sanab barchasiga yechim ilm olish, vaqtni to’g’ri taqsimlashda ekani ko’rastib beradi.

Taraqqiyparvardan biri S.Kamolxonto’rayev Bag’dod, Dehli, Hijoz va Kobul shaharlarida tahsil ko’rib, islom asoslarini chuqur o’rganadi. Tehron va Hijoz kabi shaharlarda sodir bo’layotgan keskin siyosiy o’zgarishlar, Turkiyadagi Yosh turklar harakatidan qattiq ta’sirlanadi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin S.Nosirxonto’ra faoliyatida keskin ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar boshlandi. U “1917 yil 10-aprelda bo’lib o’tgan Turkiston O’lkasi Ijroiya Komitetlari delegatlarining syezdida ishtirok etib, aholining barcha tabaqalarini, barcha millatlarni qo’lga kiritilgan ozodlikni asrab qolishga, hurriyat bergan imkoniyatlardan unumli foydalanishga da’vat etadi”[18]. Turkiston Muxtoriyatining tashkilotchilaridan S.Nosirxonto’ra haqidajadid A.Zohiriy “...agar Nosirxonto’ra Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyini chaqirish ustinda jon kuydirmaganda edi, balkim bu qurultoy chaqirilmay qolishi mumkin edi...”[19]. U Qo’qonda chaqirilgan o’lka musulmonlarining IV favqulodda syezdida saylangan Milliy Majlisga a’zo va hukumat maorif noziri lavozimlariga saylanadi. Muxtoriyat ag’darilgach, S.Nosirxonto’ra o’zining milliy-ozodlik g’oyasidan voz kechmagan holda yashirin faoliyat ko’rsatishga o’tdi. U mahfiy ravishda Omon Polvon, Muhiyiddinbek, Jonibek qozi va Rahmonqul qo’rboshilarning faoliyatlarini markazlashtirish harakatida bo’ldi. Nosirxonto’ra «Milliy Ittihod» tashkilotining Namangan filialiga a’zo bo’lib, bu tashkilotning yacheykasini Kosonsoy shahrida tashkil qiladi. “Shermuhammadbek Nosirxonto’rani o’ziga pir deb e’lon qilgan va ushbu markazdan doimo Farg’onadagi sovet qo’shinlarining ahvoli to’g’risida ma’lumotlar olib turgan”[20]. Sayyid Nosirxonto’ra kabi barcha farg’onalik jadid namoyandalari millatni taraqqiyot sari boshlash uchun turli yo’nalishlarda faol harakat qildi. Ular maktab-maorif, teatr, adabiyot, matbuotdan keng foydalanishga, siyosiy tashkilotlar tuzib, o’lkaning siyosiy hayotida faol ishtirok etishga urinishdi.

Jadidchilik ma’rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo’lgan murakkab rivojlanish yo’lini bosib o’tdi. Jadidchilik o’z tarixida ikki bosqichni o’tgan:

Birinchisi - ma’rifatparvarlik bosqichi va ikkinchisi - siyosiy bosqich. Biroq, jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana

boshlangan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo'ladi. Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlaridan orqadaligi, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoj topmayotganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralarini izlab topishga undadi. 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi jadidlar fikrlarini siyosiylashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi, fuqarolarning davlat organlarining shakllantirishda qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki yo'llari va usullarini ishlab chiqishga urinishdi. 1917-yilda fevralida Rossiyadagi demokratik inqilobga qadar taraqqiyparvarlar oqimini tashkil qilgan Turkiston jadidlarining keskin qarakat qiluvchi qismi bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar orasida mahalliy tub aholi huquqlarini kengaytirilishini ko'zda tutgan holda o'lkani idora etishni tubdan isloh qilish, turkistonliklarga muayyan miqdorda Davlat Dumasidan o'rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta'min etish va eng avvalo milliy matbuot erkinligiga erishish, chor yakka hokimligi tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabi talablar o'rin olgan edi. Fevral demokratik inqilobi natijasida o'rnatilgan yangi davlat tuzumidan so'ng jadidlar Rossiya Federativ davlati tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etish masalasini qo'ydilar. Bu paytga kelib milliy ijtimoiy-siyosiy tashkilot va partiyalar tashkil topdi, hususan, jadidlar "Sho'roi Islomiya", "Turon", "Ittifoq" kabi tashkilotlarni tuzdilar. 1917-yil davomida mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarini jadidlar o'z ortlaridan ergashtirdilar, xalq orasida, ularning ongida, fikrlarida musulmonlar birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini shakllantirdilar.Jadidlar mustamlakachilikni qattiq va ayovsiz tanqid qila boshladilar, oldingi konstitutsiyaviy monarxik tuzum g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qildilar. Biroq Turkistondagi 1917-yil Oktyabr voqealari, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi jadidlarga o'z maqsadlarini amalga oshishiga imkon bermadi., Yangi bolshevistik hokimiyat har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi haqidagi deklaratsiyasiga asoslanib, ular 1917 yil 26 noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV Favqulodda qurultoyini chaqirdilar va Federativ Rossiya respublikasi tarkibida avtonomiya huquqiga asoslangan Turkiston Muxtoriyatini e'lon qildilar. O'sha vaqtda zamonaning eng ilg'or ziyolilari, taraqqiyparvarlaridan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyati haqida M.Behbudiy: "27 noyabrda Ho'qandda umumiy musulmon syezdida Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsin! Kamina ham majlisda bo'lish uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston Muxtoriyati!", degan edi.

Sovetlarning shovinistik qarorlariga qarama-qarshi o'laroq musulmon qurultoyi o'z ishining barcha bosqichlarida chinakam baynalmilalchilik tamoyili asosida, o'lkaning ko'p millatli, shu jumladan, yevropali qismi aholisi manfaatlarini hisobga oldi. Bunday insonparvarlik yondashuvni Mahmudxo'ja Behbudiyning fikrlari isbotlaydi, "Syezdda Turkistonning yevropali aholisi vakillari ishtirok etayotgani uchun ham syezd qarorlari yanada obro'lidir"[21]. M.Behbudiy syezd hay'atiga turli musulmon, rus, yahudiy va boshqa guruhlardan vakillar kiritilishini

taklif etdi.Bu esa milliy ozchilik qatlamning manfaatlarini himoya qilish, tolerantlik va milliy totuvlik masalasi Muhtoriyat tuzilgan kundan e'tiboran ta'sischilar diqqat markazida bo'lganini ko'rsatadi. O. Mahmudov "Hay'atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarni tanlash asosida kirishish"[22] zaruriyatligi, diniy yoxud milliy qarashlardan qat'iy nazar ilm va salohiyati yuksak, zamoan ilm-faninidan xabardor kishilar mahkama va boshqaruv tizimida faoliyat olib borishi lozim degan xulosaga keladi. Syezdda hukumat organlari: Turkiston Muxtoriyatining muvaqqat hukumati va Milliy Xalq Majlisi tuzildi. Xalq Majlisi 54 kishidan tashkil topgan bo'lib, 1/3 o'rin yevropalik millat vakillari uchun ajratildi. Turkiston jadidlari ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularni asosan faoliyatiga ko'ra, o'zaro muolifatsiz bo'lgan yirik yo'nalishlarda jadidchilik harakatini davom ettirishgan. Biroq juda qisqa muddatdan so'ng – 1918 yilning fevralida bolsheviklar tomonidan Turkiston Muxtoriyati hukumati tarqatib yuborilgan.

1. Bu davrda Farg'ona jadidlari orasidan Turkiston jadidchilik harakatini rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan yuzlab atoqli allomalar yetishib chiqdi, ular jadidchilik harakati tarixida o'ziga xos o'ringa egallash bilan bir qatorda ilg'or ijtimoiy, siyosiy, pedagogik qarashlarini ilgari surdi va millat hayotiga to'liq tadbiq etishga harakat qildi.

2. O.Mahmudov, I.Ibrat, A.Cho'lpon va M.So'fiyzoda, I.Davron, A.Ibodiy, D.Qori kabi millat fidoiylari usuli jadid maktablari uchun darsliklar yozdi, taniqli muallif va muallim, maktabdor va millat oydini sifatida xalqqa rahnamolik qildi.

3.Yurtni hurlikka, milliy ozodlikka boshlashdek ezgu g'oya eng ilg'or jadid ziyolilarining qarashlarida ustuvorlik kasb etgan biroq, o'lkadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holatda islohotlarni amalga oshirish mumkin emas edi. Uzoq davom etgan tinimsiz ma'rifiy-siyosiy chaqiriqlar orqali millatni uyg'otish, zalolatdan ma'rifatga, qoloqlikdan rivojlanishga chiqarish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqbolini va rivojini zamonaviy ilm-fandan xabardor, malakali mutaxassislarsiz tasavvur etmaganlar, Farg'ona jadid maktabdorligi yo'lga qo'yish va jamiyatda yangicha fikr va qarashga ega yosh ma'rifatchilar bo'g'ini hosil qilishga harakat qildi. Farg'onada jadidchilik harakatini o'rganish jadidchilik tarixi va ijtimoiy holatini,mazmun-mohiyatini bilish nuqtai nazaridan juda dolzarb chunki, milliy istiqlol sari dastlabgi qadamlar ayni shu makon va zamon bilan uzviydir. "Ma'rifat libosida boshlangan ozodlik" - jadidchilik harakati qisqa muddatda ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashuvchilar sifatida tanildi. Ma'rifatparvarlik madaniy - ma'rifiy yo'nalish sifatida vujudga kelgan chunki, yangicha fikrlovchi ziyolilar ijtimoiy turg'unlik va mustamlakachilik zulmining asosiy sababi ilm-fan ortda qolishida, zamonaviy ta'lim tizimini Turkistonda joriy etilmaganligidan deb bildi. Jadidlar jamiyatdagi muammolarning yagona va oddiy yechimi, ta'lim tizmini isloh qilish, ma'rifatchilik g'oyalarini yoyishda najot ta'lim-tarbiyada ekanigiga alohida urg'u berdi. Bu yangilanishlar usul jadid maktablari va kutubxonalari ochish, milliy darslik va kitoblar yozib nashr ettirishdan boshlandi. Jadidlar shaxs haq-huquqlari, milliy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklar kafolotlangan, demokratik, huquqiy, milliy davlatchilik fundamental asosini barpo etishga harakat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мулло Убайдуллоҳхўжа Сулаймонхўжа ўғли. Туркистондаги билхосса Фарғонадаги мусулмон қариндошларимизға хитоб //Садойи Фарғона.-1914.-18 май.
2. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда темир йўллар //Садойи Фарғона.-1914.-6 июн.
3. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда зироат ва деҳқончилик //Садойи Фарғона.-1914.-30 апр.
4. Чўлпон. Ватанимиз туркистонда зироат ва деҳқончилик //Садойи Фарғона.-1914.-30 май.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
6. Мадаминов А., Тожибоев Р., Валихонов М. Маърифат чароғбони //Адабий мерос.-1985.-Б.28.
7. Зоҳирий А. Она тили //Садойи Фарғона.-1914.-13 апр
8. Зоҳирий А. Ёрдам ўрниға бизлар бир-биримизни эзишамиз //Садойи Фарғона.-1914.-8 июн
9. Ражабов Қ. Жадидлар-истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар.-Тошкент: Эльдинур, 1998.-Б. 15.
10. Муддаомиза мувофиқ //Садойи Фарғона.-1914.-3 апр
11. Ибодий А. Туркистон аҳли нима учун инқирозга юз тутдилар? //Садойи Фарғона.-1914.-20 апр.
12. Наманганда имтиҳон //Садойи Туркистон.-1914.-28 май
13. Наманган вилоят Давлат Архиви. 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш. Б.5
14. Шўро.-1912.-№ 23.
15. Дадамирза қори. Ҳозирда янги ва эски мактабларимиз ҳолидан //Садойи Фарғона.-1914.-25 май.
16. Дадамирза қори. Ҳозирда янги ва эски мактабларимиз ҳолидан //Садойи Фарғона.-1914.-25 май.
17. Дадамирза қори. Араққа тутилмиш оқчалар //Садойи Фарғона.-1914.-4 окт.
18. Протоколы Съезда делегатов Испольнительных Комитетов Туркестанского Края.-Тошкент: Тип-я Туркестанских ведомостей,1917.-№ 2.-С. 6.
19. Эрктурк. М.Х. Саййид Носирхонтўра //Турон тарихи.-1994.-№3.-Б. 21.[1]
20. Ражабов Қ. Жадидлар-истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар.-Тошкент: Элдинур, 1998.-Б.13.
21. Turkestanskiy vestnik. 1917. 9 dek.
22. Ulug‘ Turkiston. 1917. 8 dek.

INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI

Xodjayeva Matlyuba Rustamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim

pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi davrida inson huquqlarini ta’minlash, ta’lim olish huquqini barcha qatlamlar uchun teng darajada kafolatlash dolzarb masalaga aylangan. Shundan kelib chiqib, inklyuziv ta’lim tizimi ta’lim sohasida ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim vositadir. Inklyuziv ta’lim – bu hamma bolalarning, shu jumladan jismoniy yoki aqliy nuqsonlarga ega, o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalarning birgalikda va teng sharoitda o‘qitilishini nazarda tutadigan zamonaviy yondashuvdir. Bunday ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ya’ni ularning inklyuziv o‘quv muhitida ishlash uchun zarur bilim, ko‘nikma va qadriyatlarga ega bo‘lishi zarurdir. O‘qituvchi nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki har bir o‘quvchiga to‘g‘ri yondasha olishi, mos metodlarni qo‘llay bilishi va ijobiy muhit yaratishga qodir bo‘lishi kerak. Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi roli Inklyuziv ta’lim o‘qituvchidan zamonaviy, didaktik va psixologik yondashuvlarni talab qiladi. O‘qituvchilar maxsus pedagogika va defektologiya sohalarini chuqur bilishlari, har xil darajadagi anamaliyaga ega bo’lgan bolalar bilan samarali muloqot qila olishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Kasbiy tayyorgarlikning yo‘nalishlari quydagilar. Psixologik va pedagogik tayyorgarlik. O‘qituvchi o‘quvchilarning psixologik holatini chuqur tahlil qila olishi, ularning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib rejalashtirishga tayyor bo‘lishi zarur. Shuningdek, inkluziv muhitda empatiya, sabr-toqat kabi shaxsiy sifatlar asosiy ahamiyatga. Didaktik yondashuvlar bo‘yicha tayyorgarlik. O‘qituvchilar turli darajadagi o‘quvchilar uchun differensial, individual metodlarni qo‘llay olishlari kerak. Moslashuvchan dars rejasi, individual ta’lim strategiyasi, moslashtirilgan baholash tizimi ushbu yo‘nalishning asosidir. Texnologik tayyorgarlik. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan vositalarni to‘g‘ri tanlash va undan foydalanish o‘qituvchi tayyorgarligining muhim jihatlaridandir. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar. O‘qituvchi turli millat, e’tiqod va ijtimoiy qatlam vakillari bilan ishlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Inklyuziv muhitda ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradigan mezonlar asosi shakllantirilishi lozim. O‘zbekiston tajribasida inklyuziv ta’limga tayyorlov holati. O‘zbekistonda so’nggi yillarda inklyuziv ta’lim sohasida muhim islohotlar olib borilmoqda. Masalan, 2019-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi inklyuziv ta’lim yo’nalishi uchun huquqiy asos yaratdi. Shu bilan bir qatorda, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

bo‘yicha maxsus kurslar yo‘lga qo‘yildi. Shuni ta’kidlash joizki amalda ko‘plab o‘qituvchilar hali ham maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda malaka va tajribaga ega emas. Bu esa o‘qituvchilar uchun alohida o‘quv modullarini ishlab chiqishni, kasbiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etishni va pedagogik oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha chuqurlashtirilgan yo‘nalishlarni tashkil qilish zaruratini tug‘diradi. Xalqaro tajribada o‘qituvchi tayyorgarligi. Xalqaro miqyosda (masalan, Finlandiya, Kanada, Buyuk Britaniya) inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarni tayyorlashning maxsus standartlari mavjud. Yuqorida aytilgan davlatlarda o‘qituvchilar psixologiya, maxsus pedagogika, kommunikatsiya, va metodika bo‘yicha keng ko‘lamli kurslarni o‘taydi. O‘quv jarayonida ayniqsa amaliyotga ham katta e’tibor qaratiladi. Bu tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, o‘zlashtirilsa, o‘qituvchini kasbiy tayyorlanganlik darajasi yuksaladi va inklyuziv ta’limda samaradorlik oshadi. Xulosa Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’limning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bundan kelib chiqadiki uning muvaffaqiyati, eng avvalo, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada ilk qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, hali oldinda qilinadigan ishlar bisyor. O‘qituvchilarni psixologik-pedagogik, metodik, texnologik va madaniy jihatdan tayyorlash, ularni muntazam malaka oshirishga yo‘naltirish, shuningdek xalqaro tajribani o‘zlashtirish orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova Inklyuziv ta’lim o’quv qo’llanma Toshkent-2022.
2. *R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi*
3. *va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil*
4. *K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv*
5. *qo‘llanma.T:.O‘qituvchi 2010-yil*
6. *R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.:*
7. *Noshir 2009-yil*
8. Curriculum,cultural traditions and pedagogy:understanding the work of teachers in England,France and Germany 2012-y
9. *R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.*
10. *T:.Fan va texnologiya 2012-yil*
11. *S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik*
12. *T.: O‘qituvchi 1996-yil*
13. *M.Ochilov. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma T:.O‘qituvchi. 2004-yil*
14. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. *Darslik.* Alisher Navoiy nomidagi
15. O‘zMKN.T.: 2009-yil.
16. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.

17. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactik Model
18. Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.
19. John Dewey,How we think(1910).Martin,Jay.The Education of John Dewey.(2003) Columbia University Press.Gutek Gerald L.(2009)New Perspectives on Philosophy and education .Pearson Education Inc.
21. Po'latova R.M. Maxsus pedagogika. Oligofrenopedagogika. (darslik). T.: G'.G'ulom nomidagi tabaa uyi. 2005. 87- bet.
10. Yakubjonova D.B.Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish/pedagogika fanlari doktori (DSc) dess. Avtoreferati. Toshkent-2021

SADRIDDIN AYNIYNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH ORQALI MILLIY MAFKURAMIZNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Islamova Komila Payzullayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy taqiqotchisi

Jadidchilik harakati jamiyatimiz hayotida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy - siyosiy va madaniy-ma'rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy boshchiligida tashkil etilgan. Bu yo'nalish qatnashchilari dastlab o'zlarini taraqqiyparvarlar, so'ngra jadidlar nomi ostida e'lon qilgan. Ma'rifatparvarlar dastlab ziyoli musulmon xalqining jahon rivojlanishidan qo'yida qolayotgan tushunib, maorif tizimini o'zgartirib umumjahon taraqqiyotiga moslash zarurligini angladilar[8].

Turkistonda jadidchilik harakatining asosidagi ma'rifatparvarlik harakati kuchayishi sababli ikki xil yo'nalish yuzaga keldi: 1. Yosh buxoroliklar: 2. Yosh xivaliklar harakati tashkil etildi. Bu tashkilotlarning qatnashuvchilari bo'lganligi sababli fikr va g'oyalari hamohang bo'lganligi sabab o'zlarini shu tariqa nomlashgan [3].

Usha paytdagi Mahmudxo'ja Behbudiy, M.Abdurashidxonov, P.Yusupov jadidlarning eng katta yo'lboshchilari hisoblangan. Bundan tashqari bu ma'rifatparvarlar qatoriga Sadriddin Ayniy, A.Fitrat, A. Burhonov, F. Xo'jayev, U. Xo'jayev kabilar Yosh buxoroliklar harakatining asosiy yo'lboshchilari edilar.

Buxoroda yuzaga kelgan, o'z iqtidori va iste'dodli ma'rifatparvarlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar yo'nalishida Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli yulboshchilaridan, yangi usul jadid maktablari ochilishining birinchi tashabbuskorlaridan hisoblangan ma'rifatparvar adib Sadriddin Ayniyning hissasi beqiyos hisoblanadi. Sadriddin Ayniyning "Buxoro mang'it amirlari tarixi" va "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" kabi muhim asarlarida ma'rifatparvarlar

tomonidan tashkillashtirilgan, o‘z qatoriga iqtidorli va iste’dodli yoshlarni umumlashtirgan Yosh buxoroliklar yo’nalishi tashkilotining Buxoroda ma’rifatparvarlik harakati rivojlanishidagi ahamiyati muhim hisoblangan jamiyat hayotiga oid bo’lgan va ma’naviy sohadagi faoliyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda ma’rifatparvar jadidlarning xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, talim tizimini ham diniy, ham dunyoviy bilimlar asosida uyg’unlashtirish borasidagi pedagogik g’oyalari haqida ham tuxtalib o’tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yosh buxoroliklar tashkiloti tomonidan Buxoroda jadidchilik va yangi usul jadid maktablarini faoliyat ko’rsatishida fidoiyligi va amirlik boshqaruvi, madrasa va maktablarda dars berish uslubini joriy etish aholi orasida ma’naviy-ma’rifiy materiallar, matbuot vositalarini yoyishdagi faoliyati yoritilganligi, ushbu ma’rifatparvarlik faoliyatida Sadriddin Ayniy ham faol qatnashgan.

Sadriddin Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida ta’kidlashicha, Rusiya va Turkiyada yuz bergan inqiloblar, Istanbul, Boku, Qrim va boshqa hududlarda Buxoroda joriy etila boshlagan xalq ma’naviyatini zamonaviy bilimlar asosida ilg’or g’oyalar targ’ibotchisi sifatida tanlangan turli gazeta va jurnallarning ta’siri asosida tez orada erkin fikrlilar ya’ni ma’rifatparvar ziyolilar toifasi ko’paya boshladi. Buxoroda tashkil etilgan N. Sobitovning tatar jadid maktabi, M.Jo‘raboy boshchiligida 1900-yilda Buxoroning Po‘stindo‘zon guzarida tashkil etilgan yangi usul jadid maktabi tez fursatda mashhur bo’lgandan so’ng bu maktablar xalqning yoshidan qat’i nazar barcha fuqarolariga ko’plab yangi zamon talablariga javob bera oladigan ta’lim muassasalari tevaragida uyushdilar [2]. Ziyoli va xalqparvar ma’rifatparvar jadidlar xalq farzandlarining zamonaviy ta’limga bo’lgan qiziqishlari asosida ziyo tarqatuvchi yangi usuldagi darsliklarni yaratib ularni eski tuzumdagi og’ir turmush tarzidan najot bo’lib chiqarib olish maqsadi asosida harakatlandilar.

Amirlikda yashirin ravishda tarqala boshlagan gazeta va jurnallarning mutolaa qiluvchilari, yangi maktab tarafdorlarining Buxoroda to’planishga olib keldi. Bunda Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Hamidxo’ja Mehriy, Ahmadjon maxdum Hamdiy, Usmon Xo‘ja kabi “eski jadidlar” (keksa yoshli) saflariga ularga hamfikr va xayrixoh bo‘lgan Abdurauf Fitrat, F.Xo‘jayev kabi taraqqiyparvarlarning kelishuvi asosida 1910 yilda Yosh buxoroliklar tashkiloti vujudga kelgan. Usha davrdagi ta’limga najot bu yangi axborotlarni xalq orasida tarqatish va ularni bu xabarlar bilan tanishgan holatda befarq bo’lmasdan bilimini oshirishga ko’maklashishdan iborat bo’lgan.

Buxoroda taqiqlangan gazeta va jurnallarning o’quvchilari yangi usul jadid maktablarining tarafdorlarining yig’ilishi olib keldi. Ular qatorida S. Ayniy, A. Munzim, H.Mehriy, U.Xo’ja kabi katta yoshli jadidlar ular bilan bir qatorda kengashib Yosh buxorolklar tashkilotini tashkil etganlar. Yosh ma’rifatparvarlarlarni jadidchilik maydonida asosiy kuchga aylanish borasidagi sa’y harakatlaridan bilish mumkinki, jamiyatni, xalqni, kelajakning bunyodkorlari bo’lgan yoshlar tashkil qilishini va asosiy rivojlanishga bo’lgan turtki ular tomonidan yuzaga chiqarilishini ta’kidlash lozim.

Buxoro ma’rifatparvar namoyondalar qatoriga Sadriddin Ayniydan tortib

N.Sobitiy, U.Po’latxo’ja kabilarni ko’rsatib o’tish mumkin.

Yosh buxoroliklar tashkiloti 1908-yil “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomi ostida[2] [8] uzgartirilgan. Tashkilot ro’yxatida jamiyat hayotida ma’naviy sohani rivojlantirishda asosiy kuch hisoblangan ziyolilar, mudarrislar ilmga xayrixoh bo’lgan xalq farzandlari jamlangan.

Sadriddin Ayniyning ta’kidlashicha, “Jamiyatning nizomnomasi ehtiyoj uchun yolg‘iz ilmiy bo‘lib, siyosatga qatnashmaslik shart qilingan bo‘lsa ham, jamiyat a’zolari xalqni umumiy islohotga tashviq qilar, amirning idora fasodlarini ochib ko‘rsatar, aholini ushbu idorai zolimonaga qarshi qo‘zg‘atar edi”. Har bir davrda siyosiy soha va ma’naviy soha bir-birini omuxta ravishta bog’lab ketmaydigan bo’lsa, qator kamchiliklarni yuzaga keltirishini tarixni bilim olishimiz mumkin. Shu asnoda ma’rifatparvarlik harakatining ziyo tarqatishdagi asosiy to’sig’i bu ularning siyosatdan holi ekanliklari hisoblanadi.

Jamiyat a’zolari ishlarini Sadriddin Ayniy shunday ifodalagan: “Jamiyat a’zolarining har biri doimo qo‘yniga ikki-uch dona gazeta va majmua va bir-ikki dona adabiy, axloqiy kitob tiqib, xoh bozorda bo‘lsin, xoh uyda bo‘lsin, xoh qishloqlarda bo‘lsin, xoh temir yo‘l safarlarida bo‘lsin, xulosasi, har bir fursat chiqquncha, xalqqa o‘qib berar, bir oz rag‘bat ko‘rsatganlarga yangi adabiyot tarqatib turar, jiddiyroq va samimiyroq odam qo‘lga tushsa, gazeta va majmualarga mushtariy qilar edi”. Ma’rifatparvarlar yashirin holatda bo’lsa ham dunyoda bo’layotgan o’zgarishlar haqida xalqimiz orasida axborotlarni tarqatib dunyoqarashlarida yangicha fikrlarni singdirishga urg’u berdi.

Sadriddin Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida qo’yidagilarni yozadi: “Ma’lumki, Yosh buxoroliklar birinchi navbatda hukumat va ulamoga qarshi chiqdilar. Buxoro yoshlari orasida mullo va mullozodalar ko‘pchilikni tashkil etar edi. Masalan, maxfiy jamiyatning 28 a’zosidan 14 nafari mullo va mullozodalar, shu jumladan, uch nafari mudarris edi. Bundan kelib chiqadiki, xalq ma’naviyatini yuksaltiradigan asosiy qatlam sifatida mulla va mudarrislarni aksaryat qismi yangicha dunyoqarash hamda yo’nalishga ega shaxslar hisoblangan.

Jamiyatning asosiy ilgari surgan maqsadli ishlaridan biri tajriba orttirish maqsadida xorijga yoshlarni o’qishga junatilishidir. Istanbulga o’qishga junatilgan buxorolik va turkistonlik badavlat oila bolalari o‘z hisobiga, kambag‘al bolalar esa jamiyat hisobidan o‘qishga yuborilgan. 1908-yilda 14 kishi Istanbulga borib o’qib keldi. “Kolesov voqeasi”dan keyin, ularning ko’pchiligi qatl etildi”[2]. Hukumat vakillari tomonidan eng yirik dushman deb topilgan ma’rifatparvar ziyolilar jamiyatni ularning maqsadlariga zid tarzda yangicha g’oyalar asosida xalqni ma’naviy jihatdan qurollantirmoqda edi.

Yosh buxoroliklar 1910-1917-yillar oralig’ida ma’rifatparvarlik ishlari, yangi usul jadid maktablarini tashkil etish, ta’lim - tarbiya sohasini isloh etish uchun faoliyat yuritganlar, 1917-yilda ushbu tashkilot jamiyat miqyosida siyosiy tusga aylandi. Asosiy maqsadlari boshqaruvdagi amirlik tuzumi miqyosidagi eskirgan amirlik boshqaruv doirasida, eskicha boshqaruv idorasida keng islohotlar o‘tkazish orqali Buxoroda Yosh buxoroliklarning faol a’zolaridan universal assambleyani tashkil etish, shuningdek, mahalliy xalq ahvolini yanada yaxshilash, soliqlarni soni

va hajmini qisqartirish, maktab va madrasa o’qitish tizimida jiddiy burilishlar qilishni rejalashtirgan. Ma’rifatparvarlar har bir aholiga qiyinchilik tug’diradigan sohalarning 1910-yilda ramazon oyigacha, Yosh buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” jamiyatiga Sadriddin Ayniy a’zo bo’lib kirgan [2].

Har bir tashkilotning ish faoliyatida yutuq va kamchiliklar kuzatilganidek, “Tarbiyai atfol” jamiyatining asosiy kamchiliklari sifatida ularning deyarli barcha a’zolari xalq orasida ma’rifat tarqatish borasidagi g’oyalarida yakdil fikr asosida faoliyat yurita olmasligida edi. Jamiyatga oid muammolarda ularning dunyoqarashlaridagi turlicha edi. S.Ayniy kabi jamiyat a’zolari islohotlarni xalq manfaatiga yo‘naltirmoqchi bo‘ladi, jamiyat a’zolarining ba’zi kishilari bu fikrga qarshi chiqadi. Bu to‘g‘rida Sadriddin Ayniy shunday yozadi: “Fevral revolyusiyasi e’lon qilingandan keyin jamiyatimiz uch marta yig‘ildi. Bu uch yig‘ilish ham janjal bilan o‘tdi. Men taklif qildimki, jamiyat maxfiy holda tursin, lekin hozirgi talabga muvofiq ma’lum bir aniq dastur tuzib, a’zolarning sonini ko‘paytirish kerak. Jamiyat a’zolari ochiq va yarim ochiq harakatlarga qatnashavermasinlar. Lekin yo‘l-yo‘riqlarni jamiyatdan olsinlar, men dehqonlar orasida tashviqot o‘tkazish masalalarini ular oldiga qo‘ydim va modomiki, islohotning bir qismi yer solig‘ining islohoti ekan, bu to‘g‘risida dehqonlarni tayyorlash kerak”, - dedim”[3]. Barcha ma’rifatparvar adiblarimizning asosiy maqsadlaridan biri ma’naviy sohada ommani eng asosiysi quyi qatlamda ezilib yashab kelayotgan dehqonlar hayotini yaxshilash borasidagi harakatlarni asosiy masala sifatida kutardilar.

Tahlil va natijalar. Sadriddin Ayniyning yozishicha, xalqni islohotga tayyorlash, ularning ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantirish maqsadida Yosh buxoroliklar tomonidan 1910-1917 yillar mobaynida mahalliy xalq o’rtasida keraklicha ma’naviy va ma’rifiy g’oyalarni targ’ib qilgan, yangi usul jadid maktablarini tashkil etib, xalq farzandlarini ta’lim berib, shuningdek, ularning ma’naviy dunyoqarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan gazeta va jurnallar nashr qilishni boshlab, targ‘ibot va tashviqot ishlarini bilan shug’ullangan. Sadriddin Ayniy ta’kidlashicha, jadidlarning ma’rifatparvarlik tadbirlari xat va savoddan xabardor bo‘lgan, hukumat ishlari bilan hamkorlikda bo‘lmagan, adabiyot va matbuot ishlaridan xabari bo‘lgan bir qism xalqqa ijobiy ta’sir ko‘rsatgan[2]. Jamiyat miqyosida o’tkaziladigan islohotlarning natijadorligini oshirish bu hukumat va xalq omuxtaligi asosida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ikki tomon bir-birini qo’llab-quvvatlaydigan bo’lsa, islohot samarali natija bilan tugallaanadi. Bizga ma’lumki, har bir davrda xalq harakatlari o’ta uyushgan holatda harakatlana olmasa, ularning harakatlari puchga chiqishi tarixdan ma’lum. Jadidlar ma’rifatparvarlik harakatlarining milliy va ma’naviy g’oyasi ham xalqni ma’rifatli qilish, eski tuzum botqog’idan chiqarish borasidagi maqsad asosida harakatlanishiga qaramasdan hukumat tomonidan qo’llab quvvatlanmadi.

Ma’rifatparvar adib Sadriddin Ayniy Yosh buxoroliklar targ’ibot harakatida faol qatnashadi. Buxoro jadidlarining siyosiy partiyasi hisoblangan Yosh buxoroliklar amirlik boshqaruvi o‘rnida demokratik respublika o‘rnatish maqsadida harakat qildi. Katta yoshli jadidlar avlodiga mansub bo‘lgan Sadriddin Ayniy bu kurashlarda faol ishtirok etib, ham o‘zining jonkuyar faoliyatida, ham serqirra ijodi bilan demokratik islohotlarni amirlik hududida joriy etish uchun harakat qildi.

1917-yil 7-aprelda Buxoro amiri Sayid Olimxon e’lon qilgan farmoni chiqarilishi bilanoq islohot tarafdorlari 8-aprelda tashkil qilindi. Islohotning asosiy mazmun va mohiyati jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ishlab chiqilgan xalqning ijtimoiy va moddiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan go’ayalar asosida tayyorlanganligi sababli islohotni amalga oshirish holatini talab qilish muhim masala sifatida kundalang bo’lib quyilishi rejalashtirilgan edi. Ushbu namoyish chog‘ida islohot tarafdorlari bilan mutaassib diniy ulamolar va madrasa talabalari orasida g’alayon kelib chiqib, keyin amirlikda islohot tarafdorlari bo’lgan Yosh buxoroliklarga qarshi tuxtovsiz kurash boshlanadi. Shu yilning 9-apreli kuni tashkil etilgan namoyishda qatnashmagan bo‘lsa-da, Sadriddin Ayniy ular qatorida qamoqqa olindi. Qamoq qiynoqlaridan qutulgandan so’ng Sadriddin Ayniy dastlab Kogonga, keyin Samarqandga boradi va shu yerda doimiy istiqomat qiladi.

1917-yil aprel chiqishlaridan so’ng Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo’jayev o’rtasida o’zaro kelishmovchilik kelib chiqdi. Bu vaqtda Yosh buxoroliklar aholining asosiy qismi o‘rtasida ham tanib ulgurmagan edi. Xalq diniy ruhoniylar ta’siri ostida bo‘lib, xohlagan vaqtda ularning qo’llab-quvvatlashi bilan jadidlarga qarshi qo‘zg‘alishlari mumkin edi. Shu sababli o‘ng guruhdan hisoblangan Sadriddin Ayniy ishtirokidagi guruh nihoyatda o’ylab chiqilgan asta-sekinlik bilan islohatlarni o’tkazish tarafdori bo’lib hisoblanadi. Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim va boshqalar nihoyatda o‘ylangan, ehtiyotkorona harakatlar, inqilobsiz, ayniqsa, to‘qnashuvlarsiz, asta-sekin, bosqichma-bosqich o‘tkaziladigan islohotlar tarafdori edi va bular to‘g‘ri yo‘lni tanlagan edilar.

1917-yilgi aprel namoyishidan keyin S.Ayniy va F.Xo‘jayev orasida o‘zaro kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Birinchidan, Amir Said Olimxon tomonidan e’lon qilingan islohot farmoniga qarshi minnatdorchilik namoyishini tashkillashtirishga Sadriddin Ayniy dastlab jiddiy qarshilik kursatdi. Ikkinchidan, Yosh buxoroliklarning so‘l guruhi tarafdorlari boshchiligida uyushtirilgan namoyish quvg‘in etildi, lekin, namoyishda qatnashadigan S.Ayniy ham aybsiz aybdor bo’lib qoldi. Uchinchidan esa, Sadriddin Ayniy Buxoro amirligida qilishi zarur bo’lgan o‘zgarishlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, holatni ko’rib Yosh buxoroliklarning minnadorlik bildirishlarini qo’llab-quvvatlamadilar. Sadriddin Ayniy esa aslida to‘g‘ri yo‘lni tanlagan edi. Uning fikricha, Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi so‘l guruh uzoqni ko‘ra olmaganligi va vaziyatni noto‘g‘ri tushunganligi tufayli jadidlar guruhi tor-mor etildi.

Sadriddin Ayniy esa bu jarayonga xolis baho bergan holatda ularning yo’li to’g’ri emasligini ta’kidlash mumkin. Shu sababli bir tuxtamga kelmagan tashkilot a’zolari tomonidan o’tkazilgan tarqoqlik bilan amalga oshirilgan tadbirlari besamar natija bilan tugadi. Yosh buxoroliklar tomonidan uyushtirilgan aprel namoyishi sababli amir tomonidan qattiqtaqibga uchragan, Kogon kasalxonasida qariyib ikki oy tibbiy muolajalardan so’ng sog’ligi biroz tiklandi. Shundan keyin Sadriddin Ayniy Samarqandga butunlay ko‘chib o‘tib, o‘zining safdoshlari va tarafdorlari bo‘lgan Yosh buxoroliklar bilan doimiy ravishda yaqin hamfikrlikda bo’ldi. O‘zini davlat ishlaridan uzil-kesil uzoq tutib, siyosatdan butunlay uzoq tutib, ilmiy ijod bilan faoliyat yuritdi, o‘sha vaqtdagi Samarqand matbuotida va maorifida faol ishtirok etib, aholini hukumatga qarshi chiqishga undovchi ko’plab tanqidiy

asarlarni yozdi.

Sadriddin Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida ta’kidlashicha, Yosh buxoroliklar 1918-yil martda amirlikda vujudga kelgan “Kolesov voqealari”dan so’ng amir tazyiqiga uchramaslik sababli qochib, Turkiston o‘lkasi shaharlariga qochib jon saqlashga majbur bo’ldi. Ularning ba’zilari Toshkent va Samarqand orqali, ba’zilari esa Rossiya shaharlariga borib joylashdi. Ular joylashgan hududlarda o‘zlarining ma’rifatparvarlik ishlarini, targ‘ibot va tashviqot faoliyatlarini davom ettirib, bir qator siyosiy-maxfiy idoralar tashkil qildi. “1918-yil Turkistonda parokandalik yuz berdiki, Vatandan,bor-budidan ayrilib, g‘urbat va musofirlikda kun kechirdilar. Faoliyat yuritish u yoqda tursin tirikchilik qilish ham og’ir holatga aylandi”[2].

Adibning ta’kidlashicha, “Men bu vaqtda Samarqandda istiqomat qilib, hanuzgacha holatim yaxshi emas edi, quvvatim yo‘q edi. Kolesov voqealaridan keyin amir hukumati Samarqandga ham o‘z ayg‘oqchilarini yubordi. Samarqand mening yashashim uchun xavfli hududga aylandi. Men 1918-yil 22-aprelda Samarqanddan Toshkentga ko‘chib bu yerda olti oy yashab qoldim. Bu orada davolanib, quvvat oldim, o’zimga keldim. Bungacha Samarqandda ham sovet hukumati yetarlicha kuch tuplagandi. Men 1918 yil 22 oktyabrda Toshkentdan Samarqandga qaytib, mahalliy xalqning bolalari uchun bir o‘rta maktab tashkil etilgan edi, bu yerda o‘qituvchi bo’lib ishga kirdim. Bu yerda men o‘zbek-tojik tili adabiyoti va tarixidan dars berardim”[3].

Yosh buxoroliklarning ma’naviy va milliy g’oyalari asosiga yug’rilgan “Qutilish” gazetasi, “Uchqun”, “Tong” nomidagi matbuot nashlari bosila boshlandi. jurnallar chiqa boshlaydi.

Ushbu matbuot nashrlarida F. Xo‘jayev, S. Ayniy, Fitrat, P. Soliyev kabi ijodkor ijod mahsuli bosilib chiqarilgan.

Fayzulla Xo‘jayev boshchiligida 1920-yil 15-aprelidan Toshkentda, har oy ikki bor bosilib chiqadigan “Uchqun” jurnali nashr etila boshlanadi[6].

1920-yilning iyunida Yosh buxoroliklar partiyasining rahbari F. Xo‘jayev chaqiruvi asosida matbuot nashrlarini nashr etish holatini ko’paytirishdan maqsad, xalq orasida ochiqdan-ochiq harakatlar olib borishdan ko’ra, matbuot vositalari eng samarali va eng tez tarqaladigan vosita ekanligi ko’zda tutilgan edi. Bu maqsadga erishish uchun jadid ma’rifatparvarlarining qo’llab-quvvatlanishiga olib keldi. Sadriddin Ayniy aholining ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantiruvchi g’oyalar va yo’nalishlar ishlab chiqish maqsadida Samarqanddan Toshkentga taklif etiladi . Sadriddin Ayniyning “Qisqacha tarjimai holim” asarida bu haqda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Buxoro inqilobi tayyorlandi. Buxoro xalqi Rossiya va Turkiston bolsheviklaridan ko’maklashishni so’radi. Men 1920-yilning iyun oyida Buxoro Kommunistlari tashkiloti tomonidan Toshkentga junatildim. Men bu yerda oz muddat, mening ijodim asosida talab etgan loyiha, bayonot va boshqa narsalarni ikki tilga mo’ljallangan holda bitdim”[3].

Sadriddin Ayniy faoliyatini qizqa qilib ta’kidlaganda, Turkiston va O‘zbekistonning o’tmish holati va muammolari o‘rganiladi, vatanimiz tarixini o’rgangan holatda kelgusi o’sib kelayotgan avlodlarga munosib merosni yozib qoldirdi. Mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlar qatorida o’z yo’liga ega

bo’lgan davlat sifatida ko’rish maqsadida o’zining siyosiy va ijtimoiy qarashlarini asarlari vositasida kelgusi avlodlarga qoldira oldi [13].

Xulosa va takliflar. Xullosa qilib yozganda, Sadriddin Ayniy Yosh buxoroliklar partiyasining faol a’zosi bo’lib, o‘zining islohot va inqilob haqidagi g’oya va fikrlarida ijtimoiy-siyosiy inqilob orqali davlat boshqaruvini o‘zgartiradigan ma’rifatparvar jadidlar tomonida emasdi. Adibning qarashlarida jamiyat miqyosida barcha tabaqalar tengligini o’rnatgan holatda ma’rifatparvarlik g’oyalarini ishlab chiqgan holatda islohotlar o’tkazilganda bu jarayonda barcha tabaqa vakillari qatnashib sezilarli natijalarga erishish ko’zda tutgandi. Sadriddin Ayniyning ta’kidlashicha, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy o’zgarishlar asta-sekinlik bilan xalqni bu jarayonlarga tayyorlagan holatda yuz berishi mumkin. Eng asosiysi Sadriddin Ayniy jamiyatdagi yangicha qarashlar asosidagi ma’rifatparvarlik harakatlarida va bu harakat vositasida tashkil etilgan Yosh buxoroliklar harakati faoliyatida sezilarli o’rin qoldirdi.

Adabiyotlar

1. Ayniy S. Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro. - Toshkent: Turkiston davlat nashriyoti, 1923.
2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. - Moskva: SSSR xalqlari markaziy nashriyoti, 1926. B. 64.
3. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim / Asarlar. 8 jildlik. 1 - jild. - Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963. - B. 94.
4. Xo‘jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. -Toshkent: Fan 1997.
5. Xolida Ayni. Jizn Sadriddina Ayni (kratkiy xronologicheskiy ocherk). - Dushanbe: Donish, 1982.
6. Hasanov M. Fayzulla Xo‘jayev. - Toshkent: O‘zbekiston, 1990. - B. 36-37.
7. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi // Uchqun. (Toshkent) 1923, № 2. - B. 2-6.
8. Abdulla Badriy. Yosh buxoroliklar kimlar?. - Moskva: 1919. - B. 3.
9. Rajabov Q. Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal! (Birinchi maqola) // Yosh kuch. 2017. № 7. - B. - 18.
10. Rajabov Q. Yosh buxoroliklar // Buxoro mavjlari. 2005, № 2. - B. 26.
11. Rajabov Q. XX asr boshlarida Turkiston yoshlari (Birinchi maqola) // Huquq va burch. 2008. № 1. - B. 40.
12. Bobonazarov O. “Jadidchilarning ma’rikatparvarlik harakatlari va ularning xalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi o’rni”
13. Temirov U. Problems of Turkistan history in the periodical publications of Sadriddin Ayni. https://zienjournals.com Date of Publication: 14-10-2023 ISSN NO: 2770-8608. Texas Journal of Philology, Culture and History.

МУЗЕЙЛАРНИНГ ВАТАНПАРВАРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ

Ашурова Махбуба Ахтамовна

Бухоро давлат университети,

Ислом тарихи ва манбашунослиги,фалсафа кафедраси

мустақил тадқиқотчиси

Маълумки, музейлар жамиятнинг тарихий хотираси, маънавий қадриятлари ва миллий ўзлигини ифода этувчи муҳим ижтимоий-маданий институт сифатида ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ва ривожлантиришда алоҳида ўрин тутади. Айниқса, “Янги Ўзбекистон” тараққиёт босқичида музейлар фаолияти нафақат маданий меросни сақлаш ва намойиш этиш, балки фуқароларда Ватан тақдирига дахлдорлик, миллий ғурур ва тарихий масъулият ҳиссини кучайтиришга хизмат қилаётган муҳим ижтимоий механизм сифатида намоён бўлмоқда. Ватанпарварликни ривожлантириш масаласи фалсафий нуқтаи назардан шахс, жамият ва давлат ўртасидаги узвий боғлиқликни таъминловчи маънавий асос сифатида талқин қилинади. Шу маънода музейлар инсон онгида миллий ўзликни англаш, тарихий давомийликни ҳис этиш ва келажакка масъулият билан қараш туйғуларини мустаҳкамловчи ўзига хос маърифий макон ҳисобланади.

Фалсафий жиҳатдан ватанпарварлик тушунчаси қадриятлар тизимига мансуб бўлиб, у инсоннинг ўз халқининг тарихи, маданияти, тили ва маънавий меросига бўлган муносабатини белгилайди. Музей эса айнан шу қадриятларни моддий ва маънавий шаклда жамлаб, авлоддан-авлодга узатувчи ижтимоий хотира институти сифатида фаолият юритади. Музей экспозицияларида намоён этилаётган археологик топилмалар, тарихий ҳужжатлар, миллий қаҳрамонлар ҳаётига оид ашёлар ва санъат асарлари ватанпарварлик ғоясининг образли ва таъсирчан ифодасини яратади. Бу эса музейларнинг таълимий-таъсир кучини оширади ва уларни фуқаролик онгини шакллантиришда муҳим воситага айлантиради.

Президентимиз таъкидлаганларидек, “Башарият фахри бўлган буюк шаҳарлар, меъморий обидалар, тарихий ва археологик ёдгорликлар, минглаб музейлардаги нодир экспонатлар бу фикрни яққол тасдиқлайди. Ҳаммамизга аёнки, халқ амалий санъати – бу аввало, табиат билан уйғун бўлиб, табиатдан завқ ва илҳом олиб,-бетакрор ижод намунасини яратишдир”[195]

“Янги Ўзбекистон” шароитида музейлар фаолиятида ватанпарварликни тарғиб қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилганини кузатиш мумкин. Музейлар орқали тарихий ҳақиқатни холисона ёритиш, миллий қаҳрамонлар образини замонавий талқинда тақдим этиш, мустақиллик ғоялари ва миллий

[195] . Мирзиёев Ш.М. 4-том. Миллий тикланишдан-миллий юкланиш сари. М 54 – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.322.

давлатчилик анъаналарини кенг ёритиш фуқаролар, айниқса ёш авлод онгида ватанга садоқат ва фидойилик туйғуларини шакллантиришга хизмат қилади. Бунда музей экспозицияларининг мазмунан бойлиги, илмий асосланганлиги ва интерактив усуллардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги роли уларнинг таълим-тарбия тизими билан узвий боғлиқлигида ҳам намоён бўлади. Мактаб ва олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ташкил этилаётган музей дарслари, тематик экскурсиялар ва илмий-маърифий тадбирлар ёшларда тарихий билимларни чуқурлаштириш билан бирга, Ватан тақдирига нисбатан фаол фуқаролик позициясини шакллантиради. Бу жараёнда музей педагогикаси муҳим назарий-амалий асос сифатида намоён бўлиб, у экспонатлар орқали билим бериш, ҳиссий таъсир кўрсатиш ва маънавий тарбияни уйғунлаштиришга қаратилган.

Фалсафий нуқтаи назардан қараганда, ватанпарварликни ривожлантиришда ҳиссий ва рационал омиллар уйғунлиги муҳим ҳисобланади. Музей муҳити айнан шу икки омилни бирлаштириш имкониятини беради. Масалан, тарихий воқеаларга оид асл ашёларни кўриш инсонда ҳиссий таъсир уйғотса, улар ҳақидаги илмий маълумотлар ва концептуал тушунчалар рационал тафаккурни ривожлантиради. Натижада шахсда тарихий воқеликни чуқур англаш ва ундан маънавий хулоса чиқариш қобилияти шаклланади. Бу эса ватанпарварликни фақат ҳиссий туйғу эмас, балки онгли ва масъулиятли позиция сифатида қарор топишига олиб келади.

Ўзбекистон музейлари амалиётида ватанпарварлик ғоясини тарғиб қилишда тарихий шахслар ва миллий қаҳрамонлар образига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Амир Темур, Жалолиддин Мангуберди, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, шунингдек, мустақиллик даври қаҳрамонлари ҳаёти ва фаолиятига бағишланган экспозициялар орқали миллий ғурур ва тарихий ифтихор туйғулари мустаҳкамланади. Бу каби экспозициялар фақат тарихий маълумот бериш билан чекланиб қолмай, балки миллий давлатчилик ғоясининг узвий давомийлигини очиб беради.

Шу билан бирга, музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги роли жамиятдаги ижтимоий бирлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш билан ҳам боғлиқ. Музей маконида турли авлод ва ижтимоий гуруҳ вакиллари умумий тарих ва қадриятлар атрофида бирлашади. Бу эса жамиятда маънавий интеграцияни таъминлаб, фуқаролик якдиллигини кучайтиради. Айниқса, кўп миллатли Ўзбекистон жамиятида музейлар турли маданий меросларни уйғун ҳолда намоён этиб, умуммиллий ватанпарварлик ғоясини шакллантиришга хизмат қилади.

Музейларнинг замонавий ахборот-коммуникация технологиялари билан уйғунлашуви ҳам ватанпарварликни тарғиб қилишда янги имкониятлар очмоқда. Виртуал экспозициялар, рақамли архивлар ва мультимедиа тақдимотлар орқали миллий тарих ва маданий мерос кенг аудиторияга етказилмоқда. Бу эса айниқса ёшлар орасида музейларга қизиқишни ошириб, ватанпарварлик ғояларини замонавий форматда сингдириш имконини беради.

Шу тариқа, музейлар “Янги Ўзбекистон” шароитида ватанпарварликни ривожлантиришнинг муҳим ижтимоий-фалсафий омили сифатида намоён бўлиб, улар орқали миллий ўзликни англаш, тарихий хотирани сақлаш ва келажакка масъулиятли муносабатни шакллантириш таъминланади. Бу жараён музейларнинг фақат маданий муассаса эмас, балки маънавий тарбия ва фуқаролик онгини ривожлантирувчи стратегик институт сифатидаги аҳамиятини янада оширади.

Музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги аҳамиятини чуқурроқ англаш учун уларнинг ижтимоий онгга таъсир қилиш механизмларини таҳлил этиш зарур. Фалсафий нуқтаи назардан, ижтимоий онг тарихий хотира, маънавий қадриятлар ва идеаллар тизими орқали шаклланади. Музейлар эса айнан шу тарихий хотирани моддий далиллар орқали жонлантириб, уни шахсий тажриба даражасига кўтаради. Экспонат билан бевосита мулоқот қилиш жараёнида инсон тарихни фақат ўқиб ёки эшитибгина қолмай, балки уни ҳис этади, англайди ва ўз ҳаёти билан боғлайди. Бу ҳолат ватанпарварлик туйғусининг чуқур илдиз отишига замин яратади.

Музей муҳитида шаклланадиган ватанпарварлик туйғуси абстракт ғоялар эмас, балки аниқ тарихий воқеликлар асосида қарор топади. Масалан, мустамлакачилик даври, миллий озодлик курашлари ёки мустақилликка эришиш жараёнларини ёритувчи экспозициялар фуқароларда Ватан озодлиги қандай қийинчиликлар эвазига қўлга киритилганини англашга ёрдам беради. Бу эса эркинлик ва мустақиллик қадрини чуқур ҳис этишга, уни асраш ва мустаҳкамлашга интилишни кучайтиради. Шу маънода музейлар ватанпарварликни тарихий масъулият ҳисси билан уйғунлаштирувчи муҳим маънавий макон ҳисобланади.

“Янги Ўзбекистон” шароитида музей экспозицияларида миллий давлатчилик ғоясини ёритишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Давлат рамзлари тарихи, Конституция қабул қилиниши, мустақил тараққиёт босқичлари ва ислоҳотлар жараёнини акс эттирувчи материаллар фуқароларда давлатга нисбатан ҳурмат ва ишонч туйғусини шакллантиради. Бу эса ватанпарварликнинг муҳим таркибий қисми бўлган фуқаролик садоқатини мустаҳкамлайди. Фалсафий жиҳатдан, фуқаролик садоқати шахснинг ўз давлатини умумий манфаатларнинг ифодаси сифатида қабул қилиши билан боғлиқ бўлиб, музейлар бу англашни визуал ва маънавий жиҳатдан таъминлайди.

Музейларнинг ватанпарварлик тарбиясидаги роли уларнинг маънавий-ахлоқий қадриятларни тарғиб қилиш функцияси билан ҳам узвий боғлиқ. Ватанпарварлик фақат тарихий билим ёки миллий ғурур эмас, балки масъулият, фидойилик, меҳнатсеварлик ва жамият олдидаги бурчни англаш каби ахлоқий сифатларни ҳам қамраб олади. Музей экспозицияларида халқнинг меҳнат анъаналари, ҳунармандчилик тарихи, илм-фан ва маданиятда эришилган ютуқлар ёритилиши орқали ёшларда Ватан равнақига ҳисса қўшишга бўлган ички эҳтиёж шаклланади. Бу эса ватанпарварликни фаол ва ижодий позиция сифатида қарор топишига хизмат қилади.

Музейлар фаолиятида жамоатчилик билан мулоқотнинг кучайиши ҳам ватанпарварликни ривожлантиришда муҳим омил ҳисобланади. Илмий-маърифий анжуманлар, очиқ мулоқотлар, хотира кечалари ва тематик кўргазмалар орқали музейлар жамиятда тарихий мулоҳаза ва маънавий баҳслар учун майдон яратади. Бу жараёнда фуқаролар тарихий воқеликларга нисбатан ўз муносабатини шакллантиради, ўтмиш сабоқларидан хулоса чиқаради ва келажак учун масъулиятни ҳис этади. Фалсафий нуқтаи назардан, бундай мулоқотлар ижтимоий тафаккурнинг ривожланишига хизмат қилади.

Айниқса, ёш авлод билан ишлаш музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги энг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Ёшлик даврида шаклланган қадриятлар инсон онгида узоқ вақт сақланиб қолади. Шу боис музейларда болалар ва ёшлар учун мўлжалланган махсус экспозициялар, интерактив дастурлар ва маърифий лойиҳалар ташкил этилмоқда. Бу тадбирлар орқали ёшлар тарихий воқеликни пассив томошабин сифатида эмас, балки фаол иштирокчи сифатида қабул қилади. Бу эса ватанпарварлик туйғусини табиий ва онгли равишда шакллантириш имконини беради.

Музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги роли, шунингдек, глобаллашув шароитида миллий ўзликни сақлаш вазифаси билан ҳам боғлиқ. Замонавий дунёда турли маданий таъсирлар кучайган шароитда музейлар миллий тарих ва маданиятни асраш, уни замонавий талқинда намоён этиш орқали маънавий барқарорликни таъминлайди. Бу эса фуқароларда ўз миллий илдизларига таяниш, ўзлигини йўқотмаслик ва глобал жараёнларда фаол иштирок этиш қобилиятини шакллантиради. Шу маънода музейлар ватанпарварликни локал ва глобал ўлчамларда уйғунлаштирувчи институт сифатида намоён бўлади.

Музейлар фаолиятида ватанпарварликни ривожлантиришнинг кўп қиррали ва тизимли вазифалари:	Тарихий хотирани сақлаш
	Маънавий қадриятларни тарғиб қилиш
	Фуқаролик онгини шакллантириш
	Миллий ўзликни мустаҳкамлаш

Бу вазифаларнинг амалга оширилиши музейларнинг илмий асосланган экспозиция сиёсати, жамоатчилик билан самарали мулоқоти ва таълим-тарбия тизими билан узвий ҳамкорлигига боғлиқдир.

Музейларнинг ватанпарварликни ривожлантиришдаги фаолиятини янада чуқур таҳлил қилиш уларнинг институционал хусусиятларини фалсафий нуқтаи назардан баҳолашни тақозо этади. Музей ижтимоий институт сифатида жамиятнинг маънавий эҳтиёжларига жавоб берувчи, тарихий хотирани тизимлаштирувчи ва қадриятларни узатувчи механизм вазифасини бажаради. Ватанпарварлик эса ана шу қадриятлар тизимининг

марказий элементи бўлиб, музейлар уни шакллантиришда тарихий далиллар ва маданий рамзлардан фойдаланади. Бу жараёнда музейлар илмий билим билан маънавий таъсирни уйғунлаштириб, шахс онгида мустаҳкам ва барқарор қарашларни қарор топтиради.

Музей экспозицияларида қўлланилаётган тарихий сюжетлар ва рамзий образлар ватанпарварлик ғоясини концептуал даражада англаш имконини беради. Масалан, муайян даврга оид экспозиция нафақат воқеалар кетма-кетлигини кўрсатади, балки ўша давр одамларининг дунёқараши, қадриятлари ва идеалларини ҳам очиб беради. Бу эса томошабинда тарихий эмпатияни шакллантириб, ўтмиш авлодлар тақдирига нисбатан ҳурмат ва масъулият ҳиссини уйғотади. Фалсафий жиҳатдан, бундай эмпатия ватанпарварликнинг маънавий-психологик асосини ташкил этади.

“YANA” LEKSIK VOSITASI ORQALI ITERATIV (TAKRORIYLIK) ASPEKTUAL VAZIYATNING IFODALANISHI

(E. Seton-Tompsonning „Yovvoyi yo’rg’a” asari asosida)

Aziza Odilovna Muminova,

Doktorant (DSc) Samarqand davlat chet tillar instituti

Aspektologiya atamasi lotin tilida aspectus – tashqi ko‘rinish, qiyofa va yunon tilida λόγος – so‘z, ta’limot kabi ma’nolarni anglatadi. Aspektologiya grammatikaning bir bo‘limi sifatida fe’l ifodalaydigan harakatning vaqt jarayonidagi kechimi va taqsimlanishini tadqiq etadi. Uning o‘rganilishi qadim tarixga ega bo‘lib, antik davrdayoq aspektuallikka oid ilk qarashlar yuzaga kela boshlagan. Jumladan, Aristotel birinchi bo‘lib, fe’llarning chegaralangan/chegaralanmagan aksional guruhlarini ajratib bergan. Keyinchalik fe’l shakllari ifodalaydigan ba’zi aspektual farqlarni Appaloniy Diskol (yunon tilida), Varron (lotin tilida) ko‘rsatgan [4].

Zamonaviy tilshunoslikda - aspektuallik tilshunoslikning grammatik tarmoqlaridan biri sanalib, u o‘z ichiga aspekt (vid), chegaralanganlik/chegaralanmaganlik (aksionallik), harakat tarzi kabi kategoriyalarni qamrab oladi. Shulardan, aspekt (vid) - fe’lning grammatik kategoriyasi bo‘lib, u fe’l ifodalaydigan harakatning tugallanganligi/tugallanmaganligini, aksionallik - harakatning chegaralanganligi/chegaralanmaganligini, harakat tarzi - fe’l ifoda etgan ish-harakatning qay tarzda va usulda amalga oshishini ko‘rsatadi. Zamonaviy aspektologiyada bu birliklar semantik, morfologik va pragmatik darajada o‘rganiladi.

Aspektuallik va uni tashkil etuvchi kategoriyalarga to’xtalgan holda, aspektuallikning muhim tushunchalaridan biri, “aspektual vaziyat”ga izoh berish o’rinlidir. Aspektual vaziyat - bu fikr mulohazani aks ettiruvchi kategorial ifodalardan biridir. U aspekt (vid)ning tugallanganlik/tugallanmaganlik, fe’llarning

chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, davomlilik, karralilik, fazaviylik, perfektivlik kabi aspektual ma’nolaridan tashkil topadi [3].

Aspektual vaziyat - faqat turli lisoniy, grammatik, leksik va kontekst vositalari yordamida shakllanadigan aspektual ma’nolar (terminativlik/protsessuallik) bilan cheklanib qolmay, shu bilan birga, u harakat tarzlari (harakatning boshlanishi, davom etishi, takroriyligi, natijaviyligi) va ularning kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan aspektual ma’nolarni ham o‘z ichiga oladi [2]. Aspektual vaziyatlarning bir necha turlari kuzatiladi. Jumladan, harakatning bir holatdan ikkinchi holatga o’tishi - inxoativ, takroriy harakat - iterativ, o‘rta oqimda bo‘lgan harakat - protsessual, tugal nuqtaga yetgan harakat - terminativ aspektual vaziyat kabilardir. “Aspektual vaziyat” tushunchasiga izoh bergan holda, bevosita iterativ aspektual vaziyatni hosil qilishda faol qo’llanuvchi vositalar tahliliga o’tamiz. O’zbek tilida harakatning takroriylik ma’nosi, asosan, turli leksik ko’rsatkichlar, payt ravishlari, fe’l semantikasi, ko’makchi fe’l va boshqa vositalar yordamida o’z ifodasini topadi. Mazkur tezis uchun to’plangan (87) misollarda iterativlik ma’nosini aks etishda “*yana*” vositasi (19 ta misol bilan) yetakchilik qilishi kuzatildi. “*Yana*” - bu takroriylikni ifodalovchi leksik vosita bo’lib, u harakatning avval ham sodir bo’lganligini hamda hozir yoki keyinchalik yana qayta yuz berishini voqelantirib, u amalni bir yoki bir necha marotaba qaytarilishi mumkinligini aks etadi. Quyida shunday misollarni keltiramiz:

(1) *Kelasi yiliyam galani Nyu-Meksika shtatining ana shu yayloviga haydadilar. Kovboy o’sha yovvoyi otlar galasini* ***yana*** *ko’rdi* [1]. - Misoldagi *yana* - aniq takroriy harakatni bildirgan, chunki kovboy ilgari bu otlar galasini ko’rgan, keyin yana ko’rdi.

(2) *U [Yan] temir otlarda qadrdon adirlariga yo’l oldi. Keyin tirik otlarda yurib, uyiga yetib keldi.* ***Yana*** *so’ngsiz ov safari boshlandi* [1]. - Bu yerda takroran boshlangan jarayon ma’nosi berilgan, ya’ni ov safari oldin bo’lgan, keyin tugagan va hozirda qayta boshlangan. Aspektual jihatdan, iterativ + inxoativ aspektual vaziyat yuzaga kelgan.

(3) *Ulkan bug’u o’z makri barbod bo’lganini bilib,* ***yana*** *hamrohi oldiga qaytib keldi* [1]. - Mazkur misolda *yana* - takroriylikni ifoda etib, u harakatning ilgari ham sodir bo’lganini aks etgan.

(4) *Bingo* ***yana bir marta*** *podachilik qildi. Bu shu yilning kuzida Karberri yarmarkasida bo’ldi* [1]. - Bu yerda *yana* - leksik birikma shaklida kelib, u aniq takroriylikni ifoda etgan, chunki misolda sanab bo’ladigan (birinchi martasi bo’lib o’tgan, endi ikkinchi martasi bo’ldi) takroriylik voqelangan.

(5) *U [tulki] tovuqni olish uchun* ***yana*** *ko’p urinib ko’rdi, endigi urinishlarida albatta zanjirning uzunligini e’tiborga olib urindi, ammo tovuqqa tumshug’i yetmadi* [1]. - *Yana* - bu yerda jarayonli, davomiy iterativlikni aks etgan. Jumla tarkibidagi *ko’p urunib ko’rdi* ifodasi - harakat muayyan vaqt davomida bir necha marotaba takrorlanganligiga ishora qilgan.

(6) *Bo’rilarni eng avval ot ko’rdi, pishqirib, ularni biroz nari ketishga majbur qildi. Biroq bo’rilar* ***yana*** *qaytib kelib, uzoqdan atrofimni o’rab oldi* [1]. - Misolda oldingi harakat (ketish)ga qarama-qarshi takror, ya’ni qaytib kelish harakati berilgan.

(7) *U [quyon] endi nafasini olib, isiy boshlagan edi hamki, tag'in g'irch-g'irch degan qadam tovushi keldi, u* ***yana*** *yo'lga tushdi* [1]. - Bu yerda harakatning qayta boshlanib, takrorlanishi (inxoativ + iterativ) voqelangan, ya'ni isish jarayoni boshlanib, subyekt qayta takroran yo'lga tushgan.

(8) *Grizli uni chap panjasi bilan bir urib uloqtirib yubordi. Tajangning popugi pasaymadi, qaytaga qattiqroq jazavaga tushdi, o'rnidan sapchib turib,* ***yana*** *raqibiga tashlandi* [1]. - Misolda *yana* - oldin sodir bo'lgan harakatni (raqibiga tashlanish) qayta takrorlanayotganini bildirgan.

Ko'rib chiqilgan misollardagi iterativlik ma'nolarini umumlashtirib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, misollarda "yana" leksik ko'rsatkichi harakatning takroriyligini turli ko'rinishlari ifoda etgan bo'lsa-da, ammo ularni bir umumiy jihat, ya'ni "harakatning ilgari sodir bo'lib, hozir va keyinchalik qayta sodir bo'lish" semasi birlashtirmoqda.

Adabiyotlar:

1. E. Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a (T. Murod tarjimasi). - Toshkent. 2018. - 248 b.

2. Muminova A. O. Hozirgi zamon nemis va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aspektual semantikasi. Filol. fan. nomz. diss. – Samarqand, 2021. – 151 b.

3. Бондарко А. В. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка. – М.: ИЛИ РАН, 2002. – 736 с.

4. энциклопедический словарь Сов. энциклопедия - М.: Директмедиа Паблишинг, 2008. - 5987 с.

BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM TIZIMI

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

O'rinboyeva Ro'zigul Amrullayevna

Ijtimoiy fanlar kafedrasi talabasi

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro amirligida siyosiy tuzum monarxiya tartibiga asoslangan bo'lib, Mang'itlar sulolasi vakillari tomonidan boshqarilar edi. Mang'itlar davri ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak , Bu davrda O'rta Osiyo ta'lim tizimiga asoslangan holda, quyi va yuqori bosqichdan iborat ta'lim maskanlari tashkil etilgan. Quyi boshlang'ich maktab va yuqori madrasalar asrlar davomida faoliyat yuritib kelgan. Mirzo Abduazim Somiyning "Mang'it sultonlari tarixi" asarida yozilishicha" Davlatdagi parokandalik, musulmon jamoasidagi tushkunlik amir Nasrulloning taxtga chiqishidan boshlandi, va razillarga rahnamolik, e'tiborli va hurmatli insonlarning kamsitilishi amir Muzaffar davrida mustahkamlandi. Amir Abdullaxon davrida odat tusiga aylandi va o'zining

zararli mahsulini bera boshladi. Boshlang‘ich an’anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiy ma’lumot beradigan xat - savod chiqarish maskanlari bo‘lib arab imlosidan savod olish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, hisoblash qoida va ko‘nikmalarni hosil qilish tabiat va jamiyat atrof muhit , islom dini haqida bilim va tushunchalarni berish, axloq - obod me’yorlariga amal qilishni o‘rganishdan iborat edi. "Maktab" so‘zi mirzolar maktabi ma’nosini bildirgan, 1896 - yilda Sank - Peterburgda nashr etilgan ensiklopediyada.

"Maktab musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat - savod chiqarish va diniy udumlarini o‘zlashtirish dargohi" deya ta’rif berilgan. O‘rta Osiyoning barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo‘lgan. Maktablar ko‘pincha bitta xonadan iborat bo‘lganligi uchun ham ularni maktabxona deb atashgan.

Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o‘g‘il va qiz bolalar alohida - alohida maktabxonalarda o‘qitilgan.

Darhaqiqat hozirgi Qoraqalpog‘iston hududida esa o‘sha davrda ham o‘g‘il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o‘qitilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayrim an’anaviy maktablarda dars berish bilan shug‘ullanuvchi domlaning ish haqi vaqfnomalarda belgilangan. Mablag‘dan to‘lab borilishi ko‘pgina vaqfnomalarda uqtirilgan. Bunday ma’lumotlarni biz Raufboy o‘g‘li Ma’rufboy, Mirmansurning qizi Nozikoy, O‘zbek o‘g‘li Mirzo G‘ulom vaqfnomalaridan bilib olishimiz mumkin. Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta’riflaydi: " Maktab shunday joydirki, bir muallim bor, uni maktabdor deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o‘n yilgacha zaruriy xat - savodlarini chiqarganga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab madrasaga borib dars o‘qiy boshlaydilar. " XX asrning o‘rtalarida Buxoroda bo‘lgan N. Xalilovning qayd etishicha " Boshlang‘ich maktablar va madrasalar Buxoro shahrida va boshqa shaharlarda, shuningdek, qishloqlarda juda ko‘p edi deya ta’kidladi".

Jumladan 1910 - yilda Buxoroda 350 ga yaqin an’anaviy maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Boshlang‘ich maktablarda o‘quvchilar soni 10 nafarda 50 - 60 nafargacha bo‘lgan. Maktabda o‘qishga qabul qilish yoshi 5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etgan.

Sadriddin Ayniy o‘zi yashagan uch yuz xonadonlik qishlog‘ida to‘rt yoshidan o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar maktabning shogirdlari hisoblanganligi haqida ma’lumot beradi. XIX asrning o‘rtalarida Buxoro amirligidagi maktablarda o‘rtacha o‘qish muddati 7 yosh deb ko‘rsatilgan , fikrimizning dalili sifatida Abdurauf Fitrat ham maktablardagi o‘qish muddati yetti yildan o‘n yilgacha deb ko‘rsatgan.

An’anaviy ta’lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lgan madrasalar haqidagi ilk ma’lumotlar Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asrida berilib, Buxoro shahridagi Forjak nomidagi madrasaning 937 yildagi yong‘in paytida yonib ketgani aytib o‘tilgan. Madrasa so‘zi " dars beradigan joy", " bilimgoh" , " o‘qish joyi " degan ma’nolarni anglatgan. Sadriddin Ayniyning qayd etishicha madrasalarning islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo‘lib, ular ta’lim olgan ulamolarning diniy masalalaridagi so‘zlari Misr va Hijozda o‘qiganlarning so‘zlaridan ko‘ra mo‘tabbaroq hisoblangan. [1]

Xorijdan kelgan ayrim talabalar o‘qishni tamomlagach, yurtiga qaytmasdan shu yerda muddaris bo‘lib qolishi ham kuzatilgan. Jumladan Muhammad Sharif ibn

Madammad Nadiy Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida yashab, Buxoro madrasalaridan biriga tarix va adabiyot tarixidan dars bergan. O‘zi shoirlik ham qilgan. [2]

Buxoro XVIII asrning birinchi yarmi XIX asrda ham oldingi asrlardagi o‘z nufuzini saqlab qolgan. Ayniqsa Buxoro amiri Shohmurod (1785 - 1800 yy) va Amir Haydar (1800 - 1826 yy) hukmronligi davrida ilmga e’tibor kuchayib diniy bilimlar gullab yashnagan. Sadri Ziyoning ma’lumotiga ko‘ra Shohmurod Mir Arab Madrasasining bitta hujrasida kechayu - kunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug‘ullanadigan va xalq orasida " Amir Jannatmakon" laqabi bilan tanilgan.[3]

Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (Stipendiya) to‘lashni joriy etgan.[4]

Amir Haydar hukmronligining dastlabki yillarida maktab ta’limini isloh qilishga kirishdi. 1803 - 1804 yillarda o‘tkazgan islohotlariga ko‘ra, amirlikning to‘g‘li hududlarida yashovchi aholisi uchun davlat xazinasidan maktablar qurdirib u yerda dars berish uchun Buxoro shahridan muallimlar jo‘natilgan. Buxoro amiri Sayid Olimxon (1910 - 1920 yy) hokimiyat tepasiga kelgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirdi. Maktab va madrasalar faoliyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu ishga bosh vazir (qushbegi) va bosh qozi (qozikalon) ni mas’ul qilib qo‘ydi. Amir 1911 yil mart oyida " Ta’lim to‘g‘risida" farmon chiqardi.[5]

Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida o‘sha yilning aprel oyida shahardagi barcha maktablar muallimlari Registonga chaqirilib , Nasrullo qushbegi tomonidan ularning har biriga o‘n besh so‘mdan maosh berilgan. 1913 - yilda sentyabr oyining boshida Buxoro shahrida yangi tipdagi 3 bo‘limli: yozish va hisob xonasi, qo‘riqxonadan iborat maktab binosining qurilishi boshlanib, unga birinchi g‘ishtini qozikalon qo‘ygan.[6]

XX asr boshida madrasa ta’minotiga munosabat o‘zgara boshlagan. Madrasalarning ayrimlari ayollar tomonidan ham qurilgan. Masalan Buxoro qal’asidan tashqarida, Jo‘ybor mavzesining g‘arbida joylashgan madrasani 1790 - yilda Muhammadxon Elbarsxon qizi Oyshabibi qurdirgan. N. Xanikov madrasalar soni 180 - 200 ta, talabalar soni esa 15 - 16 ming nafar deb ko‘rsatilgan. Abdurauf Fitrat yozishicha " Madrasada ta’lim oluvchi mullabachalar 6 oy o‘qib, qolgan 6 oy mobaynida qishloqlarga borib imomlik qilib pul to‘plashgan. 1912 - yilning 9 oktabrida Chorjo‘yda Otajo‘xa (Otaulla Xujayev) ning yangi usul musulmon maktabi ochildi. 1912 - yilning boshlarida yosh buxoroliklarning faol a’zolaridan bo‘lgan Usmon Xo‘ja jadid maktablaridan birini qayta tashkil etadi.Usmon Xo‘ja tashkil etgan jadid maktablarida ta’lim - tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo‘lga qo‘yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo‘lish , bir kunda 4 - 5 soatdan ortiq dars o‘tmaslik , har bir darsdan so‘ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e’tiborni dunyoviy fanlarni o‘qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o‘quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam olishni joriy qilish 10 oylik tahsildan so‘ng bolalarga ta’til berish, o‘quvchilardan vaqti - vaqti bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug‘ va mumkin qadar shinam xonalarda o‘qitib, o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali qurollar: globus va xaritalardan qoidalariga e’tibor qaratilgan.

1912 - yilning oxirlarida Usmon Xo‘janing qarindoshi Latif Xo‘ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi.Shahar savdogarlari xomiyligida ishlagan ushbu maktab ikki sinfdan iborat bo‘lib, har bir sinfda uchta globus, kitoblar, o‘qish va yozish uchun partalar, o‘quvchilarga beriladigan daftarlar, o‘quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo‘lgan. Bitta sinfda boshlang‘ich ta’lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta’lim olganlar o‘qigan.[7]

Bu davrda Buxoro amirligida ta’lim tizimi hokimiyat nazaridan chetda bo‘lmay, o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni mamlakatning taraqqiyot darajasidan kelib chiqib bajarib turgan.

Xulosa qilib aytganda XIX asr oxiri va XX asrning dastlabki yillarida Buxoro amirligida ta’lim tizimi ikki bosqichda boshlang‘ich maktablar xalqning savodini chiqarish, arab imlosida o‘qish va yozishni, arifmetik hisobni o‘zlashtirishga qaratilgan maskan sifatida bu davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.Buxoro madrasalari ta’lim tuzumining eng yuqori bosqichi bo‘lib, ilm maskani sifatida nafaqat Turkiston mintaqasida balki barcha musulmon mamlakatlarida madaniyat o‘choqlari vazifasini o‘tab, ma’rifat markazi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan. –T.: " Hilol nashr" 2017.

2. Хади Заде Р. Источники к изучению таджикской литературы второй половины XIX в. - Сталинабад, 1956.- С. 124 - 127.

3. Джурабаев Д.Х.(истома мусулъманского образования в Бухарском хансве в конце XVIII - начиле XIX ни (но материали русских источников). // История. Таърих. - С. 210. (Бундан кейин: Джурабаев Д. Х. Система мусулманского образования в Бухарском ханстве в конце XVIII начале XIX вв)

4. Анке фон Кюгелъген. Легитимация среднеазиатской династин мангитов в произведениях их историков. - С. 331.

5. Buxoro (" Vaqt"gazetasidan olingan) // " Tarjimon" .(Bog‘chasaroy), № 12, 1911 yil 18 mart.

6.Imom Sobirjon Mustofiy. Buxoroda madrasa ta’sis etiluv munosabatila // " Vakt " (Orenburg), 1915 yil 24 dekabr , № 1948.

7. Бобожонова Ф. Х. Бухоро амирлигида таълим тизими. - XIX аср охири XX аср бошлари. Бухоро - 2014.

8.Abdusattor Jumanazar " Buxoro ta’lim tizimi tarixi " –Toshkent : Akademnashr, 2017.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING RIVOJLANISHI

Safarova Gulzoda Ismoilovna

BuxDPI, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim,

pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan ma’rifatparvarlik va ta’lim islohotlari harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi milliy ma’naviyatni saqlab qolgan holda zamonaviy ilm-fan va pedagogik yondashuvlarni joriy etish edi. Jadidlar an’anaviy diniy ta’lim tizimidan farqli o‘laroq, dunyoviy fanlar, tillar, tarix va tabiiy fanlarni o‘rgatishni targ‘ib qildilar. Ularning asosiy g‘oyalaridan biri yosh avlodni yangi davrga tayyorlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va milliy o‘zlikni mustahkamlash edi. Turkiston jadidchilari Rossiya imperiyasining siyosiy bosimi va diniy konservatizmga qarshi kurash olib bordilar. Ular milliy madaniyatni rivojlantirish, milliy o‘zlikni saqlash va mustaqillikka intilish yo‘lida faol harakat qildilar. Jadidlar matbuot, maktablar, teatr va boshqa madaniy muassasalarni tashkil etish orqali o‘z g‘oyalarini keng targ‘ib qildilar. Ularning faoliyati mahalliy aholi orasida ma’rifatparvarlik ruhini uyg‘otishga xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday yozadi: “Millat taraqqiyi uchun eng avval ilm va axborot lozimdur.”[207] Maskur fikr Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik qarashlarida axborot va bilimni jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida baholaganini ko‘rsatadi. Jadid mutafakkiri ilm bilan bir qatorda axborotning ham ahamiyatini alohida ta’kidlashi bilan bugungi mediasavodxonlik konsepsiyasining tarixiy ildizlarini belgilab bergan. Zero, axborotni anglash, uni tahlil qilish va ongli qabul qilish qobiliyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi. Shu jihatdan Mahmudxo’ja Behbudiy qarashlari zamonaviy axborot makonida shaxsni manipulyativ ta’sirlardan himoyalash, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi nazariy asos sifatida ahamiyat kasb etadi va medisavodxonlikning rivoji uchun tayanch tushunchalarni shakillantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik merosida ilgari surilgan g‘oyalar va tushunchalar zamonaviy mediasavodxonlik tushunchasining tarixiy va ma’naviy ildiziy asoslarini tashkil etadi. Uning axborot mas’uliyati va tanqidiy fikrlashga doir qarashlari bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik merosi o‘zbek mediasavodxonligi tarixining tamal toshidir. U xalqni faqat o‘qishga emas, balki "uqishga", ya’ni axborotni mohiyatini tushunishga o‘rgatgan. Behbudiyning axborot bilan ishlash borasidagi o‘gitlari bugungi raqamli dunyoda yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 198

2.Qosimov B. *Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.* – Toshkent: Sharq, 2004.-B. 96-99

3.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1999. — B.214

4. Behbudiy M. Padarkush va publitsistik maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1987. – B.62

[207] Behbudiy M. Padarkush va publitsistik maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1987. – B.62

JADIDLARNING IJTIMOIY ADOLAT, QONUNIYLIK ASOSIDA JAMIYATNI ISLOH QILISHDAGI G`OYALARI

Xudoyberdiyeva Dilnoza Farxodovna

Buxoro davlat pedogogika instituti

I bosqich magstranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi. Bu harakat nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo‘lib, jamiyatni adolat va qonuniylik tamoyillari asosida qayta qurishni maqsad qilgan edi. Jadidlar mustamlakachilik sharoitida qoloq bo`lib qolgan jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun, avvalo, inson ongini o‘zgartirish, huquqiy tafakkurni shakllantirish zarurligini ta’kidladilar. Ijtimoiy adolat va qonuniylik masalalari jadidlar merosida asosiy o‘rin egallaydi. Ular shariat va zamonaviy huquqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirgan holda, konstitutsiyaviy boshqaruv, parlament tizimi va xalq vakilligi g‘oyalarini ilgari surdilar. Harakat yetakchilari jamiyatdagi inqirozning asosiy sababini jaholat, huquqsizlik va ijtimoiy tengsizlikda ko‘rdilar. Ularning fikricha, ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun avvalo ta’lim tizimini isloh qilish, huquqiy ongni rivojlantirish lozim deb hisobladilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat taraqqiyotini qonun va ma’rifat bilan bog‘lagan buyuk shaxsdir. Behbudiy davlat boshqaruvi qonun asosida bo‘lishi, har bir fuqaro o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi kerakligini ta’kidlagan. Behbudiy o‘z qarashlarida ijtimoiy adolat-shaxs erkinligi va jamiyat manfaatlari uyg‘unligidir degan fikrni ilgari surgan. **Abdurauf Fitrat** esa siyosiy-huquqiy tafakkur masalasiga alohida e’tibor qaratib, konstitutsiyaviy monarxiya va parlament tizimini qo‘llab-quvvatladi. Uning fikricha, qonun ustuvorligi ta’minlanmagan jamiyatda taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Jadidlar ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy tenglik bilan emas, balki ma’naviy va huquqiy tenglik bilan ham bog‘ladilar. Ular uchun adolat — bu inson sha’ni va qadr-qimmatining e’tirof etilishi, teng imkoniyatlar yaratilishi va zulmning bartaraf etilishidir. **Abdulla Avloniy** o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida adolatni jamiyatning axloqiy tayanchi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, axloqiy poklik va qonuniylik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, **Munavvarqori Abdurashidxonov** ma’rifat orqali adolatli jamiyat barpo etish mumkinligini asoslab bergan. U yangi usul maktablari orqali zamonaviy tafakkurga ega, huquqini biladigan yoshlarni tarbiyalashni ko‘zlagan. Jadidlar jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi sifatida qonuniylikni ko‘rganlar. Ular davlat boshqaruvida xalq vakilligi, parlament, saylov tizimi va konstitutsiya zarurligini ilgari surganlar. Fitrat va Behbudiy asarlarida konstitutsiyaviy boshqaruv modeli haqida fikrlar mavjud bo‘lib, ular davlat hokimiyati cheklangan bo‘lishi, qonun ustuvorligi ta’minlanishi lozimligini ta’kidlashgan. Bu qarashlar hozirgi zamon huquqiy davlat konsepsiyasi bilan uyg‘unlashgan. Huquqiy madaniyat jadidlar konsepsiyasida qonunlarga ongli ravishda rioya qilish, adolat tamoyillarini

hurmat qilish va davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul maktablari orqali zamonaviy bilim va huquqiy tafakkurga ega avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Uning faoliyati huquqiy madaniyatni shakllantirishning amaliy namunasi bo‘ldi. Fitratning konstitutsiyaviy boshqaruv haqidagi qarashlari esa huquqiy davlat g‘oyasi bilan chambarchas bog`liqligini ko`rishimiz mumkin. Qonun ustuvorligi va hokimiyatni cheklash tamoyillari jadidlarning asosiy siyosiy-huquqiy talablaridan biri bo‘lgan.

Jadidlar nazarida huquqiy ong – bu shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini anglash darajasi. Ular fuqarolik mas’uliyatini ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ko‘rganlar. huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida ular matbuot, teatr va maktabdan samarali foydalanganlar. Behbudiyning dramaturgik asarlari, Avloniyning pedagogik faoliyati shular jumlasidandir. Bugungi kunda O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida jadidlar merosi muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Qonun ustuvorligi, inson huquqlarini ta’minlash, ta’lim orqali ongni yuksaltirish kabi tamoyillar jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning davomi hisoblanadi.Ularning qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy adolatni qaror toptirish kuch ishlatish orqali emas, balki ong va tafakkurni isloh qilish orqali amalga oshiriladi **Jadidlar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni** jamiyatni **adolatli, teng huquqli va qonunga bo‘ysunadigan** tarzda qurish vositasi deb bilganlar. Ta’lim va tarbiya orqali fuqarolarda **huquqiy hissiyot va mas’uliyatni** shakllantirish kerakligini ta’kidlaganlar. Ijtimoiy adolat nafaqat huquqiy tizimda, balki **ijtimoiy ong va madaniyatda** ham mustahkamlanadi deb hisoblaganlar

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ijtimoiy adolat masalalarini tizimli ravishda ko‘tarib chiqqan ilg‘or ma’rifatparvarlik oqimi sifatida namoyon bo‘ladi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida inson ongini isloh qilishni, huquq va majburiyatlar mohiyatini anglaydigan, qonunlarga hurmat bilan yondashadigan fuqaroni shakllantirishni ustuvor vazifa deb bilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida ijtimoiy adolatni ma’rifat, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas’uliyati bilan bog`laganlar. Ularning fikricha, adolat – bu shunchaki axloqiy mezon emas, balki davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy poydevoridir. Qonuniylik esa hokimiyatni cheklovchi, shaxs erkinligini kafolatlovchi mexanizm sifatida talqin etilgan. Jadidlar huquqiy ongni insonning o‘z huquq va majburiyatlarini anglash darajasi sifatida tushunganlar. Ular savodsizlikni huquqsizlikning asosiy sababi deb bilganlar. Behbudiy xalqning huquqiy bilimini oshirish orqali mustamlakachilikka qarshi kurashish mumkinligini ta’kidlagan. Fitrat esa siyosiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglashni huquqiy ongning tarkibiy qismi sifatida baholagan. Jadidlar uchun huquqiy ong — bu faqat nazariy bilim emas, balki amaliy fuqarolik pozitsiyasi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishdir. Jadidlar ijtimoiy adolatni ta’minlashni zo‘ravonlik yoki keskin inqilobiy yo‘l bilan emas, balki evolyutsion islohotlar, ta’lim tizimini yangilash va huquqiy madaniyatni oshirish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab berganlar. Ularning qarashlarida huquqiy ong – bu shaxsning o‘z huquqini bilishi va himoya qila olishi,

huquqiy madaniyat esa jamiyatning qonunlarga ongli ravishda rioya qilish darajasidir. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutq va asarlarida jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida **adolat va qonun ustuvorligi**ni belgilaydi. U tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining markazida ham inson qadri, qonuniylik va ochiq jamiyat tamoyillari turadi. Prezident o‘zining **“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”** asarida davlat boshqaruvi xalq manfaatlariga xizmat qilishi, har bir qaror qonun asosida qabul qilinishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha: “Qonun ustuvorligi — adolatli jamiyatning eng muhim sharti”, “Davlat organlari xalq uchun xizmat qilishi kerak.” “Inson qadri va sha’ni hamma narsadan ustun.” Jadidlarning ijtimoiy adolat va qonuniylikka asoslangan islohot g‘oyalari bugungi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘z ifodasini topmoqda. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan inson qadri, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari jadidlar merosining zamonaviy talqinidir. Demak, jadidchilik harakati tarixiy-ma’rifiy hodisa bo‘lish bilan birga, bugungi huquqiy davlat qurish jarayonining g‘oyaviy ildizlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan, jadidlar ilgari surgan g‘oyalar zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati konsepsiyasi bilan uyg‘unlashmoqda. Ularning merosi bugungi kunda ham qonun ustuvorligini mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va fuqarolik ongini yuksaltirish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etyapti. Ularning ma’rifat orqali ongni yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish,adolatli boshqaruvni qaror toptirish g‘oyalari zamonaviy huquqiy islohotlar bilan uyg‘unligini ko`rishimiz mumkin. Ular adolatli jamiyatni ma’rifat, qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy boshqaruv orqali barpo etish mumkinligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berganlar. Shu bois jadidchilik harakati milliy huquqiy tafakkur tarixida muhim bosqich bo‘lib, uning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush**.** – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Abdurauf Fitrat**.** Sayha**.** – Toshkent: Sharq, 1991.
4. Abdurauf Fitrat. Munozara**.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2003.
6. Aziz Kayumov. Jadidchilik harakati tarixi**.** – Toshkent: Sharq, 1998.
7. Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
8. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik g‘oyalari / Mas’ul muharrir: B. Qosimov. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
9. Bahriddin Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

10. Mukhitdinova F.A., Mukhiddinova D.S. The idea of building a legal society through education and upbringing in the socio-legal views of the Jadids // *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. – 2025.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIAYTINI SHAKLLANTIRISHDA JADIDLAR MEROSI

Murtozayev Shaxobiddin Badriddinovich

BuxDPI dotsenti

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Jamiyatning ma’naviy yuksalishi yosh avlodning ma’rifiy salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan tarixiy meros, xususan jadidchilik harakati vakillarining qarashlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati millatni uyg‘otish, ta’limni modernizatsiya qilish va yoshlarni ma’naviy yetuk etib tarbiyalashni maqsad qilgan edi. Uning yetakchi namoyandalari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar millat ravnaqini yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘laganlar.

Jadidlar ma’rifiy konsepsiyasining mohiyati:

Jadidlar “usuli jadid” maktablari orqali ta’lim tizimini isloh qilishni maqsad qilganlar. Ular yoshlarni ilm-fan asosida tarbiyalash, milliy ongni uyg‘otish va axloqiy poklikni mustahkamlashni ustuvor vazifa deb bilganlar.Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiyani millat taraqqiyotining asosi sifatida talqin etadi. Behbudiy esa millatning najoti ma’rifatda ekanini ta’kidlaydi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy siyosat:

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadidlar faoliyatini o‘rganish zarurligini: «Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur» - deya ta’kidlagan edilar. Jahon madaniy merosi taraqqiyoti tarixida jadid ma’rifatparvarligining ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy g‘oyalarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan o‘rganish yoshlar milliy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda, ularni axloqiy yuksaltirishda, turli xil yot g‘oyalardan saqlashda, ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘zLiDeP Siyosiy ta’lim markazi rahbari Nasimjon Alimov “jadid” tushunchasi haqida shunday fikr bildiradi: “Jadid degani

– yangi degani bo‘lsa, demak, Yangi O‘zbekiston yangilik va yaxshilik tarafdori bo‘lgan jadidlarning orzusi ham edi, desak yanglishmagan bo‘lamiz”. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek**,** “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[1]

Yurtimiz azaldan bebaho ma'naviy meros va qadriyatlarga boy mamlakat bo'lgan. Faqat biz bu merosni chuqur o'rganib hayotimizning har jabhasida foydalansak, bizga Vatanni sevish, milliy o'zlikni anglash, yurt kelajagiga daxldorlik xissi bilan yashashga o'rgatadi. Ma'rifatparvar bobolarimiz millatni uyg'otish va istiqlol yo'lida qancha jabru jafolar chekkani va taraqqiyotga faqat ilmu ma'rifat bilan erishish mumkinligini targ'ib etgan.

Jadid bobolarimizdan biri Abdullo Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi xaqidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molikdir:*“Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizniquvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq, zexnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi?degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir... xulosa shuki, tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yosaodat-yoo falokat masalasidir”,* degan so'zlari bugungi globallashu jarayonida naqadar axamiyatlidir.

Hozirgi kunda ektremizm, ommaviy madaniyat, kosmopolitizm ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi zararli illatlar yoshlarimiz o'rtasida keng avj olmoqda. Bu xatarlardan yoshlarimizni saqlash uchun barchamiz shug'ullanishimiz kerak, zarracha loqaydlikka yo'l qo'ymaslik zarur.

“Yoshlarning bo'sh vaqti dushmanning ish vaqti” degan naql bor. Biz farzandlarimizning bo'sh vaqtini qoldirmasligimiz, aksincha ularni foydali o'qish va kasb-hunarga targ'ib qilishimiz shart.

Davlatimiz rahbari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida bunday dedi: “Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogox bo'laylik! Farzandalarimizni ularning buzg'unchi ta'siridan asraylik! Kelajagimizni yovuz kuchlar qo'liga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q. Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga, albatta, qodirmiz”.

Ma’rifatparvar jadidlar juda og‘ir sharoitlarda, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramasdan millat ma’naviy yuksalishi uchun shart-sharoit va imkoniyat yaratishga harakat qildi. Tarixning bunday murakkab burilish pallasida millat ongini uyg‘otish va yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishni birinchi darajali vazifa, deb bildi. Ular xalq bolalari uchun maktablar ochar, o‘quv qo‘llanma, darslik, kitoblar, maqolalar yozar, dars ham berardi. Bu yo‘lda hatto, o‘z shaxsiy mablag‘larini ham ayamagan. Bunday saxovatpeshalik bizning hozirgi kunda hayotiy zarurat va ahamiyati beqiyosdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba’zan hatto mamlakatning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari

surilayotgani, jumladan, diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlikni oshirish lozim. izning barcha jadidlarimiz, ham birinchi, ham ikkinchi avlod (Yosh buxoroliklarorasidan bolsheviklar partiyasi saflariga kirgan ayrim vakillarni hisobga olmaganda), mustaxkam e’tiqodli musulmon bo‘lgan holda, ularning tarixiy davri dunyoqarash muhitini belgilab bergan islom ma’naviy qolipi doirasida umrguzaronlik va ijod qildilar. Islom dini esa ularga nafaqat turmush tarzi, balki tafakkur tarzini ham amr etgan mazkur holatda har qanday vaziyatdan, shu jumladan, jamiyatning yuqorida qayd qilingan tarixiy inqirozidan chikish yo‘llarini izlashda ham ma’naviy yo‘riqnoma sifatida xizmat qilgan.Abdurauf Fitrat hatto "Najot yo‘li" degan kitob ham yozgan, unda o‘z salaflari va zamondoshlarining barcha ijtimoiy muvaffaqiyatsizliklarini ularning islom asoslarini yetarlicha bilmasliklarida ko‘rgan. Vaholanki, o‘sha davr musulmon Sharkining, qolversa hozirgi davrda ham, tarixiy tanazzulining asosiy ma’naviy sababi islom dini muqaddas manbalari ko‘rsatmalarining dogmatik talqinida edi."Jadid" tushunchasi etimologik jihatdan arabchadan kelib chiqqan va u "yangi" ma’nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ta’lim faoliyatiga nisbatan o‘qitishning yangicha usuli sifatida tatbiq etildi. Ammo bora-bora Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati kengaya borishi jarayonida "jadid" yoki "jadidchilik" tushunchasi anchayin keng ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy mohiyat kasb eta bordi. Shunday keng ma’noda jadidchilik ijtimoiy fikrdagi ma’rifatparvarlik oqimini hamda Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy sistema islohotlari tarafdorlari g‘oyalarini anglatdi, biroq siyosiy partiyaga aylanmadi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan "jadidchilik" tushunchasi insonlar ma’naviy hayotining barcha shakllarini o‘zgartirish usuli sifatida qo‘llanildi.

Jadidlar yangi usul maktablari ochib, bolalarga butunlay yangicha usulda ta’lim berganlar. Yangi usul maktablari ochilgach, ularning oldida maktablar uchun darsliklar yozish muammosi turardi. Tarix va geografiya fanlarining jamiyat hayotidagi ahamiyatini yaxshi tushungan jadidlar ushbu fanlar darsliklarini yaratishga katta e’tibor qaratganlar. Turkistondagi jadidlarning yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktabini o‘z uyiga ko‘chirib keltirgach, 1904-1909-yillarda o‘zbek va tojik tillarida shu maktab bolalari uchun “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”,1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”,1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”,1906), “Amaliyoti islom”(1908), “Kitobat ul-atfol”(“Bolalar xati”1908), “Tarixi slom”(1909), “Muxtasar jug‘rofiyai Rusiya”(“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”) darsliklarini yozgan. Jadidlarning yangi usul maktablari uchun yozgan darsliklari o‘sha davr uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Chunki darsliklarda jadidlarning o‘zlari yashagan davr ilmfani bilan qadriyatlar uyg‘unligiga, darslikda ma’lumotlarni taqdim qilishda o‘lka aholisining bilimi va saviyasini nazardan chetda qolmaganiga guvoh bo‘lamiz. Jadidlar orasida ayniqsa Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar alohida ajralib turganlar. Jadidlar ayniqsa, tarix va geografiyaga oid darsliklarni mukammal qo‘llanma bo‘lishiga katta ahamiyat

berganlar. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev jadid darsliklari haqida shunday fikr bildiradi: “Millatning asosiy qismi musulmon farzandi bo‘lgani uchun ham ilk islomiy bilimlarni berishga harakat qildilar. Bu yo‘lda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Muxtasar islom tarixi” (1913), Abdulla Avloniy “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (1913), Abdurauf Fitrat “Muxtasari tarixi islom” (1915) va boshqalarning boshlang‘ich maktablar uchun yozgan muxtasar islom tarixlari arzirli qadam bo‘ldi”. Ular xalq ongiga ma’rifat orqali o‘lka aholisini bilimini oshirishga e’tibor berganlar. Bu borada Behbudiyning quyidagi fikrlari hozirgi globallashuv zamonida ham dolzarbdir: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”. Jadidlar ta’lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda «usul ul-jadid» yoki «yangi usul»ni tatbiq qilish va rivojlantirgan. Bu yo‘lda ular imkoniyatida mavjud jamiki resurslar - iste’dodlari, shaxsiy mablag‘lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma’rifat uylari va hokazodan to‘liq foydalandilar, hatto aziz umrlarini ham fido qilishdi. Avval chor hukumati, keyin sho‘rolar davlati, ichki qora kuchlar – mutaasib, dinni noto‘g‘ri talqin qilgan johil ulamolar tomonidan ko‘rsatilgan zulm-zo‘ravonliklar, tazyiqlar, quvg‘inlar, suiqasdlarga qaramay, jadidlar o‘zlari tanlagan yo‘ldan qaytmadilar.

Xulosa: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar merosi Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning muhim nazariy va amaliy manbai hisoblanadi. Ularning pedagogik va ma’rifiy g‘oyalari zamonaviy ta’lim siyosati bilan uyg‘unlashib, yosh avlodni ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli va vatanparvar shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Shu bois jadidlar merosini tizimli o‘rganish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
4. Fitrat A. *Saylanma*. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022.
7. Jadidchilik harakati tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2023.

TASAVVUF FALSAFASIDA MA’NAVIYAT MASALASI: MARKAZIY OSIYODA XVI–XIX ASRLARDA MA’NAVIY HAYOT

Sattorova Dildora Shavkatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

2- bosqich magistranti

Bugungi kunda ma’naviyat masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Odamning ma’naviy dunyosi, ruhiy pokligi va axloqiy fazilatlari tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan tasavvuf falsafasida o‘zining mukammal shaklini topgan. Tasavvuf insonni ilohiy haqiqatga yetaklovchi ma’naviy yo‘l sifatida asrlar davomida Sharq ma’naviy hayotining markazida bo‘lib kelgan. Mazkur maqolada tasavvuf falsafasida ma’naviyat tushunchasining mazmuni va Markaziy Osiyoda XVI–XIX asrlardagi ma’naviy hayot tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Tasavvuf falsafasi va uning ma’naviy qadriyatlar shakllanishidagi o‘rni haqida ko‘plab manbalar mavjud. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband,Najmiddin Kubro kabi mutasavviflarning asarlari bu borada asosiy manbalardandir (Yassaviy, 2010; Naqshband, 2015). Zamonaviy tadqiqotlar ham (Hodjayev, 2018; Karimov, 2021) tasavvufning inson ma’naviy hayotidagi ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, tarixchi va faylasuflar tomonidan Markaziy Osiyoda XVI–XIX asrlarda yuz bergan ma’naviy jarayonlar, diniy maktablar, ziyoratgohlar va tariqatlarning faoliyati ham keng o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, manbashunoslik, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar o‘zaro solishtirilib, ma’naviy jarayonlarning davrlar kesimidagi o‘zgarishlari aniqlanadi. Shuningdek, tasavvufiy g‘oyalar orqali inson ma’naviyatining shakllanish mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tasavvuf falsafasida ma’naviyat tushunchasi insonning ichki olami, qalb pokligi va Haqqa yaqinlashish jarayoni sifatida talqin etiladi. Tasavvuf, islom dunyosining ma'naviy-merosiy boyligi sifatida, Markaziy Osiyo mintaqasida chuqur ildiz otgan va mintaqaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasining rivojlanishida muhim davr bo'lib, bu davrda ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari shakllangan. Ushbu maqolada tasavvuf falsafasidagi ma'naviyat tushunchasi va uning Markaziy Osiyoda XVI-XIX asrlardagi namoyon bo'lishi tahliliy metodlar asosida o'rganiladi.

Tasavvuf falsafasida ma'naviyat insonning ma'rifat sari yo'lidagi izlanishlarining markazida turadi. Ma'naviyat tushunchasi tasavvufta "tazkiya an-nafs" (nafsni poklash) va "tasfiya al-qalb" (qalbni tozalash) orqali izohlanadi. Bu jarayon insonning o'ziga, olamga va Xudoga bo'lgan munosabatini takomillashtirishga qaratilgan. Ma'rifatga erishish - bu haqiqatni idrok etish va o'ziga xos ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. XVI asrda Markaziy Osiyo tasavvufiy

hayotida Naqshbandiya tariqatining ta'siri kuchaydi. Xoja Ahror Valiyning izdoshllari tomonidan yoyilgan bu tariqat "xilvat dar anjuman" (jamoat ichida yakkalik) tamoyiliga asoslangan edi. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlar nafaqat siyosiy, balki ma'naviy markazlar sifatida ham shakllandi. Mazkur davrda tasavvuf amaliyotlari jamiyatning turli qatlamlariga kirib bordi va ma'naviy tarbiya usullari an'analashtirildi.

XVII asrda Markaziy Osiyo tasavvuf an'analari yanada mustahkamlandi. Xususan, Buxoro xonligida joylashgan tasavvufiy markazlar mintaqaning ma'naviy poydevoriga aylandi. Mavlono Lo'ziy, Hofiz Kunga kabi so'fiylar tomonidan tasavvufiy adabiyotning rivojlanishi kuzatildi. Bu davrda ma'naviy tarbiya usullari sifatida "suhbat" (ma'naviy suhbat), "zikr" (Xudoni eslash) va "raxbat" (ma'naviy sayr) kabi amaliyotlar o'rnashdi. XVIII asr Markaziy Osiyo tasavvufi uchun inqiroz va yangilanish davri bo'ldi. Mintaqadagi siyosiy beqarorlik va iqtisodiy tanazzul ma'naviy hayotga ham ta'sir ko'rsatdi. Biroq, bu davrda ham tasavvufiy an'analar saqlanib qoldi va ba'zi hollarda yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ma'naviy amaliyotlarning soddalashtirilishi va keng jamoatchilikka kirib borishi kuzatildi. XIX asrda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi bilan mintaqaviy tasavvuf an'analari yangi sinovlarga duch keldi. Bu davrda tasavvufiy tashkilotlar ko'pincha an'anaviy qadriyatlarni himoya qilish va mustamlakachilikka qarshilik ko'rsatish markazlariga aylandi. Ma'naviy tarbiya usullari o'z ahamiyatini yo'qotmadi, lekin ularning ijtimoiy va siyosiy jihatlari kuchaydi.

Markaziy Osiyo tasavvufida ma'naviy tarbiyaning bir qator o'ziga xos usullari mavjud edi:

- Murshid-murid munosabati (shogirdlik zanjiri)
- Xotma va zikr marosimlari
- Khalvat (uzlat) va chilla amaliyotlari
- Tasavvufiy she'r va musiqa orqali ma'naviy ta'sir
- Ma'naviy sarguzasht va sayohatlar.

Bu falsafa insonni moddiy manfaatlardan yiroqlashtirib, ruhiy kamolot sari yo‘naltiradi.

Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” asarida ma’naviy poklanishning yo‘li sabr, tavba, ixlos va fano orqali amalga oshadi, deb ta’kidlanadi (Yassaviy, 2010). Naqshbandiya tariqati esa “dil ba yoru, dast ba kor” — ya’ni “dil Allohda, qo‘l mehnatda” tamoyilini ilgari surib, mehnat va taqvoni birlashtirgan (Naqshband, 2015). Markaziy Osiyoda XVI–XIX asrlarda ma’naviy hayot tasavvufiy tariqatlar, madrasalar, masjidlar va ziyoratgohlar atrofida shakllandi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Samarqand kabi markazlarda ilm-fan va ma’naviyat uyg‘unlashdi. Buxoro amirligida Naqshbandiya va Qodiriya tariqatlari keng tarqalgan bo‘lib, ular xalqni ezgulikka, halollikka, sabr-toqatga da’vat etgan. Qo‘qon xonligida esa tasavvuf shoirlari va olimlari – Mashrab, Nodira, Uvaysiy singari ijodkorlar inson ruhiyatiga chuqur kirib boruvchi asarlar yaratdilar. Ularning ijodi ma’naviy uyg‘onishning manbai sifatida e’tirof etiladi. XIX asr oxiriga kelib, tasavvuf ma’naviy hayotda o‘zining asosiy shakllarini saqlab qolgan bo‘lsa-da, mustamlakachilik davrining ta’siri natijasida diniy hayot cheklana boshladi. Biroq xalq orasida tasavvufiy

qadriyatlar, ma’naviy poklik, axloqiy komillik g‘oyalari yashab qoldi. Bu davrda tasavvuf milliy o‘zlikni saqlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasavvuf falsafasi Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotining eng muhim poydevorlaridan biridir. U insonni ruhiy kamolotga yetaklaydi, ma’naviyatni hayotning markaziga qo‘yadi. XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda tasavvuf ma’naviy madaniyatning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘lgan. XVI-XIX asrlar davomida Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasi murakkab tarixiy jarayonlardan o'tib, mintaqaning ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. Tasavvuf nafaqat diniy-amaliy tizim, balki madaniy, ijtimoiy va hatto siyosiy omil sifatida ham namoyon bo'ldi. Ma'naviyat masalasi butun bu davr mobaynida insonning ichki olami va uning ilohiy haqiqat bilan aloqasini tushunishga qaratilgan bo'lib, mintaqa aholisining ruhiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda shakllangan ma’naviy qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Demak, tasavvufni o‘rganish milliy ma’naviyatimizni yanada boyitadi va yosh avlodni ruhiy barkamollikka yo‘naltirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yassaviy A. (2010). “Hikmatlar”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Naqshband B. (2015). “Tariqat risolalari”. Buxoro: Buxoro davlat nashriyoti.
3. Hodjayev R. (2018). “Tasavvuf va ma’naviyat”. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Karimov I. (2021). “Sharq falsafasi va tasavvuf”. Samarqand: Registon nashriyoti.
5. Alisher Navoiy (1981). “Nasoyim ul-muhabbat”. Toshkent: Fan nashriyoti.

ERTA BOLALIK DAVRIDA NUTQ RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA INNOVATSION ILMIY-NAZARIY VA PEDAGOGIK KONSEPSIYALARNING AHAMIYATI

Berdiyeva Umida G‘oyibberdiyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti,

1-bosqich magistranti

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, erta bolalik davrida nutq rivojlanishi bolaning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy kamolotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Nutq – tafakkur mahsuli bo‘lish bilan birga, bilish jarayonlarining shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi hamda shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yetakchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish masalasi davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda o‘quv dasturlarida bolalarning nutqiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur hujjatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, tovush madaniyatini shakllantirish, bog‘lanishli nutqni takomillashtirish va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi doirasida nutq rivojlantirish ta’limiy sohasi alohida yo‘nalish sifatida ajratilib, unda yosh xususiyatlariga mos ravishda nutqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ushbu dasturda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, o‘yin faoliyati, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish orqali bolalarning mustaqil fikrlashi va erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, nutq rivojlanishi biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy muhit, pedagogik ta’sir va maqsadli ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Innovatsion pedagogik konsepsiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning kognitiv faolligini oshiradi, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi hamda ularning nutqiy faoliyatini rag‘batlantiradi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik tamoyillar maktabgacha ta’lim amaliyotida nutqni rivojlantirish samaradorligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada erta bolalik davrida nutq rivojlanishini ta’minlashda innovatsion ilmiy-nazariy va pedagogik konsepsiyalarning o‘rni davlat talablari va amaldagi o‘quv dasturlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqiy kompetensiyani shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini takomillashtirishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish hamda bolalarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan yangilanib, shaxsning mustaqil fikrlashi, erkin muloqotga kirisha olishi va axborotni tahlil qila bilishi kabi kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon uzluksiz ta’limning eng muhim bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi. Ayniqsa, 3–7 yosh oralig‘i bolaning nutq, tafakkur va ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanadigan senzitiv davr hisoblanadi. Shu bois aynan mazkur bosqichda nutqni ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadli ravishda rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy davlat siyosati doirasida maktabgacha ta’lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilib, bolalarda tayanch hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Davlat talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida nutq rivojlanishi nafaqat alohida ta’limiy yo‘nalish, balki boshqa barcha rivojlanish sohalari bilan integratsiyalashgan holda

qaraladi. Bunday integrativ yondashuv bolaning nutqiy faoliyatini atrof-muhitni idrok etish, mantiqiy tafakkur, estetik did va ijtimoiy xulq-atvor bilan uzviy bog‘liq holda shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, erta yoshda nutqni rivojlantirish jarayoni neyropsixologik va psixolingvistik mexanizmlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bola nutqi faol muloqot, emotsional qo‘llab-quvvatlash va boy til muhiti sharoitida jadal rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan nutqiy muhitning sifati, pedagogning kasbiy kompetentligi hamda innovatsion metodlardan foydalanish darajasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik amaliyotga interfaol o‘yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar yaratish, dialogik o‘qitish, AKT vositalaridan foydalanish kabi zamonaviy metodlar keng joriy etilmoqda. Bu metodlar bolalarning passiv tinglovchi emas, balki faol suhbatdosh sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Natijada nutqiy faollik ortadi, mustaqil fikr bildirish, savol berish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida har bir bolaning individual nutqiy rivojlanish sur’atini hisobga olish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, nutq rivojlanishida oilaning pedagogik madaniyati va ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki ham muhim o‘rin tutadi. Davlat dasturlarida ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini kuchaytirish, bolalar bilan uy sharoitida nutqiy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Bunday hamkorlik uzluksizlik va izchillik tamoyillarini ta’minlab, bolaning nutqiy taraqqiyotini barqarorlashtiradi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar keyingi bosqichlarda o‘qish-yozish jarayonini o‘zlashtirishda, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy moslashuvda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois erta bolalik davrida ilmiy asoslangan, innovatsion pedagogik yondashuvlarga tayangan holda nutqni rivojlantirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada davlat talablari va amaldagi o‘quv dasturlari kontekstida erta bolalik davrida nutq rivojlanishini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari yoritilib, innovatsion pedagogik konsepsiyalarning amaliy samaradorligi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga doir ilg‘or tajribalar va istiqbolli yo‘nalishlar asoslab beriladi. Erta bolalik davri nutq shakllanishi va rivojlanishining eng intensiv bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning fonetik, leksik va grammatik tizimlari izchil ravishda shakllanib boradi. Nutq rivojlanishi biologik yetilish jarayonlari bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va maqsadli pedagogik ta’sirga ham bevosita bog‘liqdir. Psixologik va psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola nutqi faol muloqot jarayonida, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish orqali rivojlanadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, nutq tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bolaning kognitiv faoliyatini faollashtiradi. Til birliklarini o‘zlashtirish jarayoni predmetli faoliyat, o‘yin, kuzatish va tajriba asosida samarali kechadi. Shu bois maktabgacha ta’lim jarayonida nutq rivojlantirish boshqa ta’limiy sohalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi zarur. Bu yondashuv bolalarda mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Hozirgi davrda maktabgacha ta’lim tizimida kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va kommunikativ yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv bolalarning tayyor bilimlarni egallashidan ko‘ra, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Nutqiy kompetensiya esa bolaning erkin fikr bildira olish, muloqot jarayonida faol ishtirok etish va o‘z fikrini mantiqiy ifodalash qobiliyatini anglatadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Nutq rivojlanish sur’ati bolalarda turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli pedagog differensial yondashuv asosida ishlashi zarur. Bu esa bolalarning nutqiy faolligini rag‘batlantirish, tortinchoq yoki sust muloqot qiluvchi bolalarni faol jarayonga jalb etish imkonini beradi. Umuman olganda, erta bolalik davrida nutq rivojlanishini ta’minlash zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni kompleks qo‘llashni talab etadi. Davlat talablari va o‘quv dasturlari asosida tizimli tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlash hamda har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol toptirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Vygotskiy Lev Semyonovich. Myshleniye i rech (Tafakkur va nutq). – Moskva: Pedagogika, 1934.
4. Leontyev Aleksey Nikolayevich. Psixika rivojlanishi muammolari. – Moskva: MGU nashriyoti, 1972.
5. Elkonin Daniil Borisovich. Bolaning psixik rivojlanishi. – Moskva: Pedagogika, 1989.
6. Piaget Jean. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 1923.
7. Bruner Jerome. Child’s Talk: Learning to Use Language. – New York: Norton, 1983.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Rajabov San’atjon Sunnatovich

BDPi, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Hamidov Begzod Toshpo‘lat o‘g‘li

BDPi, 2-bosqich talabasi

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan jadidchilik g‘oyasi yangicha tafakkur va islohotlarning yoritgichi edi. U nafaqat ta’lim yoki madaniy-ma’rifiy uyg‘onish, balki chuqur siyosiy va huquqiy yuksalishni ham o‘zida mujassam etgandi. Ko‘plab bosim, qarshilik va tazyiqlar sharoitida jadidlar o‘rnatilgan dogmatic tartib-qoidalarga dadil qarshilik ko‘rsatib, dunyoviylikni, konstitutsiyaviylikni, ayollar huquqlarini va xalqimizning o‘z taqdirini o‘zi belgilashdek milliy istiqlolini o‘z ichiga olgan keng qamrovli g‘oya va islohotlarni ilgari surdi.

Jadid islohotchilari faqat madaniy yoki pedagogik o‘zgarishlar bilan kifoyalanib qolmadi – ularda juda jiddiy siyosiy ambitsiyalar – mavjud tuzumni tubdan isloh qilish maqsadi ham bor edi. Mintaqada rus ta’sirining kuchayishidan xavotirga tushgan jadidlar o‘lkada monarxiya hokimiyatini cheklab, uni tubdan qayta qurishni va boshqaruvda ommaga kengroq o‘rin beradigan siyosiy manzarani tasavvur qildi.

Xususan, ular diniy idoralarning siyosiy ishlardagi vakolatlarini cheklashga intilib, boshqaruvni keng qamrovli sekulyarizatsiya qilish g‘oyasini ilgari surdi. Jumladan, Abdurauf Fitrat singari faol jadidlar diniy muassasalar konservatizm qal’asiga aylanib, modernizatsiyaga to‘sqinlik qilayotganini uqtirdi. Jadidlar fuqarolar erkinliklarini huquqiy mustahkamlash va suverenitetni ta’minlashga yo‘naltirilgan huquqiy asosni yaratishga qaratilgan konstitutsiyaviy g‘oyalarni ilgari surdi. Masalan, “Yosh buxoroliklar”ning 1917 yilgi islohot loyihasi nafaqat vakillik parlamenti, balki, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi, qonun oldida tenglik va qonuniy jarayonning kafolatlarini ham talab qildi.

Bunday konstitutsiyaviy-huquqiy g‘oya jadidlarning butun Turkistonda milliy uyg‘onish va o‘zini o‘zi boshqarish, taqdirini o‘zi hal etishga chorlovchi shiddatli targ‘ibotiga mos tushdi. Chor hukmdorlarining, keyin esa sho‘roviy zo‘ravonlikning shafqatsiz tahdidiga duch kelganiga qaramay, Behbudiy, Avloniy, Siddiqiy Ajziy, Ibrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Xamza kabi jadid ziyolilari o‘zbek milliy ongini, g‘ururini faol tarbiyalab yuksaltirishga urindi. Ularning targ‘ibot hamda tarbiyaviy ishlari bevosita vatanparvarlik, millatparvarlik va siyosiy mustaqillikka erishishga qaratildi.

1917 yilgi “Yosh buxoroliklar”ning jamiyat boshqaruvini isloh qilish dasturi – mazkur harakat tomonidan ilgari surilgan keng qamrovli islohotlar jadvali – jadidlar siyosiy-huquqiy qarash va intilishlarining cho‘qqisini ifodaladi. Fayzulla

Xo‘jayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqalar tomonidan tuzilgan mazkur dastur Buxoro amirligining mustabid apparatini butkul yo‘q qilishni dadillik bilan talab qildi.

Boshqaruv shaklida esa ular konstitutsiyaviy boshqaruvni ta’minlash uchun to‘liq mustaqil sud tizimi bilan bir qatorda qonun ijodkorligi vakolatiga ega bo‘lgan saylangan milliy qonun chiqaruvchi organ (Parlament) tashkil etishni taklif qildi. Taklif etilgan konstitutsiya jadidchilik mafkurasini aks ettirish barobarida so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi, jamoat yig‘ilishlari, uy-joy daxlsizligi va insoniy kamsitilmaslik singari muhim fuqarolik huquqlarini mustahkam kafolatlashga qaratildi. Shuningdek, ushbu tashabbus orqali bolalar huquqini himoya qilish hamda yosh va majburiy nikohlarni tugatishga chaqirdi.

Tarixiy manbalar jadidlarning Turkiston o‘lkasida qonun ustuvorligini o‘rnatish va fuqarolar huquqlarini institutsionalizatsiya qilish bilan jiddiy shug‘ullanganini ko‘rsatadi. Xususan, Munavvar Qori kabi oydinlar har jabhada chinakam adolat, mustahkam huquqiy institutlar va qonun oldida tenglikni qat’iy talab qilishini ta’kidlagan. U ta’kidlaganidek, taraqqiyot uchun davlat fuqarolarning huquqiy tengligi va erkinligini ta’minlashi kerak.

Jadid ziyolilari qadimiy shariat ahkomlarini almashtirish uchun mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan, Ovrupa tajribasi asosida takomillashtirilgan huquqiy tizimlarni tatbiq etishni targ‘ib qildi. Huquqiy modernizatsiyaga bo‘lgan bu ishtiyoq jadid konstitutsiyaviyligi bilan uyg‘unlashdi – ular mustaqil sudlarni tizimli ijro va sud amaliyoti orqali yangi mustahkamlangan fuqarolar erkinliklarini himoya qilishni nazarda tutdi.

Ayrim jadidlar huquqiy yordam ko‘rsatish uchun ixtiyoriy uyushmalar ham tuzdi. Masalan, M.Abdurashidxonov tomonidan “Xalq himoyachisi” byurosi tashkil etilgan bo‘lib, ular beg‘araz huquqiy maslahat berishni tashkil etdi. Bunday huquqiy faollik aholining huquqiy ongini oshirishning ajralmas qismi edi.

Xotin-qizlar tengligi va huquqlarini faol himoya qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va Munavvar qori kabi ko‘plab taniqli jadidlar ayollarning mavqeyi va huquqlarini oshirishning ochiq tarafdorlari bo‘lgan. Ular ko‘pxotinlilik, majburiy nikoh va nomus o‘ldirish kabi regressiv amaliyotlarni axloqsizlik sifatida keskin qoraladi. Buning o‘rniga jadidlar, jumladan, Fitrat “jamiyat o‘z ma’rifatini ayollarga munosabati bilan ko‘rsatadi”, deya qat’iy ta’kidlagan.

Shunga ko‘ra, ular ayollarning ta’lim olish, yosh turmushga chiqishni cheklash, saylov huquqi kabi siyosiy huquqlari ta’minlanishi zarurligini ilgari surib, ushbu g‘oyalarni himoya qildi. Ko‘pgina jadid yetakchilari gender tengligini insoniy, ma’naviy shart sifatida jasorat bilan himoya qildi, “Ayollar ozodligi” kabi risolalarni nashr etdi, birdamlikni targ‘ib qilish uchun “Ayollar uyg‘onishi” kabi jamiyatlar tuzdi. Vaqt o‘tishi bilan jadidlarning ijtimoiy-huquqiy targ‘iboti ayollarning imkoniyatlari va ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi qarashlarni

mazmunli o‘zgartirdi – keyingi dunyoviy huquqiy islohotlar uchun mafkuraviy asoslarni yaratdi[208].

Mahmudxo‘ja Behbudiy boshliq jadidlar ozchilik huquqlari va diniy erkinlik, diniy bag‘rikenglik va ozchilik huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik siyosiy qarashlarini ilgari surdi. Behbudiy “Xalqning buyukligi uning bag‘rikengligidadir” deya ta’kidlagan edi. Jadid bobomiz o‘zining ilg‘or tafakkurida milliy-diniy rang-baranglik va plyuralizmni keng qamrab oldi[209].

Diniy va etnik mansubligidan qat’i nazar, teng huquqlilik tarafdori bo‘lgan islohotchi jadidlar ozchilik guruhlariga nisbatan kamsitishni qat’iyan rad etdi. Ular yangi Turkiston siyosatini millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik ma’rifiy tamoyillari, madaniy kichik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro xayrixohlik tamoyillariga asoslangan holda tasavvur qildi[210].

Biz mustaqillik qo‘lga kiritilganidan so‘ng Markaziy Osiyo respublikalari tomonidan qabul qilingan ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli milliy davlat qurish yondashuvlari asosida jadidlarning ayni shunday bag‘rikenglikka yo‘naltirilgan xilma-xillik siyosatining kuchli aks sadolarini ko‘ramiz. Ozchiliklarning til huquqlari va diniy erkinliklarini ta’minlovchi asosiy siyosiy qarashlar va o‘zaklar aynan jadidlar huquqiy mafkurasining markaziy ustunlaridan edi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning ilg‘or siyosiy va huquqiy qarashlari Markaziy Osiyo xalqlari takomiliga samarali ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ma’rifatli, huquqqa asoslangan boshqaruvni qo‘msab o‘tkazgan ishtiyoqli targ‘iboti bugungi Yangi O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan tarixiy islohotlar g‘oyalariga ham turtki beradi. Zero, mustaqil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan zamonaviy davlat qurish loyihalari dunyoviy konstitutsiyaviylik, ijtimoiy davlat, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, jamoatchilik huquqiy ongini yuksaltirishga asoslangan yangi jadidchilik hissiyotlari bilan to‘lib-toshgan.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.
2. https://kun.uz/92600418# // Islambek Rustambekov, yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.
3. Xo’jayev.F “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”, Tosh; “Fan”1997, 63-bet

[208] Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.
[209] https://kun.uz/92600418# // Islambek Rustambekov, yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.
[210] Xo’jayev.F “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”, Tosh; “Fan”1997, 63-bet

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Shukullayeva Gulchiroy Ilhom qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti I-bosqich magistranti

Maktabgacha ta’lim davri bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida asosiy poydevor hisoblanadi. Shu davrda shakllanadigan qadriyatlar va tarbiyaviy odatlar butun hayot davomida bolaning shaxsiyati, ijtimoiy xatti-harakatlari va milliy ongiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori hamda Davlat ta’lim standartlari maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar, ona yurtga muhabbat va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashni pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish pedagogik jarayonni kompleks yondashuv orqali amalga oshirishni talab qiladi. Bu jarayonda nutq, muloqot, o‘yin va ijodiy faoliyat vositalari muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, davlat dasturlari bolalarga ona yurtni sevish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va ijtimoiy mas’uliyatni anglashni erta yoshdan o‘rgatishga e’tibor qaratadi.

Pedagoglar uchun asosiy vazifa — maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni vatanparvarlik ruhida tashkil etish, bolalarning milliy ongini va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik usullarni qo‘llashdir. Shu maqsadda didaktik o‘yinlar, ertaklar, qo‘shiq va tasviriy faoliyat orqali bolalar ona yurt haqida bilim oladi, milliy qadriyatlarni his qiladi va vatanparvarlik tuyg‘usini ongli ravishda shakllantiradi.

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning pedagogik yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, davlat talablari va ta’lim dasturlari asosida amaliyotda qo‘llashning samarali yo‘nalishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglar uchun bolalarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash va vatanparvarlik ruhini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu davrda bolalarning hissiy, axloqiy va estetik tajribalari mustahkamlanadi, ularning kelajakdagi jamiyatga moslashuvi va milliy qadriyatlarga hurmati poydevor sifatida yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari” va Davlat ta’lim standartlari bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni pedagogik jarayonning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ona yurtga muhabbatni nafaqat so‘z orqali, balki harakat va o‘yinda his qiladilar. Shu sababli pedagogik faoliyatda didaktik o‘yinlar, qo‘shiqlar, ertaklar va tasviriy ijodiy faoliyatlar orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning samarali mexanizmlari yaratiladi. Bunday faoliyat

bolalarda milliy qadriyatlarni qabul qilish, ota-ona va jamiyat bilan muloqot qilish, hamda ijtimoiy me’yorlarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy qadriyatlarni qabul qilishi va ona yurtga muhabbatni his qilishi ularning hissiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar vatanparvarlikni ko‘pincha tasviriy o‘yinlar, ertaklar va musiqiy faoliyat orqali o‘rganadi, bu esa pedagoglarga metodik yondashuvlarni boyitish imkonini beradi.

Davlat ta’lim dasturlari pedagoglarga nafaqat tarbiyaviy vazifalarni belgilashni, balki har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda vatanparvarlik ruhida tarbiya berish usullarini ishlab chiqishni ham tavsiya qiladi. Shu bilan birga, pedagogik jarayon interaktiv va ijodiy bo‘lishi kerak, chunki bolalar faoliyat orqali o‘rganadi, nutq va fikrlash qobiliyati rivojlanadi, hamda milliy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qiladi.

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning pedagogik yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, davlat talablari va ta’lim dasturlari asosida amaliyotda qo‘llashning samarali yo‘nalishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglar uchun bolalarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy yordam beradi Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik jarayonning murakkab va ko‘p qirrali vazifalarini o‘z ichiga oladi. Davlat ta’lim dasturlari bolalarning milliy qadriyatlar, ona yurtga hurmat va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishni maktabgacha ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan pedagoglar o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda didaktik, ijodiy va interaktiv yondashuvlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Didaktik o‘yinlar bolalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolalar ona yurt haqida bilib olishadi, milliy qadriyatlarni his qiladilar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradilar. Masalan, “Milliy bayramlar o‘yini” orqali bolalar bayramlar tarixi va urf-odatlarini o‘rganadi, “Ona yurt bilan tanishuv” o‘yinlari esa geografik va tarixiy bilimlarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, didaktik o‘yinlar bolalarning nutqiy, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiradi, pedagogik jarayonni interaktiv va qiziqarli qiladi.

Pedagogik amaliyotda bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun turli pedagogik metodlar va vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nutq va muloqot faoliyati orqali tarbiya: Bolalarga ona yurt, milliy qadriyatlar va tarixiy shaxslar haqida hikoyalar, ertaklar va qo‘shiqlar orqali ma’lumot berish, ularni savol-javob asosida muloqotga jalb qilish. Bu jarayon bolalarda so‘z boyligini oshiradi va milliy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlaydi.
2. Ijodiy faoliyat orqali tarbiya: Tasviriy san’at, rangli kartochkalar, model yasash va dramatik o‘yinlar bolalarning milliy obrazlarni anglashini va vatanga muhabbatni his qilishini ta’minlaydi. Shu tarzda bolalar milliy ramzlar, bayroqlar va tarixiy voqealarni o‘yin orqali o‘zlashtiradi.

3. Kooperativ va ijtimoiy faoliyat orqali tarbiya: Bolalar jamoaviy o‘yinlar, loyiha va topshiriqlar orqali hamkorlikni, murosaga kelishni va boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Masalan, “Milliy qo‘shiq tayyorlash” yoki “Jamoadagi bayram dasturi” o‘yinlari bolalarga birgalikda qaror qabul qilish va ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o‘rgatadi.

Davlat ta’lim dasturlari didaktik o‘yinlar va ijodiy faoliyat orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga doir aniq vazifalarni belgilaydi. Shu bilan birga, pedagoglar har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy yondashuvlarni moslashtirishi lozim. Masalan, ba’zi bolalar uchun dramatik va rol o‘yinlari samaraliroq bo‘lsa, boshqalari uchun vizual va tasviriy faoliyat orqali milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish qulayroqdir.

Shuni ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’limda vatanparvarlik tarbiyasi faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi. Bolalar o‘yin va amaliy faoliyat orqali ona yurtni sevish, milliy qadriyatlarni qadrlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘rganadi. Bu esa ularning shaxsiyati va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, pedagogik jarayonda didaktik o‘yinlar, ijodiy va kooperativ faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishini ta’minlashning samarali vositasi hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri metodik qo‘llanilishi va davlat ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirilganligi pedagoglarga bolalarda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayoni nafaqat ularning ijtimoiy, emotsional va nutqiy rivojlanishini, balki milliy ong va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Davlat ta’lim dasturlari bolalarning ona yurtga hurmat, milliy qadriyatlarni qadrlash va ijtimoiy mas’uliyatni erta yoshdan o‘rganishini ta’kidlaydi. Shu bois, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun interaktiv, ijodiy va didaktik usullarni uyg‘unlashtirish zarur.

Didaktik o‘yinlar bolalarning vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib, ularning nutqiy va hissiy tajribalarini boyitadi. Masalan, “Milliy bayramlar o‘yini” bolalarda tarixiy voqealar va urf-odatlarni tushunishga yordam beradi, “Tarixiy shaxslar bilan tanishuv” o‘yini esa bolalarga vatanni sevish va qadrlashning namunalari sifatida o‘rgatadi. Shu tarzda, o‘yinlar orqali bolalar milliy ramzlar, bayroqlar va madaniy qadriyatlarni faol o‘zlashtiradi.

Shu tariqa, pedagogik jarayonda didaktik o‘yinlar, ijodiy va kooperativ faoliyatlar bolalarning vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishini ta’minlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri metodik qo‘llanilishi va davlat ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirilganligi pedagoglarga bolalarda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda amaliy yordam beradi. Shu bilan birga, interaktiv va ijodiy faoliyat bolalarning ijtimoiy, hissiy, nutqiy va ijodiy rivojlanishini bir vaqtda qo‘llab-quvvatlaydi, pedagogik jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. Maktabgacha ta’lim davlat standarti. Tashkent, 2020.
2. Karimova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish metodikasi. Tashkent: Pedagogika, 2019.
3. Sobirov, A. Maktabgacha ta’limda didaktik o‘yinlar orqali vatanparvarlik ruhini rivojlantirish. Tashkent: Fan va Ta’lim, 2021.
4. Ismoilova, M. O‘rta guruh bolalarining ijtimoiy va nutqiy rivojlanishi. Pedagogik jurnali, №3, 2020, pp. 45–52.
5. UNESCO. Early Childhood Education: A Global Perspective. Paris, 2018.
6. Shamsiyeva, N. Maktabgacha ta’limda vatanparvarlik tarbiyasi va pedagogik usullar. Ilmiy-tekhnika jurnali, 2022, №4, pp. 12–19.
7. Rahmonov, T. Bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish. Tashkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti nashri, 2019.
8. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
9. Azizova, S. Maktabgacha ta’limda tarbiyaviy faoliyat va vatanparvarlik ruhini shakllantirish. Tashkent: Pedagogika va Psixologiya, 2020.
10. Qodirov, F. Bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikasi. Tashkent: Fan, 2021.

BUXORO JADIDLARIDA DINIY BAG’RIKENGLIK G’OYASI: TA’LIM ISLOHOTI ORQALI TOLERANTLIKNING SHAKLLANISHI

Nimatullayev Asilbek Zafarjon o’g’li

BDU, Tarix va yuridik fakulteti 5-1 Siyos-24 guruh talabasi

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo muloqot kuchayib borayotgan bir davrda diniy bag’rikenglik va tolerantlik masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, diniy ma’naviy merosni qayta tiklash va uni zamonaviy jamiyat talablari bilan uyg’unlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadidlar merosiga murojaat etish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida Buxoro amirligida ta’lim tizimi chuqur inqirozni boshdan kechirmoqda edi. An’anaviy madrasa ta’limi o’rta asrlar dasturi asosida qurilgan bo’lib, diniy va dunyoviy bilimlar o’rtasida keskin ziddiyat mavjud edi. Qadimchilar har qanday yangilikka qarshi chiqarkan, taraqqiyparvar jadid ziyolilari esa xalqni jaholatdan qutqarish yo’lini ta’lim islohotida ko’rdilar. Aynan shu ziddiyat Buxoro jadidchilik harakatining shakllanishida muhim omil bo’ldi. Mazkur mavzu ilmiy adabiyotlarda qisman o’rganilgan. Jamolova D. (2020) Turkiston va Buxoro jadidlarining an’anaviy va yangi ta’lim tizimlari haqidagi qarashlarini tahlil qilgan [1]. Saloxov A.Q. (2024) Buxoro jadidlari merosida tasavvuf va komil inson masalasini ko’rib chiqqan [2]. Mamirov A.N. (2023) esa jadid ma’rifatparvarligida tolerantlik masalasini umumiy tarzda yoritgan [3]. Biroq

mavjud tadqiqotlarda ta’lim islohoti tolerantlik paradigmasi sifatida — ya’ni diniy bag’rikenglikni shakllantiruvchi mexanizm sifatida — alohida va chuqur o’rganilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi Buxoro jadidlarining ta’lim islohoti faoliyatini diniy bag’rikenglik g’oyasining shakllanishi nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim va “Tarbiyai atfol” jamiyati tajribasi asosiy tahlil ob’ekti sifatida ko’rib chiqiladi. Maqolada jadidlarning diniy va dunyoviy bilimlarni uyg’unlashtirish g’oyasi nafaqat ta’lim islohotining mahsuli, balki tolerantlik paradigmasining amaliy ifodasidir, degan tezis ilgari suriladi. Jadidlar haqida so’z yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning jadidlar merosining bugungi ahamiyatini alohida ta'kidlab quyidagi so’zlarini keltirishimiz maqsadga muvofiqdir: *“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”*.

Asosiy qism: Darhaqiqat, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligida hukmronlik qilayotgan an’anaviy ta’lim tizimi chuqur inqirozni boshdan kechirayotgan edi. Madrasa va maktablarda o’qitish o’rta asrlarda shakllangan usullar asosida olib borilardi: yodlash va takrorlash asosiy o’qitish metodiga aylanib qolgandi. Dunyoviy fanlar — tabiatshunoslik, matematika, tarix, geografiya — dasturdan deyarli chiqarib tashlangan, faqat diniy matnlarni yodlash ustuvorlik qilardi. Bunday holat Buxoro jamiyatini umumjahon ilmiy taraqqiyotidan tobora uzoqlashtirmoqda edi [4]. Taraqqiyparvar jadid ziyolilari bu vaziyatni chuqur his etdilar. Ularning fikricha, diniy bilim bilan dunyoviy ilmni ajratib qo’yish nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy tanazzulga olib kelardi. Jadidlar uchun din va ilm bir-biriga zid emas, balki uyg’un edi. Qur’oni Karimning “Iqra!” — “O’qi!” degan birinchi oyati o’zi bu uyg’unlikning asosiy dalili sifatida talqin qilindi. Shuning uchun ham jadidlar ta’lim islohotini diniy majburiyat sifatida qabul qildilar [5]. 1908-yil oktyabrda Mirza Abduvohid Munzim Buxoroda o’z uyida ilk usuli jadid maktabini ochdi. Bu maktabda tojik tilida yangi usulda dars berildi. Mazkur maktab o’quvchilarining bir yildan so’ng topshirgan imtihonlari keksa ziyolilarda hayrat va umid uyg’otdi. Biroq maktab qadimchilarning qattiq qarshiligiga uchradi. Mulla Qamar, Mulla Xolmurod va boshqa qadimchi ulamolar qushbegidan maktabni yopishni talab qildi va maktab majburan yopildi [4]. Bu voqea jadidlar uchun muhim saboq bo’ldi: bitta maktab ochish yetarli emas, tizimli harakat kerak. Qadimchilarning asosiy e’tirozi shunda ediki, ular yangi usul ta’limini “bid’at” — ya’ni diniy innovatsiya sifatida baholashardi. Jadidlar esa bunga qarshi diniy argumentlar bilan javob qaytardilar: dinni tushunish uchun ilm kerak, ilm esa zamonaviy usulda berilishi lozim. Aynan mana shu munozara — din va ilm munosabati masalasidagi bahs — Buxorodagi tolerantlik paradigmasining intellektual zaminini tashkil qildi. 1909-yil dekabrda **Sadriddin Ayniy**, **Abduvohid Munzim**, **Ahmadjon Hamdiy**, **Hamidxo’ja Mehriy** va boshqalar **"Tarbiyai atfol"** (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyat Buxoro jadidchilik harakatining tashkiliy asosiga aylandi. Jamiyat faoliyatining mohiyati faqat yangi maktablar ochishdan iborat emas edi — u diniy va dunyoviy bilimlarni

uyg’unlashtirgan yangi avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan edi [4]. **“Tarbiyai atfol”** jamiyati o’z faoliyatida bir necha yo’nalishni bir vaqtda olib bordi. Birinchidan, ilmga tashna yoshlarga iqtisodiy va ma’naviy yordam ko’rsatib, ularni Rossiya hamda Turkiyada o’qitishga alohida e’tibor qaratdi. Ikkinchidan, Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda chiquvchi matbuot nashrlari bilan buxoroliklarni tanishtirishga harakat qildi. Uchinchidan, amaldorlar va ulamolarning zolimligi, yulg’ichligini xalqqa tushuntirib, bu ishlar shariatga zidligini dalillar bilan isbotlab bordi [4]. Bu yondashuv o’zida diniy va ijtimoiy tolerantlikning amaliy namunasini mujassam etardi. Abdurauf Fitrat (1886-1938) Buxoro jadidchiligining eng yirik nazariyotchilaridan biri sifatida din va ilm uyg’unligini chuqur falsafiy asoslab berdi. Uning **“Buxoroning islohga muhtoj ishlari”** (1911) asarida u an’anaviy ta’limning kamchiliklarini ochiq tanqid qildi. Fitrat fikricha, haqiqiy islom ta’limoti ilm va aqlni birlashtiradi. U o’zining “**Rahbari najot”** asarida: “Bizning naslning saodati uchun ilm, axloq va mehnat asos bo’lmog’i lozim” deb yozadi [5]. Bu fikr jadidlarfalsafasidagi tolerantlik g’oyasining — turli bilim sohalarini, turli millatlarning tajribasini qabul qilish va o’rganish tamoyilining — mohiyatini ifodalaydi.

Sadriddin Ayniy (1878-1954) ta’lim islohotini tolerantlik nuqtai nazaridan o’zining shaxsiy tajribasi orqali namoyon qildi. Ayniy madrasa ta’limida yetishib chiqqan, tasavvuf an’analarini yaxshi bilgan va shu bilan birga zamonaviy bilimga intilgan shaxs edi. Uning yondashuvi diniy merosni rad etish emas, balki uni zamonaviy ilm bilan boyitish edi. “Tarbiyai atfol” jamiyatida faol ishtirok etgan Ayniy yoshlarga diniy bag’rikenglik — ya’ni boshqa xalqlar tajribasidan o’rganish, dunyoviy fanlarni egallash — diniy burchdir degan g’oyani singdirdi Buxoro jadidlarining ta’lim islohotidagi tolerantlik g’oyasi uch asosiy tamoyilga qurilgan edi. Birinchi tamoyil — bilim universalligi: ilm faqat bitta dinga, bitta millatga, bitta davrga tegishli emas, u umumbashariy boylikdir. Ikkinchi tamoyil — diniy pluralizm: Alloh yaratgan olam xilma-xillikka asoslangan, shuning uchun turli millatlardan o’rganish diniy burch hisoblanadi. Uchinchi tamoyil — aql va e’tiqod uyg’unligi: diniy bilim aqliy tahlil bilan boyitilgandagina to’liq bo’ladi. Bu uch tamoyil birgalikda Buxoro jadidlarining tolerantlik paradigmasini tashkil qildi. Jadidlarning ta’lim islohotidagi bag’rikenglik g’oyasi faqat nazariy darajada qolmadi. 1912-yilda “Tarbiyai atfol” jamiyati **“Buxoroi sharif”** va **“Turon”** gazetalarini nashr qilishga muvaffaq bo’ldi. Bu gazetalar nafaqat Buxoroda, balki butun Turkiston o’lkasida katta e’tibor qozondi. Ularda maktab va madrasalar islohoti, yangi usul ta’limining afzalliklari, boshqa xalqlarning ilmiy yutuqlari haqida maqolalar chop etildi. Bu matbuot faoliyati o’z mohiyatiga ko’ra diniy bag’rikenglikning ommaviy targ’iboti edi — turli g’oyalar, turli xalqlarning tajribasi o’zbek va tojik o’quvchilariga yetkazildi [6].

Xulosa: Buxoro jadidlarining ta’lim islohoti faoliyati tahlili shuni ko’rsatadiki, ular uchun diniy bag’rikenglik — bu abstrakt g’oya emas, balki amaliy hayot tarzi edi. Abduvohid Munzimning ilk maktabidan “Tarbiyai atfol” jamiyatigacha, Fitratning nazariy asarlaridan Ayniyning pedagogik amaliyotigacha — barchasi yagona maqsadga xizmat qildi: din va ilmni, an’ana va zamonaviylikni, mahalliy va universal bilimni uyg’unlashtirish. Jadidlar tolerantligining o’ziga xos

jihati shundaki, u diniy asosga qurilgan edi. Ular bag’rikenglikni dinni rad etish sifatida emas, balki dinni to’g’ri tushunish sifatida talqin qildilar. Bu yondashuv bugungi O’zbekiston uchun ham muhim: diniy bag’rikenglik va dunyoviy davlatchilik bir-biriga zid emas, balki uyg’un bo’lishi mumkin — Buxoro jadidlari tajribasi buning tarixiy isbotidir.Ushbu tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ta’lim islohoti tolerantlikning eng samarali shakllantiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Yoshlarni turli bilim sohalari, turli madaniyatlar va turli fikrlar bilan tanishtirish — bu bag’rikenglikning amaliy maktabidir. Buxoro jadidlari bu haqiqatni XX asr boshlarida idrok etdilar va o’z hayotlari bilan isbotladilar. Ularning merosi bugungi ta’lim tizimi uchun ham ilhom manbai bo’lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Jamolova D. Turkiston va Buxoro jadidlarining an’anaviy va yangi ta’lim tizimi qarashlari. // Otan tarixy jurnali, №2. — 2020.

[2] Saloxov A.Q. Buxoro ma’rifatparvar jadidlari ilmiy merosida komil inson masalasining falsafiy tahlili. // Development of science, Vol.7. — 2024.

[3] Mamirov A.N. Jadid ma’rifatparvarligida tolerantlik masalalari. // Ta’limda raqamli texnologiyalar to’plami, 24-son. — 2023.

[4] Jamolova D. Buxoro jadidlari: islohot va tanazzul. // Tafakkur jurnali, 2-son. — 2016.

[5] Saloxov A. Buxoro ma’rifatparvar jadidlari taqdiri. // Oyina.uz. — 2022.

[6] Fitrat A. Rahbari najot. — Buxoro, 1915.

1890-1930-YILLARDA O‘ZBEK TA’LIMIDAGI JADIDCHILIK ISLOHOTLARI

Sharifova Shodiya

BuxDU tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida murakkab, ammo tarixiy jihatdan muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Mustamlakachilik sharoitida millat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lgan ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolgan edi. An’anaviy maktab va madrasalarda asosan diniy ta’lim berilishi, dunyoviy fanlarning yetarlicha o‘qitilmasligi jamiyat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri edi. Shu tarixiy ehtiyoj jadidchilik harakatining maydonga chiqishiga zamin yaratdi.

Jadidchilik harakati ta’limni isloh qilish orqali jamiyatni yangilash, milliy ongni uyg‘otish va taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qildi. Harakatning g‘oyaviy asoslari Ismoil G‘aspirali tomonidan ilgari surilgan “usuli savtiya” metodiga borib taqaladi. Turkistonda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy darsliklar yaratish hamda ta’lim mazmunini dunyoviy fanlar bilan boyitishda muhim rol o‘ynadilar. 1890–1930 yillar oralig‘ida amalga

oshirilgan ushbu islohotlar nafaqat ta’lim tizimini, balki butun jamiyat tafakkurini yangilashga xizmat qildi.

Turkistonda XVIII asr oxirida boshlangan jadidchilik harakati uzoq paytdan buyon davom etib kelayotgan madaniy masalalar borasidagi tortishuvlar va muzokaralarining yangi shaklda namoyon bo‘lishi edi. XVIII asr oxirida boshlangan va XX asr boshida Turkistonning har tarafiga yoyilgan ,ahamiyatga oid kurashlar, aslida XVIII asr oxiridan beri davom etib kelayotgan ta’lim tarbiya asoslari sohasidagi tortishuvlarning endi yangi davr fikrlari, shart-sharoitlar bilan boyiyotganini ko‘rsatar edi. Turkistonda yangilanish uchun kurash jarayoni ta’lim tarbiyani yangi usulda tashkil etish orzularidan boshlangan edi.[4]

Turkistondagi jadidchilik harakati XIX asr oxirida quruq madaniy harakatning o‘zi bo‘libgina qolmay , ayni choqda Turk-Islom huquqiy munosabatlarining yangitdan o‘rtaga qo‘yilishi va bu huquqiy munosabatlarning millatga o‘rgatilishi ma'nosini tashimoqda edi. Milliy va siyosiy hurriyat orzulari jadidchilik harakatining bir parchasi ekanligini ilk bora o‘rtaga qo‘ygan odam aslan Buxoro fuqarosi lekin Sibirda yashayotgan qozi Abdurashid Ibrohim (1853-1940) bo‘lgan edi. U Turkiya, Makka va Yevropa o‘lkalarida uzoq yillar yashadi va bu o‘lkalardagi fikrlarni va hayot tarzini o‘rganish tashabbusida bo‘lgandi.[1]

Jadidchilik harakatining eng muhim va samarali yo'nalishlaridan biri sifatida yangi usuldagi maktablarning usuli jadid maktablarining tashkil etilishi e'tirof etiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi ta'lim tizimi inqiroz holatiga kelib qolgan edi. An'anaviy maktab va madrasalarning zamonaviy fanlarga e'tibor bermasligi, o'quvchilarning amaliy hayotga tayyorlanmasligi, o'qitish uslublarining eskirganligi va natijada savodli, bilimli, yangicha fikrlovchi yosh avlodning yetishmasligi Turkiston ziyolilarini yangi, ilg'or ta'lim shakllarini izlashga undadi. Ana shu ehtiyoj asosida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi milliy uyg'onish vakillari tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilina boshlandi.[2]

Dastlabki usuli jadid maktabi 1884-yilda Qrimda, Ismoil G'aspirali tomonidan ochilgan bo'lsa-da, bu tajriba tez orada Turkiston hududida ham tarqala boshladi. 1901-yilda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ochilgan yangi usuldagi maktab Turkistondagi birinchi jadid maktabi sifatida tarixda muhim o'rin egalladi. Undan keyin Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Andijonda Muhammadjon Himmatzoda, Qo'qonda Saidahmad Siddiqiy kabi jadid ziyolilari o'z maktablarini tashkil etishdi. Bu maktablar an'anaviy diniy ta'lim tizimidan farqli ravishda zamonaviy pedagogik uslublar, fanga asoslangan darsliklar, sinf tizimi va bosqichli o'quv dasturlariga tayangan holda faoliyat yuritgan.[5]

"Usuli jadid" maktablarining asosiy maqsadi milliy ma'naviyati yuksak, vatan va millat istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish edi. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma'naviyati asoslarini o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita o'z ona tili va milliy adabiyot deb bildilar.

Aslini olib qaraganda Turkiston o'lkasidagi birinchi usuli jadid maktablarining faoliyati bevosita Ismoil Gaspirali shaxsi bilan bog'liq. Ismoilbek Gaspirali 1884-

yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli "Usuli savtiya", ya'ni "Yangi usul" nomi bilan shuhrat qozondi. Ismoilbek G'aspirali usuli jadid maktablari uchun darslik yaratadi, o'zining "Tarjimon" (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi. Gaspirali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndirdi. Bu maktabga "Muzaffariya" "nomi berildi. 1898-yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratdilar. Shu jumladan, Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" (1903), Munavvarqorining "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim" (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Is'hoqxon Ibrat 1886-yili eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktabni ochdi. 1907-yili esa ikkinchi marta qishloq bolalari uchun eski maktablardan butunlay farq qiluvchi bepul yangi usuli savtiya maktabi ochdi. Bu maktabda o'z farzandlari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonni ham 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida, yorug' derazali xonaga joylashgan bo'lib, u yangicha o'quv qurollari parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangandi. Ibrat ilg'or pedagoglar orasida birinchi bo'lib 1914-yili To'raqo'rg'onda rus maktabi ochdi va uni "Uchitel" nomi bilan atadi.[7]

Ilk davrda yani birinchi Turkistonda Rossiyasining podshosi mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. O'sha vaqtda mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik xolatlari tobora kuchaydi. Hayotiy, ilmiy va amaliyotga ega bo'lgan saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj ola boshladi.

Jadidchilik XIX asrning oxiri XX asr boshlarida musulmon dunyosidagi islohiy harakat sifatida paydo bo'ldi. Turkiston jadidlari avvalo diniy ta'limni zamonaviy fanlar bilan boyitishga intildilar. Boshlang'ich bosqichda ularning e'tibori yangi usulda ta'lim beruvchi maktablar ochish, gazeta va jurnallar orqali aholining dunyoqarashini kengaytirish, savodxonlikni oshirishga qaratilgan edi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda boshlangan keng ko'lamli repressiyalar jadid harakatining deyarli barcha siyosiy ko'rinishlarini yo'q qildi. Ko'plab tashkilotlar faoliyati to'xtatildi, yetakchilari hibsga olindi yoki otuvga hukm qilindi. Fitrat, Munavvar qori, Elbek, Abdulhamid Cho'lpon, Hamza kabi mashhur jadidlar "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilindi.[2]

Xulosa qilib aytganda, 1890–1930 yillarda jadidchilik harakati O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash va uni zamonaviy asosda rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Yangi usul maktablari, ilg'or o'qitish metodlari va milliy darsliklar xalq savodxonligini oshirish hamda milliy ongning shakllanishiga xizmat qildi. Siyosiy sabablarga ko'ra harakat faoliyati to'xtatilgan bo'lsa-da, jadidlarning ma'rifiy merosi bugungi zamonaviy ta'lim taraqqiyotining muhim asosi

hisoblanadi.Jadidlarning ta’limga oid g‘oyalari - milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar uyg‘unligini ta’minlash tamoyili - hozirgi ta’lim tizimini takomillashtirishda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Boymirza Hayit. Turkistonda jadidchilik va uni tugatilishi. Milliy ta’lim va madaniyat, 1981.

2. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari. 1998 yil 9-oktabr. -T.: Eldinur nashriyot uyi.

3. Dolimov U."Jadidchilik tamal toshi" Jahon adabiyoti, 2010-yil, 1-son.

4. Yuldoshev J. Ta’limimiz istiqboli yo‘lida. -T.: Sharq 1996. 4-5 bet.

5. Jadidchilik: Islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.- Toshkent: Universitet, 1999.–B-9.

6. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad. Xorazm jadid namoyondalari: hayoti ,faoliyati va adabiy merosi ". "Milleniumus print" nashriyoti Urganch – 2024. B-13.

7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. - Toshkent: Davlat milliy nashriyoti, 2005. B. 110. Айтмамбетов Д.А. Дореволюционные школы в Киргизии. Фрунзе: Илим, 1961. -С. 35.

8.Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик харакатининг вужудга келиши. //Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал-методологик муаммолар мавзуидаги илмий анжуман материаллари. -Т., 1995. -Б.38.

9.Худойкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX-нач. XX вв.). Автореф. дис...канд. ист. наук. -Т., 1995. С.28. Солижонова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение. /конец XIX-XX вв.: Автореф...дис. канд. ист. наук. -Т.: 1998. -С.38.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING UYG’UNLIGI: FALSAFIY-IJTIMOIY TAHLIL

Eshonqulov Akram G’ozibek o’g’li

BDU, Tarix va yuridik fakulteti,

Falsafa 5-1 fals 24 guruh talabasi

Milliy qadriyatlar va umuminsoniy ideallar o’rtasidagi munosabat masalasi har bir jamiyat rivojlanishining eng dolzarb masalalaridan biri bo’lib kelgan. Bu ikki tushuncha ba’zan bir-biriga zid sifatida talqin qilinsa-da, Turkiston jadidlari o’z ijodiy va amaliy faoliyatida ular o’rtasida nafis ko’prik qurishga muvaffaq bo’ldilar. Jadidlar uchun milliy o’zlikni asrash va dunyo sivilizatsiyasiga qo’shilish — bir-birini istisno qiluvchi emas, balki o’zaro to’ldiruvchi maqsadlar edi. XX asr

boshlarida Turkiston jamiyati ikki kuchli bosimda qolgan edi: bir tomondan, Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati milliy qadriyatlarni parchalashga xizmat qilardi; ikkinchi tomondan, an'anaviy jamiyat o'zining yopiq tuzilishida qolib, zamonaviy dunyo bilan muloqotdan qochardi. Jadidlar mana shu ikki ekstremning o'rtasida uchinchi yo'lni topdilar: milliy o'zlikni saqlab qolgan holda, umuminsoniy ilm va qadriyatlarni qabul qilish yo'lini. Mavzu ilmiy adabiyotlarda turli jihatlardan ko'rib chiqilgan. Sobirov U. va Rizayev N. (2024) Buxoro jadidlari falsafasining ayrim masalalarini tahlil qilgan [1]. Nazarov Q. (2024) jadidlar falsafasini zamonaviy nuqtai nazardan yoritgan [2]. Gulboyev H. (2023) jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida yoshlar tarbiyasi masalasini o'rgangan [3]. Biroq jadidlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish metodologiyasi — ya'ni ular qanday intellektual yo'l bilan bu sintezga erishganligi — hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi Turkiston jadidlarining ma'naviy merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezini falsafiy-ijtimoiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat asarlari asosiy manba sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada jadidlarning qadriyatlar sintezi — bu tasodifiy emas, balki ongli intellektual strategiya bo'lgan, degan tezis ilgari suriladi. Undan tashqari mazkur jihatlarni hisobga olgan holda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadidlar merosining bugungi ahamiyatiga to'xtalib shunday degan: *"Jadidlar — bu faqat tarix emas, bu bizning kelajagimiz uchun yo'l ko'rsatuvchi yulduzdir. Ular milliy qadriyatlarimizni asrab, dunyo bilan muloqotga kirishdilar."* Mazkur g'oya bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi esa alohida e'tiborga molikdir.[4]

Asosiy qism: Darhaqiqat, Jadidlarning milliy qadriyatlarga munosabati murakkab va ko'p qatlamli edi. Ular an'anaviy merosni butunlay rad etuvchi inqilobchilar ham, uni o'zgarmagan holda saqlovchi konservatorlar ham emasdilar. Jadidlar uchun milliy meros — bu o'lik muzey eksponati emas, balki yangisharoitlarda qayta talqin qilinishi lozim bo'lgan tirik g'oyalar xazinasi edi. Mahmudxo'ja Behbudiy bu yondashuvni "o'tmishni hurmat qilgan holda, kelajakka qadam qo'yish" deb ta'riflagan [5]. Behbudiy milliy qadriyatlarni uch darajada ko'rardi: birinchisi —islomiy meros, ya'ni diniy-axloqiy asoslar; ikkinchisi — turkiy madaniy an'analar, ya'ni til, adabiyot, tarix; uchinchisi — mahalliy urf-odatlar va hayot tarzi. U bu uch qatlamning birini qurbon qilmasdan, ularni zamonaviy bilim bilan boyitish mumkin va zarur deb hisoblardi. Uning "Padarkush" dramasi (1913) aynan shu g'oyaning badiiy ifodasi edi: unda ma'rifatsizlik milliy fojia sifatida tasvirlanadi, lekin yechim sifatida milliy o'zlikdan voz kechish emas, balki uni ilm bilan mustahkamlash ko'rsatiladi [5]. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalasini axloqiy kategoriyalar orqali hal qildi. U yaxshi xulqlar — tenglik, matonat, ilm, sabr, adolat, muhabbat — ni milliy emas, balki universal qadriyatlar sifatida taqdim etdi. Avloniy uchun bu qadriyatlar ham islom ta'limotida, ham G'arb falsafasida, ham sharq donishmandligida bir xil ifoda topgan. Shuning uchun boshqa xalqlardan o'rganish — milliy o'zlikka xiyonat emas, balki insoniyatning umumiy xazinasidan bahramand bo'lishdir [6]. Fitrat bu masalada eng keskin va izchil pozitsiyani egalladi. Uning "Hind sayyohining qissasi" (1911) asarida bir hind

sayyohi Buxoroning og’ir ahvolini ko’rib, mahalliy kishilarga Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ilmiy yutuqlaridan o’rganishni maslahat beradi. Fitrat bu obrazni teran ma’noda ishlatdi: sayyoh xorijlik, lekin u aytayotgan gaplar universal haqiqatlar. Milliy yoki xorijiy emas — haqiqiy yoki nohaqiqiy degan mezon muhimroqdir, degan g’oya Fitrat falsafasining o’zagini tashkil qiladi . Jadidlarning umuminsoniy qadriyatlarga yondashuvi ularning milliy merosgayondashuvining mantiqiy davomi edi. Ular umuminsoniy qadriyatlarni jadidlarning til-terminologiyasida “insonilik" yoki "bashariyat” deb atashardi. Bu tushunchaga ilm, adolat, tenglik, mehnatsevarlik, bag’rikenglik kirardi. Jadidlar bu qadriyatlarni G’arbdan “import” qilingan narsa sifatida emas, balki islomiy sivilizatsiyaning dastlabki davrlarida ham mavjud bo’lgan, lekin keyinchalik yo’qolgan boylik sifatida talqin qildilar. Bu yondashuv jadidlar uchun strategik ahamiyatga ega edi. Agar umuminsoniy qadriyatlarni “xorijiy” deb ta’riflasalar, qadimchilar ularni “bid’at” deb rad etishi oson bo’lardi. Lekin ularni islomiy merosning aslida mavjud bo’lgan qismi sifatida ko’rsatish orqali jadidlar o’z raqiblarining asosiy argumentini bartaraf etdilar. Behbudiyning “Biz turkistonliklarga ikki sinf kishilari lozimki’ iborasi ham aynan shu kontekstda —diniy va dunyoviy bilimli kishilar bir-birini to’ldirishi lozim degan g’oya doirasida — anglashilishi kerak [4].Jadidlarning qadriyatlar sintezi amaliyotda ta’lim tizimida o’zining yorqin ifodasini topdi. Yangi usul maktablarida islomiy ta’lim (Qur’on, axloq, tarix) bilan zamonaviy fanlar (matematika, geografiya, tabiatshunoslik, rus va turk tillari) birgalikda o’qitildi. Bu faqat dastur masalasi emas edi — bu milliy va umuminsoniy qadriyatlarning kundalik ta’lim amaliyotidagi uyg’unligi edi. Bola bir vaqtda namoz vaqtlarini ham, Yevropa xaritasini ham o’rgandi; Qur’on oyatlarini ham, hisob masalalarini ham yod oldi. Jadidlar matbuoti — “Taraqqiy”, “Oyna”, “Sadoi Turkiston”, “Buxoroi sharif” gazetalari — qadriyatlar sintezining ijtimoiy maydoniga aylandi. Bu gazetalarda bir sahifada islomiy bayramlar, ikkinchi sahifada Yevropa ilmiy yangiliklari, uchinchi sahifada mahalliy iqtisodiy muammolar yonma-yon turardi. Bu tasodif emas, balki ongli editorial siyosat edi: milliy, diniy va umuminsoniy — barchasi bir maydonda, bir vaqtda muhim degan xabarni o’quvchiga yetkazish. Jadidlarning qadriyatlar sintezining eng chuqur ifodasi ularning “millat” tushunchasida mujassamlashdi. Ular uchun millat — qon-qarindoshlik emas, balki til, din, madaniyat va maqsad birligi edi. Bu ta’rifda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o’zaro zid emas: millat qanchalik ilmli, adolatli va bag’rikeng bo’lsa, u shunchalik millat bo’ladi. Avloniyning “Millatimiz uchun buyuk dushman — jaholat” iborasi bu falsafaning qisqa ifodasidir [6].

Xulosa: Turkiston jadidlarining ma’naviy merosini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, ular milliy va umuminsoniy qadriyatlar o’rtasidagi ziddiyatni hal qilishning o’ziga xos intellektual metodologiyasini yaratdilar. Bu metodologiyaning mohiyati shundaki, universal qadriyatlar — ilm, adolat, tenglik, bag’rikenglik — milliy o’zlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida talqin qilindi. Boshqa xalqlardan o’rganish esa milliy o’zlikka xiyonat emas, balki uni boyitish sifatida baholandi. Jadidlarning bu yondashuvi bugungi O’zbekiston uchun ham dolzarb. “O’zbekiston — 2030” strategiyasida ko’zlangan maqsadlar — raqobatbardosh iqtisod, sifatli ta’lim, ochiq jamiyat — Behbudiy, Avloniy va Fitrat orzu qilgan jamiyat bilan

mohiyatan mos keladi. Jadidlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, modernizatsiya va milliy o’zlikni asrash bir-biriga zid emas, balki bir-birini zarur qiladigan jarayonlardir. Ushbu tadqiqot jadidlarning qadriyatlar sintezi faqat tarixiy hodisa emas, balki bugungi globallashuv davrida ham amaliy ahamiyatga ega metodologiya ekanini tasdiqlaydi. Milliy o’zlik va universal qadriyatlar — bular bir-birini boyitadigan, bir-birini to’ldiradigam manbalardirki, Turkiston jadidlari bu haqiqatni XX asr boshlarida hayot bilan isbotladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Sobirov U.B., Rizayev N.S. Buxoro jadidlari falsafasining ayrim masalalari. // Luchshie intellektualnie issledovaniya, 22(4). — 2024.

[2] Nazarov Q. Jadidlarfalsafasi. // Yangi O’zbekiston gazetasi, № 11 (1072). — 2024.

[3] Gulboyev H.Sh. Jadid ma’rifatparvarlari asarlarida yoshlar tarbiyasi masalasining yoritilishi. // Evrazinskiy jurnal sotsialnih nauk, 3(3). — 2023.

[4] Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”—Toshkent: O'zbekiston, 2017. // Elektron manzil/ https://president.uz/oz/lists/view/1203

[5] Behbudiy M.X. Padarkush. — Samarqand, 1913. // Qayta nashr: Toshkent: Ma’naviyat, 2001.

[6] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent, 1913. // Qayta nashr: Toshkent: O’qituvchi, 1992.

YOSHLAR MA’NAVIY SALOHIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Rajabov Alisher Shavkatovich

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Xudoynazarova L.A.

BuxDPI, 1-IGMA-25 guruh magistranti

Yoshlar ma’naviy salohiyati jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning istiqboli, uning ijtimoiy barqarorligi hamda madaniy taraqqiyoti ko‘p jihatdan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy darajasi, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, ijtimoiy davlat qurish jarayonida yoshlarning ma’naviy salohiyati jamiyatning ijtimoiy kapitali sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy salohiyat tushunchasi falsafa, sotsiologiya, pedagogika va siyosatshunoslik kabi fanlarda keng qo‘llaniladigan murakkab ijtimoiy kategoriya bo‘lib, u shaxsning axloqiy qadriyatlari, ma’naviy ehtiyojlari, dunyoqarashi va ijtimoiy mas’uliyat darajasini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar fikricha, ma’naviy

salohiyat insonning ichki imkoniyatlari va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligini ifodalovchi muhim omildir [8:221].

Ma’naviy salohiyat shaxsning o‘ziga, atrof-muhitga va jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. U nafaqat individual ong darajasida, balki ijtimoiy guruhlar, millatlar, hatto butun tsivilizatsiyalar rivojlanish dinamikasini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu tushuncha yuksak ma’naviyatga erishish inson hayotining muhim maqsadi ekanligi haqidagi g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, u insoniyatning axloqiy va gumanistik tamoyillar asosida taraqqiy etishi zarurligini ta’kidlaydi.

Ma’naviyat kategoriyasi Sharq falsafiy tafakkurida qadimdan muhim o‘rin egallagan. Xususan, Sharq mutafakkirlari inson kamolotini ma’naviy-axloqiy fazilatlar orqali tushuntirib berganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson kamolotining asosini ilm, axloq va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “fazilatli jamiyatning barqarorligi fuqarolarning ma’naviy yetukligiga bog‘liqdir” [1:67].

Yoshlar ma’naviy salohiyatini tadqiq etishda zamonaviy falsafiy yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. XX asrda ma’naviy qadriyatlar muammosi gumanistik falsafa doirasida keng o‘rganildi. Masalan, amerikalik olim A. Maslou inson ehtiyojlari iyerarxiyasi nazariyasida insonning eng yuqori ehtiyoji sifatida o‘zini anglash va ma’naviy kamolotni ko‘rsatadi [5:91].

Sotsiologik nuqtai nazardan yoshlar ma’naviy salohiyati jamiyatning ijtimoiy kapitali bilan chambarchas bog‘liqdir. Fransuz sotsiologi P. Bourdieu ijtimoiy kapitalni jamiyatdagi madaniy, ma’naviy va ijtimoiy resurslar yig‘indisi sifatida izohlaydi [6:248]. Yoshlarning ma’naviy salohiyati aynan shu ijtimoiy kapitalning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogika fanida ma’naviy salohiyat tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadi va natijasi sifatida qaraladi. Ta’lim tizimining vazifasi nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma’naviy dunyosini boyitish, unga umuminsoniy qadriyatlarni singdirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy salohiyatli avlod tayyorlash – bu mamlakat kelajagining mustahkam poydevorini yaratish demakdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar shaxsning ichki salohiyatini ochishga qaratilgan bo‘lib, unda faqat aql-zakovat emas, balki yurakning ma’naviy talabi ham qondirilishi lozim.

Siyosatshunoslikda esa bu tushuncha davlatning ichki va tashqi siyosatining ma’naviy asoslarini, rahbariyatning qadriyatlar darajasini, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasining mazmunini tushunish uchun muhimdir. Davlatning ma’naviy salohiyati uning xalqaro maydondagi obro‘si, madaniy va ma’naviy merosini saqlash qobiliyati bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, u fuqarolarning o‘z davlati va uning tarixiy taqdiri oldidagi mas’uliyat hissini anglash darajasini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy salohiyat tushunchasi turli fanlar kesishmasida inson va jamiyatning rivojlanish yo‘nalishini chuqur anglash, uning salbiy va ijobiy tendensiyalarini bashorat qilish imkonini beradi. U shaxs va jamiyat hayotining moddiy va ma’naviy tomonlarining uyg‘unligi, muvozanati zarurligini tag’min etadi, bu esa barqaror taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir.

Yoshlar ma’naviy salohiyati tushunchasi o‘zining mazmuniga ko‘ra bir necha tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Axloqiy qadriyatlar
- Dunyoqarash va mafkuraviy barqarorlik
- Madaniy va ma’naviy ehtiyojlar
- Ijtimoiy faollik
- Vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati

Mazkur komponentlar yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faoliyatini belgilab beradi. Shu sababli ijtimoiy davlat sharoitida yoshlarning ma’naviy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlar ma’naviy salohiyatining ijtimoiy mohiyatini tushuntirishda Sharq mutafakkirlari merosi ham muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Alisher Navoiy inson kamolotining asosini ma’naviy poklik, ilm va ezgulik g‘oyalari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo insonlarning ma’naviy kamoloti bilan belgilanadi [2:134].

O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida ham yoshlar ma’naviy salohiyati masalasi keng o‘rganilgan. Xususan, akademik M. Quronov yoshlar ma’naviyati jamiyat taraqqiyotining strategik resursi ekanligini ta’kidlaydi [3:54]. Shuningdek, R. Mavlonov yoshlar ma’naviy salohiyatini shakllantirishda ta’lim, madaniyat va ijtimoiy muhitning rolini alohida qayd etadi [4:72].

Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillar yanada murakkablashib bormoqda. Axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat va global kommunikatsiya jarayonlari yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlarni amerikalik olim S. Huntington madaniy identifikatsiya muammolari bilan izohlaydi [7:112].

Shu sababli ijtimoiy davlat sharoitida yoshlar ma’naviy salohiyatini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimini rivojlantirish;
- milliy qadriyatlar va tarixiy merosni yoshlar ongiga singdirish;
- yoshlarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Bunday yondashuv yoshlarning nafaqat shaxsiy kamolotini, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Umuman olganda, yoshlar ma’naviy salohiyati ijtimoiy davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik resurslardan biri hisoblanadi. Shu bois zamonaviy davlat siyosatida yoshlarning ma’naviy tarbiyasini kuchaytirish muhim ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. – 67-bet.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2001. – 134-bet.
3. Quronov M. Yoshlar ma’naviyati va tarbiya masalalari. – Toshkent, 2010. – 54-bet.

4. Mavlonov R. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 72-bet.
5. Maslow A. Motivation and Personality. – New York, 1954. – p.91.
6. Bourdieu P. The Forms of Capital. – New York, 1986. – p.248.
7. Huntington S. The Clash of Civilizations. – New York, 1996. – p.112.
8. Toffler A. The Third Wave. – New York, 1980. – p.221.

JADIDLARNING IJTIMOIY VA HUQUQIY DAVLAT QURISH BORASIDAGI QARASHLARI: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

Erkinov Ozodbek Aminovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

I kurs magistranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining tarkibiy qismi sifatida nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy-huquqiy mazmunga ham ega edi. Jadidlar jamiyatni modernizatsiya qilish, an’anaviy tuzumni isloh etish va zamonaviy davlatchilik asoslarini yaratish masalalarini kun tartibiga olib chiqdilar. Ularning qarashlari ijtimoiy davlat va huquqiy davlat konsepsiyalarining dastlabki milliy-nazariy talqinlari sifatida baholanishi mumkin.

Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov — o‘z asarlarida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifat, huquqiy ong va siyosiy madaniyatni ko‘rsatdilar. Ularning fikricha, mustamlaka sharoitida yashayotgan jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun avvalo tafakkurni yangilash, so‘ngra ijtimoiy institutlarni isloh qilish zarur edi.

Jadidlar davlatni ijtimoiy kelishuv mahsuli sifatida anglashga yaqinlashgan holda, uni xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi institut sifatida talqin etdilar. Bu yondashuv ularning qarashlarini Sharq an’analari bilan bir qatorda Yevropa konstitutsiyaviy g‘oyalari bilan ham bog‘laydi.[211]

Jadidlar ijtimoiy davlat terminini ishlatmagan bo‘lsalar-da, ularning qarashlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan davlatning quyidagi nazariy elementlari kuzatiladi:

1. Davlatning ijtimoiy mas’uliyati

Jadidlar nazarida davlatning asosiy vazifasi – jamiyat farovonligini ta’minlash. Behbudiy va Avloniy asarlarida xalq manfaatlari ustuvorligi, davlat boshqaruvida adolat va oshkoralik tamoyillari alohida ta’kidlanadi. Bu holat davlatning paternalistik emas, balki ijtimoiy mas’uliyatli modeliga yaqinligini ko‘rsatadi.

[211] Xolboyev H. XX asr boshlarida Turkistonda siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

2. Ta’lim – ijtimoiy modernizatsiya omili

Jadidlar ijtimoiy davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida zamonaviy ta’lim tizimini ko‘rdilar. Yangi usul maktablari orqali ular fuqarolik ongini, huquqiy tafakkurni va milliy o‘zlikni shakllantirishga intildilar. Bu yondashuv ijtimoiy davlatning inson kapitaliga tayanishi haqidagi zamonaviy nazariyalar bilan hamohangdir.

3. Gender va ijtimoiy tenglik masalasi

Jadidlar xotin-qizlarning ta’lim olishi va jamiyat hayotida faol ishtirokini qo‘llab-quvvatladilar. Fitrat va Avloniy asarlarida ayollarni ijtimoiy hayotdan chetlatish millat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilishi ilmiy asosda izohlanadi. Bu qarashlar ijtimoiy tenglik tamoyilining muhim ko‘rinishidir.[212]

Jadidlarning huquqiy davlat tamoyillari bo’yicha ham qator ishlarni amalga oshira olgan. Jumladan:

1. Qonun ustuvorligi prinsipi

Jadidlar jamiyatni shaxsiy hukmronlik yoki mutlaq monarxiya asosida emas, balki qonun asosida boshqarish zarurligini ilgari surdilar. Ularning asarlarida “adolatli nizom” va “qonuniy tartib” tushunchalari tez-tez uchraydi. Bu esa huquqiy davlatning asosiy belgisi — qonun ustuvorligi prinsipiga mos keladi.

2. Konstitutsiyaviylik va vakillik boshqaruvi

1917-yilda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlarini amaliyotga tatbiq etishga urinish edi. Muxtoriyat dasturida vakillik organi (Majlis) tashkil etish, hokimiyatni bo‘lish va davlat boshqaruvini qonun asosida yuritish ko‘zda tutilgan. Bu konstitutsiyaviy davlat modeliga yaqinlashish sifatida baholanadi.

3. Fuqarolik huquqlari va erkinliklari

Jadidlar matbuot erkinligi, fikr erkinligi va vijdon erkinligini jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rdilar. Ular gazeta va jurnallar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishga harakat qildilar. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

4. Sud-huquq islohotlari

Jadidlar sud tizimini adolat mezonlari asosida qayta qurish, poraxo‘rlik va suiiste’mollikni bartaraf etish tarafdori bo‘ldilar. Ular shariat normalarini zamonaviy huquqiy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ilgari surdilar. Bu esa huquqiy pluralizm elementlarini o‘zida mujassam etgan yondashuvdir.

Jadidlarning ijtimoiy va huquqiy davlat qurish haqidagi qarashlari milliy davlatchilik tafakkurining evolyutsion bosqichi sifatida baholanishi mumkin. Ularning konseptual yondashuvida quyidagi jihatlar ajralib turadi:

- davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishi;
- qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviylik;
- fuqarolik huquq va erkinliklarini ta’minlash;
- ta’lim va ma’rifat orqali ijtimoiy modernizatsiya.

[212] Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

Shu bois jadidlar merosi nafaqat tarixiy, balki nazariy-metodologik ahamiyatga ham ega. Ularning qarashlari zamonaviy demokratik va huquqiy davlat qurish jarayonida milliy g‘oyaviy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.[213]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati dastlab ma’rifiy islohot sifatida shakllangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u siyosiy mazmun kasb etdi. Ta’lim tizimini yangilash, matbuotni rivojlantirish va madaniy-ma’rifiy faoliyat orqali jadidlar jamiyatda yangicha fikrlash muhitini yaratishga erishdilar. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash va siyosiy faollikning shakllanishi uchun mustahkam zamin bo‘ldi. Jadidlarning milliy muxtoriyat va mustaqillik haqidagi qarashlari ularning siyosiy yetukligini namoyon etdi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi jadidlar g‘oyalarining amaliy ifodasi bo‘lib, xalqni o‘zini o‘zi boshqarishga tayyorlash yo‘lidagi muhim tajriba vazifasini bajardi. Garchi bu muxtoriyat uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, u milliy davlatchilik tarixida muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, jadidlarning huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv haqidagi qarashlari zamonaviy demokratik tamoyillarga mos keladi. Qonun ustuvorligi, adolatli sud tizimi, inson huquqlariga hurmat va xalq ishtirokiga asoslangan boshqaruv haqidagi g‘oyalar jadidlarning ilg‘or siyosiy tafakkurini aks ettiradi. Ular davlat va jamiyat munosabatlarini qonun asosida tartibga solish zarurligini chuqur anglagan ziyolilar edi. Sovet hokimiyati davrida jadidlarning faoliyati sun’iy ravishda to‘xtatilgan bo‘lsa-da, ularning siyosiy va ma’naviy merosi xalq xotirasida saqlanib qoldi. Bugungi mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida jadidlar ilgari surgan erkinlik, adolat, ma’rifat va milliy birlik g‘oyalari muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Аввалги мусулмонлардаги маданият. // “Ойна” журнали/ А.Облоқулов табдили. – Самарқанд вилоят “Зарафшон”газетаси, 1997, 15 июль.

2. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2016. – Б.87

3. Турдиев Ш. Жадидизм масаласига бағишланган мунозара / “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1998. 2- сон.- Б.74.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999.

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

6. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

7. Yusupov Sh. Jadidlar faoliyati va qatag‘onlar tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

8. Xolboyev H. XX asr boshlarida Turkistonda siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

9. Saidov A. Huquqiy davlat asoslari. – Toshkent: Adolat, 2005.

10. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2008.

11.Karimov S. Turkiston jadidlari va matbuot. – Toshkent: Fan, 2007.

[213] Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999

BUXOROLIK JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Jumayeva Feruza

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi

Buxoroi sharif qadim asrlardan beri ilm beshigi, ta'lim va tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Eng qadmgi davrlardan to hozirgi kunga qadar ilm-ma'rifat sohasida yetakchilar qatoridan tushgani yo'q. Bu zaminda ne-ne allomalar, olimlar va ma'rifatli kishilar yetishib chiqishgan. Bularga Imom al-Buxoroiy, Abu Ali ibn Sino, kabi qadim ajdodlarimiz, F.Xo'jayev, Fitrat, Qori Yo'ldosh Po'latov, S.Ayniy kabi jadid ma'rifatparvarlarini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

Jadidchilik harakatlari Turkiya, Qirim, Tatariston va Kavkazda boshlangan bo'lsa-da, u tez fursatda Turkiston, Buxoro va Xivada ham tarqaldi. Ammo bir narsani ta'kidlash kerakki, Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi boshqa jadidchilkilardan farqli jihati bor edi. F.Xo'jayev o'zining "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" nomli kitobida shunday deb yozadi- *" Buxoroda jadidchilik harakait boshqa yo'l bilan bordi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadigan soliq og'irliklarini yengil qilish, hamda soliq ishlarini umumiy tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab, tadrijiy sur'atda ko'p a'zolar, sho'balar va Buxoro xalqining xar xil tabaqalari orasidagi o'ziga xayrihoh omma bilan birga haqiqiy yashirin jamiyatga aylanib bordi".[1]* Bu fikrdan ko'rinib turibdiki Buxoroda jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga dehqonlar, mayda savdogarlar, kambag'al xalq to'laydigan soliqlar miqdori ko'pligi hamda soliq ishi betartibligi turtki bo'lgan. Keyinchalik esa bu harakatga ayrim hukumat mansabdorlari, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarris va talabalar ham qo'shilgan. Endilikda harakatning maqsadi kengayib maktab, madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari qo'shila bordi.

Jadidchilik harakatining shakillanishi Buxoro amiri Amir Abdulahadxon davriga to'g'ri keladi. Amir Abdulahadxon undan keyin Amir Olimxonlarning o'zi ham jamiyat rivoji yo'lida bir qancha islohotlarni amalga oshirganlar. Amir Olimxon 1910-yilning 29-dekabrida ilk farmonini imzoladi.[2] Unga ko'ra yer solig'ini o'ndan bir xissaga kamaytirish, harbiylar maoshini ko'tarish, forsax puli solig'ini tayinlash nazarda tutilgan edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ta'lim tarbiyaga e'tibor kuchaya boshladi, chunki Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin yuzaga kelgan buxoro jadidchilik oqimi vakillari ta'lim tizimidagi oqsashlarni, dogmatism bo'lib qotib qolgan eskicha o'qitishni yangilash va boyitishni oldilariga maqsad qildilar. Jadidlar eng dastlab ishni maorif sohasini isloh qilish, tubdan o'zgartirishdan boshladilar. Buxoroda BXSR tashkil qilinishidan oldin amirlik davrida Amir Olimxon tomonidan "Ta'lim to'g'risida"gi farmon imzolandi va bu farmonga ko'ra talablarga

turli hoshiyalarni o’qitilmasligi, tafsir va hadis rasmiy dars sifatida kiritilishi, maktablarga bir nozir tayinlash” haqida belgilab qo’yildi. Lekin bu ham jadidlarni qoniqtirmadi.

Buxorda amirlik tugatilib respublika tashkil qilinganidan keyin, jadidlar asosiy e’tiborini maorif, ta’lim soxasini ynagilashga qaratdilar. Respublikada eng avval 1920-yilda ta’lim-tarbiya tizimi o’zgartirish va yaxshilash maqsadida ta’lim, maorif nozirligi tashkil qilindi. Xalq maorifi nozirligi bosh noziri qilib Qori Yo’ldosh Po’latov tayinlandi. Qori Yo’ldosh Po’latov zamonaviy rusumdagi maktablar

ochish, odamlarni savodli qilish, qobiliyatli Yoshlarni Germaniya, Turkiya kabi davlatlarga o’qishga yuborish kabi dolzarb yumushlarda jonbozlik ko’rsatdi.

1920 yil 17-sentabrida nozirlik ixtiyoriga amirlik davridagi barcha mavjud bo’lgan kitoblar, darslik qurollar, o’quv-yozuv asboblarini topshirish, nozirlik ruxsatisiz bularni chetga chiqarish va chetdan kiritishni man qilish to’g’risida buyruq chiqarildi.[3]

Xalq maorif nozirligi vazifasiga quyidagilar kiritilgan edi:

- Muallimlar tayyorlaydigan madrasalar ochish
- Mirzolar kursini ochish
- Talaba o’quvchilarni moddiy ta’minlash
- Xibsda turgan maxbuslarga axloq tuzatish uchun qiroatxonalar ochish
- Tumanlarda ta’lim muassasalarini ochish
- Chekka tumanlarda ham Yoshlarni o’qishga jalb qilish

Buxoroda nozirlik tashkil qilinganidan bir yil o’tib Buxoro shaxrida dastlabki dorulmuallimin tashkil qilindi, ushbu o’quv maskanida darslar kunduzgi va sirtqi bo’limlarda olib borilib, ikki yil muddatda ta’lim berilardi. Xuddi shu yili xozirgi Turkmaniston hududiga kiruvchi Chorjo’y shaxrida qurilgan “Nikolay” gimnaziyasi o’rnida “Fayzulla Xo’jayev” nomidagi ikkinchi dorulmuallimin ochilib, faoliyat boshladi. Bular har ikkalovi ham Buxoro XSR uchun o’qituvchilar tayyorlab bera boshladi. Ta’limning sifatini yaxshilash, o’quvchilarni yanada bilimli, ma’naviyatli va bilim doirasini kengaytirish maqsadida Turkiston ASSR, RSFSR, Tatariston ASSR, Ozarbayjon va Turkiyadan 1921-yilda 2000ta, 1924-yilda esa 15000 dan ortiq rus, turk, tatar va o’zbek tilidagi adabiyotlar, darsliklar keltirilib o’quv muassasalariga tarqatildi.

Fitrat 1920-yilda ochilgan 160ta ibtidoiy maktab va 4 ta qizlar maktabi hamda o’quv kurslari ochilib, bolalar bilan to’lib ketgani, lekin biroz vaqt o’tganidan keyin odamlar farzandlarini bunday maktablarga bermay qo’yganliklari haqida shunday fikr bildiradi: “Inqilob to’lqinidan qo’rqib qolgan xalq hech bir narsa anglamasdan tomonlarga qizil bayroqlar osg’ani kabi o’z bolalarini maktablarga qo’ya berdi. Unlarning yangi maktablarga bola yog’dirishlari maorif tarafdori bo’lg’onliklari emas, o’zlarini yolg’ondan “jadid” ko’rsatmak va hukumatning aksilharakatga qarshi ochilg’an kurashidan qochmog’lik uchun edi. Inqilobning birinchi to’lqinli kunlari bo’lg’on birinchi davrisi o’tdi. Hukumatda, xalqda biroz tinchlandi. Har kim o’z ishig’a mashg’ul bo’lmog’i uchun musoada borlig’ini angladi. Mana undan keyin xalq sekin-asta bolalarini maktabdan chiqara boshladilar”.[4]

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki o’sha vaqtdagi kishilar hukumatning aksilinqilobiy harakatlaridan qutulib omon qolish maqsadida o’zlarini yolg’ondan

jadidlar tarafdori qilib ko’rsatib maktablarga bolalarini qo’yaverdilar. Lekin barisi biroz tinchib, to’lqin o’z kuchini yo’qotib, xalq ham, hukumat ham tinchlana boshlagandan keyin sekin asta maktablar va muassasalardan bolalar qaytarib olina boshlangan. Bunday holatda maorif nozirligi ming afsuslar bilan maktablarning bo’shab qolgan va moddiy kuchlar yetarli darajada bo’lmagani sababli ularning katta qismini yopishga va qisqartirishga qaror qiladi, ammo qolgan qismida ham o’quvchila soni kamayib, darslarga kelmay qo’yadilar. Noiloj ularni maktabga militsiya orqali olib kelishga kelishadilar. Ammo bu vaqtinchalik chora ekanligi ta’kidlanib, militsiya bilan bolalarni jalb qilish ta’limda hech qanday samara bermasligi aytildi. Shu tufayli o’qishni yana davom ettirish maqsadida Buxoro shaxridagi maktablarning birida “Otalar majlisi” chaqirildi. Ushbu majlisda ishtirok etayotgan otalardan uch kishi komissiya azosi qilib tayinlanib, bolalarni maktablarga jalb qilish uchun mutasaddi qilib belgilandilar, hamda maktabda bo’ladigan ma’naviy va moddiy nuqsonlar haqida maorif nozirligiga doimiy hisobot berib borishlari vakolati yuklandi. Endilikda bolalar komissiya tashabbusi bilan maktablarga militsiyasiz kela boshladilar. Bu tadbirdan keyin ko’zlangan maqsad amalga oshib boshlagandan keyin nozirlik butun respublika bo’ylab bunday nozirliklarni tashkil qilishga takliflar ishlab chiqdi.

Xulosa qilib aytganda Buxoro XSR da ta’lim-tarbiya va maorif sohasini shakllantirish, zamon bilan hamnafas bo’lish, zamonasining darajasida o’qitish, Yoshlarni chet davlatarda o’qitib malakali kadrlar bo’lib yetishishlarida 1920-1924-yillarda jadid ma’rifatparvarlarining o’rni beqiyosdir.

Jadidlar Yoshlarini o’qitish uchun, davlatni rivojlantirish maqsadida kerak bo’lsa o’zlarining shaxsiy sarmoyalarini ham ayamay sarfladilar. Bu ma’rifatparvarlarning asosiy vazifalari qilib quyidagilarni olishimiz mumkin: maktablar, o’quv kurslari, oliy o’quv yurtlari tashkil etish hamda yurtning istiqboli uchun kurashadigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat bo’ldi. Ular bu mashaqqatli yo’lda o’zlariga qarshi chiqqan minglab g’ovlar, to’siqlarga qaramay umrlarining oxirigacha xalq dardi bilan yashadilar va tinim bilmay kurashdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Xo’jayev.F “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”, Tosh; “Fan”1997, 63-bet

Rajabov.Q “So’nggi mang’it hukmdori” Buxoro mavjlari,2007 43-b

“Buxoro axbori”. 1920 yil 17 sentabr. 2-son.

Maorif ishlari (1-maorif qurultoyida Fitrat o’rtoqning ma’ruzasi)// “Uchqun” jurnali, 1923 yil 1 aprel. B-2

Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. [Main]: risola./ D.Quronov.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 80 b.

Jo’rayev. N O’zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. – T.: Sharq 2011 yil . 409 bet.

7. Arutyunova N.D. Tilning mantiqiy tahlili: Matnni shakllantirish va intermetn // M.: Nauka, 1989. - B.235.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MEDISAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA METODIKALARNI AMALYOTDA JORIY QILISH

Bozorova Rayhona Sohib qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biriga aylandi. Zamonaviy axborot makonida bolalar turli xil media vositalari — televizor, internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali katta hajmdagi ma'lumotlarga duch kelmoqdalar. Shu sababli ularni axborotni ongli ravishda qabul qilish, tushunish, tahlil qilish va xavfsiz foydalanishga o'rgatish maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat talablari va o'quv dasturlarida bolalarning intellektual, axloqiy, estetik hamda kommunikativ rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning axborot madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturlarida bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, muloqot ko'nikmalari hamda axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish asosiy kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa mediasavodxonlikni erta yoshdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh davri shaxsning asosiy ijtimoiy, kognitiv va nutqiy ko'nikmalari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda axborotni farqlash, real va virtual olamni ajratish, ko'rilgan yoki eshitilgan ma'lumotga nisbatan savol berish va fikr bildirish qobiliyatlari rivojlantirilsa, keyingi ta'lim bosqichlarida ularning o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi yanada samarali kechadi.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini oshirishga qaratilgan metodikalarni amaliyotga joriy etish masalalari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Unda davlat talablari va amaldagi o'quv dasturlariga tayangan holda mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, samarali usul va vositalari, interfaol metodlar hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida mediaresurslardan maqsadli va xavfsiz foydalanish, bolalarni zararli axborotlardan himoyalash hamda ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shu tariqa, maktabgacha ta'lim tizimida mediasavodxonlikni shakllantirish bo'yicha metodikalarni amaliyotga joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki barkamol, mustaqil va axborotga nisbatan mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Davlat talablari bolalarning kommunikativ

kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuvchanligi, bilish faolligi va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Shu ma’noda, media savodxonlik umumiy rivojlantiruvchi kompetensiyalar tarkibiy qismi sifatida qaralib, bolalarning axborot manbalarini farqlash, mazmunni tushunish, oddiy tahlil qilish hamda xavfsiz foydalanish madaniyatini egallashiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bolalarning media makon bilan o‘zaro aloqasi ko‘proq intuitiv va nazoratsiz xarakter kasb etayotganligi sababli, bu jarayonni pedagogik jihatdan boshqarish zarurati kuchaymoqda. Media savodxonlikni shakllantirish faqat texnik ko‘nikmalarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi; u bolalarda axborotning mazmuni va maqsadini anglash, tasvir va voqelik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, ijobiy va salbiy axborotni ajrata olish kabi elementar tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida media savodxonlikni integratsiya qilishning muhim jihati — uni alohida fan sifatida emas, balki mavjud ta’lim yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirishdir. Nutq rivojlantirish mashg‘ulotlarida media matnlarni muhokama qilish, tasviriy faoliyatda reklama yoki multfilm qahramonlari obrazlarini tahlil qilish, atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida axborot manbalarini solishtirish kabi integrativ yondashuvlar samarali natija beradi. Bu esa ta’limning yaxlitligi va uzluksizligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, pedagog kadrlarning media kompetentligini oshirish, metodik ta’minotni boyitish hamda didaktik vositalarni zamonaviy talablar asosida ishlab chiqish masalasi ham dolzarbdir. Media savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar davlat ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ishlab chiqilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda media savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini tizimli asosda ko‘rib chiqadi. Unda media ta’lim elementlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonga bosqichma-bosqich joriy etishning ilmiy-amaliy asoslari, metodik tamoyillari va kutilayotgan natijalari yoritiladi. Natijada, maktabgacha ta’lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirishning konseptual modeli va uni samarali tatbiq etish yo‘llari asoslab beriladi.

1. Media savodxonlikni shakllantirishning normativ-huquqiy va konseptual asoslari

Maktabgacha ta’lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat talablari hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida bolalarning har tomonlama rivojlanishi, jumladan, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional va bilish kompetensiyalarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda axborot bilan ishlash, nutqni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirish kabi vazifalar media savodxonlik elementlari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Davlat talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘zda tutiladi:

- axborotni tinglash va tushunish;
- tasviriy va og‘zaki ma’lumotlarni idrok etish;

- sodda tahlil va xulosa chiqarish;
- xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.

Media savodxonlik mazkur kompetensiyalarning tarkibiy qismi sifatida qaralib, u bolalarda axborot manbalarini ajratish, ko‘rilgan yoki eshitilgan ma’lumotni muhokama qilish, real va xayoliy obrazlarni farqlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Media savodxonlikni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish tamoyillari

Media savodxonlikni maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiya qilish quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

- Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili – media materiallar bolalarning psixofiziologik rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur.
- Integrativlik tamoyili – media savodxonlik alohida mashg‘ulot sifatida emas, balki nutq rivojlantirish, tasviriy faoliyat, atrof-muhit bilan tanishtirish va musiqiy tarbiya jarayonlariga uyg‘un holda kiritiladi.
- Faollik va interaktivlik tamoyili – bolalar media mazmunini passiv qabul qiluvchi emas, balki muhokama qiluvchi va baholovchi subyekt sifatida ishtirok etadi.
- Xavfsizlik tamoyili – raqamli muhitda o‘zini tutish qoidalari elementar darajada o‘rgatiladi.
- Mazkur tamoyillar asosida media savodxonlikni shakllantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

3. Metodik yondashuv va pedagogik mexanizmlar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida media savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- O‘yin texnologiyalari – rolli o‘yinlar orqali “muxbir”, “boshlovchi”, “tomoshabin” kabi rollarni ijro etish;
- Muammoli vaziyat yaratish – multfilm yoki qisqa video lavhani ko‘rib, uning mazmunini tahlil qilish;
- Savol-javob va muhokama metodi – “Bu qahramon nega shunday yo‘l tutdi?”, “Haqiqiy hayotda bu mumkinmi?” kabi savollar orqali tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish;
- Vizual taqqoslash usuli – real tasvir va animatsion obrazlarni solishtirish;

Media savodxonlikni samarali rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarga media vositalaridan oqilona foydalanish, bolalar uchun mos kontent tanlash hamda birgalikda muhokama qilish bo‘yicha tavsiyalar berilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat talablari. – Toshkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.
7. UNESCO. Global Media and Information Literacy Assessment Framework. – Paris: UNESCO, 2011.
8. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Ilmiy rahbar: O‘razov B.B.

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Ergashev Nurali –

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Virtual makon – bu nafaqat internet tarmog‘i, balki huquqiy subyektlarning o‘zaro aloqasi, bitimlar tuzishi va hatto nizolarini hal qilishlari mumkin bo‘lgan yagona huquqiy muhitga aylanmoqda. Raqamlashtirish jarayoni huquqiy normativlikning o‘zi hamda uning amal qilish mexanizmlariga yangicha talablar qo‘ymoqda. An’anaviy qog‘oz hujjat o‘rnini elektron raqamli imzo tasdiqlangan fayllar egallaydi, fizik ishtirok talab qiladigan sud jarayonlari videokonferens-aloqa orqali o‘tkazilmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat texnologik yangilik, balki “huquqiy mavjudot”ning o‘ziga xos virtual shaxsiyati paydo bo‘lishidir. Yapon olimi Yo. Masuda axborotlashgan jamiyatni “moddiy ne’matlar emas, balki axborot va bilim asosiy qiymat hisoblanadigan jamiyat” deb ta’riflagan[214]. Sotsiolog Manuel Kastels esa “tarmoqlashgan jamiyat” (Network Society) tushunchasini ilgari surib, ijtimoiy tuzilmaning raqamli texnologiyalar atrofida qayta qurilishini isbotlagan[215].

Axborotlashgan jamiyatning huquqiy tizimga ta’siri chuqur institutsional o‘zgarishlarni ham nazarda tutadi. Smart-shartnomalar, blokcheyn asosidagi reestralar va sun’iy intellekt yordamidagi huquqiy maslahatlar yangi huquqiy institutlar sifatida shakillanmoqda. Huquq ijro etish organlari kiberjinoyatchilik, ma’lumotlarni himoya qilish yoki intim hayotga aralashish kabi yangi turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash usullarini izlamoqda. Shunday qilib, huquqning

[214] Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Washington: World Future Society, 1981. – P. 29-31.
[215] Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2000. – P. 163-167.

virtual makonga ko‘chishi uni statik kodlar to‘plamidan dinamik, interfaol va doimiy ravishda o‘zgaruvchan tizimga aylantirmoqda.

Bu jarayon jiddiy huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Virtual makonning chegaralari va uning yurisdiktsiyasi aniq belgilanmaganligi sababli, milliy qonun hujjatlari ko‘pincha ushbu sohani tartibga solishda samarasiz bo‘lib qolmoqda. Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, intellektual mulk huquqlari va raqamlararo tenglik masalalari keskin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy javobgarlikni belgilashda texnologik platformalar egasi, dasturchi va oddiy foydalanuvchi o‘rtasidagi chegaralar xira.

Demak, “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi endi nafaqat ma’lumotning erkin oqimi, balki unda shakllanayotgan yangi huquqiy haqiqatni ham o‘z ichiga oladi. Huquqning virtual makonga ko‘chishi uning tabiatini o‘zgartirib, uni yanicha murakkab, texnologik bog‘liq va globallashgan qiladi. Kelajakda huquqiy tizimning samaradorligi ana shu virtual haqiqatni chigal va qonuniy asosda boshqara olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Axborotlashgan jamiyat huquqiy tartibga solishning quyidagi jihatlarini tubdan o‘zgartirdi:

- **Subyektlar tarkibining kengayishi:** Huquqiy munosabatlarda an’anaviy subyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) bilan birga “elektron shaxslar” tushunchasi paydo bo‘lmoqda.
- **Obyektlarning virtuallashuvi:** Endilikda huquqiy himoya obyekti sifatida nafaqat moddiy buyumlar, balki raqamli aktivlar, kripto-valyutalar va shaxsga doir ma’lumotlar birinchi o‘ringa chiqdi.
- **Yuridik faktlarning raqamli shakli:** Shartnomalar tuzish (Smart-contracts) va huquqiy harakatlarni tasdiqlash elektron raqamli imzo orqali amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunida (yangi tahriri kutilmoqda) va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida axborotlashgan jamiyat sari qadam qo‘yishning huquqiy kafolatlari belgilangan[216].

Axborotlashgan jamiyatda huquqiy munosabatlarning transformatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, “huquqiy makon” tushunchasi geografik chegaralardan chiqib, “kiber-makon” bilan uyg‘unlashib ketdi. Bu esa huquqiy madaniyatni yuksaltirishda faqat an’anaviy usullar bilan cheklanib bo‘lmasligini, balki raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish zarurligini isbotlaydi.

Aynan shu raqamli o‘ziga xoslikning tan olinishi huquqiy madaniyatni rivojlantirish strategiyasini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy huquqiy tizimlar asosan aniq joylashgan sub’yektlar va ularning harakatlari bilan ishlaydi. Kiber-makonda esa sub’yektlar anonim yoki yashirin bo‘lishi, ularning harakatlari bir necha soniya ichida bir qit’adan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishi mumkin. Shu sababli, huquqiy madaniyat endi nafaqat qonun matnlarini bilishni, balki raqamli platformalarda qanday qoldirilgan izlar huquqiy oqibatlarga olib kelishi, virtual aktivlarning huquqiy maqomi, elektron dalillarning ishonchliligi kabi yangi hodisalarni chuqur tushunishni talab qiladi.

[216] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. – Lex.uz.

Transchegaraviylik tamoyili kiber-makonda bevosita amal qiladi, chunki ma’lumotlar oqimi milliy qonunlar doirasidan osongina chiqib ketadi. Bu esa bir davlatning suveren huquqiy qarorlari boshqa davlatning raqamli sohasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Natijada, huquqiy madaniyatni shakllantirishda xalqaro hamkorlik, turli yurisdiksiyalar qonunlarini qiyosiy o‘rganish va global raqamli normalarni muhokama qilish qobiliyati ajralmas qismga aylanmoqda. Fuqarolarni faqat o‘z mamlakatining qonunlari emas, balki xalqaro raqamli huquqning asosiy printsip(lar)i ham qamrab olishi kerak.

Anonimlik muammosi huquqiy javobgarlikni ta’minlashda yangi qiyinchiliklar tug‘diradi. An’anaviy huquqiy madaniyatda shaxsning aniqligi uning huquq va majburiyatlarining asosidir. Raqamli dunyoda esa shaxsni identifikatsiya qilish qiyin, ba’zan imkonsiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, huquqiy madaniyat endi faqat huquqbuzarlik sodir bo‘lgandan keyin javobgarlikni belgilash emas, balki uni oldini olishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bu esa kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va etik normalarni rag‘batlantirish orqali oldindan tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

Tezkorlik omili esa huquqiy jarayonlarning an’anaviy sekinligi bilan keskin ziddiyat tug‘diradi. Kiber-makonda bitimlar bir necha soniyada, shikoyatlar bir zumda tarqaladi, huquqbuzarliklar bir necha daqiqada amalga oshiriladi. Huquqiy madaniyat endi bunday tezlikka moslashishga, jumladan, onlayn nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini, avtomatlashtirilgan huquqiy xizmatlarni va vaqt talab qiladigan ma’muriy tartiblarni soddalashtirishni o‘z ichiga olishi zarur. Bu an’anaviy huquqiy tafakkur va uning qadriyatlarini inkor etish emas, balki ularni yangi sharoitga mos ravishda qayta shakllantirishni anglatadi.

Shunday qilib, kiber-makon bilan uyg‘unlashgan huquqiy makonda madaniyatni yuksaltirish ikki qirrali vazifaga aylanadi: bir tomondan, raqamli muhitning mohiyatini anglash, ikkinchi tomondan, unda inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligi kabi abadiy huquqiy printsipalarni saqlab qolish. Bu yangi haqiqat huquqshunoslikni, ta’limni va huquqni amalga oshirish praktikasini o‘zgartiradi, ularni statiklikdan dinamiklikka, yopiqligidan ochiqligga, milliylikdan globallikka qarab siljitadi.

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI, MAQSADI, IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT

Tag’oyeva Dilnavoz Narziqulovna

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Rasulova Shahinabonu Ilhomqizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

O’zbekiston tarixini o’rganishdagi muhim omillardan biri - uni xolisona tahlil etish, ilmiy-nuqtai nazardan asoslab berishdir. Bu haqda Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asaridagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. «Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislarga murojaat qilmoqchiman: sizlar, millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma’naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g’ururini uyg’otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug’ g’oya kerak. Bu g’oyani zaminida xalqimizning o’zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o’zlikni anglash mumkin emas»[1] Mustaqillik Vatanimiz tarixida buyuk tarixiy voqyea hisoblanib, ushbu tarixiy jarayon xalqimizning uzoq davom etgan qaramlik va mustamlakachilikdan xalos etdi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek «Chor mustamlakasi davrida ma’rifat g’oyasini baland ko’tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir misol bo’la oladi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvarlar, fidoyi insonlarning o’z manfaati, huzur-halofatidan kechib, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o’chmaydi ”[2]

Jadidlar harakati Turkiston o‘lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo‘lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalariga, ikkinchi tomondan ilg‘or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o‘zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko‘rsatishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo‘lgan xo‘rlik hissi edi.

Garchi chor ma’murlari musulmonlar yashaydigan hududlarda qanday yaxshi narsalarni joriy qilgan bo‘lsalar, bu gimnaziyalarning ochilishi bo‘ladimi, zavod va fabrikalarning qurilishimi, bularning barchasini ular eng avvalo o‘zlarining manfaatlari uchun amalga oshirdi. Qurol va quvvat nuqtayi nazaridan ojiz bo‘lgan mahalliy xalq orasidan maydonga chiqqan bir guruh taraqqiyparvarlar mustamlaka va xo‘rlik balosidan xalqni qutqarish uchun jadidlar harakatiga asos soldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirayotgan edi. Turkiston hududi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangach, siyosiy boshqaruv, iqtisodiy tizim va madaniy hayotda keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Mahalliy aholining huquqlari cheklanib, milliy qadriyatlar va an’anaviy boshqaruv tizimi bosim ostida qoldi. Shu bilan birga, dunyoning turli hududlarida ilm-fan, texnika va ma’rifat taraqqiyoti jadallashib borayotgan bir paytda, Turkistonda eskicha ta’lim tizimi va ijtimoiy munosabatlar zamon talablari bilan hamohang rivojlana olmay qoldi. Ana shunday tarixiy sharoitda millat ravnaqi, xalq ongini uyg‘otish va jamiyatni yangilash g‘oyasini ilgari surgan jadidchilik harakati maydonga chiqdi.

Jadidchilik (arabcha “usul-i jadid” — yangi usul) dastlab ma’rifiy harakat sifatida shakllandi. Uning asosiy maqsadi ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish edi. Bu g‘oya avval Qrimda yashagan ma’rifatparvar Ismoil Gaspirali faoliyati orqali yoyila boshladi va keyinchalik Turkistonga kirib keldi. Turkiston jadidlarining sa’y-harakatlari bilan yangi usul maktablari ochildi, matbuot rivojlandi, milliy teatr va adabiyot shakllandi. Bu jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi fidoyi ziyolilar muhim rol o‘ynadilar.

Jadidchilik harakati faqat ta’lim bilan cheklanib qolmadi. U asta-sekin kengroq ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Jadidlar milliy o‘zlikni anglash, mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilish, jamiyatda adolat va tenglikni qaror toptirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ular matbuot orqali xalqni siyosiy ongli bo‘lishga, zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lishga undadilar. Xususan, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston” kabi gazetalar xalq orasida ma’rifat va erkinlik g‘oyalarini yoyishda muhim vosita bo‘ldi.

Shunday qilib, jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish yasagan, millat taraqqiyoti yo‘lida muhim o‘rin tutgan tarixiy hodisa sifatida maydonga chiqdi. U milliy uyg‘onishning poydevorini yaratdi, zamonaviy ta’lim va tafakkur tizimini shakllantirishga xizmat qildi hamda keyingi siyosiy harakatlar uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur mavzu jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablari, uning asosiy maqsad va vazifalari hamda Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘rsatgan ta’sirini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya(Литература и методология/ Methods)Jadidchilik harakati namoyondalari o’zlarining g’oyalarini,qarashlarini o’zlarining asarlari orqali keng ommaga yetkazib berishgan. Mahmudxo’ja Behbudiy,Abdulla Avloniy,Munavvarqori,H.H.Niyoziy,Fitrat,S.Ayniy kabi bir qator jadid namonyondalari asarlar yaratganlar.Ularning qarashlar haqida Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” hamda “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarlarida ham keltirilgan. Bu asarda muallif tarixiy xotira masalasini millat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Asarning bosh g‘oyasi — o‘z tarixini bilmagan xalq kelajagini barpo eta olmaydi.Tarixni soxtalashtirish, uni noto‘g‘ri talqin qilish milliy ong va o‘zlikka putur yetkazishini ta’kidlaydi. Shu sababli tarixni xolis va haqqoniy o‘rganish muhim vazifa ekanligi qayd etiladi. Asarda Amir Temur, jadidlar va boshqa buyuk ajdodlar merosini tiklash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy xotira millatni birlashtiruvchi kuch ekanini asoslaydi.Mazkur asar mustaqillikdan keyingi davrda tarixni qayta baholash, milliy merosni tiklash jarayonida muhim g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan. U yosh avlodni tarixni hurmat qilish va milliy qadriyatlarni asrash ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Natijalar(Результаты/Results) Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy – siyosiy, ma’rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80 – yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851 – 1914) rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884 yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u «usuli

savtiya tadrijiya» («rivojlanuvchi tovush usuli») maktabi bo‘lgan. Yangicha usul – «usuli jadid» – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’y – harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga «Muzaffariya» degan nom berilgan1 . Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. Birinchi bo‘lib (Husaynov mablag‘i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1898 yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yili To‘qmoqda (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni «no‘g‘oy maktab» deb atagan), 1899 yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903 yili M. Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1907 yili To‘raqo‘rg‘on (Namangan viloyati)da Isxoqxon to‘ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabini ochgan2 . 1908 yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911 yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 bola o‘qigan.. 1917 yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan. Jadid maktablari, ya’ni yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim – tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirilib, maktabxonadagi yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘lgan. Ularda xat – savod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur’oni – karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy – ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni chog‘da turk – islom huquqiy munosabatlarining millatga o‘rgatilishi, milliy – ma’rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta’siri katta bo‘ldi1 . Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy – ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. U o‘sha davrda Turkistondagi milliy – ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichni o‘tgan. Birinchisi – ma’rifatchilik bosqichi va ikkinchisi – siyosiy bosqich. Ammo jadidlarinig davlatchilik masalasiga nisbatan qarashlari birinchi davrdanoq shakllangan edi. Bu g‘oya va maqsadlar 1917 – 1920 yillarda «Turkiston muxtoriyati», Buxoro va Xorazm xalq respublikalari

davrida, qisqa muddatda va qisman bo‘lsada amalga oshirildi. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Muqammadsharif So‘fizoda, Ashurali Zohiriy (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) muhim rol o‘ynadi. Ushbu siymolarning sa’y – harakati bilan jadidchilik harakati taraqqiy etdi.

Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an’anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi.”Fuqaho Jamiyati”ning nashri bo’lgan “Izhor ul-haq” jurnalidagi bir maqolada:”Tahzib va tasfiyai axloq degan narsa maktablarimizda hech yo’q.Muddati tahsil ko’b uzoq bo’lgani uchun ko’b kishilar bolalarini 8-15 yil maktabga qo’yolmaydurlar,chunki qudrat va iste’dotlari yetmaydur.Ham maktablarimizga intizom yo’qdur.Shuning uchun maktabda yurgan aziz,gavhari noyob bolalarimizdan o’n besh yo sakkiz nafardan ikki yo uch nafari ahli savod bo’lib chiqadurlar”,- deyiladi.[3]

Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi. 1 Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta’lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmilarni o‘rgandi. Jadid maktablarida qur’onikarim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi. Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, maschitlarda imom bo‘lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi. Maktablar asosan 1 – 4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1 – bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2 – bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodievning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 – 6 sinf) ham ish boshlagan.[4]

“Agar bizlarning maktablarimiz boshqa millat maktablari kabi bir nizomga qo’yilib yaxshi muallimlik vazifasini lavozimcha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi,ma’sum avlodlarimiz ruhiy hayotiga,dunyo va oxiratni saodatig’a birinchi sabab o’ladurg’on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o’lmagiga sabab o’lmas eduk” deya ta’kidlaydi Munavvarqori Abdurashidxonov[5].

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi:

Turkiston jadidchiligi

Buxoro jadidchiligi

Xiva jadidchiligi.

Turkiston jadidchiligi

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Buxoro jadidchiligi

Buxoro jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi:ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov)

Usmonxo’ja Po’latxo’jayev (Usmon Xo‘ja)

Mehriy,Burhonov

Abdulqodir Muhitdinov, Ayniy

Abdurahmon Sa’diy.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafi). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta’mimi maorif jamiyati“ bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta’lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol“ maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.Jadidlarning dolzarb g‘oyasi yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat

hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish edi.

Xiva jadidchiligi

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning *o‘ng* oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning *so‘l* oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Jadidchilik harkatida faol ish olib borganlarning aksariyati shoiru yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyotda ma’rifat va ozodlik g‘oyalari markaziy mavzuiga aylanib, davr voqealari o‘z aksini topdi. Adabiyotga «millat» va «vatan» tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga e’tibor va rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Jadid adabiyotida dramaturgiya ya’ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko‘zga tashlanadi. Jadid g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’sir ko‘rsatishi kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o‘z ijodiy – amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar. 16 Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. O‘zbek milliy teatrini shakllantirishda Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari nihoyatda kattadir. 1912 yilda yozilib, 1913 yilda bosilgan «Padarkush» dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi o‘zbek dramasi («Mahramlar») xronologiyaga ko‘ra bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan e’lon qilingan bo‘lsada, bu sohada ham karvonboshi bo‘lib Behbudiy tarixga kiradi. Asar 1914 yilning 15 yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo‘yiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov homiyligida 1913 yil Toshkentda musulmon drama san’ati havaskorlari jamiyati – «Turon» nomli birinchi teatr truppasi ochilgan. Truppaning badiiy rahbari Abdulla Avloniy edi. Truppa o‘z faoliyatini 1914 yil 27

fevalida Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosi (2000 tomoshabinli)da «Padarkush» (M. Behbudiy) spektakli bilan boshlagan. Tadqiqotchilarning ma’lumotiga qaraganda, «Padarkush» pesasidan keyin 1917 yilgacha o‘zbek dramalarining soni 40 ga yetgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon shaharlarida turli truppalar vujudga kelgan. Shunday qilib, milliy jadid adabiyoti dramaturgiyasi va teatri paydo bo‘ldi. Jadidlar xorijga qilgan safarlari asosida olingan bilimlari ta’sirida, o‘zbek an’anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga, ya’ni Yevropa ko‘p – ovozli musiqa san’atining yutuqlaridan unumli foydalanishga da’vat etishgan. 1919 yilda 17 Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi «Turon» kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar.

Xulosa(заключение/Conclusion) Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini anglashida, ma'rifatining yuksalishida va siyosiy faolligining oshishida muhim rol o‘ynadi. Jadidlar Turkistonni modernizatsiya qilish, uni dunyo hamjamiyatiga integratsiya qilish uchun kurashdilar. Ularning g‘oyalari keyingi avlodlarga katta ta'sir ko‘rsatdi va milliy ozodlik harakatining rivojlanishiga turtki berdi. Jadidchilikning taqdiri: Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, jadidlar "millatchi" va "xalq dushmani" sifatida ta'qib qilindi va qatag‘on qilindi. Ularning ko‘pchiligi qatl etildi yoki surgun qilindi. Shunga qaramay, jadidchilik g‘oyalari xalq xotirasida saqlanib qoldi va O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ularning merosi qayta tiklandi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish davrining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. U nafaqat ta’lim sohasida islohot o‘tkazishni maqsad qilgan ma’rifatparvarlik harakati, balki jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallash, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiy etgan jamiyat barpo etish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Ular tomonidan ochilgan yangi usul maktablari, nashr etilgan gazeta va jurnallar, yozilgan darslik va badiiy asarlar o‘z davrida katta ma’naviy siljish yasadi. Eng muhimi, jadidlar xalq ongida erkinlik, mustaqillik va milliy taraqqiyot tushunchalarini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldilar. 1917-yilda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati esa ularning siyosiy mustaqillik yo‘lidagi amaliy harakati sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

Garchi jadidlar faoliyati keyinchalik sovet tuzumi tomonidan to‘xtatilgan va ko‘plab namoyandalari qatag‘onga uchragan bo‘lsa-da, ularning ma’rifatparvarlik va taraqqiyotga da’vat etuvchi g‘oyalari xalq xotirasida saqlanib qoldi. Bugungi kunda ham jadidchilik merosi milliy davlatchilik, zamonaviy ta’lim tizimi va ma’naviy yangilanish jarayonlarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shunday ekan, jadidchilik harakati — bu faqat tarixiy hodisa emas, balki millatning o‘zligini anglash, taraqqiyot sari intilish va erkin jamiyat qurish yo‘lidagi muhim ma’naviy poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.-T:.Sharq,1998.-b.29

2. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-T.,Ma’naviyat.2008.-b.49
3.O’zbekiston tarixi.Darslik.Toshkent.2022,-b.76
4.O’zbekiston tarixi.R.SHamsutdinov,X.Mo’minov.Andijon.2011,-b.306-308
5.O’zbekiston tarixi.Darslik.Toshkent.2022,-b.76

TURKISTON TARIXINI TADQIQ ETISHDA ABUDURAUF FITRAT ILMIY MEROSI MUHIM MANBA

Kucharboyeva Durdona Otamurod qizi

Navoiy davlat universiteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Siyosatshunos, tarixchi olim sifatida Abdurauf Fitrat rus mustamlakachiligining fojiali oqibatlarini keng qamrovli tasvirlashi natijasida Turkiston xalqlarining ilg‘or va zamonaviy madaniyatdan ajralib qolganligini o‘zining bir qator asarlarida asoslab berishga harakat qilgan olim hisoblanadi. U shuningdek Turkiston fuqorolarining Yevropadagi ijtimoiy iqtisodiy hamda siyosiy fikrlardan bexabar ekanligini afsus bilan e’tirof etadi. Jumladan uning “Turkistonda ruslar” nomli maqolasida shunday fikrlarga duch kelamiz. “Yurtimiz ellik yillik bir askariya ostida turdig‘i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko’risholmadik, ularning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istefoda qilolmadik. Bizning ko‘zlarimizni ochdurmaslik uchun, fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi” [1:202-B.].

Rus mustamlakachiligini og‘ir asoratlaridan biri o‘lkamizning madaniy jihatdan Yevropani fan-texnika, markazlaridan uzib qo‘yilganini og‘ir fojiali natijalarga olib kelganini ko‘rsatib berdi. Bu yerda mustamlakachilarning aynan Turkistonni mahdudlikda uzoq ushlab turishni makkorona yo‘lini tanlaganini fosh qiladi.

Siyosatshunos rus mustamlakachilarining uzoqqa mo‘ljallangan mustamlakachilik siyosatini chuqur tahlil qilgan holda ular yuritgan siyosatni siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini ochib beradi.

Turkiston general gubernatorligi tomonidan iqtisodiy zo‘ravonlik siyosati bilan birga Turkistonga mafkuraviy tazyiq o‘tkazib uni xalqini ruslashtirish siyosatini olib borayotganligini ochiq tushunadi. Bu siyosatda ommaviy axborot vositalaridan, ta’lim tizimidan rus ma’muriyati ustalik bilan foydalanganligini ustalik bilan fosh qiladi.

Birinchi jahon urushi yillaridagi xalqaro vaziyatni atroflicha tahlil qilgan Fitrat Turkistonni mustaqillik uchun yo‘li borligini aytadi. Rus davlatida hukm surayotgan ikki hokimiyatchilik siyosati va qolaversa ruslarning birinchi jahon urushidagi asoratli mag‘lubiyati Fitratda vatanni mustaqillik yo‘liga olib chiqish umidini uyg‘otgan edi. Fitrat ruslarning Boltiq bo‘yida olib borilgan

muvaffaqiyatsiz urushlarining manzarasini chizadi. Rus davlatini Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarini ularga qarshi qo'zg'olon harakatlarini olib borishga majbur etdi.

Ana shunday qo'zg'olonlardan eng yirigi 1916-yilda sodir bo'ldi. Jadidlar tomonidan Rossiya dumasiga "Mardikorlikka olish" masalasiga doir arz qilingandan so'ng, o'lkadagi ahvol bilan tanishish uchun mehnatkashlar fraksiyasi vakili A.F.Kerenskiy va musulmonlar fraksiyasi vakili Qutlug' Muhammad Botirgayev - Tevkelevlardan iborat komissiya tuziladi va Turkistonga yuboriladi.

Bu voqealarni A.Fitratning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi. "So'ng xabarlarga ko'ra Kerenskiy tevarakdan to'plab keturdigi qo'shin bilan bolsheviklarni yengmish va Petrogradni unlarning qo'lindan yangidan olmishdir" [2:197-B.].

Darhaqiqat Petrograd aholisi tomonidan ko'tarilgan namoyish hukumat qo'shinlari tomonidan bostiriladi va ikki hokimiyatchilik tugatiladi. Hokimiyat vaqtinchalik Muvaqqat hukumat qo'liga o'tadi. Hukumatda bir qancha o'zgarishlar qilindi. Mehnatkashlar fraksiyasi rahbari Kerenskiy bosh vazir qilib saylanadi. Jadidlar talabiga ko'ra 1916-yil voqealari Davlat dumasi muhokamasiga kiritiladi va o'sha yili 13 va 15 dekabr kunlari yopiq eshiklar ortida muhokama etiladi.

Turkistonda sodir bo'layotgan bunday siyosiy voqealar Rossiya jamoatchiligini ham hayajonga solgan bo'lsada biroq u rus jamoatchiligining juda tor doirasini tashkil etgan Duma a'zolarining ko'pchiligi uchun Turkistonning tub manfaatlari -uning erki taraqqiyoti mutlaqo begona edi.

Fitrat birinchi jahon urushida Turkiya bilan Germaniyaga qarshi urishayotgan mamlakatlarning urush maydonlaridagi mag'lubiyatlari Rossiyaga naqadar salbiy ta'sir qilganligini siyosiy jihatdan atroflicha tahlil qiladi. U o'zining "Siyosiy hollar" nomli maqolasida Italiyaning mag'lubiyati Germaniyaning Boltiq bo'yidagi g'olibona yurishi Rossiyaning siyosiy ahvoliga og'ir ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Jumladan, "Italiyaning bu qo'rqinch mag'lublig'i yolg'iz italyonlar uchun emas, ruslar uchun daxi buyuk bir musibat bo'ldi. Chunki yong'inlarinda, badbaxtlik loyqalarinda botib qolg'an Italiyaning qo'lnidan ololmag'an muttafiqlar qo'shunindan Rusiya uchun ko'mak ko'zlayikning ma'nosiz bir edugini yangidan bir isbot qilib berdi. Buning natijasida Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi" [3:197-B.].

Fitrat bu yerda Rus hukumati juda nochor holatga tushib qolganligini va Turkiston uchun siyosiy jihatdan qulay fursat kelganligini e'tirof etadi. Bolsheviklar Rossiya imperiyasidagi mavjud tuzumni zo'ravonlik bilan ag'darib tashlaydi. Rossiya fuqorolar urushi girdobida qolgan edi.

Turkistonda mustaqil davlat barpo etish g'oyalarini boshqa ziyolilar qatori Fitrat ham ilgari surgan edi. U millatparvar va erksevar kuchlar qatorida Turkiston muxtoriyatini tuzish ishlariga o'z hissasini qo'shib bordi.

Bundan tashqari Fitrat Rossiyadagi 1917-yil sentabr, oktabr voqealari to'g'risida ham "Siyosiy hollar" nomli maqolasida siyosiy jihatdan Rossiyada yuz berayotgan voqealarni tahlil qilib uning oqibatlari to'g'risida asosli xulosalar chiqaradi. Tajribali siyosatchi sifatida bolshevliklarni hokimiyatni olishi Rossiya uchun naqadar halokatli ekanligini tushunganini ko'ramiz.

Jumladan uning “Bolsheviklar ikkinchi yo‘la qo‘zg‘aldilar, bu qo‘zg‘alishlar birinchisi kabi bo’lmadi. Bu da’fa buyuk ish qurdilar, Petrogradni olib, Kerenskiyni Russiyaning sodiq bolalarini topib, to‘plab keltirmak uchun maydonlarigacha ketarga majbur etdilar” [4:197-B.] degan fikrlaridan rus davlatida muvaqqat hukumat o‘z ishlarini harbiy muvafaqqiyatlar bilan tuzatib olish umidi bilan 1917-yil iyun oyi boshida qo’shinlarga hujmga o‘tish haqida buyruq berilganligi va hujum mag‘lubiyat bilan yakunlangandan so‘ng Petrogradning g‘azablangan aholisi ommaviy namoyishga chiqish voqealarini tushunishimiz mumkin. Shuningdek bu namoyishga 500 mingdan ortiq kishi qatnashadi va namoyishdagilar muvaqqat hukumatning iste’foga chiqishini talab qiladi va hokimiyatni sovetlar qo‘liga berilishini talab qiladilar.

Ayni vaqtda rus davlatida ikkita katta siyosiy kuch hokimiyat uchun kurash boshlagan edi. Ularning birinchisi burjua partiyalari vakillaridan iborat muvaqqat hukumat bo‘lib, u asosan o‘rta va yirik burjuaziya manfaatlarini ifodachisi bo‘lgan konstitutsiyaviy demokratlar (qadimchlar) partiyasi a’zolaridan tuzilgan edi. Ular parlamentar monarxiya tarafdori edilar, ikkinchisi esa ishchi va askar deputatlari proletariat va dehqonlarning inqilobiy demokratik diktaturasiga tayanib, demokratik respublika o‘rnatish uchun kurash olib borardilar.

Rossiya davlatida bo‘layotgan bu ichki siyosiy nizolarni sergaklik bilan kuzatgan Fitrat Turkiston xalqlari qanday yo‘l tutishi kerakligini aniq bayon qiladi.

Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat tubdan o‘zgaradi. Ular ilgari surgan komunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutloq yot tushuncha edi. Shuning uchun ham mahalliy aholi bu mafkurani avval boshdanoq o‘ziga singdira olmadi. Bundan tashqari sovet hukumati o‘rnatilgan dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi jalb etilmadi yoki har xil bahonalar bilan davlat boshqaravida mahalliy aholi vakillarini kamaytirishga harakat qilingan.

Fitrat vatanparvar vatanning asl farzandi sifatida vaziyatni nazoratdan o‘tkazib voqealar rivojini ko‘rishga harakat qiladi. Lekin bolsheveklarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat tubdan o‘zgarib ketadi. Ayniqsa bu jarayon Turkiston xalqi boshiga ko‘plab fojiali holatlarni olib keladi. Dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi jalb qilinmadi. Bu bilan ularning milliy g‘ururi va haq huquqlari inkor qilindi. Turkistonda o‘rnatilgan Sovet tuzumi podsho Rossiyasi mustamlakachiligini yangi shakli ekanligi, dastlabki kunlardanoq oshkor bo‘lib qolgan edi. Sovet hokimiyati mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf odatlari milliy qadriyatlarini toptagan oyoq osti qilgan edi. Shuning uchun ham millatparvar erksevar kuchlar 1917-yilda Turkiston muxtoriyatini tuzdi. Bu muxtoriyatni tuzilishi boshqa milliy ziyolilarimiz qatori millatparvar va mustaqillik kuychisi A.Fitratda ham yuksak umid uchqunlarini uyg‘otdi. U ushbu muxtoriyatni e’lon qilinishi to‘g‘risida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi. “Inqilob bo‘ldi Rusiyaning “qo’shma xalq jumhuriyati” usuli bilan idora etiluri jarlandi. Shul e’lon uzra yasalgan Ukraina, tatar va boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Qunuq Turkistonniki edi Turkistonning tarixiy xonbaliqlarindan ikkinchisi bo‘lgan Ho‘qand shahrinda to’plang‘an Turkiston qurultoyi 27-noyabrning “Milliy laylatulqadrimiz” bo‘lg‘an yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e’lon qildi.” [5:199-B.]. A.Fitrat bu muxtoriyatga juda katta umid bog‘lagan edi, lekin bu

muxtoriyat uzoqqa bormadi. Sovet bolsheviklari tomonidan qonga botirildi. Uning o‘rniga Turkistonda sovet avtonomiyasi (muxtoriyati) ni rasmiy tashkil etish masalasi 1918-yilning 20-aprelidan 1-mayigacha Toshkentda bo‘lib o‘tgan o‘lka sovetlarining V sezdida ko’rib chiqildi. Bolsheveklar fraksiyasi taklifi asosida sezd qabul qilgan “Turkiston sovet respublikasi to‘g‘risida qoidalar”da Rossiya Federativ Respublikasi tarkibiga kiruvchi Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi ekanligi e’lon qilindi. Turkiston avtonom Respublikasining hududiy chegaralari belgilandi. Uning oliy qonun chiqaruvchi organi sifatida ishchi, askar, dehqon va musulmon dehqonlar sovetlari seyzdi, uning doimiy faoliyat yurituvchi organi qilib esa Markaziy Ijroiya qo‘mita belgilandi.

Shunday qilib Turkiston avtonom sovet sotialistik respublikasi tuzilib uning maqsad vazifalarini rasmiy hujjatlarda belgilangan bo’lsada biroq amalda u mahalliy xalqlarning haqiqiy ma’nfaatlariga emas asosan hukmron tuzum va uning o‘lkadagi ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

A.Fitrat bu jarayonni oldindan atroflicha o‘rganib chiqib quyidagi fikrlarni bildirgan. “Lekin shunisi borkim, bir millatning muhtoriyati yolg‘iz bir seyzdning e’loni bilan tamom bo‘lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. Seyzd o‘z ishini qildi. Qolg‘anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch zarur muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsin” [6:199-B.]. Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Turkiston o‘lkasini ruslashtirishdan iborat bo‘ldi. Podsho hukumati ko‘p minglab yersiz dehqonlarni ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko‘chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o‘rin tutadi.

Rus davlati Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya Kavkaz ortidan ketgan Rossiya Monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga kelib o‘rnashdi.

Rossiyadan ko’chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi ularni joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko‘p miqdorda mablag‘lar ajratildi, o‘zini o‘nglab olgunga qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab turildi.

Mustamlaka o‘lkada ko‘p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo‘ldi. Ular ayni bir vaqtda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo‘lgan harakatlarini bug‘ib turishi uchun tayanch vazifasini bajarganlar. Bu haqda siyosatshunos olim A.Fitrat o‘zining “Turkistonda Ruslar” nomili asarida “mahkamalarda, uylarda, yo‘llarda, tijoriy ishlarda, vagon arbalarinda Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo‘lg‘an rus va armanidan tubanda tutildi” [7:203-B.]–degan so‘zlarni keltiradi.

Darhaqiqat yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko‘p ekin maydonlariga ega bo‘lgan. Ma’lum muddatlargacha soliqlardan ham ozod qilindi. Podsho ma’murlari mahalliy maktablardagi ta’lim - tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to‘siq deb qaradilar Shu sababli eski maktablarda o‘qish o‘qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko‘rilmadi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga diniy e’tiqodlariga ta’sir o‘tkazish, ularni ma’naviy qaramlikda ushlash uchun Rossiya ma’muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o‘z mustamlakalarida olib borgan misseonerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa misseonerlarning o‘lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir. Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilsh borasida ham biron bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdlarda bir yoki ikki vrach bo‘lib, ular ham asosan soldatlar va Rus aholisiga yordam ko‘rsatish bilan band bo‘lganlar.

O‘lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta sekin mahalliy aholining moddiy va ma’naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashishiga olib kelib, rus mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Ma’rifatchilikning yangi to‘lqinida “Samarqand”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Hurriyat", “Ulug‘ Turkiston” singari gazetalar hamda “Oyna” jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo’ldi.

Lekin tez orada rus ma’muriyati ashaddiy shovinist N.P.Ostraumov bildirishnomasiga asoslanib bu ro’znomalarni man etdi.

Siyosatshunos olim A.Fitratning “bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni uldurmak tilagi bilan Ustiramov kabi mutaassib poplarlarning idorasinda gazeta chiqarildi, maktab ochildi, va o‘z millatimiz dunyomizni anglatmoq uchun o‘z tarafimizdan ochilg‘an maktablar va gazetlar bog‘lanadi shar’iy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g‘asb etildi” [8:203-B.] degan fikrlari buning isbotidir.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko’rsatdilar, va o‘z faoliyatlari bilan xalq ta’limi sifatini rivojlantirishga ma’rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ko‘pchiligi mustamlakachilik tuzumining mustabid siyosatiga ko’nikmay xorijga jo’nab ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo’shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g‘oyaviy rahnomalik qilish ayniqsa sovet organlarida ishlab milliy mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilishidagi sa’yi harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan ommaviy qatog‘on qilinishiga olib keldi. A.Fitrat o‘zining “Buxoroda inqilob” nomli maqolasida “Aprelning yettisinda amirimiz bir bayonnoma chiqordilar. Aprel sakkizida Buxoro yoshlari buyruq chiqorib muborakbod qildilar. Mullalardan bir jamoa chiqib shul buyruq chiqorg‘anlarni kofir deb o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. Hukumat yoshlarining birini tutib yetmish besh tayoq urdi” [9:206-B.] degan fikrlarni keltirib o‘tadi. U yana so’zida davom etib “Aprel to’qquzida qo’shbegi odamlari yoshlarning uylarini bosdilar, tobg‘anlarini ketirib “Obxona” degan rutubatli bir mahbusda qamadilar va ikkitasini yana hukumat amri bilan yetmish besh tayoqdan urdilar. Yoshlar qochib Kogonga chiqdilar” [10:206-B.]deb bu davrda Buxoroda mavjud siyosiy vaziyatni ochib beradi.

Buxoro amirligi o‘rnida Buxoro xalq respublikasi tashkil etilgach, jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqil qilishga intildilar. Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari

mavjudligiga chek qo‘ygan bo‘lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan maxf qildi.

Xulosa qilib aytganda A.Fitrat o‘z hayotini millat ravnaqi uning ozodligi insonlarning kamoloti uchun fido qilgan buyuk olim hisoblanadi. Uning merosini o‘rganish yetarlicha xulosalar chiqarish biz avlodlar uchun ham qarz, ham farz sanaladi. Sovet davrida jadidlarning ta’limiy, axloqiy ilmiy g‘oyasi mafkuraga bo‘ysundirilib, soxtalashtirildi; erkin fikr tag-tugi bilan qo‘porib tashlandi. Shu sababli jadidchilik o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini to‘la ado etolmadi. Lekin, shunga qaramasdan Turkistondagi bu ma’rifatchilik harakati qisqa muddat ichida bo‘lsa ham mazlum xalqlarni ma’lum ma’noda uyg‘ota oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Turkistonda ruslar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
2. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Siyosiy hollar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
3. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Siyosiy hollar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
4. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Siyosiy hollar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
5. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Muxtoriyat” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
6. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Muxtoriyat” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
7. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Turkistonda ruslar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
8. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Turkistonda ruslar” maqolasi T.: Ma’naviyat, 2003.
9. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Buxoroda inqilob” maqolasi. T.: Ma’naviyat, 2003.
10. A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild “Buxoroda inqilob” maqolasi. T.: Ma’naviyat, 2003.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “IKKI EMAS, TO‘RT TIL LOZIM” MAQOLASINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Baxronova Zulfiya Ravshanovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

tayanch doktoranti

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1878–1919) – o‘zbek milliy ziyolilaridan biri, tafakkur, ma’naviyat va milliy uyg‘onish targ‘ibotchisi. Uning asarlari o‘sha davr o‘zbek jamiyatini yangilash, yoshlarga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirish

hamda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, “Yoshlarga murojaat” va “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolalari yosh avlodning jamiyatdagi roli, ma’naviy majburiyati va ilm-fan bilan shug‘ullanishi masalalarini chuqur yoritadi. Maqolalarda Behbudi yoshlarni shaxsiy va ijtimoiy kamolotga yetaklaydigan axloqiy, ma’naviy va amaliy qadriyatlarni keng tahlil qiladi. Shu sababli ushbu esse Behbudiyning g‘oyalarini chuqur o‘rganish, yoshlar tarbiyasi va jamiyat rivojidagi ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi jadid ma’rifatparvarligi davrida yaratilgan bo‘lib, unda til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik chuqur ifodalangan. Mazkur maqola lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, unda til orqali milliy identitet, madaniy meros va sivilizatsiyalararo aloqalar aks etganligi kuzatiladi.

Til birliklari orqali milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribani tadqiq etishga qaratilgan. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki muayyan xalqning madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi fenomen sifatida talqin qilinadi.

Lingvokulturologiyada til madaniyatning asosiy tashuvchisi sifatida qaraladi. Har bir til o‘zida muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy an’analarini mujassamlashtiradi.

Behbudiyning maqolasida til masalasi madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Muallif tilni xalqning ma’naviy taraqqiyoti va madaniy rivojlanishining muhim omili sifatida baholaydi.

Maqolada ilgari surilgan **to‘rt til konsepsiyasi** aslida turli madaniy makonlar bilan aloqani ifodalaydi. “Bizg‘a lozimki o‘z naf’imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o‘quylik. Davlat mansablarig‘a kirayluk. Vatanimizg‘a va o‘z dinimizg‘a xidmat etayluk. Musulmon bo‘lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo‘lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g‘a o‘z din va millatimiz naf’ig‘a so‘zlamoq bizlar uchun mumkin bo‘lur. Ammo anda borib so‘ylaguvchi kishi bizg‘a yo‘q. Anda borib naf’i bir o‘n-sana o‘qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo‘lmoq kerakdur.Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur”[]. Bu tasnif orqali muallif tilni turli madaniy qatlamlar o‘rtasidagi **ko‘prik** sifatida talqin qiladi.

Maqolada til o‘rganish ilm olishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda ilm tushunchasi nafaqat bilimni, balki jamiyat taraqqiyotining madaniy asosini ham anglatadi. Behbudiy til bilishni millatning rivojlanishi bilan bog‘laydi. Til orqali inson boshqa xalqlarning ilmiy va madaniy tajribasini o‘zlashtirishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ma’rifatparvar tilni turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Bu konsept zamonaviy lingvokulturologiyada **interkultural kommunikatsiya** tushunchasiga mos keladi.

Lingvokulturologiyada til milliy identitetning muhim komponenti sifatida qaraladi. Til orqali xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlari saqlanadi. Behbudiy maqolasida turkiy tilni milliy birlikning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u boshqa tillarni o‘rganish milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki aksincha, millatning madaniy rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu fikr til

va madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi: bir tomondan milliy tilni asrash, ikkinchi tomondan esa global madaniy aloqalarni rivojlantirish.

Jadidchilik harakati Sharq va G‘arb madaniyatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan ma’rifiy harakat bo‘lgan. Behbudiyning maqolasida ham ana shu g‘oya yaqqol namoyon bo‘ladi. Til masalasiga oid qarashlar orqali muallif sharqiy ilmiy-madaniy merosni saqlash, zamonaviy Yevropa ilm-fanini o‘zlashtirish , milliy madaniyatni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

Bu jihatdan maqola lingvokulturologik nuqtai nazardan **sivilizatsiyalararo muloqot g‘oyasini ifodalovchi matn** sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida ko‘p tillilik va madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.Behbudiyning til haqidagi qarashlari ushbu ilmiy yo‘nalish bilan quyidagi jihatlar orqali uyg‘unlashadi: til orqali madaniy tajribani o‘zlashtirish; ko‘p tillilik asosida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish; milliy identitetni saqlagan holda global madaniy integratsiyani ta’minlash.

Shu sababli Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, unda til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlar aks etganligi aniqlanadi. Behbudiy tilni milliy madaniyat va tarixiy tajribaning muhim tashuvchisi sifatida talqin qiladi. Ko‘p tillilik madaniyatlararo muloqot va ilmiy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanadi.Ona tilini saqlagan holda boshqa tillarni o‘rganish milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada til orqali turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish g‘oyasi ilgari suriladi.Shu sababli Behbudiyning mazkur maqolasi til va madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlikni yorituvchi muhim lingvokulturologik matn sifatida ilmiy ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Ikki emas, to‘rt til lozim // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 112–115 б.
2. Behbudiy M. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 304 б.
3. Абдуллаев А. Жадидчилик ҳаракати ва миллий уйғониш ғоялари. – Тошкент: Фан, 2001. – 256 б.
4. Бегматов Э. Ўзбек тили антропоцентрик тадқиқлари. – Тошкент: Фан, 2013. – 210 б.
5. Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 192 б.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослигида антропоцентрик парадигма. – Тошкент: Фан, 2016. – 224 б.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Фан, 2006. – 276 б.

JADIDLARNING ASTRONOMIYA VA GEOGRAFIYA FANLARINI YANGI USUL MAKTABLARIGA JORIY ETISHDAGI SA'Y-HARAKATLARI: BEHBUDIY VA FITRAT ASARLARIDA TABIIY FANLAR TARG'IBI

Samadov Vohid Tolipovich

BDPI, harbiy ta'lim fakulteti umumqo‘shin tayyorgarlik sikl dotsenti

Shamsidinov Shaxzod Sherali o’g’li

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti talabasi

Kirish.XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati vujudga keldi va u mahalliy xalqlarning ma’rifiy hayotida tubdan o‘zgarishlar yasash maqsadini ko‘zladi. Jadidlar yangi usul (usuli jadid) maktablarini tashkil etish orqali an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilishga harakat qildilar. Ular eski maktab va madrasalardagi o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga javob bermasligini tanqid qildilar va ta’limda tabiiy fanlarning o‘rni muhim ekanligini ta’kidladilar [1]. Shu bois jadidlarning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Turkiston jadidlarining, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat asarlarida astronomiya hamda geografiya fanlarining targ'ib qilinishi masalasini tarixiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, jadidlarning tabiiy fanlarga munosabati nafaqat umumiy ta’lim islohoti kontekstida, balki aniq fan yo‘nalishlari – astronomiya va geografiya – misolida alohida ko‘rib chiqilmoqda. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik va manbashunoslik usullariga asoslangan.

Mavzuning dolzarbligi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi islohotlari bilan ham bog‘liq. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi qimmatli tarixiy tajriba sifatida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim mazmunini boyitish masalalari borasida jadidlar tajribasi muhim darslar berishi mumkin [2].

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati va ta’lim islohoti masalasi butun O‘zbekiston tarix fanida keng o‘rganilgan. B.Qosimov, U.Dolimov, A.Hayitmetov, R.Xoliqova kabi olimlarning tadqiqotlari jadidlarning ma’rifiy faoliyatini yoritishda muhim hissa qo‘shgan. Biroq jadidlarning aniq fan yo‘nalishlari – astronomiya va geografiya – bo‘yicha qarashlari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

1. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotining zarurati. Turkiston o‘lkasida XIX asr oxirlarida mavjud bo‘lgan ta’lim tizimi asosan diniy xususiyatga ega bo‘lib, maktab va madrasalarda arabiy grammatika (nahv va sarf), fiqh, tafsir va hadis ilmlari o‘qitilardi. Tabiiy fanlar – matematika, astronomiya, geografiya, fizika

kabilar deyarli o‘qitilmas edi yoki juda chegaralangan darajada berilardi. Jadidlar ana shu kamchilikni bartaraf etish uchun yangi usul maktablarini tashkil qila boshladilar [3]. Ular Turkiyadan, Misrdan va Rossiyadan kelgan zamonaviy ta’lim tajribalarini o‘rganib, o‘z maktablarida tatbiq etishga harakat qildilar.

Yangi usul maktablarining an’anaviy maktablardan asosiy farqi shunda ediki, ularda faqat diniy fanlar emas, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilardi. Geografiya, tarix, hisob (arifmetika), tabiatshunoslik, astronomiya elementlari o‘quv dasturiga kiritilgan edi. Ismoil Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasida ilgari surgan g‘oyalari Turkiston jadidlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Gasprinskiy tabiiy fanlarni o‘qitish zaruratini boshqalardan oldin anglab yetgan ziyolilardan biri edi. Uning "Usuli jadid" tamoyillari nafaqat savod o‘rgatish usulini, balki butun ta’lim mazmunini o‘zgartirishni nazarda tutgan [4].

Jadidlarning ta’lim dasturida astronomiya va geografiya fanlari alohida o‘rin egallagan. Buning sababi shundaki, bu fanlar orqali o‘quvchilar dunyo haqida keng tasavvurga ega bo‘lishlari, Yerning shakli, qit’alar, okeanlar, osmon jismlari haqida bilim olishlari mumkin edi. Jadidlar uchun bu fanlar nafaqat ilmiy bilim manbai, balki milliy ongni shakllantirish vositasi ham edi. Astronomiya va geografiya o‘rganish orqali yoshlar o‘z mamlakatlarining dunyo xaritasidagi o‘rnini anglab yetishlari, boshqa xalqlar va mamlakatlar bilan o‘zlarini solishtirish imkoniga ega bo‘lishlari kerak edi [5].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jadidlarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi tasodifiy emas edi. O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson olimlari – Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek kabilar astronomiya, matematika va geografiya fanlarida buyuk kashfiyotlar qilgan edilar. Jadidlar aynan shu ilmiy an’analarni tiklash va davom ettirish zarurligini his qilganlar. Ular o‘tmishdagi buyuk olimlarning merosiga tayanib, zamonaviy tabiiy fanlarni o‘qitishni asoslashga harakat qilganlar [6].

2. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tabiiy fanlarga munosabati Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ta’lim islohotiga katta hissa qo‘shdi. U 1903-yilda Samarqandda yangi usul maktabini ochdi va uning o‘quv dasturini ishlab chiqdi. Behbudiy "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetasi orqali o‘z ma’rifiy g‘oyalarini yoydi [7]. Uning asarlarida tabiiy fanlarning ahamiyati haqida ko‘plab fikrlar uchraydi. Behbudiy tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham asoslab bergan mutafakkir edi.

Behbudiy "Padarkush" (1913) dramasida bilimsizlik va jaholatning oqibatlarini tasvirlar ekan, tabiiy fanlarni bilmaslik natijasida kishilarning xurofotga berilishini ko‘rsatadi. U astronomiya va geografiya bilimlarining odamlarni xurofotdan xalos qilishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Asardagi bosh qahramon Toshmurodning fojiasi aynan bilimsizlik tufayli yuz beradi. Behbudiy bu asar orqali zamonaviy ilm-fan, jumladan tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini badiiy shakilda ifodalagan [8].

"Oyina" jurnalida chop etilgan maqolalarida Behbudiy Yer kurrasining shakli, qit’alar va mamlakatlar haqida ma’lumotlar bergan. U o‘quvchilarni dunyoning turli mamlakatlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish zarurligini

qayta-qayta uqtirgan. Behbudiy geografiya fani orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuygo‘sini shakllantirish mumkinligini tushungan. U maqolalarida Turkistonning geografik joylashuvi, tabiiy boyliklari, iqlimi haqida ma’lumotlar berib, mahalliy xalqning o‘z yurtini yaxshiroq bilishi zarurligini ta’kidlagan [9].

Behbudiyning geografiyaga oid qarashlari uning sayohat tajribalari bilan ham bog‘liq edi. U 1914-yilda Makka, Misr, Turkiya va Bolgariyaga sayohat qildi. Bu sayohatlar uning dunyoqarashini kengaytirdi va u o‘z maqolalarida boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimlarini Turkiston bilan solishtirdi. Behbudiy Misr va Turkiyadagi maktablarda astronomiya va geografiya fanlarining o‘qitilishini kuzatdi va bu tajribani Turkiston maktablariga tatbiq etish zarurligini yozdi. U Qohiradagi Al-Azhar universitetida ham diniy, ham dunyoviy fanlar o‘qitilishini misolga keltirib, Turkiston madrasalarida ham shunday tizim joriy etilishi kerakligini isbotlashga harakat qilgan [10].

Behbudiyning "Ikki yo‘l yoxud ta’lim usuli" (1906) risolasida zamonaviy fanlarni o‘qitish zarurati to‘g‘risida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Muallif bu asarida ta’limning ikki yo‘li – eski va yangi usul haqida fikr yuritadi. U eski usulda tabiiy fanlarning o‘qitilmasligi yosh avlodning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotganini ko‘rsatadi. Behbudiy yangi usul maktablari uchun darsliklar yaratish ishiga ham e’tibor berdi. U "Kitobat ul-atfol" (1904) asarida ta’lim mazmunini boyitish zarurligini ko‘rsatdi [11].

Behbudiy astronomiya sohasida, xususan, Quyosh tizimi, sayyoralar, Oy va yulduzlar haqidagi bilimlarni oddiy tilda tushuntirishga harakat qildi. Uning maktablarida dunyoning xaritasi osilgan va o‘quvchilarga turli mamlakatlar haqida ma’lumot berilgan. Behbudiy darsliklarida ilmiy ma’lumotlar rasmlarsiz berilmasligini ta’kidlagan – u o‘quv jarayonida ko‘rgazmali qurollardan, xaritalardan va chizmalardan foydalanishni zarur deb hisoblagan. Bu yondashuv o‘sha davr uchun innovatsion xarakterga ega edi [12].

3. Abdurauf Fitratning tabiiy fanlar sohasidagi qarashlari.Abdurauf Fitrat (1886–1938) Buxoro jadidchilik harakatining eng yirik nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida tanilgan. U Istanbulda tahsil olgan davrda zamonaviy ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishdi va bu tajribani Buxoroga olib keldi. Fitratning "Munozara" (1911) asari jadidchilik adabiyotining eng muhim namunalaridan biri hisoblanadi [13]. Ushbu asarda muallif Buxorodagi ta’lim tizimining nochorligi va zamonaviy fanlar o‘qitilmasligini keskin tanqid qiladi. Fitrat Istanbulda o‘qigan davridayoq astronomiya, geografiya va boshqa tabiiy fanlarning ahamiyatini chuqur anglagan edi.

"Munozara"da Fitrat Buxoro madrasalarida faqat diniy fanlar o‘qitilishi va tabiiy fanlar – astronomiya, geografiya, fizika, kimyo kabilarning e’tibordan chetda qolishini muammoli holat sifatida ko‘rsatadi. Asardagi bosh qahramonlar – yevropalik sayoh va buxorolik mudarris o‘rtasidagi munozarada zamonaviy ilm-fanning ahamiyati haqida chuqur fikrlar ilgari suriladi. Fitrat astronomiya misolida Buxoro olimlarining ilgari bu sohadagi yutuqlari – Ulug‘bek rasadxonasi, Beruniy va Xorazmiy asarlari – haqida eslatirar ekan, bugungi avlodning bu an’analardan uzoqlashganini afsuslaydi. Muallif yevropalik sayoh tilidan shunday fikrni bildiradi:

sizlarning ajdodlaringiz ulug‘ olimlar bo‘lgan, lekin hozirgi avlod ularning ilmiy merosini davom ettirolmayapti [14].

Fitratning "Hind sayyohining qissasi" (1912) asarida ham tabiiy fanlar mavzusi keng yoritilgan. Muallif hind sayyohining tilidan Buxorodagi ta’lim tizimini tanqid qilar ekan, astronomiya va geografiya bilimlarining zamonaviy hayot uchun zarurligini ko‘rsatadi. Fitrat bu fanlarni o‘qitish orqali yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilgan. "Hind sayyohi" Buxoroga kelganda, u yerdagi maktab va madrasalarni ko‘zdan kechirar ekan, tabiiy fanlarning umuman o‘qitilmasligidan hayratga tushadi. Bu asar Buxoro jamoatchiligi o‘rtasida katta aks-sado uygo‘tdi va jadidchilik harakatiga yangi kuch bag‘ishladi [15].

Fitrat o‘z asarlarida astronomiya fanining amaliy ahamiyatiga ham e’tibor qaratgan. U Oy fazalari, Quyosh va Oy tutilishi, yulduzlar va sayyoralar harakati haqidagi bilimlarning kundalik hayotda, jumladan taqvim tuzish, dehqonchilik va dengizchilikda zarur ekanligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Fitrat geografiya fanini o‘qitish orqali yoshlarda milliy g‘urur hissini uygo‘tish mumkinligini ham ta’kidlagan. U Turkistonning boy tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi haqida yozar ekan, bu bilimlarning xalq ongini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan [16].

Fitratning amaliy faoliyatida ham tabiiy fanlarga e’tibor katta bo‘lgan. U Buxoro amirligida ochilgan yangi usul maktablari uchun o‘quv dasturlari tayyorlashda ishtirok etdi. 1917-yildan keyin esa Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida ma’orif sohasida rahbarlik qilib, ta’lim tizimiga zamonaviy fanlarni joriy etish borasida amaliy qadamlar tashladi. Fitrat geografiya fanini o‘qitish uchun xaritalar va globuslardan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. U Istanbuldagi tajribasiga tayangan holda, Buxoro maktablarida ham zamonaviy o‘quv qurollari – xaritalar, globuslar, astronomik jadvallar – dan foydalanish zarurligini uqtirgan [17].

Fitratning yana bir muhim hissasi shundaki, u tabiiy fanlarni o‘qitish zarurligini nafaqat pedagogik, balki siyosiy-ijtimoiy jihatdan ham asoslagan. Uning fikricha, tabiiy fanlarni bilmaydigan xalq boshqa xalqlar tomonidan boshqarilishga mahkum bo‘ladi. Astronomiya va geografiya bilimi xalqning o‘z mustaqilligini saqlashida, o‘z yurtining tabiiy boyliklarini anglashida va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashida muhim rol o‘ynaydi. Bu fikr Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Fitrat tabiiy fanlarni o‘qitishni milliy ozodlik va taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan va bu g‘oyani o‘z zamondoshlari o‘rtasida faol targ‘ib qilgan.

4. Yangi usul maktablarida astronomiya va geografiya o‘qitilishining xususiyatlari Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida astronomiya va geografiya fanlari bir necha xususiyatlarga ega bo‘lgan. Birinchidan, bu fanlar an’anaviy diniy ta’lim bilan uygunlashtirilgan holda o‘qitilgan. Jadidlar islom dini va zamonaviy fan o‘rtasida ziddiyat yo‘qligini ko‘rsatishga harakat qilganlar. Ular Qur’oni Karimda osmon jismlari, Yer va tabiat hodisalari haqida o‘nlab oyatlar borligini misolga keltirib, astronomiya va geografiya o‘qitishni diniy nuqtai nazardan ham asoslaganlar. Bu yondashuv konservativ doiralarning qarshiligini yumshatishda muhim rol o‘ynagan [18].

Ikkinchidan, yangi usul maktablarida geografiya fani doirasida o‘quvchilarga nafaqat tabiat haqida, balki dunyo mamlakatlari, ularning aholisi, iqtisodiyoti va madaniyati haqida ham bilim berilgan. Bu jadidlarning keng dunyoqarashini shakllantirish maqsadiga xizmat qilgan. O‘quvchilar Yevropa, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alar haqida ma’lumot olganlar, turli xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va taraqqiyot darajasi bilan tanishganlar. Jadidlar bu bilimlar orqali o‘quvchilarda solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilganlar [19].

Uchinchidan, astronomiya elementlari ko‘pincha tabiatshunoslik fani doirasida berilgan bo‘lib, Quyosh tizimi, Oy fazalari, yulduzlar va sayyoralar haqida boshlang‘ich bilimlar o‘qitilgan. Yangi usul maktablarida astronomiya alohida fan sifatida emas, balki tabiatshunoslik yoki geografiya fanining tarkibiy qismi sifatida o‘qitilgan. Buning sababi maktablarda yetarlicha malakali o‘qituvchilar va o‘quv qurollarining yetishmasligi edi. Shunga qaramay, jadidlar astronomiya haqidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishga muvaffaq bo‘lganlar [20].

To‘rtinchidan, jadidlar darsliklarida ilmiy ma’lumotlar oddiy va tushunarli tilda bayon qilingan. Ular murakkab ilmiy tushunchalarni sodda misollarda tushuntirishga harakat qilganlar. Masalan, Behbudiy Yer kurrasining shakli haqida gapirar ekan, sayohat tajribalari va kuzatishlarga tayanib, oddiy odamlar uchun tushunarli qilib bayon etgan. Fitrat esa Ulug‘bek, Beruniy kabi buyuk olimlarning kashfiyotlarini eslatirar ekan, mahalliy xalqning ilmiy merosiga bo‘lgan g‘ururni uygo‘tishga harakat qilgan. Bundan tashqari, jadidlar darsliklarida savollar va mashqlar berilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilgan [21].

Beshinchidan, jadidlar tabiiy fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali usullardan foydalanishga katta ahamiyat berganlar. Xaritalar, globuslar, chizmalar, rasmlar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Behbudiy o‘z maktabida dunyoning siyosiy va fizik xaritalarini osib qo‘ygan va o‘quvchilarga mamlakatlar, qit’alar, okeanlar haqida ko‘rsatma qurollar yordamida tushuntirishlar bergan. Bu usul an’anaviy eski maktablardagi yodlashga asoslangan ta’limdan tubdan farq qilgan va o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilagan [22].

5. Behbudiy va Fitrat qarashlarining qiyosiy tahlili Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitratning tabiiy fanlarga bo‘lgan munosabatini qiyosiy tahlil qilish har ikkala mutafakkirning yondashuvlarida ham o‘xshashlik, ham farqlarni aniqlash imkonini beradi. Har ikki jadid ham astronomiya va geografiya fanlarining yangi usul maktablarida o‘qitilishi zarurligini qayta-qayta ta’kidlaganlar. Ular bu fanlarni o‘qitish orqali xalq ongini yuksaltirish, xurofotga qarshi kurashish va milliy taraqqiyotga hissa qo‘shishni maqsad qilganlar. Shu bilan birga, ularning yondashuvlarida muhim farqlar ham mavjud edi [21].

Behbudiyning yondashuvi ko‘proq amaliy xarakterga ega bo‘lgan. U o‘zi maktab ochgan, darsliklar yozgan, gazeta va jurnal nashr etgan. Behbudiy tabiiy fanlarni o‘qitishda bevosita amaliy tajribaga ega bo‘lgan va o‘z sayohatlari orqali boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimlarini o‘rgangan. Uning geografiya va astronomiya haqidagi qarashlari ko‘proq pedagogik-amaliy xarakterga ega bo‘lib, u bu fanlarni o‘qitishning aniq usullarini taklif qilgan. Behbudiy ko‘rgazmali qurollar

– xaritalar, globuslar, rasmlar – dan foydalanishni zarur deb hisoblagan va buni o‘z maktabida amaliyotga tatbiq etgan [22].

Fitratning yondashuvi esa ko‘proq nazariy-falsafiy xarakterga ega bo‘lgan. U o‘z asarlarida tabiiy fanlar o‘qitilmasligining ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tahlil qilgan va bu muammoni keng kontekstda – jamiyat taraqqiyoti, milliy ong va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqan. Fitrat astronomiya va geografiya fanlarini nafaqat ta’lim, balki millatning o‘zligini anglash vositasi sifatida qo‘llagan. U Beruniy, Xorazmiy, Ulug‘bek kabi buyuk olimlarning nomlarini eslatirar ekan, mahalliy xalqda ilmiy merosga nisbatan g‘urur hissini uygo‘tishga harakat qilgan [14].

Ikkala jadidning yondashuvlarida yana bir muhim o‘xshashlik – ular tabiiy fanlarni din bilan qarshi qo‘ymaganlar. Aksincha, ular islom dinining ilm-fanga rag‘bat berishini, Qur’oni Karimda tabiat hodisalarini o‘rganishga undovchi oyatlar borligini misolga keltirib, astronomiya va geografiya o‘qitishni diniy nuqtai nazardan ham asoslaganlar. Bu yondashuv jadidlarning o‘z davrining konservativ doiralari bilan munosabatlarida muhim strategik ahamiyat kasb etgan, chunki ruhoniylarning qarshiligini yumshatishda ilm-fanning diniy asoslarini ko‘rsatish samarali vosita bo‘lgan [18].

Shuningdek, Behbudiy va Fitrat o‘rtasidagi muhim farqlardan biri ularning faoliyat geografiyasida aks etadi. Behbudiy asosan Samarqand va Toshkent shaharlarida faoliyat yuritgan bo‘lsa, Fitrat Buxoro shahri va Buxoro amirligi hududida ishlagan. Bu geografik farq ularning qarashlari va amaliy faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Buxoro amirligida konservatizm darajasi Turkiston general-gubernatorligiga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan va Fitrat ko‘proq nazariy asoslash bilan shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelgan. Behbudiy esa nisbatan ochiqroq muhitda faoliyat yuritib, amaliy qadamlar tashlash imkoniyatiga ega bo‘lgan [7].

Har ikki jadidning merosini bir butun sifatida o‘rganish jadidchilik harakatining tabiiy fanlarga bo‘lgan munosabatini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Behbudiyning amaliy tajribasi va Fitratning nazariy asoslari bir-birini to‘ldirib, yangi usul maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishning yaxlit konsepsiyasini tashkil etadi. Bu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi shundan iborat ediki, zamonaviy tabiiy fanlar – astronomiya, geografiya, fizika, kimyo – o‘qitish milliy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi va bu fanlar islom qadriyatlari bilan to‘liq uygunlashadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Turkiston jadidlari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat astronomiya va geografiya fanlarini yangi usul maktablariga joriy etishda katta sa'y-harakatlar qilganlar. Ular bu fanlarni o‘qitish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni xurofot va jaholatdan xalos qilish hamda milliy ongni yuksaltirishni maqsad qilganlar.

Behbudiy o‘z asarlari, maqolalari va amaliy faoliyati orqali tabiiy fanlar, jumladan astronomiya va geografiyaning o‘qitilishi zarurligini dalillab berdi. U Turkistondan tashqariga sayohat qilib, boshqa mamlakatlarning ta’lim tajribasini o‘rgandi va uni mahalliy sharoitga moslashtirish yo‘llarini izladi. Fitrat esa nazariy jihatdan bu fanlarning o‘qitilmasligi Buxoro va Turkiston jamiyatining orqada

qolishining asosiy sabablaridan biri ekanligini koʻrsatdi. Har ikkala jadid ham tabiiy fanlarni islom qadriyatlari bilan uygunlashtirish yoʻlida salmoqli fikrlar bildirganlar.

Jadidlarning bu sohadagi merosi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Zamonaviy Oʻzbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida jadidlarning ilmiy-ma'rifiy qarashlari qimmatli tarixiy tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ularning tabiiy fanlarga boʻlgan munosabati, ilm-fan va diniy qadriyatlarni uygunlashtirish tajribasi bugungi ta'lim islohotlari uchun muhim darslar beradi. Jadidlarning koʻrgazmali ta'lim usullari, darsliklarni oddiy va tushunarli tilda yozish an'anasi, tabiiy fanlarni milliy qadriyatlar bilan bogʻlash tajribasi zamonaviy pedagogika fani uchun ham qimmatli meros hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning astronomiya va geografiya fanlarini yangi usul maktablariga joriy etishdagi tajribasi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kun uchun ham amaliy qimmatga ega. Bu tajribani chuqur oʻrganish va zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish ilm-fan rivojiga muhim hissa qoʻshishi mumkin.

Jadidlarning tajribasi zamonaviy Oʻzbekiston ta'lim tizimi uchun bir necha muhim darslar beradi. Birinchidan, tabiiy fanlarni oʻqitishda milliy ilmiy merosga tayanish – Beruniy, Xorazmiy, Ulugʻbek kabi olimlarning kashfiyotlarini oʻquvchilarga yetkazish – yoshlarda ilmga boʻlgan qiziqish va milliy gʻururni shakllantiradi. Ikkinchidan, tabiiy fanlarni koʻrgazmali qurollar yordamida oʻqitish – xaritalar, globuslar, multimedia vositalari – dan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, ilm-fan va ma'naviy qadriyatlarni uygunlashtirish yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida jadidlarning tabiiy fanlar sohasidagi faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish, ularning darsliklarini, maqolalarini va boshqa asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarur. Bundan tashqari, jadidlarning tabiiy fanlarni oʻqitish tajribasini boshqa turkiy xalqlarning – tatar, qozoq, ozarbayjon jadidlarining – tajribasi bilan qiyosiy oʻrganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega boʻladi. Bunday qiyosiy tadqiqotlar jadidchilik harakatining tabiiy fanlarga boʻlgan munosabatini kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqova R. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 34-56.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-sonli Qarori.

3. Abdullayev V. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – B. 112-130.

4. Gasprinskiy I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 45-67.

5. Qosimov B. Milliy uygoʻnish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 78-95.

6. Hayitmetov A. Oʻrta Osiyo xalqlarining ilm-fan tarixiga hissasi. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 34-58.

7. Dolimov U. Mahmudxoʻja Behbudiy. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 23-48.

8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 56-89.

9. Behbudiy M. "Oyina" jurnalida chop etilgan maqolalar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 23-45.
10. Behbudiy M. Sayohatnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007. – B. 12-34.
11. Rajabov I. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadid maktablari. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 67-85.
12. Aminov B. Jadid maktablarida o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – B. 45-67.
13. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 34-78.
14. Hayitmetov A. Abdurauf Fitrat ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 45-67.
15. Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 15-42.
16. Ergashev Q. Buxoro jadidlarining ma’rifiy faoliyati. – Buxoro: BuxDU, 2012. – B. 89-112.
17. Norqobilov Sh. Fitratning ta’lim haqidagi qarashlari. – Toshkent: Akademiya, 2014. – B. 56-78.
18. Aminov B. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 56-78.
19. Xasanov M. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o‘qitilishi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 34-56.
20. Karimova S. Jadidlar va astronomiya ta’limi. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 67-89.
21. Tursunov B. Jadid darsliklarida tabiiy fanlar. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 45-60.
22. Raximova D. Jadid maktablarida ko‘rgazmali o‘qitish usullari. – Buxoro: BuxDPI, 2020. – B. 34-48.

SHASHMAQOMNI NOTAGA OLISHDA JADID MUNAVVARI ABDURAUF FITRAT XIZMATLARI

Radjabova Nodira Mehmonovna

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san’atiga

ixtisoslashtirilgan maktab-internati o’quv ishlari

bo’yicha direktor o’rinbosari,

tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD)

Ma’lumki, o’zbek musiqiy merosimiz bo’lmish Shashmaqom ustoz shogird an’anasi asosida og’zaki tarzda o’tmishdan bizgacha yetib kelgan. Garchand Farobiy asarlarida o’z zamonasining madaniy merosi sifatida qayd etilgan bo’lsada, ammo notalashtirilgan kitob shaklida mavjud emas edi. Turkiyada o’qib yurgan chog’larida

jadidchilik g’oyalarini chuqur o’rgangan, zamonaviy fikrlar bilan an’anaviy qadriyatlarni uyg’unlashtirishga intilib, Shashmaqom kabi umrboqiy merosimizning avlodlarga bezavol yetib borishini ta’minlash mas’uliyatini xis etgan Abdurauf Fitrat Shashmaqomni o’rganish va yozib olish tashabbusini ilgari suradi.

Buxoro Shashmaqomini o‘rganishda Abdurauf Fitrat (1887-1938) ning xizmatlari alohida e’tiborga sazovordir. Abdurauf Fitrat Sharq musiqa asboblari va musiqaga oid adabiyotlarni uzoq yillar davomida to‘plagan. Uning uyida Sharq musiqa asboblari kolleksiyasi bo‘lgan. U tanbur chertish san’atini egallagan. Shunisi taajjublanarliki, Abdurauf Fitrat maxsus musiqiy ta’lim olmagan. U arab, fors, turkiy tillarni mukammal egallash bilan birga Sharq musiqiy ilmiga oid kitoblarni ko‘p o‘rgangani, o‘qigani uchun musiqadan mukammal asar yozgan. Uning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” [1] asari maqomlar haqidagi ilmiy tadqiqotlardan biri bo‘ldi. Bu kichik monografik asarda muallif Shashmaqomning tuzilishi va uning yaqin o‘tmish tarixini manbalar asosida yoritishga harakat qilgan. Maqom yo‘llarini yaxshi egallagan Fitrat o‘z asarida qisman bo‘lsa-da, maqomlarni xalq musiqa asarlari bilan taqqoslab ta’riflashga uringan. Muqaddima qismida esa, “O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi so‘nggi yillarda o‘zbek tiliga, adabiyotiga va tarixiga oid anchagina ma’lumot to‘plab yaxshigina natijalar chiqarishga muvaffaq bo‘lsa-da, o‘zbek musiqamizga tegishli jiddiy tatabu’otda bo‘lina olmadi” deya e’tirof qilinadi. Buning asosiy sababi esa “bu sohada ishlay olaturg‘on, ya’ni asliy ma’noda musiqa nazariyasini bilaturg‘on va Sharq musiqasining xususiyatlariga voqif musiqashunoslarning yo‘qligida ekanligi afsus bilan ta’kidlanadi[2]. Shuning uchun Fitrat rus musiqachisi V.A.Uspenskiyni ushbu ishga jalb qiladi.

Shashmaqomni o‘rganish ishida bu dastlabki qadam bo‘lib, mazkur vazifa Buxoroda Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) da maorif noziri –Abdurauf Fitrat tashabbusi va sa’y harakatlari bilan etnografik komissiya tuzish asosida jonlandi. Otajalol Nosirov, Ota G’ani G’iyosov, Levi Boboxonov, V.Uspenskiy va boshqalardan iborat komissiya ishiga Abdurauf Fitrat rahbarlik qildi. Shashmaqom tadqiq qilinib, Shashmaqom turkumi tarixan ilk bor nota yozuviga olinadi. Bu vazifani bajarish Toshkent shahrida istiqomat qilgan taniqli musiqiy-etnograf va kompozitor-Viktor Aleksandrovich Uspenskiyga topshiriladi[217]. U Buxoroga borib, o‘tmishda amir saroyi xizmatida bo‘lgan keksa maqomdon –hofiz Ota Jalol Nosirov hamda tanburchi - Ota G‘iyos Abdug‘ani ijrolaridan jami olti maqom (150 ta asarlar)ni fortepiano yordamida notaga olishga muvaffaq bo‘ladi. Mazkur yozuv Abdurauf Fitrat va N.N.Mironov tahririda “Shashmaqom”, “Шесть музыкальных поэм” nomi bilan 1924-yilda Moskva shahrida 5000 nusxada chop etilgan[4].

[217] Viktor Aleksandrovich Uspenskiy Rossiyaning Kaluga shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. U Sankt-Peterburg konservatoriyasini 1912-yilda tugatgan. Uspenskiy Sharq musiqasi bilan qiziqib, Turkistonga ko‘chib kelgan va shu zaminda ikkinchi vatan sifatida yashab qolgan.Abdurauf Fitrat 1919-yilda Toshkentda muhojirlikda bo‘lganida musiqashunos Uspenskiy bilan tanishgan va uning Toshkent mahalliy xalq Konservatoriyasini tashkil etganligidan xabardor edi. 1924-yilda ustozi V.M Belyaev V.A. Uspenskiyga: “Musiqaga oid qo‘lyozmalarini qidirib top, bu nihoyatda zarur manbalar” degan, unga javoban V.A. Uspenskiy: “Bu qo‘lyozmalarni qadrlovchisi va bilimdoni Fitratdir”-deb javob xati yozgan. V.A. Uspenskiy Buxoroda Domla Halim Ibodov, Levicha Boboxonovlar bilan hamkorlikda “Shashmaqom”ni to‘la notaga yozib olgan.Keyinchalik V.A. Uspenskiy Buxoro musiqa maktabida ta’lim bergan, ustozi V.M. Belyayevning “O‘zbeklar musiqasi” (1930), “Milliy musiqani o‘rganish masalasiga doir” asarlari bilan birdek qadrli bo‘lgan “O‘zbeklarning klassik musiqasi” (1927), “Farhod va shirin musiqasini ishlaganim” (1937) kabi risolalarini yozgan.

F.Xo‘jayev Uspenskiyning xizmat haqqini sof Buxoro oltini bilan to‘ladi[5]. Demak “Shashmaqom”ni notaga to‘liq tushirilishining tashabbuskori bevosita Abdurauf Fitrat hisoblanib, ishning boshida esa V.A. Uspenskiy turgan.

BXSR yillarida musiqa ta’limi va musiqa targ‘iboti haqida fikr yuritilar ekan, bu o‘rinda Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Fitrat 1921- yilning 9- martida Toshkentdan Buxoroga qaytgach, ona yurtida maorif va madaniyat ishlari bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. Sadr Ziyo, Musa Saidjonov kabi bir qator maslakdoshlari bilan hamkorlikda ilmiy jamiyat tuzib, turli fanlarga oid nodir qo‘lyozmalarni to‘plashga kirishdi. 1922-1923- yillarda Buxoro Xalq Sho‘rolar jumhuriyati (BXSR) ning maorif noziri vazifasida ishlagan kezlari bu faoliyati doirasini yanada kengaytirdi. Endi u Buxoroda Sharq dorilfununini tashkil etish asoslarini tayyorlashga kirishdi. Uning musiqiy ta’limni yo‘lga qo‘yish, Shashmaqomni targ’ib qilish va umuman musiqiy ishlarni jonlantirish sohasidagi tashabbuskorligi alohida ahamiyatga molik. Fitrat musiqiy ta’limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yishni ko‘zlab, Buxoro shahrining Ravg‘angaron guzarida BXSR hukumati tomonidan o‘ziga in’om etilgan hovli (hozir xususiylashtirilgan 8-uy) da ixtisoslashgan musiqa maktabi tashkil etdi. Bu maktab “Sharq musiqa maktabi” deb atalib, yevropacha usuldagi musiqa maktabidan farq qilar, unda ta’lim jarayoni sharqona ustoz-u shogird saboqlari asosida qurilgan edi. Unga BXSR hukumatining 1921- yil 10- avgustdagi farmoyishi bilan Abdurauf Fitrat direktor, Domla Halim Ibodov ilmiy mudir etib tayinlangan edi[4]. Keksa ustoz va ularning shogirdlaridan Ota Jalol, Ota G‘iyos, domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Abusoat Vaxobov, Usto Shodi Azizov, Matyusuf Xarratov kabilar iqtidorli yoshlarga Shashmaqom sirlaridan saboq berish uchun taklif etildilar [6].

Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan Eski Buxoroda bevosita olimning yashagan uyida ochilgan “Sharq” musiqa maktabi haqida fikr yuritmaslik aslo mumkin emas. Abdurauf Fitrat hukumat xizmatida ishlash uchun o‘tganida sobiq amir amaldorlaridan biri To‘rayi Chorjo‘yiga tegishli Buxoroning Dasturxonchi hovuzi yonida joylashgan boloxonali hovlisidan uy-joy berilgan edi. Shuningdek, unga xizmat oti va foytun ham berilib, shu tariqa transport vositasi bilan ta’minlangandi. 1921-yilning martida Abdurauf Fitrat o‘zi istiqomat qilib turgan To‘rayi Dasturxonchi hovlisini musiqa maktabi uchun bo‘shatib berdi va o‘zi ukasi Abdurahmon Abdurahim baqqol o‘g‘li yashab turgan otasining eski hovlisiga ko‘chib o‘tdi. Abdurauf Fitrat ochgan musiqa maktabida ayrim manbalarda 25-30 ta, ayrim manbalarda 50 tagacha o‘quvchi tahsil olganligi qayd etilgan[7]. Ushbu maktab mudiri (direktori) Abdurauf Fitrat bo‘lib, Buxoro Sharq maktabida ustozlar izlab topish ham uning zimmasiga yuklatilgandi. Abdurauf Fitrat ayrim musiqa asboblari, jumladan tanbur chertish(chalish)ni yaxshi bilganligi uchun o’quvchilarga saboq berish shaxsan uning tomonidan ham amalga oshirilgan. Fitrat ochgan musiqa maktabida o‘quvchilar ta’lim olishi tekin bo‘lib, hatto, ularga har oy 15 oltin so‘m miqdorida stipendiya berilgan. O‘quvchilar tushlik (oziq-ovqat), har olti oyda kiyim-kechak bilan ta’minlangan. O‘quvchilar o‘rganishi uchun musiqa asboblaridan dutor, tanbur, g‘ijjak, doira, do‘mbira, qashqar rubob kabi milliy musiqa asboblari bilan birga, yevropa musiqa asboblari ham maorif nozirligi tomonidan tekin olib kelingan.

Sharq musiqa maktabi o’z faoliyatida ko’proq og’zaki uslubga, ya’ni Buxoroda eskidan kelayotgan ustoz-shogird an’analariga tayangan. Unda ustozlar amalda aytib yoki chalib ko’rsatib berganlar, shogirdlar esa bevosita eshitib o’zlashtirib olganlar. Fitrat musiqa maktabi o‘quvchilari ham Sharq ham G‘arb musiqasidan tahsil olishgan. Shuningdek, Buxoro milliy san’atiga tegishli bo‘lgan “Shashmaqom”, “Mavrigixonlik”, “Buxorcha turkumlar” ham yoshlarga o‘rgatilgan. Musiqa maktabi Buxoro maorif nozirligi huzurida ochilgan duxovoy orkestr o‘rgatadigan doril musiqa kursi bilan aloqada bo‘lgan. Duxovoy orkestr bitiruvchilari BXSR hukumati tadbirlarida ya’ni miting va namoyishlarda, elchi va chet ellik mehmonlarni qabul qilishda, bayram kunlarida, tantanali marshlarda musiqa chalish vazifasini bajarishardi[8]. Bu bir tomondan BXSRga Yevropa musiqa madaniyati bilan transformatsion jarayonlarni anglatsa, ikkinchi tomondan komunistik mafkura ta’siri kuchayib borayotganligidan dalolat berardi. Abdurauf Fitrat musiqa maktabini malakali musiqashunos pedagog xodimlar bilan ta’minlash maqsadida taniqli rus musiqashunosi V.A. Uspenskiyni maktabga o‘qituvchilik qilishi uchun taklif etdi[9]. Ota Jalol Nosirov, Levi Boboxonov, Ota G’ani G’iyosov va Uspenskiy kabi muallimlardan ta’lim olgan maktabning sobiq o‘quvchilaridan keyinchalik Buxoro musiqashunosligi va qo‘shiqchiligi borasida ulkan yutuqlarga erishgan Shonazar Sohibov, Shavkat Niyoziy, Muxtor Ashrafiy, Ayub Qodirov, Fayzulla Karomatov, Ahmadjon Ixtiyorov kabilar yetishib chiqdi. Ular musiqa tarixida “Abdurauf Fitrat va V.A Uspenskiy maktabi musiqachilari” –deb nom oldilar [10].

Xullas, Abdurauf Fitrat o’zining ma’rifatparvarlik faoliyati natijasida o’lka rivojiga ulkan hissa qo’shdi. Birgina musiqa va san’at yo’nalishida uning tashabbusi bilan Shashmaqomning tadqiq qilinishi va nota yozuviga olinib birinchilardan bo’lib kitob holiga keltirilishi natijasida u tufayli mumtoz musiqamiz yo’qolib ketish xavfidan xoli bo’ldi. Kelajak avlod uchun beqiyos ma’naviy meros qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitratning ushbu asari ilk bor 3053 nusxada, 1924-yilda arab imlosida bosilgan. (qarang) Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Самарқанд-Тошкент, 1927 (arab imlosida), 2-нашри Тошкент.1993.-56 б;

2. Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи...-Б.3;

3. Юнусов Р. Ўзбек мақомлари. Тошкент.:“Ўзбекистон”, 2018.-Б.24;

4. Сафаров О. Шашмақом ватани оҳанглари. Тошкент.:“Фан”, 2009.-Б.12;

5. Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Самарқанд-Тошкент,1927. Кирилда янги нашр. Тошкент.:1993. -Б.3;

6. *Nusratillo Naimov. Fitrat fojiasi (tarixiy qissa).Toshkent.:“Fan”,2005. -B.82 bet (lotin imlosida);*

Duxovoy musiqa haqida//Buxoro axbori,20 -son .1921-yil 11- dekabr, Duxovoy musiqa orkestri holati // Buxoro axbori, 123- son,1929- yil 15-oktyabr;

7. O‘zbekiston milliy arxivi, R-56 fond, 1-ro‘yxat, 124-yig‘ma jild,11,12-varaqlar

8.*Naimov N. Fitrat fojiasi (tarixiy qissa).Toshkent.:“Fan”,2005. -B.83 bet (lotin imlosida);*

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA JADIDCHILAR AXLOQIY QARASHLARINING AHAMIYATI

Nazarov Tohir Toshpo‘lotovich

BDPI, Harbiy ta’lim fakulteti

maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm - fani va madaniyati ham chor ma’muriyati to‘siqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta’sir asta - sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi uyg‘onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o‘z xalqini ozod ko‘rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu uyg‘onish Yevropa ma’rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo‘ldi. Shuningdek, o‘rta asrlar o‘rtaga tashlagan ma’rifatparvarlik g‘oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma’rifatchilik tarzida namoyon bo‘lish imkoniyati yaratildi. Zero o‘sha g‘oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma’rifatchilik asosan uch soxa orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli – ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uygunlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi. Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok singari o‘sha davrlarda hali ko‘p quloq o‘rganmagan fazilatlarni ham alohida e’tibor bilan nazariy - amaliy taxlildan o‘tkazadi, o‘quvchiga iloji boricha qisqa va lo‘nda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”, “yomon xulqlar”ga - illatlar taxliliga katta o‘rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to‘siq bo‘ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: “Jaholat insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘idir”. Avloniy g‘azab, shaxvat, hasad, kibr, tama’ singari illatlarga ham atroflicha ta’rif beradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Abdulla Avloniy axloqshunoslik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki ham falsafiy, ham badiiy jihatdan talqinini beradi. Chunonchi, u muayyan axloqshunoslik tushunchasi yoki axloqiy me’yorning sodda, lo‘nda ta’rifini taqdim etar ekan, ba’zi hollarda Suqrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari xalqlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa, goho ularni

nazmiy tizmalar bilan o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” risolasi XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida eng salmoqli o‘rinni egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammolarini falsafiy va pedagogik yondoshuv orqali hal etishga bagishlangan yirik asardir[1].

Turkiston ma’rifatchilari axloqshunosligida tom ma’nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” kitobi alohida o‘rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, “Oila” o‘zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda ham tankidiy Ruh, ham da’vat ruhi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod kurishni istaydi, buning uchun har bir Turkistonlik oila bilim, axloq, a’mol va erk o‘chog‘i bo‘lmog‘i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda ko‘rishga da’vat etadi. Har jihatdan sog‘lom bo‘lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko‘tara olishini, uni istibdodan qutqarishini aytadi: “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu tan, aql va axloqdur. Lekin ana shu qurol aslahamiz sinib zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor” - deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, muallif kitobning birinchi qismini, ma’lum ma’noda me’yoriy dasturamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo‘lgan Turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy - maishiy, gigiyenik - salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, u izzat - nafs, ayniqsa iroda masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. “Iroda va ixtiyor” sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da’vat etadi. Iroda tarbiyasining to‘rt banddan iborat qoida - bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota- onaning zo‘ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta’kidlaydi. “Ota - onalarning haq huquqlari” bobida ham balog‘atga yetgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloq - odob egasi bo‘lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya’ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo‘lida ekani hammaga ayon bo‘lib qoladi. Shu bois ilgor, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy – tarbiyaviy risolalar yozish yo‘li bilan ham bo‘lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo‘shadilar.

Turkiston ma’rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g‘oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o‘z aksini topdi. Shu jihatdan o‘zbek va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning “Navodir ul - vaqoe” asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o‘z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta’kidlaydi. Ayni paytda an’anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san’atning gullab yashnashiga yo‘l ochib bersa - xalq hayoti farovon bo‘ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo‘lishi lozim, davlatning mohiyatini aql

belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma’rifatli va yuksak axloq egalari bo‘la oladi[2].

Shuningdek, Ahmad Donish o‘z davridagi johillik, riyokorlik, poraxo‘rlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta’kidlar ekan, din peshvolarining notug‘ri yo‘lga kirib ketganini, shayxlarning yolg‘onchiligini, ulomolarning poraxo‘rligini fosh qiladi.

Qoraqolpok xalqining buyuk mumtoz shoiri Berdak she’rlarida ham o‘sha davr axloqiy muhiti o‘z aksini topadi; u ham din peshvolarining o‘zi oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochko‘zlik, tekinxo‘rlik illatlariga mubtalo bo‘lganliklarini va bu bilan islom ildiziga bolta urayotganliklarini qattiq tanqid ostiga oladi. Furqat, Muqumiy. Dilshod - Barno asarlaridagi axloqiy muammolar taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Chunonchi, Furqat “Ilm xosiyati”, “Gimnaziya”, “Tarjimai holl” kabi asarlarida ma’rifatli bo‘lish yuksak axloq egasiga xos xislat ekanini, lekin, nodonlik oxir - oqibat turli xulqiy notavonlikka olib kelishini ta’kidlaydi. Shoir g‘azallaridan birida shunday deb alam bilan yozadi:

Charxi kajraftorining bir shevasidin dog‘men,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Muqumiyning hajviy asarlarida esa o‘sha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofligi, adolatsizligi qattiq tanqid qilinadi. Shoirning “Voqeai Viktor”, “Voqeai ko‘r Ashurboy hoji”, “Tonobchilar”, “To‘y” singari asarlari Turkiston xalqlari oyog‘idan tobora tubanlikka tortayotgan illatlarni ayovsiz fosh etadi. O‘sha davrdagi boylarning nafsdan boshqa narsani bilmasliklarini, faxshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik hukmronlik qilayotganining alam bilan yozadi.

Abay tug‘ma axloqiylikni butunlay inkor etmasa-da insonning axloqiy darajasi tarbiya bilan boglikligini qat’iy ta’kidlaydi. Ayni paytda tarbiyaga va axloqiy darajaga muayyan ijtimoiy muhitning, zamonning ta’sirini asosiy sababchi deb biladi: “Inson bolasini zamonaviy parvarish qiladi, kimda – Kim yomon bo‘lsa, ayb zamondoshlarida, - deydi faylasuf - shoir. Uning xaqligini insonni axloqiy - ma’naviy jihatdan anchagina tubanlashtirib, uni e’tiqodsizlik, yolg‘onchilik kasaliga mubtalo qilib kuygan mustamlakachilik va ayniqsa, sho‘rolar zamonasining salbiy ta’sirida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Abayning hayo, uyat, insof, oqillik, adolat singari fazilatlar va maqtanchoqlik, oliftagarchilik, kerilish, yolg‘onchilik, ochko‘zlik kabi illatlar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor.

Agar Anbar otinning “Qarolar falsafasi” risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy – falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko‘proq ta’rif berish, ularni sharhlash yo‘li bilan yondoshadilar.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida an’anaviy - falsafiy yondoshuv bo‘lmish antropolgik nuqtai - nazar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tatqiqot obyekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavxumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o‘z oldiga niyat

qilib qo‘ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Anna shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o‘rtaga tashalanadi[3].

Faylasuf pedagog, avvalo millatni tarbiyalashni o‘z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to‘xtaladi: otalar - to‘ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar - o‘zlari tarbiyaga muxtoj, dorilmuallimini tugatish kerak bo‘lgan mudarrislar esa - darslari beimtihon, isloh yaqiniga yo‘llamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta’lim - tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo‘lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u yer - bu yerda yangicha maktablar ochgani - shunchaki jahon jamoatchiligini chalgitish ekanini, ochiq bo‘lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o‘tadi: “hukumat hammaning otasidir. O‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmoq lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatimiz o‘gay bo‘lsa ham har yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin oq‘itur”. Avloniy ana shu “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va o‘z davrini “Tarbiyaning zamoni - tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari xanuz o‘z kuchini yo‘qotmaganligini, tarbiya - hozir hamjamiyat uchun dolzarb muammo ekanidan dalolat beradi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Darhaqiqat, Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg‘u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland darajada berguvchi” tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf – pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.M.Uzoqov. Ofitser harbiy rahbar etikasi, O‘quv qo‘llanma, B.: “Kamolot”, 2022 y.

2. T.T.Nazarov. Ofitser harbiy rahbar etikasi, Darslik, B.: “Kamolot”, 2022 y.

3. Sh.N.Abdurahmonov, U.I.Ma’murov. Harbiy rahbar mahorati, O‘quv qo‘llanma, B.: “Kamolot”, 2022 y.

4. Abdulla Sher, Axloqshunoslik, Darslik, T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” 2010 y.

KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZLIK IJTIMOIY ONG VA AXLOQIY KATEGORIYA SIFATIDA

Ilmiy rahbar: B.B. O‘razov

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Obidov Mirjon

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Korrupsiyaga qarshi murosasizlik tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda jamiyatning axloqiy yetukligi, huquqiy madaniyati va fuqarolik mas’uliyati darajasini ifodalovchi muhim kategoriya sifatida qaraladi. Mazkur tushuncha faqatgina korrupsiyaviy xatti-harakatlarni inkor etish yoki huquqiy jihatdan qoralash bilan cheklanmaydi, balki korrupsiyani ijtimoiy adolat, axloqiy me’yorlar va insoniy qadriyatlarga mutlaqo zid hodisa sifatida anglash va baholashni nazarda tutadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, murosasizlik – bu ijtimoiy ongning ma’lum bir hodisaga nisbatan qat’iy bahosi bo‘lib, u jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va me’yoriy chegaralarning buzilishiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Korrupsiyaga qarshi murosasizlik esa jamiyatda korrupsiyaning “muqarrar yomonlik” emas, balki ijtimoiy jihatdan nomaqbul og‘ish (deviatsiya) sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liq.

Mazkur masala Emil Dyurkgeymning ijtimoiy me’yorlar va kollektiv ong haqidagi qarashlari bilan uzviy bog‘liq. Dyurkgeymga ko‘ra, jamiyat barqarorligi umumiy axloqiy qoidalar va kollektiv tasavvurlar bilan ta’minlanadi; ushbu qoidalar buzilganda jamiyat ularni sanksiyalar orqali rad etadi[218]. Shu ma’noda korrupsiyaga qarshi murosasizlik jamiyatning axloqiy “himoya mexanizmi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Kollektiv ong deganda Dyurkgeym jamiyatdagi barcha a’zolarga umumiy bo‘lgan fikrlar, tuyg‘ular va axloqiy qarashlar majmuasini tushunadi. Bu ong, individu oldida ustun turadi va uning xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning har bir a’zosi bu kollektiv ongdan o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlarni oladi va o‘zining ijtimoiy rolini tushunadi. Agar jamiyatdagi umumiy me’yorlar va qadriyatlar zaiflashsa yoki yo‘qolib ketsa, bu holat “anomiya”[219] deb ataladi – ya’ni tartibsizlik, normasizlik holati. Anomiya sharoitida individlar o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishadi, jamiyatda esa ichki qarama-qarshiliklar va nizolar kuchayadi.

Shuning uchun, ijtimoiy me’yorlarning saqlanishi va rivojlanishi jamiyat farovonligi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bu me’yorlar, o‘z navbatida, jamiyat tomonidan qabul qilingan va himoya qilinadigan haqiqatlardir. Agar biror me’yor buzilsa, jamiyat jazo choralari (sanksiyalar) orqali bu buzilishni tuzatishga harakat

[218] Durkheim É. The Division of Labour in Society. – London: Macmillan, 1984. – P. 38–45

[219] Durkheim, É. Suicide: A Study in Sociology. Trans. J. A. Spaulding & G. Simpson. New York: Free Press, 1951, pp. 241–258.

qiladi. Bu sanksiyalar huquqiy jazolardan tortib, jamoaning noroziligigacha bo‘lishi mumkin. Bunday mexanizm orqali jamiyat o‘zining asosiy me’yorlarini himoya qiladi va barcha a’zolarining ushbu me’yorlarga rioya etishini ta’minlaydi. Bu, ayniqsa, biz ko‘rib chiqayotgan masala kontekstida, jamiyatning ijtimoiy integratsiyasi va barqarorligini ta’minlashning muhim jihati hisoblanadi.

Ijtimoiy ong — jamiyat a’zolarining ijtimoiy borliqni idrok etishi, baholashi va unga nisbatan munosabatini ifodalovchi murakkab tizim bo‘lib, u kundalik ong, axloqiy ong, huquqiy ong, siyosiy ong va mafkuraviy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Korrupsiyaga qarshi murosasizlik aynan shu darajalar kesishmasida shakllanadi.

Agar kundalik ong darajasida korrupsiya “masalani hal qilish vositasi” sifatida qabul qilinsa, axloqiy ong darajasida u oqlanishi mumkin. Bunday holat jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Maks Veber bu holatni rasmiy me’yorlar va norasmiy amaliyotlar o‘rtasidagi ziddiyat bilan izohlaydi[220].

Rasmiy me’yorlar va norasmiy amaliyotlar o‘rtasidagi tafovut nafaqat davlat muassasalarida, balki shaxsiy hayotda ham o‘z aksini topishi mumkin. Masalan, biror ishning tezlashishi yoki muayyan imtiyozga ega bo‘lish uchun noqonuniy yo‘llarga murojaat qilish jamiyat a’zolari tomonidan oddiy holdek qabul qilinishi mumkin. Bu holatda, bir tomondan, qonun va adolat tamoyillari buzilsa, ikkinchi tomondan, bu harakatlar “ishlash oson bo‘lishi” yoki “tezkorlik” bahonasi bilan oqlanadi. Bunday qarashlar rivojlanib borsa, jamiyatda axloqiy me’yorlarning susayishiga va korrupsiya madaniyatining shakllanishiga olib keladi. Nihoyat, bu jamiyatning umumiy rivojlanishiga, ijtimoiy taraqqiyotiga va iqtisodiy o‘sishiga jiddiy to‘siq bo‘ladi.

Korrupsiyaning axloqiy jihatdan oqlanishi, ko‘pincha, shaxsiy manfaatlar bilan jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Agar jamiyatda adolat va tenglik tamoyillari kuchli bo‘lmagan taqdirda, ba’zi shaxslar o‘zlarining ijtimoiy mavqeini yoki moddiy boyligini oshirish uchun korruptsion yo‘llarni tanlashlari mumkin. Bunday holatda, ular o‘z xatti-harakatlarini “hayotning haqiqati” yoki “raqobatbardosh muhitda yashashning zaruriy sharti” deb atashlari mumkin. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishning nafaqat huquqiy, balki axloqiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan ham muhimligini ko‘rsatadi. Jamiyatda transparentlik, hisobdorlik va vijdonli ish yuritish madaniyatini shakllantirishgina bu illatning ildiz otishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Huquqiy ong darajasida esa korrupsiyaga qarshi murosasizlik qonun ustuvorligi va javobgarlik tamoyillarining ichki e’tiqodga aylanishi bilan belgilanadi. Qonun faqat tashqi majburiyat sifatida emas, balki axloqiy qadriyat sifatida qabul qilingandagina murosasizlik barqaror tus oladi.

Axloqiy falsafada korrupsiyaga qarshi murosasizlik adolat, halollik, vijdon va mas’uliyat kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liq. Qadimgi yunon falsafasida Aflotun adolatni jamiyatning asosiy fazilati sifatida talqin qilib, mansabdor

[220] Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978. – Vol. I. – P. 223–226

shaxslarning shaxsiy manfaat yo‘lida adolatni buzishi davlat inqirozining boshlanishi ekanini ta’kidlaydi[221].

Adolatning bunday izchil talqini davlatning barqarorligi va rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Aflotun mansabdor shaxslarning o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishi, shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishi lozimligini qat‘iy ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar mansabdor shaxslar o‘zlariga berilgan imkoniyatlardan shaxsiy boylik orttirish yoki o‘z manfaatlarini ko‘zlash uchun foydalansalar, bu jamiyatdagi adolat tamoyillarini buzadi. Bunday harakatlar, Aflotunning qarashlariga ko‘ra, davlat inqirozining boshlanish nuqtasi bo‘lib, unda jamiyatning yaxlitligi va osoyishtaligi tahdid ostiga qoladi.

Shu bois, Aflotun o‘zining ideal davlat haqidagi qarashlarida rahnamolarni (hukmdorlarni) falsafiy bilimga ega, adolat va hikmatga chanqoq insonlar bo‘lishini istaydi. Ular nafaqat davlatni boshqarish san’atini bilishlari, balki ma’naviy jihatdan ham pok, korrupsiyadan yiroq bo‘lishlari zarur. Mansabdor shaxslarning adolatsizligi davlat tizimining tubdan zaiflashuviga, fuqarolarning davlatga ishonchini yo‘qotishiga va natijada jamoaning parokandaligiga olib keladi. Shuning uchun Aflotun adolatni davlatning mustahkamligi va farovonligining kafolati sifatida ko‘radi.

Arastu esa adolatni taqsimlovchi va tenglashtiruvchi shakllarga ajratib, manfaatlarni adolatsiz taqsimlash jamiyatda norozilik va ishonchsizlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi[222]. Uning fikricha, har qanday jamiyatning barqarorligi va farovonligi, avvalambor, boylik va imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishiga bog‘liq. Arastu ushbu tamoyilni buzish esa salbiy oqibatlarga olib kelishi shubhasizdir.

U o‘z asarlarida ko‘p bor ta’kidlaganidek, manfaatlarning, xususan, iqtisodiy resurslar, imtiyozlar va ijtimoiy mavqening adolatsiz taqsimlanishi jamiyatda katta yoriqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu yoriqlar asta-sekin chuqurlashib, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida norozilik va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Arastu bunday holatni “ijtimoiy beqarorlikning birinchi alomati” deb ataydi va bu jamiyatning umumiy rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Professor Anvar Jo‘rayevning “O‘rta asr falsafasi” kitobida keltirilishicha, Arastu adolatsiz taqsimotning uch asosiy shaklini ko‘rsatib o‘tgan: birinchidan, boylikning biror shaxs yoki kichik guruh qo‘lida to‘planib qolishi; ikkinchidan, jamiyat a’zolariga ularning mehnati yoki hissasiga mos kelmaydigan daromad yoki imtiyozlarning berilishi; uchinchidan esa, jamiyat a’zolarining o‘zlarining ijtimoiy huquqlaridan mahrum qilinishidir[223]. Bu holatlar barchasi birgalikda ham iqtisodiy, ham ma’naviy jihatdan jamiyatni zaiflashtiradi.

Arastu, shuningdek, adolatsiz taqsimot natijasida yuzaga keladigan norozilikning turli bosqichlarda namoyon bo‘lishini tushuntiradi. Dastlab, bu norozilik ichki, yashirin shaklda bo‘lib, odamlarning haqsizlikka bo‘lgan ishonchsizligi sifatida yuraklarda saqlanadi. Keyinchalik, bu norozilik kuchayib, jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida norasmiy muloqotlar, shikoyatlar va bahs-

[221] Platon. The Republic. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – Book IV. – P. 120–125
[222] Aristotle. *Nicomachean Ethics*. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – Book V. – P. 89–94
[223]A. Jo‘rayev. O‘rta asr falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010. — 240 b.

munozaralar orqali yuzaga chiqadi. Nihoyat, eng achinarli holatda, bu norozilik jamiyatda tartibsizliklar, g‘alayonlar va hatto inqiloblarga olib kelishi mumkin. Arastu bunday holatdan qochishning yagona yo‘li – adolatli va teng taqsimot tamoyiliga amal qilish ekanligini qayta-qayta uqtiradi.

Yangi davr axloqiy falsafasida Immanuel Kant korrupsiyaga qarshi murosasizlikni axloqiy burch tushunchasi bilan asoslaydi. Kantga ko‘ra, inson harakati manfaatga emas, balki universal axloqiy qonunga asoslanishi lozim. Korrupsiyaviy xatti-harakat esa bunday qonunga zid bo‘lib, uni mutlaqo rad etish axloqiy ongning belgisi hisoblanadi[224].

Shu bois korrupsiyaga qarshi murosasizlikni o‘quvchilar va talabalar ongida shakllantirish — kelajak jamiyatining axloqiy poydevorini yaratish demakdir. Bu jarayon ta’lim, tarbiya, huquqiy savodxonlik va ijtimoiy faollik orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi murosasizlik ijtimoiy ong va axloqiy kategoriya sifatida jamiyatda adolat, halollik va huquqiy madaniyatning real ustuvorligini aks ettiradi. Ushbu murosasizlik o‘quvchilar va talabalar ongida tizimli, uzluksiz va maqsadli shakllantirilgandagina barqaror ijtimoiy natija beradi.

SYUJETLI-ROLLI O’YINLAR ORQALI BOLALARDA NUTQIY FAOLLIKNI OSHIRISH METODLARI

O‘ktamova Niginabonu Sherali qizi

Buxoro davlat pedagogika institute

1-bosqich magistranti

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Nutqiy faollik nafaqat bolalarning fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, balki ular orasida ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, fikr almashish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish qobiliyatini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash va sifatli ta’limni amalga oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bolalarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlarda bolalarning til va nutq rivojlanishi, o‘z fikrini so‘z bilan ifodalash, savol-javob va muhokama

[224] Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 31–36.

faoliyati orqali ijtimoiylashuvi mustahkamlanishi kabi jihatlar alohida e’tiborga olingan. Syujetli va rolli o‘yinlar pedagogik amaliyotda nutqni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. O‘yin jarayonida bola turli rollarni o‘ynab, turli vaziyatlarni tasavvur qilishi natijasida nutqiy faoliyati faollashadi, fantaziya va tasavvur ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, o‘yin faoliyati bolalarda kommunikativ madaniyatni shakllantirishga yordam beradi, ular o‘zaro muloqot qilish, fikr bildirish va ijtimoiy muomala ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida syujetli va rolli o‘yinlarni qo‘llash pedagogik jarayonning barcha yo‘nalishlariga integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. Nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarida o‘yin elementlarini qo‘shish, vizual materiallar va interaktiv vositalardan foydalanish bolalarning nutqiy ifodasini kengaytiradi, o‘yin davomida ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga rag‘batlantiradi. Shu sababli, mazkur maqolada syujetli va rolli o‘yinlar yordamida bolalarda nutqiy faollikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, davlat dasturlari va talablari bilan uyg‘unligi, shuningdek pedagogik mexanizmlari va metodik yondashuvlari kengaytirilgan holda tahlil qilinadi. Maqola natijalari maktabgacha ta’lim amaliyotida nutq rivojlanishini rag‘batlantirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning ijtimoiylashuvi, shaxsiy o‘zini anglashi va ijodiy fikrlashining poydevorini yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. Nutqiy faollik bolalarning atrof-muhitni anglash, fikr almashish, his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, nutqning rivojlanishi bolalarda tafakkur operatsiyalarini kuchaytiradi, tasavvur va fantaziya qobiliyatlarini kengaytiradi hamda muloqot madaniyatini mustahkamlaydi. Davlat ta’lim siyosati maktabgacha ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bolalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlar bolalarning so‘z boyligi, grammatik tuzilmani tushunishi, fikrini so‘z orqali aniq ifodalashi, savol-javob va hikoya tuzish faoliyati orqali kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Syujetli va rolli o‘yinlar pedagogik amaliyotda bolalarning nutqiy faolligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola turli rollar va vaziyatlarni qabul qiladi, o‘zini turli obrazlar orqali ifodalaydi, bu esa nutqiy ijodiy faoliyatni faollashtiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar bolalarning hamkorlik, murosaga kelish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Rolli o‘yinlar davomida bola o‘z fikrini izchil bayon qilishni o‘rganadi, o‘zaro muloqot jarayonida tinglash va tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, natijada nutqiy madaniyati shakllanadi. Pedagogik amaliyotda ushbu o‘yinlarni qo‘llashning samarali shakllari — dramatizatsiya, mini-sahna chiqishlari, multfilm va hikoya asosidagi o‘yinlar, topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni yaratishdir. Shu bilan birga, o‘yin metodlari maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning qiziqish va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oila o‘rtasidagi hamkorlik nutqiy faollikni rivojlantirish jarayonini mustahkamlaydi. Ota-onalarga uyda syujetli-rolli o‘yinlar bilan shug‘ullanish bo‘yicha tavsiyalar berish, bolalarning nutqiy qobiliyatlarini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash davlat dasturlarida belgilangan uzluksizlik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi.

1. Nutq rivojlanishini shakllantirishning normativ-huquqiy va konseptual asoslari

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bolalarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlar bolalarning so‘z boyligi, fikrni bayon qilish, savol-javob va hikoya tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Nutq rivojlanishi bolalarning ijtimoiylashuvi, fikrlash faoliyati va fantaziyasini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda syujetli va rolli o‘yinlar bolalarning nutqiy faolligini rag‘batlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

2. Syujetli va rolli o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari

Syujetli va rolli o‘yinlar bolalarni turli ijtimoiy vaziyatlarga kiritish, ular orqali nutqni faollashtirish va tasavvurini rivojlantirish imkonini beradi. O‘yin jarayonida bola turli rollarni ijro etadi, o‘zini turli obrazlar orqali ifodalaydi, bu esa nutqiy ifoda va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Shu bilan birga, rolli o‘yinlar orqali bolalar muloqot, hamkorlik va murosaga kelish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rolli o‘yinlar nutqning quyidagi jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

- so‘z boyligini oshirish;
- grammatik tuzilmalarni to‘g‘ri qo‘llash;
- fikrlarni mantiqiy izchillik bilan ifodalash;
- hikoya tuzish va voqealarni qayta aytish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- fantaziya va tasavvur qobiliyatini rivojlantirish.

3. Metodik yondashuv va amaliy mexanizmlar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida syujetli va rolli o‘yinlarni tatbiq etishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Dramatizatsiya va mini-sahna chiqishlari – multfilm yoki ertak asosidagi vaziyatlarni sahnalashtirish, bola o‘z rolini ijro etadi va nutqini faol ishlatadi.
- Muammoli vaziyat yaratish – o‘yin davomida pedagog bolalarni fikrlashga, sabab-natija munosabatlarini aniqlashga undaydi.
- Savol-javob va muhokama metodlari – o‘yin jarayonida bolalar o‘z fikrini ifodalaydi, bir-birini tinglaydi va nutqiy faoliyatni mustahkamlaydi.
- Vizual taqqoslash usuli – obrazlar, suratlar va real vaziyatlarni solishtirish orqali nutqiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Ota-ona bilan integratsiya – uy sharoitida rolli o‘yinlar orqali nutqiy faollikni mustahkamlash, davlat dasturlaridagi uzluksizlik tamoyilini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2019.

2.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat talablari. – Toshkent, 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

4.Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

5.Elkonin D.B. The Psychology of Play. – Moscow: Pedagogika, 1978.

6.Bruner J. Acts of Meaning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990.

MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI VA SAMARQAND ILMIY MAKTABINING TARIXDAGI O‘RNI

Suyunov Furqat Boyxo‘rozovich

Profi University “Gumanitar fanlar va ta’lim faoliyati”

kafedrasi v.b.dots. (PhD).

Ergasheva Laylo Azamatovna

Pedagogika-psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Markaziy Osiyo tarixida XV asr ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan alohida ajralib turadi. Bu davr Temuriylar davri Uyg‘onish bosqichi sifatida e’tirof etilib, unda astronomiya, matematika, me’morchilik, tarixshunoslik va adabiyot yuksak darajada rivojlandi. Ana shu davrning eng buyuk siymolaridan biri — Mirzo Ulug‘bek bo‘lib, u nafaqat davlat arbobi, balki o‘z zamonasining yirik astronomi va matematigi sifatida jahon ilm-fani tarixida chuqur iz qoldirgan. Mirzo Ulug’bekning to’liq ismi – Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug’bek Ko’ragoniy – buyuk astronom, matematik, qomusiy olim, davlat arbobi hisoblanadi. U buyuk Amir Temurning nabirasi hamda Shohrux Mirzoning o’g’li bo’lib, 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya (hozirgi Eron hududida) tug’ilgan. O’sha vaqtda Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392-1396) Iroqdagi Mordin qal’asini qamal qilinayotgan edi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganliklari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron bu xursandchiligidan Mordin qal’asini qamalini to’xtatib, uning xalqiga omonlik e’lon qiladi va “moli omon” to’lovdan ozod etadi.

Shohruhning birinchi o’g’liga tug’ilishida Muhammad tarag’ay ismi beriladi. Lekin hanuzgacha no’malum sababga ko’ra, unga hayotida Ulug’bek atamasi ism bo’lib qolib, asli ismini siqib chiqaradi[1]. Uning o‘z nabirasiga Muhammad

Tarag‘ay Ulug‘bek deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog‘lash mumkin. Amir Temur Ulug‘bekning tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixonning qayd etishicha, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida faol ishtirok etgan[7].

Ulug‘bekning bolalik va yoshlik yillari ilm-fan va siyosat bir-biriga chambarchas bog‘langan muhitda kechdi. Temuriylar saroyida ilm ahli, ulamolar va mutafakkirlar katta hurmatga ega bo‘lib, bu hol yosh shahzodaning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ulug’bekning dastlabki boshlang‘ich ta’limi, ma’lumoti va murabbiylari haqida aniq ma’lumot topilmagan. Ulug‘bek yoshlik chog’laridan buvisi Saroymulk xonim tarbiyasida bo‘lganligini bilamiz, chunki bobosi Amir Temur temuriy shahzodalarning ta’limi-tarbiyasini suyukli xotini Bibixonimga (Saroymulkxonimga) ishonib topshirgan edi. Ulug‘bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo‘lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish “Zij”ida faqat Qozizoda Rumiyni “ustozim” deb ataydi.

Fasix Xavofiy Temurdan keyin tirik qolgan uning farzandi va nabiralarini sanab, ular 36 kishi ekanligini eslatadi, ularni orasida Shohruhni juda yuqori ko’taradi. Chunki Temurning barcha o’g’il va nabiralarini faqat “amirzoda” desa, Shohruhni “Buyuk xoqon”, va “Bahodur” deb ham ataydi va Sherozda uning nomi bilan pul zarb etilganligini eslatadi. Uning 11 yashar birinchi o’g’lini esa “mahdumzoda Ulug’bek Ko’ragon” deb ulug’laydi. Sharafiddin Ali Yazdiy ham Shohruh va uning o’g’li Ulug’bekni boshqa amirzodalarga nisbatan biroz yuqori qo’yadi[1]. Bundan ko’rinadiki, Xuroson va Eronda Shohruh va Ulug’bekning nufuzi baland bo’lgan. Ammo biz bilamizki Sohibqiron taxt vorisi sifatida Pirmuhammadni tayinlagan. Bu yerda qanday sabablarga ko’ra taxt vorislik masalasi hal qilingan buni faqat Sohibqironga ayon bo’lgan. Bu qaror keyinchalik Amir Temurning vafotidan so’ng o’zini ma’lum darajada balkim o’zini oqlamagandir.

Haqiqatan ham Qozizoda 1360 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20–25 yoshlarida, ya’ni Ulug‘bek tug‘ilmasidanoq Temurning saroyiga xizmat qilish uchun o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi astronom va matematiklar ta’sirida ulg‘ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘g‘ruq — podshoh, xon va sultonlarning oila a’zolari va ularning tirikchilik anjomlari ortilgan karvon. Shahzodalar yoki amirlardan biri qo‘shini bilan unga qo‘riqchilik qilgan. O‘g‘ruq 1404 yil 21 may kuni Feruzkuh qal’asidan Buxoroi sharif orqali Samarqandga yo‘l oladi. Sohibqiron Termiz va Kesh orqali o‘z poytaxti tomon otlanadi. “Keshda faqat bir necha kun tunadi va ertalab piri Shamsiddin Kulol, ulug‘ otasi, onasi, o‘g‘li Jahongir va boshqa qarindosh urug‘larining xokipoylarini ziyorat qilgandan keyin to‘xtovsiz yana yo‘lga tushdi”[4].

Bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan ba’zi kechalari Mavlono Badridddin bilan birgalikda osmon jismlarini kuzatishar edi. Ikki-uch yildirki

mavlono Badriddin bilan Ulug’bek birga ilm-fan bilan shug’ullanishib ikkalasi do’stlashib olishgan edi. Badriddin Ulug’bek Mirzoga hisob va taqvimdan dars berar edi. Bir kuni mavlono shahzodani Samarqanddagi podhsoxning Ko’ksaroydagi xos kutubxonasiga boshlab bordi. Kutubxonadagi kitobdor mavlono Orif oyoq sharpasini eshitib kitobdan ko’zini oldi va shahzoda bilan uning muallimini tanib sapchib o’rnidan turdi va ikki qo’li bilan ta’zim qildi[4].

Samarqand dorul-ilm markazi hech shubhasiz o’rta asrlarning yuksak saviyadagi ilmiy markazlaridan biri edi. Bu markaz nafaqat Yaqin va O’rta Sharq ilm-faniga balki butun dunyo astronomiya, matematika, falakiyot ilmiga ta’sir ko’rsatgan ilm markazi edi. Sababi Ulug’bekning ilmiy faoliyati uning o’zi balki shogirdlari va maslakdoshlari orqali butun sharq dunyosiga tarqalib bo’lgan edi. Ammo G’arb mamlakatlari Ulug’bek ilmiy merosini XVII asrdan boshlab chuqur tahlil qilish va o’rganishni boshlashgan. Ulug‘bekni Samarqand hukmdori etib tayinlangandan so’ng ilm-fan rivojiga katta e’tibor berib, 1417 yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda, 1433-yilda G’ijduvonda katta madrasalar qurdiradi. Buxoro madrasasini qurilishida xabar olib turadi. Mirzo Ulug’bek hukumronligi davrida tashqi aloqlarda ham faol tashqi siyosat yurgizgan.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga “Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz” degan ibora shior sifatida o‘yib yozdirib qo‘yilgan.

Samarqandda 1420-yilda Ulug’bek tomonidan qurdirilgan madrasadan tashqari Feruzshoh, Shohmalik, Xonim, Xojabek Mirabduvali va Qutbiddin Sadr kabi madrasalar mavjud edi. Samarqanddagi madrasa ikki qavatli bo’lib, 50 hujrali va har bir hujra 3 xonaga ajratilgan: qaznoq (omborxona), yotoqxona, va darsxonadan iborat edi. Madrasada o’z zamonasining iqtidorli olimlari to’plangan edi. Bular orasida Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid Koshiy, Shamsuddin Muhammad Havofiy kabi o’z zamonasining yetuk olimlari talabalarga turli ilm-fanning turli yo’nalishlarida saboq berishgan. Samarqand madrasasining mudarisi Shamsuddin Muhammad Havofiy bo’lganligi aytiladi. Manbalarda madrasa ochilgan kun birinchi darsni Shamsuddin Muhammad Havofiy o’qiganlar. Va tolibi ilimlardan 90 nafari ishtirok etgan. Tarixchi olim Zayniddin Vosifiy “Badoye ul-vaqoye” asarida Ulug’bek Samarqandda bino qildirgan madrasaga mudarris ta’yinlash bilan bog’liq bir voqeani so’zlab beradi.

Zayniddin Vosifiyning bayonicha, 1420-yil kuz faslida Samarqanddagi madrasa qurilishi nihoyasiga yetayotgan mahalda. Bunda Mavlono Havofiy uning tezroq qurib bitkazilishiga yordamlashish maqsadida har kuni kelib bannolik qilgan va me’mor qo‘liga g‘isht uzatib turgan. Bir kuni Mavlono Havofiy po‘stinini teskari kiyib g‘isht to‘dalari orasida tin olib o‘tirganda madrasa hududiga Mirzo Ulug‘bek keladi. Olimlar, tolibi ilmlar, saroy ahli yangi madrasa hovlisiga jam bo‘lgan edi. Barchani bu madrasaning birin chi mudarri si kim bo‘lishi masalasi qiziqtirar edi. Shun da ilm ahlidan biri Ulug‘dekdan “Shohim, bu ulkan madrasa tugay deb qoldi, unga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz?” deb so‘ray di. Mirzo Ulug‘bek to‘planganlarga murojaat qilib: “Hamma ilmlarda yetuklikka erishgan komil kishi madrasaning birinchi mudarrisi bo‘lsin”, deydi. Shunda g‘ishtlar orasida o‘tir gan Havofiy chiqib: “Men imtihon topshiraman va bu mansabga men tayin etilaman”,

deya da’vo qiladi. Va keyinchalik imtixondan o’tib Samarqand madrasasiga muddarislik qilgan.

Ulug’bek tomonidan qurilgan yana bir ilmiy muassasa, markaz o’z davrining akademiyasi. Bu shubhasiz o’rta asrlarning salobatli inshooti 1424-1429-yillarda qurilgan Mirzo Ulug’bek tomonidan “Dorul-ilm” – Samarqand akademiyasiga asos solindi. Ulug’beknining bu ilmiy akademiyasi o’z davrida nafaqat sharq olamida balki G’arb olimlarining e’tirofiga sazovor bo’lgan edi. Akedemiyani nafaqat tan olgan balkim uni butun dunyoga dovrug’ini yoyishda hissa qo’shgan buyuk fransuz olimi, faylasufi Volter (asl ismi: Mari Fransua Arue 1694-1778) ning hizmatlari ham beqiyos edi. Volterning asari “Millatlarning holatlari va odatlari haqida” 3-jildi Amir Temur va temuriylar hukmdorligiga bag’ishlangan bo’lib, Ulug’bek davriga kengroq to’xtalgan. Ulug’bek Samarqandda bo’lib, u yerda ilm-fan rivojiga hissa qo’shganligini alohida ta’kidlaydi. Akademyaga asos soldi, yulduzlarni, yer kurrasini o’rgandi tahlil qildi va butun insoniyat ilm-faniga salmoqli hissa qo’shganligini o’z fikrlarida izohlaydi. Mirzo Ulug’bek rahbarligida bir nechta asarlar yaratilgan bo’lib ularni sohalar asosida bo’lib chiqadigan bo’lsak.

Ulug’bekdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

1) “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” – astronomiyaga oid;

2) “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola” – matematikaga oid;

3) “Risolayi Ulug‘bek” – yulduzlarga bag‘ishlangan;

4) “Tarixi arba’ ulus” (To‘rt ulus tarixi) – tarixga oid.

Shulardan eng asosiysi va Samarqandlik olimlar, do’stlari bilan birgalikda yaratgani «Ziji Ko‘ragoniy» asari bo’lib, juda mashhur hisoblanadi. Ko’pgina chet ellik olimlar bu asarga e’tibor qaratishgan. Misol uchun, V.V. Bartold bu risolaga o’zining fikrini bildirar ekan “ bu o’rta asr astronomiyasining oxirgi so’zi va teleskop yaratilgunga qadar astronomiya erishishi mumkin bo’lgan eng yuqori pog’onadir” degan e’tirof albatta bejiz emas edi. Risola Samarqandda Ulug’bek tomonidan qurilgan , o’sha zamonning eng yuqori darajali astronomik asboblari bilan ta’minlangan mashhur observatoriyada olib borilgan kuzatishlar asosida yozilgan. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1483 yillarda yashagan) “Matlai sa’dayn va majmua ul-baxrayn” — “Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish o‘rni” kitobida temuriylar va shu jumladan Mirzo Ulug‘bekning Karmanada bo‘lganligi haqidagi voqealarni Hofizi Abro‘ning “Majmu’a at-tavorix” kitobidan olingan manbalar asosida bayon etgan[3]. Unda ko‘rsatilishicha, Mirzo Ulug‘bek 1419 yilning 18 noyabrida Karmana orqali Buxoroga borib, Xorazmdan Shohmalik yuborgan vakillarni qabul qiladi. Ular Ulug‘bekka sovg‘a tariqasida bir necha ov qilishga o‘rgatilgan qushlarni taqdim etadilar[6].

1419 yilning 28 noyabrida esa o‘zi qurdirgan Buxorodagi madrasaga tashrif buyurib, mullavachchalar va ularning domlalariga sovg‘alar in’om etadi hamda ular bilan qizg‘in suhbatlar quradi. “XIX asr oxirlarida bu madrasada 80 hujra bo‘lib, unda 200 dan ortiq talaba tahsil olgan. Ularning har biri yiliga 3,5 tilladan stipendiya olishgan, bu mablag‘ tirikchilik va kitob xarajatlarini to‘lashni ta’minlagan. Bu haqida 1841-1842 yillarda Buxoroga kelgan rus tarixshunosi N.V.Xanikov o‘zining 1843 yilda Sankt- Peterburgda chop etgan “Buxoro xonligining tasviri” kitobida guvohlik beradi, deb yozadi tarixchi olim Farhod Qosimov[5]. Mirzo Ulug‘bek

Buxorodan Samarqand sari otlanar ekan, unga Qashqardan kelgan amirlar ham hamroh bo‘ladilar. Hofizi Abro‘ning “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asarida ko‘rsatilishicha, 1419 yilning noyabridan 1420 yilning 8 yanvarigacha rosa 40 kun Ulug‘bek Xatirchi atrofidagi Kufiyn qal’asida to‘xtab ov qilgan. Bu joylarning havosi tozaligi, buloqlarga boyligi, sero‘t tog‘, yaylovlari, ayniqsa, hayvonot olami Mirzo Ulug‘bek va uning sheriklarini maftun etgan, hayvonot olamiga juda ham boy joylar hisoblangan[2]. Mirzo Ulug’bek fanning turli sohalari bilan ancha salmoqli tadqiqot ishlarini olib borganligini yuqoridagi tahlillardan ham bilishimiz mumkin.

Ulug‘bek ilmiy maktabining yana bir muhim jihati — trigonometrik jadvallarning takomillashtirilganidir. Sinus va tangens qiymatlari yuqori aniqlik bilan hisoblab chiqilgan. Bu natijalar keyinchalik Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng foydalanilgan. Ulug‘bekning ilmiy ishlari Yevropaga ham yetib borgan va lotin tiliga tarjima qilingan. Uning astronomik jadvali XVI–XVII asrlargacha eng mukammal manba sifatida xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bek nafaqat buyuk hukmdor, balki o‘z davrining yirik olimi va ma’rifatparvar pedagogi sifatida Sharq ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siymodir. Uning tashabbusi bilan Ulug‘bek rasadxonasi barpo etilib, unda olib borilgan aniq astronomik kuzatuvlar natijasida dunyo ilmiy merosida alohida o‘rin egallagan Ziji Ko‘ragoniy asari yaratildi. Bu asar o‘z davrida nafaqat Movarounnahr, balki Yevropa ilmiy muhitida ham katta qiziqish uyg‘otgan.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1.Ahmedov Ashraf. Ulug’bek Muhammad Tarag’ay. -T.:O’zbekiston; -2011. 4-b.

2.Ahmedov B. Amir Temur tarixiy romani. -T; 1995

3.Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmua ul-bahrayn. -T.,2008

4.Ahmedov Bo’riboy. Mirzo Ulug’bek. -T.:Yozuvchi. 1994. 23-b.

5. Qosimov F. Temuriylar davrida Buxoro.-B; 1996

6.Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati(tarixiy ocherk).-T; 1996

7.Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T:Sharq; 1997

JADIDLARNING DINIY VA DUNYOVIY FANLAR TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Xoliqov Ixtiyor Roziqovich

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Harbiy ta’lim fakulteti dotsenti

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston tarixida madaniy va ma’rifiy uyg‘onish davri sifatida muhrlandi. Bu davrning eng yorqin siymolari bo‘lgan

jadidlar – millat istiqboli va taraqqiyotini ilm-fanda, jamiyatni isloh qilishda deb bildilar. Jadidchilik harakati faqatgina siyosiy oqim emas, balki ta’lim, fan, din va madaniyat sohalarini qamrab olgan keng ko‘lamli islohotchilik fenomenidir. Ularning asosiy maqsadi musulmon dunyosini jaholat botqog‘idan olib chiqish, diniy qadriyatlarni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish va dunyoviy ilmlarni o‘zlashtirish orqali milliy yuksalishga erishish edi.

Ta’lim tizimidagi islohotlar: «Usuli jadid» maktablari. Jadidlarning eng katta xizmati ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘ldi. Ismoil Gaspiralining «usuli savtiya» (tovush tizimi) asosida tashkil etilgan maktablari Turkistonda keng yoyildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlar tomonidan ochilgan maktablarda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar - matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik va til o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi. Bu maktablar uchun maxsus darsliklar (masalan, «Adibi avval», «Adibi soniy») yaratildi.

Jadidlar faqat maktab ochib qolmay, balki ular uchun ilk mahalliy darsliklarni ham yozishgan. Bu dunyoviy fanlarning o‘zbek tilidagi ilk poydevori edi: **Mahmudxo‘ja Behbudiy:** 1903-yilda «Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy» (Umumiy geografiyadan tanlanmalar) darsligini yozgan. Bu darslikda yerning tuzilishi, qit’alar va okeanlar haqida ilk bor o‘zbek tilida ma’lumot berilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov: «Adibi avval» va «Yer yuzi» (geografiya) kabi kitoblari bilan yoshlarning dunyoqarashini kengaytirgan.

Abdulla Avloniy: «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari orqali pedagogika va psixologiya fanlarining asoslarini yaratgan.

Diniy ilmlarni isloh qilish va sof islom g‘oyalari. Jadidlar islom dinini ilm-fan va taraqqiyotga monelik qilmaydigan, aksincha, insonni kamolotga undovchi kuch sifatida talqin qilishgan. Ular diniy xurofotlarga va noto‘g‘ri talqinlarga qarshi chiqdilar. Jadidlarning fikricha, haqiqiy musulmon ham diniy, ham dunyoviy bilimga ega bo‘lishi shart edi. Ular «Ilm talab qilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» degan hadisni shior qilib, ayollar ta’limiga ham alohida e’tibor qaratdilar. Behbudiyning ta’kidlashicha, dunyoda yashash uchun dunyoviy ilm, oxirat uchun esa diniy ilm zarurdir.

Diniy ilmlardagi islohotlar (Yangi yondashuv)

Jadidlar islomni "mudroqlik"dan uyg‘otishga harakat qilishdi:

Ular ijtihod (diniy masalalarda zamonga qarab fikr yuritish) eshiklari ochiq ekanini targ‘ib qilishdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy islom dini ilm-fanga qarshi emasligini, aksincha, yevropaliklar ilmni aynan musulmonlardan (Ibn Sino, al-Xorazmiy) o‘rganib, rivojlanib ketganini isbotlab bergan.

Ular madrasalarda faqat diniy matnlarni yodlashni emas, balki ularning mazmunini anglashni va hayotga tatbiq etishni talab qilishdi.

Dunyoviy fanlar va milliy matbuotning shakllanishi. Jadidlar fanning turli sohalarini rivojlantirishga hissa qo‘shdilar. Ularning sa’y-harakatlari bilan milliy matbuot («Oyna» jurnali, «Sadoi Turkiston», «Samarqand» gazetalari) vujudga keldi. Bu nashrlar nafaqat ma’lumot tarqatish, balki xalqqa ilmiy-ommabop bilimlarni yetkazish vositasiga aylandi. Jadid ziyolilari Turkiston yoshlarini

Germaniya, Turkiya va Misr kabi davlatlarga o‘qishga yuborib, u yerda muhandislik, tibbiyot va iqtisod kabi sohalarni o‘rganishlarini ta’minladilar. Bu esa milliy kadrlar va dunyoviy fanlarning poydevorini yaratdi.

Tilshunoslik va imlo islohoti

Jadidlar dunyoviy fanlarni rivojlantirish uchun avvalo tilni isloh qilish kerakligini anglashgan: **Fitrat va Elbek** o‘zbek tilining grammatikasi ustida ishlaganlar.

Arab alifbosini turkiy tillarga moslashtirish, tovush tizimini joriy etish bo‘yicha bahslar olib borishgan. Bu dunyoviy adabiyot va ilmiy asarlar yozilishini tezlashtirgan.

Tabiiy va aniq fanlarga munosabat

Jadidlarning eng katta hissasi - Turkiston yoshlarini xorijga yuborish bo‘lgan:

«Ko‘mak» tashkiloti orqali 70 dan ortiq talaba Germaniyaga yuborilgan. Ular qishloq xo‘jaligi, kimyo, tibbiyot va muhandislik sohalarini o‘rganib kelib, mamlakatda zamonaviy fanga asos solishi kerak edi.

Behbudiyning **«Ikki emas, to‘rt til lozim»** degan g‘oyasi dunyoviy bilimlarni egallashning asosiy sharti sifatida qaralgan.

Matbuot - ilm-fan minbari

«Oyna» jurnalida dunyo yangiliklari, tibbiy maslahatlar, tarixiy izlanishlar muntazam berib borilgan. Bu jurnal nafaqat diniy, balki ensiklopedik xarakterga ham ega edi.

Ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlar: Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari jadidlarning pedagogik va axloqiy qarashlarining cho‘qqisidir. Unda insoniy fazilatlar dunyoviy va diniy mezonlar asosida tahlil qilingan. Jadidlar jamiyatni isloh qilish uchun avvalo inson axloqi va tafakkuri o‘zgarishi kerakligini uqtirishgan. Ularning dramalari (masalan, «Padarkush») orqali ilmsizlikning fojiaviy oqibatlari badiiy tilda tushuntirilgan.

Xulosa: Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati Turkiston xalqlari tarixida nafaqat siyosiy uyg‘onish, balki intellektual va ma’naviy inqilob davri bo‘ldi. Jadidlarning diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini quyidagi strategik yo‘nalishlarda umumlashtirish mumkin:

Birinchidan, jadidlar islom dinining asl mohiyatini saqlab qolgan holda, uni ijtimoiy va ilmiy progress bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar. Ular «diniy ilmlar dunyoviy ilmlarsiz jaholatga, dunyoviy ilmlar esa diniy-axloqiy tarbiyasiz halokatga olib keladi» degan hayotiy konsepsiyani ilgari surdilar. Bu yondashuv mutaassiblikka chek qo‘yib, jamiyatda bag‘rikenglik va ilmga tashnalik muhitini yaratdi.

Ikkinchidan, usuli jadid maktablari orqali ta’lim tizimi isloh qilindi va millat tafakkuri yangilandi. Darsliklarning milliy tilda va dunyoviy fanlar (geografiya, tarix, tabiatshunoslik, matematika) negizida yaratilishi o‘zbek ilmiy tilining shakllanishiga poydevor bo‘ldi. Bu islohotlar natijasida Turkiston yoshlarining jahon ilm-fani yutuqlaridan bahramand bo‘lishi uchun yo‘l ochildi.

Uchinchidan, jadidlarning xorijda kadrlar tayyorlash borasidagi sa’y-harakatlari keyinchalik milliy akademik fanning vujudga kelishiga xizmat qildi. Ular

tomonidan Germaniya va boshqa davlatlarga o‘qishga yuborilgan talabalar keyinchalik O‘zbekistondagi ilk oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining asoschilariga aylandilar.

To‘rtinchidan, jadidchilik merosi bugungi kunda O‘zbekistonda poydevori qo‘yilayotgan Uchinchi Renessans uchun asosiy ma’naviy va ilmiy manbadir. Jadidlar orzu qilgan «ma’rifatparvar jamiyat» g‘oyasi hozirgi davrdagi ta’lim islohotlarining markazida turibdi. Ularning «Tilda, fikrda, ishda birlik» tamoyili millatning global dunyoda o‘z o‘rnini topishi va milliy manfaatlarini himoya qilishi uchun hamon dolzarbdir.

Jadidlarning faoliyati Turkiston madaniy hayotida shunchaki bir bosqich emas, balki millatning intellektual genefondini saqlab qolgan va uni rivojlantirgan qudratli kuchdir. Ularning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va yosh avlod ongiga singdirish, nafaqat tarixni anglash, balki kelajakdagi taraqqiyot yo‘limizni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar boshlagan ma’rifat va islohotlar yo‘li bugungi yangi O‘zbekistonning istiqbolli rivojlanish strategiyasi bilan to‘la hamohangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

2.Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

3.Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4.Alimova D. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mazmuni va mohiyati. – Toshkent, 2000.

5.Adib Xolid. O‘zbekiston tug‘ilishi: ilk sho‘ro davrida millat, hamjamiyat va siyosat. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

6.Zaki Validiy To‘g‘on. Xotiralar. – Toshkent: Fan, 1996.

7.Ergash Rustamov. Jadidchilik: islohot va jamiyat. – Samarqand, 2015.

8.Turkiston jadidlari (to‘plam). – Toshkent: Sharq, 1999.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ВА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ: ТУРКИСТОНДА МАЪРИФАТ ВА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҒОЯЛАРИ

Толибжонова Мухлиса Беҳзоджоновна

Бухоро давлат педагогика институти

Тарих таълим йўналиши талабаси

XIX асрнинг охири ва XX аср бошлари Туркистон тарихида муҳим давр ҳисобланади. Бу даврда жамиятда маданий ва ижтимоий уйғониш жараёнлари бошланди. Халқни маърифатли қилиш, замонавий билимларни жорий этиш ва миллий тараққиётга эришиш ғоялари билан чиққан зиёлилар ҳаракати пайдо бўлди. Бу ҳаракат тарихда Жадидчилик ҳаракати номи билан машҳурдир.

Жадидчилик ҳаракатининг асосий мақсади таълим тизимини ислоҳ қилиш, янги усулдаги мактаблар очиш ва халқни замонавий илм-фан билан таништириш эди. Бу ҳаракатда кўплаб маърифатпарварлар иштирок этган. Улар орасида Маҳмудхўжа Беҳбудий алоҳида ўрин тутади. Беҳбудий нафақат педагог ва маърифатпарвар, балки журналист, драматург ва жамоат арбоби сифатида ҳам машҳур бўлган. Унинг фаолияти Туркистонда миллий уйғониш жараёнига катта таъсир кўрсатган.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ҳаёти ва таълим олиши ҳақида тўхталадиган бўлсак, Беҳбудий 1875 йилда Самарқанд вилоятида туғилган. У диний ва маърифатли оилада тарбия топган. Ёшлигидан илмга қизиқиб, маҳаллий мактаб ҳамда мадрасаларда таълим олган. Араб ва форс тилларини чуқур ўрганиб, шарқ адабиёти ва ислом таълимоти билан танишган. Беҳбудий билим олиш жараёнида жамиятдаги муаммоларни кузатиб, халқнинг саводсизлиги ва таълим тизимининг эскилигини тушуниб етган. Кейинчалик у бир неча мамлакатларга саёҳат қилиб, замонавий таълим тизими билан танишган. Бу саёҳатлар унинг дунёқарашини кенгайтириб, жадидчилик ғояларини қабул қилишига сабаб бўлди. Бу ғояларни амалга оширишнинг дастлабки ва энг муҳим вазифаси сифатида Беҳбудий халқни маърифатли қилишни энг муҳим вазифа деб билган. Унинг фикрича, жамият тараққиёти таълим ва тарбияга боғлиқ деган ғояни илгари сурди. Янги усулдаги мактаблар очиш ва ўқув дастурларини такомиллаштириш билан шуғулланган. Беҳбудий мактабларда замонавий фанларни ўқитиш зарурлигини таъкидлаб, қуйидаги педагогик ғояларни илгари сурган эди: -ёш авлодни билимли қилиш, -миллий маданиятни сақлаш, -замонавий фанларни ўрганиш, -тарбия ва ахлоққа катта эътибор бериш деган ғоялар жадид мактаблари фаолиятининг асосини ташкил этган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий матбуот соҳасида ҳам катта фаолият кўрсатган. У халқни маърифатли қилишда газета ва журналлар муҳим роль ўйнайди деб ҳисоблаган. Самарқандда “Самарқанд” газетаси ва “Ойна” журналини ташкил этишда иштирок этган. Бу нашрларда таълим, маданият ва жамият масалалари муҳокама қилинган. Беҳбудий ўз мақолаларида: -жамият ислоҳоти, -таълим тизимини янгилаш, -миллий маданиятни ривожлантириш каби мавзуларни кўтарилган.

Беҳбудий ўзбек драматургиясининг асосчиларидан бири ҳисобланади. У театрни халқни тарбиялаш ва маърифат тарқатиш воситаси деб билган. Унинг энг машҳур асарларидан бири Падаркуш драмасидир. Бу асарда жамиятдаги ахлоқий муаммолар ва тарбия масалалари ёритилган. Асарда билимсизлик ва нотўғри тарбиянинг салбий оқибатлари кўрсатилган. Муаллиф ёшларни билим олишга ва яхши ахлоқли бўлишга чақирган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Исмоил Ғаспирали ўртасидаги ўзаро оғаларча дўстона муносабатлар таҳсинга сазовор. Исмоил Ғаспирали Туркистонга икки бор саёҳат (1893 йил ва 1908 йил) даврида Самарқандда Маҳмудхўжа Беҳбудий билан учрашди. Маҳмудхўжа Беҳбудий Исмоил Ғаспирали билан Самарқанд тараққийпарварларининг учрашувини ташкил этди. Айниқса, 1913 йилги Истанбул (Туркия)га бўлган учрашувда икковлон Туркистонда таълим ва

тарбия масалаларида салкам 7 соат мулоқот қилишган. Маҳмудхўжа Беҳбудий Исмоил Ғаспирали вафоти муносабати билан “Ойна” саҳифаларида мақолалар эълон қилди. Афсуски, XX аср бошларида Туркистонда сиёсий вазият мураккаб эди. Маҳмудхўжа Беҳбудий ижодий камолоти авжида 1919 йилда Бухоро амирлигининг Қарши беклигида Тоғайбек ва унинг гумаштаси Нуриддин оғалиқ томонидан ўлдирилди. Беҳбудий қотили Нуриддин оғалиқ БХСР ҳукумати томонидан ўлим жазосига ҳукм этилди. Бироқ Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг шериклари дафн қилинган қабр жойи ҳамон аниқланган эмас. Ҳолбуки, Самарқанд ёшлари ўз давридаёқ Маҳмудхўжа Беҳбудий қабр жойини аниқлаб, ёдгорлик ўрнатиш масаласини кун тартибига қўйган эдилар. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг мероси бугунги кунда ҳам жуда муҳим ҳисобланади. Унинг маърифатпарварлик ғоялари ҳозирги таълим тизими ва маданий тараққиётга катта таъсир кўрсатган. Беҳбудий халқни билимли ва маданиятли қилиш орқали жамият тараққиётига эришиш мумкинлигини кўрсатиб берган. Унинг асарлари ва ғоялари бугунги кунда ҳам ўрганилмоқда ва ёш авлодни маърифатли бўлишга чорламоқда. Беҳбудий ҳаёти ва фаолияти Ўзбекистонда анча ўрганилган. Бироқ, “Беҳбудийшунослик” давом этмоқда.

Адабиётлар рўйхати

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari. – Тошкент: Маънавият, 1999.
2. Ismoil Gaspirali. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Aziz Qayumov. Жадидчилик ҳаракати тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004.
4. Begali Qosimov. Миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2002.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Ўзбекистон тарихи (III жилд). – Тошкент: Фан, 2015.

УСМОН ХЎЖА ПЎЛАТХЎЖАЕВ – ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИ ВА ЖАДИДЧИЛИКНИНГ ЙИРИК НАМОЯНДАЛАРИДАН БИРИ

Туйев Фазлиддин Эркинович

Бухоро давлат педагогика институти доценти

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон минтақасида ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий ҳаётда катта ўзгаришлар даври бўлиб, бу жараёнларда жадидчилик ҳаракати алоҳида ўрин тутиб, халқни маърифат, миллий уйғониш ва истиқлол ғоялари атрофида бирлаштиришга хизмат қилди. Жадидчилик ҳаракати вакиллари орасида Усмон Хўжа фаолияти, сиёсий қарашлари ва маърифий ишлари билан алоҳида ажралиб туради.

Усмон Хўжа Пўлатхўжаев (1878-1968) Туркистон ва Бухоро тарихида ўчмас из қилдирган жадидчилик, маорифчилик, тараққийпарварлик, миллий истиқлол учун толмас курашчи сифатида алоҳида эътироф ва эътиборга лойиқ инсон. Усмон Хўжа бухоролик савдогар Пўлатхўжа хонадонида тўнғич

фарзанд бўлиб дунёга келган. У болалигидан отасининг савдо ишларига ёрдам бериш асносида Туркистон аҳолисининг ижтимоий ҳолати, мустамлака асорати остида азият чекиб келаётганлигидан воқиф бўлди. Усмон Хўжа Пўлатхўжаев дунёқараши шаклланишида татар маърифатпарварлари Курсавий ва Маржонийлар ҳамда Аҳмад Дониш таъсири кучли бўлди. У 1910-1912 йилларда Туркия империяси пойтахти Истанбулда таҳсил олиб, дунё ҳақидаги тасаввурларини кенгайтирди. Қозон, Оренбург шаҳарлари бўйлаб саёҳат қилар экан, татар маърифатпарварлик ҳаракати ва ютуқларидан воқиф бўлди. 1910 йиллардаёқ, Усмон Хўжа Пўлатхўжаев шахсига нисбатан Россия империяси махсус идоралари (Туркистон район қўриқлаш бўлими (ТРҚБ), охранка, махсус идора) айғоқчилари “панисломчи”, “панктуркчи”, “пантуронччи” каби айбларни қўйиб, қора рўйхатга олишди. Шундан сўнг Усмон Хўжа Пўлатхўжаевнинг ҳар қадами назоратга олинганди. Усмон Хўжа Туркиядан қайтгандан сўнг, Файзулла Хўжаевнинг кейинчалик эътирофича (1921-йил), бутун вужуди билан мактабчилик ва маорифчилик ҳаракатига киришиб кетди. У ота ҳовлисида очган мактабда 150-200 нафаргача ўқувчи ўқиб, уларнинг 20-30 фоизи текин ўқитилган. Усмон Хўжа мактабида турли ёшдаги болаларга савод ўргатилган ва дунёвий фанлардан сабоқ берилган. Синф дарс тизимида таълим йўлга қўйилиб, 5-6 соат ўқув жараёнида танаффуслар берилган. Шунингдек, Истанбул, Қозон, Оренбургдан олиб келинган глобус, хариталар билан сабоқ кўргазмали ташкил этилган. Илк бор Усмон Хўжа мактабида Педагогик кенгаш ҳамда танаффуслар оралиғида ўқитувчилар навбатчилиги ташкил этилган. Ўқувчиларга чорақликлар оралиғида қисқа таътиллар бериш, баҳолар ҳисоби варақаси (табел), ота-оналар кенгаши, улар иштирокида имтиҳонларни ташкил этиш каби ҳозирги замон билан ҳамоҳанг ишлар амалга оширилгани алоҳида диққатга сазовор. Усмон Хўжа мактаби билан ҳатто, Янги Бухоро (Когон)даги Россия империяси Бухоро айғоқчилиги идораси бошлиқларидан бири Шульгани ҳам қизиқтирган. Шульга унинг мактабига ташриф буюриб, тартиб-интизом, ўқийдиган фанлар, ўқувчилар саводхонлиги масалалари билан шахсан танишган. Империя хизматчиси Усмон Хўжа мактабидан ҳеч қандай салбий жиҳат топа олмаган. Бироқ, Усмон Хўжа мактабида унинг ўзи дарс бериши, ўқувчиларнинг ўқитишдан мақсад уларни саводхон қилиш эканлигига қарамай, амир бу каби мактабларни ёпишга фармон берган.

Усмон Хўжа Туркистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларда жуда ёшлигидан қоришиб, 1898-йил май-июн ойида юз берган Дукчи Эшон (Мадали Эшон) қўзғолонида қатнашган. 20 яшар Усмон Хўжанинг Туркистон учун озодлик курашидаги иштироки шундан сўнг умрининг охирги нафасигача яъни, 70 йил давом этди. Маълумки, Дукчи Эшон қўзғолони қонга ботирилиб, унинг юзлаб иштирокчилари ҳибс қилинган. Усмон Хўжа ҳам чор маъмурлари томонидан ҳибс қилинган эди. Бироқ у Бухоро амирлиги фуқароси (таъбаси) бўлгани учун қамоқдан озод қилинган.

Усмон Хўжа Бухоро жадидчилик ташкилоти 1910-йилда тузилган пайтда унинг фаол аъзоси бўлиб, доимо олдинги сафларда юрди. Жадидлар партиясининг Марказий Комитет аъзоси сифатида “кекса жадид йўлбошчиси”

бўлган Усмон Хўжа ислоҳотлар орқали демократик ўзгаришлар қилиш тарафдори эди. У “инқилобчилик ҳаракати” қон тўкилишларга, жамият турли табақалари ўртасидаги душманлик ва бўлинишлар, вайронгарлик ва харобаликка олиб келишини англай олганди. Шу сабабли инқилоб тарафдорлари бўлган Бухоро компартияси раҳбарлари унга қарши бўлиб, 1918-йилда партия сафидан чиқариш масаласини кун тартибига қўйишганди. Усмон Хўжа ва унинг укаси Отаулла Хўжаев бир муддат Бухоро коммунистик партияси сафларидан чиқарилганди. Ҳолбуки улар ҳақли фикрларни илгари суришганди. 1917-1918 йилларда Бухоро амирлигида кескин сиёсий воқеалар кечган, жадидларга хавф туғилган пайтда Усмон Хўжа Самарқандга муҳожир бўлиб кўчди. У Самарқандда Маҳмудхўжа Беҳбудий, Ҳожи Муин, Шакурий, Тошкентдан ташриф буюрган Мунавварқорилар билан яқинлашди, улар кўп масалаларда якдил фикрга келишди.

1920-1921 йилларда фаолият юритган Ўрта Осиё бюроси лойиҳасини тузишда, унинг кенгашларида Усмон Хўжа иштирок этиб, ўз ҳиссасини қўшди. 1920-йил сентябрда Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил этилгандан сўнг, Усмон Хўжа бу ҳукуматда дастлаб молия нозири лавозимида иш бошлади. У молия нозири бўлган қисқа вақтда бир қатор буйруқлар чиқариб, БХСРда пул муомаласини йўлга қўйишда анча салмоқли ишларни бажарди. Усмон Хўжа Шарқий Бухорода комиссия раиси, 1921 йил август-сентябрда Бухоро меҳнаткашлари иккинчи қурултойида Бухоро Марказий Ижроия Қўмитаси раиси қилиб сайланди. МИҚ таркибига 86 нафар аъзо кириб, 7 кишидан иборат бюро ташкил этилган. Марказий бюро раиси Усмон Хўжа бўлиб, унинг аъзолигига Файзулла Хўжаев ҳам кирган. Усмон Хўжа Қизил Армия қисмларини Бухородан чиқиб кетиши, БХСР ҳукумати миллий армиясини тузиш, ҳукумат мустақиллиги масалаларини қатъий талаб қилиб чиқди. Англиядан ёрдам олиб ўз эзгу мақсадларини амалга ошириш мақсадини кўзлади. Бироқ, инглизлар ўзини алдаб юрганини, советлар қора рўйхатига тушганлиги, Файзулла Хўжаевнинг “Бухорога қайтиб ўтирманг”! мазмунидаги огоҳлантириши омиллари туфайли 1922-йил апрелда қўшни Афғонистон ҳудудига кўчиб ўтди. Шу даврдан Усмон Хўжа ҳаётида янги босқич, муҳожирлик босқичи бошланди. 1923-йил ёзида Афғонистондан Туркиянинг Истанбул шаҳрига кўчиб ўтган Усмон Хўжа вафотига қадар ушбу шаҳарда истиқомат қилди. Истанбулнинг Осиё қисми “Бухорийлар теккеси”да бир қадар туриб қолганини ҳисобга олмаса, Усмон Хўжа бу шаҳарда уч бор яшаш жойини ўзгартирган. Умрининг охирги йилларида даволаниш мақсадида Аданада ҳам бир муддат яшаган. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Туркия президенти Исмет Иненю (1938-1952) ва турк ҳукумати ўзбек ва туркистонлик муҳожирларни ўз давлатидан чиқариб юборди. Шу сабабли Усмон Хўжа Польша ва Эрон давлатларида ҳам 1941-1946 йилларда истиқомат қилган. У 1950-1957 йилларда Покистонда (Пешовар ва Исломобод) ҳам истиқомат қилиб, Абдуллахўжа номи билан Тожикистон ССР ҳудудига ўтиб қайтган.

Совет мафкураси асосида унга жуда кўп туҳматлар қилиниб, “инглиз айғоқчиси”, “турк айғоқчиси”, “Ватан хоини”, “сотқин”, “миллатчи”, “Бухоро

олтинлари ўғриси”, “чет элда ресторан ва қаҳвахоналарида маишатдан бўшамаган шахс” каби туҳматлар, ёрлиқлар ёпиштирилди.

Усмон Хўжа Истанбулда кўчганида бутун турклар отаси Мустафо Камол Отатурк, яъни президент қабулида бўлган. Манбаларда келтирилишича, Усмон Хўжага Мустафо Камол “Анқара ҳукуматида” хизмат қилишни таклиф этган. Бироқ Усмон Хўжа бундан сўнг Туркистон маданияти ва тарихи масалалари билан шуғулланишини айтган. Шундан сўнг, Мустафо Камол Усмон Хўжага турк давлати раҳбарлари даражасидаги давлат нафақасини белгилаган. Усмон Хўжа вафотидан сўнг, бу нафақани 1995 йилгача унинг рафиқаси олиб турган. Бироқ Усмон Хўжа сиёсатдан узоқлашмаган. У 1923 йилда ташкил этилган Туркистон Миллий Комитети (ТМК)нинг Аҳмад Закий Валидий Тўғон (1890-1970), Мустафо Чўқай (1886-1941) каби йўлбошчилардан бири бўлган. Бу “учлар иттифоқи” (триумвират) ўртасида ғоя ва қарашларда айрим тўқнашувлар бўлсада, улар хорижда Туркистон озодлик ҳаракати учун курашларда муҳим роль ўйнашган. Мустафо Чўқайнинг полякча тахаллуси “Чоп”, Аҳмад Закий Валидий Тўғонники “Зей” бўлган. Усмон Хўжа Аҳмад Закий Валидий Тўғонни кўп бор қўллаб-қувватлаган. Усмон Хўжа бу икки тарихий шахслардан фарқли ўлароқ (улар Европача таълим олган ва Европа маданиятига мансуб яқин эди) том маънода Шарқ кишиси, Шарқ маданиятига мансуб бўлган. У она тилидан ташқари араб, форс-тожик, турк тилларини яхши билган. Усмон Хўжа Россия, кейинчалик СССРни мустамлакачи давлат ҳисоблаб, рус миграцияси билан яқин бўлмаган, шунингдек, амир монархиячилари билан ҳам хорижда яқинлашмаган, Афғонистонда бўлганида ҳам амир Сайид Олимхон ҳузурига зиёрат учун бормаган.

Аҳмад Закий Валидий Тўғон совет ҳукумат идоралари билан мактубий алоқаларда бўлган Мустафо Чўқай рус муҳожирларининг “Дни” (Кунлар), украин муҳожирларининг “Прометий” матбуот органларида мақолалар ёзиб, гонарар ҳисобидан тирикчилигини ўнглаган.

Усмон Хўжага 1927-1931 йилларда Ўзбекистондан Файзулла Хўжаев орқали моддий ёрдам юбориб турилганлиги айрим ҳужжатларда қайд этилган. Эҳтимол, бу 1927-1931 йилларда Усмон Хўжа “Ени Туркистон (Янги Туркистон) мажмуасининг 34 сонини чиқарган пайтда рўй бергандир. Усмон Хўжа Истанбулда ўзи чоп этган матбуот органининг деярли ҳар бир сонида мақола, айримларида 2-3 тадан мақола чоп эттирган. Ушбу журналда унинг шеърлари ҳам босилиб турган. Усмон Хўжа 1962-1963 йилларда Туркистонлик муҳожирлар Истанбулда чоп эттирган “Яқин Туркистонимиз” мажмуасида 4 та мақола чоп эттиргани аниқланди. Унинг 1936 йилда Туркистон тарихи, географияси ва этнографиясидан маълумот берувчи “Туркистон” рисоласи алоҳида эътиборга лойиқ. Усмон Хўжа 1927 йилда Истанбулда “Туркистон турк генчлари” (ёшлари) ташкилотини тузди ва турк ҳукуматидан бу уюшма учун махсус бино ҳам олди. 1954 йилда Истанбулда тузилган “Туркистонликлар жамияти”ни тузишда ва фаолиятини йўлга қўйишда унинг хизматлари беқиёс бўлди.

Усмон Хўжа хорижда ўз ҳолига ташлаб қўйилган БХСРнинг собиқ талаба ва ўқувчиларига ҳомийлик қилди. Уларга турли фондлар ва Польша

ҳукуматидан нафақа олиб туришларида ҳомийлик қилди. Усмон Хўжа Истанбулда бадавлат яшамади. Туркия муҳожири, кекса отахон Собир Сайҳонли (1931 йилда туғилган) ҳикоя қилишича, Истанбулнинг Ғарб қисмидан Шарқ қисмига ўтказиб қўйишда хизмат қиладиган "Олтин кўприк"дан ўтиш учун 10-14 лира пул тўланган. Усмон Хўжа "БХСРнинг биринчи президенти" (Собир Сайҳонли ибораси) бўлишига қарамай, бир сафар унинг чўнтагидан шу пул ҳам чиқмаган. Ёхуд, вафотидан олдин фарзанди анжуманди Темур Хўжага васият қилар экан, Усмонхўжа "Мен сенга катта қаср, иморатлар, олтин ва бойликлар қолдирмадим. Мен сенга Ватан ҳасрати ва меҳрини мерос қолдирдим", дегани ҳам муҳимдир.

Усмон Хўжа шахсияти ва унинг миллатимиз ҳамда Ватанга хизматини юртдошларимизга танитишда профессорлар С.И.Иноятов, Темур Хўжа Усмонхўжа ўғли, Ш.А.Ҳайитов, Қ.К.Ражабов ва ёш олим А.М.Маҳмудовларнинг ҳам бу шахс ҳақида рисолалари ва 8-10 та мақолалари мавжуд.

Усмон Хўжа Пўлатхўжаев шахсияти, унинг 90 йиллик ҳаёт йўли ва фаолияти (у хориждаги икки сафдоши: Аҳмад Закий Валидий ва Мустафо Чўқайдан ҳам энг узоқ яшаган шахс) билан боғлиқ масалалар ҳақида "Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо" (тузувчи ва тўпловчилар профессор Сулаймон Иноятов ва Қаҳрамон Ражабов) китобининг иккинчи қисми бағишланган. Бироқ, бу билан Усмон Хўжа мавзусига нуқта қўйилди, дегани эмас. Истиқболда унинг фаолиятидаги ҳамон очилмаган қирралар ҳақида изланишлар олиб борилишидан умидвормиз.

Адабиётлар

1. Aziz Kayumov – Jadidchilik harakati tarixi. Тошкент: Fan, 1998.
2. Dilorom Alimova – Jadidchilik: islohot, yangilanish va mustaqillik g‘oyalari. Тошкент, 2001.
3. Begdali Qosimov – Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Тошкент: Ma’naviyat, 2004.
4. Zaki Validi Togan – Bugungi Turkili (Turkiston) va yaqin tarixi. Истанбул, 1981.
5. Adeeb Khalid – The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.
6. Edward Allworth – Central Asia: A Century of Russian Rule. New York: Columbia University Press, 1967.
7. Baymirza Hayit – Turkiston Rossiya va Xitoy orasida. Истанбул, 1975.
8. Baymirza Hayit – Turkiston milliy ozodlik harakati tarixi. Анқара, 1997.
9. Abdurauf Fitrat – Tanlangan asarlar. Тошкент: Ma’naviyat, 2000.
10. Munavvarqori Abdurashidxonov – Tanlangan asarlar va maqolalar. Тошкент, 2003.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA OILANING TUTGAN ASOSIY O'RNI VA AHAMIYATI ABDURAUF FITRATNING "OILA VA OILANI BOSHQARISH TARTIBI" ASARI NAZDIDA

Hamroqulova Gulhayo Shomurod qizi

BDPI 4-bosqich talabasi

Haydarova Madinabonu Istamovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 5 bosqich talabasi

Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Jamiyatda oilaning roli shunchalik ahamiyatliki, u odatiy tarzda har qanday jamiyatning negizi sifatida koʻrib chiqiladi. Shaxsning dunyoga kelishi, oyoqqa turishi va shaklllanishi jarayonlarida ham oilaning oʻrni muhim ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum.Ayniqsa, bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda oilaning o'rni undagi ota-ona va farzandlarning roli katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.Rivojlangan mamlakatlar qatorida yashayotgan ekanmiz,albatta ulardan har bir sohada qolmaslik maqsadida,sog'lom raqobatni targ'ib qilish uchun shubhasiz yurtimizda eng ilg'or mutaxasis, kadrlar kerak.Bunday kadrlar albatta oilada tarbiyalanadi,ulg'ayadi,o'zligini anglab keladi. Shuning uchun ham har doim har bir narsa, har bir qadam oiladan boshlanib keladi,ya'ni niholni to'g'ri parvarishlab,o'stirish bu ota-onaning asosiy burchi va vazifasi sanaladi.Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yigʻilishida "Jadidlar gʻoyalari yangi Oʻzbekiston strategiyasi bilan hamohangdir" mavzusida ma'ruza qildilar: "Biz bugungi keskin sharoitda gʻoyaviy mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi: murakkab zamon tarbiyasiga javob beryaptimi?", kabi savollari meni oʻylantirib qoʻydi. Bu oddiy boʻlmagan, chuqur mulohozaga undaydigan savollar. Agar biz bu yorugʻ dunyoda "Oʻzbek", "Oʻzbekistonlik", "Oʻzbekiston", degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan boʻlsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal qilish uchun jon jahdimiz bilan harakatlarni amalga oshirishimiz zarur"deb aytib o'tdilar"[225]. Shaxsan men mamlakatimiz prezidentining mazkur sohadagi ma'ruzalarini tinglab, jadidchilar, ularning olib borgan faoliyatlari bilan qiziqib, yozgan asarlarini oʻqishga kirishdim va jadidchilik harakatining yetuk namoyondalaridan biri A.Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarini o'qib chiqdim. Asarda oʻzbek oilasini tanazzulga uchratishi mumkin boʻlgan illatlar, noo'rin yod g'oyalar, dabdababozliklar va shu bilan birga ulardan qutulishning yoʻllari koʻrsatilgan ekan. Vaholanki, bu asar yaratilganidan beri bir asrdan ko'proq vaqt oʻtibdiki, bu muammolar hali hanuz yechimini topmasdan kelmoqda.Kuchaysa kuchayib,ortsa ortibdiki, lekin kamaygan, barham topgan emas. Shunday ekan oiladagi muhitga, oiladagi ruhiy salomatlikka etibor qaratishimiz

[225] Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrdagi nutqi

zarur. Agar oilada doimiy nizolar bo’lsa, oila a’zolari bir-biriga salbiy munosabatda bo’lishadi, ishonchsizlik, tashvish, hissiy noqulaylik, begonalashish yuz beradi. ”Inson muhabbatdan tug'ilgan, oiladagi ilk onalik mehri va otalik muhabbati bilan yo'rgaklangan. Go'dakning insoniy sifatlari kamol topishida ham mana shu mehr-muhabbat tarbiya maskani hisoblanadi. Binobarin, nikohdan birinchi maqsad ham naslning davomiyligidir. Fitrat qarashlarining zamirida islomiy oila mohiyatini anglatish yotgani uchun oilada millatning qadri va sha’nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va porsolig'i (diyonati) bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan anglatadi. Er-xotinlikning birinchi sharti va oxir-oqibati farzand ekan, bu maqsadga erishish vositasi va sababi visoldir. Visol ishtiyoqi yoshlarda ertaroq tug'ilishiga qaramasdan «hakimlar erkaklarga 23 yoshdan oldin uylanmaslikni va qizlarga 18 yoshdan oldin turmushga chiqmaslikni maslahat beradilar». Ushbu «Maslahat»ning ham fiziologik va genetik, gigiyenik va sihattalab maqsadlariga qaratilganini eslash barobarida oilaning sog'lom va barkamol farzand yetishtirishdagi vazifalarini erinmay birma-bir uqtirib o'tgan. Oilani janjal, fisq, xiyonat va boringki, taloq kabi kushandalardan saqlab turuvchi vosita madoradir, ya'ni er-xotinning murosasidir”[226]. Abdurauf Fitratning “Oila va oilani boshqarish tartibi” asariga chuqur to‘xtalib o‘tiladigan bo‘lsak,ushbu asarda oilaning paydo bo‘lishi, nima sababdan oila quriladi, oilaning o’zi nima ekangligi, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, farzand tarbiyasi, uni qay yo’sinda tarbiyalash kerakli, ota-ona va farzandning burchlari va vazifalari,maktabdagi ta’lim tarbiya va oilada amal qilinadigan ichki tartib qoidalarga bag‘ishlangan. Ayniqsa, asarning “Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”,”Er va xotin tanlashda nimalarga e’tibor berish kerakligi” “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Farzandning ota-ona oldidagi vazifasi”kabi qismlarida bu masalalar haqida fikr yuritib o`tilgan. Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan barcha zarur masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ayniqsa katta e`tiborni qaratadi va uni “Uylanish va uylanmaslik”qismi bilan boshlaydi. Undan nafaqat o`sha davr balki hozirgi kunda ham yangi oila qurmoqchi bo‘lgan yoshlar kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin.Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu jihatlarni o‘sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda hali meditsina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o‘rganish zarur bo‘lgan, turmush tarziga oid juda ko‘p tajriba orttirgan edi va ularni barchasini mana shu asarda bayon qilib o’tgan. Tabiiyki, tartibli oilada nikoh, homiladorlik va uning nihoyasi farzanddir. Fitrat farzand tug'ilishi bilan bog'liq barcha shar’iy hukmlarni eslatish barobarida asosiy e'tiborni farzand parvarishiga qaratgan. Shuning uchun ham kitobning ikkinchi bobi “Farzand tarbiyasi”deb nomlanib, tarbiya masalasiga ham

[226] Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2013.3-bet

millatga buyuk foyda yetkazuvchi soha deb qaramoq va uni boshqalarga ishonib topshirib qo'yish oilaning mas’uliyatsizligidandir, degan zarur xulosaga keladi. Fitrat tarbiya haqidagi qadimiy fanlar asosida uni uch shaklda: badantarbiyasi, aqliy va axloqiy tarbiyaga bo’lgan. Biroq ularni bir-biridan ajratib ham bo'lmaydi. Ular o'zaro shunday bog'liqdirki, biriga ziyon yetsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo'ladi. Biriga foyda yetsa, boshqalari ham undan bahramand bo'ladi. Oiladagi oddiy mojaro va harakatlar bilan o'ralashmay, bolalarning aqliy, ya'ni fikriy tarbiyasi millatning niyati bilan uyg'un bo'lishi lozim. Shulardan biri axloq tarbiyasiga to’xtalib o’tamiz. **Axloqiy tarbiya** bu kishi axloqini kamolga yetkazish, odamning fe’li va harakatiga yaxshi fazilatlarni singdirish demakdir,ya’ni butun bir tarbiyani o’zida mujassam etgan fazilatdir. Hayot binosini qurishda va uning taraqqiyotida avlod tarbiyasining rolini ta’kidlar ekan, Fitrat uch narsa:

- ❖ tansihatlik,
- ❖ sog'lom fikr
- ❖ yaxshi axloq muhimligini aytib o`tadi.

So'ngra esa mana shu tarbiya uchun zarur bo'lgan turli xil vazifalarni ham jamiyat a'zolari oldiga qo'yish kerakligini aytib o’tgan va shu bilan birga jamiyatdagi birdamlikka erishish uchun avvalo, oiladagi ahillikka e’tibor qaratish lozimligini ham ta’kidlaydi.Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo'lishlaridan oldin jamoa bo'lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari «oila», ya’ni «ahli bayt» bo'lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan. Bu muqaddimadan ma’no shuki, oilaning shakllanishi, ya'ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda, oila boshqarishga asos solishgani, inson tafakkuri va madaniyatining ham asta sekin rivojlanganidan darak beradi. Jamiyatdagi har bir oilaning saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda hayot kechirishi shu millat fuqarosining faoliyatiga ham uzviy bog‘liqdir. Oilalarimiz, farzandlarimiz g‘ayratli, shijoatli bo‘lsalar, qo‘l-oyog‘i kuchli va chaqqon, hamma a'zolar sog‘ va faol, izzat va e'tibor sohibi bo‘ladi. Abdurauf Fitrat millatning sifati va uning miqdori bilan ham uzviy bog‘liqlik tomonlari borligini ham aytib o’tadi,ya’ni bu bilan oiladagi barcha qarindoshlarni birdamlikka,inoqlikka undaydi. Oilada millatning qadri, sha’nini belgilovchi harakatlar, er va xotinning iffatida, diyonatida oriyatiga bog‘liq ekanligini hayotiy misollarda ham namoyon bo‘lib, o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda. Masalan A.Fitrat uylanmoqchi bo’lgan erkaklarga maslahat sifatida ilmli,o’qimishli qizga uylanish kerakligini maslahat beradi.Chunki o’qimishli,keng tafakkurga ega bo’lgan onadan,shubhasiz manan yetuk farzandlar dunyoga keladi va shu bilan birga boladagi 65-70% irsiyat ham onadan o’tadi, bu olimlar tomonidan fanda isbotlangan. Shuning uchun ham ushbu kitob bugungi kunda tom ma'noda biz yosh avlodlar uchun hayotiy qo‘llanma bo‘luvchi tarbiyaviy va ma’naviy manba hisoblanadi. “Oila va oilani boshqarish tartiblari” asaridan biz nafaqat, axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima ekanligi, uni qanday qilib qo‘lga kiritish mumkinligi haqida, har bir insonni mushohada qilishga majbur etadi.Shu o’rinda A.Fitratning Turkiston maktablari, undagi ta’lim to’g’risidagi fikrlarini aytib o’tsak

bo’ladi.” Jigarbandingizni yetti yil tarbiyalab, qo'lidan ushlab maktabga olib borasiz. Maktab degani qanday joy? Bir qorong'i, havosi og'ir bo'lgan joy.Ovro'paliklar va ruslarning otxonalari bunday binolardan pokizaroq va havosi tozaroqdir. Tomi yo'q, devorlari faqat shuvoqlangan.O'tirgan o 'ttiztacha bolaning orasida kal ham, ko’r ham, sil kasal ham bor. Jigarporangizni shu (odam o'tirish uchun) loyiq bo'lmagan joyga olib kirib muallimga topshirasiz, bu muallim qayerda tahsil ko'rgan? Ta'lim uslubi qanaqa? Bolalar tarbiyasidan xabari bormi? Bolalarga o'rgatmoqchi bo'lgan narsalarni o'zi biladimi? Shu savollarning javobi sizga juda zarur bo'lsa ham xayolingizga ularni keltirmaysiz, ya'ni muallim ahvolini tekshirmaysiz. Shunday qilib, dilbandingiz shu xonada johil bir muallim qo'lida ertadan kechgacha qolib, alifbe, abjad va haftiyakni navbat bilan o'qiydi. Keyinchalik Qur'on va «Chorkitob»ga o'tadi. Tahsil usuliga ko'ra bolalar ikkita vazifa oladilar. Lekin «Chorkitob» ma’nosini na shogird, na muallim tushunadi. Qur'on qiroatida ham shunday .Qiroat qoidalariga shogird ham, o'qituvchi ham rioya qilmaydilar.Oxirada bizning farzandingiz kim bo’lib yetishadi”[227].Afsuski bugungi kunda ham ba’zi bir maktablarning holati, undagi ayrim o’qituvchilarning tajribasizligi oqibatida ta’lim tizimimizda oqsalishlarni kuzatishimiz mumkin.Yana ham achinarligi tomoni bugungi kunda ko’plab yoshlarimizning taqdiri ota-onalarga bog’liq bo’lib qolgan.Ya’ni farzandni qayerda o’qishi, qaysi o’qituvchiga borishi, qay sohada ishlashigacha barchasini belgilab qo’yishadi.Bu bir tomonda yaxshi, lekin ba’zi ota-onalar farzandini xohishiga, qiziqishiga e’tibor ham berishmaydi.Buning oqibati farzand birinchi navbatda o’zligini anglay olmaydi,o’z mustaqil fikriga,dunyoqarash va tafakkurga ega bo’lmaydi.Buning natijasi ,albatta, mamlakat hayotiga ham katta ta’sir qilishi turgan gap.

Ushbu maqola orqali shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlar o’rtasida erta nikoh tuzilishi va uning oxiri ajralish bilan yakunlanayotganligi bu millatning asl fojiasidir.Buning sababi qanchadan qancha bollalarning yetim qarovsiz qolishi, yoki bola tarbiyasiga e’tibor bermay uning oxiri qandaydir fojia bilan tugashi bu mamlakatni tanazzulga olib keladi, uni rivojlanishdan orqaga qoldiradi,ya’ni yaxshi jonkuyar,tarbiyali kadr yo’q ekan, bu esa millatni ertangi kuni yo’q deganidir. Shuning uchun ham hozirgi kunda mustaqil mamlakatimizning oliy maqsadi har tomonlama yetuk barkamol shaxsni voyaga yetkazish,uni to’g’ri tarbiyalash, bu maqsadni amalga oshirish uchun esa boshlang’ich maskan bo’lmish oilaga urg’uni alohida berish kerakdir.Buning uchun esa, jadid bobolarimiz Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat,Mahmudxo’ja Behbudiy va boshqa jadidlarimizning ma'rifatparvar qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.Shu o’rinda biz yoshlar ham har doim va har vaqt o’zligimizni anglashimiz,ularga munosib avlod bo’lishimiz lozim.

[227] Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2013.122-bet

V SHO‘BA: BUXORO JADIDCHILIK HARAKATI VA NAMOYONDALARI QARASHLARINI TADQIQ ETISHDA INOYATOV SULAYMON INOYATOVICHNING ROLI

СЕКЦИЯ V: РОЛЬ ИНОЯТОВА СУЛЕЙМАНА ИНОЯТОВИЧА В ИЗУЧЕНИИ ВЗГЛЯДОВ БУХАРСКОГО ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЙ

CHAPTER V: THE ROLE OF INOYATOV SULEIMAN INOYATOVICH IN THE STUDY OF THE VIEWS OF THE BUKHARA JADIDIST MOVEMENT AND ITS MANIFESTATIONS

JADIDLAR VA SULAYMON INOYATOV ILMIY MEROSI

Temur Xo‘ja o‘g‘li,

Amerika Qo‘shma shtatlari,

Michigan davlat universiteti professori.

O‘zbekiston ilm-fani va ma’naviy hayotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan olimlardan biri Sulaymon Inoyatov hisoblanadi. U o‘z faoliyati davomida tarix, ma’naviyat, milliy qadriyatlar va ta’lim masalalariga oid qator ilmiy ishlar olib borgan.

Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni qayta tiklash va yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash jarayonida bunday olimlarning ilmiy merosini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sulaymon Inoyatovning ilmiy faoliyati nafaqat tarixiy tadqiqotlar, balki ma’rifiy va tarbiyaviy g‘oyalar bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli uning hayoti va ilmiy merosini o‘rganish bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyandalari jahondagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni judayam puxta o‘rganib, yigirmanchi asr boshlarida Chor Rossiyasi mustamlakasi hamda xon-amirlar istibdodi ostidagi Turkiston aholisi orasida u kun gacha ko‘rilmagan miqyosda judayam katta bir uyg‘onish va islohot tashabbuslarini amalga oshirdilar. Jadidchilarning ilgari ma’rifatchilikka asoslangan faoliyatlari asta-sekin ijtimoiy-siyosiy tus ola boshladi. Jadid ziyolilari oldin muxtoriyat g‘oyasi bilan yo‘lga chiqqan bo‘lsalar, qisqa vaqt ichida ular to‘liq mustaqil va demokratik davlat tuzish g‘oyasini ham amalga

oshirdilar: 1917 yildagi Turkiston va Olash-O‘rda muxtoriyatlaridan keyin jadid chilar Buxoro amirligi va Xiva xonligida mustaqil hamda demokratik Buxoro Xalq Sho‘rolari Jumhuriyati bilan Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyatlarini tuzdilar va bu jumhuriyaatlar 1923 yilgacha mustaqil harakat qildilar, lekin 1923 yilda ular mustaqilliklarini yo‘qotib sovet hokimiyati ostiga kira boshladilar, 1924 yıl oxirida esa, Buxoro hamda Xorazm jumhuriyatlari Moskva tomonidan qulatilib, ularning o‘rniga 1925 yilda Turkistonda beshta sovet respublikasi tuzildi. Bu muhim siyosiy o‘zgarishlar haqida ma’lumot beruvchi ko‘p sonli muhim manbalardan 7 beshtasining matnlari bu asarda berilib ular tahlil etilmoqda: 1) Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1907 yilda Moskovdagi Dumaning Musulmonlar Fraksiyasiga yuborgan Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi; 2)1917 yildagi Turkiston muxtoriyati bayonnomasi; 3) Alash partiyasining loyiha dasturi, 1917 4)1918 yilda Yosh buxoroliklar qo‘mitasining Buxoroda islohot loyihasi; 5) Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyatining qonuni asosi (konstitutsiyasi) matni (1921 va 1922 yillardagi matnlari solishtirilib); 6) Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati Usmon Xo‘ja tomonidan Afg‘oniston hukumatiga top shirilgan bayonnoma. Bu noyob siyosiy hujjatlardan to‘rttasining arab yozuvidagi asl matnlari bilan birga, ularning hozirgi o‘zbek kiril yozuviga o‘girishlari ham bu kitobda taqdim etilmoqda. Beshinchi hujjat esa, turk tilidan o‘zbekchaga tarjima etilgan. Jadidchilik harakati asosiy g‘oyalarini o‘rganish bo‘yicha Milliy mass-mediani qo‘llab- quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan 2023 yil oxirida Toshkent shahrida tuzilgan ilmiy hay’at ishchi guruhi a’zolari “Turkistonda jadidchilik g‘oyalari” mavzusida hisobot tayyorlagan edilar. Mazkur matndan 8 ham foydalanildi.1* Ilmiy hay’at a’zolari ning hammasiga bu haqdagi muhim maslahat-mu lohazalari va qo‘shgan yirik hissalari uchun katta minnatdorchilik bildiraman. Bu kitob uchun, ayniqsa, Buxoro jumhuriyati konstitutsiyasining 1921 va 1922 yillardagi matnlarining o‘zbekcha va ruscha nusxalarini, shuningdek, boshqa ko‘p sondagi konstitutsi yalarni O‘zbekistondagi arxivlardan topib, ularning elektron nusxalarini menga yetkazib bergan – uzoq yillardan beri hamkasbim o‘zbek jurnalisti Furqatbek Yakvalxo‘jaevga va Qozog‘istonlik olimlar professor doktor Dixan Qamzabekuli va Abay Mirzaga Alash partiyasi dasturi nashr etilgan «Qazaq» va «Sari Arqa» gazetalarining 1917-yilgi sonlarini topib, PDF-fayllarini yuborganliklari uchun samimiy minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Behbudiyga tegishli Turkiston madaniy muxtoriyatining noyob qo‘lyozmasini atoqli jadidchi Ismoilbek G‘aspirali o‘z shaxsiy arxivida saqlagan. Keyinchalik uning qizi Shafiqa G‘aspirali xonim dadasining shu arxivini dastlab Qrimdan Ozarbayjonga, bir muddat dan so‘ng Turkiyaga olib kelgan va undan kelib chiqishi Qrim tatar bo‘lgan tarixchi Nejib Hablemito‘g‘liga o‘tgan edi. Nejib Hablemito‘g‘li vafotidan 3 yil ilgari mazkur qo‘lyozmaning 1Mazkur ishchi guruhida shu olimlar bor edi: Prof. Temur Xo‘jao‘g‘li (Ishchi guruh rahbari), Prof. Sulaymon Inoyatov, Prof. Hamidulla Boltaboev, Prof. Qahramon Rajabov, Prof. Zayno biddin Abdurashidov, Dok. Bahrom Irzaev, Akram Fazilov. 9 elektron nusxasini menga bergan va men uni 2021 yilda nashr qilgan edim. Hozir olamda bo‘lmagan bu uchta hurmatli kishining abadiy xotiralari oldida hurmat bilan ta’zim qila man. Ushbu kitobni tayyorlash va yakunlashim pay tida menga fikr-mulohazalari bilan ko‘ma klashgan qorindoshim

marhum Prof. Dr. Sulay mon Inoyatov hamda shu asarning oxirgi qoralamasini ko‘rib chiqib, turli islohlar va tavsiya larni bildirgan Prof. Dr. Qahramon Rajabov, tarixshunos olimlarimizga cheksiz minnatdor chiligimni bildiraman.

Sulaymon Inoyatov o‘zining ilmiy faoliyati orqali O‘zbekiston ilm-fani va ma’naviy hayotiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir.

Uning ilmiy merosi tarix, ma’naviyat, ta’lim va milliy qadriyatlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Olimning asarlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, tarixiy xotirani tiklash va ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda Sulaymon Inoyatov ilmiy merosini chuqurroq o‘rganish, uning asarlarini nashr qilish va ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Inoyatov S. T. Ma’naviyat va tarix masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – 156 b.
2. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha tadqiqotlar to‘plami / Mas’ul muharrir A. Ahmedov. – Toshkent: Universitet, 2018. – 240 b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. Jadidchilik harakati tarixi / R. Hasanov tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 320 b.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 704 b.
6. Rasulov A. O‘zbek ma’rifatparvarligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2014. – 198 b.
7. Qodirov B. Tarixiy meros va milliy o‘zlik. – Samarqand: Zarafshon, 2017. – 164 b.

СУЛАЙМОН ИНОЯТОВ – МИРОВАЯ ВЕХА ИСТОРИИ (SULAIMON INOYATOV – TARIXDAGI JAHON TOSHASI)

Безносюк Александр Алексеевич

доктор педагогических наук, профессор

Киевский Национальный университет

имени Тараса Шевченко, г. Киев, Украина;

Кто такой историк? Для большинства обывателей это даже не совсем ученый. Ведь настоящий представитель науки должен капать в пробирки, запускать коллайдеры или, на крайний случай, мучительно выводить формулы на бумажке. А историки? Они просто много дат знают и учебники

фальсифицируют. На самом деле историк — точно такой же ученый, как и физик с биологом. И за каждой его строчкой стоит кропотливейшая работа.

Вообще работа историка напоминает работу следователя. Он изучает место происшествия, знакомится с сохранившимися документами, предметами, пытается найти максимально большое количество свидетелей — источников. Таким образом, он создает ту картину истории, которая рисуется в его воображении на основании проведенных исследований.

Настоящий историк отличается от домохозяйки тем, что может вынуть из источника ту информацию, которая в нем прямо не зафиксирована. Так, например, прочитав документ, историк может сказать, что это подделка, или что документ написан сумасшедшим, или отражает архаичное восприятие мира, или что этот документ является ключевым для создания цельной картины исторического периода.

И вот судьба мне подарила встречу с историком мирового уровня Сулаймоном Иноятовым, действительно историком с большой буквы!!!

Профессор истории, доктор исторических наук, один из столпов становления Бухарского государственного университета, достойный сын узбекского народа, выдающийся патриот узбекской земли, воспитавший несколько поколений студенческих профессиональных кадров для узбекской Родины. Его часто называют летописцем Бухарского оазиса.

Он очень много сделал и для родной альма матери, он был профессором кафедры, виднейшим ученым – историком.

Сулаймон Иноятович Иноятов посвятил свою жизнь глубокому исследованию истории Узбекистана, в частности, Бухары.

Его научные интересы охватывают:

• Движение джадидизма: Исследование просветительского движения, стремившегося модернизировать исламское общество в начале XX века [1, 2].

• Бухарская Народная Советская Республика (БНРР): Подробный анализ сложного периода перехода от эмирата к советской власти.

• История династии Мангитов: Исследование последней династии Бухарского эмирата.

• Локальная история (Краеведение): Иноятов внес огромный вклад в популяризацию истории городов и сел Бухарской области.

Его научные интересы многогранны. Исторические персоналии, о которых он пишет в своих исследованиях, чрезвычайно важны для объективного понимания исторических перипетий и поворотов, роли личности в истории народа. Портреты Абу Али Ибн Сины, Амира Темура, Мирзо Улугбека, Файзуллы Ходжаева [1, 2], эмира бухарского Абдулахад-хана, Худододи Вали и других выдающихся личностей в узбекской истории имеют важнейшее, актуальное значение для определения методологии современной истории и обладают научной новизной.

Почему его труды являются «мировой вехой»?

Названием моей статьи, хочу подчеркнуть, масштабность его исследований, вышедших за пределы локальной науки:

1. *Реабилитация исторической правды.* В советские времена многие страницы истории Бухары были обезображены или замалчивались (особенно деятельность джадидов и Файзуллы Ходжаева [1, 2].) «Файзулла Ходжаев... Кто не знает его в Узбекистане! Это имя овеяно легендами. Рассказывают, что он учился за границей, что в Берлине получил высшее образование, что знал несколько иностранных языков... Да, он был в Германии (на лечении), но образование получил в Москве, где его отец, бухарский купец-миллионер, имел крупную торговую фирму. Он блестяще владел тремя языками: узбекским, таджикским, русским. Вот несколько реальных фактов из его короткой, нояркой жизни. Так, он трижды был приговорен к смертной казни.В 17 лет он вступил на путь революционной борьбы; в 22 года возглавил вооруженное выступление против власти эмира в Бухаре и был приговорен к смертной казни, но избежал этой участи – уехал в Ташкент…В 1996 г. было принято Постановление Кабмина РУз «О праздновании 100-летия со дня рождения Файзуллы Ходжаева». Были намечены мероприятия (юбилейный вечер и научная конференция в Ташкенте, издание сборника воспоминаний, исследования жизни и творчества, издание произведений, выпуск почтовых марок, конвертов и открыток, создание документального фильма, цикл радио- и телепередач). [1, с. 203].

Профессор Иноятов был одним из тех, кто после обретения независимости Узбекистана начал восстанавливать объективную картину событий, опираясь на архивные документы.

2. *Фундаментальные труды о Бухаре*. Его книги, такие как Бухоро тарихи (История Бухары), являются базовыми пособиями для ученых во всем мире, изучающих Шелковый путь и культуру Центральной Азии [3].

3. *Воспитание научной школы.* Будучи профессором Бухарского государственного университета, он подготовил десятки кандидатов и докторов наук. Его методология исследования – это сочетание глубокого патриотизма с академической строгостью. «История – это не просто список дат, это зеркало души народа» – этот принцип прослеживается во всех трудах Иноятова [4,5].

Будучи в командировке в Бухарском государственном университете, Бухарском государственном педагогическом институте, мне пришлось встречаться с этим непревзойденным человеком, обладающим большими знаниями, и как-то незатейливо наши беседы превращались для меня погружением в узбекскую историю, историю Бухары.

Сулаймон Иноятов – это символ академической устойчивости. Его труды помогают миру понять Бухару не просто как туристический объект, а как интеллектуальный и политический центр, формировавший судьбу всего региона на протяжении веков.

Большая благодарность Сулаймону Иноятову за мгновения встреч, всегда буду помнить ВЕЛИКОГО УЧЕНОГО И ЧЕЛОВЕКА ИНОЯТОВА!!!

Список литературы

1. Иноятов С. И. Файзулла Ходжаев и его родные в исторической памяти народа. Устная история в Узбекистане: теория и практика**.** Сборник

материалов конференции. Выпуск I. Отв. ред. Р.М. Абдуллаев. – Ташкент, 2011. С.203-208.

2. Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир. Учта китоб. 1-китоб (Файзулла Хўжаевнинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи ҳамда илмий муҳаррирлар: С.Иноятов, Қ.Ражабов. – Бухоро: Дурдона, 2023. 580 б.

3. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи Тошкент: Tafakkur, 2016. - 460 б.

4. Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир. Учта китоб. 2-китоб (Усмон Хўжанинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи ҳамда илмий муҳаррирлар: С.Иноятов, Қ.Ражабов. – Бухоро: Дурдона, 2023. 452 бет.

5. Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир. Учта китоб. 3-китоб (Отаулла Хўжаевнинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи ҳамда илмий муҳаррирлар: С.Иноятов, Қ.Ражабов. – Бухоро: Дурдона, 2023. 384 бет.

ЖАДИДЛАР ИЛМИНИНГ ДАВОМЧИСИ...

Камол Йўлдошев

Педагогика фанлари доктори, профессор.

Турон Фанлар Академиясининг Академиги

Жадид сўзи араб тилидан олинган бўлиб, “янги” деган маънони билдиради. Демак, “жадидчилик”- “янгилик” олиб кириш деган маънони англатади.

Жадидлар халқни қолоқликдан қутқариш, маорифни ислоҳ қилиш, янги мактабларни жорий қилиш, дунёвий илмларни ўрганиш, миллий уйғониш ва Ватан мустақиллиги учун курашган фидойилардир. Устоз Сулаймон Иноятович Иноятовни ҳам юқорида санаб ўтилган жадидлар амалга оширган ишларнинг давомчиси десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз. Чунки, бундай даъвони қилишга маънавий асосимиз бор. Жумладан: С.Иноятовичдаги янги – янги ғоялар, тарихни билишда манъбашуносликдан фойдаланиш йўллари, Кармана тарихини ёритишда биринчилардан бўлиб жонбозлик кўрсатиш ва буни ўрганишни олий ўқув юрти дастурига киритиш, Амир Темур ва темурийларнинг Карманада бўлиши тарихи, Работи Малик ва Сардоба тарихини илмий ўрганиш ва уни рисола шаклига келтириб, халққа етказиш, вилоятдаги нураб, хароба ҳолга келиб, бутунлай йўқолиб кетиш хавфи остида қолган тарихий обидаларни асраб қолиш масалаларини баралла кўтариб чиқиш, Республика “Маънавият ва маърифат” марказининг Навоий вилоят раҳбари сифатида вилоятда Халқаро ва республика миқёсидаги катта-катта

анжуман, конференция ва форумларни ташкил қилиб ўтказишдаги жонбозлик ва фидойиликлари айни сўзимизнинг исботидир.

Азиз ва мутабар устоз, бетакрор ва беназир инсон Сулаймон Иноятович Иноятов билан 1995 йилда танишганман. Устоз Бухорои Шарифдан Навоий шаҳрида эндигина очилган Навоий давлат кончилик институтига маънавий – маърифий ишлар бўйича биринчи проректор вазифасига ишга келган дамлар эди. Биринчи учрашган кунимизданоқ устознинг нақадар самимийлиги, билимдонлиги, ўзига қараб, эстетик дид билан кийиниши ва юриши, гапларидаги баъмани, пурмаъно ҳикматли сўзлари, шеърларни юксак савияда юракка етиб борадиган қилиб ўқишлари диққатимни тортган эди. Шулар сабабми устозни ўзимга жуда яқин олдим ва биринчи кўришган кунимизданоқ орамизда илиқ самимий муносабатлар пайдо бўлганидан хурсанд бўлдим. Кейинроқ бу илиқ муносабат дўстона руҳ касб этиб, иш фаолиятимизда давом этди ва устоз - шогирд сифатида устознинг охирги кунларигача давом этди. Бухорои шариф билан Кармана ўртасида устоз – шогирдлик ананалари азалдан куртак отиб, илдизи маҳкам дарахт бўлиб кетган. Жумладан, Шайх Ҳазрат Мир Кулол Карманалик шогирди Мавлоно Ориф Деггаронийга устозлик қилган бўлса, ўз навбатида Малоно Ориф Деггароний Баҳоваддин Нақшбандий Ҳазратларига устозлик қилганлиги тарихдан маълум. Бухоро ўз бағрида катта илм соҳиблари, дунёни лол қолдирган буюк даҳолари билан қадимдан машҳур бўлиб, “Шариф” номига сазовор бўлганлиги Бухорои Шарифнинг бугунги авлодлари билан биргаликда биз Навоийликларга ҳам катта ғурур ва ифтихор бағишлайди. Чунки биз ҳам аслида Бухоро фарзандимиз.

1996 йилда мен Навоий вилояти “Маънавият ва маърифат” марказининг раҳбари этиб тайинланганимдан кейин устоз Сулаймон Иноятович билан муносабатларимиз иш фаолиятимизга беъвосита уйғунлашиб кетди. Ўша вақтларда мен соҳада янги бўлганлигим боис кўп нарсаларни яхши билмасдим, тушунмасдим. Иш фаолиятимни тўғри ташкил қилиш ва муваффақиятли олиб боришимда устоз менга беғараз, самимий ёрдам бердилар. Маънавият – маърифат нима эканлиги, унинг фаолияти нималардан иборатлиги, ишни қандай ташкил қилиш кераклиги, нимадан бошлаш лозимлиги тўғрисида ҳали Республикада бирор-бир йўриқнома ёки дастуриламал ҳужжат йўқ эди. Ўшандай дамларда устоз билан кенгашиб, иш режаларини туздик, уни амалга оширдик, вилоятдаги катта – катта корхона, ташкилот ва муассасаларда маънавий-маърифий тадбирларни ташкил қилиб ўтказдик, маънавият дарсларини йўлга қўйдик ва жадвал асосида ўқишларни олиб бордик. Кейинчалик бу ишларимиз бутун Республика миқёсида оммалаштирилди.

Устоз жуда меҳнаткаш, илмий изланишларни олиб боришда ўта синчков, ҳар бир масалани ҳал қилишда илмий асарларга мурожаат қилиб, илмий манбаларга таяниб иш кўрувчи зукко олим эдилар.

Сулаймон Иноятович билан вилоятдаги ўша пайтда жуда хароб, ташландиқ ҳолга келиб қолган тарихий обидалар, буюк алломалар ва шахсларнинг сўнгги манзили бўлган қадамжолар тарихини ўрганиш мақсадида изланишлар олиб бордик, бу жойларни обод қилишда самарали

меҳнат қилдик. Айниқса, 1997 йил сентябрда юқоридаги муаммо ва камчиликларни ошкор қилиш ва бу ишга жамоатчилик ҳамда давлат ташкилотларининг эътиборини қаратиш мақсадида “Кармана қадим ва навқирон диёр” мавзусида Республика миқёсида катта конференция ташкил қилиб ўтказдик. Устоз бу йирик анжуманда қарийб икки соатдан ортиқ маъруза қилдилар. Кармананинг тарихи, унда яшаб ижод қилган буюк шахслар ва алломаларнинг ҳаёти ва ижодини биринчилардан бўлиб ёритиб бердилар. Кармананинг тарихий кўҳна шаҳар сифатида тарихда тутган ўрни, ундаги тарихий обидаларнинг аянчли аҳволи, динимизни ривожлантиришда беназир ҳисса қўшган буюк алломаларимиз, жумладан Қосим Шайх Азизон, Мавлоно Ориф Деггароний, Мир Сайид Баҳром, Шайх Хўжа Хисрав, Ҳараконий(Қалқонота), Шайх Нуриддин ва бошқа улуғ бобокалонларимизнинг сўнгги манзиллари ўта хароб аҳволда эканлиги, уларнинг ворислари бўлган бугунги авлоднинг, жамоатчиликнинг эътиборсизлиги туфайли такрорланмас тарихий обидалар, буюк бобокалонларимизнинг қадамжолари ўта аянчли аҳволга тушиб, қайта тиклаб бўлмас даражага келиб қолганлиги тўғрисида ўта истироб ва алам билан оташин маъруза қилдилар.

Карманадаги қадимий тарихий обидалар, жумладан Работи Малик Карвонсаройи, Сардоба каби ноёб тарихий иншоотлар, Бухоро амирларининг чорбоғлари, хусусан Мирзачарбоғ, Мир Сайид Баҳром мақбараси ва бошқа тарихий обидалар ўта хароб ҳолда бўлиб, бутунлай йўқ бўлиб кетиш арафасида эканлигини видеотасвирларга тушириб, конференция иштирокчиларига танқидий мулоҳазалар билан кўрсатиб бердилар. Бу воқеа анжуман иштирокчиларида ва жамоатчилик орасида катта воқелик сифатида қабул қилинди. Шу конференция сабаб, вилоятдаги давлат ва жамоат ташкилотлари мавжуд тарихий обидаларни таъмирлаш, уларни қайта тиклаш бўйича алоҳида дастурлар қабул қилиб, самарали ишларни амалга ошира бошлагани кечагидай эсимда.

Мазкур тарихий обидаларнинг тарихини ёритишда ҳам устоз раҳбарлигида биринчилардан бўлиб, катта илмий изланишлар олиб борилди. Натижада ўнлаб тарихий китоб ва рисолалар дунё юзини кўрди, устознинг кўплаб шогирдлари у кишининг бевосита илмий раҳбарлигида илмий изланишлар олиб бориб, номзодлик ва докторлик диссертацияларни ҳимоя қилдилар.

“Амир Темур Работи Маликда”, “Қосим Шайх Азизон”, “Кўҳна тарих гувоҳи”, “Соҳибқирон ва темурийлар назари тушган диёр”, “Амир Абдулаҳадхон даврида Кармана”, “Кармана тарих кўзгусида” номли ва шу каби бошқа ўнлаб китоблар ўша даврда нашрдан чиқди ва жамоатчилик эътиборига ҳавола этилди.

Мен устоздан чин дўстликни, дўстга чинакам содиқлик ва меҳрибонликни, содиқ ҳамроҳ бўлишни ва ҳамроҳни қўллаб - қувватлашни, устозга эҳтиромли ва шогирдга садоқатлиликни ўргандим. Устоз қалби пок, меҳри дарё, буюк қалб эгаси сифатида шогирдлар қалбига чуқур муҳрландики, биз, шогирдлар ҳар бир босган қадамимизда, ҳар бир қилган ижодий ишимизда

у кишининг нафасини ҳис қилиб турамиз. Устознинг ҳар бир босган қадами қутлуғ, ҳар бир айтган сўзлари ўгит, ҳар бир қилган ишлари намуна эди десам, айни ҳақиқатни айтган бўламан. Зеро устозни Оллоҳимнинг ўзи шундай, биз учун идеал, бекаму-кўст қилиб яратган, назаримда.

Сулаймон Иноятович ўта камтар, каттаю кичикка бир хилда муносабатда бўладиган, ҳар қандай ишга ўта жиддий, масъулият билан қарайдиган инсон эдилар. У киши барча шогирдларига бирдай эътиборли эдилар. Ҳар биримиздан эринмай хабар олиб, йўқлаб турардилар.

Устоз иродаси ўта мустаҳкам, ҳаётга тийран кўз билан қарайдиган, мағрур, сабрли инсон эканлигига бир неча бор амин бўлганман. Айрим ғаламислар устознинг обрўйсига путр етказишга уринишгани ҳам ҳамон ёдимда. Навоий давлат кончилик институтида маънавий - маърифий ишлар бўйича биринчи проректор вазифасида ишлаб юрган вақтларида бир неча ғаламислар у кишига бўҳтонлар ёғдиришиб, институтда маънавий – маърифий ишларни олиб боролмаганликда айблашиб, эгаллаб турган лавозимидан четлаштиришга уринишганди. Устоз ўшанда тушкунликка тушмадилар, бу ғаламислар билан тортишиб – талашиб, олишиб ҳам ўтирмадилар. Лавозимни топширдилар, сабр қилдилар. Оллоҳнинг иноятини қарангки, битта кичик муассасада “маънавий – маърифий ишларни тўғри ташкил қилолмади”, деган айблов билан ишдан олинган кишига кўп вақт ўтмай бутун бошли вилоят Маънавият – маърифат марказини бошқариш вазифаси юклатилди. Мана буни жасорат, мустаҳкам ирода, қатъиятлилик деса бўлади. Қойил қолмай илож йўқ. “Оллоҳ улуғлаган кишини бандаси хор қилолмайди,” - деб, ҳадиси шарифда бежиз айтилмаган. Доим Оллоҳнинг паноҳида бўлиш азиз устозга насиб қилди. Ғаламислар бармоқларини тишлаб қолди ўшанда.

Бундай ғаламислар ҳамма вақт ҳар жойда топилади. Вилоят Маънавият ва маърифат марказида ишлаб юрган кезларида ҳам устознинг ишларига тўсқинлик қилиб, обрўйига путур етказмоқчи бўлганлар вилоят ҳокимлиги раҳбарлари ичида ҳам бўлганлигини эслайман. Устозга ёмонлик қилмоқчи бўлганларнинг ҳаммаси кейинроқ ўзлари беобрў бўлиб ишдан олинди. Ўша дамларда устоз билан кўп учрашганмиз, хўп дардлашганмиз.

Сулаймон Иноятович вилоятда Маънавият – маърифат марказининг раҳбари сифатида беқиёс ишларни амалга оширдилар. У киши раҳбарлигида қилинган тадбирли ишларнинг самараси ўлароқ, вилоятдаги тарихий обидаларнинг бир нечтасини Халқаро ЮНЕСКО ташкилотининг рўйхатига киритилди ва бирин - кетин реставрация ишлари амалга оширилди.

Навоий вилоятининг илм аҳли устознинг бу қилинган беназир, беғараз ишларини ҳеч қачон унутмайди. Бу қилинган меҳнатларнинг самараси давлатимиз томонидан ҳам эътироф этилиб, устоз давлатимизнинг юксак мукофотлари “Дўстлик” ва “Эл юрт ҳурмати” орденлари билан мукофотландилар.

Устоз ўта камтарин, самимий, дилкаш, ҳар бир кишининг қалбига йўл топа оладиган, халқни ўз ортидан эргаштира оладиган, чексиз даҳолик қобилиятига, юксак тафаккур ва билимга эга бетакрор инсон эдилар.

Мен Сулаймон Иноятовичдай буюк қалб эгаси, чин инсон билан бир даврда яшаганимдан Оллоҳимга шукроналар айтсам, ундай олийжаноб, улуғ зотга шогирд бўлганлигимга чексиз ҳамду санолар айтаман.

Сулаймон Иноятович муборак 87 ёшда бу ёруғ оламни тарк этдилар. Республика илм – фани, таълими, фарзандлар ва шогирдлар учун катта йўқотиш бўлди. Устозга бўлган чексиз ҳурматимни тил ёки қалам билан исҳор этишга ожизман. У кишига бўлган бениҳоя ҳурматимни энди ҳар бир илмий изланишларимда ифода этишга ҳаракат қиламан. Устоз Сулаймон Иноятов менинг “Идеалим” эдилар, умримнинг охиригача шундай бўлиб қолади. Иншооллоҳ!!!

TURKISTON JADIDLARINING INSON HUQUQLARIGA OID QARASHLARI

Huseynova Abira Amanovna

falsafa fanlari doktori, professor

Ombudsmanning Buxoro viloyati mintaqaviy vakili

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda jadid ziyolilari xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirish va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini ilgari surganlar. Jadidlar faoliyati faqat ta’lim sohasidagi islohotlar bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat hayotining siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab olgan.

Jadid mutafakkirlarining qarashlarida inson huquqlari masalasi muhim o‘rin egallaydi. Ular insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rib, uning erkinligi, bilim olish huquqi va ijtimoiy tengligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaganlar. Jadidlarning bu qarashlari o‘z davri uchun ilg‘or bo‘lib, bugungi zamonaviy demokratik jamiyat tamoyillariga hamohangdir.

Turkiston jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida shakllangan bo‘lib, u milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakati sifatida namoyon bo‘lgan. Jadidlarning asosiy maqsadi jamiyatni zamonaviy bilimlar asosida rivojlantirish va xalqning ijtimoiy ongini yuksaltirish edi.

Jadidlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatni yangilash mumkin deb hisoblaganlar. Ular eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etganlar. Bu maktablarda matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi zamonaviy fanlar o‘qitilgan.

Jadidlarning fikricha, jamiyat taraqqiyoti insonning bilim darajasiga bog‘liq. Agar inson bilimli va ma’rifatli bo‘lsa, u o‘z huquqlarini anglaydi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Shu sababli jadidlar ma’rifatni inson huquqlarini ta’minlashning muhim omili deb hisoblaganlar.

Jadid mutafakkirlari inson erkinligini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, inson erkin fikrlashi, o‘z qarashlarini

erkin ifoda etishi va o‘z taqdirini belgilash huquqiga ega bo‘lishi kerak. Jadid adiblari va mutafakkirlari o‘z asarlarida insonning ma’naviy va intellektual erkinligi masalasiga katta e’tibor qaratganlar. Ular jamiyatda fikr erkinligi va adolat ustuvor bo‘lishi kerakligini ta’kidlaganlar. Jadidlar nazarida inson erkinligi nafaqat siyosiy ozodlik, balki ma’naviy va madaniy mustaqillikni ham anglatadi. Agar inson fikr jihatdan erkin bo‘lmasa, u jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha olmaydi. Shu sababli jadidlar yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatish zarurligini ta’kidlaganlar.

Jadidlarning inson huquqlariga oid qarashlarida ta’lim olish huquqi muhim o‘rin egallaydi. Ularning fikricha, ta’lim har bir insonning tabiiy huquqidir. Inson bilim orqali o‘z salohiyatini namoyon etadi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, zamonaviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yganlar. Bu maktablarda o‘quvchilar nafaqat diniy bilimlarni, balki dunyoviy fanlarni ham o‘rganganlar.

Shuningdek, jadidlar ayollarning ta’lim olishi masalasiga ham katta e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, ayol ma’rifatli bo‘lmasa, jamiyat ham rivojlana olmaydi. Shu sababli ular ayollarni o‘qitish va ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirish tarafdori bo‘lganlar.

Jadid mutafakkirlari jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirish zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, insonlar millati, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar teng huquqlarga ega bo‘lishi kerak. Jadidlar jamiyatda adolat ustuvor bo‘lishini istaganlar. Ular korrupsiya, jaholat va ijtimoiy tengsizlikni keskin tanqid qilganlar. Jadidlarning qarashlarida adolatli jamiyat qurish g‘oyasi markaziy o‘rin egallaydi. Ular inson qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida ko‘rib, jamiyat taraqqiyoti inson huquqlarini ta’minlash orqali amalga oshishini ta’kidlaganlar.

Bugungi kunda jadidlar ilgari surgan g‘oyalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Inson huquqlari, ta’lim erkinligi, fikr mustaqilligi va adolatli jamiyat qurish kabi tamoyillar zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Jadidlar inson huquqlarini, xususan**,** ta’lim olish huquqi, ayollar huquqlarini himoya qilish, yoshlar va ijtimoiy faollik, axloqiy va ma’naviy rivojlanishni targ‘ib qilganlar. Yangi O‘zbekistonda bu g‘oyalar:

- Barcha yosh avod uchun sifatli va inklyuziv ta’lim tizimi yaratish;
- Qizlar va ayollarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘qitish orqali shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirish shaklida namoyon bo’lmoqda;
- Ayollarning bandligini oshirish va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish;
- Ayollarni ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish;
- Gender tengligi siyosatini qo‘llab-quvvatlash;
- “Besh muhim tashabbus” kabi davlat dasturlari orqali madaniyat, san’at va sportga jalb etilmoqda,
- Axborot texnologiyalari va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratilmoqda,
- Kitobxonlik va ma’naviy tarbiya orqali yoshlarning tanqidiy tafakkuri shakllantirilmoqda;

- Ma’naviy-ma’rifiy dasturlar orqali jamiyatda madaniy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash;

- Yoshlarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

- Jamiyatda adolat, tenglik va huquqiy madaniyatni rivojlantirish shaklida namoyon bo‘ladi.

Jadidlarning merosi bugungi yosh avlod uchun ham muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Ularning qarashlari jamiyat taraqqiyotida ma’rifat va erkinlikning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Turkiston jadidlarining inson huquqlariga oid qarashlari milliy uyg‘onish davrining muhim falsafiy g‘oyalaridan biridir. Jadidlar inson erkinligi, ta’lim olish huquqi, tenglik va adolat tamoyillarini ilgari surib, jamiyatni yangilashga intilganlar.

Ularning qarashlari bugungi zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasining shakllanishida muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston jadidlar harakati tarixi. A. Qodirov. Jadidlar ma’naviy merosi va jamiyat rivoji. Toshkent: Fan, 2018.
2. O‘zbek adabiyoti va jadidlar. N. Sobirov. Milliy qadriyatlar va ta’lim tizimi. Toshkent: Adabiyot, 2017.
3. Umuminsoniy qadriyatlar va jamiyat. M. Karimov. Inson huquqlari va axloqiy tarbiya. Toshkent: Fan, 2016.
4. Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi. R. Xolmatov. Ta’lim va jamiyat. Toshkent: Ta’lim, 2019.
5. Jadidlar falsafasi va yangi ma’naviy makon. S. Islomov. Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar. Toshkent: Fan, 2020.
6. Jadidlar va ta’lim. N. Sobirov. Milliy qadriyatlar va ta’lim tizimi. Toshkent: Adabiyot, 2017.
7. Ayollar huquqlari va jadidlar. M. Karimova. Jadidlar g‘oyalari va ayollar huquqlari. Toshkent: Ta’lim, 2019.
8. Shavkat Mirziyoyev. Besh muhim tashabbus va yoshlarni rivojlantirish chora-tadbirlari. Prezident farmoni, 2020, Toshkent.
9. Ijtimoiy mobillik va zamonaviy jamiyat. D. Qodirov. Jamiyatda ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlari va ularni modernizatsiya qilish. Toshkent: Fan, 2021.
10. Turkiston jadidlar harakati tarixi. A. Qodirov. Jadidlar ma’naviy merosi va jamiyat rivoji. Toshkent: Fan, 2018.
11. Zamonaviy O‘zbekiston va jadidlar merosi. S. Islomov. Demokratik qadriyatlar va ma’naviy rivojlanish. Toshkent: Fan, 2021.
12. Ijtimoiy psixologiya asoslari. O. Tursunov. Ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanish. Toshkent: Fan, 2020.

BUXORO JADIDCHILIK HARAKATI VA NAMOYONDALARINING QARASHLARI BUGUNGI KUN NIGOHIDA

Samiyeva Sh.X.

Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy kotibi, p.f.d., professor

Shamsullayeva Ruxsatoy

Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi, Buxoro shahar

Bugungi kunda modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida moziyga nigoh solmay turib, uning tajribasi va ko‘nikmalariga tayangan holda ta'lim jarayonida yuksak yutuqlarga erishmagan bo‘lardik. O‘zbekistonning milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida jadidchilik harakatini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Istiqlolning dastlabki yillaridan e'tiboran mazkur mavzuga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ammo Buxoro amirligi davrida jadidchilik harakatlari to‘laligicha yoritilmagan.

1902 yilda Buxoroda yangi turdagi birinchi maktab — "usul ul-jadid" (yangi usul) maktabi ochildi. Bu voqea tatar jamoasi tashabbus va ko‘magida amalga oshdi. Yangi maktabda qoida tariqasida har bir predmetdan alohida o‘qituvchi bo‘lib, yangi o‘quv usullaridan foydalanildi. Qur'onni mexanik yod olishga asoslangan eski maktablar bu raqobatni ko‘tara olmasdi.

Mahalliy ruhoniylar va amirning bosimi ostida yangi maktab tez orada yopildi. Ammo g‘oyalar tarqalib bo‘lgandi. Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi aktyor — jadid harakati paydo bo‘ldi. Bu harakat yangi va eski, islohotchi va konservativ kuchlar o‘rtasidagi keskin kurash maydoni bo‘ldi.

Inoyatov Sulaymon Inoyatovich 1950-yillarda Buxoroda tavallud topib, O‘zbekiston Milliy universiteti va undan keyingi ilmiy maktablarda tahsil olgan. U jadidchilik harakati namoyondalari — Abdurauf Fitrat, Mahmudhoja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va pedagogik qarashlarini arxiv manbalari asosida qayta ko‘rib chiqdi va ular haqida yangi ilmiy talqinlar yaratdi [1].

Olimning «Buxoro jadidchilik harakati: tarix va zamonaviylik» (2005), «Jadidchilik: mafkura va harakat» (2009), «Jadid maktablari va milliy ma'rifat» (2007) nomli asosiy monografiyalari jadidshunosligi fanining poydevorini mustahkamladi. Bu asarlar fanda jadidchilik harakatini kompleks tarzda o‘rganishning namunasi sifatida qabul qilindi.

Buxoro amirligida 1905-1917 yillar orasida bir necha o‘nlab jadid maktablari faoliyat ko‘rsatdi. Amirlik hukumati va konservativ ulamo jadidlarga qarshi bo‘lsa-da, maktablarning soni yildan-yilga ko‘payib bordi. Sadriddin Ayniyning "Yodgorliklar" asarida bu maktablarning kundalik hayoti jonli tarzda tasvirlangan [2].

Keling, jadidlarimizning ilmiy meroslari haqida to‘xtalib o‘tsak. Uni quyidagi jadvalimizda to‘liq o‘rganishimiz mumkin.

1-jadval. Jadidlarimiz ilmiy meroslari.

Ism	Yashagan yillar	Soha	Asosiy hissasi
Abdurauf Fitrat	1886–1938	Adabiyot, siyosat	Jadidchilik nazariyasi, «Munozara», tilshunoslik
Sadriddin Ayniy	1878–1954	Adabiyot, tarix	«Odina» romani, «Yoddashtho», ikki xalq adabiyoti
Fayzulloh Xo‘jayev	1896–1938	Siyosat	BXSR rahbari, O‘zSSR hukumati boshlig‘i
Mahmudhoja Behbudiy	1875–1919	Dramaturgiya, matbuot	«Padarkush», «Oyina» jurnali, ta’lim targ‘iboti
Hamza Niyoziy	1889–1929	She’riyat, teatr	«Baxtsiz kuyov», xotin-qizlar ozodligi
Cho‘lpon	1897–1938	She’riyat, roman	«Kecha va kunduz», she’riy meros
I. Gasprinskiy	1851–1914	Matbuot, pedagogika	«Tarjimoni», usuli savtiya, panturkizm
A. Shakuriy	1875–1943	Pedagogika	Samarqandda birinchi jadid maktabi (1901)
Munavvarqori	1878–1931	Pedagogika, matbuot	«Adibi avval», Toshkent jadid maktablari
B. Marg‘inoniy	1875–1937	Matbuot	«Buxoroi Sharif» gazetasi (1912)

Inoyatovning «Jadid maktablari va milliy ma’rifat» (2007) asari Buxoro viloyatidagi yangi usul maktablarini tarixiy-pedagogik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif mazkur maktablar tizimi, o‘quv dasturlari, darsliklar va muallimlar tayyorlash masalalarini arxiv hujjatlari asosida batafsil yoritdi.[3]

Buxoroda jadid maktablarining tashkil topishi jarayonini o‘rganib, Inoyatov «usuli jadid» metodikasining Ismoil Gasprinskiyning «usuli savtiya» usulidan qanday ozgarib borgani va mahalliy sharoitga moslashgani haqida muhim xulosalar chiqardi. Jadid maktablarida o‘qitiladigan fanlar — tabiiyot, geografiya, hisob, o‘zbek va arab tillari — an’anaviy madrasadan qanday farq qilgani aniq misollar asosida ko‘rsatildi.[4]

Olim shuningdek, jadid maktablari muammolari: moliyaviy qiyinchiliklar, amirlik ma’muriyatining qarshiligi, diniy konservatorlar bosimi va muallimlarning kam sonligi kabi to‘siqlarni ham atroflicha tahlil etdi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, jadid maktablari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida an'anaviy ta'lim tizimiga muqobil sifatida vujudga kelgan bo‘lib, ular yangi pedagogik konsepsiya asosida tashkil etilgan. Jadid pedagogik konsepsiyasining asosiy tamoyillari: tizimlilik va izchillik, ona tilida o‘qitish,

koʻrgazmali metodlar, diniy va dunyoviy bilimlarning uygʻunligi, tarbiyaning ijtimoiy yoʻnaltirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi[6]. Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi yetakchi jadid mutafakkirlari oʻzlarining pedagogik qarashlari, yaratgan darsliklari va oʻquv qoʻllanmalari orqali jadid ta'lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qoʻshganlar. Ularning pedagogik merosi milliy pedagogika tarixida muhim oʻrinni egallaydi. Tadqiqot natijasida aniqlandi ki, jadid pedagogik konsepsiyasi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun ham amaliy qoʻllanma boʻla oladi. Jadid maktablari tajribasini oʻrganish va undan oqilona foydalanish milliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Inoyatov S.I. Jadidchilik: mafkura va harakat. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009. – B. 12–15.
2. Inoyatov S.I. Jadidchilik: mafkura va harakat. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009. – 400 b.
3. Inoyatov S.I. Mahmudhoja Behbudiy va jadidchilik. // Oʻzbek tili va adabiyoti. – 2003. – №2. – B. 18–24.
4. Inoyatov S.I. Usmon Nosir va jadidchilik gʻoyalari. // Sharq yulduzi. – 2006. – №4. – B. 145–152.
5. Rashidov Gʻ. Jadid dramaturgiyasi. Toshkent: Fan, 1985.

INOYATOV SULAYMON INOYATOVICHNING BUXORO JADIDCHILIK HARAKATINI OʻRGANISHDAGI ILMIY METODOLOGIYASI VA MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Jabbarova Aziza Shixnazarovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti pedagogika,

psixologiya va sport kafedrasi o'qituvchisi

Bozorova Bahora Jahongir qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti

1-1BT-23 guruh talabasi

Buxoro jadidchilik harakati Turkiston tarixining eng muhim sahifalaridan biri boʻlib, uning tadqiq etilishi koʻp yillar davomida olimlarning diqqat markazida boʻlgan. Bu borada Inoyatov Sulaymon Inoyatovich oʻzining koʻp yillik ilmiy faoliyati davomida Buxoro jadidchiligi tarixini oʻrganishga ulkan hissa qoʻshgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari Buxoro jadidchilik harakatining turli jihatlarini yoritishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi [1].

Inoyatovning ilmiy merosini oʻrganish nafaqat Buxoro jadidchiligi tarixshunosligini boyitish, balki zamonaviy tarixshunoslik metodologiyasini

rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi Inoyatovning ilmiy metodologiyasi va manbashunoslik yondashuvini tahlil qilish hamda uning Buxoro jadidchiligi tadqiqotlaridagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning ilmiy faoliyati haqida qisqa ma’lumot. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich Buxoro viloyatida tug‘ilib, o‘z ilmiy faoliyatini Buxoro jadidchiligi tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan. U ko‘p yillar davomida arxivlarda ishlash, manbalarni to‘plash va tahlil qilish orqali Buxoro jadidchilik harakatining turli jihatlarini yoritib bergan. Inoyatovning ilmiy asarlari Buxoro jadidchiligi tarixshunosligida muhim o‘rin egallaydi [2].

Inoyatov o‘zining tadqiqotlarida Buxoro jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlari, harakat ishtirokchilarining biografiyalari, ularning g‘oyaviy qarashlari va amaliy faoliyatini keng ko‘lamda yoritgan. Uning asarlari Buxoro jadidchiligi haqidagi bilimlarni sezilarli darajada kengaytirgan [3].

Inoyatovning ilmiy metodologiyasi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich o‘zining tadqiqotlarida bir necha muhim metodologik tamoyilga amal qilgan. Birinchidan, u tarixiy-qiyosiy metodni keng qo‘llab, Buxoro jadidchilik harakatini Turkistonning boshqa mintaqalaridagi shunga o‘xshash harakatlar bilan taqqoslagan. Bu yondashuv Buxoro jadidchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini bergan [4].

Ikkinchidan, Inoyatov biografik metodni samarali qo‘llab, Buxoro jadidchilik harakatining yetakchilari – Abdurauf Fitrat, Fayzullo Xo‘jayev, Mirzo Muhiddinov, Sadriddin Ayniy va boshqalarning hayoti va faoliyatini batafsil yoritgan. U har bir shaxsning g‘oyaviy shakllanishi, ta’lim olgan muhiti va ijtimoiy kelib chiqishini chuqur tahlil qilgan [5].

Uchinchidan, Inoyatov tizimli yondashuvni qo‘llab, Buxoro jadidchilik harakatini yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilgan. U harakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ta’limiy jihatlarini o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqgan va bu omillarning bir-biriga ta’sirini ko‘rsatib bergan [6].

Inoyatovning manbashunoslik tahlili. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich o‘zining tadqiqotlarida turli xil manbalardan foydalangan. Arxiv manbalari uning tadqiqotlarining asosiy tayanchi bo‘lgan. U O‘zbekiston Markaziy davlat arxivi, Buxoro viloyat davlat arxivi va boshqa arxivlardagi hujjatlarni sinchiklab o‘rganib, ko‘plab yangi ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritgan [7].

Inoyatov jadid matbuoti materiallaridan ham keng foydalangan. U “Buxoroi sharif”, “Turon” va boshqa Buxoro jadidlari tomonidan nashr etilgan gazetalar va jurnallarni chuqur tahlil qilib, ulardagi maqolalarni tarixiy manba sifatida qo‘lagan. Bundan tashqari, u xotira adabiyotlari – Sadriddin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi” va boshqa asarlarni ham tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilgan [8].

Inoyatovning manbashunoslik yondashuvining muhim jihati shundaki, u manbalarni tanqidiy tahlil qilish zaruriyatini doimo ta’kidlagan. U har bir manbaning ishonchliligi, xolisligi va ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirgan. Bu yondashuv uning tadqiqotlariga yuqori ilmiy darajani ta’minlagan [9].

Inoyatov tadqiqotlarining Buxoro jadidchiligi tarixshunosligidagi o‘rni. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning tadqiqotlari Buxoro jadidchilik harakati tarixshunosligini bir necha muhim jihatdan boyitgan. U Buxoro jadidchiligining ijtimoiy bazasini aniqlash, harakat ichidagi turli oqimlarni farqlash va jadidlarning g‘oyaviy evolyutsiyasini kuzatish bo‘yicha muhim natijalar erishgan. Uning asarlari keyingi avlod tadqiqotchilari uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [10].

Inoyatovning Buxoro jadidchiligining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tadqiq etishi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich o‘zining tadqiqotlarida Buxoro jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jadidchilik harakatining shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi. Xususan, Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, Buxoro bozorlariga Yevropa tovarlarining kirib kelishi va an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishining tanazzuli mahalliy ziyolilar orasida o‘zgarish zaruriyati haqidagi fikrlarning shakllanishiga olib keldi [11].

Inoyatov Buxoro savdogarlar tabaqasining jadidchilik harakatidagi rolini alohida ta’kidlagan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, Buxoroning yirik savdogarlari – Mirzo Muhiddin Mansurxo‘jayev, Mirzo Sirojiddin Hakim va boshqalar – jadid maktablarini moliyalashtirish, darsliklar nashr ettirish va ziyolilarni xorijga o‘qishga yuborishda muhim rol o‘ynaganlar. Inoyatov bu savdogarlarning faoliyatini arxiv hujjatlari asosida batafsil yoritib, ularning jadidchilik harakatining tashkiliy va moliyaviy asosini yaratishdagi hissasini ko‘rsatib bergan [12].

Shuningdek, Inoyatov Buxoro amirligidagi siyosiy tuzumning jadidchilik harakatiga ta’sirini ham chuqur tahlil qilgan. U Buxoro amirligi hukumati va ruhoniylar tabaqasining jadidlarga qarshi olib borgan siyosatini, jadidlarning bu siyosatga qarshi kurashini va bu kurashning turli bosqichlarini batafsil yoritgan. Inoyatovning bu boradagi tadqiqotlari Buxoro jadidchiligining boshqa hududlardagi jadidchilik harakatlaridan tubdan farq qiluvchi xususiyatlarini anglash imkonini beradi [13].

Inoyatovning Abdurauf Fitrat merosini tadqiq etishdagi hissasi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning ilmiy merosida Abdurauf Fitrat shaxsiyati va ijodini tadqiq etish alohida o‘rin tutadi. Inoyatov Fitratning hayoti va faoliyatini muntazam ravishda o‘rganib, bu buyuk mutafakkirning Buxoro jadidchilik harakatidagi yetakchi rolini ilmiy asoslarga tayangan holda ko‘rsatib bergan. Uning “Abdurauf Fitrat va Buxoro jadidchiligi” monografiyasi bu boradagi eng muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi [14].

Inoyatov Fitratning “Munozara” asarini chuqur tahlil qilib, bu asarning Buxoro jadidchilik harakatining dasturiy hujjati sifatidagi ahamiyatini ochib bergan. U Fitratning Istambulda ta’lim olgan davrida yozgan bu asarini Buxoro madrasalarining ahvoli haqidagi real ma’lumotlar va islohotchilik g‘oyalar sintezi sifatida baholagan. Inoyatov “Munozara”da ilgari surilgan ta’lim islohotlari g‘oyalarini Buxoroning real ijtimoiy-siyosiy sharoiti kontekstida ko‘rib chiqqan va Fitratning g‘oyalari qanchalik amaliy va hayotiy ekanligini ko‘rsatgan [15].

Inoyatov Fitratning boshqa asarlari – “Bayonotlar”, “Hind sayyohining qissasi”, she’riy va dramatik asarlarini ham tahlil qilgan. U Fitratning adabiy merosini siyosiy va ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqqan va bu asarlarning Buxoro jadidchilik harakatining g‘oyaviy asosini shakllantirishdagi rolini aniqlagan. Inoyatovning bu boradagi tadqiqotlari Fitratning ko‘p qirrali faoliyatini yaxlit manzara sifatida ko‘rish imkonini beradi [16].

Inoyatovning Buxoro jadid ta’lim muassasalarini tadqiq etishi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich Buxoro jadid maktablarining tashkil etilishi, faoliyati va taqdirini batafsil o‘rgangan. Uning tadqiqotlari Buxoroda jadid maktablarining ochilishi qanday qiyinchiliklar bilan kechganligini yaqqol ko‘rsatadi. Buxoro amirligida, Turkiston general-gubernatorligi hududidan farqli ravishda, jadid maktablarini ochish rasman taqiqlangan edi. Shunga qaramay, Buxoro jadidlari maxfiy va yarim maxfiy tarzda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishga muvaffaq bo‘ldilar.

Inoyatov arxiv hujjatlari asosida Buxoroda 1908–1910-yillarda ochilgan birinchi jadid maktablarining ro‘yxatini tuzgan va ularning faoliyati haqida batafsil ma’lumotlar yig‘gan. U maktablarning o‘quv dasturlari, o‘qituvchilari, o‘quvchilari soni va moliyalashtirish manbalari haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirib, Buxoro jadid ta’lim muassasalarining to‘liq manzarasini yaratgan. Inoyatovning ma’lumotlariga ko‘ra, 1910-yilga kelib Buxoro shahrida va uning atrofida 10 dan ortiq jadid maktabi maxfiy ravishda faoliyat yuritgan.

Inoyatov Buxoro jadid maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning uyg‘unlashtirilishi tajribasini ham o‘rgangan. U Buxoro jadid maktablarining o‘quv dasturlarini Toshkent va Samarqanddagi jadid maktablari dasturlari bilan taqqoslagan va Buxoro maktablarida diniy fanlarga ko‘proq e’tibor qaratilganligini aniqlagan. Bu holat Buxoro amirligi sharoitida jadidlarning konservativ ruhoniylar bilan murosaga kelish zaruriyati bilan izohlanadi.

Inoyatovning Buxoro jadid matbuotini o‘rganishi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning tadqiqotlarida Buxoro jadid matbuotining tahlili muhim o‘rin egallaydi. U “Buxoroi sharif” gazetasi (1912), “Turon” gazetasi (1912) va boshqa Buxoro jadid nashrlarining paydo bo‘lishi, faoliyati va yopilishi tarixini batafsil yoritgan. Inoyatov bu nashrlarning har birining tahririyat tarkibi, nashr muddati, tiraxi va asosiy mavzularini aniqlagan .

Inoyatov “Buxoroi sharif” gazetasining Buxoro jadidchilik harakatidagi rolini alohida ta’kidlagan. U bu gazetaning asosiy maqsadi Buxoro xalqini ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtirish, ta’lim islohotlari zaruriyatini targ‘ib qilish va ijtimoiy muammolarni yoritish ekanligini ko‘rsatgan. Inoyatov gazetada chop etilgan maqolalarni mavzular bo‘yicha tasniflagan va ularning Buxoro jamiyatidagi ta’sirini tahlil qilgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, gazeta faoliyat yuritgan qisqa muddat ichida Buxoro ziyolilari orasida katta qiziqish uyg‘otgan va jadidchilik g‘oyalarining keng tarqalishiga xizmat qilgan.

Inoyatov Buxoro jadid matbuotining Buxoro amirligi hukumati va Rossiya mustamlaka ma’muriyati tomonidan senzuraga uchrashi masalasini ham batafsil o‘rgangan. U arxiv hujjatlari asosida Buxoro amiri va Rossiya siyosiy agenti o‘rtasidagi yozishmalarni tahlil qilib, har ikki tomon ham jadid matbuotini o‘zlari

uchun xavfli deb hisoblashganligini ko‘rsatgan. Inoyatov jadid gazetalarining yopilishi va qayta ochilishiga doir hujjatlarni topib, bu jarayonning siyosiy orqa fonini yoritgan.

Inoyatovning Buxoro jadidchilik harakatidagi ichki oqimlarni tadqiq etishi. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning tadqiqotlarining eng muhim jihatlaridan biri Buxoro jadidchilik harakati ichidagi turli oqimlar va guruhlarni farqlash va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishdir. Inoyatov Buxoro jadidlarini bir butun, monolitik guruh sifatida ko‘rmasdan, ular orasidagi g‘oyaviy va taktik farqlarni ko‘rsatib bergan.

Inoyatovning tahlillariga ko‘ra, Buxoro jadidlari orasida asosan uch oqim mavjud edi. Birinchi oqim – mo‘’tadil islohotchilar – ta’lim islohatlari va bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni tarafdor qilgan guruh bo‘lib, ular Buxoro amirligini ichkaridan isloh qilish mumkinligiga ishonganlar. Ikkinchi oqim – radikal islohotchilar – tub siyosiy o‘zgarishlar zaruriyatini ta’kidlagan va amir hokimiyatini cheklash tarafdori bo‘lgan guruh edi. Uchinchi oqim – inqilobchilar – Buxoro amirligini to‘ntarish va tubdan yangi siyosiy tuzum o‘rnatish tarafdori bo‘lgan eng radikal guruh edi.

Inoyatov bu uch oqim o‘rtasidagi munosabatlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarib borgan ligini kuzatgan. U 1917-yil inqilobidan oldingi davrda mo‘’tadil islohotchilar ustunlik qilganligini, 1917-yildan keyin esa radikal va inqilobchi oqimlar kuchayganligini ko‘rsatgan. Inoyatov bu o‘zgarishni tashqi siyosiy omillar – Rossiya inqiloblari va Birinchi jahon urushi – ning ta’siri bilan izohlab, ichki va tashqi omillarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bergan .

Inoyatovning arxiv manbalari bilan ishlash tajribasi va ilmiy muomalaga kiritgan yangi hujjatlar. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning eng katta xizmatlari dan biri uning ko‘p yillik arxiv ishining natijasida ilmiy muomalaga kiritgan yangi hujjatlardir. U O‘zbekiston Markaziy davlat arxivining I-fondida, Buxoro viloyat davlat arxivida va Rossiya Federatsiyasi arxivlarida saqlangan ko‘plab hujjatlarni birinchi bo‘lib topib, o‘rganib, nashr ettirgan .

Inoyatov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan hujjatlar orasida Buxoro amirining jadid maktablarini yopish to‘g‘risidagi farmoni, Rossiya siyosiy agentining jadidlar faoliyati haqidagi maxfiy hisobotlari, Buxoro jadidlarining o‘zaro yozishmalari va jadid tashkilotlarining protokollari alohida ahamiyatga ega. Bu hujjatlar Buxoro jadidchilik harakatining oldin noma’lum bo‘lgan jihatlarini yoritish imkonini berdi va bu harakatning tarixiy manzarasini sezilarli darajada to‘ldirdi.

Inoyatov arxiv hujjatlari bilan ishlashda yuqori ilmiy mas’uliyat va professionallikni namoyon qilgan. U har bir hujjatning kelib chiqishi, yaratilgan vaqti, muallifi va ishonchliligi to‘g‘risida batafsil ma’lumot bergan. Shuningdek, u bir xil voqea haqidagi turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirish orqali eng ishonchli va xolis ma’lumotlarni ajratib olish metodikasini ishlab chiqqan. Bu metodika keyingi avlod tadqiqotchilari uchun muhim ilmiy namuna bo‘lib xizmat qilmoqda .

Inoyatov tadqiqotlarining zamonaviy tarixshunoslik uchun ahamiyati va istiqbollari. Inoyatov Sulaymon Inoyatovichning ilmiy merosi zamonaviy

tarixshunoslik fani uchun bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, uning tadqiqotlari Buxoro jadidchilik harakati haqidagi bilimlarni sezilarli darajada boyitgan va bu harakatning ko‘p qirrali xususiyatini ochib bergan. Ikkinchidan, uning ishlab chiqqan metodologik yondashuvlari zamonaviy tadqiqotchilar uchun qimmatli ilmiy tajriba hisoblanadi.

Uchinchidan, Inoyatov ilmiy muomalaga kiritgan arxiv hujjatlari hali ham to‘liq o‘rganilmagan va ular asosida yangi tadqiqotlar olib borish mumkin. To‘rtinchidan, Inoyatovning tarixiy-qiyosiy metodni qo‘llash tajribasi Buxoro jadidchiligini xalqaro kontekstda – Rossiya, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlardagi islohotchilik harakatlari bilan taqqoslash – da yangi tadqiqotlar uchun poydevor yaratadi .

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va xalqaro ilmiy hamkorlik imkoniyatlari kengaygan sharoitda Inoyatovning tadqiqotlarini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Xususan, uning topgan arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etish, Buxoro jadidchiligini xalqaro qiyosiy tadqiqotlar doirasida o‘rganish va Inoyatovning metodologik yondashuvlarini zamonaviy tarixshunoslik metodlari bilan boyitish kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi .

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Inoyatov Sulaymon Inoyatovich Buxoro jadidchilik harakatini o‘rganishda o‘ziga xos ilmiy metodologiya va manbashunoslik yondashuvini ishlab chiqqan. Uning tarixiy-qiyosiy, biografik va tizimli metodlarni qo‘lashi, arxiv manbalari va matbuot materiallarini chuqur tahlil qilishi Buxoro jadidchiligi tarixshunosligini sezilarli darajada boyitgan.

Inoyatovning ilmiy merosi bugungi kunda ham Buxoro jadidchiligi tarixini o‘rganish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning tadqiqot tajribasi va metodologiyasini o‘rganish zamonaviy tarixshunoslik fani rivojiga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inoyatov S.I. Buxoro jadidchilik harakati tarixi. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005. – B. 5–30.

2. Inoyatov S.I. Buxoro jadidlari va ularning ma’rifiy faoliyati. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 12–45.

3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 120–145.

4. Alimova D. Turkiston jadidchiligi tarixshunosligiga doir. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 56–80.

5. Inoyatov S.I. Abdurauf Fitrat va Buxoro jadidchiligi. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2012. – B. 23–56.

6. Rajabov I. Buxoro jadidchiligi tadqiqotlari. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 67–90.

7. Inoyatov S.I. Buxoro jadidchiligi arxiv manbalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 34–67.

8. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 45–78.

9. Abdullayev R. Jadidchilik tarixshunosligida manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 56–80.
10. Karimov N. Buxoro jadidchiligi: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 78–110.
11. Inoyatov S.I. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2007. – B. 34–67.
12. Inoyatov S.I. Buxoro savdogarlari va jadidchilik harakati. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 45–78.
13. Inoyatov S.I. Buxoro amirligi va jadidlar: siyosiy kurash tarixi. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2009. – B. 56–90.
14. Inoyatov S.I. Abdurauf Fitrat va Buxoro jadidchiligi. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2012. – B. 5–120.
15. Fitrat A. Munozara. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 5–45.
16. Inoyatov S.I. Fitratning adabiy-siyosiy merosi. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 34–70.

ILM VA VATANPARVARLIK: JADIDLAR IZIDAN BORGAN USTOZ

Murodov Halim Salimovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti,

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

XX asr boshlarida Turkiston zaminida ma'rifat, taraqqiyot va milliy uyg'onish g'oyalarini baland ko'targan jadidlar harakati xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ular ilmni najot, tarbiyani esa millat kamolotining bosh mezoni deb bildilar. Ana shu ezgu an'analarni davom ettirgan, jadidlar ko'targan ma'rifat mash'alini zamonaviy ilm-fan bilan uyg'unlashtirgan fidoyi olimlardan biri — ustoz, tarix fanlari doktori, professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov edilar.

Ustoz o'z hayot faoliyatlari davomida jadid bobolarimizning ilmparvarlik, vatanparvarlik va haqsevarlik tamoyillarini amalda namoyon etdilar. Xususan, jadidlar yetakchilaridan biri bo'lgan Fayzulla Xo'jayev avlodi sifatida u kishi nafaqat tarixiy merosni o'rganish, balki uni yosh avlod ongiga singdirishni ham o'zining muqaddas burchi deb bildilar. Ustozning ilmiy, pedagogik va insoniy fazilatlari jadidchilik harakatining ma'rifatparvar ruhini bugungi kun oliy ta'lim tizimida davom ettirishga xizmat qildi. Shogirdlar kamoloti, ilmiy maktab yaratish, milliy tarixni haqqoniy va chuqur o'rganish yo'lida olib borgan fidokorona mehnatlari u kishini jadidlar an'anasining munosib davomchisi va izdoshi sifatida namoyon etdi.

Sulaymon Inoyatovich Inoyatov Buxoro jadidlarining davomchisi sifatida ma'rifatparvar, ilmparvar, haqsevar va shogirdlar kamoloti yo'lida beminnat ya'ni otalarcha sidqidildan yo'l ko'rsatadigan, kerak bo'lsa butun kuchi bilan himoya qiladigan Ustoz edilar. 2024-yil 19-noyabr kuni Buyuk Ustoz, professor, tarixchi

olim, mohir pedagog Sulaymon Inoyatov 87 yoshida vafot etdilar. O'zbekiston tarixi fani katta yo'qotishga uchradi. Bu yo`qotish ayniqsa, hozirgi kunda Buxoro ilm fani taraqqiyotida sezilmoqda, chunki Ustoz Sulaymon Inoyatov meni nazarimda bu dunyodagi bag'rikeng, mard, oliyjanob va qadriyatlamizni mujassam etgan juda kam uchraydigan alloma edilar. Oliy ta'lim dargohlaridagi uzoq yillik mehnat faoliyati davomida o'zini yuqori malakali mutaxassis, tajribali va mas'uliyatli rahbar, tarix fani donishmandi va shogirdlarning ulug' sarboni sifatida namoyon etgan, ko'p yillik ilmiy, pedagogik va boshqaruv tajribasiga ega bo'lgan ustoz tarix fanlari doktori professor, ustoz Sulaymon Inoyatovich Inoyatov abadiy qalbimizda va xotiramizda qoladilar.

Ustoz men o'qishga kirgan 1992-yilda tarix fakulteti dekani sifatida faoliyat ko'rsatayotgan edilar. Ustozdagi olimlik madaniyatining insoniylik fazilatlari bilan hamohangligi, fakultetga salobat bilan kirib kelishlari, hammadan oldin salom berishlari, ma'ruzalari davomida notiqlikning yunoncha ritorikasi ustunligi va ayniqsa tarixni xoxlagan burchagidan bergan savollarimizga ensiklopedik olim sifatida darhol javob berishlari kabi yuksak fazilatlari bilan biz uchun barkamollik timsoliga aylandilar.

Ustozning O'zbekiston oliy ta'limi uchun yetuk darajadagi ilmiy xodimlarni tayyorlashda hamda o'quv jarayonlari va ilmiy muhit rivojiga munosib hissa qo`shdilar. Ustoz asos solgan Buxoro ilmiy kengashi va seminari armon bo'lib qolgan orzularini albatta amalga oshiradi, chunki bu borada u kishi bilan hamnafas bo`lgan olim shogirdlari qat'iy bel bog'laganmiz.

Ustoz Sulaymon Inoyatovich Inoyatov O'zbekiston Respublikasining birinchi rahbari va Buxoro jadidlarining yetakchisi bo'lgan Fayzulla Xo'jayevning avlodi hamda sulolaning davomchisi sifatida xalqimiz uchun jadidlar ko'targan ilmu ziyo mash'alini yuksaklikka ko'tarish uchun umrlarining asosiy qismini sarfladilar. Ustoz olimlar suhbatlarida aytganlaridek, olimlar payg'ambarimiz vorislaridir deb yosh olimlarni ilm ziyosidan bahramand bo`lish hamda uni tarqatishga undaganliklari hozirgidek ko`z oldimda gavdalanib turadilar. Menimcha Ustoz Allohning nafaqat O'zbekistonga balki butun Markaziy Osiyoga bergan ziyo nuri edilar.

Boy ilmiy va ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan Ustoz Sulaymon Inoyatovich Inoyatov xalqaro darajadagi olim sifatida Turkiya, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston va boshqa MDH davvlatlari oliy ilm dargohlari hamda Akademiyalari bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini ko'tarish, ilmiy tadqiqot ishlarining yuqori saviyada olib borilishi uchun ham boshqaruvchi, ham ma'ruzachi sifatida tengi yo'q darajada xizmat ko'rsatdilar.

Ustoz nafaqat ilmda balki, uyda ham mohir bog'bon sifatida mevali va ko'rkam daraxtlarning hamma turini o'z ichiga olgan mo'jaz bog' parvarishlab, qoldirdilar. Ustoz bilan har safar suhbat qilganimda yoki xonadonlariga tashrif buyurganimda Allohning nazari tushgan insonlar va barakali joylar bo'lishi haqidagi haqiqatlar bilan yuzlashganimdan shukronalar aytaman. Jadidlar avlodidan bo`lgan Ustozimizning xuddi jadidlar kabi hali rejalari, ilmiy loyihalari ko'p edi, lekin o'lim haq deydilar. Ustoz hayotdan bahra olib yashashni qadrlaydigan inson edilar. Marhum ustoz, tarix fanlari doktori, professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov nafaqat yuksak salohiyatli olim va mohir pedagog, balki jadidlar boshlab bergan

ma’rifatparvarlik harakatining munosib davomchisi sifatida milliy ilm-fanimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ siymo edilar. U zot o‘z faoliyati davomida ilmni e’tiqod darajasiga ko‘targan, tarixni haqqoniy o‘rganish va uni yosh avlod qalbiga singdirishni muqaddas vazifa deb bilgan fidoyi ustoz bo‘lib qoldilar.

Ustozning ilmiy maktabi, yetishtirgan shogirdlari, asos solgan ilmiy an’analari va ma’rifat yo‘lidagi sobit qadamlari kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. U kishining hayot yo‘li ilmga sadoqat, vatan va millat oldidagi mas’uliyat, insoniylik va bag‘rikenglikning yorqin namunasi sifatida yodimizda qoladi. Bugun Ustoz jismonan oramizda bo‘lmasalar-da, ularning ruhi, ilmiy merosi va ma’naviy saboqlari shogirdlari qalbida yashaydi. Jadidlar ko‘targan ilmu ziyo mash’alasi Ustoz boshlab bergan yo‘l orqali bundan buyon ham porlab turishiga ishonamiz.

Alloh taolo marhum Ustozning joylarini jannatdan aylasin, ilmiy meroslari esa xalqimiz ma’naviy hayotida abadiy yashasin.

MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI VA SAMARQAND ILMIY MAKTABINING TARIXDAGI O‘RNI

Suyunov Furqat Boyxo‘rozovich

Profi University “Gumanitar fanlar va ta’lim faoliyati”

kafedrasi v.b.dots. (PhD)

Ergasheva Laylo Azamatovna

Pedagogika-psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Markaziy Osiyo tarixida XV asr ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan alohida ajralib turadi. Bu davr Temuriylar davri Uyg‘onish bosqichi sifatida e’tirof etilib, unda astronomiya, matematika, me’morchilik, tarixshunoslik va adabiyot yuksak darajada rivojlandi. Ana shu davrning eng buyuk siymolaridan biri — Mirzo Ulug‘bek bo‘lib, u nafaqat davlat arbobi, balki o‘z zamonasining yirik astronomi va matematigi sifatida jahon ilm-fani tarixida chuqur iz qoldirgan. Mirzo Ulug’bekning to’liq ismi – Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug’bek Ko’ragoniy – buyuk astronom, matematik, qomusiy olim, davlat arbobi hisoblanadi. U buyuk Amir Temurning nabirasi hamda Shohrux Mirzoning o’g’li bo’lib, 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya (hozirgi Eron hududida) tug’ilgan. O’sha vaqtda Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392-1396) Iroqdagi Mordin qal’asini qamal qilinayotgan edi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganliklari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron bu xursandchiligidan Mordin qal’asini qamalini to’xtatib, uning xalqiga omonlik e’lon qiladi va “moli omon” to’lovdan ozod etadi.

Shohruhning birinchi o’g’liga tug’ilishida Muhammad tarag’ay ismi beriladi. Lekin hanuzgacha no’malum sababga ko’ra, unga hayotida Ulug’bek atamasi ism bo’lib qolib, asli ismini siqib chiqaradi[1]. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog‘lash mumkin. Amir Temur Ulug‘bekning tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixonning qayd etishicha, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida faol ishtirok etgan[7].

Ulug‘bekning bolalik va yoshlik yillari ilm-fan va siyosat bir-biriga chambarchas bog‘langan muhitda kechdi. Temuriylar saroyida ilm ahli, ulamolar va mutafakkirlar katta hurmatga ega bo‘lib, bu hol yosh shahzodaning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ulug’bekning dastlabki boshlang‘ich ta’limi, ma’lumoti va murabbiylari haqida aniq ma’lumot topilmagan. Ulug‘bek yoshlik chog’laridan buvisi Saroymulk xonim tarbiyasida bo‘lganligini bilamiz, chunki bobosi Amir Temur temuriy shahzodalarning ta’limi-tarbiyasini suyukli xotini Bibixonimga (Saroymulkxonimga) ishonib topshirgan edi. Ulug‘bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo‘lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish “Zij”ida faqat Qozizoda Rumiyni “ustozim” deb ataydi.

Fasix Xavofiy Temurdan keyin tirik qolgan uning farzandi va nabiralarini sanab, ular 36 kishi ekanligini eslatadi, ularni orasida Shohruhni juda yuqori ko’taradi. Chunki Temurning barcha o’g’il va nabiralarini faqat “amirzoda” desa, Shohruhni “Buyuk xoqon”, va “Bahodur” deb ham ataydi va Sherozda uning nomi bilan pul zarb etilganligini eslatadi. Uning 11 yashar birinchi o’g’lini esa “mahdumzoda Ulug’bek Ko’ragon” deb ulug’laydi. Sharafiddin Ali Yazdiy ham Shohruh va uning o’g’li Ulug’bekni boshqa amirzodalarga nisbatan biroz yuqori qo’yadi[1]. Bundan ko’rinadiki, Xuroson va Eronda Shohruh va Ulug’bekning nufuzi baland bo’lgan. Ammo biz bilamizki Sohibqiron taxt vorisi sifatida Pirmuhammadni tayinlagan. Bu yerda qanday sabablarga ko’ra taxt vorislik masalasi hal qilingan buni faqat Sohibqironga ayon bo’lgan. Bu qaror keyinchalik Amir Temurning vafotidan so’ng o’zini ma’lum darajada balkim o’zini oqlamagandir.

Haqiqatan ham Qozizoda 1360 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20–25 yoshlarida, ya’ni Ulug‘bek tug‘ilmasidanoq Temurning saroyiga xizmat qilish uchun o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi astronom va matematiklar ta’sirida ulg‘ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘g‘ruq — podshoh, xon va sultonlarning oila a’zolari va ularning tirikchilik anjomlari ortilgan karvon. Shahzodalar yoki amirlardan biri qo‘shini bilan unga qo‘riqchilik qilgan. O‘g‘ruq 1404 yil 21 may kuni Feruzkuh qal’asidan Buxoroi sharif orqali Samarqandga yo‘l oladi. Sohibqiron Termiz va Kesh orqali o‘z poytaxti tomon otlanadi. “Keshda faqat bir necha kun tunadi va ertalab piri Shamsiddin Kulol, ulug‘ otasi, onasi, o‘g‘li Jahongir va boshqa

qarindosh urug‘larining xokipoylarini ziyorat qilgandan keyin to‘xtovsiz yana yo‘lga tushdi”[4].

Bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan ba’zi kechalari Mavlono Badridddin bilan birgalikda osmon jismlarini kuzatishar edi. Ikki-uch yildirki mavlono Badriddin bilan Ulug’bek birga ilm-fan bilan shug’ullanishib ikkalasi do’stlashib olishgan edi. Badriddin Ulug’bek Mirzoga hisob va taqvimdan dars berar edi. Bir kuni mavlono shahzodani Samarqanddagi podhsoxning Ko’ksaroydagi xos kutubxonasiga boshlab bordi. Kutubxonadagi kitobdor mavlono Orif oyoq sharpasini eshitib kitobdan ko’zini oldi va shahzoda bilan uning muallimini tanib sapchib o’rnidan turdi va ikki qo’li bilan ta’zim qildi[4].

Samarqand dorul-ilm markazi hech shubhasiz o’rta asrlarning yuksak saviyadagi ilmiy markazlaridan biri edi. Bu markaz nafaqat Yaqin va O’rta Sharq ilm-faniga balki butun dunyo astronomiya, matematika, falakiyot ilmiga ta’sir ko’rsatgan ilm markazi edi. Sababi Ulug’bekning ilmiy faoliyati uning o’zi balki shogirdlari va maslakdoshlari orqali butun sharq dunyosiga tarqalib bo’lgan edi. Ammo G’arb mamlakatlari Ulug’bek ilmiy merosini XVII asrdan boshlab chuqur tahlil qilish va o’rganishni boshlashgan. Ulug‘bekni Samarqand hukmdori etib tayinlangandan so’ng ilm-fan rivojiga katta e’tibor berib, 1417 yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda, 1433-yilda G’ijduvonda katta madrasalar qurdiradi. Buxoro madrasasini qurilishida xabar olib turadi. Mirzo Ulug’bek hukumronligi davrida tashqi aloqlarda ham faol tashqi siyosat yurgizgan.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga “Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz” degan ibora shior sifatida o‘yib yozdirib qo‘yilgan.

Samarqandda 1420-yilda Ulug’bek tomonidan qurdirilgan madrasadan tashqari Feruzshoh, Shohmalik, Xonim, Xojabek Mirabduvali va Qutbiddin Sadr kabi madrasalar mavjud edi. Samarqanddagi madrasa ikki qavatli bo’lib, 50 hujrali va har bir hujra 3 xonaga ajratilgan: qaznoq (omborxona), yotoqxona, va darsxonadan iborat edi. Madrasada o’z zamonasining iqtidorli olimlari to’plangan edi. Bular orasida Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid Koshiy, Shamsuddin Muhammad Havofiy kabi o’z zamonasining yetuk olimlari talabalarga turli ilm-fanning turli yo’nalishlarida saboq berishgan. Samarqand madrasasining mudarisi Shamsuddin Muhammad Havofiy bo’lganligi aytiladi. Manbalarda madrasa ochilgan kun birinchi darsni Shamsuddin Muhammad Havofiy o’qiganlar. Va tolibi ilimlardan 90 nafari ishtirok etgan. Tarixchi olim Zayniddin Vosifiy “Badoye ul-vaqoye” asarida Ulug’bek Samarqandda bino qildirgan madrasaga mudarris ta’yinlash bilan bog’liq bir voqeani so’zlab beradi.

Zayniddin Vosifiyning bayonicha, 1420-yil kuz faslida Samarqanddagi madrasa qurilishi nihoyasiga yetayotgan mahalda. Bunda Mavlono Havofiy uning tezroq qurib bitkazilishiga yordamlashish maqsadida har kuni kelib bannolik qilgan va me’mor qo‘liga g‘isht uzatib turgan. Bir kuni Mavlono Havofiy po‘stinini teskari kiyib g‘isht to‘dalari orasida tin olib o‘tirganda madrasa hududiga Mirzo Ulug‘bek keladi. Olimlar, tolibi ilmlar, saroy ahli yangi madrasa hovlisiga jam bo‘lgan edi. Barchani bu madrasaning birin chi mudarri si kim bo‘lishi masalasi qiziqtirar edi. Shun da ilm ahlidan biri Ulug‘dekdan “Shohim, bu ulkan madrasa tugay deb qoldi,

unga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz?" deb so‘ray di. Mirzo Ulug‘bek to‘planganlarga murojaat qilib: "Hamma ilmlarda yetuklikka erishgan komil kishi madrasaning birinchi mudarrisi bo‘lsin", deydi. Shunda g‘ishtlar orasida o‘tir gan Havofiy chiqib: "Men imtihon topshiraman va bu mansabga men tayin etilaman", deya da'vo qiladi. Va keyinchalik imtixondan o'tib Samarqand madrasasiga muddarislik qilgan.

Ulug'bek tomonidan qurilgan yana bir ilmiy muassasa, markaz o'z davrining akademiyasi. Bu shubhasiz o'rta asrlarning salobatli inshooti 1424-1429-yillarda qurilgan Mirzo Ulug'bek tomonidan "Dorul-ilm" – Samarqand akademiyasiga asos solindi. Ulug'beknining bu ilmiy akademiyasi o'z davrida nafaqat sharq olamida balki G'arb olimlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan edi. Akedemiyani nafaqat tan olgan balkim uni butun dunyoga dovrug'ini yoyishda hissa qo'shgan buyuk fransuz olimi, faylasufi Volter (asl ismi: Mari Fransua Arue 1694-1778) ning hizmatlari ham beqiyos edi. Volterning asari "Millatlarning holatlari va odatlari haqida" 3-jildi Amir Temur va temuriylar hukmdorligiga bag'ishlangan bo'lib, Ulug'bek davriga kengroq to'xtalgan. Ulug'bek Samarqandda bo'lib, u yerda ilm-fan rivojiga hissa qo'shganligini alohida ta'kidlaydi. Akademyaga asos soldi, yulduzlarni, yer kurrasini o'rgandi tahlil qildi va butun insoniyat ilm-faniga salmoqli hissa qo'shganligini o'z fikrlarida izohlaydi. Mirzo Ulug'bek rahbarligida bir nechta asarlar yaratilgan bo'lib ularni sohalar asosida bo'lib chiqadigan bo'lsak.

Ulug'bekdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

1) "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" – astronomiyaga oid;

2) "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola" – matematikaga oid;

3) "Risolayi Ulug‘bek" – yulduzlarga bag‘ishlangan;

4) "Tarixi arba' ulus" (To‘rt ulus tarixi) – tarixga oid.

Shulardan eng asosiysi va Samarqandlik olimlar, do'stlari bilan birgalikda yaratgani «Ziji Ko‘ragoniy» asari bo'lib, juda mashhur hisoblanadi. Ko'pgina chet ellik olimlar bu asarga e'tibor qaratishgan. Misol uchun, V.V. Bartold bu risolaga o'zining fikrini bildirar ekan " bu o'rta asr astronomiyasining oxirgi so'zi va teleskop yaratilgunga qadar astronomiya erishishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'onadir" degan e'tirof albatta bejiz emas edi. Risola Samarqandda Ulug'bek tomonidan qurilgan , o'sha zamonning eng yuqori darajali astronomik asboblari bilan ta'minlangan mashhur observatoriyada olib borilgan kuzatishlar asosida yozilgan. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1483 yillarda yashagan) "Matlai sa'dayn va majmua ul-baxrayn" — "Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish o‘rni" kitobida temuriylar va shu jumladan Mirzo Ulug‘bekning Karmanada bo‘lganligi haqidagi voqealarni Hofizi Abro‘ning "Majmu'a at-tavorix" kitobidan olingan manbalar asosida bayon etgan[3]. Unda ko‘rsatilishicha, Mirzo Ulug‘bek 1419 yilning 18 noyabrida Karmana orqali Buxoroga borib, Xorazmdan Shohmalik yuborgan vakillarni qabul qiladi. Ular Ulug‘bekka sovg‘a tariqasida bir necha ov qilishga o‘rgatilgan qushlarni taqdim etadilar[6].

1419 yilning 28 noyabrida esa o‘zi qurdirgan Buxorodagi madrasaga tashrif buyurib, mullavachchalar va ularning domlalariga sovg‘alar in'om etadi hamda ular bilan qizg‘in suhbatlar quradi. "XIX asr oxirlarida bu madrasada 80 hujra bo‘lib, unda 200 dan ortiq talaba tahsil olgan. Ularning har biri yiliga 3,5 tilladan stipendiya

olishgan, bu mablag‘ tirikchilik va kitob xarajatlarini to‘lashni ta’minlagan. Bu haqida 1841-1842 yillarda Buxoroga kelgan rus tarixshunosi N.V.Xanikov o‘zining 1843 yilda Sankt- Peterburgda chop etgan “Buxoro xonligining tasviri” kitobida guvohlik beradi, deb yozadi tarixchi olim Farhod Qosimov[5]. Mirzo Ulug‘bek Buxorodan Samarqand sari otlanar ekan, unga Qashqardan kelgan amirlar ham hamroh bo‘ladilar. Hofizi Abro‘ning “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asarida ko‘rsatilishicha, 1419 yilning noyabridan 1420 yilning 8 yanvarigacha rosa 40 kun Ulug‘bek Xatirchi atrofidagi Kufiyn qal’asida to‘xtab ov qilgan. Bu joylarning havosi tozaligi, buloqlarga boyligi, sero‘t tog‘, yaylovlari, ayniqsa, hayvonot olami Mirzo Ulug‘bek va uning sheriklarini maftun etgan, hayvonot olamiga juda ham boy joylar hisoblangan[2]. Mirzo Ulug’bek fanning turli sohalari bilan ancha salmoqli tadqiqot ishlarini olib borganligini yuqoridagi tahlillardan ham bilishimiz mumkin.

Ulug‘bek ilmiy maktabining yana bir muhim jihati — trigonometrik jadvallarning takomillashtirilganidir. Sinus va tangens qiymatlari yuqori aniqlik bilan hisoblab chiqilgan. Bu natijalar keyinchalik Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng foydalanilgan. Ulug‘bekning ilmiy ishlari Yevropaga ham yetib borgan va lotin tiliga tarjima qilingan. Uning astronomik jadvali XVI–XVII asrlargacha eng mukammal manba sifatida xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bek nafaqat buyuk hukmdor, balki o‘z davrining yirik olimi va ma’rifatparvar pedagogi sifatida Sharq ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siymodir. Uning tashabbusi bilan Ulug‘bek rasadxonasi barpo etilib, unda olib borilgan aniq astronomik kuzatuvlar natijasida dunyo ilmiy merosida alohida o‘rin egallagan Ziji Ko‘ragoniy asari yaratildi. Bu asar o‘z davrida nafaqat Movarounnahr, balki Yevropa ilmiy muhitida ham katta qiziqish uyg‘otgan.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1.Ahmedov Ashraf. Ulug’bek Muhammad Tarag’ay. -T.:O’zbekiston; -2011. 4-b.

2.Ahmedov B. Amir Temur tarixiy romani. -T; 1995

3.Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmua ul-bahrayn. -T.,2008

4.Ahmedov Bo’riboy. Mirzo Ulug’bek. -T.:Yozuvchi. 1994. 23-b.

5. Qosimov F. Temuriylar davrida Buxoro.-B; 1996

6.Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati(tarixiy ocherk).-T; 1996

7.Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T:Sharq; 1997

OILA MUQADDAS –MASKAN

Murtazoyev Sh.B.

BuxDPI Ijtimoiy-fanlar kafedrasi dotsenti

Shadmanova Z.A.

BuxDPI 7-IGMA-24 II bosqich magistranti

“Oila – mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan,
farzand degan bebaho ne’mat bor,
insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor.
Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir”.

Sh.M. Mirziyoyev

Oila –tabiatning shoh asaridir degan edi faylasuflardan biri. Daraqiqat oila deganimizda bizning tasavvurimizga ota-ona, farzandlar, bobo-buvilar, ya’ni bir xonadonda birgalikda yashab umr guzaronlik qiluvchi insonlar keladi. Bizning dono xalqimiz oilaga muqaddas dargoh, nikohga esa buzilmas hamda rishta sifatida qaraydi.

Oila jamiyatni ustuni deyishadi. Shuning uchun ham har bir qurilayotgan yangi oila uni ikki yoshga, ya’ni yangi er-xotinlarga tashlab qo‘yishmaydi. Yosh oilaga ota-onalar, qarindoshlar, mahalla, hududlarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo‘mitalari, “Oila” ilmiy-amaliy jamoatchilik markazi, shuningdek, mutasaddi tashkilotlarning ham e’tibor markazida bo’lib kelmoqda. Ya’ni bugungi kunda bizning respublikamizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

Ushbu maqolada biz tarixiy-qiyosiy metoddan foydalandik. Bu ilmiy ishimizga A.Fitratning “Oila” asarini asos qilib oldik. Bundan tashqari, faylasuflarning oila va tarbiya haqidagi qimmatli fikrlari bilan o’rtoqlashdik.

Qadimdan sharqda ta’lim- tarbiya, oilaviy munosabatlarda juda kata e’tibor qaratilgan. Ibratomuz fikrlar ilgari surilgan. Sharq faylasuf-olimlarimiz merosida ta’lim va tarbiya, xususan, oilaviy tarbiyaga alohida e’tibor berilgan. Faylasuf allomalarimiz tarbiya masalasi jamiyat taqdirini hal etishda va millat kelajagini hal etadigan asosiy mezon va o’lchov deb qaraganlar. Allomalarimizning pedagogik qarashlari asosida a’lo odam sifatida komil insonni tarbiyalash g’oyasi yotadi. Ular tarbiya masalasida ham batafsil to’xtalib, ijtimoiy va biologik jihatlari o‘zaro munosabati masalasiga, tarbiyada irsiyat va muhit ta’siri birdek ekanligiga, tana va ruhning sog‘lomligiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik tarbiyaning o’zaro uyg’unligi birligi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari va oilada bolalarning to’g’ri tarbiya olishi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko’plab jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiya manbasi va qarashlar tizimini tashkil etadi. Ana shunday shoh asarlardan biri asarlardan biri A.Fitratning “Oila” asaridir. Asar Fitrat tomonidan 1914-yilda yozilib, 1915-yilda Mirzo Abduvohid Munzim tomonidan nashrga tayyorlangan va 1916-

yil Bokuda nashr etilgan.[228] Adib ushbu asari orqali Turkiston aholisi uchun o‘ziga xos qo‘llanma yaratishni maqsad qilgan.[229]

Jadid matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning “Oyna”sida oila masalalari har doim ham ular diqqat markazida bo’lib kelgan. Afsuslar bo’lsinki jadid namoyandalarimizning maqolalari hozirgi kunda mavjud imloimiz bilan qayta nashr etilmagan. Bunday asar va maqollarni o’rganish uchun muayyan vaqt kerak bo’ladi. Lekin Jadidchilar faoliyatiga nazar tashlaydigan bo’lsak,Fitratning 1914-yili yozilib, 1915 yili nashr etilgan ***“Oila”*** jadidchilik namoyandalarining oilaga oid huquqiy qarashlari o’z aksini topgan. Shubhasiz, Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminida Qur’onda shu masala bo’yicha olg‘a surilgan fikr va g‘oyalar yotadi. Shuning uchun ham bu kitob o’z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan va uzoq vaqt qo’llanma bo’lib xizmat qilgan. Ushbu asar oila tuzilishi, paydo bo’lishi, jamiyatdagi roli, va ahamiyati, ichki tartib-tuzilishi va boshqarish usullari haqida bayon etadi. Fitratni bu asari oilaviy muhitni boshqarish va undan kerakli foydani olishning eng yaxshi usulini o’rganishga qaratilgan.

Fitrat aqliy tarbiyaga alohida to’xtaladi. Aqliy tarbiya ya’ni odam aqlini tarbiyalash bu odam zehni aql-idrokini kamolga yetkazishdir. Odam aqlining kamoli nimada? Yaxshi bilmoq, yaxshi o’rganmoq va mukammal fikr qilmoqdir. Odam ish qilishdan oldin uni o’ylaydi, xayoliga keltiradi, o’ylaydi, fikr etib keyin amal qiladi.[230]

Konstitutsiyaning 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb tasdiqlangan. Respublikamiz Prezidenti oilaning jamiyatdagi o‘rniga baho berib, shunday deydilar: “Oila jamiyatning negizi, bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.[231]

Shaxsning ma’naviy qiyofasi, intellektual salohiyati, ijodiy qobiliyati, hayotiy tasavvurlari, ijtimoiy ko‘nikmalarini tarkib toptirish oilaviy tarbiyaning muhim masalalaridir.“Ota bolalarni bino qilish, ularni yedirib-ichirish bilan o‘z zimmasidagi vazifaning uchdan birinigina bajargan bo‘ladi. U bolalarini odamzod qatoriga qo‘shmog‘i, jamiyatga – faol kishilarni, davlatga – grajdaninni yetishtirib bermog‘i kerak”, – deya ta’kidlagan edi fransuz ma’rifatparvari Jan Jak Russo. Oiladagi ma’naviy muhit, shaxslararo munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. Ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida: “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi bilan

[228] „Oila asari“. 2022-yil 17-mayda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 18-may.
[229] „Abdurauf Fitrat. Oila“. 2023-yil 19-mayda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 19-may.
[230] Abdurauf Fitrat. ‘Oila yoki oila boshqarish tartiblari” Toshkent –”Ma’naviyat” 2000 yil
[231] OILA INSTITUTI RIVOJLANISHIDA QADRIYATLARNING O‘RNI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yil 17-may. “Mahalla va oila nashriyoti” Toshkent – 2022

yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”, – deydi dono xalqimiz.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish kerakki, Darhaqiqat, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi oilaviy qadriyatlarning himoya qilinishini ham kun tartibiga qo’ymoqda. Jamiyatda zamonaviy tendentsiyalar: iqtisodiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va global Internet tarmog’ining keng quloch yoyishi bilan oilaviy munosabatlar madaniyatining pasayishi va an’anaviy qadriyatlarga nisbatan oila a’zolarida yangicha munosabatning shakllanishiga ta’sir qilmoqda.

Fitratning fikrlariga ko’ra, oila muhitini yaxshi tashkil etish va uni rivojlantirish, bolalar va yoshlar uchun asosiy ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, o’ylash usullari va tarbiya usullari o’rgatish orqali jamiyatga kata hissa qo’sha oladi. O’tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida olingan tahliliy ma’lumotlar qadriyatlar tizimi borasida ham insonlar uchun oila eng muhim qadriyat sifatida qayd etilishi bugungi kun tartibidagi muhim masala bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 63-моддаси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022-y., 07/22/146/0172-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87- son Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022-y., 06/22/87/0198-son).
4. Алишер Навоий. 13 том. – Тошкент, 1966, 201 саҳифа.
5. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.
6. Musurmanova O. Ayollari ardoqlangan yurt. Uslubiy risola. – Toshkent: Zarvaraq nashriyoti. 2021. – 44 b.
7. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]:7–18 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. / Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. – 256 b. (2020-yil,yanvar)
8. Musurmanova A. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child // The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. – № 1 (47). pp.70-72.
9. Musurmanova A. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Developing Spiritual Culture of Alolescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018. pp. 62-67.

10. Musurmanova A. Marosimlar – ma’naviyatimiz kozgusi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2012.
11. Abdurauf Fitrat. ‘Oila yoki oila boshqarish tartiblari” Toshkent – ”Ma’naviyat” 2000 yil.

GLOBAL DUNYODA MILLIY O‘ZLIKNI ASRASH: JADIDLAR MEROSI VA MIRZA KENJABEK IJODINING FALSAFIY – FILOLOGIK TAHLILI

Botirjonova Nozima Nodirjon qizi

BuxDPI 1-kurs magistranti

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati mustamlakachilik sharoitida nafaqat ta’limiy islohot, balki milliy ongni uyg‘otishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar faoliyati jamiyatning ma’naviy yangilanishiga qaratilgan chuqur falsafiy konsepsiyani o‘zida mujassam etgan edi. Ular milliy qadriyatlarni saqlagan holda, umuminsoniy taraqqiyot tamoyillarini (qabul qilish orqali yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyasini ilgari surdilar.

Bugungi globallashuv davrida ushbu “ma’naviy makon” konsepsiyasi Mirza Kenjabek ijodida o‘zining yangi, transsendental va badiiy talqinini topmoqda. Agar jadidlar millatni “maktab va matbuot” orqali uyg‘otishni maqsad qilgan bo‘lsalar, Mirza Kenjabek bu jarayonni klassik meros va tasavvufiy ma’rifat orqali “ko‘ngil islohoti” darajasiga ko‘taradi.

Tadqiqot metodlari Tadqiqotda tarixiylik, tizimli yondashuv va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Jadid mutafakkirlarining (Behbudiy, Avloniy, Fitrat, G‘aspirali) asarlari hamda Mirza Kenjabekning “Munojot” to‘plami va “Masnaviyi ma’naviy” tarjimasi germenevtik va ijtimoiy-falsafiy tahlil usullari orqali o‘rganildi.

Muhokama va Natijalar

Jadidlar merosida milliy o‘zlik va ijtimoiy mas’uliyat

Jadidlar milliy o‘zlikni til va ilm birligida ko‘rganlar. Ismoil G‘aspirali “Millatni saqlab qoladigan eng muhim qurol — uning tili va ilmidir” deb ta’kidlagan bo‘lsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida jaholatni milliy tanazzul asosi sifatida ko‘rsatadi. Bu davrda milliy qadriyatlar faqat an’ana emas, balki ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi sifatida shakllandi.

Mirza Kenjabek ijodida “Ruhiy ma’rifat” va vorislik

Mirza Kenjabek jadidlarning “Ma’rifatli jamiyat” g‘oyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ijodidagi natijalar quyidagicha tizimlashtirildi:

Tilga munosabat: G‘aspiralining til haqidagi g‘oyalari Mirza Kenjabek she’riyatida tilni “millatning ilohiy omonati” sifatida asrash darajasiga ko‘tarildi.

Klassik sintez: Jadidlar Yevropa tajribasini tanlab o‘zlashtirishni yoqlagan bo‘lsalar, Kenjabek jahon madaniyatini mumtoz Sharq falsafasi orqali filtrlash metodini qo‘llaydi.

Axloqiy tarbiya: Abdulla Avloniyning “Tarbiya yo hayot, yo mamot masalasidir” degan xitobi Kenjabekning “Munojot” asarida insonning o‘z nafsini isloh qilishi orqali jamiyatni qutqarish haqidagi poetik xulosalariga tayanadi.

Ma’rifatli jamiyat modeli

Tadqiqot natijasida ma’rifatli jamiyatning jadidona modeli va Kenjabekning ma’naviy konsepsiyasi o‘rtasidagi uyg‘unlik jadvali shakllantirildi:

Tamoyillar Jadidlar talqini Mirza Kenjabek talqini Ma’rifat: Dunyoviy ilm va fan; Dunyoviy ilm va fan Qadriyat: Milliy va umuminsoniy uyg‘unlik; Milliy ruhning ilohiy ildizlari Makon: Yangi ma’naviy va ijtimoiy makon “Ko‘ngil” - ma’naviy makon markazi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar harakati Sharq uyg‘onishining muhim ijtimoiy-falsafiy bosqichi bo‘lib , ular yaratgan model globallashuv sharoitida milliy immunitet vazifasini o‘taydi. Mirza Kenjabek ijodi - bu jadidchilikning zamonaviy renessansidir.

Jadidlar “ma’rifatli jamiyat”ni zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy faollik orqali qurishni rejalashtirgan edilar . Mirza Kenjabek esa ushbu “ijtimoiy faollik” ni shaxsiy e’tiqod va klassik adabiyotni zamonaviy tilga ko‘chirish (interpretatsiya) orqali amalga oshirmoqda. Fitratning “Ilm-fan yo‘q joyda taraqqiyot bo‘lmaydi” degan aqidasi Kenjabek ijodida “Iymon va ishq yo‘q joyda haqiqiy ilm bo‘lmaydi” degan falsafiy xulosa bilan boyitiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma’naviy merosi milliy va umuminsoniy qadriyatlar sinteziga asoslangan chuqur falsafiy ta’limotdir.

Jadidlar ilgari surgan ma’rifatli jamiyat g‘oyasi bugungi ma’naviyat siyosati uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mirza Kenjabek ijodi jadidlar boshlab bergan ma’naviy makonni zamonaviy o‘quvchi qalbiga ko‘chirishda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Milliy o‘zlikni asrash — bu jadidona shiddat va kenjabekona ruhiy teranlikning uyg‘unligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1999.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4. Mirza Kenjabek. Sharq javohirlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2004.
6. Xoliyorov O. Jadidlar va ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

JADIDLAR MA'NAVIY MEROSIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR HAMDA MA'RIFATLI JAMIYAT, YANGI MA'NAVIY MAKON YARATISHGA OID IJTIMOIY-FALSAFIY G'OYALARNING AKS ETISHI

Shodmonova Maqsuda Nurilloyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz,ayniqsa, yoshlarimiz, bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

Sh.M. Mirziyoyev

Darhaqiqat, jadidchilik harakati rasman XIX asrning 80-yillaridan boshlab butun Turkiy xalqlar ijtimoiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lib bordi. Markaziy osiyoda jadidchilik ijtimoiy sohada o'tkazgan islohotlari orqali jamiyat hayotida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Xo'sh, jamiyatda jadidchilikka va islohotlarga ehtiyoj bor edimi?

Albatta. Asrlar davomida O'zbek xonliklarining feudal tarqoqlikka yuz tutishi, hudud talashib o'zaro urushlar, diniy mutaassiblik oqibatida Markaziy Osiyo mintaqasi nafaqat dunyoviy ilm fandan, balki, ijtimoiy-siyosiy qoloqlikka yuz tutishiga sabab bo'ldi.

XX asrning birinchi choragidan boshlab jadidlar o'z islohotlarini ta'lim tizimini isloh qilmasdan, xalqni ma'rifatli qilmasdan turib islohotlardan natija kutish mumkin emas edi. O'rta osiyoda Jadidchilik harakatining keng yoyilishida Mahmudxo'ja Behbudiyning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir.[1]

1.Alimova D, Rashidova D "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri" Toshkent: Akademiya 1999.

Uning tashabbusi bilan 1903-yilda Samarqand shahri atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin(A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi.

Adib ushbu maktablar uchun shaxsan o'zi darsliklar yozdi. "Risolayi asbobi savod"(1904), Risolayi jug'rofiyayi umroniy(1905), "Kitobatul atfol"(1908), "Tarixi Islom"(1908) kabi darsliklar paydo bo'ldi va jadid usulidagi maktablar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi.[2]

Jadidchilik harakati a'zolarining xalqni ma'rifatli va ma'naviyatli qilish uchun ta'limdan keyin "Teatr san'ati"ni isloh qilishlari ayniqsa tahsinga sazovor.

Misol uchun Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi birinchi o'zbek dramasi bo'lib, "Drama janri"ning poydevori bo'lib xizmat qildi.

Padarkush dramasida yoshligidan kasb-kor, hunar o'rganmasdan erka, tantiq bo'lib o'sgan o'g'il kun kelib otaning bor boyligini qimorga boy berib, ichkilikka berilib ketishi va o'z uyiga bezori do'stlari bilan birga o'g'rilikka kirishi va natijada o'z otasini o'ldirishi tasvirlab beriladi.

Padarkush dramasi orqali jamiyat hayotida farzand tarbiyasi nechog'lik muhim ekanligi, vaqtida berilmagan tarbiya insonni naqadar tuban qiyofaga kirib qolishiga sababchi bo'lishi, jamiyat hayotini jaholat sari olib borishi haqida chuqur o'ylashga majbur qiladi.

Jadidlar jamiyat hayotini isloh qilishda til bilish masalasiga alohida e'tibor qaratdilar.

Atoqli jadid rahnamosi Is'hoqxon To'ra Ibrat asli kasbi qozilik bo'lsada xalqni ma'rifatli, dunyo ilmlarini dunyo ilmlarini puxta egallagan yetuk avlod bo'lib voyaga yetishi uchun bor kuch va g'ayratini bagishladi. Buning uchun esa xorijiy tillarni puxta o'rganish lozim ekanligini yaxshi tushundi.

Shu sababli Namangan uyezdining To'raqo'rg'on qishlog'ida u o'zining "Maktabi Is'hoqiya" deb atalgan maktabini ochdi va bu maktabda "Usuli Savtiya" asosida ta'lim berildi.[3] Bu maktab chet tillariga ixtisoslashgan maktab bo'lib, bu maktabda arab, rus, ingliz, xitoy, ibroniy tillari o'rgatilgan.

Ammo bu davrda xalqda diniy mutaassiblik shu darajada kuchli bo'lganki, hatto Is'hoqxon To'ra Ibratning otasidan qolgan besh tanob yerni aholi madaniy hordiq chiqarishi uchun xiyobon qilishi va Yevropacha uslubda hammom ochganiga "Kofirlarning bog'i va hammomi" deb baho beradilar. Shundan so'ng Is'hoqxon To'ra Ibrat ta'qib ostiga olina boshlaydi.

Bundan tashqari jadidlar hattoki bugungi kunda ham muammo bo'lib kelayotgan, kiyimga qarab baho berish, to'ylardagi isrofgarchiliklarning ayanchli oqibatlari haqida o'z asarlarida yoritib o'tganlar.

Misol uchun Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" qissasida atrofadagilarning gapiga kirib, qarz-qavola qilib, serhasham to'y qilgan kuyovning to'ydan keyin qarzni qaytara olmagach, ikki yoshning o'z joniga qasd qilib bevaqt hayotdan ko'z yumishi qanchalar ayanchli ekanligi tasvirlab beriladi.[4]

Jadidlar ilm masalasida erkak va ayolning birdek haq-huquqqa ega ekanligini ta'kidlab o'tadilar. Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madrasasining peshtoqiga yozilgan "Ilm olmoq har bir musulmon erkagi va ayoli uchun farz" (hadisdan) ekanligini keng mushohada etgan holda jamiyatda ayollarning haq-huquqlari erkaklarnikidan kam emasligini, ularni jamiyat hayotida o'z-o'rniga ega ekanligini, keng xalq ommasiga targ'ib qildilar.

Bu borada atoqli adib Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida "Paranji" dramasi ayniqsa diqqatga sazovor. Adib bu asari orqali xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish g'oyasini ilgari surdi. Shaxsan o'zi ayollarning paranjidan voz kechishlari uchun targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bordi. Ming afsuski Hamza hakimzoda Niyoziy taqdiri fojiali yakun topdi. U diniy mutaassib kishilar tomonidan toshbo'ron qilib o'ldirildi.

Bundan tashqari jadidlar milliy o'zlikni anglash masalasiga ham alohida e'tibor berdilar. Ular tarix fanini urushlar va hukmdorlar tarixini yorituvchi fan emas, balki, millat-tarixning ijodkori ekanligiga xalqni ishontirdilar. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "O'zining va yetti otasining tarixini bilmayturgonlarni qul marquq derlar". Bundan bilish mumkinki jadidlar o'z vaqtida tarixni bilmay turib kelajak haqida mushohada qilish o'rinsiz ekanligini xalqqa anglatdilar.

Xo’sh, jadidchilik o’zidan juda ko’plab sohalarni isloh qilgan bo’lsada, nega mag’lubiyatga uchradi?

Buning sababi, bir tomondan mutaassib diniy qarashlarga ega bo’lgan xalq bo’lsa, ikkinchi tomondan o’lkada boshqaruvni qo’ldan boy berishni istamagan Sovet hukumatidir.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish mumkinki, jadidchilik, o’zbek xalqining asrlar davomida shakllanib qolgan mutaassiblik botqog’idan va mustamlakachilik zulmidan qutqarish uchun xalqni ma’rifatli va ma’naviyatli qilish orqali kurash olib borilgan yo’ldir. Diqqatga sazovorlisi shundaki, jadidlar ko’tarib chiqqan ayrim muammolar bugungi kun uchun ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan dolzarb muammolar bo’lib kelmoqda.

Zero Is’hoqxon To’ra Ibrat aytganidek:

“O’qingiz ilm-u hikmat,
Sizga bu ish katta ibratdur.
Agar ilm o’rganursiz,
Barcha ishda sizga nusratdur”.

Ilmga e’tibor qilmaydigan, yoki ilm olishni istamaydigan millat kelajagining poydevori mustahkam bo’lmaydi. Buyuk alloma Mahmud Zamaxshariy aytganidek: “Yoki ilmni o’rganadigan bo’l, yoki ilmni tinglab tushunadigan bo’l, ammo, zinhor ilmdan tashqarida bo’lma”.

Kelajak avlod esa jadidchilik harakati namoyondalarining kelajak avlod uchun qilgan sa’y-harakatlaridan tegishli xulosa chiqara olishi lozim.

JADIDLARNING DUNYOVIY FANLAR TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Nurxonov Ibratjon

Buxoro davlat pedagokika institute,

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

2-bosqich talabasi

Jadidchilik (jadid — yangi) — XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilarining hayot chorrahalarida paydo bo‘lgan o‘ziga xos ma’rifatparvarlik mash’ali, ijtimoiy-siyosiy uyg‘onish harakati. Uning ildizlari dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrim zaminida kurtak yozdi. Asrning 90-yillariga kelib esa, Turkiston osmonida yangi bir yulduzdek porlay boshladi. Jadidchilik avval boshda madaniyat bog‘ida unib chiqqan nihol edi. Uning vakillari taraqqiyot yo‘lida kurash bayrog‘ini ko‘tarib, turkiy tillarning jilosini ochish, adabiyot xazinasini duru gavharlar bilan boyitish, dunyoviy ilmlarning nuridan bahramand bo‘lish, fan olamining so‘nggi yutuqlarini hayotga tatbiq etish hamda erkak va ayol huquqlarining tengligi uchun kurashga

otlandilar. Keyinchalik, jadidlar o‘z g‘oyalarida panturkizmning shuurini ham mujassamlashtirdilar.

Sovet davri adabiyotida jadidchilikka “burjua-liberal, millatchilik harakati” deya tamg‘a bosildi. Bu davrda qoralangan jadid namoyandalari nomi, ittifoq tarqalib ketgach, qayta tiklandi. Jadidlarning bebaho xizmatlaridan biri – “Usuli jadid” maktablarining bunyod etilishidir. Bu dargohlarda yosh avlod nafaqat diniy saboqlarni oldi, balki arifmetika, geografiya, tarix, tibbiyot kabi dunyoviy ilmlardan ham bahramand bo‘ldi. Jadid bobolarimiz adabiyot va teatrni yoshlarni ma’rifatga undovchi, ilmli bo‘lishga chorlovchi qudratli vosita sifatida e’zozladilar.

Behbudiy yozgan “Padarkush” , Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni” , Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarlari xalqni fikrlashga, jamiyatdagi mavjud yo‘llarni ko‘ra olishga, hamda bu muammolarga mos yechim yo‘llarini topishga undadi. Bu kabi asarlar, adabiyotlar va sahna orqali millat ongiga erkinlik, yangilanish va ma’naviy yuksalish g’oyalari singdirildi. Zero, “Adabiyot yashasa, millat yashaydi”. [1]

Bu asarlar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning qahramonlari, voqealari orqali biz o‘z tariximizga, o‘zligimizga nazar tashlaymiz, o‘tmishdagi xato va yutuqlardan saboq olamiz. Bu adabiyotlar bizni o‘ylashga, mushohada qilishga, jamiyatdagi adolatsizliklarga befarq bo‘lmaslikka undaydi.

Jadid ma’rifatparvarlarimiz maorif, adabiyot va san’at osmonida isloh yulduzlarini yoqdilar. Ularning ilgari surgan g‘oyalari xalqimizning kelajagini yorug‘likka to‘ldirishga qaratilgan edi. Jadidchilik islom olamidagi taraqqiyot shabadasi bo‘lib, ilm-fanga bo‘lgan cheksiz rag‘bat va dunyoviylikning zamonaviy qiyofasi sifatida namoyon bo‘ldi. Sharqning fayzli zaminida unib chiqqan bu harakat, G‘arbning demokratik, milliy-ozodlik va islohotchilik harakatlaridan ham kuch oldi. Jadidlarning tinimsiz sa’y-harakatlari tufayli qisqa fursat ichida yangi jadid xalq maorifi o‘zining betakror diniy-dunyoviy ta’lim-tarbiya usullari bilan shakllandi. Jadidlar xalqimizni savodxonlik chirog‘i bilan yoritish va shu orqali mamlakat mustaqilligini ta’minlashdek ulug‘ maqsad sari intildilar. Ularning har bir harakatida aniq maqsad mujassam edi. Millatga nafaqat diniy ilmlarni, balki dunyoviy bilimlarni ham o‘rgatib, xalqni ma’rifatli qilish asosiy maqsad edi.

Millat – bu til va din birligida ildiz otgan muqaddas tushunchadir. Bu ikki ustundan ayrilgan millat o‘zligini yo‘qotib, jaholat zulmatiga g‘arq bo‘ladi. Barcha xalqlar o‘tmishi, buguni va ertangi kuni til va din bilan chambarchas bog‘liq. Taraqqiyot sari yo‘l ham shu ikki nurafshon omilga tayanadi. Turkiston zaminida birinchi bo‘lib Behbudiy Gaspirinskiyning “Til birligi” g‘oyasini “bayroq” qilib ko‘tardi. Munavvar qalb egasi Behbudiy Turkiston turkiysi bilan bir qatorda forsiy tilining durdonalaridan ham bahramand edi. Uning Samarqandda 1913-1915 yillarda nashr etilgan “Oyina” jurnali ma’rifat ziyosini taratdi. Bu jurnal sahifalarida maktablar turkiy va forsiy tillarda bo‘lishi lozimligi haqida qat’iy dalillar keltirildi. Unga ko‘ra, Turkiston aksariyat aholi turkiy va forsiy tilda bemalol so‘zlashgan va ba’zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatilgan. Rasmiy idoralarda arizalar Turkiy tilida yozilgan hamda she’r va fatvolar forsiy yozilib Turkiy tilga qayd etilgan.

Behbudiy o‘zi keltirgan dalillarga tayangan Turkiston maktablarida ta’lim bu ikki tilda bo‘lishi maqsadga muvofiq deydi. Behbudiy bu yerda Turkiy til deganda Gaspirinskiy taklif qilgan “UmumTurkiy adabiy” tilni nazarda tutadi. Bu esa ta’lim sifatini va ta’sirini oshirishga yordam beradi. U o‘zining maqolalarida maktablardagi ta’limdagi darsliklarga e’tiborini qaratadi. Yangicha fikr beradigan zamonaviy darsliklarni joriy qilishni ilgari suradi. Millat o‘zligini anglagan holda, zamon bilan hamnafas ta’limda yangi innovatsiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning: “... o‘z xalqini taraqqiyot sari boshlagan jadid bobolarimiz, milliy ozodlik yo‘lida jon fido etgan ulug‘ ajdodlarimizdir. Ular g‘oyat og‘ir sharoitda ham milliy istiqlol va hurriyat g‘oyalariga sodiq qolgan qahramonlarimizdir. Bugun ularning ezgu g‘oya va tamoyillariga tayanib, yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini yaratmoqdamiz” [2], – degan fikrlari ayniqsa, ulkan intellektual salohiyat egalari bo‘lmish jadid ma’rifatparvarlarning yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashdagi o‘rnining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Jadidchilik harakatining zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga qo‘shgan hissasini quyidagi jihatlar orqali baholash mumkin. Jadidchilik harakati va ma’rifatparvarlarning zamonaviy ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Ularning ilg‘or fikrlari bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, zamon bilan hamnafas bo‘lib yangi qirralarini namoyon etmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlab qolish kabi muhim jihatlar jadidchilik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim tizimining taraqqiyoti, yosh avlodni ilm-fan va ma’rifatga yo‘naltirish – bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekan, jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bu borada muhim metodologik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Munavvarqori Abdurashidxonovning quyidagi so‘zlari bu fikrimizning yorqin dalilidir: “Bugungacha Ovrupo xalqi osmonga uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupalilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo‘g‘rofiya va tibobatchilik o‘qitish-o‘qitmaslik ixtiloflari… davom etadi”. [3] Bu so‘zlar naqadar achchiq haqiqatni o‘zida mujassam etgan!

Ushbu so‘zlar nafaqat bir davrning, balki ma’naviy turg‘unlikka mahkum bo‘lgan jamiyatning azobli tasviridir. Ovrupo tekisliklarida paroxodlar daryolarni kesib o‘tayotgan, telegraf simlari qit’alarni bog‘layotgan bir paytda, bizning diqqatimiz hali ham an’anaviy qiyofaning tashqi qobig‘iga qadamlangan edi. Bu nafaqat texnologik orqada qolish, balki dunyoni anglash va unga munosabatda bo‘lish usulimizdagi chuqur tafovut edi. Biz o‘z ichimizga qaragan holda, cheksiz imkoniyatlar dunyosiga orqamizni o‘girgan edik.

Bunday holat faqatgina moddiy rivojlanishni emas, balki fikrlash tarzimizni ham cheklab qo‘ygan edi. Ilm-fan va texnika insoniyatning tabiat ustidan qozonayotgan g‘alabalari haqida yangiliklar olib kelar ekan, bizning jamiyatimizda hukmron bo‘lgan munozaralar insonning o‘zi ustidan qozonilishi kerak bo‘lgan g‘alabalardan bebaxra edi. Bu, go‘yo, hayotning asosiy maqsadi nafas olishni davom ettirishgina bo‘lib qolgan bir ruhiy mahbuslik edi.

Shu bilan birga, Abdurashidxonovning fikri shunchaki ayblash emas, balki xabar qilishdir. U soch nizolari va kiyim janjallarini kamsitish uchun emas, balki ularning qay darajada ahamiyatsiz va vaqt o‘giruvchi ekanligini ko‘rsatish uchun ta’kidlaydi. Chunki jamiyatning energiyasi va intellekti cheklangan bo‘lib, uni mayda-chuyda nizolar isrof qilganda, jamiyat rivojlanish dastagidan mahrum bo‘lib qoladi. Bu holda, tashqi dunyadagi ulkan o‘zgarishlar faqatgina tomosha sifatida qoladi.

Bugun esa, bu so‘zlar tarixiy eslatmadan ko‘ra, ogohlantirish vazifasini bajaradi. Zamonaviy dunyoda raqobat qilish qobiliyati bilim, innovatsiya va ochiq fikrlashga asoslanadi. O‘tmishdagi xatolar bizga bir tomchilik g‘urur ham bermaydi, aksincha, ular kelajakni qurishda qanday yo‘ldan yurmaslik kerakligi haqida saboq beradi. Har qanday jamiyatning asosiy boyligi uning insonlari, ularning ongi va mehnatidir.

Demak, o‘tmishning shu qora dog‘i bizni nafaqat kechmishdan, balki hozirgi vaqtning mayda-chuyda nizolaridan ham dars olishga undashi kerak. Dunyo endi dengiz ostida emas, balki raqamli okeanlarda suzmoqda, osmon esa sun’iy yo‘ldoshlar va kosmik kemalar bilan to‘ldi. Bizning vazifamiz – soch nizolarini emas, balki ilmiy va ma’naviy cho‘qqilarni zabt etish uchun kurashni davom ettirishdir.

Jadidchilik harakati o‘zbek va butun Turkiston jamiyatining ma’naviy osmonida yorqin bir yulduzdek porladi, ulkan ilmiy va ma’rifiy yuksalishga yo‘l ochdi. Ular diniy ta’limni zamon nafasi bilan uyg‘unlashtirib, uni yangi ruh bilan boyitishga intildilar. Jadid maktablari va madrasalarida Qur’on, hadis kabi muqaddas ilmlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot, til va adabiyot kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi. Bu yosh avlodning tafakkur olamini kengaytirib, ularning ilm-fanga, taraqqiyotga bo‘lgan ishtiyoqini alangalatdi. Jadidlar ta’lim vositasida jamiyatni jaholat zulmatidan olib chiqish, milliy ongni uyg‘otish va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni o‘zlarining oliy maqsadi deb bildilar. Ularning fidokorona sa’y-harakatlari tufayli yangi usul maktablari paydo bo‘ldi, o‘quv darsliklari yozildi, gazeta va jurnallar nashr etildi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining diniy, ilmiy va ijtimoiy turmushida haqiqiy inqilob yasadi. Jadidlar hech qachon diniy fanlarni inkor etmadilar, aksincha, ularni yanada chuqurroq anglash va hayotga to‘g‘ri tatbiq etish lozimligini ta’kidladilar. Ular dinni faqatgina ibodat doirasi bilan cheklanmaydigan, balki insonni ilmga, taraqqiyotga va ma’rifatga yetaklovchi qudratli kuch sifatida talqin etdilar. Shu bois diniy ta’limni zamonaviy usullar bilan boyitish, ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlash va tushunib o‘rganishga alohida e’tibor qaratdilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Jadidchilik — XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida Turkiston zaminida paydo bo‘lgan, jamiyatni jaholat zulmatidan xalos etish va milliy yuksalishga qanot bag‘ishlashni o‘z oldiga maqsad qilgan buyuk ma’rifiy-siyosiy harakatdir.Jadidlar diniy bilimlarni rad etmagan holda, ularni zamonaviy fanlar — matematika, fizika, tarix va geografiya kabi sohalar bilan uyg‘unlashtirdilar. Ular "Usuli jadid" maktablari orqali yosh avlodning tafakkur olamini kengaytirishga erishdilar.Millatning ongini uyg‘otish maqsadida

darsliklar yozib, gazeta va jurnallar chop etib, teatr san’atini rivojlantirib, xalq orasida ma’rifat ziyosini taratdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori kabi millat fidoyilari boshchiligida bu harakat millatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy mustaqilligi g‘oyalariga mustahkam zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. (Toshkent,1913)
2. Prezident Mirziyoyev Mustaqillikning 33 yilligi munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi (xabar.uz) https://xabar.uz/mahalliy/.
3. «Turkiston» gazetasi, 1923 yil, 4 mart.
4. Zamonaviy ta’lim va taraqqiyotda jadidchilik g’oyalarining ahamiyati. (Alfraganus universiteti ijtimoiy fanar kafedrasi dotsenti, Ahmad Jo‘rayev)
5. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. (Toshkent,1913)
5. Jadids and their role in educating youn people in a spiritual and educational spirit. (Babajanova Dilorom)

AVLONIY MA’NAVIY MEROSIDA MA’RIFATLI JAMIYAT YARATISHGA OID IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALARI

Muxamedov Shavkat Majidovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Magistratura bo'limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD)

Tarixiy tajribani chuqur anglamasdan turib, kelajak taraqqiyot yo‘lini belgilash mushkuldir. Chunki o‘z o‘tmishini puxta bilgan xalqgina tarixiy jarayonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik imkoniyatiga ega bo‘ladi hamda mustaqillik va taraqqiyot yo‘lida boshqa xalqlar uchun ham ibrat bo‘la oladi. Shu ma’noda jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati milliy uyg‘onish tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o‘z hayotini xalqni jaholat va qoloqlikdan qutqarish, milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni ma’rifat asosida yangilash g‘oyalariga bag‘ishladilar. Jadid mutafakkirlari ilm-ma’rifatni millat taraqqiyotining eng muhim omili deb hisoblab, milliy istiqlol va ijtimoiy farovonlikka erishishning asosiy yo‘li sifatida zamonaviy bilimlarni egallash, ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish hamda yosh avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalashni ko‘rsatdilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin singari ko‘plab ma’rifatparvar ziyolilar milliy uyg‘onish harakatining yetakchi namoyandalari sifatida maydonga chiqib, jamiyatni yangilash, milliy o‘zlikni anglash va ma’rifatli jamiyatni shakllantirish yo‘lida fidokorona faoliyat olib bordilar.

Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlari orasida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egallaydi. U pedagog, adib, dramaturg va ijtimoiy arbob sifatida millat ma’naviy uyg‘onishi g‘oyalarini ilgari surgan.

Avloniy o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, jamiyatni ilm-ma’rifat orqali yangilash masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi asarlari o‘zbek pedagogik tafakkuri tarixida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda ma’rifatli jamiyat yaratish g‘oyalari chuqur aks etgan.

Avloniy merosida milliy qadriyatlar talqini Abdulla Avloniy milliy qadriyatlarni xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi va madaniy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. U yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti deb hisoblaydi.

Avloniy milliy tarbiya masalasini alohida ta’kidlab shunday yozadi: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidur.”[1]

Mutafakkir ushbu fikr orqali milliy til va adabiyotning xalq ma’naviy hayotidagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Avloniy nazarida til millatning ma’naviy mavjudligini ifodalovchi asosiy omildir. Avloniy milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, milliy an’ana va qadriyatlar yosh avlod tarbiyasining muhim asosini tashkil etadi. Shu bois u ta’lim tizimida milliy ruhni mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. Umuminsoniy qadriyatlarning Avloniy qarashlaridagi o‘rni Avloniy milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda talqin qiladi. Uning asarlarida insonparvarlik, adolat, halollik, mehnatsevarlik va bilimga intilish kabi g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi.

Mutafakkir tarbiya masalasining ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlab shunday yozadi: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.” [3] Bu fikr Avloniy pedagogik qarashlarining asosiy mazmunini ifodalaydi. U inson tarbiyasini nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat taraqqiyotining ham hal qiluvchi omili sifatida ko‘radi. Avloniy insonni ma’naviy jihatdan komil qilib tarbiyalash jamiyat rivojining asosiy sharti ekanini ta’kidlaydi. Ma’rifatli jamiyat g‘oyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, jamiyat taraqqiyotini ilm-fan va ma’rifat bilan bog‘liq holda talqin qilib, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur.” deya ta’kidlaydi[4]. Avloniy ma’rifatli jamiyatni jamiyat a’zolarining ilmli va tafakkuri keng bo‘lishi, axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi, madaniyat va ma’naviyatning rivojlanishi, ijtimoiy adolat va hamjihatlikning qaror topishi kabi xususiyatlar shakllangan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu sababli Avloniy yangi usuldagi maktablar ochish, zamonaviy fanlarni o‘qitish va yoshlarni ilmga jalb etish g‘oyalarini faol targ‘ib qilgan. Jadid mutafakkirlari nazarida jamiyatni yangilash va milliy taraqqiyotga erishishning eng muhim omili ta’lim va ma’rifat edi. Ular xalqning siyosiy va ijtimoiy ongini yuksaltirmasdan turib mustamlakachilikdan xalos bo‘lish yoki milliy taraqqiyotga erishish mumkin emasligini ta’kidladilar. Shu bois jadidlar faoliyatining markazida, avvalo, ta’lim tizimini isloh qilish va xalq ommasini ma’rifat bilan qurollantirish g‘oyasi turdi.

Ularning fikricha, ma’rifat jamiyatni yangilash, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiluvchi eng muhim ijtimoiy kuch hisoblanadi.

Mazkur qarashlar asosida jadid ma’rifatparvarlari yangi turdagi ta’lim tizimini shakllantirishga kirishdilar. Ular rus-tuzem maktablari orqali olib borilgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi turib, zamonaviy pedagogik tamoyillarga asoslangan “usuli jadid” maktablarini tashkil etdilar.[5] Bu maktablarda o‘qitish jarayoni an’anaviy usullardan farqli ravishda fonetik metodga asoslanib, qisqa muddat ichida savod chiqarish, dunyoviy bilimlarni o‘rgatish va o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratildi. Jadidlar boshlang‘ich maktabdan tortib oliy madrasagacha bo‘lgan ta’lim tizimini yangilash orqali jamiyatni modernizatsiya qilishni maqsad qildilar. Ta’lim tizimidagi ushbu islohotlar tabiiy ravishda yangi o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan ehtiyojni ham yuzaga keltirdi. Shu sababli jadid ziyolilari nafaqat pedagog, balki darslik mualliflari, publitsistlar va adiblar sifatida ham faoliyat yuritdilar. Ular maktab va madrasalar uchun zamonaviy o‘quv dasturlari, yangi darslik va qo‘llanmalar yaratish bilan bir qatorda, badiiy adabiyot orqali ham xalqni ma’rifatga da’vat etdilar. Yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyasi Avloniy qarashlarida jamiyat taraqqiyoti ma’naviy yangilanish bilan chambarchas bog‘liq. U jamiyatda yangi ma’naviy muhit yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Mutafakkir inson kamolotini ma’naviy poklik bilan bog‘lab shunday yozadi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir.”[6] Mazkur fikr Avloniy qarashlarida axloqiy tarbiya jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini ko‘rsatadi. Uning nazarida yangi ma’naviy makon - bu ma’rifat, axloqiy poklik va milliy o‘zlikni anglash ustuvor bo‘lgan ijtimoiy muhitdir.

Abdullo Avloniy ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, madaniyat va adabiyot orqali ma’naviy muhitni boyitish kabi omillarni muhim deb hisoblaydi. Avloniy g‘oyalarining zamonaviy ahamiyati zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ma’naviy muhitni boyitish va ma’rifatli jamiyat qurish jarayonida Avloniy merosi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada jadid adabiyoti shakllanib, uning asosiy vazifasi jamiyatda ma’rifat, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilishdan iborat bo‘ldi. Avvalgi tarixiy davrlarda ma’rifat asosan xalq ommasining savodxonligini oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, jadid mutafakkirlari uni yanada kengroq ijtimoiy mazmunga ega hodisa sifatida talqin qildilar. Ular ma’rifatni nafaqat bilim beruvchi vosita, balki jamiyatni yangilovchi, milliy ongni shakllantiruvchi va mustamlakachilikka qarshi kurashda muhim ijtimoiy qurol sifatida ko‘rdilar. Shu tariqa jadidlar ma’rifatni milliy taraqqiyot va ijtimoiy ozodlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘lab, uni Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilishning asosiy omili darajasiga ko‘tardilar. Shu o‘rinda hozirgi kunda ham, Abdulla Avloniy ma’naviy merosi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini aks ettiruvchi boy ilmiy-pedagogik manba hisoblanadi. Uning asarlarida jamiyatni ma’rifat asosida yangilash, yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va yangi ma’naviy makon

yaratish g‘oyalari chuqur ifoda etilgan. Avloniy ta’lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilib, ilm-fan va ma’naviyat uyg‘unligiga asoslangan ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini ilgari surgan. Shu bois uning pedagogik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Avloniy A. Maktab gulistoni. – Toshkent: Fan, 2008. – 120 b.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 320 b.
4. Yo‘ldoshev J., Hasanboyev J. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 312 b.
5. Qosimov B. Jadidchilik: yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 208 b.
6. Rajabov Q., Haydarov M. Jadidlar: milliy istiqlol g‘oyasi va ma’rifatparvarlik. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 256 b.
7. Mahmudov M. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. – Toshkent: Fan, 2013. – 168 b.
8. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi / mas’ul muharrir B. Qosimov. – Toshkent: Fan, 2013. – 180 b.

АЗИЗИДДИН НАСАФИЙНИНГ ИНСОН РУҲИ ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУФИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ (УРУЖ ВА НУЗУЛ ТУШУНЧАЛАРИ ТАҲЛИЛИ АСОСИДА)

Нарзиев Зубайдилло Ибодиллоевич
Бухоро давлат педагогика институти, “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти

Руҳ, қадимги файласуфлар ва шайхлар нуқтаи назарича, бир латиф (ғоят нозик) жавҳар, балки олий бир биологик қувват, амр оламидан нузул бўлган Раҳмоний нафасдир. Тириклик, ҳаёт жисм ва руҳ таносубиятидан ҳосил бўлган. Мия эса ана шу мураккаб тананинг нозик ва мураккаб аъзоси. Инсон Илоҳ яратган энг мураккаб хилқат бўлгани боис янада мураккаблашиш, яъни тараққий этишга мойил, шунга эҳтиёжманд. Жалолиддин Румий назарида, руҳнинг боқийлиги ва фалаклар узра парвози муҳим. Буюк мутафаккирнинг фикрича, инсон фаришта ва ҳайвон орасидаги вужуд бўлса-да, у ўша ҳолида қолиб кетмаслиги керак. У азобдан халос бўлиши, фаришталик мақомига етишиши, ҳатто бундан ҳам юксалиб, илоҳий олам саодатига мушарраф бўлиши мумкин. Румий: “Неки моддийдир - ҳалок бўлади”[232], - деган ояти каримани зикр этиб ўтар экан, жисмоний ўлимдан қўрқмаслик керак, чунки

[232]Комилов Н. Тасаввуф. -Т.: “Movarounnahr” - “O‘zbekiston”, 2009. -Б. 253.

ўлим руҳни халос этади, тараққиёт учун унга яна қанот бағишлайди, дейди. Инсон камолоти, руҳининг парвози поёнсиз. Бу камолот миқёсини ҳатто хаёлга ҳам келтириб бўлмайди. Шундай экан, руҳ тадрижий тараққиётга сабабчи омил экан, унинг ривожланиш чегараси борми? Руҳ билан бирга жисм ҳам тараққий этадими? Нега руҳ аввал пастга қараб тушиб, кейин яна юқорига юксалади? Инсон вужудида руҳ ва жисм бирдан яратиладими ёки бирин-кетинми? Ҳамма одамларнинг руҳлари ҳам бирдек тараққий этиш ва юксалиш қобилиятига эгами, йўқми? Шунга ўхшаш саволлар пайдо бўлиши албатта табиий ҳол. Қадимги файласуфлар, машойихлар ҳам бу масалалар ҳақида бош қотиришган. Руҳнинг мабдаи(чиқиш жойи), маоди(қайтиши), руҳ манзиллари ва даражалари ҳақида ҳам турлича қарашлар бўлган. Тасаввуф алломалари руҳнинг моддий оламдан бошқа оламга ўтиши мумкинлиги ҳақидаги фикрларга кенг кенг ўрин ажратиб, бунинг қандай шартларда амалга ошиши мумкинлигини тушунтириб беришган. Бу масалани изоҳлаш учун эса “нузул” ва “уруж” тушунчаларидан фойдаланишган. Сўфийларнинг нуқтаи назарича, руҳларнинг ўз оламларидан бошқа оламга келиши “нузул”, у ердан руҳлар оламига кўтарилиши эса “уруж” дейилади. Бунинг учун руҳлар ўзлари келган олам сари уруж этиши учун покланиши ва камолга етиши лозим. Араб тилида уруж “юқорига кўтарилиш”, “юксалиш” маъноларини англатади[233]. Тасаввуфий мазмунда истилоҳида эса “Ҳаққа яқин кишиларнинг сулуки” тарзида тасвирланади. Сўфийларга кўра, инсон қайси йўлдан сулук қилса қилсин, мақсади фақат Ҳаққа йўналган бўлса, бу инсон доимо меърож соҳибидир. Бу соликнинг сулуки ҳам аслида бир юксалишдир[234].

Ибн ал-Арабий эса уруж тушунчасини нузулнинг зидди сифатида кўриб чиққан ва ҳақиқий уруж Ҳаққа қараш эканлигини айтган. Шунингдек, баъзи сўфийлар уружнинг жамъга бориш эканини ҳам баён қилишган. Азизиддин Насафий ҳам ўз асарларида руҳларнинг нузули ва уружи масаласига махсус тарзда эътибор берган. Унинг фикрича, руҳ ва тана бир вақтнинг ўзида уруж ва нузулни бошдан кечиради. Насафий эса бу тушунчани “Соликнинг руҳи уйқу ёки уйғоқлик ҳолатида танасидан чиқиб, унга ато этилган баъзи ҳолатларга эришишидир” тарзида ёритган. Фақатгини руҳнинг уружи танага боғлиқдир. Яъни руҳ танасиз уруж эта олмайди. Руҳ тана воситасида ўзининг яратилган мақомигача уруж этади ва комиллик касб этади.

Бу масалада “Эй дарвеш!-дейди Насафий, барча руҳлар пастга тубанликларнинг тубанига тушиб, қолип (жисм) маркабига миниб, қолип воситасида комилликка эришиб, бу ердан яна ўзлари-нинг аввалги манзилларига кўтариладилар. Ўзининг дастлабки (асл) мақомини эгаллаш

[233]Mutçalı S. Arapça-Türkçe Sözlük. İstanbul: Dağarcık Yayınları. 1995.-S. 596.
[234] Kâşânî, A.. Tasavvuf Sözlüğü. (Çev. E. Demirli). İstanbul: İz Yayıncılık. 2004. -S. 395.

билан уруж (кўтари-лиш) тугайди ва унинг доираси беркилади. Доира беркилгандан кейин кўтарилиш тараққиёт бўлмайди”[235]. Инсоннинг мойиллиги ва тарбияси ортган сари унда яширин бўлган хислатлар юзага чиқади. Бу жараён охирги чегараларга етгунга қадар шундай давом этади. Чегаралар тугагач, улар яна пастга тушишни бошлайди. Мутасаввифнинг таъкидлашича, уруж доимий бўлиши мумкин. Бу мавзуда у тартибни қуйидагича келтиради: Мўмин, обид, зоҳид, ориф, валий, набий, расул, улул-азм ва Хотамун-набиййин.

Азизиддин Насафий айни шу масалада тўрт хил қараш борлигини таъкидлаган. Бу қарашларнинг биринчиси - калом, яъни шариат аҳлининг, иккинчиси - ҳикмат аҳли яъни файласуфларнинг, учинчиси - ваҳдат аҳлининг ваҳдатнинг биринчи тоифаси, яъни ваҳдат ул - вужуд таълимоти тарафдорларининг, ва ниҳоят тўртинчиси - ваҳдат аҳлининг иккинчи тоифаси, яъни ваҳдат ул-мавжуд тарафдорларининг қарашларидир. Мутасаввиф тасаввуф таълимотида юқорида тилга олинган тўрт тоифанинг қарашлари омухта бир кўринишда ифодаланган, деб ҳисоблаган. Шу боис у “Зубдат ул-ҳақойиқ” (“Ҳақиқатлар қаймоғи”), “Комил инсон китоби” ва бошқа асарларида руҳ даражалари, руҳнинг нузули (тушиши) ва уружи (кўтарилиши) хоссалари ҳақида фикр юритганда, шариат, ҳикмат ва ваҳдат аҳли қарашларини ўзаро чоғиштирган ва шу асосда тариқат аҳлининг мазкур масаладаги фикрларини ҳам баён этган. Мутасаввифга кўра, шариат аҳли ҳам, ҳикмат аҳли ҳам, ваҳдат (тасаввуф) аҳли ҳам одам руҳ ва жисмдан иборат эканини, руҳ Парвардигори оламнинг Раҳмоний нури - нафаси эканини тан олади, руҳ муайян даражаларга эга ва шу даражалари билан нузул этади, мазмунидаги фикрларга қўшилган. Шундай экан, уларнинг қарашлари нимаси билан фарқ қилади? Асосий тафовут шундаки, шариат аҳли таълимоти бўйича, ҳар бир одамнинг руҳи тақдири азалда белгиланган даража-мартабада туради, шу даражада нузул этади ва қайта кўтарилганда ҳам ўзи нузул этган пайтдаги манзил-мартабагача боради, ундан юқорига кўтарилолмайди.

Инсоний руҳнинг тараққиёти масаласида Насафий шариат, ҳикмат ва ваҳдат аҳлининг қарашларидаги концепцияларни бирма-бир таҳлил қилган. Насафий шариат аҳлининг инсоний руҳ тараққиёти масаласидаги тўққиз даражани санаб кўрсатган. Шариат аҳлининг фикрича руҳнинг тараққиёти бўйича инсон пайғамбарларни тасдиқ этиб, уларга издошлик қилса, имон мақомига етади ва мўмин бўлади. Демак, руҳ тараққиётининг биринчи даражаси мўмин руҳи бўлиб ҳисобланади. Иккинчи даража эса обид руҳидир. Бу даражага эришиш учун инсон анбиёни тасдиқ ва тақлид қилиш бирга кўп

[235] Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент.: “Маънавият”, 1997.-Б. 51.

ибодат қилади, кеча-кундуз вақтини тўғри тақсимлаб, асосий вақтини ибодатда ўтказиб, ибодат мақомига етади ва унинг исми обид бўлади. Учинчи даражада шариат аҳли зоҳид даражасини тилга олишган. Бу даражани эгаллаш учун инсон кўп ибодат қилиш баробарида буткул дунёдан буткул юз ўгиради, бойлик ва мансаб-амалдан юз ўгириб, бадан лаззатлари ҳамда шаҳватларидан қутулиб, зуҳд мақомига етиб, зоҳид бўлади.

Инсоний руҳ тараққиётининг тўртинчи даражаси бу орифлик даражасидир. Бу даража инсондан кўп машаққат ва риёзатни талаб этади. Бу даража зоҳид бўлиш билан бирга нарсаларни қандай бўлса, шундайлигича кўра олиш, уларнинг ҳикматини англаш, ўзи ва Ҳақни таниш билан боғлиқ бўлиб, бундай инсон маърифат мақомига эришади ва унинг исми ориф бўлади. Насафийнинг фикрига кўра, бу олий мақомдир ва соликлардан жуда оз киши бу мақомга етишади. Бу инсоннинг валийлик чегарасига келганини кўрсатади. Руҳ тараққиётининг бешинчи даражаси-валийликдир. Бу даражада инсон маърифат соҳиби бўлиш баробарида Ҳақнинг ўзи уни ўз муҳаббати ва илҳоми билан хослардан этса, валийлик мақомига етади ва унинг исми валий бўлади. Ўз ўрнида муҳаббат ва илҳом соҳиби бўлиш баробарида Ҳақ уни ўз ваҳйи ва мўжизаси билан хослардан этиб, у орқали халққа хабар юборса, токи у халқни Ҳаққа даъват этса, (бундай зот) яъни инсон нубувват мақомига етади ва унинг исми набийдир. Бу инсоний руҳ тараққиётининг олтинчи даражасидир. Шариат аҳли томонидан еттинчи даража сифатида рисолат мақомига эришган расул даражаси тилга олинган. Бу даражага юқорида айтилганидек, еттинчи мақомдаги ваҳий ва мўжиза соҳиби бўлиш баробарида инсонни Ҳақ ўз китоби билан хослардан этсагина расул даражасига кўтарилади. Саккизинчи даражада улул-азмлик мақомига етишган улул-азм даражасига кўрсатилади. Бу мақомнинг ўзига хос хусусияти шундаки, бу мақомда инсон Китоб соҳиби бўлиш билан бирга, олдинги шариатни бекор этиб, янги шариатга асос солади ва мазкур даражани эгаллайди. Ва ниҳоят охирги даражада инсон саккизинчи мақомдаги олдинги шариатни бекор қилиб, бошқа шариатга асос солади ва уни Ҳақ нубувватнинг охири-хатми қилади ҳамда хатм мақомига етишиб, унинг исми хотим бўлади. Шу билан инсоний руҳ тараққиётининг даражалари якун топади. Кўриниб турганидек, ҳар бир мақом ва даража бир-бири боғланган. Яъни биринчи мақомдан охирги мақомга қадар инсоний руҳ тараққиётда ўзига хос йўлни босиб ўтади ва даражама-даража юксалади.

Азизиддин Насафийдан олдин яшаб ўтган тасаввуф таълимотининг йирик шайхларидан бири Абу Бакр Воситий инсоний руҳ тараққиётининг ўн даражаси ҳақида гапирган. Абу Бакр Воситий руҳни жон деб атаган ва қуйидагича фикр билдирган: “Руҳларнинг ўнта мақоми бўлади, яъни ўнта мақомда қойимдирлар. Биринчиси мухлисларнинг жонлари бўлиб, улар бир

зулматда маҳбусдирлар. Уларни нима қилишни билмайдилар. Иккинчиси порсо кишиларнинг жонлари бўлиб, улар дунё осмонларида қилган тоатларининг қуввати билан шодмон ҳолда кезиб юрадилар. Учинчи жонлар муридларнинг жонлари бўлиб, тўртинчи осмонда ўзларининг қилган сидқи амалларининг соясида лаззатланиб, фаришталар билан юрадилар. Тўртинчи мақомдаги жонлар яхшилик қилувчиларники бўлиб, арш қандилларининг нурига осилган бўладилар ва уларнинг таоми раҳматдир, ичимликлари эса лутф ва қурбатдир. Бешинчи мақом жонлар вафо аҳлиники бўлиб, улар сафо ҳижобида ва истаф мақомида хурсандчилик қиладилар. Олтинчиси шаҳидларнинг жонлари бўлиб, улар қушларнинг жиғилдонидадирлар. Улар хоҳлаганларича жаннат боғларига кириб чиқадилар. Еттинчи мақом жонлари муштоқларникидир. Улар Ҳақ сифатларининг нурлари ҳижобида адаб гилами устида турадилар. Саккизинчи мақомда орифларнинг жонлари туради. Улар ҳазоирул қудсда, яъни жаннатда бомдод ва шом пайтлари Худованднинг каломини тинглайдилар. Ўзларининг дунёдаги ва жаннатдаги маконларини кўриб турадилар. Тўққизинчисида жамол мушоҳадасига ва кашф мақомига мустағрақ бўлган дўстларнинг жонлари бўладики, улар Ундан ўзгасини билмаслар ва Ундан ўзга ҳеч нарса билан ором олмаслар. Ўнинчи мақомда фанода қарор топган, ўз авсофидан бегона бўлган, ҳоллари ўзгарган дарвишларнинг жонлари бўлади”[236].

Шариат аҳлининг асосий концепциясини баён этган мутасаввиф, кейинги ўринларда ҳикмат аҳли ва сўфийларнинг одам руҳи тараққий этиб, аввалги манзил-мартабасидан ошиб кетиши мумкин. Бунинг устига, сўфийлар дейдиларким, агар одам Илоҳ сари таважжуҳ этиб, унинг васлига мушарраф бўлса, тириклигидаёқ руҳи жисмидан ажралиб чиқиб, барча оламларни, жаннату дўзахни айланиб қайтиб келиб, яна жисмига кириши мумкин мазмунидаги қарашларига ўрин ажратган.

Насафий шариат, тариқат ва ҳикмат (файласуфлар) аҳлининг нузул ва уруж, руҳ ва жисм ҳақидаги қарашларини қиёслар экан, уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатларини ойдинлаштириб беради. Унингча, ўхшаш жиҳатлар шундан иборатки, шариат аҳли ҳам, ҳикмат аҳли ҳам, сўфийлар ҳам инсон руҳи даражаларини эътироф этадилар. Бу даражалар ўн учтадир (агар Руҳи аввал ҳам улар сирасига қўшилса, ўн тўртта бўлади). Улар қуйидагилардан иборат: пайғамбари хотам руҳи; улулазм пайғамбарлар руҳи; мурсал пайғамбарлар руҳи; қолган набилар руҳи; авлиёлар руҳи; илми маърифат аҳли руҳи; зоҳидлар руҳи; тақво аҳли руҳи; имонлилар руҳи; қолган одамлар руҳи; ҳайвонлар руҳи; ўсимликлар руҳи; маъданлар ва ашёлар руҳи. Пайғамбари хотам - пайғамбарлар хулосаси деганда, Насафий Муҳаммад Мустафони

[236] Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль кулуб). / Перевод с английского А.Орлова, Изд. Перв. – Москва: Единство, 2004. – С. 263.

назарда тутган. Парвардигор руҳи аввал - жавҳарнинг қиёмидан (қаймоғидан) илк бор Пайғамбаримиз саллаллоҳу алайҳи васаллам руҳини яратди, кейин унинг қолдиғи - қаймоғидан улул-азм, яъни шариат келтирган пайғамбарларни, унинг қолдиғи - қаймоғидан мурсал - рисолат келтирган пайғамбарларни яратди. Шу тариқа, руҳларнинг даражалари юқоридан пастга қараб таърифланган. Насафийда жисмлар шунга мувофиқ 13 даражалидир: арш; курси; 7-осмон; 6-осмон; 5-осмон; 4-осмон; 3-осмон; 2-осмон; 1-осмон; олов; ҳаво; сув; тупроқ. Даражага мувофиқ, арш — пайғамбари хотам руҳи макони, курси - улул-азм пайғамбарлар руҳи манзили; 7-осмон - мурсал пайғамбарлар руҳи манзили; 6-осмон - анбиёлар руҳи макони; 5-осмон - авлиёлар руҳи манзили ва ҳоказо шу тартибда қуйига қараб тушилаверади.

Шариат аҳли фикрига кўра, бу даражалар ўзгармасдир. Парвардигор азалдан ҳар бир одамнинг руҳини белгилаб қўйган, бу руҳлар ўша белгиланган манзилдан пастга нузул этади, жисм билан қовушади ва жисм маҳв бўлгач (одам вафот этгач), яна аввалги манзилига йўл олади. Аммо таъкидлаш жоизки, Азизиддин Насафий шариат аҳлининг бундай ҳукмини тўлиқ ёқламайди. Шу боис аллома кўпроқ ҳикмат ва тасаввуф аҳлининг фикрларига эргашишини билдирган. Бу хусусда аллома бундай ёзади: “Инсоннинг вазифаси - узлуксиз маърифатга интилиш ва нур билан тўлишиш ва илм топиб, мусаффолик сари талпинишдир”. Яна бошқа ўринда қуйидагича фикр билдирган: “Одам нақадар маърифатли ва покиза бўлса, унинг жаннатдаги жойи ҳам шу қадар юксак бў”ади”. Азизиддин Насафий нузул ва уруж ҳақида мулоҳаза юритар экан, тараққиёт доираси масаласини ҳам қиёсий-назарий таҳлилдан ўтказган. Мутасаввиф ҳам руҳнинг чиқиш (мабдаъ) ва қайтиш (маод) нуқталари борлигини таъкидлаган ва бу борадаги фикрларини ҳам билдирган. Руҳ олами Кубро - Илоҳ оламилан чиқиб пастга нузул этади ва инсон танасига келиб жойлашади. Кейин шу нуқтадан яна юқорига қараб қайтиш бошланади. Аммо бу қайтиш қандай содир бўлади, руҳда сифат ўзгариши бўладими, йўқми, юксалиш - такомиллашув юз берадими ёки тубанлашишми? “Зубдат ул-ҳақойиқ” рисоласида таъкидланишича, инсон руҳнинг жавҳарини, “улуғ оламнинг аввалу охири, зоҳиру ботини, моҳият ва шаклларини идрок этиш учун биринчи галда ўэининг моҳиятини англаб етиши керак. Демак, такомилнинг боши ҳам ўзни англашдир. Нузул этган руҳ одам орқали яна уруж қилиб Аслига қайтади ва шу тариқа бу жараён доира шаклини олади. Шариат аҳли фикри бўйича, яна руҳ - алоҳида, жисм - алоҳидадир. Инсон вужудига руҳ ташқаридан (юқори олам манзилларидан) келиб киради, она қорнидаги ҳомила аниқ шакл касб этганидан кейин руҳ унга нузул этади. Аммо ҳикмат ва ваҳдат аҳлининг таълимотига кўра, руҳ ва жисм алоҳида-алоҳида воқеъ эмас, балки инсон вужудининг барча белги ва сифат-хислатлари нутфа - уруғда пинҳондир. Ҳомилада жон ва руҳ бирга ўсиб, инсон қиёфасига киради, инсон туғилганидан сўнг улар биргаликда равшанлашади. Насафий ўша нутфанинг ҳомиладаги тараққиётини хийла тафсилоти билан тушунтирган. Ул зот шу тариқа инсон фарзандининг она қорнидаёқ бир талай ҳолат - босқичлар, хусусан, оддий жисмдан - ўсимлик ҳолатига; ўсимликдан - ҳайвонлик ҳолатига; ҳайвонликлан - инсонлик ҳолатига ўсиб боришини

исботлайли. Она ҳомиласида, балки ота уруғида инсоннинг кейинги тараққиётига асос бўладиган жамики зарур имкониятлар бор, деб таъкид этган Насафий. Зотан, Насафийнинг тушунтиришига кўра, олами Кубро ва олами Суғро (катта олам ва кичик олам) таълимоти шуни тақозо этади. Негаки, кичик олам - инсон Инсон катта оламнинг кичрайтирилган нусхаси, катга оламнинг хусусиятлари унинг яна ҳам кичрайтирилган нусхаси - нутфада мавжуд. Бу таълимотдан келиб чиқадиган хулоса шуки, биринчидан, Одам — илоҳий оламнинг ажралмас қисми, илоҳий оламдаги илм ва ҳикмат унда бор. Инсонни Илоҳ олами билан боғлайдиган жавҳар - руҳдир. Агар Илоҳ оламини билмоқчи бўлсангиз, инсонни, яъни ўзингизни ўрганинг, ўзингизни танинг. Инсоннинг қалби, руҳи, кўнглини билиш, кашф этиш воситасида Парвардигорнинг исмлари-ю сифатлари, мўъжиза - карoматлари, илму ҳикмати ва, ҳатто, зотини ҳам кашф этиш мумкин. Демак, Худони англаш, таниш инсонни англаш ва таниш орқали кечади. “Кимки ўзини таниса, Раббисини танийди”, - деган ҳадиснинг маъноси аслида шу. Азизиддин Насафий, Абу Ҳомид Ғаззолий, Жалолиддин Румий бу ҳадисни мудом зикр этганлар. Аммо ўзликни англаш, ўзини танишга руҳ ва қалбни поклаш, ақлу шуурни тоблаш, тақво ва тавба йўли орқали борилади. Фақат шу тариқа руҳ Аслига қайтади, яъни покланиб, уруж этади. Зотан, инсон руҳи илоҳий оламдан нузул этиб, инсонга келиб тўхтар экан, шу нуқтадан яна юқорига қайтиш учун кураш бошланади. Руҳ жисм билан олишиб, охири уни тарк этади яна ўз мақомига қайтади: “Ҳар бир киш ининг олдиндан белгиланган мақоми бор ва белгиланган мақомига эришгач, унинг лоираси якун топади, доира якун топгач эса, бошқа ривожланиш бўлмайди”. Бу мулоҳазалар шунга ҳидоят этадики, инсон ўз камолотида чексиз имкониятга эга Ва ҳар бир кишининг камолоти унинг ўзига боғлиқ. Аммо бу фикрлар орқали Азизиддин Насафий ёки унинг маслакдошлари бўлган буюк сўфийлар, файласуфлар тақдири азални тан олмаган экан-да, деган хулоса чиқармаслик лозим. Насафий “Зубдат ул-ҳақойиқ” ва “Комил инсон китоби” асарларида бу масала хусусидаги фикрини ҳам баён этган. Аллома тақдири азални тан олган. Аммо бу масалани шариат аҳли каби тор ва схоластик маънода эмас, балки файласуф сифатида хийла теран англаб таҳлил этган.

Насафийнинг таҳлилига кўра, тақдир билан бирга тадбир ҳам бор. Тақдир - Худодан, тадбир - инсондан. Худо тақдирни белгилаб қўйган бўлса-да, бироқ инсонга ривожланиш, илм-маърифат эгаси бўлиш имконини ҳам берган. Агар шундай бўлмаса эди, Худони таниш ва севиш ҳам иложсиз бўларди. Шундай қилиб, руҳ тараққиёти бир доира ичида содир бўладиган ҳодиса эмас. Балки ҳар бир доирадан кейин янгиси бошланади ва “ҳар бир янги доирадан бошлаб янги ибтидо бошланади ва у ўз такомилига эришиш учун даражама-даража интилади” Маълум бўладики, уружнинг охири йўқ, чунки Парвардигорнинг илму ҳикмати чегарасиздир. “Агар қобилиятли одамнинг умри минг йил бўлса ва минг йил умрнинг барчасини тақво ва тоатда ўтказса, у ҳар куни илгари билмаган бирон нарсасини билиб олади”,- деб фикрларини хулосалаган Насафий.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль кулуб). / Перевод с английского А.Орлова, Изд. Перв. – Москва: Единство, 2004. – С. 263.

2. Комилов Н. Тасаввуф. -Т.: “Movarounnahr” - “O‘zbekiston”, 2009. -Б. 253.

3. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент.: “Маънавият”, 1997.-Б. 51.

4. Kâşânî, A.. Tasavvuf Sözlüğü. (Çev. E. Demirli). İstanbul: İz Yayıncılık. 2004. -S. 395.

5. Mutçalı S. Arapça-Türkçe Sözlük. İstanbul: Dağarcık Yayınları. 1995.-S. 596.

QRIMDA JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO'LISHI
KIRIM'DA CADIDİZM HAREKETİNİN ORTAYA ÇIKIŞI
THE EMERGENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT IN CRIMEA
ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА В КРЫМУ

Безносюк Александр Алексеевич
доктор педагогических наук, профессор
Киевский Национальный университет имени Тараса Шевченко, г. Киев, Украина;
Кременецкая областная гуманитарно-педагогическая академия им. Тараса Шевченко, г. Кременец, Украина.
alexbeznosyuk57@gmail.com, +380679073288.
Эльчиева Динара Толубаевна
доцент кафедры педагогики и психологии (PhD), Узбекский государственный университет мировых языков
г. Ташкент. Узбекистан
dialchi1984@gmail.com, +998919909799

Возникновение джадидизма в Крыму — это не просто локальное событие, а интеллектуальная революция, которая изменила облик всего исламского Востока. Движение зародилось в 80-х годах XIX века и превратило Бахчисарай в «мозговой центр» тюркского мира.

Джадидизм в Крыму — это не просто глава в учебнике истории, это настоящий интеллектуальный взрыв конца XIX века, который превратил Крым в центр просвещения для всего тюркского и исламского мира.

Если говорить кратко: джадиды (от арабского *усуль-и джадид* — «новый метод») поняли, что без реформ и европейских знаний мусульманское сообщество рискует остаться на обочине прогресса.

Почему именно Крым(один из авторов с Украины, очень заинтересовало движение)?

К концу XIX века крымскотатарское общество находилось в глубоком кризисе. Старая система образования (медресе) заставляла детей годами учить

тексты, смысл которых они не понимали, а экономика и культура стагнировали.

Основные причины возникновения:

- *Кризис традиционализма*: Старые методы обучения не давали знаний, нужных для жизни в индустриальном мире.
- *Влияние Европы и России*: Интеллигенция Крыма видела прогресс соседей и понимала: либо реформы, либо исчезновение нации.
- *Личность лидера*: Появление Исмаила Гаспринского, который объединил европейское образование с восточной идентичностью.

Говоря о крымском джадидизме, невозможно не начать с Исмаила Гаспринского. В 1880-х годах он осознал, что старая система образования (медресе), где ученики годами зазубривали тексты на арабском, не понимая их смысла, изжила себя.

Его лозунг: *«Тильде, ише, фикирде бирлик»* («Единство в языке, делах и мыслях»).

Что именно Гаспринский предложил:

- *Звуковой метод обучения*: Вместо заучивания названий букв — обучение их звукам. Это позволило детям учиться читать за недели, а не за годы.
- *Светские предметы:* В программу школ вошли география, математика, история и естествознание.
- *Женское образование:* Гаспринский настаивал на том, что нация не может развиваться, если её «половина» (женщины) неграмотна.

В украинской академической среде фигура Исмаила Гаспринского и феномен джадидизма рассматриваются не просто как часть истории одного народа, а как глобальный проект модернизации исламского мира, зародившийся на территории современной Украины[1-4].

Украинское востоковедение (*сходознавство*) традиционно выделяет в джадидизме три аспекта: просветительский, политический и цивилизационный диалог.

1. Фундаментальный подход: Валерий Возгрин[1].

Хотя Валерий Возгрин долгое время работал в Санкт-Петербурге, его 4-томная «История крымских татар» является базовой для современных украинских историков. Взгляд: Возгрин рассматривает джадидизм как мощный ответ на колониальную политику Российской империи. Для него Гаспринский — это «архитектор нации», который через реформу образования предотвратил полную ассимиляцию крымских татар.

2. Биографическая школа: Виктор Ганкевич[2].

Виктор Ганкевич (симферопольский историк, чьи труды широко цитируются в украинской науке) посвятил десятилетия изучению педагогики Гаспринского. Взгляд: Ганкевич акцентирует внимание на том, что Гаспринский был первым европейцем среди мусульман и первым мусульманином среди европейцев. Он доказал, что ислам не является препятствием для прогресса, а новометодная школа (*усуль-и джадид*) была

самой эффективной образовательной моделью своего времени в Восточной Европе.

3. Философский ракурс: Михаил Якубович[3].

Современный украинский исследователь, переводчик смыслов Корана на украинский язык Михаил Якубович анализирует джадидизм через призму исламской философии. Взгляд: Якубович подчеркивает, что Гаспринский предвосхитил идеи современного мультикультурализма. Ученый рассматривает джадидизм как попытку создать «либеральный ислам», где религия становится частным делом и моральным ориентиром, а не тормозом для науки и гражданских свобод.

Ключевые тезисы украинских ученых:

- *Европеизация без потери идентичности:* Джадидизм рассматривается как успешная попытка интеграции в европейское интеллектуальное пространство при сохранении восточных корней.

- *Гаспринский как «Крымский Драгоманов»:* Украинские ученые часто сравнивают Гаспринского с Михаилом Драгомановым — оба были сторонниками федерализма, просвещения и постепенных реформ вместо радикальных переворотов.

- *Информационный суверенитет:* Газета «Терджиман» анализируется как инструмент создания единого информационного поля, что было революционным для того времени.

Итак, Почему Крым стал колыбелью движения?

Возникновение джадидизма именно здесь не было случайным:

1. *География***:** Крым находился на стыке Российской и Османской империй, впитывая идеи и из Европы, и с Востока.
2. *Кризис традиционализма***:** Старые элиты теряли влияние, и обществу требовался новый путь для сохранения национальной идентичности.
3. *Экономика***:** Появление прослойки предпринимателей, которым нужны были грамотные работники, знающие современные технологии.

Рассмотрим основные этапы развития джадидизма(Таблица 1).

Важно понимать: Джадидизм не был попыткой «отказаться от ислама». Напротив, это была попытка очистить религию от суеверий и доказать, что вера прекрасно совмещается с наукой и прогрессом.

Крымские джадиды заложили фундамент для формирования современной крымскотатарской нации, создав почву для появления политических движений и культурного возрождения начала XX века.

Таблица 1

Основные этапы развития джадидизма

Период	Основное содержание
1880-е — 1890-е	Формирование «нового метода» обучения, открытие первых новометодных школ в Бахчисарае.
1900-е — 1905	Распространение идей по всей империи, рост влияния газеты «Терджиман».
1905 — 1917	Политизация движения. Джадиды переходят от вопросов образования к требованиям гражданских прав и свобод.

Джадидизм прошел путь от культурного просвещения до политических требований:

1. 1880–1900 гг.: Эпоха «букварей». Главная цель — ликвидация неграмотности.
2. 1905–1917 гг.: Эпоха политики. Джадиды начинают требовать гражданских прав, представительства в Думе и автономии. Из этого движения выросла первая крымскотатарская политическая партия — «Милли Фирка».

Ка говорилось выше, «джадидизм» происходит от арабского *«усуль-и джадид»* — новый метод. В 1884 году Гаспринский открыл в Бахчисарае первую образцовую школу.

В чем же была революция:

- *Звуковой метод:* Детей учили не названиям букв («алиф», «ба»), а звукам. Это позволило учиться читать за 40 дней вместо 2–3 лет.
- *Светские предметы:* Впервые в школах при мечетях начали преподавать математику, географию, историю и естествознание.
- *Парты и доски:* Гаспринский ввел привычный нам школьный интерьер вместо сидения на полу.

И последнее, что хотим отметить, это идеология: Три кита джадидизма(Таблица 2).

Движение не ограничивалось букварями. Оно имело четкую концепцию выживания нации в современном мире:

Таблица 2.

Три кита джадидизма

Компонент	Суть идеи
Образование	Знания должны быть полезными. Наука не противоречит вере.
Права женщин	Нация не может быть свободной, если её женщины заперты дома и неграмотны.
Единство	«Тильде, иште, фикирде бирлик» (Единство в языке, делах и мыслях).

В заключение приводим мудрые мысли Исмаила Гаспринского о просвещении, духовности и национально-культурной идентичности[5-6]:

1. «Единство в языке, мыслях и делах».
2. «Я сторонник эволюционных преобразований в обществе, а не революционных».

3. «Школа – орган умственного и нравственного воспитания».

4. «Давно пора, давно следовало понять, что самые полезные люди – это учителя».

5. «Давно пора, давно следовало бы понять, что самый большой расход должен быть расход на обучение; пора понять, что стыдно и грешно давать учителю за «неделю» 5 коп, и тратить ежедневно по 20 коп, на «лишнюю чашку кофе и чая».

6. «Человек, сойдя с колыбели, должен поступить в школу, в дом учения, знания. Только пройдя эту школу, он может вступить на поле жизни».

7. «Нетрудно было бы просветить народ, если бы легко было бы доказать ему его необходимость».

8. «Если хотите помочь народу, начните с того, что доступно и понятно».

9. «Печать – это такая сила, которая, сокрушая, опережая столетия, пространства, сближают меж собой все времена!.. В наше время этой благодатной силой обладают многие большие и малые народы, между тем у нас печати вовсе не существует. Мы давно озадачены и заинтересованы этим».

10. «Все наши бедствия, болезни происходят от неграмотности и незнания. Если неграмотным народам дать всемирное благополучие, они всё равно не сумеют воспользоваться им, прежде всех их надо учить грамоте… Грамотный народ сам найдёт себе наилучшее счастье».

11. «Пока народ не будет хорошо грамотным, пока он не начнёт мыслить и не пробудится в нём «самодеятельность» все прочие меры не будут им использованы в должной степени».

12. «Там, где можно было, мы бросали свои пепелища, святыни, родину и уходили бог весть куда (крымцы, кавказцы, бессарабы), а где уйти было некуда, мы уходили в свой тесный мирок, отдаваясь ему всецело и не желая знать и ведать ничего, что не касалось близко нашего мирка и его узких интересов (мусульмане внутренних губерний)».

13. «Язык народа, их речь – это печать и литература. Литература – это такая речь, это такой язык, звуки которого слышны далеко, он может звучать и тысяча лет после нас».

14. «Величие и значение народа пропорциональны степени его науки и прогресса».

15. «Язык и литература суть основы знаний и прогресса». «Без знания родного языка и литературы, никакое просвещение немыслимо».

16. «Право национальности, право иметь и блюсти свой исторический культурный народный облик, есть в наше просвещённое время такое же естественное, неотъемлемое, право человека, как и все другие «droits de l’homme» (права человека, – прим. ред.). «Отнять у человека его национальность не меньшее насилие, чем отнять свободу совести или разрушить семью… Так и современные крепостники-политики признают святые узы народности исключительным правом господствующего народа».

17. «Дух без идеала неминуемо должен быть мрачен, жизненный путь без благих целей должен подавлять и утомлять».

18. «Культура человечества работает интенсивно: наше время – время соединения огромных и всяких народов для взаимопомощи. В жизни экономической, жизни политической, единение, общность становятся историческим законом. Это надо глубоко осознать и благодарить Аллаха, что исторические связи тюрко-татарской нации с народом русским, а не каким-нибудь другим».

19. «Каждый человек, если средства и обстоятельства позволяют, должен изучать три языка – свой родной язык, язык того государства, где живёт и, по возможности язык, который учат все народы».

20. «Известно, что чем более какой-либо народ имеет книги, тем он становится выше».

21. «Пройдут годы, нас не будет, но просвещённый народ бессмертен» [5-6].

Важный итог: Благодаря возникновению джадидизма в Крыму, к началу XX века уровень грамотности среди крымских татар был одним из самых высоких среди мусульманских народов империи.

Список литературы

1. Возгрин, В. Е. История крымских татар [Текст] : очерки этнической истории коренного народа Крыма в четырех томах. Симферополь : Караденiз продакшн, 2015, 2015. 619 с.
2. Ганкевич В.Ю. На службе правде и просвещению. Краткий биографический очерк Исмаила Гаспринского (1851—1914). Симферополь: Доля, 2000. 328 с.
3. Якубович М.М. Ислам у східній Європі: традиція поміркованості. Київ. 2019. 134 с.
4. Османов Ю. Просветитель Востока Исмаил Гаспринский. Симферополь, 2014. – 312 с.
5. Гаспринский И. Русское мусульманство. Мысли, заметки и наблюдения. Симферополь: тип. Спиро, 1881. 45 с.
6. Гаспринский И. Русско-восточное соглашение. Мысли, заметки и пожелания. Бахчисарай: Типография литературной газеты «Переводчик», 1896. 20 с.

ЎСМИР-ЁШЛАР ОРАСИДА ИЖТИМОИЙ ХАВФЛИ ХУЛҚ-АТВОРНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТУШУНЧАСИ ВА САБАБЛАРИ

Маматназаров Лазизбек Тўрақулиевич
Бухоро давлат педагогика институти мустақил изланувчиси

Ижтимоий хавфли хулқ-атвор ҳуқуқшунослик, криминология, социология, психология, психиатрия, этика, педагогика, конфликтология ва бошқа бир қатор фанларнинг тадқиқот предмети ҳамда “боғловчи бўғини” ҳисобланади. Ҳуқуқшуносликда ижтимоий хавфли хулқ-атвор деганда жамиятга қарши йўналтирилган, ноқонуний, англанган, иродавий, мураккаб табиатга эга бўлган ижтимоий муносабатларни бузган ёки бузишнинг реал хавфини туғдирган ҳаракат ёхуд ҳаракатсизлик тушунилади. Таъкидлаш жоизки, “қилмиш” атамаси маъно жиҳатидан “хулқ-атвор” атамасига қараганда торроқ ва ўзига хос юридик мазмунга эга. “Ижтимоий хавфли хулқ-атвор” тушунчаси эса ҳар қандай салбий ижтимоий амалиётнинг ҳам объектив, ҳам субъектив белгиларини ўзида мужассам этади. Ижтимоий хавфли хулқ-атвор феномени бошқа соҳа ва тармоқлар учун ҳам долзарбдир. Ушбу категориянинг универсаллиги унинг кўплаб ҳужжатлар, илмий матнлар ва амалий ишланмаларда ўз аксини топишида намоён бўлади. Ижтимоий хавфли хулқ-атвор деганда, ҳуқуққа хилоф қилмишлар, жиноятлар ва жиноий хатти-ҳаракатларда намоён бўладиган деструктив хулқ-атворнинг ижтимоий хусусияти тушунилади. Ижтимоий хавфли хулқ-атвор жамият асосларини инкор этади, ижтимоий институтлар фаолиятини беқарорлаштиради, сотсиумнинг мавжудлик шароитларига путур етказади. Унинг келтирадиган зарари шахсий ёки тор ижтимоий манфаатлар доирасидан чиқиб, ижтимоий турмуш тарзига зиён етказади, ижтимоий қадриятларнинг асосий тизимига таҳдид солади. Ижтимоий хавфли хулқ-атвор энг муҳим, тиклаб бўлмайдиган ёки тикланиши жуда қийин бўлган ижтимоий неъматлар ва ресурсларга зарар етказади. Моҳиятан, ижтимоий хавфли хулқ-атвор ижтимоий хавфли қилмишда, яъни муайян жиноятда намоён бўлади. Ўрта касб-ҳунар таълими тизими ўқувчиларининг (кейинги ўринларда – ЎКҲТ ўқувчилари) ижтимоий хавфли хулқ-атвори бир неча сабаблар (предикторлар, омиллар, ҳолатлар) билан изоҳланади: экзоген (“ташқи”, муҳитга оид) сабаблар – яъни шахсни ўраб турган омиллар ва эндоген (“ички”, шахсий) сабаблар – яъни шахснинг ўзига, унинг организми ва шахсиятига тегишли омиллар. Маълумки, ижтимоий хавфли хулқ-атворли бу болалар ахлоқ ва одоб нормаларини инкор этишни яққол намоён қилади. Шубҳасиз, ушбу тоифадаги болалар каттароқ ёшда ҳам ижтимоий хавфли хулқ-атвор хавфи юқори бўлган гуруҳга киради. Вояга етмаганларнинг ижтимоий хавфли хулқ-атвори аҳолининг ушбу тоифасига хос бўлган ёш психологик хусусиятлари билан боғлиқ ўзига хосликка эга. Ижтимоий хавфли хулқ-атворнинг психофизиологик шарт-шароитларини ташкил этувчи нохуш хусусиятлар орасида тиббий-биологик омиллар алоҳида ўрин тутади: ақлий ривожланишдан орқада қолиш (олигофрения) ва туғма, ирсий хусусиятга эга бўлган ёки бош мия жароҳатлари натижасида юзага келган органик оғирлик; марказий асаб тизими касалликлари; турли жисмоний нуқсонлар, нутқ камчиликлари, хунук ташқи кўриниш, конституциявий-соматик характердаги нуқсонлар болаларда салбий

муносабатни келтириб чиқаради ҳамда болалар ва ўсмирлар жамоаларида бегоналашувга ва яккаланиб қолишга олиб келади. Ўсмир ёшдагилар ижтимоий хавфли хулқ-атвор моҳиятини таҳлил қилганда, уларнинг деструктив ташқи муҳит таъсирига (девиант ва жиноий хулқ-атвор тажрибасига эга тенгдошлар ва катталар; медиазўравонлик ва ҳоказо) мойиллиги яққол кўзга ташланади. Кўпинча ноқулай оилавий ижтимоийлашув ва ота-оналарнинг тарбиявий лаёқатсизлиги (оилада меъёрий ахлоқий муҳитнинг йўқлиги, ота-она ва бола ўртасидаги патологик муносабатлар; ота-оналар ўртасидаги мураккаб зиддиятлар; ота-оналар ёки бошқа қариндошларнинг девиант ёхуд делинквент турмуш тарзи; болаларни ҳаддан ташқари инфантилизатсия қилиш ва уларда масъулият ҳиссини етарлича тарбияламаслик, ҳамма нарса мумкинлиги ва жазосизлик ҳиссини рағбатлантириш ва ҳоказо) учрайди. Аксарият ҳолларда билишга оид ва ижтимоий-конструктив мотивлар ҳамда қизиқишлар ривожланишининг паст даражаси кузатилади. Бу хусусият ҳам ўқишга салбий муносабатнинг, ҳам "қийин" болани ўқувчилар жамоасининг фаол, просоциал ядросига қарши қўйишнинг сабаби ва айни пайтда оқибати бўлиши мумкин. Ўсмирлик даврида деструктив хулқ-атвор хавфига психофизиологик хусусиятлар – нейрогуморал ўзгаришлар ва организмнинг бошқа биологик тизимлари етилишидаги номутаносибликлар тизимли таъсир кўрсатади. Бундан ташқари, вояга етишдаги қийинчиликлар ижтимоий-психологик зиддиятлар билан тўлдирилади (болалик ва катталик ўртасидаги оралиқ мақом, ота-она қарамоғида бўлиш билан иқтисодий мустақилликка интилиш ўртасидаги зиддият; ижтимоийлашувнинг ижтимоий-психологик механизмларидаги "оғишлар" – ижтимоий гуруҳлар билан ўзини бир деб билиш ва улардан ажралиб чиқиш, ўзлигини излаш ва ҳоказо). Ўспиринлик ёки катта ўсмирлик даври (14 ёшдан 18 ёшгача) жисмоний камолотнинг якунланиши ва яққол гиперсексуаллик, жинслараро муносабатлар муаммосига, инсоннинг интим ҳаётига қизиқишнинг кучайиши билан тавсифланади. Кўпгина йигитларни ўсмирлик давридан мерос бўлиб қолган муаммолар – ўз ёшига хос хусусиятлар, катталардан мустақил бўлиш ҳуқуқи, бўйсуниш моделининг тенглик моделига алмашинуви ва шу кабилар ҳамон кучли безовта қилади. Шу билан бирга, уларнинг олдида ижтимоий ва шахсий ўзлигини англаш вазифаси туради, бу эса катталардан автоном бўлишни эмас, балки катталар дунёсида аниқ йўналиш олиш ва ўз ўрнини белгилашни англатади. Меъёрий, муваффақиятли ижтимоийлашув шароитида бу ёшда хулқ-атворнинг ахлоқий ва ҳуқуқий нормаларини ўзлаштириш жараёни ҳам якунига етади. Шу сабабли қонунчиликда ўн тўрт ёшли ўсмирларнинг алоҳида ижтимоий хавфга эга жиноятлар учун, қолган барча жиноятлар учун эса ўн олти ёшдан жиноий жавобгарликка тортилиши назарда тутилган. Мутахассислар ижтимоий хавфли хулқ-атворга эга бўлган вояга етмаган шахсга хос асосий психологик хусусиятлар сифатида қуйидагиларни санаб ўтадилар:

- ҳуқуқий онгнинг нуқсонлилиги ва ҳуқуқий маданиятнинг паст даражаси;
- қадрият-маъно тизимидаги носозликлар;

- иродавий сифатларнинг ривожланмаганлиги, масъулиятсизлик, конформизм, бефарқлик, худбинлик, тажовузкорлик;

- ҳиссий беқарорлик, жиззакилик, юқори қўзғалувчанлик, мувозанатсизлик, ҳиссий реакцияларнинг номутаносиблиги, зиддиятларга мойиллик;

- ўз-ўзини нотўғри баҳолаш;

- дўстона ва интим муносабатларга синик, истеъмолчи-кўнгилочар тусда ёндашиш;

- характер акцентуациялари, яъни меъёрнинг патологик ҳолатлар ва психопатиялар бошланадиган ўта кескин кўринишлари.

Психологлар вояга етмаган ҳуқуқбузарларда еттита салбий руҳий ҳолатни ташхислайдилар: адоват, қониқмаслик, душманлик, қўрқув, ишончсизлик (скептицизм), ёлғизлик ва лоқайдлик. Олимлар вояга етмаган шахснинг ижтимоий хавфли қилмишлари бўйича қуйидаги типологияни таклиф этадилар:

– криминоген мотивациянинг чуқурлигига кўра: тасодифий; беқарор; барқарор;

– криминоген мотиватсиянинг йўналишига кўра: ғаразгўйлик; зўравонлик; ғаразгўйлик-зўравонлик;

– ижтимоий мавқейи, ижтимоий-демографик ҳолатига кўра: намунали оила фарзандлари;

оиласи бўла туриб, келишмовчиликлар туфайли уни тарк этганлар;

ота-онасизлар; носоғлом оила фарзандлари (ота-онанинг бири ёки иккаласи ҳам ғайриижтимоий турмуш тарзини кечиради, қашшоқликда яшайди);

ота-онаси ва (ёки) яқин қариндошлари таъсирида дайдилик қилувчилар; мигрантлар, мажбурий кўчирилганлар.

Вояга етмаганларнинг ижтимоий хавфли хулқ-атвори шаклланишида ғайриижтимоий ва аксилижтимоий болалар-ёшлар бирлашмалари алоҳида ўрин тутади. Фақатгина умумий қабул қилинган ижтимоий меъёрларга зид бўлган, уларга қарши турадиган ҳамда ўз мавжудлиги билан шахс, оила, этнос ва ҳоказоларнинг таназзулига олиб келадиган норасмий болалар-ёшлар гуруҳларигина ғайриижтимоий ва аксилижтимоий ҳисобланади. Бундай болалар-ёшлар тузилмаларининг таснифи жуда хилма-хил бўлиб, уларни қуйидагича фарқлаш мумкин:

– жиноий уюшган гуруҳлар;

– ғайриижтимоий гуруҳлар (“қимор ўйинлари” гуруҳлари; патологик бўш вақт ўтказиш гуруҳлари; психосексуал мулоқот гуруҳлари; “ўз” ҳудудини эгаллаш, ушлаб туриш ва унда ҳукмронлик қилиш гуруҳлари; безорилик гуруҳлари; умумий девиант хулқ-атвор гуруҳлари);

– жамият ва катталарга қарши норозилик гуруҳлари, ўсмирларнинг компенсатор ва гиперкомпенсатор реакциялари ҳамда шу асосдаги фаолият гуруҳлари;

– гиёҳвандлик хулқ-атворини биргаликда намоён этувчи гуруҳлар: алкоголь, наркотик, токсикоманик гуруҳлар;

– иштирокчиларнинг сотсиопатик ва психопатик мойилликларини рўёбга чиқарувчи (сублимация қилувчи) гуруҳлар (тажовуз ва зўравонликка мойиллик, тиланчилик, суитсидал хулқ-атвор);

– мактабдаги ғайриижтимоий гуруҳлар (тенгдошлар устидан ҳукмронлик, “ҳудуд”да доминантлик, мажбуран пул ундириш, ривожланаётган педагогик қаровсизлик билан боғлиқ компенсатор, гиперкомпенсатор ва норозилик хулқ-атвори, мактаб ичидаги девиант хулқ-атвор – безорилик ва ўғрилик).

Демак, ғайриижтимоий-жиноий гуруҳлар – бу ижтимоий фойдали гуруҳлар фаолиятига зид равишда, ижтимоий муносабатлар ва мулоқотда тўпланиб қолган деформатсиялар натижасида, аъзолари ўртасидаги психологик муносабатлар асосида стихияли тарзда вужудга келган норасмий бирлашмадир. Ғайриижтимоий йўналишдаги норасмий гуруҳларнинг энг яққол намоён бўладиган хислатлари қуйидагилардир:

- нигилизм, ижтимоий фойдали қадриятлар, меъёрлар, кўрсатмаларни инкор этиш, ҳуқуқий онгдаги нуқсонлар;
- ижтимоий фойдали гуруҳлар ҳаётидан бегоналашиш;
- жамоат ахлоқий ва ҳуқуқий меъёрларини бузишда ифодаланадиган жамият манфаатларини менсимаслик;
- ижтимоий-конструктив фаолиятга ва ижтимоий аҳамиятга молик қадриятларга гуруҳдан ташқарида эътиборсизлик ва бефарқлик;
- шахслараро муносабатларнинг ахлоқий таназзули, яъни ўзаро бир-бирини яшириш, сохта ўртоқлик, эгоизм ва эгоцентризмда намоён бўлиши;
- фақат утилитар манфаатлар ва эҳтиёжларни қондиришга қаратилган биргаликдаги ғайриижтимоий фаолият, муносабатлар ва мулоқотнинг мавжудлиги;
- ғайриижтимоий гуруҳ меъёрлари, маросимлари, тақиқлари ва ҳоказоларнинг амал қилиши;
- ўзгача фикрлашни истисно қиладиган гуруҳ аъзоларининг тўлиқ бирдамлиги. Ўсмир ёшдагиларининг ижтимоий хавфли хулқ-атворига оид тақдим этилган ушбу хусусиятлар тарбия ва профилактик таъсир субъектларининг тизимли фаолиятини оптималлаштириш учун муҳим аҳамиятга эга. Улар ижтимоий, тиббий, маданий-тарбиявий, педагогик, психологик, ташкилий тусдаги чора-тадбирларни оқилона йўлга қўйишга имкон беради; ўқувчи шахсига, унинг яқин атрофидагиларга, шунингдек, вужудга келган ҳаётий вазиятга таъсир кўрсатишнинг мақсадли йўналишларини аниқлаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алпатова, О. Б. Особенности работы школьного социального педагога по профилактике родительских девиаций / О. Б. Алпатова, А. С. Башкиров // Вестник экономической безопасности. — 2016. — № 3.

2. Антипина, О. В. Профилактика профессиональной деформации // Педагогика и психология в контексте современных исследований проблем развития личности : сборник материалов 12-й Международной науч.-практ. конф. (г. Махачкала, 23 октября 2016 г.). — Махачкала: Апробация, 2016. — С. 36-41.
3. Беляева, М. А. Девиантное родительство в контексте репродуктивной культуры современной семьи // Знание. Понимание. Умение. — 2012. — №3.
4. Лопашенко, Н. А. Общественная опасность преступления: понятие и критерии верификации / Н. А. Лопашенко, А. В. Голикова, Е. В. Кобзева, Д. А. Ковлагина и др. // Правоприменение. — 2020. — № 4.

SULAYMON INOYATOVICH INOYATOV HAQIDAGI UNUTILMAS XOTIRALARIM

Shaxlo Musoevna Ataullaeva
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ustoz, dono maslahatchi, ibrat maktabi hisoblaganim rahmatlik amakim Sulaymon Inoyatov shunday degan edilar: “Ota-bobolarimiz har bir o‘tgan ajdod va avlod haqida gapirganda uning yaxshi tomonlarini, xalq va Vatan oldidagi xizmatlarini aytib faxrlanar edilar. Duoga qo‘l ochib: “Ota-bobolarimizning hamisha uyg‘oq ruhi poklari barchamizga madadkor bo‘lsin va barchamizga omadlar keltirsin!” der edilar”. Haqiqatda xalq xotirasi deganda kishi ko‘z o‘ngidan Vatan ibtidosidan buguniga qadar shu yurt, shu xalq deb kurashgan, kuch-qudrati, aql-zakovatini ayamagan, kerak bo‘lsa, shu yo‘lda jon fido qilgan ne-ne buyuk zotlar bir-bir o‘tadi.

Shunday ulug‘, millatning dardiga darmon bo‘lgan, o‘z xalqini sevgan siyosatchi, davlat arbobi Fayzulla Xo‘jaev bizning avlodimiz ekanliklari butun ajdodlarimiz uchun faxr va iftixor, shuning bilan birgalikda katta bir mas’uliyat, xalqqa e’tibor, ona yurtga muhabbat hissiyotini tug‘diradi. Sulaymon Inoyatovich Inoyatov “Buxoroi sharif xo‘jalari: Usmon xo‘ja, Otaulla Xo‘jaev, Fayzulla Xo‘jaev ajdodlari va avlodlari shajarasi” nomli xotira kitoblarida Po‘latxo‘janing farzandlari –Usmon Xo‘ja va Otaulla Xo‘jaev hamda ularning bolalari, nevara va aberalari haqidagi ma’lumotlarni keltirgan. Bizning oilamiz a’zolari Otaulla Xo‘jaevlarning nevaralari ekanligimizdan o‘zimizni behad baxtiyor his etamiz va ajdodlarga munosib farzand bo‘lishga intilib kelamiz.

Men Atavullaeva Shaxlo Musaevna, Buxoro Davlat pedagogika institutining “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatmoqdaman. Uzoq yillik pedagogik faoliyatim davomida bobom va buvimlardan eshitgan xotiralarimni doimo yodda saqlayman, tarix fanidan o‘tiladigan darslarda o‘quvchilarimga esdalik xotiralar sifatida aytib berishga harakat qilaman. 1996-yilda Fayzulla Xo‘jaevning 100 yillik, 2006-yilda 110 yillik yubileylariga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiyalarda faol ishtirok etish baxtiga muyassar bo‘ldim.





Onamiz Turaeva Xolbegim Turaevnaning aytishlariga ko‘ra, bizlarning bobomiz Atoullayev Inoyatxo‘ja Po‘latxo‘janing o‘g‘illari Atoulloxo’janing o‘g‘illari bo‘lganlar. Onamiz Fayzulla Xo‘jaev Moskvada qamoqqa olingach, uning barcha oila a’zolari hibsga olinganliklari, ancha qarindoshlar chet ellarga ketib qolganligi, bobomiz Inoyatxo‘ja 5 ta farzand ya’ni, Barotxo‘ja, Hikmatxo‘ja, Chorixo‘ja, Sulaymonxo‘ja va otam Musoxo‘ja bilan qolganliklari va qattiq tazyiqlardan so‘ng, bobom ham Turkmanistonga ketib qolganligi, buvimiz 5 ta bola bilan Moxi xosadagi yerlarimizga qolganliklarini hikoya qiladilar. Dadamning onalari buvijonimiz azob chekkanlar. Yashirinib yurishga majbur bo‘lgan ekanlar. Bobom har olti oyga bir yilga bir kelib bolalarini ko‘rib, oziq-ovkat keltirib berar ekanlar. Keyinchalik Fayzulla Xo‘jaev oqlanganlaridan

keyin bobom kelib ishga kirib, Buxoroda oilalari bilan yashaganliklarini onamiz hasrat bilan eslaydilar.

Onamning xotiralaridan: (shajaraning ichida bor) Fayzulla Xo‘jayevning amakilari G‘affurxo‘janing o‘g‘illari Rayimxo‘ja. Toshkentdan doim bizning uyimizga kelganlar. O'zlari ham Toshkenda yashaganlar. U kishi Toshkentdagi katta restoranlarda katta oshpaz bo'lganlar. Uyimizga kelgan paytlari bizlarga turli xil ovqatlar qilib berardilar. 1969-yil Rayimxo‘janing nevaralarining o‘g‘illari Hayotxo‘janing o‘g‘illari Ravshanning sunnat to‘yiga biz hammamiz Toshkentga borganmiz, keyin o'sha yerda Fayzullo Xo'jayevning qizlari Viloyatxon qora Volga rusumli mashida kelganlar, kelib birinchi bo'lib bobom va onam bilan ko'rishdilar, shuningdek onam kelinlari ekanini tanishtirdilar, shundan so'ng hamma qarindoshlar bilan ko'rishib chiqdilar. O'tirganimizdan keyin boshlaridan o'tgan barcha azob-uqubatlarini, chekkan qiyinchiliklarni gapirib berdilar.

Buxoro davlar universitetida, eski shaharda, kutubxonalarda va muzeylarda bo'lib o'tgan konferensiyalarda ko'p marta qatnashganman

Onamizning hikoyalaridan xalq hech qachon yaxshi farzandlarini esdan chiqarmasligini, xalqning xotirasiz yashashi aslo mumkin emasligini his etamiz. Sharqona, sodda, eng muhimi, xalqona falsafa shuki, inson ong-tafakkuri uchun asosiy muammo – borliqning abadiyligiyu kishi umrining o‘tkinchiligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikda mujassam. Xotira – odamlarning vafotidan keyin ham bu dunyoda yashashi uchun imkon beradigan birdan-bir makon. Odamlar – ortda qolganlar xotirasida yashashga intilish ilinji kishini tarbiyalaydi. Uni ezguliklarga, kishilarning biror-bir koriga yarab qolishga, umrni zoe ketkazmaslikka undaydi. Mustaqil O‘zbekiston siyosatidagi bu falsafiylikni sezmaslik, tan olmaslik, targ‘ib qilmaslik mumkin emas.

Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Fayzulla Xo‘jayev kabi insonlarning tarixiy xizmatlarini yodga olish har jihatdan foydali bo‘ladi. Jadidlarning bizga meros bo‘lib qolgan ilm-u ma’rifatga undovchi asarlari va g‘oyalari hozirgi davr manfaatlariga hamohang bo‘lsa, ularning hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish yosh avlodning millatparvar bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



Musoxo‘ja Ataullayev turmush o‘rtog‘i Xolbegim To‘rayeva, o‘g‘li Shavkat Ataullayev, qizi Shahlo Atalullayeva bilan

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИ
(Тезислар)

Вохидов Шодмон Хусейнович,
тарих фанлари доктори, профессор.
Панжакент шаҳридаги Тожикистон педагогика институтининг илм ва инновациялар бўйича проректор.
+992 937 937 123. pamir555@inbox.ru

ФИЛОСОФИЯ ДЖАДИДИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

(Тезисы)

Вохидов Шодмон Хусейнович.

Доктор исторических наук, профессор. Проректор по науке и инновациям Таджикского педагогического института города Пенджикент. (Таджикистан)

+992 937 937 123. pamir555@inbox.ru

Аннотация. Жадидизм представляет собой философско-просветительское движение в Центральной Азии конца XIX - начала XX веков, возникшее как ответ на вызовы модернизации в условиях колониального правления Российской империи. Данная работа исследует идейные основы, социально-политический контекст и историческое значение жадидизма в формировании национального самосознания узбекского народа. Особое внимание уделяется синтезу исламских ценностей с европейским просвещением, реформам образования и роли движения в становлении современной узбекской культуры.

Ключевые слова: жадидизм, модернизация, просвещение, реформа образования, национальное самосознание, исламский модернизм, Центральная Азия, культурный синтез

PHILOSOPHY OF JADIDISM IN UZBEKISTAN

Vokhidov Shodmon Khuseynovich.
Doctor of Historical Sciences, Professor. Vice-Rector for Science and Innovations of the Tajik Pedagogical Institute in Panjakent city. (Tajikistan)
+992 937 937 123. pamir555@inbox.ru

Abstract. Jadidism is a philosophical and educational movement in Central Asia during the late 19th and early 20th centuries, emerging as a response to modernization challenges under the colonial rule of the Russian Empire. This work examines the ideological foundations, socio-political context, and historical significance of Jadidism in shaping the national identity of the Uzbek people. Special attention is given to the synthesis of Islamic values with European enlightenment, educational reforms, and the movement's role in the formation of modern Uzbek culture.

Keywords: Jadidism, modernization, enlightenment, educational reform, national identity, Islamic modernism, Central Asia, cultural synthesis

1. Тарихий контекст ва пайдо бўлиши

Жадидлар ҳаракати (арабча "жадид" - "янги") 1870-1917 йиллар орасида Марказий Осиёда, асосан ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида шаклланган. Унинг пайдо бўлиши бир қатор омиллар билан боглик:

Ижтимоий-иқтисодий шароит: Россия империясининг Марказий Осиёни босиб олиши (1860-1880 йиллар) маҳаллий жамиятнинг анъанавий тузилишига қаттиқ таъсир кўрсатди. Саноат ривожи, транспорт инфратузилмасининг пайдо бўлиши, янг ижтимоий синфларнинг шаклланиши жамиятнинг тез ўзгаришига олиб келди.

Маънавий инқироз: Анъанавий ислом таълимоти ва мадраса тизими замонавий дунёга жавоб бера олмаслиги сезиларли бўлди. Жадидлар бу инқирозни "усўли қадим" (эски усул) деб аташган ва унга "усули жадид" (янги усул)ни қарши қўйдилар.

Интеллектуал муҳит: Россия ва Туркияда таълим олган зиёлиларнинг пайдо бўлиши янги фикрларнинг тарқалишига имкон берди. Улар Ғарбнинг илмий-техник ютуғлари билан танишиб, ўз ватанларига ушбу билимларни келтирдилар.

2. Фалсафий асослар ва тамойиллар

2.1. Рационализм ва илмийлик

Жадидлар фикрининг марказий илдизи ақл ва илмга асосланган дунёқараш эди. Улар суперстиция, енгил ишонч ва ноилмий тафсирларга қарши курашди. Абдурауф Фитрат ўзининг "Мунозара" асарида (1911) мадраса ўқувчиси билан янги мактаб тарфдори ўртасидаги баҳсни тасвирлаб, илмий ёндашувнинг аҳамиятини кўрсатди.

2.2. Маданият синтези

Жадидлар Ғарбнинг илмий-техник ютуғларини бландирмасдан қабул қилиш ва уларни ислом маданияти билан уйғунлаштириш лозимлигини таъкидладилар. Улар нафақат техник ютуғларни, балки гуманитар фанларни ҳам ўрганишни тавсия этдилар.

2.3. Инсон ҳуқуқлари ва эркинлик

Жадидлар шахс эркинлиги, ақл эркинлиги ва инсон ҳуқуқларининг аҳамиятини таъкидладилар. Аёллар ҳуқуқларига алоҳида эътибор қаратилди - аёлларнинг таълим олиши, ижтимоий фаоллиги ва ҳуқуқлари ҳимоя қилинди.

2.4. Диний ислоҳот

Жадидлар исломни замонавий шароитга мослаштириш лозимлигини таъкидладилар. Улар ижтиҳод (мустақил фикрлаш) принципини қайта тиклашни талаб қилдилар ва тақлид (анъаналарга бўйсуниш)ни танқид қилдилар.

3. Таълим ислоҳоти

Жадидларнинг энг муҳим мақсади - таълим орқали жамиятни ўзгартириш мумкинлиги эди. Уларнинг таълим концепцияси бир қатар янгиликларни ўз ичига олди:

Усули жадид: Фонетик ўқиш методи, араб алифбосини соддалаштириш, ўқиш суръатини ошириш.

Дунёвий фанлар: Табиий фанлар (физика, химия, биология), математика, география, тарихни ўқитиш.

Тиллар ўргатиш: Ўзбек тилини расмий ўқитиш, рус тилини ўргатиш, чет тилларини ўрганиш.

Аёллар таълими: Аёл-қизлар учун алоҳида мактаблар очиш, аёлларнинг таълим олиш ҳуқуқини ҳимоя қилиш.

Амалий таълим: Касб-ҳунар таълими, амалий малакаларни ривожлантириш.

4. Асосий намояндалари ва уларининг ҳиссаси

4.1. Маҳмудхўжа Беҳбудий (1875-1919)

Беҳбудий жадидлар ҳаракатининг пешвоси ва назариётчиси сифатида тан олинади. У "Тараққий" газетасини ташкил этди (1906), унда жамиятнинг турли муаммолари ёритилди. Унинг "Падаркуш" пьесаси (1913) анъанавий жамиятнинг салбий жиҳатларини танқид қилди. Беҳбудий миллатчилик ва маданиятчилик концепциясини ишлаб чиқди - миллатнинг асоси унинг маданияти, тили ва адабиёти эканлигини таъкидлади.

4.2. Абдурауф Фитрат (1886-1938)

Фитрат жадидларнинг энг теран фикрловчиси ва файласуфи сифатида тан олинади. Унинг "Мунозара" асари (1911) жадидлар фалсафасининг дастлабки манбасидир. Фитрат таълим, адабиёт ва маданият ислоҳотига катта хисса қўшди. У ўзбек тили ва адабиётини ривожлантириш, уни замонавий адабий тилга айлантириш учун курашди.

4.3. Абдулла Авлоний (1878-1934)

Авлоний таълим ва маориф соҳасидаги ишлари билан машҳур. У "Туркистон вилояти газетаси"нинг муҳаррири бўлди, болалар учун адабиёт яратди. Унинг "Туркий гулистон ё худ ахлоқ" (1913) асари болаларнинг ахлоқий тарбиясига бағишланган. Авлоний "Саводхон" (Саводли) журналини ташкил этди, у орқали катта ёшдаги кишиларга савод олиш имконияти яратилди.

4.4. Мунаввар Қори (1878-1931)

Мунаввар Қори муаллим ва журналист сифатида фаолият юритди. У янги мактаблар очиш, ўқув дастурларини ишлаб чиқиш билан шуғулланди. Унинг "Тўй мажлиси" асари жамиятнинг анъанавий қадриятларини танқид қилди.

5. Ижтимоий-сиёсий фаоллик ва таъсири

5.1. Миллий ўз-ўзини англашнинг шаклланиши

Жадидлар ўзбек миллий кимлигининг шаклланишига катта ҳисса қўшдилар. Улар тил, адабиёт ва маданиятнинг миллатнинг асоси эканлигини таъкидладилар. Ўзбек тилини расмий ўқитиш, ўзбек адабий тилини ривожлантириш, ўзбек маданиятини сақлаш ва ривожлантириш уларнинг асосий мақсади эди.

5.2. Сиёсий фаоллик.

Жадидлар фақат маънавий-маданий эмас, балки сиёсий ҳаракат ҳам эди. Улар 1916 йилги қўзғолонда фаол иштирок этдилар, Россия империясининг зўравонлик сиёсатига қарши чиқдилар. 1917 йил инқилобидан кейин улар мустақил Туркистон ғоясини илгари сурдилар.

5.3. Матбуот ва нашриётнинг ривожи

Жадидлар матбуотни жамиятнинг ўзгариши учун кучилли восита сифатида кўрдилар. Улар газеталар, журналлар, китоблар нашр этишди, улар орқали ўз фикрларини тарқатишди. "Тараккиёт", "Садои Туркистон", "Саводхон" каби нашрлар жадидларнинг асосий трибунасига айланди.

6. Танқидий баҳо ва муаммолар

6.1. Ички қарама-қаршиликлар

Жадидлар ҳаракати ички қарама-қаршиликларга эга эди:

Анъана ва инновация: Жадидлар анъана ва янгилик ўртасида мувозанат топишга ҳаракат қилдилар, аммо бу ҳар доим осон бўлмади.

Диний ва дунёвий: Ислом қадриятлари билан дунёвий билимни ўзаро уйғунлаштириш муаммоси.

Элита ва омма: Жадидлар кўпинча зиёлилар элитаси билан чекланди, оммавий харакатга айлана олмади.

6.2. Тарихий чегаралар

Жадидлар фаолияти бир қатор тарихий чегараларга дуч келди:

Колониал чегара: Россия империясининг цензура ва назорати остида ишлаш.

Ички мухолифат: Анъанапарварларнинг қаттиқ қаршилиги.

Тарихий шароит: Биринчи жахон уруши, инқилоб, фуқаролар уруши шароитида фаолият юритиш.

7. Мероси ва замонавий аҳамияти

7.1. Таълим тизимига таъсири

Жадидларнинг таълим ислоҳоти замонавий ўзбек мактабларининг асосини қўйди. Уларнинг "усули жадид" методи ҳозирги кунда ҳам ўзбек мактабларида қўлланилади. Тил ўргатиш методикаси, касб-ҳунар таълими, амалий йўналиш жадидлар меросининг давомидир.

7.2. Маданият ва адабиёт

Жадидлар ўзбек адабий тилининг шаклланишига катта хисса қўшди. Улар янги адабий жанрларни (драма, повесть, публицистика) киритишди, ўзбек адабиётини жаҳон адабиёти билан боғладилар.

7.3. Миллий ўзликнинг шаклланиши

Жадидлар ўзбек миллий кимлигининг шаклланишига асос солидилар. Уларнинг тил, маданият, таълим тўғрисидаги фикрлари мустақил Ўзбекистон давлатининг маънавий асосига айланди.

7.4. Ислом ва модернизм муаммоси

Жадидлар ислом ва модернизмни ўзаро уйғунлаштириш муаммосини биринчи бўлиб кўтардилар. Бу муаммо ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган ва замонавий мусулмон жамиятлари учун долзарбдир.

8. Хулоса

Жадидлар фалсафаси Марказий Осиё тарихидаги муҳим ҳодиса бўлиб, у жамиятнинг модернизацияси, маънавий-маданий ривожи ва миллий кимлигининг шаклланишига катта хисса қўшди. Жадидларнинг асосий ётуғи - анъана ва инновацияни, ислом ва илмни, миллий ва универсални ўзаро уйғунлаштириш имкониятини кўрсатишди.

Уларнинг мероси нафақат тарихий аҳамиятга эга, балки замонавий Ўзбекистон учун ҳам амалий қийматга эга. Жадидларнинг таълим, маданият, ижтимоий-сиёсий фикрлари хозирги кунда ҳам ўзбек жамиятининг ривожи учун дарс бўлиб хизмат қилади.

Жадидлар фалсафасини ўрганиш нафақат тарихни англаш, балки келажакни куриш учун ҳам муҳимдир. У жамиятнинг ўзгариши, маънавий-маданий меросни сақлаш ва ривожлантириш, миллий кимлик ва глобаллашув ўртасидаги мувозанатни топиш йўлларини кўрсатади.

Илова: Хронологик жадвал

Йил	Воқеа	Натижа
1870	Жадидлар ҳаракатининг дастлабки шакллари пайдо бўлиши	Янги фикрларнинг тарқалиши бошланиши
1884	Исмоил Гаспринскийнинг "Таржимон" газетасининг пайдо бўлиши	Жадидлар учун намуна бўлиши
1906	Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг "Тараққий" газетасини ташкил этиши	Жадидларнинг асосий трибунаси

Йил	Воқеа	Натижа
1911	Абдурауф Фитратнинг "Мунозара" асарининг нашр этилиши	Жадидлар фалсафасининг дастлабки манбаси
1913	Абдулла Авлонийнинг "Туркий гулистон" асарининг нашр этилиши	Болалар тарбиясига оид асар
1916	Марказий Осиёда кўтарилиш	Жадидларнинг сиёсий фаоллиги
1917	Февраль ва Октябрь воқеалари	Жадидлар фаолиятининг янги босқичи
1920-лар	Совет ҳокимиятининг жадидларга қарши кураши	Жадидлар ҳаракатининг инкирози
1990-лардан	Мустақиллик йилларида жадидлар меросини қайта тиклаш	Жадидлар фалсафасининг қайта қадрланиши

SULAYMON INOYATOVNING “TEMURIY SULTON-MIRZO ULUG‘BEK BUXORODA” ASARIDA BUXORODAGI MADRALAR FAOLIYATI

Kenjayev Sardor Nurmurod o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti
ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori(PhD)

Sulaymon Inoyatov o‘zlarining “Temuriy sulton-mirzo Ulug‘bek Buxoroda” nomli asarlarida deb davomini tashlaMadrasalarninig oliy ta’lim darajasiga ko‘tarilishi Mirzo Ulug‘bek davriga to‘g‘ri keladi. Mirzo Ulug‘bekning fan-ta’lim dasturi faqatgina Samarqand bilan cheklanib qolgan emas va unda butun Movarounnahr hududida ilmiy salohiyatni ko‘tarishdek katta g‘oya ko‘zda tutilgan. Mirzo Ulug‘bek ana shu maqsadda 1417 yil Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda va 1432-1433 yillarda G‘ijduvonda ham madrasalar qurdirgan. Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasining kirish darvozasi o‘ng tabaqasining yuqorisida bitilgan mashhur hadis – «Bilim olish har bir muslim va muslima uchun farzdir» degan ilm-bilimga tashviq va targ‘ib etuvchi yozuv bitilganligi Mirzo Ulug‘bekning ta’lim tizimiga, uning o‘choqlaridan biri bo‘lmish madrasalarga alohida e’tibor qaratganidan dalolat beradi.

Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi alohida diqqatga sazovordir. Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasasi «madrasai oliya»deb atalgan. Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarrislar tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat berib, o‘z zamonasining eng ilg‘or olimlarini bu ishga jalb etgan. Madrasa ochilish kunida birinchi bo‘lib Mavlono Muhammad Xavofiy va astronom Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy kabi mashhur olimlar kirish ma’ruzasi o‘qiganlar. Qozizoda Rumiy g‘oyat yirik va atoqli olim bo‘lib, zamondoshlari unga «Aflotuni zamon» deb nom qo‘yganlar. Shuningdek, mashhur matematik va astronom G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Abduali ibn Muhammad Birjandiy, Ali

Qushchi kabi olimlar ham Ulug‘bek rahbarligi ostida astronomiya sohasida samarali ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanganlar. Mirzo Ulug‘bek davrida u asos solgan astronomiya maktabi hamda madrasasi qoshida o‘nlab alloma faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Mavlono Xavofiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi va Mavlono Isomiddinlar oliygohning yorqin yulduzlari edilar. Bu davrda Fazlulloh Abulaysiy ham faoliyat ko‘rsatgan. Shoir Abdurahmon Jomiy esa Samarqandga nafaqat ilm olish uchun kelgan, balki Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarrislik qilib, talabalarga ta’lim ham bera boshlagan.

Davlatshoh ibn Aloiddin Baxtshoh al-G‘oziy as-Samarqandiy (1435 1495) o‘zining «Tazkirat ash-shuaro» («Shoirlar tazkirasi»)da keltirgan ma’lumotlariga qaraganda, Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon Samarqandda bir oliy madrasa ham bino etdikim, afzalligi va ulug‘vorligi jihatidan unga o‘xshashi etti iqlimda ham yo‘qdir. Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ash-shuaro» asarida ma’lumot keltirilishicha, bu davrda Mirzo Ulug‘bek madrasasida 100 dan ortiq toliblar o‘qishni davom ettirib istiqomat qilganlar. Bu toliblarga Xoja Fazlulloh Abulaysiy, Ali Qushchi va Mavlono Xoja Xurdlar mudarrislik qilganlar. Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda bo‘lib, madrasada ta’lim olgan 1465-1469 yillar davomida Mirzo Ulug‘bek madrasasining yuqorida nomlari keltirilgan mudarrislaridan ta’lim oladi. Bu haqida Navoiy o‘zining «Majolis un nafois» asarida shunday yozadi: «Xoja Xurd – Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulug‘bek madrasasining mudarrisidur».

XVI asrning oxiri XVII asrning boshlaridagi Samarqand tarixini o‘z ichiga qamrab olgan asar – Amir Sayyid Sharif Roqim Samarqandiyning «Ta’rixi kasira»si («Sanalarga boy tarix»)da ma’lumot berilishicha, Mirzo Ulug‘bek madrasasi bu davrda ham faoliyatini davom ettirgan va unda mudarrislik qilgan Samarqand qozisi Soqiy Zominiy eslatib o‘tiladi. Madrasalarda, asosan, o‘rganilayotgan fanlar tarkibida ulumi naqliya (Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bog‘liq ilohiy ilmlardan tashqari dunyoviy fanlar chuqur o‘rganilar edi: tarix, adabiyot, falsafa, jug‘rofiya, aniq fanlar, tibbiyot, xattotlik san’ati, she’riyat va h.k. bo‘lgan. Lekin, ba’zi madrasalarda yo‘nalishiga qarab, jumladan, Ulug‘bek madrasasida riyoziyot, handasa, ilmi hay’at, tarix jug‘rofiya, ilmi aruz, muhandislik, arab tili va uning morfologiyasi, falsafa, mantiq fanlariga e’tibor kuchaygan. Madrasa olimlari turli fanlar bo‘yicha talabalar uchun darsliklar yaratgan. Jumladan, Alisher Navoiyning (vaf. 1501 y.) ustozi Mahdumi Mavlono Fasihiddin Muhammad an-Nizomiy (Ohund) morfologiya va sintaksis bo‘yicha o‘quv qo‘llanma yaratgan.

Volter Amir Temurning avlodlari jahon fani va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlaydi va Sohibqironning yurti kelajakda yuksak zafarlarga erishajagini bashorat qiladi: «U olim emas edi, biroq o‘z nabiralarida ilm-fanga qiziqish uyg‘otdi. Undan so‘ng Movarounnahr taxtiga o‘tirgan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi Fanlar akademiyasi ni tashkil etdi, yer yuzining koordinatlarini aniqladi, o‘z nomi bilan atalgan astronomiik jadvalni tuzdi. Bugun Samarqandda fanlar inqirozga uchragan, biroq shahar vaqti kelib yana gullay

boshlashiga ishonchim komil»[237]. Amir Temur davri davlat boshqaruv an'analariga Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Bayqaro, Bobur Mirzo va boshqa temuriy hukmdorlar amal qilib kelganlar va aynan shu tufayli davlatni ma'lum davr mobaynida boshqarishga muvaffaq bo'lganlar. Amir Temur va temuriylar davri davlat boshqaruv asoslari o'z davrining barcha jabhalarini qamrab olgan va ularga monand davlat boshqaruv yo'nalishlari belgilab olingan.

Mirzo Ulug'bek zamonida madrasasozlik ravnaq topgan. Chorbog'lar kompozitsiyasida o'rta asrlar tasavvurida jannat bog'lari g'oyasi bosh o'rin egallagan. Ko'shklar kompozitsiyasi markazida gumbazli miyonsaroy va burchaklarida kichik xonalar joylashgan[238]. Mirzo Ulug'bek 1430 yillarda Shohi Zindaga janub tomondan kirish yo'lagini tashkil qilib, peshtoq, masjid, xonaqohlardan iborat kirish guruhi inshootlarini qurgan. Qo'shgumbazli binoning ko'shk qismi vayron bo'lganligi uchun uni qayta qurib, ziyoratxonaga aylantirgan hamda qirq pillapoyali zinani bunyod ettirgan.

AN'ANAVIY O'ZBEK XALQ HUNARMANDCHILIGI JAHON ILM-FANI VA MADANIY MEROS KONTEKSTIDA

Xudaybergenov Hayitboy Satimovich
Urganch davlat tibbiyot instituti, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kirish: So'nggi yillarda an'anaviy xalq hunarmandchiligi jahon ilm-fanida madaniy meros va ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida keng o'rganilmoqda. YUNESKOning 2003 yilgi Konvensiyasida hunarmandchilik nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda, jumladan Xorazm hududida hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bois Xorazm hunarmandchiligining tarixi va ijtimoiy ahamiyatini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida xalq hunarmandchiligi, uning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini chuqur o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tashabbuslari, madaniy merosni himoya qilish konvensiyalari va global madaniyatlararo muloqot siyosati bilan bog'liq. YUNESKOning 2003 yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi"da [1] hunarmandchilik turlari

[237] Эрматов Б.С.Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар) 10.00.04 – Европа, Америка ва Австралия халқлари тили ва адабиёти филология фанлари доктори (dsc) диссертацияси автореферати . –Тошкент,2019.-19 б.**60**Voltaire. Essai sur les moeurs et l'esprit des nations et sur les principaux faits de l'histoire depuis Charlemagne jusqu'à Luis XIII. – Paris: Editions Garnier Freres, 1963.P. 809.

[238]

insoniyatning noyob madaniy bilimi sifatida tan olingan va uning saqlanishi avlodlar orasidagi bilimlar uzluksizligini ta’minlashga bog‘liqligi ta’kidlangan:

Dunyo etnologiyasi va antropologiyasida hunarmandchilik faqat bir amaliy faoliyat emas, balki millatlar madaniyati, urf-odatlari, hayot tarzi va dunyoqarashining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Masalan, Richard Sennet o‘zining mashhur “The Craftsman” asarida [2] hunarmandlikni inson mehnati, shaxsiy kamolot va madaniy o‘zlik bilan bog‘laydi:

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga qaytish jarayonida hunarmandchilik faoliyati qayta tiklandi, davlat tomonidan rag‘batlantirildi. Xususan, so‘nggi yillarda madaniy merosni chuqur o‘rganish, saqlash va jahonga tanitishda «O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish, ko‘paytirish, milliy hunarmandchilikning to‘qimachilik-gilamdo‘zlik san’atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida yoshlar, ayollar va kam ta’minlangan oilalar bandligini ta’minlash»[3] kabi qator vazifalar belgilab berilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston “Hunarmand” uyushmasi tomonidan hunarmandchilikning to‘qimachilik turi bo‘yicha xalqaro festivallar va ko‘rgazmalar Xorazm hunarmandlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Glenn Adamson esa hunarmandchilikni nafaqat tarixiy, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida ham ko‘radi, shuningdek hozirgi zamonda hunarmandchilikning faqatgina madaniy emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati borligini ta’kidlaydi. Bu fikr Glenn Adamsonning 2021 yilda chop etilgan “Craft: An American History” nomli asarida ilgari surilgan [4] Adamson ushbu asarida hunarmandchilikni nafaqat an’anaviy ko‘nikma va san’at sifatida, balki jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy va guruh identifikatsiyasi, shuningdek, madaniy merosning uzviyligini ta’minlovchi kuchli vosita sifatida baholaydi. U Amerika tarixi misolida hunarmandlarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi o‘rnini tahlil qiladi, bu tendensiya butun dunyo uchun ham universal hisoblanadi. Buning ahamiyati esa shundan iborat-ki, Xorazmdagi hunarmandchilikni o‘rganish nafaqat madaniy merosni hujjatlash, balki jamiyatni barqaror rivojlantirish, turizmni rivojlantirish, shaxsiy va milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslashda yordam beradi.

Shuningdek, jahondagi ko‘plab mamlakatlarda (Italiya, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va boshqalar) hunarmandchilik turizm, mahalliy iqtisodiyot, gender masalalari va ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Bu jarayonda hunarmandchilik obyektlari nafaqat estetik qadriyat sifatida, balki ijtimoiy kapital, madaniy identifikatsiya va tarixiy xotira bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ham hunarmandchilikning qayta rivojlanishi va uning turizm, eksport va madaniy brendlashtirish bilan bog‘liq jarayonlari jahon olimlari diqqat markaziga tushmoqda. Masalan, Z. Levin va G. Snesarev tomonidan tayyorlangan "Craft Revival in Central Asia" [5] nomli tadqiqotda shunday deyiladi: Markaziy Osiyodagi, jumladan O‘zbekistondagi an’anaviy hunarmandchilik **madaniy merosni asrash va iqtisodiy yangilanish (innovatsiya) nuqtasida joylashganini anglatadi. YA’ni bu ikki**

jarayon — madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish — hunarmandchilik orqali o‘zaro bog‘langan. Bu fikr shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyoda hunarmandchilik endi faqat an’ana va madaniyatni saqlab qolishga xizmat qilmaydi, balki Mahalliy ishlab chiqarish va bozor mexanizmlariga moslashmoqda.

Jumladan;

Turizm va eksport salohiyatini kuchaytirmoqda

Ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratmoqda

Hunarmandlarning shaxsiy brendlarini shakllantirish, raqamlashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini bermoqda

Bu — hunarmandchilikni himoya qilish va rivojlantirishni bir vaqtda amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, Xorazm viloyatida ham ushbu ikki tendensiya (an’anani saqlash va iqtisodiy faollashuv) bir vaqtda kuzatiladi, bu esa mazkur ilmiy tadqiqotni zamonaviy jahon ilmiy tendensiyalariga mos holda tadqiq qilishni talab etadi.

Shunday ekan, Xorazm hunarmandchiligining o‘ziga xos tarixi, an’anaviy bilimlari, turlari va ijtimoiy vazifalarini chuqur o‘rganish nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy doira uchun ham dolzarbdir. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar xalqaro ilmiy muhitdagi umumiy tendensiyalar – madaniy merosni himoya qilish, an’anaviy bilimlarni hujjatlash, insoniyatning noyob tajribalarini saqlash kabi dolzarb masalalarga javob beradi.

Yuqoridagi manbalarga tayanib shuni aytshimiz mumkin-ki, Markaziy Osiyo xalqlarining жумладан ўзбек hunarmandchilik an’analari bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarда alohida ўзбек hunarmandchiligi tarixini to‘liq yoritgan ishlar nisbatan kam uchraydi. Ammo yetakchi etnograf va madaniyatshunos olimlarning umumiy Markaziy Osiyo madaniyati haqidagi ishlarida Xorazm hunarmandchiligiga daxldor ma’lumotlar alohida tahlil talab qiladi. Jumladan, E. Alvort (Edward Allworth) o‘zining “The Modern Uzbeks” nomli fundamental tadqiqotida o‘zbek xalqining madaniy va etnik o‘zgarishlarini tarixiy jarayon kontekstida tahlil qilar ekan, Xorazm hunarmandchiligining XX asr davomida qanday shakllangani, ayniqsa sovet modernizatsiyasi sharoitida qanday transformatsiyaga uchraganini ko‘rsatib o‘tadi. U hunarmandchilikni milliy madaniyatning ifodasi sifatida baholab, uning tarkibidagi to‘qimachilik, zargarlik, kulolchilik kabi an’anaviy turlari qanday rivojlanganini alohida ta’kidlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.“Traditional craftsmanship is perhaps the most tangible manifestation of intangible cultural heritage… Its survival is closely linked to the transmission of knowledge and skills from one generation to the next”*(UNESCO, 2003)*

2.“Craftsmanship — the skill of making things well — stands as a counterbalance to mechanical efficiency and alienated labor”*(Sennett, 2008, p. 20)*

3.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi. 2017 yil, 9 fevral.

4 “Craft is not only a cultural expression but also a powerful economic and political force — sustaining communities, transmitting heritage, and enabling identity”*(Adamson, 2021, p. 11)*

5.Zsuzsa Levin & Gennady “SnesarevCraft Revival in Central Asia: Cultural Heritage in Transition” CHCAP (International Information and Networking Centre for Intangible Cultural Heritage in the Asia-Pacific Region under the auspices of UNESCO) 2014, p. 57

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

To‘rayeva Zarinabonu O‘ktam qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillari tahlil qilinadi. Bolalarning sog‘lom rivojlanishida ta’lim jarayoni, o‘qituvchi faoliyati, oilaviy muhit hamda jismoniy faollik muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ta’lim muassasalari va oila hamkorligining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, boshlang‘ich sinf, pedagogik omillar, psixologik omillar, jismoniy faollik, ta’lim jarayoni.

Dolzarbligi: Bugungi kunda yosh avlodni sog‘lom, barkamol va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim pedagogik vazifa bo‘lib, u bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning hayotiy ko‘nikmalari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, gigiyena qoidalariga rioya qilish va faol turmush tarziga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllantiriladi. Shuning uchun ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik va psixologik omillarni o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Mazkur tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bir qator pedagogik va psixologik omillarga bog‘liq bo‘lib, ular o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik omillar: Pedagogik omillar ta’lim jarayoni orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan metod va usullarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, o‘qituvchining shaxsiy namunasining ahamiyati katta. O‘qituvchi o‘quvchilarga

sog‘lom turmush tarzi elementlarini tushuntirishi, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarishni ko‘rsatishi hamda sog‘lom odatlarni shakllantirishga yordam berishi kerak. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslari, sport o‘yinlari va turli sog‘lomlashtiruvchi tadbirlar o‘quvchilarda jismoniy faollikni oshiradi. Bunday mashg‘ulotlar bolalarning organizmini mustahkamlash, chidamlilik va harakatchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy pedagogik omillar keltirilgan.

1-jadval. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar

Pedagogik omil	**Mazmuni**
Ta’lim jarayoni	Sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni berish
Jismoniy tarbiya darslari	Harakat faoliyatini rivojlantirish
Sport tadbirlari	Faollik va qiziqishni oshirish
O‘qituvchi namunasi	Sog‘lom odatlarni shakllantirish

Psixologik omillar o‘quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishi va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq o‘yin faoliyati orqali o‘rganadilar. Shu sababli sog‘lom turmush tarziga oid mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Bolalarda sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun rag‘batlantirish, qiziqarli mashg‘ulotlar va jamoaviy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, oilaviy muhit ham katta rol o‘ynaydi. Ota-onalar tomonidan sog‘lom turmush tarziga rioya qilinishi bolalar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni pedagogik va psixologik omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni berish, jismoniy faollikni oshirish hamda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktab va oila hamkorligi sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarziga oid tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar va sportni rivojlantirishga oid qarorlari.
2. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdurahmonov Q.X. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent, 2020.
4. Usmonov M. **Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.** – Toshkent, 2019.

THE SIGNIFICANCE AND THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN TECHNOLOGIES

Muhammad Azeem
Lecturer at the chair socio-political sciences, Bukhara state university

Abstract: In the following article the significance and the role of artificial intelligence in the development of modern technologies are reconsidered from the new technological approach

Keywords: AI, healthcare , transportation, medicine, communication, agriculture

Introduction. Today, we are going to explore a phenomenon that has become omnipresent in our contemporary discourse: Artificial Intelligence, or AI. From humble beginnings in nascent theoretical debates to its current status as a transformative force, AI has woven itself into the very fabric of our daily lives and technological advancements. Thus, the significance and role of artificial intelligence in the development of modern technologies can scarcely be overstated.

Methods. The Historical Context. To appreciate AI's current prominence, we must traverse back to the mid-twentieth century, when the concept emerged from the minds of visionaries like Alan Turing and John McCarthy. Turing, with his prophetic musings, laid the philosophical groundwork for machines that could emulate human thought. What began as mere theory has burgeoned into a sophisticated amalgamation of algorithms and computational power that fuels our devices and determines the efficiency of industries. As we navigate through this historical lens, it becomes clear that AI is not merely a tool. It is a catalyst for innovation, engendering a paradigm shift across diverse domains, from healthcare to finance, transportation to entertainment. The breadth of its applicability serves as a testament to its significance.

Transformational Applications

Results. Now, let us delve into the remarkable applications of AI that encapsulate its role in modern technology.

Healthcare. In healthcare, AI's impact is profound. Consider the advent of machine learning algorithms that analyze vast datasets to predict patient outcomes or identify diseases at their inception. Such advancements have led to a more precise and personalized approach to medicine, enhancing treatment efficacy and, ultimately, saving lives. AI-driven diagnostic tools now assist physicians in making informed decisions, thus transforming the traditional patient care model into one that is proactive rather than reactive[1].

Beyond diagnostics, AI is revolutionizing drug discovery. What once took years can now be accomplished in months due to the ability of AI to sift through molecular combinations and predict their effectiveness. This acceleration holds the promise of addressing public health crises with unprecedented agility.

Transportation. Next, let us traverse into the realm of transportation, where AI is heralding a new era of autonomy and efficiency. The rise of autonomous vehicles epitomizes this transformation. Through intricate networks of sensors and real-time data processing, AI enables vehicles to navigate safely and efficiently, potentially reducing accidents caused by human error. Further, AI optimizes traffic flow in urban environments, alleviating congestion and thereby contributing to more sustainable cities[2].

Moreover, AI algorithms are instrumental in logistics and supply chain management. They ensure that goods are transported with optimal efficiency, minimizing waste and enhancing productivity. In a world increasingly focused on sustainability, this aspect cannot be underestimated.

Communication and Entertainment. Communication, a cornerstone of human connectivity, has also been greatly enhanced by AI. Consider the algorithms that underpin our social media platforms, curating content that resonates with our preferences and interests. While this fosters a more personalized experience, it also raises ethical questions regarding echo chambers and the dissemination of misinformation, urging us to consider the responsibility that accompanies such powerful tools.

Discussion. In the realm of entertainment, AI shapes our experiences through recommendation systems that guide our choices in films, music, and literature. It enriches creativity by offering artists new avenues for expression, from AI-generated music to interactive storytelling. This symbiosis of human creativity and artificial intellect reshapes the narrative of artistic creation, expanding the horizon of what is possible.

Agriculture. Now, let us turn our attention to agriculture, another vital sector where AI is making substantial advances. Precision agriculture, fueled by AI and machine learning, allows farmers to monitor crop health and optimize resource use with remarkable accuracy. Sensors and drones equipped with AI can analyze soil conditions, pest populations, and water availability, enabling farmers to make data-driven decisions that enhance yield while minimizing environmental impact[3].

AI also plays a pivotal role in predictive analytics, helping farmers forecast weather patterns and market demand. This foresight not only aids in maximizing profits but also contributes to food security. As we confront the dual challenges of climate change and a growing global population, the role of AI in agriculture will be crucial in ensuring sustainable food production.

Ethical Considerations. However, as we celebrate AI's transformative power, we must also grapple with the ethical considerations it brings. The specter of job displacement looms large as automation becomes more prevalent. While AI enhances efficiency, we face the crucial challenge of ensuring that the workforce is equipped to adapt to these changes. Thus, education and re-skilling must occupy central roles in our discourse about the future of work.

Moreover, as AI systems learn from data, they can inadvertently perpetuate biases that exist within that data. This concern urges us to pursue transparency in the design and implementation of AI, ensuring that fairness and accountability are woven into its very architecture.

Conclusion. In conclusion, the significance and role of artificial intelligence in the development of modern technologies are profound and multifaceted. From revolutionizing healthcare and transportation to reshaping communication, entertainment, and agriculture, AI serves as a beacon.

References

1. Vinuesa, R., Azizpour, H., Leite, I., Balaam, M., Dignum, V., Domisch, S., & Nerini, F. F. (2019). The role of artificial intelligence in achieving the Sustainable Development Goals.

2. Jagatheesaperumal, S. K., Rahouti, M., Ahmad, K., Al‑Fuqaha, A., & Guizani, M. (2021). The Duo of Artificial Intelligence and Big Data for Industry 4.0: Review of Applications, Techniques, Challenges, and Future Research Directions.

3. Huynh‑The, T., Pham, Q.-V., Pham, X.-Q., Nguyen, T. T., Han, Z., & Kim, D.-S. (2022). Artificial Intelligence for the Metaverse: A Survey.

4. Mohamed, S., Png, M.-T., & Isaac, W. (2020). Decolonial AI: Decolonial Theory as Sociotechnical Foresight in Artificial Intelligence

5. Yakovleva, E. A., Vinogradov, A. N., Aleksandrova, L.V., & Filimonov, A. P. (2023). Роль технологий искусственного интеллекта в цифровой трансформации экономики [The Role of AI Technologies in the Digital Transformation of the Economy]. Вопросы инновационной экономики, 13(2), 707–726.

6. Kalmuratov, M. T., & Baynazarov, A. Y. (2025). Роль и применение искусственного интеллекта в телекоммуникациях [The Role and Application of AI in Telecommunications]. Innovations in Science and Technologies.

IJTIMOIY DAVLATDA INSON QADRI MUAMMOLARI IJTIMOIY-FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TAHLIL)

Shirinov Anvar Qanoatovich
Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi – har bir fuqaroning hayot sifatini oshirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy himoyasini ta’minlashdir. Bunda inson qadri – davlat siyosatining markazida turadi. Inson qadri, uning huquqlari va erkinliklari nafaqat Konstitutsiyada, balki xalqaro huquq normalarida ham mustahkamlangan. Ularning yechimi nafaqat davlat siyosatiga, balki jamiyatning barcha qatlamlariga bog‘liq. Shu bois, bu maqolada ijtimoiy davlatda inson qadri muammolarini tahlil qilish, ularning sabablari va yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit sozlar: Ijtimoiy davlat, kambag’allikka qarshi kurash, inson kapitali

Kirish. Ijtimoiy davlat va inson qadri tushunchasi. Ijtimoiy davlat – bu fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga, ularning ijtimoiy farovonligini oshirishga majbur bo‘lgan davlat shaklidir. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifalari quyidagilar: Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish; Sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy ta’minot tizimini rivojlantirish; Nogironlar, pensionerlar va muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash; Teng huquqlikni ta’minlash va kamsitishni oldini olish. Inson qadri esa shaxsning huquq va erkinliklari, hayot sifati va sha’nini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy davlat shaxsning qadri va huquqlarini himoya qilishni asosiy maqsad qilib oladi. Inson qadri muammolarining asosiy sabablari. Bugungi ijtimoiy davlatlarda inson qadri bilan bog‘liq bir qancha muammolar mavjud. Ularning asosiy sabablari quyidagilar:

Metod. Iqtisodiy notenglik – daromadlar farqi, ish o‘rinlarining yetishmasligi va kambag‘allik inson qadri muammolarining asosiy omili hisoblanadi.

Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar – sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlarning yetishmasligi shaxsning rivojlanishi va hayot sifatini pasaytiradi;

Huquqiy himoya zaifligi – fuqarolar huquqlarining to‘liq himoya qilinmasligi, korrupsiya va byurokratiya inson qadri muammolarini kuchaytiradi;

Ijtimoiy siyosatning samarador emasligi – muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada ishlamasligi.

Natijalar. *O‘zbekistonda kambag‘allikni tugatish.* Kambag‘allikni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilash bugungi kunda Uzbekistan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda davlat tomonidan kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ayniqsa Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar bilan bog‘liq.

Kambag‘allik tushunchasi. Kambag‘allik – bu insonning normal hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlardan yetarli darajada foydalana olmasligidir. Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy muammo, balki ijtimoiy tengsizlik va inson qadri bilan bog‘liq masala hamdir. O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish siyosati. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha quyidagi asosiy yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda:

1. Bandlikni oshirish. Ish o‘rinlarini yaratish kambag‘allikni kamaytirishning eng muhim usullaridan biridir. Davlat kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga katta e’tibor qaratmoqda. Masalan: imtiyozli kreditlar ajratish: oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash; kasb-hunar o‘rgatish markazlarini tashkil etish.

2. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”. Ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarni aniqlash uchun maxsus tizimlar joriy etilgan. Bu tizimlar orqali kambag‘al oilalar aniqlanib, ularga: moddiy yordam; ishga joylashish imkoniyati; tadbirkorlik uchun kreditlar beriladi. Mazkur daftarlarni integratsiya qiluvchi *Ijtimoiy karta* 2024yilning dekabr oyidan boshlab yangi tayinlangan 9 turdagi ijtimoiy to'lovlar oluvchi shaxslarga taqdim etilmoqda[1]

3. Ta’lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirish. Kambag‘allikni kamaytirishda ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Bunda: kasb-hunar maktablari ochilmoqda; bepul kasb o‘rganish kurslari tashkil qilinmoqda; yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish dasturlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

4. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik. Kambag‘allikka qarshi kurashishda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi: World Bank kambag‘allikni tahlil qilish va iqtisodiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlashda yordam bermoqda; United Nations Development Programme esa ijtimoiy rivojlanish va barqaror taraqqiyot loyihalarini amalga oshirmoqda.

5. Kambag‘allikni tugatishning muhim omillari. O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi: iqtisodiy o‘sishni ta’minlash; yangi ish o‘rinlari yaratish; sifatli ta’limni rivojlantirish; ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish; tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.

Muhokama. Ijtimoiy davlatda inson qadri muammolarini hal qilish uchun quyidagi yo‘llar mavjud:

▪*Iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish.* Ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni kamaytirish; Mehnat huquqlarini himoya qilish, adolatli ish haqi tizimini ta’minlash; *Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish*: Sifatli ta’lim tizimi orqali fuqarolarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish; Tibbiy xizmatlarni aholining barcha qatlamlari uchun mavjud qilish; *Huquqiy tizimni mustahkamlash.* Fuqarolarning huquqlari himoyasini ta’minlash; Korrupsiyaga qarshi samarali choralar ko‘rish; *Ijtimoiy siyosatni takomillashtirish.* Nogironlar, pensionerlar va muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash; Kamsitishga qarshi ijtimoiy kampaniyalarni olib borish.

Xalqaro tajriba va samarali usullar. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda inson qadri muammolarini hal qilish bo‘yicha samarali tajribalar mavjud: Skandinaviya davlatlarida kambag‘allikni kamaytirish va ta’lim-sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshiriladi. Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlarda ijtimoiy himoya tizimi barcha fuqarolarni qamrab oladi va inson qadri muammolari minimal darajada bo‘ladi. Bu tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish ijtimoiy davlatda inson qadri muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Jürgen Habermas (1929-2026) ijtimoiy adolat masalasini zamonaviy falsafada chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. U ijtimoiy adolatni asosan muloqot, demokratiya va fuqarolarning teng ishtiroki orqali ta’minlash mumkin deb hisoblaydi. Habermasning fikricha, adolatli jamiyatda qarorlar kuch yoki manfaat asosida emas, balki erkin va oqilona muloqot (diskurs) orqali qabul qilinishi kerak. Habermasning ijtimoiy adolat haqidagi asosiy g‘oyalari. 1. Diskurs etikasi. Habermasning eng muhim nazariyalaridan biri — *Discourse Ethics*. Bu nazariyaga ko‘ra, adolatli qarorlar barcha manfaatdor tomonlar erkin va teng muloqot qilganida yuzaga keladi. Asosiy tamoyillari: Har bir inson fikrini erkin bildirish huquqiga ega; Hech kim majburlash yoki bosim ostida bo‘lmasligi kerak; Qarorlar umumiy manfaatni hisobga olgan holda qabul qilinadi [2].

▪ Kommunikativ harakat nazariyasi. Habermas ijtimoiy adolatni tushuntirishda The Theory of Communicative Action asarida ishlab chiqqan kommunikativ harakat nazariyasiga tayanadi. Bu nazariyaga ko‘ra: Jamiyatdagi kelishmovchiliklar muloqot orqali hal qilinadi; Haqiqiy demokratiya fuqarolar o‘rtasidagi ochiq muloqotga asoslanadi; Adolatli jamiyatda davlat va fuqarolar o‘rtasida ishonch bo‘ladi.

▪ Jamoat maydoni (Public Sphere). Habermas ijtimoiy adolatni ta’minlashda The Structural Transformation of the Public Sphere (1964) asarida “jamoat maydoni” tushunchasini ilgari suradi. Jamoat maydoni – bu: fuqarolar erkin fikr almashadigan; davlat siyosatini muhokama qiladigan; jamiyat muammolari ustida bahs yuritadigan ijtimoiy makondir. Bu maydon qanchalik ochiq va erkin bo‘lsa, ijtimoiy adolat shunchalik mustahkam bo‘ladi.

▪ Demokratiya va huquqiy davlat. Habermas ijtimoiy adolatni demokratik huquqiy davlat bilan bog‘laydi. Uning fikricha: qonunlar fuqarolar ishtirokida shakllanishi kerak; davlat qarorlari ochiq va shaffof bo‘lishi zarur; Fuqarolik jamiyati faol bo‘lishi adolatni ta’minlaydi.

Xulosa. Habermas ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy tenglik bilan emas, balki muloqotga asoslangan demokratiya orqali tushuntiradi. Uning fikricha, jamiyatda har bir inson erkin fikr bildirishi, qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi va davlat siyosatini muhokama qilish imkoniga ega bo‘lsa, ijtimoiy adolat yuzaga keladi. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi – inson qadrini hurmat qilish va uning hayot sifatini oshirishdir. Bugungi kunda iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy muammolar bu maqsadga erishishni qiyinlashtirmoqda. Biroq samarali ijtimoiy siyosat, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, huquqiy himoyani mustahkamlash orqali inson qadri muammolari sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin. Shuning uchun har bir davlat va jamiyat a’zosi inson qadri muammolarini yechishda faol rol o‘ynashi lozim. Shu orqali ijtimoiy davlat g‘oyasi nafaqat qonuniy, balki amaliy jihatdan ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/docs/-7283178 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 27 dekabrdagi 897-son “Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda “Ijtimoiy karta” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori

2. Jürgen Habermas, translated by Thomas Burger. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society. MIT Press, -Cambridge, Massachusetts. P. 301

AHMAD YASSAVIY VA SHAMS O‘ZGANDIY HIKMATLARIDA ZIKR TALQINI

Murodova Gulchehra Azamat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti,
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi Ahmad Yassaviy va Yassaviy maktabi izdoshi Shams O‘zgandiy hikmatlaridagi zikr halqasi bilan bog‘liq qarashlar tahlil qilingan hamda Shamsiddin O‘zgandiy hikmatlari Yassaviy asos solgan ma’naviy-badiiy an’ananing izchil davomi ekanligi asoslangan.

Tayanch tushunchalar: osiy, malomat qilish, zikr halqasi, ilohiy qahr, ilohiy lutf, jazba, fano.

Ma’lumki, Turkiy adabiyotda tasavvuf ta’limotining shakllanishi hamda rivojlanishida Ahmad Yassaviyning o‘ziga xos o‘rni bor. Yassaviy tariqatining asosini insonning ruhiy poklanishi, halollik hamda Allohni qalban anglash g‘oyalari tashkil etadi. Mazkur ta’limot g‘oyalari shoirning sodda, xalqona hikmatlari bilan keng tarqalgan. Aytish lozimki, tasavvuf adabiyotining shakllanishi hamda taraqqiy topishida Islom ahkomlarini xalqqa yetkazish hamda Qur’on va hadislarning mazmun-mohiyatini sharhlashda hikmatlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ahmad Yassaviy hikmatlari xalq orasida juda mashhur bo‘lganligi bois keng tarqalgan. Yassaviy maktabi ijodkorlaridan biri Shams O‘zgandiy bo‘lib, Po‘latjon Domulla Qayumovning “Tazkirayi Qayumiy” asarida shoir haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ushbu shayxning asli Farg‘ona vodiysining O‘zgand shaharidan bo‘lib, nomi Shamsiddin ekanligi, u o‘z ismini qisqartirib taxallusiga olganligini qayd etadi. Po‘latjon domla Shams O‘zgandiyning Xoja Ahmad Yassaviyning muridi ekanliga alohida ahamiyat qaratib, uning she’rlaridan parcha keltiradi:

Shayxning kim debon kelsa qulog‘img‘a sado
Qutbi jahon Sayid Ahmad ayo hazrat Shayximdur..... [1;89-b.]

Ahmad Yassaviy hamda Yassaviy maktabi shoirlari ijodida ham zikr halqasi ilohiy haqiqatga yetishishning muhim nuqtasi sifatida talqin qilingan. Qolaversa, Yassaviy maktabi shoirlarining ijod namunalarida zikr nafaqat, ibodat shakli, balki ruhiy kamolot bosqichlarini ifodalovchi ramziy jarayondir. Shamsiddinning “Bu halqaning ichinda” radifli hikmati ham Yassaviy boshlab bergan bu an’ananing yorqin dalilidir.

Oshiq kerak cholinsa, bu halqaning ichinda
Alloh teyu cholinsa, bu halqaning ichinda [2;30-b.]

Mazkur baytda muridning ongli ravishda zikrga kirishi, tili hamda qalbini Alloh nomiga yo‘naltirishi hamda tariqat yo‘liga qo‘yiladigan qadam sifatida ko‘rish mumkin. “Alloh teyu cholinsa” iborasida zikr shakli lafziy bo‘lib, murid o‘zini

anglagan holda ruhiy holati ongli ibodatga yo‘naltirgan bo‘ladi. Yassaviy hikmatlarida esa ushbu holat quyidagich talqin qilinadi:
Oshiqlari o‘ynasa bu halqaning ichinda,
Hu-hu teyu jon bersa bu halqaning ichinda. [3; 297-b.]

Ushbu baytda qo‘llangan “hu-hu” Allohning zot ismi bo‘lib, jon berish- jismoniy o‘lim emas, aksincha, nafsdan kechish, ya’ni fanofilloh maqomidir. “Hu-hu teyu jon bersa” iborasida zikr shakli vujudiy bo‘lib, murid jazba holatida, o‘zidan kechadi. Hikmatlarda takrorlanib keladigan “bu halqaning ichinda” iborasi oddiy jumla emas, albatta. Halqa bu yerda ma’naviy makon ma’nosida qo‘llangan. Bu halqaga faqatgina chin oshiq, ya’ni Alloh ishqida kuygan kishi munosib. Alloh nomi bilan boshlangan harakat haqiqiy zikr demakdir. Hikmatning birinchi baytidayoq tasavvuf yo‘liga kirgan solikka halqaga kirish sharti qo‘yilmoqda. Qur’oni karimning “Ankabut” surasida quyidagi jumla keltiriladi: “…Albatta, Allohning zikri (barcha narsadan) ulug‘dir”. [7; 401-b.]

“Yassaviya tariqatida jahriy zikr ijro etiladi. Zikr chog‘ida darvishning tomog‘idan arraning sasi kabi ovoz chiqqani uchun yassaviya zikriga “zikri arra”, “zikri minshoriy” deyiladi. Bu zikr quyidagich ijro etiladi: darvish ikki qo‘lini tizzasi ustiga qo‘yib, nafasini qorniga chiqarib, “ha” deb, yana qorni tomondan nafas olib, bosh, bel, yelka qimirlamagan holda “hayy” deydi va zikr shu tarzda davom etadi. [4; 107-b.]
Ushbu holat Yassaviyona uslubda quyidagi tarzda ifodalangan :
Ishq o‘tig‘a qaynasa, aql-u hushi o‘ynasa,
Alloh teyu jon bersa bu halqaning ichinda[3; 297-b.]

Shamsiddin:

Ishq o‘tig‘a qaynasa, aqlu hushi o‘ynasa
Hoyu hu teyu o‘ynasa bu halqaning ichinda[2;30-b.]
Misrada qo‘llanilgan ishq o‘ti bu-tasavvufdagi jazba holatidir. Ishq kuchaygan sari aql ojizlanadi hamda solik jazba holatida bo‘lishi ifodalangan.“Hoyu hu” tasavvufiy zikr nidosi bo‘lib, Allohni doimiy yod etishdir. Bu nido zikrning qadimiy shakllaridan bo‘lib, “Vahdat ul vujud” g‘oyasiga ishora qiladi. Bu holat solikning o‘z “men”idan kechib, Haq bilan ruhiy yaqinlashuvini anglatadi.
Shamsiddin hikmatining 3-baytidan o‘rin olgan:
“Yod bahriga cho‘msam man, na’ra faryod ursam man,
Hoyu hu teyu o‘lsam man, bu halqaning ichinda” [2;30-b.]
bayti Yassaviy hikmatlarida quyidagicha ifodalangan:
“Ishq bahrig‘a cho‘msam men nola-faryod qilsam men,
Hu-hu teyu o‘lsam men, bu halqaning ichinda**”** [3; 297-b.]
Yod bahri bu baytda Alloh zikrining tuganmas ummoni bo‘lib, bu ummonga tushgan yo‘lovchi o‘zini unutadi, na’ra-faryod esa – jazba alomati.
Zokir qullar, jam o‘lub yodin aytur jon urub,
Soqiy kezar o‘grilub, bu halqaning ichinda[2;31-b.]
Shamsiddin hikmatidagi ushbu bayt Yassaviy she’rida quyidagicha keltirilgan:
Zokir qullar jam’ bo‘lub, faryod urub, jon uzub,
Soqiy yurar o‘rgulub bu halqaning ichinda. [3; 297-b.]

Ikkala misra ham bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin bo‘lishiga qaramay, ayrim so‘zlardagi g‘oyaviy va badiiy ta’sir kuchi bilan farqlanadi. Har ikkala misrada ham tasavvufiy yig‘in - zikr halqasi tasviri keltirilgan bo‘lib, bu yerda “zokir qullar” – haqni zikr qiluvchi darveshlar, “halqa”- ruhiy birlik ramzi, “soqiy” ilohiy ishq tarqatuvchi timsoldir. Shams O‘zgandiy hikmatlarida keltirilgan *“jam o‘lub yodin aytur jon urub”* jumlasida zikr jarayonining nisbatan sokin, ichki iztirob bilan kechishiga ishora qilinmoqda. *“Soqiy kezar o‘grilub”* jumlasida esa soqiyning harakati yashirin, sokin, go‘yo pinhona tarzda kechayotgandek ifodalangan. Bu yerda ruhiy holat ichki yonish, botiniy iztirob tarzida ifodalangan. *“Yodin aytur” jumlasi sokin zikr qilishga ishora bo’lib,”Jon urub” iborasida esa - jon kuydurish ma’nosi anglashiladi.*

Yassaviy hikmatida esa “*Jam bo‘lub, faryod urub, jon uzub”* jumlasida - zikr kuchli holatga yetganidan darak beradi. *“Soqiy yurar o‘rgulub”* – soqiyning harakati oshkora va jo‘shqin tarzda ifodalangan. “Faryod urub” – jo‘shqin zikr bo‘lsa, ”Jon uzub”- hushdan ketish darajasidagi ishqni ifodalaydi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, Yassaviy hikmatida ruhiy kechinma ifodasida ta’sirchanlik yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Bu ikki misra aslida **bir ruhiy jarayonning ikki bosqichi** sifatida talqin qilinishi mumkin: Shamsiddin hikmatida bu zikr bilan boshlanadigan suluk yo‘liga ishora bo‘lsa, Yassaviy she’rida jazba bilan yakunlanadigan fano holati talqinidir.
Shamsiddin O‘zgandiyning “ichinda” radifli hikmati quyidagicha yakunlanadi:

Hal raavniy mujdasin eshitib Haqdin Shamsiddin
Jon o‘ynag‘il bad az in bu halqaning ichinda[2;31-b.]

Bu yerda qo‘llanilgan “Hal raavniy” mujdasining lug‘aviy ma’nosi - “Meni ko‘rdingizlarmi?” Misrada asosiy urg‘u ushbu mujdaga qaratilgan bo‘lib, Haqdan kelgan ushbu xabarni eshitib, ruhiy jazba holatida bo‘lishga ishora qilinmoqda. Ushbu misrada ishq bilan bog‘liq ruhiy holat, ya’ni jazba va fanoda bo‘lishlik nazarda tutilgan.

Ahmad Yassaviyning yakunlovchi baytiga e’tibor qaratsak:

Toliblarni murshidi, Qul Xoja Ahmad deb aydi,
Bosh o‘ynag‘il sen deydi bu halqaning ichinda. [3; 297-b.]

Ushbu baytda asosiy e’tibor murshidga qaratiladi. Ya’ni murshidning toliblarga yo‘l ko‘rsatuvchi, zikr majlisini boshqaruvchi jihatlari yoritilgan. “Bosh o‘ynag‘il” iborasi taslim bo‘lish, itoat, bo‘ysunish ma’nosini anglatadi. Bu baytda tariqat intizomi, murshidga bog‘lanish (irshod bosqichi) yuksaklikka ko‘tarilganligini alohida ta’kidlash lozim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turkiy tasavvuf adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an’anasi muhim o‘rin tutadi. Yassaviy yaratgan ma’naviy maktab nafaqat diniy-axloqiy qarashlarni xalq ongiga singdirgan, balki tasavvufiy tafakkurning badiiy ifoda shaklini ham mustahkamlab bergan. Uning hikmatlari orqali tasavvuf g‘oyalari xalqona til, sodda ifoda va obrazli tasvir vositasida ommalashdi hamda keng qatlamlarga yetib bordi.

Shamsiddin O‘zgandiy hikmatlarini tahlil qilish natijasida u Yassaviy maktabining bevosita davomchisi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning munojot

ruhidagi hikmatlari, banda va Haq o‘rtasidagi munosabatni tavba, iltijo, umid va rahmat tushunchalari orqali talqin etishi Yassaviyona an’ananing uzviy davomidir. Ayniqsa, “Yo Rabbano” mazmunidagi hikmatlar o‘zaro qiyoslanganda, g‘oyaviy mushtaraklik, tasavvufiy istilohlarning uyg‘unligi hamda ruhiy kechinmalarning ifodalanish uslubida yaqinlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, zikr halqasi tasviri har ikki shoir ijodida markaziy timsollardan biri sifatida talqin etiladi. “Halqa” obrazi jismoniy makondan ko‘ra, ma’naviy birlik, jazba, irshod va fano maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Yassaviy hikmatlarida zikrning jo‘shqin, jazbali va fano maqomiga olib boruvchi holati kuchli ifodalansa, Shamsiddin hikmatlarida zikr jarayoni ko‘proq ichki iztirob, botiniy yonish va sokin ruhiy kechinma orqali tasvirlanadi. Bu esa tasavvufiy tajribaning turli bosqichlarini sulukdan jazbagacha bo‘lgan ruhiy kamolot jarayonini aks ettiradi. Ishq timsolining talqini ham har ikki ijodkorda tasavvufiy ma’no kasb etadi. “Ishq o‘ti”, “Hoyu hu”, “Hu-hu” kabi obraz va zikr shakllari orqali solikning o‘z “men”idan voz kechishi, nafsni yengishi va Haq bilan ruhiy yaqinlashuvi ifodalanadi. Bu jihatdan Shamsiddin O‘zgandiy hikmatlari mazmunan Yassaviy ta’limotiga tayanadi, biroq badiiy ifoda va ruhiy tasvirlarda o‘ziga xos ohang ham seziladi.

Umuman olganda, Shamsiddin O‘zgandiy hikmatlari Yassaviy asos solgan ma’naviy-badiiy an’ananing izchil davomidir. Ular orqali tasavvufiy tafakkurning asosiy tushunchalari - tavba, zikr, ishq, jazba, fano, rahmat va lutf g‘oyalari badiiy ifodasini topgan. Bu esa Yassaviy maktabining turkiy adabiyot tarixidagi o‘rni mustahkam va barqaror ekanini, uning ta’siri keyingi asrlarda ham davom etganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий I. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998.
2. Boqirg‘on kitobi. O‘zR FASHI: Toshbosma, inv. №288.
3. Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Умринг елдек ўтаро. Нашрга тайёрловчилар: Ҳаққул И, Ҳасан Н. – Тошкент: Муҳаррир, 2020.
4. Усмон Т. Тасаввуф тарихи. – Тошкент. Истиқлол, 1999.
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поетикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. Mustafa Sever. BAKIRGAN KITABI. – Ankara: Aren Tanıtım hizmetleri, 2018.
7. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: “Мунир”, 2021.

QADIMIY TURKIY BITIGLARDAGI TINCHLIK G‘OYASI: TO‘NYUQUQ BITIGIDA TINCHLIK G‘OYASI MAZMUN-MOHIYATI

Sharipov Dilshod Baxshilloevich
Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Turkiy xalqlarning bizning davrgacha yetib kelgan ko‘hna yozma manbalari har xil toshlarga yozilgan bitiglardir. Ularning eng ko‘lamdori va har xili Urxun bitiglaridir. Urxun daryosi bo‘yida 1889 yilda rus olimi N.Yadrinsev boshchiligidagi ekspeditsiya dastlab bu yozuvlarni Mo‘g‘ulistondan topadi, lekin ularni daniyalik olim V.Tompson[1] ilk marta o‘qiy oladi.

Dastlabki bitig To‘nyuquq bitigi bo‘lib, To‘nyuquq ikkinchi turk hoqonligining asoschisi Eltarish hoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo‘lgan, unga atab 712-716 yillarda[2] ushbu bitig bitilgan. Bitig To‘nyuquqning jasorati, donoligi, tadbirkorligi va xalqini dushmandan himoya qilishi va g‘alabasiga bag‘ishlangandir, hattoki, bitigda “...Tangri bilim bergani uchun faqat o‘zim hoqonni qo‘lga oldim...”[3], deyilgan. Bu bitig ko‘proq *jangnoma shaklida* bo‘lib, hozirgi Mo‘g‘uliston hudidan toki Markaziy Osiyogacha va shu orqaliqdagi Tabg‘ach, o‘n o‘q, qirg‘iz kabi etnoslariga, shimolda Xitoyni bosib olgan. U haqda aytilgan “hoqoni bahodir, maslahatchisi alloma ekan”[4], degan gaplarni ham keltirib o‘tgan. Tabg‘achga qarshi o‘n yetti marta, Qitaniylarga qarshi yetti marta, O‘g‘izga qarshi besh marta urush qilgan.

“Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish. Ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish”[5] kabi o‘z davrining dono fikrlari keltirilgan.

To‘nyuquq bitigi dushmandan ogohlikni va yurtning tinchligini jang orqali himoyat qilishda ko‘rgan, masalan, Inol hoqon To‘nyuquqqa shunday degan: “Dushman keladigan bo‘lsa, bahodir yigitlarni yig‘ va dushmanni o‘ldir. Kelmaydigan bo‘lsa, til tutib ma’lumot olib tur, dedi”[6].

Shuningdek, To‘nyuquq bitigda “Eltarish hoqonga, Turk Bo‘g‘u hoqonga, Turk Bilga hoqonga xizmat qildim, tun uxlamay, kunduz o‘tirmay, qizil qonimni tugatib, qora terim yugurtib, mehnatni, kuchni berdim, axir, men o‘zim uzoqlarga bosqin uyushtirib turdim. Qo‘ng‘ir qo‘y, oq otni katta qildim. Bosib olishga urinadigan dushmanni poymol qilar edim”[7], deyilgan.

To‘nyuquq bitig xulosasida “Eltarish hoqon va dono To‘nyuquq muvaffaqiyat qozongani uchun Qanag‘an hoqon, Turk sir xalqi yurgan bu davlat yashab turibdi. Turk Bilga hoqon Turk sir xalqini, o‘g‘uz xalqini tarbiyat qilib turibdi”[8], deyilgan. Bu bilan biz turkiy xalqlarning tinchligini ta’minladik va ularni osoyishta saqlab, tarbiya qildik, deyilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, qadimgi yunon donishmandlari asarlarida davlat, “boshqarish san’ati”, ya’ni siyosatga ta’luqli ish, deb bilishgan bo‘lsa, qadimgi bu turkiy bitiglarga ko‘ra, davlat “jangni yoki dushmanni boshqarish san’ati” tarzida tezislanishi mumkin, lekin har ikkalasida ham jang oqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT

– UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 16-17-betlar.
2. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 17-bet.
3. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 187-bet.
4. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 18-bet.
5. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 17-18-betlar.
6. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 20-bet.
7. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 21-bet.
8. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 22-bet.

АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ “РАҲБАРИ НАЖОТ” АСАРИДА ҲАЛОЛ РИЗҚ МАСАЛАСИ

Юнусова Г.С. – БухДТУ профессори, ф.ф.д.

Инсоният тараққиётида касб-кор, илм-маърифат орқали ҳалол яшаш масаласи барча замонларда улуғланган. Хусусан Шарқ халқлари тарихида инсон камолотида ҳалол касбу кор билан тирикчилик қилиш масаласи долзарб мавзулардан бўлган. Зеро инсон иқтисодий етуклигини таъминлайдиган соҳа – бу касбу корга эга бўлиш, бу йўлда маърифат ҳосил қилиб ўз соҳасининг билимдони бўлиш талаб этилган.Ўрта Осиё халқлари тарихида жадидчилик

ҳаракати намояндаларининг асарларида бу масалага алоҳида эътибор қаратилган. «Маърифатпарвар аждодларимизнинг мероси бугун биз қураётган ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамияти учун пойдевор бўлиб хизмат қилиши табиий», — деди Шавкат Мирзиёев.Чунки ёшларимизнинг илғор мамлакатларнинг тажрибаларидан баҳраманд бўлиб янги ўқиш усулидан баҳраманд бўлишлари учун биринчи ташаббусни кўтариб чиққан айнан жадид боболаримиздир.

Абдулла Авлонийнинг тарбия хусусидаги фикрларига эътибор қаратсак айнан саодат, ҳалокат, нажот ёки мамот ёхуд ҳаёт масаласи эканлигини таъкидлаганларидан англаш мумкинки, келажагимиз бўлган ёшлар боқимандаликдан йироқ, ўз келажагини бугундан бошлаб мустаҳкам пойдевор устига қурадиган бўлишлари кераклигини орзу қилган.

Юртбошимиз 2023 йилнинг 22-декабрида қилган мурожаатида «Бу кимгадир ёқадими ёки йўқми, халқимиз жадид боболаримиз кўрсатиб берган йўлдан оғишмай бориши керак. Чунки уларнинг ғоя ва дастурлари янги Ўзбекистонни барпо этиш стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоҳангдир»[239], — деди у. Айнан жадидларнинг ғоя ва дастурларини ўз даврида халқимиз тарихида иккинчи ренессанс бўлиши мумкинлигини эътироф эиб, уларнинг маънавий меросини жиддий ўрганишимиз зарурлигини таъкидлаган эдилар.

Шу мақсадда биз Бухоро халқининг етук фарзанди жадидчилик ҳаракатининг забардаст вакили Абдурауф Фитратнинг “Раҳбари нажот” асарига мурожаат этдик. Унда шундай фикрларни ўқиймиз: “Ислом дини сарватга эришиш учун ҳар кимга бир йўл кўрсатган у ҳам бўлса саъйи-ҳаракатдир. Таъмагирлик ва ниқобланган гадойчиликни ислом дини манъ этган.

Шу ерда ҳам Имом Муслим ва Имом ал-Бухорийлар тўплаган ҳадислардан мисол келтирамиз: “Нафсим унинг қудрати қўлида бўлган Зот билан қасамки, бировнинг сиздан арқон олиб, ўтин териб, уни орқалаб келиб сотгани одамлардан нарса талаб қилганидан яхшироқдир”. “Агар гадойликнинг гуноҳ эканлигини билганингизда эди, гадойлик қилмас эдингиз”. “Менга одамлардан нарса талаб қилмайман, деган аҳдни берган одам учун мен ҳам жаннатни ўз зиммамга оламан”[240]. Эътиборли жиҳати шундаки, ҳеч бир касбу корни бошини тутмаган инсон ҳеч бўлмаса ўтин йиғиб сотса ҳам ҳалол ризқ талабида юрган бўлади ва бу ҳаракати унинг жаннат сари ҳаракати сифатида баҳоланишини жадид бобомиз бир ҳадис мисолида таъкидлаб ўтган.

Зеро инсон умрининг охиригача илм-маърифатга интилиб, касб ёки ҳунарга эга бўлиши унинг бекорчилик ёхуд гадойлик қилиб нон топишидан афзалроқ экан. Чунки гадойлик барча таълимотлар ғояларида қораланган. Энг қадимги динлардан бўлган зардуштийликда ҳам бу иллат қораланган. Абдурауф Фитрат айнан шу борада:”Энди биз гадойликнинг ҳаром эканлигини тушуниб етганимиздан кейин, сарват ҳосил қилиш учун ҳам муносиб ва

[239] https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/

[240] А.Фитрат.Раҳбари нажот. Тошкент 2001. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти 132-бет

шаръий мумкин бўлган йўл борлигини билиб олишимиз керак-ки, бу йўл саъй-ҳаракат йўлидир. Бу йўлни иқтисодиёт лафзида санъат, деб аташ мумкин.

Инсоният оламида бу хилдаги санъатнинг етти тури мавжуд: 1) ихрож (ер ости бойликларидан фойдаланиш) санъати; 2) зироат санъати; 3) аъмол (касбу кор); 4) тижорат; 5) нақлиёт саъати; 6) турли хил санъатлар; 7) шахсий хизматлар”[241]. Яъни бу йўл билан тирикчилик қилишни санъат дея таърифлаган Фитратнинг ҳар бир санъат турига таъриф бериши диққатга сазовордир.

“Маъданлардан фойдаланиш санъати. Бугунги кунда башарият оламининг асосий қисми фойдали қазилмаларни топиб, уларни керакли равишда ишлатиб, шунинг орқасидан кун кечириб келмоқда. Масалан, нефть (лампа мойи) бутун дунёнинг ҳар бир чеккасида ишлатилади, тошкўмир эса ҳар бир маданийлашган мамлакатга зарур: оташаравалар, кемалар,фабрикалар шу неъмат соясида ишлайди. Инглиз давлати ўзидаги бойликларини ана шу икки маъдан: темир ва тошкўмир орқали қўлга киритган. Ҳатто, инглиз давлатининг жаҳонгирлиги ҳам шу тошкўмир маъдани сабаблидир”[242].

Ушбу ўринда таъкидлаш жоизки, ризқ талабида қилинган ҳар қанақа меҳнат ҳалолдир, фақат ўғрилик ва фоҳишаликдан бошқа. Албатта ўзи Ҳожилик мақомига ёш бўлишига қарамй эришган Абдурауф Фитрат миллатимиз ёшларини ҳалол яшашга даъват этган. Бугунги кун нигоҳи билан қарайдиган бўлсак, айрим боқиманда ёшлар пул топиш мақсадида ижтимоий тармоқларда сохта эълонлар орқали, ўзи соғлом бўлишига қарамай (уни тўшакка михланган ҳолда кўрсатиб) халқдан хайрия қилишликни сўраб, унинг ортидан каттагина даромад олаётганлар ҳам йўқ эмас. Афсуски, бу иллат гадойликнинг замонавий кўриниши бўлишлиги билан бирга, боқимандаликни тарғиб этиши ҳам эҳтимолдан холи эмас. Ўз даврида бундай иллатларни қоралаган жадид маърифатпаравари Абдурауф Фитрат ёшларимизни хорижий мамлакатларда ўқишларини орзу қилган. Ўзи янги усулдаги мактаблар очилишига бош-қош бўлиш мақсадида Ёш бухороликлар, “Чиғатой гурунги” каби гуруҳларни тузиб миллат фидоийси сифатида саҳнага чиққан.

Ва яна асарнинг давомида Фитрат гадойлик қилиш кимларга мумкинлигини диний нуқтайи назардан қуйидагича асослаб берган: “Эй, мусулмонлар, гадойлик уч тоифа кишиларга ҳалол қилинган.Биринчиси амри хайр, солиҳ амал учун одамларнинг ёрдамига муҳтож бўлса. Одамлардан нарса, пул талаб қилиб, етарли миқдорни йиғиб бўлгач, ўша савоб ишга сарфлаб, кейин гадойликни тарк этса. Иккинчи тоифадаги одамнинг мол-мулки талон-тарож қилинган бўлса, у фақат зарурият чегарасида гадойлик қилиши мумкин. Учинчи тоифадаги одам ниҳоятда фақир бўлса ва қавмидан уч киши унинг фақирлигига гувоҳ бўлса, унга ҳам гадойлик ҳалол қилинган. Эй, мусулмонлар шу уч хил гадойликдан бошқаси ҳаром ва унинг соҳиби ҳаромхўр ҳисобланади”. “Ҳар ким мол йиғиш ниятида гадойлик қилса, унинг

[241] Ўша манба
[242] Ўша асар 133-бет

шу йўлга топган моли хоҳ кам, хоҳ кўп бўлсин, қиёматда оташга айланиб унга азоб беради”[243].

Бугунги кунда гадойчилик қилишнинг виртуал кўриниши ҳам кенг тарқалиб кетяпти. Афсуски кимларнингдир оғир аҳволидан фойдаланишга уринаётган нокаслар сохта ва ёлғон хабарлар тарқатиб одамлардан хайрия қилишга даъват этиш баҳонасида бойликка эришаётганлар ҳам йўқ эмас. Бу ҳолат жамият учун хавфли иллат бўлиб, келгусида боқимандалик каби зарарли одатни келтириб чиқариши мумкин. Биз ёшларимизни тўғри йўлга солиш учун энг аввало ҳалолни ҳаромдан фарқлашни ўргатишимиз керак. Бу ўз навбатида келгусида уларнинг тўғри ҳаётий позициясини танлашда муҳим мезон бўлади.

Ушбу мақолада биз инсонни иқтисодий етукликка ундаш мақсадида ўз ризқини ҳалол меҳнат билан топиш нақадар олий бахт эканлигини уқтириш билан бирга, гадойлик қилиб юрган инсонларга қараганда билиб-билмай нотўғри баҳо беришдан сақланишни сўраган бўлардик. Гарчи, ҳар бандanинг ўз ҳақиқати бўлганидек, шу ишга мажбур бўлган инсонларнинг айбини ошкор этиш орқали шармандайи шармисор этиш бандасининг иши эмас. Энг аввало танаси соғлом, ақли етук бўлган ҳар бир инсон саломатлигига шукр қилиб, ризқини меҳнат орқали топиши энг тўғри йўлдир. Зеро ҳалол меҳнат қилиб ризқ-рўзи орқали фарзандлар камолини кўзлаган ота-оналар энг аввало фарзандлар қалбида шукроналик туйғусини сингдира олади.

ZAMONAVIY TA’LIMDA TIL VA ADABIYOT INTEGRATSIYASINING O‘RNI

G‘ulomova Hilola Shavkatovna
BuxDTU mustaqil izlanuvchisi
Buxoro shahar 28-umumiy o‘rta ta’lim maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va adabiyot fanlari o‘rtasidagi integratsiyaning mazmuni va mohiyati yoritilgan. Til bu jamiyatimizdagi muloqot va tafakkur vositasi, adabiyot esa – badiiy tafakkur mahsuli ekani ta'kidlanadi. Fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning til boyligi, estetik didi, tahliliy fikrlashi yanada rivojlanadi. Dars jaryonida foydalanish metod va usullaridan foydalanish, til va adabiyotning o‘rgatilishi ta'lim sifati va tarbiyaviy ahamiyatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: Til, adabiyot, muloqot, jamiyat, talim, tafakkur, tarbiyaviy ahamiyati, tahliliy fikrlash, estetik did,badiiy adabiyot, integratsiya.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-sonli

[243] Ўша манба

farmonida[1] ta’lim sifatini oshirish, oliy va umumiy o‘rta ta’lim tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajriba va interfaol metodlarni tatbiq etish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Xususan, mazkur strategiyada ta’lim samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Hozirgi zamon ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiya muhim o‘rin tutmoqda. Integratsiya — bu turli fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’lim jarayonida uyg‘unlashtirish, bir-birini to‘ldiruvchi bilimlarni yagona tizimda shakllantirishdir. Til va adabiyot fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish esa o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tahliliy fikrlash, estetik idrok va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Til — bu tafakkur va muloqot vositasi, adabiyot esa shu til orqali inson ruhiyatini, milliy qadriyatlarni badiiy ifodalash san’atidir. Shu sababli bu ikki fan bir-biridan ajralmasdir. Ularni uyg‘un holda o‘qitish nafaqat o‘quvchining bilimini mustahkamlaydi, balki ona tili imkoniyatlarini chuqurroq anglash va milliy adabiy merosni teran his qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, tafakkurini rivojlantirish va o‘rganilayotgan materialning hayotiy ahamiyatini ochib berish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Til va adabiyot integratsiyasi ayniqsa, ona – tilini chuqur o‘rganish hamda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Integratsiyaning mohiyati: Til va adabiyot bir -birini to‘ldiruvchi, ajralmas fanlardir. Til fikrni ifodalash vositasi bo‘lsa, adabiyot – bu vosita orqali estetik mazmun, ijtimoiy-gumanistik g‘oyalarni ifoda etish shaklidir. Ularning integratsiyasi, avvalo, o‘quvchilarda nutq madaniyati, obrazli tafakkur, matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Til adabiyotning asosiy materiali hisoblanadi. Adabiyot esa tildan badiiy va estetik maqsadlarda foydalanadi. Shu sababli ularni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish tabiiy ehtiyojdir. Masalan, o‘quvchi Alisher Navoiy g‘azallarini o‘rganar ekan, shu asarlardagi so‘z tanlovi, ibora, majoz va tildagi nozikliklarni ham anglaydi. Bu esa tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikning integratsion nuqtasini belgilaydi.
Integratsiyaning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda:
-til va adabiyotni uyg‘un o‘rganish orqali nutq madaniyati shakllantirish;
-badiiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish;
-milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy va mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.
Til va adabiyotni integratsiyalashgan holda o‘qitishning amaliy tajribalari
Dars jarayonida integratsiya shakllari
Integratsiya turli usullar orqali amalga oshiriladi:
1. Mazmuniy integratsiya — bir mavzu doirasida ikki fan elementlarini uyg‘unlashtirish (masalan, “so‘z ma’nosi” mavzusini adabiy matn asosida o‘rganish).
2. Faoliyatli integratsiya — o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish (masalan, asar tahlilidan so‘ng matndan olingan so‘zlar bilan insho yozish).

3. Texnologik integratsiya — zamonaviy axborot vositalari (multimedia, interaktiv platformalar) yordamida til va adabiyotni bog‘lash.
Dars misollarida integratsiya:
- Til darsida adabiy misollar: “Ot” mavzusini o‘tayotganda Oybekning “Bolalik” asaridan olingan parchalarni tahlil qilish orqali o‘quvchining til bilimini badiiy matn bilanmustahkamlash.
- Adabiyot darsida til tahlili: Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi metafora va epitetlarni grammatik jihatdan o‘rganish.
- Ijodiy ishlar: o‘quvchilardan o‘rganilgan adabiy asar asosida kichik esse yoki hikoya yozish talab qilinadi.
Integratsiyaning o‘quvchi tafakkuriga ta’siri
Til va adabiyotni birgalikda o‘qitish:
- o‘quvchining tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
-nutq boyligi va badiiy ifodani kuchaytiradi;
-o‘quvchini ijodiy fikrlashga undaydi;
-milliy identitetni shakllantiradi.
Bugungi kunda integratsiyalashgan ta’limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:
- Klaster metodi – til va adabiyot elementlarini g‘oyaviy bog‘liqlik asosida guruhlash.
- Insert metodi – matn bilan ishlashda o‘quvchi o‘z fikrini belgilovchi belgilar orqali ifodalaydi.
- Blits-so‘rov – asar tahlilida tilshunoslik va adabiyotshunoslik savollarini aralashtirib berish.
- Raqamli integratsiya – elektron darsliklar, audio-asarlar, videodarslar orqali o‘quvchini faol jalb etish.
Zamonaviy ta’limda integratsiyaning o‘rni
Integratsiya o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki:
- o‘quvchi mavzuni turli nuqtai nazardan o‘rganadi;
- fanlararo tafakkur shakllanadi;
- o‘qituvchining faoliyati ijodiy tus oladi;
- ta’lim jarayoni mazmunan boyiydi.

Til va adabiyot- har bir mamlakatning ma'naviy boyligi,tarixiy xotirasi va madaniy hayotning ajralmas qismidir. Ta’limdagi o‘rni va afzalliklari:
1.Lingvistik bilimlarni amaliyotda qo‘llash: O‘quvchilar adabiy matnlarni o‘rganish jarayonida grammatik bilimlarini mustahkamlashadi.Masalan, murakkab gaplar tuzilmasini tahlil qilishda adabiy tahlil yordamida mantiqiy bog‘liqlikni tushunish osonlashadi.Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish:
Til va adabiyot birgalikda o‘rganilganda o‘quvchilar fikrni ifodalash, muhokama yuritish, bahs qilish kabi ijtimoiy – ko‘nikmalarni egallaydi.Amaliy yondashuvlar, adabiy matn asosida til darslarini tashkil etish,integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.Masalan: AlisherNavoiy, Abdulla Qodiriy, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning asarlari grammatik tahlil bilan uyg‘unlashtirib o‘rganilsa, til va adabiyot mazmunan birlashadi. Shuningdek, adabiyot darslarida fonetik, leksik,

morfologik tahlil unsurlarini kiritish mumkin. Integratsiya orqali adabiyot darslari faqatgina asar mazmunini yod olish emas, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganiladigan, murakkab va ko‘p qatlamli tahlil maydoniga aylanadi.

Misol uchun, asardagi obrazlar nutqining stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, dialoglarning
sintaktik qurilishini o‘rganish yoki muallif tilining o‘ziga xosliklarini aniqlash orqali o‘quvchi
nazariy til bilimini badiiy tahlil bilan bog‘laydi. Bu jarayon o‘quvchilarda quyidagi konikmalarni
shakllantiradi:

1. Analitik fikrlash – Adabiy matndagi til vositalarini aniqlash va ularning vazifasini tushunish.
2. Ijodiy yozish – O‘z fikrini ifodali, mazmunli va badiiy uslubda bayon etish.
3. Estetik did – Matnning badiiy qiymatini anglash,go‘zallikni sezish va qadrlash.
4. Interaktiv o‘rganish — Guruhda ishlash, matn ustida fikr almashish, bahsli savollarga javob topish.

Shuningdek, til va adabiyotning uyg‘unligi o‘quv jarayoniga jonlilik olib kiradi. Masalan, darsda adabiy obrazlar tilidagi emotsional ifodalarni muhokama qilish, muallif uslubini boshqa yozuvchilar uslubi bilan solishtirish, til vositalari orqali muayyan davr yoki muhitni tasvirlash kabi mashg‘ulotlar o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Metodik jihatdan, integratsiyalashgan darslarda quyidagi shakllardan foydalanish samarali boladi: Matn asosida grammatika: Asardagi gap tuzilmasi, zamonlar yoki so‘z yasalishiga oid topshiriqlar. Badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish: Tashbeh, epitet, metafora, personifikatsiyalarni aniqlab, ularning tasirini baholash. Insho va esse yozish: Organilgan asar asosida shaxsiy fikrlarni tahliliy tarzda ifodalash. Bunday yondashuv talim jarayonini biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali va tizimli qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchining til va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi, ularni o‘qishga, fikr yuritishga va mulohaza qilishga undaydi. Til va adabiyot fanlarini uyg‘un holda o‘qitish zamonaviy pedagogikaning samarali yondashuvlaridan biri sifatida o‘zini oqlamoqda. Bunday integratsiya o‘quvchini fikrlashga, tahlil qilishga, shuningdek, til imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yo‘naltiradi. Xulosa

Til va adabiyotni o‘qitishda integratsiya — zamonaviy pedagogikaning muhim talabi hisoblanadi. U o‘quvchilarni faqat bilim egallash emas, balki fikrlash, his qilish va ijod qilishga o‘rgatadi. Bunday yondashuv orqali:
-o‘quvchilar tilni amaliy va estetik jihatdan chuqurroq o‘zlashtiradilar;
-adabiyot darslari hayotiy mazmun bilan boyiydi;
-milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Shunday qilib, til va adabiyot fanlarining integratsiyalashgan holda o‘qitilishi o‘zbek ta’lim tizimida ijodkor, madaniyatli, milliy g‘ururga ega, keng tafakkurli shaxsni tarbiyalashning muhim kafolatidir.
Demak, bu yondashuv orqali o‘quvchi estetik did, nutq madaniyati va mustaqil fikr bildirish konikmasini shakllantiradi.Amaliy jihatdan qaralganda, integratsiyalashgan darslar murakkab bilimlarni yengilroq va mazmunli tarzda

o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol va ongli ishtirokchiga aylantiradi. Kelajakda ona tili va adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurlashtirish, ularni o‘zaro to‘ldiruvchi vosita sifatida metodik jihatdan takomillashtirib borish dolzarb vazifalardan biridir. Shu yo‘l bilan talim jarayoni yanada mazmunli, samarali va hayotiy bolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, 08.10.2019 yil. PF-5847-son. Toshkent sh. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/-4545884. (murojat sanasi: 12.03.2025).

2.AbduazizovA.A. Ona-tili va adabiyot darslarining zamonaviy texnologiyalari,Toshkent,2020.

3.A. Yuldasheva. Nutq madaniyati va adabiy til,Toshkent, 2016.

4.Hasanboyeva M. Adabiyot o‘qitish metodikasi, Toshkent, 2018.

5.Karimov R. Zamonaviy dars: shakl va usullar, Samarqand, 2020.

6.Mamarasulova G‘.Til va adabiyot integratsiyasi: nazariya va amaliyot, Andijon, 2021.

7.Nurmonova D. O‘quvchilarda ifodali nutqni shakllantirish.Buxoro, 2020

ЖАДИДЧИЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ТУРКИЙ МУСУЛМОН ЎЛКАЛАР ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

Жанылсын Айтмуратова
Қорақалпоқ давлат университети

XIX асрнинг иккинчи ярми туркий мусулмон жамиятлари учун тарихий синовлар даври бўлди. Мустамлакачилик сиёсати, иқтисодий қарамлик ва илмий-техник тараққиётдан орқада қолиш миллий тараққиётнинг секинлашувига сабаб бўлди. Шу шароитда ижтимоий фикрда ислоҳотчилик ғоялари кучайди ва жамиятни модернизация қилиш зарурати кун тартибига чиқди. Жадидчилик ана шу тарихий эҳтиёж маҳсули сифатида пайдо бўлиб, у аввало таълим тизимини янгилаш орқали жамиятни ислоҳ қилишни мақсад қилди. Бироқ ҳаракатнинг эволюцияси унинг фақат педагогик ислоҳот доирасида қолмаганини кўрсатади. XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда миллий озодлик ҳаракатлари жадидчилик тарихини ўрганишга маҳаллий тарихчи олимлар салмоқли ҳисса қўшдилар. Шу боис Д.А.Алимованинг тадқиқотлари, айниқса, унинг Туркистон жадидчилигининг атоқли намояндалари ижтимоий-сиёсий фаолиятига бағишланган ишлари

алоҳида аҳамиятга эга.[244]. Д.Алимованинг «История как история, история как наука. Феномен Джадидизма»[245] номли асарида Ўзбекистонда биринчи марта миллий тараққиёт ҳаракатининг аҳамияти ва унинг Марказий Осиё халқлари тарихида тутган ўрни комплекс тарзда ўрганилган, XIX асрнинг 50-60 йилларидаги Туркистон ўлкасида ижтимоий ҳаётни ислоҳ қилишнинг ҳақиқий тарафдорларидан бири машҳур маърифатпарварлардан Аҳмад Дониш, шоирлардан Муқимий, Фурқат, Бердақ, Завқий, Баёний, Аваз Ўтар ўғли (Утар) лар ўз шеърларида халқни илм олишга ва маърифатга чорладилар. Абай ва Чўқон Валихонов каби демократик ғояларни эгаллаган мутафаккирлар нафақат таълимни ёпиқдан олиб чиқиш, балки туркий халқларнинг бирлашишини кўра билдилар. Шу асосда жадидлар ўсди. [246.10]

Жадидчилик тараққиётининг сиёсий босқичи С.С.Аъзамхўжаев тадқиқотлари учун объект бўлди. [247]. Туркистонда биринчи миллий демократик давлатчилик Туркистон мухториятининг тузилиш тарихини ўрганар экан, муаллиф ўлка мусулмонларининг бирлашиш жараёнларини кенг кўрсатади, бунда жадидларнинг ўрни ва ролини белгилаб беради.

Р.М.Абдуллаев[248] ишларида "Падаркуш," "Ғайрат," "Тараққийпарвар," "Баракат," "Шўрои Исломия" каби ташкилотларнинг шаклланиши ва фаолияти янги манбалар асосида ўрганилган. Д.Х.Зиёеванинг тадқиқотларида кенг кўламли материаллар асосида маърифатпарварларнинг Туркистондаги 1916 йилдаги қўзғолонига бўлган муносабатларига баҳо берилади[249]. С.Холбоев томонидан Мунаввар Қорининг маърифий ва сиёсий фаолияти, Ўрта Осиёда

[244] Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустакиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Тошкент: Фан, 1996. С. 8-20; Усы автор. Мозий истиқлолнинг тарозиси // Туркистон. 1996, 21 апрель; Усы автор. Ҳақ олинур, берилмас // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1997, 14 февраль; Усы автор. Бухара конца XIX – начала XX века и зарождение джадидизма // ОНУ. Ташкент, 1997. № 9-10-11. С. 81-93;

[245]Алимова Д. История как история, история как наука. Т. II. Феномен джадидизма. Ташкент: Узбекистан,

[246] Алимова Д.А. История как история, история как наука/ Д.А.Алимова; науч.ред. Р.М.Абдуллаев; Ин-т истории АН РУз.- Ташкент: «Узбекистан», 2009. 10-бет

[247] Аъзамхўжаев С.С. Шўрои Исломия асли қандай эди? // Фан ва турмуш. Тошкент, 1992. № 5-6. Б. 18-19; Усы автор. Туркистон бирлиги учун. (Мустақиллигимиз тарихидан саҳифалар). Тошкент: Фан, 1995. 16 б.; Усы автор. Туркистон мухторияти. Тошкент: Фан, 1996. 60 б.; Усы автор. Из истории борьбы за автономию Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан... Б. 21-33; Усы автор. Туркистон мухторияти жадидлар миллий-демократик давлатчилик ғояларининг амалдагиифодаси // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш... Б. 152-173; Усы автор. Туркистон мухторияти. Тошкент: Маънавият, 2000; Усы автор. История Туркестанской Автономии (Туркистон Мухторияти). Ташкент: Тошкент ислом университети, 2006. 268 с.

[248] Абдуллаев Р.М. Туркестанские прогрессисты и национальные движения // Звезда Востока. Ташкент, 1992. № 1. С. 106-113; Усы автор. Общероссийские политические организации Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан ... С. 39-51; Усы автор. Интеграционные процессы в мусульманском мире и Туркестанские джадиды // Жадидчил к: ислоҳот, янгиланиш, мустакиллик ва тараккиёт учун кураш ... С. 69-82. С. 107. Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальные движения... стр 107

[249] Зияева Д.Х. Мустақиллик учун курашнинг ўқилмаган саҳифалари // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан... Б. 64-75; Усы автор. Туркистон миллий озодлик ҳаракатида зиёлиларнинг Ўрни // Марказий Осиё XX аср бошида: ... Б. 102-106; Усы автор. Туркистонда халқ ҳаракатлари ва жадидлар. (1916 йил воқелари мисолида) // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустакиллик ва тараққиёт учун кураш... Б. 146-151.

олий таълим тизимининг вужудга келиши ва ривожланишида жадидларнинг роли кўрсатиб берилди. [250].

ЎзРФА Тарих институти томонидан "Жадидчилик: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш" номли жамоавий монографиянинг нашр этилиши миллий маърифатчилик ҳаракати тарихини ўрганишга катта ҳисса қўшди.[251]. Ушбу тадқиқотларда Ўрта Осиёда жадидчиликнинг пайдо бўлишидан бошлаб, унинг сиёсий ҳаракат сифатида шаклланиши ва ривожланишига қадар эволюцияси янги тарихий материаллар асосида таҳлил қилинган. [252]. Жадидчилик тарихига оид масалалар Н.А.Мустафоева,[253] А.М. Худойқулов[254], Т.Н. Козаков[255], К.А. Воҳидова[256], Д.Н. Ражабова[257], М.У. Қаюмов[258], Д.М. Кенжаев[259] ва Р.Н. Турсуновларнинг[260] тадқиқотларидан тадқиқ этилган. Бул изертлеўлер соны көрсетеди Россия империясы ҳүкимранлығы дәўиринде жәрияланған жумыслар совет социялистлик дүзим. Жадидларнинг олиб борган сай харакатлари сабабли адамларнинг онгида юз берган ижобий узгаришлар урганилган. Жадидчиликнинг назарий-ғоявий асослари миллий маънавий мерос, ислом маърифатпарварлиги ва замонавий илм-фан ютуқларини уйғунлаштиришга қаратилган эди. Ҳаракат вакиллари анъана ва замонавийлик ўртасида мувозанатни сақлашга интилдилар. Улар жамият тараққиётининг асосий шарти сифатида билим ва маърифатни кўрдилар. Бу ёндашувда таълим нафақат билим бериш, балки фуқаролик онгини шакллантириш воситаси сифатида талқин қилинди. Жадидлар томонидан ташкил этилган янги усул мактабларининг ташкил этилиши жадидчилик ҳаракатининг энг муҳим амалий натижаси бўлди. Ушбу мактабларда дарс бериш методикаси ўзгарди, арифметика, география, табиатшунослик каби фанлар ўқитила бошланди.

[250] Холбоев С. Мунаввар Қори // Мулоқот. Тошкент, 1997. № 1. Б. 24-25; Усы автор. Туркистоннинг буюк уйғониши // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1999, 9 август; Усы автор. Жадидларнинг мустамлака совет тузуми давридаги фаолияти ва тақдири // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустакиллик ва тараккиёт учун кураш... Б. 201-216; Усы автор. Миллатимизнинг маънавий отаси // Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавхалар). Тошкент: Шарқ, 2001. Б. 5-20; Усы автор. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. Тошкент: Шарқ, 2003. 128

[251] Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш... 218.

[252] Алимова Д.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури // Жадидчи лик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш... С. 37; Прилуцкий Е.А. Запад и Восток в философских и теоретических концепциях джадидов // Ўша жойда. С. 59-60.

[253] Н.А.Мустафаева XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур тарихшунослик таҳлили. Тошкент “Navróz”-2014.133 бет.

[254] Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX- нач. XX вв.).: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1994. 24 с.

[255] Козаков Т.К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001. 24 с.

[256] Вахидова К.А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно-историческое наследие.: Автореф. дисс.. канд. ист. наук. Ташкент, 2002. 25 с.

[257] 3 Ражабова Д.Н. Проблемы молодежи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX началоXX вв.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2003. 28 с.

[258] Қаюмов М.У. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошида Хива хонлигида ижтимоий-сиёсий жараёнлар.:Тарих фан. ном.... дисс. Тошкент, 2006. 150 в.

[259] Кенжаев Д.М. Исламские ценности в воззрених джадидов и их концепция духовного реформирования общества.: Дисс. кан. ист. наук. Ташкент, 2007. 154 л.

[260] Турсунов Р.Н. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга миллий тараккийпарвар-ларнинг карашлари.: Тарих фан. ном.... дисс. Тошкент, 2006. 146 в.

Таълим мазмунининг янгиланиши жамиятда янги интеллектуал қатламни шакллантирди. Бу қатлам кейинчалик сиёсий ва ижтимоий ислоҳотлар ташаббускорига айланди.

Жадидлар матбуотни ижтимоий онгни уйғотишнинг энг самарали воситаси деб билдилар. Газета ва журналлар орқали таълим, иқтисод, сиёсат ва маданиятга оид масалалар кенг муҳокама қилинди. Матбуот фаолияти жамиятда танқидий фикрлашни ривожлантириб, ижтимоий жараёнларга нисбатан фаол муносабат шаклланишига туртки берди. Туркистон жадидчилик ҳаракати таълим ислоҳотидан бошланиб, ижтимоий ва сиёсий мазмун касб этди. Янги усул мактабларининг очилиши маҳаллий зиёлилар фаоллигини оширди. Вақт ўтиши билан мазкур ҳаракат давлат бошқарувини модернизация қилиш, қонун устуворлигини таъминлаш ва миллий манфаатларни ҳимоя қилиш каби сиёсий мақсадларни илгари сурди.

Жадидчилик ҳаракати сиёсий модернизация ғоясини илгари сурди. Бу ғоя марказлашган бошқарув тизимини ислоҳ қилиш, вакиллик органларини шакллантириш ва жамоатчилик назоратини кучайтиришни назарда тутар эди. Шу тариқа, жадидчилик миллий давлатчилик ғоясининг назарий асосини шакллантиришга хизмат қилди. Таҳлил натижаларига кўра, жадидчилик туркий мусулмон жамиятларида модернизация жараёнининг илк босқичини ташкил этди. У таълим ислоҳоти орқали ижтимоий трансформация механизмини ишга туширди. Ҳаракатнинг босқичма-босқич ривожланиши-маърифий ислоҳотдан сиёсий ҳаракатгача бўлган йўл – унинг тарихий аҳамиятини белгилайди. Жадидчилик тажрибаси шуни кўрсатадики, билим ва маърифатга асосланган ислоҳотлар жамиятни узоқ муддатли тараққиёт сари етакловчи асосий омилдир.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING BUXORODA BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARNI JORIY QILISHDAGI O‘RNI (1920-1924-YILLAR)

Elova Dilnoza Davlatovna
BuxDU tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1920 – 1924 yillari BXSRda bosmaxona va nashriyot rivojiga xizmat qilgan yangi texnikalar va asbob – uskunalar haqida manbalar tahlili orqali ilmiy mushohada yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается научный дискурс путем анализа источников о новых методах и оборудовании, послуживших развитию полиграфии и издательского дела в БХСР 1920 – 1924гг.

Summary: In this article, the article deals with the scientific observation through the analysis of sources about new techniques and equipment that served the development of printing and publishing in the Bxsr 1920 – 1924 years.

Tayanch tushunchalar; Xattot, bosmaxona, nashriyot, elektro – litotipografiya, elektr asbob uskunasi, sinkografiya, musulmon shrifti, shkif, amper, ot kuchi, mashina, matbuot, kitob bosish.

Кючевые слова: Каллиграфия, типография, издательство, электролитотипография, электроинструмент, синкография, мусульманский шрифт, шкаф, ампер, лошадиная сила, машина, пресса, печать иностранных книг.

Key words: Hattot, printing house, publishing house, electro – lithotypography, electrical equipment, sinography, Muslim shrift, bookcase, Ampere, horsepower, machine, press, foreign book printing.

O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan hayotning barcha jabhalaridagi islohotlar mamlakatimizni iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalishi uchun mustahkam asos yaratmoqda. Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan kashfiyotlar sirasiga texnika sohasidagi ixtirolarning o'rni va roli beqiyos. Jamiyat taraqqiyotining uzluksiz yuksalib borishini texnik o'zgarishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy majlis deputatlariga murojaat qilar ekanlar, O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri yurtimizga faol investitsiyalar va ilg'or texnologiyani joriy etishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratdilar.

O'rta Osiyo mintaqasida xonliklar hukmronlik qilgan XVI –XIX asr birinchi yarmida uzoq vaqt qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo – sotiq tarmoqlarida an'anaviy kirimitiv mehnat qurollari, texnik vositalar, transport vositalari (ot, tuya, xachir) kabilardan foydalanib kelinganligi ham jahon taraqqiyoti karvonidan orqada qolishimizga sabab bo'lgan.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixidan ma'lumki, bosmaxonalar paydo bo'lguniga qadar kitoblar qo'lda ya'ni xattotlar tomonidan yozilgan. Bitta kitobni yaratish uchun uzoq muddat talab qilinib, unga xattotdan tashqari muqovasoz, sahhof, lavvoh, charmsoz kabi ko'plab mutaxassislarning mehnati singgan. Tosh bosmaxonalar vujudga kelishi bilan kitob bosma holatda nashr etilib, varaqa, plakat, taklifnoma kabilar ham shu bosmaxonalarda bosilgan. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tosh bosmaxonalar Sharq mamlakatlaridan Turkiya (Usmoniylar saltanati), Eron va Misrga nisbatan ilgari paydo bo'lib, Turkistonga ulardan 50 yillar keyin kirib kelgan. Xiva xonligiga litografiya (toshbosmaxona) 1874 yilda Erondan kirib kelgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1864-1910 yy) toshbosmaxonani Erondan sotib olgan va xonlikda minglab kitoblar chop etilishiga imkon yaratgan.[261] Tadqiqotchi M.Z.Orziyevning yozishicha, Buxoro amirligida birinchi xususiy toshbosmaxonalar 1884-1886 yillarda tashkil etilib, mullo Muxsin, Mulla Ahmad, Hoji Azimboy kabi savdogar va sayyohlar tomonidan toshbosma Buxoroga keltirilgan. Keyinchalik, 1894 yilda Yangi Buxoro (Kogon)da Levin bosmaxonasi ochilgan bo'lsa, 1901 yilda Obidjon Mahmudov bosmaxonasi mavjud

[261] Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent- 2005. –B .16.

bo’lgan.[262] Buxoro amirligida birinchi hukumat bosmaxonasi 1917 yil apreldagi amir manifestidan keyin ochilib, qisqa muddat ya’ni 1917-yil bahoridan 1918 yil mart oyi davomida (Kolesov voqeasi) ga qadar mavjud bo’lgan. Amirlik eski bog’i o’rnida mavjud bo’lgan ushbu bosmaxona 1920 yil kuziga qadar xaroba holatda bo’lib, BXSR hukumati uni ishga tushirish, zamonaviy texnika vositalari va mutaxassislar bilan ta’minlash choralarini ko’rgan. Bosmaxonani ishga tushirish uchun avvalo, unga harf teruvchi mutaxassislar, injener – texnik va slesarlar, tegishli asbob - uskunalar mavjud emasdi. Shu sababli hukumat 1921 – yilning kuz oylarida ‘Markaz’dan Turkistonga kelgan ‘ Qizil Sharq’ targ’ibot poyezdida “Qizil Sharq” gazetasi kotibi va poyezdning harbiy bo’lim yo’riqchisi M. K . Budailov, Habibullinlar zimmasiga Buxoroda bosmaxona , nashriyot va matbuot ishlarini yo’lga qo’yish vazifasini yuklagan. Tataristonning Magadshi uyezdidan bo’lgan, tatar tilidan tashqari o’zbek, arab, rus, qirg’iz tillarini ham yaxshigina egallagan M.K.Budailov 1- Qozon harf teruvchilar va bosmaxona xodimlari tayyorlash maktabini bitirgan edi. U o’z holiga tashlab qo’yilgan Buxoro amirligi bosmaxonasini asbob – uskunalar bilan ta’minlash, musulmon shrifti va harf teruvchilar; jurnalistlar olib kelishda jonbozlik ko’rsatdi. M.K.Budailov Buxoroda BXSRning birinchi davlat nashriyoti direktori bo’lib ishladi.[263]

Tarixiy voqealar bayonida bir qadar ortga qaytadigan bo’lsak, 1917-1918 yillarda Buxoro toshbosmaxonasini texnik jihatdan jihozlashda “ Umumiy elektr kompaniyasi” rus jamiyatining Toshkent bo’limi ikki turdagi elektr tokini kuchaytirib beradigan dinam taqdim etgan. Ushbu dinamlar o’zgarmas elektr tokida 260 amper, 115 volt, 300 tok kuchida ishlay olgan, bir daqiqada 1100 obortli, diametrining 460 mm, kengligi 250mm, narxi esa 7100 rubl baholanishi arxiv hujjatida ta’kidlangan.

Ikkinchi turdagi dinam 20 ot kuchiga ega bo’lib, 174 amper, bir daqiqada 1320 oborotga ega ekanligi, shkivining uzunligi 400 mm, eni 200 mm ekanligi, narxi esa birinchisidan bir qadar arzon bo’lib, 4.500 rublni tashkil etishi ham ko’rsatilgan. [264] Ushbu dinamlarning 50 foiz narxi oldindan to’lanib, qolgani hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida “ Rus – Osiyo banki” orqali pul o’tkazish yo’li bilan to’lanishiga tegishli ma’lumotlar, ushbu elektr texnikasi vositalari bilan tipolitografiyani elektron tipolitografiyaga aylantirishga qaratilgan munozaralar arxiv hujjatlaridn joy olgan. Hujjatlardan birida Buxoro bosmaxonasi tomonidan 260 amperli, 115 voltli dinam va uning shkivi, reostat, voltmetr – ampermetrlari bilan birga qabul qilib olinganligi ko’rsatilgan.[265] Bizningcha toshbosmaxonani texnik jihatdan jihozlash ishlari oxiriga yetkazilmagan. Ushbu yangi elektr jihozlar birinchidan, qimmat bo’lgan, ikkinchidan, hukumat “ Rus – Osiyo banki” hisob raqamiga kerak bo’lgan mablag’ni o’z vaqtida o’tkaza olmagan, uchinchidan, texnik

[262] Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand- 2020. – B. 12-13.

[263] Qarang. Rasulov A. Turkiston va Volgabo’yi, Uraloldi xalqlari o’rtasidagi munosabatlar. – T. “ Universitet,” 2005. – B.- 188- 189- 190-191.

[264] O’zbekiston Milliy Arxivi (O’MA) I- 3-fond, 2-ro’yxat, 722-yig’ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqa tomoni, 5,6,7-varaqlar.

[265] O’MA, I-126-fond, 2-ro’yxat, 1682 yig’ma jild, 20,21,22 varaqlar.

vositalar yetkazib berishda ishtirok etgan “ Umumiy elektr kompaniyasi”, “ Lediyev va Shukin” firmasi va uning vakili tadbirkor Malinovskiylar o’rtasida to’lov hamda qarzdorlik masalasida tortishuvlar, kelishmovchiliklar yuz bergan. Injener Malinovskiy o’z hisobotida bosmaxona sotib olgan elektrotexnik jihozlar uchun jami; 28.426 rubl to’lagani, 7 ming rubl qarzdorlik mavjudligini mutasaddilarga xabar qilgan.[266] BXSR hukumati yillariga qadar Buxoro bosmaxonasiga ya’ni elektrotexnika asbob – uskunalar olib kelinganligi bu borada ancha tajriba to’planganligini bildiradi. Ikkinchidan esa, elektro – litotipografiyaning bosmaxonada joriy etilishi, bosmaxonaga yaqin hududlarni elektr chirog’i bilan ta’minlashga imkon yaratgan. Bu bilan bir qator ko’chalar lampa chirog’i bilan emas, elektr orqali yoritilishi ijobiy jihatdir.

BXSR yillarida nashriyot va bosmaxona ishini yo’lga qo’yishda Volgabo’yi, Uraloldi, Turkiston ASSRdan toshbosmaxona asbob – uskunalari, musulmon shrifti, harf teruvchi va injener mutaxassislar kelishi 1921-1922-yillarda mutassil oshib borgan. Qozondagi (Tatariston) 1-sonli davlat shrifti tayyorlash korxonasiga BXSR hukumati murojaat qilganidan so’ng, 1921-yilning avgustida BXSRga 58 pud musulmon shrifti va harf teruvchilar yuborilgan: 1922-yilda 400 pud, o’sha yilning oktabr oylari boshida yana 770 pud musulmon shriftini Buxoro hukumati qabul qilib olgan.[267] Biroq musulmon shrifti, yangi elektr asbob-uskunalar bilan ishlay oladigon mutaxassislar yetarli emasdi. Toshbosmaxona asbob-uskunalari ishlamay qolsa, ularni ta’mirlaydigon texnik xodimlar, slesarlar yetishmasdi. Texnika xavfsizligiga amal qilmaslik oqibatida ayrim xodimlar qo’lidan ajralib qolganligi davriy matbuotda uchraydi.[268] Shu sababli Tataristondan 13 ta (bazi manbalarda 14 ta) harf teruvchilar Buxoroga mutaxassis sifatida tashrif buyurishgan. Ular bosmaxona va nashriyot ishlariga kirishib ketgan bo’lsada, maosh pastligi, maishiy hayot og’irligi va turli yuqumli kasalliklar tufayli 1922-yilda Buxoroni tark etishgan. 13 nafar harf teruvchidan 5 nafari Buxoroda yuqumli kasalliklardan vafot etgan.

BXSR hukumati a’zolari ham bosmaxona va nashriyot uchun yangi xorij texnikasi va asbob – uskunalarini olib kelishda shaxsiy tashabbus ko’rsatdilar. 1920 - 1922 yillarda BXSR hukumatida maorif noziri, keyinchalik “ Buxoro axbori “ gazetasida muharrirlik qilgan Qori Yo’ldosh Po’latov (1890-1965yy) 1922- 1923 yillarda Rossiyaning Moskva va Sankt – Peterburg shaharlaridagi sayohatidan qayta turib, o’zi bilan nashriyotda qo’l keladigan sinkografiya(aksilxona) olib keldi. Ushbu yangi texnik vosita tufayli “ Buxoro axbori” gazetasi fotolavhalar bilan chiqa boshladi.[269]

Ma’lumki BXSR va Germaniya o’rtasida savdo – sotiq, madaniy- ma’rifiy aloqalar 1920- yillarda rivojlangan edi. Ayniqsa, Germaniya o’quv yurtlariga buxorolik yoshlarni o’qish uchun yuborishga alohida e’tibor qaratilgandi. Buxorolik talabalar Germaniyadagi texnik yangiliklar bilan tanishib, “ Texnika va biz” ruknida o’zlarining “ Ko’mak” jurnallarida maxsus maqolalar chop ettirdilar. Hukumat

[266] O’MA. I-3-fond, 2-ro’yxat, 722 yig’ma jild, 14,15,16 varaqlar.
[267] Rasulov A, Isoqboyev A, Nasretdinova D. Turkiston ijtimoiy – madaniy hayotidan xabarlar. T.;”TURON-JQBOL” -2019. –B.134-135.
[268] Haqiqat ochdur, hazm etmakka omuxta bo’lmoq lozim. || Buxoro axbori,|| 4-son, 1922-yil 3-dekabr, (arab imlosida).
[269] Qori Yo’ldosh Po’latov. Yo’l xotiralari || Buxoro axbori, 133-son; 1923-yil 11-fevral.

rahbarlari talabalar holidan xabar olish maqsadida Germaniyaga safarlar qilar ekanlar, 1922 –yilda shunday safarlardan birida ushbu davlatdan Buxoroga musulmoncha harf terish mashinasi va unga tegishli bo'lgan asbob – uskunalar hamda texnik vositalar ham olib kelishdi.[270]

1912 yilda Turkiston o'lkasidagi poliografiya sanoatidagi korxonalar XIX asr oxirida vujudga kelib, har xil quvvatli 95 ta tipolitografik mashina, 9 ta elektromatorlar bilan jihozlangan bo'lib, 30 ta tipografiya va litografiyaga xizmat qilgan. Eng zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan 3 ta tipografiya Qo'qon shahrida bo'lgan. 1914 – yilda Qo'qon shahrining Eski shahar qismida Obidjon Mahmudov tipografiyasi ochilib, unda " Sadoi Turkiston" gazetasi o'zbek tilida chop etilgan. Qo'qondagi birinchi tipografiya SH.D. Belskiy tipografiyasi bo'lib, 1909; 1911-yillarda Rim (Italiya)da o'tkazilgan Butunjahon ko'rgazmasida oltin medalga sazovor bo'lgan. Tipografiyalarda kitob, gazeta bosilishi bilan birga, nemis millati vakili, aptekachi va noshir E.Vilde tipografiyasida zamonaviy texnik asbob-uskunalar yordamida rasmli otkritkalar ham chiqarilgan.[271] Uning tipografiyasi Qo'qon xoni o'rdasi yaqinida bo'lib, Qo'qon manzaralari tushirilgan rasmlar savdosidan yaxshigina daromad ko'rgan.

Xulosa: BXSR hukumati yillarida bosmaxona va nashriyot ishlarini zamonaviy asosda yo'lga qo'yish uchun o'z davrida yangi hisoblangan texnika vositalari Rossiya, Sharq va Yevropaning bir qator mamlakatlaridan olib kelindi. Biroq, ushbu texnika vositalarini ishlatadigan, ta'mirlay oladigan mahalliy aholi orasidan mutaxassislar yetishtirish maqsadi BXSRning oxirgi yiligacha ham hal qilinmadi. Ta'kidlash joizki, ushbu texnikalar mahalliy aholi ongini o'sishida, madaniy – ma'rifiy muassasalar faoliyatini kuchaytirishda bir qadar ahamiyatli bo'lgandi. Buxoroda yangi texnik vositalar bilan ta'minlangan bosmaxona va nashriyotda kitob, plakat, reklama e'lonlari, varaqa kabilar bosib chiqarish ko'paydi. Eng zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan 3 ta tipografiya Qo'qon shahrida bo'lgan. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida poligrafiya sanoatida yangi texnikalar kirib kelganligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarli ta'sir etgan, deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent- 2005. –B .16.
2. Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand- 2020. – B. 12-13.
3. Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar. – T. " Universitet," 2005. – B.- 188- 189- 190-191.
4. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'MA) I- 3-fond, 2-ro'yxat, 722-yig'ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqa tomoni, 5,6,7-varaqlar.

[270] Hayitov Sh; Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya; hamkorlikning tarixiy lavhalari. –T.: Fan; 2004.- B.44.

[271] Sobirov. N; Egamnazarov A. Farg'ona vodiysining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy rivojlanishida nemis ishbilarmonlarining hissasi. (XIX asr oxiri- XX asr boshlari).-T.:" Falsafa va huquq"; 2012.- B.88-89; B. 142-143.

5. O’MA, I-126-fond, 2-ro’yxat, 1682 yig’ma jild, 20,21,22 varaqlar.
6. O’MA. I-3-fond, 2-ro’yxat, 722 yig’ma jild, 14,15,16 varaqlar.
7. Rasulov A, Isoqboyev A, Nasretdinova D. Turkiston ijtimoiy – madaniy hayotidan xabarlar. T.;”TURON-JQBOL” -2019. –B.134-135.
8. Haqiqat ochdur, hazm etmakka omuxta bo’lmoq lozim. || Buxoro axbori,| 4-son, 1922-yil 3-dekabr, (arab imlosida).
9. Buxoro axbori, 76-son, 1922-yil 27-mart, 103-son, 1922- yil, 19-oktabr.
10. Qori Yo’ldosh Po’latov. Yo’l xotiralari || Buxoro axbori, 133-son; 1923-yil 11-fevral.
11. Hayitov Sh; Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari. –T,: Fan; 2004.-B.44.
12.Sobirov. N; Egamnazarov A. Farg’ona vodiysining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy rivojlanishida nemis ishbilarmonlarining hissasi. (XIX asr oxiri- XX asr boshlari).-T.:” Falsafa va huquq”; 2012.- B.88-89; B. 142-143.
13. Sobirov N; Egamnazarov A. O’sha kitob.-B.89.
14. Rasulov A. O’sha kitob.-B. 39-40; 43.

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA MA’RIFATLI JAMIYAT KONSEPSIYASI VA LIDER AYOLLAR FENOMENI

Aziza Fayzullayeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining shakllanishi va uning ayollar ta’limi hamda ijtimoiy yetakchiligi bilan bog‘liqligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining milliy uyg‘onish va ta’lim islohotiga doir g‘oyalari asosida ma’rifatli jamiyat modeli yoritilib, ma’rifat millat taraqqiyotining bosh omili ekanligi, shuningdek, jadidlar qarashlarida ayollar ta’limi va ularning ma’naviy-ijtimoiy faolligi “lider ayollar fenomeni” nuqtai nazaridan baholanadi. Jadidlar merosi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga tayangan holda bugungi kunda ma’rifatli jamiyat qurish hamda ayollar liderligini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘la olishini tahlil qilishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma’rifatli jamiyat, lider ayollar fenomeni, ayollar ta’limi, ijtimoiy yetakchilik, umuminsoniy qadriyatlar, gender tengligi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy modernizatsiya.

Bugungi kunda jahon miqyosida ilm-fan, ta’lim va ma’naviyat sohalarining rivojida xotin-qizlarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ularning ilmiy izlanishlari, ta’limdagi faolligi va ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishtiroki jamiyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shmoqda

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, mutafakkirlar qatorida, shunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug‘vor ishlarga ruhlantirgan fozila, olima va oqila

ayollarham ko‘p bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, jamiyatimizning turli sohalarida, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqdalar. Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi.[1]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ijtimoiy modernizatsiya va ma’rifiy islohotlarning muhim bosqichi sifatida baholanadi. Zamonaviy tadqiqotlar jadidlar faqat ta’lim islohotchilari emas, balki milliy davlatchilik, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolat g‘oyalarini ilgari surgan intellektual harakat namoyandalari ekanini ko‘rsatadi .[1]

Bugungi globallashuv sharoitida milliy identichlikni saqlash va uni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlar ana shu muammoni bir asr avval ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan edilar: ular milliy an’analarni saqlagan holda, zamonaviy ilm-fan, huquq, tenglik va taraqqiyot g‘oyalarini jamiyat hayotiga tatbiq etishni taklif qilganlar.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim. Bu o‘z navbatida, “Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi.[2] Jumladan, taraqqiyparvar va ma’rifatparvar jadid Abdurauf Fitrat xotinqizlarimizning o‘qimishli bo‘lishi kelajak avlodlarimizning nodon va johil, tarbiyasiz bo‘lmasliklari hamda bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari uchun zarurdir deb ta’kidlaydi. Shuningdek, Avloniy tarbiyani “oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘nggi er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir”,[9] – deb e’tirof etadi. Abdurauf Fitrat esa yosh avlod tarbiyasini millat tarbiyasiga tenglashtirib, “tarbiya millat onasi” degan g‘oyani ilgari suradi. Yosh avlod tarbiyasida onaning asosiy o‘rni to‘g‘risida quyidagicha ta’rif bergan: “Tarbiya axloqiyalari maktabdan ko‘ra ko‘proq muhtarama onalar quchog‘ida axtarilmog‘i kerakdur. Bolalarimizni matlub darajada adablik va tarbiyatlik qilmoq xoxishida onalarimizni “ilmi tarbiya al-atfol”dan bahrador etmog‘imiz darkor. Bolalarimiz inson bolalari kabi bo‘lsinlar desak, eng avval boshlab, onalarimizni tarbiya va ta’lim eta oling. Yo‘qsa bolalardan, maktablardan momil bo‘lgan foyda husula kelmas”[6]. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlar oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ayollar ham o‘qib, bilim olishlari kerakligini uqtiradilar.

Ayniqsa, jadidlar qarashlarida ayollar ta’limi va ijtimoiy faolligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Qizlar maktablarining ochilishi, matbuotda ayollar huquqi haqidagi bahslar, oila va jamiyatni isloh qilishda ayolning o‘rni haqidagi fikrlar bu harakatning ilg‘or va universal xususiyatini namoyon etadi.[6] Bu jihat zamonaviy gender siyosati, lider ayollar fenomeni va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda va butun Markaziy Osiyoda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, jadidlar merosini “lider ayollar”

konsepsiyasi bilan bog‘lab o‘rganish tarixiy-mantiqiy izchillikni ochib beradi hamda milliy taraqqiyotning ma’naviy ildizlarini ilmiy asoslash imkonini yaratadi.

Shuningdek, “yangi ma’naviy makon” tushunchasi bugungi kunda ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy xavfsizlik va intellektual taraqqiyot bilan bog‘liq holda keng muhokama qilinmoqda. Jadidlar ilgari surgan ma’rifatli jamiyat modeli - ilmli, faol, mas’uliyatli va teng huquqli fuqarolar jamiyati hozirgi demokratik islohotlar bilan uyg‘unlashadi. Chunki jadidlar ilgari surgan ayollar ta’limi, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki va ma’naviy mas’uliyati haqidagi g‘oyalar hozirgi gender tengligi tamoyillari bilan mazmunan uyg‘undir. Shu nuqtayi nazardan, jadidlar qarashlarini zamonaviy lider ayollar fenomeni bilan bog‘lab o‘rganish tarixiy meros va bugungi islohotlar o‘rtasidagi mantiqiy izchillikni ochib beradi.

Shu sababli, jaded namoyondalari tomonidan ilgari surilgan ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyalari bugungi taraqqiyot strategiyasi bilan hamohangdir. Ular jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, tafakkur erkinligi, axloqiy mas’uliyat va fuqarolik faolligi bilan bog‘lagan edilar. Bugungi kunda ham barqaror taraqqiyot, inson kapitali rivoji va ma’naviy xavfsizlik masalalari aynan shu tamoyillarga tayanadi.

Milliy uyg‘onish g‘oyalari esa zamonaviy fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar milliy o‘zlikni anglash, jamiyat mas’uliyatini kuchaytirish va ijtimoiy faollikni oshirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab berganlar. Bu g‘oyalar bugungi demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir.Shu jihatdan, jadidlar ma’naviy merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini hamda ayollar liderligi g‘oyasining ildizlarini tadqiq etish nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy muammo hisoblanadi.

Jadidlar bobolarimiz fikricha, jamiyatni isloh qilish maktabdan boshlanishi kerak edi. Yangi usul maktablari tashkil etilishi, darsliklarning yangilanishi, dunyoviy fanlarning o‘qitilishi bilan bir qatorda qizlar ta’limiga e’tibor qaratilishi harakatning muhim yo‘nalishlaridan bo‘ldi. Ular savodsiz ayol bu savodsiz avlod demak, degan g‘oyani ilgari surdilar. Chunki bola tarbiyasining dastlabki bosqichi ona qo‘lida shakllanadi.

Shu bois jadidlar qizlar maktablarini ochish, ayollarning savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy bilimlarga jalb etishni milliy taraqqiyot bilan bevosita bog‘ladilar. Bu yondashuv o‘sha davr ijtimoiy muhitini hisobga olganda nihoyatda jasoratli va yangicha fikr edi. Ular diniy qadriyatlarni inkor etmagan holda, ularni ma’rifat va taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildilar. Xotin-qizlar ta’limi masalasida ham an’anani butunlay rad etish emas, balki uni yangicha talqin qilish masalasini qo‘ydilar.

Jadidlar ayolni faqat uy bekasi sifatida emas, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida ko‘rishni taklif etdilar. Ularning asarlarida ayolning axloqiy pokligi, ziyoliligi, ma’rifatparvarligi millat ravnaqining muhim omili sifatida talqin etiladi. Bu yerda “lider ayol” atamasi bevosita ishlatilmagan bo‘lsa-da, mazmunan ayolning ma’naviy yetakchilik roli asoslab berilgan.

Jadidlar fikricha, ayol ma’rifatli bo‘lsa:

Birinchidan, oilada sog‘lom muhit shakllanadi;
Ikkinchidan, farzand tarbiyasi sifat jihatdan o‘zgaradi;
Uchinchidan, jamiyatda axloqiy mas’uliyat kuchayadi;
To‘rtinchidan, milliy ong mustahkamlanadi.[9]
Demak, ular ayolni jamiyatni ichidan o‘zgartiruvchi kuch sifatida ko‘rganlar. Bu esa zamonaviy tushunchadagi “ijtimoiy liderlik”ning dastlabki nazariy ildizlari sifatida baholanishi mumkin.

Jadidlar to‘liq g‘arbona feminizm konsepsiyasini ilgari surmagan bo‘lsalarda, ayollarning ta’lim olish huquqi, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyati va ijtimoiy hurmatga loyiq ekanini qat’iy himoya qilganlar. Ular ayolni kamsitish jamiyatning o‘zini zaiflashtiradi, degan fikrni ilgari surganlar. Shu nuqtayi nazardan jadidlar qarashlari milliy qadriyatlar doirasida shakllangan, biroq mohiyatan umuminsonga xos tenglik g‘oyalariga yaqin edi.
Bu yondashuv milliylik va universallikning uyg‘un namunasidir ayol erkinligi milliy manfaatlarga zid emas, aksincha, millatning kuchayishiga xizmat qiladi, degan g‘oya muhim hisoblangan.

Bugungi kunda ayollar siyosiy, iqtisodiy va ilmiy sohalarda yetakchilik qilayotgan bir davrda jadidlar merosiga murojaat qilish muhim nazariy asos beradi. Ularning qarashlarida:
-ayol bu tarbiyachi,
-ayol bu ma’rifat targ’ibotchisi,
-ayol bu ijtimoiy islohotlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi.
Zamonaviy “lider ayol” modeli aynan shu uchlikka tayanadi: bilim, mas’uliyat va ijtimoiy faollik. Shunday ekan, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ayollar ta’limi g‘oyasi bugungi gender siyosatining tarixiy ildizi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa sifatida, jadidlar qarashlarida ayollar ta’limi oddiy ijtimoiy masala emas, balki milliy taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismi edi. Ular ayolni jamiyat chekkasidagi emas, balki uning markazidagi shaxs sifatida tasavvur qildilar. Ma’rifatli ayol - ma’rifatli oila, ma’rifatli oila - ma’rifatli jamiyat tamoyili jadid tafakkurining muhim xulosasidir.
Shu sababli, jadidlar merosini zamonaviy lider ayollar konsepsiyasi bilan bog‘lab o‘rganish tarixiy mantiqqa ham, bugungi taraqqiyot ehtiyojlariga ham to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: O‘zbekiston,2023. -416 bet.
2. “Oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/
3. Чориев .А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Тошкент: Chinor ENK, 2002, -Б. 204.
4. Иргашева .М. Фуқаролик масъулияти. // Таълим тизимида ижтимоий – гуманитар фанлар.2012, № 2, -Б.24.

5. Холматова М., Сафаева С., Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жихатлар.-Тошкент: Ўзбекистон,2003. -162 б.
6. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2000. – B.5.
7. Хусейнова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. –Бухоро, 2009. Б.88.
8. “O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 228 b.
9. Amridinova D.T. Jadidchilik ta’limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati. Monografiya. Toshkent, Iqtisodiyot, 2023 yil
10. Amridinova D.T. Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlar va yoshlarda milliy tarbiya masalalari. // Globallashuv jarayonlari, ma’naviy tahdidlar, yoshlar ta’limi va tarbiyasi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. (3 qism) Navoiy. 2016.

AHMAD DONISH — O‘RTA OSIYODA MA’RIFATPARVARLIK HARAKATINING ASOSCHISI

Abdurahmonov Xolboy To‘xtayevich
University of management and future technologies, katta o‘qituvchisi

O‘zbek va tojik xalqining atoqli farzandi Ahmad Donish ensiklopedist, ma’rifatparvar, islohotchi, olim, yozuvchi, faylasuf, mutafakkir, shoir va Buxoro amirligi davlat arbobi edi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida aynan Ahmad Donish ijodi ta’siri ostida nafaqat Buxoro amirligida, balki butun O‘rta Osiyoda ilg‘or ziyolilar qatlamining uyg‘onishi yuz berdi. Ularning asosiy g‘oyasi hukmron tabaqa va amaldorlardan oddiy mehnatkash xalqqa nisbatan zo‘ravonlik va o‘zboshimchalikni cheklashni talab qilish, iqtisodiyot, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish choralarini ko‘rish, ta’lim tizimini isloh qilish, Buxoroning himoyaga muhtoj fuqarolariga eng kam deganda oddiy va demokratik huquqlarni berish kabi masalalardan iborat edi. Shu bois Ahmad Donish shaxsiyati va uning ijodi tariximizda yorqin sahifani egallaydi.

Ahmad Donishning hayoti va ijodi tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan va S. Ayniy, B. G‘. G‘afurov, Z. Sh. Rajabov, A. M. Bogoutdinov, I. S. Braginskiy, G. A. Ashurov, R. Xodizoda, H. Mirzozoda va boshqa ko‘plab olimlarning asarlarida har tomonlama hamda munosib baholangan. Z. Sh. Rajabov va R. Xodizoda kabi mashhur olim-tadqiqotchilar Ahmad Donishga bag‘ishlangan chuqur ilmiy izlanishlar olib borib, ularda buyuk ma’rifatparvarning hayoti va ijodining ko‘plab jihatlarini atroflicha tahlil qilganlar. Shunga qaramay, bu masala kelgusida ham tadqiqotchilar e’tibor markazida bo‘lib qoladi.

Shubhasiz, Ahmad Donish tariximizda tasodifiy shaxs emas edi. XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo mintaqasi, jumladan Buxoro amirligi uchun xos bo‘lgan murakkab vaziyat dolzarb va muhim masalalarga ko‘plab javoblarni talab

qilardi. Ularning eng asosiylaridan biri Markaziy Osiyoda Rossiya podshohligining mustamlakachilik hukmronligiga munosabat masalasi edi.

Bunday savolning yuzaga kelish sababi shundaki, mustamlakachilik tuzumining o‘rnatilishi mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahvolini tubdan o‘zgartirib yuborgan edi.

Shunday qilib, Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasida O‘rta Osiyo mintaqasi, ayniqsa iqtisodiy jihatdan, dunyoning eng qoloq hududlaridan biri edi. Bu davrga kelib, G‘arbning ko‘plab mamlakatlari va Sharqning ayrim davlatlari allaqachon kapitalistik ishlab chiqarish usuliga o‘tgan bo‘lsalar-da, O‘rta Osiyo hududlarida, jumladan Buxoro amirligida hanuz feodal munosabatlar hukm surardi.

Bu yerda siyosiy tuzumda nafaqat o‘rta asrlarga xos amirlik despotiyasi, balki diniy-klerikal mafkuraning hukmronligi ham saqlanib qolgan edi. Amirlik rejimi hamda diniy mutaassib ruhdagi arboblar o‘z hukmronligi va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida amirlik xalqi o‘rta asrlarga xos turg‘unlik holatida qolishidan manfaatdor edilar.

Rossiya tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi mintaqa hayotining deyarli barcha sohalariga jiddiy o‘zgarishlar kiritdi. O‘rta Osiyodagi davlatlar — Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari — o‘z suverenitetini yo‘qota boshladi. 1876-yilda Qo‘qon xonligi podsho hukumati tomonidan rasman tugatildi va uning hududi to‘liq ravishda Rossiya tasarrufiga o‘tdi.

Rus qo‘shinlari tomonidan egallangan va Qo‘qon xonligi hamda Buxoro amirligi yerlaridan ajratib olingan hududlarning katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi. Bu ma’muriy birlik 1867-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u bevosita podsho tomonidan tayinlangan general-gubernator orqali boshqarilar edi. O‘lka Rossiya ma’muriy-huquqiy tizimi asosida idora qilindi: umumimperiya qonunlari joriy etildi, boshqaruv lavozimlariga asosan rus generallari va ofitserlari tayinlandi.

Turkiston o‘lkasini boshqarish jarayonida musulmon ruhoniylari asrlar davomida ega bo‘lib kelgan ko‘plab imtiyoz va ta’sir doirasidan amalda mahrum bo‘ldilar. Sud-huquq va ma’muriy ishlarning muhim qismi davlat nazoratiga o‘tdi, bu esa diniy doiralarning siyosiy mavqeini ancha zaiflashtirdi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga vassal qaramlikka tushgach, ular rasman ichki mustaqilligini saqlab qolgandek ko‘rinsa-da, tashqi siyosatda to‘liq ravishda Rossiyaga bo‘ysundi. Ruhoniylar va hukmron doiralar esa bu hududlar ham yaqin orada to‘liq imperiya tarkibiga qo‘shib yuborilishidan doimiy xavotirda edilar. Ular Qo‘qon xonligi taqdirining takrorlanishidan qo‘rqib yashaganlar.

Podsho tuzumining O‘rta Osiyo mintaqasida hukmronligi o‘rnatilishi bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligining musulmon dunyosi bilan davlat darajasidagi erkin aloqalari deyarli to‘xtadi. Mintaqa aholisi, xususan Buxoro amirligi fuqarolarining Rossiya imperiyasi hududidan tashqariga chiqishi, jumladan qo‘shni musulmon Sharq mamlakatlariga borishi ham qat’iy nazorat ostiga olindi. Hatto musulmonlarning muqaddas shaharlari — Makka va Madinaga haj safariga borish ham podsho ma’muriyati kuzatuvi va ruxsati bilan amalga oshiriladigan bo‘ldi.

O‘rta Osiyoda yuz bergan bunday keskin va sezilarli o‘zgarishlar o‘sha davr milliy ziyolilari qarashlariga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Ularning orasida Ahmad Donish ham bor edi.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, XIX asr o‘rtalarida yuz bergan voqealar, jumladan Rossiyaning O‘rta Osiyoda mustamlakachilik rejimini o‘rnatishiga milliy ziyolilar turlicha munosabat bildirganlar. Ularni tutgan pozitsiyasiga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

№	Ziyolilar guruhi	Mustamlakachilikka munosabati	Tanlagan yo‘li	Asosiy maqsadi	Xususiyati
1	Hijrat yo‘lini tanlaganlar	Mustamlakachilikni milliy va diniy tahqir deb bildilar	O‘rta Osiyoni tark etish, musulmon Sharq mamlakatlariga ko‘chish	Milliy va diniy qadriyatlarni saqlash	Passiv norozilik
2	Qarshilik tarafdorlari	Podsho siyosatiga keskin qarshi	Milliy-ozodlik harakatlarida ishtirok etish	Mustamlaka tuzumini ag‘darish	Faol siyosiy kurash
3	Islohot va ma’rifat tarafdorlari	Mustamlakachilikni qo‘llamagan, ammo asosiy muammoni ichki qoloqlikda ko‘rgan	Ma’rifat, ta’lim islohoti, iqtisodiy va madaniy rivojlanish	Jamiyatni ichki yangilash va taraqqiyotga olib chiqish	Bosqichma-bosqich islohot yo‘li

Bu guruh vakillari ma’rifat va islohotlar orqali, din va milliy urf-odatlarning asoslarini saqlagan holda, bir tomondan islomni yangi sharoit — tovar-pul munosabatlari va shakllanib kelayotgan burjua jamiyati talablariga moslashtirishni, ikkinchi tomondan esa xalqning turmush darajasini oshirish, mintaqa iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishni maqsad qilgan edilar[1].

Natijada, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ma’rifatchilik shakllanib borayotgan edi. Uning asoschilaridan biri bu buyuk tojik millatining farzandi – **Ahmad Donish** edi. U **Buxoro** shahrida tug‘ilib o‘sgan bo‘lib, bu shahar ming yildan ortiq vaqt davomida tojik xalqining fan va madaniyat poydevori bo‘lib kelgan.

Ahmad Donish hech qachon xalqdan uzilib qolmagan. U doimo xalqga yaqin bo‘lgan, ularning azob-uqubatlarini yaxshi his qilgan. O‘z davrining eng bilimdon insoni sifatida u doimo xalqni o‘ylagan, xalqini qashshoqlik va ekspluatatsiyadan qutqarish yo‘lini izlagan. Shu sababli, Z.Sh. Rajabovning o‘tkir ta’kidlashicha, “**Ahmad Donishning Buxoro amiriga taqdim etgan islohot loyihasida ifodalangan barcha talablar, aslida, oddiy xalqning o‘z hukmdorlaridan talab qilgan istaklarini o‘z ichiga oladi.**”[2]

A. M. Bogutdinovning ta’kidlashicha, Ahmad Donish ochiq va qat’iy inson bo‘lgan; uni hech narsa to‘xtata olmagan — na musulmon ulamolarining qadriyatlaridan kelib chiqqan cheklovlar, na amir saroyidagi vazirlarning taqiqlari. U hech kimni asrashga majbur emas edi, lekin azob chekayotgan vatandoshlariga

hamdardlik qilishi mumkin edi. Shu mustaqillik va o‘ziga xoslik uning Buxoro feodal-teokratik hukmronligining despotik ishlarini keskin va shafqatsiz tanqid qilishida yaqqol namoyon bo‘ladi.[3]

Ahmad Donishning ma’rifatchi sifatidagi pozitsiyasi aynan u **amir saroyida ishlagan va amirning mansabdorlarining buzuqligi hamda xalqining huquqsiz va himoyasiz ahvolini shaxsan ko‘rgan davrida** mustahkamlandi. Amir va uning mansabdorlariga ishonadiganlarning xatolarini yo‘q qilish maqsadida Ahmad Donish ularni keskin va shafqatsiz tanqid qilgan.

O‘zining tarixiy risolasida u amir va uning mansabdorlarini quyidagicha ta’riflaydi: “Amir va vazir, ulamolar va harbiy boshliqlar bir-biriga o‘xshash edi; ularning fikrlari faqat kundalik non bilan cheklangan edi, shu non esa faqat kamsitish va izzat deb hisoblangan qiyinchiliklar orqali topilardi. Har xil pastkashlar va ulug‘lar – hozir qimmatbaho liboslar kiyib, yangi va ulug‘ chalmalar taqib, dunyoda o‘zidan boshqa hech kimga e’tibor bermaydi. Ularning barcha harakati faqat amirni tanish, qozini yonida o‘tirish, rais bilan ichish, va qo‘riqchilar boshlig‘ining qo‘shnisi bo‘lishga qaratilgan edi. Agar ularni yaxshilab kuzatsa, amir – bu buzuq va qonxo‘r tiran, qoz – og‘ir poraxo‘r va talabchi, rais – sotqin fohisha va kufrli, qo‘riqchilar boshlig‘i – mast va qimorboz, talonchi ataman va bosh o‘g‘ri edi.”

Z.Sh. Rajabovning ta’kidlashicha, Ahmad Donish ayniqsa Amir Abdulaxadxonning qonxo‘rligi va uning atrofidagilarning buzuqligini shafqatsiz tanqid qilgan.[4]

Albatta, Ahmad Donishning ma’rifatchilik qarashlari beoson paydo bo‘lmagan. U o‘z davrining deyarli barcha fanlarini o‘rgangan va haqiqiy ensiklopedist bo‘lgan. Shuningdek, uning ma’rifatchilik qarashlarining shakllanishida tojik-pfors adabiyotining vakillarining ma’rifiy g‘oyalari katta rol o‘ynagan. Albatta, u ularning bilim, insonparvarlik, boshqaruv ishlari va boshqa sohalarga oid qarashlari bilan yaqindan tanish edi.

Biroq, buyuk ma’rifatchining tanqidiy fikrlari yanada mustahkamlandi, chunki u uch marotaba Rossiyada bo‘lib, bu buyuk mamlakatning shaharsozlik, fan, madaniyat va boshqaruv sohalaridagi taraqqiyotini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdi. Har safar uyga qaytganda, u ko‘rgan yutuqlarni Buxorodagi holat bilan taqqoslab tahlil qilardi. Ahmad Donishning bunday taqqoslashlari va tahlillari uning yaqinlari bilan uzviy aloqada, izolyatsiyadan yiroq tarzda amalga oshgan.

S. Ayni ta’kidlaganidek, Ahmad Donish doimo o‘z shogirdlari, izdoshlari va hamkasblari orasida bo‘lgan. U o‘z taassurotlari va fikrlari bilan Buxoro intellektual qatlamining shunday bir qismini uyg‘otishga yordam berganki, ular ilgari "shunday bo‘lishi kerak" degan holatga rozi bo‘lib yashaganlar.[5]

Keyinchalik, S. Ayniy Ahmad Donishning mashhur asari “Navodir-ul-voqoe’” (“Nodir voqealar”)ning Buxoro yoshlari orasidagi ma’lum bir qismni uyg‘otishdagi ahamiyatini ta’kidlab, shuni qayd etadi: unda qiziqarli hikoyalar bilan bir qatorda, Ahmad Donish “kundalik hayotdagi salbiy holatlarni tasvirlaydi, ularni biz ham har kuni kuzatardik. Bizni aynan shu holatlarning keskin tanqidi jalb qildi.” Natijada, deya S. Ayniy ta’kidlaydiki, “bu kitob bizda katta taassurot qoldirdi, amir va uning vazirlari, mollalar va o‘sha davr hayoti butunlay yangi bir nurda namoyon

bo‘ldi.” Shu sababli, S. Ayniy o‘zining va do‘stlarining Ahmad Donishning ushbu ajoyib asari bilan tanishuvini “haqiqiy ma’naviy inqilob” deb hisoblagan.[6]

S. Ayniyning ta’kidlashicha, XIX asr oxirida Buxoroda Ahmad Donishning eng mashhur suhbatdoshlari quyidagilar bo‘lgan: Sharif Mahdum Mutasim, Iso Mahdum, Inoyat Mahdum, Yahyahodja, Qori Abdulmajid Zufunun, Mullo Sharif Soat, Mirzo Somi va boshqalar.[7]

B. G. G‘afurov fikricha, Ahmad Donishning katta xizmatlaridan biri shundaki, u XIX asr oxirida atrofida ma’rifatchi izdoshlari guruhini birlashtira olgan.[8] Ko‘plar Ahmad Donish ta’siri ostida amirlik rejimiga keskin tanqidiy qarashlarga ega bo‘lgan, mehnatkash xalqning azob-uqubatlarini turlicha his qilgan. Ular amirdan yoki uning mansabdorlaridan marhamat so‘ramagan. Shu pozitsiya tufayli, ular oddiy, kambag‘al xalq bilan hamdardlik ramzi sifatida qolgan umrlarini qashshoqlikda o‘tkazganlar.

Ahmad Donishning ijodi, xususan “Navodir-ul-voqoe’” asari ta’siri ostida amirlik rejimini yangi, ya’ni tanqidiy nigoh bilan ko‘rganlar soni tobora oshib, o‘nlab kishilarga yetgan. Shu qatorda Sharifjon Mahdum Sadri Ziy, Sadriddin Ayniy, Mirzo Abdulvahid Munzim va boshqalarni aytish mumkin. Natijada, Ahmad Donish asos solgan ma’rifatchilik g‘oyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida harakatga aylandi.

Ahmad Donishning ma’rifatchiligi XIX asr oxiri va ayniqsa XX asr boshlarida nafaqat Buxoro intellektual qatlamining ilg‘or qismini, balki o‘qiyotgan yoshlar va Buxoro savdo doiralarini ham qamrab oldi. Hatto o‘sha davr ulamolaridan biri bo‘lgan muftiy Mullo Ikromcha (1847–1925) ham amirlik rejimiga boshqa nigoh bilan qaray boshlagan.

Ulamolarning konservativ doiralaridan farqli o‘laroq, Mullo Iqromcha mavjud kamchiliklarni shafqatsiz tanqid qilgan, mansabdorlarning xohish-istaklariga qarshi ochiq gapirgan, adolatsizlikni keskin tanqid qilgan va o‘z fikrini nafaqat din ulamolari oldida, balki kushbegi va amirning o‘z oldida ham oshkora bildirgan.[9]

Jadidlar Ahmad Donishning ma’rifatchilik g‘oyasidan chekinmagan va ilgari aytilganidek “orqaga qadam tashlamagan”. Aksincha, ular ushbu g‘oyani davom ettirib, yangi metodli maktablar ochish, dorixonalar tashkil etish, gazetalar chiqarish va boshqa ishlar orqali o‘z davridagi ilg‘or ma’rifatchilarga nisbatan bir necha qadam oldinga tashlaganlar.

Buxoro sharoitida jadidlar harakati amirning reaktsion, feodal-monarxik rejimiga qarshi yagona muxolifat bo‘lgan**.** Shu sababli, agar dastlab u mahalliy intellektual qatlamning liberal ruhdagi qismini qamrab olgan bo‘lsa, keyinchalik ularning doirasi nafaqat intellektual vakillar,

Shunday qilib, Buxorodagi demokratik harakat, asoschisi buyuk Ahmad Donish, asta-sekin kengayib, amirlikning tobora ko‘proq aholisi orasida o‘z o‘rnini topgan. Shu sababli, S. Ayniy Ahmad Donishni “Buxoro qorong‘i osmonidagi porloq yulduz” deb hisoblagan.[10] Aynan shu “porloq yulduz” ostida feodal-monarxik jamiyatning qorong‘u qatlamlarida ko‘plab demokratik Buxoro kelajagi uchun kurashuvchilar uyg‘ongan.

Foydalanilgan adabiyotlar
1. Хотамов Н. Б. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. – Душанбе, 2000. – С. 1-2
2. Айни С. Таърихи инкилоби Бухоро (История Бухарской революции). – Душанбе: «Адиб», 1987.- 240стр.
3. Багоутдинов А. М. Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад, 1961. – С. 282.
4. Раљабов З. Ш. Маорифпарвар Ањмади Дониш. – С. 169
5. Айни С. О моей жизни (краткая автобиография) // Собр. Соч. Т.1. – М., 1975. –С. 75.
6. Айни С. Таърихи инќилоби Бухоро. – Душанбе, 1987. – С. 23-24.
7. Айни С. Таърихи инќилоби Бухоро. – Душанбе, 1987. – С. 25-26
8. Ѓафуров Б. Ғ. Тољикон. Китоби 2. – Душанбе, 1985. – С. 280.
9. Подробно см.: Хотамов Н. Б. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. – С. 69-72.
10. Подробно см.: Хотамов Н. Б. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. – С. 67-90; Он же. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. – 55 с

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDA MEHNAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI TO‘G‘RISIDA

Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada jadidlar ma’naviy merosida mehnat va mehnat madaniyati masalasining falsafiy-ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida jadidlar g‘oyalarini qayta o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishning dolzarbligi asoslanadi. Jadid mutafakkirlarining mehnatni taraqqiyot omili sifatida talqin etishi, kasb-hunar, ma’rifat va mas’uliyat uyg‘unligiga doir qarashlari yosh avlod tarbiyasida muhim dasturiy manba ekani ko‘rsatiladi Maqolada mehnat madaniyatini yuksaltirishda milliy merosga tayanish zarurati, davlat siyosati va islohotlar bilan uyg‘unlikda tahlil etilgan. Jadidlar merosi bugungi ma’naviy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’naviy meros, mehnat, mehnat madaniyati, ma’rifat, taraqqiyot, islohot, Yangi O‘zbekiston, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyat, falsafiy tahlil, innovatsiya.

KIRISH. Jadidlar ma’naviy merosini o‘rganish bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki jadidchilik harakati nafaqat ma’rifatparvarlik, balki milliy uyg‘onish,

mehnatga yangicha munosabat va ijtimoiy faollikni shakllantirish g‘oyasini ilgari surgan edi. Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Jadid bobolarimiz milliy taraqqiyot, erkin va farovon hayot uchun kurashgan”. [5; 456] Bu esa ularning merosini chuqur o‘rganishni talab etadi.

So‘nggi yillarda jadidlar merosini tadqiq etish, ular asarlarini nashr qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ilmiy anjumanlar, monografiyalar, hujjatli to‘plamlar chop etildi. Biroq mazkur sohada tizimli tahlillar, ayniqsa mehnat madaniyati nuqtai nazaridan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. [1] Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning ob’ektiv omillari sifatida sovet davrida jadidchilikka biryoqlama munosabat, arxiv materiallarining cheklanganligi, ilmiy maktablar uzviyligining uzilishi kabi holatlarni keltirish mumkin. Tarixchi olim jadidlar faoliyatini “millatni uyg‘otishga qaratilgan kompleks ma’naviy harakat” sifatida baholaydi. [4; 64] Demak, ular merosini yangi yondashuvlar asosida o‘rganish zamon talabi hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI. Maqolada tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli tahlil, germenevtik talqin, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Jadidlar asarlari va zamonaviy islohotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik falsafiy jihatdan asoslandi.

NATIJALAR. Yangi O‘zbekiston sharoitida jadidlar ma’naviy merosini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash, tarixiy adolatni tiklash va ma’naviy tiklanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Milliy taraqqiyotimizni jadidlar orzu qilgan darajaga ko‘tarish - barchamizning muqaddas burchimizdir”[1]. Ushbu fikr jadidlar g‘oyalarining zamonaviy islohotlar mazmunida o‘z aksini topayotganini ko‘rsatadi.

Jadidlar mehnatni inson kamolotining asosiy sharti sifatida talqin etganlar. Ularning qarashlarida mehnat faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki ma’naviy kamolot, ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik bilan uyg‘un tushuncha hisoblanadi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida kasb-hunar egallash, ilm bilan mehnatni uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish g‘oyalari markaziy o‘rinni egallaydi. Ular yoshlarni “befoyda umr kechirish”dan ogohlantirib, samarali mehnatni hayot mazmuni sifatida ko‘rsatganlar.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar - ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunarga o‘qitishni kuchaytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar jadidlar orzu qilgan jamiyat modeli bilan uyg‘unlashadi. Zero “Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega” [6] “Inson qadri uchun” tamoyili mehnatga munosabatni o‘zgartirishni talab etadi. Bu esa mehnat madaniyatini yuksaltirish orqali amalga oshiriladi.

Jadidlar merosida mehnat madaniyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mehnatning ma’naviy-axloqiy mohiyati;
2. Kasb va ilm uyg‘unligi;
3. Jamoat manfaatini ustuvor qo‘yish;
4. Intizom va mas’uliyat;
5. Zamonaviy bilimlarga ochiqlik.

Bu tamoyillar bugungi islohotlar mazmuniga mos keladi. Masalan, yoshlar bandligini ta’minlash, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kabi vazifalar yuqori mehnat madaniyatini talab etadi. Jadidlar esa o‘z davrida milliy iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun hunarmandchilik, savdo va sanoatni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surganlar.

Jadidlar harakati “milliy modernizatsiya dasturi” vazifasini bajargan. Demak, ularning mehnat va taraqqiyot haqidagi qarashlari bugungi modernizatsiya jarayonlari uchun nazariy manba bo‘la oladi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya jarayonida jadidlar asarlaridan foydalanish yoshlarda fidoiylik, mas’uliyat va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitaliga ustuvor ahamiyat berilishi ham jadidlar g‘oyalari bilan hamohangdir. Chunki ular insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rganlar. Mehnat madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatda intizom, sifat, samaradorlik va ijtimoiy adolat muhitini mustahkamlash mumkin. Shuningdek, jadidlar merosini o‘rganish faqat tarixiy adolatni tiklash emas, balki amaliy ahamiyatga ega. Ularning mehnatga oid g‘oyalari milliy g‘urur, kasbiy mas’uliyat va innovatsion fikrlashni shakllantirishda dasturiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMALAR. So‘nggi yillarda jadidlar merosini tiklash va o‘rganish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Ularning nomini abadiylashtirish, asarlarini nashr etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada qabul qilingan qaror va farmonlar jadidlar faoliyatiga xolisona baho berish imkonini yaratdi.

Olimlar - Tohir Qazaqov, N.Jo‘raev, Sh.Qurbonov va boshqalar jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilganlar. Ular jadidlarni milliy modernizatsiya, ma’naviy yangilanish va ijtimoiy faollik g‘oyasining tashabbuskorlari sifatida baholaydilar. Biroq mehnat madaniyati nuqtai nazaridan maxsus kompleks tadqiqotlar kam uchraydi.

Qonunchilikdagi o‘zgarishlar, xususan, ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri, yoshlar siyosatiga oid hujjatlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari mehnatga bo‘lgan munosabatni zamonaviy asosda qayta shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda milliy merosdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar asarlarida mehnat tarbiyasi masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Masalan, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida halol mehnatni inson sharafi bilan bog‘laydi. Behbudiy esa iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu g‘oyalar bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan uyg‘un.

Shu bilan birga falsafa fanlari bщyicha falsafa doktori dissertatsiyamizda tadqiq etganimiz jadidlarning yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega.

“- jadidlar zamonaviy bilimni e’tiborga olgan holda, yosh mutaxassislarni mehnatga o‘rgatishga intilishgan. Ularning metodologiyasi aniq va samarali ta’lim berishga asoslangan;

- jadidlar ta’limni yoshlar va jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qabul qilgan. Ular ta’lim o‘rganishda tekshiruv va amaliy tajribaga e’tibor berishgan;

- jadidchilar yoshlarning faolligini oshirishga, ularni dunyoviy bilim bilan ta’minlashga, xurofot va “an’ana”larga qarshi kurashishga harakat qilishgan;

- jadidlarning yosh mutaxassislarga ta’lim berish va rivojlantirish usullari va ko‘nikmalari jadid falsafasi, o‘zgarishlar, inson huquqlari va mustaqil fikirlashga asoslangan”. [7; 39]

Bundan tashqari yangi o‘rganilgan manbalar asosida jadidlar merosidan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- ta’lim dasturlariga jadidlar asarlarini keng joriy etish;
- mehnat tarbiyasiga oid milliy modelni ishlab chiqish;
- yoshlar siyosatida ma’naviy merosga tayanish;
- kasb-hunar ta’limida milliy qadriyatlarni integratsiya qilish.

Demak, jadidlar merosidagi mehnat madaniyati haqidagi qarashlar zamonaviy islohotlarni ma’naviy jihatdan boyitadi va ularning samaradorligini oshiradi.

XULOSA. Jadidlar ma’naviy merosida mehnat madaniyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitali, kasbiy mahorat va ma’naviy barkamollikni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Jadidlar esa o‘z davridayoq mehnatni taraqqiyot, ma’rifat va milliy yuksalishning asosiy sharti sifatida talqin etganlar. Yuqorida ko‘rsatilganidek, jadidlar merosi yosh avlod uchun dasturiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ularning mehnat, mas’uliyat, ilm va kasb-hunar haqidagi qarashlari bugungi islohotlar mazmuni bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, jadidlar g‘oyalari milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy modernizatsiyani amalga oshirish imkonini beradi. Demak, jadidlar ma’naviy merosini mehnat madaniyati nuqtai nazaridan chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bu esa milliy taraqqiyot strategiyasini ma’naviy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident: Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. // https://president.uz/oz/lists/viyew/6941. 22.12.2023.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
4. Qazaqov T. Jadidchilik harakati falsafasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. B.64.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. B.456

6. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/reports/211. 30. 09.2020.
7. Xolmirzayeva J. Yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya. Buxoro. BuxDU, - 2025. – B.39.

JADIDCHILIK TA’LIMOTIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI – MA’NAVIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi,
Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi falsafa fanlari bo’yicha (PhD) falsafa doktori
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik ta’limotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uning ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni hamda jadid mutafakkirlarining ilm-ma’rifat, axloqiy kamolot, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy adolat va taraqqiyot haqidagi qarashlari asosida ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, milliy an’analar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligi jamiyatning ma’naviy yangilanishi, ijtimoiy ong transformatsiyasi hamda komil insonni tarbiyalashning muhim omili sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy taraqqiyot, ma’rifatli jamiyat, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, komil inson, milliy o‘zlik, ma’naviy meros, ijtimoiy ong.

Mamlakatimizda yangi Uyg‘onish davrini barpo etish jarayonida ma’naviy omilning hal qiluvchi ahamiyati alohida ta’kidlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvga ko‘ra, Yangi Renessans poydevorini yaratish, avvalo, jamiyat a’zolarining qalbi va ongida yuksak ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Zero, ma’naviyat insonni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi, uning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o’tganidek, “O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ma'naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur”[1].

Mazkur g‘oya shuni anglatadiki, yangi taraqqiyot bosqichida har bir shaxsning ma’naviy kamoloti, yuksak axloqiy mezonlarga amal qilishi hamda jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu ma’noda, ma’naviy muhitni mustahkamlash, ijtimoiy ongda

ezgulik, bunyodkorlik va vatanparvarlik g‘oyalarini qaror toptirish yangi Uyg‘onish davrining asosiy ijtimoiy-falsafiy mezonlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash va jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni qaror toptirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan jadidlar merosini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish, undagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi g‘oyasini zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un holda tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifat, adolat, ijtimoiy faollik va ma’naviy kamolotga asoslangan jamiyat modeli bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining g‘oyaviy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar millatning tarixiy taqdirini o‘zgartirish, uni jaholat va ijtimoiy turg‘unlikdan olib chiqish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish orqali taraqqiyot yo‘liga olib chiqishga xizmat qildi. Ularning qarashlarida milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligi jamiyatni yangilashning muhim metodologik asosi sifatida talqin etiladi.

Jadidchilik ta’limotining markazida inson omili, uning ma’naviy kamoloti, erkin tafakkuri va ijtimoiy faolligi masalasi turadi. Chunki jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotini, avvalo, shaxsning ma’naviy yetukligi, ilmga bo‘lgan munosabati va milliy o‘zlikni anglash darajasi bilan bog‘liq holda tushuntiradilar. Ular milliy an’analar va qadriyatlarni saqlab qolgan holda, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish zarurligini asoslab, Sharq va G‘arb madaniyati o‘rtasida ma’naviy-madaniy muloqotni yo‘lga qo‘yishga intildilar. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar sinteziga asoslangan yangi ma’rifiy jamiyat modelini shakllantirishga xizmat qildi.

“XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo‘lib, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma’naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan ma’rifiy ta’limotlar va nazariyalar mavjud edi”[2]. Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, Muallifning fikricha, mazkur g‘oyaviy xilma-xillikni Turkiston ijtimoiy tafakkurining evolyutsion bosqichi sifatida baholash lozim. Chunki aynan shu ko‘p qatlamli ma’naviy muhit jadidchilik harakatining shakllanishiga, uning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasining pishib yetilishiga asos bo‘ldi. Jadidlar mavjud an’anaviy qarashlarni inkor etmagan holda, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildilar va natijada milliy uyg‘onish g‘oyasiga asoslangan yangi ma’rifiy tafakkur modelini yaratdilar.

Demak, XIX asrning ma’naviy-g‘oyaviy manzarasi jadidchilik harakatini tarixiy zarurat sifatida yuzaga keltirgan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy jarayonlar majmui bo‘lib, u Turkiston jamiyatining keyingi taraqqiyot yo‘nalishini belgilab bergan muhim bosqich sifatida ilmiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishi sifatida ilgari surilmoqda. Mazkur g‘oya jamiyatning barcha sohalarini tubdan yangilash, milliy o‘zlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi konseptual dastur vazifasini bajaradi. Taraqqiyotning zamonaviy davri talablari asosida davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalar tizimli ravishda belgilab olinib, ularni amalga oshirishning institutsional va huquqiy asoslari yaratildi.

Mamlakatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar iqtisodiy modernizatsiya, ijtimoiy sohani takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni qamrab oladi. Ushbu strategik maqsadlar o‘z navbatida O‘zbekistonning yangi Renessansi – yangi Uyg‘onish davri uchun mustahkam nazariy va amaliy poydevor yaratishga xizmat qiladi[3].

Yangi Renessans g‘oyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan holda ilm-fan, ta’lim, madaniyat va ma’naviyatning jadal rivojlanishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki jamiyatda ma’rifatli muhitni shakllantirish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi va uning asosida ishlab chiqilgan Taraqqiyot strategiyasi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning metodologik asosi bo‘lib, u mamlakatda yangi Uyg‘onish davrini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzoq muddatli ijtimoiy-falsafiy dastur sifatida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, xalqni mamlakat taraqqiyoti yo‘lida birlashtirish, ijtimoiy ongni uyg‘otish va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallagan har tomonlama rivojlangan “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishga qaratilgan Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning ma’naviy-intellektual manbalari jadid ma’rifatparvarlari faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy uyg‘onish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish, jamiyatni isloh qilish, ma’naviy yangilanishga erishish kabi g‘oyalar bugungi kunda yangi bosqichda davom etayotgan taraqqiyot jarayonlarining konseptual asosini tashkil etadi.

Jadid mutafakkirlari o‘z davrida xalqni jaholat va ijtimoiy turg‘unlikdan olib chiqishning eng muhim omili sifatida ma’rifatni e’tirof etganlar. Ular millat ravnaqi ilm-fan, zamonaviy ta’lim, axloqiy kamolot va ijtimoiy faollikka bog‘liq ekanini chuqur anglab, yangi usul maktablari tashkil etish, matbuot va teatrni rivojlantirish, ayollar ta’limini yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishga intildilar. Bu jarayon, aslida, yangi ma’naviy makon yaratish, yangicha tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash va ma’rifatli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy-falsafiy harakat edi[4].

Uchinchi Renessans g‘oyasining mazmun-mohiyati ham aynan inson kapitalini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’naviy muhitni shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan qaralganda, jadidchilik

harakati bilan zamonaviy taraqqiyot strategiyasi o‘rtasida g‘oyaviy va metodologik uzviylik mavjud. Jadidlar tomonidan boshlangan ma’rifiy islohotlar bugungi kunda yangi tarixiy sharoitda yangi mazmun bilan boyib, milliy yuksalishning muhim omiliga aylanmoqda.

Shuningdek, jadidlar milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolik mas’uliyati kabi g‘oyalarni ilgari surgan holda jamiyatni birlashtiruvchi ma’naviy kuchni shakllantirishga intilganlar. Ularning qarashlarida shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish jarayonida aynan shu tamoyillar – ma’rifat, ma’naviy yangilanish va ijtimoiy faollik ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy jihatdan jadidlar ma’naviy merosining mantiqiy davomidir. U milliy uyg‘onish, ma’rifatli jamiyat barpo etish va yangi ma’naviy makon yaratish g‘oyalarining zamonaviy talqini sifatida namoyon bo‘ladi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar bugungi taraqqiyot jarayonlarining nazariy-metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda va milliy yuksalishning ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan hikmatli so‘zlari jadidchilik ta’limotining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasini chuqur ifodalaydi. Ushbu fikrda tarbiya masalasi shaxs kamolotining oddiy pedagogik jarayoni sifatida emas, balki millatning tarixiy taqdiri, ijtimoiy yuksalishi va ma’naviy istiqbolini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida talqin etiladi[5].

Jadid mutafakkirlari qarashlarida tarbiya milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni asrab-avaylash va uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya orqali insonda nafaqat axloqiy poklik va vatanparvarlik, balki ilmga intilish, erkin fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlar shakllanadi. Bu esa milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy tamoyillar sinteziga asoslangan ma’rifatli jamiyatni barpo etishning muhim shartidir.

Mazkur g‘oya jadidchilikning asosiy maqsadi – jamiyatni jaholatdan chiqarish, uni ilm-ma’rifat va axloqiy kamolot asosida rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Jadidlar tarbiya orqali millatning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, uning ijtimoiy ongini yangilash va yangi ma’naviy makon yaratishga intildilar. Chunki ularning fikricha, ma’naviy yetuk shaxslar jamiyatning taraqqiyotini ta’minlaydi, milliy manfaatlarni himoya qiladi va umuminsoniy sivilizatsiya bilan hamnafas bo‘lish imkonini beradi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, Avloniy tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oya milliy taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash va ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan hamohangdir. Bu esa jadidchilik ta’limotining bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini va uning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’naviy taraqqiyot modeli

sifatida metodologik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Demak, Avloniyning mazkur hikmatli so‘zlari jadid pedagogikasi va falsafasida tarbiya masalasining strategik ijtimoiy ahamiyatini, ya’ni shaxs kamoloti orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g‘oyasini ifodalaydi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’naviy taraqqiyotning eng muhim omili sifatida tarbiyaning hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jadidchilik ta’limotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi masalasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur g‘oya millatning ma’naviy yuksalishi va jamiyat taraqqiyotining muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ilm-ma’rifat, axloqiy kamolot, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy adolat va taraqqiyot haqidagi qarashlar milliy qadriyatlarni asrab-avaylagan holda umuminsoniy tamoyillarni o‘zlashtirish zarurligini asoslab berdi. Bu esa jamiyatning ichki ma’naviy salohiyatini mustahkamlash bilan birga, uni jahon sivilizatsiyasi bilan hamohang rivojlantirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalari jadidchilik ta’limotida tarbiya, ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atning jamiyat ma’naviy hayotini yangilashdagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Ular orqali shaxsning erkin fikrlashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy yetukligi ta’minlanib, ma’rifatli jamiyatni shakllantirishga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Jadidlar milliy an’analar va qadriyatlarni inkor etmagan holda, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishga intildilar va shu asosda yangi ijtimoiy tafakkur modelini yaratdilar.

Shuningdek, jadidchilik ta’limotida komil insonni tarbiyalash g‘oyasi ma’naviy taraqqiyotning bosh omili sifatida talqin etiladi. Chunki ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu esa jadidlar ilgari surgan ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining zamonaviy fuqarolik jamiyati, inson kapitalini rivojlantirish va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv sharoitida jadidlar merosida aks etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi yosh avlodni vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ularning g‘oyalari milliy taraqqiyotning ma’naviy poydevorini mustahkamlash, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni qaror toptirish hamda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, jadidchilik ta’limotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi ma’naviy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘lib, u shaxs kamoloti, ijtimoiy ong transformatsiyasi va jamiyat modernizatsiyasining muhim sharti hisoblanadi. Ushbu boy ma’naviy merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy taraqqiyot talablari asosida amaliyotga tatbiq etish milliy yuksalish va yangi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 276.

2. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003. -B. 79.
3. Mamatqulov E. YANGI O’ZBEKISTONDA MA’NAVIY MAKONNI YARATISH BORASIDAGI ASOSIY VAZIFALAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 9. – C. 402-406.
4. Farxodjonova N. F. The importance of the spiritual heritage of the jadids in the development of society //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-2 (101). – C. 33-35.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. /Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma’naviyat, 2006.

FITRAT ASARLARIDAGI TARIXIY TURKIY LEKSEMALAR (HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA PASSIV QO‘LLANISHDA BO‘LGAN LEKSEMALAR O‘RNAGIDA)

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdurauf Fitrat asarlaridagi qadimiy turkiy leksemalarni tahlil qiladi va ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi passiv yoki arxaik qo‘llanilish bilan solishtirilishini ko‘rsatadi. Tadqiqotda *cherik, yov, xoqon, tangri, bek, yorliq, til, er* kabi leksemalar misol tariqasida keltirilgan bo‘lib, ularning qadimgi turkiy yozma manbalardagi (bitigtoshlar, “Qutadg‘u bilig”, Mo‘yun Cho‘r, DLT) vazifasi va ma’nosi tahlil qilingan. Maqolada ushbu birliklarning Fitrat matnlarida nafaqat tarixiy kolorit yaratish, balki qadimgi turkiy siyosiy, harbiy va ijtimoiy terminologiyani saqlab qolish, shuningdek, milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘lanish sifatida ishlatilgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, so‘zlarning semantik kengayishi, ma’no ko‘chishi va badiiy matnga integratsiyasi misollar bilan yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Fitrat adib tilida arxaik birliklar stilistik vosita emas, balki tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-konseptual element sifatida faol ishlatilgan, bu esa uning til uslubini milliylik va tarixiylik asosida shakllantirganini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar. tarixiy turkiy leksemalar, Fitrat asarlari, qadimiy turkiy til, semantik davomchilik, o‘zbek adabiy tili.

Tarixiy turkiy leksemalar turkiy tillar tarixida nafaqat ma’nolarining o‘zgarishi, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstlar bilan bog‘liq funksional rolini ham saqlab kelgan. Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydigan tarixiy leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida passiv yoki kam qo‘llanilsa-da, o‘zining tarixiy-semantik qatlamini saqlab, matnga tarixiy kolorit va milliy tafakkur nuqtai nazaridan boylik qo‘shadi. Biz quyida mutafakkir asarlaridagi *cherik, yov, xoqon, tangri, bek, yorliq, til va er* kabi tarixiy turkiy leksik birliklarni qiyosiy-tarixiy aspektda tahlilini ko‘rib chiqamiz.

cherik/čärik. Fitrat asarlarida ushbu leksema ayni O‘rxun bitiglaridagi ma’no ko‘lamida qo‘llangan: *“shahar o‘rnida boliq askar o‘rnida cherik mana shunday so‘zlardandir ohang yozuvchi”* (“Adabiyot qoidalari”). Ushbu leksemaning qadimgi

turkiy tildagi qo‘llanishi haqida quyidagilarni aytish mumkin. Harbiy istiloh tarixiy manbadalardan ilk bor Mo‘yun Cho‘r matnlarida ko‘zga tashlanadi: *“Šïp bašïŋa: tägi: čärig itdim* – Ship boshigacha qo‘shin tortdim” (MCh $_{15}$). Istiloh “Qutadg‘u bilig”da tilga olinadi: *“Yüräksiz kišilär čärig artatur* – Qo‘rqoq kishilar lashkarni buzadilar” (QBK, 121$_{13}$). “Bitiglarda alohida qo‘llangan *sü* va *čärig* istilohlari Qoraxoniylar davri hamda uyg‘urcha matnlarda *sü čärig* va *čärig sü* juft so‘zi shaklida qo‘llanadi” [1, 38]. Ushbu istiloh keyingi davr turkiy sulolalar harbiy tizimida ham faol ishlatilgan. Jumladan, “Buxoro xonligida nomuntazam qo‘shin *qora čärik* istilohi bilan yuritilgan. *čärik* asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Buxoro madaniy muhitining vakili bo‘lgan Fitrat asarlarida *čärik* so‘zining faol gavdalanishini ushbu holat bilan ham izohlash mumkin.

yov/yaγï. Mazkur istiloh ma’rifatparvar asarlarida asosan harbiy mazmundagi kontekstda, shuningdek, ko‘chma ma’noda maishiy ruhdagi satrlarda ko‘zga tashlanadi. Elni erkka chorlovchi, uni dushmandan asrash lozimligi haqida bildirgan da’vatlarda ushbu leksik birlik faol gavdalanadi. Masalan, *“yovni yurtdan haydamoq bir yurtni yov qo‘lida ko‘rmakdan qiyin emasdir dilnavoz”* (“Hind ixtilochilar”) kabi jumlalar bunga yorqin dalil bo‘ladi. Bu leksema qadimgi yodnomalarda *yaγï* shaklida, bevosita “yov, dushman” ma’nolarida qo‘llanilib, hozirgi o‘zbek tilida “dushman” ma’nosidagi *yog‘iy* (O‘TIL II, 58) va “dushman, raqib” ma’nosidagi *yov* (O‘TIL, II, 22) shakllarida saqlangan. Ko‘rinadiki, har ikki leksemaning semalari mushtarak. Bu ikki so‘z tarixan bir leksemaning ikki varianti hisoblanadi. Jumladan, “*yåv* so‘zida bo‘lgani kabi ikkinchi bo‘g‘inlardagi *-agi (ag‘i)* yoki *-agu (ag‘u)* > *-av* o‘zgarishi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida tez-tez uchraydi: *birägü* > *biräv* > *biråv; küdägü* > *küyäv* > *kÿyåv; kïragï* > *kïrav* > *kïrov* kabi” [2, 16]. *yaγï* so‘zida ham xuddi shu jarayon kuzatilgan. Hozirgi o‘zbek tilida *yov* so‘ziga aloqador *yovgarchilik* (jang, urush holati; dushmanlik, o‘zaro adovatda bo‘lishlik), *yov-yov* (yov hujumi, urush), *yovlamoq* (hujum qilmoq), *yovlik* (yovgarchilik; o‘taketgan yirtqich; dushman), *yov-yaroq* (qurol-aslaha), *yovqur* (jasur), *yovqurlik* (botirlik), *yovchi (yog‘chi)* (*ko‘ch. ma’n.* sovchi) leksemalar mavjud (O‘TIL II, 22-24).

xoqon/qaγan. Fitrat “Mirriz yulduziga” she’rida ishlatilgan *xoqon* so‘zi oddiy “podsho” ma’nosida emas – u chuqur tarixiy-ramziy yuklama bilan qo‘llangan: *“Bormi senda bir o‘lkani yondirib, O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar”* (“Mirrix yulduziga”). Tarixiy jihatdan *xoqon* unvoni turkiy davlat tuzilmalarida eng yuqori darajadagi hukmdorni, ya’ni boshqa xonlar ustidan hukmron bo‘lgan imperator maqomidagi shaxsni bildirgan. Fitrat ushbu tarixiy istilohni she’rga olib kirish orqali nafaqat qadimgi siyosiy leksikani jonlantiradi, balki millatning tarixiy xotirasiga murojaat qiladi. Eng ahamiyatlisi xoqonning tarixda shunday oliy fazilatlarga ega bo‘lgani holda, muallif bu o‘rinda keyingi davr, xususan, uning zamonasida faqat o‘z manfaatini o‘ylab, ammo o‘zlarini xoqon deb ataguvchi riyokor yurtboshilarini fosh qiladi va bu orqali o‘ziga antiteza yaratiladi. Leksemaning bitiglardagi qo‘llanishiga to‘xtalsak, qadimgi turk siyosiy-ijtimoiy tuzumiga ko‘ra, oliy hukmdor *qaγan* istilohi bilan atalgan va u yodnomlarda quyidagicha ko‘zga tashlanadi: “*...dä täŋridä bolmïš äl ätmiš uyγur qaγan: olurmïš:* – Tangrida Bo‘lmish El Etmish Uyg‘ur Xoqon taxtga o‘tirdi” (Tes $_{Sha\ 1}$); “*ärmiš: qaγan ... äki ärmiš anta adïn:*

ödkünč qayan ärmiš: – emish. Xoqon ... ikki ekan. Bundan boshqa (ulardan biri) sohta Xoqon ekan" (Tes Sha 2). Kelib chiqishi juda qadimgi bo‘lgan "*qayan* harbiy-siyosiy-ma'muriy unvoni "turkiy qabilalarning saylangan mustaqil yetakchisi" ma'nosini anglatadi" [2, 630]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qayan* istilohi *xoqon* shaklida "qadimgi turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlariga beriladigan eng oliy unvon va ushbu unvonga ega bo‘lgan shaxs" sifatida izohlangan (O‘TIL, IV, 417) va asosan tarixiy-badiiy va ilmiy uslublarda ishlatiladi.

tangri/täŋri. Fitrat merosida ushbu leksema tarixiy asarlar (masalan, "Abulfayzxon"da)da hukmdor esga olinganda yoki unga murojaat qilinganda, shuningdek, zamonaviy hikoyalarida Haqning nomi zikr qilinganda qo‘llanilgan. Masalan, *"boshqa gaplarni qo‘yabering qozi nizom tangri xoqonimizg‘a esonliq bergay o‘zlari yaxshi"* ("Abulfayzxon"); *"tinchgina o‘tirganga qo‘yasizmi sherxon uni tangri biladir har holda erta kechdan"* ("Chin sevish"). Bitigtoshlarda *Täŋri* odatda qadimgi turk davri matnlarida "osmon, Xudo, Xudoga tegishli, ilohiy, ilohiy kuchga ega; Xudo tomonidan yaratilgan; Xudoning vakili" ma'nolarida ishlatilgan. Qadimgi turklar "Eng oliy" deb hisoblagan *Täŋri*ni har doim osmonda, osmondan balandda deb o‘ylashgan. Xoqonlarning har qanday zafar quchishi uchun Tangri yarlaqashi kerak edi: "*üzä kök täŋri yarïlqaduq : üčün asra yaγiz yär : igitük : üčün : älimän : törümün ätintim* – Yuqoridagi moviy Tengri (Osmon) yarlaqagani uchun, pastdagi yag‘iz yerning homiyligi bilan yurtim, hukumatimni tartibga keltirdim" (Tar G‘ 3); "*täŋri: yär anta: ayu bärti: anta sančdïm* – Тангри (ва) ер буюргани учун (уларни) ўшанда енгдим (ўлдирдим)" (ShU J 9). Turkiy xoqonlar va sarkardalar nomlarida ishlatilgan, *Täŋri* so‘zining sifatlovchisi yoki aniqlovchisi bo‘lib xizmat qiladigan mazmunli va funksional lingvistik elementlar asta-sekin *Täŋri* so‘ziga nisbatan o‘z ma'nolarini yo‘qotdi va belgisiz ishlatila boshlanadi. *täŋri/tangri* leksemasi tarixiy turkiy matnlarda oliy ilohiy kuch va hokimiyat timsoli sifatida qo‘llanib, hukmdor hokimiyatining ilohiy legitimatsiyasini ifodalagan bo‘lsa, Fitrat asarlarida u shu qadimiy semantik asosni saqlagan holda tarixiy kolorit yaratish va nutqqa tantanavor-uslubiy ohang berish vazifasini bajaradi.

bek/bäk.Eski turkiy matnlarda faol bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida ham saqlanib qolgan ushbu leksema adib asarlarida ma'no umumiyligini yo‘qotmagan asosan ikki vazifada ko‘zga tashlanib, shakllarning har biri ijtimoiy mavqeyga ishora qiladi:

1. murojjat birligi: *"birlarig‘a qaraylar qalandar hakimbiyga so‘ylar bek biz shahringizga shu kun keldik"* ("Abulfayzxon");

2. ismning tarkibiy qismi: *"o‘z ishlarini tuzatsunlar mir vafo bek abdumo‘minxonning ishini bir yoqlik qilmasangiz"* ("Abulfayzxon").

Aytish lozimki, beklar tabaqasi qadimgi turk jamiyatida juda muhim qatlamni tashkil etgan. Qadimgi turk tilida ushbu leksema antroponimlar tarkibida ishlatish odati keng tarqalgan edi (masalan, *Bars Bäk, Bäk Arslan, Urun Bäk*). Runik va qadimgi uyg‘ur yozuv manbalariga ko‘ra, *bäk* unvonini hukmdorlar egallagan. Keyinchalik turkiy xalqlarda *bäka* atamasi xon yoki hukmdor xizmatidagi alohida polklar va jamoalar rahbarlariga nisbatan ishlatilgan. V.V.Bartold "bek" so‘zining uch asosiy ma'nosini ko‘rsatadi: hukmdor sulolasining shohzodalaridan va oddiy xalqdan farqli ravishda har bir boy va ulug‘vor shaxs; kichik qabilaning yoki kichik urug‘iy guruhning boshlig‘i; har qanday "hokimiyat" eng keng ma'noda. "Qadimgi

turkiy davlatlardagi har bir mansabdor shaxs muayyan unvonga ega bo‘lib, ularga nisbatan mavqe jihatidan farqlanuvchi bir necha o‘nlab unvonlar qo‘llanilishi barobarida umumiy ma’noda muhim amaldorlarni ifodalovchi *bäg* istilohi ishlatilgan” [19, 161]. *bäg* Taryat bitigida quyidagicha uchraydi: *“yarattïdïm : toquz oγuz ... n bägläri kälti o/u ... o/uk. l yämä yaramatïn : yaγïdu ärmis : ürüŋ bägig : qara buluquγ : anï olurmus* – yozdirdim. To‘g‘uz O‘g‘uz ... beklari keldi. ... (ular) yana kutilmaganda dushman bo‘ldi. Urung Bek, Qara Buluq (va) Ani (daryosi)da bo‘ldi(lar)” (Tar Sha 10). Bitiglarda ushbu istilohning aks etish o‘rni uning asosan qabila yoki urug‘ sardorlariga nisbatan qo‘llanganini ko‘rsatadi. “Qutadg‘u bilig”da *bäg* istilohi bilan bog‘liq *bägi* – “qahramon”, *bäglik* – “beklik, bek hokimiyati”, *bägsig* – “bek singari” kabi so‘zlar tilga olinadi (QBK, 99_{14}). Mahmud Koshg‘ariy ham *bäg* so‘zini “er, hokim” ma’nolarida qo‘llaydi va ayni so‘z yumshoq *k* bilan aytiladigan bo‘lsa, “kichik oliyjanob” ma’nosini anglatishini yozadi (DLT, I, 339). Turkiy matnlarda *bäg* istilohining harbiy-ma’muriy unvon tarzida keng qo‘llanishi uning turkiy tilning nafaqat qadimgi bosqichi, balki keyingi davrida ham semantik-funksional mavqeyini saqlab qolganini ko‘rsatadi.

yorliq/yarluqa-. Fitratning *“bergan yorliqda yozilg‘an o‘kunar shu yorliq qani mahmudxon yorliq emloqda o‘kunar”* (“Hind ixtilochilari”) satrlarida tilga olingan *yorliq* so‘zi Adibning tarixiy ruhdagi asarlarida kolorit ehtiyoji o‘laroq qo‘llanilib, shuningdek, rus siyosiy-ma’muriy hujjatchilik tizimi hali mutlaq reallashmagan o‘zbek tilida to‘la iste’moldan chiqib ulgurmagan edi. So‘zning fe’l asosi bo‘lgan leksema *yarlïqa-* – “yarlaqamoq” (Tar $_{G‘\ 3}$), *yarluqa-* – “buyruq bermoq” (Tar $_{Shi\ 6}$) shakllarida O‘rxun bitiglarida ko‘zga tashlanadi: “*üzä kök täŋri yarïlqaduq : üčün asra yaγiz yär : igitük : üčün : älimän : törümün ätintim* – Yuqoridagi moviy Tengri (Osmon) yarlaqagani uchun, pastdagi yag‘iz yerning homiyligi bilan yurtim, hukumatimni tartibga keltirdim” (Tar $_{G‘\ 3}$). Demak, mazkur leksemaning Fitrat matnida qo‘llanishi nafaqat tarixiy kolorit yaratish vositasi, balki qadimgi turkiy siyosiy-huquqiy terminologiyaning semantik xotirasini saqlab qolish strategiyasi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Bu holat adib tilida arxaik birliklarning stilistik vosita emas, balki milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘langan konseptual birlik sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

til/tïl. Turkiy tilning qadimgi davrlaridan harbiy istiloh o‘laroq “asir; josus” ma’nolarida qo‘llanilib, kelingan ushbu leksema Fitrat asarlarida ham ayni yuqoridagi mazmunda ishlatilgan: *“o‘runduqg‘a o‘turur besh po‘lis bilan tilchi xotun narsalar bilan tutqunlarni kelturalar”* (“Hind ixtilochilari”); *“bu tomonga o‘tkarmangiz birta ikkita tilchi yuborsalar mayli bir qorovul bilan”* (“Abulfayzxon”). Fitrat matnlarida qo‘llangan *til* leksemasi zamonaviy o‘zbek tilidagi “tarjimon” ma’nosidan ko‘ra qadimgi turkiy harbiy-razvedka terminologiyasiga xos semantik qatlamni aks ettirgan deyish mumkin. Ya’ni bu birlik adib tilida tarixiy-leksik arxaizm sifatida emas, balki qadimgi turkiy matnlar, o‘rta asr adabiyoti va klassik tarixiy manbalarda uzluksiz qo‘llanib kelgan terminning funksional davomchisi sifatida ishlatilgan. Xususan, bitigtoshlarda razvedka bilan bog‘liq *tïl* – “josus, asir, ma’lumot yig‘ish uchun asirga olingan shaxs” va *tïl tut-* – “asirga olish” kabi birliklar uchraydi. “*yälmisin mäniŋ är anta basmïš: tïl tutmïš* – Авангард (ёки мусаллаҳ)ини менинг аскар(лар)им у ерда

босибди (ўлдирибди), тилчи (жосус)ларини қўлга олибди” (MCh $_{Sha\ 12}$). Ushbu o‘rinlarda *tïl* so‘zining ma’no ko‘chish hodisasiga uchragani yaqqol namoyon bo‘lgan. A.Donuk [5, 104] hamda A.Gul [8, 27-103] *tïl* so‘zini “urushda dushman tomonidagi yangiliklar uchun ushlab turilgan odam, asir va josus” sifatida izohlaydi. Ushbu so‘zning harbiy termin sifatidagi ma’no hamda vazifasi XI asr va undan keyingi matnlarda xususan, hozirgi o‘zbek harbiy terminologiyasida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, DLTda *tïl* istilohi *josus* sifatida izohlanadi: “*yaγïdan tïl tuttï* – dushman josusini tutib oldi” (DLT III, 148). “Qutadg‘u bilig” muallifi jangovar harakatlar boshlanishidan oldin g‘anim tomonidan asir olishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi: “*tïl alγu käräk, bu tïldin yaγï qïlqï bilgï käräk* – til tutmoq kerak, bu til (asir) orqali dushman harakatlaridan xabardor bo‘lmoq kerak” (ДТС 559). Istiloh Bobur Mirzo harbiy-idora tizimida ham faol qo‘llanilgan. Chunonchi, “Boburnoma”dagi *til tuta yibormoq* iborasi “ayg‘oqchilikka yubormoq” [20, 19] ma’nosida qo‘llangan. Demak, Fitrat *til* so‘zini qo‘llash orqali tarixiy voqelikni realistik tasvirlash hamda qadimgi turkiy harbiy-siyosiy terminologiyaning semantik modelini ongli ravishda badiiy matnga ko‘chirish maqsadini ko‘zlagan, bu esa uning til imkoniyatlari borasida tarixiylik va an’anaviylik tamoyillariga tayanganini dalillaydi.

er/är. Turkiy tilning rivojida qadimdan to hozirgacha o‘zining arxisemasini yo‘qotmasdan bir qancha potensial semalar (*ijtimoiy faol, kuchli, jamiyatda o‘rin tutgan erkak shaxs* konsepti) kasb etib qo‘llanib kelayotgan ushbu leksema Fitrat asarlarida ikki ma’noda ko‘zga tashlanadi:

1. “turmush o‘rtoq; qalliq; erkak” ma’nolarida: *“er istamadim ku zaynab achchig‘lanib er istamasang, nima deb kelding kelganingda”* (“Arslon”); *“erkaklarning haqlari sanaladi ba zi erlar rashk va g‘ayrat bahonasi bilan”* (“Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”);

2. “elning koriga yaraydigan o‘g‘lon, yigit; jangchi”: *“Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari, To‘planaylik, turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali... Ilm o‘chog‘ida yetishkan er-yigitlar, To‘planing!”* (“O‘qitg‘uvchilar yurtiga”). Aytish lozimki, bu yerda leksema turkiy madaniy-tarixiy ongda shakllangan konseptual timsol – jamiyat tayanchi bo‘lgan ideal shaxs tushunchasiga ishora qiladi.

“Jangchi, askar” ma’nosini ifodalagan *är* tub leksemasining manbalarda “askarlar, qo‘shin” ma’nosini ifodalashi bitigtoshlarida aks etgan: “*yälmisin mäniŋ är anta basmiš: tïl tutmiš* – Avangard (yoki musallah)ini mening askar(lar)im u yerda bosibdi (o‘ldiribdi), tilchi (josus)larini qo‘lga olibdi” (ShU $_{Sha\ 12}$). Bitigtoshlarda *är* leksemasi “er, er kishi, askar, bahodir” ma’nolarida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit-turk”da *är* asosida shakllangan va harbiy ma’no ifodalagan quyidagi yasalmalar qayd etiladi: *äräη* – I. erlar, erkaklar; bahodirlar (DLT I, 71; 249; 105) II. askar (DLT I, 165); *ärläš-* – mardlikda bahslashmoq (DLT I, 242, 16); *ärlik* – erlik, mard (DLT I, 129); *ärkäkländi* – 3. botirlandi (DLT I, 306). Aytish lozimki, Fitrat asarlarida, shuningdek, hozirda ham qo‘llanishda bo‘lgan *erkak/ärkäk* so‘zi tovush va ma’no o‘xshashligiga qaramasdan *är* bilan bog‘liq emas. Xususan, “M.Erdal bu so‘zni *irk* – “to‘rt yoshga kirgan qo‘chqor” so‘zidan *-ak* qo‘shimchasi bilan yasalganini qayd etadi. Qolaversa, bir qancha turkiy matnlardagi *ärkäk* so‘zi “erkak hayvon” ma’nosini anglatgan: *irkäk yunt* – “erkak ot” (IB, 24), *ärkäk buzaγu* – “erkak buzoq”

[17, 202]. Ya’ni jinsning belgisini aniqlovchi komponent vazifasini bajargan. Yuqoridagi *är* bitiglarda hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nolariga yaqin bir holatda kelgan. Ushbu so‘z O‘TILda “1. erkak. 2. er. 3. mard, jasur, oliyjanob kishi” ma’nolarida izohlangan (O‘TIL II, 45). Demak, Fitrat asarlarida bu leksemaning ikki asosiy ma’noda (oilaviy-ijtimoiy va harbiy-qahramonlik) parallel qo‘llanishi bir tomondan XX asr o‘zbek tilidagi so‘zlarning ifoda maxsus va umumiste’mol doiradagi ifoda imkoniyatlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan adibning tilida tarixiy semantik qatlam faol ishlaganini ko‘rsatadi.

Xullas, Abdurauf Fitrat asarlaridagi tarixiy turkiy leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida passiv yoki cheklangan qo‘llanishda bo‘lsa-da, ular qadimgi turkiy tilning semantik va funksional qatlamini saqlab kelgan. Shu orqali Fitrat tilida arxaik leksemalar nafaqat badiiy bezak vazifasini bajaradi, balki tarixiy voqelikni realistik tasvirlash va milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘lanish strategiyasini amalga oshiradi. Umuman olganda, maqola Fitrat asarlaridagi tarixiy turkiy leksemalarning qadimgi manbalar bilan uzluksiz aloqasi, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ifoda imkoniyatlari va semantik davomchiligi haqida ilmiy xulosalarni beradi hamda bu birliklarning til tarixidagi o‘rni va funksiyasini yoritadi.

Adabiyotlar:

1. *Arat Reşit Rahmeti.* Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I: Metin, *5. Baskı, – Ankara. Türk Dil Kurumu, 2007.* – S. 2334.

2. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972;

3. Dadaboyev H. Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Sahhof, 2021. – B. 8.

4. DLT – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.

5. Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.;

6. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.

7. Dusmurodov M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.

8. *Ekrem G. Babürname’de Geçen Askeri Terimler Üzerine.* – Belleten*, 2014. – S. 27-103.*

9. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 86-87.

10. *Gemalmaz, E*. Türkçenin Morfo-sentaktik Yapısının Fonolojisine Etkileri. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, *1992*. – 169–173.

11. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2007. III. – 687 б.

12. O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан. 1971. – 409 б.

13. QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).

14. QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg‘ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi 1809).

15. QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).

16. Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 260-296.

17. Şirin H. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. – Istanbul. 2015. –151 s.

18. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик (2000-2010). – Т. 2010.

19. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;

20. Муҳаммадиева Д. “Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2021. – Б. 19.

21. СИГТЯ – *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков*. Лексика. – М., 2001.

KUL TIGIN BITIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLILI: TINCHLIK G‘OYASI NIMADA?

SHARIPOV Dilshod Baxshilloevich
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Kul Tigin bitigi balandligi 3 metr 25 santimetrlik bo‘lgan turk hoqoni Eltarish hoqonning kichik o‘g‘li Kul tigin qabriga uning 47 yoshidagi vafotidan bir yil o‘tib, 732 yilda qo‘yilgan marmar-tosh bo‘lib, Kul tiginning akasi Bilga hoqon tilidan (asli ismi Mo‘g‘uliyon) hikoya qilingan. Kul tigin bitigini uning jiyani Yo‘llug‘ tigin yozgan.

Kul tigin bitigi Bilga hoqonning og‘a-inilari, qarindoshlari, xalqiga murojaat tarzida bitilgan bo‘lib, turk eli boshiga kelgan kulfatlar ularning adashishlari oqibatida ekanligi ko‘rsatilgan.

Kultigin bitigi qo‘shnichilik siyosatidagi o‘sha ilk o‘rta asrlarga xos bo‘lgan “sen bosib olmasang, seni bosib olishadi” qabilidagi g‘oya o‘sha paytda hukmron bo‘lganligidan afsus-nadomat chekish manzarasi ifodalangan. “Hoqonning murojaatidan maqsad – hokimiyatni mustahamlash, o‘zaro urush-janjallarga chek qo‘yish, ittifoq bo‘lib yashashdir”[1].

Kul tigin o‘z taxtini falakdan, Xudodan olganini yozdirgan. Uning saltanati keng bo‘lib, buyuk ipak yo‘li o‘tgan yerlarni qamrab olgan. Bunda taqdir – fortuna ilohiy, deb qabul qilingan va barcha jihatlari bilan hukmdor irodasiga bog‘langan.

Uning g‘oyasi shundan iboratki, ayrim xalqlarning shirin so‘zi, nafis ipak kiyimi kabilarga uchib, qo‘l ostidagi boshqa xalqlarni qirg‘inga uchramaslikka chaqirish, ilmsizlik oqibatida halok bo‘lgan qavmlardan afsuslanish, qo‘shnilar bilan murosa asosida yashash kabilar tashkil etadi. Buning uchun esa hoqon donologi tinchlikni asrab qolish mezoni sifatida qaralgan.

Kul tigin bitigida urushni “yovuz ilm” deb ta’riflangan: “Shirin so‘zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaxshi qo‘shni bo‘lgandan keyin yovuz ilmni u yerda o‘rganar ekan”[2]. Bu yerdagi “yovuz ilmni u o‘rganar ekan” jumlasi “urush qilar ekan”, “qo‘shni xalqning qonini to‘kar ekan”, deb tahrirlash mumkin. Chunki bunda shu ta’kidlangan dushman xalq “yaxshi, dono kishini, yaxshi elp kishini yo‘latmas ekan”[3] deyilganida esa qo‘shnisini iskanjada saqlash siyosati yuritilganini ko‘rsatadi. Buni o‘sha zamon tarixidagi Tabg‘ach xalqi amalga oshirgani ta’kidlangan. Bo‘lmasa, biror aqlliroq, donoroq va mard-pahlavon kishi shu xalq ichidan chiqsa, ularni butunlay yo‘q qilmaguncha to‘xtamasligini ta’kidlangan: “Biror kishi adashsa, urug‘i, xalqi, uyi, yopinchig‘igacha qo‘ymas ekan”[4], deydi. Adashish, bu yerda qo‘shni xalqning bitta bo‘lsin aqlli, dono va mard kishisi chiqishining o‘zidir, shuningdek, tabg‘achlar yuritgan har qanday siyosatdan o‘zgacha qarashda bo‘lishdir, yoki mustaqil bo‘lishga intilishdir. Qo‘shnilarga qaratilgan bunday yo‘l-yo‘riq, hozirgi siyosiy tildagi *siyosiy yo‘riq* aslo yaxshi qo‘shnichilik siyosati, deb atalmaydi, aksincha, bu bosqinchilik, vahshiylik, qonxo‘rlik, genotsidning yashirin turidir. Bu tipik despotik tuzum yoki shunday siyosat turi bo‘lib, zamonaviy siyosat ilmida avtoritar va totalitar boshqaruv tizimlariga xosdir. Shu sababli ham Kul tigin bitigida “shirin so‘ziga, nafis ipagiga aldanib, qo‘p turk xalqi, o‘lding”[5], deyiladi.

Bu Kul tigin bitigida eng ko‘p ishlatilgan so‘z “jang”, “dushman” so‘zlari bo‘lib, ko‘proq jangnoma xarakteriga xosdir. Shuningdek, bu toshdagi bitigda ayrim donishmandlikka oid fikrlar ham keltirib o‘tilgan: “Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o‘ladigan qilib yaratilgan”[6]. Kul tigin bitigining so‘ngida Kul tiginning jiyani Yo‘llug‘ tigin aytadi: “Vafot etdingiz. Tangri yashatuvchidir”[7]. Bu bilan o‘sha davr turkiy xalqlarining e’tiqodiga oid masala ayonlashganki, rus etnograf olimi L.N.Gumilyov “Qadimgi turkiylar”, “Etnogeniz va yer biosferasi” kabi asarlarida Ko‘k Tangri haqidagi yakkaxudolik e’tiqodi bu qadimgi turkiy xalqlarda mavjud bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tgan.

Umuman olganda, Kul tigin bitigini bir yodnoma tarzidagi asar tarzida mutolaa qilish va tarixning eng chuqur sahifalaridan ma’lum daraklarni ko‘rish mumkin, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 22-bet.

2. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT –

UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 23-bet.
3. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 23-bet.
4. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 23-bet.
5. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 23-bet.
6. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 29-bet.
7. **QADIMIY HIKMATLAR**. QISSALAR. URXUN BITIGLARI. “IRQ BITIGI” (“TA’BIRNOMA”). MAHMUD QOShG‘ARIY “DEVONU LUG‘ATIT TURK” (ShE’RIY PARChALAR). YuSUV XOS XOJIB. “QUTADG‘U BILIG”. AHMAD YuGNAKIY. “HIBBAT – UL – HAQOYIQ” (“HAQIQATLAR SOVG‘ASI”). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1987. 30-bet.

RAQAMLI DAVR SHAROITIDA INSON QADRI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli davr sharoitida inson qadri va uning ijtimoiy ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi insonning jamiyatdagi o‘rni, qadri va roliga yangicha yondashuvni talab etayotgani asoslab berildi. Tadqiqotda inson qadri tushunchasining mazmuni, uning ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqildi. Shuningdek, raqamli muhitda inson manfaatlarini himoya qilish, uning ijtimoiy faolligi va ma’naviy barkamolligini ta’minlash masalalari yoritildi.

Kalit so‘zlar: raqamli davr, inson qadri, ijtimoiy ahamiyat, sun’iy intellekt, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me’yorlar

XXI asrda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga tub o‘zgarishlar olib kirdi. Raqamli muhit inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy jarayonlar va madaniy qadriyatlar tizimini yangicha shakllantirmoqda. Bunday sharoitda inson qadri masalasi alohida dolzarblik kasb etib, uning mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli davrda inson nafaqat texnologiyalar iste’molchisi, balki ularni yaratuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois, inson qadri faqat an’anaviy ma’naviy-axloqiy mezonlar bilan emas, balki uning bilim darajasi, raqamli savodxonligi, ijtimoiy faolligi va innovatsion fikrlash qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. Bu esa insonning jamiyatdagi o‘rni va rolini kengaytirib, uni barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylantiradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda inson qadri bilan bog‘liq yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ijtimoiy tengsizlik va insoniy qadriyatlarning texnologik jarayonlar ta’sirida zaiflashishi kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu holatlar inson qadri va uning ijtimoiy ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Mazkur maqolada raqamli davr sharoitida inson qadri tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson qadri tushunchasini yangicha talqin qilish, uni raqamli jamiyat sharoitida saqlash va rivojlantirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Raqamli davr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli tizimlar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon insonning jamiyatdagi o‘rni, qadri va roliga yangicha yondashuvni shakllantirmoqda. Inson qadri tushunchasi tarixan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy mezonlar asosida shakllangan bo‘lsa, raqamli davrda u yangi mazmun bilan boyimoqda va murakkablashmoqda.

Nazariy jihatdan inson qadri - bu shaxsning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy foydaliligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari, intellektual salohiyati va ijtimoiy munosabatlardagi faol ishtiroki bilan belgilanadigan kompleks tushunchadir. Raqamli muhitda esa bu tushuncha yangi komponentlar bilan to‘ldiriladi, jumladan, raqamli savodxonlik, axborot madaniyati, innovatsion fikrlash va texnologiyalardan ongli foydalanish qobiliyati bilan bog‘lanadi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalar inson qadri va texnologik taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni alohida ta’kidlaydi. Bir tomondan, texnologiyalar inson imkoniyatlarini kengaytiradi, uning bilim olish, muloqot qilish va ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatlarini oshiradi. Ikkinchi tomondan esa, haddan tashqari texnologiyalashuv insonning ijtimoiy aloqalari, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, nazariy yondashuvlarda inson qadri texnologik jarayonlardan ustun qo‘yilishi va ularni boshqaruvchi mezon sifatida qaralishi zarur.

Raqamli davrda inson qadri masalasini o‘rganishda bir necha asosiy nazariy yondashuvlar ajratiladi. Birinchisi - gumanistik yondashuv bo‘lib, unda inson eng oliy qadriyat sifatida qaraladi va barcha texnologik jarayonlar uning manfaatlariga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlanadi. Ikkinchisi - ijtimoiy konstruktiv yondashuv

bo‘lib, unda inson qadri jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va kommunikatsiya jarayonlari orqali shakllanishi ko‘rib chiqiladi. Uchinchi yondashuv esa texnokratik qarashlar bo‘lib, unda inson qadri uning texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati va samaradorligi bilan bog‘lanadi. Shuningdek, raqamli davrda inson qadri tushunchasi axloqiy va huquqiy jihatlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli tengsizlikni kamaytirish va sun’iy intellektdan foydalanishda etik me’yorlarga amal qilish inson qadriyatlarini saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Raqamli muhit insonning ijtimoiylashuv jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar, virtual kommunikatsiya va raqamli platformalar orqali insonning muloqot qilish usullari o‘zgaradi, bu esa uning ijtimoiy qadriyatlari va identifikatsiyasiga ta’sir etadi. Shu sababli, nazariy jihatdan inson qadri tushunchasi faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki uning raqamli muhitdagi faoliyati, ijtimoiy roli va kommunikativ imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, raqamli davrda inson qadri masalasi iqtisodiy omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali, bilim va innovatsion salohiyat asosiy resursga aylanadi. Bu esa inson qadri tushunchasini yanada kengaytirib, uni nafaqat ma’naviy va axloqiy, balki iqtisodiy va texnologik jihatlar bilan ham bog‘laydi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli davrda inson qadri va uning ijtimoiy ahamiyati ko‘p qirrali va murakkab tushuncha bo‘lib, u ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillar uyg‘unligida shakllanadi. Shu bois, zamonaviy jamiyatda inson qadri tushunchasini chuqur o‘rganish, uni himoya qilish va rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur.

Nazariy jihatdan inson qadri raqamli davrda jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni bo‘lib, u texnologik rivojlanish jarayonlarini inson manfaatlariga yo‘naltirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Inson qadriyatlarini ustuvor qo‘ygan holda olib borilgan siyosat va ijtimoiy strategiyalar barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va madaniy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli davr sharoitida inson qadri jamiyat taraqqiyotining markaziy omiliga aylanib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologik taraqqiyot qanchalik tez rivojlanmasin, inson omili va uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari har qanday ijtimoiy tizimning asosiy tayanchi bo‘lib qoladi. Inson qadri nafaqat uning bilim va ko‘nikmalari, balki axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati va jamiyatdagi faolligi bilan belgilanadi.

Raqamli muhit inson hayotini yengillashtirishi bilan birga, uning qadriyat tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, zamonaviy jamiyatda inson qadri tushunchasini saqlash va rivojlantirish uchun ma’naviy tarbiya, axloqiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan sharoitda inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ustuvor vazifaga aylanadi. Shuningdek, inson qadri va uning ijtimoiy ahamiyatini ta’minlash uchun raqamli savodxonlikni oshirish, axborot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni

ta’minlash zarur. Bu orqali jamiyatda barqaror rivojlanish, ijtimoiy uyg‘unlik va innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli davrda inson qadri texnologik taraqqiyotdan ustun turuvchi va uni boshqaruvchi asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. Insonni qadrlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali raqamli jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 22–55.
2. Toffler A. Uchinchi to‘lqin. – Toshkent, 2019. – B. 60–85.
3. Castells M. Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. – Toshkent, 2018. – B. 33–70.
4. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. – Oxford, 2014. – B. 10–45.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva, 2016. – B. 25–60.
6. Qodirov O. Raqamli jamiyat va inson qadri. – Toshkent, 2022. – B. 18–36.
7. Ahmedov T. Ijtimoiy falsafa asoslari. – Samarqand, 2017. – B. 40–75.
8. Rustamov B. Axborot texnologiyalari va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. – B. 27–49.
9. Sobirov R. Raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish. – Toshkent, 2023. – B. 12–30.

JAMIYAT RIVOJI VA MA’NAVIY-RUHIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH MASALALARI

Jumaeva Dildora Junaytovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil islanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat rivoji va ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirishning zamonaviy masalalari tahlil qilindi. Tadqiqotda ma’naviy-ruhiy muhitning jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va yoshlar tarbiyasidagi roli ko‘rsatildi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar, milliy an’analar va madaniy merosni mustahkamlash orqali jamiyatning ma’naviy salomatligini ta’minlash imkoniyatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: jamiyat rivoji, ma’naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy barqarorlik, axloqiy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, madaniy uyg‘unlik.

Jamiyatning barqaror rivoji va farovonligi nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillarga, balki uning ma’naviy-ruhiy muhitiga bevosita bog‘liqdir. Ma’naviy-ruhiy muhit jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, madaniy an’ana va normativlar, shuningdek, ijtimoiy uyg‘unlik va hamkorlik tizimlarining yig‘indisi sifatida, shaxslararo

munosabatlarni shakllantiradi va umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy o‘sish va texnologik taraqqiyot bilan birga ma’naviy-ruhiy muhitning holati ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning pasayishi, etika me’yorlarining susayishi yoki ijtimoiy birdamlikning zaiflashishi jamiyatning rivojlanish sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolada jamiyat rivoji va uning ma’naviy-ruhiy salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, yoshlar tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ma’naviy-ruhiy muhitni rivojlantirish va sog‘lomlashtirishning zamonaviy usullari, madaniy meros va milliy qadriyatlarni qo‘llash strategiyalari yoritiladi. Ushbu tadqiqot nafaqat nazariy asoslarni shakllantirish, balki amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali jamiyatning barqaror rivoji va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jamiyat rivoji va uning barqarorligi nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillarga, balki ma’naviy-ruhiy muhitning holatiga ham bevosita bog‘liqdir. Ma’naviy-ruhiy muhit - bu jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, madaniy an’ana va normativlar, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot va hamkorlik tizimlarining yig‘indisi bo‘lib, uning sog‘lomligi butun jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy-ruhiy muhitning salbiy holatlari, masalan, axloqiy qadriyatlarning pasayishi, jamiyatdagi adolatsizlik, nizolar va ijtimoiy beqarorlik, yosh avlodning ma’naviy barkamolligiga zarar yetkazadi, jamiyatda ishonch va birdamlikni kamaytiradi. Shu bois jamiyat rivojini ta’minlashda ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish birinchi darajali vazifa sifatida qaraladi.

Nazariy tahlillarga ko‘ra, ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish jarayoni bir necha asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchidan, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va milliy madaniy merosni yoshlar ongiga singdirish muhimdir. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy axloqiy me’yorlar jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi omil bo‘lib, ularni ijtimoiy mas’uliyat, birdamlik va adolat ruhida shakllantiradi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi madaniy va ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, ta’lim va tarbiya tizimlarida integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Bu jarayonda interaktiv pedagogik metodlar, ijtimoiy loyihalar, axloqiy va madaniy treninglar, shuningdek, yoshlarni turli ijtimoiy faoliyatlarda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish orqali ma’naviy-ruhiy muhitni mustahkamlash mumkin.

Uchinchidan, oilaviy tarbiya va jamiyat ichidagi uzviy integratsiya ham muhim ahamiyatga ega. Oilaning ijtimoiy va ma’naviy rolini kuchaytirish, ota-ona va bola o‘rtasidagi axloqiy va madaniy muloqotni rivojlantirish orqali yoshlar o‘z hayotida mas’uliyatli va etik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar va madaniy markazlar bilan hamkorlik esa ushbu jarayonni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ma’naviy-ruhiy muhitning sog‘lomligini raqamli va axborot texnologiyalari bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Internet,

ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, raqamli muhitda axborot resurslarini tanqidiy baholash, axloqiy normativlarga rioya qilish va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat rivoji va barqarorligini ta’minlashda ma’naviy-ruhiy muhitning sog‘lomligi strategik omil hisoblanadi. Sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit nafaqat ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki yoshlarning shaxsiy barkamolligini oshiradi, jamiyatdagi adolat, birdamlik va madaniy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Shu orqali mamlakatning butun ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, jamiyat rivoji va uning farovonligi bevosita ma’naviy-ruhiy muhitning sog‘lomligi bilan bog‘liqdir. Ma’naviy-ruhiy muhitning barqarorligi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi va milliy an’ana hamda madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit jamiyatdagi ijtimoiy adolat, hamkorlik va mehnatsevarlikni rivojlantiradi, natijada shaxsiy va jamoaviy farovonlik oshadi.

Zamonaviy sharoitlarda jamiyat rivoji uchun kompleks yondashuv talab qilinadi: ta’lim tizimida innovatsion va interaktiv metodlarni joriy etish, yoshlar tarbiyasida ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilaviy va ijtimoiy muhitni uyg‘unlashtirish orqali ma’naviy-ruhiy salomatlikni oshirish zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish strategiyalari jamiyat barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va yoshlar faolligini rag‘batlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Jamiyat rivoji va ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish masalalari bir-birini to‘ldiruvchi va uzviy bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ular orqali ijtimoiy barqarorlik va umumiy farovonlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmirzaev B. Ma’naviy-ruhiy muhit va ijtimoiy barqarorlik. – Samarqand, 2019. – B. 35.
2. Rustamova M. Jamiyat rivoji va ma’naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2020. – B. 28.
3. Tursunov S. Ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va ma’naviy tarbiya. – Buxoro, 2017. – B. 50.
4. Karimova D. Yoshlar va ma’naviy muhit: zamonaviy muammolar va yechimlar. – Toshkent, 2021. – B. 31.
5. Qodirov R. Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va ularning barqaror rivojga ta’siri. – Samarqand, 2019. – B. 37.
6. Yusupov F. Ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish strategiyalari. – Toshkent, 2020. – B. 44.
7. Abdullayeva H. Jamiyat va ma’naviy rivojlanish: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent, 2018. – B. 29.

MILLATCHILIKNING BARQAROR TARAQIYOTGA DESTRUKTIV TA`SIRI

Kabulov Jahongir Baxodirovich
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatchilikning barqaror taraqqiyotga salbiy va destruktiv ta’siri tahlil qilindi. Millatchilik ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirishi, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni buzishi, milliy va global darajadagi hamkorlikni cheklashi mumkinligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari millatchilikning taraqqiyotga bo‘lgan xavfini aniqlash va uni oldini olish uchun strategik choralarni ishlab chiqish zaruratini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: millatchilik, barqaror taraqqiyot, ijtimoiy birdamlik, siyosiy barqarorlik, destruktiv ta’sir, strategik chora.

Millatchilik zamonaviy jamiyatlar va davlatlar barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan dolzarb muammolardan biridir. U ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirishi, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni buzishi, milliy va global hamkorlikni cheklashi mumkinligi bilan ajralib turadi. Millatchilikning destruktiv ta’siri nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ma’naviy va siyosiy tizimlar barqarorligiga ham xavf soladi. Shu sababli, jamiyatlarda millatchilikning taraqqiyotga bo‘lgan salbiy ta’sirini aniqlash, tushunish va uni oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligida etnik separatizm asosida yuzaga kelgan qurolli mojarolar soni keskin ko‘payganligi sababli, tadqiqotchilar bunday mojaro tomonlarini qanday qilib tinch-totuv yashashga qaytarish mumkinligi haqida munozara olib bormoqdalar. Olimlar ko‘plab mumkin bo‘lgan yechimlarni, jumladan, etnik guruhlar tomonidan hokimiyatning bo‘linishi, isyonkor etnohududlarning reintegratsiyasi, polietnik davlatlarni saqlab qolish uchun BMT aralashuvi, mintaqaviy avtonomiya yoki davlatni federallashtirishni ilgari surmoqdalar. Biroq, bugungi kunda ushbu yondashuvlarning qaysi biri (yoki ularning uyg‘unligi) nizolarni etnik separatizm asosida hal qilish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi mumkinligi to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas.

Albatta, yuqorida tavsiflangan barcha yondashuvlar universallikka da’vo qilmaydi, bu esa ularni turli vaziyatlarda qo‘llash uchun to‘siq bo‘la olmaydi. Bu yerda shuni aytib o‘tish kerakki, etnik separatizm muammosining keskinligini kamaytirish uchun mumkin bo‘lgan konseptual asoslarni ishlab chiqish muammosi polietnik davlatning yaxlitligini saqlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Ayrim G‘arb tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, mojaroni to‘xtatish bo‘yicha eng yaxshi siyosat - o‘z hududida etnik separatizm o‘chog‘iga ega bo‘lgan ko‘p millatli davlatni federativ asosda multikulturalizm konsepsiyasi doirasida reintegratsiya qilishdir. Bunday yondashuv kelgusida mavjud polietnik davlat negizida fuqarolik identifikatsiyasini qurish va bir vaqtning o‘zida etnik identifikatsiya ta’sirini kamaytirish jarayonini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, bunday usul, garchi demokratik institutlarning

barcha resurslarini ishga solish va keyingi harbiy qarama-qarshilikning oldini olish imkonini berishi tufayli eng maqbul bo‘lsa-da, juda uzoq muddatga mo‘ljallangan, chunki fuqarolik millatini yaratish ko‘pchilik polietnik mamlakatlar uchun juda uzoq istiqbol hisoblanadi.

Bundan tashqari, etnik separatizm asosida nizolarni hal qilishda alohida e’tibor qaratishni talab qiladigan yana bir omil mavjud. Bunday nizolar ko‘pincha o‘z siyosiy maqsadlariga erishish uchun ziddiyatlarni kuchaytirishga intilayotgan shuhratparast siyosiy elitalarning murosasizligi tufayli qurolli qarama-qarshilikka olib kelishi sababli, elitalar o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish birinchi o‘ringa chiqadi. Bu borada davlatning aholi ko‘z o‘ngida separatizm harakatlarining eng radikal yetakchilarini obro‘sizlantirishga va mo‘tadil pozitsiyada turgan siyosatchilarni himoya qilishga olib keladigan harakatlari ehtimoldan xoli emas. Albatta, bunday yondashuv puxta ishlab chiqishni talab qiladi, aks holda, axborot-targ‘ibot yoki harbiy-siyosiy xarakterdagi puxta o‘ylanmagan harakatlar natijasida separatistlar yetakchilarining aholi o‘rtasidagi ahamiyati va obro‘si sezilarli darajada oshishi mumkin. Ta’kidlash joizki, aksariyat g‘arb tadqiqotchilari, hozirgi bosqichda o‘z taqdirini o‘zi belgilash g‘oyalari yetarlicha ommabop bo‘lishiga qaramay, davlatning bo‘linishi yoki uning etnohududlarining yagona siyosiy makondan chiqishi kabi setsessiya talablariga asoslangan etnosiyosiy inqirozdan chiqish tavsiyasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. R.Sheffer ta’kidlaganidek, «bo‘linish bo‘lingan davlatlar ichida va ular o‘rtasida o‘zaro urushlarga olib keladi (o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligida bunga ko‘plab misollar mavjud-Yugoslaviya, Efiopiya va Eritreya, Checheniston) va dunyoning yetakchi davlatlarini mintaqaviy mojarolarga aralashishga majbur qiladi. Bo‘linish nafaqat reintegratsiyaga urinishning muvaffaqiyatsizligi, balki uning o‘zi uzoq davom etadigan muammoga aylanadi. Ba’zi mamlakatlar etnik jihatdan bo‘linganiga o‘nlab yillar o‘tdi, ammo ular o‘rtasidagi mojarolar ko‘lami faqat kengaydi.»[104] Shunday qilib, davlatning bo‘linishi va separatchilar talablarini qondirish nafaqat yangi harbiy to‘qnashuvlar va aholining majburiy ko‘chishiga olib keladi, balki o‘sha makonda yangi nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytkanda Hozirgi bosqichda ko‘p millatli davlatning etnik guruhlaridan birining chiqish va o‘z davlat tuzilmasini yaratish to‘g‘risidagi talabiga asoslangan mojarolar separatistik mintaqaga iloji boricha ko‘proq siyosiy, iqtisodiy va madaniy avtonomiya berish orqali muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin, degan nuqtai nazar tobora keng tarqalmoqda. Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, etnik guruhlar, davlatlar singari, birinchi navbatda, o‘zlarining xavfsizligi va yagona davlatda omon qolish muammolari haqida qayg‘uradilar. Bunday munosabat qo‘rquvni keltirib chiqaradi, bu esa, o‘z navbatida, mojaroda potentsial raqib bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa guruhlarning (ko‘pincha yagona davlatda ustunlik qiladigan) millatchilik ritorikasi bilan kuchayadi. Agar bunday sharoitda ish qurolli mojarogacha borib yetsa, uni to‘xtatish, odatda, ko‘plab yondosh sub’ektiv omillar tufayli juda qiyin kechadi. Masalan, qurolli to‘qnashuvda tinch aholi orasida yuzaga keladigan muqarrar qurbonlar to‘qnashuvning barcha tomonlari tomonidan juda og‘riqli qabul qilinadi va ularning bir-biriga salbiy munosabatini kuchaytiradi.

Millatchilik barqaror taraqqiyotga jiddiy destruktiv ta’sir ko‘rsatadi. U ijtimoiy birdamlikni zaiflashtiradi, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni buzadi hamda milliy va global hamkorlikni cheklaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, millatchilikning salbiy ta’sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, jamiyatlarda milliy bag‘rikenglik, madaniy hamjihatlik va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash millatchilikning zararli ta’sirini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Миллер А.И. Национализм как теоретическая проблема (Ориентация в новой исследовательской парадигме) // Полис. 1995. №6 - С. 55-61.
2. Миллер А.И. О дискурсивной природе национализма // Pro et Contra. 1997. Т.2. №4.-С. 145-162.
3. Миллер А.И. Национализм и формирование наций. Теоретические исследования 80-90-х годов // Политическая наука. 1999. - № 1. - С. 5-18.
4. Karimov T. *Millatchilik va zamonaviy jamiyat: barqaror rivojlanish tahdidlari*. – Toshkent, 2019. – B. 42.
5. Rahmonov S. *Ijtimoiy birdamlik va millatchilikning destruktiv ta’siri*. – Samarqand, 2018. – B. 57.
6. Akbarov N. *Siyosiy barqarorlik va millatchilik: nazariy va amaliy jihatlar*. – Toshkent, 2020. – B. 63.
7. Abdullayeva M. *Global hamkorlik va millatchilik: iqtisodiy va ijtimoiy xavflar*. – Buxoro, 2017. – B. 35.
8. Tursunov R. *Barqaror taraqqiyot va millatchilik: strategik choralar*. – Toshkent, 2021. – B. 48.
9. Islomov A. *Millatchilikning ijtimoiy va siyosiy oqibatlari*. – Qarshi, 2016. – B. 54.
10. Zokirov F. *Millatchilik va ma’naviy-axloqiy muhit: barqarorlikni ta’minlash yo‘llari*. – Toshkent, 2018. – B. 39.

AVLONIY MA’NAVIY MEROSIDA MA’RIFATLI JAMIYAT YARATISHGA OID IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALARI

Muxammedov Shavkat Majidovich
Buxoro davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniy ma’naviy merosida ma’rifatli jamiyat yaratishga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlar yoritiladi. Unda jadid ma’rifatparvarlarining jamiyat taraqqiyotida ilm-ma’rifatning o‘rni haqidagi g‘oyalari, ta’lim tizimini isloh qilish va yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Avloniy asarlarida aks etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda ma’rifatning jamiyat rivojidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada mutafakkirning pedagogik va

ijtimoiy-falsafiy qarashlarining zamonaviy ta’lim tizimi va ma’naviy taraqqiyot jarayonidagi dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, jadidchilik, ma’rifat, ma’rifatli jamiyat, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ta’lim, milliy uyg‘onish, ma’naviy meros.

